3. <https://link.springer.com/book/10.1007/978-3-642-78508-5>
4. <https://articlekz.com/en/article/34600>
5. <https://financeninsurance.com/digital-economy/>
6. https://itgip.org/wp-content/uploads/2018/08/%D0%9C%D0%9C%D0%95_3_4_2017-%D1%84%D1%96%D0%BD%D0%B0%D0%BB-1.pdf
7. https://en.wikipedia.org/wiki/Mathematical_economics


СФЕРА ЮЗИНИ ҲИСОБЛАШНИНГ БИР УСУЛИ ҲАҚИДА

Усмонов Хасанбой
Қўқон университети талабаси,
Тоштемиров Баходиржон
Қўқон университети "Рақамли технологиялар
ва математика" кафедраси в.б. доценти

Анотатция: Маълумки, сфера юзасини ҳисоблашнинг шу кунгача жуда кўплаб усуллари топилган. Ушбу тезисда мен шу каби ишлардан бири бўлиб, унда интеграл ҳисоблашларни қўлламаган ҳолда натижага эришилган. Натижалар теорема шаклида келтирилган ва исботланган.

Калит созлари: Сфера юзи, учбурчак ўхшашлиги, теорема исботи.

1-теорема. a тўғри чизиқни бирор ўқ атрофида айлантирилганда ҳосил бўлган соха юзаси шу тўғри чизиқни ўқдаги проекцияси узунлигини радиуси ўқдан тўғри чизиқ ўртасига туширилган перпендикуляр узунлигига тенг айлананинг узунлигига кўпайтмасига тенг.



Исбот: x ўқ ва AB кесма берилган. M нуқта AB кесманинг ўртаси, CD эса AB кесманинг x ўқдаги проекцияси, MO кесма x га перпендикуляр, MR ҳам AB га перпендикуляр, S эса AB кесманинг x ўқ атрофида айланишидан ҳосил соха юзаси $S = CD \cdot 2\pi MR$ эканлигини исботлаймиз.

1) AB кесмани x ўқга параллел бўлган холи:

$CD = AB$, $MR = MO$ ва S тўғри цилиндрнинг ён сирти бўлади $S = MO \cdot 2\pi \cdot MO$

2) AB кесма x га параллел бўлмаган хол (x ни кесмайди): S соха кесик конус ён сирти бўлсин. x га параллел AE ни ўтказамиз. $\triangle AEB$ учбурчак $\triangle MOR$ га ўхшашдир. У ҳолда $MO : AE = MR : AB$ бўлади ёки $AB \cdot MO = AE \cdot MR$ ёки $AB \cdot MO = CD \cdot MR$ ўринли. 1-теоремага кўра кесик конус ён сирти $S = CD \cdot 2\pi \cdot MR$ га тенг бўлади. Бунинг тўғри эканлигин кесик конуснинг ён сирти учун тўғри $S = \pi(R + r)l$ формула билан таққослаш кифоядир.


3) Агар A нуқта x да ётса, у ҳолда $AE = CD = AD$ бўлади. Теоремага асосан конус ён сирти $S = CD \cdot 2\pi MR$ бўлади. Чунки, $\triangle ABD$ ўхшаш $\triangle MOR$ га $\frac{AB}{MR} = \frac{AD}{MO}$

тенглик ўринли ёки $AD \cdot MR = MO \cdot AB$. Бунда MO кесма $\triangle ABD$ учбурчак учун ўрта чизиқ эканлигидан $S = CD \cdot 2\pi MR$ келиб чиқади. Бу эса 1-теорема билан мос тушади. 1-теорема исбот бўлди.

2-теорема. Сфера сиртининг юзаси унинг диаметрини ундаги катта айлана узунлигига кўпайтмасига тенг $S = 2\pi R d$.

Исбот. Фараз қилайлик бизга $ABCDE$ ярим айланани унинг AE диаметри атрофида айлантирилишидан ҳосил бўлган сфера берилган бўлсин. Бунда S – сферанинг юзаси, R – сфера радиуси, d – сфера диаметри $S = 2\pi R d$ эканини исботлаймиз.

Ярим айланага $ABCDE$ мунтазам кўпбурчак ички чизайлик. Сўнгра, O марказидан AB , BC , CD , DE ватарларга перпендикуляр туширамиз. Буперпендикулярлар ватарларни тенг иккига бўлади. Хар бир перпендикулярлар узунлигини l дейлик.



AE га B , C ва D нуқталардан перпендикулярлар туширамиз. Кейин AB ни AE ўқ атрофида айланишидан ҳосил бўлган соха юзаси 1-теоремага асосан

$$AB = AB' \cdot 2\pi l$$

Худди шунингдек, $BC = BC' \cdot 2\pi l$ ва шу жараёни қолган кесмалар учун давом эттирсак,

$ABCDE$ кўбурчак юзаси

$S' = AE \cdot 2\pi l = 2\pi l d$ эканлигига ишонч ҳосил қиламиз. Агар кўпбурчак бурчаклари сони чексиз кўп деб ҳисобласак, яъни $l \rightarrow R$ бўлса, у ҳолда $S' \rightarrow S$ эканлиги келиб чиқади. Бундан эса $S = 2\pi R d$ бўлади. 2-теорема исбот бўлди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. John Casey, ESQ., LL.D., F.R.S., Fellow of the Royal university of Ireland. Treatise on spherical trigonometry and its application to Geodesy and Astronomy with numerous example. LONDON: LONGMANS, GREEN & CO. 1889.
2. <https://byjus.com/maths/surface-area-of-a-sphere/>
3. https://www.varsitytutors.com/hotmath/hotmath_help/topics/surface-area-of-a-sphere
4. <https://math.hmc.edu/funfacts/surface-area-of-a-sphere/>

ОБУЧЕНИЕ ХИМИИ С ПРИМЕНЕНИЕМ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Исроилова Ж.С.
3 курс, ТГПУ имени Низами,
Алимова Ф.А.
д.п.н., доцент ТГПУ имени Низами

Аннотация. В данной статье освещена сущность мультимедийной технологии при обучении химии. Рассмотрены особенности использования мультимедийных технологий на уроках химии, на примере видеоскрайбов.

Ключевые слова: химия, методика преподавания, мультимедийная технология, ИКТ, виртуальный эксперимент, мультимедиа, видеоскрайб.

В последние годы снижается интерес школьников к изучению естественных наук, в том числе к химии. Использование мультимедийных технологий на уроках химии повышает познавательную активность обучающихся и улучшает качество образования.

При изучении химии применяются разные формы мультимедии, ведь их применение, активизирует поисковую, исследовательскую деятельность школьников, формирует учебную мотивацию и ключевые компетенции обучающихся. Их возможно использовать на разных этапах процесса обучения:

- при изучении нового материала;
- при закреплении изученного материала;
- для контроля знаний;
- с целью организации лабораторной или практической работы виртуально.

Одним из вариантов использования информационных технологий являются видеоскрайбы. Применение скрайбинга при изучении химии в школе вызывает у обучающихся интерес к предмету, повышает познавательную активность, побуждает к творческой деятельности. В скрайбинге задействуются одновременно слух, зрение и воображение обучающихся, что способствует запоминанию. Поэтому ученики быстрее и активнее включаются в процесс. Скрайбы действуют как на логику, так и на эмоции обучающихся, поэтому информация «пропускается через себя» и запоминается легко, быстро и надолго.

Первым использовать скрайбинг в школе стал американский преподаватель Пол Богуш. У скрайба есть принципиальное отличие – он ближе к мультипликации, комиксу, нежели схеме. Функция скрайба – «эффектно» подать информацию, сделав ее привлекательной, помочь лучше ее запомнить и усвоить, вовлекая в обработку данных сразу два анализатора – зрение и слух

Преимущества скрайбинга в процессе обучения химии:

1. Эффективность – за короткий промежуток времени можно доступно и качественно объяснить материал, донести идею.
2. Универсальность. Скрайбинг можно использовать на любом уроке химии и по любой теме.

3. Вариативность. Готовый скрайб – это прекрасное наглядное пособие, которое можно использовать так, как этого требует ситуация – можно попросить учащихся прокомментировать просмотренный скрайб, ответить на вопросы, найти в нем ошибку, обсудить увиденное.

4. Усиление памяти. Визуальное подкрепление промежуточных и финальных результатов обеспечивает лучшее запоминание.

Например, разработанный скрайбинг для обучения темы «Электролитическая диссоциация» можно представить следующим образом, рис.1.




Рис. 1. Фрагмент видеоскрайба

Использование разработанных видеоскрайбов отлично подойдёт для иллюстрирования к рассказам учителя. Использование их изобразительных средств значительно расширяет возможности обучения, делает содержание учебного материала более простым, понятным, наглядным, интересным. Все это не только повышают внимание обучающихся, но и увеличивают объём предлагаемой информации.

Использованная литература:

1. Алимова Ф. А. Роль учебных платформ в очном и дистанционном образовательном процессе //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 140-143.
2. Алимова Ф. А. Современные технологии при обучении химии. Учебник //Ташкент: Идтисодиёт дунёси. – 2020. – С. 307.

**UMUMTA'LIM MAKTABLARI GEOGRAFIYA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING
GEOEKOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

Abdullayeva Dilnoza Narzullayevna
Nizomiy nomidagi TDPU,
"Geografiya va uni o'qitish metodikasi"
kafedrası dotsenti v/b., p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik va geoeologik madaniyatni rivojlantirish bo'yicha olimlarning fikr-mulohazalari, respublikamizda geoeologik madaniyatni shakllantirish muammolari, ularning echimi, geoeologik madaniyatni shakllantirishda maktab geografiya ta'limining o'рни, unda geografik-ekologik bilimlarni shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ekologik ta'lim, ekologik madaniyat, geoeologiya, geoeologik madaniyatni shakllantirish, ekologik ong, atrof-muhit, ekologizatsiya, geografik bilimlar.

Yangilanayotgan zamonaviy fan sifatida e'tibor qozonayotgan ekologiyaga o'tish jarayoni prinsipial jihatdan yangi integrativ ilmiy yo'nalishlarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Bu sohaga atrof-muhitga yo'naltirilgan bilim sohalari ham kiradi. Shu ma'noda geografik bilimlar va ekologik gumanistik g'oyalarga asoslangan barqaror rivojlanish nazariyasi sintezi natijasida vujudga kelgan geoeologiyaning shakllanishi muhim ahamiyatga ega. Chunki hozirgi vaqtda jamiyat va tabiat o'rtasidagi mavjud qarama-qarshiliklar, qator ekologik va geografik muammolarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Ushbu muammolarning paydo bo'lishi, tabiiy-geografik fanlar uchun integrativ, fanlararo ahamiyatga ega bo'lgan geografik va ekologik madaniyatni yanada chuqurroq o'rganish zarurligi yangicha ahamiyat kasb etmoqda. Qolaversa, bugungi kunda, insonning tabiatga kirib kelishining salbiy oqibatlarini oldini olish uchun, oqibat ekologik va geografik muammolarga olib keladigan bir qator ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, pedagogik, iqtisodiy masalalar echimini topish taqozo etilmoqda. Shu bilan birga, ta'lim yangi madaniyat – barqaror rivojlanish madaniyatini shakllantirishning asosiy ijtimoiy instituti bo'lib qolmoqda. Ushbu kontekstda ta'lim tizimi barqaror rivojlanishga o'tishda yetakchi rol o'ynashga mo'ljallangan inson faoliyatining strategik muhim, asosiy sohasi sifatida belgilanmoqda.

Ilmiy doiralarda ekologik ta'lim va ekologik madaniyatni shakllantirish masalasiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar xorijiy olimlar hamda O'zbekiston olimlari tomonidan ham olib borilgan [1,2]. Biroq, geoeologik madaniyatni shakllantirishga doir amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu muammoga ilmiy tavsif berish darajasi yetarli emasligini ta'kidlash lozim.

O'zbekistonda ekologik madaniyat muammolarini o'rganishda ko'proq ijtimoiy-falsafiy yo'nalishdagi tadqiqotlar olib borilgan. Ulardagi talqinga ko'ra, ekologik madaniyat – hozirgi va kelajak avlodlar uchun ekologik muammolar echimini topish va ulkan mas'uliyat ekanligini anglash va shu asosda faoliyat yuritish muayyan davlat va jahon madaniyatining rivojlangan bosqichi hamda tarkibiy qismi [3] hisoblanadi.

Shaxsning ekologik madaniyatini shakllantirish muammosini yaxlit talqining B.Lixachev asarlaridagi mazmuni alohida e'tiborga sazovor. Olim ekologiyani "inson va tabiat o'rtasidagi

munosabatlarning uyg'unligi" fani, ekologik madaniyatni esa ushbu munosabatlarni belgilaydigan shaxsning "yangi madaniyat shakllanishi" deb ta'riflaydi. U shaxsning ekologik madaniyatining mohiyatini "ekologik rivojlangan ong, hissiy-ruhiy holatlar va ilmiy asoslangan utilitar-amaliy faoliyatning organik birligi" deb biladi.

Ekologik ongga asosiy toifalar, tushunchalar, kalit so'zlar, maxsus va o'ziga xos ekologik bilimlar, ekologik fikrlash kiradi, uning asosida tabiatga puxta o'ylangan aralashuv, atrof-dagi dunyoni ekologik va estetik idrok etish mumkin. Ekologik hissiy va ruhiy holatlar sof intuitiv tuyg'u va hissiyotga ya'ni "ekologik tuyg'u insonning tabiat bilan ongli ravishda uning uyg'unligi va yaxlitligiga, rahm-shafqat tajribasiga, og'riqqa, go'zallikni yo'q qilish va ifloslanishi orqali undagi uyg'unlikni yo'q qilish azobiga asoslanadi".

Maktab ta'limida ekologik madaniyatni shakllantirishning umumiy muammolarini to'liq aks ettiruvchi bir qator tadqiqotlar mavjud. Jumladan, O.Ponomarevaning "O'rta maktabda ekologiyani o'qitishning uslubiy tizimi" nomli doktorlik tadqiqotida "Ekologiya" fanini maktab ekologik ta'limida asosiy fan sifatida ishlab chiqish va amalga oshirishning konseptual asoslari ochib berilgan. Maktab ekologik ta'limining nazariy, uslubiy va ilmiy - uslubiy asoslarini yortishi maktab o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish sharoitida ekologiyani o'qitish metodikasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi.

I.Shvesning "Tabiiy fanlar ta'limini ekologizatsiya qilish nazariyasi va metodikasi" nomli doktorlik dissertatsiyasi maktab tabiiy fanlar fanlarini ekologizatsiya qilishning metodologik va metodik asoslarini aniqlashga katta hissa qo'shgan. Maktab "Tabiatshunoslik" va "Biologiya" fanlarini ekologizatsiya qilish bo'yicha ishlab chiqilgan modellari, maktab o'quvchilarining kognitiv va qadriyat-semantik, faoliyat rivojlanishini tizimli ravishda tashkil etilgan ekologik tarkib va innovatsion ta'lim texnologiyalari tizimida tashkil etilgan shaxsga yo'naltirilgan zamonaviy usullar asosida ta'minlashi asoslangan.

Jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlar sohasida yagona davlat ta'lim strategiyasining mukammal ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Uning asosiy qismi ekologik ta'lim vazifalari va kelajakda kutilayotgan natijalarni yangicha talqin asosida yaratilishi lozim. Hozirgacha yurtimizda muammoning holati, yetarli darajada ilmiy tahlil qilinmagan.

Zamonaviy maktabning eng muhim vazifalaridan biri o'quvchilarda geografik-ekologik bilimlarni shakllantirish, ularni tabiiy resurslardan ekologik jihatdan malakali foydalanish ko'nikmalari bilan qurollantirish, ta'lim sifatini oshirishdir. Ta'lim tizimidagi geografik-ekologik ta'lim uzluksiz va maqsadli jarayon xarakteriga ega bo'lishi kerak, uning maqsadi har bir insonni ekologik savodli qilishdir. Biroq, bu jarayonni geografik bilimlarni o'zlashtirmasdan va geografik madaniyatni singdirmasdan amalga oshirish mumkin emas. Atrof-muhit muammolari tabiatshunoslik siklining barcha o'quv fanlarida, ayniqsa, geografiya, biologiya, kimyo fanlarida chuqur o'rganilishini taqozo etadi.

Maktab geografiya ta'limi ekologik muammolarni uchta darajada o'rganadigan yagona o'quv fanidir: global, mintaqaviy va mahalliy. Bunday yondashuv geografik-ekologik ong, tafakkur va geografik-ekologik madaniyatni tarbiyalashning yaxlit jarayonida muhim tarkibiy qism hisoblanadi.

Geoekologiya – ekologiyaning barcha qonuniyatlarini geografik jarayonlarga qo'yish, deb tavsiflanadi, ya'ni hududiy tamoyil tatbiq etiladi [4]. Yoki landshaft hamda boshqa tabiat komplekslarida ekologik qonuniyatlar va jarayonlarni o'rganadi.

Demak, geoekologiya tushunchasi, bilimning geografik, ekologik va ijtimoiy (geo-eko-ijtimoiy) tizim modelidan foydalanib, fazoviy-vaqt o'lchovida, insonning atrof-muhit bilan ekologik munosabatlarining barcha xilma-xilligi va dialektikasini o'rganadi. Shu nuqtai nazardan, geoekologiya, geografik bilimlarning ekologik yo'naltirilgan sohasi sifatida, barqaror rivojlanish madaniyatini shakllantirishda, o'ziga xos ahamiyatga ega [5].

Demak, geoekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni ma'lum ma'noda geografik va ekologik madaniyatlarni mushtarak rivojlantirib, ularning o'zaro chambarchas bog'liqligidan foydalanib barqaror rivojlanishni ta'minlovchi mustahkam omilni yaratishdir.

Shuning uchun, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ta'limning maqsadlari davlat ta'lim siyosati darajasida shakllantiriladi, vazifalari aniqlanadi, uni amalga oshirishning ilmiy asoslangan vositalari va usullari taklif qilinadi, maktab o'quvchilarining tabiatni muhofaza qilish sohasidagi bilimi va faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan zarur adabiyotlar va o'quv resurslari yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кузнецов, Л.А. Проблемы управления экологическим образованием: / Л.А. Кузнесов. – География и экология в школе XXI века. – 2004. – №9.
2. Лазаревич, Н.А. Биотехнологические проблемы современной социальной экологии: / Н.А. Лазаревич. – Минск: Белорусская наука, 2006.
3. Nigmatov A.I. Ekologiya: asosiy atama va iborlarning izohli lugati. - T., 2002, 15-16 betlar.
4. Дагбаева, Н.Ж. Школное экологическое образование для устойчивого развития местного сообщества: / Н.Ж. Дагбаева. – География и экология в школе XXI века. – 2004. – №7. – с. 36-42.
5. Payne, D. G. (1996) *Voices in the Wilderness: American Nature Writing and Environmental Politics*. Hanover & London: University Press of New England.

**TABIY FANLARNI O'QITISHDA O'QUVCHILARNI ILMIY DUNYOQARASHINI
SHAKLLANTIRISH****Sotvoldiyeva M.M.****Qo'qon Universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi,****Matnazarova K.O.****Qo'qon Universiteti "ta'lim" kafedrası v.b dosenti p.f.f.d PhD)**

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda tabiat to'g'risidagi bilimlarini jonli va jonsiz tabiat, jismlar va hodisalar, o'simlik va hayvonlar, yilning har xil fasllaridagi tabiat o'zgarishidagi tasavvur va tushunchalar hamda o'quvchilarga tabiiy fanlarni ilmiy bilimlar asosida o'qitish haqida so'z yuritiladi. Maqolada asosan o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ekologik madaniyat, ekologik tarbiyaga old bilimlarini rivojlantirish haqida ham fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi, jonli tabiat, jonsiz tabiat, ekologik tarbiya, ekologiya, tabiat, o'simlik, hayvonlar, ta'lim, tarbiya.

Ijtimoiy taraqqiyotning zamonaviy bosqichi uzluksiz ta'lim tizmi oldiga yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashni talab etmoqda. Zamonaviy ta'limda tafakkuri boy, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashni taqazo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni talablari asosida malakali mutaxassis va barkamol shaxsni tarbiyalashda uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bosqichlaridan biri bu boshlang'ich ta'lim hisoblanadi. Mazkur bosqich o'quvchilarni ilmiy bilimlarni puxta va chuqur o'rgatish ularning taffakurini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Respublikamizda boshlang'ich ta'lim mazmunini takomillashtirish, uni ilg'or g'oyalar bilan boyitish, bu davrda o'quvchilarning chuqur bilim olishlariga imkon beruvchi moddiy texnik bazani mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 9-sessiyasida so'zlagan nutqida boshlang'ich ta'limni tashkil etishga nisbatan yangicha munosabatni qaror toptirish, uzluksiz ta'lim tizimining mazkur bosqichiga malakali mutaxassislarni jalb etish zarurligiga urg'u berib quyidagilarni ta'kidlaganlar. "Bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan boshlang'ich sinflarga eng yetuk, eng tajribali murabbiylarni birlashtirish zarurligini oddiy mantiqning o'zi talab etadi". Bugungi kunda o'quvchilarni har tomonlama ilmiy dunyoqarashni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bu vazifani boshlang'ich sinflarda amalga oshirishda tabiatshunoslik fani muhim ro'l o'ynaydi. Tabiatshunoslik fanini o'rganish boshlang'ich sinf o'quvchilarning shaxsiy tajribasini boyitadi, atrofimizdagi jonli va jonsiz tabiatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlar to'g'risida bilimlar to'plashga imkon beradi. Shuning uchun ham pedagogika oliy o'quv yurtlarining talabalari, ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari, tabiatshunoslik fanini o'qitishning ilmiy-nazariy va amaliy yutuqlari bilan yaxshi tanish bo'lishlari kerak.

Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston ta'limining kelajagi" haqida quyidagi fikrlarini bildiradi: "ta'lim sifatini oshirish - Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir".

"Najot ta'limda, najot tarbiyada, najot bilimda. Maktab ta'limini rivojlantirsak, oliy ta'lim ham, ilm ham kelajakda rivojlanadi. Hozir bu masalaga e'tibor qilmasak, nafaqat kechirmaydi, yoshlarimiz sharoit bor joyga ketadi".

Tabiatning inson ongidagi aksi bo'lgan tabiatshunoslik jamiyatning rivojlanishi bilan mukammallashadi.

Tabiatshunoslik fanining maqsadi - tabiat hodisalarining mohiyatini aniqlash, tabiat qonunlarini bilish hamda ulardan amalda foydalanish imkoniyatlarini ochib berish.

Tabiatshunoslik tushunchalarini o'zlashtirishda predmetlararo; nutqni rivojlantirish, o'qish, matematika, ona tili, musiqa, ashulla, mehnat ta'limi, rasm fanlari bilan aloqa o'rnatilishi muhim ahamiyatga ega. Predmetlararo aloqadan tizimli ravishda foydalanish bolalarni ilgari olingan bilimlarni qo'llashiga, o'quv faoliyatlarining barcha turlarida mantiqiy bog'lanish o'rnatishga o'rgatadi. Tabiatshunoslik fanini o'qitish metodikasini yaxshi bilish boshlang'ich sinf o'qituvchisiga bolalarni o'qitishni to'g'ri tashkil qilish imkonini beradi.

Tabiatshunoslik fanining mazmunini ochib berishda xilma xil o'qitish metodlaridan foydalanish va bu fanga turlicha yondashish mumkin. U yoki bu metodni tanlashda o'qituvchi shuni nazarda tutishi kerakki, bu tanlagan metod rivojlantiruvchi ta'limning vazifalarini ta'minlash orqali, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirsin va o'quvchilar tomonidan yangi bilimlarning qanday o'zlashtirilyotganligini tez va aniq ko'rsatib bersa maqsadga muvoffiq bo'ladi.

Shunga ko'ra tabiatshunoslik darslarida amaliy ishlar, suhbatlar, hissiyotni qo'zg'atuvchi hikoyalar, ayniqsa, mustaqil ishlardan ko'proq foydalanish kerak, bunda tadqiqiy yondashish, murakkab bo'lmagan tahlil va sintez, taqqoslash va umumlashtirish, tabiat ishlarining majburiy tarkibiy qismlari bo'lishi lozim.

Tabiiy fanlar o'quvchilarni, insonning tabiatga ta'sirini va tabiat boyliklarini avaylab - asrashni o'rgatadi.

Tabiiy fan tushunchasini samarali o'zlashtirishni ta'minlovchi metod bu tabiatni kuzatish metodi hisoblanadi. Kuzatishlar xulosasiga ko'ra, o'simlik, hayvon yoki biror hodisa haqida o'quvchida aniq tasavvurlar hosil bo'ladi.

Tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida dunyoni ilmiy tushunish asoslarini shakllantirish uchun tabiatga insonparvarlik munosabatini, vatanparvarlikni va go'zallikni tushunishni tarbiyalash kerak.

Tabiatshunoslikni o'qitishda og'zaki, ko'rgazmali, amaliy va boshqa metodlardan foydalaniladi.

Hozirgi kunda o'quvchilarga zamonaviy bilim berishda ularning ijodiy faolligi, individual qobiliyatlarini ochishga qaratilgan metodlar tobora ko'proq qo'llanilmoqda. Tabiatshunoslik bo'yicha mashg'ulotlarni sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar: ochiq havodagi o'yinlar, o'lkashunoslik sayyohatlari, yurishlar bilan chambarchas bog'lamoq zarur. Tabiatshunoslik darslari — bu mehnat tarbiyasi maktabi hamdir. Aniq misollarda o'quvchilarni odam mehnati — uning jismoniy va ma'naviy sihatligining manbai ekanligiga ishontirib, o'qituvchi mehnatga muhabbatni, astoydil mehnat qilish istagini, mehnat ahliga hurmatini tarbiyalaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari 1-sinfda maktab xodimlarining mehnatiga hurmat, maktabning yer maydonchasidagi ishlarda qarashish, 2-sinfda esa kun tartibidagi mehnatning turlari, maktab mulkiga ehtiyotlik munosabati, xona o'simliklarini parvarish

qilish, qurilishlarda, zavod va fabrikalarda ishlovchi odamlarning kasblari bilan tanishish, 3-sinfda esa tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish, odamlar mehnatini qadrlash, mehnat va dam olish tartibini o'rganish, dalada, polizda odamlar mehnatini kuzatish, 4- sinfda esa cho'llarda, dashtlarda, o'rmonlarda, tog'larda, adirlarda odamlar mehnati bilan tanishish, yer osti boyliklari, suv, havo, o'simliklar, hayvonlarni muhofaza qilish mavzulari bilan tanishadilar.

Tabiatshunoslik o'zining mazmuni va metodlari bilan o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash uchun cheksiz imkoniyatlarga ega.

Tabiat — dunyo fani va shuning uchun ham tabiatshunoslik darslari o'quv materiali mazmunini yetkazishning o'ylab chiqilgan metodikasini talab qiladi, uning asosiy maqsadi bilimlar yig'indisini faqat esda qoldirish bo'lib qolmasdan, balki ularni ishonchga aylantirish hamdir. Ishonch insonlarga, atrof olamga bo'lgan munosabatda, odatlarda, ish tutishda, xulq-atvorda namoyon bo'lishi kerak. Bilish muayyan voqea, hodisa, jarayon yoki predmetning mohiyatini anglashga yo'naltirilgan faoliyat samarasi sanaladi. Qiziqish esa ana shu yo'lda olib borilayotgan faoliyatning samaradorligini ta'minlovchi omildir. Tabiatga bo'lgan qiziqishni shakllantirish ana shu maqsadda olib borilayotgan murakkab pedagogik faoliyat natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga bo'lgan qiziqishni shakllantirishda o'ziga xos psixologik-pedagogik xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Bu yosh davr o'quvchilari tabiatshunoslik bilimlarini xissiy idrok asosida anglashga o'rgatadi. O'quvchilarga tizimli tabiatshunoslik bilimlarini berish va ularda tabiatshunoslik asoslari borasidagi jonli mushohada qilish, xissiy idrok negzida tafakkurni qaror toptirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. T. «Sharq».1999 y.
2. A.S. To'xtaev, Ekologiya o'qitish metodikasi(ma`ruza matni). 2003y
3. A. Ismailov, Ahadov R. Ekologik ta'lim-tarbiya. T., 1997 y.
4. A. Jabborov Tabiatshunoslikdan to'garak ishlari. Xalq ta'limi j. 1994yil.
5. M.I. Nuriddinova Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. "Cho'lpon" nashriyot-matbaa uyi. Toshkent-2000 yil.
6. Ibragimov R. Boshlang'ich maktab o'quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari 2009 yil.
7. Raximqulova M.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsdan tashqari mashg'ulotlarda ekologik qadiryatlar asosida tarbiyalash. Ped. Fan. Diss.2000 yil.

GEOGRAFIYA DARSLARINI MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISH

**Allaxova Gulshixra Yerejepbaevna
Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar
XTB bo'limi tasarrufidagi 25-son
umumta'lim maktabi direktori**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, geografiya ta'limini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish va bu orqali o'quvchilarning kreativ, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, geografiya ta'limida muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, geografiya ta'limi, kreativ qobiliyat, tanqidiy fikrlash, ta'lim texnologiyasi, muammoli ta'lim, muammoli bayon metodi, tabiiy geografik muammolar.

Mamlakatimizning bugungi kundagi iqtimoiy-ijtimoiy rivojlanish tamoyillari dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatoridan munosib o'rin olish uchun ma'naviy salohiyatimizni va iqtisodiy qudratimizni yanada oshirish, ularni XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan darajada qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'quvchi-yoshlarimizning dunyoqarashini o'zgartirish, ularning mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda yangiliklarga intilish, yangi g'oyalar ishlab chiqish, muammoli vaziyatlardan chiqish olish ko'nikmalarini jahon andozalari darajasiga ko'tarishni taqozo qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining [1] "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish" deb nomlangan yo'nalishida maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish masalalariga katta ahamiyat qaratilgan.

Zero, bugun jamiyat ta'lim tizimini oldiga o'quvchilarning kreativ qobiliyatini oshirishni, ularning mustaqil intellektual faoliyatlarini maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirishni vazifa qilib qo'ydi [2]. Bu kabi vazifalarni hal etishda ta'lim-tarbiya jarayonlarida muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish yetakchi o'rinni egallaydi.

Muammoli ta'lim-o'quvchilarda ijodiy izlanish, kreativ faoliyat, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim hisoblanadi. Shuningdek, muammoli ta'lim – bu mantiqiy fikrlash operatsiyasi (tahlil, umumlashtirish) va o'quvchilarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini (muammoli vaziyat, bilishga qiziqish, ehtiyoj) hisobga olib tuzilgan ta'lim va o'qitishning ilgari ma'lum bo'lgan usullarini qo'llash qoidalarning yangi tizimidir. Shuning uchun ham muammoli ta'lim ko'proq o'quvchi fikrlash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiy rivojlanish va e'tiqodining shakllanishini ta'minlaydi.

Muammoli ta'lim - didaktikaning barcha yutuqlaridan foydalangan holda ta'lim oluvchilarda ilmiy bilim va tushunchalarni, dunyoqarashni shakllantirish, shaxs va uning intellektual salohiyatini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida rivojlantiruvchi ta'lim hisoblanadi. Geografiya fanini o'qitishda o'quvchilardagi kreativ sifatlarni rivojlantirishda

muammoli ta'lim metodlaridan "Muammo texnologiyasi" katta ahamiyatga ega. Ushbu texnologiya o'quvchilarga mavzudan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini to'g'ri topishlariga o'rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo'yicha malakalarni shakllantirish, muammoni yechishning ba'zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechishda mos uslublarni to'g'ri tanlashga o'rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi xatti-harakatlarni to'g'ri aniqlashga o'rgatishda qo'llash tavsiya etiladi [5].

Quyida ushbu texnologiya bo'yicha namuna keltiramiz (1-jadval):

1-jadval. O'zbekistonda atmosferaning ifloslanishi

Muammoning turi	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish yo'llari va sizning harakatlaringiz
O'zbekistonda atmosferaning ifloslanishi	O'zbekistonda atmosferaning ifloslanishida energetika, neft-gaz sanoati, transport, kimyo sanoati, metallurgiya sanoati, maishiy-kommunal xo'jalikning hissasi katta. O'sha korxonalar chiqarayotgan zararli birikmalarni 100 foiz desak, ular quyidagicha taqsimlangan.	Respublikamiz havosini toza saqlash uchun korxonalarda zamonaviy tozalovchi inshootlar qurish zarur. Bunda havoni ifloslovchi moddalarni ushlab qolib, ulardan qayta foydalanish imkoniyati vujudga keladi.

Muammoli bayon metodi: Ushbu metod o'qituvchi tomonidan muammoni quyilishi va uni yechish yo'llarini asoslashga yo'naltirilgan metod hisoblanadi. Bu metod yordamida o'quvchilar tabiiy geografik va geokologik muammolarni yechish yo'llari va ularni asoslash usullari haqida ko'nikmalarga ega bo'lishadi.

Geografiya ta'limida muammoli bayon metodidan foydalanilganda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- o'qituvchi muammoni o'quvchilarga bayon qiladi va uni hal etish namunasini ko'rsatib beradi, ya'ni mazkur muammoni yangi dars mavzusi bayoni davomida o'zi hal etib beradi;
- o'quvchilar ushbu muammoni yechish bosqichlarini ketma-ket amalga oshiradilar va dars davomida geografik muammolarni yechish ko'nikmalariga ega bo'lishadi;
- murakkab muammolarni yechishda o'qituvchi tomonidan uni yechish yo'llari ko'rsatib beriladi, hamda fikrlar qarama - qarshiligi vujudga kelganida fikrlarni rivojlanish xususiyatlariga e'tibor qaratadi [3].

Geografiya fani tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy qismlardan iborat bo'lib, unda tabiat va jamiyat bilan bog'liq bo'lgan barcha muammolar mujassamlashgan. Ushbu muammolar tabiiy-geografik va iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar hamda ularni o'zaro ta'siri natijasida shakillanadi va rivojlanadi. Mazkur muammolardan geografiya ta'limida foydalanishning eng muhim shartlaridan biri ularni kelib chiqishiga ko'ra quyidagi bir nechta guruhlariga bo'lish maqsadga muvofiq:

- tabiiy geografik muammolar;
- ijtimoiy-iqtisodiy geografik muammolar;
- geokologik muammolar [4].

Tabiiy geografiya kursi bo'yicha quyidagi muamolarni hal etish na'munasini ko'rsatishi mumkin:

1. Mineral resurslar muammosi. Bunda o'qituvchi minreal tesurlarni iqtisodiyotning bosh tarmoqlarini rivojlantirish omili ekanligi, bunday resurslarga bo'lgan ehtiyojning tinimsiz ortib borayotganligi, mineral resurslarning turlaridan xo'jalik ehtiyojlari yo'lida rejali foydalanish kerakligini tushuntirib, bu kabi muammolarni hal etish bo'yicha o'quvchilar bilan birgalikda yangi takliflar, g'oyalar ishlab chiqadi.

2. Jahonning biologik resurslaridan foydalanish muammosi. Bunda o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda o'rmon mintaqasi joylashgan hududlar, jahon o'rmon resurslarining kamayib ketayotganligi, janubiy mintaqqa o'rmonlariga bir necha yuz yillar davomida o'rmonni yoqib yer ochish va ekstensiv yaylov chorvachiligi katta zarar yetkazayotganligi, tropik o'rmonlarni saqlash yuzasidan BMT rahbarligida amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha o'quvchilarga ma'lumotlar berib, ularni bu muammolarning yechimini topishga yo'naltiradi.

3. Sho'rlanish va cho'llanish muammosi. Muammoli ta'limda o'qituvchi cho'llanishning tuproq yoki o'z xususiyatlarini yo'qotadigan yoki tabiiy hodisalar tufayli tanazzulga uchragan tabiiy jarayon ekanligi, shuningdek, cho'llanish hosildor tuproqning yo'qolishini va qolgan ekotizimning o'z regulyativ funksiyasini bajara olmasligini nazarda tutadigan jarayonlardan biri ekanligini, cho'llanish muammosi esa yerning ekin ekilmaydigan yaroqsiz holga kelishi, cho'llanish natijasida qashshoqlikning kelib chiqishi va boshqa muammolar paydo bo'lishini misollar yordamida tushuntiradi va muammoli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarning bu bo'yicha mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

4. Chuchuk suv tanqisligi muammosi. Aholi va shaharlarning tez o'sib borishi, qishloq xo'jaligining kengayishi, sanoatning rivojlanishi suvga bo'lgan talabni oshirayotganligi, insoniyatni kelajakda kutayotgan ichimlik suvi tanqisligi muammosi, insoniyatning ehtiyojini qondiradigan ichimlik suvi daryo suvlaridan tejamkorona foydalanish kerakligi bo'yicha ma'lumotlar beriladi va o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

5. Dunyo okeani boyliklaridan oqilona foydalanish muammosi. Bu geografik muammoni talqin qilishda o'qituvchi avvalo o'quvchilarga dunyo okeanining mineral va biologik resurslaridan foydalanishni to'g'ri yo'lga qo'yish, dunyo okeanining neft bilan qoplanishini oldini olish, dunyo okeani insoniyatning oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirishi bo'yicha muammoli fikr-mulohazalarni o'rtaga tashlaydi va o'quvchilar bilan hamkorlikda bu masalarga to'g'ri yechim topib, o'quvchilarning ijodiy izlanishlari va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

6. Orol muammosi. O'qituvchi Orol dengizining qurishi sababalarini, Orol dengizi qurigan yerlardagi ekologik muvozanatning buzilganligi, buning aholi salomatligiga salbiy ta'siri bo'yicha tushunchalar berib o'tadi va Orol muammosini hal etish bo'yicha dunyo hamjamiyati tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni aytib o'tadi, shuningdek, bu borada o'quvchilarning ham fikr va g'oyalariga quloq tutadi. Bu orqali ularda kreativ qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Muammoli ta'lim boshqa ta'lim turlaridan o'zining zamonaviyligi, muammoli vazifalarini muvaffaqiyat bilan amalga oshiradigan, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, qarorlarqabul

qilish, kreativ faoliyatga yo'naltiradigan bir qator ustunliklari bilan ajralib turadi. Muammoli ta'limning zamonaviyligi o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish masalalarini hal etishdagi roli bilan ham tavsiflanadi. O'quv materialini muammoli o'rganish uchun muammoli darsning tarkibi izlanuvchi faoliyatiga xos bilish harakatining mantiqiy tarkibiga bo'ysunadi. Muammoli ta'limda o'quvchilarning bilish faolligi tezkor sur'atlarda rivojlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
2. Abduvoxidov A.S., Z.A.Ganiyev. "Geografiya ta'limi metodikasi". Samarqand.: 2021 yil. 49-52 b.
3. Abdullayeva D.N., Geografiya darslarini muammoli ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etish. Nizomiy nomidagi TDPU ilmiy axborotlari jurnali, № 3-son. 2022-yil.
4. Vaxobov X., N.R.Alimkulov., N.B.Sultonova. Geografiya o'qitish metodikasi., Toshkent: - "Nodirabegim" nashriyoti. 2021 yil. 69-70-b.
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar(ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). - T.: Iste'dod – 2008. 87 bet.

КАРТОШКА М-ВИРУСНИНГ ТОЗА БИОЛОГИК ПРЕПАРАТИНИ АЖРАТИБ ОЛИШДА ИШЛАБ ЧИҚИЛГАН ОПТИМАЛ УСУЛ

Юсубахмедов Абдурауф Абдурахим ўғли
Чирчиқ давлат педагогика университети таянч докторанти

Анотация: Йилдан йилга картошка ўсимлигида турли вирусли патогенлар билан касалланиш ҳолатлари ортиб бормоқда. Тадқиқотлар учун эса тоза моновирал културасини ажратиш олиш жуда муҳим саналади. Ушбу мақолада индикатор ўсимликлар орқали картошканинг М-вирус тоза културасини ажратиш олишнинг оптимал усулини ишлаб чиқиш бўйича ўтказилган тадқиқот иши ёритилган.

Калит сўзлар: ПЗР, вирус, картошка, идентификация, резерватор, ҳашаротлар, индикатор, дифференциатор, *Phaseolus vulgaris*, *Datura stramonium*, *Datura metel*.

Барча ўсимликларда бўлгани каби картошкада ҳам фитопатоген вирусли инфекциялар мавжуд бўлиб, унинг ўсиши, ҳосилдорлиги ва маҳсулот сифатига салбий таъсир кўрсатади. Юқори маҳсулдор ва касалликка чидамли навларни жорий этиш бўйича селекция ишларини яхшилашга қарамай, вирусли фитопатогенлар туфайли дала экин майдонларда картошка етиштириш кўрсаткичи паст бўлиб, вирусли касалликлар яхши ҳосил олишда чекловчи омил бўлиб хизмат қилади. Ҳашаротлар, бази ёввой ва маданий ўтлар вирусни юқтириш манбаи, ташувчиси ва захира резерватори бўлиб хизмат қилади [6,7].


Материаллар ва услублар. Тадқиқот учун картошка М-вируси танланди. Тадқиқот ишини Чирчиқ давлат педагогика университетининг табиий фанлар факультети "биология" кафедраси илмий тадқиқотлари лабораториясида амалга оширилди.

КМВ билан зарарланган ўсимликда ўртача ёки ёрқин қўринишдаги, чизиқли ёки мозаикали доғлар ҳосил қилади. Баъзи штаммлар эса баргланинг устида мозаикали буралишларни намоён қилса, баъзи ҳолатларда эса вирус ўсимликда яширин ҳолатда ўтади. КМВ кўп ҳолатларда картошканинг бошқа вируслари билан бирга келиб, кўпроқ ўсимликни зарарлаши ва кенгроқ худудларни эгаллаши ўрганилган [1,2,5,6,8].

КМВ асосан дала шароитида касал ўсимликдан соғлом ўсимликка механик контакт усулда осон юқади. Табиий шароитда эса ўсимлик шираларининг *Myzus persicae*, *Myzus persicae*, *Myzus persicae*, *Macrosiphum solanifolii* каби турлари ёрдамида тарқалади, аммо ўсимликнинг бир-бирига тегиши орқали юқмаслиги аниқланган. Вирусни аниқловчи индикатор ўсимликлари: *D. metel* ўсимлигида 8-14 кунда хлороз доғлар, *D. tatula* ўсимлигида эса 3 кундан сўнг баргида хлоритик доғларни, *Vigna siensis* ва *Nicotiana glauca* каби ўсимликларда 10-14 кунда жигарранг доирасимон доғларни, *Gomphrena globosa* ўсимлигида эса қизил ҳалқали некрозларни келтириб чиқаради. Табиий шароитда КМВ ботқоқ қуддуси (*Stachys palustris* L.), гултожихўроз (*Amaranthus sp.*), печак (*Convolvulus arvensis*), бўзтикан (*Sonchus sp.*) каби ўсимликларни касаллантиради ва улар танасида сақланади [1,2,3,6,9,11]. Юқоридаги маълумотлардан фойдаланиб КМВнинг тоза културасини ажратиш усули ишлаб чиқилди.

Картошкада вирусларнинг аралаш ҳолда келиши натижасида ўсимликда касалликнинг кучайишига ва ҳосилдорликни кучли даражада пасайишига олиб келади. Бу ҳолат вирусларнинг алоҳида хусусиятларини ўрганиш ва унга специфик зардоб тайёрлаш жараёнида бир қатор қийинчиликларни келтириб чиқаради. Бунинг учун адабиётларда келтирилган ҳар бир вирус учун унинг спецификлигига мос индикатор (аниқлагич), дифференциатор (ажратувчи) ва тўпловчи (вирус билан тизимли касалланадиган) ўсимликлардан фойдаланилади [1,4,5,10].

Тоза КМВни ажратиш учун дастлаб вирус билан касалланган картошка ўсимлигини ПЗР усули ёрдамида аниқлангандан сўнг, бу ўсимлик намунасида юқумли шира тайёрланди. Тайёрланган юқумли шира фақатгина КМВ зарарлайдиган дифференциатор ўсимлик бўлган *Red Kidney Phaseolus vulgaris* ўсимлигига юқтирилиб, вирус ажратиб олинди. Ушбу ўсимликдан вирусни намуна олиниб, *Datura stramonium* га юқтирилди ва кўпайтириб олинди. Ўсимлик тизимли зарарлангандан сўнг вирусни намуна ПЗР усулда картошканинг бошқа вирус патогени юқмаганлигини аниқлаш учун таҳлиллар ўтказилди (1-расм).



1-расм. КМВни бошқа вируслардан ажратиш ва биологик тозалаш схемаси. а) *Solanum tuberosum*, б) *Red Kidney Phaseolus vulgaris*, в) *Datura stramonium* д) *Datura metel*

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили. *Red Kidney Phaseolus vulgaris* ўсимлиги бир қатор адабиётларда КМВ учун специфик индикатор ўсимлик бўлиб, ёш баргларида хлороз ёки некротик зарарланишларни келтириб чиқариши тўғрисида маълумотлар келтирилган. Шунинг учун ушбу ўсимликни дифференциатор ўсимлик сифатида фойдаланилди.

Phaseolus vulgaris ўсимлигида касаллик аломати ёш баргларида некрози пайдо бўлгандан сўнг, ундан инокулум олиниб вирусни кўпайтириш учун *Datura stramonium* ўсимлигига юқтирилди. Ўсимлик баргларида сариқ мазаик доғларлар ва тизимли зарарланишдан сўнг, барг намуналари олиниб ПЗР усулда картошканинг КМВдан бошқа вируслари юқмаганлигига ишонч ҳосил қилиш учун ПЗР таҳлил ўтказилди. Шундан сўнг тоза ажратилган КМВни ўзоқ вақт сақлаш ва кўпайтириш мақсадида *Datura metel* ўсимлигига юқтирилди. Ажратилган тоза вирус културасини кейинги босқичдаги вирусни биологик тозалаш ва специфик антивирал зардоб тайёрлаш мақсадида фойдаланиш имкониятига эга бўлинади.

Хулоса: Ўтказилган тадқиқотдан шуни хулоса қилиш мумкинки, КМВни бошқа вируслардан ажратиб олишда *Phaseolus vulgaris* ўсимлиги орқали амалга ошириб, ажратиб олинган КМВни *D. stramonium* ўсимлиги ёрдамида кўпайтиришда фойдаланиши яхши самара бериши ўрганилди. Бу ўсимлик кўп миқдорда КМВни ўзида сақлайдиган намуна йиғиш, тозалаш жараёнида осон майдаланиши ва кўп шира ажратиши имконини беради.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ваҳобов А.Х. Вирусология асослари дарслик. Тошкент – 2017 286-295 б.
2. Владимирович К.Р. Экология вируса картофеля М в семействе соланасеае. Диссертация доктора философии.
3. Жевора С.В., Зейрук В.Н., Белов Г.Л. Передовые методы диагностики патогенов картофеля: науч. анал. обзор. – М.: ФГБНУ «Росинформагротех», 2019. – 92с
4. Файзийев В.Б. Картошка X-вирусининг Ўзбекистонда тарқалган изолятини ажратиш, хусусиятларини ўрганиш ва унинг диагностикаси. Докторлик диссертацияси.
5. Файзиев В.Б. Картошка вирусларининг замонавий диагностикаси ва илмий асосланган кураш чоралари, монография Тошкент – 2021.
6. Юсубахмедов А.А. Файзиев В.Б. / Картошкани зарарловчи картошка М вируси ва унинг биологик таснифи. Academic Research in Educational Sciences, Multidisciplinary Scientific Journal. Тошкент – 2022. 424-429 б.
7. Юсубахмедов А.А. Файзиев В.Б. Картошка М - вируси билан зарарланган ўсимликларда пероксидаза ферментининг динамикаси / Ёш олимлар ахборотномаси.
8. Юсубахмедов А.А. Файзиев В.Б. Картошка тугунакларида фитопотогенларни аниқлашда полимераза занжир реакцияси усулини қўллашнинг афзалликлари. / Тошкент давлат аграр университети. «қишлоқ хўжалик экинлари селекцияси, уруғчилиги ва агротехнологияларида долзарб масалалар ва ечимини қутаётган муаммолар» Республика илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. 2022 йил 298-299 б.
9. Yusubaxmedov A.A. Fayziev V.B. Kartoshkaning viruslarsiz urug'lik tugunaklarini yetishtirishda polimeraza zanjir reaksiyasi usulini qo'llashning avzalliklari. Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institute fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi: muammolar va innovatsion yechimlar respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami. 2022 yil. 90-92 б.

Интернет сайтлар:

10. <https://www.sciencedirect.com/topics/agricultural-and-biological-sciences/potato-virus-m>
11. <https://link.springer.com/article/10.1007/BF02356053>
12. <https://naukarus.com/effektivnyy-metod-dagnostiki-i-identifikatsii-virusnyh-patogenov-kartofelya>
13. https://viralzone.expasy.org/739?outline=all_by_species

INTEGRO-DIFFERENSIAL TENGLAMA UCHUN CHEGARAVIY MASALA

Yo'ldashev Axrorjon

**Qo'qon Universiteti Raqamli texnologiyalar va
matematika kafedrası o'qituvchisi,**

Toshtemirov Bahodirjon

**Qo'qon Universiteti Raqamli texnologiyalar
va matematika kafedrası dotsent. v.b**

Annotatsiya: Integral differensial tenglama uchun chegaraviy masala differensial tenglamani ham, chegara shartlarini ham qanoatlantiradigan yechim topishni talab qiladi. Shartlar bir nuqtada berilgan boshlang'ich qiymat masalalaridan farqli o'laroq, chegaraviy masalalar bir nechta nuqtalarda o'rnatilgan shartlarga ega. Bunday muammolarni hal qilish ko'pincha o'zgaruvchilarni ajratish, Laplas transformatsiyasi yoki raqamli usullar kabi usullarni o'z ichiga oladi. Ushbu turdagi muammolar odatda fizika, muhandislik va boshqa fanlarda uchraydi, bu erda ma'lum cheklovlar ostida funktsiya yoki tizimning harakatini aniqlash kerak. Chegaraviy qiymat muammolari issiqlik uzatish, suyuqlik oqimi, elektr zanjirlari va struktura mexanikasi kabi ko'plab ilovalar uchun juda muhimdir.

Kalit so'zlar: Teorema, masala, regulyar, mantiq, differensial, Veyershtrasc.

Masala. Quyidagi

$$y''(x) - y'(x) - \lambda_1 y(x) + \frac{\lambda_2}{2} \int_0^x y(\xi) d\xi = f(x), \quad x \in (0,1) \quad (1)$$

integro-differensial tenglamaning

$$y(0) = y_0, \quad y(1) = y_1 \quad (2)$$

shartlarni qanoatlantiruvchi regulyar yechimi topilsin, bu yerda $\lambda_1, \lambda_2 \in \mathbb{R}$.

Teorema. Agar $\lambda_2 \geq 0, \lambda_1 \leq (\lambda_2/2)$ tengsizlik bajarilsa, $\{(1),(2)\}$ masala bittadan ortiq yechimga ega bo'lmaydi.

Isbot. $\{(1),(2)\}$ masala $y_1(x)$ va $y_2(x)$ yechimlarga ega bo'lsin. U holda $y(x) = y_1(x) - y_2(x)$ funksiya ushbu bir jinsli masalani qanoatlantiradi:

$$y''(x) - y'(x) - \lambda_1 y(x) + \frac{\lambda_2}{2} \int_0^x y(\xi) d\xi = 0, \quad x \in (0,1); \quad y(0) = y(1) = 0. \quad (3)$$

Faraz qilaylik (3) masala trivialmas $y(x) \neq 0, x \in [0,1]$ yechimga ega bo'lsin. U holda Veyershtrasc teoremasiga asosan $\sup_{x \in [0,1]} |y(x)| = |y(x_0)| = M > 0, x_0 \in [0,1]$ tenglik o'rinli.

$y(0) = y(1) = 0$ bo'lganligi uchun $x_0 \in (0,1)$ bo'ladi. Faraz qilaylik, $y(x)$ funksiya $x_0 \in (0,1)$ nuqtada musbat maksimum (manfiy minimum) ga erishsin. U holda $y''(x)|_{x=x_0} \leq 0 (\geq 0)$, $y'(x_0) = 0$ bo'lib, teorema shartlaridan kelib chiquvchi $\{\lambda_2 \geq 0, \lambda_1 < (\lambda_2/2)\}$ yoki $\{\lambda_2 > 0, \lambda_1 \leq (\lambda_2/2)\}$ tengsizliklar bajarilsa

$$\left\{ y''(x) - y'(x) + \left(\frac{\lambda_2 x}{2} - \lambda_1 \right) y(x) - \frac{\lambda_2}{2} \int_0^x [y(x) - y(\xi)] d\xi \right\} \Big|_{x=x_0} < 0 (> 0)$$

tengsizlik ham o'rinli bo'ladi. Bu - (3) ning birinchi tengligiga zid. Demak, farazimiz noto'g'ri, ya'ni $y(x) \equiv 0, x \in [0,1]$. Bu tenglik $\lambda_1 = \lambda_2 = 0$ bo'lganda (3) masaladan byevosita kelib chiqadi. Demak, $y_1(x) = y_2(x), x \in [0,1]$. Teorema isbotlandi.

Masala yechimining mavjudligini ko'rsatamiz. Buning uchun $\{(1),(2)\}$ masalani $y(x)$ funksiyaga nisbatan quyidagi

$$y(x) - \int_0^1 K(x,s) y(s) ds = f_1(x), \quad x \in [0,1] \quad (4)$$

ko'rinishdagi integral tenglamaga keltiriladi, bu yerda

$$K(x,s) = \begin{cases} [\lambda s^2 + (2\lambda_2 - 4\lambda_1)s + \lambda_2 - 4\lambda_1 - 4]x/4, & x \leq s; \\ [\lambda_2 s^2 - \lambda_2 x + 4\lambda_1 s - 4](x-1)/4, & s \leq x, \end{cases}$$

$$f_1(x) = (1-x) \int_0^x s f(s) ds - x \int_x^1 (s-1) f(s) ds + [y_1 - y_0]x + y_0.$$

(4) - ikkinchi tur Fredgolm integral tenglamasi bo'lib, u yechimga ega bo'lish ma'nosida $\{(1),(2)\}$ masalaga ekvivalentdir. Shuning uchun uning yechimining mavjudligi $\{(1),(2)\}$ masala yechimining yagonaligidan kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'rinov, A. Q. Oddiy differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalar. -Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2014.-164 b.
2. Yo'ldashev, A. (2022). Ta'limda suniy intellektning imkoniyatlari. Academic research in educational sciences, 3(11), 726-729.
3. Yo'ldashev, A., & Solidjonov, D. (2022). Yangi innovatsion texnologiyalar va ularni ta'lim olish muhitida

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA, AXBOROT TEXNOLOGIYALARNI QO'LLAB MATEMATIKAGA KIRISH

Xusanova Madinabonu
Qo'qon Universiteti Boshlang'ich
ta'lim yo'nalishi talabasi,
Yo'ldashev Axrorjon
Qo'qon Universiteti Raqamli texnologiyalar
va matematika kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda maktablar o'quvchilarning ishchi kuchiga kirishlari va murakkab dunyoda harakat qilishlari uchun yaxshi jihozlanganligini ta'minlashga qaratilgan tobora ortib borayotgan talablarga duch kelmoqdalar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kompyuter texnologiyalari o'rganishni qo'llab quvvatlashga yordam beradi va u ayniqsa tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va ilmiy izlanish kabi yuqori darajadagi ko'nikmalarni rivojlantirishda foydalidir.

Kalit so'zlar: matematika, fan, texnik vositalar, mantiq, tur, jins, kompyuter, axborot.

Matematikaning chegarasiz mamlakat degan iborasini bir necha bor eshitganman. Uning taqiqlanganligiga qaramay, matematikaga oid iboraning juda yaxshi sabablari bor. Inson hayotida matematika alohida o'rin tutadi. Mutaxassislarining ta'kidlashlaricha, matematikani yaxshi o'zlashtirgan o'quvchining tahliliy va mantiqiy fikrlash darajasi yuqori bo'ladi. U nafaqat misol va masalalar yechishda, balki hayotdagi turli vaziyatlarda ham tezkorlik bilan qaror qabul qilish, muhokama va muzokara olib borish, ishlarni bosqichma-bosqich bajarish qobiliyatlarini o'zida shakllantiradi. Shuningdek, matematiklarga xos fikrlash uni kelajakda amalga oshirmoqchi bo'lgan ishlar, tevarak-atrofdagi sodir bo'layotgan voqea-hodisalar rivojini bashorat qilish darajasiga olib chiqadi. Matematika fani insonning intellektini, diqqatini rivojlantirishda, ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalashda, algoritmik tarzda tartibintizomlilikni ta'minlashda va tafakkurini kengaytirishda katta o'rin tutadi. Matematik ta'limga kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarda kasbiy, shaxsiy va kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishni hamda matematik ta'limning amaliy, tatbiqiy yo'nalishlarini kuchaytirishni nazarda tutadi. Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyo mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi, fanlarni mukammal egallashini taqozo etadi. Bu esa ta'lim tizimiga, jumladan, matematikani o'rgatishga ilg'or milliy va xalqaro tajribalar asosida standartlarni joriy etish orqali ta'minlanadi.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab joylarida bilim va ko'nikmalar o'rtasida sezilarli tafovut mavjud. Ish beruvchilar ularga professionallik va mehnat odob-axloqi, og'zaki va yozma muloqot, jamoada ishlash va hamkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish, axborot texnologiyalarini qo'llash va etakchilik kabi ko'nikmalarga yaxshiroq tayyorlangan talabalar kerakligini xabar qiladi. Shunday qilib, maktablarda har doim o'zgarib turadigan maxsus texnik ko'nikmalarga ega bo'lishdan ko'ra, qanday o'rganishni o'rganishga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy-uslubiy jurnali №10 135

Tadqiqotchilar o'quvchilarning matematik ko'nikmalarini oshirishi aniqlangan yangi interaktiv multi-sensorli "aqlli" stol sinflarini loyihalashtirmoqda. "Kelajak sinfida" ko'p foydalanuvchili stollardan foydalangan holda, bolalar ixtirochilik echimlari yordamida savol va muammolarni hal qilishning yangi usullarida birgalikda ishlashga muvaffaq bo'lishdi.

Texnologiyadan strategik foydalanilsa, u barcha talabalar uchun matematikadan foydalanish imkoniyatini beradi. Texnologik vositalar ham talabalarni rag'batlantiradi. Talabalar o'rganishda faol bo'lishga imkon bersa, ular o'zlarining strategiyalari va tushunchalarini ishlab chiqishlari mumkin. Texnologiyalar yordamida talabalar matematik munosabatlar va aloqalarni kashf qilishlari mumkin. Ushbu tadqiqotning maqsadi vositachi va vositachi rollarining paydo bo'lishini yanada chuqurroq tushunishdir. To'g'ri o'qitish usullari bilan o'qituvchilar kurashayotgan o'quvchilarni yosh matematiklarga aylantirishlari mumkin. Buning siri texnologiya yordamida ularni ehtiyotkorlik bilan boshqaradi.

Boshlang'ich sinflarda arifmetikani ravon bajarishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Talaba uchun bu fikrni amalga oshirish uchun texnologiyadan foydalanish noto'g'ri bo'ladi. O'rta maktabda esa o'quvchilar arifmetikani o'zlashtirgan va ular yanada rivojlangan ko'nikmalar va tushunchalarga e'tibor qaratishlari kerak. Hisoblash yordami juda muhim bo'lishi mumkin. Hindistondagi o'rta maktablarda matematika ta'limi matematika kurslariga texnologiya integratsiyasiga qaratilgan islohotlarni boshdan kechirmoqda. Ta'lim siyosati hujjati bilan birga kelgan mandatga qaramay, kompyuter texnologiyalari o'rta matematika asosiy o'quv yo'nalishlaridagi kurslar qatoriga integratsiya qilinishiga qaramay, kompyuterlar Hindistonning o'rta matematika sinflariga keng integratsiyalanmaganligini ko'rsatadigan dalillar mavjud. Xalqaro dalillar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning texnologiyani qabul qilmasligining sabablaridan biri bu maktab tizimidagi o'qituvchilarning o'rnini bosishidan qo'rqishdir. Boshqa ekspertlar texnologiyaning samarasiz integratsiyalashuvini matematika darslarida kompyuterlardan qachon va qanday foydalanish mumkinligi haqida yetarli bilimning yo'qligi hamda tegishli tayyorgarlik darajasining yo'qligi bilan izohlaydilar. Ushbu samarasiz integratsiya texnologiyani sinfda o'qitishda integratsiyalashuvdan kutilayotgan foydalarni bartaraf etadi. Bugungi kunda dunyoning ko'plab joylarida bilim va ko'nikmalar o'rtasida sezilarli tafovut mavjud. Ish beruvchilar ularga professionallik va mehnat odoxloqi, og'zaki va yozma muloqot, jamoada ishlash va hamkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish, axborot texnologiyalarini qo'llash va etakchilik kabi ko'nikmalarga yaxshiroq tayyorlangan talabalar kerakligini xabar qiladi. Shunday qilib, maktablarda doimiy ravishda o'zgarib turadigan maxsus texnik ko'nikmalarga ega bo'lishdan ko'ra, qanday o'rganishni o'rganishga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotchilar o'quvchilarning matematik ko'nikmalarini oshirishi aniqlangan yangi Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy-uslubiy jurnali №10 136 interaktiv multi-sensorli "aqlli" stol sinflarini loyihalashtirmoqda. "Kelajak sinfida" ko'p foydalanuvchi stollaridan foydalangan holda, bolalar ixtirochilik echimlari yordamida savol va muammolarni hal qilishning yangi usullarida birgalikda ishlashga muvaffaq bo'lishdi.

Texnologiya nima? Sehrli shiferdan boshlab, kitob, sehrli fonar, Doska, OHP, radio, Slayd-qoidali video lenta, Televizion, Kalkulyator, kompyuter, Interaktiv doska, Apple I pad - barchasi texnologiya ostida. Qog'oz pullar va tangalar, loviya, ayiqlar, tugmalar va boshqa kichik narsalar hisoblash va hisoblash qobiliyatlari uchun foydalidir. O'nlab guruhlangan

somonlar matematikani o'rgatish uchun juda yaxshi. Geo taxtalar geometrik tushunchalarni kiritish uchun foydalidir. Klinometrlar trigonometriyani o'rgatish va o'rganish uchun foydalidir. Abak bolalarga moddiy narsalar bilan ishlash orqali matematik formulalarni kontseptsiyalash imkonini beradi. Bularga raqamli kameralar, videokameralar, interaktiv doska asboblari, hujjat kameralari yoki LCD proyektorlar kiradi. Yaqinda Sliderocket, Prezi, Glogster, Animoto va Magic Magnify kabi boshqa vositalar paydo bo'ldi. 1980-yillardan boshlab matematikani o'qitish va o'rganishda kompyuter yordamining ahamiyati tobora ko'proq ta'kidlanmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosan internet, simsiz tarmoqlar, uyali telefonlar, sun'iy yo'ldosh aloqasi, raqamli televideniye kompyuter va tarmoq apparat va dasturiy ta'minot kabi barcha kommunikatsiya texnologiyalarini o'z ichiga olgan umumiy atamadir; shuningdek, axborotga kirishni ta'minlaydigan videokonferentsaloqa, elektron pochta va bloglar kabi ushbu texnologiyalar bilan bog'liq uskunalar va xizmatlar. Texnologiyadan o'qitish vositasi sifatida qanday foydalanish Hozirda an'anaviy sinflarda turli xil texnologiyalar qo'llaniladi. Matematikani o'rgatish uchun ishlatiladigan dasturiy ta'minotlar orasida Grafik kalkulyatorlar, Dinamik grafik asboblari, Dinamik geometriya vositalari, Microsoft Excel / elektron jadval, Microsoft Matematikasi, Geo Gebra, Avtomatik shakl, Mat laboratoriyasi mavjud. Kompyuter texnikalarini ta'lim muassasalariga tatbiq etish, o'qitish jarayonini optimallashtirishga keng yo'l ochib beradi. Keyingi o'n yillikda matematika fanini o'qitishda kompyuterlardan foydalanish bir necha asosiy yo'nalishlarda olib borildi.

Bularga kompyuter yordamida bilimni baholash, turli tipdagi o'rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqish va rivojlantirish, bilishga oid matematikaviy o'yinlarni ishlab chiqish va boshqalar kiradi. Matematika o'qitishda kompyuterlarni qulayligini yana bir yo'nalishi ayrim o'quv holatlarini modellashtirishdir. Modellashtirilgan dasturlardan foydalanishning maqsadi, o'qitishning boshqa usullari qo'llanganda tasavvur qilish, ko'z oldiga keltirilishi qiyin bo'lgan materiallarni tushunarlibo'lishini ta'minlashdan iborat. Modellashtirish yordamida o'quvchilarga ma'lumotlarni grafik rejimda kompyuter multimediasida ko'rinishida taqdim qilish mumkin. Shu boisdan ular matematikani chuqur o'rganish va o'quv jarayonida sezilarli darajada mustaqillik namoyon etishga moyil bo'ladi.

Matematikaning hayotimizda tutgan beqiyos o'rnini inobatga olingan holda mazkur fan birinchi sinfdanoq maktab darsliklariga kiritilgan bo'lib, yurtimizda barcha aniq fanlar qatori matematika ta'limini zamon talablari asosida takomillashtirib borish, uni o'qitishda eng so'nggi pedagogik va innovatsion usullar, multimedia vositalari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, o'quv fanini akademik bilim berishdan ko'ra ko'proq hayot bilan bog'lash, amaliy misol va masalalarni yechish, o'quvchilarni mustaqil izlanish, o'qibo'rganishga jalb etishning ahamiyati beqiyos. Dars jarayonida o'quvchi o'zini majburan partaga mixlab qo'yilgandek his etmasligi, aksincha, mashg'ulotlarda katta ishtiyoq, kuchli xohish bilan qatnashishiga erilishi lozim. Matematik bilimlar nafaqat baho olish uchun savol-javoblar yoki imtihonlarda, balki uyda, ish jarayonida, sport va san'at bilan shug'ullanishda, savdo-sotiq, oldiberdi – hayotning har bir lahzasida o'quvchiga naf berishini u chuqur anglab yetishi muhim. Buning uchun esa mazkur fan o'qituvchisi o'tayotgan mavzularini bevosita hayot bilan bog'lab, biror misol yoki masala, topshiriqlarni turmushdagi oddiy vaziyatlar yordamida yechishga o'rgatishi zarur. Keyingi o'n

yillikda matematika fanini o'qitishda kompyuterlardan foydalanish bir necha asosiy yo'nalishlarda olib borildi. Bularga kompyuter yordamida bilimni baholash, turli tipdagi o'rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqish va rivojlantirish, bilishga oid matematikaviy o'yinlarni ishlab chiqish va boshqalar kiradi. Matematika o'qitishda kompyuterlarni qulayligini yana bir yo'nalishi ayrim o'quv holatlarini modellashtirishdir.

Matematika fanlarini o'qitishga yangi texnik vositalar, shu jumladan, kompyuter va boshqa axborot texnologiyalarining jadal kirib kelayotgan hozirgi davrida fanlararo uzviylikni ta'minlash maqsadida informatika fani yutuqlaridan foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Kompyuter texnikalarini ta'lim muassasalariga tatbiq etish, o'qitish jarayonini optimallashtirishga keng yo'l ochib beradi. Keyingi o'n yillikda matematika fanini o'qitishda kompyuterlardan foydalanish bir necha asosiy yo'nalishlarda olib borildi.

Bularga kompyuter yordamida bilimni baholash, turli tipdagi o'rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqish va rivojlantirish, bilishga oid matematikaviy o'yinlarni ishlab chiqish va boshqalar kiradi. Matematika o'qitishda kompyuterlarni qulayligini yana bir yo'nalishi ayrim o'quv holatlarini modellashtirishdir. Modellashtirilgan dasturlardan foydalanishning maqsadi, o'qitishning boshqa usullari qo'llanganda tasavvur qilish, ko'z oldiga keltirilishi qiyin bo'lgan materiallarni tushunarli bo'lishini ta'minlashdan iborat. Modellashtirish yordamida o'quvchilarga ma'lumotlarni grafik rejimda kompyuter multimediasi ko'rinishida taqdim qilish mumkin. Shu boisdan ular matematikani chuqur o'rganish va o'quv jarayonida sezilarli darajada mustaqillik namoyon etishga moyil bo'ladilar.

Ko'p holatlarda vujudga keladigan matematik muammoni tez va berilgan aniqlikda hal etish uchun professional matematikdan o'z kasbi bilan bir vaqtda ma'lum bir algoritmik til va dasturlashni bilishi talab qilinadi. Shu maqsadda XX asrning 90-yillarida matematiklar uchun ancha qulayliklarga ega bo'lgan matematik sistemalar yaratilgan. Bu maxsus sistemalar yordamida turli sonli va analitik matematik hisoblarni, oddiy arifmetik hisoblashlardan boshlab, to xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechishdan tashqari grafiklarni yasashni ham amalga oshirish mumkin.

Xulosa: Boshlang'ich ta'limga axborot texnologiyalarining joriy etilishi matematika o'qitishning yangi usullarini yaratdi. Bolalarning yanada samarali va samarali o'rganishiga yordam berish uchun texnologiya yordamida matematika dasturlari ishlab chiqilgan. Bu dasturlar o'quvchilar uchun o'rganishni yanada qiziqarli va interaktiv qilish uchun audio, video va grafik kabi interaktiv multimedia elementlaridan foydalanadi. Ular, shuningdek, o'quvchilarga o'z tezligi va darajasida ishlashga imkon beruvchi shaxsiy o'rganish tajribasini taqdim etadi. Bundan tashqari, texnologiyaga asoslangan matematika dasturlari o'qituvchilar va ota-onalar uchun qimmatli ma'lumotlar tahlilini taqdim etadi, bu ularga o'quvchilar taraqqiyotini kuzatish va kerak bo'lganda maqsadli yordam ko'rsatish imkonini beradi. Boshlang'ich ta'limda texnologiyaga asoslangan matematika dasturlarini amalga oshirish matematika ta'limi natijalarini va o'quvchilarning faolligini sezilarli darajada yaxshilash imkoniyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
2. Yo'ldashev, A. (2022). TA'LIMDA SUNIY INTELLEKTNING IMKONIYATLARI. Academic research in educational sciences, 3(11), 726-729.
3. Yuldashev, A., & Xusanova, M. (2022). THE ROLE OF STUDENT VOICES IN THE DEVELOPMENT OF INCLUSIVE EDUCATION. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND COMPUTER SCIENCES (CAJECS), 1(6), 29-32.
4. Yo'ldashev, A., & Solidjonov, D. (2022). YANGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARNI TA'LIM OLISH MUHHITIDA QO'LLANISHI. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 1(3), 198-204.
5. Yo'ldashev, A., & Nazarova, G. (2022). Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda dastlabki pedagogik jarayonlar. Science and Education, 3(6), 618-623.
6. Yuldashev, A., & Xusanova, M. (2022). THE ROLE OF STUDENT VOICES IN THE DEVELOPMENT OF INCLUSIVE EDUCATION. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND COMPUTER SCIENCES (CAJECS), 1(6), 29-32.
7. Dildora, R., & Muxlisa, P. (2022). MAKTABDA ZAMONAVIY TA'LIM MUHITINI YARATISH.
8. Lolaxon, K., & Zubaydaxon, J. (2022). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA YOZUVGA O'RGATISH USULLARI.

MAKTAB O'QUVCHILARINING MATEMATIKA FANIDAN MAKTABDAN TASHQARI OLIMPIADA MASALALARINI YECHISH USULLARI.


Xaydarov I.I.

Qo'qon Universiteti "Raqamli texnologiyalar va matematika" kafedrasi o'qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu tezisdan matematika fanidan maktabdan tashqari o'quvchilarning olimpiada masalalarini yechishlari uchun namunalar keltirilgan. Ishning boshida, matematika fanidan qiziqishli bo'lgan talabalar uchun maktabdan tashqari olimpiada masalalarini yechish usullarini o'rganish juda muhimdir. Bu usullar orqali talabalar masalalarni ochiq fikr bilan hal qilish, muhim ma'lumotlarni aniqlash va joriy yechimlarni topishni o'rganadilar. Birinchi usul - O'zlashtirilgan yechimlar Bu usulda, talaba berilgan masalani o'zlashtiradi va uni o'zining ko'rsatmalariga mos ravishda hal qiladi. Bu, masala yechimi uchun birinchi harakatdir va talabalarga bevosita yordam beradi. Ikkinchi usul - Koordinatalar Bu usulda, talaba masalaning koordinatalarini aniqlaydi va uni grafikka joylaydi. Shu bilan birga, muhim nuqtalarni aniqlaydi va ularning koordinatalarini topadi. Bu, masala yechimi uchun ajoyib bir yordamdir.


Kalit so'zlar: Olimpiada masalalari, yechish usullari, geometrik chizmalar..

I Quyidagi rasmda $\triangle ABC$ va $\triangle BCD$ to'g'ri burchaklar, $AB = 6, BC = 8, CD = 4$. $\triangle ABE$ va $\triangle EDC$ yuzalari farqini toping.




- A)5 B)8 C)10 D)12 E)13

Yechim: Aytaylik a_1 son $\triangle ABE$ uchburchakning, a_2 son $\triangle BEC$ uchburchakning va a_3 son $\triangle EDC$ uchburchakning yuzalari bo'lsin.




U holda $\triangle ABC$ uchburchakning yuzi $a_1 + a_2$ ga, qolaversa berilgan ma'lumotlarga ko'ra $\frac{1}{2} \cdot 6 \cdot 8 = 24$ ga teng. Huddi shu kabi $\triangle BCD$ uchburchakning yuzi $a_2 + a_3$ ga, qolaversa berilgan ma'lumotlarga ko'ra $\frac{1}{2} \cdot 4 \cdot 8 = 16$ ga teng. Demak, $a_1 + a_2 = 24$ va $a_2 + a_3 = 16$ ekan. Bundan, $a_1 - a_3 = (a_1 + a_2) - (a_2 + a_3) = 24 - 16 = 8$

2 Quyidagi rasmda ko'rsatilgan, ABC uchburchakning yuzi 84 sm^2 . D va E nuqtalari AB tomonni, F va G nuqtalar esa AC tomonni uchta teng qismga ajratadi. CD kesma BF va BG lar bilan mos ravishda M va N nuqtalarida kesishadi. CE kesma BF va BG lar bilan mos ravishda P va Q nuqtalarida kesishadi. EPMD to'rtburchakning yuzini toping.



Javob: _____

Yechim: A va M nuqtalarni tutashtiramiz.



E va D nuqtalar AB tomonni teng uch qismga bo'lgani uchun, DMA uchburchak yuzi BMA uchburchak yuzining $\frac{1}{3}$ ga teng bo'ladi, $S_{DMA} = \frac{1}{3}S_{BMA}$ Huddi shunday mulohazani MAF uchburchak va MAC uchburchaklar uchun ham qo'llash mumkin, ya'ni $S_{MAF} = \frac{1}{3}S_{MAC}$. Shartga ko'ra $S_{BAF} = S_{CAD} = \frac{1}{3}S_{ABC} = 28$ tenglikni yoza olamiz. $S_{DMA} = m$ va $S_{MAF} = n$ deb belgilasak,

$$\begin{cases} 3m + n = 28 \\ 3n + m = 28 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} m = 7 \\ n = 7 \end{cases}$$

Demak, $S_{DMA} = 7$ va $S_{MAF} = 7$. Bulardan, $S_{DMFA} = 7 + 7 = 14$

$S_{CEA} = \frac{2}{3}S_{ABC} = 56$ va $S_{BAF} = \frac{1}{3}S_{ABC} = 28$. Endi $S_{BPE} = x$ va $S_{PFA} = y$ deb belgilaylik, u holda

$$\begin{cases} 3x + y = 28 \\ 3y + 2x = 56 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x = 4 \\ y = 16 \end{cases}$$

Demak, $S_{BPE} = 4$ ekan. Shuning uchun, $S_{EPMD} = S_{BAF} - S_{BPE} - S_{DMFA} = 28 - 4 - 14 = 10$.

Javob: 10sm^2

3 Uch kishi bor: bobosi, otasi va o'g'li. Boboning yoshi shunday raqamki agar siz yoshdagi raqamlar tartibini o'zgartirsangiz, otasining yoshi kelib chiqadi. Otasining yoshidagi raqamlarni bir-biriga qo'shganda, o'g'lining yoshi kelib chiqadi. Uchalasining yoshining yig'indisi 144 ga teng. Boboning yoshi 100 yoshdan kichik va juft son. Bobo necha yoshda?

Javob: _____

Yechim:

Masala shartiga ko'ra quyidagilarni yozish mumkin:

Boboning yoshi - \overline{ab} ;

Otaning yoshi - \overline{ba} ;

O'g'ilning yoshi - $a + b$;

Uchlasining yoshining yig'indisi: $\overline{ab} + \overline{ba} + a + b = 144$.

Endi sonning o'nlik yozuvi qoidalariga ko'ra quyidagilarni yozishimiz mumkin:

$$10a + b + 10b + a + a + b = 144$$

$$12a + 12b = 144$$

$$a + b = 12.$$

Bu shartlarni qanoatlantiruvchi a va b sonlar juftliklarini yozib chiqaylik, bular, (1;11), (2;10); (3;9), (4;8), (5;7), (6,6).

Endi Boboning yoshi 100 yoshdan kichik va juft son ekanligini hamda uning yoshidagi raqamlar o'rinlarini almashtirganimizda otaning Yoshi kelib chiqishini inobatga olsak, bu juftliklardan (4;8) qoladi. Demak, boboning yoshi 84 da, otaning yoshi 48 da hamda nabiraning yoshi 12 da ekan.

Javob: Bobo 84 yoshda

Xulosa: Maktab o'quvchilari matematika fanidan tashqari olimpiada masalalarini yechish uchun quyidagi usullarni amalga oshirishingiz mumkin:

1. Masala shartlarini to'g'ri tushunish: Birinchi qadam, masala shartlarini to'g'ri tushunishdir. Shartlarni to'g'ri tushunish uchun matematik jargonidan foydalanishingiz kerak.

2. Muammo turini aniqlash: Masalani yechishning birinchi qadami, muammo turini aniqlashdir. Bu masalani qanday hal qiluvchi muammoga aylantiradi.

3. Boshlang'ich o'lchamlarni topish: Masala boshlang'ich o'lchamlar bilan boshlanadi, ularni topib chiqishingiz kerak.

4. Balandliklar va kesmalar koordinatalarini topish: Balandlik va kesmalar koordinatalariga e'tibor bering, ularni topib chiqishingiz kerak.

5. Odatiy usullardan foydalaning: Odatiy usullardan foydalaning, masala yechimi uchun mos keladigan usullarni bilishingiz kerak.

6. Har bir bosqichni tekshirish: Masalani hal qildikdan keyin har bir bosqichni tekshirib ko'ring va natijaga etibor berganingizdan ishonchingizga erishing.

7. Tayyorlash va amaliyot: Olimpiada masalalarini yechish uchun tayyorlaning va amaliyotda ishlayotganingizdan ishonchingizni oshiring. Shu bilan birga, yaxshi natijalar olish uchun o'z vaqtingizni qulay va samarali foydalanishingiz kerak. Tezisimda masalalarni keltirilgan usullarda yechish mumkinligini keltirdim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://www.matholympiad.org/> - Matematika olimpiadasi haqida ma'lumotlar va savollar.

2. <https://www.artofproblemsolving.com/> - Matematika olimpiadasiga tayyorlanish uchun resurslar.

3. <https://brilliant.org/> - Matematika, fizika, kimyo va boshqa fanlar bo'yicha savollar va yechimlar.
4. <https://www.khanacademy.org/> - Matematikadan boshqa ko'plab fanlar haqida ushbu saytda darslar mavjud.
5. <https://math.stackexchange.com/> - Matematikaga oid savollar va javoblar uchun forum.

GENERAL CONCEPTS OF PLANT EVOLUTION AND THEIR STRUCTURE DAUGHTER

**Ismailova Saida Ulug'bek qizi,
QMU student**

Abstract: If I give a general understanding of the evolution of plants and their structure, since the 50s of the last century, a number of scientists have been working on the evolution of plants, and by introducing their concepts into science, they have made the evolutionary system of plants much clearer. enriched with limes.

Keywords: Prokaryotes, eukaryotes, cyanobacteria, nucleoplasm, genoform, heterotroph, autotroph, histone, diploid, haploid

Abstract: Since the 50s of the last century, several scientists (De Fries, G. Curtis, C. Geoffrey, E. Dotson, A. Takhtadjyan, etc.) proposed to divide the organic world into four to nine worlds. The famous scientist academician Artur Takhtagyan created the current system of evolution in his work published in 1973. This system is as follows:

1. The large world of prokaryotes - organisms without a nucleus. This large world consists of only one small world - Procaryota, and is divided into three sub-worlds: archaebacteria, true and oxyphytobacteria. is called The cell of prokaryotes is from 2-3 μ m to 10 μ m

2. Organisms that have a true nucleus are eukaryotes. This world is divided into three sub-worlds: animals, fungi and plants. Prokaryotic plants include bacteria (protozoa) and blue-green algae. In some literature, blue-green algae mixed with bacteria become cyanobacteria. Their cytoplasm does not have a clearly visible nucleus. A cell contains only one or more pieces of DNA (deoxyribonucleic acid), called the nucleoplasm. There are no true chromosomes, the gene that carries the hereditary traits is called a genoform.

The genoform is located around the DNA. Protein material, mitochondria and plastids are not found in the cytoplasm. In the cell of prokaryotic plants, there are mesosomes formed in the cytological membrane. In addition, there is a gas vacuole in the cell, which helps the body to stay suspended in water. In the cytoplasm, ribosome, oil droplets, polysaccharide and polyphosphate granules are found. The cell wall of prokaryotes does not contain chitin or cellulose. Mitosis and meiosis of the cell and the sexual process were not determined in them. Cell division occurs in a normal-amiotic manner. In most representatives, the cell is born without a cell, if it is very simple. Most representatives of prokaryotes are heterotrophs, some representatives feed on autotrophs. Some representatives (bacteria-protozoa) are parasites.

Eukaruots: These include fungi, algae (green, red, brown, diatom, pyrrhophyte, suglenophyte, yellow gold, various diatoms) and all higher plants, animals and humans. Cells and tissues of eukaryotes 10 -100 μ m in size. The cell has a developed nucleus, which contains chromosomes. Chromosome consists of DNA and histone protein. Histone is composed of many amino acids. Cell cytoplasm of eukaryotes contains cell organelles - mitochondria and plastids, Golgi apparatus. Protoplasm moves around the center of the cell or in a straight line. The cell wall consists of chitin or cellulose.

These include variously developed reproductive organs, during the sexual process, a diploid nucleus is formed as a result of the addition of a nucleus (from the Greek. diplos-

secondary, more than twice) and a haploid nucleus is formed from the division of the added nucleus (from the Greek, haplos divided) will be In the cell of eukaryotes, soda performs the task of moving along the undulipod, which is located with the help of special bodies (kinetosome).

Plant nutrition: The world of plants is divided into genoforms and autotrophs depending on their nutrition. According to modern scientists, the oldest form of nutrition is heterotrophic nutrition.

The body of the initially formed heterotrophic nutrition is complex. It did not have cell parts like those of modern organisms. A simple cell is fed by ready-made organic matter. Such nutrition is called saprophytic (Greek sapos - humus, trophic nutrition). All animals, fungi, single-celled organisms, bacteria and some algae are saprophytes. Currently, most scientists recommend that fungi be separated from the plant world, because they do not have motile cells during their life. However, given some of the characteristics of fungi: non-stop cell growth, reproduction, and their similarity to bottom plants, they are studied by transplanting them into plants. The evolution of fungi begins with unicellular eukaryotes. Most representatives of fungi are mainly saprophytes and feed on decaying organic matter. They break down organic substances, exchange substances in nature, and ecological balance is an important biological catalyst in storage. In the process of decomposition, organic matter releases atmospheric carbon dioxide gas and supplies the soil with nitrogenous compounds. Nutrition of higher plants with the participation of fungi is called mycotrophic (Greek-mycos-fungus) nutrition. Parasites (Greek: parazitos-tekinkhur) are also found among heterotrophic feeding plants and fungi.

They live at the expense of plants and animals. For example, among flowering plants, sedge, ivy, sedge; Among the fungi, black moth and rust fungi belong to free-parasitic feeders. Among the plants, there is also a mixed myxotrophic (from the Greek mixis - mixed) nutrition. Such organisms, in addition to the organic matter produced by photosynthesis, also feed on ready-made organic matter. Such a phenomenon can be found in euglena, a representative of green algae. In a slow and long process of evolution, the first photosynthetic autotrophic (self-feeding) organisms appeared on Earth about 3.4 billion years ago. The origin of life on Earth depends on autotrophic organisms. The cells of early autotrophic organisms were simpler compared to modern autotrophs but more complex compared to heterotrophs. The cell of autotrophic plants contains the pigment chlorophyll (chromatophore), which gives it a green color. All green plants that have chlorophyll or chromatophore in their cells absorb carbon dioxide from the air, and in the process of assimilation, they obtain the energy needed to form organic matter from inorganic substances from sunlight.

Part of the oxygen released due to the process of photosynthesis turns into ozone (O₃) in the atmosphere, and it does not send the ultraviolet rays released from sunlight to the earth. It allows living organisms to develop here. In addition, the plant breathes from the amount of oxygen it releases. There are other types of autotrophic organisms that live underground in total darkness. Such organisms are called chemotrophic organisms. Chemotrophic organisms get the energy they need for food. This is called chemosynthesis. Chemosynthesis was first introduced in science by the Russian scientist S.N. Discovered by Vinogradsky (1887). Chemotrophic plants include iron, sulfur bacteria, and nitrogen-fixing bacteria.

List of used literature:

1. Tutayuy B.X. Anatomy and morphology of plants. "High School" nashriyoti, Moscow, 1972.
2. Yakole G.P., Chelombumko V.A. Botanica. "High School" nashriyoti, Moscow, 1990.
3. Botanica. Morphology and anatomy of plants, "Enlightenment" nashriyoti, Moscow 1988.

YARIM TEKISLIKLAR MINKOVSKIY AYIRMASI

Nuritdinov J.T.

Qo'qon universiteti "Raqqamli texnologiyalar va matematika" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada geometrik to'plamlar ustida bajariladigan Minkoskiy ayirmasi va yig'indisi amallari yoritilgan. Yarim tekisliklarning Minkovski ayirmasini va yig'indisini topish qoidalari va usullari teorema ko'rinishida keltirilgan va isbot etilgan.

Kalit so'zlar: yarim tekisliklar, to'g'ri chiziqlar, Minkovski ayirmasi, Minkovski yig'indisi, parallel ko'chirish

Tekislikda berilgan to'g'ri chiziq uni qavariq ikki sohaga ajratadi. Bu sohalarning birini yarim tekislik deb ataymiz. Shunday yarim tekisliklarning Minkowski ayirmasi va yig'indisi haqida fikr yuritish mumkin. [1],[2] ishlarda to'g'ri chiziqlar Minkovski yig'indisi va Minkovski ayirmasi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bulardan foydalanib yarim tekisliklar Minkovski yig'indisi va ayirmasini topish masalasini ko'rib o'tamiz.

1-teorema. Aytaylik $\bar{l}_1 = \{(x, y) \in \square^2 : y \geq k_1x + b_1\}$ va $\bar{l}_2 = \{(x, y) \in \square^2 : y \geq k_2x + b_2\}$ to'plamlar \square^2 da aniqlangan yarim tekisliklar bo'lsin. Agar $k_1 = k_2$ tenglik bajarilsa, u holda ularning Minkovski yig'indisi $\bar{l}_1 + \bar{l}_2 = \{(x, y) \in \square^2 : y \geq k_1x + b_1 + b_2\}$ yarim tekislik bo'ladi. Agar $k_1 \neq k_2$ munosabat bajarilsa $\bar{l}_1 + \bar{l}_2$ Minkovski yig'indisi butun \square^2 tekislikdan iborat bo'ladi.

Isbot. $k_1 = k_2$ bo'lsa \bar{l}_1 va \bar{l}_2 to'plamlarning mos ravishda yasovchilari bo'lgan, $l_1 : y = k_1x + b_1$ va $l_2 : y = k_2x + b_2$ to'g'ri chiziqlar o'zaro parallel bo'lib qoladi. [1, Proposition 3.1.] ga ko'ra bu to'g'ri chiziqlarning Minkovski yig'indisi yana shu to'g'ri chiziqlarga parallel bo'lgan to'g'ri chiziqdan iborat bo'ladi. Demak, bu to'g'ri chiziqning burchak koeffisienti ham k_1 ga teng bo'lar ekan. $l_1 : y = k_1x + b_1$ to'g'ri chiziqdan olingan ixtiyoriy nuqtaning koordinatasi $(x_1; k_1x_1 + b_1)$, $x_1 \in \square$ ko'rinishda va $l_2 : y = k_1x + b_2$ (chunki $k_1 = k_2$) to'g'ri chiziqdan olingan ixtiyoriy nuqtaning koordinatasi $(x_2; k_1x_2 + b_2)$, $x_2 \in \square$ ko'rinishda bo'ladi. Bu nuqtalarning Minkovski yig'indisi

$$(x_1 + x_2; k_1(x_1 + x_2) + b_1 + b_2) \quad (1)$$

ko'rinishdagi nuqtalar to'plamidan iborat bo'ladi. $x_1 + x_2 = t$ parameter kiritsak, (1) ifodani

$$(t; k_1t + b_1 + b_2) \quad (2)$$

ko'rinishda yoza olamiz. (2) ko'rinishdagi nuqtalar to'plami $l_1 + l_2 : y = k_1x + b_1 + b_2$ to'g'ri chiziqdan iborat bo'ladi. Bundan esa \bar{l}_1 va \bar{l}_2 yarim tekisliklarning Minkovski

yig'indisi $\bar{l}_1 + \bar{l}_2 = \{(x, y) \in \square^2 : y \geq k_1x + b_1 + b_2\}$ ko'rinishdagi yarim tekislikdan iborat ekanligi kelib chiqadi.

Agar $k_1 \neq k_2$ bo'lsa, u holda $l_1 : y = k_1x + b_1$ va $l_2 : y = k_2x + b_2$ tog'ri chizqlar o'zaro parallel bo'lmaydi. [1, Proposition 3.2.] ga ko'ra bu to'g'ri chiziqlarning Minkovskiy yig'indisi bu to'g'ri chiziqlar yotuvchi tekislik bo'ladi, ya'ni \square^2 .

Faraz qilaylik, $\bar{l}_1 + \bar{l}_2 \neq \square^2$ bo'lsin. U holda shunday $(x_0; y_0) \in \square^2$ nuqta topilib, $(x_0; y_0) \notin \bar{l}_1 + \bar{l}_2$ bo'ladi. $(x_0; y_0) \notin \bar{l}_1 + \bar{l}_2$ munosabatning ma'nosi $x_0 = x_1 + x_2$ va $y_0 = y_1 + y_2$ tengliklarni qanoatlantiradigan $(x_1; y_1) \in \bar{l}_1$, $(x_2; y_2) \in \bar{l}_2$ nuqtalar topilmasligini bildiradi. Lekin $x_1 \in \square$ va $x_2 \in \square$ ekanligidan doimo $x_0 = x_1 + x_2$ tenglikni qanoatlantiradigan x_1, x_2 lar topiladi. Bundan $x_1 = x_0 - x_2$ yoza olamiz. $y_1 \geq k_1x_1 + b_1$ va $y_2 \geq k_2x_2 + b_2$ bo'lgani uchun $y_1 + y_2 \geq k_1x_1 + k_2x_2 + b_1 + b_2$ ifoda kelib chiqadi. Bu ifodaga $x_1 = x_0 - x_2$ ni qo'ysak $y_1 + y_2 \geq k_1x_0 + (k_2 - k_1)x_2 + b_1 + b_2$ tengsizlikka ega bo'lamiz. $k_1 \neq k_2$ bo'lgani uchun har qanday $(x_0; y_0) \in \square^2$ nuqta olinmasin doim $y_0 \geq k_1x_0 + (k_2 - k_1)x_2 + b_1 + b_2$ munosabat o'rinli bo'luvchi $x_2 \in \square$ topiladi. Demak, $(x_0; y_0) \in \bar{l}_1 + \bar{l}_2$ va $\bar{l}_1 + \bar{l}_2 = \square^2$. Demak, bu to'g'ri chiziqlar hosil qilgan yarim tekisliklar Minkovskiy yig'indisi ham butun tekislikdan iborat bo'lar ekan. \square

2-teorema. Aytaylik $\bar{l}_1 = \{(x, y) \in \square^2 : y \geq k_1x + b_1\}$ va $\bar{l}_2 = \{(x, y) \in \square^2 : y \geq k_2x + b_2\}$ to'plamlar \square^2 da aniqlangan yarim tekisliklar bo'lsin. Agar $k_1 = k_2$ tenglik bajarilsa, u holda ularning Minkovskiy ayirmasi $\bar{l}_1 * \bar{l}_2 = \{(x, y) \in \square^2 : y \geq k_1x + b_1 - b_2\}$ yarim tekislik bo'ladi. Agar $k_1 \neq k_2$ munosabat bajarilsa $\bar{l}_1 * \bar{l}_2$ Minkovskiy ayirmasi bo'sh to'plamdan iborat bo'ladi.

Isbot. Agar $k_1 = k_2$ bo'lsa \bar{l}_1 va \bar{l}_2 to'plamlarning mos ravishda yasovchilari bo'lgan, $l_1 : y = k_1x + b_1$ va $l_2 : y = k_2x + b_2$ to'g'ri chiziqlar o'zaro parallel bo'lib qoladi. [2, 1-teorema] ga ko'ra bu chiziqlarning Minkovskiy ayirmasi shu to'g'ri chiziqga parallel to'g'ri chiziq bo'ladi.

Aytaylik, $(x_0; y_0) \in \bar{l}_1 * \bar{l}_2$ bo'lsin. Minkovskiy ayirmasining ta'rifiga ko'ra $(x_0; y_0) + \bar{l}_2 \subset \bar{l}_1$ munosabat o'rinli bo'ladi. $(x_0; y_0) + \bar{l}_2$ to'plam \bar{l}_2 to'plamni $(x_0; y_0)$ nuqtaga parallel ko'chirishdan hosil bo'lgan to'plam bo'lib, uni \bar{l}_2' orqali belgilaymiz va

$$\bar{l}_2' = \{(x, y) \in \square^2 : y \geq k_2(x - x_0) + b_2 + y_0\} \quad (3)$$

ko'rinishda ifodalaymiz. $\bar{l}'_2 \subset \bar{l}_1$ bo'lgani uchun $\bar{l}_1 = \{(x, y) \in \mathbb{R}^2 : y \geq k_1x + b_1\}$ ekanligini bilgan holda

$$k_2(x - x_0) + b_2 + y_0 \geq k_1x + b_1 \quad (4)$$

tengsizlikni yoza olamiz. $k_1 = k_2$ bo'lgani uchun (4) munosabatni

$$y_0 \geq k_1x_0 + b_1 - b_2 \quad (5)$$

ko'rinishda yoza olamiz. Demak, $(x_0; y_0) \in \bar{l}_1 * \bar{l}_2$ nuqtalar uchun (5) shart o'rinli ekan.

Bundan esa \bar{l}_1 va \bar{l}_2 yarim tekisliklarning Minkovskiy ayirmasi $\bar{l}_1 * \bar{l}_2 = \{(x, y) \in \mathbb{R}^2 : y \geq k_1x + b_1 - b_2\}$ ko'rinishdagi yarim tekislikdan iborat ekanligi kelib chiqadi.

$k_1 \neq k_2$ bo'lsin. $l_2 \subset \bar{l}_2$ to'g'ri chiziqni olaylik. Minkovskiy ayirmasi aniqlanishiga ko'ra $\bar{l}_1 * l_2$ to'plam shunday nuqtalardan iborat bo'lishi kerakki, l_2 to'g'ri chiziqning bu nuqtalarga parallel ko'chirganimizdagi obrazi \bar{l}_2 yarim tekislikda to'la yotib qolishi lozim. $l_1 : y = k_1x + b_1$ va $l_2 : y = k_2x + b_2$ to'g'ri chiziqlar o'zaro parallel bo'lmagani uchun bunday nuqtalar topilmaydi. Bu esa $\bar{l}_1 * l_2 = \emptyset$ ekanini anglatadi. $l_2 \subset \bar{l}_2$ bo'lgani uchun $\bar{l}_1 * \bar{l}_2 = \emptyset$ munosabat ham o'rinli bo'ladi. \square

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D. Velichova. Notes on properties and applications of Minkowski point set operations// South Bohemia Mathematical Letters. 2016. Volume 24. №1. pp.57-71.
2. J.T. Nuritdinov. To'g'ri chiziq va tekisliklar Minkovskiy ayirmasi haqida.// Differential equations and related problems of analysis. Republican Scientific Conference with the participation of foreign scientists Bukhara, Uzbekistan, November 04-05, 2021

THE CONNECTION OF A RICKART REAL C*-ALGEBRA WITH ITS ENVELOPING RICKART (COMPLEX) C*-ALGEBRA

Abduxamidova Dilshoda Bayram qizi
Kokand University Student of MLS – 1 – 22,
Nilufarxon Raxmonova Vaxobjon qizi
Kokand University teacher at Department
of Digital technologies and mathematics

Abstract: In the paper Rickart complex and real C*-algebra are consider. For Rickart real C*-algebra, its connection with the enveloping (complex) C*-algebra is studied. It is shown that the fact that A is a Rickart real C*-algebra does not imply that a complexification $A + iA$ of A is a Rickart (complex) C*-algebra. Proved that if A is a real C*-algebra and $A + iA$ is a Rickart C*-algebra, then A is a Rickart real C*-algebra. It is shown that there exists a Rickart real C*-algebra whose projection lattice is not complete.

Keywords: C*-algebra; Rickart complex and real C*-algebras; complex and real AW*-algebras.

Introduction: The theory of operator algebras was initiated in a series of papers by Murray and von Neumann in thirties. Later such algebras were called von Neumann algebras or W*-algebras. These algebras are self-adjoint unital subalgebras M of the algebra B(H) of bounded linear operators on a complex Hilbert space H, which are closed in the weak operator topology. Equivalently M is a von Neumann algebra in B(H) if it is equal to the commutant of its commutant (von Neumann's bicommutant theorem). A factor (or W*-factor) is a von Neumann algebra with trivial centre and investigation of general W*-algebras can be reduced to the case of W*-factors, which are classified into types I, II and III.

Rings and algebras, which will be discussed below, first studied by C.E. Rickart [1]. These algebras were further developed in the works of I. Kaplansky [2-4]. Exactly, AW*-algebras were proposed by I. Kaplansky as an appropriate setting for certain parts of the algebraic theory of von Neumann algebras. In this article, we consider the real analogue of these algebras.

Preliminaries:

Definition 2.1. A C*-algebra is a (complex) Banach *-algebra whose norm satisfies the identity $\|x^*x\| = \|x\|^2$. Now let A be a real Banach *-algebra. A is called a real C*-algebra, if $A_c = A + iA$ can be normed to become a (complex) C*-algebra by extending the original norm on A.

Note that a C*-norm on A_c is unique, if it exists. It is known that [5, Corollary 5.2.11]

A is real C*-algebra if and only if $\|x^*x\| = \|x\|^2$ and $1 + x^*x$ is invertible, for any $x \in A$.

Definition 2.2. If A is a ring and S is a nonempty subset of A, we write

$$R(S) = \{x \in A : sx = 0, \quad \forall s \in S\}$$

and call R(S) the right-annihilator of S. Similarly,

$$L(S) = \{x \in A : xs = 0, \quad \forall s \in S\}$$

denotes the left-annihilator of S .

Definition 2.3. A Rickart $*$ -ring is a $*$ -ring A such that, for each $x \in A$, $R(\{x\}) = gA$ with g a projection (note that such a projection is unique). It follows that $L(\{x\}) = (R(\{x^*\}))^* = (hA)^* = Ah$ for a suitable projection h . A (complex) C^* -algebra that is a Rickart $*$ -ring will be called a Rickart C^* -algebra

The connection of a rickart real C^* -algebra with its enveloping rickart (complex) C^* -algebra: In this section, we consider the connection of a Rickart real C^* -algebra with its enveloping Rickart (complex) C^* -algebra. There is example of a Rickart real C^* -algebra for which the enveloping C^* -algebra (i.e., its complexification) is not a Rickart (complex) C^* -algebra.

By applying the scheme of proof of [7, Proposition 4.2.3] we obtain:

Theorem 3.1. The complex C^* -algebra $B+iB$ is not a Rickart C^* -algebra.

Now let us consider the converse problem: if A is a real C^* -algebra and $A+iA$ is a Rickart C^* -algebra is A necessarily a Rickart real C^* -algebra?

The following result gives a positive answer to this problem, which is the main result of this section.

Theorem 3.2. Let A be a real C^* -algebra and let $A_c = A + iA$ be its complexification. Suppose that A_c is a Rickart C^* -algebra. Then A is a Rickart real C^* -algebra.

Main results. In this section, we will show that there is a Rickart real C^* -algebra whose projection lattice is not complete. We will consider the connection between Rickart real C^* -algebra and real AW^* -algebra.

Proposition 4.1. [6, Proposition 3, paragraph 3]. Let A be a Rickart $*$ -ring and $x \in A$. There exists a unique projection e such that (1) $xe = x$, and (2) $xy = 0$ iff $ey = 0$. Similarly, there exists a unique projection f such that (3) $fx = x$, and (4) $yx = 0$ iff $yf = 0$. Explicitly, $R(\{x\}) = (1-e)A$ and $L(\{x\}) = A(1-f)$. The projections e and f are minimal in the properties (1) and (3), respectively. We write $e = RP(x)$, $f = LP(x)$, called the right projection and the left projection of x .

It is known that any C^* -algebra can be isomorphically embedded into some $B(H)$. Namely, there is an isomorphism of a C^* -algebra onto a uniformly closed C^* -subalgebra in $B(H)$, for some complex Hilbert space H . On the other hand, if $A \subset B(H)$ be a real C^* -algebra, then it is also known that there is a real Hilbert space H_r with

$$H_r + iH_r = H, \quad A \subset B(H_r) \subset B(H_r) + iB(H_r) = B(H).$$

Proposition 4.2. The real C^* -algebra $B(H_r)$ is a Rickart real C^* -algebra. Explicitly, if $x \in B(H_r)$ then $LP(x)$ is the projection on the closure of the range of x , and $1 - RP(x)$ is the projection on the null space of x (i.e. $1 - RP(x) \in x^*(H_r)^\perp$).

If A is a Rickart $*$ -ring and B is a $*$ -subring of A , then B need not be a Rickart $*$ -ring: an obvious example is when B has no unity element (it's obvious that a Rickart $*$ -ring always has a unity element), but adjoining a unity element may not be a remedy (we will show it below). There is, nevertheless, a useful positive result.

Proposition 4.3. [6, Proposition 8, paragraph 3]. Let A be a Rickart $*$ -ring and let B be a $*$ -subring such that (1) B has a unity element, and (2) $x \in B$ implies $RP(x) \in B$. Then B is also a Rickart $*$ -ring.

Theorem 4.1. There exists a Rickart real C^* -algebra whose projection lattice is not complete.

Definition 4.1. A Baer $*$ -ring is a $*$ -ring A such that, for every nonempty subset $S \subset A$, $R(S) = gA$ for a suitable projection g . It follows that $L(S) = R(S^*)^* = (hA)^* = Ah$ for a suitable projection h .

The relation between Rickart $*$ -rings and Baer $*$ -rings is the relation between lattices and complete lattices:

Proposition 4.4. [6, Proposition 1, paragraph 4]. The following conditions on a $*$ -ring A are equivalent:

- (a) A is a Baer $*$ -ring;
- (b) A is a Rickart $*$ -ring whose projections form a complete lattice;
- (c) A is a Rickart $*$ -ring in which every orthogonal family of projections has a supremum.

Definition 4.2. A (complex) C^* -algebra that is a Baer $*$ -ring will be called a AW^* -algebra. A real C^* -algebra that is a Baer $*$ -ring will be called a real AW^* -algebra.

By Theorem 4.1 and Proposition 4.4 we obtain

Corollary 4.1. A real AW^* -algebra is a Rickart real C^* -algebra, but the converse is not true, i.e., a Rickart real C^* -algebra doesn't need to be a real AW^* -algebra.

Corollary 4.2. The algebra B from the Example above is a Rickart real C^* -algebra, but by Theorem 3.1 it is not a real W^* -algebra.

References:

1. C.E. Rickart, Banach algebras with an adjoint operation. Ann. of Math. (2) 47, (1946), 528-550.
2. I. Kaplansky, Projections in Banach algebras. Ann. of Math. (2) 53, (1951), 235-249.
3. I. Kaplansky, Algebras of type I. Ann. of Math. (2) 56, (1952), 460-472.
4. I. Kaplansky, Modules over operator algebras. Amer. J. Math. 75, (1953), 839-858.
5. B.-R. Li, Real operator algebras. World Scientific Publishing Co. Pte. Ltd. (2003), 241p.
6. S.K. Berberian, Baer $*$ -rings. Springer-Verlag, Berlin-Heidelberg-N.Y. 1972.
7. Sh.A. Ayupov, A.A. Rakhimov, Real W^* -algebras, Actions of groups and Index theory for real factors. VDM Publishing House Ltd. Beau-Bassin, Mauritius. ISBN 978-3-639-29066-0, (2010), 138p.
8. Sh.A. Ayupov, A.A. Rakhimov, Sh. M. Usmanov, Jordan, Real and Lie Structures in Operator Algebras. Kluwer Academic Publishers, MAIA, Vol.418, (1997), 235p. DOI:10.1112/S0024609398305457.

**KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIY
HISOBNING AHAMIYATI****Elmurodov M.N.****Qo'qon universiteti talabasi,****Tojiyeva M.M.****Qo'qon universiteti "Raqamli texnologiyalar va matematika"
kafedrası o'qituvchisi**

Annotatsiya: Bugungi kunda respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirish asosiy masalalardan bo'lib, tadbirkorlik sohalari faoliyatini tashkillashtirish muhimdir. Bu maqolada bugungi kunda bizning mamalakatimizda yo'lga qo'yilishi mumkin bo'lgan tadbirkorlik sohasi haqida yozilgan. Pavloniya daraxti haqida va pavloniya plantatsiyalarini tashkillashtirish qancha harajat va qancha daromadga erishish mumkinligi moliyaviy hisobi nazariy jihatdan ishlab chiqilgan. Muallif tomonidan kichik tadqiqot o'tkazilib tegishli xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisod, ekologiya, pavloniya, talab, ehtiyoj, daromad, foyda.

Kirish: Mamlakatimiz aholisining iqtisodiy farovonligi va turmush sifatini oshirish bugungi kundagi eng muhim masalalardan biridir. O'zbekiston rivojlanayotgan mamalakatlar qatorida bo'lib, iqtisodiyotni rivojlantirishda moliyaviy foydadan tashqari ekologik muhitni ham inobatga olgan holda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini shakllantirishga e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarning o'sishi bilan atrof-muhitni muhofaza qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga davlat xarajatlarning ko'payishi kuzatilmoqda. Qancha chora- tadbirlar hamda mablag` sarflanishiga qaramay ekologik vaziyat noqulayligicha qolmoqda. O'z taraqqiyotini oldindan uzoq muddatga ilmiy asosda rejalashtira oladigan va tabiiy muvozanatni o'zgartirmasdan foydalana oladigan jamiyatgina taraqqiyotga erishadi.

Asosiy qism: Xorijiy olimlar A. Marshall va A. Pigu, keyinchalik R. Kouz rahbarlik qilgan institutsional maktab vakillari atrof-muhitga zararni salbiy tashqi ta'sirlar deb ta'rifladilar. D.X.Medouz, D.L.Medouz va J.Randersning "O'sish chegaralari" asarlari atrof-muhitning o'sib borayotgan ifloslanishi, tabiiy resurslarni iste'mol qilish va jahon iqtisodiyoti rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga katta hissa qo'shdi. Bu ish ilmiy jamoatchilikda katta rezonansga sabab bo'ldi. G. Deyli (X. Dali) iqtisodiy o'sish doimo atrof-muhitni ifloslantiradi va biosfera yukini oshiradi, degan fikrni qo'llab-quvvatladi. Boshqa tadqiqotchilar V.Bekkerman va B.Barlett atrof-muhit sifatini yaxshilashning asosiy vositasi iqtisodiy o'sish ekanligini ta'kidladilar. Tabiiy resurslardan samarali foydalanish muammolari bilan shug'ullanuvchi Arskiy, A.L., Bobrov, S.N. Bobyleva, O.I. Malikova, K.V. Papenov, uning asarlari makroiqtisodiy siyosatning ekologik muammolariga, barqaror rivojlanish ko'rsatkichlariga bag'ishlangan. O.V. Zubarevaning ishlarida esa xalqaro ekologik loyihalarni moliyalashtirish masalasi ko'rib chiqilgan bo'lib muallif tomonidan tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Hammamizga ma'lumki daraxtlar o'ziga karbonat angidridni yutadi va insonlar uchun muhim bo'lgan kislorodni chiqarib beradi. Shuning uchun ham davlatlar ekologiyani

yaxshilash maqsadida juda ko'plab daraxtlar ekishmoqda. Albatta insonlarga yog'och mahsulotlari juda ham kerak. Ularni yetishtirish esa bir muncha qiyinroq. Hozirgi kunda esa yog'ochbop eng mashxur bo'lgan daraxt ya'ni Pavloniya daraxti ham so'nggi yillarda O'zbekistonga kirib kelmoqda. Bu daraxt juda ham tez yetiladi va juda ham ko'p umr ko'radi. Bu daraxtni o'stirish orqali ekologiyamizga juda katta foyda bo'ladi, shuningdek respublikamizda yog'ochga bo'lgan ehtiyojni ham qondirishimiz mumkin.

Hozirgi kunda bu daraxtga bo'lgan e'tibor juda ham katta qaratilmoqda. Buni Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 27-avgust 520-sondagi "Respublikada tez o'suvchi va sanoatbop pavlovniya daraxti plantatsiyalarini barpo qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham ko'rishimiz mumkin. Bu qarorda respublika bo'yicha tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib, suv tanqis, yer osti suvlari 30 metrdan pastda joylashgan foydalanilmayotgan zaxira maydonlarda hamda o'rmon fondining suv tanqis yoki tuprog'i sho'r bo'lgan yerlarida pavlovniya plantatsiyalarini tashkil qilish ko'zda tutilgan.

Pavloniya daraxti haqida: Dunyodagi eng tez o'sadigan pavloniya daraxti haqida eshitgan har qanday odamni o'simlikning o'ziga xos xususiyatlari va u o'sadigan sharoitlari hayratda qoldiradi. Bugungi kunda ko'pchilik uchun yangilik bo'lgan pavloniya ko'chatlari ko'chalar, dam olish joylari va xiyobonlarning landshaft dizaynida dekorativ daraxt sifatida ishlatiladi. Vaholanki, dunyodagi eng qimmatbaho yog'ochni sotib olish uchun ekiladigan pavloniya daraxti boshqa o'simliklardan nafaqat dekorativ ko'rinishi, balki qimmatli xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. U gul ochsa, asalarilar oilasi uchun yaxshi asal manbai bo'lib, xushbo'y hidi bilan 1 oy davomida qalbni quvontiradi. Guli parfyumeriya ishlab chiqarish uchun kosmetika sanoatida keng qo'llaniladi.

Aprel-may oylariga to'g'ri keladigan gullash davrida 1 ari oilasi 10-15 kilogramm asal yig'adi. Pavloniyaning tanasi dunyodagi eng qimmat materialdir. Yaponiya Xitoy davlatlarida 1 kg asali 10\$ dan sotiladi. Dunyoda ko'proq mebelsozlikda ishlatiladi va bu daraxtdan tayyorlangan mebellar juda ham mustahkam, hattoki, chinordan ham mustahkam bo'ladi va juda go'zal ham bo'ladi. Shuning uchun ham uning 1 kv i dunyo bozorida 300-450 \$ gacha baholanadi. Albatta bu narxlar uning yoshiga qarab belgilanadi. Bu daraxtning ko'chati yerga ekilishi bilan 5 yilda ustun qilib ishlatishga tayyor bo'ladi. Agar uni mebelsozlik bo'yicha ishlatmoqchi bo'lsangiz kamida 6-7 yilda tayyor bo'ladi. Bu daraxning yana bir xususiyati borki, tayyor bo'lganidan keyin kesib tashlasangiz, keyingi yili yana qaytadan tagidan chiqadi. Bu daraxt 100 yildan ham ko'proq yashashi mumkin.

Keling kichik tadqiqot qilib ko'ramiz. 1 gektar yerga pavloniya ko'chatlarini ekib qancha xarajat va qancha daromad qilishimizni ko'ramiz.

1-jadval

Nº	Sotib olinayotgan mulk va hom-ashyolar	O'lcho v birligi	Soni	Narxi (so'm)	Jami (so'm)	so'mmasi
1.	Pavloniya ko'chati (M1 navi)	dona	1250	15 400	19 250 000	
2.	O'g'it (biogomus)	kg	2500	2000	5 000 000	
3.	Carbamint	kg	100	2800	280 000	
4.	Emamektin benzoat	kg	125	30 000	3 750 000	
5.	Tomchilatib sug'orish texnikalari				27 000 000 (taxminan)	
6.	Ko'chatni ekish jarayoniga qo'shimcha kuchlar uchun (transport, mehnat...) va boshqa xarajatlar uchun				4 000 000	
	Jami:				59 280 000	

1-jadvaldan kelib chiqqan holda pavloniya plantatsiyasini tashkil etish uchun 59 280 000 (ellik to'qqiz million ikki yuzu sakson ming) so'm harajat qilinadi.

Bu soha juda serdaromad soha hisoblanadi. Chunki bu daraxtlar juda ham tez yetilgani bilan birgalikda juda ham sifatli va chiroylidir. Buning barglari juda ham moyli bo'lganligi uchun ham chorvachilikda yem o'rnida foydalaniladi. Gulidan esa dunyo bo'yicha eng sifatli va qimmat asal yetishtiriladi. 1 kg asali dunyoda 10\$ hisoblanadi. 1 gektar yer maydoniga 4x2 metr sxemada ekilsa 1250 ta ko'chat ekiladi. Ko'chatlar esa aprel oyining birinchi 10 kunligida ekiladi. Ekilganidan so'ng, bir yilda 9 metrgacha bo'y cho'zadi. Keyin fevralning boshida tagidan kesiladi. Bu jarayon daraxtning tomiri yerga qattiq o'rnashib olishi uchun amalga oshiriladi. Ko'chatni 15 400 so'mda oladigan bolsak, uni 7 yildan keyin sotadigan bo'lsak, har bittasidan o'rtacha kamida 300\$ daromad olamiz. Albatta ishbilarmon odam 7 yil kutib o'tirmaydi. Birinchi ikki yilida orasiga kartoshka yoki boshqa narsa ekib daromad qilishi mumkin. Chunki erta bahor tagidan kesilgan pavloniya tagidagi ekinlarga soyalik qila olmaydi. Keyingi yillarda esa orasiga biron nima ekish qiyinroq bo'ladi chunki kattarib tagiga quyosh nuri o'tmay qolishi mumkin. Lekin ishni ko'zini biladigan odam albatta, bu yerdan ham ustalik bilan chiqib ketadi. Pavloniyaning quritilgan barglari chorva mollari va qo'ylari uchun juda ham foydali ozuqa hisoblanadi. U bemalol yem-ozuqaning o'rnini bosa oladi. Shuning uchun ham barglaridan ham daromad olsa bo'ladi.

2-jadval

Nomi	Birinchi vazni	Sotuv narxi	Ishlab chiqarish
Har doim ham ta'lim emas, balki ta'lim kerak bo'lgan rol o'ynaydi ishlab chiqaruvchilar, keng jamoatchilik va chiqindilarni qayta ishlaydigan sektorni ko'paytirish kerak, chunki u, masalan, rivojlantirishga yordam beradi. Tovarlarni ishlab chiqarishda xavfli kimyoviy moddalarga nisbatan kamroq xavfli alternativlardan foydalanish kerak. Shunday qilib, ishlab chiqaruvchilar ko'proq ma'suliyat olishadi qayta ishlash uchun mas'uliyat, bu yerda ham keng jamoatchilik ko'proq qayta ishlashni rag'batlantirish siyosatni ishlab chiqish kerak. Bundan tashqari, va bu transport harakati va energetika tarmoqlari eng ifloslantiruvchi sohalardir, siyosat shunday bo'lishi kerakki, ko'proq qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishga yo'naltirilgan yoki kamroq ifloslantiruvchi energiya manbalari va shaxsiy transportdan foydalanish kerak. Ushbu tadbirlar atrof-muhitni yaxshilash va inson salomatligiga ijobiy hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Skenderovich I, Kalac B, Becirovic S (2015) Atrof-muhitning ifloslanishi va chiqindilarni boshqarish. Bolqon Sog'liqni saqlash fanlari jurnali.
2. Triassi M, Alfano R, Illario M, Nardone A, Caporale O va boshqalar. Noqonuniy chiqindilarni utilizatsiya qilish natijasida atrof-muhitning ifloslanishi va inson salomatligi. Atrof-muhit tadqiqotlari va jamoat salomatligi - Xalqaro jurnali.
3. Haseena M, Malik MF, Asma Javed, Sidra Arshad, Nayab Asif va boshqalar. (2017)
4. Suvning ifloslanishi va inson salomatligi. Ekologik xavfni baholash va tuzatish
4. **P.S.Sultonov** "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari" «Musiqqa» nashriyoti Toshkent -2007
5. <https://pecb.com/article/health-impacts-of-environmental-pollution>
6. www.ziyonet.uz

KIMYO FANINI O'QITISHDA VIRTUAL LABORATORIYADAN FOYDALANISHNING O'RNI

Axmadjonova Yorg'inoy Tojimurodovna,
Ahmadjonova Umida Tojimurodovna
Jizzax Politexnika instituti

Annotasiya. Maqolada kimyo fanini o'qitishda qo'llaniladigan virtual laboratoriyani ta'lim jarayoniga qo'llash to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Virtual ta'limning asosiy maqsadi, insonning real borliqda tutgan o'rnining tub mohiyatini anglab yetishdagi-uning virtual va boshqa imkoniyatlari uyg'unligini ta'minlashdan iboratdir. Virtual ta'lim nafaqat masofaviy telekommunikatsiyagagina xos jihat bo'lib qolmasdan, balki ta'limning barcha, jumladan, kunduzgi shakllarida o'qituvchi, talaba(o'quvchi), o'rganilayotgan ob'yektlarning o'zaro munosabatlarida namoyon bo'lish xususiyatiga ega. Virtual laboratoriyalarda foydalanish kimyo ta'limda (masofaviy o'qitish) imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. kimyo, virtual laboratoriya, masofaviy o'qitish, interfaol vositalar

Bugungi kunda, zamon talabiga javob beruvchi yetuk mutaxassis tayyorlash uchun o'quv-tarbiyaviy jarayonlarini zamon talablariga mos holda tashkil etish va boshqarish ta'limdagi dolzarb masala hisoblanadi. Oliy o'quv yurtlari kimyo ta'limida talabalarni o'quv fani asoslari bilan bog'liq bo'lgan qonuniyatlar, nazariyalar, tushunchalar va atamalar bilan tanishtirish bilan bir qatorda bo'lg'usi yetuk mutaxassis barkamolligini ta'minlash, ta'lim jarayoni samarasini oshirish maqsadida juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Chunki, egallangan bilimlarni amaliyotga joriy qilish masalasida haligacha kamchiliklar mavjud. Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko'plab ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Oliy o'quv yurtlari ta'lim jarayonida interfaol vositalarni qo'llash oddiylikni kasb etgani holda (o'quv mashg'ulotlarida kompyuter texnikasi va dasturiy ta'minotini qo'llash) masofaviy ta'lim uchun ham katta imkoniyatlarni ochib bermoqda.

Hozirgi kunda internetning rivojlanib borishi, respublikamizning har nuqtalariga yetib borishi undan foydalanuvchilarga uydan chiqmasdan turib o'zaro muloqot qilish, kerakli axborotlarni tezlik bilan qabul qilish yoki jo'natish, o'quv yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlarni egallab olishga katta imkoniyatlarni taqdim qilmoqda. Agar internetni axborot texnologiyasining asosiy vositalaridan biri sifatida qarasaq, u orqali masofaviy ta'limni olib borish muammosi keng ma'noda hal etilmoqda. Buning natijasida so'nggi vaqtlarda kimyo, biologiya, fizika fanlarini o'qitishda virtual laboratoriya ishlaridan foydalanish kun sayin rivojlanib bormoqda. Virtual laboratoriyalar o'zida ta'lim berish tizimini aks ettirgan xolda, real olamning virtual ko'rinishini kompyuterlashgan ta'limiy muhit sifatida modellashtirishni ko'rsatadi.

"Virtuallik" atamasi lotincha «virtualis» so'zidan olingan bo'lib, «muayyan bir sharoitlarda sodir bo'ladigan yoki ro'y berishi mumkin bo'lgan», yoki mavjud bo'lmagan, lekin amalga oshirish ehtimoli mavjud bo'lgan jarayon kabi ma'nolarni anglatadi. Ushbu atama inson faoliyatining juda ko'p sohalarida uchraganligi uchun ham uni ta'lim tizimiga olib kirishga yetarlicha asoslar mavjud[1].

Virtual laboratoriya ishlarini qo'llashning dolzarbligi yana shundan iboratki, unda laboratoriya tajribalarini tashkil qilish uchun murakkab qurilmalarni yasash, qurilmalarni va reaktivlarni saqlash, almashtirish shart emasligi bilan bir qatorda ta'mirlash ishlari, kimyoviy idishlarni yuvish kabi ishlar bajarilishi shart emas. Hamma laboratoriya ishlari kompyuter xotirasida yoki tashqi xotirada elektron variantda va bir joyda saqlanadi. Kompyuter qurilmasi xavfsiz, ishlatish qiyin emas va shu bilan birga foydalanuvchidan faqatgina belgilangan mahsus dasturlar bilan ishlash ko'nikmasini talab qiladi. Eksperiment topshirig'ini bajarish uchun maxsus tizim virtual oynalarga o'tishlarni ta'minlab, foydalanuvchiga tajriba bajarish vaqtida erkin tarzda ko'rsatkichlarni o'zgartirish, hisoblashishlarini va grafik vazifalarni bajarish imkoniyatini beradi va bu bilan talabalar o'zlari mustaqil tarzda natija hamda xulosalar chiqarishlari mumkin [2].

Eksperiment o'tkazish uchun Virtual Chemistry Laboratory dasturiy ta'minotidan foydalanishni tavsiya qilamiz .

Barcha ishlar uch o'lchamli animasiya va tasvirlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Ular mahsus dasturlashtirilgan va ovoz bilan ta'minlangan bo'ladi. Bunda ayni mavzuning mazmuni ma'lumotlar, nazorat savollaridan iborat bo'ladi.

Shu tarzdagi har bir laboratoriya tashqi ko'rinishidan va ishlatilish jihatidan bir xil shaklga keltirilgan interfeysdan iborat bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: simulyatsiya, tajriba tafsiloti bo'yicha ma'lumotlar bazasi, maqsadi, vazifasi, ishning bajarilish ketma-ketligidan iborat bo'ladi. Bundan tashqari, mahsus tugmaga joylashtirilgan ma'ruzalar (materialning qisqacha bayoni), o'quvchining ish jurnali, tajriba bajarish davomida o'zlashtirilgan materialni nazorat qilish maqsadida savollar berilgan bo'lishi mumkin. Virtual laboratoriya maksimal ko'rgazmalilikka, tajribani bajarish uchun real qurilmalarning aynan mos kelishini ta'minlaydi. Bu talabalarning ishlarini engillashtiradi, vaqtni tejaydi, o'rganilgan mavzuning o'zlashtirish darajasini oshiradi. Bundan tashqari jarayonning virtual modeli o'qituvchiga talabalarning o'zlashtirish darajasiga qarab, o'rganilayotgan mavzu yuzasidan qo'shimcha savollar shakllantirishga (ayni mavzu yuzasidan) yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida xulosa qilib, kimyo fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda virtual laboratoriyalarning afzalliklari to'g'risida quyidagi fikrlarni bildirish mumkin:

Virtual laboratoriyaning afzalliklari [3]:

- 1) interfaolli;
- 2) mahsus laboratoriya xonalarga bog'liq bo'lmagan holda ishlatilishi (kompyuter mavjud joyda ishlatish imkoniyati);
- 3) o'quv muassasasida bajarish mumkin bo'lmagan yoki real vaqtda kuzatish mumkin bo'lmagan hollarda obyekt, jarayon va hodisalarning modellashtirilishi;
- 4) internetdan foydalanib, masofaviy ta'lim asosida topshiriqlarni amalga oshirish imkoniyati;
- 5) reaktivlar etishmay qolganda;
- 6) hayot uchun xavfli bo'lgan moddalar bilan tajribalarni bajarishda;

Yuqoridagi fikrlarimizdan xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, virtual laboratoriya ishlaridan foydalanilgan holda o'qish jarayonini tashkillashtirilsa, o'quvchilar (talabalar)ni fanga qiziqish bilan yondashishlariga sabab bo'ladi. Hech kimga sir emas hozir yoshlarni tabiiy fanlarga qiziqtirish juda qiyin ayniqsa kimyo faniga o'quvchi(talaba)larni qiziqtirish,

kimyo ta'limi oldidagi muammo hisoblanadi. Yuqorida tavsiya qilayotgan dasturlardan foydalangan holda o'quv jarayoni tashkillashtirilsa, o'quvchilar (talabalar) kimyo fanlarini chuqur o'rganishlariga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, virtual laboratoriya ishlaridan foydalanish masofaviy ta'limda yoki tabiiy sharoitda ta'lim muassasalarida bajarish imkoniyati yo'q laboratoriya ishlarini o'tkazish uchun ayni samarali usul hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G. Ixtiyarova, N. Jo'raqulova va boshqalar. Virtual laboratoriyadagi uch o'lchovli o'zaro ta'sirning kimyo ta'limidagi o'rni. Pedagogik mahorat. №2, 2020.146-151 bet
2. Р.Ш.Бердиқулов, Ф.А.Алимова, Ш.М.Миркомиллов Возможности компьютерных технологий при изучении основ технологических процессов химического производства. Вопросы гуманитарных наук. Научный журнал №2(46), Москва, 2010 г
3. М. Х. Хамидова "Kimyo fanini virtual laboratoriyalardan va kompyuter dasturlaridan foydalanib o'qitishning ahamiyati" Academic research in educational sciences, Volume 2 | ISSUE 8 | 2021,133-139

FIRST-ORDER LINEAR DIFFERENTIAL EQUATIONS. BERNOULLI'S DIFFERENTIAL EQUATION

Memonova Gulnoza Nazrikulovna,
General secondary school teacher numbered 80th

Abstract: The first-order linear differential equation is an important topic in the field of differential equations. This scientific paper provides an introduction to these equations, explaining what they are and how to solve them. Additionally, we delve into the Bernoulli differential equation and its transformations, which are a specific type of first-order nonlinear differential equation that can be transformed into a linear equation.

Keywords: First-order differential equations, Linear differential equations, Initial value problems, Exact equations, Bernoulli equations

Introduction: Differential equations are mathematical equations that describe how a variable change with respect to another variable. In many fields of science and engineering, differential equations play a crucial role in modeling and predicting physical phenomena. First-order linear differential equations are a type of differential equation that is frequently encountered in applications. Bernoulli's differential equation is a type of nonlinear differential equation that can be transformed into a linear equation. In this paper, we will provide an overview of first-order linear differential equations and Bernoulli's differential equation, as well as the methods used to solve them.

Literature review: Many authors have investigated the properties and solutions of first-order linear differential equations. In their book "Differential Equations with Applications and Historical Notes," George F. Simmons and Steven G. Krantz provide a comprehensive introduction to differential equations and their applications [3]. They discuss the general form of first-order linear differential equations, as well as methods for solving them using integrating factors. Also, a couple of examples have been provided for applications of first-order linear differential equations in various fields, such as physics and biology [4]. Several authors have also studied the properties and solutions of Bernoulli's differential equation [5]. In their paper "Bernoulli's Differential Equation Revisited," John A. Pelesko and David H. Bernstein investigate the properties of Bernoulli's differential equation and its solutions [2]. They provide a detailed derivation of the transformation that turns Bernoulli's differential equation into a linear equation, and they discuss the properties of the solutions of the transformed equation. They also provide several examples of applications of Bernoulli's differential equation in physics and engineering. In his book "Differential Equations and Linear Algebra," C. Henry Edwards discusses the general theory of differential equations and their applications [1]. He provides a detailed discussion of first-order linear differential equations and the method of integrating factors, as well as the properties and solutions of Bernoulli's differential equation. He also discusses the use of differential equations in modeling real-world problems, such as population growth and chemical reactions.

Illustrative examples: This equation of the form $y' + p(x)y = q(x)$ is called a linear differential equation, where $p(x)$ and $q(x)$ are continuous functions on some interval.

According to Bernoulli's method, we look for the solution of equation (1) in the form of the product of two unknown functions $u = u(x)$ and $v = v(x)$:

$$y = uv \quad (y(x) = u(x) \cdot v(x)) \quad (1)$$

If we substitute $y = uv, y' = (uv)' = u'v + uv'$ above for y and y' in equation (1), then its derivative will be $X'_1 = (uv)' = u'v + uv'$. It seems absurd to introduce two unknown functions $u = u(x), v = v(x)$ instead of the unknown function $y = y(x)$ to be found. However, we will see later that the appropriate selection of one of the functions $u = u(x)$ and $v = v(x)$ allows us to easily find the other. As a result, $y(x)$ is found. After substitution, the differential equation $u'v + uv' + puv = q$ is formed. Now we choose the function $v' + pv = 0$ in such a way (using the option of choosing this function arbitrarily) that we have $u'v + u(v' + pv) = q$. This differential equation comes to this variable A=C separable equation. Integrating the following equation $\frac{dv}{v} = -pdx$ we find:

$$\int \frac{dv}{v} = -\int p dx, \ln v = -\int p dx \quad (2)$$

$$v = e^{-\int p dx}$$

As a result, the differential equation (2) this takes the following view $u' e^{-\int p dx} = q$ We will solve it:

$$e^{-\int p dx} \cdot \frac{du}{dx} = q, \frac{du}{dx} = q e^{\int p dx}, \quad (3)$$

$$du = q e^{\int p dx} dx, u = \int q e^{\int p dx} dx + C.$$

From relations (3) and (4) it follows that

$$y = uv = \left(\int q e^{\int p dx} dx + C \right) e^{-\int p dx}. \quad (4)$$

So, $y' + py = q$ is a generalization of the linear differential equation the solution is

$$y = uv = \left(\int q e^{\int p dx} dx + C \right) e^{-\int p dx}. \quad (5)$$

Example 1, find the general solution of this equation $y' + xy = x^3$. We find the general solution of this equation using formula (5).

$$y = \left(\int x^3 e^{\int x dx} dx + C \right) e^{-\int x dx} = \left(\int x^3 e^{\frac{x^2}{2}} dx + C \right) e^{-\frac{x^2}{2}} = x^2 - 2 + C e^{-\frac{x^2}{2}}$$

Therefore, the general solution of the given equation is $y = x^2 - 2 + C e^{-\frac{x^2}{2}}$.

Bernoulli's equation

Definition: An equation of this forms

$$y' + P(x)y = Q(x)y^\alpha \quad (\alpha \neq 0; \alpha \neq 1) \quad (6)$$

is called Bernoulli's equation. Bernoulli's equation using substitution $y = u(x) \cdot v(x)$ or Lagrange's method can be solved directly with Also the substitution $z = y^{1-\alpha}$ using equation (6) is reduced to a linear differential equation.

Example 2. Solve the equation $xy' - 4u = x^2\sqrt{y}$. After dividing the equation by X , we get the equation $y' - 4\frac{y}{x} = x\sqrt{y}$. We look for the solution in the form $y = u(x) \cdot v(x)$. Then, coming to the equation $u'v + u\left(v' - \frac{4}{x}v\right) = x\sqrt{uv}$,

$$\begin{aligned}
 v' - \frac{4}{x}v &= 0, \frac{dv}{v} = \frac{4dx}{x}, \\
 \ln |v| &= 4\ln |x|, v = x^4; \\
 x^4u' &= x^3\sqrt{u}, u^{-\frac{1}{2}}du = \frac{dx}{x}; \\
 2u^{\frac{1}{2}} &= \ln |x| + C, u = \frac{(\ln |x| + C)^2}{4}; \\
 y &= \frac{x^4(\ln |x| + C)^2}{4}
 \end{aligned}$$

can be solved.

Conclusion: In this paper, we have provided an overview of first-order linear differential equations and Bernoulli's differential equation. We have shown how to solve these equations using integrating factors and transformations, respectively. Additionally, we have reviewed some of the literature on these topics, including works by Simmons and Krantz, Pelesko and Bernstein, and Edwards. Differential equations are a fundamental tool in many fields of science and engineering and the study of first-order.

References:

1. Edwards, C. H. (2010). Differential equations and linear algebra. Pearson.
2. Pelesko, J. A., & Bernstein, D. H. (1998). Bernoulli's differential equation revisited. *Mathematical and Computer Modelling*, 27(6), 49-59.
3. Simmons, G. F., & Krantz, S. G. (2006). Differential equations with applications and historical notes. McGraw-Hill.
4. Stewart, J. (2015). Calculus: Early transcendentals. Cengage Learning.
5. Tenenbaum, M., & Pollard, H. (1985). Ordinary differential equations. Dover Publications.

KIMYOVIY BOG'LANISHLAR HAQIDA TUSHUNCHA

**Raxmatullayeva Madina Jasurovna,
Abdullayev Alisher Abulqosimovich
Jizzax politexnika inistituti, OOT yo'nalishi talabasi**

Annotatsiya: kimyoviy bog'lanish turlarini o'rganish va yoshlarni bu mavzu buyicha qiziqishlarini oshirish hamda biz kundalik turmushda foydalanib kelayotgan moddalarimiz qaysi bog'lanishga kirayotgani, keyin ularni bizga qanchali kerakligini tushuntirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Kimyoviy bog'lanish, kovalent bog'lanish, ion bog'lanish, metall bog'lanish, donor - akseptor bog'lanish, vodorod bog'lanish, kovalent bog'lanish va valentlik.

Kimyoviy bog'lanish haqidagi ta'limot - hozirgi zamon kimyosining asosiy masalasidir. Bu ta'limotni bilmay turib kimyoviy birikmalarning turli - tumanligi sabablarini, ularning hosil bo'lish mexanizmini, tuzilishini va reaksiyaga kirisha olish xususiyatlarini tushunib bo'lmaydi. Bog'lanishlar yuzaga kelishi mexanizmi, tabiati ularda ishtirok etuvchi zarrachalarning turlariga ko'ra bir necha xil bo'ladi. Kimyoviy bog'lanishlarga va ularning hosil bo'lishiga atomlarning elektron tuzilishi nuqtai nazaridan qarash lozim. Chunki kimyoviy bog'lanishlarning hosil bo'lishida ishtirok etuvchi asosiy vosita-elektronlar va elektron bulutdir. Umuman har qanday kimyoviy bog'lanish o'zaro biriktiruvchi atomlar tashqi elektron qavatdagi bir yoki bir nechta elektron bulutlarining yadrolar o'rtasida qayta taqsimlanishi (bir-birini o'zaro qoplanishi) natijasida hosil bo'luvchi ko'p yadroli va elektronli sistemasidir. Shu nuqtai nazardan, kimyoviy bog'lanish haqidagi ta'limotlarni o'rganish hozirgi zamon kimyosining asosiy masalalaridan biridir. Har qanday kimyoviy modda-atomlar va ularning hosil bo'lgan kristallar, molekulalar va ionlardan tashkil topgan materiyadir. Bu bog'lanishlar yuzaga kelish mexanizmi, tabiatda ularda ishtirok etuvchi zarrachalarning turlariga bir necha xil bo'ladi. Kimyoviy bog'lanish deganda, biz atomlararo ta'sir etuvchi va ularni birgalikda ushlab turuvchi kuchlarni tushunshimiz kerak[1].

Kimyoviy bog'lanishga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin:

Kimyoviy birikmalar molekulasi hosil bo'lishida atomlararo ta'sir etuvchi va ularni birgalikda ushlab turuvchi kuchlar yig'indisiga kimyoviy bog'lanish deyiladi. Kimyoviy bog'lanish turlari asosan, Kovalent bog'lanish, Ionli bog'lanish, Donor - akseptor (koordinatsion) bog'lanish, Metall bog'lanish, Vodorod bog'lanish turlariga bo'lib o'rganamiz. Bularning birinchisi bo'lgan Kovalent bog'lanishga to'xtalamiz.

"Kovalent" so'zi "birlashgan" degan ma'noni bildiradi. Bu so'zdagi "ko" old qo'shimcha birgalikda ishtirok etish degan ma'noni bildiradi. Bu ikki elektronli va ikki markazli (ikkita yadroni tutib turadi) bog'lanishdir. Kovalent bog'lanishli birikmalar gomeopolyar yoki atom birikmalari deyiladi. Bunday bog'lanish bir elektronli qarama-qarshi spinli atom bulutlarining bir - birini qoplashi natijasida vujudga keladi. Elektron juftlar tufayli vujudga keladigan kimyoviy bog'lanish kovalent bog'lanish deyiladi. Kovalent bog'lanish kimyoviy bog'lanishning ancha umumiy turidir. Hozirgi zamon bog'lanishlar nazariyasi ionli bog'lanishni kovalent bog'lanishdan elektron juftning eng ko'p siljishi natijasida vujudga kelgan deb tushuntiradi, bunda birikayotgan atomlarning bittasiga tegishli bo'lib qoladi[2].

Kovalent bog'lanishning ikki turi bor: qutbsiz va qutbli. Elektromanfiylik qiymati jihatidan o'zaro teng bo'lgan element atomlari o'rtasida vujudga kelgan bog'lanish qutbsiz kovalent bog'lanish deyiladi.

Qutubsiz kovalent bog'lanish asosan bir xil atomlar orasida vujudga keladi. Bunda umumlashgan elektron jufti xech qaysi atom tomon siljimagan bo'ladi, chunki har ikkala atomning o'ziga elektronni tortish qobiliyati, ya'ni elektromanfiyligi bir xil bo'ladi. Bunda atomlar o'rtasida hosil bolgan umumlashgan elektron juftlik har ikkala atom yadrolaridan bir xil uzoqlikda joylashadi. Shuningdek, qutbsiz kovalent bog'lanishli moddalarga, vodorod bilan birga O_2, Cl_2, N_2 singari oddiy moddalarni hamda ayrim murakkab moddalarni CH_4, CS_2 misol qilib keltirish mumkin. Bu moddalarning suyuqlanish va qaynash harorati past bo'ladi, suvda ionlarga dissotsiyalanmaydi[3]. Qutubsiz bog'lanishli moddalarning ishlatilish sohasi ham ancha yuqori. Buni birgina Cl_2 molekulasida ham ko'rishimiz mumkin. Metil xlorid, xloroform, tetraxlorometan, freonlar va tarkibida xlor tutgan turli polimerlar olishda xlordan keng foydalaniladi. Xlor zaharli. Xlor ishlatiladigan korxonalarining havosida uning konsentratsiyasi $1mg/m^3$ dan ortiq bo'lmasligi kerak. Xlor ionlari ba'zi fermentlarning faolligini oshiradi. Natriy xlorid tirik organizm hayoti uchun nihoyatda zarur modda. Odam organizmining qariyb 0,25% ini xlor tashkil etadi.

1-jadval

Qutbsiz kovalent bog'lanishli moddalar

N ^o	Modda nomi	Formulasi	Molekulaning tuzilishi
1	Vododrod	H_2	H..H
2	Kislород	O_2	O::O
3	Xlor	Cl_2	Cl..Cl
4	Uglerod disulfid	CS_2	S:C:S

Elektromanfiylik qiymatlari jihatidan bir-biridan oz farq qiladigan element atomlari orasida vujudga kelgan bog'lanish qutubli kovalent bog'lanish deyiladi. Qutbli kovalent bog'lanishda elektron buluti elektromanfiyroq atomga, ya'ni nisbiy elektromanfiyligi katta bo'lgan atomga tomon siljigan bo'ladi. Bunga uchuvchan anorganik birikmalari: HCl, H_2O, H_2S, NH_3 va boshqalarning molekularini misol qilib keltirishimiz mumkin. Qutbsiz va qutbli kovalent bog'lanishli molekularlarda umumiy elektronlar juftining buluti ikkala atom yadrolariga taalluqli bo'lganligi sababli, bog'lanishning bu ikki turi, ko'pincha atom bog'lanish yoki to'g'ridan-to'g'ri kovalent bog'lanish deyiladi. Qutubli kovalent bog'lanishli moddalarning ham ishlatilish sohasi ancha yuqori. Buni birgina ammiak misolida ko'rib chiqishimiz mumkin. Ammiakning suvdagi eritmasi novshadil spirti hisoblanadi. Ammiak asosan nitrat kislota olishga, ammoniy tuzlari singari qishloq xo'jaligida o'g'it sifatida ishlatishda hamda sovituvchi sifatida foydalaniladi.

Qutbli kovalent bog'lanishli moddalar

№	Modda nomi	Formulasi	Molekulaning tuzulishi
1	Suv	H ₂ O	H.O.H
2	Vodorod xlorid	HCl	H..Cl
3	Vodorod ftorid	HF	H..F
4	Vodorod sulfid	H ₂ S	H.S.H

Qutubsiz va qutbli kovalent bog'lanishli molekulalarda umumiy elektronlar juftining buluti ikkala atom yadrolariga taalluqli bo'lganligi sababli, bog'lanishning bu ikki turi, ko'pincha, atomiy bog'lanish yoki to'g'ridan-to'g'ri kovalent bog'lanish deyiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M. B. Matchanova "Kimyo" 2022-yil.
2. M. T. Abdullayev, O. K. Ergashev, B. A. Hayitov "Kimyo" 2020-yil.
3. G. P. Xomchenko, I. G. Xomchenko "Kimyo" 2019-yil.
4. Internet sayitlar, Arxiv.uz, Daryo.uz.

**"AZOTLI O'G'ITLAR" MAVZUSINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING BILISH FAOLIYATINI
FAOLLASHTIRISH**

**Xamidov S.X.,
Abdullayev A.A.,
Mamatkulov B.U.
Jizzax politexnika instituti**

Annotatsiya: "Azotli o'g'itlar" mavzusini o'qitishda muammoli metoddan foydalanish, darsni o'zaro muloqotda olib borish, egallagan bilimlarni mustahkamlashda va o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda "tarmoqlar" metodidan foydalanish - dars samaradorligi yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, modulli ta'lim, muammoli ta'lim, kristall, anion, mineral

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va o'qitish samaradorligini oshirish, kimyo o'qitish metodikasining dolzarb muammolaridan biridir. Bunday muammoni hal yetishning asosiy yo'li pedagogik texnologiyalardan foydalanishdir.

Yangi pedagogik texnologiya o'quvchilarning faolligini va dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bu O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ta'lim mamlakatimizning ijtimoiy taraqqiyot sohasida ustuvor yo'nalish va davlat siyosatining asosiy prinsiplari ekanligi e'lon qilingan. [1: 15]

Respublikamizda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning muvaffaqiyati uzluksiz ta'lim tizimining barcha turlari uni amaliyotga joriy yetishga safarbar etilayotganiga bog'liq. Uzluksiz ta'lim tizimi oldidagi vazifalarni amalga oshirish o'z navbatida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi, baholaydi, o'quvchining barkamol inson bo'lib yetishishiga zamin yaratadi.

Kimyoni o'qitishda maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish o'qituvchi tomonidan tanlangan yangi pedagogik texnologiyalarga bog'liq.

Quyidagi texnologiyalar joriy etilishi maqsadga muvofiq:

1. Muammoli ta'lim texnologiyalari
2. Modulli ta'lim texnologiyalari
3. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari

Bu mavzuni asosiy mazmunini bayon qilishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalangan maqsadga muvofiq. Unda mavzu rejasidagi muhim masalalar bo'yicha muammoli savollar tayyorlanadi va o'qitishga qo'yilgan muammolarning yechimi o'qituvchilar bilan birgalikda ishlab chiqiladi. [2: 44]

Masalan, "Azotli o'g'itlar" mavzusi bo'yicha quyidagi savollar dars jarayonida muammoli vaziyatni vujudga keltirishi mumkin:


1. O'simliklar qanday qilib o'zini azot bilan ta'minlay oladi?
2. Tuproqdagi azot qanday birikmalar tarzida bo'ladi?
3. Azot zaxirasi insoniyat uchun qanchaga yetishi mumkin?
4. Tabiiy azotlardan bevosita mineral o'g'itlar sifatida foydalanaversa bo'ladimi?
5. Qanday azotli o'g'itlar ishlab chiqargan ma'qul?

6. Nima uchun kunning issiq vaqtida azotli o'g'itlardan foydalanish tavsiya qilinmaydi?
Bu muammoni hal etishda o'quvchilar turli fikrlar bildiradilar.

O'simliklar uchun ozmuncha azot kerak bo'lmaydi. Azotning yillik me'yoriga qarab, birinchi ertagi oziqlantirishda, gektariga 50 - 75 kg, ikkinchi va uchinchi oziqlantirishda esa gektariga 50-100 kg atrofida azot solinadi. Yerni haydashdan oldin sho'r yuvish ishlari o'tkaziladigan joylarda o'g'it bahorgi yer haydov paytida solinadi. Chigitni undirib olish uchun qo'shimcha sug'oriladigan yerlarda, azot chigit ekish bilan bir vaqtda solinadi. Agar ba'zi sabablarga ko'ra, ekishga qadar azotli o'g'itlar solinmagan bo'lsa, bu tadbir ekish vaqtida bajariladi. Bunda azot me'yori gektariga 20-25 kg dan oshmasligi kerak. [4: 137]

Bu muammoni bir o'quvchi selitra kristallarining gigroskopikligi bilan tushuntirsa, ikkinchi o'quvchi nitratlarning qizdirishga munosabatiga bog'laydi va munozara olib boradi.

Mavzuning mohiyati shundaki, o'simliklar ildizi orqali azotli o'g'itlarni ionlar – ammoniy (NH_4^+) va nitratlar (NO_3^-) ko'rinishida o'zlashtiradi. Nitratlar suvda oson eriydi va ionlarga ajraladi. Kunning issiq vaqtida azotli o'g'itlar termik beqarorligi sababli parchalanadi, shuning uchun ham kechasi yoki salqinda yerni azotli o'g'itlar bilan ishlagan ma'qul. Ayniqsa, ammiakli selitra harorat ta'sirida oson parchalanadi:



Ma'ruzada bayon qilingan bilimlarni o'quvchilar tomonidan yaxshi o'zlashtirilganligini bilish uchun yangi pedagogik texnologiyaning "Tarmoqlar" texnologiyasidan keng foydalaniladi. Buning uchun azot birikmalarining har biri alohida qog'ozlarda yozilib, ma'ruzaga qatnashgan o'quvchilar to'rt guruhga bo'linib, har bir guruhga alohida azotli birikmalarning nomi beriladi. Bunda guruh o'quvchilari muammoli ma'ruza qilib chiqib, har bir guruh alohida tushuntirib beradi. To'rtta guruh alohida har qaysisi himoya qilib bo'lganidan so'ng, o'quvchilar tomonidan saylangan hay'at a'zolari ballar qo'yib, guruhning umumiy ballari e'lon qilinadi. [3:184] Muammoli ma'ruzada azotning xossalarini bilib olgach, sayyoramizda u qanday shakllarda uchrashi haqida fikr yuritimiz.

Tabiatda azotli o'g'itlar nitratlar-selitralar hoida uchraydi, masalan Chilida NaNO_3 – chili selitrasining katta zaxirasi mavjud. KNO_3 -hind selitrasi, $\text{Mg}(\text{NO}_3)_2$ -Norveg selitrasi deb ham ataladi. Yurtimizda azotli o'g'itlarning zaxira manbaalari yo'qligi uchun ular sintez qilib ishlab chiqariladi. Hozirgi kunda azotli o'g'itlarning quyidagi turlari ishlab chiqarilmoqda:

1. Ammiakli o'g'itlar— ammoniy sulfat, ammoniy xlorid, ammoniy karbonat, suyultirilgan ammiak, ammiakli suv va ammiakatlar.

2. Nitratli o'g'itlar — ammiakli selitra, natriyli selitra, kalsiyli selitra, kaliyli selitra.

3. Amidli o'g'itlar — mochevina, kalsiy sianamid, mochevina formaldegidli o'g'itlar.

Xulosa qilib aytganda, bunday texnologiya bilan dars jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyati ancha yuqori bo'lganligi ularning himoya qilishda to'plagan ballari asosida aniqlab olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni

2. Rahmatullayev N., Omonov H., Mirkomilov Sh. "Kimyo o'qitish metodikasi" T., «Iqtisod-Moliya», 2013.

3. Xodiyevich, X. S. (2022). KVANT SONLARI MAVZUSINI TUSHINTIRISHDA "PINBORD" VA "CHARXPALAK" TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH. Журнал естественных наук, 1(1 (6)),
4. J. Sattorov, S. Sidiqov, S. Abdullayev, A. Ergashev, Z. Xaidmuhamedova, Ya. Kulmurodova, U. Qosimov, N. Akbarov "Agrokimyo" T., "Cho'lpon", 2011.

**MUZLIKLAR ERISHI SABABLARI VA UNING OQIBATLARI.UNI OLDINI OLISHGA
SAMARALI YECHIM TOPISH.**

Toshtemirova Mashhuraxon Botirjon qizi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
Gidrometeorologiya fakulteti 1-kurs talabasi,
Toshturdiyev Nurbek Nurali o'g'li
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
Gidrometeorologiya fakulteti 1-kurs talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada tog' muzliklarining suv resurslariga qanday ta'sir qilishini va bu resurslar turli xil ekologik o'zgarishlar va xavflarga qanday ta'sir qilishini ko'rsatish uchun turli xil asosiy tog' tizmalarini ajratib ko'rsatilgan. Tog' muzliklari erishi sabablari va uning oqibatlari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Keyindi davrlarda mavjud muzliklarni saqlab qolish bo'yicha tavsiyalar ham berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Muzlik, tog' muzliklari, gidrologik reaksiya, iqlim o'zgarishi, gidrologik jarayon, qutblar.

Muzliklar – ko'p yillik muz ob'ektlari bo'lib, ular Yerning baland va kengliklarida chuchuk suvni vaqtincha saqlaydi. Yer skriosferasining kichik bir qismini tashkil etsada, butun dunyo bo'ylab tog' muzliklarining sof massa yo'qolishi inson tomonidan qo'zg'atilgan iqlim o'zgarishi haqiqatining eng keng e'tirof etilgan ko'rsatkichlaridan biriga aylandi. Va chuchuk suv insoniyat jamiyati uchun zarur bo'lganligi sababli, muhim ahamiyatga ega. Muzliklar taqdiri va quyi oqimdagi suv resurslarining barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlik muhim ahamiyatga ega. Biroq, chekinayotgan muzliklar jamiyatda umumiy suv tanqisligidan iborat deb taxmin qilish to'g'ri emas. Joylashuvi, suv havzasi miqyosi va vaqti (mavsumiy mavjudlik va talab) bilan bog'liq ko'plab o'zgaruvchilar muzliklarning suv resurslariga va kelajakdagi ssenariylarni loyihalashda foydalaniladigan modellar uchun mavjud qiyinchiliklarga ta'sir qiladi. Muzliklarning suv resurslariga ta'sirining nisbiy hajmini baholash nafaqat iqlim nazorati va gidrologik reaksiyani sinchkovlik bilan baholashni, balki suv taqsimoti va undan foydalanishga ta'sir qiluvchi ijtimoiy omillarni tanqidiy ko'rib chiqishni ham talab qiladi.

Davom etayotgan global iqlim o'zgarishi bilan muzlik suv resurslari iqlim sezgirligining yuqori darajasiga nisbatan zaifdir. Iqlimning isishi ssenariylarini o'rganish asosan muzliklarning retsessiyasini o'z ichiga oladi, bu esa oqim oqimining hajmi va o'zgaruvchanligini o'zgartiradi. Muzliklarning chekinishiga gidrologik reaksiya muzliklarning aniq massasi yo'qolgan mintaqalar uchun xarakterli ketma-ketlikka amal qiladi. Uzluksiz chekinish sharoitida muzliklar massasini yo'qotib, muzlik erishi natijasida hosil bo'lgan oqim oqimining vaqtincha ko'payishiga olib keladi. Qolgan muzlik hajmining kamayishi bilan yillik suv oqimi gidrografi "cho'qqi suvi" deb ataladigan maksimal darajaga etadi va undan keyin doimiy yillik pasayish kuzatiladi. Biroq, muzliklarni suv resurslari sifatida baholash, muzliklarning erishi oqimini loyihalashdan ko'ra murakkabroqdir. Suv oqimi, albatta, muzliklarning o'zgarishi suv resurslariga qanday ta'sir qilishining asosiy o'lchovidir, ammo bu jamiyat uchun yagona muhim muammo emas. Masalan, muzliklarning erishi suv sifatining o'zgarishi, tabiiy xavf xavfi, oziq-ovqat ta'minoti, energiya ishlab chiqarish,

degradatsiyalangan turizm va madaniy landshaftga ta'sir qilish bilan bog'liq. Bundan tashqari, muzliklarning o'sishi va uzoq vaqt davomida yemirilishi vodiy relef shakllari va cho'kindilarning ming yillar davomida erishi natijasida qayta to'ldiriladigan yer osti suv ombori bo'lishini hosil qiladi.

So'nggi bir necha o'n yilliklarda kichik muzlik davridan beri kuchli mintaqaviy retsessiyani hisobga olgan holda ko'plab tog' muzliklarida o'zgarishlar bo'yicha ilmiy tashvishlar ortib bormoqda, bu esa davom etayotgan tanazzul va suv resurslariga ta'sir qiladi. Iqlim o'zgarishining tog' muzliklariga ta'siri va suvga ta'siri to'g'risida miqdoriy tushunchani ishlab chiqish uchun tog' muzliklari bo'ylab bir nechta muzliklarning massa muvozanatini monitoring qilish dasturlari muhim ahamiyatga ega.

Tibet platosi va unga tutash tog' tizmalaridan oqib o'tadigan daryolar milliardlab odamlarning hayotini ta'minlaydi. Katta Himolay deb ataladigan bu hududda qor va muzlik erishi muhim gidrologik jarayonlar bo'lib, iqlim o'zgarishi erish xususiyatlariga va ular bilan bog'liq suv oqimiga jiddiy ta'sir qilishi kutilmoqda. Katta Himolaylar qutblardan tashqarida joylashgan muzliklarning eng katta maydonini o'z ichiga oladi va umumiy maydoni 123 604 km² O'rta Osiyo va Janubiy Osiyo uchun hisoblangan muzning umumiy hisoblangan hajmi 12 807 km³ ni tashkil qiladi. Markaziy Osiyo muzliklarisiz umumiy maydoni 55 634 km², muzning umumiy hajmi 6327 km³ ni tashkil qiladi.

Osiyodagi iqlim o'zgarishi haqida ma'lumotlarning yetishmasligi va cheklangan miqdordagi tadqiqotlar tufayli noaniqliklar mavjud. Himolay muzliklarining aksariyati so'nggi o'n yillikda katta Himolay tog'larining g'arbiy qismida, masalan, Pomir va Qoraqorum tizmalarida barqarorlik yoki massa ortishining oldingi belgilaridan tashqari, boshqa joylarda muzliklarga o'xshash tezlikda massasini yo'qotmoqda.

Tog' muzliklari asosan global miqyosdagi iqlim o'zgarishiga javoban qisqarmoqda va bu quyi oqim gidrologiyasini o'zgartirmoqda. Biroq, biofizik va insoniy omillarning uyg'unligini hisobga olish uchun suv resurslari uchun xavflarni mintaqaviy tahlil qilish kerak. Himolay suv resurslarining kelajagi uchun muammo gidrografdagi yillik o'zgarishlarga moslashish va ekstremal vaziyatlarga qarshi turish qobiliyatidir. Muzliklarning bufer qobiliyatining pasayishi natijasida gidrologik tizim tezlashadi va jamiyat uchun xavf ham ushbu o'zgartirilgan gidrologik rejimni boshqarishning barqarorligi va kelajakdagi suv talabining kuchli ortishi bilan bog'liq.

Kelajakdagi tadqiqotlar kuzatuvlarni birlashtirish, izchil monitoring o'rnatish va muzliklarning suv aylanishining tarkibiy qismlari, xususan, qor va er osti suvlari bilan o'zaro ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan bo'lishi kerak. Ijtimoiy, iqtisodiy va demografik o'zgarishlar muzliklarning suv resurslariga teng ta'sir ko'rsatishi mumkin va boshqaruv qarorlari barcha iste'molchilarga qanday ta'sir qilishini ma'lumotlarga asoslangan qat'iy stsenariy baholash bilan xavflarni baholash va moslashish imkoniyatlariga e'tibor qaratish lozim. Muzliklarning gidroiqlimini modellashtirish bo'yicha uzoq muddatli (o'n yilliklar va asrlar) integratsiyalashgan tadqiqotlar daladan namuna olish va o'lchovlar bilan birlashtirilishi kerak. Xuddi shunday, muzlik massasi balansi va gidroklomatik o'zgaruvchilarni ko'proq balandlikda o'lchashni o'rnatish kerak. Kuzatuvlar mintaqaviy farqlarni hisobga olish uchun global miqyosda taqsimlanishi kerak, ammo umumiy protokollar va ma'lumotlarni almashish standartlashtirilgan bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. F.X. Xikmatov, D.P. Aytbayev, B.Y. Adenbayev. R.T.Pirnazarov, "Gidrologiyaga kirish" «Universitet» nashriyoti. Toshkent-2017
2. M Carey, M Baraer, BG Mark et al., Toward hydro-social modeling: merging humanvariables and the social sciences with climate-glacier runoff models (Santa River,Peru). Journal of Hydrology
4. WW Immerzeel, LP van Beek, MF Bierkens, Climate change will affect the Asianwater towers. Science
5. Immerzeel, L Petersen, S Ragettli, F Pellicciotti, Nepal Himoloyidagi muzlagan suv havzasidan oqimlarni modellashtirish uchun havo harorati va yog'ingarchilikning kuzatilgan gradientlarining ahamiyati. Suv resurslari tadqiqoti.

UZLUKSIZ AKSLANTIRISHLAR FAZOSIDA PSEVDOTEKIS TOPOLOGIYA

**Ruziyev J.E,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti,
Ahmadova M.G'.
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada dastlab, $(\square, \tau_{\text{tabiiy}})$ topologik fazoda yaqinlashish va tekis yaqinlashish tushunchalari va μ baza kiritiladi. So'ngra \square da uzluksiz hamda μ da tekis yaqinlashuvchi akslantirishlar fazosini $C_{\mu, \mu}(\square)$ deb belgilab, ushbu fazoning Tixonov fazosi bo'lishi isbotlanadi.

Kalit so'zlar: Topologik fazo, tabiiy topologiya, baza, uzluksiz, tekis yaqinlashish, atrof, Hausdorf fazosi, Tixonov fazosi.

$(\square, \tau_{\text{tabiiy}})$ topologik fazoda $\mu = \{O_{\frac{1}{n}}(r) : r \in \square, n \in \square\}$ ochiq atroflar oilasi berilgan bo'lsin. To'g'ri chiziqda tabiiy topologiya intervallar orqali aniqlanadi.

1-ta'rif. (\square, τ) topologik fazoning ixtiyoriy ochiq qism to'plamini μ oilaga tegishli to'plamlar birlashmasi sifatida ifodalash mumkin bo'lsa, μ oilaga (\square, τ) topologik fazoning bazasi deb ataladi.

2-ta'rif. Bizga E to'plamda aniqlangan $(f_n)_{n \in \square}$ ketma-ketlik va f funksiya berilgan bo'lsin. Agar ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ uchun shunday $N(\varepsilon)$ natural son topilib, barcha $n \geq N(\varepsilon)$ va ixtiyoriy $x \in E$ uchun $|f_n(x) - f(x)| < \varepsilon$ tengsizlik o'rinli bo'lsa, $(f_n)_{n \in \square}$ ketma-ketlik E to'plamda f funksiyaga tekis yaqinlashadi deyiladi.

3-ta'rif. Bizga X, Y topologik fazolar, $f : X \rightarrow Y$ akslantirish va $x \in X$ nuqta berilgan bo'lsin. Agar $y = f(x)$ nuqtaning ixtiyoriy V atrofi uchun x nuqtaning U atrofi mavjud bo'lib, $U \subset f^{-1}(V)$ munosabat bajarilsa $f : X \rightarrow Y$ akslantirish x nuqtada uzluksiz deyiladi.

Ta'kidlash lozimki, $f : X \rightarrow Y$ akslantirish X ning ixtiyoriy nuqtasida uzluksiz bo'lsa, ushbu akslantirish X da uzluksiz deyiladi va X dagi barcha uzluksiz akslantirishlar to'plami $C(X, Y)$ kabi belgilanadi. Barcha uzluksiz $f : \square \rightarrow \square$ funksiyalar to'plamini $C(\square)$ kabi belgilaymiz.

Berilgan $\varepsilon > 0$ son va $A \in \mu$ uchun quyidagi to'plamni kiritamiz:

$$A_\varepsilon := \{(f, g) \in C(\square) \times C(\square) : |f(x) - g(x)| < \varepsilon, x \in A\}.$$

$\{A_\varepsilon : A \in \mu, \varepsilon \in \square_+\}$ to'plamlar sistemasi $C(\square)$ da tekis yaqinlashishlar uchun baza bo'lishini oson isbotlash mumkin.

4-ta'rif. Tekis yaqinlashish orqali hosil qilingan topologiya μ da tekis yaqinlashish topologiyasi deb ataladi va hosil bo'lgan fazo $C_{\mu,u}(\square)$ kabi belgilanadi, ya'ni \square da uzluksiz hamda μ da tekis yaqinlashuvchi akslantirishlar fazosi.

Berilgan $f \in C(\square)$, $A \subseteq \square$ va $\varepsilon > 0$ uchun

$$V(f, A, \varepsilon) := \{g \in C(\square) : |f(x) - g(x)| < \varepsilon, x \in A\}$$

to'plamni qaraylik. U holda har bir $f \in C(\square)$ uchun $\{V(f, A, \varepsilon) : A \in \mu, \varepsilon > 0\}$ oila $C_{\mu,u}(\square)$ uchun f da ochiq atroflar bazasini tashkil qiladi.

Teorema. $C_{\mu,u}(\square)$ - Tixonov fazosi bo'ladi.

Isbot. $C_{\mu,u}(\square)$ Tixonov fazosi ekanligini isbotlashda $\bigcup \mu$ birlashma \square da zich ekanligidan foydalanamiz. $C_{\mu,u}(\square)$ tixonov bo'lishi uchun uning to'la regulyar va Hausdorf fazo bo'lishini ko'rsatamiz. To'la regulyar ekanligi $C_{\mu,u}(\square)$ ning topologiyasi tekis yaqinlashish orqali qurilganligidan kelib chiqadi.

Faraz qilaylik, $\bigcup \mu$ birlashma \square da zich va $f, g \in C_{\mu,u}(\square)$ funksiyalar $f \neq g$ shartni qanoatlantirsin. Belgilangan $z \in \square$ nuqtada $f(z) \neq g(z)$ va $\varepsilon := \frac{|f(z) - g(z)|}{4}$ bo'lsin. U to'plam esa z nuqtaning $|f(x) - g(x)| > 2\varepsilon$ (barcha $x \in U$) shartni qanoatlantiruvchi ochiq atrofi bo'lsin.

$\bigcup \mu$ birlashma \square da zich bo'lganligidan $A \in \mu$ uchun shunday $y \in A \cap U$ element topiladi. Agar $h \in V(f, A, \varepsilon) \cap V(g, A, \varepsilon)$ bo'lsa, $|f(y) - h(y)| < \varepsilon$ va $|g(y) - h(y)| < \varepsilon$ tengsizliklar hosil bo'ladi. Bundan

$$|f(y) - g(y)| = |f(y) - h(y) + h(y) - g(y)| < 2\varepsilon$$

ekanligi kelib chiqadi, bu esa $y \in U$ tasdiqga ziddir. Demak, $C_{\mu,u}(\square)$ Hausdorf fazosi bo'ladi. Faraz qilaylik, $\bigcup \mu$ birlashma \square da zich emas. Belgilangan $z \in \square \setminus \overline{\bigcup \mu}$ nuqta va $f(z) = 1$ va $f(\overline{\bigcup \mu}) = \{0\}$ shartni qanoatlantiruvchi $f \in C(\square)$ funksiya olamiz. U holda barcha $A \in \mu$ va $\varepsilon > 0$ uchun $f \in V(0, A, \varepsilon)$ ekanligidan $C_{\mu,u}(\square)$ Hausdorf fazosi bo'lmasligi kelib chiqadi. Teorema isbot bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Ya.Narmanov, "Differensial Geometriya". T.: Universitet, 2012.
2. A.D.Rojas-Sánchez, Á.Tamariz-Mascarúa, H.Villegas-Rodríguez, "On the pseudouniform topology on $C(X)$ ". Topology and its applications #304, 2021.
3. Р.Энгелькинг, Общая топология, Москва, Мир, 1986.
4. Ю.В.Садовничий, Р.Б.Бешимов, Т.Ф.Жураев, Топология. Ташкент, Университет, 2021.

**TIBBIY-BIOLOGIK FANLARDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA SMART
TEXNOLOGIYALARNING ROLI**

Adhamov Shohjahon Abdullajon o'g'li
Andijon davlat tibbiyot instituti pediatriya
fakulteti 3-bosqich talabasi,
Ulug'bekova Gulrux Jo'rayevna
Andijon davlat tibbiyot instituti Anatomiya va
klirik anatomiya kafedrası dotsenti, t.f.n.,

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy innovatsion texnologiyalarning ta'lim sifatini oshirishda, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashdagi roli, tibbiy-biologik fanlarni o'rganishda smart texnologiyalarning ahamiyati, afzalliklari haqida fikr va mulohazalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, oliy ta'lim, mustaqil ta'lim, axborot kommunikatsion texnologiyalar, smart texnologiyalar, tibbiy-biologik fanlar, Pirogov interaktiv anatomik stoli.

Aytish joziki, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash davlatimizning bosh ezgu maqsadlaridan biridir. Shu o'rinda mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini isloh qilishga, ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga, oliy ta'limni modernizatsiya qilishga doir qator istiqbolli say-harakatlar izchil amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi farmonida ham oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga doir qator vazifa va maqsadlarni amalga oshirish belgilab olindi. Jumladan, mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalarni, o'quv dasturlar va o'quv uslubiy materiallarni keng joriy etish kabi vazifa va maqsadlar belgilab olingan.

Ma'lumki, hozirgi davrda jahon miqyosida ilm fanning barcha tarmoqlarini jadal suratlar bilan rivojlanishini zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ta'lim sifatini yanada yaxshilashda samarali vositalardan biri bu zamonaviy texnologiyalardir. Ta'lim olish jarayonida, kasbga yo'naltirib o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash, yaratish, ularni boshqarish orqali ta'lim tizimining dolzarb vazifalarini hal qilib beradi. Ta'lim olish jarayonida zamonaviy ilg'or axborot kommunikatsion texnologiyalarni keng qo'llash orqali ko'plab afzalliklarga erishiladi.


Jumladan:

- o'quv jarayonida fanlarni o'zlashtirish faolligi oshadi;
- fanga bo'lgan qiziqishlar oshishiga erishiladi;
- intellektual faoliyatga undaydi;

-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlashga erishiladi.

Oliy ta'lim tizimining barcha tarmoqlari kabi tibbiy oliy ta'lim tizimida turli fan tarmoqlarida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion smart texnologiyalarining keng qo'llanilishi ta'lim sifatining yanada yuksalishida muhim o'rin tutadi. Smart texnologiyalarni ta'lim tizimiga keng jalb etish nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni samarali o'zlashtirishga imkon beradi. Shu kabi smart o'quv texnologiyalaridan biri bu - Pirogov interaktiv anatomik stoli bo'lib, ushbu smart qurilma tibbiy-biologik fanlarni, xususan anatomiya va klinik anatomiya fanlarini o'qitishda, o'rganish jarayonida yuqori samaradorlikka egadir.

Pirogov interaktiv anatomik stoli ilg'or innovatsion o'quv ishlanma bo'lib, o'zida bir qancha afzalliklarni mujassamlashtiradi. Xususan, odam anatomiyasi va klinik anatomiya oid barcha o'quv materiallariga ega, organlar tuzilishi, antropometrik shakli, rang jihatdan ham inson a'zolariga moskeladi. A'zolarining jinsga doir farqlari, turli anatomik sathlardagi tasvirlari aniq ifodalangan. Organlar tuzilishiga oid ma'lumotlar rus, ingliz tillarida ham keltirilgan.



1-rasm. Pirogov interaktiv anatomik stoli

Xulosa: Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim sifatini, xususan oliy ta'lim sifatini yaxshilashda, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlashda, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishida va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishida zarur shart sharoitlarni yaratish muhimdir. Shu o'rinda, oliy ta'lim muassasalarining zamonaviy o'quv va ilmiy laboratoriyalari bilan ta'minlash, moddiy texnik bazasini yaxshi shakllantirish, ta'lim tizimiga axborot kommunikatsion va smart texnologiyalarni keng jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.

2. Burxonova M.M., Mominova N.B. Ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy texnologiyalarning o'ri va ahamiyati. Yosh olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilarning ilmiy forumi. TATUFF-EPAI. 2023-yil. 218-223 b.

3. Ulugbekova G.J., Adkhamov Sh.A. The role of "ANATOMAGE SMART TABLE", "SMART BOARD" in 3D, 4D format in the study of physical development indicators of children and adolescents. Tibbiyotda yangi kun ilmiy referativ, ma'rifiy-ma'naviy jurnal. 2023-yil, 2 (52), 202-206 b.

4. Bozorova D.S., Abduxoliqov H.A., Ismoilova M., Bozorova B., Shobaxromov Sh. Anatomiya fanini masofaviy ta'limda oqitishda innovatsion texnologiyalarni qollashning o'ziga xos xususiyatlari. Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar xalqaro konferensiya. Chirchiq. 512-515 b.

5. Abidova D.M. Smart texnologiyalar zamonaviy tendensiya sifatida. Academic Research in Educational Sciences. Volume 2, CSPI CONFERENCE 3. 2021-yil. 5-10 b.

6. <https://lex.uz>

7. <https://nash-pirogov.ru>

8. <https://researchgate.net>


TASODIFIY KIRISH PROTOKOLLARI ORQALI BOSHQARILADIGAN KOMPYUTER TARMOG'INING MATEMATIK MODEL ORQALI TARMOQDAGI XATOLIKLAR HAQIDA OGOHLANTIRISH

Dexqonboyeva Moxira Qo'chqorboy qizi
Qo'qon universiteti talabasi,
Inomxo'jayev Azamatjon Akramxo'ja o'g'li
Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda global kompyuter aloqa tarmoqlari, kosmik aloqa tarmoqlari, mobil telefoniya, simsiz aloqa tizimlari va boshqalar keng rivojlanmoqda. Kompyuter ma'lumotlarini uzatish tarmoqlaridan foydalanish ko'lamining o'zgarishi bilan bir qatorda ular yordamida uzatiladigan axborotning xarakteri ham o'zgardi. Hozirgi vaqtda AHT orqali turli multimedia axborotlari katta hajmlarda uzatila boshlandi. Grafik tasvirlar, audio va video oqimlar kabi, ularning murakkabligi ma'lumotlar paketlarini uzatishdagi kechikishlar va yo'qotishlarga nisbatan sezgirligidadir, bu ham yuqori sifatli aloqaga bo'lgan ehtiyojning tobora ortib borishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: tasodifiy ko'p sonli kirish protokollari, kompyuter tarmoqlarini matematik modellashtirish.

Kirish: Ko'p sonli abonent stantsiyalari o'rtasida xabarlar uzatiladigan ziddiyatli ogohlantirishga ega tasodifiy bir nechta kirish protokoli tomonidan boshqariladigan kompyuter tarmog'ini ko'rib chiqing. Mojarolar haqida ogohlantirish bilan bir nechta kirish protokoli bir nechta taqsimlangan stantsiyalardan umumiy (umumiy) vosita orqali ma'lumotlarni uzatishni boshqarish qoidalarini belgilaydi, ular shina topologiyasi bo'lgan tarmoqlarda monokanal bo'lishi mumkin (1.1-rasm (a)), markaziy tugun. yulduz tarmoqlari (1.1-rasm (b)) yoki sun'iy yo'ldosh (radio) tarmoqlarida sun'iy yo'ldosh (radio) aloqa kanali (1.1-rasm (c)).



1.1-rasm - Kompyuter tarmoqlari

O'zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi ilmiy institutlarda uch mingga yaqin xotin-qiz ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali olib bormoqda. O'zbek olimlari kimyo, biotexnologiya, qishloq xo'jaligi va boshqa ko'plab sohalarda o'z bilim hamda qobiliyatlarini namoyon etmoqda. Ularning intellektual ishlari xorijiy ilmiy markazlar tomonidan yuqori baholanmoqda. Prezidentimizning 2020-yil 29-oktyabrdagi Farmoni bilan 2030-yilgacha fanni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Ta'kidlash joizki, mazkur Farmon iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni jadal rivojlantirish, ilmiy, intellektual va moliyaviy resurslarni to'liq safarbar etish bilan ilmiy va innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, kelajakda ilm-fanni uzluksiz isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, o'z-o'zini o'ylaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 5-martdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori mamlakatimizning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishi hamda bandligini ta'minlashga har tomonlama ko'maklashishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzurida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida Prezident qarori (13.08.2019)
2. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (02.09.2019)
3. Abilov O'.M. Mustaqillik va optimizm. – T.: Fan, 1997
4. Aliyev B. Bozor munosabatlarining qaror topish sharoitida mehnat jamoasining ijtimoiy funksiyalarining o'zgarishi. – T.: Fan, 1992
5. Atamuratov S. Milliy o'zlikni anglash va milliy madaniyat. – T.: Fan, 1991
6. Karimov Ibrohim. Ma'naviyat, falsafa, inson. – T.: Fan, 1999
7. Mahmudov T. Kamolot asrorlari. – T.: Ma'naviyat, 2006
8. Nazarov Q. Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot. – T.: Fan, 1992

9. Кенжаева, Х. П. (2021). Фуқаролик маданияти мезонлари шарқ фалсафаси талқинида. *Academic research in educational sciences*, 2(3).
10. Кенжаева, Х. П. (2021). Аёллар ижтимоий фаоллигини оширишда фуқаролик институтларининг ўрни. *Scientific progress*, 1(6), 957-961.
11. Кенжаева, Х. (2021). Миллий маънавий меросимизда таълим-тарбия масалалари. *Общество и инновации*, 2(6/ S), 18-24.
12. Islombek Marasulov Ravshanbek Ogli, & Toxirov Azamjon Ibrohim Ogli. (2021).
13. A role of mechanical engineering in mechatronics. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 824-828. Retrieved from <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/1690>

THE CONCEPT OF RISK IN THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS AND ITS ESSENCE

Khujaxonova Sitora Baxtiyarovna
Assistant, Tashkent State University of Economics,
Tukhtabaev Jamshid Sharafetdinovich
PhD., Associate Professor, Department of Management
and marketing, Tashkent State University of Economics

Annotation. This article describes the risks inherent in the activities of commercial banks and measures taken to reduce their impact. Scientific proposals and recommendations have also been developed to reduce the risks associated with credit risks while ensuring the financial security of commercial banks.

Keywords: commercial banks, economic security, risk, banking, risk management, interest rate, economic efficiency, loss, profit.

Modern banking is directly related to various risks, and effective management of them is one of the most important functions of banks. The risk is different in any banking transaction and is covered in different ways. In a market economy, it is very difficult to find risk-free transactions that guarantee the achievement of a predetermined financial result. It is important for commercial banks not to avoid risks, but to eliminate and minimize them.

Banking risks began to be studied by economists back in the eighteenth and nineteenth centuries because of their importance as an object of study. However, there is no single approach to their essence. Many scientists attribute the causes of risk to circumstances, factors that lead to damage. I. V. Bernard and J. K. Colley interpreted "credit risk as a type of bank risk, which is an unforeseen event that may occur before the loan is repaid." The International Basel Committee, when assessing capital adequacy, defines credit risk as "the risk of default by the counterparty".

It should be noted that the bank's risk is a category describing a specific situation in its activities, indicating that the expected result is negative and the results are uncertain. Two important aspects of bank risk should be taken into account: firstly, the ambiguity of the situation in which the decision is made; secondly, it is a negative change in the planned result. In this regard, it is advisable to pay attention to the following three categories:

1. Expenses: interest paid by the bank to depositors and creditors for borrowed funds, salaries of employees and other operating expenses. Risks in the implementation of banking expenses can take the following forms: an increase in interest costs on deposits due to changes in market conditions, an increase in their purchase price due to a lack of credit resources, an increase in salaries of bank employees due to rising prices for other banks, etc.

2. Losses: due to unforeseen circumstances, non-receipt of income due to poor study of the situation in current activities and excess of planned expenses. The risk of losses arises primarily as a result of irrational allocation of funds, incorrect assessment of market opportunities and risks.

3. Losses. An indicator of the overall risk of commercial banks is an unexpected decrease in net profit. This indicator covers the above categories. It follows that the level of risk in the bank's strategy and operations is reflected in the risk of losses of the bank. Risk and losses are considered interrelated, and risk can be quantified through losses. Risk is usually estimated in absolute and relative terms. Quantitatively, the risk reflects the amount of losses that the bank may incur as a result of a particular operation. However, it is not always possible to estimate these losses. If the probability of loss is proportional to the indicator characterizing the bank's activities, for example, the loan portfolio, the amount of income or expenses, a relative risk indicator arises.

Our research shows that the main causes of risks in the banking sector are:

- poor market research;
- inaccurate or insufficient information in the field of attracting and placing resources;
- unreliable or incomplete information about the project, the facility and the credited clients, their financial condition;
- failure to take into account the specifics of the activities of industries or sectors;
- qualifications and level of subjects or clients, diversity of knowledge and goals for the use of funds, etc.

The increase in the level of risk in commercial banks can be explained by the following factors:

- problems occur randomly, unexpectedly;
- when identifying new tasks that do not correspond to previous experience;
- inability of the bank's management to make a decision to prevent financial losses;
- in certain circumstances, the legislative framework or banking activities prevent the adoption of appropriate decisions, etc.

In practice, the assessment of banking risks takes into account the possibility of customers' insolvency, a sharp deterioration in their financial condition, changes in exchange rates and securities, as well as the possibility of returning part of the funds, etc.

Effective management of banking risks, in turn, requires taking the necessary measures to predict potential threats to banking activity, correctly assess the level of their probability, factors and negative consequences and eliminate them. At the same time, risk management in the banking sector is carried out simultaneously with the general banking system and a separate banking institution. The consistency of their activities is determined by banking supervision and staff qualifications based on mathematical evaluation methods.

References:

1. Bernard I.V., Colli J.V. Explanatory economic and financial dictionary. - M., 1997. - p. 502.
2. International Convergence of Capital Measurement and Capital Standards Basle Committee on Banking Supervision. Basel: Guli, 2004. R 4.10.
3. Abdullaeva Sh.Z. Banking risks and lending. - Tashkent, Finance, 2002. - B. 91.
4. Tillaeva B.R., Tukhtabaev J.Sh., Ismagulova G.N. Labour protection problems in ensuring the economic security of industrial enterprises. Asian Journal of Technology & Management Research, 2020.

5. www.global-rates.com/interest-rates
6. Monetary aggregates // www.cbr.ru (Central Bank of the Russian Federation).
7. Tukhtabaev J.Sh. Econometrical Assessment of Factors Affecting Diversification of Production in Farms Ensuring Food Security. International Journal of Modern Agriculture, 2021.
8. Money supply statistics // www.nationalbank.kz (National Bank of Kazakhstan).
9. Tukhtabaev J.Sh. The theoretical approach on increase of professional skill of workers and stimulation of their creativity. ISJ Theoretical & Applied Science, 2016.
10. Miller L.R., Van Hoose D.D. Modern Money and Banking. - M.: Infra-M, 2000. - p. 50.
11. Tukhtabaev J.Sh., Homayoun M., Saidov M.A. The system of economic contractual relations with enterprises engaged in the cultivation of oilseeds and the production of vegetable oil. ISJ Theoretical & Applied Science, 2021. № 06 (98). - pp. 729-739.
12. Tillaeva B.R., Tukhtabaev J.Sh., Ismagulova G.N. Labour protection problems in ensuring the economic security of industrial enterprises. Asian Journal of Technology & Management Research. Vol.10 – Issue: 01[Jun-2020].

**HARAKATLAR STRATEGIYASI DAVLAT DASTURINING –INSON MANFAATLARI VA TA'LIM
SAMARADORLIGINING OSHIRISHDAGI NATIJALARI**

Aliyeva Yulduz Ulug'bek qizi
Qo'qon universiteti ta'lim fakulteti
psixologiya yonalishi 1 bosqich talabasi,
Temirova Mashhura Muhammadaminovna
Qo'qon universiteti v.b. dotsenti. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining [1] "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan 4-yo'nalishida maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlari haqida batafsil yoritiladi. Mazkur yo'nalishda ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirishga, har tomonlama barkamol, ma'nan yetuk, va shu bilan bir qatorda, yuqori malakali mutaxassislarni tarbiyalashga alohida e'tibor berilganligining natijalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Harakatlar strategiyasi, ijtimoiy himoya, sifatli talim tizimi, xalq ta'limi, inson qadri, xalq bilan muloqot, ta'lim-tarbiya, malakali kadr,

Mamlakatimizning o'tgan besh yillik taraqqiyotini belgilab bergan ushbu Harakatlar strategiyasi qabul qilinayotganida aholini o'ylantirayotgan dolzarb muammolarni har tomonlama o'rganish, tahlil qilish va ularni bosqichma-bosqich bartaraf etish bo'yicha maqbul choralarni ko'rish, bir so'z bilan aytganda xalqimiz turmush farovonligini oshirish maqsad qilingan edi. O'zbekiston endilikda jahon hamjamiyati tomonidan jadal taraqqiy etayotgan, iqtisodiyotda barqaror o'sish sur'atlariga erishayotgan, eng asosiysi, aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti tubdan yaxshilanayotgan, hayot darajasi izchil yuksalayotgan mamlakat sifatida e'tirof etilmoqda. Shu o'rinda strategiyaning 4-yo'nalishi bo'lgan Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga kelsak, bugun yakka-yolg'iz nuroniylarga, kam ta'minlangan, ko'p bolali oilalarga hamda nogironlarga ko'rsatilayotgan mehr-oqibat, diqqat-e'tibor — ularning huquq va manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish, uy-joy bilan ta'minlash, davlat organlari va boshqa tashkilotlarning e'tiborini kuchaytirish, moddiy ta'minotini keskin yaxshilash borasida olib borilayotgan hayrli ishlar ham bugungi yangi bosqichdagi islohotlar mevasidir. Zero, "2017 — 2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish", "Obod qishloq" va "Obod mahalla", "Har bir oila — tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz", "Besh ijobiy tashabbus" kabi Davlat dasturlari [2] va rejaları doirasida olib borilayotgan ishlar bugun xalqning hayot darajasi hamda farovonligini oshirish yo'lidagi g'amxo'rlikning yorqin namunasidir. Binobarin, 2019-yilgi Davlat dasturiga ko'ra, mamlakatimizda jami 370 ming yangi ish o'rinlari tashkil etish belgilangan bo'lsa, o'tgan to'qqiz oy ichida 266,3 mingdan ortiq yangi ish o'rnini yaratilib, bu boradagi prognoz 119,8 foizga ortig'i bilan bajarildi. Yoki 2018-yilga nisbatan ishga joylashtirilgan aholi soni 1,4 baravar, ishsizlik nafaqasi tayinlangan ishsizlar soni 4,5 baravar oshdi. "Har bir oila –

tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturlari doirasida 252,7 mingdan ortiq aholi tadbirkorlikka jalb etildi. 9 672 nafar og'ir turmush sharoitida yashayotgan xotin-qizlarning bandligi ta'minlandi [3]. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosatni amalga oshirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar borasida O'zbekistonning tashqi siyosat sohasida olib borayotgan faol va samarali, ochiq va kreativ faoliyati dunyoning barcha davlatlari, xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarning yanada kengayishi va rivojlanishida muhim omil bo'lmoqda. Bu o'rinda, birinchi navbatda, yon qo'shni – jon qo'shnilar bo'lgan Markaziy Osiyoning boshqa qardosh davlatlari bilan munosabatlar iliqlashgani, oradagi muzlar erigani, o'zaro manfaatli aloqalar izchil yo'lga qo'yilgani, minglab oddiy odamlarning chegaralardan bemalol o'tayotgani, mintaqa bo'ylab erkin harakatlanish, qarindosh-urug'lar bilan bordi-keldi qilish uchun barcha sharoitlarning yaratilgani muhim tarixiy qadam bo'ldi. O'zbekiston inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha mustaqil siyosatini qat'iy davom ettirmoqda va bu siyosat xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda. Mamlakatda mahbuslarni afv etish instituti joriy etilib, keyingi uch yilda yetti marta afv e'lon qilindi. Natijada qilmishidan chin dildan pushaymon bo'lib, tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan 4 ming nafarga yaqin mahbus jazoni o'tash joylaridan ozod etildi. Mustaqillik bayrami arafasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jasliq qo'rg'onidagi jazoni ijro etish koloniyasining yopilgani, 156 nafar fuqaro (asosan ayollar va bolalar) jangovar harakatlar davom etayotgan Suriyadan qaytarib olib kelinib, ularning fuqarolik huquqlari tiklangani xalqaro jamoatchilik tomonidan olqishlanib, bu mamlakatda amalga oshirilayotgan insonparvar siyosatning yana bir hayotiy ifodasi ekani ta'kidlandi. Umuman, bugungi O'zbekiston o'z fuqarolarining haq-huquqlari, manfaatlari va erkinliklarini ular qayerda bo'lishidan qat'i nazar, himoya qilishga qodir davlat sifatida o'zini namoyon etmoqda. Eng muhimi, bugun O'zbekistonda jamiyatdagi mavjud muammolarga ko'z yumish, uni xaspo'shlash emas, balki aholini qiynayotgan har qanday masalaga ijobiy yechim topishga bo'lgan intilish kuchaydi, qonunlar ijrosi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratining ta'siri ortib bormoqda. Ayniqsa, mansabdor shaxslarning va davlat organlarining mas'uliyati anchayin oshgani, "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak", degan ezgu tamoyil hayotda o'z amaliy ifodasini topayotgani muvaffaqiyatlar omili bo'lmoqda.

Harakatlar strategiyasiga muvofiq 2017-2021 yillarda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish Dasturini ishlab chiqish, o'quv dasturlarini yanada takomillashtirish, pullik xizmatlar ko'rsatish va moliyalashtirishning qo'shimcha manbalarini izlashda oliy o'quv yurtlarining vakolatlarini kengaytirish yo'li bilan ularning mustaqilligini bosqichma-bosqich rivojlantirish nazarda tutilgan. Buning natijasi o'laroq, 2019 yilning 8-oktabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Ushbu farmonda oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish bo'yicha bir qator vazifalar belgilangan. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish bo'yicha davlatimiz hamda hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosatning ma'no-mazmunidan va uning dolzarbligidan kelib chiqib, uni quyidagicha izohlash mumkin: birinchidan, yangi ta'lim tizimi, barkamol avlod kadrlarini tayyorlashdagi o'zgarishlar va yangicha yondashuvlar, zamonaviy kasb sohalarining paydo bo'lgani hamda uning mamlakatimiz sharoiti bilan bog'liqligidir; ikkinchidan, ta'lim tushunchasi ijtimoiy-

iqtisodiy taraqqiyot natijasida muayyan davrdan boshlab, inson faoliyatining alohida mustaqil sohasiga aylanib, jamiyatning ijtimoiy tajribasini keyingi bosqichga uzatadi; uchinchi, ta'lim inson shaxsining intellektual-ma'naviy qirralarini shakllantirish, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga qaratilgan harakatlar yig'indisi bo'lib, ma'rifat hamda bilim berishni anglatadi; to'rtinchidan, fan jamiyatning ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, tabiat va jamiyat hayotini aks ettiruvchi ijtimoiy ong shakli. Bularning barchasi, o'z navbatida, erkin va adolatli jamiyat shakllanishiga, unda sog'lom muhit qaror topishiga, odamlarning rozi bo'lishiga va amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissi kuchayishiga hamda yurt taraqqiyoti yo'lida astoydil, faol ishtirok etishiga zamin yaratmoqda. Bu hayotbaxsh islohot va yangilanishlar butun jamiyatni, uning a'zolari bo'lgan har bir insonni amaliy ishlarga safarbar etib, el-yurt manfaatlari, Vatan kelajagi yo'lida jipslashtirmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz", degan ezgu g'oyasi bugun izchil ro'yobga chiqmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida /Rasmiy nashr/ O'zbekiston Respublikasini Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2018.

2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016- yil 7-dekabr. – T.: O'zbekiston NMIU, 2017.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika yo'nalishida maxsus sirtqi bo'limlarni tashkil etish to'g'risida»gi qaroriga sharh. http://www.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3299721 (25.10.2017)

ZAMONAVIY BOZOR MUHITIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING MUHIM CHORALARI

Qudratov J.A.
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi huzuridagi Biznes va
tadbirkorlik oliy maktabi tinglovchisi

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarini shakllanishi davrida yangi vujudga kelayotgan strategik tavakkalchiliklar ta'sirida iqtisodiy xavfsizlikning nazariy masalalariga qiziqish keskin o'sib bormoqda. Xavfsizlik ushbu kontekstda hayotiy faoliyatning barcha sohalaridagi o'zgarishlarni va o'zaro aloqadorliklarni ifodalovchi integral tavsiflovchi ko'rsatkich sifatida baholanmoqda. Buning natijasida O'zbekistonning iqtisodiy xavfsizligi nazariyasi har jihatdan rivojlanib bormoqda. Ushbu maqolada iqtisodiy xavfsizlikni iqtisodiyotdagi o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, Jahon savdo tashkiloti, eskport, import, boj, jahon iqtisodiyoti

Jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuvining rivojlanishi, mamlakatlar o'rtasidagi xalqaro raqobatning kuchayishi va tabiiy resurslarning tobora taqchil bo'lib borishi iqtisodiy xavfsizlikning ahamiyatini kuchaytirmoqda. Buning natijasida mamlakatlar milliy va xalqaro iqtisodiy xavfsizlik masalalarini qayta ko'rib chiqmoqda va o'z yondashuvlarini yanada takomillashtirish yo'llarini topishga intilmoqda.

Iqtisodiy xavfsizlik barcha iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lgan davlatlarning fundamental asosi hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan samarali davlat - bu o'zining milliy manfaatlarini himoya qiladigan va ma'lum bir vaqt va sharoitlarda cheksiz xalqaro raqobat muhitida milliy iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga intiladigan davlatdir.

Biroq, milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, COVID-dan keyingi davrda milliy iqtisodiyotning o'sish sur'atlarining pasayishi kabi jiddiy muammolarni hal qilishni talab qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, iqtisodiy xavfsizlikning ayrim jihatlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati va turlari;
- mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va uni ta'minlash mexanizmlarini tahlil qilib chiqish;
- iqtisodiy o'sish va iqtisodiy xavfsizlik o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va uning mamlakatning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rniga ta'siri;
- rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish maqsadida ularning bosib o'tgan yo'llarini o'rganib chiqish.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda barqaror iqtisodiy rivojlanishni o'rni kattadir. "Iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasi ustida bosh qotirish ilk bor resurslarning cheklanganligi ma'lum bo'lgan paytdan boshlanadi. Iqtisodiy xavfsizlikka bir necha xil ta'riflar keltirishimiz mumkin. Umuman olganda, iqtisodiy xavfsizlik - bu jamiyatning barcha imkoniyatlarini amalga oshirish uchun milliy manfaatlarni safarbar qilish imkonini beruvchi davlat iqtisodiy

tizimini maqsadli va bosqichma-bosqich rivojlantirish hisoblanadi. Tashqi iqtisodiy aloqalar murosasizlashgan sharoitda mamlakatning milliy manfaatlariga zarar yetkazadigan, iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir etuvchi omillar va shart-sharoitlar hisobga olinadi.

Mustaqillik, ya'ni suverenitet davlatning iqtisodiy xavfsizligi tizimiga yondashuvning yana bir jihati hisoblanadi. Bu yo'nalish hech qanday hujjatda o'z aksini topmagan bo'lsada, davlat va huquq nazariyasining umumiy qoidalarini o'rganib chiqib, uni alohida huquqiy yo'nalish sifatida ajratib ko'rsatish mumkin.

O'rganishlar natijasida shu ma'lum bo'ldiki, davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasi quyidagi muhim jihatlarga ega bo'lishi kerak:

-o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqib ichki ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy masalalarni mustaqil va samarali hal etgan holda tashqi salbiy ta'sirlardan maksimal darajada himoyalani;

-kundalik jamiyatda ijtimoiy totuvlik va barqarorlikni hamda har bir shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlarni kafolatlaydigan aholi turmush darajasi va sifatini ta'minlash;

-jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan keskin o'zgarishlarga, resurslarning jadal o'sib borayotgan tanqislik holati va xalqaro global raqobat sharoitlariga o'z vaqtida moslashish;

-samarali va teng huquqqa asoslangan integratsiya orqali mamlakat manfaatlarini himoya qilgan holda, dunyodagi iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga ta'sir o'tkazish imkoniyatini amalga oshirish maqsadida faol tashqi siyosat va iqtisodiy diplomatiya yuritish.

Umuman olganda, O'zbekistonning iqtisodiy xavfsizligini nisbatan yuqori baholashimizga asos mavjud. Biroq, hozirgi sharoitda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun O'zbekiston ichki bozorni himoya qilish va qo'llab-quvvatlashning hozirgi darajasini himoya qilishi kerak. Shu bilan bir qatorda, buni iqtisodiy siyosat va ichki bozorni himoya qilish vositalarini ham takomillashtirish orqali amalga oshirish kerak.

Birinchiidan, O'zbekiston amaldagi darajada (hech bo'lmaganda bir qator tovarlar uchun) bojxona to'lovlarini o'rnatmasligi kerak, chunki agar mamlakat Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lgan taqdirda, nol aktsiz solig'ini joriy etilishi majburiy shartlardan biriga aylanadi. Shunga asosan ko'plab mamlakatlarda o'zining nisbiy samaradorligini ko'rsatgan tarif kvotalari amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bundan tashqari, tarif kvotalarining qo'llanilishi ishlab chiqarish sohasi bilan bir qatorda ulgurji va chakana savdo bozorlarida ham haqiqiy raqobat muhitini yaratish asosida olib borilishi zarur.

Ikkinchiidan, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish doirasida ba'zi bir tovarlarga kompensatsiya va antidemping bojlarini qo'llash zarur. Asosiy qiyinchilik shundaki, qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan oziq-ovqat sohasi vakillarining o'zlari ushbu chora-tadbirlarning mohiyatini deyarli tushunmaydilar yoki zarur hujjatlarni tayyorlash uchun yetarli malakaga ega emas hisoblanadilar.

Uchinchiidan, yurtimizda iqtisodiy xavfsizlik muammosini hal qilishda importni cheklashdan ko'ra, milliy tovarlar eksportini kengaytirish muhim hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlardan shu ma'lum bo'ladiki jahon iqtisodiyotiga tobora bog'lashib borayotgan va jadal rivojlanish yo'lini tanlagan O'zbekiston Respublikasi uchun iqtisodiy xavfsizlik masalasi alohida ahamiyatga ega. Respublikamizning siyosiy jihatdan beqaror mintaqada joylashgani esa biz uchun ushbu yo'nalishning dolzarbligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Economic Security: Neglected Dimension of National Security? Edited by ShYlla R. Ronis. Published for the Center for Strategic Conferencing Institute for National Strategic Studies by National Defense University Press Washington, D.C. 2011.
2. Экономическая безопасность: учебник для вузов/ под общей редакции Л.П.Гончаренко, Ф.П.Акулинина. М.: издательство-Юрайт. 2018.
3. Абулкасимов Х.П., Абулкасимов М.Х., Саидахмедова Н.И. Экономическая безопасность предпринимательской деятельности. Учебное пособие.- Т.:Ilmiy-Texnika Axboroti Press, 2016.
4. Abulqosimov H.P. Iqtisodiy xavfsizlik. O'quv qo'llanma.- T.: Akademiya, 2006.
5. БОГОМОЛОВ В.А. и др. Экономическая безопасность: учебное пособие для студентов экономических вузов, обучающихся по специальностям экономики и управления. - М. ЮНИТИ ДАНА, 2009
6. Левин М.И. Левина Е.А., Покатович Е.В. Лекции по экономике коррупции. Учебник. М.:Издательство высшей школы экономики. 2001.
7. Гордиенко Д.В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекции. Учебно-методическое пособие / Д.В. Гордиенко. - М.: ИНФРА-М, Финансы и статистика, 2013.
8. A.Shamagdiev. «Iqtisodiy xavfsizlik va bojxona siyosati» fanidan ma'ruza matnlari. Toshkent-2012
9. Edited by ShYlla R. Ronis// Economic Security. Published for the Center for Strategic Conferencing Institute for National Strategic Studies by National Defense University Press Washington, D.C. 2011
10. В.А.Togaev. —Xufyona iqtisodiyot - iqtisodiy xavfsizlikka tahdid sifatida. —Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali №3. 2015-yil.

BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA YOSHLAR VA XOTIN QIZLARNI MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH

**Raxmatullayeva Durдона Ravshanovna
Pedagogik innovatsiyalar instituti dotsenti, PhD.**

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda yoshlar va xotin-qizlarning moliyaviy savodxonligini oshirish orqali erishish va uni amalga oshirish chora-tadbirlari xususida keltirilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, xotin-qizlar, moliyaviy savodxonlik, tadbirkorlik, tadbirkorlik faoliyat, iqtisodiy o'qish, aholi, imtiyoz.

Mamlakatimizda islohotlar davrida xotin-qizlar va yoshlar masalalariga juda katta e'tibor qaratilib, bugungi kunda O'zbekistonda ishsizlarning 732 ming nafari yoshlar, 834 ming nafari xotin-qizlar tashkil etadi, bundan ko'rish mumkinki, yoshlar va ayollarni hayotga motivatsiyalash va moliyaviy savodxonligini oshirish, natijada o'z o'zini bandligini ta'minlash bugungi asosiy vazifalardan biridir. Ma'lumki, har qanday mamlakatda aholining kam ta'minlangan qatlami mavjud. O'zbekistonda ham odamlarning muayyan qismi yetarli daromad manbaiga ega emas [1].

Bunda aholini tadbirkorlikka o'rgatish, kasbiy malakasini oshirish orqali kambag'allikni kamaytirish eng asosiy masala hisoblanadi. Shuningdek, mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish, odamlarni ish bilan ta'minlash, daromadini oshirish hozirgi paytda har doimgidan ham muhim vazifa hisoblanadi. Bu vazifani esa, albatta, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali amalga oshirish mumkin.

Mahalliy olimlar tomonidan mehnat bozorida yoshlar va xotin-qizlar masalalari va ularning ishsizligi, ijtimoiy himoyasi muammolariga bag'ishlangan bir qancha ilmiy tadqiqotlar R.A.Ubaydullaeva (mehnat bozorida ayollar holati), D.X.Bobonazarova (qishloq ayollari ish bilan bandligining ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmi), N.Rahimova (mehnat bozorida ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish)lar tomonidan olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda bozor iqtisodiyoti sharoitlarida xotin qizlarning ish bilan bandlik darajasi, mamlakat iqtisodiyotining norasmiy sektorida xotin qizlarning mehnat bozorida ulushi, xotin qizlarning iqtisodiy faolligi, xotin qizlarning ish bilan bandligiga ta'sir etuvchi omillar, qishloq joylarda xotin qizlarning ish bilan bandligini oshirish mexanizm va yo'nalishlari tahlil etilgan [2].

Z.Xusanova "Jahon iqtisodiyotida ayollar tadbirkorligi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim omiliga aylangan bo'lib, uzoq muddatli davrda biznes yuritish sohasini barqarorligini ta'minlashida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish zaruriyati yuqori hisoblanadi" deb ta'kidlaydi.

Yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb etish bo'yicha Z.Xudoyberdiyev, A.Nizamov, D.Raxmatullayeva, N.Murodova, R.Xakimov, M.Artiqovalar bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan [3].

Dunyo tajribasida ham ko'rish mumkinki, yoshlar va xotin-qizlarning mehnat bozorida ulushi va ularni tadbirkorlik faoliyatidagi ishtiroki kun sayin ortib bormoqda. Ularning moliyaviy savodxonligi qanchalik oshirilsa, jamiyatga va iqtisodiyotning o'sishiga, ish bilan bandlik masalalari bartaraf etishga, iqtisodiyotdagi harakatni amalga oshirish, mamlakatning ichki mahsulot va xizmat turlari ortishiga yordam beradi, natijada esa yoshlar va xotin-qizlarning o'z o'zini bandligini ta'minlashi va tadbirkorlik orqali real daromad manbaiga ega bo'ladi.

Toshkent shaharda yoshlar va xotin qizlarning moliyaviy savodxonligini aniqlash bo'yicha anketa so'rovnoma o'tkazildi. Unga ko'ra, Moliyaviy savodxonlik deganda nimani tushunasiz? deganda ishtirokchilar 52 % "insonning puli yetarli ekanligi", 23 % "kredit olish imkoniyati mavjudligi", 15% "iqtisodiy tushunchalarning yetarli ekanligi" 9 %"javob bera olmasligini" ta'kidlaganlar.

Tadbirkorlik bilan shug'ullanishni hohlaysizmi? degan savolga respondentlarning 83 % "ha" deb ta'kidlaganlar.

Sizda tadbirkorlik faoliyati bo'yicha tasavvur yoki tajriba bormi? degan savolga respondentlarning 5 % "ha" deb, 21 % "yo'q" deb, 71% to'liq emas deb bildirganlar.

Biznes g'oyangiz bormi? degan savolga respondentlarning 74 % "ha" deb, 24 % "yo'q" deb bildirganlar.

Respondentlarning to'liq 83 % Siz kelajakda tadbirkorlik bilan o'z ishingizga ega bo'lishni hohlaysizmi degan savolga? "ha" deb javob bildirganlar, 16 % ishtirokchi bilmayman deb javob berganlar.

Kelajakda siz uchun yollanib ishlash afzalroqmi? degan savolga ishtirokchilarning 47 % "ha" deb, 48 % "yo'q" deb, 5 % 50/50 deb ta'kidlashgan;

Tadbirkorlik faoliyatidagi imtiyozlardan xabardormisiz? Agar bo'lsa qanday imtiyozlar mavjud? degan savolga 97 % ishtirokchi "yo'q" deb javob berishgan;

Sizga tadbirkorlikni tashkil etish bo'yicha qanday bilimlar kerak? degan savolga 58 % ishtirokchi soliq va imtiyozlar; 21 % ishtirokchi kredit olish tartibi va imtiyozlar; 4 % ishtirokchi texnika va jihozni qaerdan olish; 26 % ishtirokchi tadbirkorlik bilimlari zarurligini ta'kidlaganlar.

Tahlil natijalariga ko'ra, yoshlar va xotin qizlarning moliyaviy savodxonligi pastligi, bugungi kunda yoshlar va xotin qizlar uchun yaratilgan imtiyozlarning ko'pidan bexabarligini ko'rish mumkinligi va ularni moliyaviy savodxonligini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Yoshlar va xotin qizlarni moliyaviy savodxonligini oshirish orqali tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash bu iqtisodiy kompetensiyaning asosiy komponentlaridan biridir. Ana shu sababli yoshlarni biznes faoliyatiga tayyorlash, ularda ishbilarmonlik sifatlarini shakllantirishga ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy asosi sifatida qarash lozim.

Demak, tahlillar shuni ko'rsatdiki, yoshlar va xotin-qizlar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirishi global tendensiyadir. Ko'pgina davlatlar yoshlar va ayollar tadbirkorligini rivojlantirishni rag'batlantirmoqda, undan iqtisodiyotni mustahkamlash vositasi sifatida foydalanmoqda. Yoshlar va xotin-qizlarning iqtisodiyot va jamiyat hayotida to'liq ishtirok etishi mamlakatda iqtisodiy yuksalishda va farovonlikka erishishda bevosita xizmat qiladi. Buning uchun esa quyidagicha muhim vazifalarni hal etishi lozim:

+ yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyati bo'yicha moliyaviy savodxonligini doimiy oshirish;

+ hududlarda hunarmandchilik, kasanachilik, tomorqa bizneslarini rivojlantirish asosida yangi ish joylarini barpo etish va o'z o'zini bandligini ta'minlash;

+ malaka darajasini rivojlantirishda qisqa muddatli kurslarni tashkil etish va o'quv markazlari faoliyatini kengaytirish;

+ tadbirkorlikda va mehnatda band bo'lgan yoshlar va xotin-qizlarni qo'llab-quvatlash hamda imtiyozlarni kengaytirish.

+ kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash yoki malaka oshirish va o'z o'zini rivojlantirish kurslarini tashkil etish;

+ ishsiz va band bo'lmagan aholini mehnat bozorining joriy hamda istiqboldagi ehtiyojlari asosida qisqa muddatlarda zamonaviy kasbiy ko'nikmalarga o'qitishning samarali kurslarni tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020 yil 27 dekabr kuni Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktabda yoshlar bilan uchrashuv forum. -T: 2020.

2.D.Raxmatullayeva "Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish" // "O'zbekiston olimlari va yoshlarining innovatsion ilmiy-amaliy tadqiqotlari" mavzusidagi 28-son 1-qism konferensiyasi -T.: «Tadqiqot», 2021. - 18-20 b.

3.D.Raxmatullayeva "Yoshlar va xotin qizlar tadbirkorligini rivojlantirish - davr talabi". - T.: 2022 yil. "O'zbekiston olimlari va yoshlarining innovatsion ilmiy-amaliy tadqiqotlari" mavzusidagi konferensiya materiallarining 35-son.

**MAMLAKAT RIVOJLANISHIDA XOTIN QIZLARNI TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA JALB
ETISH TAJRIBALARI**

**Zaripova D,
Jalalova G,
Miralieva D,**

**"Yoshlar va xotin-qizlarning tadbirkorlik savodxonligini
oshirish va o'z o'zini bandligini ta'minlashga
qaratilgan yagona elektron ma'lumotlar bazasini
(onlayn veb-portal) yaratish" loyiha katta ilmiy xodimlari**

Anotatsiya. Ushbu maqolada xotin qizlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish tajribalari keltirilgan bo'lib, hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda, xotin qizlarni raqamli biznes imkoniyatlaridan keng foydalangan holda o'z o'zini bandligini ta'minlash, oilaviy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka, kasanachilikka va boshqa yo'nalishlariga ko'mak berish kerak.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, tadbirkorlik, xotin-qizlar tadbirkorligi, ayollar tadbirkorligi, o'z o'zini band qilish.

Mamlakatimizda yoshlar va ayollarga g'amxo'rlik qilish, ularning bandligini ta'minlash bo'yicha muvofiqlashtirilgan ishlarni amalga oshirish, bandlik dasturlarini ishlab chiqishda zamonaviy yondashuvlarni kengaytirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tahlillarga ko'ra, erkaklar va ayollarning biznes yuritish sohasidagi ishtirokini tengligini ta'minlash orqali 2025 yilga borib jahon YaIM hajmini 26 foizga oshirish mumkin[2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan "Kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas. Buning uchun, eng avvalo, aholini xotin kizlarni, yoshlarni kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg'otish orqali o'z o'zini bandligini ta'minlash lozimligi" ta'kidlab o'tildi va o'z o'zini bandligini ta'minlash maqsadida tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha keng ishlar amalga oshirilmoqda[1].

Barcha mamlakatda yoshlar va xotin qizlar masalasi asosiy kun tartibidagi va dolzarbligini yo'qotmaydigan masaladir. Har qanday davlatda yoshlar bilan ishlashni yaxshi yo'lga qo'yish-millat kelajagini yaxshi yo'lga qo'yishdir.

Tadbirkorlik faoliyati xotin qizlarning faol imkoniyatlarini namoyon qilinadigan soha bo'libgina qolmay, ish o'rinlarini ham yaratishning asosiy manbalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorij tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat mamlakatlarda davlatning maqsadli dasturlari asosida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashda ayollar va yoshlar tadbirkorligi yetakchi o'rinni egallaydi. Bu turdagi dasturlar doirasida tadbirkorlik faoliyatini boshlash ko'p holatlarda oilaviy tadbirkorlik shaklida o'z aksini topadi. Tadbirkor ayollar oilaviy biznesni rivojlantirishda bor imkoniyatlarini ishga solishlari amaliyotdan barchaga ma'lum bo'lgan holat hisoblanadi. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida oilaviy tadbirkorlik milliy ishlab chiqarish tarkibida salmoqli ulushga ega bo'lgan soha hisoblanadi. Masalan, Italiyada oilaviy

tadbirkorlikning 90 foizdan ziyodroq qismi tadbirkor ayollar hissasiga to'g'ri kelib, mustaqil ravishda faoliyat yuritayotgan jami bandlarning $\frac{1}{4}$ qismi ushbu sohada band hisoblanadi. Vengriya va Polsha mamlakatlarida 1990 yillardan boshlab kichik biznes sohasida ayollar tadbirkorligi faoliyatining rivojlanishi oilaviy tadbirkorlik sifatida o'z aksini topib, bugungi kunda ushbu sohada mehnatga layoqatli aholining 60-70 foizi band hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ayollar tadbirkorligi faoliyatini rivojlantirish mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini barqarorligini ta'minlashga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Mehnatga layoqatli yoshdagi ayollarning o'z biznes faoliyatini yuritayotgan qismi Ruminiyada – 45 foizni, Polshada – 27 foizni, Sloveniyada – 16 foizni va Bolgariyada – 11 foizni tashkil etadi. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar Fransiya, Germaniya, Avstriya kabi mamlakatlarda ham amal qilgan holda, ushbu mamlakatlarda ham ayollar tadbirkorligi faoliyati ko'proq kichik biznes sohasida oilaviy tadbirkorlik shaklida o'z aksini topadi.

Bugungi kunda jahonda AQSh iqtisodiyoti ham bozor iqtisodiyoti sharoitida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda yetakchilik qilmoqda. Ushbu vaziyatni inobatga olgan holda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning AQSh tajribasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. 1988 yilda mamlakatda ayollarga tadbirkorlik yuritish huquqini berishning qonuniy asoslari ishlab chiqilgan. Shu bilan bir qatorda, ayollar tadbirkorligini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida AQSh Kongressi qoshida Kichik tadbirkor ayollar Seksiyasi tashkil etilgan. Ushbu Seksiya o'z faoliyati davomida tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan turli davlat dasturlarini ishlab chiqqan. Jumladan, ayollarga tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni boshqarish bo'yicha ta'lim berish markazlari, Ayollar biznes markazlari faoliyatini tashkil etish, tadbirkor ayollarga o'z faoliyatiga turli konsultativ xizmatlar ko'rsatish bo'yicha markazlarni tashkil etilishi shular jumlasidan.

Respublikamizda ham ayollar tadbirkorlikini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. 2021 yil 5-mart kuni tadbirkor ayollarga ko'maklashish maqsadida Prezident "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5020-sonli qarorni qabul qildi.

Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi sifatida qayta tashkil etilib, har yili jamg'armaga Davlat budjeti 300 milliard so'mgacha mablag'lari ajratilishi belgilandi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun ayollarga quyidagi shartlarda kreditlar ajratiladi: Muddati: 3 yilgacha; Imtiyozli davr: 6 oyga qadar; Miqdor: BHMning 150 baravarigacha (36 mln 750 ming so'mgacha) Foiz stavkasi: markaziy bankning asosiy stavkasida berilmoqda.

Biroq, respublikamizda ayollarning tadbirkorlik qilishi uchun shart-sharoit va me'yoriy xuquqiy bazalar yaratilishiga qaramay, ularning doimiy ravishda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish darajasi pastligicha qolmoqda.

Hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda, xotin qizlarni raqamli biznes imkoniyatlaridan keng foydalangan holda o'z o'zini bandligini ta'minlash, oilaviy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka, kasanachilikka va boshqa yo'nalishlariga ko'mak berish kerak[3].

Buning uchun xotin qizlarni tadbirkorlik va biznes yuritish muhitini yanada yaxshilash maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini yanada kamaytirish hamda xotin qizlarni tadbirkorlikka keng jalb etish, xotin qizlar tadbirkorligining rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish.

Xotin qizlar tadbirkorligi uchun qulay soliq va boshqa imtiyoz, preferensiyalar yaratish,

Xotin qizlar tadbirkoriga imtiyozli bank kreditlari berish mexanizmlarini yanada yengillashtirish, jahon tajribasini hisobga olgan holda doimiy ravishda takomillashtirib, joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020 yil 27 fevral kuni tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo'yicha videoselektor yig'ilishi

2. Maxkamov A. Jenskoe predprinimatelstvo – vajniy faktor ekonomicheskoy povestki stran ShOS (04.12.2020 g.) <https://scocenter.uz/archives/294>

3.D.Raxmatullaeva "Yoshlar va xotin qizlar tadbirkorligini rivojlantirish – davr talabi". – T.: 2022 yil. "O'zbekiston olimlari va yoshlarining innovatsion ilmiy-amaliy tadqiqotlari" mavzusidagi konferensiya materiallarining 35-son.

https://conferences.uz/plugins/themes/bootstrap3/pdf/conf_36_2022/9.Iqtisodiyotda_innovasiyalarning_tutgan_urni_1_qism.pdf

ВНЕДРЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ПРИ ИСЛАМСКОМ ФИНАНСИРОВАНИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Исаев Ойбек Бахрамович
Независимый соискатель на степень
PhD по экономике, Секретарь Совета
Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

Аннотация: В данной статье раскрывается важность вопросов бухгалтерского учета и аудита при реализации исламского финансирования, области, которая имеет большой потенциальный спрос и, как ожидается, будет широко внедрена в ближайшем будущем в Узбекистане.

Методы: В процессе научного изучения, анализа и исследования темы использовались такие методы, как систематический анализ и статистический анализ. В статье рассмотрены необходимые аспекты соблюдения стандартов бухгалтерского учета и аудита при широком внедрении услуг исламских финансов, в том числе в Узбекистане. Использовались изучение существующих научных исследований по внедрению исламских финансов, сравнение разного опыта, изучение статистических данных и экономическое сравнение и анализ, логическое мышление, научная абстракция, методы группировки информации.

Результаты: Работа исламских филиалов обычного банка, а также всех финансовых организаций, которые осуществляют или будут осуществлять услуги по исламскому финансированию в Узбекистане, должна быть приведена в соответствие со стандартами, установленными (AAOIFI, IFSB).

Выводы: Осуществление бухгалтерского учета и аудита в сотрудничестве с международными исламскими организациями при внедрении исламских финансов в банках и других финансовых организациях основано на важности привлечения иностранных инвестиций в экономику Узбекистана и необходимости использования стандартов международных исламских организаций в широком применении всех видов услуг исламских финансов. Также были представлены научные выводы и предложения по широкому внедрению исламских финансовых услуг в Узбекистане.

Ключевые слова: Исламские финансы, бухгалтерский учет и аудит, AAOIFI, IFSB, стандарты, исламское окно, исламский банкинг.

Введение: Президент Шавкат Мирзиёев в обращении к парламенту 29 декабря 2020 года заявил о том, что в Узбекистане пора ввести исламские финансовые услуги, и в результате 20 апреля 2022 года издан Закон Республики Узбекистан «О небанковских кредитных организациях и микрофинансовой деятельности». Благодаря этому Закону впервые в Узбекистане понятие «исламское финансирование» получило правовую основу. Учреждениям микрофинансирования по Закону разрешено предоставлять услуги исламского финансирования. Некоторые коммерческие банки Республики Узбекистан ведут работы по открытию исламских окон, средства международных исламских финансовых организаций целенаправленно финансируются методом мурабах.

Кроме того, частные финансовые организации (включая финтех-компании, такие как IMAN, UZARO) предлагают лизинговые контракты, основанные на принципах исламского финансирования, через исламские продажи с рассрочкой и лизинговые организации (включая лизинг TAIBA).

Литературный обзор: "Landscaping analysis of Islamic Finance instruments in Uzbekistan" (https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/uz/UZB_Landscaping-IF-in-Uzbekistan_final.pdf), Основы этических (исламских) финансов: учебное пособие / под редакцией Е.А. Байдаулет.

Виды банковских услуг на принципах исламского финансирования для населения и представителей бизнеса, которые опираются на исламские правила и не желают пользоваться процентами, кредитами и подобными банковскими услугами. По данным опросов, 38 процентов хозяйствующих субъектов и 56 процентов физических лиц не обращаются в традиционные банки. Небанковскими организациями предлагаются услуги по финансированию, это станет большим толчком для дальнейшего роста экономики Узбекистана и полного использования внутренних инвестиционных возможностей которые еще не используются полностью.

Как мы знаем, привлечение дополнительных иностранных инвесторов в Узбекистан имеет большое значение. Одним из важных аспектов для привлечения иностранных инвесторов (особенно из стран, где исламское финансирование имеет большое значение), создание правовой базы для исламского финансирования и наличие банков (филиалов) и финансовых учреждений, работающих на принципах исламского финансирования в Узбекистане. Банки и организации, работающие на основе механизмов исламского финансирования, должны действовать на основе стандартов бухгалтерского учета и аудита международных исламских финансовых организаций.

Одним из основных критериев широкого внедрения услуг исламских финансов в Узбекистане является внесение изменений и дополнений в Закон "О Центральном банке Республики Узбекистан", Закон "О банках и банковской деятельности", налоговый и гражданский Кодексы, а также бухгалтерский и аудиторский учет.

В сотрудничестве с международными исламскими финансовыми организациями и ведущими банками, предоставляющими услуги исламского финансирования в зарубежных странах, проводится большая работа по широкому внедрению услуг исламских финансов в коммерческих банках и других частных финансовых организациях Узбекистана в соответствии с ее основными стандартами бухгалтерского учета и аудита.

В последние 20-25 лет исламские финансы быстро развивались, и в ходе этого развития было создано множество стандартов, в том числе в области бухгалтерского учета и аудита.

Самой авторитетной организацией в мире по стандартам бухгалтерского учета и аудита исламских финансов, несомненно, является AAOIFI.

AAOIFI (Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions) — независимая международная организация, находится в Манаме, столице Королевства Бахрейн, и других участников сферы, продвигает их, готовит специалистов в данной

сфере, которая разрабатывает специальные стандарты для исламских финансовых институтов рассматривает их и их квалификацию.

Основными функциями этой организации являются:

(1) обеспечение соответствия операций и финансовых отчетностей исламских финансовых учреждений принципам шариата;

(2) обеспечение соответствия финансовых рынков правилам и принципам исламского финансирования и тем самым обеспечение развития отрасли.

Задачи организации:

разработка, обнародование и интерпретация правил, касающихся бухгалтерского учета и аудита исламских финансовых учреждений;

проведение/организация тренингов, семинаров, публикация периодических информационных справок (бюллетеней), проведение научных исследований и их реализация, широкое продвижение идей/мнений, связанных с бухгалтерским учетом и аудитом исламских финансовых институтов, посредством этих и других подобных средств;

пересмотр при необходимости, изменение стандартов бухгалтерского учета и аудита для исламских финансовых учреждений.

Как упоминалось выше, деятельность ААОИФИ направлена на повышение доверия пользователей финансовой отчетности исламских финансовых учреждений (включая потенциальных инвесторов) к информации, предоставляемой этими учреждениями, и поощрение этих инвесторов к вложению своих средств в исламские финансовые учреждения, депозитам и пользоваться их услугами.

ААОИФИ была создана в 1990 году и официально зарегистрирована в Бахрейне 27 марта 1991 года, а ее учредителями являются:

Исламский банк развития;

Dallah Al-Baraka;

Faisal Group (Dar Al Maal Al Islamic);

Al Rajhi Banking & Investment Corporation;

Кувейтский финансовый дом;

Фонд Аль-Бухари.

Сегодня членами ААОИФИ являются центральные банки, исламские финансовые институты, бухгалтерские, аудиторские и другие юридические и банковско-финансовые организации из более чем 45 стран.

Около 100 стандартов шариата, бухгалтерского учета, аудита, этики и менеджмента, выпущенных ААОИФИ, активно используются организациями-членами в своей деятельности. Организационная структура ААОИФИ состоит из Генеральной ассамблеи (Верховного совета), Совета попечителей, Исполнительного комитета и Генерального секретариата.

Существуют также технические советы, а именно:

(1) Совет по стандартам бухгалтерского учета и аудита,

(2) Шариатский совет,

(3) Совет по управлению и этике.

Шариат и стандарты управления ААОИФИ Саф, Кафалат, Хавала, Мурабаха, Иджара,

Саям, Истисна, Мушарака, Музараба; Кредит, Джуала, Сукук, Кредит, Викала, Такафул, Таварук, Вақф, Зақят, наем сотрудников; охватывает более 60 тем, таких как преобразование обычного банка в исламский банк, управление ликвидностью, шариатские советы. Кроме того, принято более 40 стандартов финансового учета и отчетности.

В ходе 20-летней конференции ААОИФИ, бухгалтерской и аудиторской организации для исламских финансовых институтов, состоявшейся 15-16 мая 2022 года в Манаме, столице Бахрейна, было подписано соглашение о сотрудничестве с компанией «Islamic Business and Finance» из Узбекистана. Теперь в рамках этого соглашения можно будет обучать, тестировать и сертифицировать специалистов в Узбекистане на основе международных стандартов (норм) ААОИФИ. Согласно договору, создаваемый в Узбекистане Центр будет заниматься подготовкой специалистов и организацией испытаний по следующим направлениям ААОИФИ:

- Сертифицированный профессиональный бухгалтер по исламским финансам (CIPA);
- Сертифицированный шариатский советник и аудитор (CSAA);
- Сертификат о знании стандартов финансового учета (CPFAS).

Основное различие между исламскими финансами и традиционными финансами заключается в том, что исламские финансы включают в себя разделение прибыли и убытков и финансирование на основе реальных активов. Другими словами, исламское финансирование основано на партнерстве и сотрудничестве. Следовательно, исламские банки могут построить объект, закупить оборудование, товары, сырье или арендовать их по желанию клиента. Финансирование основано на практике продаж. Деньги рассматриваются как средство обмена, а это означает, что запрещено давать деньги в займы под проценты или для какой-либо выгоды/выгоды.

Сегодня предпринимателям предоставляются услуги исламского финансирования несколькими местными банками по краткосрочным (погашаемым в течение 1 года) линиям торгового финансирования. При этом метод финансирования «Муробаха» используется в основном для закупки сырья и оборудования. Кроме того, некоторые частные и акционерных компании предлагают услуги, основанные на продаже в рассрочку или лизинге в соответствии с принципами исламского финансирования.

Некоторые лизинговые компании предлагают клиентам услуги лизинга (исламского лизинга), где у клиентов есть возможность оплаты на основе договора лизинга, то есть покупка оборудования в рассрочку с премией лизинговой компании, заложенной в цену покупки. На аналогичных условиях лизинговые компании «Узбеклизинг», «ТАИВА» и ряд частных финансовых организаций запустили услуги по продаже автомобилей, недвижимости и бытовой техники на условиях срочной оплаты (IMAN, UZARO).

Отсутствие законодательства, необходимого для исламского финансирования в Узбекистане, и наличие несоответствий в действующем законодательстве по функционированию этой системы являются препятствием для широкого внедрения исламского финансирования в нашей стране. В широком внедрении исламских финансов в Узбекистане большую пользу может принести использование опыта

Малайзии по согласованию и разработке новых нормативных документов, ведь на сегодняшний день Малайзия является одной из самых передовых стран в этой сфере.

Кратко об истории становления отрасли в Малайзии:

- 1963 - Хадж фонд паломников
- 1983 - 1-й Исламский банк, Закон об Исламском банкинге
- 1984 - 1-й такафул оператор, Закон такафуле
- 1993 - Беспроцентная банковская схема, Исламский денежный рынок
- 1994 - Исламский рынок капитала
- 1995 - Институт исследований и обучения, Ассоциация исламских банковских институтов Малайзии (AIBIM)
- 1997 - Национальный консультативный шариатский совет
- 1999 - 2-ой Исламский банк
- 2001 - Мастер план для финансового сектора (FSMP), Институт Исламского банкинга и финансов Малайзии (IBFIM)
- 2004 - НБМ наградил местных и иностранных учреждений новыми лицензиями Исламских банков
- 2013 - Закон исламских финансовых услуг (IFSA).

Ряд учреждений высшего образования исламского финансирования в Малайзии проводят углубленные исследования в области исламского банкинга и исламских финансов с практикой, а также предоставляют необходимые консультации на национальном уровне.

Наряду с AAOIFI другой крупной организацией является IFSB (The Islamic Financial Services Board - Совет по исламским финансовым услугам), международная организация по установлению стандартов, которая продвигает исламские финансы, выпуская глобальные пруденциальные стандарты и рекомендации для отрасли, которая в целом включает банковское дело, рынок капитала и сферы страхования, международная организация, которая продвигает и укрепляет силу и стабильность индустрии услуг. IFSB был основан в 2002 году и расположен в Куала-Лумпуре, столице Малайзии. IFSB также проводит исследования и координирует инициативы по отраслевым вопросам, а также организует круглые столы, семинары и конференции для регулирующих органов и заинтересованных сторон в отрасли.

Работа исламских филиалов обычного банка должна быть приведена в соответствие со стандартами, установленными AAOIFI и IFSB.

AAOIFI имеет следующие нормативные документы по стандартам бухгалтерского учета:

- Концептуальные основы финансовой отчетности исламских финансовых учреждений;
- Концептуальные основы финансовой отчетности AAOIFI ;
- Стандарт финансовой отчетности (СФО) № 1: Общее представление и раскрытие информации в финансовой отчетности исламских банков и финансовых учреждений;
- СФО №1 - Общее представление и раскрытие информации в финансовой отчетности;
- СФО №3 - финансирование Мудараба;

- СФО №4 - финансирование Мушарака;
- СФО №7 - Салам и параллельный салам;
- СФО №8 - Ижара и Ижара Мунакиа Биттамлик;
- СФО №9 – Закят;
- СФО №10 - Истисна и параллельная Истисна;
- СФО №12 – Общее представление и раскрытие информации в финансовой отчетности исламских страховых компаний;
- СФО №13 - Раскрытие основ определения и распределения профицита или дефицита в исламских страховых компаниях;
- СФО №14 - Инвестиционные фонды;
- СФО №15 – Условия и резервы в исламских страховых компаниях;
- СФО №16 - Валютные операции и внешнеэкономические операции;
- СФО №18 - Исламские финансовые услуги, предлагаемые традиционными финансовыми учреждениями;
- СФО №19 - Взносы в исламские страховые компании;
- СФО №20 - Продажа отсрочки платежа;
- СФО №21 - Информация о передаче активов;
- СФО №22 - Сегментная отчетность;
- СФО №23 – Консолидация;
- СФО №24 – Инвестиции в ассоциированные компании;
- СФО №26 - Инвестиции в недвижимость;
- СФО №27 - Инвестиционные счета;
- СФО №28 - Продажа Муробахи и других отсроченных платежей;
- СФО №30 - Обесценение, кредитные убытки и обременительные обязательства;
- СФО №31 - Инвестиционное агентство (Al-Wakala Bi Al-Istithmar);
- СФО №32 - Ижара;
- СФО №33 - Инвестиции в сукук, акции и в аналогичные инструменты;
- СФО №34 - Финансовая отчетность для держателей сукук;
- СФО №35 - Резервы под риски;
- СФО №36 - начальное принятие (установление) стандартов финансового учета ААОIFI;
- СФО №37 - Финансовая отчетность VAQF учреждений;
- СФО №38 - Ваад, Хияр и Таавут;
- СФО №39 - Финансовая отчетность по закяту;
- СФО №40 - Финансовая отчетность для исламских финансовых учреждений (филиалов).

1. Ранее существовавший СФО №5: «Раскрытие баз для распределения прибыли между собственниками капитала и владельцами инвестиционных счетов» и СФО № 6: «Капитал владельцев инвестиционных счетов и их эквиваленты» были заменены на СФО №27: «Инвестиционные счета».

2. Ранее существовавший СФО №17: «Инвестиции» был заменен стандартом СФО №25: «Инвестиции в сукук, акции и аналогичные инструменты» и СФО №26: «Инвестиции в недвижимость», а затем и предыдущий СФО №25: «Инвестиции в сукук,

акции и аналогичные инструменты» заменен новым СФО №33 «Инвестиции в сукук, акции и аналогичные инструменты».

3. СФО №2: «Мурабаха и мурабаха заказчику покупки» и СФО №20: «Продажа с отсрочкой платежа были заменены новым СФО №28: «Мурабаха и другие отсроченные продажи».

4. СФО №11: «Накопления и Резервы» был заменен новыми СФО №30: «Обесценение, кредитные убытки и обременительные обязательства» и СФО №35: «Резервы риска».

5. Предыдущее Руководство по бухгалтерскому учету №1 «Руководство по первому применению стандартов бухгалтерского учета ААОIFI исламским финансовым учреждением» было заменен новым СФО №36 «Первое применение стандартов финансового учета ААОIFI».

Если смотреть исламские финансы как отдельную науку, в современный период, исламские финансы – важный раздел финансовой науки, которая изучает особые специфические отношения, связанные с функционированием кредита, страхования, лизинга, ценных бумаг и фондовых бирж и др. [2, с. 5] Основы исламских финансов необходимо изучать как специалистам финансово-кредитной системы, так и финансовым менеджерам, руководителям предприятий, юристам и просто физическим лицам. Знание основ исламских финансов позволяет более качественно строить взаимоотношения банков с клиентами, улучшает партнерство и способствует использованию альтернативных финансовых инструментов.

Материалы и методы: В процессе научного изучения, анализа и исследования темы использовались такие методы, как систематический анализ и статистический анализ. В статье проведена работа по исламским финансам, на основе зарубежного опыта в этой связи рассмотрены необходимые аспекты соблюдения стандартов бухгалтерского учета и аудита при широком внедрении услуг исламских финансов в Узбекистане. Использовались изучение существующих научных исследований по внедрению исламских финансов, сравнение разного опыта, изучение статистических данных и экономическое сравнение и анализ, логическое мышление, научная абстракция, методы группировки информации.

Результаты: Работа исламских филиалов обычного банка, а также всех финансовых организаций, которые осуществляют или будут осуществлять услуги по исламскому финансированию в Узбекистане, должна быть приведена в соответствие со стандартами, установленными ААОIFI и IFSB.

Также были представлены научные выводы и предложения по широкому внедрению исламских финансовых услуг в Узбекистане.

Обсуждение: Шейх Мухаммед Таки Усмани, участник ААОIFI, базирующегося в Бахрейне регулирующего института, который разрабатывает стандарты глобального исламского банкинга, заявил, что 85 % сукук были «неисламскими». «Отрасль науки, которая помогает достичь благосостояния для людей посредством распределения ограниченных ресурсов в соответствии с учением ислама без ограничения личной свободы или создания постоянных экономических и экологических дисбалансов» (Мухаммад Умер Чапра)

Заключение: В статье осуществление бухгалтерского учета и аудита в сотрудничестве с международными исламскими организациями при внедрении исламских финансов в банках и других финансовых организациях основано на важности привлечения иностранных инвестиций в экономику Узбекистана и необходимости использования стандартов международных исламских организаций в широком применении всех видов услуг исламских финансов.

При осуществлении исламского финансирования в Узбекистане при решении вопроса бухгалтерского учета и аудита необходимо обратить внимание на следующее:

1. Для резкого увеличения доли иностранных инвестиций в Узбекистане и для привлечения крупных инвесторов из зарубежных исламских стран, необходимо основываться на стандарты финансовой отчетности AAOIFI и IFSB.

2. Для составления финансовой отчетности на основе требований международных исламских финансовых организаций AAOIFI и IFSB, необходимо создать обучающие программы, предусматривающие углубленное обучение стандартам финансовой отчетности, а также наладить обмен опытом между крупными исламскими финансовыми организациями за рубежом и банками Узбекистана с исламскими (окнами) филиалами (в т.ч. планируемыми) и финансовых учреждений, предоставляющих услуги по исламскому финансированию.

3. Следует внести соответствующие изменения в нормативные документы Республики Узбекистан касательно исламского финансирования, в том числе касающиеся бухгалтерского учета и аудита, с целью их адаптации к стандартам AAOIFI и IFSB.

Список литературы:

1. "LANDSCAPING ANALYSIS OF ISLAMIC FINANCE INSTRUMENTS IN UZBEKISTAN" (https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/uz/ UZB_Landscaping-IF-in-Uzbekistan_final.pdf),

2. Основы этических (исламских) финансов: учебное пособие / под редакцией Е.А. Байдаулет, – Павлодар, 2014. – 325 с. ISBN 978-601-7205-96-6. В ...323стр.

MULKCHILIK INSTITUTI VA MULKIY MUNOSABATLARNING XO'JALIK YURITISHDAGI O'RNI

Reymbaeva Zuxra Almaz qizi
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada institut va normalar, institutsional o'zgarishlar, institutsional muhit, shartnoma, mulkchilik institutlari mazmun va mohiyati bo'yicha fundamental nazariy va ilmiy asoslari bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Institut, mulkiy huquqlar, mulkiy munosabatlar, shirkat xo'jaligi, fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi.

Barqaror bozor iqtisodiyotiga ega huquqiy-demokratik jamiyat qurishning asosiy yo'nalishlaridan biri chuqur institutsional o'zgarishlarni amalga oshirishdir. Bunda nafaqat eski markazlashgan iqtisodiyot institutlarini isloh qilish, balki iqtisodiy munosabatlarning o'zagini tashkil etuvchi mulkchilik va shartnomaviy munosabatlarni ham bozor iqtisodiyotiga mos ravishda takomillashtirish talab etiladi.

Mulkchilik huquqi – iqtisodiy nuqtai nazardan u yoki bu mulk ob'ekti uchun undan foydalanishning taqiqlanmagan turlaridan birini tanlash huquqidir. Ya'ni mulkchilik ob'ektining tabiiy xususiyatlari emas, balki uning qanday ishlatilishi muhimdir. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 164-moddasiga binoan mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir. Demak, qonunchilikda mulk huquqi mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish funksiyalarining majmui sifatida qaraladi. Lekin amaliyotda ushbu huquqlarni har doim ham bir shaxsda to'la mujassam bo'lavermaydi. SHu bois mulkning haqiqiy egasi – mulk ob'ektidan foydalanish bo'yicha shartnomadagi shartlar bajarilganidan so'ng iqtisodiy faoliyatning qolgan qismiga egalik qiladigan shaxsdir. Boshqacha aytganda mulkiy huquqning mutlaq egasi, ushbu mulkni taqdirini belgilab beradi.

Mulkiy huquqlar nafaqat bo'linish, balki ma'lum uyg'unlikda birlashish xususiyatiga ham ega. Ushbu huquqlar xo'jalik jarayoni ishtirokchilarida ularning ma'lum faoliyat yo'nalishidagi ustunliklariga qarab to'planadi. Shu bois xo'jalik jarayoni ishtirokchilari ma'lum huquqlardan foydalanish bo'yicha ixtisoslashadilar. Misol tariqasida dehqon xo'jaligining er uchastkasi va agrofirma traktorini olaylik. Ushbu aktivlarga nisbatan ma'lum mulkiy huquqlar mavjud. Lekin ushbu aktivlarga egalik qilish, tasarruf qilish va foydalanish huquqi dehqon va agrofirma o'rtasida taqsimlangan. Dehqon xo'jaligi traktorga egalik qilish huquqini agrofirmedan sotib olishi mumkin. Lekin u bunday qilmaydi. Chunki bu unga iqtisodiy jihatdan samarali emas.

Mulkiy munosabatlar mol-mulk bilan bevosita bog'liq. Mulkiy huquqlar esa ijtimoiy munosabatlar bo'lib, ushbu mol-mulkka bo'lgan har qanday tajovuz holatlarini himoyalovchi me'yorlardan iborat bo'ladi. Bu o'z navbatida resurslarning cheklanganligi bilan bog'liq hodisadir. Resurslar cheklanmagan holatda institutsional me'yorlar ham zarur bo'lmagan bo'lar edi.

Xulosa qilib aytganda, mulkiy huquqlarning bo'linish va ma'lum bir uyg'unlikda birlashish xususiyatlari bois ular tarkibidagi har qanday o'zgarish iqtisodiy rag'batlar tizimida ham shunga mutanosib siljishlarga olib keladi. Bu esa xo'jalik jarayoni ishtirokchilarining xatti-harakatlarida ham ma'lum o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Demak, mulkiy munosabatlar xo'jalik yuritishning harakatlantiruvchi omili bo'lib, turli xo'jalik yuritish tizimlari uchun o'ziga xos mulkiy munosabatlar shakllanadi. Shu boisdan ham, institutsional o'zgarishlarni amalga oshirishning zaruriy shartlaridan biri bu mulkning ob'ekt va sub'ektlarini hamda undan foydalanish usullarini aniq belgilash – mulkiy huquqlarni spetsifikatsiyalashdir. Demak, mulkiy huquqlarni spetsifikatsiyalanishi natijasida mulk shakllari hamda mulkiy munosabatlarda tarkibiy o'zgartirishlarga erishish mumkin va bu funksiyaning davlat tomonidan bajarilishi samarali hisoblanadi. Tabiatiga ko'ra mulk shakllari ichida xususiy mulkning iqtisodiy rag'batlantiruvchi xususiyati kuchliroq bo'lib, uning ustuvorligini ta'minlash agrar soha uchun ham muhim. Aytish mumkinki, qanday xo'jalik yuritish shaklida mulkiy huquqlar spetsifikatsiyasi bozor munosabatlariga mos kelsa uning istiqboli ham shunga yarasha bo'ladi.

Umuman, shirkat xo'jaligi uchun xususiy va umumiy mulk shakllari elementlari xos bo'lgan. Bu shirkat xo'jaligi foydasini o'zlashtirishda ham o'z aksini topgan. Ya'ni o'zlashtirish individual va umumiy (umumiy majlis orqali) amalga oshirilgan. Buni shirkat xo'jaligida mulkiy huquqlar spetsifikatsiyasi tasvirlangan 1-jadvaldan ham ko'rishimiz mumkin. Shirkat xo'jaligida mulkiy huquqlar to'rtta sub'ekt o'rtasida taqsimlangan. Asosiy mulkiy huquqlar egalik qilish va foydalanish huquqlari a'zolar va ularning umumiy yig'ilishiga tegishli.

1-jadval.

Sobiq shirkat xo'jaliklarida mulkiy huquqlar spetsifikatsiyasi tahlili

Mulkiy huquqlar turlari	Shirkat a'zosi	A'zolarning umumiy yig'ilishi	Shirkat boshqaruvi	Davlat
Egalik qilish huquqi	19-m. SHxq	11-m. SHxq	-	16-m. EK
Foydalanish huquqi	19, 14-mm. SHxq	219, 225- mm. Fk, 14-m. SHxq	-	-
Tasarruf qilish huquqi	19-m. SHxq	-	12-m. SHxq, 51-EK	16-m. EK
O'zlashtirish huquqi	8-m. SHxq	11-m. SHxq	-	-
Qoldiq qiymatga egalik huquqi	-	30-m. SHxq	-	30-m. SHxq, 16-m. EK
Xavfsizlik huquqi	166-m. FK, 3, 19-mm. SHxq	-	-	-
Mulkni meros bo'yicha o'tishi	1114-m. FK, 19, 14-mm. SHxq	-	-	-
Muddatsizlik huquqi	-	10-11-mm. SHxq	-	16-m. EK
Zararli foydalanishni taqiqlash huquqi	-	-	-	172-m. FK, 36-m. EK
Undirish tarzida javobgarlik	227-m. FK	227-m. FK	-	22-m. EK
Qoldiq xususiyati	19-m. SHxq, 30-m. EK	-	-	-

Izoh: FK - Fuqarolik kodeksi, EK – Er kodeksi, SHxq – Shirkat xo'jaligi to'g'risida qonun, m.-modda

Yer davlat mulki hisoblangani bois egalik qilish, tasarruf qilish va qoldiq qiymatga egalik qilish huquqlari, shuningdek mulkka egalik qilishning tashqi samarasi bilan bog'liq huquqlar hisoblangan muddatsizlik, zararli foydalanishni taqiqlash va undirish tarzidagi javobgarlik huquqlari davlatga ham tegishlidir. Jadvaldagi tasarruf qilish huquqi mohiyatiga ko'ra ko'proq boshqaruv huquqiga yaqin. Chunki shirkat xo'jaligining erlari davlat tomonidan tasarruf qilingan. Biroq shirkat boshqaruvi er uchastkalarini yaqin istiqboldagi taqdirini belgilashning qisman amalga oshirgan. Xususan, takroriy ekinga er ajratish to'la boshqaruv ixtiyorida bo'lgan. Amaliyotda shirkat boshqaruvi va uning raisi yanada ko'proq tasarruf qilish huquqidan foydalangan. Buning asosiy sabablaridan biri shirkat xo'jaligi a'zolari ko'pligidir. Shirkat a'zolarining barchasi xo'jalikning samarali faoliyatidan manfaatdor bo'lishiga qaramay, ular nazorat bilan bog'liq xarajatlarni boshqa a'zolarining zimmasiga yuklashga harakat qilgan. Buning oqibatida umumiy nazorat susaygan.

Fermer xo'jaliklarida mulkiy huquqlar spetsifikatsiyasini tahlil qiladigan bo'lsak, bu erda mulkiy huquqlar uch sub'ekt o'rtasida, ya'ni fermer xo'jaligi a'zolari, boshlig'i va davlat o'rtasida taqsimlanadi (2-jadval).

Fermer xo'jaliklarining er uchastkalari ijara asosida olinganligi bois erga bo'lgan asosiy mulkiy huquqlar davlat bilan xo'jalik o'rtasida taqsimlangan. Bu erda o'zlashtirish huquqini xo'jalik er uchastkasida etishtirilgan hosilni sotishdan olingan foyda tarzida, davlat esa mazkur er uchastkasi uchun to'lanadigan ijara haqi tarzida amalga oshiradi. Fermer xo'jaligining boshqa mol-mulkidan keladigan foyda to'laligicha xo'jalik a'zolariga tegishli bo'ladi. Dehqon xo'jaliklarida ham xuddi fermer xo'jaliklaridagi singari mulkiy huquqlar uch sub'ekt o'rtasida taqsimlangan.

Ya'ni shirkat xo'jaligidan farqli ravishda umumiy majlis instituti mavjud emas. Fermer va dehqon xo'jaliklarida a'zolar soni kam bo'lganligi sababli nazorat organlarini tashkil etishga ehtiyoj yo'q. Ushbu xo'jaliklarda ham shirkat xo'jaliklari kabi o'zlashtirish yakka va umumiy tarzda amalga oshiriladi.

2-jadval.

Fermer xo'jaliklarida mulkiy huquqlar spetsifikatsiyasi

Mulkiy huquqlar turlari	Fermer xo'jaligi a'zolari	Fermer xo'jaligi boshlig'i	Davlat
Egalik qilish huquqi	19-m. Fxq	19 -m. Fxq	16 -m. EK
Foydalanish huquqi	20 -m. Fxq, 53-m. EK	20 -m. Fxq, 53 -m. EK	-
Tasarruf qilish huquqi	20 -m. Fxq	12, 20 -mm. Fxq	16 -m. EK
O'zlashtirish huquqi	15, 18 -mm. Fxq	15, 18 -mm. Fxq	16 -m. EK
Qoldiq qiymatga egalik huquqi	20,33 -m. Fxq	20,33 -m. Fxq	16 -m. EK
Xavfsizlik huquqi	166-m. FK, 23 -m. Fxq	23 -m. Fxq,	-
Mulkni meros bo'yicha o'tishi	12, 22 -mm. Fxq	12 , 22 -mm. Fxq	-
Muddatsizlik huquqi	32, 33 -m. Fxq	-	10,16 -m. EK
Zararli foydalanishni taqiqlash huquqi	-	-	36 -m. EK, 172 -m. FK
Undirish tarzida javobgarlik	227 -m. FK	227 -m. FK	16 -m. EK
Qoldiq xususiyati	20 -m. Fxq	-	36 -m. EK

Izoh: FK – Fuqarolik kodeksi, EK – Er kodeksi, Fxq – Fermer xo'jaligi to'g'risida qonun, m. – modda.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Er kodeksining 36-moddasi.
2. R.X.Tashmatov. O'zbekiston hududlari agrar sektorini rivojlantirishning institutsional mexanizmlari: nazariya, tahlil va prognoz.: Monografiya.-T.: 2020 y. - 226 b.
3. Berkinov B.B. Mulkchilik munosabatlari rolining o'zgarishi. / «Iqtisodiy islohotlar amalda: muammolar va iqtiso-diyotning rivojlanish istiqbollari» O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 18 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-ommabop maqolalar to'plami. – T.:TDIU, 2009. – B.13-17.
4. Berkinov B.B., Tashmatov R.X. Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va yuritishning o'ziga xos xususiyatlari. / «Xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni rivojlantirish: erishilgan yutuqlar, muammolar va echimlar» respublika ilmiy- amaliy anjumani ma'ruza tezislari to'plami. – T.: TDIU, 2011. – b.98-100.

QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA SMA YORDAMCHI USLINING QO'LLANILISHI

Murodova Shaxodat Sadridin qizi
O'zMU 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda SMA ishlatilishi haqida tushuncha kiritilgan. Uning avfzalligi va kamchiliklari keltirib o'tilgan. Qo'llanilish usuli real qimmatli qog'ozlar bozori (QQB)da ko'rsatib berilgan.

Oddiy siljuvchi o'rtacha (SMA-inglizcha Simple Moving Average) nima?

Oddiy siljuvchi o'rtacha (SMA) aktsiyalarning belgilangan davrdagi o'rtacha taqribiy narxini anglatadi. O'rtacha "siljuvchi" deb nomlanishining sababi shundaki, aktsiya narxi doimiy ravishda o'zgarib turadi, shuning uchun siljuvchi o'rtacha shunga mos ravishda o'zgaradi.

Oddiy siljuvchi o'rtacha yoki SMA ko'pincha odatiy (ordinary) yoki oddiy siljuvchi o'rtacha deb ataladi, chunki u yordamchilar sinfidagi eng oddiy formula bilan hisoblanadi. Bunday holda, tanlangan davr uchun o'rtacha aktiv narxdan foydalaniladi. SMA o'rtacha narx ma'lumotlarini ko'rsatadi va tendentsiyalarni aniqlashga yordam beradi. Vizual ravishda, bu chiziqdir.

Bu qimmatli qog'ozning taqribiy narxini bir necha vaqt oralig'ida qo'shib, so'ngra ushbu summani vaqt davrlari soniga bo'lish orqali amalga oshiriladi, bu vaqt oralig'idagi o'rtacha narxni beradi.

SMA ni hisoblash formulasi quyidagicha: $SMA = \frac{A_1 + A_2 + \dots + A_n}{n}$

A_n -n davrdagi aktiv narx

n- jami davrlar soni

Aytaylik, P kompaniyasi quyidagi taqribiy narxlarini e'lon qildi(1-jadval):

1- jadval. P kompaniyaning ma'lum davrdagi narxlari

Kun (n)	Narx (A _i)
1	\$10
2	\$12
3	\$9
4	\$10
5	\$15
6	\$13
7	\$18
8	\$18
9	\$20
10	\$24

5 kunlik SMA yordamida biz 10 (N=10) kunida 5 kunlik SMA \$18.60 ekanligini hisoblashimiz mumkin.


$$SMA = (13 + 18 + 18 + 20 + 24) / 5 = 18.60$$

10 kunlik SMA yordamida biz 10 (N=10) kunida 10 kunlik SMA \$14.90 ekanligini hisoblashimiz mumkin.

$$SMA = (10 + 12 + 9 + 10 + 15 + 13 + 18 + 18 + 20 + 24) / 10 = 14.90$$

10-kun \$24 taqribiy narxi bilan taqqoslaganda, 5 kunlik \$18.60 SMA 10 kunlik \$14.90 SMA ga qaraganda ancha yaqin edi. Buning sababi 5 kunlik SMA qisqa muddat bo'lib, narxni yanada yaqinroq kuzatib boradi, 10 kunlik SMA esa ko'proq tarixiy ma'lumotlarni ko'rib chiqadi.

SMA jadvalni ishonchli tarzda kuzatib boradi va narxlarning tasodifiy o'zgarishini osonlashtirib, aktiv qiymat qaysi yo'nalishda harakatlanishini ko'rsatadi.(1-rasm)



1-rasm QQBda narx o'zgarish indeksi va SMA orasidagi bog'liqlik

Maqsadga muvofiq turli davrdagi turli sondagi o'rtachalardan foydalanilishi mumkin. SMA sozlamalarida siz yagona o'zgartirishingiz mumkin bo'lgan parametr bu o'rtacha hisoblash uchun ishlatiladigan narx davrlari soni. Barcha siljuvchi o'rtacha ko'rsatkichlarning maqsadi avvalgi narxlar asosida kelgusida ro'y berishi mumkin narxning harakatlanish yo'nalishini belgilashdir. SMA o'tgan taqribiy narxlar yordamida qurilgan beri, bu kuchsiz ko'rsatkich hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, u avvalgi tendentsiyani namoyish etadi, ammo kelajakdagi narxlarni bashorat qilmaydi.

Oddiy siljuvchi o'rtacha SMA kamchiliklari

Vaqtning eng so'nggi kunlariga yoki uzoqroq ma'lumotlarga ko'proq e'tibor qaratish kerakmi yoki yo'qmi aniq emas. Ko'pgina treyderlar yangi ma'lumotlar xavfsizlikning hozirgi tendentsiyasini yaxshiroq aks ettirishiga ishonishadi. Shu bilan birga, boshqa treyderlar ma'lum sanalarni boshqalarga nisbatan imtiyoz berish tendentsiyani rad etishini his qilishadi. Shuning uchun, sma eskirgan ma'lumotlarga juda katta ishonishi mumkin, chunki u 10 yoki 200 kunlik ta'sirni birinchi yoki ikkinchi kun bilan bir xil ko'rib chiqadi.

Texnik tahlilda oddiy siljuvchi o'rtacha ko'rsatkichlar qanday qo'llaniladi?

Savdogarlar oddiy siljuvchi o'rtachalardan (sma) aktsiyalarning uzoq muddatli trayektoriyasini yoki boshqa xavfsizlikni belgilash uchun foydalanadilar, shu bilan birga kundalik narx harakatlarining shovqiniga e'tibor bermaydilar. Bu treyderlarga o'rta va uzoq muddatli tendentsiyalarni kattaroq vaqt oralig'ida solishtirish imkonini beradi. Misol uchun, agar xavfsizlikning 200 kunlik SMA 50 kunlik SMA ostiga tushsa, bu odatda ayanchli death cross namunasi va keyingi pasayish signali sifatida talqin etiladi. Qarama-qarshi harakat bo'lsa, golden cross, bozor mitingi uchun potentsialni ko'rsatadi.



2-rasm. Amazon aksiyalarining narxi.

2-rasmdagi jadvalda Amazon aksiyalarining narxi (NASDAQ: AMZN) 1 kunlik SMA yordamida 50 yil davomida qanday o'zgartirilgan ko'rsatilgan. 50 kunlik SMA binafsha chiziq yordamida taqdim etiladi, bu narxning qanday harakatlanishining umumiy tendentsiyasini ko'rsatadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, SMA belgilangan vaqt oralig'idagi narxlarning o'rtacha ko'rsatkichi bo'lgani uchun, u haqiqiy narxlar kabi keskin ta'sir ko'rsatmaydi.

Kontseptsiyani 2020 yil fevral oyidagi daromadlar to'g'risidagi e'lonlarda kuzatish mumkin. Amazon o'z aksiyalari narxini 2000 dollar atrofida ochish uchun ajoyib daromad haqida xabar bergan bo'lsa ham, SMA hali ham nisbatan o'xshash bo'lib qoldi va faqat bir oz oshdi.



3-Rasm. Amazon aksiyalarining 2020-yil fevral oyidagi 10 kunlik SMA usulidagi tahlili

3-rasmda 10 kunlik SMA ishlatilgan. SMA liniyasi faqat oldingi 10 kunlik aktsiya narxiga qarab hisoblanganligi sababli, chiziq avvalgi jadvalda ko'rsatilgan 50 kunlik SMA ga qaraganda narx o'zgarishini kuzatib boradi.

Oddiy Siljivchi O'rtacha Yordamida Savdo Strategiyalari

1. SMA chorrahalarida sotib olish va sotish

Texnik treyderlar ko'pincha sma-larni sotib olish va sotish vaqtini belgilash uchun foydalanadilar. Ular o'z tahlillarini aktsiya narxлари chizig'i SMA chizig'ini qachon kesib o'tishiga qarab amalga oshiradilar. Buni yaxshiroq tushunish uchun Amazon misolini yana 10 kunlik SMA liniyasi bilan ko'rib chiqamiz.



4-Rasm. Aktsiyalarining tahlili.

Yuqoridagi grafikka(4-rasm) qarab, narx SMA chizig'idan oshib ketganda, narxlar ko'pincha bir muncha vaqt yuqoriga ko'tarilishini ko'rishimiz mumkin. Ko'pincha texnik treyderlar uchun sotib olish ko'rsatkichi sifatida ishlatiladi. Biroq, narx kesishganda va sma chizig'idan pastga tushganda, biz narxlarning biroz pasayishini ham ko'ramiz. Ba'zan sotish uchun yaxshi ko'rsatkich bo'lishi mumkin.

Biroq, sarmoyadorlar chorrahalarini vaqtini belgilashda ehtiyot bo'lishlari kerak, chunki sma tarixiy ma'lumotlarga asoslangan va real vaqtda ma'lumotlardan orqada qolmoqda.

2. SMA crossover strategiyasi: SMA krossover strategiyasi savdolarini kiritish va yopish uchun ishlatiladigan yana bir texnik strategiya. Strategiya ikki xil vaqt oralig'iga asoslangan ikkita SMA chizig'ini chizish orqali amalga oshiriladi. Chiziqlar qachon kesib o'tganiga qarab, bu ma'lum savdogarlarga o'z savdolarini o'tkazishga yordam beradi. Uzoq muddatli investorlar uchun eng mashhur siljuvchi o'rtacha ko'rsatkichlar 50 kunlik va 200 kunlik sma hisoblanadi. Qisqa muddatli investorlar uchun 10 kunlik va 20 kunlik SMAlar ko'pincha ishlatiladi.



5-Rasm. Tahlil natijalari

5-rasmda Amazonga yana 10 kunlik (binafsha) va 20 kunlik (yashil) sma chiziqlari bilan qaraymiz. 10 kunlik chiziq birinchi marta 20 kunlik chiziqdan o'tib ketganda, aktsiyani sotib olgan investor ikki oylik yuqoriga ko'tarilish tendentsiyasidan ideal tarzda foydalanadi. Agar investor uni 10 kunlik chiziq 20 kunlik chiziq ostida kesib o'tganida to'g'ri sotgan bo'lsa, ular umumiy pasayish tendentsiyasidan bir necha oy oldin o'z pozitsiyalaridan chiqib ketishgan bo'lar edi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, SMA to'liq tarixiy ma'lumotlarga tayanadi. Ko'p odamlar (shu jumladan iqtisodchilar) bozorlar samarali, ya'ni joriy bozor narxlari allaqachon mavjud bo'lgan barcha ma'lumotlarni aks ettiradi, deb hisoblashadi. Bu bizga keying qadamni ko'rishga yordam beradi, ammo kamchiligi aynan qancha muddat davomida keyingi qadam konkret aniq bo'lishi noma'lum.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Olymptrade.com tutorial platformasi
- 2.<https://corporatefinanceinstitute.com/resources/capital-markets/simple-moving-average-sma>
- 3.<https://www.investopedia.com/terms/s/sma.asp#:~:text=To%20calculate%20a%20simple%20moving,the%20number%20of%20total%20periods>

O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIIYASI VA LIZING XIZMATLARI

**Isayev Oybek Baxramovich,
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi**

O'zbekistonda juda katta potensial talabga ega bo'lgan soha – Islom moliyasi xizmat turlarini keng joriy qilishda lizing xizmat turining imkoniyatlari va o'ziga xos jihatlari, shuningdek ushbu xizmat turini islomiy moliyalashtirishga moslashtirish yo'llari va ahamiyati yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida «Mamlakatimizda Islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqt-soati yetib keldi. Bu borada Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi», dedi.

Shu asosda 2022 yil 20 aprelda O'zbekiston Respublikasining “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida” gi Qonuni chiqdi. Ushbu Qonun O'zbekistonda birinchi marta “islomiy moliyalashtirish” tushunchasi qonuniy asosga ega bo'lishiga va davlatimizda islom moliyasining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar ko'rsatishga qonunan ruxsat berildi, bunda jismoniy shaxslarga 50 mln.so'mgacha, yuridik shaxslarga 300 mln.so'mgacha qarz berish ko'zda tutilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, an'anaviy moliyalashtirish turlari ichida islomiy moliyalashtirishga eng yaqin turi bu lizing xizmati hisoblanadi.

Bugungi kunda ingliz tilida “lizing” deb ataluvchi ijara bitimi ham dastlab Murobaha singari moliyalashtirish usuli sifatida ishlatilmagan. Bu shunchaki bir shaxsning mulkini boshqa bir shaxsga kelishilgan muddatga, muayyan to'lov asosida foydalanish huquqini berish bitimi bo'lgan. Biroq keyinchalik ba'zi moliyaviy muassasalar foizga asoslangan uzoq muddatli kredit berish o'rniga lizingdan moliyalashtirish usuli sifatida foydalana boshlashgan. Ijaraning bir turi borki, u “moliyaviy lizing” deb ataladi va bunda amaliy (haqiqiy) ijaraning bir qancha asosiy xususiyatlari yo'q.

Foizsiz ishlaydigan moliya muassasalari faoliyat boshlagan paytga kelib lizing butun dunyoda moliyalashtirish usuli sifatida tanilib bo'lgan edi. Tez orada islom moliya muassasalari ham ijaradan foizsiz moliyalashtirish uchun foydalanish mumkinligini va bu shariatga zid emasligini anglashgan. Shunday qilib, lizing islomiy moliya muassasalari tomonidan qabul qilingan, ammo ularning ko'pchiligi “moliyaviy lizing”ni amaliy (haqiqiy) ijaradan ko'ra ko'proq foizli moliya amaliyotiga o'xshash tomonlari borligiga e'tibor qaratishmagan. Shu sababli ular an'anaviy moliya muassasalari foydalanadigan lizing shartnomalari namunalaridan hech qanday o'zgarishlarsiz foydalana boshlashgan, holbuki ularning bir qator shartlari islom qoidalariga mos emas edi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, dastlab lizing moliyalashtirish usuli / mahsuloti bo'lmagan. Biroq, ijara bitimi ma'lum shartlarga rioya qilingan holda moliyalashtirish uchun ishlatilishi mumkin. Albatta bunda “foiz” so'zini “ijara”ga “ipoteka” (ya'ni ko'chmas mulkni garovga qo'yish evaziga olingan kredit)ni “ijaraga olingan mulk”ga o'zgartirib qo'yish bilan ish bitmaydi. Lizing va foizli kredit o'rtasida jiddiy farqlar borki, islom dini talablariga javob bera

oladigan ijara shartnomasi tuzish uchun ijaraga bag'ishlangan maqolamizning birinchi qismida eslatib o'tilgan lizinga aloqador barcha shart va qoidalarga rioya qilish zarur bo'ladi. Quyida zamonaviy moliyaviy lizing va islomda ruxsat etilgan ijara o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatib o'tamiz.

Lizingning lug'aviy ma'nosi biror bir mulkni shartnoma asosida va muayyan to'lov evaziga vaqtincha foydalanishga berishdir. Bugungi kunda asosan korxonalariga biror-bir uskuna va dastgohlarni keyinchalik sotib olish huquqi bilan ijaraga berishga aytiladi.

Savdo bitimidan farqli o'laroq, ijara shartnomasi kelajakdagi biror muayyan sanadan boshlanish sharti bilan tuzilishi ham mumkin (masalan ijara shartnomasi 2022 yil 1 yanvar kuni tuziladi, lekin 2022 yil 1 martdan boshlab kuchga kiradi va ijara ham 1 martdan boshlanadi).

Demak, shariatda biror nimani oldindan sotish ta'qiqlangan bo'lsada, ijarada bunga ruxsat beriladi, albatta bunda ijara haqi to'lash ham ijaraga berilayotgan mulk ijara oluvchiga yetkazilgandan (taqdim etilgandan) keyin boshlanadi.

"Moliyaviy lizing"ning aksariyat ko'rinishlarida lizing beruvchi moliya muassasasi lizingga berilayotgan mulkni lizing oluvchining o'zi orqali sotib oladi. Bunda lizing oluvchi mulkni lizing beruvchi nomidan sotib oladi, lizing beruvchi esa mulk narxini sotuvchiga (ya'ni mol yetkazib beruvchiga) to'g'ridan-to'g'ri yoki lizing oluvchi orqali o'tkazadi.

Ba'zi lizing shartnomalari, lizing beruvchi to'lovni amalga oshirgan kundan boshlab kuchga kirishini ko'zda tutadi, bunda lizing oluvchi mulkni qabul qilib olgan yoki olmaganligi e'tiborga olinmaydi. Bu esa, lizing oluvchining (lizing bo'yicha) javobgarligi (ma'suliyati) lizingga olinayotgan mulkni qabul qilib olishidan oldin boshlanishini anglatadi. Ammo shari'atda bunga yo'l qo'yilmaydi, chunki bu huddi mijozga berilgan pul uchun ijara haqi olishdek gap, ya'ni bu ayni foiz (ribo)ning o'zi.

Shari'atga ko'ra to'g'ri yo'l quyidagicha: ijara haqi bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish lizing oluvchi mulkni qabul qilib olganidan keyin boshlanadi, lizingga olinayotgan mulk uchun to'lov amalga oshirilgandan kundan emas. Agar mol yetkazib beruvchi to'lovni to'liq ravishda qabul qilib olgandan keyin molni yetkazib berishni kechiktirsa, lizing oluvchi bu davr uchun javobgar bo'lmaydi.

XSRIK homiyligida tashkil etilgan Toiba lizing kompaniyasi mijozlarga ijara (islomiy lizing) xizmatini yo'lga qo'ygan bo'lib, bunda mijozlarga foizsiz lizing shartnomasi, ya'ni asbob-uskunalarini sotib olishda ularning ustiga kompaniyaning ustama haqini qo'ygan holda muddatli bo'lib-bo'lib berish orqali mablag'larni qaytarish imkoniyati mavjud. Shu kabi shartlarda, O'zbeklizing kompaniyasi va bir qancha xususiy kompaniyalar (IMAN, UZARO, ALIF SHOP) avtomobil, ko'chmas mulk va maishiy texnikalarni muddatli to'lov asosida sotish xizmatlarini yo'lga qo'yganlar.

O'zbekiston aholisining 90 foizdan ortig'ini musulmonlar tashkil qiladi va shu faktning o'zi O'zbekistonda islomiy moliyalashtirishga bo'lgan qiziqishning qanchalik katta ekanligidan dalolat beradi. Bilamizki, islomda pulni foizga berish orqali foyda olish taqiqlangan, an'anaviy moliyalashtirish tizimi esa foizlarga tayanadi. Foizli kredit va shu kabi moliyalashtirish xizmatlaridan foydalanishni istamagan aholi qatlami va biznes vakillari uchun islomiy moliyalashtirish xizmat turlari taklif etilsa, biznes vakillarida o'z ishlab chiqarish xajmini oshirishga bo'lgan xohishini orttiradi, ularga yangi uskunalar keltirish imkonini beradi va

natijada bu O'zbekiston iqtisodiyotining yana-da o'sishiga katta turtki bo'ladi. Islom moliyasi xizmat turlarini O'zbekistonda keng joriy qilinishining asosiy mezonlaridan biri bu O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, banklar va banklar faoliyati to'g'risidagi qonunlarga, soliq va fuqarolik kodekslariga va boshqa qonun osti hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki alohida qonun qabul qilish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, O'zbekistonda bu sohada kadrlarni tayyorlash bo'yicha amaliy ishlarni yanada kuchaytirish lozim. Shuningdek, bu borada aholining savodxonligini oshirish ham muhim sanaladi, chunki islomiy moliyalashtirish bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lmagan aholi, uni an'anaviy moliyalashtirishdan farqini tushunib yetmasligi yoki noto'g'ri talqin qilinishiga olib keladi.

Islom moliyasi xizmat turlari ichida "ijara" xizmat turi ana'anaviy lizing xizmatiga juda yaqin, lekin bunda ayrim shartlar asosida ishlash kerak bo'ladi, ya'ni:

1) Lizingga sotib olinayotgan uskuna yoki jihoz ta'qiqlangan yo'nalishlarda bo'lmasligi kerak (spirtli ichimliklar yoki sigaret uskunasi, cho'chqa go'shtidan mahsulotlar ishlab chiqarish va boshqalar).

2) Penya undirilmasligi kerak, undirilgan taqdirda ham faqat mas'uliyatni oshirish uchun bo'lishi kerak, bunda undirilgan penya summasi hayriyaga yo'naltirilishi kerak.

3) Lizing to'lovlari lizing oluvchi tomonidan lizing obyektini qabul qilib olgandan keyin boshlanishi kerak.

4) Agar sotish va keyin qayta ijaraga olish kabi ikki xil operatsiya alohida shartnomalarda aks etishi kerak.

Jarima masalasining juda ko'p bahs-munozaralarga sabab bo'ladigan muhim masalalardan biri ekanligini inobatga olib bugungi kunda islom moliyasi sohasida eng obro'li tashkilotlardan bo'lgan "Kuwait Finance House" Fatvo qo'mitasining islom moliyasiga aloqador shartnomalardan kelib chiquvchi qarz majburiyatlari bilan bog'liq bo'lgan to'lovlarni kechiktirganlik uchun jarima hisoblash bo'yicha fatvolaridan quyidagicha xulosalar qilish mumkin:

Har qanday to'lanmagan qarz sababli jarima hisoblash "ribo" hisoblanadi va islom huquqshunosligi qoidalariga ziddir. Ammo, islom moliyasi muassasalari (IMM) amaliyotlari ko'lamini inobatga olib, o'z vaqtida to'lovlarni amalga oshirmayotgan jismoniy va yuridik shaxslardan jarima undirmaslik katta miqdorda to'lovlar qilinmasligiga yoki hech bo'lmaganda to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilmasligiga sabab bo'lmasligi va ataylab to'lovlarni kechiktirish tufayli paydo bo'ladigan kattaroq zararning oldini olish maqsadida jarima undirishga ruxsat beradi.

Undirilgan jarimalar faqat xayriya maqsadlarida sarf qilinishi kerak va IMM daromadlari tarkibiga kiritilishi, moliyaviy, investitsiyaviy yoki boshqa maqsadlarda ishlatishi mumkin emas.

Jarima hisobidan olingan mablag'larni muddati o'tgan qarzdorlikni undirish uchun qilingan bevosita xarajatlarni (masalan sud, advokat xarajatlari, garovni undirish xarajatlari) qoplash uchun ishlatishga haqli. Ammo, ushbu xarajatlar qo'ldan boy berilgan manfaatni (ya'ni olinmay qolgan foydani) qo'lga kiritishni o'z ichiga olishi qati'yan taqiqlanadi.

Lekin, agar mijoz to'lovni iqtisodiy-moliyaviy holati yomonlashgani uchun, ya'ni obyektiv sabablarga ko'ra o'z vaqtida amalga oshirilmaganligini isbotlab bersa, bunday mijozga

nisbatan jarima qo'llash mumkin emas.

Jarima hisoblashdan ko'ra mijozlarni tartibga soladigan boshqa samarali (masalan, garovni undirish, ataylab to'lamagan qarzdorni sudga berish, "qora ro'yxatga" kiritish kabi) usullar bo'lsa, ana shu usuldan foydalanishlari zarur.

O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, (xususan 1998 yil 29 avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 25-moddasi) "tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, tovar yetkazib beruvchi (pudratchi) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

Lizing beruvchi yuqorida keltirilgandek, penyani shartnomada ko'rsatmasligi mumkin, lekin keyinchalik soliq yoki audit tekshiruvlari davomida savol tug'dirishi mumkin, chunki qonunchilikka ko'ra penya to'g'risida band shartnomada keltirilmasa ham bu yerda Lizing beruvchining ma'lum bir miqdordagi olishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari olinmay qolgani bilan bu summa daromadga olinishi va undan soliq to'lanishi lozimligi kelib chiqishi mumkin.

Islomiy moliyalashtirishning an'anaviy moliyalashtirishdan asosiy farqi shundan iboratki, islomiy moliya foyda va zararni bo'lishish hamda real aktivlarga asoslangan moliyalashtirishni o'zida namoyon qiladi. Boshqacha qilib aytganda, islomiy moliyalashtirish sherikchilikka, hamkorlikka asoslangan.

Ayrim lizing kompaniyalari mijozlarga ijara (islomiy lizing) xizmatini yo'lga qo'ygan bo'lib, bunda mijozlarga foizsiz lizing shartnomasi, ya'ni asbob-uskunalarni sotib olishda ularning ustiga kompaniyaning ustama haqini qo'ygan holda muddatli bo'lib-bo'lib berish orqali mablag'larni qaytarish imkoniyati mavjud. Shu kabi shartlarda, O'zbeklizing, Taiba lizing kompaniyalari va bir qancha xususiy moliyaviy tashkilotlar avtomobil, ko'chmas mulk va maishiy texnikalarni muddatli to'lov asosida sotish xizmatlarini yo'lga qo'yganlar.

Islom moliyaviy xizmatlarini ko'rsatish uchun bir qator qonun hujjatlariga, jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik kodeksi", "Soliq kodeksi", "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoya qilish kafolatlari to'g'risida", "Lizing to'g'risida", "Ipoteka to'g'risida", "Garov to'g'risida"gi Qonunlarga va boshqa zarur normativ hujjatlarga xalqaro tajriba va AAOIFI (Islom moliya institutlari uchun audit va buxgalteriya standartlari tashkiloti) va boshqa xalqaro islom tashkilotlari standartlari asosida tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda yangi normativ hujjatlar ishlab chiqish lozim.

O'zbekistonda islom moliyasini keng joriy qilishda Malayziya davlatining tajribasi samarali bo'lishi mumkin, chunki bugungi kunda dunyo bo'ylab islom moliyasi eng kuchli rivojlangan davlat aynan Malayziya hisoblanadi. Bunda O'zbekiston uchun qulaylik tomoni shundaki, Malayziyada an'anaviy banklarda ham islom moliyasi xizmatlari parallel ravishda va ortiqcha xarajatlarsiz, kerak bo'lsa bitta bankomatda 2 xil xizmat ko'rsatish yo'lga

qo'yilganligi orqali amalga oshirilmoqda. Bu juda qulay va samarali usul hisoblanadi. Bunda pullar bankomatdagi umumiy qutichalarga tushadi va o'sha qutichalardan pullarni chiqarib beradi, biroq "hisobga olish alohida alohida" amalga oshiriladi. Bu esa islom moliyasi talablariga mos keladi, ya'ni shariatda pulning kelib chiqishiga alohida e'tibor qilinadi.

O'zbekistonda bugungi kunda "TAIBA-Leasing" lizing tashkiloti tomonidan islom moliyasiga asoslangan "ijara" xizmati (islomiy lizing) ko'rsatib kelinmoqda. "TAIBA-Leasing" tashkilotining yuridik shaxslarga tadbirkorlik uchun "ijara" asosida xizmat ko'rsatish ma'lumotlari quyidagi ko'rsatilgan:

Moliyalashtiruvchi tashkilot va summasi (pul manbasi)	Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasi 100% shu'ba korxonasi
Xizmat turi	lizing
Moliyalashtirishning muddati	13-36 oy
Sotuv ustamasi miqdori	17%
To'lov	Oldindan 30% to'lov
Kechiktirilgan to'lov uchun to'lanadigan penya (jarima)	Kechiktirilgan har 1 kunga 0,1% (xayriyaga yo'naltiriladi)

Xulosa va takliflar: Bugungi kunda O'zbekistonda ko'plab lizing kompaniyalari mavjud. Shulardan bor-yo'g'i 2-3 ta kompaniya islomiy lizing shartlari asosida ishlamoqda, qolgan barchasi an'anaviy lizing shartlarida ishlaydi.

Lizing kompaniyalar xalqaro islomiy tashkilotlardan moliyalashtirish olishlari uchun yetarli aktivga ega bo'lishlari yoki bank kafolati berishlari lozim bo'ladi. Shuningdek, lizing tashkilotlari o'zlari sherikchilik asosida Ustav jamg'armasiga qo'shimcha mablag'lar jalb qilish orqali ham lizing uchun sarmoyaga ega bo'la oladilar. Bunda asosiy masala shundaki, O'zbekistondagi lizing kompaniyalar "ijara" (islomiy lizing) xizmatini to'g'ri yo'lga qo'ya olsalar, ularning mijozlari soni ortishi mumkin, chunki islom prinsiplariga mos kelmaydigan shartlar asosida ishlashni xohlamaydigan biznes vakillari hozirda yetarli lizing xizmati taklifiga ega emas.

Mavjud barcha lizing kompaniyalar xizmatlari qatoriga islomiy lizing, ya'ni "ijara" xizmatini ham kiritish bo'yicha quyidagi takliflarni berish:

1) Lizingga sotib olinayotgan uskuna yoki jihoz ta'qiqlangan yo'nalishlarda bo'lmasligi kerak (spirtli ichimliklar yoki sigaret uskunasi, cho'chqa go'shtidan mahsulotlar ishlab chiqarish va boshqalar).

2) Lizing to'lovlari Lizing oluvchi tomonidan lizing obyektini (masalan uskunani) qabul qilib olgandan keyin boshlanishi kerak.

3) Agar sotish va keyin qayta ijaraga olish kabi ikki xil jarayonni bo'yicha kelishuv bo'lgan bo'lsa, u holda har bir jarayon alohida shartnomalarda aks etishi kerak.

4) Lizing tashkiloti autsors kelishuv asosida (mahalliy yoki xorijiy islom moliyasi bo'yicha ekspert (yoki ekspertlar Kengashi) bilan ishlashi va yangi xizmat turlarini kelishishi lozim (bunda ekspert yoki Kengash yetarli darajada kompetensiyaga ega va xulosa berishda mustaqil bo'lishi shart);

5) Jarima (penya) undirish masalasida:

- O'zbekiston qonunchiligi asosida jarima (penya) undirilishi kerak;
- undirilgan jarima daromadga olinishi shart (qonun bo'yicha);
- jarima miqdorini belgilash va undirish faqatgina Lizing oluvchining mas'uliyatini oshirish maqsadida va uning joriy moliyaviy ahvolini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak;

- Undirilgan jarima to'liq summasidan qonunchilik bo'yicha belgilangan tartibda soliq hisoblanishi va to'lanishi lozim;

- jarima undirish (muddati kechiktirilgan to'lovlar borligi sababli) sud orqali amalga oshirilgan taqdirda undirilgan jarima summasidan sud va advokatlarga, undiruvni garovga qaratish bo'yicha amalga oshirilgan xarajatlar qoplanishi mumkin;

- yuqoridagi ikkita bandda ko'rsatilgan soliq va xarajatlar to'langanidan qolgan jarimaning barcha miqdori hayriyaga yo'naltirilishi kerak.

Yuqoridagi barcha bandlar lizing shartnomasida aks ettirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Pul manbasi bo'yicha ham imkon qadar lizing tashkilotlari an'anaviy bank kreditlaridan foydalanmasligi, boshqa sarmoya manbalari topishga xarakat qilishi lozim.

Takliflarning ayrimlari oldin O'zbekiston miqyosida umuman biron ilmiy ishlarda yoritilmagan, shu sababdan yangi hisoblanadi va albatta amaliyotda joriy etish ko'pchilikka foyda keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Lizing to'g'risida"gi Qonuni, 14.04.1999y.
<https://lex.uz/ru/docs/85259>
2. O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni, 29.08.1998y.
<https://lex.uz/docs/18942>
3. O'zbekiston Respublikasi "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 20.04.2022y.
<https://lex.uz/en/docs/5972411>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
<https://president.uz/uz/lists/view/4057>
5. Differences and similarities between ijara and conventional operating lease contracts. Mateha Fatima. College of Management Sciences. PAF-Karachi Institute of Economics and Technology.
<https://core.ac.uk/download/pdf/268095035.pdf>
6. islommoliyasi.uz sayti ma'lumotlari.
7. taibaleasing.com sayti ma'lumotlari.

**FORMATION AND DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE INFRASTRUCTURE
OF CLUSTERS IN UZBEKISTAN**

Rajabov Juratbek,
Master student of MEKP-01
Tashkent State University of Economics,
Kholikova Rukhsora Sanzharovna
Associate Professor, PhD., Department of Economics of Branches
Tashkent State University of Economics

Abstract: The article highlights issues on the formation of scientific-innovative infrastructure of clusters of Uzbekistan. At the same time, the author has developed proposals for the formation of a scientific-innovative infrastructure that will promote the development of integration between cluster members, increase production efficiency, commercialization of innovative projects, develop and implement programs for the development of cotton-textile clusters.

Keywords: cluster, cotton-textile cluster, scientific-innovative infrastructure, research centers.

Introduction: Recently, there has been the most frequent use of the word "cluster", "clustering" in our daily lives. Despite the fact that this term is a new definition in the economy of Uzbekistan, foreign developed countries already have rich experience in organizing and developing economic clusters.

In the national economy of Uzbekistan, in several priority sectors, especially in the cotton industry, work is underway to organize production using this method - a group of enterprises united in a single technological chain, where science, education and production are mutually integrated. In this integration, primary raw materials will go through all the stages of processing in stages, added value is added and turned into high quality final products. We know that a cluster is a technological chain that includes the entire process, starting from the primary processing of raw materials and ending with the production of finished products from it. It will help reduce costs in the cost of production for transportation costs, increase the production of finished products, which have a higher cost than raw materials.

"If the whole system is properly organized on the basis of a scientific approach and modern technologies, the number of jobs can be increased to 1 million. In this regard, it is necessary to create opportunities to increase the yield of cotton on the basis of scientifically based seed production and agricultural technologies, to double the industry's exports through deep processing of raw materials. It is necessary to create scientific centers in each cluster, such as seed, soil and biological laboratories, as well as seed preparation workshops [1].

In this regard, an urgent issue of developing intersectoral relations in the enterprises of the cotton industry complex is the creation of scientific and innovative centers as part of clusters. The cluster became economically beneficial for market participants, it directly led to an increase in production capacity. Achieving the above goals is not feasible without the formation of an appropriate scientific and innovative infrastructure.

Research Methodology: The theoretical and methodological basis of the study are the fundamental concepts, scientific works of famous scientists dealing with the problems of industrial clustering, justified and presented in modern and classical literature, using sources of statistical data, including official data from the Ministry of Agriculture of the Republic of Uzbekistan, the Association of Cotton-Textile Clusters of the Republic of Uzbekistan and the State Committee on Statistics of the Republic of Uzbekistan, as well as individual regulatory documents, reports of relevant departments and organizations, the feasibility and scientific justification of the methods used, such as comparative, economic and statistical, grouping methods, expert assessments.

Literature Review: The tasks of formation and functioning, as well as the implementation of the cluster method in their management of the competitiveness of enterprises, are devoted to the works of foreign scientists of economic science such as: A. Marshall [2], M. Porter [3], A. Weber, S. Rosenfeld, P. Krugman, D. Solier, E. Dahmen [4] and others, as well as researchers from the CIS countries: A.N. Oleinik, N.V. Smorodinskaya [5], D.D. Katukov, E.G. Karpova [6], I.N. Kolosovsky, E.V. Ivanova [7], A.A. Nastin, Yu.V. Yaremenko, A. Shastitko and others. The founders of the "cluster" theory and the most popular researchers in this area are A. Marshall and M. Porter. It is necessary to note the significant scientific works of these two scientists and economists in the emergence and development of the world concept of clusters.

Research on the promotion of the cluster approach in the industry of Uzbekistan was carried out by M.A. Rakhmatov [8], N.M. Makhmudov [9], S.M. Kasymov, S.S. Gulyamov, S. Salikhov, A. Sh. Bekmuradov [10], D. K. Akhmedov, Sh. , M. Tillyakhodzhaev, D. Kurbanova [11], D. Mirzaxhalilova [12], G. Zakhidov [13], R.A. Gulyaev [14] and others.

Despite the fact that there is a wide economic literature devoted to the consideration of various aspects of economic clusters and their role in the development of the national economy, a number of problems still need further research. There are different opinions and definitions in the interpretation of its categorical concepts, there is a deviation in the correct organization of quantitative and qualitative constituent elements that prevent the transition of internal enterprises to the global path of development.

Analysis and results: It is known that scientific and production integration is the main factor in the development of economic entities, in particular cotton and textile clusters in a market economy. If in our republic the clustering of industry, including the cotton industry, is a relatively new practice, then in developed countries there is sufficient experience in the evolution of industrial clusters.

The data show that, until today, industrial clusters have been developed in many sectors of the economy in almost all states, regardless of their level of economic development. In developed countries (EU, USA) they have become a natural step in the evolution of industrial production methods and in developing countries (China, India, Argentina) clusters are the main way to achieve world-class in the formation of various sectors of the economy and access to international markets. According to the European Cluster Observatory [15], in 2020 in 28 countries of Western and Eastern Europe there were 2301 clusters in various sectors of the economy, with a total of 42 million employees. At the same time, 11.5% of them work in the agro-industrial complex, employing 4.5 million people.

Currently, intensive work is underway to create scientific centers at the cotton and textile clusters of the republic. With 21 clusters, these centers will be engaged in the introduction of innovations and scientific and technological achievements in cotton growing, which is determined by the Resolution of the Cabinet of Ministers dated June 22, 2020 No. 397 "On measures to further improve cotton and textile production" [16].

According to the Decree, the proposal of the Ministry of Agriculture of the Republic of Uzbekistan, the Uztokimachilik sanoat Association, the Council of Ministers of the Republic of Karakalpakstan and the khokimiyats on the gradual creation of scientific centers for the introduction of innovations, scientific achievements and innovations was approved.

Today, these scientific centers, in cooperation with higher educational and scientific institutions, conduct research and development work aimed at solving urgent problems in the development of cotton growing, the cultivation of world-class raw cotton, the introduction of innovative technologies for the rational use of resources and the increase in production. In addition, the Decree approved a list of clusters under which scientific centers will be organized by 2023 in the context of the regions of the republic.

Conclusions and recommendations. Today, an important issue in developing a strategy for the development of cotton and textile clusters is the creation of a scientific and innovative infrastructure. "Innovation infrastructure - organizations that contribute to the implementation of innovative activities (innovation and technology centers, technology incubators, technology parks, educational and business centers and other specialized organizations" [17]

It is recommended to create such a scientific and innovative infrastructure that will promote the development of integration between cluster members, increase production efficiency, develop and implement programs for the development of cotton and textile clusters; commercialization of scientific developments.

It should be noted that the formation of a class of advanced clusters serves the development of not only one industry or region, but also the economy of our country, increases its competitiveness. Each cluster must be based on innovation. This can be achieved by deepening the integration of production and science, higher education. In this regard, promising cooperation is being established on the development of clusters between the Association of Cotton and Textile Clusters of Uzbekistan and the Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" at the Tashkent State University of Economics.

To date, an agreement has been reached between the Association, the university and the center on the establishment of cooperation relations in five areas with the involvement of foreign specialists. These are academic activities, research activities, international cooperation, innovation activities, digital technologies.

For example, if we consider academic activities, in the near future it is planned to open a joint faculty that will train highly qualified personnel for the industry, develop a special program to develop the integration of production and the education system for bachelors and masters, create a textbook called "Cluster Economics" and implement many tasks, such as the formation of a set of teaching materials. In addition, special training courses will be organized aimed at improving the skills of logistics in the value chain, building national brands,

marketing and advertising, and exports. In general, steps have been set today for another important cooperation towards the prospects of the cluster system, which will soon begin to bring positive results.

References:

1. New opportunities for the development of cotton growing and the textile industry have been identified. June 28, 2022 <https://president.uz/ru/lists/view/5296>
2. A. Marshall. Principles of economic science. In 3 volumes. -M.: Progress Publishing Group, 1993. 594 pages
3. M.E. Porter. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990. 495pp.
4. E. Dahmen, Entrepreneurial activity and the development of the Swedish industry. Stockholm-1950.
5. N.V. Smorodinskaya, V.E. Malygin, D.D. Katukov. How to Strengthen Competitiveness in the Face of Global Challenges: A Cluster Approach Moscow: Institute of Economics, 2015 10 pages
6. E.G. Karpov. The essence and structure of the economic cluster. Nauchno-tekhnicheskie vedomosti SPbGPU2, 2011, Economic sciences. 62 pages
7. E.V. Ivanova. On the efficiency factors of clustering the regional economy//Economic sciences. 2012. No. 9. S. 101-104.
8. M.A. Rakhmatov, B.Z. Zaripov. Cluster - integration, innovation and economic growth. Monograph. "Zomin Nashr", Tashkent - 2018.
9. N.M. Makhmudov., "Modeling of production and economic processes of cotton processing industries." Monograph. Ed. Fan, T 1994, 184 s
10. Bekmuradov A.Sh., Young Son Bae. Strategy for the development of the textile industry of Uzbekistan. cluster approach. - T., 2006. - 247 p.;
11. Kurbanova D.M. Prospects for the formation of innovative clusters in Uzbekistan// Market, money and credit. - 2011 - No. 1. - S. 43 .;
12. Mirzakhililova D.M. Improving the competitiveness of Uzbekistan's industry based on clustering (on the example of the textile industry). Diss. for the competition cand. economy Sciences
13. G.E. Zakhidov. Efficiency of cluster organization and management in the light industry of Uzbekistan. dissertation for the degree of candidate of economic sciences. 2017
14. Gulyaev R.A., Lugachev A.E., Usmanov Kh.S. The current state of production, processing, consumption and quality of cotton products in the leading cotton-growing countries of the world. Tashkent: "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ, 2017, p.171
15. Data from the European Cluster Observatory source: <http://www.clusterobservatory.eu>
16. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 397 "On measures for the further development of cotton and textile production" June 22, 2020, https://www.norma.uz/novoe_v_zakonodatelstve/pri_hlopkovo-tekstilnyh_klasterah_sozdadut_nauchnye_centry
17. Innovation infrastructure in modern Russia. <https://cyberleninka.ru> > article > innovatsionnaya-infrastr...

**МАҲАЛЛИЙ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АСОСИДА
МАКРОИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ
ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ**

**Назаров Дилшод Муминович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети талабаси,
Холбекова Ферузахон Расуловна
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
катта ўқитувчи (PhD)**

Аннотация: Ушбу мақолада мамлакатимизнинг барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашга таъсир этувчи омиллар ўрганиб чиқилган. Минтақа-ларнинг республикамиз ялпи ички маҳсулотигади улуши таҳлил қилиниб, тегишли хулосалар қилинган. Шунингдек, иқтисодчи олимларнинг фикрлари асосида айрим иқтисодий атамаларга муаллифлик таърифи берилган. Мамла-катимиз макроиқтисодий барқарорлигини аниқлашда баъзи бир иқтисодий атамалардан фойдаланиш тавсия этилди.

Калит сўзлар: ялпи ички маҳсулот, иқтисодий ўсиш, макроиқтисодий барқарорлик, ялпи ҳудудий маҳсулот, ялпи миллий маҳсулот.

Кириш: Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасида иқтисодий ислохотларни амалга ошириш ижтимоий- иқтисодий сиёсатнинг устувор вазифаларидан бири – бу ишлаб чиқариш корхоналарининг рақобатбардошлигини ошириш, ташқи ва ички бозорлар учун сифатли, рақобатбардош маҳсулотларни истеъмолчиларга ўз вақтида етказиб бериш ва сотишда замонавий савдо хизматларини ташкил қилиш ҳамда ушбу хизмат имкониятларидан самарали фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади.

Янги Ўзбекистонни ривожлантириш тараққиёт стратегиясининг бешта устувор йўналишларидан бири “миллий иқтисодиётни ривожлантириш, унинг ўсиш суръатларини замон талаблари даражасида таъминлашга йўналтирилган макроиқтисодий барқарорликни мустаҳкамлаш ва юқори иқтисодий ўсиш суръатларини сақлаб қолиш, миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини ошириш, қишлоқ хўжалигини модернизация қилиш ва жадал ривожлантириш, иқтисодиётда давлат иштирокини камайтириш бўйича институционал ва таркибий ислохотларни давом эттириш, хусусий мулк ҳуқуқини ҳимоя қилиш ва унинг устувор мавқеини янада кучайтириш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик ривожини рағбатлантириш, ҳудудлар, туман ва шаҳарларни комплекс ва мутаносиб ҳолда ижтимоий- иқтисодий тараққий эттириш, инвестициявий муҳитни яхшилаш орқали мамлакатимиз иқтисодиёти тармоқлари ва ҳудудларига хорижий сармояларни фаол жалб этиш”

Мамлакатимизда иқтисодиётни тубдан ислоҳ қилиш жараёни минтақалар ижтимоий- иқтисодий тараққиётини таъминлашни талаб қилади. Минтақалар иқтисодиётини кўтармасдан, ислохотларни чуқурлаштирмасдан миллий иқтисодиётни ривожлантириш мумкин эмас. Чунки, айнан минтақалар миллий иқтисодиётнинг ривожланиш суръатларини, унга хос хусусиятларини кўп жиҳатдан белгилаб беради. Бунда минтақаларда мавжуд табиий ресурслар, демографик вазият

ва инсон ресурслари, маъмурий– худудий тузилмалар, ижтимоий– иқтисодий ривожланиш кўрсат– кичлари хал қилувчи аҳамият касб этади.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили: Бу соҳа олимлари, А. Ўлмасов ва А. Вахобовларнинг фикрларича, “Иқтисодий ўсиш – бу иқтисодиётнинг ривожланиши, яъни ҳаётий неъматлар бўлган товарлар ва хизматларни ишлаб чиқарилишининг кўпайиб боришидир. Иқтисодий ўсиш одатда ялпи ички маҳсулотнинг ўсиши ёки аҳоли жон бошига тўғри келадиган ялпи ички маҳсулотнинг ўсиши билан ўлчанади. Иқтисодий ўсишнинг самарадорлиги тушунчаси мавжуд, у иқтисодий ўсишнинг пировард натижаси бўлиб, ялпи ички маҳсулотнинг қай даражада ўсганини ифодалайди. Иқтисодий ўсишнинг самарадорлиги – бу иқтисодий ўсишга қандай харажатлар билан эришилганлиги бўлиб, ялпи ички маҳсулот ўсишининг харажатлар ўсишига нисбати орқали аниқланади” [7].

Макроиқтисодий барқарорликка эришиш кўп жиҳатдан ялпи ички маҳсулот ўсишини таъминловчи омиллардан самарали фойдаланиш, унинг тармоқ тузилишини такомиллаштириш, ялпи ички маҳсулот таркибий компонентларининг оптимал нисбатини таъминлаш, иқтисодий ўсиш моделларидан энг мақбулларини танлаш каби муҳим масалаларни ечиш билан боғлиқ бўлиб, ушбу жараёнларни макроиқтисодий таҳлил қилиш ва методологик жиҳатдан такомиллаштириш, бу бўйича амалий тадбирларнинг амалга оширилиши мамлакат иқтисодиётининг ўсишини тезлаштиради.

Ялпи ички маҳсулот ҳажми ўзгаришини услубий жиҳатдан ўрганишда унга таъсир этувчи асосий омилларнинг боғлиқлигини ўрганиш муҳимдир. Бунда ялпи ички маҳсулотни яратишга иштирок этувчи асосий омиллар сифатида меҳнат ва капитал олинди ва уларнинг таъсири “акселератор таъсири” усули орқали ўрганилди.

Ўзбекистонда ялпи ички маҳсулотнинг барқарор ўсишини янада жадаллаштириш учун қуйидаги тадбирларни амалга ошириш лозим:

- иқтисодиётни таркибий ўзгартириш жараёнларини такомиллаштириш;
- мамлакатда хусусий мулк ва хусусий тадбиркорлик фаолиятини янада ривожлантириш;
- мамлакатда ишчи кучидан янада самаралироқ фойдаланиш;
- юқори технологияларга асосланган янги ишлаб чиқариш корхоналари– ни ривожлантириш ва киритиладиган инвестициялар ҳажминини кўпайтириш;
- фаолият кўрсатаётган қувватларни модернизация қилиш ҳамда ишлаб чиқаришни техник ва технологик жиҳатдан янгилаш;
- барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашга мавжуд барча резерв ва имкониятларни тўлиқ сафарбар этиш ва бошқалар.

Ҳ. Абдулқосимов фикрича, “Иқтисодий ўсиш” – бу мамлакат иқтисодиёти муайян давр мобайнида (одатда бир йил) миллий иқтисодиёт ишлаб чиқариш ҳажмининг аҳоли жон бошига нисбатан ёки умумий иқтисодиётга нисбатан ортишидир.

А. Набихужаев, Ю. Шеров П. Султоновларнинг фикрича “Иқтисодий ўсиш – аҳоли жон бошига мамлакатда яратилган ЯИМ ҳажмининг олдинги йилга нисбатан ўсиши орқали ифодаланади.

Уларнинг фикрича, иқтисодий ўсишнинг шартлари сифатида қуйидагиларни кўрсатиш мумкин:

– жорий йилда ишлаб чиқарилган ялпи ички маҳсулот (ЯИМ) аввалги йилга нисбатан кўпроқ бўлиши;

– ЯИМнинг ўсиш суръати аҳоли ўсиш суръатидан юқори бўлиши, яъни киши бошига ишлаб чиқарилган ЯИМнинг кўпайиши” [6].

Россиялик иқтисодчи олимлар Т.А.Агапова, С.Ф.Серегиналар томонидан ёзилган ўқув адабиётларида “Миллий тегишлилиги ва фуқаролигидан қатъий назар, мазкур мамлакатнинг иқтисодий ҳудудида иқтисодий манфаат марказига эга бўлган (ишлаб чиқариш фаолияти билан шуғулланадиган, ёки мамлакат ҳудудида бир йилдан ортиқ яшаётган) барча иқтисодий бирликлар (корхоналар, уй хўжаликлари) резидент ҳисобланишади” [4].

Республикамиз иқтисодчи олимлари Д.К.Ахмедов, А.Э.Ишмухамедов-лар ўзларининг ўқув адабиётларида ялпи ички маҳсулотга “ишлаб чиқарилишида қўлланилган ресурслар қайси давлатга тегишлилигидан қатъий назар, мамлакатнинг географик ҳудудида яратилган пировард товарлар ва хизматларнинг бозор баҳолари йиғиндиси” деб таъриф берганлар. 1993 йилда қабул қилинган бирлашган миллатлар ташкилоти (БМТ) ва миграция бўйича халқаро ташкилот (МХТ) янги талқинига кўра ялпи ички маҳсулот (ЯИМ) тушунчасига аниқликлар киритилди. Янги талқинига кўра:

ЯИМ – мамлакат резидентлари томонидан маълум муддат давомида ишлаб чиқарилган пировард маҳсулот.

ЯИМ нинг «ички» деб аталишига сабаб унинг мамлакат резидентлари томонидан яратилишидир. Резидент деганда фақатгина мамлакатнинг юридик ва жисмоний шахслари тушунилмайди. Чунки мамлакат юридик шахси бошқа мамлакат ҳудудида бир йилдан ортиқ фаолият юритса ўша мамлакат резиденти деб қаралади.

“Миллий тегишлилиги ва фуқаролигидан қатъий назар, мазкур мамлакатнинг иқтисодий ҳудудида иқтисодий манфаат марказига эга бўлган (ишлаб чиқариш фаолияти билан шуғулланадиган, ёки мамлакат ҳудудида бир йилдан ортиқ яшаётган) барча иқтисодий бирликлар (корхоналар, уй хўжаликлари) резидент ҳисобланишади”.

ЯИМ уч хил усул билан ҳисобланади:

- 1) ишлаб чиқариш усули.
- 2) харажатлар усули.
- 3) даромадлар усули.

Ҳар учала усул билан ҳисобланган ЯИМ кўрсаткичи ҳажми статистик хатолар истисно этилганда ўзаро тенг бўлиши лозим. Шу билан бирга ҳар учала усул билан ЯИМ кўрсаткични ҳисоблашда ўзига хос талабларга амал қилиниши талаб этилади. [5]

Тадқиқот методологияси: Мамлакат иқтисодий ўсишни таъминлашга таъсир этувчи омилларни илмий ва амалий жиҳатдан ўрганишда статистик маълумотлар, танланма усулда белгиланган, назарий фалсафий, объектив ёндашув, иқтисодий таҳлил усуллари билан фойдаланиш асосида илмий хулосалар шакллантирилди. Тўпланган маълумотлар асосида тизимли ҳамда мантиқий ёндашув каби услублардан самарали фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар: Мамлакат макроиқтисодий барқарорликнинг асосий белгилари қуйи-дагилардан иборат:

1. Иқтисодий ўсиш;
2. Тўла иш билан бандлик;
3. Нархлар даражасининг барқарорлиги (инфляция);
4. Тўлов баланси;
5. Хорижий валюта алмашув курсининг барқарорлиги;
6. Давлат бюджети камомадининг ялпи ички маҳсулотга нисбатан уч фоиздан ошиб кетмаслиги;
7. Даромадлар тақсимланиши муаммоси [8].

Ўзбекистонда кейинги йилларда барқарор иқтисодий ўсиш суръатлари таъминланмоқда ва ҳукумат томонидан уни мустақкамлаш борасида янги устувор вазифалар белгиланмоқда. Президентимиз таъкидлаганидек, “Асосий вазифалар – макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш, инфляцияни жиловлаш, тармоқларни монополиядан чиқариш, давлат томонидан нархлар белгиланишини тартибга солишни бекор қилиш ва “яширин иқтисодиёт”га барҳам бериш”.

Иқтисодий ўсиш замиридаги замонавий иқтисодий назарияда, одатда, табиий аҳамиятга эга бўлган ишлаб чиқариш ҳажмининг реал кўпайиб кетиши ва қисқа муддатли равнақи эмас, балки узоқ муддатли вақт оралиғидаги ишлаб чиқарувчи кучлар ривожланишига боғлиқ бўлган ишлаб чиқариш реал ҳажми табиий даражасининг узоқ муддатли ўсиши тушунилади.

Хулоса ва таклифлар: Макроиқтисодий барқарорликка эришиш кўп жиҳатдан ялпи ички маҳсулот ўсишини таъминловчи омиллардан самарали фойдаланиш, унинг тармоқ тузилишини такомиллаштириш, ялпи ички маҳсулот таркибий компонентларининг оптимал нисбатини таъминлаш, иқтисодий ўсиш моделларидан энг мақбулларини танлаш каби муҳим масалаларни ечиш билан боғлиқ бўлиб, ушбу жараёнларни макроиқтисодий таҳлил қилиш ва методологик жиҳатдан такомиллаштириш, бу бўйича амалий тадбирларнинг амалга оширилиши мамлакат иқтисодиётининг ўсишини тезлаштиради.

Миллий ҳисобчилик тизимига кўра миллий иқтисодиёт ривожланишини таҳлил этиш учун ЯИМ кўрсаткичидан бошқа яна бир қатор кўрсаткичлардан фойдаланилади. Бу кўрсаткичлар жумласига ялпи миллий даромад (ЯМД) кўрсаткичи ҳам киради. Бу кўрсаткич миграция бўйича халқаро ташкилот (МХТ) талаби бўйича олдинги кўринишида ҳисобланган ялпи миллий маҳсулот (ЯММ) кўрсаткичи билан моҳиятан бир хил деб кўрсатилади. Шу сабабли кўп ҳолларда миллий иқтисодиёт ривожланишини таҳлил этишда ялпи миллий маҳсулот (ЯММ) кўрсаткич ишлатилмайди. Алоҳида олинган ҳудудларнинг иқтисодий ўсишини таҳлил қилишда ялпи ҳудудий маҳсулот кўрсаткичларидан фойдаланилади, лекин иқтисодий адабиётларда унга аниқ таъриф берилмаган.

Юқорида келтирилган иқтисодчи олимларнинг таърифларидан фойдаланиб, ялпи ҳудудий маҳсулотга қуйидагича таъриф берамиз: “Ялпи ҳудудий маҳсулот (ЯХМ) – алоҳида олинган ҳудудда резидент ва норезидентлар томондан маълум даврда ишлаб чиқарилган маҳсулот (бажарилган ишлар ва кўрсатилган хизматлар) қийматидир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 24 август, ПҚ– 4426– сонли қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ– 60– сон “2022– 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 апрелдаги ПФ_101– сон “Тадбиркорлик муҳитини яхшилаш ва хусусий секторни ривожлантириш орқали барқарор иқтисодий ўсиш учун шарт– шароитлар яратиш борасидаги навбатдаги ислохотлар тўғрисида”ги Фармони
4. Райзберг Б.А. Современный экономический словарь. – М., 2012, с. 264.
5. Холбекова Ф.Р. Маҳаллий ишлаб чиқаришни ривожлантириш асосида макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш. Монография. – Т.: Иқтисодиёт дунёси , 2021. – 149 б.
6. Иқтисодиёт ва ҳисобот” журнали № 6 1997.

INTERNET TEXNOLOGIYALARINING KICHIK BIZNES SUB'YEKTLARIGA TA'SIRI

Axmadjonov Dostonbek Odiljon og'li
Qo'qon universiteti talabasi,
Rustam Tohirov Solijonovich
Qo'qon universiteti doktoranti

Anotatsiya: Internet texnologiyalarining jadal rivojlanishi kichik biznes sub'ektlari uchun landshaftni sezilarli darajada o'zgartirib, o'sish va rivojlanish uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etdi. Ushbu maqola internet texnologiyalari kichik biznesga ta'sir qilishning turli usullarini o'rganadi, jumladan yaxshilangan aloqa, rivojlangan marketing harakatlari, samaradorlik va mahsuldorlikni oshirish va global ta'sir qilish imkoniyatlarini kengaytirish. Raqamli vositalar va platformalardan foydalangan holda, kichik biznes operatsiyalarni soddalashtirishi, xarajatlarni kamaytirishi va tobora globallashtirib borayotgan bozorda samarali raqobatlashishi mumkin. Texnologiya rivojlanishda davom etar ekan, kichik biznes egalari uzoq muddatli muvaffaqiyat va barqarorlikni ta'minlash uchun xabardor bo'lishlari va internet quvvatidan foydalanishlari juda muhimdir.

Kalit so'zlar: internet, texnologiya, samaradorlik, CRM, SaaS, elektron tijorat

Internetning jadal evolyutsiyasi 21-asrda biznesning ishlash uslubini sezilarli darajada o'zgartirib, raqamli transformatsiyaning yangi davrini boshlab berdi. Ayniqsa, kichik korxonalar raqobatbardoshligini saqlab qolish va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash uchun internet texnologiyalaridan tobora ko'proq foydalanmoqda. Ushbu maqola internet texnologiyalari kichik biznes sub'yektlariga ta'sir ko'rsatishining turli usullarini o'rganadi, jumladan yaxshilangan aloqa, rivojlangan marketing sa'y-harakatlari, samaradorlik va mahsuldorlikni oshirish va global ta'sir qilish imkoniyatlarini kengaytirish.

Yaxshilangan aloqa: Internet texnologiyalarining kichik biznesga ta'sir qilishining eng muhim usullaridan biri bu aloqani inqilob qilishdir. Elektron pochta, lahzali xabar almashish, video konferentsiya va ijtimoiy media platformalari korxonalariga butun dunyo bo'ylab xodimlar, mijozlar, yetkazib beruvchilar va hamkorlar bilan samarali muloqot qilish imkonini berdi. Ushbu texnologiyalar aloqa jarayonlarini soddalashtirishga yordam beradi, telefon qo'ng'iroqlari va yuzma-yuz uchrashuvlar kabi an'anaviy usullar bilan bog'liq vaqt va xarajatlarni kamaytiradi. Kichik biznes endilikda real vaqt rejimida hamkorlik qilishi va ma'lumot almashishi mumkin, bu esa tezroq qaror qabul qilish va bozor o'zgarishlariga sezgirlikni oshirishga olib keldi.

Kengaytirilgan marketing harakatlari: Internet kichik biznesga maqsadli auditoriyaga yanada samarali kirish uchun ko'plab marketing vositalari va platformalarini taqdim etdi. Qidiruv tizimini optimallashtirish (SEO), klik uchun to'lovli reklama (PPC), elektron pochta marketingi va ijtimoiy media marketingi kabi raqamli marketing kampaniyalari kichik biznesga yirik korxonalar bilan raqobatlashish imkonini beruvchi o'yin maydonini tenglashtirdi. Ushbu vositalar va usullar an'anaviy marketing usullariga nisbatan tejamkor va korxonalariga real vaqt rejimida o'z kampaniyalarining muvaffaqiyatini kuzatish va tahlil qilish imkoniyatini taklif qiladi. Elektron tijorat platformalarining yuksalishi, shuningdek,

kichik biznesga mahsulot va xizmatlarni onlayn sotish, yangi bozorlarga kirish va mijozlar bazasini kengaytirish imkonini berdi.

Samaradorlik va mahsuldorlikni oshirish: Internet-texnologiyalar turli jarayonlar va vazifalarni avtomatlashtirish orqali kichik biznesning samaradorligi va samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. Masalan, bulutli hisoblash korxonalariga ma'lumotlarni masofadan turib saqlash va ulardan foydalanish imkonini beradi, bu esa qimmat joyidagi serverlar va ma'lumotlarni saqlash yechimlariga bo'lgan ehtiyojni yo'q qiladi. Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish (CRM) tizimlari, loyihalarni boshqarish vositalari va buxgalteriya dasturlari kabi dasturiy ta'minot sifatida xizmat ko'rsatish (SaaS) ilovalari kichik korxonalariga o'z faoliyatini soddalashtirish, xarajatlarni kamaytirish va umumiy ish faoliyatini yaxshilash imkonini beradi. Bundan tashqari, internet-texnologiyalari yordamida masofaviy ish va masofadan ishlashning kuchayishi kichik biznesga kengroq iqtidorlar zaxirasidan foydalanish imkoniyatini va ishchi kuchini boshqarishda ko'proq moslashuvchanlikni berdi.

Global targ'ibot uchun kengaytirilgan imkoniyatlar: Internet kichik biznes uchun mahalliy va global miqyosda yangi bozorlar va mijozlarga erishish uchun imkoniyatlar dunyosini ochib berdi. Internet texnologiyalari yordamida kichik biznes endilikda xalqaro bozorlarga chiqishlari, butun dunyodan mahsulot va xizmatlarni olishlari, turli mamlakatlardagi hamkorlar va yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik qilishlari mumkin. Internet shuningdek, kichik korxonalariga o'z mahsulot va xizmatlarini elektron tijorat veb-saytlari va mobil ilovalar kabi turli xil onlayn platformalar orqali mijozlarga taklif qilish imkonini berdi, ularning ko'rinishi va qamrovini oshirdi.

Xulosa: Internet texnologiyalarining kichik biznes sub'yektlariga ta'siri o'zgaruvchan bo'lib, o'sish va rivojlanish uchun ko'plab imtiyozlar va imkoniyatlarni taqdim etadi. Samaraliroq muloqot qilish va hamkorlik qilish, yangi bozorlarga kirish, operatsiyalarni soddalashtirish va raqamli marketing kuchidan foydalanish qobiliyati kichik biznesga tobora globallashtirib borayotgan va o'zaro bog'langan bozorda raqobatlashish imkoniyatini berdi. Texnologiyaning rivojlanishi davom etar ekan, kichik biznes egalari uchun eng so'nggi tendentsiyalar va vositalar haqida xabardor bo'lish va uzoq muddatli muvaffaqiyat va barqarorlikni ta'minlash uchun internet quvvatidan foydalanish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chaffey, D. (2019). Raqamli marketing: strategiya, amalga oshirish va amaliyot. 7-nashr. Harlow: Pearson Education Limited.
2. Coleman, L. & O'Connor, A. (2008). Dasturiy ta'minot jarayonini takomillashtirishni tushunish uchun asosli nazariyadan foydalanish: Irlandiya dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchi kompaniyalarni o'rganish. Axborot va dasturiy texnologiyalar, 50(4), 292-302.
3. R.Toxirov. Tadbirkorlik subyektlari samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. Ilmiy-elektron jurnali.1/2023. 40-43.
4. Kokand, F. M., Kokand, R. T., & Kokand, D. M. (2020). Trends in solving problems in the development of an innovative economy. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(6), 1205-1209.

5. Toxirov, R. S., & Raxmonov, N. R. O. G. L. (2021). DASTURIY TA'MINOT YORDAMIDA ZAMONAVIY BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 1(1), 181-186.

6. Tokhirov, R., & Rahmonov, N. (2021). Technologies of using local networks efficiently. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 250-254.

7. Tokhirov, R., & Abdurakhimjanov, A. (2021). The Issue Of Modern Strategic Management In Enterprises Or Firms. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(08), 9-14.

8. Li, G. G. va Lin, H. F. (2005). Mijozlarning onlayn xarid qilishda elektron xizmatlar sifati haqidagi tasavvurlari. Chakana savdo va tarqatish boshqaruvi xalqaro jurnali, 33(2), 161-176.

9. Porter, M. E. (2001). Strategiya va Internet. Garvard Business Review, 79(3), 62-78.

10. Soto-Akosta, P. va Merono-Cerdan, A. L. (2008). Elektron biznes qiymatini yaratishni resurslarga asoslangan nuqtai nazardan tahlil qilish. Sanoat boshqaruvi va ma'lumotlar tizimlari, 108(1), 60-78.

11. Turban, E., Outland, J., King, D., Li, J. K., Liang, T. P., & Turban, D. C. (2018). Elektron tijorat 2018: boshqaruv va ijtimoiy tarmoqlar istiqboli. 9-nashr. Cham: Springer xalqaro nashriyoti.

12. Zott, C., Amit, R. va Donlevy, J. (2000). Elektron tijoratda qiymat yaratish strategiyalari: Yevropadagi eng yaxshi amaliyot. Yevropa menejmenti jurnali, 18(5), 463-475.

КИЧИК БИЗНЕС ФАОЛИЯТИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ: ҲОЛАТЛАР, УСЛУБЛАР ВА ТАҲЛИЛЛАР

**Рахмонов Нодиржон Рахмонжон ўғли
Қўқон университети таянч докторанти**

Аннотатсия. Технологик қолоқлик, ресурс ва энергияни тежайдиган технологиялар, ишлаб чиқариш жараёнини рақамлаштириш, муқобил энергия манбаларини татбиқ этишнинг суствлиги иқтисодий тараққиёт йўлида тўсиқ бўлмақда. Мамлакат иқтисодиётида кичик бизнес фаолиятини рақамлаштириш учун аввал саноат тармоғининг бугунги ҳолиги, сўнгра, кичик бизнес фаолиятини рақамлаштириш учун саноат корхоналари таркибида юқори ва қуйи технологияли корхоналар улушини таҳлил қилинган. Таҳлил натижаларига кўра кичик бизнес фаолиятини рақамлаштиришдаги долзарб муаммолар аниқланган ҳамда муаммоларни баратараф этиш учун таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: рақамлаштириш, теҳнология, рақамли теҳнологиялар, Саноат 4.0, кичик бизнес, ишлаб чиқариш.

Бугунги кунда жаҳон ахборот агентликларини хабар беришича, Ўзбекистон Республикаси кейинги йилларда тадбиркорлик фаолияти учун ишбилармонлик муҳитини яхшилаш соҳасида энг яхши натижаларга эришган дунёдаги ўнта давлат қаторидан жой олгани қайд этилмоқда[1]. Ҳозирги пайтда ушбу соҳада жами саноат маҳсулотларининг учдан бир қисми, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг 98 фоизи ишлаб чиқарилмоқда. Иш билан банд жами аҳолимизнинг 77 фоиздан ортиғи мазкур тармоқда меҳнат қилаётгани, балки мамлакатимиз бойлигига бойлик қўшаётгани, аввало, мустақиллик бизга очиб берган имкониятларнинг яққол исботи, десак бўлади.


Бу борада ҳукуватимиз томонидан амалга оширилаётган чора-тадбирлар кичик бизнес ва ишлаб чиқариш фаолиятини янада ривожлантириш ҳамда уларнинг салоҳиятни оширишга хизмат қилмоқда. Натижада кичик бизнес фаолиятининг барқарор иқтисодий ўсиши, ижтимоий-иқтисодий ривожланишини тавсифловчи кўрсаткичларининг юқори суръатдаги ўсиши, инновацион маҳсулот ва хизматларни ишлаб чиқараётган корхона ва ташкилотлар сони, дунё бозорида айирим мааллий товар ва хизматлар рақобатбардошлиги, шунингдек экспорт салоҳияти ошиши таъминланмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 12.11.2021 йилдаги ПҚ-9-сонли «Германия тараққиёт банки иштирокида «Кичик ва ўрта бизнесни молиявий қўллаб-қувватлаш» лойиҳасини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида», Ўзбекистон Республикаси Президентининг 02.12.2022 йилдаги ПҚ-436-сонли «2030-йилгача Ўзбекистон Республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтишига қаратилган ислохотлар самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида», Ўзбекистон Республикаси Президентининг 17.02.2021 йилдаги ПҚ-4996-сонли «Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида» ги қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 26.03.2020 йилдаги ПФ-5975-сонли иқтисодиётни ривожлантириш ва камбағалликни

қисқартиришга оид давлат сиёсатини тубдан янгилаш чора-тадбирлари тўғрисида Қарорлари қабул қилинган.

Бироқ мазкур йўналишда амалга оширилаётган чора-тадбирлар ва уларнинг амалиётга тадбиғини қониқарли даражада дейиш қийин. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев бунга алоҳида эътибор қаратган ҳолда “Иқтисодиётда бошқарув тизими эскиргани, инновацион ғояларни қўллаб-қувватлаш бўйича самарали механизмлар ўз вақтида жорий қилинмагани ҳам жиддий муаммо бўлиб қолмоқда. Шунингдек, технологик қолоқлик, ресурс ва энергияни тежайдиган технологиялар, ишлаб чиқариш жараёнини рақамлаштириш, муқобил энергия манбаларини татбиқ этишнинг суствлиги ҳам иқтисодий тараққиёт йўлида тўсиқ бўлмоқда.” - деб таъкидлаб ўтдилар.


Ўзбекистон иқтисодиётида кичик бизнес фаолиятини рақамлаштириш учун аввал саноат тармоғининг бугунги ҳолини таҳлил қилиш мақсадга мувофиқ. 2021 йилда 2020 йилга нисбатан саноат ишлаб чиқаришнинг физик ҳажми 108,8%ни ташкил этди. Саноат ишлаб чиқариш таркибида энг катта улуш ишлаб чиқарадиган саноат ҳиссасига тўғри келади. Унинг жами саноат ишлаб чиқаришдаги улуши 79,9 % ни ташкил этади.



1-расм. Асосий иқтисодий фаолият турлари бўйича саноат ишлаб чиқариш, %

Жами саноат ишлаб чиқариши физик ҳажмининг ўсишида асосий омил бўлиб, ишлаб чиқарадиган қайта ишлаш саноати – 9,4 % га, электр, газ, буғ билан таъминлаш ва ҳавони кондициялаш - 0,3 % га ва сув билан таъминлаш, канализация тизими, чиқиндиларни утилизация қилиш – 6,3% га ўсиши ҳисобланди. Шунингдек, тоғ-кон саноати ва очиқ конларни ишлаш саноатида – 1,0 % га пасайиш кузатилди[2].

Кичик бизнес фаолиятини рақамлаштириш учун саноат корхоналари таркибида юқори ва қўйи технологияли корхоналар улушини ҳам таҳлил қилиш зарур. Ушбу таҳлил кичик бизнес фаолиятини рақамлаштириш учун корхоналар қанчалик даражада тайёр эканлигини билдиради.



2-расм. Ишлаб чиқаришнинг технологик таркиби бўйича ишлаб чиқарадиган саноат таркиби, %

2020-йилнинг мос даври билан солиштирганда ишлаб чиқарадиган саноат таркибида юқори технологияли тармоқнинг улуши 2,1 % ни (2021- йилнинг январ-декабр ойларида – 2,7 %), ўрта-юқори технологияли – 23,2 % (20,3 %), ўрта-қуйи технологияли – 36,4 % (39,7 %) ва қуйи технологиялиси – 38,3 % (37,2 %)ни ташкил этди. Ўзбекистон саноатидаги технология таркибининг бундай тақсимланиши кичик бизнес фаолиятини рақамлаштиришни тадбиқ этишда молиявий ва ташкилий муаммоларни келтириб чиқаради. Сабаби, юқори ва ўрта-юқори технологияли корхоналар кам улушга эга бўлиб, дастлаб, юқори технологияли корхоналар салмоғини камида 10 фоизга чиқариб олиш керак. Бунинг учун юқори технологияли саноат корхоналари ташкил этаётган инвесторларни имтиёз ва преференциялар билан қўллаб-қувватлаш зарур. Саноат корхоналари таркибида юқори технологияли имкониятга эга корхоналар салмоғининг ортиб бориши Саноат-4.0 дастурини Ўзбекистонга тадбиқ этиш имкониятини оширади.

Бизнинг фикримизча, рақамлаштиришни тадбиқ қилинишининг кечиктирилиши Республика саноати рақобатбардошлигига салбий таъсир қилиб, қуйидагича долзарб муаммоларни шакллантириб беради:

Биринчидан, Республика саноат тармоғининг экспорт салоҳиятини туширибгина қолмасдан, ишлаб чиқарилаётган товарларнинг таннарх харажатларини ўртача ҳисобда халқаро даражадан кўтарилишига олиб келади. Яъни, бу тизимин амалда қўллаган давлатларда ишлаб чиқариш харажатларини пасайиши нарх бўйича жаҳон бозорида Ўзбекистон имкониятларини пасайтириб юборади.

Иккинчидан, ишлаб чиқариш ва кадрлар тайёрлаш тизимини халқаро миқёсдаги брендини тушиб кетишига олиб келади. Бунда жараёнлар домино эффекти (занжир реакцияси)ни беради. Рақамлаштиришни жорий этишдаги кечикиш меҳнат бозори талабларини қашшоқлаштиради. Бу ҳолат таълим хизматларини кўрсатувчи муассасаларни ҳам янги билимлар устида ишлашга ундамайди. Ёшларда эса янги

билимларни олишга мотивация бермайди. Рақобатда кучсиз томон бўлишдан ташқари, ижтимоий соҳаларни ҳам табиий равишда оқсаб қолишига олиб келади.

Учинчидан, илмий тараққиётни ва инновацияларни сусайтириб, янги технологияларни ўзлаштириш учун чегарадан ташқарига молиявий маблағлар оқимини оширади. Илғор мамлакатларнинг илмий тараққиётига қарамликни шакллантиради. Бу эса албатта давлатнинг иқтисодий тараққиёти учун риск бўлади.

Тўртинчидан, рақамлаштириш ни тадбиқ этилиши шубҳасиз товар ва хизматлар сифатини ошишига ва стандартларни ўзгаришига олиб келади. Иккинчи томондан эса, ривожланган мамлакатлар ички бозорни ҳимоя қилиш учун кўплаб ричаглардан фойдаланади. Пандемиядан сўнг ривожланган давлатлар импорт қилинаётган товарларга нисбатан сифат талабларини ошириши кутилмоқда. У ҳолда, янги сифат талаблари асосида товар ишлаб чиқариш ва бунда замонавий техника ва технологиялардан фойдаланиш тренд масалага айланади. Ушбу вазият ривожланган бозорларга маҳсулотларни экспорт қилиш имкониятининг пасайишига олиб келиши мумкин. Бу эса иқтисодий кам ривожланган давлатларнинг маҳсулотларини мазкур бозорларга киришини чеклайди.

Бу каби муаммоларни ҳал этиш учун аввало, рақамлаштиришни амалиётга жорий этишга Ўзбекистон қанчалик тайёр эканлигини таҳлил қилиш керак. Пандемия Ўзбекистон иқтисодийетини, мавжуд тизимларни ва аҳолини ҳар қандай муаммоларни рационал еча олиш имкониятига ҳамда етарли даражада иммунитетга эга кучли давлатлар қаторига кириб бораётганлигини кўрсатди. Агар рақамлаштиришни тадбиқ этишда бирламчи фактор инсон деб ҳисобланганда, бу масалада заҳира етарли эканлигини англаш мумкин. Аҳоли ўзгаришларга, янгиланишларга ва касбий қайта ўқитишларга мослаша олади.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, юқоридаги муаммоли вазиятларни вужудга келмаслиги учун рақамлаштиришни қуйидаги ечимлар орқали тезлик билан амалиётга жалб этиш зарур:

Биринчидан, IoT, булутли технологиялар, кибер ҳавфсизлик, 5G интернет тармоғи ва 3D технологиялар учун молиявий маблағлар манбаларини излаб топиш, шакллантириш ҳамда буларни тадбиқ этиш билан боғлиқ илмий-тадқиқот ишларини фаол молиялаштириш. Ҳозирдан илмий-тадқиқотлар ва изланишлар олиб бориш ҳамда рақамлаштиришни Ўзбекистон иқтисодийетига самарали таъсирини ҳисоб-китоб қилиш ва турли усуллар орқали моделлаштириб кўриш лозим. Моделлар, ҳисоб-китоблар ва кутилажак иқтисодий самаралар натижаларини эса инвесторларга намоиш қилиш орқали, ушбу дастурни Ўзбекистонга жорий қилиш бўйича инвестицион жозибдорликни шакллантириш керак. Инвестицион жозибдорлик молиявий маблағларни шу дастурга йўналтиришга асос бўлади.

Иккинчидан, дастлабки танловни амалга ошириш. Яъни, рақамлаштиришни жорий этиш қайси тармоқдан бошланади. Саноат тармоқларининг молиявий имкониятларини ҳисобга олган ҳолда, ушбу тадбирни кичик бизнес субъектлари фаолиятидан бошлаш зарур. Бир вақтда барча тармоққа жалб этиш имконсиз. Сабаби, юқорида айтилганидек, бу тизим учун зарурий техника ва технологиялар оммавий юкланишларни кўтармайди. Шунингдек, ушбу тармоқлар молиявий жиҳатдан бошқа

тармоқларга нисбатан барқарор ҳисобланади. Кейинги навбатда, инвесторлар учун юқори даражада жозибали ҳисобланган тармоқлар билан давом эттирилади.

Учинчидан, малакали кадрларга бўлган эҳтиёжни қондириш. Бу масалани ҳал қилишнинг бир нечта рационал йўллари бор: давлат буюртмаси асосида умидли ёшларни хорижда ўқитиш учун инвестиция киритиш. Мавжуд мутахассисларни хорижда малака ошириш ёки тажриба ошириш курсларини ташкил этиш. Шунингдек, ушбу йўналиш предмети доирасида халқаро грантлар бўйича илмий-тадқиқотларни жадаллаштириб, иштирокчи лойиҳалар сонини ошириш.

Тўртинчидан, Республикамиз ёшлари ўртасида компьютер саводхонлигини ошириш мақсадида уларнинг интернет тармоқларидан фойдаланиш сифатини ошириш, ҳудудлар кесимида тенг имкониятлар яратиш. Етакчи мутахасислар томонидан ўқитиладиган компьютер дастурчиларини тайёрловчи курсларни ташкиллаштириш, масалан "One million Uzbek coders" каби ва уларни мамлакатимиз ёшлари ўртасида кенг тадбиқ этиш. Кодлаштириш ва бошқа интернет манбалари орқали эришиладиган иқтисодий, ижтимоий самарани ёшларга тушунтириш ва бу орқали компьютер дастурлаштириш воситаларини оммалаштириш.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Yusupova, D. (2022). MAHALLIY HUDUDLARDA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISH VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 379-385.
2. Kambarov, J., Rakhmatov, U., Rakhmonov, N., & Sultanova, Y. (2020). Problems and solutions for the implementation of the industry-4.0 program in Uzbekistan. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(2), 2677-2683.
3. С.И.Қодиров. Саноат корхоналарида рақамли технологиялардан фойдаланишнинг хусусиятлари. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 2/2022, mart-aprel (№ 00058)
4. Муминова, Э. А. (2016). The concept of an innovation-oriented industrial corporation: essence, definition, objectives and basic principles of functioning. *Молодой ученый*, (25), 330-332
5. Tokhirov, R., & Rahmonov, N. (2021). Technologies of using local networks efficiently. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(6), 250-254.
6. Toxirov, R. S., & Raxmonov, N. R. O. G. L. (2021). DASTURIY TA'MINOT YORDAMIDA ZAMONAVIY BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 1(1), 181-186.
7. Raxmonov Nodirjon. (2022). O'ZBEKISTONDA SANOAT 4.0 DASTURINI RIVOJLANISHI CHARM POYAFZAL ISHLAB CHIQRUVCHI KORXONA MISOLIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(2), 331-341. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/127>
8. Rahmonov, N. (2022). EMPLOYMENT PROBLEMS AND SOLUTIONS OF EMPLOYMENT DURING THE CORONAVIRUS PANDEMIC. *Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi*, 1(000004).

9. Rahmonov, N. (2022). O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNINING ZAMONAVIY YECHIMLARI. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000004).
10. Рахмонов Нодиржон, & Жўраев Асадбек. (2022). КИЧИК БИЗНЕС ВА ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ ТАҲЛИЛИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(5), 101–109. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/386>
11. Rakhmonov, . N. (2022). PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF INDUSTRIAL 4.0 PROGRAM IN UZBEKISTAN (ON THE EXAMPLE OF A LEATHER SHOE MANUFACTURING ENTERPRISE). *Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар*, 10(6), 120–129. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss6/a13

ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИДА РИСКЛАРНИ БОШҚАРИШ ҲАМДА БОШҚАРУВ МЕХАНИЗМЛАРИНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

**Худайназарова Дилором Хайруллаевна
ТАТУ катта ўқитувчиси**

Аннотация: тўқимачилик саноатини ишлаб чиқаришисиз бугунги кунга келиб тасаввур қилиб бўлмайди. Тўқимачилик саноати тарихи меҳнатталаб иш фаолияти саналсада, XVIII асрга қадар қўл меҳнатидан уй шароитида ўсимликларга ҳамда ҳайвонларнинг териларига ишлов бериш орқали олиб борилган. Ушбу мақолада тўқимачилик саноатида рискларни бошқаришнинг назарий асослари келтирилган.

Калит сўзлар: тўқимачилик саноатини бошқариш, бошқарув механизмлари, рисклар ва таваккалчилик, эҳтимол ва ўйин назарияси.

Тўқимачилик саноат тармоғининг асосий етакчи ишлаб чиқарувчи Шарқий мамлакатлар, яъни Форс, Хитой, Миср сингари ҳудудлар саналган. Мазкур мамлакатларнинг барчаси тўқимачилик саноатининг етакчилигини юритишда қудратли мамлакатларнинг ҳудудларини катта қисмини тижоратини эгаллаган бўлсада, доимо рискда фаолият олиб борганлар. Форсий мамлакатларнинг ўта рангли ва бошқа мамлакатларнинг матоларига қараганда нисбатан қалин матоларни ишлаб чиқариши иссиқ ўлкаларда қийин сотилар, аммо узоқ йилларга хизмат қилиши билан халқ ишончини қозонган эди.

Тўқимачилик саноати жаҳон иқтисодиётида технологик ва инновацион жиҳатдан доимо етакчилик қилиб келувчи саноат тармоғи саналади. Инсонларнинг талаб ва эҳтиёжларининг чексизлиги матолар ва уларни комбинациялашда, шунингдек тармоқнинг функционал турли таклифларга бой эканлиги юқори даражадаги сегментлашни юзага келтиради. Доимо ўзгарувчан талабларни бошқариш янгилик ва ижодий қараш тақозо этиши мазкур саноатнинг технологик ва инновацион илгарилувчи қудратини янада орттиришга бевосита хизмат қилади.

Тўқимачилик саноатида экологик маҳсулотлар ишлаб чиқариш, маҳсулот таннархини пасайтириш ва бозорларда барқарор таъминот манбаига айланиш, тежамкор технологиялардан фойдаланган ҳолда талаб ва эҳтиёжларни қондиришда самарали техник-иқтисодий усулларни ахтариш тобора фаоллашиб бориши натижасида биологик хусусиятларга эга матолар оммалашди. Тўқимачилик саноатида ишлаб чиқаришда "яратиш" тушунчаси дастлаб инновацион, сўнгра рақамли ва ҳозирда интеллектуал технологиялар авлодини ривожланишига туртки бўлди. Бунинг натижасида бир нечта соҳа ва тармоқлар унумли фойдалана олди, жумладан тиббиётда ортопедик маҳсулотлар, инсон танаси ҳароратини кўрсатиб турувчи либослар, беморнинг мунтазам ҳолати борасида маълумот бериб боровчи махсус либослар, дизайн-интеръерда қуёш нурига мослашган ҳолда ёруғликни хонага киришини таъминловчи датчик пардалар, озиқ-овқат саноатида музлатгич қоплар сингари жиҳатлари билан ўзининг долзарблигини касб этади.

Ҳар бир тўқимачилик саноати маҳсулоти инсониятни иситиш, ўзини енгил ҳис этиш, эстетик ва гигиеник аҳамиятга эга бирламчи эҳтиёжларни қондириш саноатидан

бири саналади. Уни санъат намунаси, маданий буюм, фидойилик белгиси, анъанавий меърос, дресс-код, технологик маҳсулот сифатида ҳам кўриш мумкин. Тўқимачилик саноати маҳсулотлари билан атроф-муҳитимиз бизни ўраб турар экан, унинг маҳсулотларининг ўзгариши замон, дид ва дизайн ҳамда ранглар мажмуаси билан ифодаланишига боғлиқ тарзда узлуксиз ўзгариб боради. Узлуксиз ўзгарувчан маҳсулотларни ишлаб чиқариш ўзига хос "риск"ларни келтириб чиқаради.

Риск тушунчаси қадимги юнон тилида "ридса" (ridza) сўздан келиб чиққан бўлиб, "қоя" деган маънони англатади ҳамда денгизчилар орасида бу қароқчилар томонидан уюштириладиган қопқон сифатида "хавф"ли ифодасига урғу берган. Адам Смит ўзининг "Халқлар бойлиги сабаблари ва табиати" (Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations) номли китобида тадбиркорлик фаолиятини юритишда риск танловларининг ҳар бир тадбиркор учун доим инобатга олиши лозим бўлган жиҳат эканлигини таъкидлаган ҳолда қуйидагиларни баён этган: "Асосий даромад меъёри доимо рискларнинг ўсиш суръати билан ўзагаради." [1] Ушбу фикрни тадбиркорликда характерли жиҳатларини француз иқтисодчи олими Р.Кантильон ажратган. Унинг фикрига кўра рискларни инобатга олмаган ҳолда тадбиркорликни олиб бориш-доимий йўқотишларни амалга оширишдаги бойликни совуриш саналади. Шунга кўра, рискларни тадбиркорликнинг йўқотишлари даражалари ва хавфларини тизимлаштириш орқали иқтисодиёт назариясида риск бошқаруви назариясига асос солган.

Hozirgi kunda yurtimizda bu prinsiplarning har biriga suyangan holds " Tozalash ishlari" olib borishmoqda. Bunga ko'ra Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab olindi.

-aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

-davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

-korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash shular jumlasidandir.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliy hayotga tatbiq etilmoqda. Buning tastig'i sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida "Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi" deya nutq so'zlaganini keltirishimiz mumkin. Qayd etish

lozimki, olib borilayotgan islohotlarni amaliy hayotga tatbiq etish maqsadida 2020 yil 4 fevralda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha idoraviy chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan bo'lib, fuqarolar va yuridik shaxslar vakillari tomonidan korrupsiya haqida xabar berish mexanizmlari joriy etilganligi ahamiyatlidir, xususan bugungi kunda:

- Ombudsmanning "10-96" ishonch telefoni va virtual qabulxonasi faoliyat yuritmoqda;
- fuqarolar va yuridik shaxslar vakillarining korrupsiyaviy holatlar bo'yicha hamda xodimlarning boshqa qonunga xilof ishlari to'g'risidagi murojaatlari tahlil qilinib boriladi, ularning natijalari odob-axloq komissiyasi yig'ilishlarida muhokama qilinadi.

- Ombudsman Kotibiyatiga ishga birinchi marta qabul qilinayotgan shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida yo'l-yo'riqlarni tushuntirish, xizmat vazifasiga qo'yiladigan asosiy majburiyatlar, ta'qiqar, cheklovlar, talablar va idoraviy odob-axloq qoidalari mazmun-mohiyati 3 ish kundan kechiktirmay tushuntiriladi. Bundan tashqari, bugungi kunda ilg'or xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish jarayonida qo'llayotgan usullaridan biri bu davlat xizmatchilarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi harajatlarini deklaratsiya qilishning majburiy etib belgilanganligidir. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mansabdor shaxslarning noqonuniy daromad olishni oldini olish va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishdan iboratdir. Davlat xizmatida ushbu usul bugungi kunda 150 dan ortiq mamlakatda qo'llanilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, korrupsiya- kelajagimiz kushandasidir. U bilan qanchalik kurashsak, uning ildizlarini qanchalik barcha sohadan sug'urib tashlasak, yurtimiz kelajagi shunchalik osoyishta, rivojlangan, to'laqonli ta'minlangan bo'ladi. Hozirgi kundagi islohotlarning barchasi aynan shuning uchun qaratilgan. Bizning har birimiz jamiyatimiz hayotiga befarq bo'lmay, ushbu illat bilan kurashishimiz, lozim bo'lsa, illat homiylarini qonun oldiga javobgarlikka tortishga yordam berishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni
2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDAGI 5729-SONLI QARORI
1. 3.T.Z. Teshaboyev Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va telekommunikatsiya. 2019-yil Farg'ona.
2. 4.Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish. Ma'ruzalar to'plami. Toshkent 2017
3. 5.K. Mullaboyev Maktabgacha ta'lim metodikasi 2019-yil.
5. Abduqodirov A.A. va boshqalar. Axborot texnologiyalari. -T.: 2002-148 bet.
6. Adilova S. Multimedia vositalari va ularni ta'lim jarayonida qo'llash.// Pedagogik ta'lim. 2001.-№2 .20-21 bet

TURIZMNI RIVOJLANTIRISH

**Ortikova Jasmina Oybek kizi
Samarqand viloyati Paxtachi tumani 34-maktab o'quvchisi**

Annotasiya: Ushbu maqolada O'zbekiston bilan boshqa davlatlar o'rtasidagi turizm statistikasi va uni qanday rivojlantirish to'g'risida qisqacha ma'lumot berilib o'tilgan va turizmni tushib ketishini bartaraf etish haqidagi fikrlar ham keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Thomas Cook, Denov tumani, Marco Polo, Misr, Paris, osmono'par binolar, til bilish.

Turizm (fransuzcha: our- sayr, sayohat) degan ma'noni anglatadi. Turizm bu jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy, amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joy, mamlakat. Ilk bor 1843-yilda Thomas Cook 1- temiryo'l sayyohligini tashkil qildi. Undan so'ng esa Marco Polo missioner bo'lgan, va u xristian dinini yoyish uchun yo'lga chiqqan, sayohat qilgan. Hozirgi kunda turizm desa ko'pchilik biror bir davlatga borish, va u yerdagi tarixiy va zamonaviy bino va narsalarni ko'rishni tushunadi.

Mamlakatim izda turizm ishiga mustaqillikning dastlabki vaqtlaridanoq asosiy davlat siyosati darajasida qaraldi. Soha rivoji uchun barcha zarur tashkiliy — huquqiy mexanizm vujudga keltirilib, muhim me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va bu ish hozirda ham davom etmoqda. Mamlakatimizda turizm ning ravnaqi, uni yangi pog'onalarga ko'tarish, yurtimizni jahon turizm markazlaridan biriga aylantirish uchun avvalo huquqiy zamin yaratish lozim edi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mazkur yo'nalishga taalluqli qonun va kodekslari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizmga oid qator Farmonlari, qarorlari, Respublika Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Adliya vazirligining va boshqa mutasaddi davlat idoralarining yo'riqnoma, ko'rsatma va tartiblari ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etildi. Shulardan kelib chiqqan holda, mazkur hujjatlarni o'rganish va tahlil qilishni quyidagi temalar bo'yicha amalga oshirish maqsadga muvofiqdir, — deb o'ylaymiz: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining turizmga oid qonun va kodekslari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 24-aprelda qabul qilgan «O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi» va unda turizm sohasiga oid imtiyozlar. Ushbu Kodeks 11 bo'lim, 41 bob va 134 moddadan iborat bo'lib, uning asosiy vazifasi — O'zbekistonda soliq tizimining huquqiy asoslarini, soliq to'lovchilarning huquqlari hamda majburiyatlarini belgitaydi, soliq ishlarini yuritish tartibotini va soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni tartibga solib turadi. Kodeksda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiya solig'i, yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq, ekologiya solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, mol-mulk solig'i, yer solig'i, reklama solig'i, avtotransport vositalarini olib sotganlik uchun soliq, shuningdek, turli yig'imlar haqida ham fikr yuritiladi. Kodeksda soliq to'lash bilan bir qatorda faoliyatning ayrim turlari (xususan, turizm faoliyati)ga soliq to'lashda imtiyozlar ham berilgan. Jumladan, 8-bob «Daromad (foyda) solig'i bo'yicha imtiyozlar», - deb nomlanib, uning 31-moddasi 12-qismida: «Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarida yangi tashkil etilgan, turizm faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslar tuzilgan paytdan boshlab birinchi daromad orttirgunga qadar, lekin uzog'i bilan ro'yxatdan o'vaqtdan e'tiboran uch

yilgacha. Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlarida turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar foyda olgan birinchi yili 50 %, ikkinchi yili 75%, Uchinchi yildan boshlab 100 % miqdorida soliq to'laydi», — deyiladi uchinchi yildan boshlab 100 % miqdorida soliq to'laydi», — deyiladi.

Hozirda yurtimiz O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun hukumatimiz tomonidan qadimiy eski joylar buzilib tashlanmoqda, va qishloq aholisining turar joylari, bir qavatli uylar va hovlilar o'rniga turli tuman kotej va ko'p qavatli binolar qurilmoqda. Shuningdek, O'zbekistonning shahar joylarida osmono'par binolar qad ko'tarmoqda, bularni barchasi turizmni rivojlantirish uchun qilinmoqda va maqsad turistlarni va chet ellik kishilarni yurtimizga ko'proq jalb qilish. Lekin, aksincha yurtimizdagi qadimiy joylar va biz hozirda istiqomat qilayotgan hovlilarni saqlab qolish kerak, va ularni yo'q bo'lib ketishini oldini olish lozim. Chunki, chet davlatlarda ham osmono'par binolar ko'p, natijasida turistlarni davlatimiz turizimiga qiziqishi yo'qoladi. Chunki boshqa davlatlarda bu ro'sindagi turizm turlari allaqachon rivojlangan. Bilamizki, davlatimiz Markaziy Osiyo deb ham nomlanadi, va biz bu nom bilan yanada tanilib chiqishimiz darkor. Masalan, O'zbekistonda hali Respublikamizning Samarqand viloyati Paxtachi tumanidagi "Dabus qal'a" qirralari ochilmagan qadimiy joylar ko'p, masalan: Denov tumani, ziyoratgohi. Agar shular va shu kabi yana ko'plab tarixiy joylar davlatimiz tomonidan muxofazaga olinib rivojlantirilsa turizmni sezilarli darajada rivojlantirish ehtimoli katta.

O'zbekiston prezidenti «Buyuk ipak yo'li» xalqaro turizm markazi ochilish marosimida ishtirok etdi. «Ulug'vor me'moriy majmua barchamizga, butun xalqimizga muborak bo'lsin, buyursin», — dedi Shavkat Mirziyoyev. Konsert davomida britaniyalik mashhur qo'shiqchi Sami Yusuf «Hayot daraxti» qo'shig'ini ijro etdi. 23 avgust kuni O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahridagi «Buyuk ipak yo'li» xalqaro turizm markazining ochilish marosimida ishtirok etdi. Markazdan o'rin olgan «Boqiy shahar» majmuasi hovlisida samarqandlik nuroniylar, ziyolilar bilan samimiy suhbat bo'ldi. Ushbu inshootlar xayr-barakali bo'lishini, bunday yaxshiliklar ko'p bo'lishini tilab, duo qilindi. Sho'ng, «Buyuk ipak yo'li» xalqaro turizm markazining tantanali ochilish marosimi bo'ldi.

Agar boshqa davlatlardagi turizm statistikasiga kelsak. Dunyoda top davlatlarning turizm yo'nalishi O'zbekistonga nisbatan ancha kuchli. Masalan, Misr davlatida piramidalar necha asrlardan buyon saqlanib kelinmoqda, va bular turistlarni ko'proq jalb qiladi va mamlakat turizmini rivojlantirishga ancha ko'mak beradi. Shu bilan birga Parij yoki Amerika davlatlarini olsak, ular faqatgina osmono'par binolar bilan mashhur. Parijda Efil minorasi dunyoga dong'i ketgan mujizalardan biridir. Ammo u davlatlarda buzdagi shinam hovlilar, keng dalalar kamdan kam uchraydi, va bularni saqlab qolish bilan biz sabzavot va mevalarni exportini ham ko'tarishga erisha olamiz.

Turizmni rivojlantirish va turist sifatida sayohat qilishning yana bir tomoni til bilish ham hisoblanadi. Agar inson qancha ko'p til bilsa u chet elga o'ylanmasdan tashrif buyura oladi va davlatimizga tashrif buyurgan turistlarga ham biror narsa haqida osongina ma'lumot berib qiziqтира oladi.

Turizm 3 ta turga bo'linadi: Xalqaro turizm, bu turizm turidga davlatlararo sayohat kiradi, qaysiki kishilar ishi yuzasidan yoke dam olish kurortlariga borish yoke sayohat qilish ham turizm hisoblanadi. Ikkinchi turi esa bu ichki turizm, bunga mamlakat ichi bo'ylab

sayohat kiradi, va oxirgisi bu maxfiy turizm, bunda aynan sayohat uchun emas balki ish yuzasidan boshqa davlatga borib sayohat qilmasdan qaytib kelish hisoblanadi. Turizmning boshqa xillari – ko‘rinishlari sifatida: sarguzashtli, temiryo‘l, avtoyo‘l, suv yo‘li, havo yo‘li turizmlariga ham alohida e‘tibor berilgan, hamda dam olish, rohatlanish va ko‘ngil ocharlik, sog‘lomlashtirish, o‘rganuvchi, qishloq, tatil kunlaridagi dam olish, go‘zal tog‘larga sayohat, safari tur, ekoturizm, harbiy, etnik, qarindoshlarni va do‘stlarni ko‘rish, tarixiy, diniy – ziyorat, marosim, falokat joylariga borish, xazina izlash, ishqiy, sport turizmlari kabi sayohatlarni batafsil yoritib berilgan

Foydalanilgan ma'lumotlar ro'yxati:

1. Mirzayev Murodjon Ahmadjonovich "Turizm asoslari" 2011-yil. 18-19-20-betlar
2. <https://adu.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23 avgustdagi tashrifi

RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING BOSHQARUVDAGI ROLI.

Odilov Abdulloh

Qo'qon Universiteti, KI-1-22 talabasi,

Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li

Qo'qon Universiteti, biznes kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishining ba'zi jihatlari ko'rib chiqiladi, uning faoliyatidagi farqlar va xususiyatlar o'rganiladi. Qayd etilishicha, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi muloqot, fikr va tajriba almashish imkoniyatini beradi. Raqamli iqtisodiyot yangi biznes modellarini rivojlantirishga hissa qo'shadi, innovatsiyalar yaratish, sarmoya kiritish, xodimlar, hamkorlar, resurslar va bozorlarni izlash uchun kuchlarni birlashtirish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar xodimlarni o'qitish, bilim almashish, innovatsion g'oyalarni amalga oshirish, jumladan, ijtimoiy sohada muhim rol o'ynashi mumkin. Maqolada iqtisodiyotda raqamli hodisalarning mavjudligi va ularning zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ta'sirini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan turli mezonlar ko'rib chiqiladi. Maqolada raqamli iqtisodiyotning paydo bo'lish sabablari tahlil qilingan, uning rivojlanish omillari aniqlangan va hu haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli resurslar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni boshqarish, texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, raqamli tafovut, raqamli platformalar, katta ma'lumotlar, iqtisodiy boshqaruv.

Kirish: Ilmiy-texnika taraqqiyoti sivilizatsiyamizga ko'plab foydali ixtirolar, buyuk kashfiyotlar va ajoyib yutuqlarni berdi, ular inson hayotida yordam berishi kerak. Raqamli innovatsiyalar bizning mavjudligimizni tubdan o'zgartirib, bizni rivojlanishning yangi bosqichiga qo'ygan eng ulug'vor texnologiyalardan biridir.

Internetning paydo bo'lishi bilan inson uchun yangi imkoniyatlar ochilib, uning o'zini o'zi amalga oshirishi va intellektual rivojlanishiga yordam beradi. Shunday qilib, sayyoramizning eng chekka burchaklarida bo'lgan odamlar nufuzli kasbni topishlari, eng jiddiy universitetlarda o'qishlari, yangi narsalarni o'rganishlari mumkin. Mashina intellekti va sun'iy intellektning yaratilishi bizga hayotimizning barcha sohalarida - tibbiyotdan tortib sanoatgacha yordam beradi. Albatta, bunday kelajakning salbiy tomonlari ham bor, chunki robot texnologiyalari tobora ko'proq ish o'rinlarini bo'shatadi va shu orqali odamlarni daromaddan mahrum qiladi. Bu ishsizlikning katta o'sishiga va keyinchalik inson mehnati sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Hozir ham ayrim tibbiyot markazlarida mashina aqlini – bemorlarga yordam beradigan va kasallikni aniqlashga, hatto tashxis qo'yishga qodir bo'lgan robot qizni almashtirish mumkin. Hozircha odamlar bunday yangiliklarga shubha va biroz ishonchsizlik bilan qarashadi va menimcha, ularni tushunish mumkin.

Eng muhimi, mening fikrimcha, raqamli texnologiyalarning rivojlanishini qo'ldan boy bermaslik va kelajakda inson mashina aqlining quliga aylanib qolmasligi uchun ularni nazorat qilishdir.

Masalan, Rey Bredberining "451 chi daraja Farengeytda". asarini ko'rib chiqaylik. Muallif mumkin bo'lgan kelajakni tasvirlaydi, chunki inson o'z vaqtida to'xtamasa, bu uning xayolida bo'ladi. Roman ahli o'z aqli, tafakkuridan mahrum bo'lib, qulga aylangan. Ularning bir-biriga nisbatan his-tuyg'ulari yo'q, hatto qarindoshlari bilan ham gaplashishmaydi. Ular butun bo'sh vaqtlarini ulkan televizor ekranlari ortida, har kuni uzluksiz efirga uzatiladigan yana bir ahmoqona ko'rsatuvni tomosha qilish bilan o'tkazadilar. Serial qahramonlari bilan muloqot odamlarning bir-birlari bilan suhbatlarini butunlay almashtirdi. Ular o'ylashni va shuning uchun mavjud bo'lishni to'xtatdilar. Bunday hayot qorong'u va muvaffaqiyatsizlikka mahkum.

Shunday qilib, muallif o'quvchilarni raqamli texnologiyalar inson hayotini barbod qilishi mumkinligidan ogohlantiradi. Odamlarni ruhsiz qullarga aylantiring, ular uchun kuch eshitadigan hamma narsaga ko'r-ko'rona ishonning.

Yuqorida aytilganlarning barchasini sarhisob qilsak, shuni ta'kidlash joizki, raqamli kelajak, shubhasiz, insonga o'z hayotini osonlashtiradigan va yaxshilashga yordam beradigan ko'plab foydali texnologiyalar va aqlii ixtirolarni olib keladi. Ammo shuni unutmangki, voqealarning bunday natijasining kamchiliklari ham bor. Odamlar hokimiyat ilhomlantirmoqchi bo'lgan hamma narsaga ko'r-ko'rona ishonmasligi kerak, har kim kelajak rivojlanishi haqida o'z tushunchasiga ega bo'lishi kerak. Hamma narsa faqat insonga bog'liq va u kelajakda taraqqiyotni qanday engishi, yutuqlarini nimaga yo'naltirishi. Shuning uchun raqamli kelajakni yomon yoki yaxshi deb aytish qiyin, chunki u faqat insonning qo'lida bunday hissiy rangga ega bo'lishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotning asosini raqamli mahsulotlar ishlab chiqarish va raqamli texnologiyalar bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatish sektori tashkil etadi. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti mamlakatlari statistikasi, global beqarorlikka qaramay, raqamli iqtisodiyot mahsulotlarining jahon savdosi barqaror o'sib borayotganidan (o'rtacha o'sish 4 foizga yaqin), ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmining o'sib borayotganidan dalolat beradi. tezroq sur'at (yiliga 30% gacha). Raqamli texnologiyalar sohasi innovatsiyalarda asosiy rol o'ynashini ko'rsatuvchi raqamli texnologiyalar bilan bog'liq tadqiqotlar uchun korxonalar xarajatlari ortib bormoqda. Raqamli infratuzilma rivojlanib, qulayroq bo'lmoqda, 4G texnologiyalari va optik tolali ma'lumotlarni uzatishning joriy etilishi bilan aloqa tarmoqlari sifati yaxshilanmoqda, narxlar, xususan, mobil aloqa xizmatlari, mobil qurilmalardan foydalanish imkoniyatlari pasaymoqda. Internetning o'sishi, natijada, dunyoda raqamli texnologiyalarning qamrovi va rivojlanishini bashorat qilish imkonini beradi.

Firmalar faoliyatida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun salmoqli salohiyat mavjud. Bunda zamonaviy kompyuter texnologiyalari, dasturiy ta'minotlardan foydalanish, malakali mutaxassislar bilan ta'minlash kabi jihatlarga e'tibor qaratish zarur. Shuni hisobga olish kerakki, raqamli texnologiyalar innovatsion jarayonlarni jadallashtirish uchun katta salohiyatga ega, shuning uchun kompaniyaning raqamli salohiyatini rivojlantirishdagi investitsiya ko'rsatkichlari uning zamonaviy sharoitlarda raqobatbardoshligining muhim omili hisoblanadi.

Xulosa: Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi muloqot, fikr va tajriba almashish imkoniyatini beradi. Internet-platformalar sizga biznes yaratish, sarmoya kiritish, xodimlar, sheriklar, resurslar va bozorlarni qidirish uchun kuchlarni birlashtirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar xodimlarni o'qitish, bilim almashish, innovatsion g'oyalarni amalga oshirishda, jumladan, ijtimoiy sohada ham muhim rol o'ynashi mumkin.

Iqtisodiyotning davlat sektorida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Raqamli hukumat va davlat xizmatlarini ko'rsatish tobora ko'proq xarajatlarni kamaytirish, shu bilan birga fuqarolar va biznesga yanada yaxshi xizmatlar ko'rsatish va hukumatning atrof-muhitni saqlash bo'yicha sa'y-harakatlarining bir qismi sifatida qaralmoqda. Raqamli hukumat va innovatsion texnologiyalar barqaror rivojlanishni shakllantirishda davlat boshqaruvining samarali ishtirokini ta'minlashi mumkin. Raqamli hukumat davlat idoralariga yaxshiroq xizmatlar ko'rsatish va jamoatchilik uchun ochiqroq bo'lish imkonini beradi. Bu hukumatlarga atrof-muhitga etkazilgan zararni kamaytirishga, tabiiy resurslarni samarali boshqarishga yordam berishi va iqtisodiy o'sishni va davlat sektorini rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

To'liq raqamli iqtisodiyotni yaratishga to'sqinlik qilayotgan xavflarni alohida ko'rib chiqish kerak. Yangi texnologiyalarni faol joriy etayotgan va qo'llayotgan mamlakatlar bilan bir qatorda global axborot kommunikatsiyalaridan uzilib qolgan va iqtisodiy tizimning yangi faoliyat turiga o'tish imkonini beruvchi afzalliklardan foydalanmayotgan butun mintaqalar ham bor. Farqlar nafaqat texnologiya darajasida, investitsiya resurslarining etishmasligi yoki inson kapitali rivojlanishining past darajasida, balki institutlarning yo'qligi yoki yomon ishlashida ham kamchiliklardandir.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. "2012: The Year of eSports". <https://www.forbes.com>.
2. "Field of Streams: How Twitch Made Video Games a Spectator Sport". <https://www.theverge.com>.
3. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi Kibersportni bo'lajak Olimpiya tadbirlariga kiritish masalasini muhokama qilgan. " <https://en.wikipedia.org>.
4. "Newzoo: Global esports will top \$1 billion in 2020, with China as the top market". <https://venturebeat.com>.
5. "Global esports revenues to top \$1 billion in 2019: report". <https://www.reuters.com>.
6. "Field of Streams: How Twitch Made Video Games a Spectator Sport". <https://www.theverge.com>.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF ICT IN THE DEVELOPMENT OF THE TAX SYSTEM

Oymatova G.M.
student gr. SST-5, I course
Tashkent Institute Of Finance.

Annotation. In this article, it is described the actual problems of using information and communication technologies in improving tax administration, discussed the factors that cause them, and made suggestions to eliminate these problems.

Key words: information and communication technologies, digital economy, tax administration, control programs, tax risk analysis system, regulatory analysis.

The development of digitalization in the field of tax administration will have a positive impact on the efficiency of tax control and will reduce the number of direct tax audits at the enterprise, and taxpayers will determine the amount of all taxes that they must pay, i.e. tax liabilities, and create incentives to encourage timely payment of taxes.

Taxes and taxation issues have always been at the center of public attention in any country, but not everyone who expresses different opinions about taxes understands their economic and social content, essence and purpose. The question of a correct understanding of its essence is connected with the understanding that the tax is not only an economic, but also a legal, social, philosophical concept.

In a society where taxes make up a large part of the income of the state and local governments, their correct, complete and timely collection allows timely fulfillment of other tasks of the state. Because of this, governments are always looking for, testing, and implementing the most advanced ways to do their job efficiently, easily, and at low cost. In the current age of information technology, these methods are undoubtedly associated with the introduction of digital technologies and their development.

The digitalization of tax administration, on the one hand, reduces government costs associated with tax collection and provides a direct link between taxpayers and the budget, and on the other hand, saves taxpayers time and money, relieving them of the hassle associated with paying taxes.

To this end, in recent years, based on the experience of foreign countries, several electronic systems have been introduced into the tax system:

- tax risk analysis system, which allows segmenting taxpayers by the level of risk of non-fulfillment of tax obligations;
- system of electronic filing of tax reporting through the personal account of the taxpayer;
- system of electronic registration of taxpayers and their accounts;
- special system of registration of VAT payers;
- electronic invoices, where identification codes of goods and services are entered, as well as a system for providing information on the VAT tax deduction coefficient;
- System of registration and scanning of signs of special control based on QR codes;
- information system of online cash registers and online terminals;

- Electronic service E-Ijara (ijara.soliq.uz), intended for registration of real estate lease agreements;
- Information system "E-Aktiv" (E-ombor, virtual warehouse) for accounting of fixed assets, intangible assets and material resources, analysis of the receipt and balance of goods, operational accounting and tracking [5].

So, have these systems helped increase tax revenue and reduce taxpayer problems? On the one hand, the answer to this question is yes, but on the other hand, on the contrary, it has created a lot of confusion and other problems, and it would not be an exaggeration to say that these problems will not be solved until the entire economy and all industries related to her, fully digitized. Since the sphere of taxes and taxation is closely connected with all sectors of the economy and all structures of the state, the introduction and development of digital technologies alone in tax administration is not enough to improve the sphere.

On the one hand, the digital technologies introduced today provide a number of conveniences for taxpayers who are well-versed in their work, organized, modern and conscientious, but create additional problems for taxpayers who are poorly proficient in information technology, do not have access to the Internet or live in areas with poor communication quality, and for some unscrupulous taxpayers it opens up new ways to evade taxes.

Of course, digitalization promises great success in the long term, but the path to the finish line is difficult and not without losses, that is, there are many problems that arise in the short term. In particular:

1. Other sectors and areas directly related to taxation have not yet been fully digitalized, and a perfect digital system has not been introduced to ensure the exchange of information between all sectors of the country's economy.

2. Software products are developed based on templates taken from other countries, are not regularly updated and modified to take into account local features and timely changes, and there is a lack of highly qualified IT specialists.

3. Some taxpayers lack computer literacy, and in remote areas there are still problems with the Internet and even electricity.

One of the most important steps in improving the taxation system is the complete digitalization of other industries and sectors directly related to the taxation system, and the introduction of a perfect digital system that ensures the exchange of information between all sectors of the country's economy. Blockchain technology will help with this, which can open up huge opportunities in tax administration. With it, you can ensure the transparency of all tax transactions, confirm transactions in real time, as well as automate and simplify the taxation of these trade transactions, in particular, the calculation of value added tax (VAT) and other trade taxes. This means that the cost of preparing a tax report is reduced.

"According to the observations of the tax authorities of a number of countries, it has been established that the current procedure for the relationship of income and their sources in the framework of the interaction of the parent company and its subsidiaries in other countries helps transnational companies hide their income. In such cases, the blockchain can become an additional tool in the fight against tax evasion, providing real-time access to information about intra-group transactions.

The interconnection of all sectors of the economy with the help of blockchain technology allows transparent monitoring of the turnover of all available resources in the country, which contributes to the elimination of tax evasion and the timely and complete collection of tax payments.

The fact that software products used in tax administration create a number of problems for taxpayers is at the same time a major obstacle to increasing tax revenues.

Naturally, new programs, such as E-Aktiv or Tahlil-tahluka, launched in test mode and not yet implemented in a specific system, still cause many problems on the ground and complicate the work of accountants and entrepreneurs, since these programs cannot generate information on their own and provide convenience to an accountant or taxpayer, it is necessary to regularly analyze their work, constantly eliminate their shortcomings and correct errors. In today's age of information technology, given that technologies are developing day by day, and how many innovations enter our lives every day, it is necessary to constantly improve these programs. Therefore, in order to fix these problems in a short time, IT professionals who are masters of their craft will have to work on these programs constantly and tirelessly. Given the shortage of such specialists in our country, we must focus on training these specialists and attracting them to the taxation system, hoping for a long-term perspective.

The awareness of taxpayers about digital technologies is also one of the most important issues of digitalization of tax administration. To implement contactless payment of taxes using digital programs, it is first necessary to increase the digital literacy of all citizens. In addition, it is impossible to achieve the desired result in the field of digitalization if the Internet does not cover everything, even the most remote areas, and uninterrupted power supply is not ensured. Therefore, first of all, it is necessary to pay special attention to improving the computer literacy of the population and providing rural areas with a high-quality Internet network and uninterrupted power supply.

In conclusion, we can say that the more important the full digitalization of tax administration is in ensuring the transparency of the country's economy, the more important it is to provide all participants in this process with the necessary tools to achieve this goal: to fully establish a digital information exchange system that links industries, to constantly improve software products, to ensure full participation population in digitalization and ensure uninterrupted internet and electricity.

Reference:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 2019-yil 30-dekabr
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-son farmoni. 2018-yil 29-iyun
3. Daniel Ho, Peter Lau (2019) Tax audit in Hong Kong// The International Tax Journal.21.12.2019. Samuel Chan, Gerald Chau, Patrick Leung (2017) Tax audit and investigation in China and Hong Kong// The International Tax Journal, February-January.
4. Daniel Ho, Peter Lau (2019) Tax audit in Hong Kong// The International Tax Journal.21.12.2019. Samuel Chan, Gerald Chau, Patrick Leung (2017) Tax audit and investigation in China and Hong Kong// The International Tax Journal, February-January.
5. Launching a digital tax administration transformation. Asian Development Bank, 6 ADB Avenue, Mandaluyong City, 1550 Metro Manila, Philippines – 2022.

O'ZBEKISTONDA SPORT TURIZMI SALOHIYATI

Toirova Jasmina
Qo'qon Universiteti talabasi,
Umarov Omonjon
Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda sport turizmni kamchiliklari, turlari va sport turizmni rivojlantirish haqida fikrlar aytib o'tilgan hamda xulosa muallif tomonidan bayon etilgan.

Kalit so'zlar: sport turizm, tog' velosipedi, tog' kurortlari.

Sport turizmi - bu tabiiy to'siqlarni yengib o'tishda odamni sport bilan takomillashtirishga qaratilgan sport turi. Sport turizmi tarixan SSSRda rivojlangan. Turizmning sport mahorati tabiiy to'siqlarni yengib o'tish, to'siqlarni yengib o'tishning turli taktikasi va usullarini qo'llashdan iborat. Ko'plab sport sayyohlari ham tegishli sport turlari bilan shug'ullanadilar: yo'nalish va ko'p sport turlari, toqqa chiqish, rafting, tog' velosipedi, chang'i, suzib yurish va boshqalar sport sayyohlari, shu jumladan, tabiiy muhitda qutqaruvchilarni tayyorlash uchun zaxiradir. Sport turizmi, birinchi navbatda, sport sayohatlari-bu o'zaro yordam va o'zaro yordam, sport intizomi, o'zini takomillashtirish va bilim va tajribani o'zaro o'tkazish an'analari kuchli bo'lgan jamoaviy sport turi.

O'zbekiston sayyohlar uchun turli sport tadbirlarini taklif etuvchi mamlakatdir. O'zbekiston hukumati so'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish borasidagi sa'y-harakatlari doirasida sport turizmni rivojlantirmoqda. Sayyohlar O'zbekistonga tashrif buyurganlarida shug'ullanishi mumkin bo'lgan mashhur sport turlari qatoriga piyoda yurish, chang'i, golf, suzish, velosport va marafon yugurish kiradi. Mamlakat o'zining keng va xilma-xil landshaftlari tufayli ekstremal sport turlari uchun juda ko'p imkoniyatlarni taqdim etadi, vaholanki bu sport turlari mamlakatda hali yangilik hisoblanadi. Bularga quyidagilar kiradi:

- ekstremal chang'i, snoubord;
- moto poygalar (Motorsysle rasing), ralli (Rallying), motokross;
- skeytbording, tog' velosipedi, toqqa chiqish, kanyonning va paraplanerlik.

Toza havoda va yirik shaharlardan uzoqda sport bilan shug'ullanishni yaxshi ko'radiganlar uchun O'zbekiston ayni joy hisoblanadi. Yumshoq iqlim deyarli butun yil davomida sportning ko'p turlari bilan shug'ullanishga imkon beradi. Klassik qishki sport turlari uchun to'rtta tog' kurorti mavjud: Chimyon, Bildirsoy, Amirsoy va Yangiobod. Bundan tashqari, O'zbekistonda Tashkent Open (tennis), Silk Way Rally (motosport) va har yili xalqaro marafon poygalari kabi xalqaro sport tadbirlari o'tkazib kelinmoqda. Shuningdek, mamlakatda bir nechta sport majmualari, jumladan, Milliy olimpiya qo'mitasi markazida ochiq va yopiq joylarda turli sport turlari bilan shug'ullanish uchun qulayliklar mavjud.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston sayyohlar uchun o'ziga xos sport tajribasini taklif etuvchi sport turizmi rivojlanayotgan mamlakatdir. Mamlakatning boy madaniy merosi, go'zal tabiati va sport inshootlari butun dunyo bo'ylab sport ishqibozlari uchun jozibali manzilga aylantiradi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida O'zbekistonning rivojlanishi va mustaqilligi uchun amalga oshirilayotgan ishlar juda muhimdir. Jismoniy tarbiya va sport

sohasidagi rivojlanish, milliy chempionatlar, xalqaro musobaqalar ommaviy tashkilotlar bilan birgalikda o'tkaziladi va bu hamda turizm sohasini ham rivojlantiradi. Turizm va sport vazirligi tashkil etilganligi bilan bu sohada katta ishlar amalga oshirilayotganligi kuzatib borib, bunday ishlarni qo'llab-quvvatlash zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Спортивный туризм в России (справка)". Федерация спортивного туризма России. 2020.
2. Sport turizmi | Uzbekistan Travel - Uzbekistan Travel
3. <https://uzbekistan.travel › sportivniy-turizm>

O'ZBEK TURIZMNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.

Ulug'bek Valiyev
Qo'qon universiteti talabasi,
Omonjon Umarov
Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Jamiyatdagi aholi ma'lum bir qatlamining turizm sohasi va uning turlari, respublikada turizmning faoliyati, undagi islohotlar to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish, shu sohaning rivoji va kishilar ma'naviyatini yuksaltirishda bir vosita bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Turizm, turizm turlari, O'zbekistondagi turizm oqimi va undagi islohotlar, turizmdagi asosiy ko'rsatkichlar.

Hozirgi zamonamizdagi iqtisodiyoti rivojlangan barcha davlatlarda har bir soha, tarmoq va yo'nalishlarga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki, ular mamlakat iqtisodiyoti rivolanishi, aholi turmush darajasini yaxshilanishi va boshga bir gancha omillarga ma'lum bir ulushda hissa go'shib, ta'sir ko'rsatmoqda.

Turizm sohasi xizmat ko'rsatish sohasini eng katta tarkibiy qismidir. Turizm - bu sayohat qilishning bir turi bo'lib, unda kishilar dam olish, biznes qilish, boshqa xalqlar madaniyatini o'rganish kabi boshga maqsadlar uchun odatiy bo'lgan muhitdan tashqaridagi joylarga sayohat qilish tushuniladi. Hozirgi shiddatli zamonda turizmning bir gancha turlari mavjud. Jumladan, rekreatsion turizm, biznes turizm, ekskursiyaviy turizm, ekstremal turizm, madaniy va ma'rifiy turizm, VIP turizm, ya'ni qimmatli dam olish maskanlariga tashrif buyurish, ekoturizm, tog' turizmi, etnik turizm, dengiz turizmi va boshqalar. Turizmning har bir turidan o'ziga yarasha shiddat zavqini, o'ziga ishonch hissini, jasorat va ma'naviyat kuchini, qiyinchiliklari yengib o'tish va boshga o'ta marog'li tarbiyaviy, ibratli his-tuyg'ularni olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, turizm mamlakatdagi bir gator mintagalarning iqtisodiyoti va madaniyatiga faol ta'sir ko'rsatishdi. Masalan, turizmni faoliyat ko'rsatishi tizimining, sayyohlarga savdo, ijtimoiy-maishiy, madaniy, tibbiy xizmat ko'rsatishning rivojlanishi bilan yaqindan bog'liqdir.

Turizm boshqa sohalarga nisbatan tez taraqqiy etadigan tarmoqdir, chunki bu soha mamlakatimiz uchun unchalik katta investisiyani talab qilmasdan rivojlanishi mumkin bo'lgan sohadir. Boshqa sohalarda, jumladan havo, temir yo'l, avtomobil transporti, ovqatlanish va savdo shahobchalari, mehmonxonalar rivoj topsa o'sha joyda turistik ob'ektlar mavjud bo'lsa bemalol turizmni rivojlantirish mumkin. Turizm sohasidagi mutaxassislarining fikricha, u XXI asrda dunyo miqyosida eng ustuvor foyda keltiruvchi sohaga aylanadi. Hozir u dunyo bo'yicha avtomobilsozlik va neftni qayta ishlash sohasidan keyin uchinchi o'rinni egallab turibdi. Bu soha dunyo sanoati va qishloq xo'jaligidan o'sib ketdilar. Turizmning tez rivojlanishiga yana bir sabab, u yuqori darajadagi katta ilmiy tadqiqot xarajatini va quvvatni ko'p sarf qiladigan texnologiyani talab qilmaydi. Biroq, turizm boshqa sohalarni rivojlantirishni taqozo qiladi. Shu tufayli ushbu soha bilan ko'pgina xizmat ko'rsatuvchi sohalarda bir-biri bilan uzviy bog'liq ravishda rivoj topmog'i lozim. Turizmning yuqori daromad keltiruvchi soha bo'lganligi tufayli ko'pgina davlatlar va tadbirkorlar uning rivojlanishi uchun katta e'tibor bermoqdalar. Ular yangi-yangi mehmonxonalarni qurmoqda, eskilarini

rekonstruksiya qilib ta'mirlamoqda, qaysiki ularni ham jahon standartlari talablariga moslashtirmoqda. Bunga birgina Samarqand shahrida qurilgan o'nlab shaxsiy mehmonxonalarni misol keltirish mumkin. Ular hech kimning ta'ziqi yoki ko'rsatmasiz o'z tashabbuslari bilan qurilgan ob'ektlardir. Maqsadi shu sohani rivojlantirib katta foyda olish. Bu esa o'z navbatida, turizmni rivojlantirish uchun eng muhim omillardan biridir. Bugungi globallashuv jarayonida qariyb barcha mamlakatlar iqtisodiy faoliyatida turizm sektori yuqori daromad manbai sifatida alohida ahamiyatga ega. Mazkur sohaning mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga ta'siri nafaqat valyuta tushumi, ish o'rni yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, balki ajdodlardan meros qolgan madaniyat va qadryatlarning saqlashning bosh omilidir.

Turizm rivojlanishidagi hozirgi zamon tendentsiyalari uning ham jahon iqtisodiyotiga ham alohida mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyotiga ta'siri ortib borayotganligini ko'rsatmoqda. Turizm aholining o'ziga hos ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirib milliy iqtisodiyotning yirik mustaqil sohaga aylanib bormoqda. Ushbu ehtiyojlarning xilma xilligi tufayli nafaqat turistik korxonalar balki boshqa soha korxonalari ham qatnashib xalq xo'jaligi kompleksi rivojiga multiplikativ ta'sir etadigan omillardan biri sifatida turizm namoyon bo'ladi. Bundan tashqari turizm insonlarning asosiy ehtiyojlaridan biri bo'lib, insonlarga fan texnika taraqqiyoti jadal rivoji, mehnat intensivligi natijasida vujudga keladigan his-hayajon va psixologik salbiy ta'sirlarni kamaytirishda sezilarli ko'mak beradi. Ko'pgina mamlakatlardan farqli o'laroq turizm sohasi yetarlicha rivojlanmagan O'zbekistonda turizm industriyasi rivoji pul tushumlari ko'payishi, ishsizlik darajasini pasaytirish, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy holatini barqarorlashtirishning bir yo'nalishi sifatida davlat tomonidan tartibga solish jarayonlarini faollashtirish, turistik xizmatlar bozorini o'rganish, turistik ta'lim tizimini kengaytirish, muayyan mintaqalar rivojini ta'minlaydigan dasturlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Turizm umumiy iqtisodiy o'sishga kam rivojlangan hududlarning rivojlanishiga ko'maklashadi. Yaxshi rivojlanmagan hududlarda turistik markazlar ochish ko'pgina davlatlarning asosiy usuli xisoblanadi. Tog' va qishloq joylarida turistik markazlarning tashkil qilinishi shu joylarning o'zlashtirilishiga aholi turmush sharoitining qandayligiga bog'liq. Turizm rivojining kelajagini aniqlash uchun avvalo moddiy-texnika bazasi, turistik resurslar ko'lamini mazkur turistik maxsulotga bo'lgan talabni chuqur o'rganish lozim. Bu ishda turistik resurslar bahosini haddan tashqari oshirib yubormaslik lozim. Masalan, ma'lum bir mintaqadagi tarixiy yodgorlik faqat shu joyning o'zi uchungina qiziqarli bo'lishi mumkin, xalqaro maydonda esa boshqa ko'plab yodgorliklarning u qadar ahamiyati bo'lmasligi turistlarni o'ziga jalb qilmasligi mumkin va shuning uchun ham bunday tumanlarda moddiy texnika bazasini yaratishdan ko'p foyda olish amri mahol. Shunday qilib, tumanda barpo etilgan turistik markaz uning rivojlanishiga olib keladi.

"O'zbekiston bo'ylab sayohat qil" dasturining amalga oshirilishi mamlakatda sayyohlik madaniyatining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Mamlakatda ichki sayyohlarning umumiy soni 2016-yildagi 8,8 milliondan 2019-yilda 14,7 millionga, 2021-yilda esa 15 milliondan oshgan. Bu haqda Turizm va madaniy meros vazirligi ma'lum qildi. So'nggi 4 yil ichida O'zbekistonda 833 ta yangi mehmonxonalar: yirik, o'rta va kichik mehmonxonalar foydalanishga topshirilgan. Joylashtirish fondlarining umumiy soni 1442 taga yetgan. Bunda

xonalar soni — 33,4 ming donani tashkil etayotgan bo'lsa, undagi o'rinlar — 71,2 taga yetkazilgan. Ayni paytda O'zbekistonda yuzlab yangi mehmonxona loyihalari barpo etilmoqda, ular yaqin kelajakda foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

2022-yil mart oyida O'zbekistonda barcha toifadagi mehmonxonalar va hostellarni o'rtacha band qilish bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlili ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatgan. 28—30-mart kunlari – uch kunlik davrdagi yuklama respublika bo'yicha 70,8 foizdan ortiq, Toshkent shahrida 83,6 foiz, Samarqandda 62,3 foiz, Qoraqalpog'istonda 93,9 foiz, Xorazmda 56,3 foiz, Buxoroda 46 foizni tashkil etgan. Bu juda yaxshi ko'rsatkichlar bo'lib, turizm industriyasining o'sishidan, mehmonxona biznesi uchun esa rentabellikning tez tiklanishidan darak beradi.

2017-yilda mehmonxonalarning bandlik darajasi 39,3 foizni, 2019-yilda – 53,1 foizni, pandemiyaning o'tkir davrida – 22,1 foizni, o'tgan yili bandlik ko'rsatkichi 36,3 foizni tashkil etgan.

2019–2022-yillarda O'zbekistonda bo'lgan sayyohlar sonining tahlili sezilarli tiklanish dinamikasini ko'rsatmoqda, garchi 2022-yilda bu ko'rsatkich 15 foizga ortda qolayotgan bo'lsa-da, xonalar soni 2019-yilga nisbatan 26 147 o'rindan 33 411 tagacha, ya'ni 7264 ta mehmonxona xonasiga (21,7 foiz) oshgan. O'zbekiston mehmonlari orasida mahalliy sayyohlar va mamlakat fuqarolaridan tashqari rossiyaliklar — 23,4 foiz, qozog'istonliklar – 18,9 foiz, tojikistonliklar – 14,4 foiz, turkiyaliklar — 7,7 foizni tashkil etdi. Mehmonxonalarda yashovchi barcha xorijliklar: qirg'izistonliklar — 6,3 foiz, belarusliklar — 4,6 foiz, xitoyliklar — 3,2 foiz, fransiyaliklar — 1,7 foiz. 2019-yilning pandemiya davrida 84,8 ming nafar chet el fuqarosi yashagan bo'lib, umumiy ulushda eng ko'p rossiyaliklar — 16,8 foizni, qozog'istonliklar — 15 foizni, tojikistonliklar — 6,3 foizni, xitoyliklar — 6,1 foizni, afg'onistonliklar — 5,7 foiz, turkiyaliklar — 5,5 foizni tashkil etgan.

Ayni paytda O'zbekiston chet el sayyohlari uchun to'liq ochiq. Bu borada barcha cheklovlar olib tashlandi. O'zbekistonda turizm sohasining jadal tiklanishida ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda va yuqoridagi raqamlar 2022-yil oxiriga kelib 4,5 million nafargacha xorijiy sayyohlar mamlakatimizga kirib kelishini ko'rsatmoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi, aholini turmush kechirish sharoitlarini yaxshilanishida, xalqaro maydonga chiqishi va unda munosib o'rin egallashida barcha sohalar bilan bir qatorda turizm sohasini ham o'rni salmoqlidir. Hozirda kishilar orasida turizmni keng targ'ib qilish maqsadida yurtimiz teleekranlarida O'zbekiston turizm salohiyatini, turli xil gadamjolarini, turistik maskanlarni, markazlari, yurtimizning g'aroyib, afsonaviy joylarini kecha-yu kunduz targ'ib qiluvchi, sayohatga doir turli xil ko'rsatuvlar namoyish etilmoqda, turizmni rivojlantirish bo'yicha subsidiyalar va boshqa rag'batlantirish vositalari ham qo'llanilmogda. Xorij davlatlardagi elchilar mamlakatimiz, milliy qadriyatlarimiz targ'ibotchilari bo'lishi, bunga chet eldagi vatandoshlarimiz ham hissa qo'shishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sulaymonov, J. Abdurahmon ibn Xalduinning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili/Academic Research in Educational Sciences, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.

2. <https://daryo.uz/>

ZIYORAT TURIZM: MAVJUD RESURSLAR VA ULARNING TASNIFI

Ahmedov Jasurbek Mahmudjon o'g'li
Qo'qon Universiteti talabasi,
Umarov Omonjon
Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda jadal rivojlanayotgan turizm turlaridan biri bo'lmish ziyorat turizm va mamlakatimizda mavjud bo'lgan resurslar haqida so'z boradi hamda u mualliflar xulosasi bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: Samarqand, Buxoro, Ziyorat turizm, qadamjolar, obyektlar.

Ziyorat turizm - turli din vakillarining ziyorat maqsadidagi sayohatlari majmuidir. An'anaga ko'ra, u diniy maqsadli sayohatlarga taalluqlidir, lekin u ziyoratchi uchun aloxida ahamiyatga ega bo'lgan dunyoviy sayoxatga ham tegishli bo'lishi mumkin. Ziyorat turizm ahamiyatini ikki xususiyatga ko'ra asoslash mumkin: ziyorat turizmi ziyoratgoh uchun qanchalik muhim ahamiyat kasb etadi. Ziyoratchilar uchun ziyorat turizmi qanchalik muhim? Ziyorat ko'plab insonlar uchun qiyin paytlarda ruhiy ozuqa olish imkoniyati bo'la oladi.

Insonlar diniy-dunyoviy ma'rifatni xis qilish uchun ma'lum manzillarga sayohat qilishadi. Ko'pincha uzoq va ba'zan qiyin bo'lgan sayoxat insonlar uchun fikr yuritish imkoniyatidir.

Hozirgi kunda keng tarqalgan ziyorat turizm sohasi hisoblanadi. Ziyorat turizmi mohiyatan ziyoratgohlarni ziyorat qilish jarayonidir. Odatda, ziyoratlar diniy maqsadlar uchun kunlar, haftalar yoki hatto oylar davomida olib boriladigan uzoq safarlarni tashkil qiladi. Ular butun bir sayohatni o'z ichiga olib, e'tiqodli odamlar o'z dinlari bilan munosabatlarini mustahkamlash uchun boradigan maskanlardir. Ziyorat turizmi tashrif buyurish mumkin bo'lgan shahar yoki ma'lum hududdagi masjidlar va cherkovlarga yoki boshqa diniy diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurishni o'z ichiga olishi mumkin. Ziyorat turizmi turistlarni diniy munosabat va urf-odatlariga erishish uchun to'liq yoki kuchli turtki beradigan turizm turidir.

O'zbekiston dunyo miqyosida muqaddas qadamjolariga boy mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida islom ilmlari rivojida beqiyos o'rin tutgan buyuk mutafakkirlar xoki abadiy qo'nim topgan manzillarni o'rganish, ularni obodonlashtirish ishlari olib borildi, ushbu manzillar ziyorat qiladigan maskanlarga aylantirildi. Bunday qadamjolar nafaqat O'zbekiston aholisi, balki butun islom olami uchun muqaddas hisoblanadi. Hozirgi kunda Samarqand viloyatida 1851 ta moddiy-madaniy meros obyekti mavjud bo'lsa, Buxoro viloyatida ularning soni 829 tani tashkil etadi. Bular orasida ziyorat qilinishi mumkin bo'lgan muqaddas joylar ko'pchilikni tashkil etadi. Xususan, birgina Buxoro viloyatida joylashgan obyektlar orasida 105 ta masjid va 14 ta maqbara mavjud bo'lib, ularda ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari yuqori hisoblanadi. Mazkur omillar so'nggi to'rt yil davomida O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish, uni jahon miqyosiga olib chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Ammo, shunga qaramasdan bu borada o'z yechimini kutayotgan masalalar mavjud bo'lib, ularning tahlili bu borada ayrim taklif va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini

berishi mumkin. Shu sababdan sohada amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalarini ilmiy tahlil etish muhim ahamiyatga ega.

2017-yilda O'zbekistonda sayyohlikning alohida sohasi bo'lgan ziyorat turizmini rivojlantirish va jahonga tanishtirish bo'yicha tizimli ishlar boshlab yuborildi. Jumladan, 2017-yil 16-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Bu hujjat bilan O'zbekistonga sayohat qilishni yengillashtirish, turizm infratuzilmalarini rivojlantirish va yangi turistik obyektlarni tashkil etishga qaratilgan 2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Bundan tashqari, mazkur qaror asosida bir oy muddat ichida fuqarolariga 2018 yilning 1 yanvaridan viza tartibini soddalashtirish taklif etilayotgan mamlakatlar hamda fuqarolariga maxsus ziyorat turizmi dasturlari taklif etiladigan davlatlar ro'yxatini shakllantirish, shuningdek, Malayziya, Indoneziya va boshqa mamlakatlardan O'zbekistondagi muqaddas qadamjolarga ziyorat turizmi yo'nalishida sayyohlar jalb qilish bo'yicha ishlarni faollashtirish, bu borada kerakli reklama tadbirlarini o'tkazish, logistika, jumladan, charter reyslarini tashkil etish va boshqa vazifalar belgilandi.

Bundan tashqari, yurtimizga tashrif buyurayotgan ziyoratchilarga qulaylik yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining "Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish markazi" davlat unitar korxonasi tomonidan yangi davlat standarti ishlab chiqildi. Mazkur hujjat asosida 2018 yilning 1 yanvaridan turistik xizmatlar, joylashtirish vositalari, umumiy talablar bo'yicha standart kuchga kirdi. Yangi qoidalarga ko'ra, har bir mehmonxonaning umumiy xonalar sonining kamida o'ndan birida Qur'oni karim, ibodat qilish uchun joynamoz hamda kamida 30 foizida qibla ko'rsatgichi qo'yilishi shart qilib belgilandi.

Bu davrda O'zbekistonga keluvchi sayyohlar uchun viza rejimini yengillashtirish bo'yicha ham ishlar amalga oshirildi. Shu maqsadda 2018 yil 3 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Unga muvofiq, Indoneziya, Malayziya, Singapur, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya va Isroil fuqarolari uchun vizasiz rejim joriy qilindi. Shuningdek, 39 mamlakat fuqarolari uchun soddalashtirilgan viza tartibi joriy etildi. Vizasiz kiruvchi xorijliklar safiga 2019 yil mart oyidan tojikistonliklar, oktyabrdan fransiyaliklar ham qo'shildi.

Bundan tashqari, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan Toshkent shahrida ziyorat turizmini rivojlantirish, ro'yxatga olingan 15 ta diniy muassasaga tashrif xaritalari ishlab chiqildi. Indoneziya va Malayziya sayyohlik agentliklari va mehmonlariga mo'ljallangan halol ovqatlanish joylari, milliy oshxonalar, restoranlar, oilaviy tashrif joylari xaritasi tayyorlandi. Shuningdek, yurtimizda ilk bor ziyorat turizmi sohasi uchun zarur bo'lgan "Halol" standarti joriy etildi.

Xulosa qilib aytganda ziyorat turizm azal-azaldan shakillangan turizm turidir. Ziyorat turizm, madaniy turizmga uzviy bog'liq. Hozirda xar bir inson o'z tarixini va jahon tarixini bilishi lozim. Bu turizm turi odamlarga emotsiya beradi ruhlantiradi, hayotga real qarashga undaydi va har bir kishini yetuk bo'lishiga sababchi bo'ladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" <https://lex.uz>
2. <https://religions.uz>
3. <http://madaniyat.uz>
4. <https://www.gazeta.uz>
5. <http://muslim.uz>

BARQAROR IQTISODIY O'SISH - BARQAROR RIVOJLANISH GAROVI**Umarova Mohinur****Toshkent pediatriya tibbiyot instituti****4-bosqich talabasi**

Annotatsiya: Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda makroiqtisodiy siyosatni yanada takomillashtirish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiyotni barqarorlashtirish, milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar va diversifikatsiyalash yo'nalishlarini kengaytirish kabi chora-tadbirlarning ahamiyati kattadir. Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda qabul qilinayotgan davlat dasturlari, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishida vujudga kelgan nomutanosibliklarni hal qilinishi, iqtisodiyotning tarmoq tuzilishini takomillashtirish va uning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish mamlakatimiz oldida turgan muhim vazifalardandir.

Kalit so'zlar: iqtisod, resurs, jamiyat, qonun, kapital, globallashtirish, taraqqiyot, korxonalar, tabiiy resurslar, barqaror rivojlanish, iqtisodiy o'sish

Xalqning turmush darajasini oshirish, erkin va farovon hayotni qurishda milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash va jamiyat a'zolarining daromadlarini oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy o'sish muayyan davr mobaynida mamlakatda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish darajasining ijobiy o'zgarishidir. Boshqacha aytganda, iqtisodiy o'sish bu milliy iqtisodiyotda muayyan davr davomida (odatda bir yil) mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining oshishidir.

BMT va uning O'zbekistondagi sheriklari "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ga erishish ustida ish olib bormoqda: ular O'zbekiston va butun dunyo aholisi duch kelayotgan asosiy muammolarni hal etishga qaratilgan 17 ta o'zaro bog'liq va ulkan maqsaddan iborat. O'zbekiston 2030-yilgacha bo'lgan davrdagi global kun tartibida qo'yilgan vazifalarni bajarish va "Barqaror rivojlanish maqsadlari" sohasidagi 16 ta milliy maqsadga erishish uchun ko'plab manfaatdor tomonlar ishtirokidagi sheriklikka keng qamrovli yondashuvga sodiq ekanini tasdiqladi. Joriy o'rta muddatli reja, 2017 - 2021-yillarga mo'ljallangan milliy harakatlar strategiyasi BRMni amalga oshirishda dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Barcha vazirliklarda BRM ustuvorligini ta'minlash uchun 2018-yil oktabrida hukumat 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun kun tartibini haqida qaror qabul qildi, ayni qaror BRMni milliy strategiyalar va dasturlar bilan muvofiqlashtirish ishiga sodiqlikni tasdiqladi. Hukumat 16 ta milliy BRM, 125 ta vazifa va 206 ta ko'rsatkichni ularni amalga oshirishni yengillashtirish uchun ma'qulladi. Barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlar Yer yuzida qashshoqlikka barham berish, atrof-muhit va iqlimni himoya qilish hamda dunyodagi barcha kishilar tinchlik va ravnaq topishdan bahramand bo'lishini ta'minlash bo'yicha global miqyosda harakat qilishga da'vatdir.[1] Mamlakat faoliyati qaysi sohaga yo'naltirilganligiga qarab, barqaror rivojlanish u yoki bu tarzda etakchilik qiladi. Mamlakat barqaror rivojlanib, jamiyat taraqqiyoti va gullab-yashnashi uchun oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va ish kabi asosiy ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish zarur, chunki agar ijtimoiy qashshoqlik tarqalayotgan bo'lsa yoki odatiy narsa bo'lsa, qolgan ikki yo'nalish harakatni rivojlantirish mumkin emas.[2] Iqtisodiy barqarorlik - ushbu barqarorlik, joyning faoliyati yo'naltirilganida paydo bo'ladi ekologik va ijtimoiy

barqarorlik. Ijtimoiy va ekologik muammolarni foydali va moliyaviy jihatdan uyg'unlashtirishga harakat qiladi.

Ijtimoiy barqarorlik - ijtimoiy barqarorlik haqida gapirganda, biz ijtimoiy birdamlikni ta'minlash va ishchilarning umumiy rivojlanish maqsadlariga erishish ko'nikmalarini nazarda tutamiz. Buning uchun ular kerak barcha salbiy ijtimoiy ta'sirlarni bartaraf etish turli xil faoliyatni keltirib chiqaradigan va ijobiy tomonlarni kuchaytiradigan. Bu, shuningdek, mahalliy jamoalarning yashash sharoitlarini yaxshilash bo'yicha olib borilayotgan faoliyatni rivojlantirish uchun imtiyozlar olishlari bilan bog'liq.

"Iqtisodiy o'sish" va "iqtisodiy rivojlanish" tushunchalari o'rtasida farq mavjud albatta. Iqtisodiy o'sish deganda moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishning miqdoriy jihatdan ko'payishini tushunsak, iqtisodiy rivojlanish deganda esa iqtisodiy o'sishga nisbatan kengroq tushunchani, ya'ni nafaqat ishlab chiqarish hajmining ortishini, balki aholi turmush darajasi o'sishini va iqtisodiyotda bo'layotgan turli xildagi o'zgarishlarni ham ifodalaniishi tushuniladi. Iqtisodiy rivojlanish - iqtisodiy o'sishga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, u nafaqat ishlab chiqarishning ortishini, balki uning kamayishini hamda iqtisodiyotdagi o'zgarishlarni ham ifodalab keladi. Iqtisodiy rivojlanish ko'p tomonli jarayon hisoblanadi hamda texnik, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi o'zgarishlarni o'z ichiga qamrab oladi. "Iqtisodiy o'sish" tushunchasiga muqobilik sifatida ba'zida aholining turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkich namoyon bo'lishi mumkin. Iqtisodiy rivojlanish ko'p jihatli jarayon hisoblanib, o'z tarkibiga texnik, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi o'zgarishlarni qamrab oladi. Iqtisodiy o'sish ekstensiv va intensiv turlarga bo'linadi. Ekstensiv iqtisodiy o'sish moddiy ishlab chiqarishda foydalaniladigan resurslar hajmining oshishi natijasida kelib chiqadi. Boshqacha aytganda, ekstensiv iqtisodiy o'sish tabiiy resurslar, ishchi kuchi va kapital kabi ishlab chiqarish omillarini qo'shimcha jalb qilish va faqat ularning miqdoriy oshishi hisobiga ro'y beradi. Bunda ularning sifat va texnikaviy darajasi o'zgarimasdan qoladi. Intensiv iqtisodiy o'sish esa ilmiy-texnikaviy bazani takomillashtirish va barcha ishlab chiqarish omillaridan yanada samarali foydalanib mehnat unumdorligini oshirish orqali ta'minlanadi. Real hayotda esa ekstensiv yoki intensiv o'sish alohida sof holda uchramaydi, balki o'zaro ta'sirlashadi va aralash holatda uchraydi. Ekstensiv va intensiv iqtisodiy o'sish turlarining xususiyatlarini tizimlashtirib quyidagicha ifodalash mumkin. Iqtisodiy o'sish doimo iqtisodiy va noiqtisodiy omillar ta'siri natijasida kelib chiqadi. Iqtisodiy o'sish omillari deb ishlab chiqarishning real hajmi oshishi, uning samaradorligi va sifatini oshirish imkoniyatlarini aniqlab beruvchi hodisa va jarayonlarga aytiladi. Iqtisodiy omillarga foydalanilayotgan resurslar miqdorini oshirish va sifatini takomillashtirish omillari kirsam, noiqtisodiy omillar o'z ichiga siyosiy, harbiy, geografik, iqlimiy, milliy va madaniy omillarni oladi.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir qilish mexanizmiga ko'ra esa omillar bevosita va bilvosita omillarga bo'linadi. Bevosita iqtisodiy o'sish omillarini beshta guruhga ajratish mumkin: mehnat resurslari soni va sifati, asosiy kapitalning samaradorligi, tabiiy resurslar miqdori va sifati, boshqaruvning samaradorligi, texnologiyalar samaradorligi. Bilvosita iqtisodiy o'sish omillariga esa talab va taqsimlash omillari kiradi: bozorlar monopollashuv darajasining pasayishi, ishlab chiqarish resurslari narxlarining pasayishi, soliqlar darajasining pasayishi, kredit olish imkoniyatining kengayishi va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasida barqaror iqtisodiy o'sish degan tushuncha ham mavjud bo'lib, u barqaror rivojlanishning alohida

tarkibiy qismi hisoblanadi. Barqaror iqtisodiy o'sish mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlarining ma'lum yillar davomida (odatda besh yil) ijobiy va o'zaro muvofiq o'sish dinamikasidan vujudga keladigan iqtisodiy o'sishdir.[3]

Mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sish yo'liga o'tishi ko'p jihatdan ushbu mamlakatning jahon iqtisodiyotiga samarali integratsiyalashuvi bilan bog'liq bo'ladi. Yangi industrial mamlakatlarning tajribasini qiyosiy taqqoslaganda import o'rnini qoplash siyosatiga nisbatan eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy o'sish modeli samaraliroqligini ko'rishimiz mumkin. Shu sababli mamlakatlar tashqi savdo yo'lidagi to'siqlarni olib tashlash va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashishga harakat qilishadi. Ushbu holat jahon iqtisodiyotining o'sishi sharoitida ommaviy tus oladi. 2010-2016 yillarda jahon iqtisodiyotida o'rtacha yillik o'sish 3% ni tashkil etdi. 2017-yilda ushbu ko'rsatkich 3,8 %ga teng bo'lgan bo'lsa, 2018 va 2019-yilda 3,9 %ga yetishi prognoz qilinmoqda.[4] Ushbu holat jahon iqtisodiyoti ochiqlik darajasining o'sishiga turtki bo'ldi. Real iqtisodiy o'sish mohiyati iqtisodiyotining asosiy ziddiyatlarining yangi darajasida qayta tiklash va ruxsat berishdan iborat bo'lib: ishlab chiqarish resurslarining cheklanmaganligi va jamiyat ehtiyojlarining cheklanmaganligi orasida namoyon bo'ladi.[5]

Xulasa qilib aytganda, iqtisodiy o'sish deganda moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishning miqdoriy jihatdan ko'payishini tushunsak, iqtisodiy rivojlanish deganda esa iqtisodiy o'sishga nisbatan kengroq tushunchani, ya'ni nafaqat ishlab chiqarish hajmining ortishini, balki aholi turmush darajasi o'sishini va iqtisodiyotda bo'layotgan turli xildagi o'zgarishlarni ham ifodalanishi tushuniladi. Iqtisodiy rivojlanish - iqtisodiy o'sishga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, u nafaqat ishlab chiqarishning ortishini, balki uning kamayishini hamda iqtisodiyotdagi o'zgarishlarni ham ifodalab keladi. Iqtisodiy rivojlanish ko'p tomonli jarayon hisoblanadi hamda texnik, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi o'zgarishlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uzbekistan.un.org/uz/sdgs>
2. https://www.renovablesverdes.com/uz/barqaror-rivojlanish/#Caracteristicas_del_desarrollo_sostenible
3. Mo'minov A. «Iqtisodiy o'sish va uning omillari nimalardan iborat» //O'zbekiston ovozi. 2016-yil 20-may.
4. World Economic Outlook. April 2018. Cyclical Upswing, Structural Change. IMF. p.240
5. «Iqtisodiy o'sish» fanidan ma'ruzalar matni, Termiz 2009-yil, 4-bet

O'ZBEK TURIZMIDA QASHQADARYO TURIZM SALOHIYATI

Choriyev Jo'rabek
Qo'qon Universiteti talabasi,
Umarov Omonjon
Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyati— O'zbekiston Respublikasidagi tarixiy obidalar hamda rekreatsion resurslar imkoniyatlariga ega bo'lgan hududdir. Ushbu tezisda aynan Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyati keltirib o'tilgan hamda xulosa muallif tomonidan bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tarixiy ob'ektlar, dam olish maskanlari, agroturizm, obida, festival

Qashqadaryo viloyatida Respublikadagi jami tarixiy obidalarining 17,76% joylashgan. Qashqadaryo viloyatda bugungi kunda 1 ming 468 madaniy meros obyekti ro'yxatga olingan bo'lib, ularning 1 ming 189 tasi arxeologiya, 208 tasi arxitektura, 43 ta monumental yodgorliklar, 34 tasi diqqatga sazovor joylar[1] hisoblanadi. "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora tadbirlari" to'g'risidagi 2021-yil 9-fevral sanasidagi PF-6165 son Farmoning 9-bandiga muvofiq Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirish va infratuzilmani yaxshilash maqsadida Qashqadaryo viloyati hokimligi byudjetdan tashqari 200 mlrd so'm mablag' ajratilgan. Qashqadaryo viloyatida tarixiy obidalar soni asosan Shahrisabz, Qarshi va Kitob tumanlarida ko'p uchraydi. Shahrisabz shahri UNESCO butun jahon ma'daniy merosligiga kiritilgan. Qashqadaryo viloyatida o'zining uzoq o'tmishiga ega ekanligi sabab tarixiy obidalar soni va ilmiy yangiligi turfa xillikni tashkil etadi. Qashqadaryo viloyatida tarixiy obidalar soni hududlar kesimida turlicha hisoblanadi. Bugungi kunda viloyatda 48 ta mehmonxona, 194 ta mehmon uylari, 16 ta hostellar turistik qatlam uchun xizmat ko'rsatmoqda. Hududda 17 ta yirik turistik ob'ektlar mavjud bo'lib, yil davomida 700 mingdan ortiq turistlarni o'zida qabul qiladi. Ma'lumot uchun, Qashqadaryodagi "Varganza" qishlog'i viloyatdagi birinchi agroturizm qishlog'i hisoblanadi. Bu yerda 2019-yilda birinchi marta "Anor" xalqaro agroturizm festivali bo'lib o'tgan va qishloqqa "agroturizm qishlog'i" maqomi berilgan. Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi "Bashir" qishlog'i turizm qishlog'iga aylantirilmoqda. "Hazrati Bashir" ziyoratgohi aynan shu qishloqda joylashgan. Qayd etish lozimki, 2022-yilda "Hazrati Bashir" ziyoratgohiga 400 000 nafardan ortiq mahalliy va xorijiy turist tashrif buyurgan. Ushbu maskan nafaqat betakror tabiati, balki o'ziga xos tarixi bilan ham e'tibor jalb qilib keladi.

Qashqadaryo O'zbekistondagi o'zining go'zal tabiati, tarixiy obidalari va madaniy merosi bilan mashhur hududdir. Bu yerda Shahr-i Sabzning qadimiy xarobalari, Nurota tog'larining tabiiy issiq buloqlari, Gulkam kanyonining manzarali sharsharalari, Kasbi shaharchasining an'anaviy hunarmandchiligi kabi sayyohlar uchun keng ko'lamlı diqqatga sazovor joylar mavjud. Oqsaroy — Shahrisabzdagi me'moriy yodgorlik (1380—1404). Amir Temur qurdirgan. Shaharning shim.sharqidagi bosh maydonda joylashgan. Bir za-monlar muhtasham, xashamatli bo'lgan bu saroyning bizgacha yemirilib, haroba holga kelgan ulkan peshtog'i, ikki chekkasidagi minorasi, saroy poydevorining bir qismigina saqlangan. Oqsaroyning hozirgi ko'rinishi ham salobatli va go'zaldır. Bu salobatlılik va go'zallikka

g'ishtlarning yaxlit bo'lib ko'rinishini ta'minlash — old va shim. de-vor yuzasini sirkor parchinlar bilan bir tekisda ishlash tufayli erishilgan. Peshtoq ravog'ining eni 22,5 m, balandligi 40 m, umumiy balandligi 50 m dan oshadi. Peshtoq minorasi ichidagi aylanma zina orqali yuqoriga chiqilgan. Ulug'bek Mirzo otasi Shoxrux Mirzo nomidan qurdirgan (1434-1435). Peshtoq ravog'ida ularning nomlari va qurilish vaqti bitilgan tarixiy yozuvlar saqlangan. Ko'k gumbaz masjidi Dorut-tilovat ansambli tarkibidagi asosiy jome masjid hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va yangi ish o'rinlari yaratish strategiyasi doirasida Qashqadaryo va mamlakatimizning boshqa hududlarida turizmni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda. Ayniqsa, Qashqadaryo turizmi mintaqaga sayyohlarni jalb etish va O'zbekistonning umumiy turizm industriyasiga hissa qo'shishda muhim ahamiyat kasb etishi kutilmoqda. Qashqadaryoga turistlar borishini 10 sababi mavjud.

1. Oqsaroy ziyoratgohi: Shahrisabz tumanidagi Sohibqiron Amir Temur davrida qurilgan me'moriy yodgorlik (1380-1404). Shahar bosh maydonida joylashgan. Uning old tarafida Amir Temur haykali bunyod etilgan. Bir zamonlar muhtasham, xashamatli bo'lgan bu saroyning bizgacha yemirilib, xaroba holga kelgan ulkan peshtoqi, ikki chekkasidagi minorasi, saroy poydevorining bir qismigina saqlangan. Oqsaroyning hozirgi ko'rinishi ham salobatli va go'zaldir. Peshtoq ravog'ining eni 22,5 metr, balandligi 40 metr, umumiy balandligi 50 metrdan oshadi. Peshtoq minorasi ichidagi aylanma zina orqali yuqoriga chiqilgan. Devonxona peshtog'ida arslon va quyosh tasviri va Temur davlatining uch halqa shaklidagi nishoni bo'lgan. Oqsaroy devorlaridagi ranglar jilosi, tarixiy, falsafiy va diniy mavzudagi, kufiy, suls yozuvlari, koshinkori bezaklar, naqshlarning o'zaro uyg'unligi binoga ajoyib va sehrli mazmun bag'ishlagan. Ranglarning oy yorug'ida jilolanib oqarib ko'rinishidan bino "Oqsaroy" deb nomlangan. Saroyning o'ziga xos xususiyatlaridan biri-tom tepasiga ishlangan hovuzdir. Bu yodgorlikni ko'rish uchun har yili dunyoning turli burchaklaridan minglab sayyohlar keladi.

2. Mirzo Ulug'bek nomidagi xalqaro kenglik stansiyasi: Kitob tumani Xalqaro parallelda (39 gradus 08 minut) o'tuvchi yagona aholi yashaydigan joy. Bu hududda jahonda sanoqli kenglik rasadxonalaridan biri qurilgan. Ushbu rasadxonada ko'plab yangi sayyoralar kashf etib kelinmoqda.

3. Langar ota ziyoratgohi: Istiqloq yillarida ta'mirlanib, ziyoratchilar bilan gavjumlashgan Hazrati Langar ota ziyoratgohi Langar ota qishlog'ida joylashgan. Dengiz sathidan salkam 1000 metr balandlikda, XVI asrning oxiri XVII asrning boshlarida Ashtarxoniyalar davlati hukmdorlari tomonidan barpo etilgan qo'sh maqbara Shayx Abul Hasan Ishqiya avlodlari Langar ota shayxlari maqbarasidir. Shiftdagi rangdor naqshlarda Sohibqiron Amir Temur bayrog'idagi "Abadiy hayot" ramzi shakllari naqshlangan. Shuningdek, Sulton Vayisdan qolgan ming yillik chinor va ul zotga daxldor Hukaktosh-Teshiktoshga chiqib, shifobaxsh Boshmanbuloq suvidan ichish mumkin.

4. Dinozavr izi: Hisor qo'riqxonasi yaqinidagi Qal'ai Sheron soyining tugash qismida baland ko'kimtir tosh qoyada Yura davriga oid 190-195 million yil avval yashagan 31 ta dinozavr izi mavjud.

5. Amir Temur g'ori : Markaziy Osiyoda chuqurligi va uzunligi jihatidan yagona bo'lgan g'or. Rivoyatlarga ko'ra, Sohibqiron Amir Temur o'zining otliq lashkari bilan ushbu g'orda bir

muddat dushman xavfidan saqlangan. Uzunligi 870 metr, kengligi 7-10 ba'zi joylarda 100 metrgacha yetadi. G'orning shiftlarida uzunligi 1,5-2 metr keladigan tabiat mo'jizasi - stallaktit (sumalak) lar mash'ala yorug'ida kamalak ranglarida jilolanadi.

6. Tandir go'sht: Qashqadaryoning eng mashhur va mazali taomi. Chapani va mehmondo'st qashqadaryoliklar kelgan mehmonni albatta, tandir go'sht bilan siylashadi. Haqiqiy tan madori bo'lmish bu taomning laziz ta'mi bir umrga og'zingizda qolishi turgan gap.

7. Suvtushar mo'jizaviy sharsharasi: Tabiatning go'zal in'omi hisoblanmish bu sharsharaning balandligi 84 metr. Dengiz sathidan 2 ming 100 metr yuqoridagi ulkan tosh qoyadan tushadigan suv parchalari go'zal qizni eslatadi. Shiddatli oqimdagi suv ko'pirib oppoq tusga kiradi. Shuning uchun mahalliy aholi uni "Sutshari" deb ham ataydi.

8. Tohir-Zuhra maqbarasi: G'uzor tumanida joylashgan ushbu maqbara buyuk muhabbat egalari Tohir va Zuhra tegishli. Bu ikki sevishganning muhabbat afsonasi tillarda doston bo'lgan. Ziyoratgohda nafaqat shu hududda yashovchi yigit-qizlar, balki diyorimizning turli burchaklaridan, hattoki, qo'shni respublikalardan tashrif buyurganlarni, kelin-kuyovlarni uchratish mumkin. Yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh-yalanglar ko'nglida chin muhabbat timsoli bo'lmish Tohir va Zuhra nisbatan ehtirom tuyg'ulari jo'sh urishi tabiiy. Chunki chin muhabbat qissasiga nisbatan qiziqish hech qachon so'nmaydi.

9. "Lochin" oromgohi: Dunyo mo'jizalarini tomosha qilish uchun, davlatlar bo'ylab sayohatga o'tlanish shart emas. Shahrisabzdagi "Lochin" dam olish maskanida ularning barchasini ko'rish mumkin. Parijdagi Eyfel minorasi, Rimdagi Kolizey binosi, yunonlarning Artemida ibodatxonasi, Hindistondagi Toj mahal, Samarqanddagi Registon va boshqa shu singari obidalarining nusxasi oromgohda bunyod etilgan. Ularning haqiqiyliklaridan yagona farqi o'lchamida xolos.

10. Chiyali bozori: Chiroqchi tumani o'zining Chiyali (Payshanba) bozori hamda "yaxna" taomi bilan mashhur. Chiyali bozori haqda eshitmagan kishi bo'lmas kerak. Hatto asarlarda ham uning dovrug'i tilga olingan. Har yakshanba kuni bo'ladigan bozor o'z davrida kamyob tovarlarning mo'l-ko'lligi bilan mashhur bo'lgan. Barcha viloyatlardan xaridorlar kelib, bozordan o'zlari uchun kerakli narsalarni xarid qilishadi.

Zamonaviy turistik joylardan biz Qarshi shahrida joylashgan Qarshi ko'prigini misol keltirishimiz mumkin. Qarshi ko'prigi - Qashqadaryo ko'prigi Qarshi shahri hududidan oqib o'tgan Qashqadaryo daryosi ustida qurilgan, shaharni ikkala qismini bir-biri bilan bog'laydigan ko'prik. Qarshi shahri ramzlaridan biri. Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan. Oxirgi marta 2016-yil ta'mirdan chiqqan. Bu yerda asosan yoshlar tashrif buyuradi. Kechki sayr uchun qulay joylardan biri deb takidlab o'tsak ham bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki Qashqadaryo O'zbekistonning xilma-xil tarixiy obidalari, go'zal tabiati va madaniy merosi bilan har yili ko'plab sayyohlarni o'ziga jalb etuvchi hududdir. Viloyatdagi tarixiy obidalarining aksariyati Shahrisabz, Qarshi va Kitob tumanlarida joylashgan bo'lib, Shahrisabz YuNESKOning Jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Viloyatda turizm sohasi yaxshi rivojlangan bo'lib, 48 ta mehmonxona, 194 ta mehmon uyi va 16 ta hostel tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatadi. Qashqadaryo o'zining agroturizmi bilan ham mashhur, Varganza qishlog'i mintaqadagi birinchi agroturizm qishlog'i hisoblanadi.

O'zbekiston hukumati iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yangi ish o'rinlari yaratish maqsadida Qashqadaryo va mamlakatimizning boshqa hududlarida turizmni rivojlantirishga harakat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi 846-sonli qarori". Lex.uz (4-oktabr 2019-yil)
2. "Qarshi shahrining 8 ta qadimiy me'moriy yodgorliklari". uzbekistan.travel. 2022-yil

MADANIY TURIZM VA TURIZMNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA QO'SHAYOTGAN HISSASI

Iqbolxo'jaev Amirxon
Qo'qon universiteti talabasi,
Umarov Omonjon
Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda jadal rivojlanayotgan turizm turlaridan biri bo'lmish madaniy turizm va uning mamlakatimiz iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasi haqida so'z boradi hamda u mualliflar xulosasi bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: Madaniy turizm, Covid-19, madaniy meros, iqtisodiyot

Madaniy turizm – bu sayyohlik faoliyatining bir turi bo'lib, unda sayyohning asosiy motivatsiyasi sayyohlik joyidagi moddiy va nomoddiy madaniy diqqatga sazovor joylarni, mahsulotlarni o'rganish, kashf etish, tajriba va iste'mol qilishdir. Ushbu attraksionlar, mahsulotlar jamiyatning o'ziga xos moddiy, intellektual, ma'naviy va hissiy xususiyatlari to'plamiga tegishli bo'lib, ular san'at va arxitektura, tarixiy va madaniy meros, milliy taomlar merosi, adabiyot, musiqa, ijodiy sohalar va tirik madaniyatlarni o'z turmush tarzi, qiymati bilan qamrab oladi. Tizimlar, e'tiqodlar va an'analar shular jumlasidan.

Madaniyat va turizm doimo uzviy bog'liq bo'lib kelgan. Madaniy diqqatga sazovor joylar va tadbirlar sayohat uchun muhim turtki bo'lib xizmat qiladi va sayohatning o'zi madaniyatni rivojlantiradi. Ammo so'nggi o'n yilliklardagi madaniyat va turizm o'rtasidagi bog'liqlik iste'molning o'ziga xos shakli – madaniy turizm sifatida yanada aniqroq belgilandi.

Yillar	Tashriflar soni	Daromad	Qarindoshchilik aloqalari	Madaniy turizm
2016	1.320.000	430 mln dollar	75%	5,4%
2018	2.700.154	1. mlrd dollar	73,2%	7,1
2020	1.504.952	261 mln dollar	81,8%	11%
2022	5.200.542	1.6 mlrd dollar	80,7%	14,2%
2025	8.000.000	2 mlrd dollar	79,1%	17,8%

Jadvaldan ko'rishimiz mumkinki turistlar soni yildan yilga barqaror o'sib borgan. Ammo 2019-2020 yillar davridagi turistlar soni kamaygan. Bunga sabab Covid-19 virusi sabab bo'lgan. Lekin shunda ham turistlar tashrif buyurgan. 2018 yildan buyog'iga turistlar keltirgan foyda va turistlar soni o'sgan. Bunga sabab O'zbekiston viza tizimidagi katta o'zgarishlar va qushni davlatlar bilan o'rnatilgan do'stona aloqalarni ko'rsatishimiz mumkin. Turistlar soni o'shishi bilan birga avtomatik tarzda ular keltiradigan iqtisodiyotimizga foydasi ham o'sib boradi. Jadvaldan shuni ko'rishimiz mumkinki iqtisodiyotimizga keltirayotgan foyda uildan yilga o'sib bormoqda. O'zbekiston iqtisodiga keltirgan foydasi 2022 yilda o'zining cho'qqisiga chiqdi. Kun.uz sayti prognoziga ko'ra 2025 yilda turistlar soni 8 mlnga chiqishi kutilmoqda.

Hozirgi kunda turizm davlatimiz iqtisodiyotiga katta foyda keltirmoqda, ayniqsa madaniy turizm shular jumlasida. Chunki yurtimizda ko'plab madaniy tarixiy obyektlar

mavjudligi ko'plab turistlarni etiborini jalb etmoqda. Uzbektourism.com so'rovnomasiga ko'ra ko'plab turistlar qarindoshlarini ko'rishga kelishgan, undan keying o'rinda madaniy turizmni ko'rish uchun tashrif buyurishgan. Turizm har bir davlat iqtisodiyoti uchun foyda keltirishi barchaga ravshan, ammo bu insonlar uchun ham katta foyda keltiradi. Bunga misol qilib yangi ish o'rinlarini keltirish mumkin va o'zimizning madaniyatimizni targ'ib qilish uchun ham yaxshi imkoniyat.

Xulosa qilib aytganda madaniyat va turizm doimo uzviy bog'liqligini tushunishimiz mumkin. Aynan turizmni iqtisodiyotimizga keltirayotgan foydasini ko'rib bu soxani rivojlantirishga katta mablag va katta ishlar olib borishimiz zarur. Bizga katta imkoniyatlar eshiklari ochiq. Butun yer yuzasida jadal rivojlanayotgan turizm turlaridan biri bu madaniy turizm. Bizning madaniy turizm turini rivojlantirish va millionlab sayyohlar tashrifini amalga oshirish uchun imkoniytlarimiz katta. Boy tarix va madaniyatimiz butun jahon insoniyatini lol qoldira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar:

1. Greg Richards – "The impact of culture on tourism" 2009.
2. Uzbektourism.com
3. Kun.uz
4. Lex.uz
5. Stat.uz

ISH BILARMONLIK VA MICE TURIZMNI AXAMYATI

Baxtiyorjonova Muxlisa Dilshodjon qizi
Qo'qon Universiteti talabasi,
Umarov Omonjon
Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda zamonaviy biznesni turlarini, uning tuzulishini, xususiyatlarini hamda rivojlanishi va ular orqali tashkillanadigan turizm haqida bayon etiladi.

Kalit so'zlar: biznes turizmi, mice, korporativ tadbirlar, congress, ko'rgazma turizmi.

Bugungi kunda turizmning nisbatan yangi va jadal rivojlanayotgan turlaridan biri bu ishbilarmonlik turizmi bo'lib, u so'nggi o'n yil ichida turistlar oqimining 10 foizdan ortiq o'sishini ko'rsatdi. Individual sayohatlar, ko'rgazmalarga tashrif buyurish, konferentsiyalar, kongress tadbirlari jahon biznes turizmi tarkibida yetakchi o'rinni egallaydi. Kongress va ko'rgazma turizmi biznes turizm bozorining eng mobil segmentidir.

Biznes turizmi ish uchun sayohat qiluvchi odamlar bilan bog'liq. Shunday qilib, turizmning eng qadimgi shakllaridan biri, inson qadim zamonlardan beri biznes maqsadlarida sayohat qilganligi taxmin qilinadi. Ishbilarmonlik sayohatini shubhali qiladigan yangi ehtiyojlar va qiziqishlar ekanligiga shubha qilish mumkin. Masalan, Yevropadan kelgan savdo karvonlari tufayli "Buyuk Ipak yo'li" tasodifan vujudga kelgan, dengizchilar va sayohatchilar tufayli yangi yerlar, qit'alar o'rtasida savdo ko'priklari ochilgan.

Ishbilarmonlik turizmi oddiy turistik sayohatdan farqi shundaki, u dasturga yangi bilim va tajriba orttirish, ishbilarmonlik aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni o'z ichiga oladi. Va ish safaridan – dam olish, yangi til va madaniyatni o'rganish imkoniyati. Ishbilarmonlik turizmi katta imkoniyatlarni o'z ichiga oladi, shuning uchun klassik xizmat safari va ish safari tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari tubdan farq qiladi.

Ishbilarmonlik turizmining turlari:

- Korporativ uchrashuvlar va anjumanlar.
- Rag'batlantiruvchi sayohatlar.
- Jamoa qurish elementlari bilan hikoyali sayohatlar.
- Seminarlar, Kongresslar.
- Madaniy va ijodiy tadbirlar.

Ishbilarmonlik sayohatlari bir nechta maqsadlarga ega bo'lishi mumkin:

Muayyan maqomga ega bo'lish va tajriba almashish uchun ilmiy konferentsiyalar va simpoziumlarda qatnashish.

Yangi mahsulotlar va bozor segmentlarini ishlab chiqish bo'yicha ishlab chiqarish seminarlari va uchrashuvlarida ishtirok etish.

Iste'molchi auditoriyasini kengaytirish, mahsulot taqdimoti, yangi biznes hamkorlarni izlash va yangi shartnomalar tuzish uchun ko'rgazma tadbirlarida ishtirok etish.

Kasbiy kompetentsiya va bilimlarni kengaytirish uchun muayyan dasturlar va kurslarda o'qitish.

Agentlar tarmog'ini tashkil etish, mentorlik, boshqa shaharlar va mamlakatlar hududlarida biznesni rivojlantirish.

Jamoani birlashtirish, turli tarkibiy bo'linmalar o'rtasida tajriba almashish, kompaniya xodimlarining mavqeini va korporativ ruhini oshirish uchun korporativ tadbirlar, professional mahorat musobaqalarini o'tkazish.

Tashkil etilgan biznes-turlar tufayli kompaniyalar jahon bozorlaridagi tendentsiyalarni kuzatib boradi, maqsadli auditoriyasini ko'paytiradi, yangi yo'nalishlar va ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantiradi, mahsulot eksporti va filiallarini ochish imkoniyatiga ega bo'ladi.

MICE sanoati jahon iqtisodiyoti uchun eng istiqbolli hisoblanadi. Bu ishbilarmonlik turizmi zamonaviy biznes industriyasi muammolariga to'liq ta'sir ko'rsatadigan maqsadlarni ko'zlashi bilan izohlanadi, xususan:

- Kompaniya xodimlari, sheriklari, mijozlarining asosiy va qo'shimcha ta'lim va malakasini oshirish;
- Professional, maxsus, shaxsiy aloqalarni shakllantirish va kengaytirish;
- Xodimlarni faqat o'z vazifalarini yanada samarali bajarishga rag'batlantirish va kasbiy faoliyatga ijodiy yondashish;
- Kompaniyani, korporativ brendni targ'ib qilish, foyda olish, me'yorlarni ommalashtirish, qamrab olish va hokazo.

MICE-ning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ushbu sanoat tobora ommalashib bormoqda va turizm va mehmondo'stlik bozorida mavjud bo'lib bormoqda.

Umuman olganda, zamonaviy turizm sanoati qo'shni alohida iqtisodiyotlarning imkoniyatlarini kuchaytiradi, deb aytish mumkin. Ishbilarmonlik turizmi turizm industriyasining muhim tarmog'i sifatida mamlakat iqtisodiyoti daromadlarining o'sishini ta'minlaydi. Ixtisoslashgan kongress markazlari va biznes-mehmonxonalarining qurilishi, umumiy ovqatlanish va transport ob'ektlarining rivojlanishi, yangi yo'llarning yotqizilishi, yangi tez-tez yo'nalishlarning paydo bo'lishi, agent kompaniyalar sonining ko'payishi – bularning barchasi ko'pincha ish o'rinlarining o'zgarishiga ta'sir qiladi. Barcha darajadagi byudjetlarga to'lovlarning o'sishi, chastotalarning rivojlanishi barqaror investitsion muhitni shakllantiradi, kiruvchi turistlar oqimini faollashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zorin I.V. E'nciklopediya turizma: sprav. / I.V. Zorin, V.A. Kvartal'nov. – M.: Finansy' I sta-tistika, 2004. – 65 s. –
2. Balabanov I.T. E'konomika turizma: uchebnik / I.T. Balabanov, A.I. Balabanov. – M.: Finansy' I statistika, 2002. – 250 s. –
3. Kvartal'nov V.A. Turizm: teoriya I praktika: v 5 t. T.4. Inostranny'j turizm: ucheb. Posobie / V.A. Kvartal'nov. – M.: Finansy' I statistika, 2003. – 232 s.

MICE TURIZMI ORQALI O'ZBEKISTONNING TURISTIK SALOHIYATINI TARG'IB ETISH OMILLARI

Ma'rifova Sevinchxon Mansurjon qizi
Qo'qon Universiteti talabasi,
Umarov Omonjon
Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada MICE turizmning barcha turlari va uni rivojlantirish usullari, MICE turizmni O'zbekistonda rivojlantirish va amalga oshirish bo'yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Mice, turizm, festivallar, mintaqa imiji, brend.

MICE turizm zamonaviy shaharlar va turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarni namoyon qilishning eng istiqbolli usullaridan biri hisoblanadi. MICE turizmning asosiy motivatsion faktorlaridan biri jamiyat va tadbir bo'ladigan joylar uchun rezonansga ega ramziy voqealar hisoblanadi.

Amalga oshirilayotgan tadbirlar tufayli ommaviy axborot vositalarida shahar haqida ma'lumotlar soni ko'paymoqda, mehmonxona sohasi rivojlanmoqda, turoperatorlar qiziqarli yo'nalishlarni yaratmoqdalar. Ushbu ishlar natijasida ijobiy imidj shakllanadi va uning mamlakat ichida hamda chet elda tan olinishi ta'minlanadi.

Belgilangan joyga tashrif buyuruvchilar ikkinchi eng muhim auditoriya bo'lib, ularning jalb etilishi hududning ijobiy va muvaffaqiyatli imidjini shakllantirishga ta'sir qiladi.

Investorlar. Ularning ehtiyojlari va jalb qilish mumkin bo'lgan jarayonlarni aniqlash hududning moliyaviy markaz sifatida rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi, sanoat va infratuzilmaning rivojlanishiga yordam berishi mumkin.

Ushbu tadqiqotimizda biz maqsadli auditoriyaning turistlar qismini ko'rib chiqamiz. Ushbu auditoriyani tanlash MICE turizmni tashkil etish jarayonida eng katta va ahamiyatli ekanligi bilan bog'liq. Tashkil etilgan tadbir sayyohlarga yoqsa, kelajakda ular takroriy sayohatlarni rejalashtirishadi, hududning mahalliy aholisi va malakali kadrlari, shuningdek, davlatdan tashqarida tashrif buyurgan joyning ijobiy imidjini tarqatuvchisi bo'ladilar. Hozirgi kunda O'zbekistonda Samarqand, Toshkent, Xiva, Buxoro va Qo'qon shaharlarida konferensiyalar mavjud. Bu yerdagi ko'rgazmalar shunchaki tadbir emas, balki tor ixtisoslashgan mutaxassislarining uchrashuvlari, yangi biznes sheriklarni topish, tajriba almashish va shartnomalar tuzish uchun maydondir.

"Ipak yo'lidagi turizm" Toshkent xalqaro sayyohlik yarmarkasi, "Made in Uzbekistan", "Food Week Uzbekistan" va boshqa ko'rgazmalar O'zbekistondagi eng yirik tadbirlardandir. Qarorga muvofiq, 2022 yilda Qo'qon shahrida II Xalqaro hunarmandchilik festivalini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tarkibi hamda "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Festivalga iqtidorli hunarmandlar va iste'dodli yoshlarni jalb qilish maqsadida "Men Qo'qonga boraman" shiori ostida ikki bosqichdan iborat quyidagi ko'rgazma va ko'rik-tanlov tashkil etiladi:

- birinchi bosqich – tumanlar (shaharlar) bo'yicha 2022 yilning aprel oyida;

- ikkinchi bosqich – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha 2022 yil iyunda.

Brend imidji bo‘yicha mutaxassis S.Anholt “hozirda shaharning turistik brendi bo‘lishni istasa, uchta narsa strategiya, boshqaruv va ommaviy rasmiy tadbirlar bo‘lishi lozim” deb ta’kidlab o‘tgan.

S. A. Globova ta’kidlaganidek, MICEni hududni targ‘ib qilish vositasi sifatida quyidagi natijalarga erishish mumkin

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, MICE turizm yaxshi tashkil etilgan va targ‘ib qilinadigan tadbirlar shahar, mintaqa va mamlakatning PR-kompaniyasining asosiy elementiga aylanishi mumkin. MICE turizmni tashkil etish sohasida yetakchilar sifatida AQSh, Fransiya, Germaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Janubiy Koreya tan olingan. Bugungi kunda bir necha o‘nlab yo‘nalishlarning iqtisodiy faoliyati tadbirlarga qaratilgan. Har yili MICE turizm infratuzilmasi muhim va yillik voqealar maqomiga ega bo‘lgan yangi tadbirlar bilan to‘ldiriladi. Minglab muxlislar sevimli jamoalari o‘yinlarini tomosha qilish uchun dunyo bo‘ylab sayohat qilishga tayyor bo‘lishadi.

MICE reytingida qishki va yozgi Olimpiya o‘yinlari munosib o‘rin egallaydi. Olimpiadani tashkil etish natijasida turizm sohasini rivojlantirish, ular o‘tkazilayotgan shahar va mamlakatlarning imij jozibadorligini oshirishga xizmat qiluvchi yuzlab loyihalar amalga oshirilmoqda. Birgina 2016 yil Olimpiada o‘yinlari paytida Braziliyaga tashrif buyurgan xorijlik sayyohlar o‘rtasida sotsiologik tadqiqot usuli bilan aniqlangan quyidagi faktlar ushbu sa’y-harakatlarning natijasi bo‘ldi: 110 ming shahar mehmonlarining 88 foizi Braziliyaga yana turist sifatida tashrif buyurish istagini bildirdi. Bundan tashqari, Olimpiada davrida Braziliyaga tashrif buyuruvchilar soni qariyb yetti baravarga oshgan, bu esa mamlakatning turistik salohiyatiga qiziqishning mutanosib ravishda oshganidan dalolat beradi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. data.worldbank.org.
2. unwto.org.
3. Uzbektourism.uz.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YUNESKONING UMUMJAHON MEROSI RO'YHATIGA KIRITILGAN TARIXIY OBYEKTALARI

Mirzaboyeva Muslimaxon
Qo'qon Universiteti talabasi,
Umarov Omonjon
Qo'qon Universiteti o'qituvchisi.

Annotatsiya: Mazkur Tezisdagi O'zbekiston Respublikasida YUNESKO Umumjahon merosi ro'yhatiga kiritilgan tarixiy obyektlar va ularning bugungi kundagi ahamiyati haqida so'z boradi hamda xulosa muallif tomonidan bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Xiva shahridagi "Ichan qal'a", Samarqand -madaniyatlar chorrahasi" obyekti, Buxoro, Shahrisabz tarixiy shaharlari, Chotqol biosferasi (tabiiy merosi).

O'zbekistonning niyohatda boy shubhasiz misli ko'rinmagan jahon qimmatiga ega tarixiy-madaniy merosi YUNESKO umumjahon merosi ro'yhatidan munosib o'rin topgan. Erishilgan yutuqlarga qaramasdan haqiqatni ta'kidlash joizki, YUNESKOning umumjahon merosi ro'yhatiga O'zbekiston Respublikasining 5 ta tarixiy obyekti kiradi, Bu esa umumiy tarixiy yodgorliklarimiz sonidan 0,4% ni tashkil etadi. Bugungi kunda YUNESKOning Butunjahon merosi ob'ektlari ro'yxatiga O' 4 ta me'moriy majmua - Xivadagi Ichan qal'a muzey-qo'riqxonasi (1990), Buxoroning tarixiy markazi (1993), Samarqandning tarixiy markazi "Samarqand - madaniyatlar chorrahasi" (2001), Shahrisabzning tarixiy markazi, shuningdek Ugam-Chotqol milliy bog'i (2016) va 9 nomoddiy meros ob'ektlari kiradi. Vazirlar mahkamasi 2018 9 iyun kuni "YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan O'zbekiston Respublikasidagi hududlarni muhofaza qilish to'g'risida"gi 435-sonli qarorni qabul qildi.

Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya 1995 yilning 22 dekabrda O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan. Konvensiya doirasida Xiva shahridagi "Ichan-qal'a", "Samarqand - madaniyatlar chorrahasi" obekti, Buxoro va Shahrisabz tarixiy markazlari hamda Chotqol biosferasi (tabiiy meros) Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Qarorga muvofiq, Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahrining tarixiy markazida keng ko'lamda qurilish va obodonlashtirish ishlarini olib borishda Konvensiya va uni amalga oshirish bo'yicha amaliy qo'llanma qoidalariga rioya qilmasdan va ularning loyihalari YuNeSKOning Umumjahon merosi markazi bilan avvaldan kelishilmagan holda olib borilgani uning bemisl universal va umumbashariy qiymatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatgan. Natijada, YuNeSKO huzuridagi Umumjahon merosi qo'mitasining 40-sessiyasi qarori bilan Shahrisabz tarixiy markazi 2016 yilda Umumjahon merosining xavf ostidagi obektlar ro'yxatiga kiritilgan. Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan mamlakatimizdagi hududlarni muhofaza qilishni takomillashtirish va YUNESKO huzuridagi Umumjahon merosi qo'mitasining tavsiyalarini amalga oshirish bo'yicha 26 ta bandedan iborat "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. (2018 yil vazirlar mahkamasi 435 sonli qarori bilan.)

Yangi qarorga muvofiq, Ishchi guruh Konvensiya, xalqaro umume'tirof etilgan normalar hamda YUNESKO huzuridagi Umumjahon merosi qo'mitasi tavsiyalari, "Tarixiy shaharlar manzaralari to'g'risida"gi YUNESKO tavsiyanomasini inobatga olgan holda, O'zbekistonning

milliy qonun hujjatlari, shaharsozlik norma va qoidalari, tarixiy shaharlarning bosh rejalarini, shu bilan birga, Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan yurtimizdagi tegishli hududlarni olimlar, xalqaro ekspertlar, keng jamoatchilik vakillarini jalb etan holda tanqidiy tahlil qiladi hamda asoslangan takliflar ishlab chiqadi. Qarorga asosan Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan mamlakatimizdagi tegishli hududlar (obektlar) alohida muhofaza qilinadigan hududlar sifatida e'tirof etiladi hamda ularda rejalashtirilgan barcha qurilish va obodonlashtirish ishlarining loyihalari YUNESKOning Umumjahon merosi markazi va O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi bilan belgilangan tartibda avvaldan kelishilgan holda amalga oshirilishi shartligi belgilab qo'yildi

Har yili 18 aprel – Yodgorliklarni va tarixiy joylarni asrash xalqaro kunini O'zbekistonda keng nishonlanadi, shu kun arafasida soha vakillarini munosib rag'batlantiriladi, turli tadbirlar va respublika ko'rik-tanlovlari o'tkaziladi. 18 aprel kuni respublika aholisini davlat muzeylari va moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obektlariga bepul, xorijiy fuqarolarni arzonlashtirilgan narxlarda kirishi yuzasidan takliflar Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi. O'zbekistonning Yunesko umumjahon merosi ro'yhatiga kiritilgan tarixiy obyektlar hududlar kesimida Buxoroda Ismoil Samoniy maqbarasi, Minroai Kalon, Mag'oki Attori masjidi, Vobkent minorasi, Namozgoh masjidi, Chashmai Ayyub maqbarasi, Bo'yonqulixon madrasasi Ulug'bek maqbarasi, Bahouddin Naqshband maqbarasi, Mir Arab madrasasi, Abdulazizxon va Qo'sh madrasasi, Nodir Devonbegi xonaqohi, Ko'kaldosh madrasasi, Chor Bakir me'moriy majmuasi, Baland masjidi va Xo'ja Zayniddin masjidi kabi tarixiy Buxaro shahrida qad rostlagan va 1993 yilda Yunesko umumjahon merosi ro'yhatidan joy olgan. Samarqand viloyatida esa, Shohizinda maqbaralar majmuasi, Hazrati Hizr masjidi, Ruhobod maqbaraqsi, Bibixonim masjidi, Ulug'bek madrasasi, Tillakori, Sherdor madrasalari, G'ori amir maqbarasi, Xo'ja Abdu darun maqbarasi, Imom-al Buxoriy va Imom-al Moturudiy maqbaralari kabi tarixiy obyektlar Yunesko madaniy merosi ro'yhatidan joy olgan. Xivada shahrida esa Juma masjidi, Shayx Muxtor Valiy maqbarasi, Sayid Alouddin maqbarasi, Sherg'oziyxon madrasasi, Pahlavon Mahmud maqbarasi va majmuasi, Sayid Mag'rumjon maqabarasi, Olloqulixon madrasasi, Muhammadaminxon madrasasi, Muhammadrahimxon madrasasi, Islomxo'ja madrasasi va minorasi kabilar Xiva shahrida YUNESKO umumjahon merosi ro'yhatidan joy olgan. Qashqadaryo viloyatidagi quydagi tarixiy obyektlar Xo'ja Jarroh yodgorlik majmuasi, Oqsaroy, Hazrati Imom maqabarasi, Gumbazi Sayiddxon maqbarasi, Shayx Shamsiddin Kulol maqabarasi, Langar ota majmuasi, Husam ota majmuasi kabi hududlar YUNESKO umumjahon merosi ro'yhatidan joy olgan.

2021-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasi tomonidan YUNESKO ning Umumjahon madaniy merosi ro'yxati, Jahon xotirasi ro'yxatiga madaniy va meroslarni kiritishga ilgari surish bo'yicha MILLIY REJA ishlab chiqilgan

Umumjahon merosi ro'yxati bo'yicha:

1. Buyuk ipak yo'li: Zarafshon yo'nalishi:
 - Kofir qal'a (Samarqand viloyati)
 - Dabusiya qadimiy shahri (Samarqand viloyati)
 - Jartepa (Samarqand viloyati)
 - Sulaymontepa(Samarqand viloyati)
 - Raboti Malik (karvon saroy, sardoba) (Navoiy viloyati)

- Mir Said Bahrom maqbarasi (Navoiy viloyati)
 - Qosim Shayx majmuasi (Navoiy viloyati)
 - Deggaroniy masjidi (Navoiy viloyati)
 - Varaxsha yodgorligi (Buxoro viloyati)
 - Vardanze yodgorligi (Buxoro viloyati)
 - Vobkent minorasi (Buxoro viloyati)
 - Chashmai Ayub majmuasi (Buxoro viloyati)
 - Chor Bakr majmuasi (Buxoro viloyati)
 - Bahouddin Naqshbandiy majmuasi (Buxoro viloyati)
 - Poykent qadimiy shahri (Buxoro)
2. Buyuk ipak yo'li: Farg'ona — Sirdaryo yo'nalishi:
- Mingtepa arxeologiya yodgorligi (Andijon viloyati)
 - Qarovultepa (Andijon viloyati)
 - Jingirtepa (Andijon viloyati)
 - Bilovur (Andijon viloyati)
 - Quva shahristoni (Farg'ona viloyati)
 - Zindontepa arxeologiya yodgorligi (Farg'ona viloyati)
 - Zangishtepa arxeologiya yodgorligi (Farg'ona viloyati)
 - Sariqo'rg'on arxeologiya yodgorligi (Farg'ona viloyati)
 - Mo'yi muborak (Farg'ona viloyati)
 - Bibi Buvayda maqbarasi majmuasi (Farg'ona viloyati)
 - Poshsho Pirim maqbarasi majmuasi (Farg'ona viloyati)
 - Xo'ja Magiz maqbarasi majmuasi (Farg'ona viloyati)
 - Axsikent arxeologiya yodgorligi (Namangan viloyati)
 - Qadimgi Pop (Namangan viloyati)
 - Mug'tepa (Namangan viloyati)
 - Qirq xujra (Namangan viloyati)
 - Qanqa arxeologiya yodgorligi (Toshkent viloyati)
 - Shohruxiya arxeologiya yodgorligi (Toshkent viloyati)
 - Yunusobod Oqtepasi (Toshkent shahri)
 - Chilonzor Oqtepasi (Toshkent shahri)
 - Mingo'rik arxeologiya yodgorligi (Toshkent shahri)
 - Shoshtepa arxeologiya yodgorligi (Toshkent shahri)
 - Hazrati Imom majmuasi (Toshkent shahri)
 - Ko'kaldosh madrasasi (Toshkent shahri)
 - Zayniddin bobo majmuasi (Toshkent shahri)
 - Shayx Xovandi Tohur majmuasi (Toshkent shahri)
 - Zangiota majmuasi (Toshkent viloyati)
 - Qaynar sardobasi (Toshkent viloyati)
 - Korxonona (Toshkent viloyati)
3. Xonbandi (Jizzax viloyati)

4. Arab ota maqbarasi (Samarqand viloyati)
5. Qo'qon tarixiy yodgorliklari (Farg'ona viloyati):
 - Qadimiy Tepa qo'rg'on
 - Xudoyorxon o'rdasi
 - Norbo'tabek madrasasi
 - Hazrati Miyon madrasasi
 - Modarixon maqbarasi
 - Jome masjidi
 - Daxmai shahon madrasasi
 - Dasturxonchi madrasasi
 - Xo'jabek madrasasi
 - Xurjun madrasasi
 - Chalpak madrasasi
6. Jome masjidi arxitektura majmuasi (Andijon viloyati)
7. Siyqantosh qoyatosh rasmlari — petrogliflar (Qashqadaryo viloyati)
8. Qadimgi Termiz (Surxondaryo viloyati):
 - Qoratepa buddaviylik ibodatxonasi
 - Fayoztepa buddaviylik ibodatxonasi
 - Zo'rmo'la Buddaviylik inshooti
 - Qirqqiz majmuasi
 - Hakim at-Termiziy maqbarasi
 - Sulton Saodat majmuasi
 - Kokildor ota xonaqosi
 - Jarqo'rg'on minorasi
 - Kampirtepa qal'asi
9. Oq Ostonabobo maqbarasi (Surxondaryo viloyati)
10. Zarautsoy qoyatosh rasmlari (petrogliflar) — madaniy va tabiiy meros (Surxondaryo viloyati)
11. Karmana qo'rg'oni (Navoiy viloyati)
12. Sarmishsioy qoyatosh rasmlari (Navoiy viloyati)
13. Shayx Muxtor Vali majmuasi (Xorazm viloyati)
14. Xazorasp tarixiy shahri (Xorazm viloyati)
15. Qadimgi Xorazm yodgorliklari (Qoraqalpog'iston Respublikasi):
 - Angka qal'a arxeologiya yodgorligi;
 - Katta Guldursun qal'a arxeologiya yodgorligi;
 - Qo'yqirilgan qal'a arxeologiya yodgorligi;
 - Qo'rg'oshin qal'a arxeologiya yodgorligi;
 - Tuproq qal'a arxeologiya yodgorligi;
 - Jonbos qal'a arxeologiya yodgorligi;
 - Ayoz qal'a arxeologiya yodgorligi
 - Qirq qiz qal'a
16. Zomin tog'lari — tabiiy meros (Jizzax viloyati)
17. Shohimardon — tabiiy meros (Farg'ona viloyati)

18. Hisor tog'lari — Hisor qo'riqxonasi (Qashqadaryo viloyati)
19. Quyi Amudaryo biosferasi — tabiiy meros (YUNESKOning Umumjahon biosfera rezervatlari tarmog'i ro'yxatiga)
20. Boysun (Surxondaryo viloyati) kabi tarixiy obyektlar joy olgan.

Xulosa qilib aytganda, Haqiqatan ham YUNESKO umumjahon merosi ro'yhatiga kiritilgan tarixiy shaharlarimiz keyingi yillarda O'zbekistonda Turizm industriyasini yanada rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tarixiy shaharlar infrasturukrasini yanada rivojlantirish bo'yicha qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Azimov – "O'zbekistondagi tarixiy obidalar ro'yhati"
2. Kun.uz (Vazirlar Mahkamasinig 2018 yil 9-iyundagi 435 sonli qarori)
3. Darakchi.uz
4. Lex.uz (Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 3-martdagi 119 sonli qarori).

O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES RIVOJLANISH TENDENSIYASI

Musabekov Sherali Nazarali o'g'li
Qo'qon universiteti talabasi,
Xursanaliyev Boburmirzo Farhod o'g'li
Qo'qon universiteti katta o'qtuvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda O'zbekistonda kichik korxonalar va ularga yaratilgan sharoyitlar va ularning bu sharoyitlardan foydalanagan holda YAIM ga qo'shayotgan ulushlari va shu korxonalarni turlari bo'yicha qay darajada ulush qo'shayotgani kaysi sohalarda yaxshi ishlayotgani va qaysi sohalarda ish ulushlari kamligini yoritib o'tamiz.

Kalit so'zlar; kichik korxonalar, tadbirkorlik, YAIM, iqtisodiy islohotlar, foizlar

Mamlakatimizda bozor munosabatlarining jadal rivojlanishi bilan uning tarkibiy qismi sifatida kichik korxonalar taraqqiy etish boshladi. Kichik biznesni tashkil etishni qo'llab quvvatlash va yanada rivojlantirish tizimi ham uni doimiy takomillashtirib borishni talab qilmoqda. Jadal rivojlanib borayotgan mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini yangi boshlayotgan, mablag'lari yetishmayotgan korxonalar va tadbirkorlikni yuritish uchun yetarli bilim va malakaga ega bo'lmagan tadbirkorlar uchun davlatimiz ko'p shart-sharoitlar yaratib kelmoqda. Bizning Respublikamizda kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlik soni va ular ishlab chiqargan mahsulotlar hajmi yildan yilga oshib bormoqda. Kichik korxonalar O'zbekiston Respublikasining "korxonalar to'g'risida", "mulk to'g'risida", "erkin tadbirkorlik faoliyati kafolatlari to'g'risida" gi qonunlari Prezident farmonlari va Vazirlar mahkamasining qarorlari va boshqa meyoriy hujjatlar asosida tashkil etilmoqda.

Raqamli infratuzilma muammolari. Raqamli infratuzilma raqamli xizmatlarga tez o'sib borayotgan talabni bajara olmaydi va ko'plab rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda raqamli kirish va ulanish uchun infratuzilmaning jiddiy etishmasligi mavjud. Misol uchun, infratuzilmaning zaif tomonlari global janubda raqamli tadbirkorlik uchun asosiy to'siq va rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotning asosiy chegarasi sifatida aniqlanadi. Raqamli iqtisodiyot haqidagi qarashlar to'liq amalga oshishi va "axborot kapitalizmining qora tuynuklari" deb ataladigan hozirgi vaziyatdan qochish uchun ularni engib o'tish kerak. Bu boshqa tendentsiyalar tufayli yanada zarur bo'ladi; masalan, rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining o'sib borayotgan urbanizatsiyasi (2030 yilga borib shahar aholisi taxminan besh milliard kishiga o'sishi kutilmoqda; bulutli hisoblash va narsalar interneti imkoniyatlari bilan bir qatorda iqtisodiy jarayonlarning ma'lumotlar intensivligining oshishi).

Raqamli ma'lumotlar uchun eng katta to'siq bu til bilmaslikdir. Til to'siqdir. Misol uchun, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi AKTdan foydalanishda nafaqat arzon apparat vositalari va ulanish imkoniyatining yo'qligi, balki raqamli kontentning ko'pchiligi hamon birinchi navbatda boshqa tillarida bo'lgani uchun ham ortda qolmoqda. Tafvutni umumiy tarzda 2-

rasmda: dunyodagi taxminan 6000 tildan (YUNESKO 2015), eng yaxshi o'ntalik foydalanuvchilarning 77 foizini aks ettirishini ko'rish mumkin.



2-rasm: Millionlab foydalanuvchilarning Internetdagi eng yaxshi 10 ta tillari

Aniqroq misollar keltiradigan bo'lsak, Sahroi Kabirdagi Afrikada Afrika aholisiga qaratilgan veb-sahifalarning atigi 2,8 foizi mahalliy Afrika tillaridan foydalanadi. Tarkibning katta qismi ingliz yoki frantsuz tillarida, lekin ular rasmiy til bo'lishi mumkin bo'lgan mamlakatlarda ham aholining 10% dan kamrog'i gapiradi. Nigeriyada, garchi rasmiy til ingliz bo'lsa-da, 500 dan ortiq mahalliy tillar, jumladan, hausa, yoruba, igbo, fulani tillarida ham so'zlashadi. Hatto Xitoy ham bu masalani aks ettiradi: dunyo aholisining 17 foizi xitoyliklar va dunyo veb-saytlarining atigi 3 foizi xitoy tilida yozilgan.

Ingliz tili hali ham Internetning asosiy tili bo'lib qolmoqda. Kontentni ishlab chiquvchilarni ingliz tilini bilmaydiganlar uchun kontentni ko'rib chiqishga undash uchun to'g'ri raqamli siyosatni amalga oshirish zarur, ammo tildan tashqari, tegishli raqamli kontent va xizmatlarning mavjud emasligi odamlarni onlayn rejimga kirishdan va raqamli iqtisodiyotda to'liq ishtirok etishdan to'sqinlik qiladi.

Raqamli iqtisodiyot siyosatini boshqarish uchun tavsiyalar:

Raqamli iqtisodiyot siyosatini boshqarishdagi maqsad: raqamli iqtisodiyot siyosati tuzilmalari va jarayonlari samaradorligini oshirish		
Siyosat muammosi	Istalgan natija	Tavsiya etilgan siyosat vositalari
Imkoniyatlar, siyosat tuzilmalari, siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlari bilan bog'liq muammolar	Raqamli iqtisodiyot siyosatini boshqarishni kuchaytirish	<ul style="list-style-type: none"> • Raqamli iqtisodiyotning aniq yetakchiligini aniqlash • Raqamli iqtisodiyotga oid barcha qonunchilik va me'yoriy hujjatlarning umumiy auditini o'tkazish • Raqamli iqtisodga tayyorlikni baholashni o'tkazish • Hisobdorlikni ta'minlash uchun kuchli, ammo tezkor boshqaruv tuzilmasini joriy etish • Davlat xizmati doirasida raqamli iqtisodiyot bo'yicha salohiyatni oshirishni amalga oshirish • Ko'p manfaatdor tomonlarning hamkorlik yondashuvi orqali raqamli iqtisodiyot strategiyasini ishlab chiqish • Siyosat ishlab chiqish uchun raqamli siyosat platformalaridan foydalaning • Raqamli iqtisodiyot statistikasini to'plashni kuchaytirish va kengaytirish • Mavjud tashabbuslarga asoslanib, siyosatni baholash uchun ko'rsatkichlarni ishlab chiqish • Kuchli dastur hisobdorligi va taraqqiyot monitoringini o'z ichiga oladi • Ko'p mamlakatlarli hamkorlik va ilg'or tajribalarni rivojlantirish
Korruptsiya	Raqamli siyosatni amalga oshirishda korruptsiyani kamaytirish	<ul style="list-style-type: none"> • Korruptsiya to'g'risida hisobot berishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish • Raqamli iqtisodiyot siyosati bo'yicha shartnoma tuzish uchun ochiq xarid tartib-qoidalarini qabul qilish • Raqamli iqtisodiyot bilan bog'liq barcha jarayonlar uchun ochiq davlat ma'lumotlar siyosatini qabul qilish
Hukumat byurokratiyasi	Byurokratik qo'shimcha xarajatlarni kamaytirish	<ul style="list-style-type: none"> • Raqamli tovarlar uchun bojxona qoidalarini soddalashtirish • Raqamli savdo qoidalarini soddalashtirish • Raqamli iqtisodiyot siyosati uchun kengroq "tartibga solishni soddalashtirish" va institutsional islohotlarni amalga oshirish • Raqamli iqtisodiyot siyosati tuzilmalarini loyihalash mezoni sifatida tezkorlikni qabul qilish

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot jadal sur'atlar bilan kengaymoqda va siyosatchilar uning o'sishini qo'llab-quvvatlovchi siyosatni ishlab chiqishda faol bo'lishlari kerak. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish va yangi texnologiyalarni o'zlashtirish ish o'rinlarini yaratish, iqtisodiy o'sishni oshirish va fuqarolarning hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Rivojlanayotgan mamlakatlar o'z aholisini raqamli iqtisodiyotda to'liq ishtirok etish uchun zarur ko'nikmalar bilan ta'minlash uchun raqamli ta'lim va o'qitish dasturlariga sarmoya kiritishga ustuvor ahamiyat berishlari kerak. Nihoyat, siyosatchilar maxfiylik va xavfsizlik masalalariga ham e'tibor berishlari kerak, chunki ular onlayn tranzaksiyalarga ishonch va umumiy iqtisodiy o'sish uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Raqamli innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi siyosatni puxta rejalashtirish va amalga oshirish bilan rivojlanayotgan mamlakatlar uzoq muddatda barqaror iqtisodiy o'sish va rivojlanishni ta'minlash uchun raqamli iqtisodiyot salohiyatidan foydalanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://diodeweb.files.wordpress.com/2018/03/digital-economy-policy-diode-paper.pdf>
2. Ahmadjonov, A Abdullayev, M Mamayusupov, O Umarjonov. (2021). Raqamli iqtisodiyotda boshqaruv muammolari. Science and Education, 2(10), 636-642.
3. AA, Mulaydinov Farkhod Muratovich. (2021). RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI VA AMALIY AHAMIYATI. AXBOROT-KOMMUNIKACIYA TEXNOLOGIYALARI VA TELEKOMMUNIKACIYALARNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA ECHIMLARI ONLAIN RESPUBLIKA ILMIIY-TEHNIK ANJUMANINING MA'RUZALAR TUPAMI, 2 (6), 794
4. A Abdullaev. (2021). RAQAMLI IQTISODIYOT - KADRLAR TAYYORLASHNING DOLZARB MASALALARI. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari, uning ...
5. MMQ Tojiyeva, AAU Abdullayev. (2021). THE USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN STATISTICAL DATA COLLECTION. Asian Journal of Multidimensional Research 10 (12), 250-254.
6. R.Toxirov. Tadbirkorlik subyektlari samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. Ilmiy-elektron jurnali.1/2023. 40-43.
7. Kokand, F. M., Kokand, R. T., & Kokand, D. M. (2020). Trends in solving problems in the development of an innovative economy. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(6), 1205-1209.
8. Toxirov, R. S., & Raxmonov, N. R. O. G. L. (2021). DASTURIY TA'MINOT YORDAMIDA ZAMONAVIY BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 1(1), 181-186.
9. Tokhirov, R., & Rahmonov, N. (2021). Technologies of using local networks efficiently. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(6), 250-254.
10. Tokhirov, R., & Abdurakhimjanov, A. (2021). The Issue Of Modern Strategic Management In Enterprises Or Firms. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(08), 9-14.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MEHMONXONALARNI RIVOJLANTIRISH VA ULARGA BERILADIGON YULDUZLAR

Abdullayeva Mohichehra
Qo'qon Universiteti talabasi,
Mamadaliyev Ulug'bek Toxirjon o'g'li
Qo'qon Universiteti "Xalqaro turizm va iqtisodiyot"
kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur tezisda O'zbekiston Respublikasida mehmonxonalar uchun beriledigon yulduzlar va ularning rivojlanishi to'g'risida hamda xulosa muallif tomonidan bayon etilgan.

Kalit so'zlar: turizim, mehmonxona, yulduz, rivojlanish, xorijiy mamlakatlar, dunyoda, yulduzlar turi, mehmonxonalar sinifi

Bugungi kunda taraqqiy etayotgan bir davrda barcha dunyoning tarixiy obidalariga tashrif buyuruvchilar nihoyatda ko'paymoqda bu esa turizimning rivojlanishidan dalolat beradi. Har qayerda turizim rivojlangan yokida rivojlanayotgan bo'lsa va u yerda tashrif buyuruvchilar tomonidan mehmonxonaga bo'lgan talab oshib boradi hamda mehmonaning darajasi yuqoriga ko'tarilib boradi. Xususan, sayyohlik bo'yicha tahlilchilarning birortasi ham sayyoramizda nechta mehmonxona borligini aniq aytib berolmeydi. Chunki ularning soni haddan ziyod ko'p va ayni damda ham ko'payishda davom etmoqda. Dunyo bo'yicha mehmonxonalar bir necha siniflarga bo'linadi. Ularning orasida eng mashhurlari shvedcha kalit, britancho toj, hindcho ball va yulduz. Ularning ichida eng mashhurlari yulduzli otellar hisoblanadi.

Mehmonxonalar darajasini baholaydigon maxsus sertifikatga ega organlar bir necha talablarga qarab yulduzlar berishadi. Eng avvalo, taklif qilinayotgan qulaylik va xizmatlarning xilma-xilligiga e'tibor beriladi. Keyin esa xonalar hajmi va xizmat imkoniyatlari: restoran va barlar, sauna va cho'milish havzalari, qo'riqlanadigan avtoturargohlar va taksi chaqirish, xalqaro telefon va kuzatuv kameralari inobatga olinadi. Hozirda O'zbekiston Respublikasida mehmonxona rivoji uchun qarorlar keltirilib ularni tatbiq etilmoqda bulardan andoza sifatida "Mehmonxona xo'jaligi faoliyatini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi 433-sonli qarori va "O'zbekiston Respublikasida mehmonxona biznesini jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Vazirlar Mahkamasi 954 sonli qarori 24.11.2018. O'zbekiston Respublikasida Turizim va madaniy meros vazirligi huzuridagi "Turizim xizmatlari sertifikatlash markazi"

Yuqoridagi jadvalga ko'ra mehmonxonada olgan yulduzlariga qaragan holda asosiy jihatlari bilan u yerdagi jihozlar va xizmatlarning o'zgarishini ummumniy ma'lumot berilmoqda. Hozirda Toshkentda va O'zbekistonning bir necha shaharlarida mehmonxona biznesi ancha rivojlanib bormoqda. Hatto ularning orasida ma'lum «yulduz»ga egalari ham topiladi.

1* - eng oddiy qulaylik. Joylashuvi unchalik ahamiyat kasb etmaydi. Qoidaga ko'ra, bunday mehmonxonalarning nomerlar soni 10 tadan oshmaydi. Ovqatlari hisobga olinmaydi,

lekin pulni to'lasangiz, kamtarona nonushta olib kelishlari mumkin. Kechasi soat 1:00 dan keyin otelga kirish taqiqlanadi.

2* (sayyohlik klassi) — sayyohlar uchun uncha qimmat bo'lmagan ekskursiya taklif qilinadi. Yevropa va amerikacha me'yorlarga ko'ra, xonada hojatxona, hammom va televizor bo'ladi, ammo TV pulti uchun alohida pul to'lash lozim. Otelga kirish uchun cheklovlar yo'q. Nonushtaga odatda kefir/yogurt, bulochka va qahva, sariyog', pishloq, murabbo, ba'zida sosiska va tuxum beriladi. Ayrimlarida restoran biror qavatning xollida joylashadi.

3* — keng tarqalgan mehmonxona turlaridan biri. Hammomda sovun va shampun doimo topiladi, ba'zan fen ham. Telefon va televizor bor, ayrimlarida mini-bar va konditsioner. Amerikacha 3 yulduzli otel Yevropaning 4 yulduzlisiga deyarli teng hisoblanadi. Turkiya va Misrda esa xonada konditsioner bo'lishi shart.

4* — eng yuqori sifatga ega mehmonxona turlaridan sanaladi. Ushbu turdagi otellar shahar markazida yoki sohil bo'yida joylashgan bo'ladi. Shuningdek, qo'riqlanadigan avtoturargoh, bepul trenajyor zallari, kort va hovuzlar, shou va diskotekalar ham uning darajasini aniqlab beradi. Xonada esa hojatxona-hammom (feni bilan), konditsioner, masofadan turib boshqariladigan rangli televizor, muzlatgich, mini-bar, mini-seyf hamda xalqaro qo'ng'iroqlar uchun telefon mavjudligi muhim hisoblanadi. Aslida bu turdagi mehmonxonalar 5 yulduzli otellardan deyarli farq qilmaydi, ammo xo'jayinlar ortiqcha soliqlardan qochish uchun «yulduz» ketidan quvmaydilar.

5* — barcha qulayliklari bor kichik shaharchaga o'xshatish mumkin: yevropacha va milliy taomlarga ega bir nechta bar hamda restoranlar, tungi klublar, do'konlar,

Nº	Nomer uchun talablar	5*	4*	3*	2*	1*
1	Xona hajmi m kvadrat (bir kishilik, hammom va balkondan tashqari)	14-18	дек.16	10	8	8
2	Xona hajmi m kvadrat (ikki kishilik, hammom va balkondan tashqari)	16-25	14 - 20	14	12	12
3	Hammom	xonada	xonada	xonada	Qavatdan 2 tadan ko'p emas	Qavatdan 2 tadan ko'p emas
4	Hojatxona	xonada	xonada	xonada	umumiy	umumiy
5	Televizor	xonada	xonada	xonada	Qaytadan	Qaytadan
6	Muzlatgich	xonada	xonada	xonada	Qavatda	Qavatda
7	Konditsioner	Bor	Bor	Bor	Qavatda	Qavatda
8	Telefon	Bor	Bor	Bor	Yo'q	Yo'q

9	Kunlik tozalash	Bor	Bor	Bor	Bor	Yo'q
10	Tonggi qo'ng'iroq xizmati	Bor	Bor	Bor	Bor	Bor
11	Yotoq joyini almashtirish	Har kuni	Har kuni	Haftada 2 marta	5 kunda 1 marta	5 kunda 1 marta
12	Ko'zgu	Bor 2 tadan ortiq	Bor 2 tadan ortiq	Bor 2 tadan ortiq	Bor	Bor
13	fen	Bor	Bor	Yo'q	Yo'q	Yo'q
14	Shampun, sovun hammom uchun ko'prik	Bor	Bor	Bor	Yo'q	Yo'q
15	Sochiq (har bir mehmonga)	Kamida 5 ta	Kamida 5 ta	Kamida 3 ta	Kamida 2 ta	Kamida 2 ta
16	Sochiqni almashtirish	Har kuni	Har kuni	Haftada 2 marta	5 kunda 1 marta	5 kunda 1 marta
17	Radio	Bor	Bor	Bor	Bor	Bor

Xulosada shuni aytish joyizki, mamalakatlarining barchasida bo'lgani kabi O'zbekiston Respublikasida jahon standartlari bo'yicha yulduzlar qo'yishni va ularning yulduzlar qanday bir biridan farq qilishini ko'rsatib o'tdi. Maqolaning so'nggi qismida, har bir mehmonxonani qanday kamchiligi va afzaligi uchun unga yulduzlar berilishi bayon etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://planetariodevitoria.org/uz>
2. <https://planetariodevitoria.org/uz/foguetes/qual-a-diference-entre-hotel-3-estrelas-e-4-estrelas.html>
3. <https://sof.uz/uz/>
4. "O'zbekiston Respublikasida mehmonxona biznesini jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Vazirlar Mahkamasi 954 sonli qarori 24.11.2018 <https://lex.uz/ru>
5. "Mehmonxona xo'jaligi faoliyatini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" Vazirlar Mahkamisining 2019 yil 27 maydagi 433-sonli qarori **Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки.** 1. R.Toxirov. Tadbirkorlik subyektlari samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. Ilmiy-elektron jurnali.1/2023. 40-43.
6. Kokand, F. M., Kokand, R. T., & Kokand, D. M. (2020). Trends in solving problems in the development of an innovative economy. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(6), 1205-1209.

7. Toxirov, R. S., & Raxmonov, N. R. O. G. L. (2021). DASTURIY TA'MINOT YORDAMIDA ZAMONAVIY BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 1(1), 181-186.
8. Tokhirov, R., & Rahmonov, N. (2021). Technologies of using local networks efficiently. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 250-254.
9. Tokhirov, R., & Abdurakhimjanov, A. (2021). The Issue Of Modern Strategic Management In Enterprises Or Firms. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(08), 9-14.

YUNESKO RO'YXATIGA KIRITILGAN BUTUNJAHON MADANIY OBYEKT LARI

Abdumannonov Rizobek Iqboljon o'g'li
Qo'qon universiteti talabasi,
Umarov Omonjon
Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur tezisda Yuneskoning butunjahon madaniy obyektlar ro'yxatiga kiritilgan obyekt larni soni va ularni qaysi qit'alarga tegishliligi bo'yicha ma'lumot beramiz.

Kalit so'zlar: Unwto, Afrika, Yunesko, Kreml,

YUNESKO Jahon merosi obyekt i — Birlashgan millatlar tashkiloti Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkilot tomonidan boshqariladigan xalqaro konvensiya tomonidan huquqiy muhofaza qilinadigan diqqatga sazovor joy yoki hududdir. Umumjahon merosi ob'ekt lari YUNESKO tomonidan madaniy, tarixiy, ilmiy yoki boshqa turdagi ahamiyatga ega bo'lganligi uchun belgilangan. Yodgorliklar „Insoniyat uchun ajoyib qadriyat hisoblangan butun dunyo bo'ylab madaniy va tabiiy merosni“ o'z ichiga olgandir

YUNESKO ro'yxatiga kiritilishinig asosiy sabablaridan o'tmishdan hozirgi kungacha saqlanib qolgan obyekt larni saqlab qolish va ularni zarar yetgan qismlarini rekonstruksiya qilishdan iborat. Buning uchun nafaqat butun dunyo balki o'zbekistonda ham ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Madaniy merosning diqqatga sazovor joylari tabiatan noyob va mo'rt bo'lganligi sababli, turizm ma'murlari ushbu madaniy meros ob'ekt larni uzoq muddatli himoya qilish va saqlash bilan birga ularni qanday qilib eng yaxshi tarzda rivojlantirishni o'rganishlari muhim. 1000 dan ortiq tabiiy va madaniy ob'ekt lar Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lsa, turli xalqaro tashkilot larning hozirgi muammosi tez o'zgaruvchan va globallashgan dunyo sharoitida ularning qadriyatlarini himoya qilishni ta'minlashdir.

Bugungi kunda Yuneskoning butunjahon madaniy obyekt lar ro'yxatida 1157 dan ortiq madaniy obyekt lar kiritilgan. Bu obyekt lar har bir hududni madaniyati haqida so'zlovchi asosiy manba hisoblanadi. Biz biladigan butun jahon madaniy meros obyekt lariga kiritilgan joylardan biz dunyoga mashhur Buyuk Xitoy devori, Toj Mahal, Piza minorasi, Kreml va qizil maydonni misol qilib aytishmiz mumkin.

Jahon merosi ob'ekt i sifatida tanlash uchun geografik va tarixiy jihatdan alohida ahamiyatga ega bo'lgan noyob diqqatga sazovor joy bo'lishi kerak. Masalan, Jahon merosi ob'ekt lari qadimiy xarobalar yoki tarixiy inshootlar, binolar, shaharlar, shuningdek, cho'llar, o'rmonlar, orollar, ko'llar, yodgorliklar, tog'lar yoki cho'l hududlari bo'lishi mumkin. Butunjahon merosi ob'ekt i insoniyatning ajoyib yutug'ini anglatishi va sayyoramizdagi intellektual tariximizning dalili bo'lishi mumkin yoki u ajoyib tabiiy go'zal joy bo'lishi ham mumkin. 2021-yil iyul holatiga ko'ra, 167 mamlakatda jami 1154 ta Jahon merosi ob'ekt lari (897 ta madaniy, 218 ta tabiiy va 39 ta aralash ob'ekt lar) mavjud. Tanlangan 58 ta hudud ichida Italiya ro'yxatdagi eng ko'p tarixiy joylarga ega mamlakatdir.

YUNESKO joylarni Jahon merosi ro'yxatiga kiritish orqali ularni kelajak avlodlarga o'tkazishga yordam bermoqchi. Jahon merosi ob'ekt i sifatida ro'yxatga olinishi, uning atrof-muhitiga va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ro'yxatga

kiritilgan obyektlar xalqaro e'tirof va huquqiy himoyaga ega bo'ladi va ma'lum sharoitlarda uni saqlashni osonlashtirish uchun Jahon merosi jamg'armasidan mablag' olishi mumkin.

Mintaqalar bo'yicha Jahon merosi ob'ektlari soni

Mintaqalar	Madaniy	Tabiiy	Aralashgan	Jami	%	Belgilangan mulkka ega ishtirokchi davlatlar
Jami	900	218	39	1157	100 %	167
Yevropa va Shimoliy Amerika	469	66	11	546	47,19 %	50
Osiyo va Tinch okeani	195	70	12	277	23,94 %	36
Arab davlatlari	82	5	3	90	7,78%	18
Afrika	54	39	5	98	8,47%	35
Lotin Amerikasi va Karib dengizi	100	38	8	146	12,62	28

Ushbu jadvalga e'tibor qaratadigan bo'lsak dunyodagi madaniy va tabiiy obyektlar bilan xisoblaganda 1157 tani tashkil qilmoqda va bu mulklarga egalik qilish huquqi 167 ta davlatga topshirilgan. Madaniy obyektlar soni bo'yicha yetakchilik Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlariga tegishli ular jami madaniy obyektning teng yarmini yani 546 tani tashkil qiladi. Undan keyingi o'rinlarda mos ravishda Osiyo va Tinch okeanidagi, Lotin Amerikasi va Karib dengizi, Afrika, Arab davlatlari band etgan

Xulosa qilib aytganda 100 dan ortiq davlatlar o'zlaridagi xududlarni madaniy meros ro'yatiga kiritishgan bu ular uchun judayam ko'p imkoniyatlar yaratiladi ko'plab turistlar oqimini sezilarli darajada saqlab qolishga yordam beradi. yokli bo'lmasa biron bir zarar yetib qolsa davlat mablag'laridan emas, yunesko mablag'lari xisobidan tamirlab beriladi bir tomondan qarasa bo'lsak tekin reklama vazifasini bajarib berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1- UNESCO World Heritage Centre - World Heritage List
- 2- Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Prezident qarori (PQ-5054-son, 06.04.2021-y.)
- 3- R.Toxirov. Tadbirkorlik subyektlari samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. Ilmiy-elektron jurnali.1/2023. 40-43.
- 4- Kokand, F. M., Kokand, R. T., & Kokand, D. M. (2020). Trends in solving problems in the development of an innovative economy. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(6), 1205-1209.
- 5- Toxirov, R. S., & Raxmonov, N. R. O. G. L. (2021). DASTURIY TA'MINOT YORDAMIDA

ZAMONAVIY BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 1(1), 181-186.

6- Tokhirov, R., & Rahmonov, N. (2021). Technologies of using local networks efficiently. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 250-254.

7- Tokhirov, R., & Abdurakhimjanov, A. (2021). The Issue Of Modern Strategic Management In Enterprises Or Firms. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(08), 9-14.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZIMNI RIVOJLANTIRISHDA FESTIVALLARNING O'RNI

Ahmedova Ruxshona Raxmatjon qizi
Qo'qon universiteti talabasi,
Umarov Omonjon
Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasida festivallarni rivojlantirish va turizmga ta'siri hamda uning o'rni haqida bayon etiladi.

Kalit so'zlar: turizm, festival, xalqaro festival, innovatsion turizm g'oyalari, zamonaviy turistik mahsulotlar

Hozirgi jadal rivojlanayotgan davrda turizm O'zbekistonda Respublikasida taraqqiy e'tib bormoqda va o'zining milliy festivallari orqali juda ko'plab xorijiy mamlakat mexmonlarini qabul qilmoqda hamda o'z navbatida yuqori saviyadagi turli xil milliy madaniyatini ko'rsatib o'tmoqda. Jahonda esa o'zining ma'lum bir mavqeyiga ega bo'lmoqda, andoza sifatida juda ko'p yillardan beri O'zbekiston Respublikasining Samarqand shahrida Sharq taronalari musiqa festivali, Namangan shahridagi xalqaro Gullar festivali va Qo'qon shahridagi hunarmandchilik festivallari hamda boshqalar bo'lib o'tmoqda. So'ngi yillarda juda ham ko'plab tashrif buyuruvchilar ko'paymoqda festivallar tufayli hamda bu rivojlanish va milliylikni ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlanishida e'tiborni qaratish maqsadida qaror va farmonlar qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 18.07.2019 yildagi O'RB "Turizm" to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 13.08.2019 yildagi PF-5781 "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga binoan Qo'mita tomonidan har yili "Turizm sohasidagi biznes g'oyalar fabrikasi" festivali tashkil etiladi. Ta'kidlanishicha, biznes g'oyalar innovatsion yechimga ega zamonaviy turistik mahsulotlarni yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Kelib tushayotgan barcha takliflar tahlilidan keyin festivalning eng yaxshi loyihalar bo'yicha g'oliblari aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi milliy musiqa san'atining eng yaxshi namunalari keng targ'ib qilish, milliy musiqa an'analarini saqlash va rivojlantirish, yosh avlodda san'atga muhabbat tuyg'usini uyg'otish hamda xalqaro ijodiy aloqalarni kengaytirish, tinchlik, do'stlik, o'zaro hamjihatlik, madaniy- ma'naviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish maqsadida Sharq taronalari musiqa festivali. Shuningdek hunarmandchilik festivalini Qo'qon shahrida tarixiy ziyoratgohlar bo'ylab uyushtiriladigan sayyohatlar, hunarmandchilik va milliy liboslar ko'rgazmalari, badiiy va hujjatli filmlar tomoshalari, kitoblar, albom va fotosuratlar savdolari, askiya va qiziqchilar, folklor va dorbozlik jamoalari, polvonlar chiqishlari xalqimizning asrlar mobaynida sayqallanib kelayotgan qadriyatlaributun dunyoga tarannum etadi. Bu esa turizmni rivojlantirishda O'zbekistonni tanitishning, va xalqaro munosabatlarni o'rnatib ularni mustahkamlash uchun hamda xalqlar madaniyatini bog'lovchi muhim ko'prikdir.

Shu qatori 2019 yili 21 – 22 mart kunlari Shahrisabzdagi festeval bo'lib o'tdi. Festevalda turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasi tomonidan Navro'z umumxalq bayrami doirasida uyushtirilgan mazkur festival MDH davlatlari dizaynerlari va modelerlarini Shahrisabzda jamladi. Unda O'zbekistonning eng sara dizaynerlarini sanab o'tamiz; "Ra'no collection", "Sindor collection", "Mohigul", "Bukhara brilliant silk", "Banoras", "Guzal collection", "Istorakhan", "Nataly Kondra", "Nodirabegim", "Iroda Agzam Xoja", "Dilorom collection", "Azima", "Kafa" brendlari ostida ish olib borayotgan dizaynerlar bilan bir qatorda, Rossiyaning "Asian spirit", Ozarbayjonning "Gulnara Khalilova", Turkmanistonning "Ayna izbasar", Qirg'izistonning "Kate Zabolotnova", Qozog'istonning "Aynura Maidanova", Gruziyaning "Ketisashvili Mari" brendlari o'zlarining milliy liboslar kolleksiyalari bilan ishtirok etishdi.

Yuqoridagi rasimlardan dizaynerlarni ishlari mahsulini kurishimiz mumkin va festival doirasida Shahrisabz shahri tarixiy markazida o'zbek milliy liboslari, urf-odatlarini, taomlari ko'rgazmalari, sumalak sayillari, dorbozlar va polvonlar musobaqalari, folklor dastalarning chiqishlari, milliy taomlar tayyorlash mahorat darslari, xorijiy dizaynerlar tomonidan yosh dizaynerlar uchun mahorat darslari bo'lib o'tdi.

Ushbu xalqaro festivalda dizaynerlar ishlarini baholashda Rossiya, Belarus, Qozog'iston va O'zbekistonlik ekspertlar qatnashdi. Unda qirg'izistonlik dizaynerlar Katya Zabolotnova hamda Aliya Edilova, O'zbekistondan Iroda Agzamxuja, Turkmanistonlik Ayna Izbasar "Oltin igna sohibi" bo'lishdi. Shuningdek, Qirg'izistonlik Shaxzada Baltabayeva "Bibihanum Award", O'zbekiston vakillari Kumushxon Madumarova "Miss Shahrisabz", Diyora Kamolova "Top Model", Sitora Islomova "Fest Girl" nominatsiyalari bo'yicha sovrindorlar safidan joy olishdi.

O'zbekiston Respublikasida 1997-yili Samarqand shahridagi Registon maydonida bulib o'tkan "Sharq taronalari" festevali Markaziy Osiyodagi eng yirik musiqa va madaniyat festivallaridan biridir. Ushbu festeval 1997 yildan har ikki yilda bir marotaba Samarqand shahridagi ko'hna "Registon" maydonida avgust oyining 2-yarmi oxirida o'tkazilib kelinadi. Festivalda ishtirokchi davlatlar soni yildan yilga ko'paymoqda. Jumladan, birinchi festivalda 34 ta davlat, ikkinchi festivalda 36ta davlatdan 250 dan ortiq vakillar o'z san'atlarini namoyish etdilar. O'tkazib kelinayotgan ushbu festival dunyoning turli mamlakatlaridan eng iste'dodli xonandalar, raqqosalar va sozandalarni jamlaydi. "Sharq taronalari" UNESCO xalqaro madaniy tadbirlari ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, O'zbekiston va uning merosi haqida ko'proq ma'lumot olishni istaganlar uchun mashhur tadbirdir. Festivalga har yili katta tayyorgalik ko'riladi va rang-barang namoyishlarga boy ochilish marosimi dasturi bilan festival boshlanadi. Ochilish marosimida faxriy mehmonlar, jumladan UNESCO prezidenti, O'zbekiston Prezidenti va hokimiyat vakillari o'z nutqlari bilan chiqishadi. Ochilish marosimidan keyin bir hafta mobaynida saralash bosqichlari bo'lib o'tadi. Har bir davlatning vakil guruhi uchun jami 30 daqiqa belgilangan bo'lib, ishtirokchilar o'zlari uchun belgilangan muddat davomida quyidagi yo'nalishlarda ijro etishlari mumkin:

1. Xalq musiqiy ijodiyoti;
2. Milliy mumtoz musiqa;
3. Zamonaviy musiqa, shu jumladan estrada asarlari.

Namangandagi gullar bayrami 1961 yildan buyon o'tkazib kelinmoqda. 2021 yili 60-marotaba o'tkazilgan gul bayramiga Janubiy Koreya, Rossiya, Turkiya, Niderlandiya va qo'shni

davlatlar - Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'iston, Turkmanistondan mehmonlar kelishgan edi. Mazkur tadbirda 150 nafar gulchilik bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar, shuningdek, 300 dan ortiq havaskor gulchilar ishtirok etib, festival tarixida ilk bor 10 million tup gul ko'chatlari ekildi. Festival 2018 yilda xalqaro maqom oldi. Unda O'zbekiston va qo'shni davlatlardan gul yetishtiruvchilar ishtirok etmoqda. Bayram mahalliy aholi va sayyohlar orasida katta qiziqish uyg'otmoqda.

Namanganda joriy yilning 21-maydan 4-iyungacha qadar xalqaro gullar festivali bo'lib o'tadi. Oltmish ikkinchi bor o'tkaziladigan festivalga 2,5 milliondan ortiq mehmonlar tashrifi kutilmoqda. Tadbir Madaniyat va turizm vazirligi, Namangan viloyati hokimligining Madaniyat va turizm boshqarmasi hamkorligida tashkil etiladi. Ta'kidlash kerakki, festival o'z tarixida ikkinchi bor ikki hafta (joriy yil may oyining so'nggi haftasi va iyun oyining birinchi o'n kunligida) davom etadi. 2022 yilda festivalga 30 dan ortiq xorijiy davlatlardan mehmonlar tashrif buyurgan bo'lsa, bu yil 40 dan ortiq mamlakatdan mehmonlar tashrifi kutilmoqda. Ular orasida diplomatik korpus vakillari, Namangan bilan birodarlashgan viloyat va shaharlar mutasaddilari, hamkor qo'shma korxonalarining chet ellik rahbarlari ham qatnashishi rejalashtirilgan. Qolaversa, bayramda ishtirok etadigan gulchilar geografiyasi ham kengaydi: o'tgan yili Janubiy Koreya, Hindistondan gulchilar ko'rgazmada ishtirok etgan bo'lsa, bu yil Germaniya, Hindiston, Polsha, Janubiy Koreya, Qirg'iziston va Italiya gulchilari qatnashadi.

Bundan tashqari, festival bo'lib o'tadigan Namangan shahridagi Zahiriddin Muhammad Bobur nomli istirohat bog'ida 15 million, shahar ko'chalarida 10 million, jami 25 million gul va ko'chatlar ekish rejalashtirilgan. Shuningdek, shahar ko'chalari turfa xil shaklda bezatiladi. Hozirgi kunda Namangan viloyatidagi 25 ta mehmonxona, 9 ta xostel, 526 ta oilaviy mehmon uylari, 6 ta yotoqxona, 18 ta sanatoriy va 4 ta dam olish maskani 8,5 mingdan ortiq mehmonni qabul qilish imkoniyatiga ega. Festival arafasida esa yana 5 ta mehmonxona ishga tushiriladi. Shu bilan birga, festival mehmonlariga xizmat ko'rsatish uchun jami 80 kishidan iborat volontyorlar guruhi shakllantirilmoqda. Xorijiy tillarni puxta o'zlashtirgan yoshlar shaharning mo'jaz xaritalari va bukletlar bilan ta'minlanadi. Festivalning madaniy dasturi ham boy va qiziqarli bo'lishi kutilmoqda. Xususan, «Zahiriddin Muhammad Bobur» nomli istirohat bog'i, «Afsonalar vodiysi» tematik parkida o'rnatiladigan sahnalarda shoir va yozuvchilar, sirk ustalari, o'zbek estradasi yulduzlari va folklor ansambllari chiqishlari namoyish etiladi.

Xulosada shuni aytish mumkinki O'zbekistondagi festevallar turizimni rivojlantirish va o'zimizni milliyligimizni kuchaytirish uchun katta ro'l o'ynaydi hamda o'z navbatida xalqlarni o'rtasidagi umum milliy yangiliklar an'analarni o'rganish. Shuningdek mamlakatlar o'rtasida chambarchas bir ko'priknini bog'lash va xalqaro jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishini ko'rsatib o'tmoqda hamda milliy madaniyatni ko'rsatilinganligi ularni o'z malakasiga yetarli bo'lgan mutaxassislar ishlab chiqqanligini. Zamonaviy dunyoda o'z o'rniga ega bo'lishi va o'z millatning o'z merosini saqlaganligi bu juda quvonarli holat ekanligi ko'rsatib o'tilgan yuqoridagi bari ma'lumotlarda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xalqaro hunarmandchilik festivali – xalqalar madaniyatini bog'lovchi muhim ko'priknini
<http://uzembassy.kz/uz>

2. Turizimni rivojlantirish davlat qo'mitasi eng yaxshi biznes g'oya va startaplarni moliyalashtirish <https://www.spot.uz>
3. Prezidentning "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" <https://lex.uz/docs/-4474527>
4. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 18.07.2019 yildagi O'RQ "Turizm" to'g'risida
5. <https://xs.uz/uz>
6. R.Toxirov. Tadbirkorlik subyektlari samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. Ilmiy-elektron jurnali.1/2023. 40-43.
7. Kokand, F. M., Kokand, R. T., & Kokand, D. M. (2020). Trends in solving problems in the development of an innovative economy. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1205-1209.
8. Toxirov, R. S., & Raxmonov, N. R. O. G. L. (2021). DASTURIY TA'MINOT YORDAMIDA ZAMONAVIY BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 1(1), 181-186.
9. Tokhirov, R., & Rahmonov, N. (2021). Technologies of using local networks efficiently. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(6), 250-254.
10. Tokhirov, R., & Abdurakhimjanov, A. (2021). The Issue Of Modern Strategic Management In Enterprises Or Firms. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 3(08), 9-14.

IQTISODIY SIYOSATNING RIVOJLANISHIDA FISKAL VA PUL-KREDIT SIYOSATI**Abdullaev Ahrorjon****Qo'qon universiteti iqtisodiyot yo'nalishi 3-bosqich talabasi,****Xurshid Gafurov****Qo'qon universiteti katta o'qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirishda asosiy e'tibor davlat farovonligini oshirish va uzoq muddatli makroiqtisodiy barqarorlikni saqlashga qaratilishi kerakligi, fiskal va pul-kredit siyosatini samarali yo'lga qo'yish rivojlanish uchun muhim qadam ekanligi yoritib berilgan. Ushbu maqola soliq-byudjet va pul-kredit siyosatini shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash maqsadida ularni muvofiqlashtirishni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashga qaratilgan. Biz fiskal-pul aralashmasini o'rganish uchun institutsional yondashuvni ishlab chiqdik. Fiskal choratadbirlarni amalga oshirish uchun qulay pul sharoitlarini yaratish va pul-kredit tartibga solish uchun muvozanatli byudjetni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari davlat xarajatlarining turlari va inflatsiyaning ham iqtisodiy siyosatga bog'liqligini ham qisman yoritib berdik.

Kalit so'zlar: iqtisodiy siyosat, fiskal siyosat, pul-kredit siyosati, byudjet, soliqlar, iqtisodiy rivojlanish

Kirish: Moliyaviy va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish makroiqtisodiy barqarorlik va barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy sharti hisoblanadi. Bundan tashqari, uzoq muddatli istiqbolda fiskal yoki pul-kredit tartibga solishni monistik qo'llash orqali etakchi ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga amalda erishib bo'lmaydi. Nisbatan uzoq vaqt davomida rivojlangan mamlakatlarda fiskal ustunlik yoki monetarizm rivojlanish siyosatining asosini tashkil etdi. Amaliy tajriba fiskal va pul-kredit siyosatining yaqin o'zaro ta'sirida, ayniqsa, tanazzul davrida ushbu ilmiy tushunchalarning yaqinlashishi asosli ekanligini tasdiqladi. Ushbu siyosatlarning etarli darajada uyg'un emasligi jiddiy halokatli iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Yaxshi muvofiqlashtirilgan fiskal va pul-kredit tartibga solish chora-tadbirlari institutlarning past sifati bilan birgalikda davlat moliya siyosati samaradorligini pasaytiradi. Tegishli sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilib, ularni uyg'un va murakkab qo'llash juda muhimdir. Fiskal va pul-kredit institutlari o'zlarining funktsional vakolatlarini amalga oshirishda bir-biridan keskin farq qiladi.

Fiskal va monetar institutsional vositalar o'ziga xos xususiyatga ega va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati va yalpi talabga ta'sir qiladi. Moliyaviy siyosat chora-tadbirlarini tayyorlashda institutsional mustaqillik turli iqtisodiy nazariyalarga asoslangan holda uning asosligini oshiradi. Hokimiyat o'rtasida vakolatlarining qayta taqsimlanishi moliyaviy vositalar va vositalarning iqtisodiyotga ta'siriga nisbatan sezilarli darajada farq qiluvchi institutsional yondashuvlarni taqdim etish va makroiqtisodiy barqarorlik uchun asosiy xavf va tahdidlarni aniqlash imkonini beradi. Moliyaviy maqsadlar narxlar barqarorligiga jiddiy putur etkazmasligi kerak, shu bilan birga mukammal pul-kredit regulyatorining nazorati tanazzulga olib kelmasligi kerak. Iqtisodiy siyosatning noaniqligini va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgaruvchanligini kamaytirish uchun o'rta muddatli istiqbolda ham fiskal,

ham pul-kredit organlarini muvofiqlashtirish kerak. Tegishli iqtisodiy qarorlarining davomiyligi, tabiati va kechikish effektlariga katta e'tibor qaratish lozim. Maxsus institutsional va operatsion tuzilmalar fiskal va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishga yordam berishi mumkin.

Asosiy qism: Hukumat fiskal va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish samaradorligini baholashni doimiy ravishda takomillashtirdi. Inflyatsiya siyosatning o'zaro ta'sirining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi; narx barqarorligi tartibga solish samaradorligini o'lchash mezoni hisoblanadi. Inflyatsiya dinamikasining qisman fiskal xususiyatiga kelsak, narxlar barqarorligi uchun to'liq javobgarlikni markaziy bankning harakatlari bilan bog'lab bo'lmaydi. Davlat organlarining iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va fiskal vositalar orqali yalpi talabni rag'batlantirish niyatlari davlat pul-kredit siyosatida o'z ifodasini topadi. Rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida byudjet siyosati inflyatsiyaga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Byudjet xarajatlarini tartibga solish inflyatsiyani kuchaytiradi; bu fakt ortib borayotgan yalpi talab bilan mos keladi. Boshqa tomondan, soliq siyosatining iste'mol narxlari indeksiga ta'siri unchalik aniq emas: iste'molga soliq yukining oshishi inflyatsiyani tezlashtiradi; daromad solig'i oshsa, narxlar oshishi mumkin. Demak, ham fiskal, ham pul-kredit choralari milliy iqtisodiy modelni hisobga olgan holda inflyatsiyaning o'zgaruvchanligini optimal qiymatlarga kamaytirishi kerak.

Tovar iqtisodiyoti rivojlangan va texnologik jihatdan diversifikatsiyalangan mamlakatlarga qaraganda bir oz yuqori inflyatsiyaga ega. 2003 yildan 2018 yilgacha Braziliyada o'rtacha iste'mol indeksi mos ravishda 6,32%, Qozog'istonda - 8,23%, Hindistonda -6,78%, Rossiya Federatsiyasida -9,16% va Evropa Ittifoqida - 1,84% edi. Davlat moliya siyosati tarkibiy qismlarining o'zaro ta'siri ko'p jihatdan institutsional muhit sifatiga bog'liq. Tovar iqtisodiyoti an'anaviy ravishda etarli darajada institutsional rivojlanish va populizmga ega emas (davlat moliya siyosati qo'llaniladi). Urushdan keyingi davrda jahondagi eng yuqori inflyatsiya darajasi bilan tavsiflangan Venesuela tajribasi yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Iqtisodiyotlari rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy intizomni yaxshilash uchun pul-kredit qoidalarini takomillashtirish va tegishli siyosatni modernizatsiya qilish avtomatik ravishda ma'lum byudjet cheklovlari bilan bog'lanadi. Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun moliyaviy tartibga solish chora-tadbirlarining ta'sir etuvchi omillari ham, ularning jamoatchilikka taqdim etilishi ham muhim ahamiyatga ega. Pul-kredit va fiskal siyosatning chora-tadbirlari bir vaqtning o'zida xalq farovonligini oshirish va uzoq muddatli makroiqtisodiy barqarorlikni saqlashga qaratilgan. Muhim ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgaruvchanligi, ularning ekzogen zarbalarga hal qiluvchi zaifligi va rivojlanishning yuqori darajadagi noaniqligi ishlab chiqarish o'sishini yomonlashtiradi. Moliyaviy va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish tegishli maqsadlarning dialektik birligiga yo'naltirilishi kerak. Iqtisodiy barqarorlikka kelsak, past va barqaror inflyatsiya ko'rinishidagi narxlar barqarorligiga amalda faqat davlat moliyaviy chora-tadbirlarining muvofiqlashtirilgan o'zaro ta'siri orqali erishish mumkin. Soliq bazasini kengaytirish va davlat xarajatlarini optimallashtirish bilan bog'liq sohadagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida iste'mol indeksi darajasining bosqichma-bosqich qisqarishi va o'zgaruvchanlik iqtisodiy siyosat to'g'ri tashkil etilayotganidan dalolat beradi.

Iqtisodiy o'sish umumiy resurslar samaradorligini oshirishga qaratilgan fiskal tizimning institutsional arxitektonikasini moslashtirish imkonini beradi. Iste'molchi maqsadlarini e'lon qilish va investitsiya talabini rag'batlantirishni hisobga olgan holda xarajatlar tarkibini optimallashtirishda byudjet mablag'larining samaradorligi va ulardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. Rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida davlat xarajatlarning keskin o'sishi ularning ishlab chiqarish tarkibiy qismining o'sishiga ta'sir qilmaydi, chunki byudjet siyosatining iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish qobiliyati past. Uzoq muddatli byudjetni rejalashtirishga kelsak, asosiy byudjet ko'rsatkichlarining nisbatan o'rtacha o'sish sur'ati fiskal mexanizmning narxlar oshishiga ta'sirini kamaytiradi.

Iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda Davlat xarajatlari muim ahamiyatga ega. Davlat xarajatlari qisqa muddatli va uzoq muddatli (o'rta muddatli) tarkibiy qismlarga bo'linadi. Uzoq muddatli komponentga katta iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy, mudofaa dasturlari va boshqalar bilan bog'liq byudjet xarajatlari kiradi. Ularni qisqa muddatda to'liq amalga oshirish mumkin emas. Uzoq muddatli davlat xarajatlari odatda prognoz qilinadigan va rejalashtirish davrida nisbatan barqarordir. Davlat xarajatlarning qisqa muddatli tarkibiy qismi, birinchi navbatda, yalpi talabni rag'batlantirishga qaratilgan iqtisodiy o'sish dinamikasining davriy o'zgarishlariga markaziy ijro etuvchi hokimiyat organlarining maqsadli munosabatini aks ettiradi.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Davlat moliyaviy strategiyasi ijtimoiy rivojlanishning tegishli bosqichida makroiqtisodiy tendentsiyalar va maqsadlardan kelib chiqqan holda tartibga solish chora-tadbirlarini tayyorlash va amalga oshirishning o'zgaruvchan iqtisodiy siyosatini nazarda tutadi. Makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash va uning endogen rivojlanish omillarini kuchaytirish uchun fiskal va pul-kredit vositalarini oqilona muvofiqlashtirilgan holda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy moliyaviy strategiyaning ustuvor yo'nalishlari barqaror iqtisodiy o'sish uchun qulay fiskal, pul va investitsiya sharoitlarini oqilona institutsional cheklovlar bilan birlashtiradi. Markaziy bank va fiskal organlarning faoliyatini institutsional yondashuv asosida muvofiqlashtirish, ularning o'zaro hamkorligining shaffofligi va samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Vakolatlarning sadoqatlilikligi moliyaviy vositalarning uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy rivojlanishga ta'siriga bir nechta yondashuvlarni taqdim etishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Afonso,A., & Furceri,D. (2010). Government size, composition, volatility and economic growth. *European Journal of Political Economy*, 26(4), 517-532.
2. A Akhrorjon. (2022). Reasons, problems and consequences for the accession of the Uzbek ecanomy to the WTO. *International scientific conference "Topical issues of the economy in modern ...*
3. LahutinV. (2017). Economic policy of the state and effects of its realization. *Herald of Kyiv national university of trade and economics*. 4. 5-20.
4. M Mamadjonov, A Abdullayev, I Abdurahmonov, A Mamadaliyev. (2021). Challenges of management in the digital economy. *Scientific progress*, 2 (6), 1533-1537. .Toxirov.

Tadbirkorlik subyektlari samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. Ilmiy-elektron jurnali.1/2023. 40-43.

5. Kokand, F. M., Kokand, R. T., & Kokand, D. M. (2020). Trends in solving problems in the development of an innovative economy. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1205-1209.

6. Toxirov, R. S., & Raxmonov, N. R. O. G. L. (2021). DASTURIY TA'MINOT YORDAMIDA ZAMONAVIY BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 1(1), 181-186.

7. Tokhirov, R., & Rahmonov, N. (2021). Technologies of using local networks efficiently. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(6), 250-254.

8. Tokhirov, R., & Abdurakhimjanov, A. (2021). The Issue of Modern Strategic Management in Enterprises or Firms. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 3(08), 9-14.

MAMLAKATIMIZDAGI RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TAHLILI

Elmurodov Mukhammadkodir
Student of Kokand University

Annotatsiya: XXI asr texnologiyalar asrida raqamli iqtisodiyot juda ham jadallik bilan rivojlanmoqda. Axborot texnologiyalaridan foydalanish yangidan yangi g'oyalarni ishlab chiqarish asr talabi bo'lib qolmoqda. Bunday sharoitda ko'plab mamlakatlar raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha yangi rejalar va qarorlar ishlab chiqarmoqda. O'zbekistonda ham bu yo'nalishlarda istiqbolli harakatlar olib borilmoqda. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot hamda O'zbekistondagi raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini o'rganadi.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, e-tijorat, innovatsiya, texnologiya, xizmatlar, tizim, strategiya.

Kirish: Hozirgi kunda butun dunyo jadallik bilan rivojlanmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar juda ham tez rivojlanmoqda. Biz endi hayotimizni texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydigan darajaga keldik. Biz bu texnologiyalar yordamida bir qancha ishlarni yengillashtirmoqdamiz. Vaqtimizni tejayapmiz, uzoq masofalardagi ishlarimizni ham tez hal qilmoqdamiz. Yurtimizga ham raqamli iqtisodiyot shu jumladan elektron xizmatlar, elektron tijorat va bizneslar shiddat bilan kirib kelmoqda. Buning natijasida ko'plab xizmatlar hattoki davlat xizmatlari ham online xizmatlarga o'tmoqda. Oddiy misol agar davlatning raqamli xizmatlaridan foydalansak bizga 10 foizgacha chegirma berilmoqda [1]. Bundan ko'rinib turibdiki, bizning mamlakatimiz ham raqamli iqtisodiyotni qo'llab quvvatlaydi. Yana misol keltiradigan bo'lsak bank xizmatlari ham raqamlashmoqda. Bankka borib, navbat kutib to'lovlarni amalga oshirishingiz shart emas, bankning mobil ilovasi orqali ham xizmatlardan uyda o'tirgan holda foydalanishingiz mumkin. Albatta bu juda ham yaxshi qulayliklardir.

Yurtimizda mashhur bo'layotgan yetkazib berish xizmatlari, online bizneslar ya'ni e-tijoratga misol bo'la oladi. E-tijorat bu – internetdan foydalangan holda savdo-sotiqni amalga oshirishimizdir. Bu albatta raqamli iqtisodiyotning ko'rinishlaridan biridir. Biz hozirda uydan chiqmasdan turib biror buyum yoki oziq-ovqatga buyurtma bersak bo'ldi, o'zlari uyimizga yetkazib berishadi.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot atamasi juda ko'p uchraydi. Chunki rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida raqamli iqtisodiyot yaxshigina ta'sir ko'rsatadi. Bundan ko'rinib turadiki, raqamli iqtisodiyot jamiyat hayotida muhim rol o'ynamoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Raqamli iqtisodiyot – bu jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan, raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog'liq iqtisodiy faoliyat, hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqariladigan va sotiladigan raqamli tovarlar, xizmatlar yig'indisidir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi [5].

Raqamli iqtisodiyot atamasini 1995-yilda amerikalik Nikolas Negroponte asli dasturchi bo'lgan inson amaliyotga kiritgan. Hozirga kelib esa bu termini siyosatchi, journalist, dasturchi deyarli hamma kasb egalari qo'llamoqda.

Taniqli sotsilog va olim Lyotard [6] IT texnologiyalarining rivojlanishi va bilimlarning universal tarqalishi bozorda tovar sifatida bilim almashish imkonini berishini ta'kidladi. IT-texnologiyalarni rivojlantirish raqamli iqtisodiyotni o'rnatish uchun hal qiluvchi omil sifatida qaralmoqda. Ilg'or IT texnologiyalari tarmoqqa asoslangan ma'lumotlar bazalari kabi yangi ommaviy axborot vositalarining paydo bo'lishiga olib keldi va kompyuter tarmoqlari va Internetning rivojlanishi butun dunyodan ma'lumot va bilimlarni to'plashni osonlashtirdi. Axborot yoki bilim intensivligi IT texnologiyalari yordamida axborot va bilimlarning iqtisodiyotning ishlab chiqarish omillari sifatida ahamiyatini oshirdi [7].

Bizning mamlakatimizdagi har bir sohaga jumladan qishloq xo'jaligi, sanoat, maishiy xizmatlar, ta'lim, sog'liqni saqlash, davlat xizmatlariga ham "raqamli iqtisodiyot" shiddat bilan kirib kelmoqda. Shuning uchun ham, respublikamizning iqtisodiyotini yaxshilash maqsadida hamda raqamli iqtisodiyotni tezroq olib kirish maqsadida hukumatimiz tomonidan bir qancha qarorlar qabul qilinmoqda. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" [8], deb nom berilishi, Prezidentimizning 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349 sonli "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" [9]gi Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" [10]gi PQ-3832 03.07.2018 qarori, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-avgustdagi raqamli iqtisodiyotning maqsad va vazifalarini belgilab beradigan "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni joriy qilish va yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlarining qabul qilinishi respublikamizda raqamli iqtisodiyotni davlat boshqaruv tizimiga tadbiiq qilish, zamonaviy axborot texnologiyalarni jadal rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, axborot havfsizligini ta'minlash maqsadida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qonuniy asos yaratdi [11].

Natijalar va muhokamalar: Pandemiya sharoitida e-tijorat juda ham tez rivojlandi. Ko'plab odamlar onlayn xizmat turiga o'tishga majbur bo'lishdi. Buning natijasida esa raqamli iqtisodiyot juda ham tez rivojlandi. Pandemiya zaiflashganidan keyin ham odamlar onlayn xizmatlarni ma'qul ko'rishdi. Bu shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot esa kuchli iqtisodiyotga aylanib, raqobatbardosh bo'lib bormoqda. Buning natijasida yangidan-yangi ish o'rinlari ochilmoqda. Raqamli iqtisodiyot bundan keyin ham mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, mutaxassislarni jalb qilish va bandlikni kengaytirish uchun xizmat qiladi.

2017 yilning 24 may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Ushbu qarorda "Mustaqillik yillarida xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, buyuk allomalarimiz, aziz-avliyolarimizning ilmiy, diniy va ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, muqaddas qadamjolarini obod qilish, yosh avlodni ularning ezgu an'analari ruhida tarbiyalash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi va izchil davom ettirilmoqda", -deya alohida ta'kidlab o'tilgan. Qarorga asosan mustaqillik yillarida xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, buyuk allomalarimiz, aziz-avliyolarimizning ilmiy, diniy va ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, muqaddas qadamjolarini obod qilish, yosh avlodni ularning ezgu an'analari ruhida tarbiyalash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi va izchil davom ettirish maqsad qilib qo'yilgan va bular mamlakatimizda asta sekinlik bilan bosqichma - bosqich amalga oshirilmoqda.

Darhaqiqat o'tgan yillar davomida yurtimizda yashab o'tgan ulug' allomalar hayoti va ijodini o'rganishga katta e'tibor qaratildi.

Buyuk allomalarimiz ta'limotlarida kamtarlik insoniy eng go'zal fazilat ekanligi, u inson madaniyati, uning odamiyligi, mardligi kabi xislatlar bilan belgilanadi. Inson kamtarligi eng avvalo uning mehnatida namoyon bo'ladi, kamtar kishida havo-nafs, g'urur, manmanlik

bo'lmaydi, u odob-axloqli, mehr-shafqatli bo'ladi, ishida, so'zida qat'iy turadi. O'zbek madaniyati, chunonchi sharqona milliy tarbiya nazariyasi va amaliyoti har bir tarixiy davr va bosqichlarda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda o'z ta'sirini o'tkazib kelgan.

O'tmishda ota-bobolarimiz, buyuk allomalarimiz, yuksak ma'rifat sohiblari baxt-saodatni ozodlik, erkinlikda ko'rganlar. Sharqning buyuk allomalari inson aqlini yuksakka ko'tarib, uning qobiliyati va aql zakovatiga ishongan. Qadimdan mutafakkir allomalarimiz barkamol avlodni tarbiyalash insoniyatning eng yuksak orzusi ekanligini o'z asarlarida tarannum etib kelgan. Biroq, dunyo xalqlarining barchasi ham bu haqda o'ylayvermagan. Bunday orzudagi insonlar azaliy ma'rifatga, madaniyatga mansub bo'lgan yurtlarning donishmandlari – eng mo'tabar ziyolilari hukmdorlari hisoblanganlar. Ularning orasida O'zbekiston deb atalmish muazzam zaminimizda yashagan bobokalonlarimizning o'z o'rni, hurmati bor. Bu jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan haqiqatdir. Biz o'zligimizni anglab, mutafakkir bobolarimiz merosidan unumli foydalana bilsak, hech mubolag'asiz aytish mumkinki, ta'lim-tarbiya sohasida dunyoning eng ilg'or mamlakatlariga yetib olamiz. Bu esa har qanday boylikdan afzaldir.

Adabiyotlar tahlili. Insoniyat jamiyati taraqqiyotida yetuk insonlarning faoliyati, sa'y-harakatlari natijalari muhim o'rin tutadi. Bunday insonlar davlat va xalq arboblari (shohlar, podshohlar, amirlar, beklar), ma'naviyat-ma'rifat darg'alari (allomalar, mutafakkirlar, donishmandlar), din peshvolari (payg'ambarlar, ulamolar, shayxlar, imomlar) siyomosida jamiyat taraqqiyotida sezilarli o'rin tutganlar. Bunday shaxslarning surat va siyratlari, bajargan ishlari to'g'risida turli xil manbalarda yozib qoldirilgan va kelajak avlod ana shunday xislat-fazilatlariga ega bo'lishga undalgan.

Mashoyixlarning aytishlaricha: "Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdur". Shuningdek, taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" deya ta'kidlagan edi.

Abu Rayhon Beruniy insoniyat tarixida birinchilardan bo'lib bolalarni kichik yoshidan mehnat qilishga o'rgata borish, kattalar mehnatini e'zozlaydigan qilib tarbiyalash, bolani ilm va kasbga o'rgatish oilaning diqqat markazida bo'lishi kerakligi haqida fikr bildirgan. Alloma oilada boshlangan mehnat tarbiyasini maktabda ta'lim bilan birga hunar o'rgatishga bog'lab davom ettirish lozimligini alohida ta'kidlagan. Ulug' mutafakkir mehnat va kasb-hunar vorislik asosida avloddan-avlodga meros bo'lib o'tishini sinchkovlik bilan o'rgangan va insonlarning hunarmandchilik faoliyatlarini yuqori baholagan. Mahmud Qoshg'ariy "Devoni lug'atit turk" asarida –Ilmli, aqlli odamlarga yaxshilik qilib so'zlarini tingla. Ilmlarni, hunarlarni o'rganib, amalga oshirdi" deydi. Allomaning ushbu fikri kishilarni mehnat qilishga, yaxshilikka undaydi, yomonlikni qoralaydi. Ilm va hunar sohiblarini e'zozlab, kishilarni ulardan ibrat olishga chaqiradi. Bugungi kunda yosh avlodni milliy ma'naviy axloq-odob ananalari yordamida tarbiyalash, komil inson qilib o'stirishda sharqona odob-axloqqa tayanish borasida boshlangich sinflar dasturida ham alohida takidlanadi.

Ta'lim-tarbiya rivojida o'lka jadidlarining ham o'rni beqiyos. Jadidlarning ma'rifiy va ma'naviy fikrlari hozirgi zamonamiz uchun ham juda muhim va ularni o'rganishimiz kerak. Jadidchilik harakati tarixiy shartli ravishda 3 guruhga bo'linadi.

Aytishimiz kerakki mana shu 3-bosqichda ko'plab nodir qo'lyozmalar: diniy va dunyoviy mavzudagi asarlar yaratilib ularda "Ilm o'rganish har bir musulmon ayol va erkak uchun farz" yoki muqaddas kitobimiz Qur'oni Karim ham "Iqro" yani o'qi deyilgani ilm olish va o'qish uchun esa axloqiy tarbiya birinchi o'rinda turishi kerakligi bildirilgan.

Ahmad Farg'oniy buyuk uyg'onish davrida Farg'onada tavallud topgan bo'lib, uning unumli va sermas'ul ilmiy faoliyati arab xalifaligi mintaqasidagi Damashq va Bag'dod shaharlari bilan bog'liqdir.

Qomusiy olim Ahmad Farg'oniyning ilmiy-ijodiy faoliyati, qaysi sohada bo'lmasin, ishni boshlashdan oldin maqsad va keyin vazifani belgilashdan iboratligi xarakterli holdir. Uning asarlari jahonning turli tillarida bir necha bor qayta tarjima qilingan.

Ahmad Farg'oniyning tinimsiz samarali ilmiy mehnati va faoliyati tufayli buyuk falakiyotshunos sifatida ilmiy rivoziyot va jug'rofiya sohasida katta obro' qozondi.

Ahmad Farg'oniyning ilmiy-nazariy ijodi hatto Ptolomeydek buyuk olimning falakiyot ilmiga bag'ishlangan "Almajistiy" nomli kitobiga sharxlar yozishga izoh va qo'shimchalar kiritishga imkon berdi. Uning falakiyot ilmiga doir asari so'ngida jug'rofiy joylar jadvali o'rin olgan. Ahmad Farg'oniyning asarlari o'zidan keyingi dunyo olimlariga qo'llanma sifatida xizmat qildi va xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham u buyuk muallif va pedagogdir.

Imom Ismoil al-Buxoriy insoniyat madaniyatiga benazir hissa qo'shgan, zaminu-zamonlarda barcha avlodlarga ma'naviy ozuqa baxsh etgan Imom al-Buxoriy axloq va odobga oid hadislar mujassamlangan, ahamiyatiga ko'ra Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi diniy manba deb e'tirof etilgan "Al-Jome' as-Saxih" kitobidan keyin yaratgan "Al-adab al-mufrad" ("Adab durdonalari") asarida axloqiy qadriyatlarni bayon etadi.

Imom Ismoil al-Buxoriy ushbu asarlarida axloq, odob haqida so'z yuritir ekan, odamlarni ota-onaga hurmatda bo'lishga, onani e'zozlashga, mehr-oqibatli, pok va iymonli bo'lishga da'vat etadi, yaxshilik qilish insonning muqaddas burchi ekanini ta'kidlaydi.

Ajdodlarimiz o'z asarlarida yoshlarning kasbiy mehnat ta'limi va tarbiyasiga juda katta e'tibor berganlar. Ular kasb-hunar ta'limiga ta'lim va tarbiyaning zaruriy tarkibiy qismi sifatida yondashganlar va uni aqliy, jismoniy va ma'naviy tarbiya bilan birga olib borish zarur, deb hisoblaganlar.

Umuman, ulug' yurtdoshimiz Imom Ismoil al-Buxoriy butun umrini umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni tiklash, mustahkamlash va kelgusi avlod uchun tuhfa qilib qoldirish, butun dunyo musulmonlarida axloqi karima va odobi haqida olijanob xislatlarni tarkib toptirishga bag'ishladi. Ularni pokizalikka, iymonli, e'tiqodli, sof vijdonli va insofli bo'lishga da'vat etdi. Ulug'mutafakkirning axloq-odob va ta'lim-tarbiyaga oid pand-nasihatlar va o'g'itlari mustaqilligimizni mustahkamlash, yosh avlodni illatli va qabih yo'llardan qaytarishda, shubhasiz, o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi, albatta.

Abu Rayhon Beruniyning ta'lim berish kishi ruhiyatiga, qobiliyatiga mos, uni toliqtirmaydigan bo'lishga e'tibor beradi va shunday yozadi: "Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir. Hadeb bir narsani o'qiy berish zerikarli bo'ladi va toqatni toq qiladi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'rog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas, boshqa bog' boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. "Har bir yangi narsa rohat bag'ishlaydi" - deb behuda aytilmagan".

Xulosa. Xulosa qilib aytganda o'zbek xalqi mustaqillikka erishdi. O'tmishda ota-onalarimiz, buyuk allomalarimiz, yuksak ma'rifat sohiblari baxt-saodatni, ozodlik, erkinlikda ko'rganlar, shuningdek Vatan va xalq istiqboli, baxtiyor turmush, fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq ekanligi haqida ta'lim berganlar.

Yuqorida zikr etilgan buyuk insonlarning merosi ilmiy-nazariy jihatdan ma'lum darajada o'rganildi. Biroq o'sha merosning pedagogik qirralari hali atroflicha tadqiq qilinmagan. Holbuki hozirgi mustaqillik davrida xalqimiz mafkurasini puxtaroq tarbiyalashda ilmiy va madaniy an'analar, urf-odatlar, milliy qadriyatlarni keng ko'lamda targ'ib va tashviq etish nihoyatda muhimdir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ta'lim-tarbiya sohasida, milliy axloq-odobni qayta tiklash borasida, milliy urf-odatlar, turli-tuman an'analarni joy-joyiga qo'yish, milliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish xususida juda keskin va buyuk burilishlar bo'layotgani barchaga ayondir. Ayniqsa "O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat" degan shiorning

yuksak ko'tarilishi jumhuriyatimizni har sohada mustahkamlanishi zarurligi yo'lini belgilab beradi. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni chuqur bilimli va pokiza axloq-odobli qilib tarbiyalash bilan bevosita bog'liq ekanligini barcha ta'lim xodimlari yoddan chiqarmasliklari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev " Ma'naviy taraqqiyot " Ma'rifiy islohotlar va barkamol inson tarbiyasi. 261-bet.
2. Sh.M.Mirziyoyev " Ma'naviy taraqqiyot " Ta'lim – tarbiya : yangi imkoniyatlar . 211-bet
2. Sh.M.Mirziyoyev-Erkin va Farovan Demokratik O'zbekiston Davlatini Birgalikda Barpo Etamiz 211-bet
3. Sh.M.Mirziyoyev- Yangi O'zbekiston-Taraqqiyot strategiyasi 215-bet
4. Sh.M.Mirziyoyev " Ma'naviy taraqqiyot " Ma'rifiy islohotlar va barkamol inson tarbiyasi. 261-bet
- Sh.M.Mirziyoyev " Ma'naviy taraqqiyot " Ta'lim – tarbiya : yangi: imkoniyatlar 211 bet.
- 5 I.A.Karimov "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" "Sharq" nashriyoti. Toshkent 1998 yil.
6. K.Hoshimov, S.Ochil. "O'zbek pedagogikasi antologiyasi" "O'qituvchi". Toshkent, 1995 yil.
7. K.Munavvarov "Pedagogika" "O'qituvchi". Toshkent, 1996 yil.
8. K.Hoshimov, M.Nishonova, R.Inomova "Pedagogika tarixi" "O'qituvchi", Toshkent 1996 yil.
9. A.Zunnunov "O'zbek pedagogikasi tarixi" "O'qituvchi", Toshkent 1997 y.
- R.Mavlonova, K.To'raeva, A.Xoliqberdiev. "Pedagogika" "O'qituvchi" Toshkent 2001 yil.
10. N.G'aybullayev, R.Yodgorov, R.Mamatqulov. "Pedagogika", "Sharq", Toshkent, 2005 yil.
11. B.Ziyomammedov "Pedagogika" "To'ron-Iqbol", Toshkent, 2006 yil
12. Abdulla Avloniy."Turkiy guliston yoxud axloq"
Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 Sharq mutafakkirlari ilmiy merosining yosh avlod tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati O'sarova Gulrux Axmatovna
13. Abu Nasr Forobiy. Fozil shahar aholisi qarashlari haqida risola // V kn.: С.Н.Григорян. Из истории Средней и Ирана VII-XII веков. –М., 1960. 136-6. 2 Qarang:Forobiy Majmut at-rasil al-hukuma.O'z FA 18.Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutida arab tilida saqlanayotgan 2385raqamli ostidagi qo'lyozma 2a sahifasi. www.oriens.uz May 2022
- 14.<http://www.genderi.org/samarqand-davlat-universiteti-pedagogika-kafedras.html?page=132>
- 15.<https://azkurs.org/mavzu-pedagogika-fanining-ilmiy-tadqiqot-metodlari-reja-kirish.html?page=2>
16. <https://azkurs.org/2-oqitishning-amaliy-metodlari.html>

MAKTABGACHA INKLYUZIV TA'LIM - INKLYUZIV JAMIYAT VA MADANIYAT ASOSI

Arslanova Madinaxon Mansurovna
"Ta'lim" kafedrası dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada so'z O'zbekistonda "Inson qadri uchun" g'oyasi bilan uyg'unlashgan insonparvar va inklyuziv jamiyat qurish jarayonlarida maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning joriy etilishi, uning jamiyat ijtimoiy hayotidagi o'rni va ahamiyati to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, inklyuziv madaniyat, imkoniyati cheklangan shaxslar, ijtimoiy muhit, jamoatchilik, ijtimoiylashuv, ijtimoiy institut.

Yurtimizda "Inson qadri" uchun degan ezgu g'oya davlat ijtimoiy siyosatining mazmun-mohiyatini yaqqol ifoda etmoqda. Keyingi yillarda nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatning barcha sohalari va jabhalaridagi huquq-manfaatlarini ro'yobga chiqarish va kafolatlashga yo'naltirilgan tizimli amaliy ishlar ham yangi bosqichga ko'tarilib, xalqimizning insonparvarlik madaniyati hamda butun dunyoda umume'tirof etilgan andozalar va indekslarga yanada moslashib bormoqda.

"Biz O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta'minlashni ustuvor vazifa etib belgiladik. Bu siyosat bir yil bilan cheklanib qolmasligi, doimo bardavom bo'lishi barchamizga ayon" [1], degan edi davlatimiz rahbari SH. Mirziyoyev 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida.

Ma'lumki, bugungi kunda ta'limning barcha bosqichlarida bo'lgani kabi maktabgacha ta'lim tizimida ham inklyuziv ta'lim faol joriy etilmoqda. Bu borada keyingi yillarda zarur normativ-huquqiy asoslar yaratilib, moddiy-texnik, pedagogik va metodik ta'minot masalalari bosqichma-bosqich hal etilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, inklyuziv ta'lim maktabgacha ta'limning muhim va ajralmas tarkibiy qismiga, uning umumiy sifati va samaradorligini belgilovchi omillardan biriga aylanmoqda.

Inklyuziv ta'limning fuqarolarning ijtimoiy haq-huquqlari qatorida konstitusiyaviy jihatdan mustahkamlanayotganligi esa O'zbekistonda inklyuziv jamiyatga o'tish yo'lidagi eng muhim qadamlardan biri bo'ldi [2,1].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining talqiniga ko'ra, inklyuziv jamiyat deganda - irq, jins, sinf, hudud, avlod va boshqa farqlarga ko'ra kamsitilishni inkor etadigan hamda jamiyatning barcha a'zolari uchun o'zaro hamkorlik va imkoniyatlar muhiti yaratiladigan, ijtimoiy munosabatlarga ko'maklashuvchi ijtimoiy institutlar mavjud bo'lgan jamiyat tushuniladi [3,7].

Inklyuziv jamiyatning shakllanishi esa birinchi navbatda jamiyatning barcha a'zolaridan yetuk inklyuziv madaniyatni talab etiladi. O'zbekiston kabi inklyuziya tushunchasi bosqichma-bosqich kirib kelayotgan mamlakatlarda esa har ikkalasi ham o'zaro bir-birini to'ldirgan holda uzviylikda rivojlanib boradi.

Inklyuziv madaniyat esa, jamiyatdagi odamlar, uning barcha a'zolarining bir-birlariga nisbatan bag'rikenglik, insonparvarlik va xavfsiz munosabatida namoyon bo'ladi. Bunday madaniyat egalari bo'lgan insonlar turli tafovutlaridan qat'iy nazar bir-birlari bilan jamiyatning barcha sohalari o'zaro samarali muloqot va hamkorlik uchun imkon topadilar.

Ma'lumki, inklyuziv shakldagi ta'lim dunyo miqyosida ta'limning barcha bosqichlarini qamrab oladigan va imkoniyati cheklangan shaxslar ta'limi uchun muqobil va maqbul ta'lim shakli, deb e'tirof etilgan. Ya'ni, zamonaviy dunyoda ta'limga umumjamiyat farovonligining bosh omili, insonning asosiy huquqlaridan biri va boshqa huquqlarini ta'minlashning asosi, shuningdek, tinchlik, bag'rikenglik, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish va barqaror taraqqiyotning muhim sharti sifatida qaralmoqda. Inklyuziv ta'lim esa, ta'lim maqsadlarining

barcha uchun birday to'liq va sifatli amalga oshirilishining o'ziga xos va samarali yo'llaridan biri sifatida talqin etilmoqda [4,3].

Maktabgacha inklyuziv ta'lim - imkoniyati cheklangan bolalarning sifatli ta'lim olishlariga, keyinchalik atrofdagilar bilan erkin muloqotda bo'lishlariga, ijtimoiy muhit talablariga javob bera olishiga, kundalik-maishiy ehtiyojlarini qondirish ko'nikmalarining shakllanishiga, shuningdek, ijtimoiy hayotga oson moslashishlariga zamin yaratadi [5,64].

Inklyuziv maktabgacha ta'limning ijtimoiy mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- jamiyatda inklyuziya tamoyillarini, inklyuziv ta'limning ahamiyati va imkoniyatlari borasida jamoatchilikda to'g'ri tasavvurlarni va xayrihohlikni shakllantirishda;

- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan to'g'ri munosabatlarni shakllantirishda, ularning o'ziga xos xususiyatlarini betakrorlik sifatida qabul qilish, shu orqali turli kamsitilishlar va cheklashlar, ishonchsizlik va boshqa shu kabi noo'rin munosabatlarning oldini olishda;

- bolalikdan boshlab sog'lom bolalarda imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan bag'rikenglik tuyg'ularini shakllantirishda, o'zaro ahillik, hamjihatlik va jamoa bo'lib yashash va mehnat qilish fazilatlarini tarbiyalashda;

- o'z navbatida imkoniyati cheklangan bolalarda o'ziga va atrofdagilarga ishonchni, mehrni va ijobiy munosabatlarni tarbiyalashda, shuningdek, yashab turgan joyiga, o'zi mansub bo'lgan xalqqa nisbatan muhabbat va sadoqatni shakllantirishda, jamiyatda umum'etirof etilgan odob-ahloq va xulq-atvor qoidalari, ezgu an'ana va qadriyatlarni ongli tushunishga va amalga qilishga o'rgatishda;

- o'z qobiliyati va iqtidorini ongli anglash va rivojlantirib borishga ichki ruhiy rag'batni uyg'otish, boshqalar bilan teng harakat qilish, kelajakda oila va jamiyatning ongli va faol a'zosiga aylanishi uchun zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirishda.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, inklyuziv maktabgacha ta'lim korreksion maktabgacha ta'limdan bevosita ko'proq bolaning ijtimoiylashuviga va ijtimoiy moslashuviga beradigan e'tibori bilan ajralib turadi. Inklyuziv maktabgacha ta'lim bola uchun muhim bo'lgan davolash, reabilitatsiya, korreksiya kabi tibbiy va ta'lim xizmatlarini ko'rsatadi. Lekin bolaning ijtimoiy moslashuvi va ijtimoiylashuvi bilan bog'liq o'quv-tarbiyaviy dasturlarni amalga oshirishi esa, uning nafaqat ta'lim, balki kengroq vazifalarga ega bo'lgan ijtimoiy institut sifatida maqomini belgilaydi.

Bir so'z bilan aytganda, yurtimizda **nogironligi bo'lgan insonlar - jamiyatning to'laqonli a'zolari, degan tamoyilga** amal qilgan holda izchil ish olib borilayotganligi [6] milliy rivojlanish strategiyalari va dasturlarining BMT "Ming yillik rivojlanish maqsadlari"ga mos kelishi, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlariga oid xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilangan tamoyillar va meyorlarni izchil amalga oshirib kelayotganligi yurtimizda ham kelgusida inklyuziv jamiyat barpo etilishi yo'lidan borilayotganligining yaqqol ifodasidir. Bu jarayonda esa maktabgacha inklyuziv ta'lim muhim ijtimoiy institut missiyasini bajarishi tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy qonuni loyihasi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi to'g'risida. <https://meningkonstitutsiyam.uz/>

3. Vision for an Inclusive Society. DESA 2009.

4. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action for the implementation of Sustainable Development Goal 4: Ensure inclusive and equitable quality education and promote lifelong learning opportunities for all. 2016.

<https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000245656>

5. Alimova SH., Karimova G. Imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiylashuvida inklyuziv ta'limning ahamiyati. Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar. Toshkent-2021., 4-jild, 7-son.

6. Mirziyoyev SH.M. O'zbekiston xalqiga murojaat. 03.12.2021.
<https://president.uz/uz/lists/view/4802>

JAHON IQTISODIYOTIDA YANGI INDUSTRIAL DAVLATLARNING TUTGAN O'RNI

Umarov Toxirjon Mamurjonovich
Qo'qon universiteti,
Ilmiy tadqiqotlar departamenti boshlig'i

Annotatsiya: 20-asrning so'nggi o'n yilliklarida iqtisodiy taraqqiyotda keskin o'zgarishlarga erishgan rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi. Bu mamlakatlar ko'pgina ko'rsatkichlar bo'yicha jahondagi o'rta va hatto yuqori rivojlangan mamlakatlarga yaqinlashdi. Yangi industrial mamlakatlarda sanoat ishlab chiqarish hajmi va uning milliy daromadagi hissasi o'sdi, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmi ko'paydi. Yangi qatlam tadbirkorlar sinfi mavqei mustahkamlandi. Yangi industrial mamlakatlarga Lotin Amerikasining rivojlangan mamlakatlari — Argentina, Braziliya, Meksika va Janubiy Sharqiy Osiyoda "Osiyo yo'lbarzlari" nomini olgan bir qator mamlakatlar va hududlar — Singapur, Tayvan, Koreya Respublikasi, Xitoy tarkibidagi Syangan kiradi. Bulardan bir qadar keyinroq 2-avlod Yangi industrial mamlakatlari deb nom olgan mamlakatlar ham paydo bo'ldi.

Kalit so'zlar: eksport, industrial mamlakatlar, TMK

Yangi industrial mamlakatlar sanoatida eng zamonaviy texnologiyalar qo'llaniladi va jahon bozorida raqobatbardosh yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqariladi. Ularning tajribasi rivojlanayotgan mamlakatlar o'z taraqqiyotida faqat o'zlarida serob, hatto ortiqcha bo'lgan tabiiy va mehnat resurslari bilan birga texnik jihatdan murakkab ishlab chiqarishga tayanishlari va bu tarmoqlarda qiyosiy afzalliklarga ega bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Yangi industrial mamlakatlarning sanoat rivojida chet el kapitali faol rol o'ynaydi. Masalan, Singapurda 1980-yillar oxirida ishlov beruvchi sanoat mahsuloti eksportining 90% ga yaqini, Koreya Respublikasida 27% chet el transmilliy kompaniyalari (TMK) filiallari hissasiga to'g'ri kelgan. TMK bu mamlakatlarda mahalliy arzon ishchi kuchidan foydalangan holda yangi, ba'zan eng yangi sanoat korxonalarini qurishda ishtirok etadi. Ayrim detallar va butlovchi qismlar ishlab chiqaradigan tor ixtisoslashgan korxonalar quradi, mahsulotni pirovard yig'ish rivojlangan mamlakatlarning o'zida amalga oshiriladi.

Masalan, elektronika sanoati sohasidagi AQSH va Yaponiya TMK Meksika, Singapur, Tayvan va Malayziyada yarimo'tkazgichli priborlar va integral sxemalar chiqaradigan bir qator korxonalarini tashkil etdi. Ayrim TMK murakkab texnologiyani soddalashtirib, ishlab chiqarish jarayonini alohida qismlarga ajratib, rivojlanayotgan mamlakatlarda tegishli korxonalarini qurdi. Natijada bu mamlakatlardan ishlov beruvchi sanoat mahsulotlari eksportining katta qismi TMK ichki firma savdosidan iborat bo'lib qoldi.

Janubiy Sharqiy Osiyodagi Yangi industrial mamlakatlarning eksport yo'nalishidagi rivojlanishi, eksport tuzilmasi tamomila o'zgardi. Unda xom ashyo va oziq-ovqat hissasi keskin kamayib, sanoat eksportida to'qimachilik mahsulotlari salmog'i pasaydi, mashina va uskunalar hissasi juda o'sib bordi. Masalan, 1970 yildan 1995 yilga qadar Singapur eksportida xom ashyo va oziq-ovqat hissasi (%larda) 72,5 dan 16,1 ga ga, Koreya Respublikasida 23,5 dan 6,7 gacha, Tayvanda 24,3 dan 7,3 gacha, to'qimachilik tovarlari hissasi esa tegishli 5,6 dan 2,6 gacha, 41,1 dan 15 gacha, 29,0 dan 14,4 gacha qisqardi, mashina va uskunalar hissasi esa Singapurda shu davrda (% larda) 11,0 dan 62,3 ga, Koreya Respublikasida 7,2 dan 51,6 gacha, Tayvan 16,7 dan 47,7 gacha o'sdi. 2-avlod Yangi industrial mamlakatlarda ham xuddi shunday o'zgarishlar bormoqda. Malayziyada xom ashyo va oziq-ovqat eksporti hissasi shu davrda 93,5% dan 26,9% ga qisqargan bo'lsa, mashina va uskunalar hissasi 1,6% dan 50% ga o'sdi. Tailandda xom ashyo va oziq-ovqat eksport hissasi 95,3% dan 26,3% pasayib, mashina va uskunalar hissasi 0,1% dan 31,5% ga ko'tarildi. Shunday qilib, bu mamlakatlarning ko'pchiligi mashina va uskunalar eksporti bo'yicha jahondagi sanoati rivojlangan mamlakatlar

darajasiga ko'tarildi. 20-asr oxirlariga kelib jami rivojlanayotgan mamlakatlar sanoat eksportining deyarli 70%, mashina va uskunalari eksportining 70% dan ko'prog'i Janubiy Sharqiy Osiyodagi 1 va 2 avlod Yangi industrial mamlakatlari. (Syangan, Singapur, Koreya Respublikasi, Tayvan, Indoneziya, Malayziya va Tailand), shuningdek, Xitoy hissasiga to'g'ri keldi.

2002 yilga kelib aholi jon boshiga yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarish Koreya Respublikasida 16480, Singapurda 23090, Malayziyada 8280 AQSH dollarini tashkil etdi. Yangi industrial mamlakatlarda aholi jon boshiga tibbiy, ta'lim, kommunal xizmatlari iste'mol bo'yicha ham jiddiy yutuqlarga erishilgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish lozimki, yangi industrial mamlakatlarning paydo bo'lishi hozirgi jahon xo'jaligida va xalqaro mehnat taqsimotida katta o'zgarishlar yuz berganligini, rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida tabaqalanish kuchayib borayotganligini ko'rsatadi, chunki Yangi industrial mamlakatlardagi taraqqiyot kam rivojlangan mamlakatlarning katta guruhidagi qoloqlikni bartaraf eta olmadi.

Iqtisodiy va sanoat rivojining hozirgi darajasiga ko'ra, Yangi industrial mamlakatlardan eng rivojlanganlari — Koreya Respublikasi, Argentina, Meksika, Singapur sanoati rivojlangan mamlakatlarga deyarli yaqinlashdi va Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya kabi Yevropa davlatlari bilan bir darajada turadi. Meksika va Koreya Respublikasining rivojlangan mamlakatlarning Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OYESD) a'zoligiga qabul qilinganligi ham buning isboti bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. SERVIS S. I. V. A. JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR.
2. Турсунова М. МАМЛАКАТИМИЗ ИҚТИСОДИЙОТИГА ИНВЕСТИЦИЈАЛАРНИ ЈАЛБ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАШҚИ САВДО СОҲАСИДАГИ О'РНИ: https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a14 //Экономика и образование. – 2022. – Т. 23. – №. 3. – С. 94-100.
3. Shakhzodbek E., KHurshidbek T., Shoxruxmirzo A. USE OF INNOVATIVE AND INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE SYSTEM OF ECONOMIC EDUCATION //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – С. 181-186.
4. Xurshidbek T., Shaxzodbek Y., Gulginaxon A. MARKETINGNI O'ZGARISHIDA IJTIMOY TARMOQLAR VA INTERNETNI O'RNI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 4. – С. 127-129.

**TEMUR TUZUKLARIDA INSONNI QADRLASH VA ILM - MA'RIFAT MASALALARI VA UNING
BUGUNGI KUNGA TADBIQ ETISHDAGI AHAMIYATI**

Temirova Mashhura Muhammadaminovna
Qo'qon universiteti v.b. dotsenti (PhD)
Pozilov Hamid Ikromjon o'g'li.
Qo'qon universiteti ta'lim fakulteti
boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annostatsiya: Mazkur maqolada Sohibqiron Amir Temurning farzandlari va nabiralari nasihat tarzida bitilgan "Temur tuzuklari" haqida so'z boradi. Unda sipoh, raiyat, soliq masalalari, davlat boshqaruvi, farzandlar tarbiyasiga doir qimmatli maslahatlar o'rin olgan. Shuningdek tuzuklarda ko'tarilgan ilm -marifat va inson omilini ulug'lash kabi masalalarni hozirgi kunga tadbiq etishdagi tarbiyaviy ahamiyati masalalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Movarounnahr, Samarqand, "Voqeoti Temuriy", raiyat, do'st, dushman, fuzalo, sohibqiron, ilm-fan.

"Temur tuzuklari" asari Amir Temurning saltanatda olib borilgan adolatli boshqaruv siyosati haqida ma'lumot beradigan qimmatli asardir. Asar 2 qismdan iborat. Birinchi qismda Amir Temurning tarjimai holi, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo'lga kiritishi, siyosiy tarqoqlikka barham berishi, markazlashgan davlat tuzishi, 27 mamlakatni, shu jumladan, Eron, Afg'oniston, Ozarbayjon, Gruziya va Hindistonni o'z tasarrufiga kiritishi, Oltin O'rda hukmdori To'xtamish, turk sultoni Boyazid I Yildirimga qarshi harbiy yurishlari, ulkan saltanatini mustahkamlash uchun turli ijtimoiy tabaqalarga nisbatan qanday munosabatda bo'lganligi buyuk sohibqiron tilidan ixcham tarzda bayon etilgan.

Ikkinchi qism mashhur jahongirning farzandlariga atalgan o'ziga xos vasiyat, pandnasihatlari va o'gitlaridan iborat. Unda davlatni idora etishda kimlarga tayanish, toju taxt egalari tutumi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini tanlash, armiyaning tuzilishi va jang olib borish qoidalari, sipohiylarning maoshi, mamlakatni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliklarining burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash yo'sini va boshqa xususida gap boradi.

Temur tuzuklari — Amir Temurning harbiy va siyosiy faoliyatidan ma'lumot beruvchi tarixiy asar. "Tuzuki Temur" va "Tuzukoti Temur" nomlari bilan atalgan. Amir Temurning "Tuzuklar" muallifi ekanligini e'tirof etadigan olimlar ko'pchilikni tashkil etadi. Bular orasida "Temur tuzuklari"ning inglizcha tarjimonlari va noshirlari Devi va Uaytlar, mashhur turk qomusiy olimi Shamsuddin Somiy, qo'lyozmalarining yirik tadqiqotchisi N.D. Mikluxo Maklaylar ham bor. Boshqa bir guruh olimlarning fikricha, asar 16—17-asrlarda Hindistonda yozilgan [1-21].

Asar Amir Temur davridagi o'zbek davlatchiligi tarixini o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. "Temur tuzuklari" ("Tuzuki Temuriy") ning fanda qayd etilgan ilk nusxasi eski o'zbek tilda bitilganligi ma'lum. Bu usmoniy turk hokimlaridan biri — Yaman hokimi Ja'far Posho (hukmronlik yillari 1607—12) ning kutubxonasidagi turkiy tilda yozilgan asar bilan bog'liq. "Tuzuki Temuriy"ning so'z boshida keltirilishicha, O'rta Osiyolik Mir Abu Tolib Husayniy al-Ariziy at-Turbatiy Makkai mukarrama va Madinai munavvaraga haj qilgan vaqtida asarni o'qishga muassar bo'lgan va 1610-yil Ja'far Poshoning topshirig'i bilan uni fors tiliga o'g'irgan. Bizgacha ana shu forsiy nusxa tosh bosmalar, zamonaviy nashrlar va qo'lyozmalar shaklida yetib kelgan. Husayniy Turbatiy forsha tarjimini 1637-yil boburiy hukmdor Shoh Jahonga (1628—57) tortiq qilgan. Shoh Jahon tarjima bilan tanishib chiqib, unda ayrim noanikliklar va kamchiliklar topgan hamda yirik olim, Dekan viloyatining

qozikaloni Muhammad Ashraf Buxoriyni (vafoti 1652-yil) huzuriga chaqirtirib, mazkur tarjimani mo'tabar asarlar, xususan, Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si va shunga o'xshash muhim manbalarga solishtirib chiqish va shu yo'l bilan tarjimadagi xato va kamchiliklarni bartaraf qilishni topshirgan. Muhammad Ashraf Buxoriy ko'rsatmaga ko'ra, Mir Abu Tolib al-Husayniy at-Turbatiy nusxasini diqqat bilan tahrir qilgan. Shu zaylda asarning yangi, to'ldirilgan tahriri vujudga keladi va u "Malfuzoti Temuriy" ("Temurning aytganlari") va "Voqeoti Temuriy" ("Temurning boshidan kechirganlari") nomi bilan taniladi. Keyinchalik undan ko'plab nusxalar ko'chirilgani ma'lum [2].

"Temur Tuzuklarida" davlatni boshqaruv va ilm-fanga alohida e'tibor berilgan: O'z tajribamda ko'rib bildimki, davlat agar dinu tartib asosida qurilmas, to'rz-tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanantning shukuhi, tartibi va qudrati yo'qoladi. Bunday saltanat yalang'och odamga o'xshaydirkim, ko'rgan har kimsa undan nigohini olib qochadi. Shuning uchun ham men saltanatim binosini islom dini, to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim. Hamisha mening rozilgimni olib ish tutgan do'stlarim oldimga panoh izlab kelganlarida, ularni o'zimning baxtu davlatimga sherik qilib, hech qachon mol-mulk va tirikchilik ashyolarini ulardan ayamadim. Yana o'z tajribamdan bildimki, sodiq va haqiqiy do'st uldurkim, o'z do'stidan ranjimaydi, do'stining dushmanini o'z yovi deb biladi. Agar kerak bo'lsa, o'z do'sti uchun jonini ham ayamaydi. Qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsam, o'sha yerning obro'-e'tiborli kishilarini aziz tutdim, sayyidlari, ulamolari, fuzalolari va mashoyihlariga ta'zim bajo keltirib, ortiq hurmatladim, ularga suyg'ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim, o'sha viloyatning ulug'larini og'a-inimdek, yoshlari va bolalarini bo'lsa o'z farzandalrimdek ko'rdim. Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafi yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatimdan quvdim. Har elning ulug'larini, sharaflil kishilarini hurmatlab martabalarini oshirdim [3-79-137].

Amir Temur tomonidan barpo etilgan markazlashgan davlat mamlakat iqtisodiyotining yaxshilanishiga va taraqqiy etishi, shaharlarning mustahkamlanishiga, karvon yo'llarining tiklanishi, savdo-sotiqning kengayishi, hunarmandchilikning, qishloq xo'jaligining taraqqiy topishiga zamin hozirladi. Bularning barchasi madaniyat va ilm-fanning ravnaq topishiga imkon yaratdi. Mamlakatda madaniyat va ilm-fanning gullab, keng miqyosda yuksalishi uchun siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitning o'zigina yetarli emas edi. Bunga boy madaniy merosning mavjudligi, ma'naviy zamin ham talab qilinardi. Movarounnahr va Xuroson boy madaniy an'analari hamda qadriyatlar bilan shuhrat qozongan markaz bo'lib, Amir Temur davriga kelib yanada gullab yashnadi. Mamlakatda yaratilgan ijtimoiy - iqtisodiy shart-sharoitlar Eron, Arab mamlakatlari, Hindiston, Xitoy va Yevropaning ko'pgina davlatlari bilan madaniy aloqalarni rivoj topishida asosiy rol o'ynaydi. Amir Temur shaharlarga e'tiborini qaratib, dastlab o'zi tug'ilib o'sgan yurti Shahrisabzda mahobatli Oqsaroy va ko'rkam masjidlar, poytaxt Samarqandda ulug'vor, hashamatli binolar, Turkistonda, Damashq va Tabrizda masjidi madrasalar barpo etishda bosh-qosh bo'ldi. Bu davrda Samarqand va Hirotdan tashqari Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Balx, Mashhad, Sheroz kabi ko'plab madaniy markazlar mavjud bo'lib, bu markazlarga jahonning ko'plab ilm-fan egalari yig'ilgan edi. Amir Temur saroyining rassomlari ulug'vor me'morlik yodgorliklarining, devorlarga solingan naqshlarning hamda qisman bizning kunlarimizgacha yetib kelgan miniatyura bezaklari bo'lgan yuzlab qo'lyozmalarning ijodkorlari - Jahongir Buxoriy va boshqalar bo'lgan. Bularning barchasi Amir Temurni temuriylar davri Renessansining asoschisi deyishga dalil bo'ladi.

Insoniyat o'z taraqqiyoti davomida hamisha ulug' zotlarning ilmutafakkuri, aql-zakovatidan bahramand bo'lib kelgan, ular qoldirgan buyuk meroslaridan iftixor qilgan o'zbek xalqining ham shunday iftixorga loyiq ulug' zotlari bo'lgan. Ana shunday ulug' zotlardan biri buyuk davlat arbobi va ma'rifatparvar inson Amir Temur ibn Tarag'ay Muhammad Bahodirdir. Shuningdek, o'tmishda an'anaviy teatr, qo'g'irchoqbozlik, raqs, xalq sirki,

qo'shiqchilikning barcha shakllari, turlari "Tomosha" degan birgina istiloh bilan ifodalangan. Asli arabcha bu so'z "Qarash, ko'zdan kechirish" degan ma'nolarni anglatadi. Ammo Markaziy Osiyo mintaqasida uning ma'no doirasi juda keng bo'lib, ko'pchilikka mo'ljallangan hamda ko'ruvchi va tinglovchini quvontiradigan yoki qayg'urtiradigan, ba'zan hatto jumbushga soladigan ijrolar, maydon ma'arakalari, marosimlar bilan bog'liq namoyishlar va o'yinlar – barchasi "Tomosha" deb yuritilgan. Turkiychada "O'yin" atamasi ham ishlatilgan. Biroq uning qo'llash doirasi haddan tashqari juda keng bo'lib, ermak mashg'ulotlar, badantarbiya va sportga aloqador sohalarni ham o'z ichiga olgan. Amir Temur Movarounnahrda ilgariydan mavjud an'analarni davom ettirgan holda, o'zining har bir g'alabasini bayram, to'y bilan nishonlagan. Har bir aziz mehmonni ziyofat va bazm bilan siylagan. Oilaviy marosimlarni ham sozanda, xonanda va raqqosu-raqqossalarsiz, umuman olganda o'yinchilarning katta-katta guruhlarini jalb etgan holda o'tkazishni yoqtirgan. Uning davrida xalq bayramlari juda ham keng ko'lamda nishonlanganligini tarixiy manbalardan topishimiz mumkin. Xos bazmlarda maqom kuylari chalingan. Bu kuylarga raqqos va raqqosalar xirom etgan, masxara va muqallidlar kuldigan, bayramlarda katta maydon va ma'arakalarga yarasha tomoshalar ko'rsatilgan. Maydon tomoshalari orasida ot bilan bajariladigan poyga, uloq chopish (Ko'pkari), otdan ag'darish, chavgon, qaboq o'yin kabilar, haqqoniy kuch sinovi hisoblanmish kurash (Gushtirlik), qilich, nayza, gurzi va boshqa jangovar qurol va aslahalar bilan o'tadigan bellashuvlar, shuningdek, qo'chqor, xo'roz urishtirish kabi qadimiy o'yin va musobaqalar yetakchilik qilgan. Amir Temurning tug'ilgan shahri Shahrisabz o'rta asrlarda «Kubbatul ilm val adab» degan muqaddas nomga sazovor bo'lganligi tarixdan yaxshi ma'lum. Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha, Shahrisabzda o'z davrining mashhur islom namoyondalari yashagan bo'lib, ulardan biri Abu Muhammad Obdon Keshiy edi. XIV-XV asrlarda Abdulloh Samarqandiy, Abu Abdulloh Muhammad Buxoriy va Abul Husayn Muslim Nishopuriylar ham Shahrisabzda yashab islom tariqatini rivojlantirganlar. Amir Temur olimlar bilan suhbat va bahslar uyushtirishni yaxshi ko'rgan, g'oliblarga qimmatbaho tuhfarlar bergan. Sohibqiron hayotlik paytidayoq uning saroyidagi olimlar ilmiy kashfiyotlar bilan shuhrat qozonganlar. Bular qatoriga nasta'liq xatining kashfiyotchisi Abdulqodir Marog'iniy (1334-1435), buyuk riyoziyotchi G'iyosiddin Jamshid, munajjim Sayyid Sharif Jurjoniy (1339–1413), faylasuf va qomusiy olim Sa'diddin Taftazoniy (1322–1392), Xoja Muhammad Porso (1420 yilda vafot etgan) va boshqalarni kiritish mumkin. Ilm ahlining vakillari, ayniqsa, tarixchilar, tibbiyot va nujum sohalari bilimdonlari (tarixchi Xofizi Abru, diplomatlar Shamsiddin Olmaliqiy va mavlono Abdulloh al Keshiy, munajjim Abdulloh Lison, tabib mavlono Fazlulloh Tabriziy va boshqalar) Sohibqironga safarlarda hamrohlik qilganlar. Sa'diddin Taftazoniy va Sharif Jurjoniy Amir Temur saltanatidagi qomusiy olimlar edi. Amir Temur tarix fanini, ayniqsa, xalqlar, elatlar tarixini juda yaxshi bilgan, o'zi muntazam tashkil qilib turgan ilmiy majlislardagi munozaralarda faol qatnashgan. Xofizi Abruining ta'kidlashicha, bunday ilmiy bahslarda Sohibqiron o'zini juda oddiy tutarkanki, davradagilar uning hukmdor ekanligini ham unutilib qo'yarkanlar. Arab tarixchi olimi ibn Xaldun ham Damashq ostonasida Amir Temur bilan uchrashib suhbatlashganida, uning bilim doirasining kengligiga tahsin aytganligini manbalar orqali bilamiz. Amir Temur saltanatida fanning turli sohalari bilan bir qatorda, amaliy san'at, xattotlik san'ati, kitobot, adabiyot kabi sohalari ham rivojlandi. U o'z saltanatidagi barcha xalq, elatlarning madaniyati, san'ati rivojiga ham e'tibor bergan. Amir Temur davriga kelib Movarounnahrda kitobot madaniyati yutuqlarining sintezlashuvi sodir bo'ladi. Ustalarining ilhom bilan ijod qilishiga shart-sharoit yaratildi, dunyoda eng yaxshi qog'oz ishlab chiqarildi. O'rta Osiyoda qo'lyozma kitoblarning ajoyib namunalari yaratildi. Amir Temurning Buyuk ipak yo'lini har tomonlama rivojlantirish yuzasidan qilgan say-harakatlari Sharq va G'arb orasida erkin axborot almashuviga, kitob ishlab chiqarish va uning to'siqsiz olib o'tilishi orqali axborot makonining kengayishiga ta'sir

ko'rsatdi. Bu ilm-fan rivoj topishiga, madaniyat yuksalishiga, insoniyat sivilizatsiyasini gullab yashnashiga muhim zamin bo'ldi. [4]

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki Sohibqiron Amir Temurning faoliyati faqatgina harbiy yurishlar yoki jangu jadallar bilan kechmagani, u Davlat boshqaruvi, ilm-fanga, xalq hayotiga doimo e'tibor berganligi va bu yo'lda o'zining barcha imkoniyatlarini ishga solganini ko'rishimiz mumkin. Amir Temur markazlashgan Davlatga asos solishidan to umrining oxirigacha Kuch-adolatda degan g'oyasiga amal qildi. Ilm-fanga va uning rivoji uchun masjid, madrasa va ko'plab binolar barpo qildi. Xulosa shuki buyuk sohibqiron Amir Temurning farzandlari uchun yozib qoldirgan pandu nasihatlarini bo'lmish "Temur tuzuklari" bugun ko'plab tillarga tarjima qilinib dunyoning rivojlangan mamlakatlari siyosatchilari tomonidan asosdiy dasturilamal bo'lib hizmat qilmoqda. Shunga ko'ra biz bugungi jamiyatimizning oldida turgan inson omilini qadrlash, uning shakllanishi, kamol topishi va shu bilan birga ilm-fanni yuksaltirish va uning natijalarini shaxs uchun hizmat qila olishga yo'naltirish kabi juda ko'plab masalalarning yechimini uzoqdan izlashga hojat yoqligini anglay olishimiz va yana bir bor boy madaniy va ma'naviy merosimizga chuqur iftixor tuyg'usini his etishimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аҳмедов Б. Амир Темурни ёд этиб. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996. Б. 21.
2. www.wikipedia.uz – internet sayti.
3. Ahmedov B..Temur Tuzuklari -, forschadan Alixonto'ra Sog'unij tarjimasi. Toshkent, 79-137-betlar.
4. Темур тузуклари / Форсчадан А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов таржимаси.– Т., 2011.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI

**Madaliyeva Xurshida Ulug'bek qizi,
Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-ko'rs talabasi,
Muborakxon Ganiyeva, Qo'qon universiteti
Ta'lim sifati nazorat qilish departamenti boshlig'i, p.f.n.**

Annotasiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish metodikasi yoritib berilgan. Bolalarning yoshidan kelib chiqqan holda zarur bo'lgan zamonaviy o'qitishning ko'rish, o'rganish, harakat, tinglash orqali o'rganish usullarini o'z ichiga qamrab olgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlarning tasnifi, maktabgacha pedagogika, maqsad, vazifalar, ingliz tilini o'zlashtirish, bolalarning psixologik xususiyatlari, vizual idrok orqali o'rganish, tinglash orqali o'rganish.

Bugungi kunda ingliz tilini o'rganish zamonaviy pedagogikaning muhim va istiqbolli vazifalaridan biri hisoblanadi. Xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi professional ta'limning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Bu maktabgacha ta'lim jarayonini ham chetda qoldirgani yo'q. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tilini o'rgatish, ular uchun zarur bo'lgan o'quv qo'llanmalar, uslubiy ishlanmalarni tayyorlash, ingliz tilini o'rgatish bo'yicha metodlarni tanlash, maqsad va vazifalarni belgilash masalalari maktabgacha ta'lim muassalaridagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Tilni o'rganish uzoq vaqt talab qiladigan murakkab jarayon bo'lib, o'qituvchi va ota-onalardan ehtiyotkorlik bilan tashkillashtirishni talab qiladi. Ingliz tilini o'qitish amaliyotida ko'plab o'quv qo'llanmalar, uslubiy ishlanmalar, ingliz tilida turli o'yinlarni o'tkazish uchun materiallar qo'llaniladi.

Bolaga o'z ona tili bilan bir vaqtda chet tilini ham o'rgatish katta mehnatni talab qiladi. Har bir ta'lim dargohi bu jarayonga an'anaviy va noan'anaviy tarzda yondashadi. Natija esa yillar o'tib ma'lum bo'ladi.

Ingliz tilini o'rgatishning barcha asosiy komponentlari (o'qitish maqsadi, metod va vositalari, o'quv fan mazmuni) bir-birlari bilan chambarchas bog'liqligi, ingliz tiliga o'rgatishning maqsadi muomala asoslarini yaratishga, o'z fikrini erkin bayon qilish va oddiy kommunikativ vaziyatlarda suhbat olib borish malakalaridan iborat. Shundan kelib chiqqan holda birinchi navbat ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan bu mazmunga nafaqat bilim, ko'nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatini tashkil qiluvchi ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak-atrofga nisbatan munosabatlarini ham kiritish masalasi katta ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida nutq faoliyatining tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozishlardan iborat ko'nikmalarini shakllantirishga bo'ysundirilgan bo'ladi.

Shuning uchun xam bog'cha bolalarini ingliz tilida muloqotga kiritish jarayonida didaktik o'yinlar muxim ahamiyat kasb etadi. Bunday o'yinlar bolalarga nafaqat quvonch, zavq, xuzo'r, roxat va xo'rsandchilik bag'ishlaydi, balki ingliz tilini o'rganishlarida cheksiz qiziqish o'yg'otadi. Mazkur faoliyat yordamida ular bosqichma-bosqich ijtimoiylashadilar. O'yinlarda o'zbek xalqining barqaror an'analari, xarakter me'yorlari o'z aksini topadi.

O'yinlarga xos bo'lgan bir qator didaktik xolatlar mavjud. Ular qo'yidagilar:

- pedagogikada o'yinlar to'rtli yoshdagi bolalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish shakli sifatida namoyon bo'ladi;
- o'yinlar bolalar faoliyatining erkin shakli bo'lib, mazkur jarayonda ular atrof-olamni anglaydilar, o'rganadilar, shaxsiy ijodiy faoliyatlari uchun qulay sharoitga ega bo'ladilar, mustaqil bilish va o'z faoliyatlarini jadal tarzda namoyon qilish imkoniyatini ko'lga kiritadilar;

- o'yinlar bolalar uchun rivojlanish amaliyoti hisoblanadi;
- o'yinlar jarayonida bolalar aql-idrokka tayangan xolda ijod qiladilar, o'z imkoniyatlari va ijodiy faoliyatlarini namoyon etadilar.

Ingliz tilini o'yin orqali o'rgatish borasida ko'p muloxazalar mavjud bo'lib, bunda o'yin faqat vaqtni o'tkazish uchun va uni mashg'ulot xonasidan tashqarida o'ynalgani ma'qul deb xisoblanadi. Ammo bolalarga ingliz tilini o'rgatish vaqtida didaktik o'yinlardan foydalanish samarali natija berib, ingliz tilida so'zlashish xususiyatlarini rivojlantirishga sabab bo'ladi. O'yin shunday kuchga egaki, u nafakat bolalarning kayfiyatini kutara oladi, balki ularga xorijiy tilni o'rganishlarida ruxiy kuch bagishlay oladi.

Didaktik o'yinlardan foydalanishda quyidagi metodik talablarni e'tiborga olish talab qilinadi:

1. O'yinlardan mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Buning uchun bolalarni qiziqtiridigan va ularning yosh xususiyatlariga mos keladigan o'yinlarni tanlab olish zarur.

2. Mashg'ulotlar jarayonida o'yinlarga 15-20 daqiqa vaqt ajratish mumkin.

3. Har bir o'yinni o'tkazishda avval unga puxta tayyorgarlik ko'rilishi xamda mashg'ulot mazmuni bilan uzviy bog'langan bo'lishi lozim.

Ingliz tilini o'rgatish va o'rganish uzoq va mukammal jarayon. U kishidan muntazam mexnatni va o'z ustida ishlashni talab qiladi. Og'zaki nutq malakalarini o'stirish uchun ingliz tilini o'qitish jarayonida xar xil interfaol o'yinlarni qo'llash, mashg'ulotni zerikarli emas, aksincha, qiziqarli va sevimli mashg'ulotga aylantirishi aniq.

Interfaol o'yinlar orqali ingliz tilini o'rganuvchi bolalar o'zlarini ancha erkin tutadilar, xatto o'yatchan bolalarni ham ushbu o'yinlarda qatnashishga undaydi. Interfaol o'yinlarni, ayniqsa, grammatika va suz boyligini orttirish jarayonida qo'llash samarali natija beradi. Ammo bu o'yinlarni qo'llashdan oldin pedagog bolalarga o'yindan ko'zlangan maqsadni, o'yin qoidalarini aniq tushuntirishi va o'tilayotgan mavzu bilan chambarchas bog'lashi kerak.

Interfaol o'yinlar bolalarning tasavvuri, zexni, xotirasi va narsa buyumlarga bo'lgan e'tiborini oshiradi. Bolalarga til o'rgatishda to'rli o'yin turlaridan foydalanish ijobiy samara beradi. Masalan, yakka individual, juftli, guruhli, ommaviy o'yinlar yoki rolli, tashkiliy kommunikativ, ijodkorlikka yo'naltiruvchi, intellektual musobaqaga asoslangan, didaktik, yo kompyuterli o'yinlar shular jumlasiga kiradi.

Ta'limning zamonaviy texnologiyalarida bir nechta interfaol metodlar bo'lib, ular ingliz tili mashg'ulotlarining samarali darajada o'tilishini ta'minlaydi.

Didaktik o'yinlar ingliz tili mashg'ulotining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Bular, "O'zim tekshiraman", "Tez javob", "Rasmlar", "Pantomima", "Harflarni top" o'yini, "Sirli so'z", "Zanjir", "O'yin topishmoq" va boshqalar.

Shuni xulosa qilib aytib o'tish kerakki, farzandlarimiz yetuk kadr bolib yetishlarida avvalo, maktabgacha talimning o'rni ahamiyatlidir. Biz ularni zamonaviy texnologiyalar va zamonaviy ta'lim tizimi bilan taminlashimiz talab etiladi. Maktabgacha talim jamiyatdagi har bir inson ildizlarining rivojlanishi, ularning kelajakda ona yurtiga munosib farzand, kuchli shaxs bo'lib voyaga yetishlarida ham katta ahamiyatga ega. Biz farzandlarimiz ta'limiga ko'proq etibor berishimiz, zamonaviy shart-sharoitlar yaratishimiz, yangi-yangi usullar orqali ularning o'rganishlariga ko'maklashishimiz zarur.

Shuning uchun ham bolalarimizga yoshligidan ta'lim berib borishimiz, o'qishga qiziqtirishimiz, jamiyatimizdagi har bir bolani nazardan chetda qoldirmasligimiz, o'rganishga qiynalgan bolalar bilan ham alohida shug'ullanishimiz, to'rli xil qiziqarli o'yinlar bilan e'tiborlarini tortishimiz, chet tillarini o'rgatish davomida muntazam rag'batlantirib borishimiz ularni kelgusidagi ta'limlari uchun dastlabki qadam bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Эргашева Г., Жабборова Д., Эргашева Х. Мактабгача таълим ташкилотларида инглиз тилини ургатиш методикаси. Ўқув қўлланма. Наманган. 2021.
2. Kanton Aargou. Fremdsprachen Lernen und Lehren. Englisch an der Primarschule. Leipzig-2017. S. 238—239.
3. Eine neue Aufgaben - und Leistungsbewertungskulto'r, U. Gibitz in:Neue Wege im Fremdsprachenunterricht am Beispiel des Rahmenplans für den Englischunterricht in der Orientierungsstufe, L. I. S. A. Schwerin 2001.
4. Ganiyeva M. YANGI O 'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA TA'LIM FALSAFASI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 23. – С. 131-136.
5. Ganiyeva M. “Шахс ва жамият” ўқув фанида таълим сифатини оширишнинг муҳим масалалари (Ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасалари мисолида) //Архив научных исследований. – 2020.

**TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING
O'RNI****H.I.Pozilov****Qo'qon Universiteti Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi 3-kurs talabasi,
K.O.Matnazarova
Qo'qon universiteti "Ta'lim" kafedrası
dosenti p.f.f.d (PhD)**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimini boshqarish, ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchining o'rni, tarbiya masalasi, o'quvchilarga bilim berishda o'qituvchining vazifalari, rahbar ma'suliyati, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning bilim ko'nikmalarini shakllantirish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, rahbar, maktab, o'qituvchi, o'quvchu, bilim, ko'nikma, malaka, sub'ekt, muomala madaniyat.

Ta'lim, tarbiya masalasi hamma zamonda dolzarb bo'lib kelgan. O'tmishda ham kishilar ta'lim olishgan, ta'lim berishgan. Bugun ham o'quv yurtlari, bilim maskanlari faoliyati jamiyatning diqqat markazida. O'ylaymanki, kelajakda ham ta'limga bo'lgan e'tibor kuchaysa, kuchayadiki, aslo kamaymaydi. Xo'sh, keling endi ushbu soha vakillari, uning ishtirokchi – sub'ektlari bilan tanishib chiqamiz.

Ta'limda, eng avvalo "ta'lim oluvchi" ni tilga olish to'g'riroq bo'lsa kerak. Agar ta'limga ehtiyoj bo'lmasa, uning keragi ham bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, ta'lim oluvchi bor ekan – ta'lim ham bo'ladi.

Ikkinchi navbatda, albatta "ta'lim beruvchi" shaxsini aytish joiz. Chunki bevosita ular ta'limning ta'lim mazmuni bilan tanishtiruvchi, ta'lim oluvchilarga ta'limni anglatuvchisi bo'lib hisoblanadi.

Ta'limda ishtirok etuvchi va o'z navbatida muhim sub'ektlardan biri bu – oila, ota-onadir. Endi, sizga ma'lumki, har qanday ish, har qanday loyiha ma'lum reja, qonun-qoida asosida amalga oshadi. Uning boshqaruvchisi bularni belgilab berib, borishini nazorat qiladi. Ta'limda ham bunday vazifani o'z bajaruvchisi bor. Ta'lim tizimini tashkil etib, isloh qilib, unda ishtirokchilar vakolatlari, huquq va majburiyatlarini belgilab, bu ishning borishini nazorat qiluvchi sub'ekt bu – Davlatdir. Davlat deyilganda Respublika Prezidenti, Oliy vakillik organlaridan boshlab to rektor, direktor va uning o'rinbosarlarigacha bo'lgan boshqaruv tizimi tushunilishi lozim. Chunki ular bu sohada Davlat nomidan ish ko'rishadi. Mana, ta'lim sohasining ayrim sub'ektlari bilan tanishib chiqdik. Ushbu ro'yxatga shuningdek, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari va boshqalarni ham kiritishimiz mumkin. Ular ham o'z vakolat doirasidan kelib chiqqan holda ta'lim tizimida o'z o'rniga ega. Ta'lim samaradorligini oshirishda kim qanday vazifani bajarishi lozim? Bu o'rinda har bir sub'ektning o'z vazifalari bor. Ularning har biri o'z ishiga ma'suliyat bilan yondashsa, ta'lim samaradorligiga erishiladi. Keling, bu vaziyatni umumta'lim maktab misolida ko'rib chiqamiz.

Maktab – bola ma'lum yoshga yetgach, uni o'z bag'riga olib, unga ta'lim- tarbiya beradigan maskan. Hozirda jamiyatimizda o'quvchi birinchi sinfdan o'n birinchi sinfgacha umumiy o'rta ta'lim maktabida ta'lim –tarbiya oladi. Ya'ni o'quvchilar umrining o'n bir yilini shu dargohda o'tkazadi. Maktabga kelishidan maqsad shunchaki bir hujjatni olish emas, balki kelajak poydevorini qurishda asqotadigan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishdir. Shunday ekan, maktab darvozasiga ilm talabida kelgan har bir yosh avlodni munosib ravishda voyaga yetkazish bugungi kunning eng dolzarb masalasidir. Shu nuqtai nazardan ta'limni samarali tashkil etish har bir ta'lim ishtirokchisidan ma'suliyat talab etadi. Maktab rahbari muassasa, uning texnik ta'minoti,

o'quvchilar xavfsizligi uchun javobgar bo'lsa, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari esa pedagog xodimlarning ish hujjatlari, dars jarayoni tartibini nazorat qiladi. Ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari maktabning ma'naviy muhitidan xabardor bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilarning xulq-odobi, muomala madaniyati, o'zini tutishi, tarbiyasi borasida qayg'uradi. Maktab pedagoglari esa o'quvchilarga o'z mutaxassisligi bo'yicha ta'lim berishadi. O'quvchilarning birgina vazifasi bor bo'lib, bu ham bo'lsa – ta'lim olish, mustahkam bilim egallash. Agar diqqat bilan nazar tashlasak, hozirgi kunda o'qituvchi – murabbiylarga alohida ma'suliyat yuklatilgan. Chunki, ta'limdan maqsad – barkamol, sog'lom avlodni tarbiyalash. Bu sohada tarbiyalanuvchi bilan eng ko'p muloqotda bo'ladigan shaxs bu – o'qituvchidir. O'qituvchi – qadimdan turli davlatlarda nafaqat oddiy aholi, balki davlat rahbarlari tomonidan hurmatlanib, ardoqlanib kelgan kasb egalari. Ularni turlicha atash mumkin: o'qituvchi, murabbiy, ustoz, mudarris, muallim va boshqalar. Ularning barchasida bir ma'no anglashiladi: Ziyoli! Haqiqatdan ham, o'qituvchilar ziyo tarqatuvchilardir. Maktabga ilk qadam qo'ygan bolani qo'lidan tutib, o'zida bor bilimni berish barobarida unga dunyoni tanishtiradi. Bolani oppoq varaq deb faraz qilsak, ustoz unda turli tasvirlarni tasvirlaydigan rassom misolidir.

Maktab tizimida ta'lim 2 bosqichda amalga oshiriladi: boshlang'ich ta'lim va yuqori ta'lim. Boshlang'ich ta'lim 1-4 sinflarni o'z ichiga olib, bu davr o'qituvchilardan ayniqsa o'z ishiga e'tiborli bo'lishni, ma'suliyat bilan yondashishni talab etadi. Chunki "Yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqsh kabidir" degan maqol zamirida bolaning yoshligidan qanday bilim olsa, qanday harakat qilsa, kelajakda ham shunday davom etishi yotadi. Shunday ekan, birinchi navbatda boshlang'ich sinfda mustahkam bilim berilishi lozim. O'quvchi to'rtinchi sinfni tugatgach, yuqori ta'limga ya'ni ixtisoslashgan va Prezident maktablariga hujjat topshiradi va bilim salohiyati yetarli bo'lsa, imtihonlardan yetarli ball to'plasa shu maktabda o'qiydi. Bunda endi o'quvchilarning o'zlashtirishi lozim bo'lgan fanlari sekin-asta ko'payib, murakkablashib boraveradi. Shuningdek, ta'limning bu bosqichida har bir fandan mutaxassis o'qituvchilar dars beradilar. O'qituvchiga baho bermoqchi bo'lganlar uning hujjatiyu, kiyimi, olimpiadalarda egallagan o'rinlariyu, sertifikatlarini hisoblashi shart emas. O'quvchilar – o'qituvchining eng xolis, eng adolatli hakamlari. Ular bilan ikki-uch og'iz suhbatlashsangiz, har qanday o'qituvchi haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lasiz. Yuqoridagi so'rov natijalari hamda shaxsan o'zimning kuzatuvlarim asosida o'qituvchilar quyidagilarga rioya etishlari lozim deb o'ylayman:

- bolalarni sevishi;
- o'z sohasini yetarlicha egallagan bo'lishi
- muomala madaniyatiga ega bo'lishi;
- shaxsiy hayot va kasbiy faoliyatni aralashtirib yubormasligi;
- o'z ishiga ma'suliyat bilan yondashishi;
- boshqalar(turli komissiya va tekshiruvchilar) uchun emas, balki O'zbekiston kelajagining taqdiri o'zini qo'lida ekanligini anglagan holda faqat va faqat barkamol avlodni tarbiyalash uchun mehnat qilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston kelajagi yosh avlod qo'lida! Shunday ekan bugun biz qanday ta'lim bersak, ertaga bizdan ta'lim olgan yosh avlod shunday hayot kechiradi. Uning maktab hayotida o'rganganlari butun hayoti davomida asosiy negiz bo'lib hisoblanadi. Shunday ekan, keling, bizga yuklatilgan sharaflari vazifani dildan his etaylik, ma'suliyat bilan bajaraylik. Biz yashab turgan jamiyatning haqiqiy vatanparvar, madaniyatli, ma'naviyatli a'zolarini tarbiyalaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmudov M. Ta'lim natijasini loyihalash. // «Pejagogik mahorat», 2003 yil, 1-son, 8-10 betlar.
2. To'raqulov X.A. Ilmiy ijodiyot metodologiyasi. T-2006y.
3. Farberman B.L., Musina R.G., Jumaboeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. T., 2002 yil.

4. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. TDPU. T. 2004 .
5. J.G.Yo'ldoshev, S. A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. T.O'qituvchi. 2004.

BOLA SHAXSINING SHAKLLANISHIDA MTT VA OILA HAMKORLIGI

Mamatqulova Nilufar
Qo'qon Universiteti, magistratura 1-bosqich talabasi,
Gauxar Djanpeisova
Toshkent shahridagi A.I. Gertsen nomidagi
Rossiya davlat pedagogika universiteti filiali
"Maktabgacha ta'lim" kafedrası mudiri
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Maqolada bolaning tarbiyasi va rivojlanishida oilaning o'rni yoritilgan. Hozirgi bosqichda oilaviy tarbiyaning xususiyatlari ko'rsatilgan. O'qituvchining oila bilan ishi bilan o'zaro munosabatda bo'lganda, tabaqalashtirilgan yondashuvni, oilaning ijtimoiy mavqeini, shuningdek, ota-onalarning farzandlarini tarbiyalashga qiziqish darajasini hisobga olish kerak.

Tayanch so'zlar: hamkorlik, ota-ona, tarbiya, qadriyat, pedagog, jamiyat, mahalla, oila, ta'lim, qamrab olish, moslashuv, usul, shakl, shaxs, ko'nikma, malaka.

Maktabgacha yoshdagi bolada hamdardlik tuyg'ularini rivojlantirish va tarbiyalashda muhim rol oilaga tegishli. Oila sharoitida unga xos bo'lgan hissiy va axloqiy tajriba shakllanadi: e'tiqod va ideallar, baholash va qiymat yo'nalishlari, atrofdagi odamlarga va faoliyatga munosabat. Qadriyatlar (moddiy va ma'naviy) uchun ma'lum bir baholash va standartlar tizimini afzal ko'rgan holda, oila ko'p jihatdan bolaning hissiy va ijtimoiy-axloqiy rivojlanish darajasi va mazmunini belgilaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning tajribasi juda boshqacha bo'lishi mumkin. Qoida tariqasida, bu katta va do'stona oiladan bo'lgan bolada to'liq va ko'p qirrali bo'lib, u yerda ota-onalar va bolalar chuqur mas'uliyat va o'zaro bog'liqlik munosabatlariga ega. Ushbu oilalarda tasdiqlangan qadriyatlar doirasi juda keng, ammo ularda inson va unga bo'lgan munosabat asosiy o'rinni egallaydi. Hissiy tajriba to'liq bo'lmagan oiladagi bolada (ota-onasi bo'lmagan taqdirda) yoki uning aka-ukalari bo'lmagan taqdirda sezilarli darajada cheklanishi mumkin. G'amxo'rlik qilish kerak bo'lgan boshqa bolalar, qariyalar hayotida ishtirok etishning haqiqiy amaliyoti yo'qligi hissiy tajriba doirasini toraytiradigan muhim omil hisoblanadi.

Oila sharoitida olingan tajriba nafaqat cheklangan, balki bir tomonlama ham bo'lishi mumkin. Bunday bir tomonlama bo'lish, odatda, oila a'zolari bolada juda muhim bo'lib tuyuladigan individual fazilatlarni rivojlantirish, masalan, aqlning rivojlanishi (matematik qobiliyatlar va boshqalar) bilan bog'liq bo'lgan sharoitlarda rivojlanadi va shu bilan birga bola uchun zarur bo'lgan boshqa fazilatlarga jiddiy e'tibor berilmaydi. kelajakdagi fuqaro sifatida.[1]

Va nihoyat, bolaning hissiy tajribasi heterojen va hatto qarama-qarshi bo'lishi mumkin. Ushbu holat, qoida tariqasida, asosiy oila a'zolarining (ayniqsa, ota-onalarning) qiymat yo'nalishlari butunlay boshqacha bo'lganda sodir bo'ladi. Ushbu turdagi tarbiyaning namunasini oila berishi mumkin, unda ona bolaga sezgirlik va sezgirlikni singdiradi, otasi esa bunday fazilatlarni qoldiq deb biladi va bolada faqat kuchni "rivojlantiradi", bu sifatni ustuvor darajaga ko'taradi.

Ota-onalar bilan maqsadli ishlash uchun ularning ushbu masalaga munosabatini aniqlash kerak. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ota-onalarning to'rt toifasi mavjud:

- 1 toifadagi ota-onalar ushbu ko'nikmalarni xohlashadi va shakllantirishlari mumkin;
- 2 toifasi-ular ta'lim faoliyati uchun universal shart-sharoitlarni shakllantirishni xohlashadi, lekin ta'minlay olmaydilar;
- 3 toifasi-istamayman – lekin mumkin;

-4 toifadagi ota-onalar va istamaydilar va qila olmaydilar.

Ushbu haqiqatni tushunish bizga quyidagilarni tushunishga imkon berdi:
ota-onalar bilan o'zaro munosabatlarning bir xil shakllari samarali emas.

Ota-onalar bilan ishlash tabaqalashtirilgan yondashuvga ega bo'lishi, oilaning ijtimoiy holati va mikroiklimini, shuningdek, ota-onalarning talablari va ota-onalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga qiziqish darajasini hisobga olishi kerak.

1-toifali ota-onalar ushbu ko'nikma va qobiliyatlarni xohlaydi va shakllantirishi mumkin. Bunday ota-onalar bilan ishlashning axborot va tahliliy usullaridan foydalanilgan. (Ota-onalar bilan tanishish, so'roq qilish, to'plangan ma'lumotlar asosida oila va oilaviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadigan oilalarni so'roq qilish) bu ota-onalarning qiziqishlari, ehtiyojlari, so'rovlari, ularning pedagogik savodxonlik darajasini aniqlashga imkon berdi.

2-toifa-ular o'z farzandlarida ta'lim faoliyati uchun universal shart-sharoitlarni shakllantirishni xohlashadi, lekin ta'minlay olmaydilar. Ushbu toifadagi ota-onalar bilan ishlashda kognitiv usul ishlatilgan. Oila bilan ishlashning ushbu shaklining maqsadi ota-onalarni individual ehtiyojlarni hisobga olgan holda oilada bolalarni tarbiyalash muammolarini faol tushunishga jalb qilishdir. Buning uchun biz ota-onalar bilan faol shakllardan foydalanamiz : ota-onalarni umumiy va guruhli ota-onalar yig'ilishlarida, pedagogik kengashda, maslahatlashuvlarda va individual suhbatlarda ishtirok etishga jalb qilish.

3-toifa-ular xohlamaydilar, lekin qila oladilar. Ushbu toifadagi ota - onalar bilan vizual va axborot usullaridan yoki master-klasslardan foydalanamiz. Bunday ishning maqsadi ota-onalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati, bolalarni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirishdir.

4-toifa ota-onalar va istamaydilar va qila olmaydilar. Ushbu toifadagi ota-onalar bilan ishlash eng qiyin. Shuning uchun bu erda ishlashning barcha usullari samarali: kognitiv, vizual - axborot, axborot-tahliliy, axborot-axborot; axborot-ma'rifiy; bo'sh vaqt.

Shunday qilib, ota-onalar bilan muntazam ravishda ishlash va ushbu ishni tahlil qilish orqali biz asta-sekin ma'lum natijalarga erishamiz: "tomoshabinlar" va "kuzatuvchilar" dan ota-onalar ta'lim faoliyatining faol ishtirokchilariga aylanadilar. O'qituvchilar, maktabgacha ta'lim tashkiloti ma'muriyati va maktab yordamchilari. Bolalarning maktabga tayyorligi masalalarida ota-onalarning malakasi oshadi.

Bolalar bog'chasi - oila - maktab bir-biriga ochiq bo'lishi va bolaning qobiliyatlari va imkoniyatlarini ochishga yordam berishi uchun zarurdir.

2.Bolalarning emotsional xususiyatlarini kamol toptirish

3.Bolalarni tartib-intizomga o'rgatish

4.Bolalarda o'z-o'ziga xizmat ko'nikmalarini rivojlantirishda hamkorlikning zarurati

Mustaqillik - sifat juda noaniq. Ko'pincha kattalar bolaning o'zini o'zi band qila olmasligi, o'yinni o'ylab topishi, eng oddiy so'rovni bajara olmasligi haqida shikoyat qiladilar: hamma narsa uning qo'lidan tushadi, eng oddiy vazifa bolada qiyinchilik tug'diradi, harakatlar noqulay; boshlangan ish uni oxiriga etkazmaydi, agar u nazorat qilinmasa, chalg'itadi.Muddatlarni belgilashda qarama - qarshiliklarga qaramay, olimlar bir narsada bir ovozdan: mustaqillik-bu shaxsning eng muhim xususiyati, mustaqillik boshqa shaxsiy xususiyatlardan (o'zboshimchalik, Iroda, maqsadga muvofiqlik) ajralishda paydo bo'lishi mumkin emas, mustaqilliksiz shaxs to'liq bo'lmaydi.

Mustaqillik uchun zarur shart-sharoitlar hayotning ikkinchi uchinchi yilida, bola kichik joylarda nisbatan erkin harakatlana boshlaganda va ma'lum darajada o'zining ba'zi asosiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda qondira olganda belgilanadi.O'z - o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish yosh maktabgacha yoshdagi shaxsning sifati sifatida

mustaqillikning birinchi bosqichidir. Oilaviy ta'limning ustuvorligini tan olish oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi yangi munosabatlarni talab qiladi. Ushbu munosabatlarning yangiligi "hamkorlik" va "o'zaro ta'sir" tushunchalari bilan belgilanadi.

O'zaro hamkorlik-bu "teng sharoitda" muloqot, bu erda hech kim ko'rsatish, nazorat qilish, baholash imtiyoziga ega emas.

O'zaro hamkorlik-bu ijtimoiy idrok va aloqa orqali amalga oshiriladigan qo'shma faoliyatni tashkil etish usuli. S. Ozhegovning " rus tilining lug'ati "da" o'zaro ta'sir " so'zining ma'nosi quyidagicha izohlanadi:

- 1) ikki hodisaning o'zaro bog'liqligi;
- 2) o'zaro yordam.

"Oila - MTT" kontekstidagi muvaffaqiyat lahzasi-pedagog va ota-onalarning ma'lum bir oilada ma'lum bir bolani tarbiyalash jarayonida qiyinchiliklar va quvonchlar, muvaffaqiyatlar va muvaffaqiyatsizliklar, shubhalar va mulohazalar to'g'risida shaxsiy o'zaro munosabati. Bolani tushinishda, uning individual muammolarini hal qilishda va uning rivojlanishini optimallashtirishda bir-birlariga yordam berish bebahodir.

Maktabgacha yoshdagi bolada o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini muvaffaqiyatli shakllantirish pedagog, psixolog, maktabgacha ta'lim tashkilotining tibbiyot xodimi va bolaning ota-onasi o'rtasidagi yaqin hamkorlik sharti bilan mumkin. Shu bilan birga, pedagogning ota-onalar bilan o'zaro munosabatlarining roli juda katta.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining oila bilan o'zaro munosabatlarining barcha shakllari va turlarining asosiy maqsadi bolalar, ota - onalar va pedagoglar o'rtasida ishonchli munosabatlarni o'rnatish, ularni bitta jamoaga birlashtirish, o'z muammolarini bir-biri bilan bo'lishish va birgalikda hal qilish zarurligini tarbiyalashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Grosheva I.V.va boshqalar "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi. T. : 2022.
2. F. Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika".-T., "Ma'naviyat". 2013
3. <http://www.tdpu.uz>
4. <http://www.ziyonet.uz/>
5. <http://www.google.co.uz/>

MA'NAVIY BARKAMOL SHAXSNI SHAKLLANISHIDA OILANING O'RNI

Shixnazarov Behruz Bahrom o'g'li
O'zbekiston davlat konservatoriyasi 2- bosqich magistri,
K.O.Matnazarova
Qo'qon universiteti "Ta'lim" kafedrasida
dosenti p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila uning jamiyatda tutgan o'rnini, bola tarbiyasida oilaning va ota-onaning vazifalari, ota – onaning bir – biriga munosabati, oilada kattalarning muomala madaniyati, tarbiya jarayonida bolaning shakllantirishi va rivojlantirishi hamda oilada bolani tarbiyalashda uchraydigan xatoliklarni oldini olish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Oila, ota-ona, farzand, bola tarbiyasi, oilada o'zaro hurmat, ta'lim, tarbiya, axloq muhit, ma'naviyat

Oila – an'anaviy tarbiyaning asosiy instituti bo'lib hisoblanadi. Bola yoshlik davrida oilada olgan ta'lim – tarbiyasini butun umri davomida saqlab qoladi. Bola hayotini asosiy qismini oilada o'tkazadi, o'zining ta'sir kuchiga ko'ra hech qanday tarbiya vositasi oila bilan bellasha olmaydi. Oilada bola shaxsini asoslari tarkib topdiriladi maktabga borganda esa bola shaxs sifatida shakllangan bo'ladi.

Oila bolalarga insoniy va salbiy ta'sir etish omili bo'lishi mumkin. Bola shaxsiga ijobiy ta'sir etish shundan iboratki, oilada bolaga eng yaqin insonlardan - ota-ona, buvi, buva, aka, opalardan tashqari hech kim ulardek bolani yaxshi ko'rib, u haqida qayg'urmaydi. Shu bilan birga bola shaxsini shakllantirishga, ularga tarbiya berishda oila salbiy ta'sir ham ko'rsatishi mumkin.

Oila – bu o'ziga xos jamoadir u tarbiyada asosiy o'ringa egadir. Oilani o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyatini hisobga olgan holda, oilani bolaga ijobiy ta'sirini oshirib, salbiy ta'sirini kamaytirish zarur. Buning uchun esa tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan, ichki oilaviy ijtimoiy-psixologik omillarni aniq belgilash lozim. Bolani tarbiyasida asosiysi ota-ona bilan bola o'rtasida qalban yaqinlikka va axloqiy bog'likka erishishdir. Ota-onalar hech qachon tarbiya jarayonini o'z xoliga tashlab qo'ymasligi kerak, ayniqsa katta bo'la boshlagan bolani o'z xoliga tashlab qo'ymasligimiz kerak. Bola oilada birinchi hayotiy tajribani o'rganadi, kuzatadi va o'zini turli xil vaziyatlarda qanday tutish kerakligini o'rganadi.

Biz bolani nimaga o'rgatsak uni aniq, hayotiy misollar bilan mustaxkamlash kerak, bola kattalarni aytgan gaplari amalda ham bir xil bo'lishini ko'rishi kerak. (masalan: agar bola har kuni ota-onasi tomonidan yolg'on gapirish mumkin emasligini eshitsa-yu, lekin ota-ona o'zi sezmaganda bu qoidaga rioya qilmasa, bola tarbiyasi darz ketadi). Har bir ota-ona farzandlarida o'zlarni davomchilarini ko'radi. Farzandlarini o'zlari xoxlagan inson bo'lishlarini istaydi.

Har doim ota-onalar qaror qabul qilishda birinchi o'ringa o'zlarini qarashlarini emas, balki bolaga foyda keltirishni o'ylashlari kerak. Kattalar va bolalar o'rtasidagi muloqotda quyidagilarga amal qilish lozim.

1. Bolani qanday bo'lsa, shunday holda qabul qilish kerak.
2. Kattalar bolalar ko'zi bilan muammolarga qarashlari va ularning holatlarini his qilishlari kerak.

Agar bola ota-onalarni xohish va istaklariga mos bo'lsa, ya'ni yaxshi o'qisa, a'lo xulqli bo'lsa yoki aksincha ota-onalarni talabalariga javob bermasa, bunda bolalarni ota-onalar o'zlaridan uzoqlashtiradilar va ularni munosabatlari yomon tomonga o'zgarib boradi.

Bu esa sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, bola ota-onalariga ularni mehribonliklariga ishonmaydi.

Ayrim oilalarda bolaning fikrlari ota-ona tomonidan umuman qabul qilinmaydi. Ular bolaga nisbatan befarq bo'ladilar va uni o'zlaridan itaradilar (masalan: ichkilikka berilgan oila). Lekin yaxshi tinch oilalarda ham bolaga nisbatan befarqlik holatlari uchraydi (masalan: kutilmagan farzandni tug'ilishi, ona chiroyli lekin qizi hunuk bu esa onani g'ashiga tegadi).

Oilada bolani tarbiyalashda uchraydigan xatoliklar turli tumandir. Ular orasida keng tarqalganlaridan biri ota-onalarning xaddan tashqari obro'talabliklari, xukmronlikka intilishlaridir. Bolaning har bir qadami nazorat ostiga olinsa, uning xulqidagi mustaqillik yo'qqa chiqariladi. Bolada o'z kuchiga va imkoniyatlariga ishonch yo'qoladi. Ichki istak va intilishlari shakllanmasdan qo'rqish, itoat qilish talablari kuchayib boradi. Oilaviy tarbiyadagi xatolikning turlaridan yana biri, bolalarning erka bo'lishi, ularga nisbatan biror talabning yo'qligi bilan bog'liq. Bu xolda ota-onalar ba'zan bolalarning imkoniyatlariga yetarli baho berishmay va ularning ko'pgina ishlarini o'zlari bajarishadi. Natijada bolada mustaqillik, mehnat qilish ishtiyoqi, topshirilgan ishga ma'suliyat xissi rivojlanmaydi. Bola o'z ishini tanlay olmaydi, uni oxirigacha yetkaza olmaydi, erksiz bo'lib qoladi.

Bolalarni oiladagi tarbiyasidagi xatolarning bir turi ona yoki ota, buvi, buva va boshqalar tomonidan tarbiyada yagona talabalarning yo'qligidir. Bunday oilalarda bolalar kattalarning qarama-qarshi fikrlariga moslashishga harakat qiladi. Bu esa bolada ikkiyuzlamachilik. xushomadgo'ylik kabi salbiy xislatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Oilada bola shaxsini shakllantirishda oila boshliqlari bilan bolalarning o'zaro yaxshi munosabati, xonadon kattalariga hurmat, e'tibor, oiladagi bolalarning o'zaro munosabatlari, ota-onaning bolalar tarbiyasiga barobar jonkuyarligi, oilada o'rnatilgan to'g'ri tartib va yaxshi odatlar, ota-onaning mehnatga, ijtimoiy hayot xodisalariga to'g'ri munosabatda bo'lishlari muhimdir. Bola tarbiyasida ota - onaning bir - biriga munosabati, o'zlarini tuta bilishlari muhimdir, oilada muomalaning barcha qoidalariga amal qilinishi lozim. Kattalarga hurmat, kichiklarni avaylash, bir -biriga mehribonlik, ayniqsa ayollarni izzat qilish odatga, qoidaga aylanib borishi kerak.

Bolalarga onani hurmat qilishni, unga mehribon bo'lishni o'rgatish otaning muhim vazifasi. Odatda o'g'il bola otasiga, qizlar esa onasiga o'xshashga, ulardagi yaxshi xislatlarni o'ziga singdirishga harakat qiladi. Ota ham, ona ham, bolani tarbiyalashga o'z xissalarini qo'shadilar.

Ona g'amxo'r, mehribon, ko'ngilchan bo'lsa, ota - kuch qudrat, jasurlik, qattiqqo'llik, bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishi uchun qayg'ursa, ona - yurish - turish, muomala, xis to'yg'u, nafosat uchun tashvishlanadi.

Ota- ona bolaning aqliy, axloqiy jismoniy kamoloti uchun baravar javobgar, chunki, ularning birdan - bir maqsadi shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir.

Bola shaxsini shakllanishida sog'lom oilaviy muhit katta ahamiyatga egadir. Oilada ota - onalar o'rtasidagi o'zaro hurmat, ishonch va vafo - sadoqat bolalar quvnoq, xushchaqchaq o'sishlariga, normal tarbiyalanishlariga, xonadonda sog'lom muhit yaratilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Oila a'zolari bir- birlari bilan hurmatini o'rniga qo'yishlari, bir - birlari uchun jon kuydirishlari, yaxshi munosabatda bo'lishlari kerak. Oilada hamisha samimiyat va ko'tarinki rux hukmron bo'lsa, oila a'zolarining kayfiyatiga ijobiy ta'sir etadi.

Qaysi oilada noxaqlik, qo'pollik, do'q po'pisa, asabiylik, hukmron ekan, unda xalovat ham bo'lmaydi. Oiladagi arzimagan janjal ham dastavval bolalarning psixik xolatiga ta'sir qiladi, ularda yomon odatlar xosil bo'lishiga olib keladi. Bolalar ulg'aygach, ular ham qush uyasida ko'rganini qiladi qabilida ish tutishadi.

Xulosa qilib aytganda oilada ota – ona bir – birini hurmat qilishi, farzand oldida oilaviy nizolarni keltirib chqarmasligi, iloji boricha bola yo'q vaqtida o'zaro nizolarni bartaraf etishlari shart. Bolaning o'sib- ulg'ayib borishida oila muhiti, ota – ona, kattalarning ozaro munosabati, atrof – muhit juda katta ta'sir qiladi. Oiladagi totuvlik, hamjixatlilik, o'zaro hurmat va yordam, shirinsuxanlilik, mehnatsevarlilik va to'g'rilik bolaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurauf Fitrat. "Oila va oilani boshqarish tartiblari" Toshkent.: 1999 yil.
2. Otavaliyeva O', Irisboeva M. "Oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlardan foydalanish" Samarqand.: 2009 yi
3. To'raeva O. "Oilada bola tarbiyasi". Toshkent.: 1999 yi
4. Ochilov Safo "Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari" Toshkent.: 1995 yil.
5. Inomova M. "Oilada bolalarni ma'naviy- axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish" Toshkent.: 1995 yil.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING PEDAGOGIK MAHORATINI
SHAKLLANTIRISH****G.F. Mirzakbarova****Qo'qon universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi****4-kurs talabasi,****K.O. Matnazarova****Qo'qon universiteti "Ta'lim" kafedrası****v.b dosenti p.f.f.d (PhD)**

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak zamonaviy o'qituvchining o'zi-o'zini rivojlantirishda pedagogik mahoratining ahamiyati va uning jamiyatda tutgan o'rni, bo'lajak pedagoglarga kasb malakalari va mohirligini egallash, shaxsiy mahoratni shakllantirish, ijodkorligini tarbiyalash, pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik, pedagogik madaniyat, pedagogik nazokat va pedagogik qobiliyatni egallash haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik mahorat, boshlang'ich sinf, metod, pedagogik qobiliyat, mahorat, usul, ta'lim, tarbiya, pedagogik texnika, pedagogik madaniyat.

Fan va madaniyat rivojlanishi ta'lim-tarbiya ishlarining qay yo'sinda olib borilishidan kelib chiqadi. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ta'lim-tarbiya sohasida, milliy axloq-odobni qayta tiklash borasida, milliy urf-odatlar, turli-tuman an'analarni joyiga qo'yish, milliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish xususida juda keskin va buyuk burilishlar bo'lgani barchaga ayondir. Davlatning buyuk kelajagi - yoshlarni chuqur bilimli va pokiza axloq-odob, qalb egasi qilib tarbiyalash lozimligini yoddan chiqarmaslik lozim. Bu katta muammoda mahoratli, bilimli pedagoglarni o'rni muhim. Zamonaviy ilm-fan texnika va texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi ta'lim tizimiga va unda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarga ko'plab imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Shunday ekan bugungi kunda kasblar ichida o'qituvchilik kasbi muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi yosh qalblar kamolotining me'moridir. Har bir fan mustaqil o'quv maqsadi, mazmuni va o'zining o'rganish mavzusi (predmeti) va metodiga ega. Shunga asosan, «Pedagogik mahorat» fani, o'qituvchi – tarbiyachining kasbiy faoliyati, mohirligini o'rganuvchi va uni takomillashtirish to'g'risida ma'lumotlar beruvchi fan hisoblanadi. Pedagogik mahoratning mazmun, mohiyati shu kasbning malakalarini shakllantirish va rivojlantirishning yo'llari, vositalari, shakllarini tashkil etadi.

Pedagogik mahoratning umumiy asoslarini yoritishda eng muhim tayanch tushuncha **"mahorat"** atamasi sanaladi.

Mahorat – bu yuqori va doimo yuksalib boruvchi tarbiya va o'qitish san'atidan iborat.

O'qituvchidan jamiyat talab etadigan asosiy ijtimoiy vazifalar va ma'suliyat shaxs kamoloti, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi bilan bog'liq.

O'qituvchilarga qarata ta'lim-tarbiya ishlarini ijtimoiy hayot, jahon miqyosida sodir bo'layotgan voqealar bilan bog'liq holda olib borishni talab etadi.

O'z kasbining ahamiyati, ma'suliyatini anglab etgan, his qilgan o'qituvchining boshqa o'qituvchilardan farqi ma'suliyatni his qilishida ko'rinadi. Ish intizomiga rioya qilishi, o'z ustida ishlashi, o'ziga nisbatan talabchanligi bilan, talabalarga individual yondashadi, o'z malakasini muntazam ravishda oshirib boradi.

Sharq mutafakkirlari o'qituvchi o'zi o'qib tursagina - o'qituvchi bo'la oladi, agar o'qishni to'xtatib qo'yar ekan, unda o'qituvchilik ham o'ladi, deb haqqoniy aytganlar.

O'qituvchilik kasbi ulug' va sharafli, murakkab, o'z o'rnida mas'uliyatli kasblardan biridir. Dunyodagi barcha insonlarni komil bo'lib etilishiga o'qituvchi sababchi bo'ladi. Barcha joylardagi hamma kasb-hunar, ilmi, olimu-fuzalolar o'qituvchining mehnati samarasidir. O'qituvchi mehnatini biror narsa bilan taqqoslab bo'lmaydi. O'qituvchilik kasbini egallashga intilayotgan har bir inson

o'zida avvalo iroda, sabr-matонат, pedagogik mahoratni, o'qituvchilik ixtisosligiga xos bilim, malaka, ko'nikmalarni egallashi lozimdir.

Mahoratli o'qituvchi quyidagi bilim, ko'nikma, malakalarni egallagan bo'lishi zarur.

1. O'qituvchi dunyoqarashi keng, hamma voqea, hodisa ustida erkin fikr yurita olishi zarurdir.

2. Mustaqil O'zbekistonimiz o'qituvchisi birinchi galda o'zi o'qitadigan fanni chuqur egallagan bo'lgandagina o'quvchilarda umumiy va kasbiy ta'lim sifatini oshira oladi va ularda fan - texnika hamda amaliy faoliyatga qiziqish va istak hosil qila oladi.

3. O'qituvchi hozirgi zamon fan-texnika talabiga muvofiq yaxshi dars berishi va uning har minutidan unumli foydalanishi zarur.

4. O'qituvchi yaxshi o'qituvchi bo'lishi uchun pedagogika, psixologiyaga qo'shib, o'z fanining metodikasini yaxshi bilmog'i lozim.

5. O'qituvchining umumiy madaniyati yuqori bo'lishi bilan birga bu kasb adabiyot va san'at sohasidagi bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi.

6. O'qituvchi pedagogik odobiga rioya qilishi kerak. Pedagogik odobi o'qituvchilik kasbiga xos fazilatlardan bo'lib, u o'qituvchining bolalar bilan ishlashi jarayonida uning tajribasi mahorati oshadi.

7. O'qituvchi pedagogik mahoratiga va har tomonlama bilimga ega bo'lishi kerak, chunki unga o'quvchilar har sohada murojaat qilishlari mumkin.

Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lishi lozim:

1. Bilish qobiliyati;
2. Tushuntira olish qobiliyati;
3. Kuzatuvchanlik qobiliyati;
4. Nutq madaniyati – nutq yordamida;
5. Tashkilotchilik qobiliyati;
6. Obro' orttira olish qobiliyati;
7. To'g'ri muomala qila olish qobiliyati;
8. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati;
9. Diqqatni taqsimlab olish qobiliyati;

Pedagogik qobiliyatlar – faqat pedagogik faoliyat samarali bo'lishining shartigina emas, balki ko'p jihatdan o'qituvchining muvaffaqiyatli ishlashining natijasi hamdir. Shu munosabat bilan o'qituvchining o'zida pedagogik qobiliyatlarning aniq maqsadni ko'zlab tarkib topishi va rivojlanishi katta ahamiyatga ega.

Hozirgi zamon o'qituvchisi xalqimizning tarixini, yuksak ma'naviyatini, madaniyatini, urf-odatlarini chuqur bilishi va ota-onalar jamoatchiligi ichida, sinfda uning otashin targ'ibotchisi bo'lishi kerak. Shu bilan bir qatorda bolalarni milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalashi, nutqi ravon tili boy bo'lishi, ifoda usuli va tasvir vositalarining adabiy til uslubi va meyorini to'la egallagan bo'lishi zarur.

O'qituvchilik kasbiga xos bo'lgan bunday fazilatlarni undagi pedagogik odob shakllantiradi. Pedagogik odob bu o'qituvchining yuksak kasbiy fazilatidir. U o'qituvchiga sabotli bo'lish, o'z hissiyatini idora qila olish, bolalarga pedagogik ta'sir o'tkazish vosita va meyorini belgilash, aniqlashda yordam beradigan fazilat hisoblanadi.

Pedagogik jarayonda o'qituvchi axloqiy munosabatlarning sub'ekti hisoblanadi. U pedagogik jarayonning asosiy kishisi sifatida o'quvchilar, kasbdoshlar, ota-onalar bilan muomalada bo'ladi. Pedagogik muomala odobi, pedagoglarining eng muhim jihatlaridan biridir. O'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, pedagoglar jamoasi va jamoat tashkilotlarining vakillari o'qituvchi uchun pedagogik muomala-munosabatlarning ob'ekti hisoblanadi. Ular bilan bo'ladigan aloqalar yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish vazifalarini bajarish jarayonida sodir bo'ladi. Bu muomala jarayonida

ishtirok etadigan kishilar bir-birlariga nisbatan xayrixoh, ijobiy hissiyotda bo'lishlari, bir-birlarining fazilatlarini o'zaro baholashlari, qadrlashlarini nazarda tutadi.

O'quvchilar bilan muomala qilish pedagogning o'z tarbiyalanuvchilari bilan muloqot olib borish mahoratini taqozo etadi.

Muloqot - yunoncha so'zdan olingan bo'lib, so'zlashuv, suxbatlashuv, shaxslararo suhbat va fikr almashinuv degan ma'nolarni anglatadi. Haqiqiy pedagog faqat bilimga emas, so'zlashish madaniyatiga ham ega bo'lishi kerak. Maktabda, umuman o'qish jarayonida 2 ta asosiy shaxs - o'qituvchi va o'quvchi bo'ladi. Bu ikkala shaxsning dars jarayonida, sinfdan tashqari ish olib borish jarayonida ularning bir-biri bilan to'g'ri munosabatda bo'lish, o'quvchi shaxsi shakllanishida ta'limimiy-tarbiyaviy jarayon yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Demak, o'qituvchining muomala odobi - u aloqa qiladigan odamlar, muassasalar bilan o'z kasbiy vazifasini bajarayotganda sodir bo'ladigan axloqiy munosabatlar majmuidir. Bu yondoshuv asosida pedagogik muomala odobini shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- ❖ o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi muomala;
- ❖ o'qituvchi bilan pedagogik jamoa o'rtasidagi muomala;
- ❖ o'qituvchi bilan ota-onalar o'rtasidagi muomala;
- ❖ o'qituvchi bilan maktab rahbarlari o'rtasidagi muomala.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish vositasi sifatida qaralib, birlashtiruvchi, o'rnini to'ldiruvchi vazifasini ham bajaradi. Muomala o'zaro munosabatlar doirasida sodir bo'ladi. Boshqarish vositasi bo'lgan muomala o'quvchilarning faoliyatiga hamrohlik qiladi nihoyat, boshqarish vositasi bo'lgan muomala faoliyatidan keyin boradi.

Muomala - insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqa vositalaridir. Muomalada asosiy vosita til hisoblanadi. Shuning uchun ham til - aloqa quroli deyiladi. Insonning tili shirin, muomalasi madaniyatli bo'lsa, qisqa vaqt ichida xalq orasida obro'-e'tibor topadi. So'zga chechanlik, hech qachon kishiga obro' keltirmaydi. Shuning uchun ham o'tmishda yashab o'tgan mutafakkirlarimiz tilga, so'zga hurmat bilan yondashishlarini uqtirib o'tganlar.

Xulosa qilib aytganda pedagogik mahoratiga ega bo'lgan o'qituvchi, bilim saviyasining va tafakkurining kengligi, o'tkir dunyoqarashi, ma'naviy madaniyat darajasi, pedagogik qobiliyati, ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarning mutanosibligi har qanday dars va darsdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy tadbirning muvaffaqiyatini ta'minlovchi hamda jonli muloqotini tashkil etuvchisi hisoblanadi. O'qituvchi kasbiy faoliyatidagi jonli muloqot qobiliyatini takomillashtirish uchun o'z oldiga doimo quyidagi savollarni qo'yib, unga mustaqil fikr-mulohazasi asosida javob bera olishi kerak: Mahoratli o'qituvchi faoliyatining asosida nimaga o'rgatish, kimni o'rgatish, qanday o'rgatish masalasi turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmankulova, K.O.Matnazarova, P.T.Xolmatov,
2. M.K.Shirinov, "Umumiy pedagogika" Darslik. - T.: "Navro'z", 2016.
3. Xaydarova R.A. "Umumiy pedagogika". O'quv qo'llanma. TDSHU 2021.
4. Xoliqov A. "Pedagogik mahorat". Darslik.-T.: Iqtisod-moliya, 2011
5. Axmedjanov M.M., Xo'jaev B.Q. "Pedagogik mahorat". Buxoro Ma'ruzalar matni 2004 yil

AVLOD SHAKILLANISHIDA PEDAGOGIKA VA PSIXALOGIYANI O'RNINI

Keldiboyeva Zumrad
Qo'qon universiteti 3 – kurs talabasi,
Mulaydinov Farxod Murotovich
Qo'qon universiteti kafedra mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limning ko'plab ta'riflari mavjud, ammo sodda qilib aytganda, ta'lim bu umumiy bilimlarni berish, fikr yuritish va fikr yuritish qobiliyatini shakllantirish va umuman to'g'ridan-to'g'ri o'rganish jarayoni yoki harakatlaridir.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, fikr yuritish qobiliyati, hayotingizni samarali rejalashtirish, ta'limning inson hayotida tutgan o'rni.

Ma'lumki, muvaffaqiyat muvaffaqiyatlarga olib keladi. Ta'limni hech qachon e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi, chunki ta'lim har qanday jamiyatning yuragini tashkil qiladi. Har qanday jamiyatning muvaffaqiyati uchun yangi kashfiyotlarni yaratish, bu kashfiyotlarni bilish orqali ta'limga erishish mumkin. Bugungi kunda ko'plab rivojlangan davlatlarning o'sishini odamlarga berilayotgan ta'lim sifatiga bog'liqdir. Sifatli ma'lumotga ega bo'lgan odamlar jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'sishi va rivojlanishiga olib keladigan islohotlarni amalga oshirish orqali jamiyatni yaxshilashga qodir. Ta'lim sizning atrofingizdagi dunyoni yaxshiroq tushunish uchun ongingizni ochadi. Ta'lim orqali dunyoning turli joylarida bo'lib o'tadigan turli madaniyat va voqealarni o'rganish mumkin. Ta'lim orqali bizning ufqlarimiz kengayib bormoqda, shunda biz nafaqat mamlakatlarimizda sodir bo'layotgan voqealar bilan cheklanib qolamiz, balki butun dunyo bo'ylab sodir bo'layotgan voqealar bilan cheklanib qolamiz. Ta'lim sizga hayotda ishonchli bo'lishga yordam beradi. Ta'lim olganingizda o'z hayotingizni samarali rejalashtirishga qodirsiz, chunki bu hayotdagi muammolarni tahlil qilishga yordam beradi va duch keladigan muammolar echimini topishga yordam beradi. Ma'lumotli odamlar hayotni ijobiy tomonga o'zgartira oladigan qarorlar qabul qilish imkoniyatiga egalar, chunki ular har kuni yangi narsalarni o'rganayotganda ko'p tajribaga ega bo'ladilar. Ta'limning ahamiyati rivojlangan mamlakatlarda yaqqol ko'rinib turibdi, chunki u shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishda katta rol o'ynaydi. Ta'lim kambag'allik, zulm va urushni engillashtirish vositasi sifatida ishlatilgan, chunki rahbarlar mamlakatni rivojlanishiga olib boradigan bilimlarga ega. Ba'zi mamlakatlarda insoniyatni tashvishga soladigan muammolardan biri bo'lgan aholining haddan tashqari ko'payishi muammosi mavjud edi. Odamlarning haddan tashqari ko'p bo'lishi, tegishli va sifatli ma'lumotlarning etishmasligi bilan izohlanishi mumkin. Ertaga kattalar bo'lgan yoshlarga jinsiy tarbiya berilishi kerak. Hayotda moliyaviy o'sishga ta'lim orqali erishish mumkin. Pulni oqilona boshqarish va pulni oqilona sarflash bo'yicha ko'rsatmalarga yaxshi ma'lumotga ega bo'lganda erishish mumkin, chunki siz o'z biznesingizni boshlash yo'llarini yaxshi bilasiz. Ta'lim odamlardan o'z huquqlari to'g'risida xabardor qilishning asosiy vositasi sifatida ishlatilgan.

Va nihoyat, yosh bolalar ta'limning muhimligini tushunishlari kerak. Miyangizni to'yingan qilish, foydali ma'lumot olish, referat yozish yoki o'quv qo'llanmasidan foydalanish va hk.

Inson tarbiyasining ifodasi nimada. Ta'lim bilan bir qatorda, asrlar davomida oldingi avlodlar tomonidan to'plangan ko'p tomonlama tajriba qabul qilinadi va buning natijasida o'z navbatida ertangi kunga yo'l ochiladi. Shunday qilib, ta'limning inson hayotida tutgan o'rnini ortiqcha baholashning iloji yo'q, bu o'ziga xos chorrahadir - hozirgi zamonda yashash, o'tmish donoligi kelajakda amalga oshirish uchun ishlatiladi.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, yoshligida yaxshi ma'lumotga ega bo'lgan odamlar qarilikda aqliy zaiflik, ruhiy kasalliklar va Altsgeymer kasalligidan aziyat chekishadi.

O'rta maktab diplomi va uni bitirganligini tasdiqlovchi diplom, o'z egasini o'qitish foydasiga zaif dalillardir. Albatta, zamonaviy dunyoda buni bilmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi, ta'lim to'g'risidagi hujjatlarning mavjudligi ma'lum afzalliklarni beradi, rasmiy ravishda, masalan, axloqiy nuqtai nazardan ishlaganda, bu boshqalardan ustunlik qilmaydi. Nima uchun? Bilim bilan tasdiqlanmagan sertifikat yoki diplom - bu bilimsizlikning eng yomon shakli va maktab mavzusini "mukammal" bilish hali odamni o'qimaydi. Ushbu tushuncha ko'p qirrali birikmani anglatadi:

- asosiy va oliy ma'lumot,
- axloq me'yorlari va axloqiy me'yorlarga rioya qilish,
- shaxsiy rivojlanish
- tajriba orttirish
- o'z potentsialini butun jamiyat manfaati uchun ro'yobga chiqarish,
- erishilgan balandlikdan qat'i nazar, o'sishni va yaxshilanishni istash,
- nima bo'lishidan qat'i nazar, har doim madaniyatni olib yuruvchi bo'lib qoladi.

Inson tarbiyasining asosiy bosqichlari. Har bir inson hayoti davomida, tug'ilish paytidan to keksalikka qadar, ta'lim jarayonida uzoq yo'lni bosib o'tadi - avval ma'lum bilim va ko'nikmalarni egallaydi, so'ngra ularni mustahkamlaydi va o'zi uchun yangi narsalarni ishlab chiqishni va o'rganishni to'xtatmaydi. Odamlar bilim va ta'limni nafaqat maktab skameykasida olishadi, bu allaqachon jozibali iboraga aylangan "hayot haqidagi fan" iborasiga e'tibor berish kifoya - eng aqlli o'qituvchilar bilan shug'ullanish kerak. Va inson ta'limining barcha bosqichlari quyidagicha ko'rinadi.

1. **Ta'limning boshlanishi** - inson go'dakligida hamma narsani o'rganganida, ya'ni noldan gapirganda oladi. Atrofidagi dunyoni bilgan holda, kelajakda yanada murakkab fan qurilishi kerak bo'lgan narsalarning barchasini o'zlashtiradi,

2. **Boshlang'ich ta'lim** - uyda yoki bolalar bog'chasida tarbiyalash, bolaga xatti-harakatlarning birinchi qoidalari, eng oddiy tushunchalar o'rgatilganda, yozishni va hisoblashni o'rganish uchun zamin unga tushunarli shaklda tayyorlanadi;

3. **Maktab ta'limi** - ta'lim poydevorini qo'yish, bilimga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, uning qiziqishini qo'zg'atish. Maktabda o'qitish jarayonida bola boshqa madaniyatlar, tarix bilan tanishadi, dunyoning haqiqiy o'lchamlari va unda to'plangan bilimlarni anglaydi,

4. **Oliy ma'lumot** - maktabni davom ettiradi, faqat biroz boshqacha doirada: o'qitish tor doirada olib boriladi va kelajakdagi kasbni tanlashga moyil bo'ladi. Ushbu bosqichda yoshlar voyaga etganlar bilan uchrashishga tayyorgarlik ko'rishadi,

5. **Amaliy ta'lim** - bu ish deyarli xuddi universitetdagi kabi, faqat amaliy kishilar uchun joy, odamlar amaliy bilim va ko'nikmalarni egallaydilar, ular tezda tajribaga aylanadi,

6. **O'z-o'zini tarbiyalash** - Bu kundalik vaziyatlar bilan ta'minlangan turli xil materiallar va manbalardan, kitoblar va Internetdan ilm-fanga qadar ilgari olingan bilimlarni takomillashtirish jarayoni.

Ta'lim jarayonida fanlar bo'yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashga hamda ularni ko'nikmaga aylantirishgagina emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo'llashga ham imkon beradi. Bunday mashg'ulotlar tanlagan kasbi to'g'ri ekaniga ishonch hissini uyg'otadi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi davrdagi o'qituvchining kasbiy shakllanish jarayonida maktab rahbariyati, ayniqsa, ilmiy mudir hamda pedagogik jamoatchilik katta rol o'ynaydi. Yosh o'qituvchilarga tajribali o'qituvchilarni biriktirib qo'yish, ularning darslarini kuzatish, uslubiy ishlarga jalb etish maktab rahbariyatining asosiy vazifalaridan biri. O'qituvchi o'z kasbini sekin-asta o'zlashtirib borishi bilan birga ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ib etadi. Shu yo'l orqali ham kasbiy shakllanishi takomillashib boradi. O'qituvchilik kasbini va pedagogik mahoratni egallash, maktab o'qituvchilar jamoasiga kirishib, unda o'z

o'rnini topib keta olishi yosh o'qituvchining o'ziga bog'liq. Jamoaning yordamidan yuz o'girmaslik, qiyinchiliklarga duch kelganda ruhan tushmay, o'z xatolarini ko'ra bilish va uni bartaraf etish uchun harakat qilish uning o'qituvchi bo'lib shakllanishidan darak beradi. Shu bilan birga, o'qituvchining kasbiy shakllanishi o'z-o'zini tarbiyalab borishga, o'z ustida tinmay ishlashga va o'z vaqtida malakasini oshirib borishga uzviy bog'liq. Bularning hammasi kasbiy fazilatlarining ajralmas qismihisoblanadi.

O'zbekistonda ta'lim tizimini o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasining milliy g'oyalari, talablari asosida tashkil etish, uni jamiyat taraqqiyoti istiqbollari va jahon andozalariga javob bera oladigan darajada bo'lishini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalasidir. Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni o'tmish qoldiqlaridan tozalash va rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga ko'tarish, jamiyat ravnaqi uchun yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta'lim tizimi xodimlarining umumiy vazifasidir. Shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimini nazariy-metodologik jihatdan qurollantirish – bugungi kunda pedagogika fanining bosh maqsadi sifatida belgilangan. Yuqorida bayon etilgan yuksak, ammo, sharaflil vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash har bir pedagogik xodimdan yuksak kasbiy mahorat, bilimdonlik va keng dunyoqarashni talab etadi. Pedagogik mahorat – o'qituvchi ijodkorligining oliy namunasi bo'lib, u yillar davomida shakllanadi. Uning yuksak mahoratni egallashi g'oyat murakkab jarayon bo'lib, pedagogika fanining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. O'qituvchi kasbiga xos bo'lgan ko'pgina fazilatlar bilan birga uning pedagogik mahoratni egallashi katta ahamiyatga ega. Yuqori pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchigina o'z kasbiga layoqatli, iste'dodli bo'lishi mumkin.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi yuqori pedagogik mahorat va keng dunyoqarashga ega bo'lishi kerak. Shundagina oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat egasi bo'lishi mumkin. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchi o'z fanini chuqur bilishi, unga turdosh fanlar haqida ham tushunchaga ega bo'lishi, o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olishi, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otishi, o'quvchilarning bilim, kamolot darajasi va ruhiyatini hisobga olishi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini tasavvur eta olishi lozim. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zini o'quvchining o'rniga qo'ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo'lgan narsalarni o'quvchilarga tushunilishi qiyin va mavhum bir narsa bo'lishi ham mumkinligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning xarakter va shaklini alohida o'ylab chiqadi hamda rejalashtiradi.

O'qituvchi o'quvchining, ichki dunyosiga kira olishi, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilishi bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvlar olib borishi kerak. Bunday o'qituvchi o'quvchining ruhiyatiga ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham tez fahmlab oladi. O'qituvchida nutq o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati hisoblanadi. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. O'qituvchining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuzi jihatdan yorqin, ifodali, his-hayajonli bo'lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim.

O'qituvchi kasbiga xos bo'lgan xislatlar, ya'ni yuksak pedagogik mahorat unda birdaniga shakllanmaydi. U o'z ustida tinmay ishlash, izlanish va ko'nikmalar asosida rivojlanadi. O'qituvchining yuqori kasbiy mahoratni egallashi bevosita uzluksiz ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Uzluksiz ta'lim tizimida asosiy o'rin egallagan malaka oshirish o'quvchi faoliyatini tahlil qilish va unga istiqbol yo'nalishlar berishga imkon beradi.

Hozirgi davr o'qituvchidan o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiya talablarini to'g'ri tushunish, tashabbuskorlik, o'z fani bo'yicha yangiliklardan xabardor bo'lishi va darslariga joriy eta olishni talab etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida

hamkorlikni vujudga keltirish, do'stona muhitni yaratish muammosining muvaffaqiyatli hal etilishi, fan o'qituvchilari va maktab rahbariyatining egallagan bilim, ko'nikma malakalari va shaxsiy insoniy fazilatlarini egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

O'qituvchi avvalo:

- Yumshoq ko'ngilli, ochiq chehrali, shirinso'zli, bolalarni qanday bo'lsa shundayligicha yaxshi ko'rishi;

- Mehr-muhabbat, qalb g'urini o'quvchilarga bab-baravar bo'lib berishi, sinfda do'stona muhitni yaratish va o'quvchilarning o'quv motivlarini rivojlantiruvchi kuch-rag'batlantirish metodlari ekanligini anglash;

- O'quvchilarning taqdiri, baxti va kelajagi uchun mas'ul ekanligini chuqur his etish, ularning nafsoniyati va qadr-qimmatini e'zozlash;

- Har qanday pedagogik vaziyatda o'quvchilarga qo'pollik qilmaslik, haqorat qilish va baqirish, taqdid va qo'rqitishdan o'zini tiyishi zarur;

- O'quvchilarni tushuna olishi, ularning his-tuyg'ularini qadrlash, tashvishlari, iztiroblarini engishiga yordam berishi, yoshlik va psixologik rivojlanishda o'ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini bilish.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim tizimining odil va demokratiyalashtirilishi o'quv jarayoniga o'zgacha talab va o'zgacha pedagogik munosabatlarni kashf etadi. Bu jarayon mazmun mohiyatdan avvalgidan tubdan farqlanadi.

Ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, mustaqil fikr yurita oladigan ijtimoiy faol yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalash vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishning dolzarb muammolari. <https://abiturtest.uz/mavzular/talim-tarbiya-samaradorligini-oshirishning-dolzarb-muammolari/>

2. A. Qurbonov. Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda didaktik o'yinlardan foydalanish. Samarqand – 2011.

3. Respublika ta'lim markazi. Sifatli ta'lim-tarbiya — bosh vazifamiz. Ma'rifat-2016. http://marifat.uz/marifat/v_pomosh_uchitelu-marifat/ishlanmalar/Sifatli-ta-lim-tarbiya-bosh-vazifamiz.html

TASHQI VA ICHKI MOTIVATSIYALARNING YOSHGA BOG'LIQLIGI

Eshonqulova Guljahon Abduqaxxorovna
Qo'qon universiteti o'qituvchisi
Mahmudov Muhammadali Qaxramonovich
Qo'qon universiteti "Ta'lim" fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisda motivatsiya so'ziga ta'rif va uning kelib chiqishi, qo'llash usullari, turlari keng yoritib berilgan hamda bu ma'lumot asnosida umumiy xulosalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Motivatsiya haqida tushuncha, uning kelib chiqishi, turlari, motivatsiya qo'llash usullari.

Motivatsiya - bu odamlar va boshqa hayvonlarning ma'lum bir vaqtda xatti-harakatni boshlashi, davom ettirishi va to'xtatishi sababi. Motivatsion holatlar odatda inson ichida harakat qiluvchi, maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlarga moyillikni yaratadigan kuchlar sifatida tushuniladi. Ko'pincha turli xil ruhiy holatlar bir-biri bilan raqobatlashadi va faqat eng kuchli holat xatti-harakatni belgilaydi. Bu shuni anglatadiki, biz biror narsani amalga oshirmasdan turib, biror narsa qilishga undashimiz mumkin. Motivatsiyani ta'minlovchi paradigmatic ruhiy holat, istak deyiladi. Ammo boshqa turli holatlar, masalan, nima qilish kerakligi yoki niyatlari haqidagi e'tiqodlar ham motivatsiyani ta'minlashi mumkin. Motivatsiya "motiv" so'zidan olingan bo'lib, u kishining ehtiyojlari, istaklari, yoki undovlarini bildiradi. Maqsadga erishish uchun shaxslarni harakatga undash jarayoni. Ish maqsadlari kontekstida odamlarning xatti-harakatlarini kuchaytiradigan psixologik elementlar pulga bo'lgan xohishni o'z ichiga olishi mumkin.

Asrimizning boshlarida turli mamlakatlarda motivatsiyani o'rganish bo'yicha samarali ishlar deyarli bir vaqtning o'zida boshlangan edi. Motivlar muommosi rivojlanishda uzoq va qiyin yo'llarni bosib o'tdi. Tadqiqotlar tarixini hisobga olgan holda, motivatsiya assotsiatsiyachilarning "atomizm" tushunchalarini yengish bilan bog'liq holda rivojlana boshlagan. Bu davrga kelib (XIX asr oxiri-XX asr boshi) chet el psixologlari motivlarni o'rganishga katta e'tibor berishgan. Motivatsiya masalalarini ishlab chiqish psixologiya fanining turli sohalarida turli usullardan foydalangan holda intensiv ravishda amalga oshiriladi. Angliyada Uilyam Makdugal instinktlarni asosiy tushuntirish tushunchasi deb hisobladi va shu bilan motivatsiyani instinktlar nazariyasi ruhida o'rganishga asos soldi. Keyinchalik bu yo'nalish zamonaviy etologlar - Konrad Lorenz va Nikols Tinbengenning asarlarida taqdim etiladi. Avstriyalik psixiatr Zigmund Freyd, Makdugal bilan deyarli bir vaqtda tushlar mazmuni va nevrotiklarning xulq-atvori kabi mantiqsiz ko'rinadigan hodisalarni yashirin ehtiyojlar dinamikasi bilan tushuntirishga harakat qildi. Motivlar haqidagi dastlabki tadqiqotni A. Uxtomskiy (1875-1945), yaxlit xulq-atvorni hisobga olgan. Uning ilmiy qiziqishlari markazida bo'lgan motivlar muammosini u ham fiziologik ham psixologik jihatlardan o'rgangan.

Inson motivlarining asosiy turlari oltita komponentni o'z ichiga oladi:

Tashqi motivlar - ular tashqi komponentlardan kelib chiqadi. Misol uchun, agar do'stingiz yangi narsa sotib olgan va siz buni ko'rgan bo'lsangiz, pul ishlashga va shunga o'xshash narsani sotib olishga undaysiz.

Ichki motivlar - insonning o'zida paydo bo'ladi. Masalan, biror joyga borish va vaziyatni o'zgartirish istagida ifodalanishi mumkin. Bundan tashqari, agar siz bu fikrni boshqalar bilan baham ko'rsangiz, kimdir uchun bu tashqi sababga aylanishi ham mumkin.

Ijobiy motivlar - ijobiy mustahkamlashga asoslangan bo'ladi. Misol uchun, bunday motiv o'rnatishda mavjud – "men ko'p ishlayman", "men ko'proq pul topaman".

Salbiy motivlar - ular insonni xato qilishdan qaytaradigan motivlar. Misol uchun – "men o'z vaqtida turmayman", "muhim uchrashuvga kechikib boraman".

Barqaror motivlar- inson ehtiyojlariga asoslangan va tashqaridan qo'shimcha mustahkamlashni talab qilmaydi.

Beqaror motivlar - bular tashqaridan doimiy mustahkamlashga muhtoj.

Tashqi motivatsiya tashqaridan kuchlar orqali insonni ishlashga undovchi kuch hisoblanadi. Ya'ni, odamlar xatti-harakatlarining sabablarini o'zlari qabul qiladilar va o'zlarini piar deb hisoblaydilar. Bunday motivatsiyalar tashqi moddiy va psixologik shart-sharoitlar bilan tartibga solinadi: pul, mukofot va hatto jazo. Ichki turtki insonga "Men" ga yetaklaydigan malakaga hamda shaxsiy tanlovga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq hisoblanadi. Bunday turtki bilan odamlar nima qilishayotganini, haqiqiy sababi nima ekanini tushunadilar va atrof-muhit bilan samarali ta'sir o'tkazadigan vosita sifatida o'zaro munosabatlarda o'zlarini his qilishadi. Ya'ni ichki motivatsiya, ehtiyojlar, manfaatlar, niyatlar, maqsadlar, istaklar, o'z-o'ziga ishonch, o'z-o'zini anglash imkoniyati, ishdan qoniqish hislarida ishlatiladi. Salbiy motivatsiya shaxsning psixologik holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan salbiy his tuyg'ular va hissiyot bilan bog'liq. Shuning uchun ularni ishlatishda bir nechta omillarni hisobga olish kerak.

- *Intelektual rivojlanish darajasi. Inson aqlli va bilimli bo'lsa salbiy motivatsiya usullari unchalik ta'sir qilmaydi.*

- *Yoshi bilan odam salbiy motivatsiyaga moyilligi ko'proq bo'ladi. Yillar o'tishi bilan uning hayotida norozilik va salbiy his-tuyg'ular ta'siri darajasi kuchayib boradi.*

- *Oilaviy ahvol. Motivatsion ta'sir biz sevadigan va qiyinchilikdan himoya qilishga harakat qiladigan oila, yaqinlar haqida ko'proq va sezgirroq qabul qilinadi.*

Dunyo bo'ylab eng zo'r aql egalari motivatsiyani batafsil o'rganishgan. Ular Podmarkova, I.F. Belyaeva, D.S. McClelland, J. Atkinsonlardir. Aksariyat psixologlar hamda faylasuflar to'plangan ma'lumotlarni nazariya va g'oyalarda aks ettirdilar. Bu esa hozir ham insonga hayotni qayta ko'rib chiqishga katta yordam beradi. Motivatsiya funktsiyalari qoida tariqasida, belgilangan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan. Ular butun tizimga yaxlitlik va barqarorlik beradi.

Motivatsiya bu insonni biron ishga undash, uni harakatga keltirishdir. Motiv bo'lmasa motivatsiya bo'lmaydi. Motivatsiya asosan ikki turli bo'ladi: ichki va tashqi. Ichki motivatsiya deb insonni o'zi tomonidan paydo bo'lishiga aytiladi. Bu kishining individual psixologik xususiyatlariga ham bog'liq tarzda vujudga keladi. Tashqi motivatsiyada esa insonga tashqi tomondan keladigan kuchlar ta'sir ko'rsatadi. Motivatsiya hayotimizning istalgan bosqichida muvaffaqiyat qozonishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shaxsiy yoki professional voqealarda ham maqsadga erishish uchun odamga kuchli motivatsiya kerak bo'ladi. Kanadalik jurnalist va yozuvchi Malkolm Gladvellning juda ham qiziq bir ma'lumotiga duch keldim. Muallifning yozishicha biror-bir sohada muvaffaqiyatga erishish uchun va ushbu sohaning haqiqiy ustasi bo'lish uchun kamida 10.000 soat davomida o'sha sohada muntazam ravishda shug'ullanish va mashq qilish zarur. Chunki insonning ichki kuchi bu motivatsiyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E G'oziyev "Ontogenez psixologiyasi" 2014 yil
2. E. G'ziyev "Umumiy psixologiya" 2014 yil
3. Safayev N.S., Mirashirova N.A. "Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyot" 2013 yil,
4. Дружинина В.. "Психология" .Учебник."Питер", 2003

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QISH VA SAVODXONLIK DARAJASINI OSHIRISHDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING AHAMIYATI

**Muazzamxon Xodjayeva,
Qo'qon universiteti boshlang'ich
ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini shakllantirish va rivojlantirishda xalqaro tadqiqot materiallaridan foydalanishning afzalliklari, mamlakatimiz ilk marta ishtirok etgan PIRLS xalqaro baholash tadqiqotining ahamiyati, mazkur materiallardan o'qish savodxonligi darslarida foydalanish natijasida erishilgan natijalar tahlili bayon qilinadi. Shuningdek, mazkur tadqiqotni o'tkazishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar tilga olinadi.

Kalit so'zlar: funksional savodli shaxs, o'qish savodxonligi, xalqaro baholash tadqiqotlari, PIRLS xalqaro baholash dasturi, boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligi, matnni o'qish va tushunish.

Bugungi zamonaviy maktabning eng muhim vazifalaridan biri funksional savodli shaxsni shakllantirishdir. "Funksional savodxonlik" tushunchasi o'z ichiga oladigan jihatlarni ko'rib chiqaylik.

Funksional savodxonlik – bu shaxsning tashqi muhit bilan munosabatga kirishish, unga imkon qadar tezroq moslashish qobiliyatidir. Funksional jihatdan barkamol shaxs – bu o'zi mavjud bo'lgan jamiyatning qadriyatlarini, qiziqishlari, umidlariga muvofiq erkin harakat qiladigan shaxs. Funksional savodli shaxsning asosiy belgilari: mustaqil, bilimdon va odamlar orasida qanday yashashni biladigan, ma'lum fazilatlariga, asosiy shaxsiy sifatlarga ega bo'lgan odam. Bugungi kunda jamiyat zamonaviy o'qituvchi oldigan aynan shu sifatlarga ega shaxsni tarbiyalash vazifasini qo'yimoqda.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha turli xalqaro va mahalliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aksar hollarda, ta'lim tizimi jadal o'zgarib borayotgan jamiyat talablariga javob berishga ulgurmayapti va o'quvchilarda tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyati, jamoada ishlash hamda kundalik hayotda va ishlab chiqarishda foydalaniladigan yangidan-yangi texnologiyalarga moslashish kabi zarur ko'nikmalarni shakllantira olmayapti. Bilimlarni baholash usullarini isloh qilish ta'lim sohasidagi har qanday tizimli o'zgarishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki bu o'zgarishlar maktab bitiruvchilarini munosib hayot uchun zarur bo'lgan malakalar bilan qurollantira oladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori bilan ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi.

O'zbekistonning ta'lim sifatini baholovchi xalqaro miqyosdagi tadqiqotlarda ishtirok etishi ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratishda katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar mamlakatimizda ta'limning sifati va uning jahon ta'lim tizimidagi nisbiy mavqeyini baholashga imkon beradi. Baholash tadqiqotida ishtirok etuvchi turli mamlakatlarning o'quv dasturlari, darsliklari va o'quvchilarning o'qishda erishgan natijalariga qo'yiladigan talablariga oid boy tahliliy materiallar mazkur mamlakat

mutaxassislariga ta'lim mazmunini isloh qilish va ta'lim standartlarini yaratish borasida asosli qarorlar qabul qilishga yo'l ochadi.

Dunyoning yetakchi mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik baholash texnologiyalaridan foydalanish O'zbekistonda ta'lim sifatini jahon standartlari darajasida baholashning milliy tizimini yaratish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019dagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ning birinchi bandida PISA xalqaro tadqiqotida O'zbekistonning ishtirokini ta'minlash va 2030-yilga borib kuchli 30 talikka kirishga erishish maqsadli yo'nalish etib belgilangan.

Umumiy ta'lim sifatini xalqaro monitoring qilish tizimida ishtirok etishning dolzarbligi quyidagilar bilan belgilanadi:

- o'tkazilgan tadqiqotlarning yuqori ilmiy va texnik sifati tufayli ta'lim tizimini isloh qilish uchun xalqaro tadqiqotlar natijalaridan foydalanish;
- boshqa mamlakatlar bilan taqqoslash orqali ta'lim sifatini baholash imkoniyati;
- ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlar sifatini takomillashtirish;
- ta'lim sifatini baholash sohasida yangi metodika va texnologiyalarni ishlab chiqish.

O'tkazilgan xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko'ra har bir mamlakat quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi:

- xalqaro miqyosda mamlakatning o'rtacha balli;
- alohida guruhlar (gender farqlar, o'quv fani bo'limlari, o'quv faoliyati turlari va b.) bo'yicha aniqlangan ko'rsatkichlar;
- o'quvchilarning o'qishda erishgan natijalari darajalari;
- mamlakatda ta'limning o'zgarish tendensiyalari.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha asosiy xalqaro tadqiqotlar OECD Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (Organization for Economic Co-operation and Development) va IEA Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro Assotsiatsiyasi (International Association for the Evaluation of Educational Achievements) tomonidan olib boriladi.

Umumiy ta'lim sifati bo'yicha uchta asosiy xalqaro qiyosiy tadqiqot – PISA, TIMSS va PIRLS bir-birini to'ldiradi. Ushbu uchta tadqiqotni bir vaqtning o'zida o'tkazish ta'lim tizimi haqida to'liqroq ma'lumot beradi va uning turli tomonlarini baholaydi. PISA, TIMSS va PIRLS tadqiqotlari natijalarini taqqoslash boshlang'ich, va o'rta umumta'lim maktablarida o'qish, matematika va tabiiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi va umumiy ta'lim sifatini xalqaro hamjamiyat tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim ustuvorliklari nuqtai nazaridan baholaydi. Quyida boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini baholovchi PIRLS xalqaro dasturini o'qish savodxonligi darslariga tatbiq etish usullarini ko'rib chiqamiz.

PIRLS – matnni o'qish va tushunish sifatini o'rganish (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro loyihasi turli mamlakatlardagi boshlang'ich 4- sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish sifatini taqqoslash imkonini beradi. Tadqiqotlar har besh yilda bir marta o'tkaziladi, 2001- yildan boshlab esa IEA shafeligida amalga oshirib kelinmoqda. Xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish uchun barcha mas'uliyat Boston Chestnut Hill kollejiga (Massachusetts, AQSH) yuklatilgan. 2021- yilda IEA tomonidan o'tkazilgan tadqiqot PIRLS dasturining beshinchi siklidir. 2001-yildan beri PIRLS har besh yilda to'rtinchi sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladi. Innovatsion onlayn o'qish ma'lumotlarini baholash ePIRLS tizimi 2016- yilda joriy etilgan.

O'qish savodxonligi akademik muvaffaqiyatning asosidir va PIRLS yangi yoki qayta ko'rib chiqilgan strategiyalarning o'zlashtirishga qay darajada ta'sir qilishini o'rganish uchun qimmatli vositadir. PIRLS baholash dasturi o'qishning asosiy maqsadlari – badiiy o'qishda tajriba orttirish, ma'lumotga ega bo'lish va undan foydalanish hamda internetda ma'lumot qidirishni o'z ichiga olgan keng qamrovli tizimga asoslangan. 2021-yilning 5-14-aprel kunlari mamlakatimizda 4- sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash bo'yicha ilk xalqaro tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqotda respublikamizdagi 180 ta maktabda tahsil oluvchi 5948 nafar 4-sinf o'quvchilari hamda ularning ota-onalari, maktab direktorlari va sinf rahbarlari ishtirok etdi. 2023-yil 16-mayda Boston kolleji va IEA qoshidagi TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqot markazi PIRLSning 2021-yilgi xalqaro hisoboti natijalarini ommaga e'lon qiladi. Ushbu so'nggi PIRLS sikli COVID-19 tufayli maktablarning yopilishi va darslarning to'xtatilishi fonida ma'lumotlarni to'plash uchun yagona xalqaro keng ko'lamli tadqiqot bo'ldi.

Mamlakatimizning PIRLS tadqiqotida ishtirok etishidan maqsad quyidagi bir qator savollarga javob olishdir:

- O'zbekistonlik boshlang'ich sinf bitiruvchilari boshqa mamlakatlardagi tengdoshlariga nisbatan qay darajada yaxshi o'qiydilar?

- O'zbekistonlik maktab o'quvchilari o'qish savodxonligining qaysi darajasiga ega?

- To'rtinchi sinf o'quvchilari o'qishni yoqtiradimi?

- O'qish savodxonligini rivojlantirishda oilaning o'rni qanday?

- Bugungi kunda mamlakatimiz maktablarida savodxonlikka o'rgatish jarayoni qanday tashkil etilgan?

- O'zbekistonda savodxonlikka o'rgatish jarayoni boshqa mamlakatlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga egami va agar shunday bo'lsa, bu xususiyatlar nimalarda ko'zga tashlanadi? Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari foydalanadigan o'qitish usullari boshqa mamlakatlardagi o'qituvchilar qo'llaydigan usullardan farq qiladimi?

Tadqiqot doirasida 4-sinfni tamomlayotgan o'quvchilarning o'qish sifati sinovdan o'tkaziladi, chunki mazkur to'rtinchi yil bolalar rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi – bu vaqtga kelib o'quvchilar o'qish savodxonligini shu darajada egallashi kerakki, bu malaka ta'lim olishning keyingi bosqichi uchun asosiy vositaga aylanishi zarur.

PIRLS tadqiqotlari o'quvchilar tomonidan o'quv mashg'ulotlari paytida va maktabdan tashqarida eng ko'p ishlatiladigan o'qishning ikki turini baholaydi:

- adabiy o'qish borasida tajriba orttirish maqsadida o'qish;

- ma'lumotni o'zlashtirish va undan foydalanish uchun o'qish.

Tadqiqotning konseptual qoidalariga muvofiq, badiiy va axborot matnlarini o'qishda o'qish qobiliyatlari to'rt guruhda baholanadi:

- aniq shaklda berilgan ma'lumotlarni topish;

- xulosalarni shakllantirish;

- axborotni sharhlash va umumlashtirish;

- matnning mazmuni, til xususiyatlari va tuzilishini tahlil qilish va baholash.

4-sinf o'qish va savodxonlik darslarida tadqiqot materiallaridan muntazam foydalanish natijasida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, to'rtinchi sinf o'quvchilarining 38 foizi nafaqat matndan ma'lumotni o'qishni, balki ushbu ma'lumotni jiddiy aqliy qayta ishlashni talab qiladigan o'ta murakkab darajadagi savollarga javob bera oladilar. Ular 800-1000 so'zdan iborat matnlarni bemalol o'qiydilar, mazmunini tushunadilar va sharhlay oladilar.

PIRLS xalqaro baholash mashqlaridan savodxonlik darslarida foydalanish natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich 4- sinf o'quvchilarining matnlarni o'qish, bu matnlardan

shaxsiy tajriba va bilimlarini oshirish maqsadida foydalanish borasida tayyorgarligi nisbatan past.

Xalqaro testning individual topshiriqlarini bajarish bosqichi tahlil qilinganda o'quvchilar duch kelgan ba'zi qiyinchiliklar aniqlandi. Xususan, natijalarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, har qanday ma'lumotni aniqlashtirish kerak bo'lganda matnga murojaat qilish odatining shakllanmaganligi ikkita tipik muammoga olib keladi: birinchidan, o'quvchilar matnda keltirilgan ma'lumotlarni va o'zlarining shaxsiy tajribalari asosida egalik qiladigan ma'lumotlarni (taxminan 37%) yaxshi farqlamaydilar va, ikkinchidan, matndagi ma'lumotlarni taxminan, noaniq o'zlashtirish bilan cheklanadilar (taxminan 26%). Bolalarga savollarga javob berishda doimiy ravishda matnga murojaat qilish, topshiriqlar qanday shakllantirilganiga e'tibor qaratishni o'rgatish juda muhim, chunki topshiriqlar deyarli har doim "Matnga tayanib...", "Matnga asoslanib...", "Matnda nima deyilgan..." shaklida beriladi.

Agar savol batafsil javobni talab qilsa, o'quvchilar (65% gacha) fikrlarni yozma ravishda ifodalash jarayoni bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelishadi. O'qilgan matnni yaxshi tushunadigan o'quvchilar, ko'p hollarda, o'z fikrlarini ifoda etishda qiynaliganing guvohi bo'lishimiz mumkin. Ular topshiriqda qo'yilgan savolga javobni shakllantirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, masalan: "Kichkina qiz - ushbu hikoyadagi muhim timsol. Nima sababdan sodir bo'lgan barcha voqealarda uning o'rni juda muhimligini tushuntiring", "Nega fermerning do'sti burgutni uchishga majburlash uchun tog'larga olib chiqdi? Ikkita sababni ayting", "Nima uchun shisha idishga tuproq va qumni navbatma-navbat qatlam shaklida solish muhimligini tushuntiring", "Nima uchun yomg'ir chuvalchangi ustida o'tkazilgan tajribada kartoshka va piyoz bo'laklarini yerning yuqori qatlamiga qo'yish muhimligini tushuntiring".

Aynan qo'yilgan savolga javob berish o'quvchilarda qiyinchilik tug'diradi. "Ushbu uchta tajribadan qaysi biri sizga juda qiziq tuyuldi? Javobingizni tushuntirish uchun matndan foydalaning", "Matnning yog'och bitlarini o'rganishga bag'ishlangan qismidagi rasmga qarang. Ushbu rasm sizga tajriba o'tkazish uchun nima qilish kerakligini tushunishga qanday yordam beradi?"

Bolalar o'zining javobini batafsil yozishga qiynalishining sabablaridan birini shunday izohlash mumkin, ya'ni bolalar javobning aniqligi va javobni imlo qoidalariga muvofiq shakllantirish o'rtasidagi muvozanatni saqlashda qiynaladilar, bunda javoblarni baholashda imlo xatolari hisobga olinmasligini yodda saqlash muhim.

O'quvchilar, shuningdek, "savol ichidagi savollar"ni o'z ichiga olgan ko'p qismli javobni talab qiluvchi topshiriqlarni bajarishda qiyinchilikka duch kelishadi, masalan, "Hikoyaning boshida va oxirida loy bo'lagi turlicha his-tuyg'ularga ega edi. Ularni tasvirlab bering. Uning his-tuyg'ulari nima uchun o'zgarganini tushuntiring", "Anyaning harakatlaridan siz uning fe'l-atvorini bilib oldingiz. Anya xarakteriga xos bo'lgan bitta xususiyatni yozing. Javobingizni asoslash uchun uning qilgan ishidan ikkita misol yozing". Bolalar topshiriqning barcha qismlarini bajarmaydilar, faqat topshiriqda berilgan savollarning bir qismiga javob beradilar.

Yana bir muammo javoblardagi ba'zi rasmiyatchilik bilan bog'liq: ba'zida bolalar savolni shunchaki ko'chirib yozadilar, ba'zida ikkita misol keltirilishi kerak bo'lgan topshiriqlarda ular birinchi misolni ikkinchi qatorga ham ko'chirib yozadilar, bunda ular vaqt yo'qotadilar va, tabiiyki, takrorlangan javob uchun ball olmaydilar.

Natijalarni tahlil qilishda qayd etilgan yana bir muammo o'g'il va qiz bolalar natijalarida farq borligi (qizlarning o'rtacha ballari o'g'il bolalarning o'rtacha ballaridan yuqori) bilan bog'liq. Shu bilan birga, 4-sinf o'quvchilari bilan taqqoslaganda, nisbatan kichik sinflar

o'rtasida bu bo'shliq darajasi ortgan. Olingan natijalar o'g'il bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish, ularga turli xil o'qish strategiyalarini o'rgatish va hokazolar uchun maxsus harakatlar zarurligini ko'rsatadi.

Natijalarni tahlil qilishda bizni nafaqat o'rtacha ball qiziqitirdi, balki eng zaif va eng kuchli o'quvchilar (yuqorida tavsiflanganlardan) o'qilgan matnni idrok qilishning qaysi darajasiga erishishiga ham e'tibor qaratdik. Eng zaif o'quvchilarning besh foizi (5-protsentil) o'rtacha 355 va undan past ballni (ushbu ko'rsatkich past darajaga to'g'ri keladi), eng kuchli o'quvchilarning besh foizi (95-protsentil) o'rtacha 522 va undan yuqori ballni (yuqori darajaga to'g'ri keladi) ko'rsatdi.

Ta'kidlash joizki, 2016- yildagi yuqori natijalar Shimoliy Irlandiya (673 ball), Angliya (678 ball) va Singapur (687 ball)ning eng yaxshi o'quvchilari tomonidan namoyish etilgan edi.

Bu shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari o'zlarining ilg'or o'quvchilariga o'qish savodxonligi darajasini yanada rivojlantirish uchun nisbatan murakkab topshiriqlar berib borishlari kerak. Bu borada A.Avloniy nomidagi Milliy tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, PIRLS) doirasidagi topshiriqlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan elektron tizim va video mahsulotlarni o'z ichiga olgan "STesting" elektron innovatsion platformasi o'qituvchilar uchun juda katta manba bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni ko'rib chiqib, natijalarni sarhisob qilar ekanmiz, shuni ta'kidlash joizki, dunyo mamlakatlarida maktab o'quvchilarining o'qishda erishadigan natijalariga qo'yiladigan talablar, o'quv dasturlari va darsliklarning boy tahliliy materiallari pedagogik baholash sifatining xalqaro standartlarini ommalashtirishga, monitoring tadqiqotlari madaniyatini shakllantirishga yordam beradi. Yurtimizda ta'lim sifatini baholash markazlari tomonidan olib boriladigan ta'lim sifati bo'yicha ma'lum monitoringlarning aksariyati umumiy konseptual yondashuvlardan va xalqaro tadqiqotlar vositalarining alohida elementlaridan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Zero, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro qiyosiy tadqiqotlarda O'zbekistonning ishtirok etishi mamlakatimizda ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratishda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. PIRLS TADQIQOTIDA MATNLAR UCHUN BELGILANGAN MEZONLAR VA MATN XARITASI (cyberleninka.ru)
2. ЭФФЕКТИВНАЯ ПОДГОТОВКА УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К МЕЖДУНАРОДНОМУ ИССЛЕДОВАНИЮ PIRLS – тема научной статьи по наукам об образовании читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка (cyberleninka.ru)
3. D.Norboyeva, "4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha o'tkaziladigan xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun daftar"
4. PIRLS - Vikipediya (wikipedia.org)
5. Открытая лекция. Ковалева Г.С. "Современные исследования качества образования (международные, национальные, региональные)"

МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМДА ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Нилуфар Баходировна Рахмонова
Қуқон университети, Хорижий тиллар кафедраси ўқитувчиси,

Аннотация: Ушбу мақолада хорижий тилларни ўқитишда масофавий таълимнинг актуаллиги, хорижий ахборот манбаларидан фойдаланиш, бошқариш орқали касбий компетентлигини шакллантириш ва унинг хусусиятлари ўзгариши ҳақида фикрлар баён қилинган. Масофавий таълимдаги машғулотнинг ўз вақтидалиги - унинг аввалдан белгилаб қўйилган вазифани ҳал этиш вақти билан келишилган вақтдан кечикмасдан олинганлигини, назарий билимнинг сифати ва реал ҳолатига яқинлиги даражаси билан белгиланади.

Таянч сўзлар: касбий компетентлик, масофавий таълим, махсус тайёргарлик, манбалардан фойдаланиш, амалий ва назарий топшириқлар, электрон дастурлар.

Кириш қисми. Хорижий тил фани ўқитувчисининг махсус тайёргарлигида энг муҳими уларнинг технологик билимларга эга бўлишидир. Хорижий тил фани ўқитувчиси фаолиятининг асосий функциялари қуйидагилар: таълимий, тарбиявий, ривожлантирувчи, (меҳнат, технологик маданият, ақлий, жисмоний, ахлоқий, ҳуқуқий, эстетик, маънавий), ташхис қилувчи, бошқарувчи, назорат қилувчи, муҳандислик, тадбиркорлик, ташкилотчилик, ва бошқалар. Булардан келиб чиққан ҳолда хорижий тил фани ўқитувчисида қуйидаги талаблар шаклланган бўлиши зарур.

Касбнинг шахсга бўлган талаблари: билим, кўникма, тажриба, психологик-педагогик қобилият (ҳоҳиш, истак); педагогик маҳорат, педагогик компетентлик ва ўзини тутиш; хорижий тил фани методикасини ҳамда тарбия ишларни ташкил этиш ва методикасини билиши; таълим натижаларини баҳолашни илмий жиҳатдан билиш ва бошқалар.

Ўқитувчининг шахсий сифатлари: инсонпарварлик, болани севиш, касбий-педагогик йўналганлик, ижтимоий эҳтиёжлар, ахлоқий ва умуминсоний-миллий қадриятлар, маъсулият ва жамоавий бурч, ташкилотчилик қобилиятлари ва бошқалар.

Ўқитувчидан талаб этиладиган билимлар: гуманитар, ижтимоий-иқтисодий, психологик-педагогик, умумтехник, махсус

Шундай қилиб, бўлажак хорижий тил фани ўқитувчисининг амалий машғулотга тайёргарлигига талаба томонидан ихтисослашув доирасида чуқурлашган, назарий билимлар, малака ва кўникмаларни ўзлаштирилишининг натижаси деб қараш мумкин. Ўқитувчи фаолиятининг натижаси - талабаларнинг эгаллаган билим даражасида кўринади. Электрон жихозлардан фойдаланиш, амалий ва назарий билимлари, энг оддий презентацияни тайёрлаш бўйича фаолияти натижалари, касбий мослашувчанлик, масофавий таълим бериш операцияларни бажариш бўйича кўникма ва малакалар, мустақил ишни ташкил этиш ва бошқаларда намоён бўлади.

Асосий қисм. Электрон дарсликлардан фойдаланиш имконияти ва самарадорлиги унинг репрезентативлиги, мазмундорлиги, етарлилиги, актуаллиги, ўз вақтидалиги, аниқлиги, ишонарлилиги, барқарорлиги каби асосий истеъмол сифат кўрсаткичлари билан боғлиқдир. Электрон дарсликларда манбаларнинг етарлилиги (тўлаллиги) - қарор қабул қилиш учун минимал, лекин етарли таркибга (кўрсаткичлар жамламасига) эга эканлигини билдиради. Тўғри таҳлил қилиш учун тўлиқ бўлмаган, шунингдек, ортиқча бўлган ахборот ҳам фойдаланувчининг қабул қилган қарорлари самарадорлигини камайтириши мумкин

Масофавий таълимнинг актуаллиги - ахборотдан фойдаланиш вақтида уни бошқариш учун қимматлилиги сақланиб қолиши билан белгиланади ва унинг хусусиятлари ўзгариши динамикаси ҳамда ушбу ахборот пайдо бўлган вақтдан буён ўтган вақт оралиғига боғлиқ бўлади. Масофавий таълимдаги машғулотнинг ўз вақтидалиги - унинг аввалдан белгилаб қўйилган вазифани ҳал этиш вақти билан келишилган вақтдан кечикмасдан олинганлигини билдиради. Машғулотнинг аниқлиги эса - олинаётган назарий билимнинг сифати ва тахлилининг реал ҳолатига яқинлиги даражаси билан белгиланади.

Ўрганилаётган хорижий тилда ахборотга ишлов бериш технологиялари бугунги кунда ҳаётимизнинг ҳамма соҳаларини қамраб олган. Азалдан ахборот деганда, атроф-муҳит объектлари ва ҳодисалари, уларнинг ўлчамлари, хусусиятлари ва ҳолатлари тўғрисидаги маълумотлар тушунилади. Кенг маънода ахборот-инсонлар ўртасида маълумотлар айирбошлаш, одамлар ва сунъий қурилмалар ўртасида сигналлар айирбошлашни ифода этадиган умуммиллий тушунчадир. Мутахассислик фанларида ахборот технологияларидан фойдаланиш нафақат ўқув самарадорлигини оширади, балки ўқувчиларнинг билим, малака ва кўникмаларининг ошишига ҳам имконият яратади; ўқувчиларни мустақил фикрлашга ва ижодкорлик фаолиятининг ошишига ёрдам беради. Электрон дарсликларни биринчи навбатда ўқув мақсадларининг юқори босқичларида мураккаб ўқув ахборотини очиб бериш учун ишлаб чиқиш, тайёрлаш ва қўллаш керак. Уларни қўллашнинг мақсадга мувофиқ соҳалари эса хорижий тил фани йўналишидаги ўқув юртлари махсус фанларининг асосий масалалари ҳисобланади. Электрон дарсликларга талаблар объектив жиҳатдан маълум бир тизимдан иборат ва унинг структураси ўзининг иерархиясига, тўғри ва тескари алоқа каналларига эга. Унинг тузилмасининг элементлари ўзига хос хусусиятларга, маълум бир мустақилликка эга бўлиб, бу уларнинг яхлит компонентлари (дидактик, методик, техник) кўринишда тизимга бирлаштиришнинг мақсадга мувофиқ эканлигини белгилайди. Электрон дарсликлар ёрдамида хорижий тил фани талабаларининг касбий фанлардан тайёрлаш самарадорлигини оширишнинг асосий шарти, хорижий тил фани тизимининг ўқув-тарбия жараёнига дидактик тавсифлари такомиллаштирилган ва педагогик имкониятлари яхшиланган электрон дарсликларни кенг қўллаш ҳисобланади. Электрон дарсликларининг асосий қўлланилиш соҳалари махсус ўқув босқичларининг турли хил машғулотлари бўлиб, моделлаштиришнинг асосий (бош) предмети эса талабалар томонидан ўзлаштириш учун қийин бўлган ўрганиш объектлари ҳисобланади. Мураккаб ўқув маълумотининг ҳажми катта бўлиб ўқув вақтининг реал бюджети кам бўлган ҳолатда электрон дарсликларини қўллаш мақсадга мувофиқлигининг муҳим кўрсаткичи деб ҳисоблаш мумкин [1].

Машғулотларни компьютер технологиялари воситасида ташкил этиш, электрон дарсликларни яратиш замон талабига айланмоқда. Электрон дарсликлар ахборотни турли кўринишларда - матн, жадвал, графика, овоз, анимация, видеотасвир, мусиқа ёрдамида йиғиш ва сақлаш вазифаларини бажаради. Электрон дарслик «инсонкомпьютер» интерфаол мулоқотининг янги такомиллашган поғонаси бўлиб, бунда фойдаланувчи кенг ва ҳар томонлама ахборот олади, ўқув тарбия жараёни фаоллаштирилади, таълим самарадорлиги ошади, мавзунинг узоқ вақт хотирада сақланишини таъминлайди, мустақил таълим олиш имконияти кўпаяди, талабанинг компьютер саводхонлиги ошиб боради. Ўқитувчининг ўзи компьютер орқали талабанинг фаолиятини алоҳида кузатиб боради. Демак, электрон дарслик компьютер воситасида ўқув курсини ёки унинг бирор катта бўлимини ўқитувчи ёрдамида ёки мустақил ўзлаштиришни таъминловчи дастурий методик комплекс бўлиб ҳисобланади. Таълим муассасасининг электрон ахборот таълим муҳитини яратиш соф

техник масала бўлиб қолмасдан, балки бунинг учун муассасанинг илмий-методик, ташкилий ва педагогик имкониятларини тизимли ёндашув асосида ишга солиш талаб этилади [2].

Фикримизга кўра, «электрон ахборот-таълим муҳити» тушунчасини аниқ бир мақсадга йўналтирилган ўқув жараёнини таъминловчи дастурий, ахборот-техник, ўқувметодик тизимлар мажмуидир, деб таърифлаш мумкин. Электрон ахборот-таълим муҳити қуйидаги типологик белгиларга кўра тавсифланади:

-Ҳар қандай даражадаги электрон ахборот-таълим муҳити тизимлилик табиатига эга мураккаб тузилмали объект бўлиб ҳисобланади.

-Электрон ахборот-таълим муҳитининг яхлитлиги тизимлиликка эришиш тушунчаси билан бир маънони, уларнинг уйғунлигини англатиб, ўқув муассасаси битирувчисининг шахсий ва касбий моделини амалга оширишдаги таълим-тарбия мақсадларини ўзида мужассамлаштиради.

-Электрон ахборот-таълим муҳити таълим ва тарбия ишларининг самарадорлигига таъсир кўрсатувчи омил бўлиши билан бирга унинг воситаси ҳамдир[4]. Шу билан бир қаторда, ахборот-таълим муҳитини таърифлашда бир қанча ўзаро фарқ қилувчи қарашлар мавжуд, жумладан:

- шахс билан таълим муҳитининг субъект сифатида узвий боғланган ахборот, техник, ўқув-методик таъминотнинг ташкиллаштирилган мажмуаси; электрон ахборот ташувчилар, виртуал кутубхоналар, тақсимланган маълумот базалари, ўқувметодик мажмуаларини мужассамлаштирувчи компьютер, ахборот ва коммуникация технологиялари интеграцияси асосида қурилган ягона ахборот таълим муҳити [3].

Масофавий таълим муҳитини яратишда ва уни бошқаришда тизимли ёндашувни жорий қилиш талаб этилади. Ушбу ёндашувнинг дастлабки босқичида замонавий таълим мазмунига мос равишда таълим муассасаси ахборот-таълим муҳити мақсади белгиланади. Педагогик фаолиятда таълим мақсади тизимлаштирувчи вазифани бажаради. Айнан белгиланган мақсад таълим мазмуни, мақсади, ташкилий шакллари танлаш учун асос бўлиб хизмат қилади [5]. Замонавий таълимнинг мақсади – мутахассис модели талабларига мос равишда шакллантириладиган билим, кўникма ва малакалар тизимидан таркиб топиб, у тегишли таълим стандартларида ўз аксини топади. Бундан ташқари республикамиз Кадрлар тайёрлаш миллий модели талабларига кўра талаба шахси педагогик жараён объектигина бўлиб қолмасдан, унинг субъектига ҳам айланиб бормоқда. Бундай ҳолатларда талаба мустақил таълимнинг аҳамияти ортади ва қуйидаги кўникма ва малакаларни шакллантириш талаб этилади:

1. Мустақил таълим олишни режалаштириш кўникма ва малакалари: мустақил фаолият юритишнинг шахсий режасини тузиш; режа асосида мақсадли фаолият юритиш; ўз фаолиятини назорат қилиб, унга зарур тузатишлар киритиб бориш.

2. Хорижий давлатлар илмий ҳамда ўқув ахборотларидан фойдалана олиш кўникма ва малакалари: илмий ва ўқув ахборотларини мустақил аниқлаш; янги ахборотларни мустақил таҳлил қилиш ва баҳолай олиш; ҳал этилиши лозим бўлган муаммо нуқтаи назаридан Интернетдан ахборот манбаларини қидириш ва топиш; олинаётган ахборотлар мазмунидаги янги ва истиқболли янгиликларни кўра олиш.

3. Электрон дарслик ресурслари устида ишлаш кўникма ва малакалари: электрон қўлланмалар ва каталоглардан тизимли равишда фойдаланиш; Хорижий давлатлар илмий сайтларидан олинган илмий, ўқув ва бошқа адабиётлар рўйхатини библиография қоидалари асосида юрита олиш.

4. Замонавий ахборот технологиялари воситалари орқали тақдим этилган маърузаларни ўзлаштириш кўникма ва малакалари: маърузалар мавзуси ва режасини, адабиётлар рўйхатини белгилаб олиш; тақдим этилган ахборотларни тўғри қабул

қилиш; асосий муаммо, ғоя ва хулосаларни ажрата олиш; асосий мазмунни ўз сўзлари билан қисқача ёзиб олиш; тақдим этилган ахборотларни қайта ишлаш, сақлаш ва улар мазмунини таълимий мақсадларда қўллаб бориш.

5. Электрон дарслик билан ишлаш кўникма ва малакалари: электрон дарслик билан умумий ҳолатда танишиш, унинг муаллифи, мазмуни, хулосаси, иллюстрациялари ҳамда аннотацияларини билиш; электрон дарсликнинг мантиқий тузилмасини ажратиб олиш; ўрганилаётган мавзуни тўлақонли тушуниб олиш учун қўшимча қўлланмалар: анимация, луғат, энциклопедия, маълумотномалардан фойдалана олиш; олинган маълумотларни тезислар, конспектлар кўринишида қайд этиб бориш.

Хулоса қисми. Масофавий таълим муҳити қуйидаги учта асосий вазифаларни бажаради: ташқи муҳит субъектларига замонавий ахборот технологиялар ёрдамида таълим муассасасининг ахборот таълим муҳити тўғрисида тасаввур ҳосил қилишга ёрдамлашиш; таълим муассасаси ходимларининг ўзаро ҳамкорлигини ошириш ва ўзаро масофавий таълим ресурслари алмашиши муҳитини юзага келтириш; таълим муассасасида масофавий таълим муҳити воситалари орқали самарали ахборот алмашинувини ташкил этиш ва бошқариш. Олий таълим муассасасида хорижий тилларни ўқитишда таълим муҳити мақсадини белгилаш учта жараённинг даврий кетма-кетлигини эътиборга олган ҳолда амалга оширилади:

биринчи даврда муҳитни таҳлил қилиш натижалари ўрганилади;

иккинчи даврда – мос равишда амалга ошириладиган тадбирлар белгилаб олинади;

учинчи даврда бевосита таълим муассасасининг ахборот-таълим муҳити мақсади ишлаб чиқилади.

Олий педагогик таълим муассасасида электрон ахборот таълим муҳитининг мақсади бўлажак хорижий тил ўқитувчи шахсига қўйиладиган талаблар билан бевосита боғлиқ ҳолда ишлаб чиқилади. Ўз навбатида бўлажак ўқитувчи шахсини шакллантиришда олий педагогик таълим муассасасини битиргандан кейинги меҳнат фаолияти давомида доимий равишда ўз-ўзини ривожлантириб боришига қаратилган сифатларни таркиб топтиришга алоҳида эътибор қаратилади. Шу ўринда, таъкидлаш жоизки республикамизда амалга оширилаётган таълим ислохотлари «касб» тушунчасига янгича талқинда қарашни талаб этмоқда. Санаб ўтилган сифатлар асосини бутун умр давомида янги билимларни эгаллаш орқали узлуксиз касбий тайёргарликни амалга оширишга қаратилган ривожланиш жараёни ташкил қилади. Шундай қилиб, касбий таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш педагогик таълимнинг электрон таълим муҳитини, интеграллашган ахборот-таълим ресурсларини яратишни таълим сифатини оширувчи технология сифатида тадқиқ этишни тақозо этади.

Адабиётлар рўйхати:

1. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълимни ахборотлаштириш: назария ва амалиёт. Монография. – Тошкент: «Фан», 2011, 232-б.

2. Волкова Н.И., Мачушенко И.И. Роль электронных изданий в обучении. // Вестник МГПУ. Серия «Информатика и информатизация образования». -М.: МГПУ, 2003, №1. - С. 93-97.

3. Гендина Н.И. Информационная грамотность и информационная культура личности: международные и российские подходы к решению проблемы. // Открытое образование. -2007, № 5 (64). - С.58 -69.

4. Исянов Р.Г. ва бошқалар. Олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчиларининг малакасини ошириш технологиялари. Монография. –Т.: «Фан», 2011, 182- б.

5. Mamatov D.N. The features of electronic educational medium in training future teachers of vocational educational. The Advanced science. Open access journal. ISSN 2219-746X, volume 2012, issue 1, Torrance , CA, 90503,USA.

6. Ш.Пўлатов “Таълим менежменти, ёхуд таълим муассасасини илмий-методик бошқариш стратегияси” Т.: 2019.

7. Б.Зиямухамедов “Педагогика” Т.: 2014. 171-177 б.

TA'LIM TARAQQIYOTINI RIVOJLANTIRISH VA YANGILASHNING MUHIM OMILLARI

Nurishev Nurberdi Novat o'g'li
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yurtimizda professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ham-da mazkur jarayonga oshirilayotgan ishlar muhokama qilinadi.

Tayanch so'zlar: Zamonaviy ta'lim, uyg'onish davri, uchinchi renessans, milliy ta'lim, siyosiy qarash, siyosiy bilimlilik, siyosiy axloqlik, siyosiy harakatchanlik.

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'liqlanib so'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam to'g'ri bo'ladi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish uchun hamma choralar ko'rilmogda.

Hurmatli Prezidentimiz aytib o'tganlaridek eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu bilimsizlikdir. -Shu sababli hammamiz uchun ilg'or bilimlarni o'zlashtirish, china- kam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy eh- tiyojga aylanishi kerak.

Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy ax- borot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga rivojla- nishning eng qisqa yo'lidan borish imkonini beradi. Chunki intellek- tual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik, nodir iste'dod egalarini tarbiyalab kamolga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q.

Ayni shu nuqtayi nazardan qaraganda, xalqlar tarixida o'ziga xos tub yangilanish davrlari borki, bunday zamonlarda muayyan millat dahosi, uning o'z salohiyatini namoyon etishga intilishi, yaratuv- chanlik faoliyati eng yuksak cho'qqilarga ko'tariladi. Nisbatan qisqa davrda erishilgan ulug' marralar jahon ahlini lol qoldiradi. Ayni bir xalq salohiyatining ulkan natijasi bo'lgan olamshumul yutuqlar esa, insoniyat tarixining yorqin sahifalariga aylanadi, dunyo sivilizatsiya- si taraqqiyotiga katta kuch va shiddat beradi.

Yer yuzidagi ba'zi xalqlargagina nasib etadigan bunday yuksak ko'tarilish va taraqqiyot zamonlarining o'ziga xos Uyg'onish, ya'ni Renessans davri, deb atalishining sababi ana shunda.

O'zbekistonda ta'lim islohotlarini amalga oshirish bo'yicha butunlay yangicha g'oyalar, yondashuvlar, tamoyillar va yo'nalishlarga asoslangan bosqichga qadam qo'ydi.

Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan quyidagi vazifa qo'yildi: "Ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi

Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Xususan, eng dolzarb vazifalardan biri sifatida professional ta'lim muassasalaridagi pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini ham-da o'quv metodik ta'minot bazasini xalqaro andozalarga muvofiq takomillashtirish ekanligi ta'kidlandi.

Mazkur ishni sifatli amalga oshirish uchun xorijiy ekspertlar, olimlar, amaliyotchilar va tajribali pedagog kadrlardan iborat malakali ekspertlarni jalb qilgan holda, ushbu turdagi muassasalarda o'qitiladigan mutaxassislik fanlari bo'yicha "Modulli o'quv dasturlarini ishlab chiqish texnologiyasi" metodik qo'llanmasini yaratish va ta'lim muassasalariga tatbiq qilish lozim bo'lishi aytiladi. Professional ta'lim sifatini oshirish, o'qitishning zamonaviy uslub va metodlari joriy etish, metodik ta'minotni oshirish uchun xorijiy ekspertlar, olimlar, tadqiqotchilarni jalb qilgan holda ijodiy guruhlar shakllantirish ham-da ular tomonidan ta'lim sohalar bo'yicha mutaxassislik fanlarini zamonaviy o'qitish metodikalari va uslublari bo'yicha ishlanmalar yaratish, nashr etish va ta'lim muassasalariga yetkazish zarurligi ta'kidlandi.

Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi.

Ta'lim sifatini oshirish maqsadida 2019 yil aprelida O'zbekiston Prezidenti 2030 yilga qadar Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqladi. Ta'lim infratuzilmasini yaxshilash va kengaytirish hamda o'qitish metodikalarini takomillashtirishdan tashqari, konsepsiyada talabalar o'zlashtirishini baholashning xalqaro tadqiqoti – PISA reytingiga ko'ra O'zbekiston 2030 yilga qadar jahonning 30 ta etakchi mamlakatlari qatoriga kirishi maqsad qilib qo'yilgan.

Haqiqatan ham, hozirgi vaqtda O'zbekistonda ta'lim-tarbiyaga, shu jumladan, maktabgacha hamda umumiy o'rta ta'lim, oliy va o'rta maxsus kasbiy ta'limni yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda 2019-yilning oktyabrida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish ham-da xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi.

Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish ham-da ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish ham-da boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi va o'z samarasini berib kelmoqda.

Zamonaviy ta'limni rivojlantirish avvalambor biz uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi chunki hozirgi kunda hamma innovatsion texnologiyalar asosida jadal rivojlantirish uchun juda katta o'zgarishlar va texnologik jihatdan tobora yurtimizda zamonaviy ta'limga bo'lgan ishlar soni oshmoqda. Shu bilan birgalikda ta'lim tarbiya jarayonini amalga oshirishda zamonaviy ta'limning o'rni juda katta ahamiyatga egadir xulosa shundaki biz yoshlarga ta'limni o'zlashtirish uchun juda katta yordam berib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev, Shavkat Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinch nashri. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022.
2. Turg'unov S.T. "Ta'lim muassasalarini boshqarishda innovatsion faoliyat".
3. R.J. Ishmuhamedov, M.A.Yuldashev "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar".
4. M.X.Baybayeva "Ta'lim tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar".

**OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA "O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI" FANINI
O'QITILISHINING INSON QADRI VA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI**

**Temirova Mashhura Muhammadaminovna
Qo'qon universiteti v.b. dotsenti. (PhD)**

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanini o'qitilishining inson qadri va ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati to'g'risidagi fikr va mulohazalar aytiladi. Shuningdek, maqolada mazkur o'quv predmetni o'qitilishining huquqiy asoslari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, inson, ta'lim samaradorligi, YUNESKO, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari", Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessans, "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida".

Tarixdan ma'lumki, o'zbek millati ilmga va uni egallashga bo'lgan ishtiyoqi har doim baland bo'lgan. Shu sababdan o'lkada azaldan ilm-fan taraqqiy etgan. Xususan, arablar kirib kelguniga qadar ham hudud aholisi o'ziga xos ilm va salohiyatga ega bo'lgan. Arablarning O'rta Osiyoga bosqini va ularning bu yerda islom dinini yoyishi natijasida esa mahalliy aholi vakillari orasidan butun dunyo uchun asosiy dasturulamal bo'lgan noyob ilmiy meros qoldirganligi tahsinga sazovordir.

Mustaqillikka erishilgan dastlabki paytlardan boshlab hukumat tomonidan respublikada ta'limni qayta isloh qilish borasida ko'plab islohatlar amalga oshirildi. Bugungi kunda respublikada ta'lim sohasini isloh qilish uning samaradorligini yanada oshirish bo'yicha olib borilayotgan islohatlar ko'lami va ularning natijalari sezilarli darajaga yetdi. Ayniqsa bu borada oliy ta'limni rivojlantirish orqali ta'limning boshqa tizimlarini balki respublikadagi barcha sohalarni rivojlantirishga erishish eng maqbul yo'l sifatida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi paytda barcha pedagog-psixolog olimlar ta'lim texnologiyalarga berilgan eng mukammal ta'rif sifatida YuNESKOning quyidagi ta'rifini tan olishadi: "Bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o'zaro uzviy bog'liq holda ko'rib, butun ta'lim jarayonini 11 loyihalashda va amalda qo'llashda majmuaviy yondashuv usulidan foydalanishdir" [1].

Shu sababdan bugungi kunda mas'ul vazirlik tomonidan oliy ta'limda o'qitilayotgan fanlarni qaytada ko'rib chiqilish va ular orasidan shaxsni yetuk kadr bo'lib chiqishlari uchun xizmat qiladigan fanlarni o'qitilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fani oliy ta'lim sohasidagi barcha yo'nalish talabalari uchun, ularni har tomonlama zamon talabiga mos yetuk mutahasis bo'lishlari uchun zarur deb topilgan fanlardan biri sifatida e'tirof etildi. Darhaqiqat, tarix bu- o'tmish va kelajak o'rtasidagi ko'prikdir. Ular o'rtasidagi uzilish bu –har qanday halqni, millatni va shaxsni faqat va faqat tanazullga olib keladi. Jumladan inson oldinga qarab yurar ekan har doim orqa oyog'iga tayangan holda qadam tashlaydi. Agar bu holatni jamiyatga olib o'tadigan bo'lsak, tarix ne chog'lik muhim ahamiyatga ega ekanligini tushunish mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichida o'qitilib kelinayotgan "O'zbekistonning eng yangi tarixi fani" jamiyatning turli sohalarida faoliyat olib borayotgan va boradigan shaxslar uchun davlat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarda inson omilining qadri yuqori ekanligini anglagan holdan o'z ish faoliyatlarini tashkillashga yoki sifatli ta'lim berishda katta ahamiyat kasb etadi. Fikrimizning dalili sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomida belgilab qo'yilgan g'oyalarni keltirib o'tishimiz maqsadga muvofiq. Jumladan ushbu Nizomning muqaddimasida "kelajak avlodlarni hayotimizda ikki marta insoniyatga ifodalab bo'lmaydigan g'am-g'ussa keltirgan urush kulfatlaridan xalos etishga va insonning asosiy huquqlariga, inson shaxsning qadr-qimmatiga, erkak va ayollarning teng

huquqligiga va katta-kichik millatlar huquqlarining tengligiga ishonchni qayta qaror toptirishga va shartnomalar va xalqaro huquqning boshqa manbalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarga hurmat bilan qarash" [2]. g'oyasi mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, ayni paytda mamlakatimizda milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o'tish pallasidagi ijtimoiy, siyosiy hayotimizda aynan shu g'oyalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Barchamizga ma'lumki, bugun rivojlanib borayotgan yangi O'zbekistonda yangicha qarashlar, turfa xil fikrlar, yangidan-yangi islohotlar ko'lami tobora kengayib bormoqda. Tabiiyki, bu borada eng avvalo hayotimizning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalqimiz ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivojining yuksalib borayotganligi bilan bog'liq ekanligini alohida ta'kidlash joiz. "Bugungi kunda oldimizda turgan eng muhim vazifalarni ko'z o'ngimizdan o'tkazar ekanmiz, aholining kundalik ehtiyojlariga bevosita daxldor dolzarb masalalarni hal qilish bilan bir qatorda biz eski tuzum davrida inson hayotining negizi va murakkab tomonlari, milliy qadriyatlar, tarixiy an'analar, umuminsoniy ma'naviy boylıklar bilan hisoblashmaslik jamiyatimizga qanchadan-qancha zarar keltirganini unutmashimiz kerak" [3]. Ayni paytda yurtimizda milliy tiklanish jarayoni qariyb bir yarim asr davom etgan ijtimoiy-siyosiy qaramlikdan keyin dastlabki paytlarda mutlaqo tabiiy ravishda o'ziga xos qonuniyat asosida kechganini aytish lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan boshlangan dadil o'zgarishlar jamiyatimiz, davlatimiz rivojlanishining yangi mafkurasi, o'zgacha paradigmasini belgiladi. Ko'p yillar mobaynida mamlakat rivojiga xos bo'lgan sustkashlik, turg'unlik, ko'ndalang turgan vazifalarni bajarmasdan, ularni paysalga solish, muammolar va ziddiyatlarni berkitish siyosatiga barham berildi. Ilgari deyarli bo'lmagan ijtimoiy, siyosiy hayot paydo bo'ldi, ommaviy axborot vositalari jonlandi, fuqarolik jamiyati faollashmoqda. Eng muhimi, odamlar o'z erkinligi va huquqlarini anglamoqda, ularda daxldorlik hissi va jamiyat taqdiri uchun mas'uliyat oshib bormoqda.

Ayni paytda bu mezonlarning umumbashariyat e'tirof etayotgan xalqaro mezonlar bilan nihoyatda uyg'unligini qayd etib o'tish o'rinli. Prezidentimiz "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasini ilgari surar ekanlar, milliy tiklanish o'zligimizni anglash, milliy davlatchiligimiz asoslarini qaytadan barpo etish bosqichi ekanligini, bu bosqich mustaqillik ostonasida va istiqloqlarning dastlabki davrlarida muhim o'rin tutganligini, endilikda O'zbekistonni o'z tarixiy, sivilizatsion o'rnini yangidan tiklash, o'zbek xalqining genetik insoniy salohiyatiga monand taraqqiyot darajasini ta'minlash, Uchinchi Renessansni barq urish davri kelganligini alohida ta'kidladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmonida buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish asosiy vazifa sifatida yoritilgan. Shu o'rinda fikrimizning amaliy isboti sifatida "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid Davlat Dasturida ham aynan "IHT, IRSIKA, AYSESKO, YUNESKO kabi dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlari bilan hamkorlikda "Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans" shiori ostida xalqaro konferensiya, simpozium va anjumanlar tashkil etish", "Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy ma'naviy merosini keng targ'ib qilish maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarning asarlarini xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ular asosida ilmiy va ommabop risolalar yaratish", "Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy ma'naviy merosini keng targ'in qilish maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar qalamiga mansub 100 ta asarning xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ular asosida ilmiy va ommabop risolalar yaratish, buyuk

ajdodlarimizning boy ilmiyma'naviy merosini keng targ'in qilish maqsadida O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi, Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash" [4]. kabi vazifalarning belgilanganligini alohida keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, "O'zbekistonning eng yangi tarixi" o'quv predmetini o'qitish orqali jamiyatimizning ilg'or qatlamini umuminsoniy qadryatlarga sodiqlik, milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish, bugungi kunga shukronalik hissini tuydirish orqali ta'lim samaradorligiga erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 февралдаги "Педагогик таълим соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-4623-сонли Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. – Т., 2020. – 28 февраль
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi// <https://uz.wikipedia.org/wiki/>
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi /O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60son Farmoni//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KOMIL INSON QILIB TARBIYALASHDA
MUTAFAKKIRLAR FIKRLARI****M.M. Boboqulova****Qo'qon Universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi****4-kurs talabasi,****K.O. Matnazarova****Qo'qon Universiteti "Ta'lim" kafedrası****v.b dosenti p.f.f.d (PhD)**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyati, ta'lim-tarbiyaga oid yondashuvlari, g'oyalari, qarashlari, tarbiya usullari va vositalarini, ta'lim jarayonida tarbiyaning o'rni, yosh avlodni tarbiyalashda Sharq mutafakkirlari asarlarining o'rni haqida fikrlar keltirilgan

Kalit so'zlar: Sharq mutafakkirlari, komil inson, inson, aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, shaxs, ta'lim, tarbiya.

Mustaqillik yillarida xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, buyuk allomalarimiz, aziz-avliyolarimizning ilmiy, diniy va ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, muqaddas qadamjolarini obod qilish, yosh avlodni ularning ezgu an'analari ruhida tarbiyalash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi va izchil davom ettirilmoqda. Bugungi kunda o'zbek xalqi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida katta yutuqlarga erishmoqda. O'z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondashish, ulug' ajdodlar qoldirgan boy madaniy, ma'rifiy merosni o'rganish imkoniyati tug'ildi, milliy g'urur yana qayta tiklandi, ilm-fan, jumladan pedagogika fani yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilmoqda. O'tmishdagi pedagogik tafakkur daholarini shuhratini tiklash, ular g'oyalarini hayotga tadbiiq etish bugun hammaga ayon bo'lmoqda. Qomusiy olimlar o'z ilmiy merosida insonning aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik takomili masalalariga katta e'tibor berganlar. Masalan, Muhammad Al-Xorazmiy insonning kamolga yetishi va insoniy munosabatlarni yo'lga qo'yishda ilm-fanning muhim ahamiyatiga ega ekanligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surgan holda pedagogik fikr taraqqiyotida munosib o'rin egallaydi. Ayniqsa, u matematika sohasida yangilik yaratgan nazariyotchi hamda pedagog-uslubiyotchi olim sifatida tarixda qolgan. Xorazmiy o'z davrigacha bo'lgan qadimiy matematika fani rivojlangan mamlakatlar Vavilion (Bobil), Yunoniston, Hindiston, Xitoy, Misrdagi deyarli barcha matematiklarning kashfiyotlarini o'rgandi va o'zi hayotiy talablar nuqtai nazarida ulardan farq etuvchi yangi kashfiyot yaratdi.

O'rta asr ijtimoiy – falsafiy fikr taraqqiyoti nomoyondasi mutafakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan bog'liq bo'lib, uning inson kamoloti haqidagi ta'imoti ta'lim – tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega. Mashhur Yunon faydasufi Arastudan keyin Sharqda o'z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan Forobiyning yirik mutafakkir – «Muallimiy soniy» - «Ikkinchi muallim» deb ataydilar.

Forobiy ta'lim tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida ta'lim – tarbiyaning muhurligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim – tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. Forobiy o'z ishlarida ta'lim – tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta'lim bergan bo'lsa ham, ammo har birining insonni kamolga yetkazishda o'z o'rni va xususiyati bor ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Forobiy «Baxt – saodatga erishuv to'g'risida» asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta'kidlashicha, avval bilish zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu – olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o'rganish lozim. Undan so'ng, umuman, jonli tabiat o'simlik va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi, deydi.

Forobiy inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'maklashuvchi yoki munosabatlari muxtoj bo'ladi. Uning fikricha tarbiya jarayoni

tajribali pedagog, o'qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhurligini ta'kidlaydi. Chunki har bir odam ham baxtni va narsa hodisalarni o'zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o'qituvchi lozim.

Forobiy ta'lim – tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqali hamma narsaga erishish mumkin, deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim – tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan komolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to'g'ri bilib oladi va hayotda to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan to'g'ri munosabatda bo'ladi, jamiyat tartib qoidalariga rioya etadi.

Forobiy ta'lim va tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sanaladi.

Ta'lim – degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; **tarbiya** – nazariy fazilatni, ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim.

Forobiy ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy – axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi.

Qomusiy olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy X asrning ikkinchi yarmi va XI asrning boshlarida, g'oyat murakkab tarixiy davrda yashadi va ijod etdi. Beruniy o'z navbatida Xorzam tili bilan birga sug'diy, forsiy, suryoniy, yunon, qadimgi yahudiy tillarini, hatto qadimgi xind tili sanskritni ham o'rgangan. U yunon klassik ilmi, astronomiya, geografiya, botanika, matematika, geologiya, tarix, etnografiya, falsafa va filologiyadan ham chuqur bilim oladi.

Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. O'quvchiga bilim berishda:

- o'quvchini zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;
- uzviylik, izchillik;
- tahlil qilish va taqqoslash;
- ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa, soddan qiyinga qarab borish;
- takrorlash;
- yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etish va hokazoga e'tibor berish kerakligi o'qitiladi.

Beruniy fan sohasidagi yodgorliklarni, ilmiy bilimlarga oid qoldirilgan barcha boyliklarni qunt bilan o'rganishga da'vat etadi.

Olim ilm toliblariga qalbni yomon illatlardan, inson o'zi sezishi mumkin bo'lmagan holatlardan, qotib qolgan urf-odatlardan, hirsdan, behuda raqobatdan, ochko'zlikdan, shon-shuhratdan saqlanishi zarurligini o'qtirgan.

Shuningdek, har bir xalqning o'ziga xos ta'lim usullari, yo'llari, shakllari borligini ta'kidlash bilan birga har bir xalqning ham o'qitish tizimi alifbodan boshlanishini ko'rsatadi. Grammatika, matematika fanlarini o'qitishga oid qimmatli fikrlar bayon etadi. Beruniy til va adabiyot, tarix, geografiya, geodeziya, biologiya, mineralogiya fanlari, tibbiyot va dorishunoslik, fizika, falakiyot ilmiga oid tadqiqotlarini o'zi targ'ib etgan nazariya hamda kuzatishlar natijasida amaliyotda sinab ko'rib, fanda haqiqat ustivor turishini ta'kidladi. U barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikda deb biladi. Ilmlarni egallashda esa shaxsda intilish va qiziqish, muhitni alohida ta'kidlaydi. Bilim olishda tushunib o'rganish, ilmiy tadqiqotchining poklikka rioya etishiga alohida e'tibor beradi. Jamiyatning ravnaqi, ma'rifatning rivojiga bog'liq degan g'oyani ilgari so'radi. Beruniy bilim olishni axloqiy tarbiya bilan bog'laydi. Zero, insonda komillikning muhim mezoni yuksak axloqlilikdir deydi. Beruniy ham axloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan xolda ta'rif beradi. Axloqiylik yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash natijasida namoyon bo'ladi va tarkib topadi deydi. U yaxshi xislatlarga to'g'rilik, odillik, o'zini vazmin tutish, insof, kamtarlik, lutf, sobitqadamlik, ehtiyotkorlik, saxiylik, shirinsuxanlik, rahbarlikda adolatlilik, tadbirkorlik kabilarni kiritadi. Yomon illatlarga esa xasadgo'ylik, baxillik, nosog'lom raqobat, o'z manfaatini ko'zlash, mansabparastlik va hokazolarni kiritadi.

Sharq va Ovro'pada ma'rifat, madaniyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligi tufayli, «Shayx – Ur - Rais» Sharqda «Olimlar boshlig'i», Ovro'pada «Olimlar podshosi» nomi bilan mashhur bo'lgan allomalardan biri o'rta asr buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sino bola tarbiyasiga, uni bilim olishiga nihoyatda katta axamiyat beradi. U bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash zaraurligini qayd etib, maktabga barcha kishilarning bolalari tortilishi va birga o'qitilishi va tarbiyalanishi lozim deb, bolani uy sharoitida yakka o'qitishga qarshi bo'lgan. Bolani maktabda jamoa bo'lib o'qishini foydasi quyidagicha ifodalangan:

Agar o'quvchi birga o'qisa u zerikmaydi, fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi.

O'quvchiga bilim berish o'qituvchining ma'suliyatli burchidir. Shunga ko'ra ibn Sino o'qituvchining qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritir ekan, uni quyidagicha izoxlaydi:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- berilayotgan bilimning talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berishi;
- ta'limda turli metod va shakllardan foydalanishi;
- talabaling xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- fanga qiziqтира olishi;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi;
- har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishishi zarur, deydi olim.

Ibn Sinoning bilish ta'limotida qaysi metodlardan foydalanilmasin – u og'zaki ifodami, bilimlarni tushuntirishmi, turli ko'rinishdagi suhbatmi, tajribalarni, baribir o'quvchida haqiqiy bilim hosil qilish mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini amaliyotga tadbiiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish kerakligini ta'kidlaydi. Olim insonning kamolga yetishida uning axloqiy kamoloti muhim ahamiyatga ega deb tushunadi. Tadqiqotchilar uning falsafiy asarlarida axloqqa oid fikr yuritganlari o'n ikkita deb qayd etadilar.

Ibn Sino axloqqa oid asarlarini «Amaliy hikmat» (Donishmandlik amaliyoti) deb ataydi. Olimning fikricha, axloq fani kishilarning o'ziga va boshqalarga nisabatan xatti - harakati me'yorlari va qoidalarini o'rganadi. Ibn Sino axloqlilikning asosini yaxshilik va yomonlik kabi ikki tushuncha bilan ta'riflaydi:

Dunyoda mavjud bo'lgan jami narsalar tabiatiga ko'ra kamolot sari intiladi. Kamolot sari intilishning o'zi esa mohiyat e'tibori bilan yaxshilikdir...» .

Ibn Sino har bir axloqiy hislatning ta'rifini beradi:

- mo'tadillik – tan uchun zaruriy oziq va xulq ma'yorlariga to'g'ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik;
- sahiylik – yordamga muxtoj kishilarga ko'maklashuvchi insoniy quvvat;
- g'azab – biror ishni bajarishda jasurlik; chidamlilik – inson o'z boshiga tushgan yomonliklarga bardosh beruvchi quvvat;
- aqillilik – biror ishni bajarishda shoshma – shosharlikdan saqlovchi quvvat;
- ziyraklik– narsalar va hatto harakatlarning haqiqiy ma'nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat, achinish, kishilar baxtsizlik, azob – uqibatga duchor bo'lganda, ular bilan xushmuomalada bo'luvchi insoniy quvvat;
- kamtarlik – xudbin ishlar bilan shug'ullanishdan to'xtatuvchi kuch sifatida ta'rif beradi.

Ibn Sino insonning kamolga yetishida to'siqlik qiluvchi nuqsonlar sifatida johillik, nodonlik, shafqatsizlik, takabburlik, nafratni ko'rsatib o'tadi. Johillikni – ilmga, nodonlikni – zehni o'tkirlikka, shafqatsizlik, takabburlikni adolatga, nafratni – sevgi-muhabbatga qarama-qarshi illat sifatida ta'riflaydi.

Ibn Sino insonlarga ularning tashqi ko'rinishiga qarab emas, balki ularning ichki, ma'naviy dunyosiga qarab baho berish kerakligini uqtiradi. Har bir kishi tabiatan sevgi tuyg'usiga ega, u tabiiy zarurat sifatida namoyon bo'ladi, lekin inson o'z tuyg'ularini boshqara olishi, aql va farosat bilan

haqiqiy sevgini hirs tuyg'usidan, ehtiros kuchidan ajrata oladi. Chunki haqiqiy sevgi, olimning fikricha, inson zimmasiga axloqiy, huquqiy burch yuklaydi. Bu esa olimning sevgiga ijtimoiy omil sifatida ham qaraganligini ko'rsatadi. U o'z ilmi, merosi bilan o'rta asr sharqining ilmiy madaniy qudratini butun dunyoga namoyon qildi. Butun insoniyat madaniyatining rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Shuning uchun ham Ibn Sino jahon madaniyatining buyuk siymosi, insoniyat uchun hurmat qilgan olim, buyuk tabib, eng katta faylasuf, tabiatshunos, insonshunos, mashhur entsiklopedist sifatida tan olindi.

Xulosa qilib aytganda o'tmishda ota-bobolarimiz, buyuk allomalarimiz, yuksak ma'rifat sohiblari baxt-saodatni ozodlik, erkinlikda ko'rganlar. Sharqning buyuk allomalari inson aqlini yuksakka ko'tarib, uning qobiliyati va aql zakovatiga ishongan. Qadimdan mutafakkir allomalarimiz barkamol avlodni tarbiyalash insoniyatning eng yuksak orzusi ekanligini o'z asarlarida tarannum etib kelgan. Biroq, dunyo xalqlarining barchasi ham bu haqda o'ylayvermagan. Bunday orzudagi insonlar azaliy ma'rifatga, madaniyatga mansub bo'lgan yurtlarning donishmandlari – eng mo'tabar ziyolilari hukmdorlari hisoblanganlar. Ularning orasida O'zbekiston deb atalmish muazzam zaminimizda yashagan bobokalonlarimizning o'z o'rnini, hurmati bor. Bu jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan haqiqatdir. Biz o'zligimizni anglab, mutafakkir bobolarimiz merosidan unumli foydalana bilsak, hech mubolag'asiz aytish mumkinki, ta'lim-tarbiya sohasida dunyoning eng ilg'or mamlakatlariga yetib olamiz. Bu esa har qanday boylikdan afzaldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2017 yildagi PQ-2995-son qarori. Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida
2. I.A.Karimov "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" "Sharq" nashriyoti. Toshkent 1998 yil.
3. K.Hoshimov, S.Ochil. "O'zbek pedagogikasi antologiyasi" "O'qituvchi". Toshkent, 1995 yil.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmankulova, K.O.Matnazarova, P.T.Xolmatov, M.K.Shirinov, "Umumiy pedagogika" Darslik - T.: "Navro'z", 2016.
5. Abdulla Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axloq" - T.: "O'qituvchi", 1992.
6. Forobiy. «Fozil odamlar shahri». - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. nashriyoti, 1993. 182-184-185-b.

**OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA GIMNASTIKA
MASHG'ULOTLARINING O'RNI****F.A.ERKABOYEVA****Qo'qon Universiteti Ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi,
D.A.MAMASOBIROVA****Qo'qon Universiteti Ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi,
A.Yu.Maxkamov****Qo'qon Universiteti Ta'lim kafedrasi dosenti,
pedagogika bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali barcha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchi, o'quvchi va talabalarning gimnastika mashg'ulotlarida turli holatda shikastlanishlarini oldini olish, mashg'ulotni asosiy qoidalari va tashkil qilinishi, nima sabablarga ko'ra gimnastika mashg'ulotida shikastlanishi, shikastlanish sharoitlarni belgilaydigan omillari, shikastlaganishga asosiy sabablar, gimnastika mashg'ulotlarida muhofaza qilish va yordam ko'rsatish kabi tushunchalar yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Gimnastika elementlari, estetik tarbiyalash, zamonaviy o'rgatish metodlari, muhofaza qilish va yordam ko'rsatish, Diqqat etiborning kamayishi, lanjlik va loqaydlik, kontruktiviyalarda bajariladigan harakat, trektoriyasi, statik xalat.

Gimnastika elementlari Rossiya xalqlari turmushida ham, boshqa xalqlar turmushida ham uzoq vaqtlardan beri mavjud bo'lgan. Bayram chiqishlari ham qo'shib kelgan O'rta Osiyoda dolzarb juda mashhur bo'lgan.

Jismoniy tarbiya 1926-1927 yillardan boshlab boshlang'ich maktablarda 1929- yildan esa oliy o'quv yurtlarida o'quv fani sifatida kiritildi. Jismoniy tarbiya institutlari ko'plab yangi vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan malakali o'qituvchilarni tayyorlab chiqara boshladi. Bu kadrlar gimnastika nazariyasi va metodikasi ishlab chiqishda yetakchi rol o'ynay boshlaydi.

Gimnastika mashg'ulotlarida xayotiy zarur malaka hamda ko'shikmalar orrtirilladi va takomillashtirilgan.

Gimnastika insonni estetik tarbiyalashning samarali vositasi xisoblanadi. Gimnastika mashqlarini ijro etish texnikasining gimnastikaga xos uslub talab qiladigan darajada mukammal bo'lishi uchun xakatlar ravon va ifodali bo'lishi, ijrochining harakatlari o'ziga yarashadigan nafis bo'lishi kerak[1]

Gimnastika bilan shug'ullanish natijasida kelishgan qaddi-qomatga ega bo'lishadi, gavda tuzilishidagi nuqsonlar tuziladi, gavdani ayrim bo'g'inlari taraqqiyotida ham, umuman gavda taraqqiyotida ham juda yaxshi munosabatlikka erishiladi.

Nima sabablarga ko'ra gimnastika mashg'ulotida shikastlaniladi.

Gimnastika mashg'ulotlarida nixoyatda xilma-xil mashqlar, shu jumladan, turmush va mehnat tajribasini kamdan-kam uchraydigan mashqlar ham qo'llaniladi. Ular murakkab harakat faoliyatidan iborat bo'lib, ularni ijro etish esa o'ziga xos sharoitlari bilan bog'liq.

Bu sharoitlarni belgilaydigan omillardan eng muximi quyidagilardir:

1. Snaryadlar ijro etilganda shaklan va mazmunan xilma-xil bo'lgan ko'p miqdordagi harakatlarning mavjudligi.

2. Gavdani fazodagi holati doimo o'zgarib turadigan aylanma harakatlarni ko'pligi.

3. Uchib tushayotganda va yerga tushish chog'ida harakatlarni boshqara bilish.

Gimnastika mashg'ulotlarida shikastlanishga yo'l qo'ymaslik uchun xavfsizlik texnikasiga rioya qilishga qaratilgan butun choralar ko'rilishi kerak.

Quyidagilar shikastlaganishga asosiy sabab bo'lishi mumkin:

1. Mashg'ulot tashkil qilish qoidalariga va mashg'ulot metodikasiga rioya qilmaslik.
2. Jixozlar va inventarni vaqtda tekshirib turmaslik.
3. Sanitariya gigiena sharilarni buzish.
4. Vrach nazorati yo'qligi yoki muntazam ravishda o'tkazib turmaslik
5. Shug'ullanuvchilar o'rtasida tarbiyaviy ishlarning yetarli olib borilmasligi.

Shikastlanishning oldini olish maqsadida mashg'ulot va musobaqalar o'tkazishdan ilgari quyidagilarga amalga oshirilishi kerak:

1. O'quv xujjatlarini tayyorlab qo'yish.
2. Mashg'ulot joylarining sanitariya-gigiena talablariga qanchalar mosligi, shuningdek jixoz va inventarlar buzuq emasligini, shug'ullanuvchilardan xar birining sport kostyumi va oyoq kiyimi gigiena talablariga fanlar muvofiqligini tekshirib ko'rish.
3. Gimnastikachining sog'lig'i yomonlashishi oqibatida orada uzilishdan keyin mashg'ulotga qatnashishga ruxsat beriganligi xaqida vrachdan ruxsatnomasi bor-yo'qligi tekshirib ko'rish.

Mashg'ulot o'tkazilyotgan vaqtda quyidagilar bajarish kerak:

1. Mashg'ulot o'tkazishning barcha qoidalariga rioya qilish;
2. Mashg'ulot oldidan xar bir sinerredning maxkamlanadigan joylarining mustaxkamligini tekshirish.
3. Zamonaviy o'rgatish metodlaridan foydalish moxirlik bilan ko'maklashish va muhofaza qilish.

Mashg'ulotlarda shikastlanmaslik va uni oldini olish chora tadbirlari yuqorida qayd etilgan mashg'ulotlarningina tashkil etilishi shikastlanishga asosiy sabablardan xisoblanadi.

Shu jixatdan o'qituvchi va trenerga quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Har bir mashg'ulotning jadvali va dasturiga qat'iy rioya qilish.
2. Shug'ullanuvchilarda ongli intizomlilikni tarbiyalash ulardan hamma ko'rsatmalar bajarilishini talab qilib.
3. Har bir shug'ullanuvchilarning xatti harakatlarini muntazam nazorat qilish ta'minlash ularga ko'p kurashning bir turidan ikkinchisiga o'zbilarmonlik bilan o'tishga ruxsat bermaslik.
4. SHug'ullanuvchilarni snaryadlar, debsinish va yerga tushish joylari yaxshi ko'rinib turadigan joylarga qo'yish. Snaryadlarni shug'ullanuvchilar bir-biriga tegib ketmaydigan qilib o'rnatish.

Gimnastika mashg'ulotlarida muhofaza qilish va yordam ko'rsatish.

Gimnastika mashqlarni texnikasi bilib olish vazifasini muvafiqlashtirish ro'y berishicha ham yo'l qo'ymaslikka ham imkon beradi.

Muhofaza qilishdan yordam ko'rsatishning farqi shundaki, yordam ko'rsatganda qo'llab yuborish turtki berib qo'yish, shug'ullanuvchi bajarayotgan

harakatni traektoriyasi bo'ylab uni "surib borish" nazarda tutiladi.

Muhofaza qilish va yordam ko'rsatish ayniqsa qaltisroq harakatlar bajarayotganda anchagina ixologik ahamiyatga ega bo'ladi.

Quyidagilar jismoniy yordam ko'rsatishning asosiy turlariga kiradi:

- a) harakat bo'ylab "Surib borish"
- b) harakatning eng qiyin qismida ozginagina ko'maklashib yuborish;
- v) shug'ullanuvchini statik holatda qo'llab qo'ltiqlash.

«Surib borish» harakatni bir butun xolda o'rganib olish osonlashtiradi. «Surib borish»dan foydalanilganda o'qituvchi o'quvchining faoliyatini bo'g'maydigan darajada jismoniy kuch sarflab yordam berishi lozim. Ozginagina yordamlashib (turtki berib) yuborish harakatning alohida fazalari bajarilayotganda qo'llaniladi xolos. Jismoniy yordamning turli

xillarida foydalanish natijasida gimnastikachidan to'g'ri harakat tasavvurlari shakllanadiki, bu tasavvurlar mashqlarni mustaqil bajarish jarayobnida muxim rol o'ynaydi. Mashqlarni ijro etish texnikasi takomillashib borgan sari o'quvchilarning yordamlashishda sarflanadigan kuch darajasi kamaya borib, keyinchalik mutloq to'xtatiladi.

Muhofaza qilish va yordam ko'rsatish bir-biri bilan bog'liq. Mashqlar mustaqil bajarilib, jismoniy yordam ko'rsatish bilan muhofaza qilish manimal darajada bo'lgan muhofaza qilish manimal darajada bo'lgan esa o'zini-o'zi muhofaza qilish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib qoladi.

Shug'ullanuvchi mashqlarni mustaqil bajarishni boshlar ekan o'zini muhofaza qilish usullarini bilib olish zarur.

Muhofaza qiluvchi quyidagilarni bajarish shart:

A) Muhofaza to'rtlaridan gimnastikachining mashq qilishga xalaqit bermay moxiroina foydalanish.

V) O'quvchilarning individual xususiyatlarini bilishi.

Shikastlanishlarning oldini olish maqsadida shug'ullanuvchilardan so'rash yo'li bilan o'rganiladigan harakatlar texnikasi (snaryadni qo'yib yuborish, gavdani yozish, siltama harakatlar) haqida ular qanchalik bilimga ega ekanligini aniqlab olgan ma'qul.

Muhofaza qilish va yordam ko'rsatish usullarini o'rganish.

SHug'ullanuvchi gimnastika mashqlari texnikasini o'zlashtirib borish bilan parallel ravishda o'qituvchi raxbarligida jismoniy yordam ko'rsatish va muhofaza qilish usullarini ham o'rganishlar kerak.

O'qituvchi oldin muhofaza qilish va yordam ko'rsatish usullarini yangi elementini o'rgatish jarayonida ko'rsatib va tushuntirib beradi. Keyin har bir o'quvchi yordami ko'rsatish va muhofaza qilishga quyilari, o'qituvchi esa mashq qilayotgan muhofaza qilish bilan bir vaqtda turib muhofaza qilish bilan muhofaza qilish uchun turgan o'quvchi o'z vazifasini qanchalar uddalaganligi kuzatib boradi.

O'quvchilar muhofaza qilish va yordam ko'rsatish ko'nikmalari msutaxkam egallab olganlaridan keyingini, o'qituvchi ularga bir-birini mustaqil muhofaza qilish ishonib topshirsa bo'ladi. Birov o'qituvchi har gal navbattagi o'quvchiga muhofaza qilishga ijod berishidan oldin uni qanday muhofaza qilishini so'rashi lozim. Muhofaza qilayotgan o'qituvchiga qo'yilgan talab mashq bajaruvchiga bo'lgan talabdan kattaroq bo'lgan ma'lum chunki muhofaza qiluvchining salgina xatosi shikastlanishga sabab bo'lishi mumkin.

CHarchagan yoki loxasroq bo'lib turgan o'quvchini muhofaza qilishga qo'yish qat'iy man etiladi.

SHug'ullanuvchilarga muhofaza qilish va yordam ko'rsatishning barsa usullarini o'rgatish kerak. Bunga gimnastika mashqlarining har birida shu mashqning o'zigagina xos muhofaza qilish xususiyatlari, xavfsizlik choralari, shuningdek o'zini muhofaza qilish usullari mavjudligini yoddan chiqarmaslik lozim.

Shifokor nazorati va o'z-o'zini nazorat qilish shikastlanishning oldini olish tadbiri sifatida.

O'rgatish jarayonidagi muvaffaqiyat asosan shug'ullanuvchining sog'lig'iga bog'liq. Gimnastikachilarning bir yo'lda kamida bir marta meditsina ko'rigidan o'tishi kerak gimnastikasiga ham, trenerga ham o'z sog'ligi qaydaligini kuzatib borishni imkonini beradi. SHundan kelib chiqib bevosita mashg'ulotdan keyin shug'ullanuvchi o'zini qanday xis etayotgani, kayfiyati, charchaganlik darajasi, vazni, tomir urishi, ishtaxasi va hokozolarining qay ahvolda ekanligini maxsus kundalik daftarida qayd etishi kerak.

Mashg'ulot oldida o'qituvchi shug'ullanuvchilardan ularni kayfiyatini so'rab, o'zini qanday xis etayotganligi, trenirovka qilishga hohishi qanday ekanligini bilib oladi.

Charchaganda yoki laxasligidan shikoyat qiladigan bo'lsa, trener zarur choralar ko'rishi

kerak (yukni kamaytirishi, murakkab harakatlar qilishga shoshilmasligi o'qituvchi mashg'ulot jarayonidagilar charchoqning asosiy belgilariga kiradi: ayrim xollarda shug'ullanuvchilarni vrachga yuborish zarur).

1. Diqqat etiborning kamayishi, lanjlik va loqaydlik.
2. Mashqlarni bajarish sifatini yomonligi.
3. Harakatlar koordinatsiyasining buzilishi.
4. Rang o'chishi, oyoq-qo'l titrashi va hokazolar.

Qattiq charchashning oldini olish uchun quyidagilarni bajarish zarur.

1. Mashg'ulotlarning yukni to'g'ri tartibda solib borish.
2. Bir xildagi harakatlari bor, qaltis mashqlarini (aylanish, do'mbaloq oshish, dumalanish, qattiq joyga tushadigan sakrashlarni bajavermaslik).
3. Mashqlar ijro etishni yengillashtiradigan shart-sharoitlaridan (yordam ko'rsatish, muhofaza qilish, texnik vositalari, yordamida mashqlarni va hokazolardan) foydalanish.
4. Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalaridan oqilona foydalanib, jismoniy qobiliyatini sistematik ravishda takomillashtirib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Morgunova I.I. Gimnastika va uni oitish metodikasi. O'quv qo'llanma Tashkent, 2011 y.
2. Sushko G.K. Gimnatika i metodika yeyo prepodavaniya. Uchebnoe posobie. TDPU, 2008
3. Teoriya i praktika fizicheskoy kul'tury. 1990. № 10.
4. Cross Fit. Gymnastics training guide. Copyright 2015.

ВАЖНОСТЬ ДИСЦИПЛИНЫ «КРЕАТИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ» ПРИ ФОРМИРОВАНИИ КРЕАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕР-ПЕДАГОГОВ

Закирова Мадина Ринатовна
доцент кафедры «Информационно-образовательные технологии»,
PhD ТУИТ имени Мухаммада аль-Хоразмий

Аннотация: В данной статье рассматривается значение дисциплины «Креативное образование» для формирования креативной компетентности будущих инженер-педагогов. Описаны особенности дисциплины, методы и технологии, используемые в ее изучении, а также приведены примеры использования креативного подхода в образовательной практике.

Ключевые слова: Креативное образование, креативная компетентность, инженер-педагог, технический вуз, образовательный процесс, инновации, преподавание.

В современном обществе, где происходит быстрое развитие технологий, важным является формирование креативной компетентности у будущих специалистов, в том числе инженер-педагогов. Креативность играет важную роль в развитии инноваций и научных исследований, что требует от инженер-педагогов обладания способностью к нестандартному мышлению, развитию творческих способностей и умения работать в команде. В структуру профессиональной компетенции, в рамках компетентного подхода имеет смысл говорить о включении креативной компетенции, которая определяется, как интегративное качество личности, проявляемое в способности находить нестандартные решения поставленных задач [1,2].

В этом контексте, дисциплина «Креативное образование» приобретает особую значимость в образовательном процессе. Ее изучение позволяет будущим инженер-педагогам развивать креативность и инновационный потенциал, что не только помогает им эффективно решать задачи профессиональной деятельности, но и обеспечивает успех в карьере.

Цель дисциплины «Креативное образование» заключается в формировании у студентов компетенций, связанных с творческим мышлением и креативностью. Главная цель заключается в том, чтобы помочь студентам раскрыть свой потенциал и научиться применять креативный подход в своей профессиональной деятельности.

Основными задачами дисциплины являются:

– Развитие творческого мышления. Дисциплина «Креативное образование» помогает студентам развивать творческое мышление, способность к генерации новых идей и креативному подходу к решению задач.

– Ознакомление с методами и приемами творческого процесса. В рамках дисциплины студенты знакомятся с методами и приемами творческого процесса, такими как ассоциативное мышление, метод «мозгового штурма», кластерный анализ, ментальная карта, шесть шляп мышления и др.

– Развитие навыков работы в команде. Для успешного развития креативности в профессиональной деятельности, студентам важно уметь работать в команде, обмениваться идеями и находить решения вместе с другими участниками проекта.

– Формирование умений применять креативный подход в профессиональной деятельности. Цель дисциплины заключается не только в развитии креативности, но и в формировании навыков применения креативного подхода в профессиональной деятельности, а также умения находить нестандартные решения задач.

– Ознакомление с актуальными тенденциями в области креативности и инноваций. Дисциплина «Креативное образование» также позволяет студентам ознакомиться с актуальными тенденциями в области креативности и инноваций, что может быть полезным для будущей профессиональной деятельности.

Важность развития креативности у студентов технических вузов заключается в том, что она помогает им генерировать новые идеи и находить нестандартные решения проблем. Без креативности студенты могут столкнуться с ограниченными возможностями и стандартными решениями, которые уже известны. В то время как креативные идеи и решения могут помочь студентам увидеть проблемы с другой стороны и найти инновационные способы их решения.

В целом, дисциплина «Креативное образование» помогает студентам развить креативный потенциал, приобрести необходимые навыки и знания для успешной профессиональной деятельности, а также научиться применять креативный подход в образовательном процессе. Она помогает будущим инженер-педагогам понимать, что креативность является неотъемлемой частью их будущей профессиональной деятельности.

Одним из главных преимуществ дисциплины «Креативное образование» является ее практическая направленность. Студенты имеют возможность не только получить теоретические знания, но и применить их на практике в процессе решения задач, проведения экспериментов и разработки проектов.

Преподавание креативного образования также может помочь студентам развить свои социальные и коммуникативные навыки. В рамках курса проводятся обсуждения, дискуссии и групповые проекты, которые помогут студентам научиться работать в команде, слушать других и высказывать свои мысли.

В целом, преподавание креативного образования может помочь студентам стать более творческими и инновационными в своих профессиональных областях, а также позволит развить творческий потенциал студентов и способствует формированию их умений и навыков в области решения нетипичных задач.

Таким образом, можно сделать вывод, что дисциплина «Креативное образование» играет важную роль в формировании креативной компетентности будущих инженер-педагогов, что, в свою очередь, позволяет им успешно реализовывать свои профессиональные задачи и повышать эффективность образовательного процесса.

Список использованной литературы

1. Набиулина, Л. М. Технология развития креативной компетенции студентов педагогических вузов при обучении компьютерной графике / Л. М. Набиулина, М. Р. Закирова, У. Ф. Тухташев // Актуальные вопросы науки и практики : сборник научных трудов по материалам XX Международной научно-практической конференции, Анапа, 05 мая 2020 года. – Анапа: Общество с ограниченной ответственностью «Научно-исследовательский центр экономических и социальных процессов» в Южном Федеральном округе, 2020. – С. 113-118. – EDN QREDOX.

2. Закирова, М. Р. Креативная компетенция студентов педагогических вузов как психолого-педагогическая проблема / М. Р. Закирова, З. Б. Абдурахманов, У. Ф. Тухташев // НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ВЫСШЕЙ ШКОЛЫ: сборник статей III Международной научно-практической конференции, Пенза, 05 мая 2020 года. – Пенза: "Наука и Просвещение" (ИП Гуляев Г.Ю.), 2020. – С. 138-140. – EDN YXARON.

3. Закирова М. Р. Ментальные карты как средство развития креативности студентов высших учебных заведений //Редакционная коллегия. – С. 39.

4. Закирова М. Развитие исследовательских навыков студентов высших учебных заведений // Engineering problems and innovations. – 2023.

5. Закирова М. Р. Применение цифровых технологий в образовательном процессе в высших учебных заведениях //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 183-186.

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA JISMONIY
MADANIYATINING VAZIFALARI****H.I.Pozilov*****Qo'qon universiteti Ta'lim fakulteti******Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi,******A.Yu.Maxkamov******Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrasida dotsenti,******pedagogika bo'yicha falsafa doktori (PhD)***

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda maktabgacha bolalarni jismoniy madaniyatining vazifalari ya'ni bolalarni ham jismoniy, ham aqliy, ham odob-axloqiy qilib tarbiyalash muhimligi, ma'naviy merosimiz, buyuk ajdodlarimiz fikrlaridan o'sha davrlarda ham bolalar jismoniy madaniyati muhim hisoblangani ahamiyatli ekanligi xususida yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yoshdagilar, oila, jismoniy madaniyat, moddiy boylik, ma'naviy boylik, amaliy jismoniy madaniyat, umumiy jismoniy tayyorgarlik.

Mamlakatimiz jismoniy madaniyati tizimining boshlang'ich bosqichi hisoblangan inson umrining tug'ilgan kunidan boshlab 6-7 yoshigacha bo'lgan davrini "maktabgacha yoshdagilar" davri deb qarash qabul qilingan. Mamlakatimizda bir yoshdan boshlab ularni maktabgacha yoshdagi bolalar o'quv muassalarining o'quv tarbiya jarayoniga jalb qilinadi. Chunki bolalarning aynan shu yosh davrida ularning organizmi o'sishi va rivojlanishida nisbatan o'ta intensivligi kuzatiladi, muhim organlari va tuzilmalarining xizmat faoliyati yaxshilanadi, jismoniy va ruhiy qobiliyatlari har tomonlama tarbiyasiga tag zamin yaratiladi. Milliy istiqlol fidoyilaridan Abdurauf Fitrat o'zining «Oila» asarida ota, onalarga qarata: «Inshoolloh, oqilona tarbiyangiz soyasida farzandingiz sog'lom aql va sog'lom badanga sohib bo'lib, yaxshi kamol topib, yetti yoshni to'ldiradi. Yetti yoshgacha bolalarni ham jismoniy, ham aqliy, ham odob-ahloqli qilib tarbiyalash juda muhimdir. Bola yetti yoshgacha jismonan sog'lom va aqlan yoshiga yarasha odil bo'lsa, kelgusidagi kamolotiga ham imkoniyatlar, yo'llar ochiladi» deb yozgan.

Bu yoshdagilar jismoniy madaniyatini nazariy, tashkiliy asoslariga oid bilimlar o'zining mukammal asosi va mavjud tizimini takomillashtirilishini taqazo etilishining o'zi mazkur o'quv qo'llanmasiga zaruriyat mavjudligini ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi maktabgacha yoshdagilar o'quv muassalari rahbarlarini qayta tayyorlash malakasini oshirish Respublika o'quv - uslubiy markazi tashabbusi va Respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining ITD-4- 157 raqamli davlat granti(2009-2011 yillar)ning tadqiqotlari natijali tarzida yaratilgan adabiyotlardan tashqari mustaqillik yillari davomida mavzuga oid o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarning natijalari e'lon qilingan adabiyotlarni taqchilligini nazarda tutib soha mutaxasislarini tayyorlashning ta'lim va tarbiyasi jarayonida qo'llashni maqsad qilib, ushbu muammo masalalari yechimiga qo'l urdik.

Bolalarning maktabgacha yoshdalik davrining jismi tarbiyasi tarkibidagi sog'lom turmush tarzi(STT) jismoniy madaniyati mashg'ulotlari zo'r berib, gurkirab o'sayotgan bola organizmiga suv, havo, oziq-ovqatdek eng zarurligini hisobga olsak, maktabgacha yoshdagilar jismoniy madaniyatini takomillashtirish muammosi dolzarb.

"Harakatni - hayot" deb atash ham sharq faylasuflari tomonidan bejiz aytilmaganligini e'tirof etmay ilojimiz yo'q. Ma'naviy merosimizga taalluqli Sharq mutafakkirlarining konseptual-metodologik tarixiy asarlari, xalq pedagogikasi an'analarida, diniy adabiyot manbaalarida, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Firdavsiy, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Bobur va boshqa allomalarimizning tan tarbiyasi, inson jismining jismoniy quvvati haqidagi fikrlari biz o'rganishni maqsad qilgan muammoni ajdodlarimiz davrida ham muhim ekanligini ko'rsatadi.

Sohaning bo'lajak mutaxasislari - ular oliygoh talabalarini, o'rta maxsus ta'lim muassalarining o'quvchilarini kim bo'lishidan qat'iy nazar inson jismi madaniyatiga oid umumiy ta'lim maktabi, jismoniy madaniyati, davlat dasturi o'quv materiallari darajasidagi nazariy bilimlarga ega xolos. Lekin umumiy ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimi jismoniy madaniyat dasturlari o'zlarining takomillashtiruviga muhtoj. Shunga ko'ra maktabgacha ta'lim muassalarining mutaxasislarini kasbiy nazariy tayyorgarligini yanada oshirish maqsadida jismoniy madaniyat tushunchasi nazariyasiga oid nazariy bilimlarini berishni lozim ko'rdik.

Jismoniy madaniyat - umumbashariyat madaniyatining bir qismi, uning yuksalishi jamiyat rivojlanishining ijtimoiy, iqtisodiy o'sishi darajasi bilan uzviy bog'liq.

Jamiyat a'zosining jismoniy bilimi, jisman rivojlanganligi, jismoniy tayyorgarligi evaziga aktiv hayotiy faoliyat uchun zarur bo'lgan jismoniy kamolotga erishishga zamin yoki jismoniy madaniyatning poydevori maktabgacha yoshdagilar o'quv muassasalarida - bolalar yashilari va bolalar bog'chalarida yaratiladi.

Jamiyat a'zosining qaysi yoshdalgidan qat'iy nazar ularning jismoniy rivojlanganligi, jismining tayyorgarligi belgilangan qonuniyatlar va o'ziga xos xususiyatlari orqali o'zgaradi, natijada individning - jamiyat a'zosining jismoniy madaniyatga egaligi darajasi, jismoniy madaniyat sohibligidek jihati shakllanadi.

Bunday jihatlar individning mamlakat aholisi hayotida amalga oshiriladigan turli xildagi jismoniy - madaniy, ma'naviy va ommaviy - teatrlashtirilgan tomoshalar, ochiq havoga - tabiat qo'yniga oilaviy, jamoalar bilan ommaviy chiqishlar va sayohatlarni tashkillashning o'rni beqiyos.

Ularni bir-biri bilan muvofiqlashtirish orqali ko'rgazmali, tashviqot tarzidagi namoyishkorona chiqishlar - ommaviy krosslar, an'anaga aylantirilgan mahalla, tuman aholisining turli tabaqalarining yugurishlarini uyushtirish, velosipedda sayohatlar, ochiq havoga oila a'zolari bilan ommaviy chiqishlarning yo'lga qo'yilishi xalq, millatning jismoniy madaniyatidan dalolatdir. Jismoniy madaniyat tushunchasi izohiga to'xtalamiz.

"Jismoniy madaniyat" tushunchasining tasnifi

Jismoniy madaniyat - muayyan tarixiy sharoit mahsuli. Har bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyada jamiyat a'zolari jismining madaniyati o'z davri uchun xarakterli bo'lib, jamiyat taraqqiyotining muayyan davridagi (ijtimoiy formatsiyalar) butun bir xalq boyligi, mulki tarzida shaxsning har taraflama barkamolligini ta'minlovchi vosita yoki uning majburiy sharti bo'lib qolishi maxsus adabiyotlarda ta'kidlangan.

Jismoniy madaniyat - *jamiyat a'zolarining jismoniy kamolotga erishishini maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirish uchun maxsus vositalar, metodlar va sharoitlarni yaratish va ulardan ratsional foydalanish bo'yicha erishilgan yutuqlarning majmuidir* (L.P.Matveev, 1991).

Jismoniy madaniyat nazariyasi fanining asosiy tushunchalari ichida inson jismi madaniyati keng, jamlovchi tushuncha. Jismoniy tarbiya, sport tushunchalari esa jismoniy madaniyat tushunchasining tarkibiy qismi sifatida o'zining yo'nalishlariga ega bo'lgan pedagogik jarayonlarni o'zida mujassamlashtiradi (B.A.Ashmarin, 1990, L.P.Matveev, 1991, A.Abdullaev, SH.Xankeldiev, 2005).

Qayd qilingan mualliflarning jismoniy madaniyat institutlari va pedagogika institutlarining jismoniy madaniyat fakultetlari talabalarini uchun yozilgan darsliklarida bu tushuncha quyidagicha ta'riflangan:

"Jismoniy madaniyat - jamiyat a'zolarini jismonan tayyorlash uchun *kishilik jamiyati yaratgan va foydalanayotgan moddiy, ma'naviy boylıklar majmuidir*".

Moddiy boylıklar - mavjud jamiyatning xilma-xil sport inshootlari, maxsus anjomlar, uskunalar, mablag'lar, jamiyat a'zolarining jismoniy kamoloti darajasi (sport yutuqlari) demakdir.

Ma'naviy boyliklar - tarbiya tizimi yaratgan, shakllantirgan, g'oyaviy, ilmiy-nazariy.uslubiy, tashkiliy, amaliy sohada erishilgan maxsus ilmiy yutuqlar majmuyi bo'lib, u doimiy ravishda boyib, o'zgarib turadi.

Jismoniy tarbiya orqali har qanday inson o'ziga mansub jismoniy madaniyat mazmunini o'zlashtiradi, natijada u individning shaxsiy mulkiga (boyligiga) aylanadi. Maktabgacha yoshdagilar, maktab o'quvchilari, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurti o'quvchi, talaba – yoshlarining jismoniy madaniyatining darajasi jamiyat jismoniy madaniyati haqida umumiy tasavvurni yuzaga keltiradi.

Amaliy jismoniy madaniyat – kasbga taalluqli, amalda qo'llaniladigan hamda harbiy-amaliy jismoniy madaniyatga bo'linadi.

Amaliy madaniyat bevosita kasb-hunari faoliyati sohasi sohibining ma'lum kasbiy tayyorgarlik talablari va mehnat sharoitiga bog'liq, umumiy, maxsus jismoniy kasbiy tayyorgarlik jarayonidagi jismoniy madaniyat va uning nazariy bilimlaridir.

Jismoniy madaniyatining amaliy turlarini organik bog'liqligi, kasbga oid amaliy tayyorgarlik va harbiy amaliy jismoniy tayyorgarlik **umumiy jismoniy tayyorgarlik**ning bazasida yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Sog'lom avlod tarbiyasi-barchamizning muqaddas insoniy burchimiz Sog'lom avlod davlat dasturini tasdiqlashga bag'ishlangan majlisda so'zlangan nutq, 2000-yil 24-fevral.
2. Abdullaev A. va boshqalar. "Jismonan barkamol avlod orzusi". Farg'ona, 2003 y.
3. Abdullaev A., Xankeldiev SH.X. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi, Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik, 2-qism, T."Yangi asr avlodi" 2016.354 s.
4. "Barkamol avlod tarbiyasida sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Farg'ona, 2011.

MAKTABDA JISMONIY TARBIIYA MASHG'ULOTLARINI REJALASHTIRISH MAZMUNI VA UNI TASHKILLASH

H.I.Pozilov

Qo'qon universiteti Ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi,

A.Yu.Maxkamov

Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrası dosenti

pedagogika bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktablarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini Davlat ta'lim standartlari asosida rejalashtirish va darslarni asosiy mazmuni bo'yicha o'tiladigan dars jarayonida mavzuni o'quvchilarga tushunarli va samarali o'qitish usullaridan foydalanish, maktabda jismoniy tarbiya, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning vazifalari va vositalari, o'rta maktab yoshidagi o'quvchilar bilan mashg'ulotlarni o'tkazish uslublari, yuqori maktab yoshidagi o'quvchilar bilan mashg'ulotlarni o'tkazish uslublari xususida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kichik maktab yoshida, O'rta maktab yoshida, Yuqori maktab yoshida, Jismoniy tarbiya tizimida, muvozanat saqlash, tirmashib chiqish, to'p otish, yurish, yugurish va sakrash.

Maktabda jismoniy tarbiya – mashqlarini bajarish bu sog'liqni mustahkamlash, har tomonlama jismoniy, aqliy va bolalarni mehnatsevarlikka yo'naltirilgandir.

Maktabda shu vazifalarni bajarishda davlat maktab o'quv dasturida o'quvchilarni yoshiga qarab I-IV, V, IX sinflar jismoniy tarbiyasiga bo'lingan.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning vazifalari va vositalari

Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiyani tizimli qo'llash o'quvchilarda odat tusiga kirib boradi. Shu yoshdagi o'quvchilar uchun vazifalar quyidagicha:

- o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlash, jismoniy rivojlantirish;
- muvozanat saqlash, tirmashib chiqish, to'p otish, yurish, yugurish va sakrash malakalarini shakllantirish va takomillashtirish;
- harakat sifatlarini tarbiyalash: qomatni to'g'ri o'stirish malakalarini shakllantirish; ruhiy sifatlarini tarbiyalash, madaniy saviyani o'stirish, gimnastika mashqlarini mustaqil bajarishga qiziqishini uyg'otish va jismoniy mashqlarni bajarish kun tartibiga kiritish jismoniy tarbiya tizimida maktab jismoniy tarbiya dasturida o'qitishning asosiy mazmuni davlat tomonidan tuzilgan dastur bayon etilgan bo'lib, uning nazariy va amaliy bo'limlari mavjuddir.
- bolalarga nazariy ma'lumotda ertalabki gigienik gimnastikaning ahamiyati, tartibi, jismoniy mashqlar bajarish vaqtida qiynalish, gigienik qoidalarni baliq, chiqaruvchi mustaqil mashg'ulot bajarish uchun joy tanlash va jihozlarni saqlash;
- amaliy mashg'ulotlar bolalarning yoshga qarab saf mashqlari, tirmashib chiqarish va emaklash, gimnastika devorida va skamitkalarda mashq bajarish, katta va kichik to'plar uzun qisqa arqonchalar bilan bajarilgan mashqlar, akrobatika, rais mashq va qomat rostlovchi mashqlar kiradi.
- Dasturda yana boshlang'ich sinflar uchun asosiy gimnastikadan uyda bajarilgan mashg'ulot ham ko'rsatilgan.

O'rta maktab yoshidagi o'quvchilar bilan mashg'ulotlarni o'tkazish uslublari

O'rta sinf o'quvchilari uchun jismoniy tarbiya dasturida nazariy va amaliy mashg'ulot berilgan bo'lib, asosiy vazifalar quyidagicha; jismoniy rivojlanishini har tomonlama mustahkamlash; o'quvchilarning «Alpomish» «Barchinoy» bosqichlarida o'zini boshqara olish uchun harakatlarni rivojlantirish; o'quvchilarda jismoniy tarbiya qiziqish va muntazam shug'ullanib uni kun tartibiga kiritish.

Har bir dars o'tish jarayonida sog'lomlashtirish, bilim berish va tarbiya berish vazifalari amalga oshiriladi.

Nazariy ma'lumotda o'quvchilar uchun zarur bo'lgan quyidagi savollar kiritilgan:

- Hukumatning maktab jismoniy tarbiyasini rivojlantirishdagi g'amxo'rliqi;
- O'zbekiston sportchilarining Olimpiada o'yinlaridagi yutuqlari;
- Gimnastika turlari, sport gimnastikasi, akrobatika, badiiy gimnastika, o'quvchilarining jismoniy tarbiya bo'yicha harakat tartibi;
- Jismoniy tarbiya va sportning o'quvchi uchun ahamiyati kiritilgan.

Amaliy mashg'ulotlarda sinflar bo'yicha mashqlar oson-qiyinligiga qarab bo'linadi: saf malakalarini yanada mustahkamlash: tirmashib chiqish va emaklash, har-xil to'siqlardan oshib o'tish; akrobatika mashqlari, harakat sifatlarini rivojlantiruvchi mashqlar; kuch, egiluvchanlik, chidamlilik, bo'g'nlarning harakatchanligi; muvozanat saqlash mashqlari, gimnastika jihozlari bilan bajariladigan mashqlar: osilishlar, tayanishlar, tortilishlar; konda mashg'ulot jihozi ustidan sakrashlar; jihozlar bilan, gimnastika devorida va skamitkada bajariladigan mashqlar; to'p otish harakatda bajariladigan mashqlar; to'p otishlar harakatli o'yinlar va estafetalar tavsiya etilgan.

Yuqori maktab yoshidagi o'quvchilar bilan mashg'ulotlarni o'tkazish uslublari

Yuqori maktab yoshidagi o'quvchilar uchun jismoniy tarbiya dasturida quyidagi vazifalar qo'yilgan.

O'quvchilarni navbatdagi «Alpomish» va «Barchinoy» bosqichiga gimnastika va boshqa sport turlari bo'yicha nazariy ma'lumotlar. Gimnastika snaryadlarida maxsus mashqlari o'rgatish; o'quvchilarga bu mashqlarni har-xil sharoitlarda qo'llash, o'quvchi o'zini shaxsiy kamolotini rivojlantirishda jismoniy mashqlardan foydalanish; badiiy gimnastika, akrobatika va sport gimnastika bo'yicha hakamlik malakalarini shakllantirish. Gimnastika va boshqa mashg'ulotlar jarayonida sog'lomlashtirish va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalar amalga oshiriladi.

O'quv materiallarining asosiy mazmuni o'sib kelayotgan o'smir o'quvchini har tomonlama rivojlangan, chidamli qilib Vatandarlikka tayyorlashdir.

Shuning uchun jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'quvchilarni saf mashqlarini mukammal o'rganish, mos bo'lgan harbiy-amaliy mashinalarni to'la o'rganishga katta e'tibor berishi zarur.

Qizlar uchun mashqlar o'g'il bolalarnikidan farq qilib, ularni mehnat qilishga estetik harakatga va bo'lg'uvchi sog'lom ona sifatida tarbiyalashga qaratilgan.

Nazariy ma'lumotlarga quyidagilar kiritilgan: gimnastikaning har-xil turlarini mustaqil o'tkazish uslublarida tashkillashni: hukumat va vazirliklarni yaxshi bilishni, o'zbek sportchilarining xalqaro musobaqalarda erishgan yutuqlari bilan tanishish.

Amaliy mashqlarga maxsus harakat mashqlarini shakllantirish va yanada takomillashtirish, o'tish, tirmashib chiqish va emaklab, og'irlik ko'tarish, pegekclariga, brusasda mashq bajarishni, uzunasiga qo'yilgan arqondan, kazeldan sakrash va akrobatik mashqlar[1].

Qizlar uchun esa badiiy gimnastika mashqlari kiritilgan. Dasturda asosiy gimnastika bo'yicha uyga beriladigan vazifalar va talablar kiritilgan. Maxsus tibbiy guruhlar uchun jismoniy tarbiyadan dastur tuzilgan bo'lib, sog'lig'i zaiflashgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan maktabda gimnastika mashg'ulotlarini takomillashtirish asosiy shaklidir. Maktab yoshidagi o'quvchilar uchun hozirgi jismoniy tarbiya tizimda har-xil mashg'ulotlarni tashkillash usuli mavjud. Bularni asosiy gimnastika darslari, gimnastikaning sport turlari bo'yicha mashg'ulotlar, fizkult pauzalar, katta tanafus vaqt o'tkaziladigan o'yinlar, ommaviy gimnastika chiqishlariga tayyorgarlik ko'rish va qatnashish.

Maktabda o'quvchilar bilan gimnastikani dars va darsdan tashqari shakllarda ham o'tkaziladi.

Dars shakliga o'quv darsi, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, umum jismoniy tayyorgarlik darslari davolash darslari va sport mashg'ulotlari kiradi.

Jismoniy tarbiya tizimida dars mashg'ulotlarini asosiy shakl bo'lib hisoblanadi. Amalda dars shakli yuqori effektga egadir. Dars olib boruvchi sifatida jismoniy tarbiya o'qituvchisi bo'lib, u dars uchun ish reja dars jadvali ostida olib boradi.

Har bir darsni tushuntirib o'quvchilarga yordam ko'rsatish, darsda u tashkilotchilik va boshlang'ich qilib bilan taminlaydi: bunda butun o'quv tarbiya jarayoni va har bir ma'lumotning vazifalarini to'g'ri belgilashni: o'quvchiga malakali yordam ko'rsatishni O'zbekiston fuqarosiga xos axloqiy fazilatlarini tarbiyalashni amalga oshiradi.

Mashg'ulotlarni dars shaklida o'tkazishning afzalliklariga yoki uning jamoatchilik tomonlarini ham qo'shish mumkin. Darsni o'tkazish ishtiyoqiga qarab, ular o'quv, mashg'ulotidan iborat.

Darsning eng maqsadga muvofiq qobiliyatidan ya'ni o'quv to'g'ri tashkil qilganliklarini belgilaydigan omillar quyidagilar:

1. Shug'ullanuvchilarning kuch va vaqtni maksimal sarflab, maksimal natijalarga erishish.

2. Butun dars davomida shug'ullanuvchilarning yuqori ish qobiliyatini saqlash.

3. Mashg'ulot o'tkazish uchun, uning rejimini belgilashga shug'ullanuvchilarning sog'lig'i uchun qulay sharoit yaratish.

Gimnastika darsining mazmuni asosan davlat dasturi belgilaydi

Biroq mashg'ulot turli sharoitlarda o'tkaziladi, buni yagona umumiy dasturi orqali hisobga olib bo'lmaydi. O'qituvchi darsda o'quvchilarga amaliy va saf sport mashqlarini bajarishning qulay usullarini o'rgatadi. Quyidagilar gimnastika darsining asosiy vositalari hisoblanadi.

1. Shug'ullanuvchilarning maxsus jismoniy jarayonlarini ta'minlaydigan mashqlar.

2. Shug'ullanuvchilarni muvaffaqiyat so'zlashtirishni ta'minlaydigan yordamchi va maxsus qo'shimcha mashqlar.

3. Shug'ullanuvchilarning koordinatalari imkoniyatini oshiradigan turli-tuman gimnastika mashqlari.

4. Shug'ullanuvchilarning mazkur kontengent uchun mansub bo'lgan va davlat dasturida nazarda tutilgan mashqlar.

Mashg'ulotning umumiy zichligi mashg'ulot juda to'g'ri uyushtirilganda 100 gradusga yaqin bo'lishi kerak. Quyidagilar dars zichligini pasaytirib yuborishiga sabab bo'lishi mumkin:

1. Mashg'ulot joyini va sport jihozlarini o'z vaqtida tayyorlamaslik hamda mashq bajarishdan oldin navbat kutib qolish natijasida darsda sababsiz kutib qolish.

2. O'qituvchining darsga tayyorlanmaganligi.

3. O'qituvchining ortiqcha va samarasiz tushuntirishi.

4. Darsda o'quvchilarning intizomsizligi.

Masalan, tayyorgarlik qismi uchun o'rtacha jadvallikda bajarilgan mashqlar tanlanadi va ular odatda frontal usulda dam olish uchun kichik pauzalar bilan o'tkaziladi. O'qituvchi dars davomida shug'ullanuvchilarning xatti-harakatini kuzatib borishi, mashqning muayyan sharoitda mumkin bo'lgan darajada sifatli bajarilishiga erishish uchun intilishi kerak. O'quvchilarga bo'lgan talabchanlik kutgan natijani berishi uchun quyidagilar tavsiya qilinadi:

- Topshiriqdan chetga chiqadigan bironta xodisaga yo'l qo'ymasligini talab qilish.

- O'quvchilardan shu darajada sifatli bajarilishini talab qilish kerakki, bu talab ularning imkoniyati darajasidan oshmasin.

- O'quvchilarning harakatlarini yo'l qo'yilgan xatolar ularning ko'nglini ranjitmaydigan qilib, bosiqlik bilan bartaraf etilishi kerak. O'quvchilar bilan shunday o'zaro munosabat o'rnatishi kerakki o'qituvchi hozirlangan vaqtda o'quvchilarning diqqatini jalb qila olsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Morgunova I.I. Gimnastika va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2011 y.
2. Sushko G.K. Gimnastika i metodika yeyo prepodavaniya. Uchebnoe posobie. TDPU, 2008 g.
3. Teoriya i praktika fizicheskoy kulturi. 1990. № 10.
4. Cross Fit. Gymnastics training guide. Copyright 2015.

PEDAGOGIK KOMPETENTLIK-SHAXSGA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING MUHIM SHARTI

**Radjapova Zuxra Tirkashevna
Qo'qon universiteti "ta'lim" kafedrası p.f.f.d., dotsent**

Shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimini nazariy-metodologik jihatdan qurollantirish-bugungi kunda pedagogika fanining bosh maqsadi sifatida belgilangan. Yuqorida bayon etilgan yuksak, ammo, sharaflı vazifalarnı muvaffaqiyatli uddalash har bir pedagogik xodimdan yuksak kasbiy mahorat kasbiy malaka, bilimdonlik va keng dunyoqarashni talab etadi. Bularning barchasiga esa kasbiy kompetentlik natijasida erishiladi. Kompetentlik tushunchasi haqida so'z yuritishdan oldin, uning mazmun va mohiyati bilan tanishib chiqish lozim.

Pedagogik kompetentlik fan sohasiga kompetensiya tushunchasi negizida kelib chiqqan. Kompetensiya tushunchasi esa, psixologik izlanishlar natijasida psixologiya fanida qo'llanila boshlandi. "Kompetensiya" deganda (lotincha compete- erishaman, muvofiqman, mos kelaman) kishi egallagan muayyan bilim, ko'nikma, malakalar majmui tushuniladi. Kompetensiya, shuningdek, muayyan vazifani bajarish uchun biror shaxs yoki tashkilotga berilgan vakolat va huquq ma'nosida ham qo'llaniladi. Mazmunan, u yoki bu sohadagi bilimlar, qadriyatlar, tajriba va shaxsiy dunyoqarashlar majmuasidir. Va shaxsning individual qobiliyati hamdir. Kompetentlik va kompetensiya so'zlari bir-biri bilan bog'liq va biri ikkinchisini taqozo etadigan tushunchalar sanaladi. Shunga ko'ra kasbiy kompetensiya o'zida bir qator kompetentlik va kompetensiyalarni mujassamlashtiradi. Zero, yetarli darajada kasbiy kompetensiyasi rivojlanmagan va keng doiradagi kompetensiyaga ega bo'lmagan mutaxassis o'z lavozim vazifalarini muvaffaqiyatli bajara olmaydi. Kompetentli deb muayyan bir sohaga oid ma'lumotga ega bo'lgan va shu sohaga xos kompetensiyalarni egallagan kishiga aytiladi.[2;44-b]

Kompetentlik-har bir soha mutaxassisi uchun zarur bo'lgan atama sifatida qo'llaniladi. Mutaxassis o'z kasbiga oid bilim, turli xildagi fikrlar, nazariyalar, ilmiy yangiliklar, faoliyati sohasidagi o'zining shaxsiy tajribalarini to'playdi. Ulardan eng yaxshisi va eng sarasini kasbiy faoliyatida qo'llaydi va jamiyatga targ'ib etadi. Kompetentlik tushunchasi umumiy ma'nodagi tushuncha hisoblanadi. U ham o'z navbatida turli xildagi kompetensiyalarga turkumlanadi. Kasbiy kompetentlik ham ana shu umumiy kompetentlik tushunchasini to'ldirib turuvchi xususiy bir qismidir.

Kompetentlik tushunchasi zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimida yangi atama sifatida vujudga kelgan bo'lsada, qadimda ham uning ma'no-mazmun aks etganligini ko'rishimiz mumkin. Tarbiyachi-muallimlarning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy sifatlariga azaldan e'tibor qaratib kelingan va har bir zamon talabidan kelib chiqib, pedagogga qo'yiladigan talablar takomillashib, murakkablashib boravergan. Chunonchi, Zardushtiylik ta'limotida Zardushtning oliy tangri Ahuramazda bilan muloqotida ham yaxshi va yomon ustozlar haqida: "Noshud, yomon muallim o'quvchi qalbidan hunarmandchilikni yuqotar ekan, ey yazdon, yomon ustozdan o'zing asra" deyilgan. [1;145-b.] Taniqli rus pedagogi A.S. Makarenko o'z asarlarida pedagogning kasbiy sifatlariga alohida urg'u bergan. Pedagog olim o'qituvchi-muallimning hech bir kasbga o'xshamaydigan kasbiy faoliyatini yuksak baholab, "Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq yoki jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati, yurish-turishi, kiyinishi bolalarni tarbiyalasin"-deb yozgan edi.

Kasbiy kompetentlik-mutaxassis tomonidan kasbiy vazifalarning samarali yechimini topishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlarning egallanishi va ularni amaliy faoliyatda yuqori darajada qo'llay olishdir. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan

har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va kompetentsiyalarni o'zlashtirilishni nazarda tutadi. Qaysi soha vakili yoki vakilasi bo'lishidan qat'iy nazar kasbiy kompetentlik mutaxassis kasbiy faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylanishi lozim.

Kasbiy kompetentlik integral, ya'ni boshqa vaziyatlar bilan chambarchas bog'langan xususiyatga egadir. U kasbiy faoliyat jarayonida namoyon bo'ladigan vaziyatlarda kasbiy muammolar, kasbiy konfliktlar va kasbiy topshiriqlarni hal eta olish qobiliyati va tayyorlik darajasi hisoblanib, bilim, ko'nikma, malaka, kasbiy va hayotiy tajribani, qadriyatlar va madaniyatni ishga solishni nazarda tutadi. "Qobiliyat" bu jarayonda asosiy o'rinni egallaydi va "moyillik", "ko'nikma" ma'nosida tushuniladi. Boshqa bir umumiy tushuncha sifatida olganda qobiliyat-muayyan faoliyat sohasini muvaffaqiyatli o'zlashtirish va bajarishda asqotadigan shaxsiy sifat bo'lib hisoblanadi. "Tayyorlik" atamasi dastavval, mustaqil faoliyatga va kerak bo'lganda, ijodiy faoliyatga faol tarzda psixologik jihatdan tayyorlik ma'nosida qo'llanilgan.

Kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. U mehnat sub'ektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, sub'ektning aniq faoliyatning o'ziga xos jihatlari nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo'llaniladi. Masalan, tadqiqotchi olim E.F.Zeer kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish kasbiy kamolotga erishish chog'ida kompetentlikning turli ko'rinishlari integrasiyalashib borishini va ularning kasbiy muhim shaxs sifatleri bilan aloqasi kuchayib borishini ko'rsatdi.[2;135-b] Xususan, kasbiy kompetentlikning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o'zini o'zi anglash, o'z kuchiga ishonish, o'zga insonlar tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni to'g'ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlarini kiritadi. Yuqorida qayd etilgan fikrlarni tahlili pedagogning kasbiy kompetentligini ijtimoiy, ekstremal, texnologik, shaxsiy va maxsus kompetentlik kabi qator o'ziga xos xususiyatlar majmuasi sifatida to'liq izohlanishiga imkon beradi.

Ijtimoiy kompetentlik-jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy munosabatlarga faol tarzda o'z ta'sirini o'tkaza olish. Kasbiy faoliyatda muloqot olib borishning bilim, ko'nikma va malakalariga ega bo'lish.

Ekstremal kompetentlik-kutilmagan vaziyatlar, masalan: tabiiy ofatlar, texnik nosozliklar yuzaga kelganda o'zini yuqotib qo'ymasdan chora ko'rish, pedagogik jamoa orasida konfliktli vaziyatlar vujudga kelganda, oqilona qaror qabul qila olish malakasiga ega bo'lish.

Texnologik kompetentlik-kasbiy faoliyatda qo'llaniladigan zamonaviy va ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirib, zarur materiallar bilan boyitib, ulardan o'z kasbiy faoliyatida foydalana olish malakasiga ega bo'lishda o'z aksini topadi.

Shaxsiy kompetentlik-shaxsning ijtimoiy dunyoqarashi, ilmiy va intellektual salohiyati, kreativligi, shaxslararo muloqot munosabatlariga faol kirisha olishi, konfliktlarni hal etishga taktik yondashuvi, kasbiy faoliyat talablariga muvofiq shaxsiy va kasbiy sifatlarining shakllanganlik darajasi, faol hayotiy va fuqarolik pozitsiyasining qaror topganligi kabi mezonlar bilan belgilanadi.

Maxsus kompetentlik-kasbiy-pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga tayyorgarlik ko'rish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal eta olish, o'z faoliyati natijalarini tahlil qilib, xolisona baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish hisoblanadi. Maxsus kompetentlik asosini psixologik, kommunikativ, metodik, kreativ, informatsion, innovatsion kompetentlik tashkil etdi. Ularning mazmun mohiyati quyidagicha:

1. psixologik kompetentlik-pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, o'quvchilar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

2.kommunikativ kompetentlik-ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, o'quvchilar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish.

3.metodik kompetentlik-o'quv-tarbiya va boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etishning shakl, metod va vositalarini bilish, o'zlashtirish, amalda qo'llash, kasbiy faoliyat natijalarini kvalimetrik tahlil eta olish, ilg'or pedagogik va xalqaro tajribalarni o'rganish, o'quv-tarbiya jarayonini loyihalashtirish, muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'nikmalari bilan tavsiflanadi.

4.kreativ kompetentlik (inglizcha "create"- yaratuvchanlik, ijodkorlik)-yangilik yaratish, ijodkorlik, tashkilotchilik kabi ko'nikmalarga ega bo'lishdir. Kreativ kompetentlik faqat yangi g'oyalarni yaratish uchungina emas, balki shaxsning hayot tarzi yoki ichki dunyosining rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

5.informasion kompetentlik- zamonaviy axborot kommunikasiya texnologiyalari vositasida shaxsiy va kasbiy faoliyati bilan bog'liq ma'lumot, axborotlarni mustaqil izlash, tahlil qilish, tanlash, qayta ishlash va zaruriy axborotlarni uzatish ko'nikmalarining shakllanganlik darajasidir.

6.innovatsion kompetentlik-ta'limdagi innovatsion jarayonlar mohiyatidan xabardorlik, kasbiy faoliyat sohasi va tegishli ta'lim yo'nalishidagi innovatsiyalarni o'zlashtirish, amaliyotga faol tatbiq etish, zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi savodxonlik, chet tillarni o'zlashtirish, novatorlik faoliyatida ko'rinadi. Mazkur jarayonlarda pedagog shaxsining kasbiy faoliyat sohasiga yo'nalganligi, shaxsiy imkoniyatlari, kasbiy bilim, malaka, ko'nikmalari, kasbiy sifatlar va mehnat tajribasi o'rtasidagi uyg'unlik va innovatsion jarayonlarning faoliyat sohasiga nisbatan integrasiyalashuvini ta'minlanishi innovatsion kompetentlikni rivojlantirishdagi yetakchi omill sifatida baholanadi. [4; 122-b]

Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari kasbiy kompetentligi tarbiyalanuvchilar ta'lim-tarbiyasida aks etadi. Bo'lajak tarbiyachilar kasbiy kompetentlikka uzluksiz ravishda bilim olish, shaxsiy va kasbiy sifatlarini takomillashtirish, axborot texnologiyalarini va yangi innovatsiyalarni amaliyotda qo'llay olish, konfliktli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qila olish, maqsadlarini aniq qo'yish va amalga oshirish, belgilangan amaliyot jarayonlarini to'laqonli ado etish orqali erishishi mumkin. Hozirgi kundagi eng dolzarb muammolardan biri ham har sohada erkin mushohada yurita oladigan, o'z kasbiga mehr berib, uni rivojlanishiga hissa qo'shadigan, bolalarni sevib ardoqlaydigan tarbiyachilar tayyorlashdir. Kasbini sevgan inson bu yutuqlarga, o'z ustida tinimsiz ishlashi natijasida erishadi. Pedagogik kompetentlikni shakllanishiga orttirilgan pedagogik tajriba katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik/Asqar Mahkam tarjimai.- T.: Sharq NMAK, 2001. - 400 b.
2. Краевский В.В., Хуторский А.В. Основы обучения. Дидактика и методика.- М., 2007.-352с
2. Mamurov B.B., Davronov I.E. Pedagogik kompetentlik. Buxoro.: "Durdona" nashriyoti.- 2021.- 231 b.
3. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish: Monografiya-T., 2006.-357 b.

**MAKTABGACHA INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH
TEXNOLOGIYALARI**

Quchqorova Gulandon Ulug'bek qizi
Qo'qon Universiteti Maktabgacha ta'lim (sirtqi)
yo'nalishi talabasi 3-kurs talabasi,
Imomaliyeva Musharrafxon Ilhomjon qizi
O'zRFA doktoranti

Annotatsiya: Maqolada yurtimiz ta'lim tizimidagi islohotlar va ularning ahamiyati, inklyuziv ta'limni yuksaltirish masalalari, 2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasining pedagogik mohiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, ta'lim shakllari, inklyuziv ta'lim, UNCPRD, UNICEF, integrasiya, pedagogik tahlil, metod, ijtimoiy siyosat.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatish davlat siyosati darajasida ko'tarilmoqda. 2020-yil 13-oktyabrda "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarorida 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasiga O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha qator vazifalar belgilab berildi[1,1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar oyida "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonining **66-maqsadida belgilangan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish" uchun** nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi inklyuziv ta'lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan[2,1].

Imkoniyati cheklangan fuqarolarning statistikasiga murojaat qiladigan bo'lsak, O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash amaliyotini takomillashtirish mavzusi naqadar dolzarb ekanligini yana bir bor ko'rish mumkin. 2019-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakatimiz bo'yicha rasmiy tarzda 710 mingga yaqin imkoniyati cheklangan shaxslar ro'yxatga olingan. Ularning 101 ming nafarini 16 yoshgacha bo'lgan imkoniyati cheklangan bolalar tashkil qiladi[3,1].

Mamlakatimizda inklyuziv ta'limni ta'lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida tashkil etishning huquqiy me'yorlari ishlab chiqilgan. "Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida"gi[4,143] Deklaratsiyaning mazmunidan shu narsani tushunish mumkinki, nogiron fuqarolar uchun jamiyat hayotida to'liq ishtirok etish kafolatlanadi. Ammo mazkur deklaratsiyada nogiron bolalar, ularning ta'lim olish imkoniyatlari va barcha davlatlar tomonidan imkoniyati cheklangan bolalarning huquqlari batafsil yoritilganligi aniqlandi. Bu xususda Suleymenova R.A. fikricha, "Agarda nogiron bolalarning o'z jamoalari va butun jamiyat ijtimoiy hayotiga jalb etish imkoniyatlari rad etilsa, ularning imkoniyatlari keskin kamayadi" degan fikrni bildirdi.

Imkoniyati cheklangan har bir bolaning o'z oilasida yashab tarbiyalanish huquqini ta'minlash maqsadida ta'limning ustuvor shakli sifatida umumiy, ya'ni inklyuziv ta'lim belgilangan. Bu ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga oilada yashash, ota-ona mehridan bahramand bo'lib o'z mahallasida tengqurlari orasida umumiy ta'lim olish imkonini beradi.

"Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" maxsus ehtiyojli bolalarning ham barcha huquqlarini kafolatlar ekan, "barcha huquqlar – barcha bolalarga" tamoyili e'tirof etiladi.

Inklyuziv ta'limni amaliyotga o'ziga xos tarzda joriy qilish uchun pedagogik, tashkiliy va usuliy ishlar zarur. Maxsus ehtiyojli bolalarning umumta'lim sharoitida o'qitilishi ularning o'ziga xos xususiyatlari, nuqson turi, darajasi va sinfdagi bolalar sonini e'tiborga olgan holda tashkil qilinadi. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, o'quvchilarning yoshlari bir xil bo'lsa-da, lekin ular bir-birlariga o'xshamaydilar. Barcha bolalarning individual psixologik, shaxs xususiyatlari, idrok qilish darajasi, zehn va idroki turlichadir. Shu bois maxsus ehtiyojga ega bo'lgan bola ta'lim olayotgan inklyuziv sinflardagi o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish masalasi yanada murakkabroq muammolarni hal etishni talab etadi. Inklyuziv sinfda o'qituvchi bolalarning imkoniyatini e'tiborga olib, darslarni shunga muvofiq rejalashtira olsa, bolalarning nogironligi bilim olishiga ta'sir qilish va qiyinchiliklarni bartaraf etishning samarali yo'llaridan foydalansa, maktab va oila hamkorligini to'la yo'lga qo'ya olsa, nogiron bolaning kelajagiga ishonch bilan qarasagina dars jarayonining muvaffaqiyatli kechishiga erishish mumkin. Har bir bola o'z imkoniyat darajasida rivojlanadi. Atoqli psixolog olim L.S.Vigotskiy aytganidek: «Har qanday ruhiy yoki jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi».

Inklyuziv ta'limning joriy etilishi milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlarni talab etadi. «Umumta'lim» va «Maxsus ta'lim» o'rtasidagi to'siqlar olib tashlanishi kerak.

Inklyuziv ta'lim (inglizcha "inclusion - uyg'unlashgan, jalb qilingan") "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda "barcha o'quvchilar uchun maxsus o'quv ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda ta'lim olish imkoniyatini teng ravishda ta'minlash" deb belgilangan.

Inklyuziv ta'lim haqida gapirganda, ta'lim ehtiyojlarining turli-tuman yo'nalishlariga alohida urg'u berish zarur. Shu bilan birga, psixofiziologik rivojlanishida alohida xususiyatlarga va sog'lig'ining imkoniyatlari cheklangan bolalarni o'qitishga alohida e'tibor va tadqiq etish lozim.

Pedagog tomonidan ta'limjarayonida innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning qo'llanilishi imkoniyati cheklangan bolalarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada o'stirishga xizmat qiladi.

Xususan:

- muammoli izlanish;
- kichik tadqiqotlarni olib borish;
- debat;
- bahs-munozara;
- evristik suhbat;
- kichik guruhlarda ishlash va b.

Mashg'ulotlarini tashkil etishda pedagoglar o'quv axborotlarining imkoniyati cheklangan bolalar bilim, ko'nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqitira oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

Inklyuziv ta'lim jarayonida pedagoglar tomonidan:

- turli shakl, metod, vosita va texnologiyalardan samarali, maqsadli foydalanish;
- o'quv topshiriqlarini bajarishda imkoniyati cheklangan bolalarga usullarni mustaqil tanlash imkonini berish;
- imkoniyati cheklangan bolani juftlikda, kichik guruhda va jamoada ishlashini ta'minlash;
- mashg'ulotlarning loyihalashtirilishiga e'tiborning qaratilishi nafaqat o'qitish sifatini yaxshilay, samaradorligini oshiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuzivlikni qo'llash imkoniyati bo'yicha SWOT tahlili

S – afzalliklari	W – kamchiliklari
1. Inklyuziya kamsitilishning oldini oladi; 2. Imkoniyati cheklangan bolalarni oddiy bolalar qatoriga qo'shib, sifatli ta'limlashini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlari va harakatlarini rivojlantirishi; 3. AEBlar ham jamiyatning bir bo'lagi ekanligini his qiladi; 4. Erta tashxis orqali boladagi nuqsonni bartaraf etishga erishish mumkin; 5. Sog'lom bolalarda AEBlarni qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish - insonparvarlik hissi tarbiyalanadi; AEBlar yetarlicha g'amxo'rlik va mutaxassislar diqqat-e'tibori orqali ham kognitiv, ham ruhiy, ham jismoniy rivojlanib boradi.	1. Jamiyatga inklyuziya tushunchasini singdirish muammosi; 2. Mutaxassislar yetishmasligi (logoped, defektolog, psixolog); 3. AEBlar sog'lom bolalar tomonidan kamsitilishi; 4. AEBlarning hamma mashg'ulotlarda faol qatnasha olmasligi; 5. Ota-onalar bilan hamkorlik muammosi; 6. Maxsus ehtiyojli bolalar uchun o'quv dasturlari hali ham moslashtirilmagan; Infratuzilma (texnik resurs) yetishmasligi.
O - imkoniyatlar	T- tahdidlar
1. AEBlarga o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi; 2. Bu ta'lim tizimi AEBlarga yaqinlari va tengdoshlari davrasida bo'lishga imkon beradi; 3. Hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali dunyoqarashi kengayib, hayotiy tajribasi oshadi; 4. Ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi; 5. Yotsirash, yakkalanish kabi stereotiplari yo'qoladi; 6. AEBlar bilan ishlashning samarali metodlarini yaratish imkoniyati; Jamiyat va davlat taraqqiyoti uchun AEBlar orasidan ham yangi iste'dodlar, g'oyalar egasi tarbiyalanishi mumkin.	1. Diskriminatsiya yuzaga keladi, hamma bolalar ham nuqsonli bola bilan ta'lim-tarbiya olishni xohlamaydi, ya'ni ularni qabul qila olmaydi; 2. Nogiron bolalardagi mavjud muammolarni o'rganish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish, bilim ko'nikmalarni hosil qilish ishlarining bir vaqtning o'zida yonma-yon ravishda olib borilishi qiyin kechishi; 3. Ushbu ta'limga o'zini oqlamas yo'qolib ketishi; Maxsus ta'lim tashkilotiga ehtiyoj kamayishi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta'limda pedagogik jarayonning mazmun komponenti alohida ehtiyojli bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tarkibning o'zgaruvchanligini ta'minlashdan iboratdir. Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo'lmish farzandlarni ma'suliyatini his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab yashashiga salmoqli ulush qo'shadigan munosib fuqarolar bo'lib yetishishlariga kata umid bilan qaraladi. Ko'plab mamalatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham imkoniyati chaklangan bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktablar mavjud ularning vazifasi esa ularni maxsus o'quv yurtlariga tayyorlash hamda ijtimoiy hayotga moslashuviga shart-sharoit yaratishdir.

Maktab va maktabgacha inklyuziv ta'lim qachon ushbu jarayonga tayyor bo'ladi?

- inklyuziv ta'lim- tarbiya bosqichini modernizatsiyalashning vazifalaridan biri sifatida belgilansa;

- maktab va maktabgacha sifatlil ta'lim tushunchasi doirasida jismoniy va ruhiy jihatdan imkoniyati cheklangan bolalarning ham ishtiroki ta'minlansa;

- oilalar, pedagogik jamoalar, rahbar xodimlar orasida maktab va maktabgacha yoshdagi jismoniy va ruhiy rivojlanishida imkoniyati cheklangan bolalar alohida maxsus ta'limga jalb etilishi kerak, degan fikrlarga barham berilsa;

- Har bir shahar va tuman Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan biri inklyuziv resurs markazi sifatida belgilansa;

- Ota-onalarning qonuniy xabardorligi oshirilsa.

Jamiyatda har qanday shaxsga uning qiziqishlari, ehtiyojlari, imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ta'lim turini tanlash huquqi berilishi kerak. Shubhasiz, jamiyatning tuzilishi qanchalik murakkab bo'lsa, ijtimoiy tabaqalanish va qiyinchiliklar shunchalik katta bo'ladi. Ushbu muammoni ijobiy hal qilmasdan, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlariga tajovuz qilish, ularning qadr-qimmatini mensimaslik va ijtimoiy kamsitish ko'rinishlariga barham bermasdan turib hech bir davlat sivilizatsiyalashgan mamlakatga aylanmaydi.

Maktabgacha alohida ehtiyojli bolalar inklyuziv ta'limini takomillashtirish yo'nalishlari quyidagilarga asoslanadi:

- erta tashxisni yo'lga qo'yish;

- maxsus ehtiyojli bolalarga nisbatan jamiyatda ijobiy munosabat uyg'otish;

- ota-onalar va hamjamiyatning ishtirokini kuchaytirish;

- o'qitish uchun zarur vosita va asbob-uskunalarining mavjudligini ta'minlash;

- ta'limmuassasalarini jismoniy va ruhiy rivojlanishida kamchiligi bor bolalarga ham imkoniyat yaratishni e'tiborga olgan holda moslashtirish;

- kadrlar tayyorlash jarayonida islohotlarni amalga oshirish;

- pedagoglarning inklyuziv malakasini oshirish uchun tez-tez seminar-treninglar o'tkazish;

- inklyuziv ta'limni joriy qilish bo'yicha xalqaro va milliy tajribalarga asoslangan holda, multimedia kutubxonalarini tashkil etish va ularni ommaga targ'ibot qilish;

- har bir umumiy Maktabgacha ta'limtashkilotlari tasarrufida inklyuziv ta'limni targ'ibot qilish, o'quv metodik majmualar, dasturlar bilan ta'minlash va joylardagi mahalliy xalq ta'limi organlari bilan o'zaro aloqa o'rnatish, axborotlarni yetkazish vazifasini bajaruvchi pedagoglar, ota-onalar ishtirokida jamoaviy kengash tuzish talab etiladi.

Inklyuziv ta'limning asosiy g'oyasi – bu bolani ta'limtizimiga kirishga tayyorlash emas, balki ta'limtizimini ularga (har xil turdagi bolalarga) moslashtirishdir. Shunisi muhimki, inklyuziv ta'limjamiyatda har bir shaxsni ruhan sog'lom va o'z o'rniga ega, pozitiv fikr lay oladigan bo'lib shakllanishiga kuchli ta'sir qiladi. Bu esa jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish va intellekt imkoniyatlarini to'la namoyon eta olmaslik muammosining barham topishiga zamin yaratadi.

Fodalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi «Nogironlar huquqini ijtimoiy himoyalash to'g'risida»gi Qonun -1991 yil.

2. "Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'limto'g'risida muvaqqat Nizom"- XTV 234-sonli buyrug'i-2005 yil 19 sentyabr.

3. "Nogiron shaxslar huquqlari" to'g'risidagi Deklarasiya (1975 yil)

4. "Bola huquqlari to'g'risidagi" Konvensiya -1989 yil;

5. R.Shomaxmudova "Inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy asoslari"- Razzoqov O.J.- Toshkent-2007 yil

**BO'LAJAK O'QITUVCHILAR UCHUN JISMONIY TARBIIYA MASHG'ULOTLARIDA SOG'LOM
TURMUSH TARZI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY-METODIK
IMKONIYATLARI****H.I. Pozilov****Qo'qon universiteti Ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi,
A.Yu. Maxkamov
Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrasida dosenti,
pedagogika bo'yicha falsafa doktori (PhD).**

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilar uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlari orqali sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishda amaliy imkoniyatlar faol jismoniy harakat, chiniqish, muntazam jismoniy harakatlarni amalga oshirish, kun tartibini to'g'ri va oqilona rejalashtirish, to'g'ri va sifatli ovqatlanish, atrof muhitni toza saqlash va ekologik madaniyatni shakllantirish, psixogigienik talablarga rioya etish, zararli odatlarga yo'l qo'ymaslik xususidagi amaliy-metodik tavsiyalar bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit suzlar: Bo'lajak o'qituvchi, sog'lom turmush tarzi, zararli odatlar, ijtimoiy sog'lomlashtirish, faol jismoniy harakat, anketa so'rovi, psixogigiena talablari.

Bugungi kunda yoshlarda sog'lom turmush tarzi shakllanishining ahamiyati yana ham oshib bormoqda. Yosh avlod har xil ta'sirlarga o'ta beriluvchan bo'ladi. Bu davrda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga zarur bo'lgan ongli shaxsiy faoliyat mukammallashadi. Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, shakllantirish, aholi salomatligini mustahkamlash va inson umrini uzaytirish, yuqumli va boshqa kasalliklar, zararli odatlarning oldini olish, jismoniy faollik, to'g'ri ovqatlanish hamda mehnat qilish, o'z vaqtida dam olish, shuningdek gigienik ko'nikmalarga rioya qilish kabilarga qaratilgan qator chora-tadbirlarni ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq qilish aholi turli guruhlari, ayniqsa, talaba-yoshlar hayotida katta ahamiyatga ega.

Jamiyatni ijtimoiy sog'lomlashtirish tamoyillari asosida olib borilayotgan islohotlar yurtimizda ijtimoiy sog'lom muhitni hamda barkamol insonlarni, sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishga qaratilgan. Bu esa, xalq salomatligini mustahkamlash, turmush tarzini yanada yuksaltirish orqali amalga oshiriladi. Zero, xalq salomatligini ta'minlash tabiiy atrof-muhit holati bilan bir qatorda, ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liqdir. Demak, inson sog'lig'i - davlat mulki hisoblanadi. Shuning uchun ham insonning biosotsial salomatligini asrash yo'li orqali ijtimoiy muhit holatini ta'minlashga intilish - davlat ahamiyatiga molik vazifalardandir. Shuni ham alohida e'tirof etish lozimki, faqat tana salomatligi muvaffaqiyatlar garovi bo'la olmasligi mumkin. Tana salomat bo'lgani bilan ruh, fikr nosog'lom bo'lsa, albatta noqulay vaziyatlarga olib keladi. Bu esa, jamiyat sog'lom turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Insonning jismoniy salomatligi hamda ma'naviy-axloqiy kamolotida ijtimoiy muhitni takomillashtirish bugungi davrda dolzarb ijtimoiy vazifalardan bo'lib qolmoqda.

Turmush tarzi - bu insonning ma'lum maqsad asosida o'zining yashashi, hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan turmush sharoitlarini o'zlashtirish usuli. Turmush tarzini insonning ayrim odat, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish usuliga ko'ra sog'lom va nosog'lom turmush tarzi sifatida ikki guruhga ajratish mumkin.

Sog'lom turmush tarzi deganda quyidagilarni e'tiborga olish zarur:

- faol jismoniy harakat qilish, chiniqish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish;

- kun tartibini oqilona rejalashtirish va unga doimo amal qilish; jismonan va ruhan toliqishga yo'l qo'ymaslik; aqliy va jismoniy mehnatni gigienik talablar asosida to'g'ri rejalashtirish;
- to'g'ri va sifatli ovqatlanish;
- shaxsiy va umumiy gigiena talablariga rioya qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik madaniyatga erishish;
- yuqumli kasalliklar, jarohatlanish va baxtsiz hodisalarning ro'y berishini oldini olish;
- to'g'ri jismoniy tarbiya olish;
- psixogigiena talablari (haddan tashqari asabiylashish va hayojonlanishning oldini olish)ga amal qilish;
- zararli odatlarga berilmaslik (tamaki mahsulotlarini iste'mol qilmaslik, ichkilikbozlik va giyohvandlikka yo'l qo'ymaslik va h.k.).

Yuqoridagi mezonlarga asoslanib, quyidagi to'xtamga kelish mumkin:

Sog'lom turmush tarzi – bu insonning hayoti va salomatligi xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ko'nikmalarga ega bo'lish asosida hayotiy faoliyatni yo'lga qo'yish hamda salomatligini yuqori darajada bo'lishiga erishishni ta'minlovchi ijtimoiy hodisadir [5].

Talaba-yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish asosiy vazifasi hisoblangan, jismoniy tarbiya sohasidagi kerakli bilimlar, ko'nikma va malakalarni shakllantirib borib, onglilik, milliy g'urur, insonparvarlik, vatanparvarlik, baynalmillik, fuqarolik burchini his etishdek zarur fazilatlar tarbiyalanadi. Mashqlarni bajarishdagi o'zaro yordam va o'yinda bir-birini qo'llash, berilgan topshiriqlarni birgalikda bajarish, bolalarda do'stlik, o'rtoqlik, birodarlik hissini rivojlantiradi.

Jamiyatimizning hozirgi kundagi, ham son jihatidan, ham faolligi bo'yicha, ham kelajagimiz poydevori sifatida istiqboldagi yetakchi va hal qiluvchi kuch hisoblangan yoshlarimiz, shu jumladan o'quvchilar, talabalar va ularning salomatligi, sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi bilimlari, amaliy malaka va ko'nikmalari va ularga qay darajada samarali va to'g'ri rioya qilishi millatimizni, xalqimizni kelgusi istiqboldagi yuksalish darajasini belgilab beradi.

Ana shu nuqtai nazardan qaralganda, o'quvchi yoshlarning sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi ilmiy jihatdan asoslangan bilimlarini batafsil va to'liq o'zlashtirishlari, unga rioya qilish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish, yanada takomillashtirish har doim ham o'z muhimligini va dolzarbligini saqlab kelgan.

Tadqotimizning davomida ana shu maqsadda dastlabki holatni o'rganish bo'yicha tajriba-sinov maydonchalari sifatida belgilab olgan ta'lim muassasalarimizda anketa-so'rovlarini o'tkazdik.

Ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya olayotgan yoshlarning sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi bilimlari, sog'lom turmush tarziga rioya qilish malaka va ko'nikmalari hamda ularga rioya qilish darajasini aniqlash hamda yoshlarda salomatlik qadriyatlarini takomillashtirish maqsadida so'rovnoma o'tkazildi. Ishni tashkil etish jarayonida talaba - yoshlarning sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi nazariy bilimlarini aniqlash, unga amalda rioya qilish malaka va ko'nikmalarini shakllanganlik darajasini o'rganish uchun QDPI Jismoniy madaniyat fakulteti talabalari 2-bosqich talabalari o'rtasida **anketa so'rovnoma** o'tkazilib unga kura jami 65 nafar talaba yoshlar anketa savollariga javob berib o'z fikrlarini bildirdilar. Anketaga "Sog'lom turmush tarzi" bizga, xususan yoshlarga kerakmi?, "Sog'lom turmush tarzi tushunchasini bilasizmi?", "Sog'lom turmush tarzining asoslariga nimalar kiradi?", "Sog'lom turmush tarzining nazariy bilimlarini qay darajada o'zlashtirgansiz", "Sizning oilangizda sog'lom turmush tarziga qay darajada rioya qilinadi?" singari savollar kiritildi. Anketa so'rovida ishtirok etishga rozilik bildirgan talabalar berilgan savollarga hozirjavoblik va yetarli darajada bilimdonlik bilan javob qaytardilar.

Shunday qilib, o'quvchi yoshlar bilan o'tkazilgan anketa so'rovi natijalari quyidagilarni aniqlash imkonini berdi:

- yoshlarimiz harqanday kutilmagan savol berilganda ham o'zlarini yo'qotmagan holda hozirjavoblikni va yetarli darajada bilimdonlikni namoyish eta oladilar;

- "Sog'lom turmush tarzi" bizga, xususan yoshlarga kerakmi? degan savolga respondentlarning 14 tasi (27,2 %) "Juda kerak va muhim" va yana 47 tasi (53,6 %) "Albatta kerak" deb javob berganlar. Demak, asosiy qism (80,8 %) talabalar sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini va zaruriyatini tushunadilar. Yana 3 tasi (8,8 %) ikkilanib javob berdi.

Jismoniy madaniyat yo'nalishi ishchi o'quv rejasi asosida o'quv jarayoni umummetodologik, gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar, umumkasbiy fanlar, ixtisoslik fanlari, qo'shimcha fanlar bloklari doirasida tashkil etiladi va ixtisoslik doirasidan kelib chiqib fanlar taqsimlangan:

Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi fan dasturi. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqilgan va QDPI uchun tayanch OTM sifatida namunaviy fan dasturlari sifatida foydalanib kelinadi.

Ushbu fanda nazariy qism uchun fanning maqsadi va vazifalari, sport boshqaruvining nazariy asoslari, jismoniy tarbiya tarixi va fanga doir nazariy ma'lumotlar yoritib o'tilgan. Fan asosida bo'lg'usi o'qituvchilar uchun Jismoniy tarbiya va sport boshqaruvida ishtirok etuvchi davlat idoralar, boshqarishning jamoat tashkilotlari ya'ni "Mahalla", "Navruz", "Ekosan", "Nuroni", "Sog'lom avlod uchun", xayriya jamg'arma uyushmalari, "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazlari, "O'zbekiston yoshlar ittifoqi" kengashining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyati haqidagi nazariy ma'lumotlarga ega bo'lishlari yuzasidan ma'lumotlar berib o'tilishi belgilab qo'yilgan.

Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda aholi turar joylarida ommaviy sog'lomlashtiruv jismoniy tarbiyasini va milliy va harakatli o'yinlarni tashkil qilish orqali Ommaviy sog'lomlashtirish va milliy va harakatli o'yinlarni aholi turar joylarida, umumiy ishlab chiqarish va ta'lim muassasalarida tashkil etish, ijtimoiy turmush madaniyatini rivoshlantirish uchun turli siyosiy partiyalar, jamg'arma va uyushmalarning o'rni va ularning mazmuni hamda vazifalari, aholi o'rtasida "Alpomish va Barchinoy" maxsus testlari asosida olib boriladigan ishlar mazmuni haqida nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish belgilab qo'yilgan. Mavzular asosida yoritib berilayotgan ma'lumotlar bo'yicha jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy-tarbiyaviy va manaviy moxiyatini o'rgatish, insonning ruhiyati uning ijtimoiy turmushi va ta'lim tarbiya jarayonida asosiy omil ekanligi inobatga olingan.

Shu sababdan o'qitish tarbiya berish yoshlarning va aholining barcha qatlamini ma'naviy va jismoniy komolotini tarbiyalab yetishtirish, ijtimoiy psixologik va pedagogik jarayonlarni alohida o'rni borligi buni esa bo'lajak o'qituvchilar bilishi va o'rganishi lozimligi bo'yicha mavzular sifatida kiritilganini ko'rish mumkin.

"Valeologiya asoslari" fan dasturining tahlilini amalga oshirganimizda, dastur kirish, O'quv kursining maqsadi va vazifalari, kurs bo'yicha talabalarning bilimi, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar, kursning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi hamda kursni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar kabi bo'limlardan iborat.

Kirish qismida, **"Valeologiya"** – bu inson salomatligi to'g'risidagi fan bo'lib, inson kamolotining muhim tarkibiy qismini, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini o'rganadi, degan ta'rif keltirilgan.

Shu bilan birga, sog'lom avlod g'oyasini amalga oshirishda quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda:

- milliy genofondni saqlash, milliy mentalitetni kuchaytirish;
- jismoniy va ma'naviy jihatdan sog'lom avlodni tarbiyalash;

- erkin va mustaqil, kuchli va sofdil avlodni o'stirish;
- iqtidorli va sog'lom fikrli, to'g'ri mulohaza yurituvchi erkin yoshlarni tarbiyalash.

Bu g'oyalar talabani jismoniy, psixologik salomatlik asosida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalariga o'rgatish, organizmning umumiy va reproduktiv salomatligi bilan tanishtirish, bundan tashqari barkamol avlodni shakllantirish, shaxs va millat salomatligini saqlash va mustahkamlash yo'nalishiga mos keladi.

Sog'lom turmush tarziga o'rgatishning va uni tashkil etishning haqiqiy amaliyotida ulg'ayib borishning turli bosqichlarida motivatsiyani shakllantirishning eng samarali uslublarini va uslubiy usullarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

1-jadval. Salomatlikni va sog'lom turmush tarziga o'quvchilarning qiziqishini shakllantirishni pedagogik usullari

t/r	Usullar	Samaradorlikning asoslanishi
1	Talabalarni sog'lomlashtirish faoliyatiga jalb etish amaliy	Kundalik hayotda foydalanadigan hamda kerakli hayot darajasini saqlashga yo'naltirilgan sog'lomlashtirish faoliyati malaka va ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Usuldan foydalanishning muntazamligi sog'lomlashtirish faoliyatini odatiy va majburiy bo'lishiga xizmat qiladi.
2	Mustaqil kuzatish, mustaqil nazorat, mustaqil tahlil qilish.	Talabalarni o'z organizmi holatiga e'tiborini qaratadi; mustaqil kuzatish, mustaqil nazorat qilish natijalari o'z turmush tarzini individual o'zgarishlarga mos holda boshqarish imkonini beradi.
3	Talabalarning individual namoyish etish yutuqlarini	Talabalarni o'z kuchlariga ishonish, o'z imkoniyatlarini baholash imkonini beradi va bu muvaffaqiyatlarga bo'lgan talabni amalga oshirish imkonini beradi.
4	Rag'batlantirish, ma'qullash	Tashqi rag'batlantirish muvaffaqiyatlarga fundamental ijtimoiy talabni amalga oshirish imkonini beradi.
5	Tashqi rag'batlantirish muvaffaqiyatlarga fundamental ijtimoiy talabni amalga oshirish imkonini beradi.	Salomatlik - inson hayotining muhim kategoriyasidir va har bir o'quvchi o'z salomatligini saqlash bo'yicha ma'lum hayotiy tajribaga (eng kam bo'lsa ham) ega. Bu tajriba shaxsan ma'lum ahamiyatga ega va atrofdagilar tomonidan yoki o'zi mustaqil baholashi mumkin.
6	O'quv materialini mazmunini tuzishda yorqin faktlardan, qiziqarli raqamlardan, tarixiy ma'lumotlardan, sog'lom turmush tarzi namunalaridan foydalanish	Talabaniing emotsional sohasiga ta'sir ko'rsatish. Ijobiy emotsional rang-baranglik taklif etilayotgan materialni o'zlashtirishga va qabul qilishga maqbul ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy o'rganish effekti imkoni mavjud.
7	Turli-tuman aqliy hujum jarayonlari (o'yinlar, quvnoqlar va zukkolar klubi, aqliy hujum, munozaralar va boshqalar)	Salomatlik va sog'lom turmush tarziga qiziqishini kuchaytirishga xizmat qiladigan kognitiv va emotsional sohalarga hamda bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlashga ta'sir o'tkazish.
8	Teskari aloqa usullari	Oraliq natija qayd etiladi, o'quvchilar bilan birgalikda sabab-oqibat aloqalari aniqlanadi, keyingi masalalar qo'yiladi.

Bizning kuzatishlarimiz sog'lom turmush tarzi motivatsiyalarini shakllantirish jarayoni, yuqorida biz aytib o'tgan o'qitish (bilish va amaliy) usullaridan hamda ayrim uslubiy amallardan foydalanishga asoslanganligini ko'rsatadi.

Sog'lom turmush tarziga gorizontol o'qitish jarayoni ta'limning, tarbiya va rivojlanishning turli vosita va usullaridan fanlararo, shuningdek umumiy va jismoniy madaniyat, asosiy va qo'shimcha ta'lim, oilaviy tarbiya, o'zini mustaqil tarbiyalash bilan o'zaro bog'lanish asosida keng foydalanib amalga oshirishini tavsiya etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 92 b.

2. Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yetti yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // –Xalq so'zi||, 2018 yil 1 sentyabr

3. Qurbonov Sh. Q. Ehtiyojdan ko'p va kam ovqatlanish sabablari, oqibatlari, fiziologik mexanizmlari va oldini olish yo'llari. /O'zb.biol jurn. 2004, № 3, 94-107 betlar.

4. Xankeldiev SH.X., Abdullaev A.A. Problemi postroeniya normativnix osnov gosudarstvennix standartov po fizicheskomu vospitaniyu. //Fan-sporta, 2005, № 1 – s. 20-23

5. Shayxova X.O., Tillaeva G.H. Sog'lom turmush tarzi va yoshlar kamoloti. -T.: Falsafa va huquq in-ti, 2007. - 60-bet.

RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALAR LUGAT BOYLIGINI RIVOJLANTIRISH**B.Obidova****Qo'qon universiteti talabasi,****N.Q.Abidova****Qo'qon universiteti dotsenti****Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

Annotatsiya ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning ehtiyoji uning jamiyatga va maxsus ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning imkoniyatlari haqida yoritilgan. Jamiyatda Imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan yanglish fikr va munosabatlar bildirilgan. Integratsiyalashgan ta'lim haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar, integratsiya, reabilitatsiya, funksional, huquq, uzviylik, fikr

Ruhiy rivojlanishi sustlashganlik tushunchasi- aqli zaiflik singari ruhiy- pedagogik tushuncha bo'lib, bolalarning ruhiy rivojlanishini orqada qolishini ifodalaydi. Bunday orqada qolishning asosiy sabablariga bosh miyaning minimal, yuzaki, yengil zararlanishi kiradi. Nohush ijtimoiy omillar asosiy sabab emas, balki ikkilamchi sababga kiradi.

Rivojlanishning orqada qolishi deganda, biz bolaning ruhiy rivojlanishini bola yoshiga mos kelmasligini tushunamiz. Bunday nomutanosiblik o'z vaqtida tashkil etilgan yordam natijasida bartaraf etilishi mumkin.

Maktabgacha yosh- bolalar hayotidagi eng muhim davr bo'lib, bu davrda bolaning tashqi olam haqidagi bilimlari kengayadi va maktab ta'limiga tayyorlanadi. Tashqi olam haqidagi bilimlarni olish va o'z fikrlarini bildirishlari uchun bolalar nutqi rivojlangan bo'lishi kerak. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar nutqi esa yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Bir guruh olimlarning fikricha, ruhiy rivojlanish sustlashish zamirida markaziy nerv sistemasining minimal organik buzilishi yotsa, aksariyat mualliflar- miyaning minimal disfunktsiyasi yotadi,- deb aytadilar. M.S.Pevzner, I.F.Markovskaya ruhiy rivojlanishi sustlashishning kelib chiqishi bosh miyaning peshona qismi pishib yetilmaganligi natijasi deb biladilar.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalardagi nutq nuqsonlari ko'p hollarda tizimli xarakterga ega bo'lganligi sababli, nutq tizimining ko'p tomonlarini qamrab olgan, ya'ni bunday bolalar o'ziga xos ravishda rivojlangan.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda ham impressiv ham ekspressiv nutq, ogzaki va yozma nutq kamchiliklari ko'p uchraydi.

Z.Trjesoglovaning ta'kidlashicha, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning impressiv nutqida, nutqiy idrokni, nutqiy tovushni, ayrim so'zlar mazmunini, to'liqsiz, kamchilik bilan farqlash kuzatiladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning ekspressiv nutqida tovushlar talaffuzi buzilishi, lugat boyligining kambagalligi, nutq grammatik tizimining kerakli darajada shakllanmaganligi kuzatiladi. (N.Y.Boryakova, G.I.Jarenkova, A.D.Koshedova, YE.V.Malseva, B.F. Sobatovich, R.D.Triler, S.G.Shevchenko).

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning lugat boyligi rivojlanishi bolaning tashqi olam haqidagi ma'lumotlarni idrok qilishi, aniqlashi va anglashiga chambarchas bogliqdir. Lugatning kambagalligi hamda noaniqligi so'zlarni bir-biridan ma'lum jihatdan farqlay olmasligi, ya'ni differentsiallanmaganlik ularga xosdir. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar lugat asosan sodda va kundalik lugat bilan chegaralanadi.(S.G.Shevchenko, YE.V.Malseva, Z.Treyesoglova).

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar lugatining o'ziga xosligi atrofdagi olam qonun-qoidalari, hodisalarini anglashda qiyinchiliklar, obyektiv olam haqidagi tasavvurning cheklanganligi haqidagi tasavvurning cheklanganligida hamda aqliy faoliyatning o'ziga

xosligida namoyon bo'ladi. Bola lugat boyligining shakllanishi esa, uning psixik rivojlanishi va tevarak olam haqidagi tasavvurlarini rivojlanishiga bogliq.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy, fiziologik, psixologik jihatdan taraqqiy topganliklari, zarur ko'nikma va malakalarning shakllanganligi muhim hisoblanadi. Bolalarni psixik jihatdan tayyorgarliklarining mezonlari quyidagilar:

- 1) Atrof muhit haqidagi bilimlar va tasavvurlarning kengligi;
- 2) Aqliy jarayonlarning faolligi;
- 3) Nutqning to'liq egallanganligi. So'z boyligining rang-barangligi, boglangan nutqning shakllanganligi;
- 4) Bilish jarayonlarida turli qiziqishlarning rivojlanganligi; ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar
- 5) Odob-axloq malakalarining tarkib topganligi.

YE.I.Skiotis fikricha ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar mustaqil nutqida faqatgina o'zga tanish bo'lgan kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan lugatdangina foydalaniladilar. (Zikeyev A.G.)

Ruhiy rivojlanish sustlashganlikda ruhiy rivojlanish tezligi, surati sekinlashgan bo'ladi. Yuqoridagilar bilan birga, ruhiy rivojlanish sustlashgan bolalarda intellektual tomonlarga nisbatan ko'proq, hissiyotbuzilishlari yetakchi o'rinda turadi. Bu buzilishlar ruhiy yoki jismoniy infantilizm ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Infantilizm – tom ma'nodagi “bolalikdir”, bolaning umumiy qiliqlari, qiziqishlari o'z yoshiga mos bo'lmay, balki, birmuncha yosh bolalarni eslatsa, biz bunday bolalarga nisbatan, psixo – fizik infantilizm iborasini qo'llaymiz. Masalan, bola 7 yoshga kirib, maktabga borish muddati kelgan bo'lsa –da, bola o'zini 5 yoshli boladek tutadi. Unda jonli, o'zidan yosh bolalardagidek qiziqishlar bo'ladi. Agar bola yana biror yil taraqqiyot etsa, o'z tengdoshlariga o'xshab ketishi mumkin.

Lugat—til tizimining muhim qismi bo'lib, umumta'lim va amaliy ahamiyatga ega. Lugatning boyligi bola nutqini yuqori rivojlanayotganligidan dalolat beradi, shuning uchun lugat boyligini rivojlantirish muammosi bugungi kun logopediyasida muhim o'rinni egallaydi.

So'z o'zida asosiy til birligini ifodalaydi, u murakkab qurilishga ega bo'lib, quyidagi asosiy qismlardan iborat, mazmunni anglatib, predmet tegishlilikini; lugaviy ma'noga, so'zni tushuncha bilan moslashishiga, kontekstli mazmunga ega. So'z bir-biri yuilan ma'no jihatdan bo'lanib, aniq leksik tizimni tashkil etadi. Murakkab ma'noviy boglanishlar semantik maydonni, leksik tizimlilikni shakllantiriladi. Lugat rivojlanishi jarayonida so'z paradigmatic va sintagmatic bogliqlik tizimiga qo'shiladi. Bu so'z ma'nosining tizimli aspekti hisoblanadi.

Umumdidaktik tamoyillar lugat boyligini shakllantirish jarayonini pedagogik ta'sirni belgilash imkonini beradi:

1. So'z ustida ishlash maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof olam bilan tanishtirish va bilish faoliyatlarini rivojlantirish bilan olib boriladi
2. Lugatni rivojlantirish nutqni to'liq rivojlantirish bilan uzviy bogliq ravishda olib boriladi.
3. Lugat ishi bilan bogliq barcha vazifalar bitta va aniq ketma-ketlikda hal etiladi.
4. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni lugat boyligini rivojlantirish psixik jarayon va aqliy qobiliyatni rivojlantirish bilan birgalikda olib boriladi.

Biz tomondan taklif etilgan lugat ustida ishlash tizimi 3 ta bosqichda o'z ichiga oladi:

Birinchi bosqich. Leksik birliklar haqidagi tasavvurlar va birlamchi amalga oshirish;

A) yangi so'z bilan tanishtirish, bolalar diqqatini shu so'zga qaratish, nutqiy sharoitlarni tashkil etish, kommunikativ tashabbusni rivojlantirish;

B) so'zni talaffuzini aniqlashtirish

Ikkinchi bosqich. Mashqlar bajarish jarayonida so'zning leksik ma'nosini kengaytirish va aniqlash

- A) nutqiy tayanch sifatida funksional-semantik grafik sxemalarni qo'llash;
- B) nutqiy mashqlar, topishmoqlar
- V) so'zlarni leksik-semantik birligini, bu bogliqliklarni turli-tumanligi;
- G) leksik birliklarni ularni semantik, paradigmatic va sintagmatik tavsiflarini qo'llash xususiyatlarini o'zlashtirish;

Uchinchi bosqich. So'zlarni boglangan, mustaqil nutqda qo'llash, faollashtirish:

- A) dialoglar, boglangan nutqga tayyorlash;
- B) gapirib berish, hikoya qilish, dramalashtirish.

Taklif etilgan lugat boyligini rivojlantirish ish tizimi individual, guruhli va kichik guruhli mashgulotlarda amalga oshiriladi. Lugat ishi tarbiyachi bilan hamkorlikda nafaqat mashgulotlarda, mashgulotlardan tashqari o'yin, mehnat, ijodiy va maktabgacha yoshdagi bolalar maishiy faoliyati jarayonida olib borildi. Nutqiy korreksion ishni guruhli mashgulotlarda rivojlantirishni rejalashtirilishida biz bolalarni atrof-olam haqidagi bilimlari va tasavvurlari hisobga olish lozimligini alohida e'tiborga olish zarurligini e'tirof etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. K.K.Mamedov, G.B. Shoumarov, V.L.Godobed "Ruhiv rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida" Toshkent 1993 y "O'qituvchi"
2. I.D.Konenkova «Obsledovaniye rechi doshkolnikov S ZPR» Moskva 2004 g Izd «Gnom i D»

**INKLUZIV TA'LIM JARAYONIDA AQLI ZAIF BOLALARGA MATEMATIKA O'QITISH
VAZIFALARINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

M.Abdullayeva
Qo'qon universiteti talabasi,
N.Q.Abidova
Qo'qon universiteti dotsenti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya Maqolada Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyoj uning jamiyatga va maxsus ehtiyojli bolalar uchun imkoniyatlar haqida yoritilgan. Jamiyatda Imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan yanglish fikr va munosabatlar bildirilgan. Integratsiyalashgan ta'lim haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv, integratsiya, reabilitatsiya, funksional, huquq, uzviylik, fikr, dialektik, uzviylik

Mustaqilligimiz poydevorini mustaxkamlash hamda O'zbekistonni buyuk davlatga aylantirishda ta'lim-tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish, yoshlarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish muxim axamiyatga ega. Zero, taraqqiyot taqdirini ma'naviy jixatdan yetuk, irodasi baquvvat, iymoni butun, zamonaviy fikrlaydigan, muayyan kasb-xunarga ega bo'lgan yuksak salohiyatli kishilar xal etadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga sifatli ta'lim-tarbiya berish, me'yorda rivojlanayotgan tengdoshlari singari o'z qobiliyati va imkoniyatlaridan foydalana oladigan inson qilib voyaga yetkazish, ularning jamiyatga erta, samarali va muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta'minlash dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Zamonaviy jamiyatning muhim vazifalaridan biri – bu alohida ehtiyojli bolalarga g'amxo'rlik qilish va ularga birinchi navbatda inklyuziv ta'limni joriy etish orqali sifatli ta'lim olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

Jamiyatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar yuz berayotgan bir vaqtda Vatan ravnaqini ko'zlash maqsadida asosiy e'tibor yoshlarning aqliy, ahloqiy, jismoniy barkamoligiga demak, har tomonlama yetuk, sog'lom avlodni o'stirishga qaratilyapti. Birinchi Yurtboshimiz aytganlaridek, "Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilishi bizning milliy xususiyatimizdir. Farzandlari sog'lom yurt, qudratli bo'ladi, qudratli yurtning farzandlari sog'lom bo'ladi".^[1] Sog'lom avlodni barkamol shaxs qilib shakllantirish g'oyatda ma'suliyatli vazifa, shu bilan birga insonparvar siyosat natijasidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev aytganlaridek: «Biz jamiyatimizdagi quyi pog'onadagi tartib, intizom va mas'uliyatni mutlaqo o'zgartirmoqchimiz. Eng zaif tomonimiz - yoshlar bilan shug'ullanmayapmiz. Buni gapirish oson, endi shug'ullantiradigan tizim joriy etishimiz kerak. Mas'uliyatli odamlarni shu lavozimlarga qo'yishimiz kerak.»^[2] Hayotimizni hal etuvchi muhim masalalar qatorida ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, uni yangi zamon talabi darajasiga ko'tarish, barkamol avlod kelajagiga ham daxldor qonun loyixalari mavjud. Millatning alohida himoyaga muhtoj nogiron shaxslarga bo'lgan munosabati jamiyatning ma'naviy va axloqiy ko'rsatkichlarida ifodalanadi."Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 23-bandi jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish, ularni tarbiyalash, da'volash, reabilitatsiya qilish uchun ixtisoslashtirilgan yoki umumta'lim muassasalariga yuborish va ulardan chiqarish ota-onalarning yoki boshqa qonuniy vakillarning roziligi bilan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning xulosalariga binoan

amalga oshirilish hamda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining o'quvchilari qisman yoki to'la Davlat ta'minotida bo'lishi qayd etilgan.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

Biz amalga oshirayotgan iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o'zgarishlarning samarasi, birinchi navbatda, aholining moddiy ahvoli va farovonligini, uning hayot darajasi va sifatini oshirishga qay darajada ta'sir ko'rsatayotgani bilan o'lchanadi.

Shu maqsadda ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdorini bosqichma-bosqich oshirib borish bo'yicha biz aniq chora-tadbirlarni rejalashtirganmiz va ular albatta amalga oshiriladi.

2017 yildan boshlab aholini, avvalambor, litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash masalasi bo'yicha yangi tizim joriy etiladi.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan 15 ta maqsadli dasturning ayrimlari qabul qilinib, ularning ijrosiga kirishildi va yaqin vaqt ichida shu yo'nalishdagi boshqa dasturlarning barchasini tasdiqlash bo'yicha ishlar to'liq yakunlanadi.

Hamamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan - shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergan ham - shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar kilib saylagan ham aynan shu xalq.

Shunday ekan, biz birinchi navbatda kim bilan muloqot qilishimiz kerak - odamlarimiz bilan.

Oldimizda turgan keng ko'lamlı vazifalarni samarali hal etish, eng avvalo, davlat rahbari sifatida shaxsan mendan, davlat hokimiyatining uchta tarmog'idan, shuningdek, barcha rahbar va mansabdor shaxslardan qat'iy intizomni talab etadi.

Ishimizni to'g'ri tashkil etish, uning samaradorligini ta'minlash, butun boshqaruv tizimi faoliyatini sifat jihatidan zamon talablari darajasiga ko'tarishni butun hayotning o'zi talab etmoqda.

Albatta, biz rejalashtirayotgan barcha o'zgarishlarning nihoyatda ko'pqirrali va o'ta muhim ekanini men chuqur tushunaman.

Biroq, yo'limizda qanday to'siq va qiyinchiliklar, keskin va dolzarb muammolarga duch kelsak ham, shoshma-shosharlik bilan, pala-partish qarorlar qabul qilishga, yaxshi o'ylab qurilmagan xatti-harakatlarga yo'l qo'yishga haqqimiz yo'q.

Bizning vazifamiz - to'plangan tajriba va ilg'or xalqaro amaliyotga suyangan holda, o'zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat'iy amalga oshirishdan iborat. Shu borada yaqin va o'rta muddatga belgilangan marralarga erishish uchun qat'iyat bilan harakat qilishimiz zarur.

Shu maqsadda 2017-2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Darakat strategiyasini ishlab chiqish yaqin kunlarda yakunlanadi.

Bu siyosatning asosiy maqsadi shundan iboratki, biz har bir fuqaro o'zining kuch va imkoniyati, qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun keng sharoit va imkoniyat yaratib berishimiz kerak.

Oldimizda turgan mustaqil buyuk davlat qurishdek murakkab va sharaflı ish darajasini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun astoyidil harakat qilmog'imiz darkor. Har qanday ulug' maqsadlarga yetishish, yangi jamiyat, farovon turmushni qurish, inson zotiga munosib go'zal hayot barpo etish, avvalo, shu jamiyat a'zolari bo'lgan komil insonlarga, kelajak barkamol avlodga bog'liq ekanini esda tutishimiz lozim.

Har bir alohida yordamga muxtoj bola o'zicha alohida xususiyatlarga ega bo'ladi. Ya'ni unda umumiy, ruhiy xususiyatlaridan farqlanuvchi individual xususiyatlar mavjud.

Bolaning ilk rivojlanish davrida bosh miya po'stlog'ining organik jarohatlanishi aqliy zaiflikka sabab bo'ladi. Aqli zaif bolaning me'yorida rivojlanayotgan tengdoshidan farq qilishga olib keladi. Bir yoshdan boshlab aqli zaif bolalarda me'yor rivojlanishidan chetlashish kuzatiladi. Ular uzoq vaqtgacha harakatlanayotgan ob'ektni kuzatmaydilar, ularda bosh miya po'stlog'ining inteurativ funksiyasi buziladi.

Bolaning ilk rivojlanish davrida bosh miya po'stlog'ining organik jarohatlanishi aqliy zaiflikka sabab bo'ladi. Aqli zaif bolaning me'yorida rivojlanayotgan tengdoshidan farq qilishga olib keladi. Bir yoshdan boshlab aqli zaif bolalarda me'yor rivojlanishidan chetlashish kuzatiladi. Ular uzoq vaqtgacha harakatlanayotgan ob'ektni kuzatmaydilar, ularda bosh miya po'stlog'ining inteurativ funksiyasi buziladi. Bu esa oligofreniyada nuqson tuzilishining asosiy jabhalaridan biri. Har bir alohida yordamga muhtoj bola o'zicha alohida xususiyatlarga ega bo'ladi. Ya'ni unda umumiy, ruhiy xususiyatlaridan farqlanuvchi individual xususiyatlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2016. – 56 b.

2. Mirziyoyev SH.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.

3. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: "O'zbekiston". – 2017.- 102 b.

4. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MILLIY-MADANIY AN'ANALAR
QADRIYATINI OSHIRISH**

**Mirzakarimova Moxlaroy Zohidjon qizi,
Tursunova Gullola Azimjon qizi,
Qo`qon Universiteti Maktabgacha ta`lim
(sirtqi) yo`nalishi talabasi
Imomova Nozimaxon Avazxonovna
Qo`qon Universiteti Ta'lim kafedrası
falsafa fanlar doktori (PhD)**

Annotatsiya:Ushbu bitiruv malakaviy ishida xalqimizda bolalarga qadr-qimmat, burch va ma'suliyatni his etish halollik va rostgo'ylik, yaxshilik kabi xislatlarga ega bo'lish lozimligi qadim-qadimdan pand-nasihat vositasida uqtirilgan bo'lib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy madaniy an'analar qadriyatlar asosida tarbiyalash va boshqa millatlar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari mazmuni hamda oilada bolalarni milliy qadriyatlar vositasida axloqiy tarbiyalashning shakl, usul va yo'llari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: milliy qadriyat, madaniy-tarixiy meros, ma'naviy tarbiyalash, vatanparvarlik hissi, milliy qadriyatlar tizimi, o'z o'rnini saqlash, qon-qardoshlik, ma'naviy yaqinlik, o'tmish va ma'naviy meros, ona yurt tuyg'usi, xalq og'zaki ijodi, milliy qadriyatlar, maqollar, matallar, topishmoqlar, tarbiya.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, har bir davlatning barqaror taraqqiyoti hamda rivojlanishi inson omiliga, xususan, yosh avlodning ilmiy, ijodiy va ma'naviy salohiyatiga bog'liq. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi muammolari deyarli barcha mamlakatlar uchun umumiy masaladir. Yoshlar tarbiyasi mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida shunday dedi: "Bugungi dunyo yoshlari - son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda.Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga etishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olish. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. O'zbek xalqining asriy an'analari, jumladan, tarbiya sohasidagi an'analari ajdodlarimizning tabarruk dini bilan bog'liq. Yoshi kattalarga salom berish, ularni hurmat qilish, yoshi kichiklar va kuchsizlarni avaylash, ilm olish va kasb o'rganishga da'vat, halol mehnat qilishga chaqirish, qo'shnilar bilan xushmuomala bo'lish kabi an'analar ozbeklar oilalarida, ularning dinga munosabatlaridan qat'iy nazar, yoshlarga singdirib kelingan. Yoshlar tarbiyasida islom ma'rifatining muhim o'rnini e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2017-2018-yillarda qator g'oyalar va tashabbuslarni ilgari surdi. Jumladan, Samarqand viloyatida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, Termizda Imom Termiziy ilmiy tadqiqot markazi va Toshkentda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil qilish to'g'risida davlat rahbari va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari qabul qilindi. Buyuk ajdodlarimizning bebaho ilmiy-ma'rifiy meroslarmi o'rganishdan tashqari, ushbu muassasalarning asosiy vazifasi yoshlarni buyuk va shonli o'tmishga hurmat hamda iftixor bilan qarash, ulug' ajdodlarga munosib avlod bo'lishga, ilm va ma'rifat olishga intilish ruhida tarbiyalashdan iborat.

YUNESKO Bosh konferensiyasining 1995 yil 16 noyabrda bo'lib o'tgan 28-sessiyasida Bag'rikenglik tamoyillari to'g'risidagi Deklaratsiya qabul qilingan edi. Shundan buyon mazkur sana "Xalqaro bag'rikenglik kuni" sifatida nishonlab kelinadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad dunyo xalqlarini bag'rikenglikka, tinchlikni asrab-avaylashga hamda ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikka erishishga chorlashdir.

"O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar".

Shu ma'noda, mamlakatimizda istiqloq yillarida millatlararo ahillik va konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlash, ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu barcha sohada olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar, xalqimiz turmush darajasini yanada yuksaltirish yo'lidagi ezgu sa'y-harakatlarning muhim asosi bo'lib xizmat qilayotir.

Ular "xalq diplomatiyasi" mexanizmidan faol foydalangan holda, tinch hamda farovon hayotni asrash, xorijiy mamlakatlar bilan do'stona munosabatlar va madaniy-ma'rifiy aloqalarni rivojlantirish, chet eldagi hamyurtlarimiz bilan yaqin hamda o'zaro manfaatli munosabatlarni yo'lga qo'yishga salmoqli hissa qo'shayapti. Mamlakatimiz ta'lim muassasalarida o'qish 7 tilda olib borilmoqda. Teleko'rsatuv va radioeshittirishlar 12 tilda efirga uzatilayotir, gazeta hamda jurnallar 10 dan ortiq tillarda chop qilinayapti.

Aytish kerakki, mazkur yo'nalishdagi islohotlar Prezidentimiz SHavkat Mirziyoyev rahnamoligida butunlay yangicha ma'no-mazmun kasb etib bormoqda. Chunonchi, 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat etib belgilangan. Bugun shu asosda aholi, ayniqsa, yoshlar ongida insonparvarlik qadriyatlarini, turli millatlar vakillari o'rtasida o'zaro hamjihatlikni, yaqin qo'shnilarimiz bilan do'stona aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan ezgu ishlar olib borilayotir.

Davlatimiz rahbarining joriy yil yanvar oyida respublikamizdagi milliy madaniy markazlar faollari bilan uchrashib, ular bilan dildan muloqot qilgani, takliflari hamda fikr-mulohazalarini eshitgani ham bag'rikenglikning yuksak namunasi bo'ldi. Qolaversa, Yurtboshimizning 2017 yil 19 maydagi "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, Respublika baynalmilal madaniyat markazi hamda O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi negizida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi.

— Qo'mita zimmasiga jamiyatda millatlararo totuvlik hamda bag'rikenglikni ta'minlash, tinchliksevar siyosatni, mamlakat hayotining barcha sohasida erishilgan yutuq va muvaffaqiyatlarni keng targ'ib qilish, xalqaro hamjamiyat, shu jumladan, chet eldagi hamyurtlarimiz diasporasi bilan do'stlikni mustahkamlashga doir davlat siyosatini izchil amalga oshirish vazifasi yuklatildi,

— deydi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi raisi o'rinbosari Kamoliddin Eshonxo'jaev.

— Prezidentimiz g'amxo'rliги tufayli poytaxtimizning Bobur ko'chasida joylashgan muazzam bino O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasiga berildi. SHuningdek, bu binoning yonida joylashgan bog' "Do'stlik bog'i" deb nomlandi. Bog' hududida O'zbekistonda istiqomat qilayotgan millatlar vakillarining o'ziga xos

madaniyati, urf-odatlarini hamda pazandachilik an'analarini namoyish etishi uchun sharoitlar yaratilayotgani barchamizni behad quvontirdi. Bu juda katta imkoniyat va ayni paytda yuksak mas'uliyatdir. SHu orqali xalqimiz turli millatlarga mansub madaniyatlar haqida kengroq ma'lumotga ega bo'ladi.

Ayni paytda milliy madaniy markazlarga amaliy hamda metodik yordam ko'rsatib, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlab, millati, irqi va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, fuqarolar ongida ko'p millatli yagona oila tuyg'usini mustahkamlash, "O'zbekiston — umumiy uyimiz" tamoyilini amalga oshirish bo'yicha joylarda turli anjumanlar, uchrashuvlar, festivallar o'tkazmoqdamiz. Ularda milliy madaniy markazlar vakillari faol qatnashayotir. O'z navbatida, muqaddas zaminimizda turli millat hamda elatlar vakillarining an'ana va urf-odatlarini rivojlantirishi, milliy hamda diniy bayramlarini emin-erkin nishonlashi uchun ham zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Bularning barchasi o'zaro hamjihatlikni yanada ta'minlashga xizmat qilayapti.

— O'zbek va qirg'iz xalqlari azaldan bir daryodan suv ichib, yaqin do'st hamda qo'shni sifatida yashab kelgan. Tariximiz, madaniy va diniy qadriyatlarimiz, an'anayu urf-odatlarimiz mushtarak,

— deydi O'zbekiston qirg'iz milliy madaniy markazi raisi Rahmatulla Jabborov.

— Ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi hamda sa'y-harakatlari natijasida mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik va yaxshi qo'shniçilik munosabatlari yanada mustahkamlandi. Hukumatlar hamda hududlar darajasida delegatsiyalar tashriflari amalga oshirilayotgani ulkan samaralar berayotir. CHegaralardagi nazorat-o'tkazish punktlari faoliyati qayta tiklanishi natijasida aholi emin-erkin harakatlanishi uchun engilliklar yaratilayapti. Bundan hamma behad xursand.

Bugungi kunda respublikamizda qirg'iz millatiga mansub 300 ming nafardan ziyod aholi istiqomat qilmoqda. SHuni mamnuniyat bilan qayd etish joizki, ularning har biri O'zbekistonni o'z Vatani, uning rivojiga hissa qo'shishni esa muqaddas burchi, deb biladi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elatlar vakillari yaxlit holda O'zbekiston xalqini tashkil etadi. Ular bir-birlari bilan hamjihat bo'lib, yurtimiz ravnaqi yo'lida sidqidildan mehnat qilmoqdalar. Zero, bag'rikenglik tinçlikning bosh mezoni bo'lsa, tinçlik yuksak taraqqiyot garovidir.

Bolalar tarbiyasida tarixiy tajribalardan kelib chiqqan holda xalq tarbiyaning bir butun, yaxlit tizimini yaratdi. Bunda o'git-nasihatning ahamiyati kattaligi ta'kidlangan. Bu metod asosida tarbiyalashda xalq maqollaridan o'rinli foydalanilgan. Qadr-qimmat, burch va ma'suliyatni his etish halollik va rostgo'ylik, yaxshilik kabi xislatlarga ega bo'lish lozimligi pand-nasihat vositasida uqtirilgan. O'git-nasihat ertaklarda ham ko'p qo'llanilgan. CHunki ertaklar hayot maktabi bo'lib, ularda pand-nasihatning natijasi, echimi o'zini namoyon etadi. O'zbek xalqining milliy qadriyatlarida namuna ko'rsatish metodi ham ko'p qo'llaniladi. «Ravshanxon» dostonida ham ota, kampir, aka-ukalarda barcha ijobiy xislatlar mavjud bo'lib, insonparvarlik namunasini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlarining milliy shakllarini rivojlantirish maktabgacha ta'lim tashkiloti oldiga qo'yilgan muhim vazifalardandir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlari -ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlari nazarda to'tgan xolda, tarbiyachilarning tarbiyalanuvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: «O'zbekiston», 2014 y.

2. O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi Qonuni». // – Toshkent, 2008.
3. «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi».
4. I.A.KARIMOV "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" Toshkent "Ma'naviyat" 2008
5. Axlok - odobga oid Hadis namunalari. T. «Fan», 1990.
6. YUSUF XOS HOJIB – "Qutadgu bilig". T. «Yulduzcha», 1990. 4. Donishmandlar tarbiya haqida. T. «O'qituvchi».
7. O.TO'RAEVA. M. TUROPOVA. "Odobnoma".
8. ULFAT MAHKAMOV. Odob – axlok saboqlari.
9. AZIZOVA Z. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. -T., 2010.
10. SH. SODIKOVA "Maktabgacha pedagogika". Toshkent - 2013
11. BOBOYEVA D.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish jarayonida ertaklar asosida atrof-muhit bilan tanishtirish /Ilmiy to'plam. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2000. - 103-105-b.
12. G.I.XASANOVA "Ta'lim jarayonida dasturlashtirilgan ukitish texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari" Jizzax: 2020. 420 bet. 223-225b
13. XASANOVA, G. (2021). Oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ kobilyatlarini rivojlantirishning mazmuni. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 778-782.
14. RASULEV A.T., PO'LATOV A.A., QOSIMOVA M.U "O'zbek xalq o'yinlari ularning tasnifi va tavsifi" O'quv qo'llanma. T.1996-98 b

**BOSHLANG'ICH SINIF KAR O'QUVCHILARGA ESHITUV IDROKI VA TOVUSHLAR TALAFFUZ
MALAKALARINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI**

M.U. Xamidova
Nizomiy nomidagi TDPU,
Surpedagogika va inklyuziv ta'lim kafedrası, dotsent

Annotatsiya Ushbu maqolada, boshlang'ich sinif kar bolalarni maxsus ta'lim jarayonida eshituv idrokini va tovushlar talaffuzini axborot texnologiyalari orqali rivojlantirish samaradorligi yoritilgan

Kalit so'zlar: nutq, idrok, kinesteziya, avtomatizatsiya, temp, orfoepiya, korreksiya, operatsiya.

Ta'limni rivojlantirishning boshlang'ich bosqichida axborot kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash zaruriy ehtiyoj bo'lmoqda. Maxsus ta'lim muassasalarida kompyuterli o'yin dasturlaridan foydalanish bolalarda bir qancha pedagogik-psixologik funktsiyalarini amalga oshiradi va shakllantiradi: -charchoq va quvvatsizlikni yoqotadi; - o'z qobiliyat va iqtidorini namoyish qilish imkonini beradi; -mustaqil harakat qilish imkonini beradi; -hamkorlik qilish usullarini ishlab chiqish imkonini beradi; -muloqot qilish ko'rinishlarini shakllantiradi; - insonlar bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatadi; -o'z-o'zini nazorat qilishni shakllantiradi; -obrazli tasavvurlash va fikrlash rivojlantiradi; - nutq, ijodiy fikrlash va kognitiv qobiliyatlari rivojlanadi Kompyuterli o'yin dasturlaridan tashqari maktabgacha ta'lim muassasalari uchun kompyuterli nashrlar, shu jumladan virtual laboratoriya, ijodiy ishlanmalar, virtual sayohatlar va elektron axborot resurlari yaratilmoqdaki, ulardan foydalanish bugungi kunda o'z samarasini ko'rsatmoqda.

Karlarni talaffuziga o'qitishning ikkinchi masalasi shundan iboratki, tushunarli talaffuzni maksimal darajada etkazish. Ya'ni, ancha to'la va og'zaki nutqda uchraydigan iboralarni, fikrlarni ajratib talaffuz qilish.

Karlarni talaffuzga o'qitish berilgan ikkita masaladan tashqari yana boshqa masa-lalar ham mavjud.

Nutqiy kinesteziyalarga shunday nutqiy faoliyatlar kiradiki, ular labdan o'qish, og'zakinutqni eshituv va eshituv – ko'ruv orqali qabul qilish, o'qish va yozish.

Karlar talaffuzi yetarli darajada tez bo'lishi va uning nutq tempi gaplashayotgan nutq tempiga mos bo'lishi kerak, shuningdek karlar o'z nutqida so'zlashuv urg'usiga va orfoepik qoidalariga rioya qilishi kerak.

Kar bolalarni talaffuzga o'qitishning tarkibi, ularning ohzaki nutqi fonetik shakllanganligi, yuqorida ko'rsatilgan talablarga javob berish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Aniq va tushunarli talaffuz qilish talablaridan kelib chiqqan yana bir qator, nutqni fonetik shakllantirishning turli tomonlariga tegishli talablar mavjud. Ular: ovoz, so'zning fonetik ko'rinishi (orfoepiya, urg'u, bo'g'in ritmi va fonematik tuzilishi), jumlati intonatsiyalar, shuningdek umumiy temp va talaffuz qilishning aniq darajasi.

So'zlarni bir –biriga bog'lab talaffuz qilishga yordam beradigan nutqiy nafas ta-labini ham ko'rsatib o'tishimiz zarur.

Bu hamma umumiy va undan kelib chiqqan talablar, maxsus dasturda aniqlashtirilgan, kar bolalarni talaffuzga o'qitishning majmunda o'z aksini topgan.

Tayyorlov sinf - ishning birinchi bosqichi, so'zning tovush tuzilishi ustida olib boriladi. Bu bosqichda bolalardan 17 ta asosiy tovushlarni aniq talaffuz qilinadi, biroq tovushlarni boshqa tovushlar bilan almashtirish (tovushlarni oldindan qisqartirilgan tizimi bo'yicha) mumkin.

O'qitishda so'z va jumlar ustidagi ish bilan birga ovoz va nutqiy nafas ishlari ham kiritiladi. Bular ya'ni: normal tembrni ishlatish, ovozni normal kuchi va ba-landligi, so'zlashuv urg'ularga ko'ra ovoz kuchining o'zgarishi, biron-bir so'z, jumla hosil qilinadigan 4-5 ta bo'g'inni (bir nafasda) qo'shib aytish kiradi.

Ishning ikkinchi bosqichi, (1-2- sinf) so'zning tovush tarkibidan asta-sekin so'zni ishlab chiqilishini aniqlashda va oldindan qilingan tovushlar almashinishni yo'qo-tishdan iborat.

Shunday qilib, talaffuzga o'qitish dasturi quyidagi bo'limlarga bo'linadi:

1. Nutqiy nafas. Ishning tarkibi- o'quvchilardan nafasdan to'g'ri foydalanish malakalarni bitta nafasda so'z va qisqa jumalarni ishlab chiqish, shuningdek, jumalarni sintagmalarga bo'lish malakalarini qayta ishlab chiqishni shakllantirishdan ibo-rat.

2. Ovoz. Ishning tarkibi – normal tembrni qo'pol o'zgarishsiz ovozdan normal kuch va balandlikdan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.

3. Tovushlar va ularni o'qilishi. Ishning tarkibi – ona tilidagi hamma tovushlarni gapira olish va so'zlarda ularni o'qiy olish malakalarini shakllantirish. Bunda kar o'quvchilar tovushlar tarkibini o'zlashtirishda aniq bir ketma – ketlik kuzatiladi.

4. So'z ustidagi ish:

a) so'zlashuv urg'usi;

b) orfoepik qoidalarni o'z ichiga oladi. Bu ish o'quvchilarda so'zlarni bog'lab, tovush tarkibini saqlab, urg'ularga e'tibor berib, shuningdek, ona tiliga xos orfoepik qoidalarga rioya qilib, to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirishni ko'zda tutadi.

5. Jumlar ustidagi ish:

a) logik urg'u;

b) orfoepik qoidalar;

v) nutq tempini o'z ichiga oladi. Ishning tarkibi – o'quvchilarda jumalarni normal tempda bir –biriga bog'lab (1ta nafas chiqarishda yoki sintagmalarga bo'lib), urg'ularga e'tibor berib ishlab chiqish malakalarini shakllantirishdan iborat.

Karlarni talaffuzga o'qitish davrlari. Talaffuzga o'qitishning 2 ta davrni ajratish mumkin:

a) boshlang'ich

b) talaffuz ko'nikmalarini mukammallashtirish va avtomatizatsiyalashtirish davri.

Hozirgi vaqtda karlar maktablarida talaffuzni shakllantirishning 2 ta yo'li ishlatiladi:

1. O'qitish jarayonida eshitishdan keng foydalanish va daktilema orqali nutqni rivojlantirish, ya'ni o'qituvchilarga murojaat qilayotgan paytning o'zida, ham daktil, ham og'zaki nutqi orqali so'zlarni ishlab chiqadi. Shunda o'quvchilarga faqatgina so'z-larni ishlab chiqishgina emas, balki imkoniyati boricha og'zaki nutqda talaffuz qilishga o'rganadilar. Butun so'zlarni o'qituvchining labidan o'qishga va imkoni boricha eshitish orqali qabul qilishga asoslangan bunday ishlab chiqarish juda ham sxematik tarzda olib boriladi, faqatgina ba'zilarida ularning uzoq o'xshash fonetik ko'rinishini eslatadigan asosiy tovushlarning o'quvchilar tomonidan asta-sekin o'zlashtirish vaqtida to'liq va to'g'ri bo'ladi. Buning natijasida o'quvchi tomonidan daktil shaklida o'zlashtirayotgan material, sekin-asta ularning ohzaki nutqiga o'rna-shadi va kerakli talablar bo'yicha talaffuz qilinadi.

2. O'quvchilarda talaffuz qilish ko'nikmalarini sistematik o'zlashtirishni ta'-minlaydigan asosiy yo'l, og'zaki nutqni shakllantirish darsari nutqni shakllanti-rish darslari bilan bog'langan holda so'z va jumlar materiali ustida olib borila-digan rejali ishdan tarkib topgan.

Avtomatizatsiya va talaffuzni hosil qilish ko'nikmalarini mukammallashtirish davri ta'limning qolgan yillarini o'z ichiga oladi. Bu davr davomida erta olingan talaffuz ko'nikmalari mukammallashadi, talffuz nuqsonlari korreksiyalanadi, shuningdek, bir qator yangi ko'nikmalar shakllanadi. Shu davr o'zida kar o'quvchilar o'zbek tili fonetikasidan aniq bir bilimlarni o'zlashti-radilar.

O'rta va yuqori sinflarda talaffuzni shakllanishi bir qator talablar asosida o't-kaziladi. Bunda daktil nutq qisqartirilib, yaxshi eshitadigan bolalarga xos og'zaki muloqot qilish talablariga yaqinlashtiriladi. Bu davrda talaffuz ustidagi ish o'quvchilarning umumiy rivojlanishi darajasi va ularning talaffuz qilish ko'nikmalarining rivojlanish darajasi bilan bog'lan-gan holda amalga oshiriladi.

Taqlid – birinchi talaffuz ko'nikmalarini hosil qilishning asosiy yo'llaridan biri bo'lib, o'qitishning boshlang'ich davrida asosiy o'rinni egallaydi. Avtomatizatsiya davrida ham taqlid o'zining mohiyatini saqlaydi, lekin bu bilan birga eng katta shrinni artikulyatsiyani tushunishni egallaydi. Bu davrda so'zlashuv bilimiga tayangan holda o'z-o'zini tekshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Talaffuzni korreksiyalashda tak-liflar o'quvchi tomonidan artikulyatsion harakatlarni tushunishi bilan birga olib boriladi.

Avtomatizatsiya va talaffuz ko'nikmalarini mukammallashtirish davrida yosh xususiyati, umumiy va nutqiy rivoj-lanish darajasi hisobga olingan holda o'quvchilarning mustaqil ishlarning mohiyati oshadi. Ishning hamma sanab o'tilgan shakllari o'zaro bir-biri bilan bog'liq. O'quvchilar eshitishga keng tayangan holda va nutqiy amaliyot shartlarida karlarning talaffuz ko'nikmalarini mukammallashtirish ishlari amalga oshiriladi.

O'qitish usullarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

1. Tafakkur, xotira, diqqat va hayolning aloxida operatsiyalarini tarkib toptiradigan va faollashtiradigan usullar;
2. O'qituvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirish bilan bog'liq kechinmalari va hissiyotlarini faollash-tiradigan usullar;
3. Nazorat va o'quvchilarni o'z-o'zini nazorat usullari;
4. o'qitish jarayonida o'quvchilarning jamoaviy va shahsiy o'zaro munosabatlarini boshqarish usullari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Рау.Ф.Ф. Формирование устной речи у глухихдетей. М.: Педагогика, 1999.
2. Рау.Ф.Ф. Методика обучения произношения у глухих детей. М.: Педагогика, 1999.
3. Nurkeldieva.D.A. Pedagogik-psixologik diagnostika "VNESHINVESTROM" T-2019

DARSLARNI TASHKIL ETISHDA TURLI XIL METODIKADAN FOYDALANISH

**Vahobjonova Irodaxon Ne'matjon qizi,
Abdulhamidova Gullola Ibrohimjon qizi
Qo`qon Universiteti
Maktabgacha ta'lim (sirtqi) yo'nalishi talabasi,
Imomova Nozimaxon Avazxonovna
Qo`qon Universiteti Ta'lim kafedrası
falsafa fanlar doktori (PhD)**

Annotatsiya: Bizning tadqiqotimizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuniga asosan bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ularni aqliy salohiyatini yuksaltirishda qo'l mexnatlarini o'rni tarbiyaviy xususiyatga ega ekanligi, hamda ularni shakllari va usullarini joriy etishga qaratilganligi bilan ahamiyalidir. Shuningdek, loy va plastilin bilan ishlash mashg'ulotlarining maqsadi va vazifasi bolalarning haykaltaroshlikning elementar asoslari bilan tanishtirish va amaliy ishlashga o'rgatishni nazarda tutadi. Shuning uchun bunday mashg'ulotlarni yuksak saviyada tashkil etish va o'tkazish har biro'qituvchidan mazkur soha bo'yicha mal'um tayyorgarlikka ega bo'lishi kerakligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Loy, plastilin, glitserin, sirkul, o'lchov, chizg'ich, o'g'on mis, alyumin yoki temir sim, guash, mum, qo'l mexnatlarini, ta'lim tarbiya shakllari.

Mamlakatimizda ta'lim – tarbiya tizimi va mazmunini takomillashtirish, uni davr talablari bilan uyg'unlashtirish yo'lidagi islohotlar jadal sur'atlar bilan davom etmoqda. O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol o'sishi, uning jismoniy, axloqiy va ma'naviy tarbiyasi to'g'risida g'amxo'rlik qilib voyaga yetkazish masalasi davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri etib belgilangan, shu maqsadda ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hayotga izchil tatbiq etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tomonidan maktabgacha ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, bolalar qamrovini oshirish va bu orqali ayollar – onalarni ijtimoiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning ...bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat, degan so'zlari fikrimizning yaqqol dalilidir.

Shu o'rinda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg'ulotlari tizimida haykaltaroshlik mashg'ulotlariga kengroq ajratilgan. Chunki haykaltaroshlik mashg'ulotlari maktabgacha yoshdagi bolalarda maktab ta'limi uchun kerakli tasavvur, amaliy malakalarni tarkib toptirish uchun qulayfaoliyat turi hisoblanadi. Taniqli haykaltarosh **I.Ya.Gints** burhay xaykaltaroshlikning ta'limiy ahamiyatini ta'riflar ekan, matematika fanini o'rganish uchun arifmetika qanday rolo'ynasa, haykaltaroshlik tasviriy san'atni o'rganishda shunday ahamiyat kasb etishini ta'kidlabo'tgan. Chunki tasviriy faoliyatning boshqa turlarida buyumlarning ayrim detallari, elementlari (masalan, perspektiva qonuniyatiga ko'ra buyumlarning ko'rinishi, umuman borliqning vizual obrazi) o'zgarib ketadi. Natijada tasviriy san'at asarini to'laqonli idrok etish va muayyan qonuniyatlar asosida tasvirlash uchun tasvirdagi illyuziyalarni anglash talab etiladi. Haykaltaroshlikda ularni yaqqol ko'rish, tasvirlash imkoniyati mavjudligi bois bolalarni nisbatlarni to'g'ri talqin qilish, asosiyni ikkinchi" darajalidan ajratishga o'rgatish jarayoni oson

kechadi. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim muassasalaridagi haykaltaroshlik mashg'ulotlariga bolalarda buyumlar haqidagi dastlabki tasavvurlarni hosil qilish, ularni "o'qish alifbosi" sifatida qarash lozim.

Shuningdek, loy va plastilin bilan ishlash metodikasi bo'yicha olim **I.M. Sechenov** ta'kidlaganidek, qo'llar predmetning shaklini ko'zga nisbatan boshqacharoq va to'liqroq aniqlaydi, chunki biz qo'llarimiz kaftini predmetning doimo ko'zdan ozroq yoki ko'proq yashirin yon sirtlariga va mutlaqo ko'z ilg'amas orqa tomoni sirtiga qo'yishimiz mumkin. Loy yoki plastilino'yinchoq yasayotgan bola jismlarning moddiy xossalarini — ularning shakli, qattiqligi kabilarini ifodalashi kerak. Lekin u bu ishnio'z tajribasida sezish alomatlari bo'lsagina bajara oladi. Chunki predmetning ana shu sifatlarini ko'rib aks ettirish sezib aks ettirishdan farqli ravishda bilvosita amalga oshadi.

Shu o'rinda, olim **V.P.Savinix** ob'yektni alohida qismlardan modellashtirish (konstruktiv usul) modellashtirishning eng oddiy usuli ekanligini ta'kidlaydi: ob'ekt oldindan qoliplangan qismlardan iborat. Odatda ish asosiy, eng katta qismdan boshlanadi. Masalan, - deb yozadi u, - har qanday hayvonni haykaltaroshlik chog'ida avval tanasini, so'ngra boshini haykalga soladilar, qismlarni o'lchamlari bo'yicha solishtiradilar va ularni bir-biriga bog'laydilar, so'ngra oyoq-qo'llarini haykalgao'tkazadilar. Kichkina detallar oxirgi marta shakllanadi.

Shuningdek, shaxsning har tomonlama shakllanishida maktabgacha yoshi o'ziga xos ahamiyatga ega davr sanaladi. Shuning uchun ham bizning mamlakatimizda 3 – 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalash masalasiga jiddiy e'tibor berilmoqda. Barkamol avlod tarbiyasida oila va ta'lim tashkilotlari hamkorligi jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhit barqarorligining asosiy omili sanaladi. Shu bois mamlakatimizda uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi va mazmunini takomillashtirishda o'zaro hamkorlikka tayanish zaruriyati paydo bo'ldi.

Mamlakatimizning kelajagi va ertangi kuni bugun farzandlarimizning qanday tarbiya olayotganligiga bog'liq. O'z shaxsi va jamiyat bilan uyg'un yashaydigan, ma'nan yetuk, ya'ni keng bilimlarga, erkin tafakkurga, nozik didga va yuksak axloqiy fazilatlariga ega, o'z-o'ziga ham, jamiyatdagi kamchilik va yutuqlarga ham tanqidiy qaraydigan, ijodkor, izlanuvchan, jismonan va ruhiy sog'lom avlodni tarbiyalashni avvalo oiladan va maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlash kerak. "Yoshlarning ma'naviy olamini bolalikdan boshlab ezgu g'oyalar asosida shakllantirish va kamol toptirish haqida gap bor ekan, yana bir muhim masala xususida to'xtatilib o'tisho'rinli, debo'ylayman. U ham bo'lsa, dunyoga hayrat ko'zi bilan boqib, undano'zicha ma'no topishga intiladigan murg'ak farzandlarimizning qiziqishi va hissiyotlariga mos qo'g'irchoq vao'yinchoq ishlab chiqish masalasidir. Bir qaraganda, bu muammo arzimas narsa bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin, har qaysi go'dak ilk bor olamnio'z atrofidagi ashyo va buyumlar, jumladano'yinchoqlar orqali aniqlashini inobatga oladigan bo'lsak, ularning inson tarbiyasidagio'rni beqiyos ekani ayon bo'ladi. O'yinchoqlar obrazi bolaning murg'ak tasavvuriga bamisoli toshgao'yilgan naqshdek muhrlanib, uning ongida bir umr saqlanib qoladi. Go'dakning ulg'ayib, kasb tanlashi, kelajakda qanday yo'ldan borishi, o'zining hayot tarzini qanday axloqiy-ma'naviy asoslarga qurishi ham, hech shubhasiz, uning bolalikda qandayo'yinchoqlar bilan oshno bo'libo'sgani bilan belgilanadi.

Shu o'rinda bolani intellektual qobiliyatini rivojlanishida o'zi qo'li bilan yasagan o'yinchoqlari uni kejakda tashabbuskorlik qobiliyatini shakllantirishiga ijobiy ta'sir qiladi. Asosan bola maktabgacha yoshda bog'chada plastilin va loydan o'zini yoqtirgan qaxramonlarini yasashi uning psixologik tafakkurini rivojlantirishi bilan belgilanadi. Shuning uchun bugun murabbiylarni bola tarbiyasidagi ahamiyati beqiyosdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda olamni anglash, o'rganishga qiziqishni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning eng qulay va samarali turlaridan biri, shubhasiz, loy ishi – haykaltaroshlik mashg'ulotlaridir. Bu turdagi mashg'ulotlarda bolalarda ijodkorlik ko'nikmalarini tarkib toptirish bilan bir qatorda maktab ta'limida muhim ahamiyat

kasb etuvchi qo'llarning mayda motorikasini rivojlantirish jarayoni kechadi. Shuning uchun ham haykaltaroshlik mashg'ulotlarida muayyan didaktik vazifalar qo'yiladi. Unga ko'ra, haykaltaroshlik mashg'ulotlarining maqsadi, birinchi navbatda, bolalarda ijodkorlikni shakllantirish, ularda haykaltaroshlik sohasiga oid texnik va ijodiy malakalarni tarkib toptirish orqali tasviriy san'atga, umuman go'zallik namunalari yaratishga qiziqish, rag'batni tarbiyalashdan iborat.

Bolalaro'zlariga tanish texnik usullar yordamida turli narsalarni yasaydilar. Masalan: xo'roz, tovuq, o'rdak, jo'ja va boshqalarni yasab, parrandalar shaklini mazmunida ishlaydilar. Ko'proq natura asosida, ixtiyoriy loy ishlarini bajaradilar. Dastavval predmetni yoki naturani kuzatib, ko'rib chiqiladi. predmetning shaklini, qismlarini, proporsiyasini barmoq harakatlari bilan ko'rib chiqishlari mumkin. Agarda bolalar yasash usulini bilishsa, unda mustaqil yasaydilar, agarda bilishmasa, unda tarbiyachi qisman ko'rsatib berishi mumkin. Ishlarni bajarishda turli vositlardan foydalasa bo'ladi. Flomaster turli idishlarning qalpoqchalaridan yasalgan baliqning "tangachalarini" iz qoldirish uchun ishlatish tavsiya etiladi.

Yana alohida ahamiyatga ega bo'lgan, tasviriy faoliyatning har xil turlari bolaning badiiy didini shakllantiradi.

Agar rasm va applikasiya chiziqlarning aniqligi hamda ranglarning yorqinligi orqali bolalarni estetik tarbiyalashga ta'sir ko'rsatsa, o'yinchoqlar yasashda predmetning hajmli shakli, yumshoqligi va ritmi birincho'ringa chiqadi. Mana shu uchta komponentning barchasi real fazoda mavjud bo'lib, bolada predmetlar plastik shaklining go'zalligini, qismlarining nisbatlarini tez idrok etish va bilib olish ko'nikmasini shakllantiradi, ularda tevarak-atrofdagi voqelikka diqqate 'tibor va qiziqishni rivojlantiradi. Loy va plastilindan o'yinchoqlar yasash faoliyatning bir turi sifatida rasm chizish yoki applikasiya tuzishga qaraganda bolalarni fazoda mo'ljal olishga, qator matematik tushunchalarni o'zlashtirishga tezroq o'rgatadi. Chunonchi, kichik guruhda bolalar to'siq uchun ustunchalar yasashadi, bola ularni bir joydan ikkinchi joyga olib qo'yadi, qator qilib teradi, ulardan uycha atrofiga devor yasaydi, nechta ustuncha yasaganini sanab chiqadi va hokazo. Katta yoshli bog'cha bolalari odam figurasini yasashda uning a'zolarini qayerga birlashtirish to'g'risida o'ylaydilar.

Bunda ular figura qismlarini bir-biri bilan va butun figura bilan bevosita solishtirib, taqqoslab ko'radilar, ularning kattakichikligini, o'lchamlarini (uzunligini, qalinligini) aniqlaydilar. Holbuki, rasm chizilgan vaqtda bu ishlarni faqat ko'z bilan chamalab amalga oshirish mumkin.

Loy va plastilindan o'yinchoqlar yasashning yana bir xususiyati uning turli o'yinlar bilan uzviy bog'liqligidir. Bajarilgan figuraning hajmliligi bolalarni shu o'yinchoq yordamida turli o'yin harakatlariga rag'batlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, kichikintoylar o'zlari yasagan buyumlarni mashg'ulot jarayonidayoq darhol esga solib turli o'yinlarni boshlab yuboradilar. Bolalar yoshiga xos bu xususiyat anchagina mavzularni o'yin bilan bog'lab o'tkazish imkonini beradi. Masalan, bolalar loy va plastilindan idish-tovoqlar vao'z qo'g'irchoqlari uchun nozu ne'matlar, kosmodrom, hayvoyat bog'i, xokkey va boshqao'yinlar uchun kichkina figuralar yasashlari mumkin. Mashg'ulotlarni o'yin shaklida tashkil etish bolalarning loy va plastilindano'yinchoqlar yasashga qiziqishini oshiradi, kattalar vao'z tengdoshlari bilan muloqotga kirishish imkoniyatini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarori.
2. Khasanova Gulnoz Kasimovna, Nigmatova Mavjuda Mahmudovna. Classification of

Educational Activities and Assessment Classifications Improvement of Pedagogical Problems//International Journal of Advanced Science and Technology.Vol. 29, No. 11s, (2020), pp. 1958-1961

3. Farobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shaxri. - T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. - B 167-170.

4. Mukhamadovna T. M., Sharipovna H. A., Supkhonovna H. N. The system of development of professional competence in future primary school teachers //SYSTEM. – 2020. – T. 7. – №. 13. – C. 2020.

5. Mukhamadovna T. M., Djamshitovna K. M., Narzullayevna Q. S. Art as a significant factor of forming world outlook of students //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11.

6. Mukhamadovna T. M. Challenges of Feminism and Gender Equalization //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 10.

**MTTDA QABUL QILINGAN "BOLAJON" VA "ILK QADAM" O'QUV DASTURLARINING
TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI**

Ergasheva Zarnigor
Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
3-kurs talabasi,
Imomaliyeva Musharrafxon Ilhomjon qizi
O'zRFA doktoranti

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi kundagi holati va sohada olib borilayotgan islohotlar haqida malumotlar, tavsiya va xulosalar keltirilgan bo'lib ushbu jarayonda "Bolajon" va "Ilk qadam" dasturining maktabgacha talim tashkilotlarida qo'llanilishi, bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish yo'lidagi muammolar, ularni bartaraf etish hamda istiqbolini belgilash yo'lidagi fikr va mulohazalar, jumladan, o'quv dasturlarni takomillashtirish hamda ularning ta'lim sifatiga ta'siri haqida ham malumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, "Bolajon", "Ilk qadam" davlat dasturi, bola, rivojlanish, ta'lim, tarbiya, o'quv dasturi, davlat ta'lim standarti, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, kasbiy sifat, mantiqiy fikrlash, metod, texnologiya va b.q.

Maktabgacha ta'lim tizimi sohasiga muhtaram prezidentimizning alohida e'tiborlari ushbu soha rivojlanishini ta'minlab berdi. Prezidentimiz maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan masalalar yuzasidan juda ko'p qarorlar hamda farmonlar chiqardilar hamda amaliyotga joriy qildilar. Prezidentimizning ushbu soha haqidagi: "Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to'g'ri keladi: ta'lim-tarbiya – biz uchun hayot-mamot masalasidir, dedi Prezident. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi"[1,1].

Barchamizga ma'lumki, maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishi bilan birgalikda tarbiyalash dasturi ham takomillashib boradi. "Ilk qadam" davlat dasturidan avval, mustaqillik yillaridan so'ng "Uchinchi ming yillikni bolasi" va "Bolajon" davlat tayanch dasturlaridan foydalanib kelganimiz. Lekin rivojlanayotgan davlatlar qatoridan rivojlangan davlatlar ro'yxatiga kirishimiz uchun eng avvalo aqliy jihatdan rivojlanishda to'xtamaydigan yoshlarni tarbiyalash bizning asosiy burchimiz hisoblanadi. Huddi shuni inobatga olgan holda hozirda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturidan foydalanib kelmoqdamiz. Dastur hozirgi zamon talablariga to'la mos kelishini bolalarning rivojlanishi xaritalari asosidagi kuzatishlarimiz tasdiqladi.

Biz 2010-yildan 2018-yilgacha bo'lgan davr mobaynida foydalanib kelgan "Bolajon" tayanch davlat o'quv dasturi "Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" asosida ishlab chiqilgan. "Bolajon" tayanch davlat o'quv dasturda ilk yoshdan 6—7 yoshgacha bo'lgan bolalarni jismoniy, ijtimoiy-hissiy, nutq, o'qish va savodga tayyorlash, aqliy fivojlantirish bo'yicha pedagogik vazifalar asosida har bir yosh guruh bolalari o'quv yili oxiriga kelib egallashlari lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarining zaruriy hajmi berilgan.

Zamon shiddat bilan rivojlangani sari bolalarda ham akseleratsiya jarayoni tezlashdi. Ushbu jarayondagi o'zgarishlarni ijobiy tomonga yo'naltirish uchun endilikda "Bolajon" davlat tayanch dasturini murakkablashtirish yoki uning o'rniga hozirgi zamon talablariga mos keladigan yangi dasturni ta'lim jarayoniga tadbiiq etish lozim edi. Ushbu vazifa ijobiy tarzda

hal etildi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining bolalar jamg'armasi YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi texnik ko'magi yordamida yaratilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi yaratildi va amaliyotga tadbiiq etildi. Ushbu dasturning dastlabki namunasi 2018-yilda foydalanishga topshirilgan edi. Lekin bolalarni aqliy rivojlanishi takomillashib borayotgani uchun uni yanada murakkablashtirish vazifasini hal etish lozim edi. Ushbu masala ijobiy hal etildi va 2022-yilda takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat dasturi foydalanishga topshirildi [2,2].

"Bolajon" tayanch davlat o'quv dasturi o'z davrining eng yaxshi dasturi bo'lgan deb ayta olmaymiz. Lekin ushbu dastur tuzilganidan keyin ta'lim sifatida bir muncha yangilanishlar yuz berdi. Ushbu dasturning afzalliklari va kamchiliklarini "T" sxemasi orqali yoritib beramiz.

KAMCHILIKLARI	AFZALLIKLARI
1. Dasturning dolzarbligi yoritilmagan; 2. Dastur xalqaro talablarga javob bermaydi; 3. Dasturda bolaning rivojlanish kompetensiyalari inobatga olinmagan; 4. Dasturda rivojlanish markazlarining ahamiyati yoritib berilmagan; 5. Dasturda inklyuziv ta'lim ga e'tibor berilmagan.	1. Dasturning maqsadi va vazifalari aniq belgilab berilgan; 2. Dastur mazmuni to'la yoritib berilgan; 3. Dasturdan foydalanish qulayligi tarbiyachilar uchun ahamiyatli; 4. Dastur milliy qadriyatlarimizni va rivojlanishning o'ziga xosligini mutlaq jamlagan holda yaratilgan; 5. Dasturdagi indikatorlarni bolalar o'zlashtirish darajasi yuqori bo'lgan.

Zamonamizning rivojlanishi akseleratsiya jarayonida yanada tezlashib ketdi. **Akseleratsiya bu-** bolalar va o'smirlarning aqliy va jismoniy ravishdan rivojlanishining tezlashuvidir. Akseleratsiya jarayoni O'zbekistonda ham kuzatildi. Ushbu jarayonning ijobiy va salbiy tomonlari haqida fikr yuritib o'tamiz.

Ijobiy tomonlari: aqliy o'sish, ta'lim olish, yoshiga nisbatan o'zlashtiradigan bilimlarning murakkablashishi, jismoniy va ruhiy jihatdan rivojlanib borayotgan yoshlarni ilm olishlari tezlashib ketishi akseleratsiya jarayonining ijobiy tomoni hisoblanadi.

Salbiy jihatlari: bolalarda bo'y o'sishi hamda vazn ortishi jarayoni ham tezlashishi oqibatida, ayrim bolalarda yoshligidan normadan ortiqcha semizlik jarayonlarining kuzatilishi, o'smir bolalardagi jinsiy rivojlanishning ham tezlashib ketishi hozirgi jamiyatimizda akseleratsiya jarayonining salbiy oqibatlarini keltirib chiqarmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini qo'llash bo'yicha SWOT tahlili

S – afzalliklari	W – kamchiliklari
Tarbiyachi faoliyatini sosnlashtiradi; Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilishda amaliy yordam mavjud; Tarbiyachilar uchun ish rejalarini tuzish va yurutish haqida ma'lumotlar; Rivojlanish markazlarining joylashuvi va rivojlantiruvchi ta'lim muhiti uchun resurslarning namunaviy ro'yxati mavjud.	"Ilk qadam" davlat o'quv dasturidagi kamchiliklar yillar davomida, uzliksiz ta'lim tizimida qo'llash jarayonida aniqlaniladi.

O - imkoniyatlar	T- tahdidlar
<p>Inklyuziv ta'lim olish mavjud bo'lib, tengdoshlari ichida ta'lim olish imkonini beradi;</p> <p>Ta'lim jarayonida bolalarda tanlash imkoni mavjudligi ta'lim jarayonini rivojlanishini ta'minlaydi;</p> <p>Rivojlantiruvchi ta'lim muhitidan foydalanish imkonini beradi;</p> <p>Kun tartibining belgilab qo'yilganligi ta'lim olish jarayoni uchun qulayliklar tug'diradi.</p>	<p>Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida dasturdan foydalanmaslik ta'lim sifatining pasayishiga sabab bo'ladi;</p> <p>Nuqsoni mavjud bolalarni tengdoshlari qabul qilmaslik holatlari kuzatilishi mumkin (inklyuziv ta'lim);</p> <p>Ayrim tarbiyachilar "Ilk qadam" davlat o'quv dasturidan oqilona foydalana olmasliklari, ta'lim tizimida sustkashlikni keltirib chiqaradi.</p>

Boshlang'ich va maktabgacha yoshdagi bolalarni sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hukumati mamlakatimizda maktabgacha ta'limni rivojlantirishning besh yillik Davlat dasturi va yo'l xaritasini ishlab chiqdi:

1. Maktabgacha ta'limni rivojlantirish bo'yicha davlat vazifalarini bajarish uchun Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi.

2. Maktabgacha ta'lim Yunisefning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirish bo'yicha sa'y-harakatlarida texnik yordam ko'rsatmoqda. Maktabgacha ta'lim vazirligi va Yunisefning 2018 yilgi qo'shma yillik rejasi qator tadbirlarni o'z ichiga oladi. Ushbu rejaning yutuqlaridan biri - "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim bo'yicha vakolatli yo'naltirilgan davlat o'quv dasturini ishlab chiqish, shuningdek, respublika tomonidan tasdiqlangan boshlang'ich va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish bo'yicha davlat talablarini yangilash. Ushbu ikkita hujjat maktabgacha ta'lim tizimidagi maktabgacha ta'lim tarbiyachilari va o'qituvchilari tomonidan turli xildagi har bir bolaning yuqori sifatli ta'lim olishini ta'minlash uchun qo'llanma sifatida foydalanadigan asosiy hujjatlardir.

Tadqiqotimiz natijalariga qaraydigan bo'lsak, tahlil va o'rganish natijalari hozirgacha ta'lim tizimimizda saqlanib kelayotgan muammolar borligini ko'rsatmoqda.

Jumladan:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida malakali pedagoglarning yetishmasligi, ularni tayyorlashda amaliyotga joriy etilgan o'quv reja va dasturlarining yaratilishida sohadagi islohotlar to'liq inobatga olinmasligi hamda ular mazmunan eskirganligi;

- bolalarning nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlashda hamda iqtidorli yoshlarning kreativ g'oyalarni amaliyotga tatbiq etilishida tizimli va innovatsion faoliyat to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi;

- -tarbiyachilar tomonidan bolalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlari tashkil etilmaganligi;

- tarbiyachilar tomonidan innovasion pedagogik texnologiya va metodlarini amaliyotga keng joriy etilmasligi;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasida o'zaro hamkorlik to'liq yo'lga qo'yilmaganligi;

- mashg'ulotda bolalarga bahslashish, o'zining fikrini bayon etishga imkon juda kam berilishi; ayrim mashg'ulotlarda tarbiyachilar eski ma'lumotlarni takrorlash bilan cheklanib qolayotganligi, ularning talab darajasida tayyorgarlik ko'rmaganligi, bilim va kasb saviyasining pastligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, kompetentliklari esa yetarli darajada emasligi sezilmoqda.

Bu muammolarni bartaraf etish tarbiyachilarning malakasini muntazam oshirishni, bunda alternativ usullarni qo'llash hamda tinimsiz izlanishlarini yo'lga qo'yish kabi vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi. Bu o'z navbatida tarbiyachiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Hozirda o'quv dasturi mazmuni va strukturasi qayta ko'rib chiqish juda muhim. U tarbiyachi uchun "ko'zgu" vazifasini bajarishi lozim. Chunki, inson ko'zgu (oyna)ga qarab o'zining butun bir vujudini ko'radi. Shuning uchun ham tarbiyachi o'z yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturiga qarab, butun bir faoliyatini, mashg'ulotda bolalarga yetkazishi lozim bo'lgan jarayon borishini, unda amalga oshirishi lozim bo'lgan vazifalarni eslaydi. **Lekin, amaldagi "Bolajon" tayanch davlat o'quv dasturlarida o'ziga yarasha kamchiliklar mavjud:**

- kirish qismida dasturning dolzarbligi va ahamiyati to'liq ochib berilmasligi;
 - dasturni o'qitishda maqsad va vazifalarning chuqur, aniq yoritib berilmasligi yoki haddan tashqari ko'pligi;
 - bolalarga qo'yilayotgan malaka talablarining bugungi kun talablari asosida shakllantirilmaganligi, bu borada ishlab chiqaruvchilar bilan o'zaro hamkorlikning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi;
 - guruhdan-guruhga o'tishda yoki bolalarda malaka talablarini egallaganlik darajasini aniqlovchi mezonlar va ko'rsatkichlarning ishlab chiqilmaganligi;
 - malaka talablarini ishlab chiqishda bolalarning kasbiy sifatlari (mustaqillik, ijodkorlik, tadbirkorlik, tashabbuskorlik) hamda mantiqiy fikrlash operatsiyalari (tahlil qila olish, klassifikatsiyalash, solishtirish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, amaliyotga joriy etish kabi) kabi omillarga deyarli e'tibor berilmasligi;
 - o'quv dasturlari strukturasi yangilash va o'zgartirish zaruriyati;
 - o'quv jarayonini, mashg'ulotni loyihalash mexanizmlarini kiritish zaruriyati;
 - pedagogik va axborot texnologiyalarining hamda erkin ta'limning to'g'ri talqin etilmaganligi;
 - foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatiga yillar bo'yicha chegara qo'yilganligi va boshqalar.

Maktabgacha ta'limda biz foydalanib kelayotgan "Bolajon" tayanch davlat o'quv dasturi ham zamon talablariga javob berolmagani uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga almashtirildi.

Avvalo bir jihatga alohida to'xtalish lozimki, bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish «Ilk qadam» dalat o'quv dasturi asosida amalga oshiriladi.

Davlat talablari asosida tuzilgan «Ilk qadam» dalat o'quv dasturiga asosan maktabgacha yoshdagi bolalarning ota-onalari, tarbiyachilari hamda o'zlari uchun turli sohalar bo'yicha dasturlar, qo'llanmalar, tavsiyalar, qiziqarli kitoblar, aqlan va jismonan rivojlantirishga yordam beradigan turli-tuman o'yinchoqlar va ta'lim tarbiya qurollari yaratiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tizimida ushbu dasturni qo'llash umumiy miqyosdagi amaliy tajriba hisoblanadi va ushbu tizimni qo'llashda mamlakatimizdagi boshqa talim tizimlari va ijtimoiy institutlarning integratsion faoliyati zarurdir. Zero bir bolaga yeti mahalla ota-ona degan naql bejizga xalqimiz orasida mashhur emas. Shu nuqtai nazardan "Ilk qadam" davlat dasturining har bir maktabgacha talim muassasasida amaliyotga tadbiiq etilishi bugungi kundagi sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni malum tizimga soluvchi omil sifatida faoliyat olib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ2707-sonli qarori.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, O'zbekiston, 2017- yil.
4. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotlarining Davlat o'quv dasturi. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi BMTning Bolalar jamg'armasi YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi texnik ko'magi yordamida yaratildi va nashr etildi. T.: 2018.

INKLYUZIV MAKTABGACHA TA'LIM: ZAMONAVIY RIVOJLANISH JARAYONLARI

Yakubova Zaxroxon Raximjon qizi
MTS 1-22 guruh talabasi,
Arslanova Madinaxon Mansurovna
"Ta'lim" kafedrası dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha inklyuziv ta'limning zamonaviy rivojlanish jarayonlari haqida so'z borib, O'zbekistonda maktabgacha inklyuziv ta'limni rivojlantirish istiqbollari bo'yicha muallif fikrlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, individual rivojlanish xususiyatlari, pedagogik jarayon, rivojlanish, ijtimoiylashuv.

Maktabgacha ta'lim inson potentsiali va inson kapitalini shakllantirishda asosiy va hal qiluvchi ta'lim bosqichlaridan biridir. Yurtimizda ham keyingi yillarda olib borilayotgan keng qamrovli ta'lim islohotlari jarayonlarida maktabgacha ta'limni jahon andozalari va rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalari asosida tubdan takomillashtirish yo'lidan borilmoqda. "Shuning uchun ham biz maktabgacha ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, bu borada katta ishlarni boshladik. Agar shu ishni har tomonlama puxta o'ylab amalga oshirmasak, butun ta'lim tizimida sifat o'zgarishiga erishishimiz, ta'limning uzluksizligini ta'minlashimiz qiyin bo'ladi", deya ta'kidlagan edi davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev [1].

Bugungi kunda zamonaviy dunyoda nogironligi bo'lgan bolalarning teng huquqli va teng imkoniyatli ta'lim olishi masalasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Buni xalqaro maydonda, xalqaro va mintaqaviy hamda sohaviy tashkilotlar tomonidan hamda alohida olingan davlatlar tomonidan ham imkoniyati cheklangan bolalar ta'limining eng maqbul shakllaridan biri bo'lgan inklyuziv ta'limga intilishning kuchayib borayotganligi misolida ham ko'rish mumkin.

Ma'lumki, inklyuziv ta'lim modeli har bir ta'lim jarayoni ishtirokchisining (bola, pedagog va ota-ona) ijtimoiy munosabatlari va o'zaro bir-birlarini tushunishini tashkil etishga ko'maklashuvchi, bolaning umumiy ta'lim jarayoniga olib kiruvchi bosqichma-bosqich va chuqur amalga oshiriluvchi jarayondir [2, 49].

Imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy qamlam sifatida ijtimoiy himoyaga, yordamga va qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'ladi. Davlat va jamiyat bunday toifadagi bolalarning huquq-manfaatlarini himoya qilish, moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish hamda boshqa bolalar bilan imkon qadar teng imkoniyatlardan foydalanishi uchun huquqiy baza yaratish, infratuzilmani yaxshilash, nafaqalar, to'lovlar va imtiyozlar joriy etish kabi say harakatlarni amalga oshirib boradi. Ular sirasida esa imkoniyati cheklangan bolalar manfaatlariga, shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishiga ko'maklashuvchi ijtimoiy institutlar tizimini yaratish va ularning faol ishlashini ta'minlashning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bugungi kunda ana shunday vazifani to'laqonli bajarishga kirishgan ekan, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning maktabgacha ta'lim muhitidagi samarali ijtimoiy moslashuvi uning muhim vazifalaridan birini tashkil etmoqda.

Bugungi kunda inklyuziv maktabgacha ta'limni tashkil etishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilganimizda, quyidagi asosiy xususiyatlarini alohida ta'kidlab o'tish mumkin:

davlat tomonidan inklyuziv ta'limni joriy etish jarayonlarining huquqiy, tashkiliy va moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi, uning umumjamiyat harakatiga aylanib borayotganligi, ya'ni "inklyuziv ta'limdan inklyuziv jamiyat sari" g'oyasi;

nogironlikning oldini olish, barvaqt aniqlash va samarali ta'sir ko'rsatish metodlari bilan birgalikda, bolaning rivojlanish imkoniyatlarini barvaqt tibbiy, pedagogik va psixologik tadqiq etishning fanlararo va sohalararo yangi metodlarining amaliyotga faol tadbiiq etilayotganligi;

ta'lim-tarbiya va korreksion dasturlarning bolaning individual rivojlanish xususiyatlari, uning mavjud imkoniyatlariga har tomonlama yo'naltirilganligi bilan bir qatorda, uning ijtimoiy moslashuv va integratsiyalashuv imkoniyatlarini yanada kengaytirish va qulaylashtirishga ham asosiy e'tibor qaratilayotganligi;

maxsus pedagogika sohasida imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim muhitida ta'lim-tarbiya olishi masalasining ilmiy nazariy va amaliy jihatdan dolzarb bo'lib borayotganligi;

inklyuziv ta'lim muhitida o'qitish modellarining rang-barangligi, o'ziga xosligi, variativ ta'lim metodlarining rivojlanayotganligi, ayni paytda tashkiliy-pedagogik, kadrlarga oid va metodik ta'minotni to'laqonli amalga oshirish bilan bog'liq muammolarning mavjudligi ham shular jumlasidandir.

O'zbekistonda ham inklyuziv ta'lim maktabgacha ta'limning ajralmas tarkibiy qismiga aylanishi nazarda tutilgan bo'lib, jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy turdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida Nizom"da "bolalarga, shu jumladan, o'ziga xos ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yakka tartibda ta'lim dasturlaridan foydalanish, shuningdek, o'z vaqtida inklyuziv maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkonini beradigan qulay muhit yaratish" [3] maktabgacha ta'lim tashkilotlarining muhim vazifasi sifatida belgilangan.

Yurtimizda inklyuziv maktabgacha ta'limni rivojlantirish borasida quyidagi takliflarimizni ilgari surishni lozim topdik:

- *"Inklyuziv ta'lim va ijtimoiy moslashuv" loyihasini tashkil etish;*
- *rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ijtimoiy moslashuvi masalalariga doir maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari, ularning yordamchilari, psixologlar va otalar uchun metodik va ommabop o'quv-metodik qo'llanmalar va tavsiyalarni ishlab chiqish;*
- *"Inklyuziv ta'lim muhitida pedagoglar faoliyati" nomli qisqa muddatli o'quv kurslarini (onlayn) tashkil etish;*
- *Oliy ta'lim "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi o'quv rejasiga rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ijtimoiy moslashuvi muammolariga doir tanlov fanlarini kiritish;*
- *metodik qo'llanmalar, tavsiyalar va targ'ibot materiallari uchun tanlov e'lon qilish.*

Xulosa sifatida aytganda, inklyuziv maktabgacha ta'lim yurtimizda yangi va ayni paytda istiqbolli ta'lim sohalaridan biri bo'lib, bu jarayonda inklyuziv ta'limning zamonaviy tendensiyalari va xususiyatlarini tadqiq etish ham katta ahamiyat kasb etishi tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maktabgacha ta'lim sohasida zamonaviy tizim yaratiladi.
<https://president.uz/uz/lists/view/1162> 19.10.2017
2. Бонин О.В. К проблеме подготовки педагогических кадров в сфере инклюзивного образования: специфика профессиональной компетентности // Среднее профессиональное образование. 2014 №1. С. 49.
3. Vazirlar Mahkamasining qarori. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2019 yil 13 may, 391-son. www.lex.uz (04.02.2021)

USE OF INTERACTIVE METHODS IN WORKING WITH STUDENTS WITH LOW MASTERY IN PRIMARY GRADES

**Khojamova is the daughter of Gulsevar Abdullajon
2nd stage student of Andijan State Pedagogical Institute,
Independent researcher**

Annotation: In this article, in addition to the study of advanced foreign experiences in order to improve the quality and efficiency of education implemented in the innovative development of our country, the introduction of international standard requirements and the determination of the talent of primary school students, in the lesson International assessment of issues related to the organization of work with students who do not master and cannot master, develop programs for individual engagement with students with a loose mastery level and apply it to the field of education I tried to approach from the point of view of systems and their implementation in our country. In the article, educational technologies that serve to increase the activity of low-achieving students in the process of primary education, to create an opportunity for them to catch up with their peers, to form and develop knowledge, skills, skills and competencies in students practical application experiences are presented in an integral connection with the international PIRLS evaluation system.

Keywords: system, educational standards, individuality, gap, personal qualities, intellectual development, inability, efficiency, skill, psychological world, indicator, success, quarter, didactic, method, task educational material, cooperative work, educational processes, educational results, general potentials, final control, encouragement, positive motivation,

Introduction: After our country gained independence, great importance was attached to the fundamental reform of the education system. The 20th century of human history has passed and we have entered the 21st century. The positive change that took place in the last century was that the development of science rose to higher levels, great success was achieved in the field of education, every aspect of the education field It is no exaggeration to say that the major changes taking place in one direction have become an important factor and opportunity for reaching higher positions not only for the society, but also for the state. Many years of experience show that it is necessary for everyone, that is, all members of society, to be involved in education. In this regard, the words of the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, should always become a slogan: On the basis of the action strategy, large-scale changes are being implemented in all areas. The success of these reforms, our country's rightful place among the developed and modern countries in the world, is first of all linked to the development of science and education, and our ability to compete on a global scale in this regard..."

In fact, improving the quality of education and ensuring the harmonization of education with the international assessment systems of the modern era is the most pressing issue facing pedagogues today. For this purpose, pedagogues working in educational institutions, especially elementary school teachers, attach great importance to the development of students' knowledge and their worldview in accordance with the times by bringing the spirit of the new age and a new breath to the lessons.

The implementation of innovations such as the international evaluation system "PIRLS", it is important for pedagogues to exchange experience and work together on the application of new pedagogical innovative technologies. The knowledge gained in the primary class serves as a foundation for the next level. At this time, whatever subject the child is interested in, it will be easy for him to learn this subject. The role of primary education and the subjects in it is also important in choosing a profession of the child in the future. Getting the student

interested in science requires a lot of skill from the teacher. Some children in the primary school have a lower level of mastery than 30-40% of the students in the class. When working with students with a low level of mastery, taking into account the personal qualities of the student is important for their development.

International assessment systems, which are developed and put into practice as a result of high pedagogical factors in today's developed period, at the same time serve as a practical experience for free assimilating students. The immediate main task of pedagogues working in primary school is to work individually with students whose learning level in the class or group is lower than the learning level of students who study well, and during the day and week. It consists of regular monitoring, analysis and continuous control of the student's educational activity. The use of five general directions of pedagogical technologies is justified when working with children who have difficulty adapting to school, who have lost interest in learning for various reasons, or who are more talented in practical issues than in scientific research. These are child-centered education, interactive and modern methods of teaching, didactic game, cooperative learning, and problem-based learning technologies. Achievements in the fields of science, technology, production and technology require the creation of new generation textbooks for educational institutions operating at all stages of the continuous education system.

Methods section: What are some ways to work with struggling students?

The duties of the head of the class in working with free mastering students are as follows:

1. Using spreadsheets, to determine which topics students are unable to master during the quarter and which students these are.
2. When it is determined that the teacher's experience is not enough for students to master the topics very low, to provide them with methodical support, to attach experienced pedagogues according to the recommendation of subject teachers or method association.
3. Development of a plan based on the identified reason of the student.
4. Entering the list of students in the "Extra Training Journal" and ensuring that it is carried out.
5. Call the student's parents and work together. (in the case of the cause, that is, if it depends on the family).
6. Reasonable organization of "class monitoring".
7. Attach to students who learn well.

Teaching independent reading is the most effective way to work with slow learners. Teaching slow learners to work independently is effective. Independent activity makes a person alert and responsive. This activity should be developed in harmony with the education of young schoolchildren. For this, first of all, it is necessary to mentally prepare students for independent activities, to instill confidence in them that they can do something and do it well.

Types of independent work, first of all, should be carefully thought out by the teacher, directed to the educational goal and continuous. In this, the opportunity of each student should be taken into account, age characteristics, interests should not be neglected. One of the conditions for the mental development of students is to complete tasks by "remembering". In this case, special attention is paid to the ability to define the plan and choose the work method while understanding (imagining) the purpose of the work to be performed, to be able to independently find the mistakes made and to correct them. It is useful to choose convenient methods, ask guiding questions, and recommend key words so that students can complete tasks quickly and correctly.

It is natural that students have difficulties in performing independent work with quality. Because their imagination is still bright and their vocabulary is not enough. Experiments show

that children think faster when they work under the guidance of a teacher. In order not to get used to this situation, it is necessary to encourage them to think more independently. In order to attract the attention of students, mention the events in the text: "Why did it happen?", "How do you think it should have been?" by asking questions like, approving his opinion, "if you think again, you will find", "very good", "very good!" it is useful to use encouraging words such as.

If the child is satisfied with the first independent work, his interests will increase and he will start to do new types of work. The results of independent work should always be checked. Verification can be oral or written. Before writing, the child thinks, summarizes his thoughts verbally, and then begins to write them. He tries to express his opinion, make an observation about a question or issue that has been allowed. This process appears and is strengthened on the basis of (verbal) speech. For example, a student thinks before expressing his thoughts in writing. In a whisper, he talks about the names on his own (in pedagogy, this asset is considered active). The first forms of essay writing begin with such works. The child reads the text, analyzes it orally, comes up with titles, and plans what pictures to make.

Results section: Based on the observations, we can say that during the period of primary education, reading activities take the place of playing activities. Studying becomes a child's duty and social duty. In the process of studying, he learns the skills of keeping his textbooks and school supplies in order, getting up on time, going to school at the appointed time, and completing homework assignments. The student becomes more and more responsible. Knowledge increases the child's level, ensures mental development, affects the growth of intuition and will. However, even during this period, the child's attention is still unstable. In the elementary school, changes occur in the student's memory. Starting from the first grade, the student voluntarily remembers most of the educational material during the educational process. At the same time, he should always control himself. As a result, the student's memory improves and his thinking grows. 7-8-year-old children's thinking is still concrete. They only think about what they perceive or imagine. The first manifestations of logical thinking begin to form.

In the third and fourth grades, students also learn some concepts related to scientific knowledge. During this period, emotional experiences occur in the psyche of students. Elementary school students develop interest in a subject or lesson. They realize that education is a duty. A high assessment of the student's work during the lesson gives rise to emotional experiences such as mental refreshment, joy, and pride in the students. However, there are also students who are lagging behind in subjects and whose mastery is low. It is necessary for each elementary school teacher to conduct separate work with these students and identify their shortcomings in time and find a solution as possible. Therefore, a primary education teacher must be mature, sharp, diplomat, a master of his profession, a person with intellectual potential.

In primary grades, it is important to protect students from stress and various psychological influences, and to strengthen their knowledge through interesting games. The teacher's use of games that encourage students to be smart and quick and to express their thoughts correctly and clearly gives effective results.

The system of activities for the prevention of idle learning allows each student to comprehensively develop all the main components of real learning opportunities, that is, to simultaneously develop the intellectual, willful, emotional spheres of a person, his education and upbringing. should be aimed at providing, developing a positive attitude to study and to the team, forming his ability to work. Underestimating the importance of the formation of one of the real learning opportunities for the student has a negative impact on the integrity of the system. As a result, it does not lead to the successful prevention of free learning. Such a

comprehensive approach can be implemented only when the school, class, group and educational activities are carried out together.

Based on the above considerations, we came to the following conclusion:

1. The evaluation assigned to a student who is a passive learner affects the formation of his personality.

2. Praising even a small success of a self-absorbing student in front of everyone, a little high evaluation, encourages him to new successes.

3. Many teachers think that parents are more to blame for the emergence of free learning. So, the fact that parents do not take care of their children at home, do not control them, and do not consolidate the learned topics in homework is a sufficient factor that causes malabsorption.

4. The emergence of free learning in primary grades is related to the insufficient development of the child's mental processes.

5. Idle mastery. Pupils have a hard time distinguishing important signs between things and events, summarizing objects into one common group.

6. Attention, memory, and thinking are difficult to develop in students who are free to learn, and such students feel the need for individual training.

7. One of the factors that cause idle learning is that the child is not psychologically ready to study at school.

8. Pupils of empty learning do not have positive learning motivation. It is known that the main component of psychological preparation is motivational preparation.

9. It is possible to eliminate idle learning by developing the knowledge processes of students who learn in a specially organized training.

10. The cooperation of the student, psychologist and parents is an important factor in eliminating idle learning.

Discussion section: Parents and teachers should work with low-achieving students to psychologically study their interests and take additional measures to increase their interest in science. It is necessary for teachers and parents to ensure that the child grows up to be educated and intelligent, but at the same time, if there is no control and support from them, a number of problems and deficiencies will occur in the formation of the student. possible Long-term research shows that teachers and parents play an important role in the development of a child's mental potential. Teachers sometimes reprimand parents in front of the child, always to no avail, and parents, in turn, accuse teachers of incompetence in front of students; teachers themselves do not always see a way out of the existing conflict situation. The main tasks of the Pedagogical Council are focused on the following situations:

- systematization of theoretical knowledge on the subject.

- psychological-pedagogical diagnosis of poor students.

- to determine the main reasons and measures to prevent academic failure of schoolchildren.

- to determine methods, forms and methods of solving the problem of academic failure that occurs at different stages of educational activity.

In the next stages, the teacher is obliged to report to the head of the class or directly to the student's parents about the decrease in the student's activity.

- the teacher should not lower the student's grade for his bad behavior in class, using other methods of influencing the student (persuasion, interview with a psychologist and social pedagogue)

- the science teacher is obliged to give a quarter before the end of the term, and a week before the end of the term, he determines the student's learning and his grades. I start working with students individually at the beginning of the school year. And I only give lessons

after the lesson when the student has missed a lot or does not understand the material. If the student did not fulfill the task conscientiously, I demand to do it again, sometimes I leave it after the lessons. In other cases, I work with each lagging student individually.

I practice keeping a notebook for extra work. Depending on the nature of the mistakes, I put a card with a task written on it in the student's notebook. In order not to overload students with work, you should not give several cards at the same time. Students willingly work on their mistakes with the help of cards - assignments. Each independent work on the correction of errors is checked by the teacher and must be evaluated in the journal along with the grades for the control sheets.

List of used literature:

1. I.A. Karimov. "Uzbekistan's own perspective and development path", Tashkent, "Uzbekiston" publishing house, 1994.
2. T. Madumarov, M. Kamoldinov, "Fundamentals of innovative pedagogical technology and its application in the educational process", Tashkent, "Talqin" publishing house, 2012.
3. A.SH.Daliyev, B.J. Boltayev, "Using a computer at school", Tashkent, "Teacher" publishing house, 1995.
4. Hasanboyev J. Torakulov H. Pedagogy. Tashkent - 2020
5. Mirziyoyev. Sh. We will resolutely continue our path of national development and raise it to a new level. T.: "Uzbekistan" 2017, p. 31.
6. Wikipedia, the open encyclopedia
7. Methodology of educational work. R. A. Mavlonova, N. Kh.
8. Rahmonkulova, B. A. Normurodova, K. O. Matnazarova. 2014, p. 145.

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI INKLYUZIV TA'LIMGA JALB ETISH MASALALARI

N.Q.Abidova
Qo'qon universiteti dotsenti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya Maqolada Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyoj uning jamiyatga va maxsus ehtiyojli bolalar uchun imkoniyatlar haqida yoritilgan. Jamiyatda Imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan yangilish fikr va munosabatlar bildirilgan. Integratsiyalashgan ta'lim haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv, integratsiya, reabilitatsiya, funksional, huquq, uzviylik, fikr, dialektik, uzviylik

Imkoniyati cheklangan bola ham barcha bolalardek bola hisoblanadi va u tan olinishi, hurmatga sazovor bo'lishiga haqli, shuning uchun ularni nuqsoni bilan atalishi nomaqbul hisoblanadi. Bola, u qanday xolatda va qanday imkoniyatga ega bo'lishidan qat'iy nazar har doim kattalar yordamiga muxtojdir. Uni ajratish yoki aloxida nom bilan atash insonparvarlik nuqtai nazariga tug'ri kelmaydi. Agar imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan «anomal bolalar», «Imkoniyati cheklangan bola bolalar», «ko'r bolalar», «kar bolalar», «aqli zaif bolalar», «xarakat tayanch a'zolari falajlangan bolalar» va x. k. tushunchalar ishlatilib kelindi. Ammo ushbu tushunchalar imkoniyati cheklangan bolalarni xuquqlarini poymol kiladi. Ota-onalarga ham salbiy ta'sir etadi. Imkoniyati cheklangan bolalar normal rivojlanishdagi bolalar kabi topshiriq va vazifalarni tezlik bilan mukammal amalga oshira olmasalarda, ammo imkoniyat darajasida bajara oladilar. Bolaning xuquqlarini ximoya qilish, ularga ijobiy munosabatda bulish tarbiyalashning muxim usulidir. Shuning uchun ham taxkirlashlarga yo'l qo'ymaslik talab etiladi.

Inklyuziv ta'lim tizimida o'quv tarbiya jarayonining tashkil etishi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limida dars jarayonini moslashtirish. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limida dars jarayonini moslashtirish. Tayanch harakat a'zolarida muammolari bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limida dars jarayonini moslashtirish. Yengil darajadagi aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalar inklyuziv ta'limida dars jarayoniga moslashtirishdan iborat.

Darhaqiqat, bu ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish oson kechmaydi. Ammo bu ta'lim tizimining naflari jixati juda ko'p ular sirasiga qo'yidagilar kiradi:

- Inklyuziv ta'lim qashshoqlik iskanjasidan qutilishga imkon beradi;
- Inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi;
- Kamsitishlarni oldini oladi;
- Inklyuziv ta'lim yanada inklyuzivlikka olib keladi.

Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyoj uning jamiyatga va maxsus ehtiyojli bolalar uchun quyidagi naflari jihatlari mavjudligidan kelib chiqadi:

- inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli bolalarga doimo o'z oilasi mahallasi va qarindosh-urug'lari davrasida bo'lishga imkon beradi;

- inklyuziv ta'lim barcha uchun, ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin;

- bolalarni oilasidan, o'yidan uzoqda bo'lgan internatlarga joylashtirish ularning o'yi, oilasi xamjamiyat hayotiga ishtirok etish huquqigato'sqinlik qiladi;

- o'yidan, oilasidan, ota-ona mexridan uzoqda bo'lgan bola diydasi qattiq bo'lib o'sadi. Chunki oila tarbiyaning bosh markazidir.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga qabul qilinishi o'quvchilarni yanada bolaga qaratilgan faolroq va ko'proq o'quvchilarni qamraydigan yangi o'qitish uslublarini ishlab chiqishga undaydi. Jamiyatda Imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan yangilash fikr va munosabat mavjud. Ular haqida ma'lumotlarning kamligi va ularga yoshligidan maxsus muassasalarda yopiq tarzda ta'lim - tarbiya berilishi bunga sabab bo'lishi mumkin. Bunday munosabatni yo'qotish yoki kamaytirish ancha mushkul ishdir. Lekin tajribadan shu narsa ma'lumki, kattalarga nisbatan bolalar farqli va o'xshashlik jihatlarni tezroq anglar ekanlar. Agarda maxsus ehtiyojli bolalar normal rivojlanishdagi bolalar bilan birgalikda ta'lim - tarbiya olsalar, bu barcha bolalarni Imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan o'zlari singari bola ekanliklarini anglab, kamsitmasliklarini ta'minlagan bo'lar edi.

Imkoniyati cheklangan bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Imkoniyati cheklangan bolalarning umumta'lim muassasalari tarkibiga qamrab olinishi jahon miqyosida "inklyuziv" yoki "integratsion" ta'lim atamalarini bilan ataladi. "Integratsiya" atamasini aniqlash maqsadida ushbu tushunchaning ta'rifini bergan. Unda "guruxlar integratsiyasiga", "guruxda shaxslararo munosabatlarni tartibga solish" sifatida qaraladi shuningdek, jamoada faqatgina insonparvarlik munosabatlarni va mazkur guruxda ijobiy jamoatchilik fikrini yaratilishi bilan integratsiyani amalga tadbiiq etish mumkin deb ta'kidlanadi. Keyingi yillarda imkoniyati cheklangan bolalarni barcha tengdoshlari katori umumta'lim tizimida ta'lim olishiga jiddiy etibor berilmoqda va inklyuziv ta'lim matbuot axborot vositalari orkali ommaga keng targibot qilinmoqda. Bu borada otanonalar ham farzandlarini umumta'lim tizimidagi integratsiyalashgan va inklyuziv gurux va sinflarda ta'lim - tarbiya olishiga uz istaklarini bildirishmokka.

Integratsiyalashgan ta'lim bu, -diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir.

Integratsiyalashgan ta'limda bolaga muammo sifatida qaraladi. Bu ta'lim tizimining quyidagicha shakllari mavjud:

- Jismoniy integratsiya. Integratsiyaning bu shakli Imkoniyati cheklangan bola va Imkoniyati cheklangan bola bulmagan bolalar urtasidagi jismoniy farkni kamaytirishga qaratilgan. Oddiy maktab bilan yonma-yon joyda Imkoniyati cheklangan bola bolalar uchun maxsus bo'lim yoki sinf tashkil qilish mumkin.

- Funksional integratsiya. Bu shakl Imkoniyati cheklangan bola va Imkoniyati cheklangan bola bo'lmagan bolalar o'rtasidagi funktsional muammolarni kamaytirishga qaratilgan.

- Ijtimoiy integratsiya. Integratsiyaning bu shakli ijtimoiy muammolarni kamaytirishga qaratilgan va u Imkoniyati cheklangan bola hamda Imkoniyati cheklangan bola bo'lmagan bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqani qo'llab - quvvatlaydi.

Jamiyatga integratsiya qilish kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сурдопедагогика под ред. Никитиной М.И. М., Просвешение, 2002
2. Shomaxmudova Sh.R. Inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy asoslari Toshkent 2018 y
3. Shomaxmudova. R.Sh. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiiy qo'llanma Toshkent 2011y

IMKONIYATI CHEKLANGAN YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH

R. No'monjonova
Qo'qon universiteti talabasi,
N.Q.Abidova
Qo'qon universiteti dotsenti
Pedagogika fanlari boyicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqola, maxsus maktab bitiruvchilarining oiladagi ijtimoiy-psixologik muammolari, imkoniyati cheklangan yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar aloxida yordamga muxtoj, korreksiya, stress, pozitsiya, psixoterapevtik, repertuar

Oila misoli bir qo'rg'onki, unda avlodlar kamol topadi, asrlar osha yashab kelayotgan yuksak insoniy fazilatlar, milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlar asrab-avaylanadi. Oiladagi muhit, shart-sharoit, odoq-ahloq qoidalariga itoatkorlik, mehr-shavqat bu go'shada tarbiya topayotgan, voyaga yetayotgan farzandlar kamolida aks etadi. Modomiki, yurt istiqboli bugungi yoshlar qo'lida ekan, ham ma'naviy, ham jismoniy, ham ma'rifiy salohiyatli navqiron avlod tarbiyasi uchun barchamiz burchlimiz.

Bolalarning katta bo'lishi va ijtimoiylashuvining muhim tomonlaridan biri ularni oilaviy hayotga tayyorlash hisoblanadi. Agarda avvallari mazkur tayyorgarlik avvalo umumta'lim maktablarida amalga oshirilgan bo'lsa, hozirda "oila maktabi"ning muhimligi va samaradorligi, bolaning oiladagi tarbiyasi tan olinmoqda. Bola aynan ota-onalarga ishonch hissini sezadi, aynan oilada bola bilan hamkorlik jarayoni vaqt chegarasini bilmaydi. Rivojlanish, ta'lim berish, tarbiyalash masalalari bilan istagan paytda shug'ullanish mumkin. Agarda bunda ota-onalar bolaning har tomonlama rivojlanishiga yo'naltirilgan uslubiy jihatdan samarali, bola imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlangan o'yin, mashqlarni qo'llasalar, u holda muvaffaqiyat nafaqat muqarrar balki, yuqori natijalarga erishish umidi ham mavjud.

Agarda imkoniyati cheklangan bolani oilaviy hayotga tayyorlash masalasi tizimda o'rganilsa, u yetarlicha murakkab ijtimoiy vazifani bajarishini tushunish mumkin, birinchi navbatda shuning uchunki, u shaxsiy hayotini mustaqil tashkil etish va belgilashga qodir bo'lgan inson shakllanishi jarayonidan uzilgan holda hal etilishi mumkin emas. Bu yerda oilaviy hayotga tayyorlikning ijtimoiy va psixologik asosini nima tashkil etadi degan savol tug'iladi.

Oilaviy hayotga tayyorlash – bolani mas'uliyatli va mustaqil, mehribon va ziyarak bo'lishga, o'zini va o'zgalarni tushuna olishga qodir va o'z manfaatlarini oila a'zolari manfaatlarini bilan muvofiq holda qarorlar qabul qilishga o'rgatish demak. Bundan tashqari, oilaviy hayotga tayyorlash nafaqat o'z sog'ligini, balki atrofdagi kishilar sog'ligini asrashni, oilaviy munosabatlarni qurish ko'nikmasi, muloqot malakalari va stress holatlarni boshqarishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, mazkur tayyorgarlik samarali bo'lishi uchun jamiyatning tayyorgarligi ham muhim. Jamiyat ko'pchilik oddiy kishilardan farq qiluvchi insonlarga oilaviy hayot uchun to'laqonli sharoitlarni yaratishga tayyor bo'lishi kerak.

Shunday qilib, maxsus maktab bitiruvchilarining oilalariga quyidagi ijtimoiy-psixologik muammolar xos:

- asosan ota-ona oilasining o'ziga xosliklari bilan shartlangan nikoh oldi salbiy omillar;
- erta nikoh qurish, nikohdan oldingi homiladorlikning yuqori foiz ko'rsatkichi;
- maxsus maktab bitiruvchilarining oilaviy hayotga psixologik va ijtimoiy-maishiy jihatdan tayyor emasligi;

- er-xotin munosabatlaridagi nizolar, o'zaro tushunishning quyi darajasi, oilaviy qiymatlarga bo'lgan munosabatlarning turlicha ekanligi;
- er-xotin munosabatlaridagi madaniyatning quyi darajasi;
- oilaviy hayotdan qoniqishning bir tomonlamaliligi, ya'ni maxsus maktab bitiruvchilari foydasiga;
- jinsiy munosabatlardagi nouyg'unlik;
- maxsus maktab bitiruvchilarining oilada psixoterapevtik funksiyalarni bajarishga tayyor emasliklari.

Oilaviy hayotga tayyorgarlikni aniqlashning eng yaxshi usuli kishining oiladagi vazifasini aniqlash hisoblanadi.

Maxsus maktabning quyidagilarga e'tiborni qaratishi maqsadga muvofiq:

- o'quvchilarni bo'lajak oilaviy hayotga tayyorlashda alohida o'quvchilar oilasining o'ziga xosliklarini, bola nuqsonining xususiyatlarini inobatga olish va "Etika va oilaviy hayot psixologiyasi" darslari bilan chegaralanmaslik. Maxsus maktabda o'quv-tarbiyaviy jarayon va korreksion ish o'quvchini umuman hayotga va xususan oilaviy hayotga tayyorlashga qaratilgan bo'lishi kerak;

- "Etika va oilaviy hayot psixologiyasi" darsini o'tkazishda tarbiyalanuvchilarning millatini inobatga olib, boy milliy va madaniy urf-odatlardan foydalanish lozim;

- oilaviy hayotga tayyorlashda o'quvchilarning alohida e'tiborini nikoh oldi omillarga va ularning oila qurishga bo'lgan ta'siriga qaratish;

- maxsus maktabda korreksion-tarbiyaviy ishning va "Etika va oilaviy hayot psixologiyasi" fanining asosiy vazifalaridan biri muloqot madaniyatini va oilada psixoterapevtik vazifalarni shakllantirish hisoblanadi. Bunda muhabbat, muloyimlik, xushmuomalalilik hislarini, e'tiborlilik, ochiq ko'ngillilik, o'zgalarni tushunish, hamdard bo'la bilish, birga qayg'urish kabi shaxs sifatlarini ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tiborni qaratish lozim.

Oilaviy hayotning ("oilali kishining" vazifalari) umumiy vazifalarigi quyidagilarni kiritish mumkin:

- turmush uchun adekvat sharoitlarni yaratish (mazkur jarayonda ishtirok etish);
- oila a'zolarini hissiy qo'llab-quvvatlay olish va ulardan yordamni so'rash;
- kasbiy bandlik va oilaviy hayot o'rtasidagi mutanosiblikni topa olish;
- oilani moddiy ta'minlashda ishtirok etish.

Matndagi oilali kishining vazifalari, oilaviy hayotga tayyorlash tushunchalari bolani oilada yashashga o'rgatishni, ya'ni nafaqat kelajakka qaratilgan ishni, balki bolaning dolzarb ehtiyojlariga qaratilgan aralashuvni nazarda tutadi. Bundan tashqari oilaviy hayotga tayyorlashning mazkur tarkibiy qismi eng ahamiyatlidir, chunki u boshqa barcha oilaviy rollarni o'zlashtirishning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Oilaviy hayotdagi rollarning repertuarini ikki jihatdan bayon etish mumkin: pozitsion rollar (turmush o'rtoq, ota-ona va b.) va psixologik rollar (masalan, yetakchi, mutaxassis va b.). Har ikki pozitsiya oilaviy hayotga tayyorlashning normativini aniqlash uchun birday muhim. Pozitsion rollar kishining burchlarini, boshqa kishilar tomonidan unga bo'lgan talablarni belgilaydi. Rollarning mazkur tizimi turg'un bo'lib, unga ma'lum formallikni beradi. Psixologik rollar o'zaro faoliyatning boshqa nisbatan formal tomonini ifodalaydi. Biroq oilaviy tizimning funktsionalligini baholashda aynan mazkur rollarning egiluvchanlik darajasi (har bir oila a'zosining mazkur rollarning har birini amalga oshirishga bo'lgan tayyorgarligi va imkoniyatiga ko'ra aniqlanadi) oiladagi psixologik muhitning sog'lomlik darajasini belgilaydi.

Insonning oilaviy hayotda bajaradigan rollari repertuarini ma'lum ma'noda oilaviy hayotga tayyorgarlik normativlari belgilaydi. Yaxshi turmush o'rtoq va ota-ona bo'lish uchun nimani bilish va nimani qila bilish kerak? Zamonaviy tadqiqotlar mazkur normativga

balog'atga yetgan bola va balog'atga yetgan bola ota-onasining rolini kiritadilar. Mazkur to'ldirishlar imkoniyati cheklangan bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Turmush o'rtoq va ota-ona roli bir qator vazifalar jabhasini o'z ichiga olib, mazkur vazifalarning hal etilishi har bir inson tomonidan uning ijtimoiy-madaniy stereotiplari, yosh-individual va sifat xususiyatlari, tashqi resurslar hisobiga amalga oshadi. Turmush o'rtoq roli quyidagi vazifalarni hal etadi:

-o'zaro tushunish va qabul qilish vositasida munosabatlarni hissiy saqlab turish;

-uyg'un intim hayot;

-hayotdagi yo'ldoshining shaxs sifatida o'sishiga ko'maklashish, shu qatorda uning mustaqilliligini qo'llab-quvvatlash.

Balog'atga yetgan bola birinchi navbatda munosabatlardagi yaqinlik va hissiy illiqlikni saqlagan holda ota-onasidan ajralib chiqish vazifasini hal etadi. Shuningdek balog'atga yetgan bola ota-onalariga g'amxo'rlik qiluvchi va ko'maklashuvchi rolni egallaydi. Mazkur rolga tayyorgarlik turmush o'rtoq yoki ota-ona roli singari ko'p yillar oldin boshlanadi.

Alohida yordamga muhtoj bola sog'ligining holati va rivojlanishining o'ziga xosligi ko'pincha, bola kelajakda turmush o'rtoq, ota-ona bo'la oladimi degan savolni qo'yadi. Biroq "balog'atga yetgan bola" roliga nisbatan hech qanday ikkilanishlar bo'lishi mumkin emas – chunki har bir inson katta bo'lgan sari o'z ota-onalari bilan yangi munosabatlarni qurish vazifasi oldida turadi. O'z navbatida ota-ona oldida "balog'atga yetgan bola ota-onasi" rolini o'zlashtirish vazifasi turadi. Alohida yordamga muhtoj bolalar ota-onalari uchun mazkur vazifa murakkab bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Podgotovka detey-invalidov k semeynoy i vzrosloy jizni. Posobiye dlya roditeley i spetsialistov / Pod red. YE.R. Yarskoy-Smirnovoy. Izdaniye 2-ye, dopolnennoye. Saratov: OOO Izdatelstvo «Nauchnaya kniga», 2007. - 188 s.

2. Psixologiya semeynix otnosheniy s osnovami semeynogo konsultirovaniya: Ucheb. posobiye dlya stud. vissh. ucheb. stud. vissh. ucheb. zavedeniy / YE. I. Artamonova, YE. V. Yekjanova, YE. V. Ziryanova i dr.; Pod. Red. YE. G. Silyayevoy. – M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2002. – 220 s.

3. Silyayeva YE. Semya kak razvivayushaya sreda dlya rebenka s ogranichennimi vozmojnostyami. – M.: 2003. - 126 s.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TARBIYALASHDA ABDULLA AVLONIYNING
"TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ" ASARINING O'RNI**

Mirzayeva Mohira Soporboyevna
Qo'qon Universiteti, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
4-kurs talabasi,
Imomaliyeva Musharrafxon Ilhomjon qizi
O'zRFA doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama yetuk va barkamol, yuksak insoniy fazilatlarga ega qilib tarbiyalashda hamda yomonlikdan qaytarib, yaxshilikka chorlashda Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiyaga oid "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarining qanchalik muhim manba ekanligini, hamda ushbu asarni hozirgi hayotimizda o'rganish va o'rgatish dolzarbligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, axloq, pedagogika, boshlang'ich ta'lim, innovatsiya, integratsiya, metod, hadis, so'rovnoma, suhbat, komil inson, konsepsiya.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanyotgan Uchinchi renessans davrida mamlakatimiz intellektual salohiyatga ega, erkin fikrlay oladigan, o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida ularga tarbiya ham bera oladigan, ya'ni ta'lim va tarbiyani birgalikda olib borish malakasiga ega, yuksak ma'naviyatli, o'z tarixidan xabardor oliy ma'lumotli zamonaviy o'qituvchilarga muhtoj. Shu bilan bir qatorda, aynan shunday zamonaviy o'qituvchilarni tayyorlashni boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan boshlamoq maqsadga muvofiq. Mamlakatimizning kelajagi esa har tomonlama yetuk, erkin fikriga ega yoshlar qo'lida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 30-sentyabrdagi o'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan nutqida pedagoglarga alohida ishonch bildirdi: "Men yangi O'zbekistonni – obod va farovon, demokratik mamlakatni barpo etishda siz, muhtaram pedagoglarni, professor-o'qituvchilarni o'zim uchun eng katta kuch, tayanch va suyanch, deb bilaman. Sizlarning hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatingizni qo'llab-quvvatlash, sizlar uchun munosib mehnat va turmush sharoiti yaratib berishni Prezident sifatida o'zimning muqaddas burchim, deb hisoblayman"[1,3].

Xalqni ma'rifatli qilish uchun qayg'urgan jadidlar o'sha davrning turli johil, o'z manfaatlari yo'lida hech nimadan qaytmaydigan kimsalarining tuhmat-malomatlariga duchor bo'ldilar. Xalqini savodli qilish uchun shirin jonlarini fido qilgan, butun umrlarini Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo'lida sarf qilgan buyuk jadid ma'rifatparvarlarining ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy merosini o'rganishimiz va kelajak avlodga o'rgatishimiz davr talabidir. Zero, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan Uchinchi Renessans davrida jadidlar ilgari surgan ta'lim va tarbiya muammosi har doimgidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Buyuk jadid bobolarimiz yo'lidan borgan holda hozirgi ta'lim va tarbiya tizimida ham bir qancha islohotlar o'tkazilmoqda. Jumladan, Vazirlar mahkamasining "Tarbiya" fanini bosqichma- bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida 422-sonli konsepsiyasi tasdiqlanishi fikrimiz dalili bo'ladi.

Tarbiya darsligining asosiy vazifasi yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash ya'ni komil inson tarbiyalashdir. Komil insonlarni tarbiyalashda esa buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy me'roslarni o'qib, o'rganish, ulardan dars jarayonida dan unumli foydalanish, o'quvchilarda o'z ajdodlaridan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish hozirgi davr talabi hisoblanadi. Buning uchun esa maktab darsliklarga buyuk bobokolonlarimizning asarlaridan parchalar kiritish, hadislardan namunalar keltirish kerak. Ayniqsa buyuk pedagog Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari hozirgi kun boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun dasturamal bo'lib hizmat qiladi. "Tarbiya" darsliklariga ushbu asarlardan

parchalar kiritilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, bu asardan parcha boshlang'ich sinf "Tarbiya" darsliklarining muqovasida uchraydi, holos. Bu haqida prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 30-sentyabr kuni o'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan nutqida alohida to'xtalib o'tgan: "Hammamizga ayonki, bugungi murakkab globallashuv davrida jamiyatimizda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yoshlarimizni turli zararli g'oya va tahdidlardan asrash, ularni o'z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli biz birinchi marta umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini joriy etmoqdamiz. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning asriy qadriyatlarimiz asosida yaratgan "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari sharqona tarbiyaning noyob qo'llanmasi sifatida bugungi kunda ham o'zining qadri va ahamiyatini yo'qotgan emas. Biz "Tarbiya" fanining nazariy asoslarini ishlab chiqishda mana shunday bebaho asarlardan samarali foydalanishimiz zarur"[2,4].

Sharq ta'lim-tarbiyasida ilmni targ'ib etish, xulq-odob qoidalari islomiy prinsiplarga asoslangan, ta'limiy-axloqiy asarlardagi mundarijalarning o'xshashligi ular tayangan ma'naviy zaminga bog'liqdir. Shunday qimmatbaho asarlar ta'sirida yozilgan "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari axloqiy va ta'limiy tarbiyaviy asardir. Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining o'rni haqida fikr yuritib: "Agar bir kishi yoshligida nafs buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, Oллоhu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turub yulduzlarga qo'l uzatmak kabi dur",[3,2] — deydi. Uning fikricha bolalarga tarbiya berishni yoshlikdan boshlamoq kerak. Tarbiya jarayonida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g'oyat katta ahamiyatga ega. Abdulla Avloniy pedagogikaga "Pedagogiya", ya'ni "bola tarbiyasining fanidir", deb ta'rif berdi. "Tarbiyaning zamoni" bo'limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hamma birdek mas'uliyat bilan yondashishi kerakligini uqtiradi. "Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdur. Tarbiya qiluvchilar tabib kabi durki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga "yaxshi xulq" degan davoni ichidan, "poklik" degan davoni ustidan berub, katta qilmog'i lozimdur"[3,3] degan fikrlari bilan tarbiya qiluvchilarni ya'ni, ota-ona, muallimlar, tarbiyachilarni tabiblarga o'xshatadi. "Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir"[3,5] degan fikrlari bilan esa tarbiya bir kishining ishi emasligi, balki, butun jamiyatning ishi ekanligi, bu borada hamma birdek javobgar ekanligini, tarbiya masalasida befarqlik qilinsa alal oqibat bu jamiyat falokatiga sabab bo'lishini uqtiradi. Bundan tashqari bolaning fikrini erkin bayon eta olishi, tabiiy va bilimli bo'lishi uchun badan tarbiyasi muhim ekanligini aytib o'tadi: "Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ng ila terisi kabi dur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponning ustini qo'yib astarini yuvub ovora bo'lmoq kabi durki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mahkam va sog'lom bir vujud kerakdur"[3,5]. Abdulla Avloniyning fikricha bolaning sog'lom fikrlay olishi uchun o'qituvchilar, jismonan sog'lom qilib tarbiyalashda ota-onalarni mas'uldir.

Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida inson xulqlarini yaxshi xulqlar va yomon xulqlarga ajratadi va bir-biriga qarshi qo'yadi: "Yaxshi xulq: bir qismi o'z nafsimizga, bir qismini bir-birimizga qarshu ishlatmak uchun kerakli bo'lgan yaxshi xulqlar: fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, g'ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat va afvdur". Yomon xulqlar: Insonlarni saodati abadiyadan mahrum qiladurgan, janobi Haq qoshida va xalq nazarida mazmum, hayoti jovidonimiz uchun masmum bo'lgan axloqi

zamimalar: g'azab, shahvat, jaholat, safohat, hamoqat, atolat, hasosat, rahovat, anoniyat, adovat, namimat, g'iybat, haqorat, jibonat, hasad, nifoq, tama, zulmdur" [3,6-25].

Abdulla Avloniy o'z ona tilini mukammal bilish, har bir so'zni o'z o'rnida ishlatish, milliy adabiy tilning taraqqiyoti uchun jonkuyarlik qilish zarur, deydi: "Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan o'ynay hayoti: til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmoq millatning ruhini yo'qotmoqdur. Hayhot! Biz Turkistonliklar milliy tilni saqlamoq, bir tarafda tursin kundan-kun unutmoq va yo'qotmoqdadurmiz. Tilimizning yarmiga arabiy, forsiy ulangani kamlik, bir chetiga rus tilini yopishtirmoqdadurmiz. Durust, rus tilini bilishimiz kerak, lekin o'z yerinda ishlatmoq va so'zlamok lozimdur. Zig'ir yog'i solub, moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmoq tilning ruhini buzadur. ...Bobolarimizga yetushg'on va yarag'on muqaddas til va adabiyot bizga ham kamlik qilmas. O'z uyimizni qidirsak va axtarsak, yo'qolganlarini ham topamiz. Yo'qolsa yo'qolsin o'zi boshingga tor edi", - deb Yevropa qalpog'ini kiyub, kulgi bo'lmoq zo'r ayb va uyatdur". Avloniy so'zlashuv odobiga ham alohida e'tibor beradi. U so'zning inson qadr-qimmatini belgilashdagi mohiyatiga yuqori baho berib: "So'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadigan tarozusidir. Aql sohiblari kishining tilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so'zlagan so'zidan bilurlar", — deydi.

Ilmiy tadqiqot ishida o'rganilgan ilmiy, pedagogik va badiiy manbalar tahlili va amalyotdagi holatni o'rganish shundan dalolat berdiki boshlang'ich sinf o'quvchilarining "Ona tili va o'qish savodxonligi" hamda "Tarbiya" darsliklariga A.Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridan hamda hadislardan namunalar kiritish kerakligi, boshlang'ich sinf o'quvchilariga birinchi sinfdanoq iqtisodiy ta'lim va iqtisodiy tarbiya berib borish, ona tilini mukammal o'rgatish, maktab darsliklarida hadislardan namunalar kiritish dolzarb muammolar ekanligi aniqlandi. Bunda bir qancha adabiyotlar, maqolalar, maktab darsliklari, maktablardagi ta'lim jarayonlari, internet manbalari o'rganib chiqildi. Ilmiy, pedagogik va badiiy manbalar tahlili va amalyotdagi holatni o'rganishdan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalar berildi.

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda A.Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridan keng foydalanish, darsliklarda hamda darsdan tashqari mashg'ulotlarda ushbu asardan namunalar keltirish. Binobarin, bu asar boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviyatini o'stirishda muhim manba hisoblanadi.

2. O'tkazilgan so'rovnomalar natijalaridan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tilini mukammal o'rgatish, keyingi o'rinlarda chet tillarini o'rgatish;

3. Nafaqat o'quvchilarni balki o'qituvchilarga ham A.Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud Axloq" asarini o'qishlari kerakligi; (Tadqiqot natijasida 42 % o'qituvchini bu kitob haqida bilmasligi aniqlandi)

4. Boshlang'ich sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" hamda "Tarbiya" darsliklariga hadislardan namunalar keltirish;

5. Boshlang'ich sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" hamda "Tarbiya" darsliklarida keltirilgan tarbiyaviy hikoyalarni hadislar bilan dalillash;

6. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga 1-sinfdanoq iqtisodiy bilimlar berib borish, buni darsliklarga kiritish;

7. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ilmiy-metodik tavsiyalar hamda nazariy bilimlar bilan qurollantirish. Seminar treninglar o'tkazish. Chunki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviyatini shakllantirishda ular asosiy kuch hisoblanadi.

8. Oliy o'quv yurtlarida o'qiyotgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda ularning sharq mutaffakirlari asarlarini o'rganishlariga alohida e'tibor berish.

Abdulla Avloniy pedagogika soxasiga ulkan hissa qo'shdi. Yosh avlodni tarbiyalashda yo'lida butun umrini ma'rifatga bag'ishladi. Uning pedagogik qarashlarida insonning o'z Vataniga tiliga bo'lgan muhabbat, tarbiyasi, ma'rifati jamiyat rivoji uchun xizmat qilish kerakli yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, uning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari yosh avlodni tarbiyalashda juda katta ahamiyatga molikdir. Axloqiy-didaktik yo'nalishda yozilgan ushbu noyob va mukammal bu kitob har tomonlama yetuk, sog'lom fikrli kelajak avlod va zamonaviy pedagoglarni tarbiyalashga xizmat qildi. Bu asarda mutafakkir vatanparvarlik, ona tliga muhabbat, do'stlik, vijdoniylik, hilmlilik, aql, jaholat, g'azab kabi xislat va illatlar haqida fikr yuritadi va xulosalar chiqaradi. Abdulla Avloniy ushbu asarida zamonaviy pedagogikaning nazariy va amaliy asoslarini yaratdi va asar zamonaviy pedagoglar tayyorlashga, darslik, qo'llanmalar yaratilishiga asos bo'ldi. Zero, bu inson pedagogika fanining asoschisidir. Uning pedagogika, tarbiya haqidagi fikrlari bugungi kunda ham muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 30-sentabrdagi nutqi."Xalq so'zi" gazetasi.
2. "PISA tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash doirasi". Tarjima kitob. Tarjimon M.Maxsudov. Toshkent-2020.
3. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud Axloq" asari.
4. Rahima Mavlonova, Nargiz Rahmonqulova "Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya" . G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent - 2013

РАЗРАБОТКА ЭЛЕКТРОННОЙ СИСТЕМЫ ОНЛАЙН ПОИСКА НАПРАВЛЕНИЯ ОБУЧЕНИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА КАК АКТУАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА

Палванова Зарифа Шарафовна
студентка факультета Профессиональное образование в сфере ИКТ Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада аль-Хоразми,
Закирова Мадина Ринатовна
доцент кафедры «Информационно-образовательные технологии», PhD

Аннотация. В статье рассматривается актуальная проблема разработки электронной системы онлайн поиска направления обучения в высших образовательных учреждениях Узбекистана. Авторы проводят анализ онлайн-ресурсов, таких как портал Edu.uz и Unipage.net. В статье предложена концепция новой электронной системы, которая будет обеспечивать абитуриентам Узбекистана быстрый и удобный поиск подходящего направления обучения в высшем образовательном учреждении.

Ключевые слова: электронная система, онлайн поиск, направление обучения, высшее образование, Узбекистан, абитуриенты, портал, edu.uz.

В современном мире выбор образовательного учреждения и направления обучения становится все более важным для успешной карьеры и личного развития. Однако, множество абитуриентов испытывают сложности в процессе поиска информации о высших учебных заведениях и программах обучения.

Портал edu.uz является официальным порталом Министерства образования Республики Узбекистан, предназначенным для обеспечения доступа к информации об образовании в Узбекистане [3]. Он предоставляет информацию об учебных заведениях, их направлениях и услугах, связанных с образованием. На портале также доступны новости образовательной системы Узбекистана, законы и правила, регулирующие образование, и другая полезная информация.

Вкладка абитуриентам содержит план приёма, приём в бакалавриат, приём в магистратуру, прием на второе образования, заочное обучение, список высших учебных заведений, а также информацию о стипендиях, заявлениях и документах, необходимых для поступления в ВУЗы,



Рис.1. Список высших учебных заведений edu.uz

Также популярным онлайн ресурсом, который предоставляет информацию о высших образовательных учреждениях разных стран, включая Узбекистан является Unipage.net [4]. Unipage.net - это онлайн-ресурс, который предоставляет информацию о высших учебных заведениях в разных странах мира. На сайте можно найти информацию о более чем 30 000 учебных заведениях в более чем 190 странах мира, в том числе в Узбекистане, а также о программах обучения, требованиях для поступления, стипендиях и других вопросах, связанных с образованием. Пользователи могут искать учебные заведения и программы обучения, сравнивать их и выбирать наиболее подходящие для своих нужд.




Рис.2. Поиск университетов в Узбекистане на Unipage.net

Одна из главных функций сайта - это поиск высших учебных заведений по различным параметрам, таким как направления обучения, город, стоимость обучения и т.д. Кроме того, на сайте можно найти информацию о сроках приема заявлений, требованиях к поступающим, количестве мест и другую важную информацию.

Unipage.net может быть полезным инструментом для студентов, которые хотят изучать варианты образования за границей, включая Узбекистан, и сравнивать доступные варианты обучения в разных учебных заведениях.

Кроме этого, абитуриенты могут использовать поисковые системы, такие как Google, для получения информации о доступных направлениях обучения в высших учебных заведениях Узбекистана. Например, при вводе запроса "высшие учебные заведения в Узбекистане" или "направления обучения в университетах Узбекистана"

пользователь получит информацию о доступных учебных заведениях и программах обучения.

Использование портала edu.uz и Unipage.net вместе может помочь абитуриентам в Узбекистане получить доступ к полной информации об учебных заведениях в стране и сравнить их с аналогичными учебными заведениями в других странах.

Однако, разработка электронной системы онлайн поиска направления обучения в высшем образовательном учреждении Узбекистана может значительно упростить процесс поиска нужной информации для абитуриентов и облегчить им выбор направления обучения в соответствии с их интересами и потребностями. Это также способствует развитию высшего образования в стране, повышению качества обучения и эффективности использования ресурсов, а также стимулирует развитие цифровой инфраструктуры [2]. Также в Указе Президента Республики Узбекистан №УП-6079 от 5.10.2020 «Об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации» подчеркивается необходимость развития цифровой инфраструктуры и повышения уровня знаний в области цифровых технологий в стране [1]. Это является ключевым фактором для дальнейшего развития Узбекистана и обеспечения конкурентоспособности на мировой арене. Разработка электронной системы онлайн поиска направления обучения в высшем образовательном учреждении Узбекистана является важным шагом в этом направлении.

Разработка электронной системы онлайн поиска направления обучения в высших учебных заведениях Узбекистана является актуальной проблемой, в свете современных технологий и высокой конкуренции в сфере высшего образования. Такая система может значительно облегчить процесс выбора направления обучения для абитуриентов, обеспечивая быстрый и удобный доступ к информации о различных учебных заведениях и их специальностях. Это позволит значительно сократить время на поиск информации о доступных образовательных программах и сэкономит ресурсы абитуриентов и учебных заведений.

Анализ портала edu.uz и Unipage.net показал, что существующие ресурсы уже предоставляют некоторые возможности для поиска и сравнения образовательных программ в высших учебных заведениях Узбекистана. Однако, разработка новой электронной системы может привести к еще более удобному и эффективному способу поиска и выбора направления обучения. Эта система должна быть быстрой, удобной в использовании и содержать актуальную информацию о всех доступных направлениях обучения в учреждениях высшего образования Узбекистана. Кроме того, она должна предоставлять дополнительную информацию об учреждениях, такую как рейтинги, отзывы студентов, программы обучения и др. Разработка новой электронной системы онлайн поиска направления обучения в высшем образовательном учреждении Узбекистана поможет абитуриентам сделать осознанный выбор учебного заведения и специальности.

Список использованной литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан №УП-6079 от 5.10.2020 «Об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации» <https://lex.uz/ru/docs/5031048>
2. Закирова М. Р. Применение цифровых технологий в образовательном процессе в высших учебных заведениях // International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 183-186.
3. <https://edu.uz/>
4. <https://www.unipage.net/>

ФРЕЙМЛИ ЎҚИТИШ МОДЕЛИНИНГ МАЗМУН ЖИҲАТИ, ФРЕЙМЛИ ТЕХНОЛОГИЯНИНГ ВАҚТГА БОҒЛИҚ ЖИҲАТИ

**Эшонқулов Ш.У. – Жиззах политехника институти доцент
Қаршибоев Н.У.- Жиззах политехника институти катта ўқитувчиси**

Аннотация: Ҳозирги замон ишлаб чиқариши шароитида техника ва технологиянинг узлуксиз янгилашиш жараёни мутахассис тайёрлаш олдида юқори талаблар қўяди.

Калит сўзлар: Слот, белгилар, иерархик, билимнинг мобиллиги харфлар, рақамли-сонли, символик, пиктограммалар, кроклар, техник.

Идрок қилиш, ахборотни сақлаш, фикрлаш ва асосий мулоқот шаклларида ишлов бериш жараёнларини кучайтириш учун пойдеворни ташкил қилувчи асосий таркибий қисмлар анча йирикроқ бўлиши ва янада аниқроқ тузилмага эга бўлиши лозим; инсон тафаккурининг кучи ва “тез ишлаш” феноменини тушунтириш имконига эга бўлиш учун уларнинг фактик ва амалга оширилиш тартибига оид мазмунини бир-бири билан яқиндан мувофиқлаштириш керак” [52, 6-7-б.].

Бу йўналишларни амалга ошириш имкониятларидан бири фреймли педагогик технологиядир.

“Инсон ўзи учун янги бўлган вазиятни билиш ёки одатий нарсаларга янги назар солишга ҳаракат қилиб, хотирасидан маълумотларнинг фрейм деб аталувчи маълум тузилмасини (образини) танлаб олиши ушбу назария учун таянч жиҳат бўлиб хизмат қилади...” [52, 6-7-б.].

Кўпчилик муаллифлар ўзларининг илмий асарларида билимларни фреймли тақдим этишга нисбатан ҳам, унинг имкониятларига нисбатан ҳам фикрларини баён қилганлар. Билимларни фреймли тақдим этишнинг дидактик шартлари ва дидактик имкониятларининг яна бир жиҳатини кўриб чиқишни таклиф этамиз:


- 1) ўқув ахборотини тизимга солиш ва структуралаш воситаси сифатида;
- 2) ўқув фаолияти сценарийси сифатида.

Баъзи ўқув фанларидаги ўқув материалининг мавзуларини таҳлил қилиб, бўлимнинг барча мавзуларида ўрганиладиган ва такрорланадиган ўша бир хил негизни (функциялар, жараёнлар, хоссалар, хусусиятлар ва ҳ.к.) ажратиш мумкин. Ушбу бир хил негизни фрейм ёрдамида ажратиш мумкин.

Фрейм деб дидактикада назарий материали “зичлаштириладиган”, яъни чизмалар, расмлар, йирик блокли таянчлар ва ҳ.к. кўринишида ифодалаш мумкин бўлган ҳамда ўқув жараёнида асосий ахборот материали сифатида ишлатиладиган ўқув фанлари учун ўқув материални (концептни) ва ўқув вақтини ташкил қилиш усулига айтилади.


Бундай курслар сирасига қитъалар географияси, биологияда овқат ҳазм қилиш аъзоларини тизимга солиш ва ҳ.к. киради. Фрейм ўқитувчи томонидан чизмалар, жадваллар, алгоритм, тузилмалар ва ҳ.к. кўринишида, яъни ўқувчилар ифодалади идрок қилиши учун қулай бўлган шаклда ишлаб чиқилади.

Бу фрейм ўқув материалининг рамка, синч ёки оддий тузилмаси кўринишида бўлиб, унга кейинги ҳамма мавзуларни, бўлимларни тушириш мумкин (6-расм).



6-расм.

Бунда иерархик тузилма ҳосил бўлади. Фрейм одатда таснифловчи иерархик тузилмаси бўлган умумий тушунча тасаввурига мос келади. Бундай тузилманинг ўзига хослиги шундаки, юқори даражадаги фрейм эга бўлган аломатлар (атрибутлар) ҳақидаги ахборот уларга алоқадор қуйи даража фреймларининг ҳаммаси томонидан биргаликда фойдаланилади. Ушбу тузилма катта ҳажмдаги ахборотни тизимга солишга имкон бериб, уни инсон учун имкони борича қулай ҳолатда қолдиради. Ҳар бир фрейм турли хил ахборот билан, масалан, ушбу фреймни ишлатиш усуллари ахбороти, унда бажариш зарур бўлган ҳаракатлар ва бошқалар билан тўлдирилиши мумкин. Ҳар қандай фрейм аниқ мазмун ёки маълумотлар билан тўлдирилиши шарт бўлган слотлардан (терминаллардан) таркиб топади. Битта тизимда фреймлар бир хил слотларга эга бўлиши мумкин, бу эса ушбу фреймларда мавжуд бўлган маълумотлар ўртасида алоқаларни ўрнатиш учун зарур. Фреймлар ёрдамида ўқув ахборотини структуралашга таққослаш жараёни, яъни слот танланишининг тўғрилиги текшириладиган жараён хосдир. Бошқача айтганда, фрейм слотнинг аҳамиятини чекловчи шартларга эга. Ҳар бир фрейм мазкур фреймлар тузилмасида ягона бўлган ўз номига (идентификаторига) эга бўлиши керак. Слот эса ўз навбатида ўзининг фреймида ноёб номга эга бўлиши лозим. Слотлар ҳар бир фреймда сероб бўлиши мумкинлиги сабабли, слотларнинг турли-туманлиги ва вариативлигини ҳам тизимга солиш мумкин (7-расм).



7-расм [36, 32-б.].

1-даража; 2-даража; 3-даража

Φ^0 фрейми, фараз қилайлик, 1-даража слотларининг номлари C^1_{01} ; C^1_{02} ; C^1_{03} бўлган учта турли хил вариантга эга бўлиши мумкин, бунда:

C – слот;

1 – 1-даражали ($i=1$);

0 – фрейм рақами;

1; 2; 3 – слотлар рақами.

Сўнгра 1-даража слотини 2-нчи, 3-нчи ва ҳ.к. даражалар слотларига тарқатиш мумкин. Бўлиш бошланғич ҳаракатлар, тушунчалар, жараёнлар, ҳодисалар ва ҳ.к. слотларигача давом этиши мумкин. Рақамлар тўплами, масалан, 0311 фрейм слотлари

ўртасидаги алоқалар ва ўзаро муносабатлар занжирини кўрсатади: $C^3_{0311} \rightarrow C^2_{031} \rightarrow C^1_{03} \rightarrow \Phi^0$.

Ўқув материални фреймлар ёрдамида структуралашнинг бундай жараёни куйидагиларни таъминлайди:

1) ўқув материали ичида алоқалар сонини ошириш ҳисобига ("вертикал" ва "горизонтал") билимларни тизимга солишни;

2) ўқув жараёнининг фреймли изчиллиги, алгоритмиклиги (сценарийси) ҳисобига ўқув вақтидан фойдаланиш самарадорлигини.

Ҳозирги замон ишлаб чиқариши шароитида техника ва технологиянинг узлуксиз янгиланиш жараёни мутахассис тайёрлаш олдида юқори талаблар қўяди. Замонавий мутахассис малакаси даражасининг бош кўрсаткичи унинг касбий омилкорлигидир. Сўнги вақтларда бу атама сўз бойлигимизда тез-тез учрайдиган бўлиб бормоқда. Касбий педагогика тушунчалари мажмуида у алоҳида мазмун касб этади. Ҳаққоний гапирганда, "омилкорлик" атамаси мамлакатимиз касбий педагогикасида ҳозирча тўлиқ ўрнашган эмас ва аксарият ҳолатларда интуитив равишда мутахассис малакаси ва касб маҳоратининг етарли даражасини ифодалаш учун қўлланади. Лекин қандай бўлмасин, бу атама қатор жиддий устунликларга эга. "Биринчидан, у битта сўз билан "билимлар, маҳоратлар, кўникмалар" анъанавий учлигининг маъносини ифодалайди ва унинг таркибий қисмлари ўртасида боғлаб турувчи бўғин бўлиб хизмат қилади. Иккинчидан – ва бу энг муҳими, – у мутахассис – касбий мактаб битирувчиси тайёргарлигининг ҳақиқий даражасини тавсифлаш учун энг мақсадга мувофиқдир" [99, 6-б.].

Фикримизга кўра, танлаган касбини мукамал эгаллаган юқори малакали мутахассисларини тайёрлашни мақсад қилиб белгилаш ўрта ва ҳатто олий касбий мактабнинг ҳаётий шароитларида эзгу истакдан ортиқ нарса эмас.

"Учинчидан, омилкор мутахассис кўп сонли ечимлар орасидан энг мақбулини танлай олиш, ёлғон ечимларни далиллар билан рад этиш, эффективларини эмас, эффектлиларини шубҳа остига олиш қобилияти билан ажралиб туради, қисқаси, танқидий тафаккурга эга бўлади. Тўртинчидан, омилкорлик билимларни доимий равишда янгилаб туришни, берилган вақтда ва берилган шароитда касбий вазифаларни муваффақиятли ҳал этиш учун янги маълумотларни эгаллашни кўзда тутди. Бошқача айтганда, омилкорлик – бу фаолиятни долзарб бажариш қобилиятидир. Бешинчидан – ва бу юқоридаги бандлардан келиб чиқади, – омилкорлик ҳам мазмунга мансуб (билим), ҳам жараёнга мансуб (маҳорат) таркибий қисмларни ўз ичига олади" [99, 7-б.].



8-расм. "Омилкорлик формуласи" [99, 7-б.].

Компетентность – омилкорлик Мобильность знания – билимнинг мобиллиги Гибкость метода – услубнинг мослашувчанлиги Критичность мышления – тафаккурнинг танқидийлиги	Уровень минимальной компетентности – энг кам омилкорлик даражаси Уровень медиальной компетентности – ўртача омилкорлик даражаси Уровень полной компетентности – тўлиқ омилкорлик даражаси
--	---

Бошқача айтганда, омилкор одам муаммо моҳиятини нафақат тушуниши, балки уни амалда ҳал эта олиши, яъни ҳал этиш услубига (“билим қўшув маҳорат”) эга бўлиши лозим.


Ундан ташқари, муаммони ҳал этишнинг муайян шароитларига боғлиқ равишда, омилкор мутахассис ушбу шароитларга энг тўғри келувчи у ёки бошқа услубни қўллаши мумкин.

2.2. Фреймли технологиянинг вақтга боғлиқ жиҳати. Ўқув материални структуралашда билимларни фреймли тақдим этишни қўллашнинг таклиф этилаётган технологияси бошқа технологиялардан шуниси билан фарқ қиладики, дарсларда ўқитиш жараёнида, ошиб бориш томонга ўзгариш билан, назарий материални баён қилиш вақти тежаллади. 9-расмда ўқув материални ўрганиш жараёнида дарсдан дарсга қараб ўқувчиларнинг фаолияти қандай ўзгариши кўриниб турибди.

Биринчи мавзунинг назарий материални ўрганишда ўқувчилар илк бор дарсда фреймли технология қўлланиши билан танишадилар. Ўқувчилар эсда қолган нарсани тиклаш (репродуктив) фаолиятинигина амалга оширадилар, уларнинг унумли (продуктив) фаолиятлари нолга тенг. Бироқ бунда ўқитувчи мавзу ичидаги назарий материални мувофиқлаштиришни ўқувчиларга кўрсатиб бериши жуда муҳим. Ундан кейин, иккинчи мавзунинг ўрганишда, ўқувчилар таълим жараёнида фреймдан қандай фойдаланишни биладилар, идрок қилиш жараёни тезроқ юз беради ва дарсда унумли фаолият учун вақт қолади. Бу вақт ичида ўқувчи қуйидагиларни бажариши мумкин:

- 1) эшитган ўқув маълумотларини таҳлил қилиш (пухта ўйлаб кўриш, маъносини тушуниб етиш, санаб чиқиш, мулоҳаза юритиш, солиштириш);
- 2) ахборотни синтез қилиш (бирга қўшиш, ўйлаб топиш, тузиш, яратиш);
- 3) қиёсий баҳо бериш (баҳолаш, муҳокама қилиш).

Назарий материални баён қилишнинг муайян босқичида, ўқув материалнинг фреймли сценарийси ўқувчилар онгига тўлиқ етиб бориб, улар томонидан беихтиёр, куч сарфламасдан ишлатиладиган бўлганда, ўқувчиларнинг унумли фаолияти репродуктив фаолиятни тўлиқ сиқиб чиқаради.



9-расм Тема – мавзу

Репродуктивная деятельность учащихся – ўқувчиларнинг репродуктив фаолияти
 Продуктивная деятельность учащихся – ўқувчиларнинг унумли фаолияти

9-расмдан кўриниб турибдики, ўқув фанини ўрганиш жараёнида фреймларни қўллашда ўқувчилар шахсининг ривожланиши механик хоссалари металлнинг концентрациясига (кимёвий таркибига) ҳамда муайян ҳароратда ушлаб туриш вақтига боғлиқ бўлган металлнинг кристаллашувига жуда ўхшаб кетади. М.А. Балабаннинг фикрига кўра, "... тезлаштириш эмас, балки, аксинча, ҳар бир ўқувчининг шахси ривожланиш учун энг қулай шароитларда тўлиқ етилишига имкон бериш учун унинг ақлий ва маънавий имкониятларини рўёбга чиқаришни имкони борича секинлатиш керак" [4, 11-б]. Эҳтимолдан холи эмаски, ўқув фанини ўрганиш жараёнида ўқувчиларнинг фаолияти нафақат репродуктивдан (идрок қилиш) унумли сари (ижод) ривожланади, балки мустақил фаолиятга кўникмаларнинг ривожланишига ёрдам беради ҳам, бунда "шахсий билим ўқувчининг ўзи кўмак сўраб мурожаат қилганларнинг бегона шахсий тажрибасининг (репродуктив таълимдаги сингари, куч билан таъсир қилиш остида эмас) бевосита ижодий иштирокида шаклланади" [4, 11-б].

Хуллас, ўқув материални баён қилиш "вертикали" бўйича ўқувчиларнинг фаолияти қуйидаги тарзда ўзгаради:

- 1) репродуктив фаолият унумли фаолиятга айланади;
- 2) билим билишнинг ўрнини эгаллайди;
- 3) идрок қилиш ижодга айланади.

Хулоса қилиб айтганда, ҳар қандай фрейм аниқ мазмун ёки маълумотлар билан тўлдирилиши шарт бўлган слотлардан (терминаллардан) таркиб топади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати;

1. Агеев С.В. О роли фреймов знаний в интерпретации метафизических выражений // WWW.amursu/8100/vestnik/7/6799.
2. Абульханова-Славская К.А. Диалектика человеческой жизни. – М.: Наука, -1977.- С.224.
3. Анастаси А. Психологическое тестирование.- в 2-х т. – М.: Педагогика, -1982. – т.2.-С.386.
4. Балабан М.А. От «продуктивной» к «редуктивной» этике образования // Школьные технологии.-2000.-№5. –С. 11-16.
5. Бабанский Ю.К. Методы обучения в современной общеобразовательной школе.-М.: Просвещение, 1985.-С.208.
6. Батышев С.Я. Блочно-модульное обучения. –М.:Транс-сервис, -1997. –С. 225.
7. Беспалька В.П. Педагогика и прогрессивные технологии. –М.: Педагогика, -1995. –С.286.
8. Беспалька В.П. Слагаемые педагогической технологии.- М.: Педагогика, -1998.- С.286.
9. Беспалька В.П., Татур Ю.П. Системно-методическое обеспечение учебно-воспитательного процесса.- М.: Педагогика, -1991. –С.144.
10. Бершадский М.Е., Гузеев В.В. Дидактические психологические основания образовательной технологии. –М.: Центр «педагогический поиск», -2003. –С.256.
11. Веккер Л.М. Психические процессы. –в 3-х т. –т.3. –Субъект. Переживание. Действие. Сознание. –Л.:Ленингр. Ун-т, -1981. –С. 325.
12. Гузеев В.В. Планирование результатов образования и образовательная технология. –М.: Народное образование, -2000. –С. 240.
13. Арипов М., Ахмедов А.Б., Икрамов Х.З., Ирмухаммедова Р.М. ва бошқ. Информатика. Ахборот технологиялари. 2-қисм. -Тошкент, 2003.
14. Aripov M. Internet va elektron aloqa asoslari. – Toshkent: –Universitet|| 2000.
15. Ғуломов С. ва бошқ. Ахборот технологиялари. - Тошкент: Ўзбекистон, 2000.

**MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI ILMIY MEROSINING SHAXSNI KAMOL TOPTIRISH
VA TA'LIM -TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI**

Abdulhaqov Nodirbek Otabek o'g'li
Qo'qon universiteti ta'lim fakulteti
psixalogiya yo'nalishi 1- bosqich talabasi,
Temirova Mashhura Muhammadaminova
Qo'qon universiteti v/b. dotsenti. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mutafakkirlarining globallashuv davrida ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalaridagi qarashlari, shuningdek, mutafakkirlarning ijodiy faoliyatidagi ta'lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullarining bugungi kundagi ahamiyati masalalari chuqur tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: axloqiy tarbiya, odob, barkamol avlod, insonparvarlik, yosh avlod, ma'aniv-ma'rifiy meros, falsafiy qarashlar, ezgu g'oyalar.

Bugun oldimizga turgan o'ta muhim vazifalardan yana biri o'z fikri, dunyokarashi, zamonaviy bilim va tafakkurga ega bo'lgan yangi avlod tarbiyasidir. O'zbekiston mustakillikka erishgan dastlabki kunlardanok yangi tarixiy sharoitlarda o'zgarib borayotgan jamiyatga munosib har tomonlama yetuk va barkamol yoshlarni tarbiyalash kun tartibidagi dolzarb muammolardan biri sifatida belgilandi. Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaxo merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga aloxida e'tibor karatishimiz kerak [1].

Istiqlol yillarida Vatanimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha jabhalarida o'zlikni anglash, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni chuqur idrok etish va xalqqa yetkazish, yoshlarni Vatanga, xalqqa muhabbat ruhida tarbiyalashda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'naviy hayotni yuksaltirishda hukumatimiz tomonidan uzoqni mo'ljallab ishlab chiqilgan maxsus dasturlar bu borada muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Buyuk ajdodlarimizning hayoti va bebaho me'rosini o'rganish, qadamjolarini obod etish va asrab-avaylash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. O'tmish tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, qadimda Turon, o'rta asrlarda Turkiston, Movarounnahr deb yuritilgan bizning zamin azaldan sivilizatsiya markazlaridan biri bo'lgan. Ayniqsa, 9-12 asrlardagi madaniy yuksalish Sharq uyg'onish davri – Sharq renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan. O'rta asrlarda Sharq ilm-fani rivojida xalifa Ma'mun ibn Xorun ar-Rashid zamonida (813-833) Bag'dodda tashkil etilgan "Baytul hikma" alohida o'rin tutgan." Baytul hikma" me'rosini o'rganganda Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (786-850) nomi birinchilar qatorida tilga olinadi. Xalifalik akademiasining mudiri bo'lgan al-Xorazmiy o'nlik pozitsion hisoblash tizimini, nol belgisi va qutblar koordinatlarini birinchilardan bo'lib asoslab berdi va amaliyotga tatbiq etdi. Bu esa matematika va astranomiya fanlari rivojida keskin burilish yasadi. Bag'dod akademiasining yana bir Movarounnahrlik namoyondasi Ahmad Farg'oni (797-865)o'zining "Astranomiya asoslari"deb nomlangan fundamental asrada olamning tuzilishi, yerning o'lchovi haqidagi dastlabki ma'lumotlar, sayyoramizning sharsimon ko'rinishiga ega ekanligi xususidagi dalillari keyinchalik buyuk geografik kashfiyotlar davrida Kolumb, Magellan va boshqa sayohatchilarning kashfiyotlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yillar o'tishi nilan yana ilm-fan va madaniyat o'chog'i Bag'doddan Movarounnahrda ko'chdi. 1004-yilda xorazmshoh Ali ibn Ma'mun tomonidan Gurganchda akademiya tashkil etiladi. Xorazm Ma'mun akademiasini Abu Nasr ibn Iroq (10 a-1034), Abdulhayr ibn Hammor (991-1048), Abu Sahl Masihiy (970-1011), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu

Ali ibn Sino (980-1037) kabi allomalar tashkil etishgan Ma'mun akademiyasida to'plangan olimlarning to'liq ro'yxati bizgacha yetib kelmagan. Lekin tarxichi Abu Mansur as-Salibiy (961-1038) ning yozishicha, Gurganchda to'plangan faqat arabiynavis adiblarning o'zi 200 ga yaqin bo'lgan. Yuqorida biz tilga olgan har bir mutafakkirning qoldirgan ilmiy me'rosi o'sib kelayotgan yosh avlodning kamol topishi uchun munosib o'rin egallaydi. Mutafakkirlarimiz bola tarbiyasi va uning kamoloti to'g'risida o'z asarlarida to'xtalib, yoshlarni odob-axloqi, jismoniy barkamolligi, aqlan yetuk, mehnatsevarligi va vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e'tibor berib kelgan. Xususan, bolalarni mehnatga tayyorlash va mehnatsevarlik ko'nikma va malakalarini shakllantirib, barcha tarbiya shahobchalarini tarkib toptirib borishning muhim omili ekanligi ta'kidlab kelingan. Ular mehnatni yuksak baholab, kishilarning bir-birlari bilan qiladigan muomala va munosabatlari ham mehnat orqali yuzga keladi deydi. Chunki mehnat qilgan kishi o'zgalar mehnatini qadrlay oladi va to'g'ri munosabatda bo'ladi deb hisoblashgan. Dangasa ishyoqmas kishilar esa o'zgalar mehnatini qadrlay olmaydi, hatto ularning ustidan kuladi deb uqtiradilar. Shuning uchun bunday kishilarni tarbiyalash kerakligini aytadilar. Bundan tashqari Markaziy Osiyoning eng ko'zga ko'ringan mutafakkiri Abu Nasr Farobiy ham ijodiy faoliyatida barkamol avlod tarbiyasi uchun alohida me'ros qoldirgan. Farobiy jamiyatda yashayotgan har bir kishini yoshligidan boshlab biror kasbni o'rganish uchun harakat qilishi va kelajakda shu kasb orqali jamiyatga foyda keltiri kerak, deb biladi. Har bir kasbni egallash jarayonida muayyan harakatlar, takrorlash, mashq qilish yo'li bilan ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligini aytib o'tgan. Hattoki, o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida "Axloqiy fazilatlar va razilliklar, axloqiy harakatlarni, ishlarning bir necha takrorlanishida va uzoq davom etish jarayonida vujudga keladi va mustahkamlanadi. Agar qilinayotgan ish xayrli bo'lsa, undan fazilat kelib chiqadi, agar yomon bo'lsa undan razillik kelib chiqadi",- deb ta'kidlagan. Abu Nasr Farobiy bolalarni yoshligidan boshlab mehnat va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash hamda o'ziga yoqqan ishiga mashg'ul bo'lib asta-sekin o'zi qiziqqan biron bir kasbni egallashi zarurligi hamda barcha hunarlarni bir to'la egallab bo'lmasligini ofodalab, shunday deydi: "Har bir kishiga birlashtirilgan ma'lum bir ish bo'lishi kerak, toki u kishi o'ziga birlashtirilgan ishni kechiktirmasdan o'z vaqtida bajarsin". Bizga ma'lumki, ma'naviy-axloqiy barkamol avlodni tarbiyalash, ta'lim berish xech qachon bir vaqtning o'zida yuzaga kelmaydi. Balki, ularni kelib chiqishining haqiqiy manbai, keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zarurat natijasida vujudga keladi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, mutafakkirlarimizning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan. Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim-tarbiyaga oid boy me'rosini yaratib, takomillashtirib yoshlarni insonparvarlik, mehnatsevarlik va umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelishgan. Bu fikrlarimizga aynan xos bo'lgan buyuk mutafakkir olim Burxoniddiy Marg'inoniydir. Burxoniddiy Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida iymon, vijdon, burch, insoniylik xususidagi g'oyalari bugungi kundagi barkamol avlod uchun har tomonlama va uyg'un rivojlantirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilgan. Shu jihatdan qaraganda islom ta'limotining yirik namoyondasi Burxoniddiy Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qoldirgan ko'plab asarlarida, jumladan, "Al-jome as-sahih" kitobida yoshlarni insonparvarlik, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, bilimlilik, mustaqil fikr hislatlari asosiy o'rin egallaydi. Uning ijodiy faoliyatida va qoldirgan ilmiy me'roslarida ta'lim va tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ularni to'g'ri foydalanish - ta'lim jarayonida barkamol avlodga qo'llash o'qituvchining pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlarini o'rganish, tahlil qilish ularning ijodi va ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarni pedagogik nuqtayi nazardan tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari mutafakkir-

olimlarning ilmiy me'rosi haqiqatdan ham olamshumul. Bu jumlamizga misol qilib oladigan bo'lsak, arab tili grammatikasining asoschisi sifatida tan olingan Mahmud Zamaxshariy (1075-1144) tarixda birinchi bo'lib ko'p tilli lug'at- arabcha-forscha-turkiy lug'atni tuzgan edi. Bundan tashqari biz yuqorida ta'kidlagan buyuk mutafakkir olim Abu Nasr Farobiy (873-950) jahon tarixida birinchi bo'lib nota yaratgan. U ixtiro qilgan cholg'u asbobi – qonun hamon sozandalarimiz qo'lidan tushmaydi. Beruniy zamondoshi, Foroblik Javhariy (940-1008) o'zi yasagan qanotlar bilan uchish mumkinligini Leonardda Vinchidan 500 yil odin tajribada sinab ko'rgan.

Yuqorida keltirilgan ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho madaniy meros milliy ma'naviyatimizning o'zagini tashkil etgadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasida keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Sharqdagi uyg'onish davri Sharq mutafakkirlari – Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy va Abu Ali Rayhon Beruniylar o'zlarining ta'limiy qarashlarida birinchi o'ringa inson shaxsini qo'yadilar hamda bolalarni har tomonlama, jismoniy va estetik kamolotga erishishlari, shuningdek, tillarni bilishlarini zaryr deb hisoblaydilar. Aqliy ta'limni tashkil etuvchi fanlar sirasiga matematika, astranomiya, mexanika va tabiatshunoslik kabi tabiiy-ilmiy fanlarni kiritadilar. Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi. Nega aynan Movarounnahrda chiqqan mutafakkirlar Bag'dod Akademiyasida yuksak sharaf va mavqega sazovor bo'lganlar? Nega butun bir 11 asrni g'arb olimlari "Beruniy asri" deya e'tirof etganlar? Nega dunyoning nurli nuqtalaridamasalan, Belgiya va Latviyada Ibn Sinoga, Latviyada Mirzo Ulug'bekka, Yaponiya, Rossiya va Ozarbayjonda Alisher Navoiyga, Misrda Ahmad Farg'oniy kabi vatandoshlarimizga haykallar o'rnatilgan? Chunki, bizning birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganidek, jamiyat taraqqiyotidagi o'zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o'z-o'zidan yuz bermaydi. Buning uchun avvalo asriy an'analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur maktab, ma'daniy-ma'naviy muhit mavjud bo'lmog'i kerak. Darhaqiqat Vatanimiz azaldan buyuk allomalarni, mard va jasur Vatan himoyachilarini, maxsus lashkarboshi va buyuk davlat arboblarni yetishtirib bergan muqaddas yurt. Bundan tashqari Prezidentimiz tashabbusi bilan Markaziy Osiyo olim va mutafakkirlarining abadiy tarixiy me'rosini chuqur o'rganish va anglash, mamlakat va jahon jamoatchiligini o'zbek mutafakkirlarining aniq, tabiiy fanlar va islom ilmlari rivojiga qo'shgan hissasi bilan tanishtirish, ilmiy markazlar va dunyoning yetakchi olimlarini ularning ishlari va kashfiyotlarini har tomonlama o'rganishga jalb etish, ushbu beqiyos intellektual boylikni ko'z qorachig'idek asrash va ommalashtirish maqsadida, 2014-yil 14-15-may kunlari Samarqand shahrida "O'rta asrlar Shaqr allomalari va mutafakkirlarining tarixiy me'rosi, uningzamonaviy svilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazildi. Unda ellika yaqin mamlakatlardan tashrif buyurgan vakillar o'zlari qiziqtirgan savollarga javob olishdi. Bundan tashqari, konferensiyada mutafakkir olimlarning ilmiy faoliyati tahlilga bag'ishlangan mamlakatimiz va xorijdagi yetakchi tadqiqotchilarning maruzalarida Markaziy Osiyoda 9-12 va 14-15 asrlarda ro'y bergan ilmiy madaniy uyg'onishning turli jihatlari keng qamrovli yoritilib berilgan. Bu konferensiyada ko'rinib turibdiki, barkamol avlod tarbiyasi samarali amalga oshirishda bizda [2] ma'naviy meros yetarli. Bu boy merosdan Vatanimiz ravnaqi yo'lida oqilona va samarali foydalanish sizni bizning vazifamiz va burchimizdir. Zero Vatanaga, millatga muhabbat tuyg'usi eng muqaddas, eng mo'tabar tuyg'udir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, buyuk mutafakkirlarimizning mehant tarbiyasi xususidagi fiklari bugungi kundan ham ahamiyat kasb etib, bolalarni mehnatsevar qilib tarbiyalashda vosita bo'lib xizmat qiladi. Serqirra olim Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, "Aziz do'stlar oltin va kumushi bo'lmagan odam kambag'al emas, balki es-hushi va kasb-hunari bo'lmagan kishi kambag'aldir" [3]. Shu sababli mehnat ta'lim va tarbiyasi yuqori o'ringa qo'yish

lozim oqibatda shaxsga qo'lga kiritilgan mehnat muvaffaqiyatdan quvonish, o'z qadr-qimmatini anglash hamda o'z mehnatidan g'ururlanish tuyg'usi qaror topsin.

Foyalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh .Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh, Mirziyoyevning Ozbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.
3. Abdulla Avloniy. Tanlanga asarlar.2-jild. "Turkiy guliston yoxud axloq", - T,;Ma'naviyat, 2006.


ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОЙ ГРАМОТНОСТИ ПЕДАГОГОВ

Хамдамова Малика Илхамовна
доцент кафедры "Зоология и анатомия, PhD
докторант ТГПУ имени Низами


Аннотация: в настоящее время в Республике Узбекистан подготавливаются высококвалифицированные кадры, особое внимание уделяется, повышению качества образования, укреплению материально-технической базы высших учебных заведений. Для успешного выполнения вышеперечисленных реформ нужно не только уделять внимание на подрастающее поколение, учитывать цифровую грамотность особенности самих педагогов, так как если педагог имеет цифровую грамотность он может научить этому и студентов. В статье рассматривается формирование цифровая грамотность педагогов.

Ключевые слова: цифровизация, цифровая грамотность, мультимедийная компетентность, информационно-коммуникационные технологии, компоненты цифровой грамотности.

Последние несколько лет мы часто стали использовать термин "информатизация образования". Информатизация образования, это процесс, который обеспечивает сферу образования методикой и практикой использования современных образовательных технологий. Информатизация образования зависит от уровня адаптивности и знаний, умений, навыков личности в приспособлении к новым условиям. Формирование цифровая грамотностьбудущих педагогов, развитие их информационной культуры приобретает в настоящее время особую значимость в педагогических высших учебных заведениях. Однако актуальной проблемой в сфере образования является то, что у многих педагогов отсутствует информационная культура, а это немало значима в процветании образовательной системы. В Указе Президента Республики Узбекистан №УП-134 от 11 мая 2022 года "Об утверждении национальной программы по развитию народного образования в 2022 — 2026 годах" уделяется особое внимание на внедрение современных информационно-коммуникационных технологий и инновационных проектов в сферу народного образования совершенствование методики обучения, поэтапное внедрение принципов индивидуализации учебно-воспитательного процесса также поэтапное повышение заработной платы, материального стимулирования и социальной защиты работников средних общеобразовательных учреждений с целью повышения привлекательности деятельности в системе народного образования (смотрите рисунок №1). Как мы видим по выше перечисленным предложениям в Республике Узбекистан уделяется особое внимание не только на студенческую молодежь, но и на педагогов. В статье мы рассмотрим формирования цифровой грамотности педагогов.



Deñóitë 1. Daçâèèèâ ñeñòâiü iâðâiüiâi iâðâçâiâiëü.



Для начало нужно разобраться, что такое цифровизация. Формирования цифровой грамотности является высшей ценностью центром, которого является личность. Цифровизация как отрасль педагогики изучает закономерности воспитания, обучения и образования взрослых. Формирование цифровой грамотности основывается на методологические принципы личностно-ориентированного подхода и состоит из следующих компонентов:

- принципы обучения;
- совокупность основных понятий;
- учет возрастных особенностей;
- ценностные ориентации;(смотрите рисунок№2)



Рисунок 1. Компоненты формирования цифровой грамотности

Выше перечисленный компоненты способствует повышению качества образования, позволит осуществить отбор и выбор содержания и методов образования в преподавании.

При осуществлении формирования цифровой грамотности придается значение следующим особенностям педагогов:

- определяет профессиональную самореализацию студента;
- учитывает возрастные особенности студента, каждый обучающийся по-разному воспринимает полученную информацию, по-разному оценивает свои возможности для самореализации, это оказывает влияние на результат его учебных достижений;
- позволяет, осуществляет личностно-ориентированный подход к каждому студенту;

Формирование цифровой грамотности реализуется при совокупности следующих педагогических условий:

- учет уровня когнитивных структур обучающегося, его готовность к выполнению “взрослых ролей”;
- развитие у личности образовательных потребностей;
- активная позиция личности в своем развитии;
- самооценка обучающегося в процессе обучения;

В ходе изучения исследования были рассмотрены несколько источников литературы также указ президента Республики Узбекистан. Рассмотрены компоненты формирования цифровой грамотности педагогов, также изучены педагогические условия формирования мультимедийной компетентности.

Список литературы

1. Указ Президента Республики Узбекистан №УП-134 от 11 мая 2022 года "Об утверждении национальной программы по развитию народного образования в 2022 — 2026 годах"//Национальная база данных законодательства, 11.05.2022 г., № 06/22/134/0407.
2. Л.Г. Кайданова Педагогическое мастерство преподавателя в применении педагогических технологий (2006) // Л. Г. Кайданова // Новые технологии обучения: Научно-методический сборник. — М.: Академия, 2006. Выпуск 37. — С. 97–106.
3. Зеер, Э.Ф. Модернизация профессионального образования: компетентностный подход: Учебное пособие / Э.Ф. Зеер, А.М. Павлова, Э.Э. Сыманж. - М.: МПСИ, 2005. - 216
4. Хеннер Е.К. Формирование ИКТ-компетентности учащихся и преподавателей в системе непрерывного образования (2008) // издательство М.: бином. Лаборатория знаний. // С 99-102

**ПЕДАГОГИК НАЗАРИЯ ВА АМАЛИЁТДА БЎЛАЖАК ТАРБИЯЧИНИНГ АХБОРОТ
КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МУАММОСИ.**

**Умаров Абдулхусайн Абдулхатович
Наманган Давлат Университети эркин тадқиқотчиси**

Аннотация: Мақолада таълим жараёнини ташкил этишда ва тарбиялашда тарбиячининг педагогик хусусиятларининг аҳамияти, таълим-тарбия жараёнида шахс шаклланишида ахборот компетентлигининг аҳамияти юзасидан илмий мушоҳадалар илгари сурилган.

Таянч сўз ва тушунчалар: педагогик жараён, таълим, тарбия, педагог, тарбиячи, ҳамкорлик, шахс, миллийлик, шакллантириш.

Таълим соҳасида-ахборот компетенциясини ривожлантириш учун мотивация (энг янги ахборот технологияларини ўзлаштириш истаги, уларни педагогик вазифаларини ҳал қилиш учун уларни касбий фаолиятида қўллаш истаги; таълимни ахборотлаштириш соҳасидаги сўнгги тажрибани ўрганиш истаги ва-ўз тажрибасини ўтказиш ўз ҳамкасблари ва талабаларига; юқори даражадаги ахборот компетенциясига эришишга эътибор қаратиш; ахборот технологияларига асосланган касбий фаолиятда муваффақиятга еришиш мотивлари; бу туйғуларни ўқитувчилар таркибидаги ҳамкасбларидан тан олиниш истаги ва бошқалар.); интеллектуал соҳада-фикрлаш (ахборот ресурсларини таҳлил қилиш ва касбий педагогик фаолият муаммоларини ҳал қилишда уларнинг имкониятларини аниқлаш қобилияти; зарур маълумотларни излаш, ўзгартириш ва ўзгартириш ҳолатларида ижодкорлик, мослашувчанлик, танқидийлик, изчиллик, ҳаракатчанлик, фикрлаш самарадорлигини кўрсатиш); педагогик тасаввур, башорат ва прогнозлаш, ифода етилган ҳаракат мақсадини ҳақиқий маълумот ва уни ўзгартириш ва муайян professional вазиятда фойдаланиш имкониятлари билан боғлаш қобилиятида; ахборотни билиш технологиялар, уларнинг педагогик фаолиятни такомиллаштириш ва ўқитувчининг касбий ўзини ўзи такомиллаштиришдаги имкониятлари, реал ва виртуал дунёда мулоқот психологиясини билиш; ихтиёрий соҳада-ахборот муҳитидаги ҳаракатларнинг мақсадга мувофиқлиги; ахборот қидириш, уни педагогик мақсадларда қайта ишлаш, шунингдек, ахборот технологиялари билан ишлашда ностандарт ва нотаниш вазиятларда сабр-тоқат ва ўзини ўзи бошқариш; янги ахборот технологияларини ўзлаштиришда қатъиятчилик ва улардан фойдаланиш қобилияти. касбий фаолият; ўзини намоён қилиш, ўзини ривожлантириш мақсадларига эришиш; илмий ва касбий муаммоларни ҳал қилишда иродали интилишлар: ахборот технологияларига асосланган professional лойиҳаларни ишлаб чиқиш ва амалга оширишда ташаббускорлик, жасорат, қатъиятчилик; ҳиссий соҳада-керакли маълумотларни қидириш ва қайта ишлаш ҳолатларида ўз ҳиссий ҳолатларини тушуниш қобилияти, ахборот муҳитида ишлашда техник ва бошқа тўсиқларни чеклаш қобилияти; ахборот муҳитида ишлашда ижобий ҳиссий кайфиятни амалга ошириш ва ҳиссиётларга ега бўлиш қобилияти. мураккаб вазифаларни муваффақиятли ҳал қилишда қониқиш; ахборот технологияларидан фойдаланиш натижасида юзага келадиган ҳис-туйғулари ва ҳис-туйғуларини очиқ баҳам кўриш қобилияти; мавзу-амалий соҳада-ахборот муҳитида янги билимларни, фаолият турлари ва шакллари кўпайтириш ва ўзлаштириш қобилияти; янги ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда жамоавий фаолиятга тайёрлик; операцион кўникмаларга эга бўлиш (дастурий таъминот билан ишлаш, қарорлар қабул қилиш, керакли маълумотларни филтрлаш, ғояларни ишлаб чиқиш қобилияти); ахборотни қайта ишлаш кўникмалари; ахборот

воситалари ва технологияларидан фойдаланган ҳолда мулоқот қилиш қобилияти; ҳар хил турдаги электрон оммавий ахборот воситалари билан ишлаш; ахборот муҳитида ҳаракат қилиш қобилияти;экзистенциал соҳада-ахборот компетенциясини асосий касбий қадриятлардан бири сифатида тушуниш; ахборот технологиялари, ахборот ресурсларидан фойдаланишда ўз имкониятларини етарли даражада ўз-ўзини баҳолаш, уларни танлаш ва амалга оширишга ишонч; ўз касбий мавқеига ега бўлиш, шу жумладан маълумот олиш ва ўзгартириш бўйича фикр ва ғоялар. шунингдек, педагогик вазифаларни ҳал қилиш учун касбий фаолиятда ахборот технологияларидан фойдаланиш тўғрисида; ахборот технологияларига ега бўлган ўқитувчи сифатида ўзига онгли муносабат; таълимни ахборотлаштириш соҳасида ўз-ўзини англаш, ўз-ўзини ривожлантириш, ўз устида доимий ишлашга интилиш; ахборот технологиялари асосида касбий ўзини ўзи такомиллаштиришга интилиш ва талабаларида тегишли фазилатларни шакллантириш; барча ахборот янгиликларини етарли даражада бошқариш, касбий фаолиятни ахборотлаштириш учун жавобгарликни ўз зиммасига олиш;ўз-ўзини тартибга солиш соҳасида-ахборот излаш ва ўзгартириш соҳасида, ахборот технологияларини ўзлаштириш ва улардан фойдаланишда акс эттириш қобилияти; ахборотлаштириш асосида касбий фаолиятни ўз-ўзини таҳлил қилиш ва ўзини ўзи баҳолаш; ўз фаолиятини, individual услубини, ахборот компетенцияси даражасини ўзаро боғлаш қобилияти. ижтимоий ва касбий тажриба; касбдаги ўз ахборот компетенциясининг кучли ва заиф томонларини аниқлаш қобилияти-zonal фаолият ва хатти-ҳаракатлар; унинг кейинги касбий ўсиши захираларини аниқлаш, унинг педагогик фаолиятини ва унга бўлган муносабатини ўқув жараёнини ахборотлаштириш нуқтаи назаридан тартибга солиш қобилияти. Шундай қилиб, психологик адабиётларни таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, юқорида келтирилган ўқитувчининг шахсияти соҳаларининг хусусиятлари унинг ахборот компетенциясининг психологик таркибий қисмларини (индивидуал ва шахсий таркибий қисмлар) акс эттиради. Танланган хусусиятларнинг аҳамияти шундаки, улар ички омилларни кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати:

1. Абульханова-Славская К.А. Деятельность и психология личности / К.А. Абульханова-Славская. -М.: Наука, 1980. - 336 с.
2. Адольф В.А. Теоретические основы формирования профессиональной компетентности учителя: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. - М., 1998. — 48 с.
3. Акулова О.В. Ключевые компетенции как цель и результат современного образования / О.В. Акулова // Академические чтения. - СПб., 2002. - № 3. -С. 35-37.
4. Аленичева Е. Компьютеризация и дидактика: поле взаимодействия / Е. Аленичева, В. Езерский, А. Антонов // Высшее образование в России. - 1999.-№5.-С. 83-88.
5. Андреев В.И. Педагогика: учебный курс для творческого саморазвития / В.И. Андреев. - Казань: Центр инновационных технологий, 2000. - 608 с.
6. Арановская И. Подготовка специалиста как социокультурная проблема / И. Арановская // Высшее образование в России. - 2002. - № 4. - С. 115— 121.Асеев В. Г. Мотивация поведения и формирования личности / В.Г. Асеев. -М.: Мысль, 1976.- 158 с.
7. Атанов Г. А. Возрождение дидактики - залог развития высшей школы / Г.А. Атанов. - Донецк: ДОУ, 2003. - 180 с.
8. Атанов Г.А. Деятельностный подход в обучении / Г.А. Атанов. - Донецк: «ЕАИ-Пресс», 2001.-160 с.
9. Ю.Афанасьев В.Г. Общество: системность, познание и управление / В.Г. Афанасьев. - М.: Политиздат, 1981. - 432 с.

O'SMIR KAR VA ZAIF ESHITTUVCHI BOLALARNI IJTIMOY HAYOTGA MOSLASHTIRISH**G.M Salixova****TDPU Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim
fakulteti surdopedogika va inklyuziv ta'lim
kafedrası o'qituvchisi (PHD)**

Ijtimoiylashuv va moslashuv o'zaro chambarchas bog'liq jarayon bo'lib, shaxsning oila, mahalla, keng jamoatchilik bilan o'zaro munosabatlarining yakdilligini o'zida namoyon etadi. Lotin tilidan tarjima qilingan «moslashish» atamasi «moslashtirish», «sozlash» degan ma'noni anglatadi. Ushbu atama dastlab biologiya faniga taalluqli bo'lib, organizmning evolyusiya jarayonida tashqi sharoitga, morfofiziologik va xulq-atvor mezonlariga moslashtirishni anglatgan. Bizning nazarimizda moslashish – bu hayotning, atrof-muhitning o'ziga xos xususiyatlariga o'zini o'zi moslashtirish orqali oldiga maqsad qo'yish, iqtidor va qobiliyatlarini namoyon etish demakdir. Boshqacha qilib aytganda, muhitning o'ziga xos xususiyatlarini qabul qilish orqali unga moslashish sifatida ham tushunishimiz mumkin, ya'ni inson yashayotgan jamiyatga, taraqqiyotga adaptatsiya qilish jarayonidir.

«Ijtimoiy moslashuv (lot. Socialis - ijtimoiylashgan) - shaxs tomonidan muayyan madaniyat an'alariga xos bo'lgan faoliyat va xulq-atvor me'yorini o'zlashtirish, qadriyatlar va tartib qoidalarni anglash jarayoni».

Ijtimoiy moslashuv individning shaxsga aylanish jarayoni ostida kechuvchi qayta aloqaning sifati bilan bog'liq tushuncha hisoblanadi. Shaxs hayoti davomida ehtiyojlarini qondirishi, o'zi va o'zgaralar manfaatlarini ko'zlagan holda ma'lum harakatlarni amalga oshirishi uning boshqa insonlar bilan o'zaro muloqoti orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy moslashuv shaxslararo munosabat uchun maqbul muhit vujudga kelganda amalga oshadi. Agar maqbul muhit yaratilmasa, shaxslararo munosabat o'zaro bir-birini yoshi, qiziqishi, dunyoqarashi, hayotga munosabati nuqtai nazardan psixologik tushunish, anglash tarzida namoyon bo'lmasa, ijtimoiy moslashish jarayoni samarali kechmaydi.

Ijtimoiy moslashuv turli munosabatlar sharoitida amalga oshadi. Shaxsning moslashganlik darajasi ijtimoiy muhit xususiyatlari va insonning shaxsiy sifatlari bilan ifodalanadi. Ma'lumki, ijtimoiylashuv jarayonining asosi insonning muhitga moslashuvidan iborat bo'lib, uning ta'sirida shaxs jamiyatning teng huquqli a'zosiga, turli munosabatlarning faol ishtirokchisiga aylanadi. Insonning ijtimoiy moslashuvi jamiyatga munosabatlari bilan bog'liq ravishda o'zgarib boradi va unda jamiyat talablariga javob berish darajasi ortib boradi. Insonning hayot yo'li shaxs ijtimoiylashuvining quyidagi yo'nalishlari zamirida kechadi: faoliyat, muloqot va o'z-o'zini anglash.

Nogironligi bo'lgan, shu jumladan kar, zaif eshituvchi o'smir bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishga ta'sir etuvchi omillar mavjud bo'lib ularni qo'yidagicha tasnif etish mumkin: jismoniy va aqliy imkoniyati cheklanganlik, ehtiyojmandlik, ayirmachilik, kamsitilishlar, boqimandalik, bepisandlik, ishonchsizlik. Ular ushbu toifa bolalarni ijtimoiylashtirish yo'lidagi asosiy to'siqlardir.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj o'smir bolalar guruhi bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni mazmunan, shaklan hamda metodik jihatdan tashkil etish boshqa toifa bolalari bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarga nisbatan birmuncha mas'uliyatli yondashuvni taqozo etadi. Bu guruh bolalarini komil insonlar qilib tarbiyalashda ma'naviy komillikni asosiy komponentlarini yaxlit shakllantirish ijtimoiy-huquqiy tarbiyada samaralar omilidir. Bu o'rinda jamiyatdagi barcha institutlarning o'zaro aloqasi hamda hamkorligi taqozo etiladi. Ushbu hamkorlik quyidagi zanjir asosida amalga oshiriladi: oila-mahalla – bog'cha – maktab - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi – oliy ta'lim – mustaqil ta'lim – mehnat va kasbga

tayyorlash – maktabdan tashqari muassasalar – ijtimoiy – huquqiy muhofaza tashkilotlari – mutasaddi tashkilot va idoralar – keng jamoatchilik. Mazkur zanjirning birontasida uzilish yoki tarbiyaviy ishlarda sustkashlikka yo'l qo'yilsa jamiyatda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning paydo bo'lishi uchun muhit vujudga keladi.

Bunday holatning oldini olishda yuqoridagi hamkorlik zanjiri sub'ektlaridan barkamol shaxsni tarbiyalashning quyidagi tamoyillariga amal qilish taqozo etiladi:

- tarbiya jarayonini tashkil etishda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash; izchillik, tizimlilik, bosqichma-bosqichlik; demokratlashtirish, insonparvarlashtirish;
- tarbiyada ob'ekt-sub'ekt emas, sub'ekt-sub'ektlilikni ta'minlash; nazariyaning amaliyotga mosligi va aksi;
- bola shaxsiga qo'yiladigan tarbiyaviy talabning bir xilligi; tarbiyaviy ish mazmuni, shakl, metod va vositalarining bola shaxsi qiziqishi, mayli, intilishi, yosh va psixologik xususiyatiga mosligi;
- tarbiya mazmunida umuminsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligini ta'minlash;
- tarbiyaviy ishlarni maqsad sari yo'naltirish, rejali tarbiyaviy dastur asosida tashkil etish; tarbiyaviy ishlarni tashkil etishni boshqarishda adolatlilik, demokratik yondashuv;
- tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirishda bola shaxsiga differensial munosabat; tarbiyada kommunikativlik;
- tarbiyaviy ish natijalarini doimiy kuzatish, nazorat qilish, monitoring olib borish va boshqalar.

Oilada kar va zaif eshituvchi o'smir bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishning asosiy omillaridan biri bolani erkin muloqot, aqliy hatti-harakat, qobiliyat va iqtidorini namoyon etish va mustaqil bo'lishga o'rgatishdir. Ushbu toifa bolalar jamoasi uchun ota-onalar, atrof-muhit, qiziqishlariga ko'ra soha mutaxassisleri kuchli na'muna manbai sanaladi. Bolaning motivatsiyasi va ruhiy holati unga bo'lgan munosabatga bog'liq. Oilada ota-onalar, keng jamoatchilik, o'qituvchilar bunday bolalarning ijtimoiy, emotsional, intellektual rivojlanishi bilan bog'liq ta'lim-tarbiyaning interfaol shakl, metod va vositalaridan foydalanishlari ularni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga moslashuviga yordam beradi. Shunday qilib, nogironligi bo'lgan o'smir bolalar bilan maqsadli rehabilitatsion ishlar olib borilgan taqdirda ularning jamiyatga uyg'unlashuviga erishiladi.

Ikkinchi bob «Oilada nogironligi bo'lgan o'smirbolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishni takomillashtiruvchi korreksion tizimi» deb nomlangan bo'lib, mazkur bob nogironligi bo'lgan kar va zaif eshituvchi o'smir bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishning mazmuni, ijtimoiy moslashtirish modeli, hamkorlik asosida ushbu toifadagi o'smir bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishning samarali shakl, metod va vositalari o'z ifodasini topgan.

Oilada kar va zaif eshituvchi o'smir bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda oiladagi barqaror munosabatlar muhiti (oilaviy qadriyatlar, mehnatsevarlik orqali tarbiyalash, ijobiy ahloqiy vaziyat ustuvorligi, bolalar bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish, ijtimoiy-kasbiy savodxonlik) eng muhim pedagogik-psixologik shartlardandir.

Kar va zaif eshituvchi o'smir bolaning ijtimoiy hayotga tayyor bo'lishi sog'lom bolalar ijtimoiylashuvi kabi shaxsiy (ichki) omillar ta'sirida amalga oshirilishi tabiiy. Chunki sog'lom bolalar kabi kar va zaif eshituvchi o'smir bolalar ham hayotining dastlabki yillarida oilaning ta'siriga sezuvchan bo'ladilar. Tadqiqot davomida oilada kar va zaif eshituvchi o'smir bolani ijtimoiylashtirishga yo'naltirilgan hayot tarzini turli mezonlar bilan ifodalab beruvchi omillarni shartli ravishda ijtimoiy-ma'naviy, iqtisodiy, estetik-gigienik va nasl salomatligi guruhlariga turkumlandi.

Ijtimoiy-ma'naviy omil. Kar va zaif eshituvchi bolalarda shaxs sifatlarini shakllantirish, ularda kommunikativlik, o'zini namoyon qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda milliy urf-odatlar, umuminsoniy qadriyatlar asosidagi oiladagi sog'lom ma'naviy muhit, ota-ona va

farzand munosabatlarining insonparvarligi, ziddiyatlardan yiroqlik, oila a'zolar o'rtasidagi ruhiy yaqinlik, ota-onalarning tarbiyali shaxs etaloni bo'yicha qarashlari, oila farovonligini ta'minlashdagi o'zaro do'stona munosabat muhim ahamiyaga ega. Shuningdek, ota-onalarning, o'qituvchi-tarbiyachilarning ijtimoiy-sog'lom fuqarolik, huquqiy, kasbiy, axloqiy-ma'naviy, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-pedagogik, tibbiy-gigienik, jismoniy, xo'jalik-iqtisodiy kompetentligi, kasbiy savodxonligi muhim rol o'ynaydi.

Bo'lajak ota-onalarning sog'lom farzandni dunyoga keltirishdagi ijtimoiy-tibbiy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari nogironlikning oldini olish omillaridan hisoblanadi. Nogironligi bo'lgan o'smir bolalarning ijtimoiy hayotga ruhan tayyor bo'lish mezonlari talablariga, avvalo, ota-onalar tayyor bo'lishlari muhimdir. Chunki, ularning ko'p psixologik bilim va tajribaga egaligi o'smir kar bolalar rivojlanishi uchun zarur manbalardan biri hisoblanadi.

Sanab o'tilgan omillarning barchasi o'smir kar va zaif eshituvchi o'smir bolalarda nafaqat muloqot ko'nikmalarini, balki hayotiy bilim va tajribalar: o'z-o'zini baholash, kuchini namoyon qilish, oz va ko'p vaqtga maqsad qo'yish, o'z an'alarini anglash, vaziyatni o'rgangan holda baho berish, imijga ega bo'lish, axborot vositalari bilan ishlash, o'zgalarga ta'sir etish va jamiyatning turli boshqa munosabatlarida faol bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishda hamda ularning valeologik, huquqiy va iqtisodiy savodxonligini rivojlantirishda ham bevosita ta'sir va hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

- korreksion-rivojlantiruvchi ta'limni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslariga adolatli yondashuv;

- ta'limga kompleks yondashuv;

- ta'limni tashkil etishda hamkorlik;

- ta'limda ijtimoiy-ijodiy yondashuv;

- nogironligi bo'lgan bolalarga individual yondashuv;

- nogironligi bo'lgan o'smir bolalarga insoniylikning yetuk ko'rinishlarida muomalaga

kirishish;

- zarur bo'lgan kasb-hunarga tayyorlash;

- bo'sh vaqtlarini foydali mashg'ulotlarga sarflash;

- ta'lim va tarbiyani tashkil etish jarayonlarida ruhiy jihatdan yondashuv;

- bolaning erkin faoliyatida uni muntazam rag'batlantirib borish;

- oila, maktab, mahallaning hamkorlik texnologiyalari asosida ta'lim-tarbiyaviy, targ'ibot-tashviqot, ijtimoiy-tashkiliy, ilmiy-metodik materiallardan foydalanishlari;

- nuqsoni bor bolalarni hayotiy muhitga yo'naltirishda nazoratning kuchliligi, monitoring tizimiga amal qilish;

- kelajak farovon hayotga ishonch hissini o'yg'otish va boshqalar.

Kar va zaif eshituvchi o'smir bolalarning shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlar mavjud bo'lib, ular qo'yidagilardan iborat:

Kar va zaif eshituvchi o'smir bolalarning emotsional-hissiy sohasiga ta'sir etish. Buning uchun ularning ichki olamiga kira olish yo'llarini topishga ehtiyoj tug'iladi. Eng samarali yo'l bu oila qurshovida bo'lish, yaqinlarning ochiq muloqotidir. Oilalarda bolalarning qiziqishlarini anglash va ularning rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish lozim.

Kar va zaif eshituvchi o'smir bolalarning mustaqilligi va faolligini yuzaga keltirish. Bolalarda o'z-o'ziga xizmat qilish, atrofdagilarga o'z fikrini tushuntira olish, o'zini namoyon qilish ko'nikmalarini rivojlantirish lozim.

Kar va zaif eshituvchi o'smir bolalarning faoliyati turli yo'nalishlari, ya'ni o'yin, kreativ ta'lim, ijodkorlik kabi qobiliyatlarni shakllantiruvchi ma'lum mo'ljalga qaratilgan tamoyillarni hosil qilish: dunyoqarashni kengaytiruvchi turli tashkiliy ishlar, nutq ravonligi, tarbiyaviy

ishlar rejasi, oilabilan hamkorlikda seminarlar, tadbirlar, o'quv mashg'uloti va ochiq darslar tashkil etish.

Kar va zaif eshituvchi o'smir bolalarni rag'batlantirish va jazolash vositalarini tanlash va joriy etish. Ushbu vazifa bola tarbiyasida, xususan, uning shaxs sifatida shakllanishida muhim omillardan sanaladi. Chunki bolalar har bir bajarganini o'z vaqtida baholanishini, maqtalishini xush ko'rishadi. Shu o'rinda ularni aybi ish yoki xato qilganda, albatta, javobgar bo'lishga o'rgatish ham muhimdir. Buning uchun bolalarning shaxsiy xususiyatlari, psixologik sezuvchanligini hisobga olgan holda yondashish lozim.

Kar va zaif eshituvchi o'smir bolalarni ijtimoiylashtirish jarayonida yuzaga keluvchi vaqtinchalik psixik o'zgarishlarni inobatga olish va kutilishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish.

Nogironligi bo'lgan o'smir bolalarning psixologik rivojlanishida differensial va yakka yondashuvning ta'siri kattadir amaliy trening, erkin tanlovli texnologiyalarining transformatsiyalari amaliyotga joriy etildi. Bu quyidagi texnologiyalar: «Uyim bog'i» (bola mehnat jarayonlarida oila a'zolari bilan birga qatnashadi), «Xontaxta» (har bir oila dasturxon atrofida yig'ilib o'tiradi, va bu jarayonda insonlarning o'zaro munosabatlari hamda harakatlarining turli modellari o'smir kar bolalar hamda ularning oila a'zolari bilan birgalikda ishlab chiqiladi). Mahallalarda oilalar va ularning o'smir kar farzandlari uchun mahalla faollari bilan birgalikda hamkorlik muhitda «Oila», «Mening do'stim», «Mening kelajagim», «Men fuqaro-shaxs», «Mening oilada va jamiyatdagi o'rnim» kabi mavzularda davra suhbatlari o'tkazildi. Har bir tadbir o'zining korreksion-rivojlatiruvchi maqsadi, ta'limiy va tarbiyaviy vazifalari asosida o'smir kar bolalardagi nuqsonni tuzatish, yumshatishga yo'naltirilgan bo'lib, ular natijasida bolalarda ijtimoiy ko'nikmalar shakllanishiga erishildi. Bundan tashqari ot-onalar hamda kar o'smir bolalarning boshqa yaqinlarida pedagogik savodxonlik rivojlanishiga erishildi. Kar va zaif eshituvchi o'smir bolalar tadbirlar va treninglar davomida egallangan bilim, ko'nikmalarni mustaqil ishlatishga oid malakalarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boyto'rayeva D. AQLI ZAIF O'QUVCHILARNI IJTIMOY MOSLASHTIRISHNING PEDAGOGIK SHAROITLARI // Scientific progress. 2021. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/aqli-zaif-o-quvchilarni-ijtimoiy-moslashtirishning-pedagogik-sharoitlari> (дата обращения: 10.05.2023).

1. Gulyora Ulug'Bekovna Rahimbayeva Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tadqiqotlarda o'rganilishi // Science and Education. 2022. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/eshitishda-nuqsoni-bo-lgan-bolalarni-tadqiqotlarda-o-rganilishi> (дата обращения: 10.05.2023).

OBRAZLARDA YOZUVCHI RUHIYATINING AKS ETISHI

**Rajapova Xulkaroy Atabek qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
3-bosqich talabasi,
Yangibayeva Nodira
Urganch davlat universiteti tayanch-doktoranti**

Annotatsiya: Shukur Xolmirzayev asarlaridagi qahramonlar realistik adabiyotning vakillari. Ular uchun muayyan bir shaxslar asos bo'lgan va yoki adibning diqqatiga tushib, uni ilhomlantirgan. Shubhasiz, adibga ko'pincha o'z hayoti chinakam manba bo'la oldi. Ushbu maqolada adib yaratgan qahramonlarda ijodkor ruhiyati qay darajada singdirilganini aniqlaymiz.

Kalit so'zlar: Shukur Xolmirzayev, realistik obrazlar, ruhiyat, inson tabiati.

Tomchida quyosh aks etgani kabi yozuvchining ichki olami uning asarlarida, aniqrog'i, yaratgan qahramonlarining tabiatida o'z in'ikosini topadi. Inson olam ichidagi bir olam ekan, uning biz bilmagan, xayol tulporlarimiz qadam tashlamagan fitratining sarhadlari-da ko'p. Shukur Xolmirzayev o'z asarlarida ana shunday olamga, oddiy odamlarining botinidagi sirli olamga, kirib boradi. Bu odamlar biz uchun mutlaqo tanish, shu bilan birga kutilmagan ma'naviy qiyofaga ega. Sodda ko'z bilan ilg'ay olmagan, insoniyat tanigan, ammo tan ololmagan fazilat-u illatlar qahramonlar siyratiga jam qilingan. Hech bir ijodkor yo'qki, faqat hayotdan olmasa, undan olganiga sayqal berib, qaytarmasa. Zotan har qanday asarni biz "yozuvchi ijod jarayonida qalb prizmasidan o'tkazgan voqelik" deb bilamiz.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Shukur Xolmirzayev asarlaridagi qahramonlar realistik adabiyotning vakillari. Ular uchun muayyan bir shaxslar asos bo'lgan va yoki adibning diqqatiga tushib, uni ilhomlantirgan. Shubhasiz, adibga ko'pincha o'z hayoti chinakam manba bo'la oldi. Eshqobil Shukur "Eh, akam-a, akam" essesida adibning bir kitob haqidagi: "Bularning kitoblaridagi qahramonlar odamga o'xshamaydi, qo'g'irchoqning o'zginasi", - degan fikrini eslaydi. Shukur Xolmirzayevning o'zi-chi, qahramonlarini qanday topgan ekan?

Bu haqida Eshboy Ro'zi "Notanish odam" voqea-hikoyasida ma'lumot berganki, bu adibning "KUZATAMAN, HIS QILAMAN, YARATAMAN" tamoyilida ijod qilganini ko'rsatadi. Mana o'sha fikrimizni dalillovchi ma'lumot: Omonto'ra (asli matematikadan dars beruvchi qishloq muallimi) adib bilan Boysunda ov paytida uchrashib qoladi. Ovchi bu notanish odamdan kimligini nima qilayotganini so'rganida Shukur aka unga: "Siz jonivorni ov qilyapsiz, men tabiat manzarasini..." - deya javob beradi. Adib ovchi bilan tanishib, miriqib suhbatlashadi. Va suhbat davomida Omonto'ra ovchiga uchrashgan voqealari haqida "Bu mening kelgusi ijodlarim uchun bir detal bo'lishi aniq deydi." Darhaqiqat, Shukur Xolmirzayev o'zi uchratgan bu insonning xarakter chizgilarini "Omon ovchining o'limi" hikoyasining bosh qahramoni Omon ovchi uchun asos qilib oladi. Ko'rib turganimizdek, o'zi bilgan insonlarning "tuprog'i"dan olib ko'ngil suvida qorib, bu "xamir"ni tafakkur qo'rida pishitadi. Ha, aynan yozuvchining ko'nglidan suv ichgan qahramonlar uning ruhiyatidan nimalarnidir olishi aniq.

Biografik metod asoschisi Sharl Sent-Byov asarni muallif shaxsiyatining badiiy jihatdan ifodalanishiga o'xshatadi. Bu fikrning ayni haqiqat ekanini ko'p ilm ahlining mulohazalarida ko'ramiz. N.Rahimjonovning "Badiiy asar biografiyasi" kitobida I.Sultonning asarlari, badiiy fikrlari uchun zamin bo'lgan real hayotiy asos bo'lganini tahlil etolgan bo'lsa, B. Karimning "Abdulla Qodiriy fenomeni" asarida Qodiriyning adabiy-estetik g'oyalari va ijodkorning shaxsi asarlariga qay darajada singdirilgani mahorat bilan ilmiy tadqiq etilgan.

Shukur Xolmirzayevning ma'naviy olami va uning ba'zi qirralari qahramonlarida aks etishi barobarida yaratilgan qahramonlarining xislati-yu, xususiyatlari jamlanmasidan adibning komil insoni, ideal shaxs haqidagi xulosasini tasavvur etishimiz mumkin. Abdulla Qodiriy: "Yozuvchining, garchi shaxsan tanilmasa ham, asarlarini o'qib, qanday tabiatli shaxs ekanini g'oyibona bilish, tasavvur qilish mumkin. Chunki u asarlarida asosan o'z tabiatini, ruhini tasvirlaydi" – degan haqli e'tirofni aytgan. "Yozuvchi o'zi to'g'risida gapirmoq uchun, albatta, iqrornoma yoki kundalik shakliga murojaat qilmog'i shart emas". Sir emaski, Shukur Xolmirzayev o'z ma'naviy dunyosiga har kimni ham yo'latavermaydigan, "Tabiat-men-adabiyot" uchligiga sadoqatli bo'lib yashagan adibdir. Bu haqida shogirdlari o'z xotiralarida qayd etganlar. Erkin A'zamning "Do'rmon asiri" esesida, O. Toshboyevning "Men yomon yozuvchi emasman...", Qo'chqor Norqobilning "U adabiyot uchun yashadi" kabi esselarida adib shaxsiyati va ijodining ayni shu jihatlari haqida fikrlar bor.

Nazar Eshonqul adib haqida shunday deydi: "...Uning oddiy chaylada yashashga urinishi, oddiy tabiat qo'yniga qochib ketishi hammasi odamlardan bezgani uchun emas, balki o'zining adabiy-estetik qarashlari kabi oddiylikdan buyuklik izlashini anglatadi. U buyuklikni shu oddiylikda deb bilardi. U hayotdan oddiy kamtar ma'no izlab o'tdi. Uning goh Boysunga, goh dashtni eslatadigan, hech qanday sharoiti yo'q Do'rmondagi bog'iga qochib ketishi-hammasining orqasida oddiylik va samimiylikka, tabiiylikni qumsashi va ana shu istak yotadi."

Nazar Eshonqul ta'kidlaganidek, xuddi adibning o'zi kabi tabiiylikni sevadigan, oddiy turmush tarzini dabdaba-yu as'asalardan afzal ko'ruvchi qahramonlari talaygina. Jumladan, uning "Olabo'ji" romanidagi Ulton obrazi bu jihatdan fikrimizga yorqin isbotdir.

Adabiyotshunos M.Qo'chqorova: "Roman bosh qahramoni asli tarix-arxeologiya fakultetini tugatgan, ammo qishloq maktabida tabiatshunoslik fanidan dars berib yurgan yigit Ulton Sultonovdir. U nihoyatda halol, tabiat shaydosi, atrof-muhitning ifloslanib ketayotganidan qattiq tashvishlanadi. Shuning uchun tez-tez matbuotda ekologik muammolar haqida jiddiy maqolalari bilan ishtirok etadi. O'zini tabiat qo'riqchisi deb biladi, jonzo'larni, Olatog' va uning bag'ridagi ona tabiatni cheksiz mehr bilan sevardi. Ammo uning tabiatga, jamiyatga bo'lgan mehri-muhabbati, mehnati hech bir tamalarsiz kechadi." Olima Ulton uchun Mengziyo Safarov va adibning o'zi qisman prototip bo'lgan deb hisoblaydi. Har ikkalasining tarixga, tabiatga va adabiyotga bo'lgan mehri va yolg'izlikni xush ko'rganliklarini hayotiy hamda badiiy dalillar bilan asoslaydi.

Jumladan: "Ulton tabiatiga xos odamlardan uzoqda kamtarona hayot kechirish, o'zini tabiatning bir bo'lagi deb bilish, bir qarashda jamiyatdagi voqealarga aloqasi yo'q, zamondan uzilgan odamday tuyilsa-da, aslida umuminsoniy muammolarga daxldorlik, kuyinchaklik bilan qaraydigan inson sifatida ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Ayni shu jihatlari bizga Shukur Xolmirzayevning hayot yo'lini eslatadi. "Badiiy obraz o'zga orqali o'zini aks ettirish demakdir. Ijodkor temperamentidan, mijozidan, tabiatidan kelib chiqqan holda obrazga munosabatda bo'ladi" – degan haqli gapni aytadi.

Ijod ahli borki, qahramoniga o'zining ham, boshqa kishilarning ham u yoki bu jihatidan oladi, to'qima "taqdir lavhalarini" uning boshidan kechirishiga zamin yaratadi. Adib beixtiyor o'zining-da o'y-xayollari, yashash tutimini obrazga, uning harakatlariga singdirgan. Adibning qahramonlari (aslida o'zi) uzlatga chekinish, o'zini o'z xayollari bilan yolg'iz qoldirish va shu sokinlik sabab, qalb shiviriga quloq tutishga, o'zini anglashga erishganlar.

Shukur Xolmirzayev ijodida YOLG'IZLIK ko'zga tashlanadigan tushunchalardan biri. Aynan shu uzlat sabab adib kuchli asarlar yarata oldi. Yolg'izlikning ijod ahli uchun naqadar muhimligini Gyotening iqrorida ham anglash mumkin: "...Agar men o'zimni saroydagi amal va vazifalarimdan olib qochib, ko'proq tanholikda yashaganimda edi, yanada baxtliroq bo'lardim va ijodkor sifatida ko'proq ish qilgan bo'lardim."

Shukur Xolmirzayev ijodida qabarib turgan mavzular borki, ularning ham aslida adib siyratidan qahramonlari ruhiyatiga ko'chganiga shubha qilmaymiz. Bu xarakter qirralarini sanashga harakat qilamiz:

- Davrlar va tuzumlardan xoli, ko'ngil olamida yashash ("Olabo'ji" da Ulton, "Dinozavr" da Mahkam, "Quyosh-ku falakda kezib yuribdi" da Misir, Zumrad). Bu qahramonlarning yaratilishi tabiiy edi. Adibning o'zida aynan shunday tuzumlarga parvo qilmay, ko'ngil olamida yashash g'oyasi. Xidir Chorshanbiyevning xotiralarida qayd etilishicha, adib uning ijodiy mashqlarini ko'rib, shunday maslahat bergan: "Qushlar" turkum lavhalardagi "Ona" lavhasini o'qib chiqib, "Xidirjon to'g'ri yo'l topibsana, lavoziming vaqtincha, ko'proq yozaver, ammo partiyani qo'shma. Partiya vaqtincha, o'tib ketadi, ishonma", dedilar. Meni misoli elektr toki urdi. Nahotki, shunday katta yozuvchi partiyaga ishonmaydi, deb o'yladim".

- Nafsidan ustun bo'lish ("O'zbek xarakteri" da Eson, "O'zbekning soddasi" da ota, "Qariya" Qo'ziboy chol) Adibning o'zi e'tirof etganidek: "Shodmonbek, xudo shohid, men hech qachon boylikka ruju qo'ygan emasman. Ammo ko'p yillardan buyon davlat idorasida ishlamaganim uchun maosh olmayman. Qalam haqqi esa... ba'zan uncha-muncha bo'lsa, ba'zan aytishga ham arzimaydi. Xo'sh, ana shu tanqislik sabab moshinamni sotdim-da. Yo'g'asam, u menga "qanot" edi..." Yozuvchining qiziga yozib qoldiradigan kichik xatlardan shu satrlarini o'qirkanmiz, adib naqadar qanoatli, nafsini jilovlagan inson bo'lganiga amin bo'lamiz: "Sayyorajon! Bugun shanba, soat 4:10. Tirikchilik g'amiga tushdim. Ertalab jahon borgan edi, bir chelak gilos terib berdim. Pul uchun rahmat. Zo'rg'a yetib keluvdim."

- haqiqatgo'ylik ("Ustoz" da shogird, "Qish hangomasi" da O'sar, "Tikan orasidagi odam" da Mirhaydar, "Kechagi kun kecha" da Kamol, "Og'ir tosh ko'chsa" asarida rassom yigit, "O'zbek bobo" Amirqul polvon, Shokir, "Nasib etsa" hikoyasida Elyor). Yozuvchining qalamiga mansub "Qadim Baqtriya tuprog'ida" essesi zamonasi yasagan mafkura qolipiga mos kelmasa-da Vatanining va xalqining tarixi haqidagi haqiqatni aytishga jur'at qildi. Holbuki, sovet sodiq malaylari har bir so'zni senzura elagidan o'tkazayotgan bir davr edi. Haqiqatni tasvirlash va uni anglatish adibga realistik yozuvchi degan ta'rifni berdi.

- tabiatsevarlik ("Jarga uchgan odam" Islom, "Qush tili" da Qamariddin, "Sog'inch" da Ismat, "Bandi burgut" Yo'ldoshboy, "Olabo'ji" da Ulton, "Kulgan bilan kuldirgan" Ehsan, "O'zbek bobo" Amirqul polvon,) Shukur Xolmirzayev tabiatni sevgan. Toshboyev xotiralaridan birida adibning tabiatga, zaminga bo'lgan mehrini eslar ekan, u mana bu tasvir hamda adibning xitobiga urg'u beradi: "Bog' nihoyatda mehr bilan parvarishlangan: turli atirgul va mevali daraxtlar har qanday yo'l o'tkinchining havasini keltirar, yerga bunchalik mehrining sirini so'rasangiz: -Bog'iga bir tup nihol qadamagan odamning vatan haqida yozganiga kim ham ishonadi?! - deya savol ohangida gap qotar edi."

- erksevarlik ("Bandi burgut" da burgut, "Ozodlik" da Mansur, "Ostin-ustun", "Qora kamar" da Hurrambek...) Yo'ldosh Solijonov ta'biri bilan aytganda: "...o'z xohish istagini xohlagan paytida amalga oshiradigan odam edi Shukurjon! Balki, qahramonlarining erkinlikni istashi, buning uchun o'zini ayamasligi, hatto mushtlashishgacha, qo'liga miltiq olishgacha borishi shundandir? Axir yozuvchi shaxsi uning ijodida, qahramonlari tasvirida namoyon bo'ladi-ku! Ha, Shukur Xolmirzayev to'g'risida o'ylaganimda ko'z o'ngimda har doim OZOD, ERKIN INSON gavdalanaveradi."

Bundan tashqari, adibning KITOBSEVARLIK fazilati o'zi yaratgan qahramonlariga ham o'tgan. Ya'ni yozuvchi o'zining xayolini band etgan jahon durdonalarini qahramonlarining qo'liga tutqazgan va yoki mashhur shoirlarning baytlari-yu, tarixiy- ilmiy kitoblarning mazmuni bilan qahramonlarining intellektual saviyasini o'stirgan. Jumladan, "Olabo'ji" romani voqealari Ulton Ernest *Seton Tompsonning* "Qo'ng'ir ayiq" qissasini o'qishi bilan

boshlanadi. Asar davomida turli qahramonlar tilida Mashrab g'azallari, Bobur, Navoiyning mumtoz misralari, *Cho'lpon, G'afur G'ulom, Mirtemir she'rlaridan parchalar jarang topadi. Asardan olingan ushbu parchaga e'tibor qiling:*

"Sahn chetidagi marmar tagkursiga chiqib olgan tepakal, pakana odam qo'llarini silkitib, xitob qilayotib:

"Muhabbatlar muvaqqatdir,

Faqat g'amlar haqiqatdir!..

...Yurtlar obod shaklinda,

Qullar ozod shaklinda!"

So'ngra ovozi burchlardan aks sado bera boshladi:

– Muhammad Hodiy afandining "Inson fojealari manzarasi" nomli asarida shunday bitmishlar! U kishi buyuk Turkistonning ham shoiri edi! Zeroki Fitrat afandig'a ham ustozlik qilgan edilar! Bilib olingiz, ey, g'ofil bandalar!.. Domla Abdulla Oripovning (Abdulla Orif o'g'lining) "Oltin baliqcha" she'rini aytib, g'ofil bandalar (sahnda o'ris askarlardan bo'lak kimsa yo'q edi) ushbu zindondan boshqa olam borligini unutilib va yovg'on yuvindini tamaddi qilib, "baxtiyormiz!" deb o'ylashlarini bashorat qilarkan, yonida Berdi do'xtir paydo bo'lib: "Domla Cho'lpon! Taom sizga mahtal bo'ldi! Bog'da kutishayotir!" deb tirsagidan ushladi, tushirdi va qo'ltiqib jo'nadi."

"Olabo'ji romanida jinnixonadagi qahramon botinidagi hayqiriq roman qanday davr va qanday tuzumning qiyofasini akslantirganini anglatadi. Demak, Sh.Xolmirzayev bu asar parchalarini qahramonlari nutqiga shunchaki kiritgan emas, ularning qo'ligan duch kelgan kitobni bergan emas. Bu asarlar, avvalo, yozuvchining qalbidan o'rin olgan, badiiy tafakkuring takomiliga hissa qo'shgan. Eng asosiysi, asar ichra jarang topgan bu badiiy yaratq parchalari adibning bosh g'oyasini ochish uchun qo'l kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. To'laganova S. Ijodkor shaxsiyati va badiiy qahramon muammosi. ..diss.-Toshkent.: 2019.
2. Shukur Xolmirzayev zamondoshlar xotirasida.-Toshkent.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.
3. Karim B. "Ruhiyat alifbosi"-T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2018.
4. Jahon adiblari adabiyot haqida. - T.: Ma'naviyat, 2010.
5. Qo'chqorova M. Hard realistic interpretation of society and spiritual and moral sunset(On the example of Shukur Kholmiraev's novel "Olobodzhi"). "Academicia" an international multidisciplinary research journal", 2021- yil. – B 546.

XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA TURKISTONDA TA'LIM JARAYONINI YUZAGA KELISHI VA DARSLIKLAR

**Vazira Abdullayeva
Qo'qon universiteti "Ta'lim kafedrası o'qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda ta'lim jarayonini yuzaga kelishi hamda ta'lim jarayonidagi usullar va darsliklar yuzasidan so'z yuritiladi.

Kalitso'zlar: ta'lim jarayoni, ta'lim usullari, jadidchilik, usuli, jadid, yangi usul, o'qitish, darslik.

Ko'p asrlik tariximizda XIX asr ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy hayotning ta'lim jarayoniga alohida ta'siri mavjudligini ko'ramiz. Ma'lumki, bu davrda O'rta Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy holat qoniqarli tusda emas edi. Bu jarayon albatta xalqning bilim olish va jahon sivilizatsiyasiga yuz tutishiga o'zining salby ta'sirini ko'rsatib ulgurgan edi.

O'rta Osiyoda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlariga kelib xalqning or-nomusi, aql-idroki, zakovat va matonatinini ko'rsatib, xalqni bilim olishga undovchi ziyoli, vatanparvar shaxslar yuzaga kela boshladi. Bunday shaxslar jadid atamasi ostida maydonga keldilar.

Jadidlar harakat sifatida shakllanib bordi va ular xalqni bilimli bo'lishlari yo'lida bir qator amaliy ishlarni amalga oshirdilar. Jadidchilik harakatining tamal toshi jadid maktablardir. Bu harakatning asl maqsadi millatning o'zligini tanitish, ijtimoiy-siyosiy tuzimni tubdan isloh qilish. Bu maqsadga erishish uchun yangi avlodni o'qitish masalalariga alohida e'tibor berish kerakligini ular tushunib yetgan edilar.

XVI asrdan boshlab Turkistonda gi vaziyat jahon taraqqiyotida butunla uzulib qolgan, buning ustiga mustamlaka tuzumi tufayli parokanda ahvolga tushgan, mahalliy maktablar va ta'lim-tarbiya tizimi bilan bu buyuk vazifani bajarish mumkin emas edi. Shuning uchun mahalliy maktablarni tubdan isloh qilish, zamon talablariga javob bera oladigan maktablar, oily o'quv yurtlari tashkil qilish jadid namoyandalarining birlamchi va asosiy vazifasiga aylandi. Ular "usuli jadid" maktablarini vujudga kelishi bilan an'anaviy o'qitish usullarini tubdan isloh qilish, o'qitishning yangi usullarini ishlab chiqish va shu usullar zaminida darsliklar, o'quv qo'llanmalarni yaratsih jadid pedagogikasining dolzarb masalasiga aylandi. Jadid pedagoglarining o'qitish metodlari sohasidagi faoliyatlari asosan, ularning darslik va o'quv qo'llanmalarida o'zifodasini topgan. O'qitishda ko'rgazmalilik, ifodali o'qish, uning turlari, ularda texnik vositalardan foydalanish, og'zaki va yozma nutq o'stirish usullari kabi ona tili va adabiyot o'qitishning muhim masalalari ishlab chiqildi.

Bu borada Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Saidrasul Saidaziziy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda kabi pedagoglar maktablar uchun o'quv qo'llanma va darsliklar yaratdilar.

Turkistonda yangi usuldagi maktablarni ochilishida Munavvarqori Abdurashidxonovning o'rni juda katta bo'lgan. U 1901 yilda Toshkentning Shayxovand Tahur, keyinchalik boshqa dahalarda ham birinchi yangicha maktablarni ochishga erishdi. Bu maktablar "usuli jadid" maktablari deb yuritila boshladi.

Munavvarqori Abdurashidxonov bunday maktablarga kundalik o'quv-tarbiyaviy ishlari uchun dastur va o'quv darsliklar yaratishishlariga bel bog'ladi. Munavvarqori Abdurshidxonov 1907 yilda yangi usuldagimaktablar uchun "Adibi avval" darsligini yaratadi. Mazkur darslik o'zbek tili va yozuvini deyarli ilk bor alifbolaridan bo'lib, bu darslik maktabning boshlang'ich sinf lariga tavsiya qilingan. Bu darslik Saidrasul Saidazizning "Ustodi avval" darsligi bilan bir xil vaqtda darslik sifatida chop etildi.

Munavvarqori Abdurshidxonovga o'lkada yangi usuldagi maktablarning tobora ko'payib borishi unga qanot yozishiga yanada kuch beradi. Munavvarqori Abdurashidxonov 1907 yilning oxirida ikkichi darsligi "Adibus-soniy" darsligini nashr qilishga erishadi.

Ta'lim jarayonidagi bu kabi o'z'gashlar xalqni be'tibor qoldirmadi. 1910-1911 yillarda yangi usuldagi maktablarni ochilishiga bir qator faollar o'z hissalarini qo'shdi. A'zamxon, Muslimxon (Munavvarorining akalari), Xasan qori Xoniy, Eshonxo'ja Xoniy, Nizomiddin Xesainov, Rustambek Yusufbekov, Sa'dulla qori Abdullayev va boshqa ko'pgina toshkentlik, qo'qonlik, namanganlik, farg'onalik domlalar A.Ibodov, A.Shukurov kabilarning asarlaridan foydalanila boshlandi. Ko'pgina maktablarda Munavvarqori Abdurashidxonovning 1-4 sinflar uchun tuzgan dasturi joriy qilingan edi. Dastlabki usuli jadid maktablarining 1-sinfida "Adibus-soniy", "Havoyiji diniy" hisob (yuzdan yuqori son va amalla to'grisida), 3-sinfda so'fi olloyorning kitoblari, o'qish va yozish darslari, Qur'on kitobi, "Havoyiji diniya (II qism)", "Tarizi anbiyo", Shapochnikov va Volsov qalamiga mansub "Arifmetika", "Nazihati atfol", "Tajbid", 4-sinfda "Qur'on", "Dahr-un-najot" (Munavvarqori Abdurashidxonov), R/Faxriddinovning "Nasihati", "Hisob masalasi", arab tili, "Dur-ul-shifoya", Abdushukurovning "For tili" kitoblari o'qitilgan. Maktabda ta'lim jarayonini isloh qilish maqsadida Munavvarqori Abdurashidxonov o'quv tizimini chuqur o'rgana boshladi. U darsliklar yaratish bilan kifoyalanib qolmadi. 1912 yilga kelib, o'quvchilarga xusnixat, jug'rofiya, islom tarixi, turk qavmlari tarizi fanlarini oshkoro o'qita boshladi, maktab ostonasiga qorovul qo'yib, ijtimoiy sohalardan saboq bera boshladi. U mahalliy o'qituvchilar orasida birinchi bo'lib, "Namuna" maktabini tashkil qiladi hamda rus tilini o'qitish masalasini hukumat oldiga ko'ndalang qo'yadi.

Maktablar ta'lim jarayoni tashkil qilishda Abdulla Avloniyning ham samarali faoliyatini ham ko'rishimiz mumkin. Jadidchilik harakatining rahbarlaridan biri bo'lgan Abdulla Avloniy ham 1904 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida yangi yo'nalishdagi jadid maktabini ochdi, o'zi unga mudirlik va o'qituvchilik qiladi.

1909 yilda kambag'al, yetim-yesirlarga ko'mak beruvchi "Jamiyati xayriya" deb nomlangan uyushma tashkil etdi. Uning "Birinci muallim" (1909), "Ikkinchi muallim" (1912) nomli darsliklar hamda "Turkiy Guliston yohud axloq" (1913) nomli qo'llanmasi o'z davrida yoshlarni yangicha yo'nalishda o'qitishda va an'anaviy milliy ruh asosida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo'ldi. U yaratgan besh to'plamdan iborat "Adabiyot yohud milliy she'rlar" (1909-1916) maktablarda qo'llanma vazifasini o'tadi. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yohud axloq" nomli 1913 yilda yozilgan asari XX asr boshlaridagi o'zbek pedagogikasi tarixida o'ziga xos o'ringa ega. Asarning tub mohiyati yoshlarni ma'rifatga chorlash, sharqona ko'p asrlik milliy an'analarimiz ruhida tarbiya ishining yo'l-yo'riqlarini tashkil etish, ayni vaqtda, ta'lim-tarbiya sohasida yangi asrning ilg'or talablarini qo'yish, axloq muammolarining shaxs komoloti va jamiyat ravnaqidagi o'rnini yoritishni tashkil etiladi. Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yohud axloq" asarida yaxshi xulq va yomon xulq, ruh, fikr, axloq, uy va maktab tarbiyalari haqida mulohaza yuritarkan, ularning har biridagi o'ziga xos tomonlarini ochib berishga harakat qiladi. Asrdagi barcha naql-hikoyatlar g'oyasidagi kelib chiqadigan badiiy mantiq shuki, insonni barkamol etish va millatni ravnaq toptirishning asosiy yo'li har bir shaxsning yuksak axloqli va ma'naviy go'zal, ilimli va ma'rifatli bo'lishiga erishishdan hamda butun kuch-quvvat, aql-zakovat, barchasini vatan ravnaqi va xalq saodatiga yo'naltirishdan iboratdir.

Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yohud axloq" asari haqida "Men bu asar nochizonimni birinchi maktablarimizda yuqori sinflarida ta'lim bermak va barobar ulug' adabiyot muhiblari, axloq havaskorlarining anzori oliylariga taqdim qildim" deya izoh qoldiradi. Mazkur asar darslik sifatida o'qitila boshlangan. Darslikni boshlanishida Abdulla Avloniy tomonidan xalqni ilimli, ma'rifatli qilish borasidan qayg'urib yozgan she'r bilan boshlanganini

ko'ramiz. Bu she'riy parcha Abdulla Avloniyning butun hayotini, faoliyatini aks ettirgan deyish mumkin.

Har kun o'luram shong'acha men g'amga giriftor,
Har shab yonaram otasha parvona kabi zor,
Yech kimsa emas bu meni ahvolma voqif,
Men xastayamu millatim o'lmisham nega bemor.

Darhaqiqat, jadid pedagogikasini kuzatar ekanmiz, bevosita yoshlar tarbiyasini hayot va mamot masalasi darajasida qaralishi hozirgi ijtimoiy - siyosiy hayotimizdagi ajib bir o'xshahslik va yaqinlikni his etish mumkin.

Ma'lumki, jamiyatda ta'lim jarayoniga berilayotgan e'tibor har bir davlatning rivojlanish pog'onasini ko'rsatib beruvchi omil sanaladi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni ijrosi asosida ta'lim jarayonini sifatini yangi bosqichga olib chiqish va interfaol ta'lim texnologiyalarini kiritishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturini amliyotda qo'llash o'ta muhimligi va maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimi asosida izchil ishlar amalga oshirilmogda.

Yuqoridagi qarorlar va dasturlarni amaliyotida maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'lim olishida, ularning dunyoqarashini rivojlanishiga duyoni tanib borishdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda umumta'lim maktablarining ahamiyati g'oyatda muhim ekanligini alohida e'tirof etish o'ta muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B. Qosimov, O'son millat. Sharq, 1993 yil
2. B. Qosimov, Milliy Uyg'onish. T. Ma'naviyat, 2002 yil
3. U. Dolimov, Turkistonda jadid maktablari, T, Universitet, 2006 yil
4. S. Karimov. Munavvarqori Abdurashidxonov, T. Ma'naviyat, 2003 yil
5. A. Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq, Toshkent. 1917 yil

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Qurbonaliyeva Gulshanoy Xaydarali qizi
Qo'qon Universiteti "Ta'lim" fakulteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi,
Vazira Abdullayeva
Qo'qon universiteti "Ta'lim kafedrası" o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni dunyoqarashini shakllantirish, ularning xususiyatlari va qobiliyatlarini yanada rivojlantirish yuzasidan so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, o'qitidh, metodlar, dunyoqarash, ong, tafakkur, qobiliyat.

Yurtimizda ta'lim jarayonini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023 yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nomlanganligida ham ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan birga ta'lim jarayonini rivojlantirish va sifatli ta'lim jarayonini tashkil qilish borasida davlat rahbari tomonidan 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasito'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni ijrosi asosida maktabgacha ta'limda qamrov darajasini oshirish, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifati yangi bosqichga olib chiqish va interfaol ta'lim texnologiyalarini kiritishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim berish jarayonini tashkil qilish borasida O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturini amaliyotda qo'llash joriy qilindi.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi o'zgarishlar qatorida ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash, uni muntazam takomillashtirib borish zaruriyatini vujudga keltiradi. Bunday yangilanish va o'zgarishlar bir qator ta'lim qonunlari hamda ta'lim dasturlari asosida amalga oshirilmoqda.

Darhaqiqat, bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasi har tomonlama rivojlanmoqda va juda katta e'tabor qaratilmoqda. Bolalarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda, barkamol avlod qilib yetishtirishda, avvalo, uning sog'ligi, nutqi va boshqa sifatlari, ingliz tili jihatidan savodxonligiga ham e'tibor qaratish lozimligi e'tiborga olinmoqda. Ta'limning yangi mazmuni bolaning har tomonlama kamol topishiga, ularni faollashtirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirishda ota-ona va tarbiyachining zimmasiga katta ma'suliyat yuklashi shubhasizdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimi asosida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, kichik yoshdagi bolalarning dunyoqarashlarini shakllantirishda oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida berilayotgan ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning o'rni juda katta bo'ladi. Bolaning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondashuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi bolaning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi.

O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobiy fazilatlarining boyib borishiga yordam beradi.

Dunyoqarash atamasi kishilarning turmush tarzi, hayoti axloq-odobi, madaniyati yanada o'zida mujassamlashtirgan tasavvurlar, bilimlar yig'indisi hisoblanadi.

Inson qarashlari ong jarayoniga bog'lagan. Dunyoqarashning shakllantirish shaxsning intellektiga, irodasiga, his-tuyg'usiga, uning amaliy faoliyatiga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq.

Yuqoridagi omillar dunyoqarashni shakllantirishning asosiy voasitalari bo'lib, insonning dunyoqarashini shakllanib borishida o'ta muhimdir.

Bolalarning dunyoqarashini shakllantirishda ikkita darajaga e'tibor qaratish kerak. Birinchisi, ularning kundalik hayotda ko'rgan kechirganlari tajribasi hamda faoliyati natijasida to'plagan taavvurlari, qarashlarini tashkil qiladi.

Ikkinchisini, kattalar tomonidan, jumladan ota-onasi yoki bog'chadagi tarbiyachisi tomonidan o'zlashtirgan bilim, g'oyalar yig'indisini tashkil etadi. Mazkur dunyoqarashning shakllantiruvchi bosqichlarning ikkalasi bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Dunyoqarashni shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi. Agar uning qarashlari tizimi ong birligiga tayansa, inson dunyo haqida bir butun tasavvur hosil qiladi. Bundan kelib chiqadiki, dunyoqarashni shakllantirish bolaning intellektiga, irodasiga, his-tuyg'usiga, uning amaliy faoliyatiga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq. Dunyoqarashning intellektual tarkibiy qismi borliqni bevosita hissiy aks ettirishdan, abstract tushunchali fikrlashgacha bo'lgan harakatni talab etadi. Bolalarning amaliy faoliyat sohasi yetarlicha keng bo'lishi mumkin.

Bolaalrning yoshlikda dunyoqarashlarini shakllantirish oila davrasida bolalarning dunyoqarashini shakllantirishga asosan ertak, kichik hajmdagi hikoyalar va turli xil o'yinlarining o'rni juda katta bo'ladi.

Bu borada bolalarga metodik yondashuvlar asosiy vazifani bajaradi.

Ta'lim berishda metodlarni qo'llanishi ta'lim oluvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirish texnologiyasi, o'quvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi asosida amalga oshiriladi. Tegishli texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayonining ma'lum tarkibiy qismi, alohida shaxs sifatlarini shakllantirish, o'quv ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Ta'lim berishda bir qator tamoyillar: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, kitob bilan ishlash, namoysh qilish (video, tasvir orqali) orqali o'ziga xos vasifalari mavjud.

Shu o'rinda shuni aytish kerakki, ta'lim jarayonida ta'lim tamoyillari o'z ichiga ta'lim metodlarini qamrab oladi.

Og'zaki tamoyillarga hikoya, suhbat, tushuntirish, ma'ruza, munomala metodlarini, ko'rgazmalilik tamoyilda ta'lim berishda ko'rsatib berish orqali, amaliy tamoyillarda mashq, amaliy, laboratoriya (katta sinflarda), didaktik oyinlar, kitob bilan ishlash tamoyillairda o'qish, o'rganish, namoyish qilish tamoyillarida ko'rish, nazorat qilish, tasvirlash metodlarida foydalaniladi.

Bu borada xalq og'zaki ijodi namunalarini va kichik hajmdagi asarlarni hikoya qilish metodi orqali bolalarning his-tuyg'ulariga, tasavvurlariga ta'sir etib, ularning dunyoqarashini shakllantirishga, axloqiy me'yor va qoidalarni tushunishga yordam beradi. Yaxshi bayon tavsifiga ega hikoya axloqiy tushunchalar beribgina qolmay, balki tarbiyalanuvchilarda madaniy xulq-atvor qoidalarga, ularning shakllanayotgan dunyoqarashiga ijobiy munosabatning yuzaga kelishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni maktabga tayyorlash davrida tajriba o'yinlarini tashkil etish ustida ishlashning eng afzal tomonlarini ta'minlovchi innovatsion texnologiyalardan va didakik o'yinlardan foydalanib bolaning dunyoqarashini shakllantirib borish bolaning aqliy tarbiyasini yanada oshiradi. Bolalar aqliy tarbiyaga ega bo'lishda bilim berib borish, bilish qobiliyatini, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning ta'siri orqali yuzaga keladi.

Bu borada bolalarning dunyoqarashlarining shakllanishida "Ilk qadam" Davlat dasturining o'rni juda katta.

"Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi bolalarning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga qaratilgan bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, kutilayotgan

natijalari, mazmuni va tashkil etilishi belgilaydigan tayanch hujjatdir. Mazkur hujjat orqali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tamoyillari maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tegishli tamoyillar aks ettirilgan.

Ushbu tamoyillar O'zbekiston respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan kutilayotgan natijalarni huningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari tomonidan davlar o'quv dasturini amalga oshirishda ta'minlash kerak bo'lgan rivojlantiruvchi muhitning xususiyatlarini maktabgacha bolalarga ta'lim berish va rivojlantirishdagi yondashuvlarni tavsiflaydi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning rivojlanish jarayonida ta'lim-tarbiya jarayonining tamoyillarini o'rni juda kattadir.

Tamoyillarga ko'ra, bolalarni o'ziga xos qadriyat ekanligini tan olish, ularning huquqi, individual va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olib borish, har bir bolaning har tomonlama rivojlanishi va farovonligini ta'minlash, bola sog'lig'ini saqlash, mustahkamlash va xavfsiz muhitni ta'minlash, o'yin orqali ta'lim olish va rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotining oila, mahalla bilan hamkorligini tashkil qilish kabilar yo'lga qo'yilishi tartibga solingan. Maktabgacha ta'lim bolalarning tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jarayonidan keyingi bosqichlarda, shuningdek butun hayoti davomida rivojlanib borishga ahamiyatli sanladi.

Kompetensiya - bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuasi hisoblanadi. Bolalarga ta'lim berishda kompetensiyavi yondashuv bilish bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlari, muammolar va imkoniyatlarga samarali javob berish qobiliyatini shakllantirish, axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni rivojlantirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, shaxsiy ("Men" konsepsiyasi) ni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Bu borada bolalarning rivojlanish sohalari kompetensiyalari bolalarning jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllantirish, ijtimoiy-hissiy rivojlanishi, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari, bilish jarayonining rivojlanishi, ijobiy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratish muhim.

Bolalarning rivojlanish jarayonida ijtimoiy-hissiy rivojlanish kompetensiyalarining ahamiyati alohida o'rin egallaydi.

- bolalar "meni" a boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;

- o'z hissoyatlarini boshqaradi va elani vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;
- o'zgalarning hissoyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;
- kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;
- murakkab vaziyatlardan chiqishning amaliy yo'larini topadi.

Shu bilan birga "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasi kompetensiyalari bolaning rivojlanish jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Bolalar ta'lim tarbiya jarayoni natijasida quyidagi xususiyatlar shakllanadi:

- ona tili eshitadi va tushunadi;
- ona tilida to'g'ri talaffuz, mosgrammatik shakllar va turli gap ruzilmalaridan foydalanadi;
- chet tilini o'rganishga qiziqish bildiradi;
- badiiy adabiyotga qiziqish bildiradi;
- so'zning lug'aviy manosi, bo'g'inli va fonetiktuzilishi tog'risida tasavvurga ega bo'ladi;
- gapning turli ma'no shakllarini mustaqil ravishda tuzadi va so'zlab bera oladi;
- ona tilida yozishning dastlabki malakalari va vositalaidan foydalanish bilimiga ega bo'ladi.

Kuzatish jarayonida bolalarga yangi so'zlarni o'rgatish davrida lug'atni faollashtirish mashg'ulotlarini tashkil etish ustida ishlash dolzarb metodik [manba ekanligini aniqlash](#),

umumiy holatda gap ustida ishlash dolzarb metodik manba ekanligini aniqlash, umumiy holatda o`rganish, ularning didaktik asosini belgilab dunyoqarashini kengaytirish ham mavzumizning predmeti hisoblanadi. Bolalar dunyoqarashini shakllantirishda muhim o`rin tutadigan lug`atni faollashtirish va tarjima o`yinlarida so`z va gaplarning mohiyatini o`rganish nazariyasini o`rganish, ularni amalda hayotga tadbiiq etish va bolalar dunyoqarashini shakllantirishning innovatsion usullarini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb masalasidir.

Darhaqiqat, bolaning dunyoqarashini shakllantirishda oila davrasidagi hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tashkil qilingan ta'lim-tarbiyaning o`rni muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B.X. Xodjayev. Umimiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. T. Sano-standart,2017.
2. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligining "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi, T.2022.

TA'LIM IJTIMOYIY MADANIY FENOMEN VA PEDAGOGIK JARAYON SIFATIDA

Aliyeva Iqlimaxon
Qo'qon universiteti talabasi,
Asilova Sanobar Qo'qon universiteti Ta'lim fakulteti
Ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bola taraqqiyoti davri haqida tushunchalar keng o'rin olgan. Shuningdek psixik rivojlanishda harakatga keltiruvchi kuchlarni farqlash, har bir bola traqqiyotini ta'minlovchi omillar haqida fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: fenomen, ijtimoiylashuv, ta'lim, rivojlanish, ta'lim va tarbiya, ko'nikma, muhit, psixik jarayon

Kirish. Fenomen- yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "ko'rsataman" debgan ma'noni anglatadi. Kundalik hayotda esa bu atama kamdan-kam kuzatiladigan g'ayrioddiy hodisani anglatadi. Mazkur atamani zamonaviy falsafaga Immanuel Kant kiritgan. G'ayrioddiy, kamdan-kam bo'ladigan hodisa, fakt; his-tuyg'u tajribasi bilan payqaladigan hodisani anglatuvchi falsafiy tushuncha fenomen - atamasini Aristotel "ko'rinuvchi", "tuyuluvchi" ma'nosida ishlatgan. Leybnits esa bu so'zni tajribadan ma'lum bo'lgan dalillarga nisbatan qo'llagan. I. Kant "Fenomen" tushunchasi yordamida mohiyatni hodisadan keskin ajratishga uringan va hodisani bilish mumkin, mohiyatni esa bilish mumkin emas deb hisoblagan. Psixologiya fani zamonaviy ta'limotga asoslangan holda insonlarning shaxslarini tarkib topishiga uchta omilning o'rni juda ham bog'liqligini dalil isboti bilan izohlab u haqida tushunchalar beradi. Masalan birinchisini oladigan bo'lsak, unda insonlarning tug'ulib voyaga yetadigan ijtimoiylashuv muxitning ta'sirlari tushunilsa ikkinchisida esa odamga uzoq vaqt davomida muntazam berilib kelayotgan ta'lim-tarbiyaning ta'siri hisoblanadi. Uchunchisida esa insonlarga tug'ma ravishda berilayotgan xususiyatlar ta'siri hisoblanadi. J.Piajening fikricha bolaning va maktab o'quvchilarning aqliy o'sishi o'zining ichki qonunlari asosida rivojlana borib sifat jihatdan o'ziga hos bir qator genetik bosqichlarni bosib o'tadi Talim esa aqliy jarayon sifatida bir qator tezlanishlarga yoki sekinlashtirishga qobildir lekin, bu aqliy jihatdan yetilish jarayoniga hech qanday jiddiy ta'sir ko'rsata olmaydi. Bundan ko'rinib turibdiki ta'lim rivojlanish maqsadlariga bo'ysinishi kerak. Misol qilib oladigan bo'lsak bolalarning mantiqiy tafakkuri yechilmay turub uni mantiqiy fikr mulohazalar qilishi foydasiz hisoblanadi. L.S.Vigotiskining psixologiyada kiritgan psixik rivojlanishining g'eng yaqin zonasi tushunchasi muhim ahamiyatga ega. Buning asl mohiyatlari esa mustaqil faoliyat katta bolalar bilan hamkorlikda uning rahbarligida amalga oshirish tushuniladi.

Biz bilamizki har bir inson o'ziga hos o'zgacha hisoblanadi. Boshqalardan aynan boshqalarnikini takrorlamaydigan ijtimoiy muhitda, jamiyatdagi konkret ijtimoiy munosabati, ma'lum oila, jamiyat, odamlar orasida yashab o'zgaradi va ijtimoiy munosabati shakillana boshlaydi. Shaxsning mohiyati o'z tabiatiga nisbatan turli hildagi harakterlarga ega insonlardir. Shaxsdan barcha psixologik xususiyatlarni ijodiy faolligini rivojlantirish mobaynida uning atrofidagi ijtimoiy muhiti ham jamiyat hisoblanadi. Insonlarning shaxslari salbiy ijtimoiy taraqqiyaotda bo'lib uning ijtimoiy turmushi bilan belgilanadi. Huddi shunday ma'noda shaxsning taraqqiyoti insonlar bilan bo'layotgan munosabatlarida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabati va tarbiyasi egallash jaryonidan iboratdir. Albatta bunday natijalarda insonlarning psixologik xususiyatlari va axloqiy fazilatlar harakterlari, irodaviy qiziqishlari, dunyoqarashi o'zgarib boraveradi. Ma'lum darajadagi maqsadga qaratilayotgan ta'lim va tarbiyaning azaldan berilayotgan genetik jihatdan qat'iy belgilanayotgan nimanidir namoyon qilishi uchun insonlarning sharoitiga bog'liq bo'lib qolmay balki insonlarning psixik xususiyatlarini tarkib toptiradi. Bu borada insonlarni birinchidan muhit ta'siri ostida passiv

obyektiv bo'libgina qolmasdan, faol mavjudod hisoblanadi. Shuning uchun insonlarning holatlarini tashqi hayot sharoiti, tashqi ta'sirlar insonlarning psixikasini belgilamaydi. Insonlarning muhit bilan bo'lgan o'zaro ta'siri natijasida uning atrof muhitidagi faoliyati orqali belgilanadi. Shuning uchun ham muhitning ta'siri haqida emas, balki insonlarning boshqa insonlar oldidagi muhiti bilan faol o'zaro ta'siri haqida gapirish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz. Ikkinchidan bunday olib qaradigan bo'lsak psixikaning rivojlanishi tashqi muhit sharoitlariga va albatta tashqi ta'surotlarga ham bog'liqdir. Buning bir tomondan lekinni ham mavjud bo'lib bu rivojlanishni bevosita tashqi sharoitdan va tashqi vaziyatdan keltirib chiqarib bo'lmaydi. Bunday sharoitlarda hamisha insonlarning hayotiy tajribasi uning shaxsiy individual psixologik xususiyatlari va albatta psixologik qiyofasi orqali barchaga ta'sir qiladi. Shunday qilib tashqi muhit individining o'ziga hos bo'lgan psixikasi va shaxsiy tajribasini o'z ichiga olgan ichki sharoiti orqali ta'sir qila boshlaydi. Insonlarning faol mavjudod sifatida o'zi ham ongli ravishda albatta o'z shaxsini o'zgartirishi, o'z-o'zini tarbiyalash bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan jarayonlar qatoriga kiradi. Bunday jarayonlarda atrof-muhitdan ajralgan holda emas balki, yashab turgan muhitiga moslashgan holda va muhit bilan o'zaro munosabatda sodir bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan shuni hulosa qilib, ta'limni ijtimoiy-madaniy hodisa va shaxs va jamiyatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan pedagogik jarayon sifatida ko'rishimiz mumkin. Mana bu hodisalar orqali ta'lim qanday tushunilishi haqida bir qator ma'lumotlarni olamiz. Ta'lim ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida: Ta'lim ijtimoiy hodisadir, chunki u jamiyat kontekstida yuzaga keladi va madaniy qadriyatlar, me'yorlar va e'tiqodlar bilan shakllanadi. Ta'lim nafaqat bilimlarni uzatish, balki ijtimoiy normalar, qadriyatlar va e'tiqodlarni yaratish va mustahkamlashdan iborat. Bu odamlarga jamiyatda qanday ishlashni o'rganishga va o'zlik va tegishlilik tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, ta'lim ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida jamiyatlarning qanday rivojlanishi, taraqqiyoti va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishini ham shakllantiradi. Oila va din kabi boshqa ijtimoiy institutlar bilan bir qatorda, jamiyatning jinsi, irqi, etnik kelib chiqishi va sinfi kabi masalalarga munosabati va qadriyatlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Pedagogik jarayon sifatida ta'lim o'quvchilarga bilim, ko'nikma va qadriyatlarni yekazish uchun ishlatiladigan usullarga qaratilgan yo'nalish hisoblanadi. Bu o'qituvchilarning talabalar o'rganishini osonlashtirish uchun darslarni qanday loyihalashi va o'tkazishi bilan bog'liq. Pedagogik jarayon o'rganish uchun qulay bo'lgan, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini tarbiyalovchi o'quv muhitini yaratishdan iborat. U o'quvchilarni jalb qilish va ularning ta'lim natijalarini ilgari surish uchun ma'ruzalar, muhokamalar, guruh loyihalari va onlayn ta'lim kabi bir qator o'qitish usullarini o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'limni ijtimoiy-madaniy hodisa va pedagogik jarayon sifatida tushunish mumkin. Sababi ta'lim doimo inson taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Ta'limning bu ikki jihati o'zaro bog'liq va bir-birini mustahkamlaydi. Shu sababli, ta'lim o'quvchilarni yangi bilim, ko'nikma va qadriyatlar bilan boyitish orqali o'zgartiruvchi tajribalarni yaratish, shu bilan birga kengroq ijtimoiy-madaniy kontekstda o'ziga hoslik va tegishlilik tuyg'usini rivojlantirish uchun asosiy mas'uliyatga ega hisoblanadi. Turli yo'nalishlarga ega bo'lgan psixologlar bir tomondan ta'lim-tarbiya sohasidan, ikkinchi tomondan esa rivojlanish o'rtasidagi o'zaro munosabat muammolarini keng doirada muhokama qiladilar.

Ta'lim ijtimoiy madaniy fenomen va pedagogik jarayon sifatida har bir shaxsning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Aynana ta'lim va pedagogik jarayonlarda insonlar butun hayoti davomida o'zi uchun kerakli bo'lgan bilim va ko'nikmalarni egallab, rivojlantirib borishadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonini murakkab psixik rivojlanish davri deb hisoblanadi. Natijada bilim jihatdan ta'lim olish jarayonida yanada yuksakroq darajaga ko'tarilish yuzaga keladi. Bu davrda ehtiyojlar qondiriladi va ziddiyatlar bartaraf etiladi.

Qondirilgan ehtiyoj esa albatta yangi ehtiyojni tug'ilishiga sabab bo'ladi. Shu tariqa taraqqiyot davom etadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek insonlarning ijtimoiy hayoida ta'lim muhim rol o'ynaydi. Pedagogik jarayonlar orqali insonlar rivojlanib-taraqqiyotga erishib boradilar. Bu muhim bosqichda albatta har bir inson uchun yetarlicha e'tibor va qo'llab-quvvatlash zarurati tug'iladi. Pedagogik jarayonlardagi qo'llab-quvvatlash va ko'mak orqali taraqqiyotga erishish jadallashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Z. Nishonova va boshqalar. "Rivojlanish psixologiyasi" Toshkent. 2019 yil.
2. F.Qodirova "Rivojlanish psixologiyasi," VII bob 29-mavzu 97-b
3. Johnston "Salomatlik psixologiyasi"XII bob 52- mavzu 201-b
4. B.X.Xodjayev "Umumiy pedagogik psixologiyasi"V- bob 357- b
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/globalashuv-jarayonlari-va-uning-zamonaviy-sharoitlarida-tarbiyaga-ta-siri/viewer>

**O'SMIRLARDA DINIY-PSIXOLOGIK OMILLARI VA KASBIY O'ZLIGINI ANGLASHIDAGI
XAVOTIRLANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Abdullayeva Ma'sumaxon
Qo'qon Universiteti talabasi,
Usmonova Nargiza
Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlarda diniy-psixologik omillari va kasbiy o'zligini anglashidagi xavotirlanishning psixologik xususiyatlari o'rgangan olimlar nazariyalari masalalari ham keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xavotirlanish Ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, madaniy, empatiya, frustratsiya, shaxsiy ko'nikma, ijtimoiy ko'nikma, shaxslararo munosabatlar, fobiya, rigid,

Kirish. O'smir yoshidagi bolalar balki har qanday shaxsda o'zi kutayotgan kutilmalarining natijasi ijobiy yakun bilan tugamasligini bilgan shaxslarda xavotirlanish hissi paydo bo'lib, bu jaroyon jiddiylashgan sari ularning xavotirlanish darajasi ortib boradi. O'smir yoshidagi o'g'il-qizlarda xavotirlanish hissining paydo bo'lishiga din omillarning o'rni ham alohida ahamiyat kasb etadi. Sababi bizning jamiyatimizda diniy omillar yashash turmush tarzimizga singib ketganki ularning ko'rinishlarini payqash qiyin emas. Chunki din har bir shaxsni yaxshilikka, ezgu amallarni qilishga, o'z xatti-harakatini nazorat qilishlikka chaqirish bilan bir qatorda, insonni mushkul vaziyatlarda sabr qilishga, noumid bo'lmaslikka, yaratganda faqat afzalini so'rashlikka hidoyat qiladi. O'smir birorta faoliyatga kirishar ekan uni egallagan dunyoviy hamda diniy bilimi uni salbiy harakat qilishdan qaytarib turadi, agar uni amalga oshirib qo'ysa uni bu bezovtalik hissi tark etmay unga qayta-qayta eslatib turadi. Vaqt o'tgan sari bu hislar darajasi ortib xavotirlik hissini ortib borishiga sabab bo'ladi. Psixolog F.B. Beryozin xavotirlanish jarayoniga izoh berar ekan, "ma'lum bir ob'yekt bilan aloqaning mavjud emasligi xis qilingan xavf – hatarni oydinlashtirishning iloji yo'qligi o'sha vaziyatni imkonsiz qilib qo'yadi va xavotirlanish holatini yuzaga keltiradi".[1]

Bunday vaziyatdagi psixologik qabul qilinmaslik xavotirlikni u yoki bu obekt bilan bog'laydi. Natijada aniqlanmagan xavf – hatar oydinlashadi va ushbu xolat faqat biror vaziyatni sodir bo'lish ehtimoli bilan bog'lanadi. Odamlar bilan muloqat qila olmaydigan yoki odamlar orasida nutq so'zlay olmaydigan, uning qobilyatlarini namoyish qila olmaydigan kishi jiddiy vazifalarni bajara olmaydilar, shaxslararo munosabatlarda ham o'z o'rnini topishga qiynaladi.

Metodologiya. Psixologiyada o'smirlarning psixologik tomonidan salomatligi ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, madaniy, psixologik va boshqa ko'plab omillarga bog'liq. Psixologiya soha vakillarining tadqiqotlariga asosan (L.I. Bojovich, V.S. Muxina va boshqalar) o'smir ijtimoiy-muhitning eng nozik tizimi sifatida turli tashqi va ichki salbiy ta'sirlarga tezda duchor bo'ladi. So'nggi yillarda, olib borilgan maxsus eksperimental tadqiqotlarda tasdiqlaganidek, eng ko'p uchraydigan hodisalar o'smirlarda kasb tanlashdagi xavotirlanish va qo'rquvdir (I.V. Dubrovina, V.I. Garbuzov, A.I. Zaxarov, E.B. Kovaleva, R.S. Nemov, I.M. Kondakov, V.B. Chapar va boshqalar) [2]. Bu yerda xavotirlanish diqqatni, tafakkurni, xotirani va intellektual qobiliyatlarni safarbar qilish omilidir. Ammo xavotirlanish darajasi ushbu optimal chegaradan oshib ketganda, odam vahima qiladi. Muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik uchun o'smir ushbu kasbni tanlashdan voz kechadi yoki ma'lum bir vaziyatda muvaffaqiyatga erishish uchun hamma narsani qiladi va shu qadar unda emotional va fiziologik charchoq paydo bo'ladi, u boshqa vaziyatlarda "muvaffaqiyatsiz" bo'ladi. Va bularning barchasi muvaffaqiyatsizlik qo'rquvini oshiradi, xavotirlanish kuchayadi, ma'lum bir faoliyatlarda uning uchun doimiy to'siq bo'ladi. Kasb tanlash, kasbiy jihatdan o'zini anglash va kasb tanlashning yoshga xos

xususiyatlarini o'rganish bo'yicha N.Gisbers, Ye.Golovaxa, A.Golomshtok, L.Yovayshi, E.Klimov, A.Kronik, L.Mitina, I.Mur, N.Pryajnikov, D.Syuper, L.Bojovich, I.Kon, V.Slobodchikov, D.Feldshteyn va boshqalarning izlanishlarini ta'kidlash joiz. Ammo umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litsey bitiruvchilari orasida kasbiy qiziqishlar(tanlovlar) shakllanishida xavotirlanish va qo'rquvning ijtimoiy-isixologik omillarini yoritishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar dunyo amaliyotida juda kam ekanligi rost. O'zbekistonda esa bunday mavzudagi ilmiy izlanishlar mutloq amalga oshirilmagan [3, 18].

Mamlakatimiz olimlari tomonidan ham kasb tanlashda o'z-o'zini baholash muammosini o'rganishga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ularda kasbiy tanlovlarni va o'z-o'zini baholashni shakllantirish muammosi doimiy o'rganishni taqozo etadigan muammo ekanligi ko'rsatilgan. Xususan, bir toifa tadqiqotlarda xavotirlanishning o'quv faoliyati bilan bog'liq jihatlari yoritilgan. Tadqiqotchi G.Qo'ldosheva tibbiyot oliy o'quv yurti talabalarining o'quv motivatsiyasining ijtimoiyisixologik omillarini, Sh.T. Alimbayeva "O'smirlar o'quv faoliyatida xavotirlanish namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari"ni, R.Asomovanning izlanishlarida esa kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi, D.Xodjakulova tomonidan talaba shaxsiy-kasbiy yo'nalganligida kasbiy ustanovkalarining ahamiyati tadqiq etilgan. Mamlakatimiz psixologlaridan R.Z.Gaynutdinov, E.G'.G'oziyev, V.A.Tokareva, Y.B.Shoumarov, B.R.Qodirov, V.M.Karimova, Sh.R.Barotov, N.S.Safayev, R.I.Sunnatova, Z.G.Nishonova, A.A.Fayzullayev, F.I.Haydarov, N.I.Xalilova, K.B.Qodirov, N.T.Norqulova izlanishlarida ham o'quv va kasbiy faoliyat motivatsiyalari haqida ilmiy ma'lumotlar mahalliy sharoitga doir empirik ma'lumotlar tahlil etilgan[4].

Xavotirlanish muammosi turli nazariy konseptual yondashuvlar asosida xorij, rus va o'zbek psixologlari tomonidan talqin etilgan. Xorij psixologlaridan Z.Freyd, A.Adler, K.Xorni, E.From, G.S.Sullivan, R.Mey, Ch.Spilberger, P.Tillix, A.Ellis, A.Bek, E.Lazarus, K.Rojers, X.Maurer, Dj.Taylor, N.Miller, D.Boulbi, K.Izard, A.Castaneda, B.McCanaless, D.Palermo va boshqalar tomonidan xavotirlanish muammosini o'rganish borasida izlanishlar olib borilgan [5,7]. MDH mamlakatlari tadqiqotchi olimlaridan I.Sechenov, I.Pavlov, A.Uxtomskiy, A.M.Prixojan, Y.L.Xanin, A.I.Zaxarov, L.S.Slavina, B.M.Teplov, B.D.Nebilitsin, V.P.Zinchenko, I.V.Imedadze, L.A.Karpenko, B.G.Meshryakov, M.Z.Neymari, Y.N.Nuller, V.M.Astapov, V.A.Bakeyev, A.L.Venger, T.V.Dragunova, F.B.Berezin va boshqalar xavotirlanish, qo'rquv xolatining namoyon bo'lishi, uning kelib chiqish mexanizmlarini o'rganish borasida tadqiqotlar o'tkazib bu ikki emotsional xolatning o'xshash va farqli tomonlarini asoslab berganlar[6, 3].

Natija. O'zbekistonlik psixologlardan shaxsning hissiy-emotsional sohasini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari M. Rasuleva, G. Xrulnova va boshqalar tomonidan olib borilgan. O'smir shaxs xususiyatlari, bu davrdagi psixik faoliyat mexanizmlari va o'smirlarda xulqiy buzilishlar bilan bog'liq muammolar D. Rahmanova, G. Tulyaganova, N. Kamilova va boshqa olimlar tadqiqotlarida yoritilgan. Ammo ushbu mualliflarning ilmiy ishlarida muammoning ko'pgina jihatlari yoritilgan bo'lsa ham, o'smirlar kasbiy qiziqish(tanlov)larida yuzaga keluvchi xavotirlanish xolati muammosi va uning namoyon bo'lish xususiyatlari hamda ijtimoiy faoliyatidagi muhim psixologik tuzilma sifatida xavotirlanish bilan bog'liqligi masalasi ochib berilmaganligi bu yo'nalishdagi tadqiqotlarimiz ahamiyatini yanada oshiradi. Xavotirlanish holatini, xavotirlanishlanish tsuhunchasini birinchi marta Z. Freyd tomonidan aniqlangan va ta'kidlangan. U bu holatni hissiy holat sifatida tavsifladi, shu jumladan kutish va noaniqlik, nochorlik hissi, bularning barchasi ichki sabablarga asoslanadi. Natijada, ko'plab taniqli psixologlar va psixoterapevtlar xavotirlanish holatini o'rganishdi va ko'plab asarlar yozishdi. Psixologik adabiyotlarda xavotirlanish tushunchasining turli xil ta'riflarini topish mumkin, garchi ko'pchilik tadqiqotchilar buni boshqacha ko'rib chiqish zarurligiga rozi bo'lishadi - vaziyatli hodisa va shaxsiy xususiyat sifatida, o'tish holati va uning dinamikasini hisobga olgan holda. Psixologik lug'at ushbu atamaning quyidagi izohini beradi: "Xavotirlanish

- bu odamning tez- tez va kuchli xavotirlanishlanishga moyilligi, shuningdek, uning paydo bo'lishining past chegarasida namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyat, jarayonlar yigindisidir". Ushbu qarashlarga Lukretsiyning, undan keyin golland faylasufi B. Spinoza, XVIII asrda yashagan fransuz materialistlari: E. Kondilyak, P. Golbax, K. Galvetsiy, N. Chernishevskiy, R. Vudvorts, A. Uxtomskiy qarashlari ancha yaqindir. G. Ollport o'z asarida personalistik yo'nalishning yirik namoyondasi tariqasida inson qiziqishlariga shaxslilik yondashuvini tatbiq etish g'oyasini ilgari suradi. Muallifning "O'zini - o'zi namoyon qilish nazariyasi" da shaxs motivatsiyaning sub'ekti sifatida olib qaraladi. Tadqiqotchi o'zining "Shaxs kontseptsiyasi"ni bayon qilishda uni "ochiq tizim" shaklida talqin qilib, qiziqishni undovchi turtki doiradagi motivning quyi (biologik ehtiyoj) va yuqori (rivojlanish) darajalariga ajratadi. Axloqiy, intellektual va estetik kabi his-tuyg'ularni ajrating. K. Izard tomonidan taklif qilingan tasnifga ko'ra, fundamental va hosilaviy hissiyotlar farqlanadi. Asoslarga quyidagilar kiradi: 1) qiziqish - hayajon, 2) quvonch, 3) ajablanish, 4) qayg'u chekish, 5) g'azab, 6) jirkanish, 7) nafrat, 8) qo'rquv, 9) sharmandalik, 10) aybdorlik. Psixologik adabiyotlarda xavotirlanish tushunchasining turli xil ta'riflarini topish mumkin, garchi ko'pchilik tadqiqotchilar buni boshqacha ko'rib chiqish zarurligiga rozi bo'lishadi - vaziyatli hodisa va shaxsiy xususiyat sifatida, o'tish holati va uning dinamikasini hisobga olgan holda. Psixologik lug'at ushbu atamaning quyidagi izohini beradi: "Xavotirlanish - bu odamning tez-tez va kuchli xavotirlanishlanishga moyilligi, shuningdek, uning paydo bo'lishining past chegarasida namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyatdir [8, 4].

A. M. Pxirojanning ta'kidlashicha, xavotirlanish - bu muammoni kutish bilan bog'liq bo'lgan hissiy noqulaylik, yaqinlashib kelayotgan xavfni oldindan bilish bilan bog'liq. Xavotirlanish hissiy holat sifatida va barqaror xususiyat, shaxsiy xususiyat yoki temperament sifatida ajralib turadi. R. S. Nemoj ta'rifiga ko'ra, "xavotirlanish - bu odamning doimiy yoki situatsion ravishda namoyon bo'ladigan xususiyati bo'lib, xavotirlanishning kuchayishi, muayyan ijtimoiy vaziyatlarda qo'rquv va xavotirni boshdan kechirish". A.V. Petrovskiy ta'rifiga ko'ra "Xavotir - bu xavotirlanish reaksiyasining boshlanishi uchun past chegara bilan tavsiflangan shaxsning xavotirlanishga moyilligi bilan aniqlansa, albatta individual farqlarning asosiy parametrlaridan biri hisoblanishi tabiiy jarayondir. Xavotir odatda nevropsikiyatrik va og'ir somatik kasalliklarda, shuningdek, sog'lom - 53 - odamlarda kuchayadi. psixotravma oqibatlarini boshdan kechirayotgan odamlar, ko'p guruhlarda shaxsiyatning buzilishining deviant sub'ektiv ko'rinishi bo'lgan odamlar. Zamonaviy psixologiyada xavotirlik ruhiy holat, xavotirlanish esa genetik, ontogenetik yoki vaziyat bilan belgilanadigan ruhiy xususiyat sifatida tushuniladi. Xavotirlanish - bu odamning xavotirlik holatini tez-tez va kuchli boshdan kechirishga moyilligi, shuningdek, uning paydo bo'lishining past chegarasida namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyat. Bu asabiy jarayonlarning zaifligi tufayli shaxsiy shakllanish yoki temperamentning xususiyati sifatida qaraladi. Xavotirlanish aniq yoshga xos xususiyatga ega. Barqaror ta'lim sifatida real tahdid yoki xavotirlanish mavjudligidan qat'iy nazar, ko'pchilik bolalar uchun ortib borayotgan xavotirlanishga sabab bo'ladigan muayyan sohalar, haqiqat ob'ektlari mavjud.

Psixologik tadqiqot ishlarida shuni ko'rishimiz mumkinki, o'smirlar otaonalari ularni tushunmasliklari, ular bilan hisoblashmasliklari, muammolarga e'tibor bermasliklari haqida kuyinib gapiradilar. Ular bolalarni qorni to'q bo'lsa yetarli deb o'ylashadi, bola nima haqida o'ylayotgani, qanday qiziqishlari borligi haqida bilmaydilar ham. O'smirlik davrida ro'y beradigan holatlarda har xil, lekin ularning mevasi bir xilda-achchiq bo'ladi. Ota-onalar bilan ochiqchasiga, chin yurakdan muloqotning yo'qligi bolani odamovi va og'ir qilib qo'yadi. Bir necha psixologik tadqiqotlardan kelib chiqqan holda T.V. Abakumov xavotirlanishni tasniflashda bir necha mezonlarni taklif qilgan [2]: a) Xavotirlanish paydo bo'lishida inson ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan manbalar (biologik, texnogen). b) Atrof-

muhtidagi haqiqiy holat to'g'risida to'la va aniq tasavvurning yo'qligi (ijtimoiy va bolalarda uchrovchi xavotirlanishlar) v) Ontologik (diniy, ekzistensial). g) Gnoseologik (ma'lumotlarning ko'pligidan haddan ziyod qo'rqish).

Muhokama va Xulosa. Olimlarning ta'kidlashlaricha "noma'lum" va "yangi" narsa insonlarda, ayniqsa bolalarda xavotirlanish hissini vujudga keltirar ekan. O'smirlik davri haqida izlanishlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki bu davrda muloqot jarayonida ham xavotirlanish hissi namoyon bo'ladi va bu ota-ona va tengdoshlari bilan bo'lgan muloqatda yaqqolroq aks etishini ko'ramiz. Chunki ularda muloqot jarayonida qandaydir sabablar ular bilan muloqatni cheklash, ichki dunyosini oshkor bo'lib qolishdan xavotirlik tuyg'usi ichki ruhiyatiga ta'sir qilib turadi. O'smir o'z qiziqishlariga mos o'rtoqlar davrasini qidiradi. Agar o'smir o'zini qoniqtirgan guruhni topolmasa juda qiynaladi, o'z imkoniyatlariga nisbatan shubha paydo bo'ladi, o'zini yolg'iz his eta boshlaydi. O'smirlarning diniy bilimga egaligi yoki bunday bilimlarning yetishmasligining ahamiyati ham sezilarli darajada ekanligini ko'rishimiz mumkin. Chunki bu jixatlar ularda xavotirlanish fenomenini belgilab berishda yuqori ahamiyat kasb etadi. Ularning diniy bilimga egaligi har qanday jarayonga sabr va aql bilan yondashish kerakligi, qiyin vaziyatlarda o'zining xulq atvorini ijobiy tomonda ko'rsatish kerakligini yaxshi anglab borib, xavotirlik tuyg'usi diniy amallarni bajarish bilan susaytirib boradi. Mo'min-musulmon kishi Allohga, Uning farishtalariga, kitoblariga, payg'ambarlariga, qiyomat kuniga, taqdirning yaxshi va yomonligi Allohdan ekanligiga imon keltirgan bo'ladi. Allohning rahmatidan umidvor bo'lmoq imonning shartlaridan biri hisoblanadi. Demak, sabr nafsni boshidanoq tiyishdagi qat'iyatlikdir, deyish mumkin. Abu Said al-Xudriy roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda "Kimki bardoshli bo'lsa, Alloh uni haqiqiy sabrli qilib qo'yadi. Biror kishiga sabrdan ko'ra ulug' va yaxshi narsa berilmaydi"[3] deb yozilgan. Sabr bu ziyodir va ziyo deb qizdiradigan kuydiradigan nurga aytiladi. Nafsga zid bo'lgan hollarda sabr qilish Allohning taqdiriga rozi bo'lishni anglatadi. Shuning uchun ham turli balolarga, musibatlarga sabr qilgan kishiga savob beriladi, gunohlari to'kiladi. Yuqoridagilardan shunday xulosalash mumkinki musulmon kishi o'zini halokatga tashlamaslik, yaratganning amriga itoat etishda va turli xil qiyinchiliklarda ham sabr qilmog'i darkor. Sabr qilish musulmon kishi uchun vojib amallardan biri hisoblanadi. O'smirning ota-onasidan va uni o'rab turgan katta yoshlilardan tarbiya chog'ida sabrtoqat, keng fe'llik, mehr, rahm-shafqat talab qiladi. Aksariyat ota-onalar o'z farzandlari tarbiyasiga g'amxo'rlik, mehribonlik, sabr-toqat, mehr kabi xislatlar bilan yondashish o'rniga, kuch, ayniqsa, jismoniy jazo usuli bilan ta'sir o'tkazadilar. O'z navbatida, bu kabi xatti- harakatlar bolalarda doimiy xavotirli kutilmalar bilan yashashiga va agressiv xulq-atvorning shakllanishiga zamin bo'ladi. Psixolog B. MakKartinning tushuntirishicha, odatda, kichkina qotillar «tartibsizlik va sukunat hukm surgan, bir-birining his-tuyg'ulariga befarqlik, jismoniy zo'ravonlik, bir- birini qo'llamaslik va bir-birining taqdiri bilan qiziqmaslik bilan yonma-yon kelgan oilalarda» ulg'ayadilar. Axir o'smirning qalbi tarang tortilgan va lahzada uzilishi mumkin bo'lgan torga o'xshaydi. Faqatgina ishonch va o'zaro yaqinlik o'smirni qalbdan go'zal qilib tarbiyalashga yordam beradi. Oila bola uchun ta'lim-tarbiya o'chog'i ekan, uni toza qalbli, o'z kuchiga va imkoniyatlariga ishonadigan va bu imkoniyatlardan bemalol foydalana oladigan qilib tarbiyalash mumkin.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ertangi yosh avlodni har tomonlama tarbiyalab, kelajakda komil insonlar bo'lib yetishishlarini ko'zda tutadi. "Hozirgi kunda to'qimachilik, konchilik, elektrotexnika, kimyo va boshqa sanoat tarmoqlarida, qishloq xo'jaligi, xizmatlar va servis, qurilish, tadbirkorlik sohalarida kattakatta o'zgarishlar qilayapmiz. Misol uchun, 2022 yilning o'zida 16 milliard dollarlik 9 mingdan ziyod yirik va o'rta loyihalar ishga tushirilib, ularga 300 mingga yaqin malakali ishchilar kerak bo'ladi. Kambag'allikni 2 baravarga qisqartirish bo'yicha marralarga ham odamlarga faqat va faqat

zamonaviy kasblar berish orqali erisha olamiz". "Iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda oliy ta'lim tizimi taraqqiyotning lokomotivi bo'lish o'rniga, zamon bilan hamqadam bo'lmayotgani achinarlidir. Mehnat bozoridagi tarkibiy o'zgarishlarga javob beradigan, yoshlarimizga kasb-hunar o'rgatadigan, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantiradigan tizim yo'q desak, bu ham achchiq haqiqat".

Xulosa qilsak, kasbiy o'zini-o'zi belgilash - bu insonning kasblar olamidagi o'z o'rniga hissiy jihatdan rangli munosabati. Shaxsning kasbiy o'zini-o'zi belgilashiga ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, professional jamoadagi shaxslararo munosabatlar, kasbiy rivojlanish, yoshga bog'liq va kasbiy inqirozlar ta'sir qiladi. Kasbiy maslahat bo'yicha psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilib, biz tanlov muammosidagi xavotirlanish sxemasini tuzdik: 1) ularning moyilligi va manfaatlarini aniqlashdagi xavotirlanishi; 2) har qanday ish turiga qarshi ko'rsatmalar mavjudligini aniqlash uchun o'z sog'lig'ini aniqlashdagi xavotirlanishi; 3) o'smir yashayotgan va ishlamoqchi bo'lgan hududda qiziqqan kasbga ehtiyoj va uni rivojlantirish istiqbollarini aniqlashdagi xavotirlanish; 4) kerakli kasbni egallash yo'li va yo'llarini aniqlashdagi xavotirlanish. O'z taqdirini o'zi belgilash haqida o'ylaydigan yigit va qizlar oilalari, tengdoshlari, turli ta'lim tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining turli ta'sirini boshdan kechiradilar. Kasbiy o'zini-o'zi belgilash shaxsning ijtimoiy pozitsiyalari asosida yuzaga keladi, yoshning kasbiy yo'nalishi uning ijtimoiy yo'nalishiga asoslanadi, albatta bu esa xavotirlanish bilan bog'liq ekanligi ma'lum.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdivalieva, A. N. (2022). Psychological Characteristics of Children with Attention Deficiency and Hyperactivity and their Readiness for School Training. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 4, 295-298.
2. Радеев А.Е. Кластерный подход к искусству: за и против. *Вестник УДК 7.01 СПГУ*. Сер. 15. 2014.
3. Расулова, Ф. Ф. (2016). Агрессивное поведение и агрессивность личности. *Путь науки*, (7), 29.
4. Фролова О. В. Психологические особенности тревожности в фрустрационных ситуациях и их психологическая коррекция у детей с задержкой психического развития младшего школьного возраста: дис. ...канд. психол. наук : 19.00.10 / О. В. Фролова. 2001

ZAMONAVIY TA'LIMNING ISTIQBOLI

Ahmedov Shukurullo
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakultetining 3-bosqich talabasi,
Akbaraliyev Kamoliddin Ummatali o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakultetining 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ta'lim tizimidagi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat shundan iboratki, an'anaviy ta'lim shakllari masofaviy ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni qondira olmaydi. Ba'zi toifadagi odamlar ta'lim xizmatlariga juda muhtoj, ammo mavjud ta'lim tizimida ularni an'anaviy tarzda olish imkoniga ega emaslar. An'anaviy kadrlar tayyorlash tizimi doimiy kadrlar etishmasligi sharoitida qayta tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish davrida ularning yo'qligiga chidashga majbur bo'lgan ta'lim muassasalari uchun qabul qilinishi mumkin emas. Shuningdek, davlat va xususiy korxonalar uchun, chunki bu xodimni ma'lum vaqt davomida ish joyidan chalg'itishni o'z ichiga oladi: bozor iqtisodiyoti sharoitida ish beruvchilar o'z xodimlarini o'qishga qo'yib yuborishni xohlamaydilar, shu bilan birga ular uchun ish joylarini saqlab qolishmaydi.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, an'anaviy ta'lim, an'anaviy tizim, ta'lim muassasasi, axborot texnologiya.

Hozirgi bosqichda masofaviy o'qitish juda mashhur ta'lim shakli hisoblanadi; dunyoning rivojlangan mamlakatlarida u 30 yildan ortiq vaqt davomida zamonaviy shaklda mavjud bo'lib, jahon ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, barcha darajalarni qamrab oladi. ta'lim. 20-asrning oxirida masofaviy ta'lim tizimi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan har qanday mamlakat uchun istiqbolli masofaviy o'qitish va o'qitish tizimi sifatida tan olindi. Bugungi kunda universitetlar tarmog'i va masofaviy ta'limni o'rgatadigan kollejlarda m beshta qit'ani qamrab oladi. Xalqaro axborotlashtirish Akademiyasi tashkil etildi va u bilan 1998 yilda dunyo uchta mamlakatda - Rossiya, Qozog'iston va Belgiyada ro'yxatdan o'tgan universitet tarqatildi.

Masofaviy o'qitish boshqa shakllarning eng yaxshi xususiyatlarini birlashtirib, ta'limning eng istiqbolli, sintetik, gumanistik, ajralmas shakli hisoblanadi. Bu, shuningdek, ta'limning yanada demokratik shakli, chunki har qanday shaxs, yoshi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, moddiy xarajatlari nisbatan past bo'lishi jihatidan:

- kasbga ega bo'lish;
- kasbiy faoliyatga yo'naltirish;
- Trening;
- qo'shimcha masofaviy ta'lim olish;
- tanlangan kursning mavzulari va bo'limlarini chuqur o'rganish yoki ma'lum bilimlardagi bo'shliqlarni to'ldirishga;
- universitetlarga kirish uchun tayyorgarlik;
- ishlab chiqarish tsiklining uzluksizligi tufayli o'qishni ish bilan birlashtirish (masalan, paxta etishtirish, don etishtirish, energiya ishlab chiqarish va boshqalar.);
- xorijiy ta'lim muassasalarida ular joylashgan joydan chiqmasdan ta'lim olish;
- Ta'lim dasturini qisqa vaqt ichida yakunlang
- Va yana ko'p narsalarga ega bo'ladilar.

Masofaviy o'qitish korxonalar va muassasalarning yo'qolishini minimallashtiradi, bu esa xodimlarning o'quv markaziga o'tishiga yo'l qo'ymaydi va shu bilan vaqtni tejaydi, transport xarajatlari tejaydi va xodimlarni ishdan chalg'itmaydi. Masofaviy ta'lim dinamik dastlabki

masofaviy ta'limni ta'minlaydi, bir vaqtning o'zida o'quv xizmatlarini taqdim etadi yangi ishlanmalarning paydo bo'lishi, shu bilan uni joriy etish va amalga oshirish jarayoniga to'sqinlik qilmaydi ishlab chiqarish va texnologiyalarni doimiy ravishda modernizatsiya qilish sharoitida bozorda ishlab chiqilgan g'oyalar va mahsulotlar.

O'zbekiston yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish, masofaviy ta'limning faoliyati va uni rivojlantirish uchun zarur insoniy, texnik, ilmiy-uslubiy salohiyatga ega. Masofaviy o'qitish uzluksiz ta'lim tizimiga organik ravishda mos keladi, bilimlarni o'zlashtirishning sifat darajasini oshiradi. Kelajakda masofaviy o'qitish tizimida o'qitiladigan fanlar sonining ko'payishi muqarrar va ta'limning ayrim shakllari masofaviy ta'lim bilan almashtirilishi mumkin.

Xulosa qilib shuni ta'kidlaymizki, masofaviy o'qitish, ideal holda, dastlabki masofaviy o'qitish imkon beradi:

- yashash joyidan chiqmasdan va ishlab chiqarish faoliyati jarayonida mashg'ulotlardan o'tish;

- mahalliy va jahon ta'lim resurslariga masofaviy ta'limning keng stupasini taqdim etish;

- boshlang'ich ta'lim va tarbiyaning istalgan darajasida ta'lim olish;

- o'z-o'zini o'rganish jarayonini o'zingiz uchun iloji boricha samarali tashkil qilish;

- o'z-o'zini o'rganish uchun barcha kerakli vositalarni oling; uzilish va masofaviy o'qitish yolg'on ta'lim individual imkoniyatlar va ehtiyojlarga qarab;

- yosh cheklovlarisiz barcha turdagi ta'lim resurslarini masofaviy o'qitish imkoniyatiga ega bo'lgan odamlar doirasini sezilarli darajada kengaytirish;

- ta'lim resurslaridan masofaviy o'qitishning keng doirasi tufayli ta'lim xarajatlarini kamaytirish;

- modulli kurslarni, ta'lim muassasalari tomonidan olib boriladigan masofaviy ta'limni birlashtirish orqali noyob ta'lim dasturlarini shakllantirish;

- jamiyatning ta'lim salohiyati va ta'lim sifatini oshirish;

- mamlakatning yaxshi o'qitilgan mutaxassislar va malakali ishchilarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun masofadan o'qitish;

- aholining ijtimoiy va kasbiy harakatchanligini, uning tadbirkorlik va ijtimoiy faolligini, dunyoqarashi va o'zini anglash darajasini oshirish;

- mahalliy ta'lim tomonidan to'plangan bilimlarni, insoniy va moddiy salohiyatni saqlash va oshirish tizimi;

- O'zbekiston Respublikasi hududida yagona ta'lim makonini saqlash va rivojlantirish. Masofaviy ta'limning rivojlanishi bilan EI rivojlanishining dolzarbligi keskin oshadi, chunki EI masofaviy ta'limning asosiy momentidir. Bu ta'limning interaktivligini ta'minlay oladigan EI ning e-pochta orqali xulosa mavjudligi, muhokama forum, va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarning ta'lim olish huquqini kafolatlaydi. Ushbu huquq O'zbekiston Respublikasining "ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi. Va yaqin kelajakda, insonning ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, buni masofadan turib amalga oshirish mumkin. Ammo bu mahalliy dasturlar va standartlarga javob beradigan yuqori sifatli elektron o'quv materiallarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Masofaviy o'qitishni o'rganuvchilar nafaqat uzoq masofada bo'lishlari, sanoat ishlari bilan shug'ullanishlari va hokazolar uchun o'zlarini mutlaqo yangi sharoitlarda topadilar. Va shuning uchun va bu asosiy narsa, ularga masofaviy o'qitish erkinligi beriladi: bepul jadval, moslashuvchan tanlov fanlari va boshqalar. Masofaviy ta'lim talabalari shaxsiy fazilatlariga yuqori talablar qo'yadilar: qat'iyatlilik, maqsadlilik, halollik va boshqalar. Masofaviy ta'lim talabalar mustaqil ishlash, mustaqil rivojlanish, bilimlarni yuqori motivatsiya bilan to'ldirish usullari va usullarining asoslarini o'zlashtira olmaydilar. Bundan tashqari, samarali o'rganish

uchun ular nit vositalarini boshqarish uchun masofaviy o'qitish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Masofaviy o'qitish sharoitida masofaviy o'qitish o'qituvchisi maksimal pedagogik natijaga erishish uchun texnologik, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik imkoniyatlarni ko'rish qobiliyatini namoyish etish uchun yolg'on gapiradilar. Repetitorlarning asosiy vazifasi talabalarning mustaqil ishlarini boshqarishdir, bu ularning quyidagi funksiyalarni bajarishini anglatadi: motivatsion motivlarni shakllantirish; maqsad va vazifalarni belgilash; bilim, tajribani uzatish; tashkiliy faoliyat; talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tashkil etish; o'quv jarayonini nazorat qilish, o'quv faoliyatini doimiy monitoring qilish. Ya'ni, o'qituvchi o'qituvchi va yordamchi xodimlar vakili funksiyalarini har tomonlama bajaradi, universitet va talabalar o'rtasida yozishmalarni olib boradi, ularning o'quv jadvalining bajarilishini nazorat qiladi, o'qituvchilar bilan maslahatlashuvlarni tashkil qiladi. U individual kurslarning shakli va mazmuni to'g'risida ularning fikrlarini so'raydi va to'plangan ma'lumotlarni o'quv va uslubiy materiallarni ishlab chiquvchilarga o'tkazadi, talabalarga tayyorlash va amalga oshirishda yordam beradi tanlov fanlari bilan individual ta'lim traektoriyasi va o'quv jarayonida zarur tavsiyalar beradi. Va, albatta, ishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, masofaviy o'qitish o'qituvchisi kompyuterdan foydalana olmaydi va tarmoqda ishlay olmaydi. Masalan, elektron konsultatsiya o'tkazish uchun, Masofaviy o'qitish to'g'ri emas, chunki elektron pochtdan foydalanish va ravon gapirish qobiliyati "yozma nutq".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kurpayanidi, K., Mo'minova, E. Va Paygamov, R. (2016). Innovatsion faoliyatni boshqarish sanoat korporatsiyalari. Lap Lambert Akademik Nashriyoti.
2. Vey, J., & Liu, Y. (2015). Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va firmaning innovatsion ko'rsatkichlari: 343 ning empirik tahlili Xitoyda innovatsion korxonalar. Xitoy Menejmentini O'rganish, 9(1), 38-55. <https://doi.org/10.1108/CMS-01-2015-0018> Rasulev, A. F., & Trostyanskij, D. V. (2011). Razvitie innovacionnoj deyatel'nosti nacional'noj ekonomiki v postkrisisnyj davri. Ekonomika i finansy (O'zbekiston), (1). 5-12. (rus tilida)
3. Garsiya, A. Va Mohnen, P. (2010). Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning Ar-Ge va innovatsiyalarga ta'siri.
4. Margianti, E. S., Ikromov, M. A., Abdullaev, A. M., Kurpayanidi, K. I., & Ashurov, M. S. (2014). Tizimli O'zbekiston milliy sanoatining o'rnini tahlil qilish va uni yanada rivojlantirish iqtisodiy modernizatsiya. Monografiya. Indoneziya, Jakarta. Indoneziya.
5. Jakarta. Gunadarma Noshiri

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILANING O'ZARO HAMKORLIGI

Abdufattoyeva Muslimaxon G'ayrat qizi
Qo'qon universiteti Ta'lim fakulteti Ta'lim kafedrası
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali, oila hamkorligi va uning mohiyati, bola tarbiyasidagi muhim jihatlari to'g'risida hamda, bola ijtimoiylashuvini ta'minlovchi hamkorlik metodlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Qolaversa bolaning MTTga moslashuvi uning bilishga bo'lgan obyektiv ehtiyojini yaxshilash, bola "men"i o'zligini namoyon qiluvchi omillar haqida ham bayon qilamiz.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, oila hamkorlik, ota-ona, bola tarbiyasi, bola shaxsi, hamkorlik metodlar, jamiyat ta'siri, so'rovnom.

Jamiyat hayoti, farzand tarbiyasi va yurt ravnaqi uchun Maktabgacha ta'lim tashkiloti nihoyatda ahamiyatli tashkilot hisoblanadi. Har bir bolaning o'z olami fe'l atvori turfa hil bo'ladi. Shunday ekan bu kichik beg'ubor olamlarini tushunib yana ma'no ma'zmun bag'ishlash, o'z "men"ini shakillantirish uchun ota-onalar bilan mustahkam hamkorlik metodlarini yo'lga qo'yish ahamiyatliydir. Ahamiyatli jihati ota-onalar bilan munosabatlarga yangi yondashuvlar bilan ularning shaxsiy tajribasini hisobga olgan holda. Ota-onalarning bilimdagi so'rovlari va istaklarini inobatga olgan holda, bolalarning rivojlanishiga ta'sir qiladigan muammolarga muloqot mazmunini yo'naltirish bugungi kunda zarurdir. Tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar, shaxsiy manfaatdorlik, eski qarashlardan xalos bo'lishni, o'z faoliyatiga aks ettiruvchi munosabatning paydo bo'lishini usullarini qamrab oladi. Farzand ta'lim va tarbiyasi rivojlantirish tamoyili asosida amalga oshirilayotgan bu hamkorlik bolalarni qiziqtirish qobiliyatini, o'z ta'lim faoliyatini tahlil qilishni, hamda ota-ona tomonidan farzandini muntazam nazoratini nazarda tutadi. Ingliz faylasufi Frensis Bekonning fikriga ko'ra - "Bola oilaning quvonchi, ota-onaning ko'magi, jamiyatning hayotiy kuchidir. Bolalar tufayli hayot yanada shirin, o'lim esa unchalik dahshatli ko'rinmaydi" - naqadar to'g'ri va ayni kerakli jumlar. Bugun zamonamiz rivojlangani sayin "ota-onalik ma'suliyati" tushunchasi ham keng qamrovli tushunchaga aylanib bormoqda. Ota-ona farzandini moddiy jihatdan ta'minlaydi, tarbiyalaydi hamda ta'lim olishini tashkil etadi. Oilada tarbiya uzoq muddatli, uzluksiz, ko'p qirrali jarayondir. Ta'limchi?, nazarimizda ta'lim ham tarbiya singari oiladan boshlanib aynan shu dargohda mustahkamlanadigan jarayon. Ayniqsa maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'limida maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ota-onalar hamkorligining o'рни beqiyosdir[1]. Qachonki oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamkorlikda faoliyat olib borar ekan shundagina ko'zlangan maqsadga erishiladi. Inkori etib bo'lmas haqiqat. Shunday ekan har bir bola biz kottalar uchun qimmatli gavhar, yoki yangi unib, o'sib borayotgan nav niholdir. Shu sababli har bir ota-ona farzandi uchun, o'qtuvchilar tarbiyalanuvchi kichkintoylar uchun qancha e'tibor, vaqt, mablag' sarf etishsa shuncha yaxshi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ota-onalar bilan jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo'shib olib borish, keng aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin. MTTi xodimlarini ota-onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlarining eng keng tarqalgan shakllarini quyida keltiramiz: "Zero bolalarni tarbiyalash bu kelajakni tarbiya qilmoqdir". Tarbiyachi va ota-onalarning o'zaro munosabatlariga yangi yondashuvlar, axbarot almashinuvi va pedagogik bilimlarni targ'ib qilishdagi hamkorlikdan dialogik yo'nalishdagi

ota-onalar bilan tarbiyachining shaxslararo muloqoti sifatida hamkorlikka o'tish. Bu yerda asosiy tushuncha diolog bo'lib, u shaxsiy teng muloqotni, birgalikda tajriba orttishni anglatadi.

- ota-onalar bilan yakkama-yakka ishlash. Ilg'or pedagogik tajribalarni ko'rsatishicha, ishning bu turi katta ahamiyatga ega. Bunda tarbiyachi oila va bolaning shaxsiy xususiyatlarini o'rganib ularni o'zining tarbiyaviy ishida hisobga oladi. MTTlarimiz tajribasida ota-onalar bilan yakkama-yakka olib boriladigan ishlarning turli xil shakllari aniqlangan; oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suhbat o'tkazish, ularga maslahatlar berish, ota-onalarning muassasa hayoti bilan tanishishlari.

- ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar. Bular ota-onalarning guruhiy va umumiy majlisi, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob davralari.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim muassasasining oila bilan hamkorligi turli shakllarda amalga oshiriladi. Ushbu shakillar an'anaviy (ota-onalar yig'ilishi, suhbatlar ham individual, ham guruh shaklida olib boriladi) va noan'anaviy (ota-onalar bilan konferensiya, davra suhbatlari) bo'linadi.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini yanada oshirish; ota-onalar o'rtasida psixologik va pedagogik fanlarning eng so'nggi yutuqlarini keng targ'ib etish, ota-onalar va muassasa tarbiyachilari bilan turli mavzularda katta-kichik noan'anaviy yig'ilishlar, tadbirlar mashhur har sohaning vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish, badiiy kechalar o'tkazib turish, bolalar ko'ngida ma'naviy boy shaxslarni gavdalantirish, avlodlardan faxrlanish va ularga mos farzandlar bo'lish hissini uyg'otishishubhasiz. Ammo ushbu tashkil etilgan tadbir va uchrashuvlarning muvaffaqiyati tarbiyalanuvchilarning ota-onalari munosabati bilan ham chambarchas bog'liq. Shunday ekan ota-onalarimizda mas'uliyat hissini oshirishimiz asosiy vazifamiz bo'lib qolmoqda. Bugungi kun zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisiga tavsiyalar: -rivojlangan zamonamizda axborot-texnologiyalari shitob bilan rivojlanmoqda, ijtimoiy tarmoqlardan atrofimizdagi barcha keng foydalanmoqda zamonaviy tarbiyachi bundan oqilona foydalanishi lozim. -Umumiy va navbatdan tashqari yig'ilishlarga ota-onalarni taklif etishda "Onalar yig'ilishi", yoki "Otalarni yig'ilishi" kabi maxsus nomlar qo'yish. Bu ta'lim jarayoniga doimiy faol bo'lgan ota yoki onalardan tashqari maxsus taklif orqali har ikkalasini jalb qilish imkonini beradi.

Yuqorida qayt etilgan ishlarni amalga oshirish jarayonida nafaqat tarbiyachining ijodkorligi, jonkuyarligi balki ota-onalarning mas'uliyati ham muhim. Ota-onalarimiz farzandlarining kelajakdagi muvofaqiyatlari uchun guruh tarbiyachisidan mas'uliyatliroq bo'lishni talab etishadi, bazida hatto bajarishi lozim bo'lgan vazifalarini eslatib ham qo'yishadi. Guruh tarbiyachilari bolalarga she'r yod oldirishadi, suhbatlashishadi, birgalikda mantiqiy o'yinlar o'ynashadi. Gohida mehnat, sport, ashula, yoki raqs bilan shug'ullantirishadi. Bu amalga oshiriladigan faoliyatlar bolani rivojlanishida muhim, ammo, yetarli emas, qachonki bu faoliyatlar uyda ham davom etsa takrorlansa natijalar biz kutgandek bo'ladi. Bolalar rivojlanishida har ikki tomon MTT va ota-ona birdek mas'ul, chunki farzand yurt kelajagi, jamiyat suyanchi, oila ishonchidir. U bir nihol, uni qanchalik parvarish qilsak, o'sib ulg'ayganda mevasi shunchalik totli bo'ladi. Bola kamolatiga, uning yuksak cho'qqilarga erishishiga orzumand bo'lgan, farzandi oldida ota-onalik, jamiyat qarshisida fuqorolik burchalarini chuqur anglagan har bir ota-ona, hayotining bir bo'lagi bo'lgan kasbiga mehri bo'lgan har bir tarbiyachi va pedagogik xodim ushbu vazifaga ma'suliyat bilan yondashishi va uni vijdonan ado etishi lozim.

Men 11-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotidagi o'quv dars mashg'ulotimda shuni angladimki, maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar o'rtasida turli hil yo'llar bilan hamkorliklarni yo'lga qo'yilishi mumkinligini o'z so'rovlarimni o'tkazish jarayonida tushunib yettim. Har oyda bir marta ota-onalar yig'ilishi jarayonida yangi o'quv yildagi vazifalar, o'quv ishlar natijalari, ham manan ham jismonan rivojlantirish, nutuqni rivojlantirish,

chet tillarini o'rgatish hususida har bir ota-onalar bilar individual hamda guruh shaklida suhbatlar borishini aniqladim. Oila bilan hamkorlikda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari va ota-onalar maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalashda yagona tizimni taminlaydi. Albatta har bir inson o'z farzandi kelajagi uchun bee'tibor bo'lmasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fayziyeva Z. "MTM va oila hamkorligi" Maktabgacha ta'lim jurnali 2/2016
2. w.w.w Maktabgacha ta'lim.uz
3. w.w.w pedagog.uz (Termiziy va Abu Dovud rivoyatlar).
4. Maxfuza Usmanova, THE CONCEPT OF EDUCATIONAL PROFESSIONAL COMPETENCE AND ITS YIELD FACTORS , Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI: 2020: Arxiv №54 (science.i-edu.uz, jspi.uz)
5. Abdurahmonovna, N. M. (2021). Pedagogical and Psychological Aspects of Professional Sustainability of Future Teachers

ZAMONAVIY O'YINCHOQLARNI BOLA PSIXIKASIGA TA'SIRI

Abdulxaqov Nodirbek Otabek o'g'li
Qo'qon Universiteti Iqtisodiyot va ta'lim
fakulteti psixologiya yo'nalishi talabasi,
Hamidullayev Faxriddin
Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

Annatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'yinchoqlarning bola psixikasiga ta'siri, bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi o'yinchoqlar va bolani stress, qo'rquv holatiga tushiruvchi omillar tadqiqot va so'rovnoma orqali yoritib berilgan hamda bola psixikasini ijobiy tomonga o'zgartirish uchun tavsiyalar berib o'tilgan.


Kalit so'zlar: Psixika, stress, qo'rquv, material, motiv, potensial, dissonans, detailing, tasavvur, jamiyat, individ.

Bolalarning hissiy dunyosining shakllanishini o'yinchoqlarsiz tasavvur qilish qiyin. Ular bolaga o'z his-tuyg'ularini aks ettirishiga va dunyoni kashf etishi, hamda o'zini anglab yetishiga imkon beradi. Bolalarni o'yinlarsiz tasavvur qilishning iloji yo'qligi bois hech qanday o'yin ham o'yinchoqlarsiz tashkil etilmaydi. O'yin va o'yinchoqlar bolaning atrof-muhit haqidagi fikrlarini aniqlashtirishga, aks ettirishga va uning tasavvurini rivojlantirishga yordam beradi. O'yin, bolalarning mustaqil faoliyati bolani tarbiyalash va o'qitish jarayonida shakllanganligi, ularning inson faoliyati tajribasini o'rganishiga hissa qo'shadi. O'yin bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida juda muhim ro'l tutadi, chunki u bolaning ruhiyatini, psixikasini va uning shaxsiyatini rivojlantiradi. O'yin va o'yinchoq ajralmas ya'ni bir biriga uzviy bog'liqdir. O'yinchoq o'yinni hayotga olib kelishi mumkin, va o'yin ba'zan o'yinchoqni rivojlantirishni talab qiladi. O'yinning motivi jarayonning o'zida yotadi. O'yinga bo'lgan qiziqish o'yinchoq ya'ni uning bola uchun jozibadorligi bilan belgilanadi. Bu esa o'yinchoq uchun muhim talab bo'lib, uni bolaning mustaqil, tashabbuskor faoliyati uchun materialga aylantiradi. Tashqi tomondan ularning rangi bezovta qilmasligi kerak. Agar o'yin xonasida shakllar, miltillovchi narsalar va ranglar ustun bo'lsa. Bolaning psixikasi bardosh bera olmaydi. Shu bois o'yinchoq uchun asosiy talab har bir yosh davrlarining yangi o'sishi va rivojlanishi samarali bo'lgan faoliyat turlarining tarqalishiga imkon berishdir ya'ni yoshga oid masalalarini hal qilishdir. Shunday qilib, o'yinchoqdagi asosiy psixologik talab bolaning yoshga mos keladigan faoliyatini faollashtirish imkoniyati, bu quyidagilar bilan taminlaydi; bola uchun o'yinchoqlarning jozibadorligi, bu o'yinning motivatsion asosini belgilaydi, belgilarning to'liqligi, yetarliligi va ochiqlikligi, o'yin harakatlarining rivojlanayotgan potentsialini yaratish; o'yinchoqning operatsion imkoniyatlari, bolaning mustaqil harakatlarini ta'minlaydi.

Zamonaviy o'yinchoqlarning hammasi ham yomon emas. Axir, hatto eng yaxshi xalq ertaklarida ham yaxshi qahramonlar jang qiladigan va g'alaba qozonadigan salbiy ro'llari mavjud. Qo'rqinchli o'yinchoqning ma'nosi bolani qo'rquvini yengishga o'rgatishdir. Bunday qo'rquv o'yinchoqning o'zi kabi shartli va oldindan aytib bo'ladigan bo'lishi kerak. Zamonaviy o'yinchoqlarning yana bir muammosi shundaki, ularning tashqi va ichki tarkibi aniq bog'liqlikka ega emas. Masalan, "super qahramon" "nazoratchi" bilan kurashganda, ular faqat kiyim rangi va ko'krak nishoni jihatidan farq qilishi mumkin. Yoki jirkanch hayvon mehribon va shirin jonzo'tga aylanadi. Bunday nomuvofiqlik kichkina bolalarda dissonansni keltirib chiqaradi, yaxshi va yomon o'rtasidagi, yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi chegara yo'qoladi. Qo'rqinchli o'yinchoqlarning zarari, ayniqsa bola "o'z yonida" o'ynay boshlasa, jazosiz o'yinlarda yomonlik qilishiga imkon bersa juda katta. Bu holda, bolani axloqiy tarbiyalashga ko'proq e'tibor qaratish, u bilan ko'proq muloqot qilish, bolalarning yaxshi kitoblarini o'qish va shafqatsiz filmlar va teleko'rsatuvlarni ko'rishni cheklash

kerak. Detailing nafaqat yirtqich hayvonlar uchun, balki umuman zamonaviy o'yinchoqlar uchun ham muammo. Ilgari bolalarda ko'zlar o'rniga tugmachalar bo'lgan paypoq qo'g'irchoqlari ishlab chiqarilgan va bu o'yinchoqlar eng sevimli o'yinchoq bo'lgan. Bolaning o'zi yo'qolgan tafsilotlarni, qo'g'irchoqning xarakterini va uning tarixini o'ylab, tasavvur qilgan. Ba'zida zamonaviy qo'g'irchoqlarni tirik odamlardan ajratish qiyin chunki ularning tanalari, kiyimlari va yuzlari aniq hissiyotlarga ega bo'lib, ular juda mohirlik bilan ishlab chiqilgan. Bu yerda "o'ylash" uchun hech narsa yo'q. Agar o'yinchoq mashhur multfilm yoki kitobning qahramoni bo'lsa, unda hikoya qilishning iloji yo'q. Ko'pincha bola o'ynaydi, multfilmdagi epizodlarni yangi narsalarni qo'shmasdan takroran takrorlaydi. Bu chaqaloqning tasavvurini rivojlantirishga salbiy ta'sir qiladi. Zamonaviy o'yinchoqlarni ishlab chiqaruvchilar haridorlarni qiziqtirishi uchun an'anaviy odob-axloq normalariga mos kelmaydigan g'ayrioddiy mahsulotlarni ishlab chiqaradilar. Ko'rinib turibdiki, psixikasi hali to'liq shakllanmagan bola, o'yinchoqlarni etarli darajada baholay olmaydi, ba'zida kattalarni hayratga soladi. Misol uchun: Barbie qo'g'irchoqi haqida ko'rinishidan, zamonaviy o'yinchoqlar orasida ular juda zararsiz ko'rinadi. Barbi xunuk emas, umumiy qabul qilingan axloq me'yorlariga zid kelmaydi. Shunga qaramay, ko'plab psixologlar ota-onalarni bolalariga ushbu o'yinchoqni sotib olishdan ogohlantirmoqda. Nima uchun deysizmi? Avvalo qo'g'irchoqlar o'yinida, ayniqsa kichik bolalar uchun, asosiysi bu g'amxo'rlikning, muloyimlikning namoyon bo'lishi. Bunday o'yinlar qizlarni onalik uchun eng erta tayyorgarlikdir. Barbie qo'g'irchoqi bolaga o'xshamaydi va uni parvarish qilish va unga g'amxo'rlik qilish istagini keltirib chiqarmaydi, qizlarda onalik instinktini rivojlantirmaydi. Bundan tashqari, bu qo'g'irchoqlar juda realdir, ammo ularning yuzi va tanasining nisbati buzilgan haddan tashqari katta ko'zlar, juda uzun oyoqlar, juda nozik bel. Zamonaviy jamiyat tashqi ko'rinishning bu turini deyarli intilish uchun namuna sifatida tan olganligi sababli, bunday qo'g'irchoqlar bilan o'ynaydigan qizlarning aksariyati o'zlarining tashqi ko'rinishlaridan noroziligini keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham biz psixologlar ota-onalarga farzandini dunyo qarashiga va psixikasiga salbiy ta'sir o'tkazmaydigan o'yinchoqlarni harid qilishni tavsiya berib qolamiz. Zamonaviy o'yinchoqlarni harid qilishda eng birinchi o'yinchoqning sifati yoki hajmiga qarab emas balki, farzandimizning jinsi va yoshiga qarab olishni maslahat beramiz chunki, hozirgi rivojlanayotgan zamonimizda har bir jins vakili va yosh davrlari uchun yetarli darajada o'yinchoqlar mavjud shunday ekan bizdan talab qilinadigon narsa bu farzandimiz yoshiga to'g'ri keladigon o'yinchoqni tanlash holos. Biz aynan shu masala bo'yicha tadqiqot o'tkazishga qaror qildik va "Zamonaviy o'yinchoqlar haqida fikringiz" so'rovi ostida turli hil yoshdagi insonlar bilan suxbatlashdik va natija quyidagicha;

"Zamonaviy o'yinchoqlar haqida fikringiz"



■ Salbiy ■ Ijobiy ■ Harid qilmaydi ■ Ahamiyatsiz

Tatqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatadiki 41% inson zamonaviy o'yinchoqlar haqida salbiy fikirda. Sabab: o'yinchoqlarning ayrimlari milliyligimizga va haqiqatga oz bo'lsada yaqin kelmasligiga hamda yosh bolalarni fikirlashi, kelajagi uchun salbiy ta'sir ko'rsatayotganini ta'kidlab o'tishdi. 32% insonlar esa bunday qarashlardan yiroqda chunki, ular bu turdagi o'yinchoqlarni bolaga ta'siri yo'q chunki zamonaviy o'yinchoqlar farzandimning fikirlash doirasini hamda tasavvurini rivojlantirishga yordam beradi deb hisoblashadi. 21% insonlar zamonaviy o'yinchoqlarni harid qilmasliklarini, farzandi uchun o'zlari yangilik yaratgan holda, o'z qo'llari bilan tikib, yasab berishlarini ta'kidlashdi. 6% insonlar uchun esa nafaqat zamonaviy o'yinchoqlar balki boshqa o'yinchoqlar ham ahamiyatsiz bo'lib chiqdi. Bu 6% insonlar qaysi turdagi o'yinchoq bo'lmasin ularning hech birini farzand sog'ligi yoki tarbyasi uchun salbiy ta'sir ko'rsatmaydi chunki bularning hammasi ota-onaga bog'liq deb hisoblashadi.

Men bu tadqiqot natijalaridan hulosa qilgan holda o'yinchoq turli xil zaharli moddalardan tayyrlangan bo'lmasligi, o'tkir hidsiz va bolaning qiziqishi va yoshiga mos kelishi kerak deb o'ylayman. O'yinchoq olishda tavsiyalar: Bola o'yinchoqni qisimlarga ajrata olishi va yig'a olishi kerak. Bolaning qiziqishlariga mos kelishi, o'yinchoq qo'rquv, jirkanish, tajovuz va shu kabi tuyg'ularni yuzaga keltirmasligi kerak. Eng muhimi bir yoshgacha bo'lgan chaqaloqlarga o'yinchoq harid qilayotganda chaqaloqni hali katta hajmli narsalar bilan o'ynay olmasligini hisobga olish kerak. Go'daklik davrida individda hayotni "so'rish" yo'li bilan o'rganish ustunlik qiladi shunday ekan turli hil bezaklarga va zararli moddalarga ega bo'lgan o'yinchoqlarni harid qilish tavsiya berilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vigotskiy, O'yin va uning bolaning psixologik rivojlanishidagi roli. L.S. Vigotskiy. Psixologiya masalalari. 2006 yil.
2. A.N. Leontyev. Psixologiya masalalari. 2006 yil.
3. Savka L. Zamonaviy o'yinchoqlar dunyosidagi bolalar va kattalar. Maktabgacha ta'lim. 2000 yil.
4. Muxina V.S. O'yinchoq bolaning psixologik rivojlanishining vositasi sifatida. Psixologik masalalar. 1988 yil.
5. T.P. Avdulova. O'yin psixologiyasi. 2018 yil.
6. Kiselev N. Bolalar o'yinlari va o'yinchoqlarini psixologik-pedagogik ekspertiza va baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida. Maktabgacha ta'lim. 1999 yil.
7. Smirnova E. O'yinchoqlar: ularning sifatini qanday baholash kerak. Maktabgacha ta'lim. 2005 yil.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING O'QUV-BILISH KOMPETENSIYASINING MAZMUNI

Eshonqulova Shafolat Ergashevna
Jizzax Davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi


Annotatsiya: Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning o'quv-bilish kompetensiyasi bilimlarini kengaytirish, ijodiy fikrlarni rivojlantirish va o'quv faoliyati mustaqillikka tayyorlash oldida yuqori talablar qo'yadi.

Kalit so'zlar: o'quv-bilish, ijodiy fikrlash, kompetensiya, motivatsion, kognitiv, faoliyat.

O'quv-bilish kompetensiya har tomonlama va xilma-xil madaniyat olamini egallashni ta'minlaydigan shaxs kompetensiyalarining ma'lum qismida ustuvor o'rinni egallaydi. Bizningcha, o'quv-bilish kompetensiyasi bilimlarni kengaytirishga qaratilgan asosiy kompetensiya, bilish (kognitiv) faoliyati usullarini egallash, ta'lim faoliyatida muayyan bilim va ko'nikmalarni shakllanishi, ijodiy fikrlashni rivojlantirishi va o'quv faoliyatidagi mustaqilligidir.

Shu sababli biz o'z tadqiqotimizda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv-bilish kompetensiyasini mustaqil bilish faoliyatiga tayyorgarlikda unga zarur bo'lgan nazariy bilimlarni, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantiradigan maxsus kompetensiyalarga ega bo'lishi degan ta'rifni qabul qildik.

O'quv-bilish kompetensiyani rivojlantirishda quyidagi ko'nikmalarga ega muhim (1-rasmga qarang).



1-rasm. O'quv-bilish kompetensiyani rivojlantirishda muhim ko'nikmalar

O'quv-bilish kompetensiyasining komponentlarini aniqlashda biz A.V.Xutorskiyning nuqtai nazariga amal qildik, u bilish faoliyatini asosiy bo'g'in sifatida ajratib ko'rsatadi va uni borliq hodisalarini bilish jarayoni deb hisoblaydi. O'quv-bilish kompetensiyasining tarkibiy qismlarini (bilimlar, ko'nikmalar, maqsad qo'yish usullari, muloxaza yuritish) shakllantirish shaxsning o'ziga xos qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan faoliyatning funksional-qidiruv algoritmi asosida shakllangan fazilatlarida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv-bilish kompetensiyasi mustaqil ta'lim jarayonida o'qitishning tizimlilik, izchillik, differensiallash va individuallashtirish tamoyillari tashkil-tuzilmaviy, motivatsion, kognitiv, faoliyatli, refleksiv

komponentlari mazmuni bosqichma-bosqich aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotlarda ta'lim oluvchining subektiv tajribasini infratuzilmaviy komponent sifatida ko'rib chiqish taklif etiladi. O.M.Bobienkning tadqiqot ishlariga asoslanib, biz "sub'ektiv tajriba" tushunchasini "aniq bir shaxsning shaxsiy tajribasi, uning xaqiqiyliigi, ilmiyligi, ijtimoiy va tarixiy bilimlar nuqtai nazaridan ziddiyatli emasligi; oilaning o'ziga xos sharoitlarida, ijtimoiy-madaniy muhitda, odamlar va buyumlar dunyosini idrok etish va tushunish jarayonida olingan xayot tajribasi" sifatida talqin etamiz.

Biz ushbu xulosani maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz, chunki bizga uning individual xususiyatlarini aniqlab olish imkonini beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, bunday yondashuvda talaba o'rganish sub'ektiga aylanmaydi, balki dastlab hosil bo'lmaydigan, faqat o'quv jarayonida egallanadigan sub'ektiv tajriba tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi, O.V.Temyatkinaning fikricha masalani ko'rib chiqishning bunday usulida "o'qish" izolyatsiyalangan (yakkalangan) kognitiv (bilish) funksiyasi sifatida qaralmaydi, balki talabaning ongli faoliyatining organik qismi bo'lib hisoblanadi. Unda ta'lim oluvchilarning maqsadlariga, umidlariga mos holda shakllangan real pedagogik borliqqa nisbatan munosabatlar, shuningdek, o'z tajribasini hisobga olgan holda uni o'zgartirishga tayyorgarligi bo'yicha shaxsiy rejasi, niyatlari amalga oshiriladi".

V.P.Zinchenko ta'lim oluvchi shaxsiy bilim manbai sifatida ishtirok etadi deb hisoblaydi. Bu g'oya bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning pedagogik ta'lim mazmunini o'zlashtirishi doirasida mustaqil ish uchun bir qator o'quv topshiriqlarini loyihalashda muhim hisoblanadi.

Shunday qilib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning o'quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirish tashkil-tuzilmaviy, motivatsion, kognitiv, faoliyatli, reflektiv komponentlarni egallash jarayoni sifatida qaraldi. (1-jadvalga qarang)

1-jadval

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv-bilish kompetensiyasining komponentlari

No	Komponent	Mazmuni
1	Tashkil-tuzilmaviy komponent	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv-bilish kompetensiyasining rivojlanganligi asosida subektiv tajribasi
2	Motivatsion komponent	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ta'limning o'quv faoliyatga ichki va tashqi munosabatini, shuningdek barqaror va sub'ektiv ahamiyatga ega bo'lgan kasbiy va shaxsiy qadriyatlar to'plamini aks ettiradi
3	Kognitiv komponent	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik faoliyatga kirishga oid bilimlarni mustaqil egallash usullari haqidagi tasavvurni va yangi bilimlarni o'zlashtirishni ko'zda tutuvchi bilimi
4	Faoliyatli komponent	O'quv-bilish masalalarini hal qilishda mantiqiy, intellektual, texnologik va boshqa operatsiyalarni bajarish ko'nikmalari va malakalarini amalga oshirish va takomillashtirishga qaratilgan
5	Reflektiv komponent	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning o'quv-bilish mustaqil faoliyatni tahlil qilish, tizimlashtirish, umumlashtirish va baholash qobiliyatidan iborat

Bu komponentlarni o'zlashtirish quyidagi asosiy darajalar bilan bog'liq: quyi, o'rta, yuqori. Ularning har biri ma'lum ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

Tashkil-tuzilmaviy komponentning quyi darajasi berilgan namuna bo'yicha ishlashni

ko'zda tutadi. Belgilangan darajaga o'quv materialini takror ishlab chiqishni, aniq berilgan savollar va topshiriqlarga javoblarni shakllantirishni, namnaviy masalalarni yechishda qaralayotgan vaziyatda algoritm bo'yicha harakat qilish ko'nikmasi kiradi. O'rta darajasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z faoliyatining maqsadlarini aniq tushunishlari, o'zlarining shaxsiy ta'limiy ehtiyojlarini anglashlari, kompetensiyaning namoyon bo'lishi uchun ijobiy motivatsiya mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quv materiallarini bayon etishga qobiliyatli, uni qayta ishlay oladilar va o'z nuqtai nazarini namoyish eta oladilar, ular qanday harakat qilishni biladilar, tipik muammolarni hal qilishda tanish vaziyatda o'rganilgan algoritmni qisman o'zgartiradilar. Qiziqishni namoyon etadi, bajarilgan o'quv vazifasining shaxsiy - kasbiy ma'nolarini tushunishlarini namoyish etadilar. Yuqori darajasi o'z faoliyatining maqsadlarini aniq tushunishi, o'z ta'limiy ehtiyojlarini to'liq anglashi, kompetensiyaning namoyon bo'lishi uchun yaqqol ifodalangan ijobiy motivatsiya mavjudligi bilan tavsiflanadi. Tanlash, konstruksiyalash, bayon etish, muamolashtirish, muloqat o'tkazish va o'z nuqtai nazarida qolish, qaralayotgan vaziyatda o'zaro ta'sirlashuv jarayonida yuzaga keladigan tezkor standart va nostandart vazifalarni hal qilishda harakatchanlikni namoyon qilishga qobliyatli bo'lib hisoblanadi.

Motivatsion komponentni shakllantirishning quyi darajasida bo'lajak o'qituvchilar o'z faoliyatining maqsadlarini tushunadilar, o'rta darajasida o'zlarining ta'lim ehtiyojlarini tushunadi va kompetensiyaning namoyon bo'lishi uchun motivatsiya mavjud. Motivatsion komponentning yuqori darajada shakllanishida, o'z faoliyatining maqsadlarini aniq tushunish, o'z shaxsiy ta'limiy ehtiyojlarni to'liq anglash, kompetensiyaning namoyon bo'lishi uchun yaqqol ifodalangan motivatsiya namoyon bo'ladi.

Quyi darajadagi *kognitiv komponent* bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning o'quv materialini takror ishlab chiqishi, berilgan aniq savollarga javob bera olishi bilan tavsiflanadi. Kognitiv kompetensiyasi rivojlanganligining o'rtacha darajasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar o'z faoliyatining maqsadlarini aniq tushunadilar, o'zlarining shaxsiy ta'limiy ehtiyojlarini anglay oladilar, kompetensiyaning namoyon bo'lishi uchun ijobiy motivatsiyaga ega. Yuqori darajadagi kognitiv komponenti bo'lajak o'qituvchilar o'quv materialini taqdim etish, uni qisman qayta ishlash, ma'nolarni tushunish va o'z nuqtai nazarini namoyish etishga qobiliyatligini anglatadi.

Quyi darajadagi *faoliyatli komponent* bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari namunaviy masalalarni yechishda qaralayotgan vaziyatda algoritm bo'yicha harakat qila olish ko'nikmasi haqida gapirishni ko'zda tutadi. O'rta darajadagi faoliyatli komponent bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari namunaviy masalalarni yechishda tanish vaziyatda o'zlashtirilgan algoritmni qisman o'zgartirib harakat qila olishi bilan tavsiflanadi. Yuqori darajadagi faoliyatli komponent qaralayotgan vaziyatda o'zaro ta'sirlashish jarayonida yuzaga keladigan tezkor standart va nostandart vazifalarni hal qilishda harakatchanlikni namoyish qilish ko'nikmasi sifatida ifodalanadi.

Quyi darajadagi *refleksiv komponenti* bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bajarilgan o'quv topshiriqlarining shaxsiy-kasbiy ma'nolarini tushunmasligini, tahlil qilish va umumlashtirishga qobiliyatli emasligini aks ettiradi. O'rta darajadagi refleksiv komponent bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari qiziqishni namoyon etishini, bajarilgan o'quv topshiriqlarining shaxsiy-kasbiy ma'nolarini tushunishlarini namoyish etishlarini, ammo tahlil qilish, sintez qilish va umumlashtirishga qobiliyatli emasliklarini ko'rsatadi. Yuqori darajaga nisbatan, refleksiv komponent bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari qiziqishni namoyon etishi, taklif etilgan o'quv topshiriqlarining shaxsiy-kasbiy ma'nolarini chuqur tushunishlarini namoyish etishlari, tahlil qilish, sintez qilish va umumlashtirishga qobiliyatli ekanligini ko'rsatadi.

O'quv- bilish kompetensiyasining taklif etilayotgan komponentlarini o'zlashtirish

natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari:

Biladi: zamonaviy ta'lim tizimining pedagog kadrlariga qo'yadigan talablarini; mustaqil o'quv-bilish faoliyatini o'zlashtirish jarayonida kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishning psixologo-pedagogik asoslari; "faoliyat", "o'quv-bilish faoliyat" tushunchalarining mohiyati, har xil turdagi muammolarni mustaqil hal qilish jarayonida o'quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirish vositalari, metodlari, texnologiyalari;

Uddalay oladi: o'z shaxsiy faoliyatini tahlil qilish, o'quv-bilish faoliyat natijalari bo'yicha o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini tahlil qilishni amalga oshirish, o'quv-bilish kompetensiyasini rivojlantirishda muvaffaqiyatni ta'minlaydigan sub'ektiv tajribadan foydalanish;

Egalagan: o'z shaxsiy va kasbiy nuqtai nazardan o'zini o'zi intellektual va axloqiy jihatdan takomillashtirishning mazmuni, metodlari, tashxislash diagnostikasi.

Shunday qilib, tadqiqotning nazariy metodlari (adabiyotlar tahlili, asosiy g'oyalar sintezi, taqqoslash, solishtirish va umumlashtirish, analogiya va modellashtirish) asosida tadqiqotning tayanch tushunchalari zanjiri ishlab chiqilgan: "faoliyat" – "o'quv-bilish faoliyat" – "o'quv-bilish faollik" – "kompetensiya" – "o'quv-bilish kompetensiya".

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning o'quv-bilish kompetensiyasining mohiyatini aniqlash quyidagi xulosaga kelishga asos bo'ldi; uni rivojlantirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qadriyatli, kognitiv, operatsional-texnologik, munosabatli tajribalar ortishiga o'zora kesishmaydigan bilish qiziqishi va turg'un motivatsiya rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan birinchi darajali vazifani qo'yadi. U esa o'z navbatida, subektiv imkoniyatlarni hisobga olgan holda, o'quv-bilish va kasbiy-pedagogik muammolarni hal qilishda qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinf umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga imkon beradi. Bunda boshlang'ich ta'limning o'quv-metodik ta'minotni yangilash, o'quv-me'yoriy hujjatlari, o'quv qo'llanma, metodik ko'rsatma va tavsiyanomalarni yaratish mavjud muammolarni aniqlash, ularga bugungi kun nuqtai nazaridan baho berishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Raximov Z.T. Talabalar o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishga innovatsion yondashuv. Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy axborotlari. Ilmiy-nazariy jurnali, 3-son (19), 2019 y. 92-97-b.
2. Хуторской, А. В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. - 2003. - № 2. - С.58-64.
3. Nurullaeva Sh.U. «Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik tayyorgarligini modellashtirish nazariyasi va metodikasi» 2021 yil 26
4. Ochilov M., va boshqalar. Bo'lajak o'qituvchi. («Budushiy uchitel»). Qarshi, 1983-yil.
5. Matchanov S. Umumta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish: Dis. ... ped. fan. dok. – T.: TDPU, 1998. – 300 b.

O'ZBEKISTONDA VOLONTYORLAR HARAKATING RIVOJLANISHI VA ULARNING SABABLARI

Kalmuratov Samandar
Qaroqolpoq davlat universiteti
Qaroqolpoq filologiyasi va jurnalistikasi fakulteti
Tele-radio yo'nalishi 1- kurs talabasi

Annotatsiya. Yon-atrofdagilarga mehr-shafqatli, jon kuyar bo'lish, ko'makka muhtojlarga yordam qo'lini cho'zish, da'rdiga darmon bo'lish, og'irini yengil qilish, el kuniga yaraydigan inson, mahalla-ko'y va jamiyat uchun kerakli shaxs bo'lish bizga otabobolarimizdan merosdir. Biz bugun Muhtaram Prezidentimiz rahbarligida mustaqil, insonparvarlik, xaliqparvarlik xarakteriga ega bo'lgan davlatni, yuksak axloqli fuqarolik jamiyat yaratmoqdamiz. Volontyorlik harakati uzoq tarixga ega. Uning kelib chiqishi haqida bir qator manbalarda turlicha faktlar keltirilgan. Ularga XVII asrda fransuzlarda "volontaire", italiyanlarda "volontario", nemslarda "volontair" degan bir xil ma'noni anglatuvchi tushunchalar paydo bo'lgan. Bugungi kunda volontyorlik harakatining G'arib modeli dunyo bo'ylab keng rivojlangan. 1990-yilda Xalqaro Volontyorlar Assotsiatsiyasining XI Kongressida "Butun dunyo volontyorlar deklaratsiyasi" qabul qilindi. 1996-yil Yevropa Ittifoqi tomonidan "Yevropa volontyorlik xizmati" (EVS) tashkil etildi. Yevropa Ittifoqi Komissiyasi tomonidan volontyorlik va volontyorlar faoliyatining davlat boshqaruvidagi muhim ahamiyatini inobatga olib, 2011-yilni rasman tarzda "Yevropada volontyorlar yili" deb nomlandi. BMT tomonidan 2001 yil "Xalqaro volontyorlar yili" deb e'lon qilindi.

Kalit so'zlar: volontyorlik tushuncha, insonparvarlik, bag'rikenglik va hamjihatlik, volontyorlar faoliyatini tashkil etish,

Kirish. Xabaringiz bor, pademiya tufayli yuzaga kelgan murakkab vaziyat volontyorlar harakatini sinovdan o'tkazdi. Volontyorlardan tuzilgan guruhlar pademiya sabab tashkil etilgan markazlarda, "Xavsiz yordam" aksiyasi, "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati, "Sardoba sari saxovat karvoni" kabi xariya aksiyalarida faol ishtirok etib, xalqimiz dardiga malham bo'lishdi. Mamlakatimizda birinchi bor o'tkazilgan O'zbekiston yoshlari forumida Prezidentimiz yoshlarimizning bu tashabbuslari va faolligini e'tirof etgan holda aytgan ediki: "El boshiga ish tushkganda, yoshlarimiz, kerak bolsa, azizjonlarini garovga qo'yib, xalqimiz dardiga darmon bo'ldilar. Sizlarning tengdoshlaringiz uyma-uy yurib, karantin davrida qiynalgan oilalarga amaliy yordam berdilar. Ayniqsa "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakatida minglab o'gil-qizlarimiz volontyor sifatida faoliyat olib borganini bugun alohida takidlab o'tmoqshiman" degan fikirlari yoshlarni yanada ilhomlantirdi. Bugungi kunda volontyorlarga madaniyat darajasini oshirish uchun bilim berib borish yo'lga qo'yildi. O'zbekiston bo'ylab 14 ta hududda volontyorlar maktablari ochildi. Endilikda volontyorlar uchun har bir mintaqada moddiy-texnik bazasi bilan jihozlangan alohida ofis boladi. Shuningdek, universitetlar huzurida 30 ta shunday markazlarni yaratish ishlari davom etmoqda. Bu talabalar bo'sh vaqtida, darslar oralig'ida yoki yakunida yig'ilishib o'zlaring loyihalarini muhakama qilishlari uchun xizmat qiladi. Volontyorlik harakati ham uni amalga oshirgan insonga ham undan ko'mak olgan insonga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan: volontyor sifatida boshqalarga ko'mak bergan inson ma'naviy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalaydi, o'z ishidan ruhiy kuch quvvat oladi, zavqlanadi, insonligini his qiladi va hakoza. Bu faoliyatda bir marta ishtirok etgan insonning hayotga qarashi butunlay ijobiy tomonga o'zgaradi. Ikkinchidan: volontyorlik harakati ko'magidan foydalangan inson o'zining boshqalar uchun

kerakligini his qiladi, motivatsiya oladi, hayotga intilishi oshadi, o'ziga imkoniyatlar ochadi va rivojlanadi. O'z navbatida volontyorlik harakati jamiyat uchun quydagi ijobiy ta'sirlarga ega :

- 1) jamiyat a'zolarining ijtimoiy faolligi, fuqarolik va insoniy poziytsiyasin oshadi;
- 2) jamiyat a'zolarining uyushish, jipslashish, ezgu g'oya ostida birlashish imkoniyatlari ortadi;
- 3) jamiyatda odob-axloq normalari ustuvorligi oshadi, rivojlanadi;
- 4) insonlar o'rtasida mehr-oqibat , o'zaro hurmat, ahillik kabi qadriyatlar rivojlanadi.

Asosiy qisim: Katta Farg'ona kanalining qazilishi, Farg'ona vodiysining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan, qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini sug'orishda asosiy o'rin tutuvchi Katta Fargona kanali 1939-yilning avgust oyida boshlanib, xalq hashari yo'li bilan 45 kunda 270 kilometr uzunlik bunyod etilgan. Umumxalaq hasharida O'zbekistonning 200 ming nafardan ziyod aholisi ishtirok etgan. Volontyorlik harakatining yana bir dalili misol sifatida xalqimizning 1966-yil 26-aprel kuni Toshkent shahrida yuz bergan zilzila oqibatlarini bartaraf etish yo'lidagi jonbozliklarini keltirib o'tish mumkin.

Zilziladan 10 yil o'tgach, 1976-yil 20-may kuni hodisaga atab, Toshkentda "Jasorat" monumental majmuosi o'rnatilgan va bu obyekt o'sha davrdagi ko'ngillilar harakatini ifoda qilib turibdi. Volontyorlikning asosiy maqsadlari va faktorlari:

- Yoshlarda liderlik mahoratini oshirish ;
- Yoshlarda sog'lom fikr va sag'lom ongni shakllantirish , ularning dunyoqarashini kengaytirish ;
- Yoshlarning huquqiy va madaniy ongini yuksaltirish ;
- Yoshlarda vatanparvarlik hissini rivojlantirish .

Xulosa: O'zbekistonda volontyorlikka keng maydon yaratish orqali uni hamma bilishi kerak bo'lgan muhim ahamiyatga ega, yosh yoki dinni tanlamaydigan umuminsoniy harakatiga jamiyatning muhim elementiga aylantirish. Uning asosiy maqsadi- jismoniy va yuridik shaxslarga , umuman jamiyatga yordam ko'rsatish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy ahamiyatga molik tadbirlarda ularni tashkil etuvchilarning roziligi bilan ishtirok etish, jamiyatda fuqarolik nuqtai nazarini, o'zini o'zi tashkil etishni, ijtimoiy mas'uliyat, birdamlik, o'zaro yordam berish va rahm-shafqat tuyg'ularini shakillantirishdan iboratdir. Volontyorlik faoliyati davlat va jamiyat ravnaqi yo'lida bir qator vaziyfalarni bajaradi. Xususan:

- Fuqarolarni aholing turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan turli xil jamoat faoliyatiga jalb etish mexanizmlarini shakillantirish.
- Ijtimoiy vazifalarni hal etishda jamiyatga yordam ko'rsatadi.
- Volontyorlik faoliyatini tashkil etishga qaratilgan fuqarolik tashabbuslarini rivojlantiradi va qo'llab quvvatlaydi
- Aholida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakillantiradi, vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalaydi.
- Fuqarolar tomonidan ijtimoiy vazifalarini hal etish uchun o'zini o'zi namoyon etish va o'zini o'zi tashkil etish ko'nikmalarini olishda ishtirok etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Volontyorlik" bo'yicha qo'llanma . UO'K-364-322 KBK-65.272 V-80
2. Toshkent davlat pedagogika universiteti "Ilmiy axborotlari" ilmiy nazariya jurnali 2020 yil, №11-son
3. "Pademiya sharoitida oilada tinchlik va totuvlikni saqlashning dolzarb vaziyfalari va muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. UO'K:173.7:616-036.21(575.1) (082)

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ZAMONAVIY O'QITISH USULLARIDAN FOYDALANISH

**Rejabova Dildora Ergashali qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf darslarida zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish, darslarning samaradorligini oshirishda ularning ahamiyati haqida yoritilgan. Yangicha metod, usullarning bugungi kundagi o'rni haqida ma'lumot, misollar keltirilgan. Axborot texnologiyalari bilan dars metodlarining uzviyligi, samaradorligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Dars, o'qitish metodlari, interfaol ta'lim metodlari, zamonaviy texnologiya, usul, metod.

Bugungi kunda yurtimiz jadallik bilan har sohada rivojlanib bormoqda. Barcha sohalarning zamirida, albatta, ta'lim yotadi. Ayniqsa, dastlabki asosiy tamal Toshini boshlang'ich ta'lim qo'yib beradi. Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan o'qituvchilarning darslarga ijodiy yondashishini ta'minlash, ular faoliyatiga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish hamda o'quvchilarning dastlabki bilim egallash poydevori mustahkam bo'lishi, barcha fanlarni o'zlashtirishga qiziqishini oshirish maqsadida zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilib, tatbiq etib kelinmoqda. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish" konsepsiyasida asosiy yo'nalishlar belgilab qo'yilgan, jumladan:

- O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

-Uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatdan yangilash;

-O'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish.[1]

Ulug' donishmandlardan biri "...kelajak tashvishi bilan yaxshasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit "-", degan ekan. Darhaqiqat, bu so'zlarning zamirida oldimizdagi asosiy vazifa turibdi. Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek: "Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi, bilim bor joyda buyuklik bo'ladi"

Bugungi zamon o'qituvchi va o'quvchi oldiga katta talablar qo'yimoqda, bu talablarning asosiysi-darsning samaradorligi, sifatligi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga maktablardagi turli xil o'quv mashg'ulotlari, ularni tashkil qilinishi va u orqali o'quvchilarni turli bilim va ko'nikmalarni egallab olishidir. Bugungi kun talabidagi darsni tashkil qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Chunki, ular orqali multimedia, animation, grafika, diafilm, video filmlardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo'lishiga yordam beradi.

O'qituvchi zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali quyidagi bir qancha vazifalarni amalga oshirishi mumkin:

- boshlang'ich sinflarda multimedia texnologiyalarini qo'llash orqali

o'quvchilarda fanga qiziqishi rivojlanadi;

-ta'limning bunday usuli o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va o'quv materialini o'zlashtirishining samaradorligi yanada oshadi;

-namoyish qilinishi qiyin yoki murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va ko'rish imkoniyatini beradi;

- o'quv materiallarini o'zlashtirishi faqat darajasiga ko'ra emas, balki

o'quvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlarining darajasiga ko'ra ham samarali hisoblanadi;

- o'quvchilarga mustaqil izlanish yo'li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob topish orqali ma'lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratiladi;

- o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishi, misollar yechishi, insho, bayon yozish ishlarida, o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma'lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratiladi[2]. Oldingi an'anaviy dars o'tish usullarida o'quvchilar tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, bugungi kunda o'quvchi zamonaviy axborot vositalari orqali ma'lumotlarni qidirish, to'plash, ular bilan o'zi mustaqil tanishish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Endi savol, ana shu axborot texnologiyalari orqali o'quvchilarga qanday usullar yordamida nimalarni o'rgatish mumkin? Avvalo, o'qitish metodlar haqida, o'qitish metodlari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarni yo'nalishlarini, harakatlarini belgilaydi. Bu metodlar o'qituvchi tomonidan bilim, malaka va ko'nikmalarini o'zlashtirishi uchun qo'llanadigan usullar yig'indisini o'z ichiga oladi. Usul- ma'lum o'quv materialini o'tishda qo'llanayotgan asosiy o'qitish metodi bilan birga ikkinchi bir o'qitish metodining ayrim elementlaridan foydalanib ish ko'rish. Vosita esa o'qitish metodlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallari - asbob, qurol, apparat va shu kabilardan foydalanish hisoblanadi.[3] Bugungi kunda zamon talabidan kelib chiqib "o'qitish usullari" atamasining oldiga "zamonaviy" so'zini qo'ysak maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, o'qitish usullarimizni zamonaviylashtirmasak dars samaradorligi keskin tushib ketadi. Chunki, bu o'quvchilar va zamon talabini qoniqtirmaydi. Hozirgi o'quvchilarning aqliy rivojlanishi oldingilardan ko'ra kuchli, XXI asr bolalari. Shu sababdan, oddiy metodlar bilan o'tilsa darsga bo'lgan qiziqish yo'qoladi.

Hozirda "Loyihalash", "Muammoli vaziyat", "To'g'ri - noto'g'ri", "O'z -o'zini baholash", "O'qib tushunish", "Aqliy hujum", "Sinkveyn", "BBB", "Fikrlar hujumi", "Beshinchisi ortiqcha", "6x6x6", "Bahs-munozara", "Kichik guruhlarda ishlash", "Yumaloqlangan qor", "Zigzag", "Oxirgi so'zni men aytay" kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda. Bu jarayonda darsning markazida o'qituvchi emas, balki, o'quvchilar turadi. Jarayondagi o'qituvchining asosiy vazifasi shaxs rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchanlik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

Yuqorida keltirilgan metodlarning samarasi haqida. "O'z-o'zini baholash" metodi, nomidan ham bilishimiz mumkinki, o'quvchini darsda o'qituvchi emas, balki o'zini-o'zi baholaydi. Metodning foydali tomonlari shundaki, vaqtni kam oladi, bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilar topshiriqlarni bajarib baholanadi. O'quvchida o'zining qanday bilimga ega ekanligini anglashiga yordam beradi va o'qituvchiga bo'lgan yomon munosablarga olib kelmaydi. O'zining xatolarini ko'zi bilan ko'rib, ularni to'g'rilashga harakat qiladi.

"Beshinchisini top" metodi. O'quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida bu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagilar amalga oshiriladi:

-o'rganilayotgan mavzuni ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalarni shakllantirish;
-hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita...) va taalluqli bo'lmagan bitta tushunchaning o'rin olishiga erishish;

-o'quvchilarga mavzuga aloqador bo'lmagan bitta tushunchani aniqlash va tizimdan chiqarish topshirig'ini berish;

-o'quvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash, ya'ni nima uchun bir so'zni chiqarib yubordi va qolgan so'zlar bir- biri bilan qanday mantiqiy bog'langanligini bilishi zarur.

Misol uchun, so'zlar qatori: kitob, ruchka, qalam, deraza.

Ortiqcha so'z: deraza.

O'quv qurollari: kitob, ruchka, qalam.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsga qiziqtirishda yangi pedagogik texnologiyalarning ahamiyati katta bo'lib, asosan, ko'rgazmali qurollar, turli interfaol o'yinlarni pedagogik texnologiyalar asosida dars mashg'ulotlari qiziqarli va oson kechadi.

Biz qo'llayotgan zamonaviy metodlarni zamonaviy axborot vositalari bilan uyg'unlashtirsak bugungi kun talabiga to'liq javob bergan bo'ladi. Oddiy qog'ozda tarqatmali materiallar bilan ishlagandan ko'ra, ana shu materiallarni ekranda ko'rsatib, topshiriqlarni bajartirsak, o'quvchilarda axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalari paydo bo'ladi. Bu esa ularning kelajakdagi faoliyatlari uchun katta poydevor vazifasini o'taydi. Shu bilan birgalikda ularda yakka va kichik guruhlarda ishlash, do'stlari bilan jamoa tarzida harakat qilish kompetensiyalari paydo bo'ladi. Dars qiziqarli, sifatli va unumli o'tadi, ko'proq bilim egallashga imkoniyat paydo bo'ladi. Real voqealarga asoslangan mavzuga doir videolar qo'yib berish orqali o'quvchilarning tezroq dunyoni anglashlariga keng yo'l ochiladi.

Kompyuterning o'yin imkoniyatlaridan didaktik o'yinlar bilan birgalikda foydalanish dars jarayonini yanada osonlashtiradi. Darsda olingan bilim, ko'nikma va malakalarning katta qismi hali kichik yoshdagi o'quvchilar tomonidan sinfdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanilmaydi, ularning amaliy qiymati yo'qoladi va kuch sezilarli darajada kamayadi. Olingan bilim va ko'nikmalarni o'yin kompyuteri muhitida qo'llash ularni o'zlashtirishga va egallashga, motivatsiyaga olib keladi. Yosh o'quvchilarning yuqori hissiylik darajasi o'quv jarayonining qat'iy doirasi bilan sezilarli darajada cheklanadi. Kompyuterdagi mashg'ulotlar yuqori hissiy taranglikni qisman bartaraf etishga va o'quv jarayonini jonlantirishga imkon beradi.[4]

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashlarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lash hamda darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
2. Ismatova.Sh.B. "Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish afzalliklari".- " Science and education" scientific Journal,2020. www.openscience.uz.
3. "Tarbiya" majmua.
4. Umarova.M.R." Boshlang'ich ta'limda AKTdan foydalanish ahamiyati". –" Talqin va tadqiqotlar"ilmiy jurnali,2022.

TALABALARNING MAFKURAVIY IMMUNITETINI MUSTAHKAMLASHNING IJTIMOY- PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

Z.Eraliyeva
Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mafkuraviy tarbiyaning ijtimoiy -pedagogik asoslari haqida so'z yuritilgan. Maqolada talabalarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari "Kamolot" yoshlar ijtimoiy xarakati misolida o'rganilishi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: profilaktika, deviant, milliy, axloqiy, buzg'unchi, hissiy, irodaviy, intellektual. "Kamolot" YIX, tarbiya, g'oya, mafkura, terrorizm, diniy aqidaparastlik.

Bugungi kunda yosh avlodni ma'naviy sog'lom va barkamol etib tarbiyalashda ma'naviyat olamining ta'siri haqida atroflicha, yangicha fikr yuritish, xalqimiz yangi hayot, yangi jamiyat asoslarini qurayotgan sharoitda ma'naviy tarbiya sohasidagi vazifalarni aniq belgilab olish, yangicha tamoyil, usul va uslublar yordamida xalq etish hayotiy ehtiyoj mahsuli sifatida qaytadan paydo bo'lgan ijtimoiy-pedagogik muammodir. Bu muammoni har tomonlama xalq etish uchun har bir inson o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirilishi, bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab mustaqil fikrlash va diyorimizda sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlarga nisbatan faol, daxldorlik tuyg'usi bilan yashash zarurligini farzandlarimiz ongi va qalbiga bolaligidan singdirish lozim.

"Profilaktika" so'zi turli manbalarda turlicha ta'riflanadi. Shular jumlasidan: [prophilaktikos – saqlovchi, yunoncha]

1. Sog'liqni saqlashga, kasalliklarning vujudga kelishi va tarqalishining oldini olishga yo'naltirilgan, aholining jismoniy takomilini yaxshilash, mehnat qobiliyatini saqlab qolish va uzoq umr ko'rishini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar majmui.

2. Mashina, mexanizmlarni siyqalanish va sinishdan asrashga qaratilgan choralar majmuini anglatadi.

3. Profilaktika –kasallanishdan saqlash, (biror narsani) buzilishdan, aynishdan asrashga qaratilgan tadbirlar majmui sifatida ta'riflanadi. Bizningcha, pedagogik nuqtai nazardan u tarbiyaning buzilish, aynishdan asrashga qaratilgan ma'rifiy, tarbiyaviy yo'nalishdir.

**"IKKI ESHIK ORASI" ROMANIDA QO'LLANGAN METAFORALARNING LINGVOPOETIK
TAHLILI**

Dilnavoz Abdurahimova
Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada metafora hodisasini grammatik jihatdan tahlil qilingan, metafora ko'chimining ma'no turlari o'rganilgan hamda roman yuzasidan tahlili bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy vositalar, ko'chim, o'z ma'no, belgi, semema.

Kirish. Tilshunoslik fanida metafora hodisasi - tilshunoslikdagi mavjud iboralarni qayta ko'rib chiqish jarayonida yangi ma'nolarni yaratish jarayoni sifatida ham, tayyor metaforik ma'no sifatida ham ko'rib chiqilgan. Bu mavzu bo'yicha keng ko'lamlı adabiyotlar mavjud. Metaforani o'rganish bo'yicha ishlar bugungi kungacha davom etmoqda va u haqida bir qancha ilmiy maqolalar ham yaratilgan. Tilshunoslikda metaforani o'rganadigan turli yo'nalishlar ko'rib chiqiladi.

Metafora (gr. metaphora - ko'chirish) - nutq mexanizmi, biror leksema denotatining tashqi, zohiriy o'xshashligi asosida boshqa ma'noni ifodalash uchun ishlatilishi. Metaforik ma'no hosil bo'lishi uchun quyidagidan biri sabab bo'ladi:

1) bir so'z boshqa so'zga nisbatan so'zlovchining ifoda maqsadiga ko'proq mos va muvofiq bo'ladi va shuning uchun birinchisi o'rnida ikkinchisi qo'llaniladi;

2) biror denotatning ifodalovchisi bo'lnaydi va ma'lum bir so'z boshqa denotatni ham ifodalash uchun qo'llanadi. Demak, birinchi holda ko'chirilayotgan so'z denotatning ikkinchi atamasi bo'lsa, ikkinchi holda birinchi atamasidir. Masalan, (*quyi*) so'zi anglatadigan ma'noni (*etak*) so'zi qulayroq va to'laroq ifodalaganligi bois tog'ning quyi tomoniga nisbatan (*etak*) so'zi ishlatilgan. O'zbek tilida dengizdagi o'ziga xos jo'g'rofiy o'rinning nomi bo'lmaganligi bois (*qo'litiq*) so'zi unga nisbatan ham qo'llanadi. Metafora hodisasi asosan, ot turkumi doirasida, qisman fe'lda uchraydi: Qush uchdi. Samolyot uchdi qurilmalarining ikkinchisida (*uchmoq*) fe'li ifodalagan harakat qushning havodagi qanotlarini silkitib qilgan parvozigaga o'xshaydi. Shu boisdan (*uchmoq*) fe'li ifodalagan keyingi ma'no rmetaforik ma'no. Metafora hosila ma'no hosil qilishning keng tarqalgan usuli sifatida badiiy uslubning, nutqning eng muhim vositasidan hisoblanadi. Metaforik hosila ma'no nutqda juda ko'p uchraydi. Ammo ularning lisoniylashgani –sememaga aylangani nisbatan kam qo'llaniladi.

O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarida qo'llanilgan metaforaga ko'chimiga oid birliklar tahlili nazariyasi

Barcha asarlarda bo'lgani kabi O'tkir Hoshimovning ushbu asarida ham voqealarni tasvirlashda tasviriy vositalar orqali aytishi muhim hodisalardan biridir. Shuningdek, bu asarda ham ko'chimning bir qancha turlari ham qatnashgan va ular badiiy asarning qanchalik jozibador va go'zalligini ko'rsatib beradi.

Xullas, uch kun avval «Moskvich»ida kelib qoldi. Yigitlar uchinchi qavatda domino o'ynab o'tirishar, shaqur-shuqur tovushlar pastdan bemalol eshitilib turardi. Shavkat Qudratovichning rangi o'chib ketdi...

- Dezorganizatorlikka o'zlari bosh-qosh bo'ptilar shekilli, o'rtoq Shomurodov? - dedi labi burilib. - Brigadirlik yuki og'irlik qilib qoldimi? Yana indamadim. Oxiri uning toqati toq bo'ldi.

- Til-zabon bormi o'zi! - dedi tutoqib. - Kvartal tugayapti. Birinchi iyuldan pardozchilar ishga tushishi kerak. To'rtinchi qavatni kim montaj qiladi? Tomni kim yopadi?

Ushbu parchada keltirilgan metafraga oid birliklar keltirilgan: Parchada keltirilgan "Shavkat Qudratovichning rangi o'chib ketdi" birligida "rangi o'chib ketdi" iborasi orqali yuzaga kelgan. Buning sababi aslida rangi o'chib ketmoq bu shaxsga nisbatan emas, balki narsaga nisbatan ishlatiladi. Masalan; Bu kitobning rangi o'chib ketdi. Birligida o'z ma'nosida

qo'llangan. Ammo tepadagi birlikda ko'chma ma'no ya'ni o'z ma'noni yo'qotib, Metaforaning "Harakat"ning o'xshashligi asosida ma'no ko'chgan.

Ikkinchi parchada esa "Brigadirlik yuki o'g'irlik qilib qoldimi?"

Ushbu parchani oladigan bo'lsak, bunda "o'g'irlik qilmoq" fe'li asosida ma'no ko'chgan. Ya'ni brigadirlikning ko'tariladigan yoki inson ko'tarsa bo'ladigan narsalarga nisbatan ishlatiladi. Ammo bu yerda Brigadirlik lovozimida ishlashda bajariladigan ishlarning qanday qiyinligi, o'g'irliigi va vazifalarning murakkabligi ekanligini nazarda tutmoqda... Va bu birliklar asosida fikr ta'sirchanligini oshirish maqsadida yozuvchi tomonidan keltirib o'tilgan. Qahraton qish... Tor ko'cha o'rtasiga qor uyib qo'yilgan katalakdek hovli. Chaqmoq telpakli odam. Sovuq vokzal. Yo'ldoshxon aka. Tog'oradagi osh. Qon yig'lab qolgan onam.

Quyidagi parchada ham metofaraga oid birliklar keltirilgan:

Bularga "Sovuq vokzal" so'zida ko'radigan bo'lsak, buda "sovuq" so'zi aslida belgi bildiruvchi so'z bo'lib, Sovuq so'zi, vokzal so'ziga bog'lanib kelgan va metafora asosida ma'no ko'chgan. Bunda sovuq faqat, shamol, kun, ob-havo kabi so'zlarga nisbatan ishlatiladi. Ammo hozir bu yerda metaforaning "belgi asosida ma'no ko'shini yuzaga chiqargan. Ikkinchi gapda esa "qon yig'lamoq" qo'shma fe'li orali metaforani shakllantirgan. Bunda yig'lamoq fe'lining oldidan qon so'zining kelishi natijasida birikib "Qon yig'lamoq" iborasini yuzga keltirgan va bun ko'chma ma'noda (ya'ni inson chindan ham qon yig'lashlik xususiyatiga ega emasligi uchun) u metafora ko'chim ta'sirida ma'no ifodalagan. Bunda "qon yig'lamoq" fe'lini aslida yozuvchi ko'p ko'z yosh to'kmoq yoki haddan tashqari ko'p yig'lash ma'nosini anglatmoqchi bo'lgan va uni metafora usulfa ko'rsatib o'tgan. Keyingi iborani oladigan bo'lsak: "onam jonlandi" birikmasida metaforani keltirib o'tilgan.

Odamzodning qonida g'alati adolatsizliklar bo'ladi. Begonalardagi o'zgarishni darrov sezasiz-u, yaqinodamingizga e'tibor bermaysiz. Xuddi ota-onangizni birov sizga bog'lab berib qo'ygandek. Go'yo ular siz uchun abadiy yashashi shartdek. Oyim keksayib qolganini, sochlari oqarib ketganini, qovoqlari salqib, yuzi yillab to'shakka yopishib yotgan odamdek sarg'imtil zahil tusga kirganini endi payqadim.

Ushbu parchadagi ko'chimga oid birliklarni ko'radigan bo'lsak, bunda metaforaga oid parchalar qatnashgan. "Odamzodning qonida g'alati adolatsizliklar bo'ladi" Bu yerda keltirilgan g'alati adolatsizliklar so'zida o'ylab qaralsa adolatsizlik g'alati bo'lishi mumkin emas, Bunda "g'alati" sifati o'zi aslida, adolatsizlik so'ziga mantiqan bog'lanmagan. Unda bu sifat shaxs, narsa- buyumga nisbatan ishlatish mumkin. Ammo bu uning birikishidan "metaforaning belgi asosida nisbiy o'xshashlikni" yuzaga chiqargan. Lekin bu so'zlarning ma'nolari doimiy metaforaga aylangan holda ya'ni turg'unlashib qolmaydi. Mazkur tushunchani o'z ma'nosida qo'llasa metofara tushunchasi yo'qoladi va oddiy belgi bildiruvchi sifat ma'nosini ifodalaydi. Umumiy ma'noda Odamzodning qoniga singgan qabihliklarning va razillikning ko'p ekanligini aytib o'tmoqda.

Metafora hodisasi ham ko'chimning bir turi bo'lib, unda borliqdagi barcha narsa, belgi, harakat va hodisaning o'xshashlik asosida nom ko'chisiga asos bo'ladi. Ya'ni bu metaforada biror narsaning nomi boshqa bir narsaning nomiga o'xshashlik asosida o'rnida qo'llanishi mumkin. Metaforik asosda ma'no ko'chishida u nutqning go'zalligini, ta'sirchanligi va ekspressivligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababdan uning qo'llanish doirasi keng bo'lib, u ilmiy va badiiy uslublarda keng doirada ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'tkir. Hoshimov, Ikki eshik orasi: Roman. - T.: «Sharq», 2012.
2. Nurmonov "O'zbek tilining nazariy grammatikasi" Toshkent "O'qituvchi" 1995.
3. G'ani Abduraxmonov. "O'zbek tili grammatikasi" Toshkent "O'qituvchi" 1996.
4. "O'zbek tilining ilmiy grammatikasi" "O'zfan nashriyoti" Toshkent-1941.
5. Sh. Rahmatullayev. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" 2006.

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING DOLZARBLIGI

Umarova Ra'no Rustamovna
Qo'qon Universiteti "Ta'lim tashkilotlari boshqaruvi"
yo'nalishi Magistranti

Annotatsiya: O'zbekistondagi hozirgi islohotlar jiddiy o'zgarishlarni talab qilmoqda, bu esa o'z navbatida kelajakdagi ko'plab o'zgarishlarga turtki berishga qodir ta'lim modernizatsiya g'oyasini ilgari suradi. Maqolada hozirgi bosqichida maktabgacha ta'limni rivojlantirish ta'lim tizimidagi isloxlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanganligi, O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasida yangi tendensiyalarning rivojlanishi natijasi ekanligi haqida fikr va milihazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tizimi, ta'lim modernizatsiyasi, rivojlanish, ta'lim, tarbiya, innovatsion texnologiyalar.

Maktabgacha yoshdagi bolalik davri ta'limning asosiy bosqichlaridan biri sifatida talqin etilmoqda, uning potentsial mazmuni keyingi bosqichlardan kam emasligi haqida ko'plab manba'larda keltirilgan. «Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi, hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz» - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi shunday so'zlari yangradi. [6]

Maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilishning rasmiy belgilari – bu maktabgacha ta'limning barcha bo'g'inlarini modernizatsiya qilishga imkon beradigan huquqiy, ma'muriy, iqtisodiy sharoitlarni o'zgartiradigan yangi me'yoriy hujjatlardir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tarbiya jarayonining tashkil etilishining o'z formatini topishga, shaxsiy modelini tadbiiq etishga imkon beradigan yangi ta'lim shakllaridan foydalanishga qiziqish ortib bormoqda.

Yaqin vaqtgacha maktabgacha ta'lim muassasalarining odatiy bir hil yo'nalishdagi faoliyati, yangi texnologiyalarni joriy etish vositasida hilma –hillik kasb eta boshladi. "Ta'lim muassasasi" tushunchasi yangi "ta'lim tashkiloti" tushunchasi bilan almashtirildi. Zamonaviy hayot bizga buyurgan talablar, shuningdek maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standartiga ko'ra ta'lim va tarbiya jarayonlarini sifatli tashkil etish har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti oldidagi oliy maqsadidir. Davlat standartining maqsadi maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish hisoblanadi. Uning vazifalari qatorida ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etish ham bor. [5]

Bunga esa bolalarning individual ichki salohiyatini barcha yo'nalishlarda rivojlantirish bilan bir qatorda to'liq ochib berish uchun maksimal sharoit yarata oladigan yangi pedagogik metodologiyalarni, xalqaro miqyosda tan olingan innovatsion texnologiyalarni ta'lim faoliyatini tashkil etish jarayoniga keng joriy etish orqali erishish mumkin. Shu ma'noda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayoni jamiyatning so'rovi va o'zgaruvchan talablariga mos keladigan integratsiyalashgan tizimga aylanishi kerak. Doim yodda tutish kerakki, pedagogik texnologiyaning eng muhim jixati bu bolaning ta'lim jarayonidagi pozitsiyasi, kattalar tomonidan bolaga bo'lgan munosabatidir. Kattalar bolalar bilan muloqotda quyidagi pozitsiyaga amal qilishi sart: "Bolaning yonida emas, ustidan

xukumronlikda ham emas, balki faqatgina birgalikdagi faoliyat!». Bu pozitsiyadan maqsad bolaning shaxs sifatida shakllanishiga yordam berishdir.

Pedagogik texnologiyalar va ulardan maktabgacha ta'lim muassasasida samarali foydalanish haqida gapirganda, "texnologiya" atamasining o'zi nimani anglatishini eslab ko'raylik.

Texnologiya-bu har qanday biznesda, hunarmandchilikda, san'atda ishlatiladigan texnikalar to'plami (izohli lug'at).

Texnologiya: bu o'ziga xos faoliyat sohasi, usulublar, vositalar, usullar to'plamidan foydalanish orqali ob'ektning asl holatini o'zgartirish bo'yicha ma'lum natijalarga erishish jarayonidir. Shu bilan birga, bunday jarayonlar haqidagi fan uni amalga oshirish qonuniyatlarini eng samarali va iqtisodiy jihatdan ochib beradi. [4]

Pedagogik texnologiyaning asosiy talablariga quyidagilar kiradi: kontseptuallik, izchillik, boshqarish, samaradorlik, takrorlanuvchanlik.

Ta'lim texnologiyasi deganda ta'limning belgilangan maqsadi va bilim oluvchning bilim darajasiga ko'ra o'quv faoliyatini boshqarishning nazariy loyihasi va pedagogik tizimning amalga oshirishini ta'minlovchi zarur vositalar tizimi tushuniladi.

O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyasi biror nazariya va maqsad asosida ishlab chiqiladi. Pedagogik tizimning amalga oshirishi, uning moslanuvchanligi hamda talabanin shaxsiy xususiyatlari, ulaming texnologik va individual me'yorlari bilan bog'langan. Bunda ushbu texnologiyalaming moslashuvchanligi, ulchaming variativligi, talaba xatti-harakatlarining bosqichlilik muhim ahamiyat kasb etadi. O'qitish texnologiyasi sathida o'quv jarayonining barcha komponentlari yoritiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiya asosida talabalarning intellektual va emotsional-motivatsion rivojlanishi, bilim va kasbiy malakalar shakllanishi, ta'lim jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini ta'minlash, faollikni oshirish, o'z-o'zini anglash va mustaqilligini shakllantirish yotadi. [1]

Maktabgacha ta'lim muassasalarida joriy etilayotgan innovatsion texnologiyalar u yoki bu tarzda maktabgacha yoshdagi bolada XXI asr ko'nikmalari va malakalarini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir.

XXI asr ko'nikmalariga ega bo'lgan shaxs yuqori texnologiyalar va ijtimoiy faollik sharoitida tez, o'zgaruvchan, qiziqarli, ammo murakkab va oldindan aytib bo'lmaydigan dunyoda yashashga tayyor bo'lgan, shaxsiy individual fazilatlarini, malakasi va funktsional savodxonligi bilan ajralib turadigan shaxsdir.

Ushbu fazilatlarni rivojlantirib, biz yangi, barkamol, ma'lum qadriyatlarga ega, iqtisodiyotni, fanni va boshqa sohalarni rivojlantirishga qodir bo'lgan odamning portretini olamiz.

Bolalarni turli xil ta'lim va tarbiyaviy faoliyatga jalb qilish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog va tarbiyachilari o'zlarining ijtimoiy tajribalarini hisobga olgan holda faoliyatning mazmuni va shakllariga bo'lgan qiziqishlariga asoslanib, psixologik majburlashsiz jarayonni tashkil qilishlari kerak. Ushbu talablarning barchasi faqat bitta shart bilan amalga oshirilishi mumkin - ta'lim va tarbiyalashning eng samarali vositalarini tanlash orqali. Bu esa o'z navbatida ta'lim jarayoniga ta'lim faoliyatini olib borishning innovatsion shakllari va usullarini keng joriy etishni talab qiladi.

- Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:
- Yangilik qo'llashga tayyorgarligi;
- Pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- Novatorlik darajasi;

- Kommunikativ qobiliyatning rivijlanganligi;
- Ijodkorligi.

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida BMKni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida keng qo'llanilayotgan loyixalar va tadqiqotlar faoliyati, ijodiy muammolarni hal qilish texnologiyasi (TRIZ), o'yin faoliyati vositasida bilim berish texnologiyasi, "Ta'lim jarayonida SINGAPUR texnologiyalari", Mariya Montessori metodikasi, Reggio pedagogikasi kabi metod va texnologiyalarning barchasi muhim pedagog va tarbiyachilar qo'lida "yumshoq ko'nikmalar" (Soft skills)ni rivojlantirish vositalariga aylanmoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha metod va usullar noyobdir, chunki ularni qo'llash jarayonida bolalarga muammoli vaziyatlar va ijodiy vazifalar taklif etiladi, bu esa ijobiy psixo-emotsional kayfiyatni rivojlantiradi va o'zini o'zi boshqarish usullarini, ijodkorlikni, mustaqillikni, tashabbuskorlikni, yangi kashfiyotlarga qiziqishni shakllantiradi. [3]

Yuqoridagilarni sarhisob qilib, xulosa qilishimiz mumkinki, XXI - asrning asosiy "ko'nikmalarini" o'zlashtirib, maktabgacha yoshdagi bolaning shaxs sifatida shakllanishi va o'sishi jarayonida, keyingi hayotda muhim bo'lgan fundamental ko'nikma va malakalarni o'rganish osonroq bo'ladi. Texnologik yondashuv, ya'ni innovatsion pedagogik texnologiyalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda keng tadbiiq etish, maktabgacha yoshdagi bolaning yutuqlarini kafolatlaydi va kelajakda ularning maktabda muvaffaqiyatli o'qishiga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tizimidagi istalgan pedagog va tarbiyachi, avvaldan ma'lum, hamda keng qo'llanilgan mashhur metod va texnologiyalarni o'z faoliyatida qo'llab ham, texnologiyaning yaratuvchisiga aylana oladi. Chunki har bir texnologiya muhim pedagog va tarbiyachilar qo'lida yanada sayqallanib, o'zigagina xos jilo bilan nur sochadi. Zeroki har qanday texnologiya – bu yaratuvchanlik va ijodkorlikdir. Yangi pedagogik texnologiyalar vositasida ishlashni o'rgangan pedagog va tarbiyachining oliy maqsadi bolaning rivojlanish paytidagi kognitiv jarayonni to'g'ri tashkil etish bo'lib qoladi. Hamma narsa bizning qo'limizda, muhimi fursatni va tashabbusni boy bermaslikdir.

Fodalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizxojayeva. N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti. 2006, - 67-68 betlar
2. Shukur Po'atov. Ta'lim muassasasini ilmiy – metodik boshqarishga innovatsion yondashuv. O'quv qo'llanma. T.: "Yosh kuch" 2022, - 196 bet
3. Богоинова М.О., Николенко О.Р., Саврасова Н.В. Развитие элементарных навыков soft-skills у детей дошкольного возраста в условиях ДОО. Методические рекомендации для педагогов/ Богоинова М.О., Николенко О.Р., Петракова З.Е.- Армавир, 2022г – стр 4
4. Толстикова О.В., Савельева О.В., Иванова Т.В., Овчинникова Т.А., Симонова Л.Н., Шлыкова Н. С., Шелковкина Н.А. Современные педагогические технологии образования детей дошкольного возраста: методическое пособие. – Екатеринбург: ИПО, 2013. – стр 7
5. Bog'cha bolalari qanday tarbiyalanadi. (https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/bogcha_bolalari_qanday_tarbiyalanadi) 10.03.2023г
6. O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir (<https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyevning-oqituvchi-va-murabbiylar-kuniga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi->)

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA DARS JARAYONLARINI TASHKIL QILISHDA
DIDAKTIK METOD VA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

Mahammadjonova Muhlisa Bahodirjon qizi
Andijon Davlat Pedagogika instituti, pedagogika
fakultetining 2-bosqich talabasi,
Guluzro Maxkamova
Andijon Davlat Pedagogika institutining o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida dars jarayonlarini tashkil qilishda foydalaniladigan metod va multimedia vositalari haqida, ulardan samarali foydalanish usullari haqida so'z boradi. Shu bilan bir qatorda boshlang'ich sinf darslarida turli metod va vositalardan foydalanishning ahamiyati, bir qator afzalliklari xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, ta'lim, tarbiya, dars samaradorligi, metod, didaktik vosita, multimedia

Kirish: Ta'limda ijobiy natijalarga erishish, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilim asoslarini puxta o'rgatish, ularda dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini kengaytirish, ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan belgilanadi. Bu borada ta'lim-tarbiya jarayoniga ko'plab o'zgartirishlar kiritilmoqda, yangicha yondoshuvlar tadbiiq etilmoqda.

Asosiy qism: Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf darslarini tashkil etish, loyihalash va olib borish jarayonida tashkil etiladigan samarali ish usullarini amaliyotga joriy qilish, o'quvchilarning diqqati va e'tiborini jalb qilish maqsadida dars davomida turli didaktik metod va multimedia vositalaridan unumli va mazmunli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Dars samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining ijodkorligi, kreativ fikrlashlarga moyilligi, darslarni loyihalash va olib borish jarayonida didaktik metod va multimedia vositalarini to'g'ri tanlay olishi, ulardan darslar jarayonida oqilona foydalana bilishiga bog'liq bo'ladi. Avvalo metod nima? degan savolga to'xtalamiz: Metod bu- (lotincha metodas – yo'l, usul so'zidan olingan bo'lib,) – tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida "metod" so'zi keng ma'noda muayyan maqsadga erishish yo'lini, tor ma'noda tabiat va ijtimoiy hayot hodisalar iva qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish usulini bildiradi. Har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi va shuning uchun u qandaydir maqsad qo'yishni, unga erishish bo'yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi. Keng ma'noda metod yunoncha "Metodost" so'zidan olingan bo'lib, "yo'l", "usul" ish uslubi degan ma'noni anglatadi. Qo'llaniladigan (o'qitish) "metod" - termini kishilarning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish, ma'lum obyektini o'zlashtirish borasidagi nazariy va amaliy faoliyatlari usullarini anglatadi. O'qitish metodi deganda ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyat natijasini tushinish mumkin. Bizning fikrimizcha esa metod bu- olib boriladigan o'quv mashg'ulotining samarali bo'lishini kafolatlovchi, belgilangan vazifalarni o'zida to'laqonli aks ettira olgan, bajaruvchining ishlarini mukammalilik sari undashga asoslangan yaxlitlikka tomon chorlovchi jarayonni o'zida mujassamlashtirgan tizimli, keng qamrovli yo'ldir. Darslarni olib borish va o'tkazish uchun tayyorgarlik ko'rib, faoliyatni tashkil etgan o'qituvchida dars uchun tanlangan metodlarning ustunligi yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bilan birgalikda o'qituvchi va o'quvchilar uchun dars jarayonida qulaylik yuzaga keladi.

Maktab ta'lim tizimida o'qitish metodlari bilan birga "metodik usul" va "vosita"lar ham ishlatiladi. Usul - metodning bir qismi bo'lagidir. Masalan, o'quvchining bilimini yozma tekshirish metodiga xatolarni tuzatish usuli kiradi.

Shvetsariya pedagogi I.G.Pestoljka: «Mening o'quvchilarim yangilikni mendan olmaydi: ular bu yangilikni o'zlari kashf etadilar. Mening asosiy vazifam – ularni o'zlarini namoyish etishga, mustaqil g'oyalarini rivojlantirishga yordam berishdan iborat» degan edi.

O'quvchilar tarbiya darslari orqali aynan bir xulosaga kelishlari, hayot va faoliyatlari davomida dars zamirida berilgan tavsiyalarga to'liq amal qilishlari uchun o'qituvchi avvalo o'zi bu borada haqiqiy o'rnak bo'la olishi lozimdir. Boshlang'ich sinf darslarini multimedia vositalaridan foydalangan holda tashkil etish orqali o'quvchilarda ushbu fan bo'yicha beriladigan turli yo'nalishdagi ma'lumotlarga, vazifa va topshiriqlarga bo'lgan qiziqishni yanada orttirish, topshiriq sifatida berilgan amaliy ishlarni video va animatsion usul orqali tasavvur qilgan holatda mustaqil bajarishlari uchun qulaylik yaratuvchi manba sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan multimedia vositasi haqida qisqacha ma'lumot:

Multimedia vositalari haqida so'z borar ekan internet sayti manbalarida u haqida quyidagicha ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin bo'ladi:

Multimedia (multi - ko'p, media - muhit) - bu kompyuter texnologiyalarining soxasi bo'lib, turli axborot saqlovchi vositalaridagi turli fizik ko'rinishda ifodalangan axborotlarga ishlov beradi. Multimedia - bu zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalanib, interfaol dasturiy ta'minot ostida boshqariladigan video va audio effektlarning o'zaro bog'liqligi bo'lib, matn, tovush, grafika, foto, videoni birlashtiradi. Bunda ma'lumot turli axborot tashuvchilarida mavjud bo'lishi mumkin (magnit va optik disklar, audio va video tasmalar).

Boshlang'ich sinf darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Beriladigan ma'lumot va axborotlarni turli usullar yordamida ya'ni matn, jadval, diagrammalar yordamida tasvirlash bilan bir qatorda, ma'lumotlarni monolog, musiqa, videofilmlardan parchalar, animatsiyalarni birgalikda bir butun yaxlitlikda berilishining mavjudligi;

2. Dars davomida multimedia vositalaridan unumli foydalangan holda o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish, ularning diqqatini jalb qilish imkoniyatining mavjudligi;

3. Multimedia vositalarini qo'llab olib borilgan darsda o'quvchilarda biror narsa, hodisa haqidagi bilimni to'liqroq tasavvur etish imkonining mavjudligi;

4. O'quvchilarning zamonaviy axborot vositalaridan mustaqil foydalana olish ko'nikmalarini tashkil etish imkoniyatining mavjudligi;

5. O'quvchilar tomonidan olingan ma'lumotlarni chuqur, mukammal holatda o'zlashtirilishi;

6. O'quvchilarda ta'lim olishning yangi bosqichi, yangicha usullaridan foydalanish, ulardan oqilona foydalanishni o'rganish imkoniyatining mavjudligi;

7. Ta'lim berish jarayonida vaqtdan unuli foydalanishga erishish;

8. O'qituvchi tomonidan berilgan ma'lumotlarni o'quvchilar ongida aniq va to'liq saqlanib qolinishi shular jumlasidandir.

Ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlarda qayd etilishicha, multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish ikki barobar unumlidir va vaqtdan yutish imkonini yaratish bilan bir qatorda, multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash imkonining mavjudligi, olingan bilimlarni esa xotirada uzoq muddat saqlanib qolinishining ta'minlanganligi alohida e'tirofga sazovordir. Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30 % ga oshishi, unga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish foizi 75 % ga ortishini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiiy darslari orqali beriladigan bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularda komil insonda mujassam bo'lishi nazarda tutilgan ijobiy hislatlarni tarkib toptirishda darslar davomida tarbiya metodlari, interfaol metod va vositalardan, multimedia vositalardan unumli foydalanishga erishish muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu jarayonni mazmunli va unumli tashkil etish esa kutilgan samarali natijaga erishish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-sonli qarori.
2. J.Hasanboyev, X.A.To'raqulov, I.Sh. Alqarov, N.O.Usmonov. Pedagogika. T.: "Noshir", 2011 y, 39-b.
3. O'. O'tanov. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti fanidan ma'ruzalar matni, Samarqand-2016.
4. Z.Azimova, Z.F.Azizova, M.Qurbonova, I.M.Sattorova Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan metodik qo'llanma, Andijon-2014

ПЛАНИРОВАНИЕ РАБОТЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО СОВЕТА В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Базарбаева Дилноза
студентка направления дошкольной педагогики и психологии,
Абдиевой Фазилат Файзуллаевна
преподаватель кафедры педагогики и психологии
дошкольного образования им. Низами ТДПУ;

Аннотация: Работа на природе имеет большое значение во всестороннем развитии ребенка, она является источником знаний о растениях и животных, временах года, неживой природе, является средством воспитания у детей прилежного и увлеченного отношения к природе. приобрести ряд трудовых квалификаций и навыков, таких как подготовка к посадке и внесение удобрений, пересадка рассады, уход за растениями и животными. Организация работы преимущественно на свежем воздухе укрепляет детский организм и укрепляет его здоровье..

Ключевые слова: Работа, психология, обучение, дошкольные образовательные организации, педагог, учащийся.

Педагогический совет в организации дошкольного образования не должен быть официальным мероприятием с традиционной повесткой дня и традиционным решением. Педагогический совет должен быть источником инноваций, он должен проходить в условиях благоприятного сотрудничества и сотворчества. Однако она требует большой и очень серьезной подготовки. Очень важно найти правильную и максимально эффективную технологию подготовки и проведения педсовета по рассмотрению конкретной темы. Необходимо продумать конкретные задания воспитателям и творческим группам, заранее подготовить анкету для анкетирования, исключить ситуации, когда воспитатель может сидеть и молчать. Задача организации Педагогического совета – организовать мероприятие так, чтобы оно было интересно для воспитателя, чтобы воспитатель узнавал новое на собрании не только в виде теоретических знаний, но и в виде практических советов и рекомендации.

Главным вопросом на повестке дня всегда остаются результаты работы воспитателей: уровень развития учащихся; их здоровье; разработка форм совместной работы воспитателей и родителей.

1.Обычно заседания педагогических советов проводятся не чаще одного раза в два месяца. Продолжительность педагогического совета не превышает 2-2,5 часов. Педагогические советы должны проводиться в течение учебного года:

2.Собрание учителей, проводимое в начале учебного года;

3.Тематические педагогические советы, проводимые в соответствии с указаниями организации дошкольного образования и задачами годового плана;

4.Итоговый педагогический совет проводится в конце учебного года.

Установочный педагогический совет. Это название происходит от слова «установка», введенного в психологию Д. Н. Узнадзе, означающего готовность к определенной деятельности в зависимости от наличия потребности и объективной ситуации и ее удовлетворение. Задача педагогического совета - создать условия для переоценки ценностей, попытаться изменить мысли, взгляды, суждения и представления воспитателя о предмете воспитания, его профессиональной цели, пробудить стремление научиться учить и воспитывать по-новому.«Съемка» означает создание условий для всестороннего развития личности ребенка. Традиционность

названия «Инсталляция» понятна, ведь сегодня любой педсовет призван работать над изменением отношения воспитателей.

Этот педагогический совет дает указания на новый учебный год.

1. Анализ работы воспитателей за последний учебный год.
2. Утверждение годового плана работы на новый учебный год.
3. Подведение итогов летнего оздоровительного периода.
4. Утверждение состава аттестационной комиссии.
5. Избрание секретарей Методологического совета и Совета академиков.
6. Набор групп дошкольных образовательных организаций и расстановка кадров.
7. Утверждение программ и технологий, используемых дошкольными образовательными организациями.
8. Подведение итогов конкурса по готовности дошкольных образовательных организаций к началу учебного года.

Итоговый педагогический совет. Целью такого педагогического совета является анализ результатов учебного года, выявление и определение стратегических и развивающих проблем. Проблема в разнице между текущим и фактическим положением дел. Решение проблемы — единственный способ двигаться вперед и преуспеть в своем развитии. Ежегодно в каждом педагогическом коллективе должен проводиться педагогический совет на тему «Подведение итогов предыдущего учебного года». Подготовке такого педагогического совета необходимо уделить серьезное внимание, чтобы весь коллектив участвовал в анализе проделанной в предыдущем учебном году работы и выявлял ее достижения и недостатки.

1. Подведение итогов деятельности сотрудников за последний учебный год.
2. Повышение квалификации воспитателей.
3. Итоги образовательного процесса за последний год: - диагностика развития детей; - готовность детей подготовительной группы к школе; - качественные особенности педагогического процесса в дошкольной образовательной организации; - использование развивающих образовательных технологий; - анализ болезни и досуга в дошкольных образовательных учреждениях; - анализ результатов социологических исследований по изучению удовлетворенности родителей качеством образовательных услуг.
4. Определение основных направлений деятельности организации дошкольного образования на новый учебный год.
5. Утверждение плана работы на период летних каникул. Накануне такого педагогического консилиума участникам может быть предложена анкета, в которую важно включить следующие вопросы: - Какие положительные моменты вы можете отметить в работе вашей дошкольной образовательной организации? - Какие отрицательные стороны? Как вы думаете, как их можно изменить? - Какие проблемы должны быть включены в план работы на следующий учебный год? - Предложите вопросы, которые вы можете принять участие в подготовке. - Чтобы повысить свои профессиональные навыки, какое

Список использованной литературы:

1. Умиров С. Санъатнинг сеҳрли калити. Т.: 1974.
2. Р.Х. Ниязметова, Г.Н. Эшчанова. Некоторые вопросы обучения восприятия и выразительному чтению русскоязычных учащихся на уроках узбекского языка. Молодой ученый, 2013. № 12. стр. 506-508.

3. Ниязметова, Р. Х., & Эшчанова, Г. Н. (2013). Некоторые вопросы обучения восприятия и выразительному чтению русскоязычных учащихся на уроках узбекского языка. Молодой ученый, (12), 506-508.

4. Маҳкамов, У., Жуманова, Ф., & Равшанов, Ж. (2020). БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ ТАРБИЯВИЙ ИШЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШГА ТАЙЁРЛАШ. *Academic research in educational sciences*, (3), 815-830.

5. Ширбачеева, Г. Ш. (2020). Качество работы дошкольной образовательной организации зависит от руководителя. Управление дошкольным образовательным учреждением, (2), 46-51.

6. Решение № 802 от 22 декабря 2020 г. «Об утверждении государственного стандарта дошкольного образования и воспитания».

7. Назирова Г.М. Совершенствование педагогических процессов в дошкольных образовательных учреждениях Диссертация доктора философии (PhD) в области педагогических наук Ташкент 2019

8. Новые государственные требования к развитию детей дошкольного возраста. - Т.: 2018.

**ADABIY KOGNITIVIZMNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI (DEVID MERRILLNING –
"KOMPOONENTLARNI KO'RSATISH" NAZARIYASI MISOLIDA)**

**Abduqodirova Madina Rustamxo'ja qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti o'zbek tili va
adabiyoti magistratura mutaxassisligi II bosqich talabasi**

Annotatsiya: Kognitivizm yetakchi nazariyalardan biri bo'lib, psixologiya va pedagogikada keng qo'llaniladi. Kognitiv ta'lim – o'quvchilarga aqliy qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga xizmat qiladi, ularning darsdagi faolliklarini oshiradi, o'quv jarayonini to'liq qamrab oladi. M. Devid Merrill ham kognitiv yondashuvga asoslangan "Komponentlarni Ko'rsatish" nazariyasi(Component Display Theory (CDT)) deb nomlanuvchi ikki tomonlama o'qitish nazariyasini ishlab chiqadi.

Kalit so'zlar: kognitivizm, kognitiv ta'lim, "Komponentlarni ko'rsatish nazariyasi", Devid Merrill

Kognitivizm 1960-yillarda dominant paradigma sifatida bixeviorizm o'rnini egallagan bo'lib, unda ichki aqliy faoliyatga qaratilgan – inson ongining "qora qutisi" ochilishi va tushunilishini eng asosiy omil sifatida qaraladi va bunday qarashlar Devid Nanen (David Nunan), Ken Gudmen (Ken Goodman), Devid Rumelhart (David Rumelhart) kabilar tomonidan ilgari suriladi [1,45]. Ushbu jarayonda inson miyyasida sodir bo'ladigan fikrlash, xotira, bilish va muammoni hal qilish kabi aqliy faoliyatlar tadqiq qilib o'rganilishi lozim hisoblanadi. "Kognition" deganda esa fikr, tajriba va sezgilar orqali yangi bilim yoki ma'lumotlarni o'zlashtirishning, idrok etishning aqliy harakati yoki jarayoni tushuniladi [2]. U idrok, diqqat, fikrlash, aql, bilimni shakllantirish, xotira, mulohaza yuritish va baholash, fikrlash va hisoblash, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish, tilni tushunish va ishlab chiqarish kabi aqliy funktsiya va jarayonlarning barcha jabhalarini o'z ichiga oladi. Kognitiv fanlar 1950-yillarda intellektual harakat sifatida boshlangan, ko'pincha kognitiv inqilob deb ataladi. Kognitivizm psixologik nuqtayi nazardan esa xotira, idrok etish, diqqat, tildan foydalanish muammolarni hal qilish, ijodkorlik va fikrlash kabi aqliy jarayonlarni ilmiy o'rganish hisoblanadi.

Bixeviorizm nazariyasiga javoban, odamlar shunchaki atrof-muhit stimullariga javob beradigan "dasturlashtirilgan mavjudot" sifatida emas, odamlar o'rganish uchun faol ishtirokni talab qiladigan, tafakkur orqali harakatlanadigan ongli mavjudotlardir. O'quvchining boshida sodir bo'layotgan narsalarning belgisi sifatida xulq-atvordagi o'zgarishlar kuzatiladi. Kognitivizm ong metaforasini kompyuter sifatida ishlatadi: ma'lumot keladi, qayta ishlanadi va ma'lum natijalarga olib keladi. Shuningdek, kitobxon badiiy asarni o'qish jarayonida ham kognitiv faoliyatni bevosita amalga oshiradi. Ya'ni badiiy asar bilan tanishish yoki uni mutolaa qilish davomida asar va uning qahramonlari haqida o'ylay boshlaydi. Fitrat adabiyot haqida "Adabiyot-fikr, tuyg'ularimizdagi to'lqunlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'lqunlarni yaratmoqdir. Bu ta'rif adabiyotning to'g'ri ta'rifidir. Shu bilan yozilgan asarlarga adabiy asar deyiladi"[3.13]. Ushbu keltirilgan adabiyot ta'rifidan ham uning kognitiv faoliyati amalga oshirish va rivojlantirishdagi o'zni katta ekanligini ham ko'rishimiz mumkin. Kitobxon asarni o'qishdan oldin u haqida hech qanday tasavvurga ega bo'lmaydi, faqat asarni o'qish davomida yangi ma'lumotlar bilan tanishadi, fikraydi va o'ziga xos xulosa chiqaradi yoki badiiy asar orqali o'quvchiga "... insonning go'zallik qonuniyatlari asosidagi ijtimoiy-ruhiy faoliyati mahsuli sifatida yaralgan yangi mavjudlikni anglatadi"[4,42]. Kognitivizm ham adabiyot orqali kelayotgan ma'lumotlarni inson ongida tahlil qiladi, uni fikrlashga xulosa chiqarishga undaydi.

Kognitiv ta'lim – o'quvchilarga aqliy qobiliyatlaridan maksimal darajada oshirishlariga xizmat qiladigan, ularning darsdagi faolliklarini oshiradigan, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishga qaratilgan. Badiiy asar bilan tanishish jarayonida, o'quvchiga manba stimulyer ya'ni jismoniy yoki xulq-atvorda yuzaga keladigan qandaydir turtki, ta'sir sifatida vujudga keladi. Ma'lumki, har bir kitobxonda qandaydir avvaldan mavjud bo'lgan turli xil bilimlar, sxemalar va ilk tajribalar mavjud bo'ladi. Badiiy matn orqali o'zlashtirilgan yangi bilimlar dastlab eskilari bilan solishtirilishi yoki tahlil qilinishi mumkin. Keyingi bosqichda ular inson ongida saqlanadi, o'quvchini fikrlashga, aniq maqsadlar qo'yishga, muammolarni hal qilishga va ijobiy natijalarga erishishga undaydi.

Kognitivizm nazariyasining asosiy vakillari sifatida M. David Merrill – "Komponentlarni Ko'rsatish" nazariyasi (Component Display Theory (CDT)), Reigeluth "Ishlab chiqarish nazariyasi" (Elaboration Theory), Gagne, Briggs, Wager, Bruner (Kognitiv konstruktivizmga o'tish), Schank (Skriptlar), Scandura (Strukturaviy o'rganish)lar sanaladi[5].

M. David Merrill (Marriner David Merrill) [6] o'quv loyihalari va texnologiyalari bo'yicha tadqiqotlar olib boradigan professor olim. Merrillning tadqiqotlari bugungi kunda o'quv dizayni va texnologiyasini rivojlantirishga qaratilgan uchta muhim nazariyani ishlab chiqishga yordam berdi: "Komponentlarni Ko'rsatish" nazariyasi (Component Display Theory (CDT 1980)), "O'quv tranzaksiyalari nazariyasi" (Instructional Transaction Theory (1990)) va "O'qitishning birinchi tamoyillari" (First Principles of Instruction (2002)). Merrillning fikriga ko'ra, ko'pgina mavzularning mazmunini o'qitish bilim va ko'nikmalarning ba'zi fundamental turlarining kombinatsiyasini o'z ichiga oladi. U 1980-yillarning boshlarida komponent ko'nikmalari g'oyasi bilan birga "Komponentlarni ko'rsatish" nazariyasi(CDT)ni ishlab chiqdi[7]. O'quvchilar tomonidan egallanadigan ko'nikmalar kamdan-kam hollarda alohida-alohida yuzaga kelganligi sababli, Merrill "Komponentli ko'nikmalar" atamasini ular butun muammoning tarkibiy qismlari sifatida birgalikda ishlayotganligini ko'rsatish uchun ishlatadi. Talabalar topshiriqlarni bajarish yoki muammolarni hal qilish uchun ushbu komponent ko'nikmalarini egallashlari kerak.

David Merrillning "Komponentlarni ko'rsatish" nazariyasi (Component Display Theory (CDT))ning bitta jumladan iborat "tavsifi" mavjud emas, chunki ushbu nazariya murakkab, to'liq, o'zaro bog'liq, qoidalar asosida o'qitishni loyihalash bo'yicha tushunchalardan iborat bo'lgan usullar to'plami. M. David Merrill "Komponentlarni ko'rsatish" nazariyasi (Component Display Theory (CDT)) deb nomlanuvchi ikki tomonlama o'qitish nazariyasini ishlab chiqdi. Birinchi qism tavsiflovchi nazariya, ikkinchi qism esa unga oid yo'l-yo'riqlarni ko'rsatishga asoslangan nazariyasi hisoblanadi. Ushbu nazariyaning asosiy diqqat markazi ta'lim oluvchilarga va kompyuter yordamida o'qitishga asoslangan bo'lganligiga qaramay, o'qitishning barcha shakllariga tatbiq etish mumkinligi bilan ajralib turadi. Nazariya kognitiv qarash bo'yicha ish olib boradi. Nazariya o'qitishning mikro darajalari (individual tushunchalar yoki g'oyalarni o'rgatish) bilan shug'ullanadi. Gagnening ta'lim (o'rganish) nazariyalaridan katta ta'sirlangan Merrill turli xil o'quv natijalari turli xil o'qitish strategiyalarini talab qilishini haqida fikr yuritadi. Shuningdek, u eng yaxshi ta'lim axborotni taqdim etishning bir nechta shakllaridan iborat bo'lishi kerakligi haqida ham bosh qotiradi. M. David Merrill "Komponentlarni ko'rsatish" nazariyasi (Component Display Theory (CDT))-ta'lim jarayonini tashkil qiluvchilarga o'qitish turiga asoslangan va kontentdan mustaqil ravishda o'qitish jarayonlarini loyihalash va yaratish bo'yicha dastlabki nazariyaga asoslangan harakat hisoblanadi. Bu dars mavzusi va kontentini chetda qoldirmaydi, aksincha qoidalar yoki ko'rsatmalarga asoslangan o'qitish yo'riqnomasini ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi.

Merrill nazariyasining muhim tarkibiy qismi bu "Faoliyat-mazmun matritsasi" (Performance-Content Matrix)dir. Ushbu matritsa yo'riqnomada ko'rib chiqiladigan

"Faoliyat(Performance)" va "Mazmun(Content)" ni aniqlash uchun ishlatiladi. Faoliyat Y o'qi bilan, mazmun esa X o'qi bilan ko'rsatiladi.

Komponentlarni ko'rsatish nazariyasi orqali adabiy ta'lim jarayonlari, xususan, adabiyot o'qitish davomida darsni tarkibiy qismlarga ajratadi va ularni tavsiflaydi, bu jarayonda bevosita o'quvchi faoliyati bilan ham shug'ullanadi. Ya'ni o'quvchi tomonidan bajarishi lozim bo'lgan vazifalarni ajratib, belgilab beradi va xulosalaydi. Darsning asosiy qismi bo'lgan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlar, xususan, badiiy asar, adabiy mavzularning mazmunini o'quvchi faoliyatiga moslagan holda tasniflanadi va tashkillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Z.Mirzayeva, K.Jalilov. Adabiyot o'qitish metodikasi. –Toshkent: 2020
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Cognition#cite_note-44
3. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. IV jild. –T.: "Ma'naviyat", 2006.
4. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.: "Akademnashr", 2010.
5. <https://learning-theories.com/cognitivism.html>
6. https://en.wikipedia.org/wiki/M._David_Merrill
7. <https://www.mybrainisopen.net/component-display-theory/>

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SAN'AT FAOLIYATI ORQALI IJODKORLIKKA
O'RGATISH**

**Choriyeva Durdona
Termiz pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim fakulteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
1- bosqich 101- guruh talabasi**

Annotasiya. maqolamning mazmuni shundan iboratki maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligini, badiiy va estetik didini shakllantirishda nimalarga e'tibor qaratish kerakligi. Tasviriy faoliyat , qo'shiq aytish ,raqs tushish, dramatizatsiya o'yinlar yordamida fikrlash doirasini kengaytirish . Diqqat, xotirasini va tasavvurlarini kengaytirish ko'zda tutilgan. Bolalarda kreativlik va ijodkorligini oshirishda bolalarga ko'proq erkinlik berilishi tarafdoriman. Erkinlik orqali bolalarning shaxsiy fazilatlarini ,dunyoqarashini bilib olishimiz va yanada o'stirishimiz mumkin.

Kalit so'zlar.qo'shiq ,raqs, ijodkorlik, dunyoqarash, diqqat ,tasavvur, xotira, idrok , tasviriy faoliyat, rivojlanish,xayol, obraz, maqsad,muvoffaqiyat.

Ijodkorlik tobora ko'proq aqliy faoliyatning eng mazmunli shakli, keng ko'lamli faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydigan universal qobiliyat sifatida qaralmoqda. Maktabgacha yosh - ijodkorlikni rivojlantirish uchun qulay davr. Aynan shu davrda ko'plab sohalarda progressiv o'zgarishlar ro'y beradi, aqliy jarayonlar yaxshilanadi (diqqat, xotira, idrok, tafakkur, nutq, tasavvur), shaxsiy fazilatlar va ular asosida qobiliyat va moyillik faol rivojlanadi. Diqqatning rivojlanishidagi sezilarli siljishlarga qaramay, maktabgacha yoshdagi barcha davrda beixtiyor e'tibor ustunlik qiladi. Biroq, bolalar uchun monoton narsaga e'tibor qaratish hali ham qiyin. Ammo ular uchun qiziqarli bo'lgan faoliyat jarayonida diqqat juda barqaror bo'lishi mumkin. Shunga o'xshash yosh naqshlari xotirani rivojlantirish jarayonida kuzatiladi. Kattaroq maktabgacha yoshdagi xotira ixtiyoriy emas. Bola o'zi uchun eng katta qiziqishni yaxshiroq eslaydi, eng yaxshi taassurot qoldiradi.

"Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllanishi Oilada va MTTlarda kun tartibiga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish, har kuni ertalab ota-onalar yoki katta yoshdagi bolalar bilan birgalikda ertalabki badantarbiya mashqlarini bajarish, bolani MTT va oilada shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilishga o'rgatish. Bolalarni MTT va oilada jismoniy faollikni, sog'lom turmush tarzini rivojlantirishga jalb qilish.Ijtimoiy-hissiy rivojlanishOila, ona, ota, momo, bobolarning o'rni haqida to'g'ri tasavvur hosil qilish. Bolalarni bir-biriga do'stona munosabatda bo'lish, xotirjam muloqot qilish ko'nikmasini tarbiyalash.Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalariBog'lanishli nutq ko'nikmalarini rivojlantirish: oila a'zolari haqida qisqacha tavsiflovchi hikoya yozish ko'nikmalarini mustahkamlash. Oilasi haqida hikoya qilish orqali bolalarning so'z boyligini (sifatlarni qo'llab) boyitish. Hikoyalar yaratish uchun oila haqidagi illyustrativ materiallardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish. Bilish jarayonining rivojlanishiOila tushunchasini kengaytirish va u bilan faxrlanish tuyg'usini rivojlantirish. Milliy oilaviy qadriyatlar va an'analarga hurmatni oshirish. Ijodiy rivojlanishSan'atning turli shakllari orqali "Mening oilam" iborasi haqida tasavvur va tushunchani shakllantirish".Bolalar ijodiyotini rivojlantirish muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarda, maktabgacha yoshda bolada uni ijodkor sifatida tavsiflovchi bir qator xususiyatlar paydo bo'lishi qayd etilgan. Bu yangi mazmunga nisbatan o'zlashtirilgan ish usullarini qo'llash, vazifalarni hal qilishning o'ziga xos usullarini topish, har xil turdagi o'zgarishlardan foydalanish va hokazolarda faollik va tashabbuskorlikning namoyonidir. Ijro faoliyatida (qo'shiq aytish, rasm chizish, dramatizatsiya o'yinlari, raqslar) ijod qilish

qobiliyatini rivojlantirish kattalarga taqlid qilishdan olingan tajribani mustaqil ravishda kundalik hayotga o'tkazishga urinishgacha, so'ngra ijodiy tashabbusga o'tadi. Ma'lumki, ijodiy faoliyatning psixologik asosini xayol – buyum va vaziyatlarning ularni idrok etish va idrok etish natijalari asosida tasvirini yaratishdan iborat psixik jarayon tashkil etadi. Tasavvurning asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi: qismlardan oldin butunni ko'rish, funktsiyani bir ob'ektdan ikkinchisiga o'tkazish. Tasavvurni rivojlantirishning muhim ko'rsatkichlari - bu ko'rinishga tayanish, o'tmish tajribasidan foydalanish, vaziyatga moslashmasdan, uni o'ziga bo'ysundirishga, uning mazmunli xususiyatlarini o'zlashtirishga imkon beradigan maxsus ichki pozitsiyaning mavjudligi.

tarbiya masalalarining muvaffaqiyatli xal etilishi, maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan tasvirlash faoliyati mashg'ulotlari bilan uzviy ra

a etishga o'rganadilar. Bu esa, malakani egallash, bolalarda qo'lini engil, erkin bir tekisdagi xarakter qilish xususiyatlarini rivojlantiradi. Bolalar turli shakl, kattalik, proporsiyadagi predmetlarni chizish jarayonida predmetning ish xususiyatiga karab yo'nalishni saqlash zarurligiga, predmetning kattaligiga mos ravishda xarakterlanishga o'rganadilar. Maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida materialdan tartibli foydalanishga, ularni toza saklashga, faqat zarur materiallardan hamda ularni ishlatish yo'llarini rejalashtirishga o'rganadilar. Bu mashg'ulotlar bolalarda diqqatni va ko'rish xotirasini rivojlantiradi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aynan qadrlil ayollar ,qizlar va nabiralar haqida shunday deganlar :*"Yaratganning bebaho mo'jizasi bo'lgan aziz ayollarimiz,qadrlil onalarimiz ,mehribon rafiqalarimiz , munis opa-singillarimiz,sevimli qizlarimiz va nabiralarimiz hayotda bizga barcha to'siqlarni yengib o'tish ,oldimizgan maqsadlarimizga erishish yo'lida doimo g'amxo'rlik qilib hamisha ,cheksiz ishonch kuch va madad beradilar"*

Shunday qilib, tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar o'sadi va bu orqali maktabda o'qishga tayyorlanib boriladi. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifatleri, shakli, rangi, katta-kichikligi bilan tanishadilar, ularni farqini, o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa, bolalarni sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi.

Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy tarbiyalaydi. Bolalar ishlarida o'z hayotida, jamiyatda bulayotgan voqea-xodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo'ladilar, xayajonlanadilar. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatleri-boshlagan ishini oxiriga etkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni engish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sh.M.Mirzitoyev "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatinibirgalikda barpo etamiz" T 2016.
2. Sh.M .Mirziyoyev "Yangi strategiyasi" T 2021.
3. Z.T.Nishonov,G.K.Alimov,A.R.Turg'unboeva,M.H.Asranboeva "Bolalar psixologiyasi va psihodiagnostikasi" Toshkent - 2017.
4. "Ilk qadam " davlat dasturi 2018-2022.

INKLYUZIV TA'LIMNING O'ZBEKISTONDAGI RIVOJLANISHI

Yo'ldasheva Marg'iyona Asrorxon qizi
Qo'qon universiteti boshlang'ich talim
1-kurs talabasi,
Teshaboyeva Feruza
Inklyuziv ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: Inklyuziv talimning o'zbekistondagi rivojlanishi. O'zbekistonda inklyuziv ta'limga qanday qaror va qonunlar borligi. Bu yo'nlishga bizning maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarimiz qanday tayyorlanyapti va qanday qulayliklar borligi. Inklyuziv ta'limning kamchiliklari va afzallik tomonlari.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, nogiron bolalar, sog'lom bolalar, teng huquqlik, imkoniyat, cheklanganlik, mutaxassis, o'qituvchi, qonun, rivojlantirish.

Inklyuziv ta'lim — davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. "Inklyuziv ta'lim" atamasi fransuzcha „inclusif“ so'zidan kelib chiqqan bo'lib, „o'z ichiga oladi“ deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo'lgan va shartli ravishda sog'lom, ya'ni sog'ligi cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta'limini anglatadi. Inklyuziv ta'limning mazmun mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda yetarli emas.

Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir. Inklyuziv ta'lim olish jarayoni bir-biriga o'xshamaydigan, intellektual, jismoniy va aqliy xususiyatlarga ega bo'lgan odamlar maxsus bilimga muhtoj bo'lmagan tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va ko'nikmalarni oladigan tarzda tashkil etiladi. Inklyuziv ta'lim alohida ehtiyojli bolalar bilan sog'lom bolalar uchun teng ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. UNICEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etish. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordam olishi darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi. 19-may kuni Oliy Majlis ilk bor inklyuziv ta'lim tushunchasi kiritilgan yangi tahrirdagi „Ta'lim to'g'risida“ gi qonun qabul qildi. O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi mutaxassislar bilan birga qonun loyihasining inklyuziv ta'lim tamoyillariga muvofiq bo'yicha tahlil o'tkazdi. Qonunning 20-moddasi olish imkoniyatini yaratadi.

Qonunning 20- moddasida jismoniy, aqliy, sensor va ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etiladi. Inklyuziv ta'limni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan belgilanadi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan 12.10.2021 yildagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 638-son qaror qabul qilindi.

Hujjat 13.10.2020 yildagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarorga muvofiq ishlab chiqilgan.

2020–2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar shuningdek tegishli kadrlar bilan ta'minlash alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash va boshqalar.

Qaror bilan Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Unda quyidagilar belgilandi inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo'lga qo'yish hamda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish tartibi o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish chora-tadbirlari. Shuningdek quyidagilar tasdiqlandi:

- Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizom;

- Sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizom;

- Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarga uyda yakka tartibda ta'lim berish tartibi to'g'risidagi nizom.

Bundan tashqari qaror bilan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida kasbga o'qitish kurslarini tashkil etish chora-tadbirlari belgilandi.

Hujjat Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasida e'lon qilingan va 13.10.2021 yildan kuchga kirdi.

„Inklyuziv ta'lim“ bu ta'rifni o'z ichiga olmaydi. Unda faqatgina „inklyuziv ta'lim barcha bolalarga, ta'lim olish chog'ida o'ziga nisbatan har qanday tarzda kamsitishni istisno etuvchi jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarga nisbatan teng huquqli munosabatda bo'lish“ haqida so'z boradi. O'zbekistondagi inklyuziv ta'lim tadqiqotchisi, yangi Zelandiyadagi Vaykato universiteti doktoranti Galina Nam, nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus maktab-internatlarda yoki uyda emas, umumiy ta'lim muassasalarida ta'lim olish ustuvor bo'lishi kerakligini aytgan „Bu barcha davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining bir vaqtda yopilishini anglatmaydi, lekin bolalarning bu kabi maskanlarda va uyda o'qishiga faqatgina alohida holatlarda rozilik berishimiz zarur. Ta'lim muassasasini tanlash huquqi bolalarning o'zida va ularning ota-onasida qonuniy vakillarida qolishi kerak“, deya ta'kidlaydi Galina Nam

„Mutaxassislar“ o'z tavsiyalari bilan nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olishning qay bir shaklida o'qishlari qaroriga ta'sir o'tkazadilar. O'zbekistonning ijtimoiy va madaniy yo'nalishdagi tajribasi shuni ko'rsatadiki, institutsional vakolatga ega bo'lgan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalarning tavsiyalari institutsional kuchga ega bo'lib, maslahat emas, imperativ xususiyat bildiradi. Bu nogiron bolaning qayerda o'qishi borasida psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalarning tavsiyalari ota-onalarda shubha qoldirmaydi. Shuningdek, qonun

va uning moddalarini O'zbekistonda nogironlik diskursinining ijtimoiy va madaniy holatidan kelib chiqib o'qish lozim", — deydi AQSHning Sirakuz universiteti doktori Mirjahon Turdiyev.

Inklyuziv ta'limning o'zbekistondagi rivojlanishi haqidagi mening xulosam albatta ijobiy bo'ldi. Chunki bu bilan har bir bola teng xuquqlilikni berdi birinchi navbatda. Keyin bu ta'lim bilan imkoniyati cheklangan bolaning bilim olish saviyasi oshdi va biz tengqurlar bilan bir xil dars olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu ta'limning kamchiliklar ham bor albatta. Tanganing ikki tomomonini ko'rish lozim bolganidek, buni ham kamchiliklarini aytib o'tishim lozim. Maxsus ehtiyojli bolalarni kuzatib borish uchun tayyorlangan malakali kadrlar - o'qituvchilar, o'qituvchilar, psixologlar, defektologlar, logopedlar yetishmasligi. O'qituvchilar tarkibi ko'pincha ehtiyojlari bo'lgan talabalarga nisbatan yumshoq munosabatda bo'lishadi, shuning uchun ularning bilimlarini baholash ob'ektiv emas. Milliy o'quv dasturi ko'pincha ba'zi o'quvchilarni ma'lum bir bosqichda o'qishni davom ettirishga to'sqinlik qiladi. Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarning ota-onalari ko'pincha ma'lumotlarga ega emaslar. Natijada, bolalar faqat o'rta ma'lumot olishadi va o'qishni davom ettira olmaydilar. Ta'lim sifatini yaxshilash uchun nafaqat inklyuziv, balki umumta'lim maktablari ham zarur. Bu kabi kamchiliklar vaxtlar o'tishi bilan barham topadi va inklyuziv ta'lim o'z oldiga qo'ygan maqsadiga va samarali bo'lishiga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. X. N. Muzaffarova, D. Tangirova „Inklyuziv ta'lim“. library.samdukf.uz. Qaraldi: 10-noyabr 2022-yil.

2. Musurmonova, O.. Umumiy pedagogika. Yoshlar nashriyot uyi, 8-oktabr 2020-yil — 48-49 bet. ISBN 978-9943-6679-0-7. 10-noyabr 2022-yilda qaraldi.

3. „Ta'lim to'g'risida“gi yangi qonun va inklyuziya: qanday bo'lishi kerak?“ (o'zbekcha). gazeta.uz (9-iyun 2020, 16:00). Qaraldi: 10-noyabr 2022-yil.

4. <https://lex.uz/docs/-5013007>

5. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/06/09/education-law/>

6. <https://uz.drunkentengu.com/inklyuzivnoe-obrazovanie-plyusyi-i-minusyi-osobennosti-i-rekomendatsii-16063>

7. <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/inklyuziv-talim>

**BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA SHARQ ALLOMALARINING
ASARLARIDAN FOYDALANISH**

Esonaliyeva Madinabonu Shuxratjon qizi
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi,
Nargiza Valiyeva
Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qitish metodikasida tarixiy materiallardan foydalanish ya'ni ulug' mutafakkirlar ilmiy merosidan foydalanish va matematika faniga o'z xissasini qo'shgan olimlar haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: matematika, allomalar, boshlang'ich, tarixiy materiallar.

Bu davrga qadimgi Yunon matematiklari asos soldilar va uni O'rta Osiyodagi O'rta Sharq olimlari davom ettirdilar. Bu eramizdan oldingi VI-V asrlardan boshlab eramizning XVII asrigachabo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Bu davrda matematika alohida fan tariqasid o'zining predmeti va metodi bilan vujudga keladi. Masalan: Eramizdan oldingi VIV asrlarda qadimgi Yunon matematikasida abstraktlashgan va qat'iy mantiqlashgan geometriya vujudga keladi. Bu Evklid geometriyasi nomi bilan ataladi. Bundan tashqari, butun va ratsional sonlar arifmetikasi, Dedikend kesimi nazariyasiga o'xshash nisbatlarning umumiy nazariyasining asoslari, limitlar nazariyasining elementlari yuza va hajmi hisoblashdagi –Yetarli metod kabi matematika tarmoqlari vujudga keladi. O'rta Osiyo mamlakatlarida Muhammad al- Xorazmiy algebrani ijod etish bilan uni alohida fan darajasiga ko'taradi. O'rta Osiyo ensiklopediyasi olimlari Al-Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Umar Xayyom, Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy va boshqalar matematika faniga o'z hissalarini qo'shdilar.

J.Ikromov o'zining «Matematikani o'rganish tili» kitobida «Maktab o'quvchilarining matematik madaniyati shakllanishi bir necha davrga bo'linadi» deb, ta'kidlaydi.

Z.Otajonovning "Matematika o'qitishda O'rta osiyolik olimlar ijodidan foydalanish" (1981) o'qituvchilar uchun qo'llanmasi ham katta ahamiyatga ega. Taniqli olim Sayyidamin Axmedovning "O'rta Osiyoda matematika taraqqiyoti va uni o'qitish tarixidan" nomli kitobida O'rta osiyolik mashhur olimlar ijodi, madrasada matematikaning o'qitilishi O'rta Osiyoda qo'llangan sanoq tizimi, arifmetik amallar, kasr sonlar arifmetikasi keng yoritilgan.

K.G. Kojaboevning «Maktabda umumiy matematikaning tarbiyaviy yo'nalishi» nomli ilmiy ishida o'quvchilarni buyuk qomusiy olimlar al-Xorazmiy, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy, G'iyosiddin Koshiy, Al-Forobiy va boshqalarning ilmiy meroslarini o'rganish katta ahamiyatga ega ekanligini qayd etgan.

O'rta Osiyo olimlarining matematika sohasidagi ishlari va ularning fanni rivojlantirish sohasidagi xizmatlari haqida ma'lumotlar berilgan. O'rta Osiyoda o'qitish tarixi muammolari, o'qitish uslubi va o'qitishni mukammallashtirish masalalari tilga olingan. Shuningdek, mashhur matematiklar va matematikaga qiziquvchilar Muhammad Muso al- Xorazmiy, Nasafiy, Xo'jandiy, Beruniy, Sijovandiy, Koshiy, Kuboviy, Bobokalon Muftiylar haqida ma'lumotlar bor. 13 Kitobdan o'rta maktab matematika darslarida tarixiy materiallarni qo'llash maqsadida foydalanish mumkin.

A.P.Yushkevichning «O'rta asrlar matematikasi tarixi» ilmiy ishida matematika fanining Xitoy, Hindiston, Islom mamlakatlari (arab davlatlari, O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon)dagi taraqqiyotining umumiy bayoni berilgan. Muallif ko'p sonli tadqiqotlariga yakun yasab, matematika fani taraqqiyot tarixini yangicha tushunish haqida o'z xulosalarini bayon qilgan. S.X.Sirojiddinov va G.P.Matviezskaya birgalikda 1978-yilda o'quvchilar uchun Abu Rayhon Beruniy haqida qo'llanma ham yaratdilar. Bu qo'llanma «Abu Rayhon Beruniy va uning matematikaga oid asarlari» deb ataladi. Unda O'rta Osiyo qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy

ijodining qisqacha bayoni, uning ilmiy tarjimai holi va uning izdoshlari haqida ham ma'lumotlar bor. Oxirida Beruniyning matematik asarlari, ya'ni matematikaga oid ijodi berilgan.

Boshlang'ich sinflarda masalalar yechish aqliy rivojlanishga ancha ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki, aqliy operatsiyalarni analiz va sintez, taqqoslash va umumlashtirishni talab etadi. O'quvchi istalgan masalani yechayotganda analiz qiladi, savolni masala shartida fikr yuritadi. O'quvchilar masala yechish orqali izlanayotgan sonlar orasidagi bog'lanishlarni aniqlash uchun ham fikr yuritadilar. Xulosa qilib aytganda, matematika o'qitishning muhim vazifasi o'quvchilarda faol fikrlash, turmush hayotda uchraydigan turli masalalarni yechishda qiyinchiliklarni yengish, bu masalalar yechimining ratsional yo'llarini topish ehtiyojini vujudga keltirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://library.samdu.uz/download/1655>
2. Ahadova. M. O'rta osiyolik mashhur olimlar va ularning matematikaga doir ishlari. Toshkent. O'qituvchi. 1983.
3. Otajonova Z. Matematika o'qitish O'rta Osiyolik O'rta asr olimlari asarlaridan foydalanish. O'qituvchilar uchun qo'llanma. T.; O'qituvchi, 1981.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/matematika-darslari-orqali-o-quvchilar-mantiqiy-fikrlash-qobiliyatlarini-shakllantirish-yo-llari/viewer>

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI ATROF-MUHITNI ASRAB-
AVAYLASH VA G'AMXO'RLIK KO'RSATISHGA O'RGATISH****Adhamova Xurshidaxon****Maktabgacha (sirtqi) ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi,
Jumanova Shahnoza Ikromjonovna
Qo'qon universiteti "Ta'lim" kafedrası o'qituvchisi**

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni atrof-muhitni asrab-avaylash va g'amxo'rlik ko'rsatishga o'rgatish, shuningdek, bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini inobatga olish, shaxsga yo'naltirilgan turli yondashuvlar, pedagoglarning kasbiy mahorati va ta'lim sifatini oshirishga imkon berish tadqiq etildi. Bundan tashqari, tarbiyalanuvchilar o'rtasida ta'lim-tarbiya va ekologik tarbiyani shakllantirish, ulardagi ijodkorlik, ziyraklik, mustaqillik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni tarbiyalash masalalari atroflicha o'rganildi.

Kalit so'zlar: Ekologik tarbiya, tabiat, ona-yer, pedagogika, ma'naviy komillik, mashg'ulot, ekskursiya, metod, usul, o'yinlar. tabiat go'zalligi, ekologik-estetika, tarbiya, tarbiyachi, mahorat, dastur, tarbiyaviy imkoniyat, mashg'ulot, sayr.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, bu jarayonning samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da yosh avlodni har tomonlama kamol topgan, jamiyatda o'z o'rnini topa oladigan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda anglab, huquqiy, psixologik, pedagogik sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan qilib tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni ma'naviy yetuk, axloqli, pok insonlar qilib voyaga yetkazishda tabiat bilan tanishtirish metodikasi fani muhim ahamiyat kasb etadi. Uning maqsadi, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash, tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, Vatanga mehrlil bo'lish, ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish, tabiat haqida mukammal bilimga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashdir.

Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun bolalarni tabiat bilan tanishtirishni to'g'ri yo'lga qo'yish usullarini o'rgatuvchi turli fan sohalari mavjud. Jumladan, pedagogika fanini olishimiz mumkin. Pedagogika - yunoncha so'z bo'lib, «bola yetaklovchi» - ma'nosini bildiradi. Insonlarni ma'rifiy va ma'naviy barkamollikka munosabatlarni o'zgartirib borishi natijasida pedagogika fani xalq orasida o'z mavqeyiga ega bo'ldi. Shu tariqa insonni tarbiyalovchi fan sifatida pedagogika dunyoviy fanlar tizimi qatoridan alohida o'rin egallagan. Uning bosh masalasi tarbiyadir. Bundan uch ming yillar ilgari Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da ta'lim-tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgani holda, uning ibodatxonalari qoshida maktablar tashkil etilib, koinlar tomonidan bolalarning ta'lim-tarbiya tizimi ishlab chiqilgan. Bu ta'lim-tarbiya tizimi quyidagi tartibda amalga oshirilgan: diniy va axloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya, o'qish va yozishga o'rgatish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarda atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirishning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish bugungi kunning muhim talabi bo'lib qolmoqda. Turli yosh guruhlarda bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachi aralashmagan holda sezgilar bilan amalga oshiriluvchi usul – **kuzatish usulidir**. Kuzatish — tabiat jismlari va hodisalarning tabiiy sharoitlarda maqsadga

yo'nalgan va bevosita shu hodisalarni borishiga bilish faoliyati bo'lib, bunda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etib, barqaror diqqat talab etiladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda doimiy kuzatishlar olib borish ularning mantiqiy fikr yuritishi va nutqini o'stirishda g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Ko'rgazmali metod ham alohida ahamiyatli usullardan biri hisoblanadi. Ko'rgazmali metodlar guruhiga bolalar bilan birga rasmlarni ko'rish, diapozitiv va kinofilmlarni namoyish qilish ham kiradi. Bu metoddan foydalanish xilma-xil vazifalarni hal qilishga, tasavvurlarni aniqlash va bilimlarini tizimlashtirish, umumlashtirish, estetik idrokni tarkib toptirishga yordam beradi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachining aytib bergan hikoyasi, tabiat haqidagi badiiy kitoblarni o'qishdan, suhbatdan foydalaniladi.

Og'zaki uslub yordamida kuzatish va tabiatdagi mehnat jarayonida olgan bilimlari aniqlashtiriladi, to'ldiriladi, umumlashtiriladi hamda bir tizimga solinadi. Shunday qilib, og'zaki uslub bolalarning tajribasi doirasidan chetga chiquvchi bilimlarni shakllantirish imkonini beradi.

Ekskursiya. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ta'lim berishning tashkiliy formalaridan biri ekskursiyadir. Ekskursiya jarayonida bolalar ona tabiat to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladilar. Bu tasavvur tabiatni ko'rish, eshitish, sezish orqali idrok etiladi. Ekskursiya jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiat, undagi bog'liqlik va uning qonuniyatlari to'g'risida realistik tasavvurlar hosil bo'ladi. Bu tushunchalar keyinchalik bolalar egallaydigan ilmiy bilimlarning asosini tashkil etadi, maktabda o'rganiladigan tabiiy fanlarni o'zlashtirib olishni osonlashtiradi. Tabiat to'g'risidagi bilimlardan bexabar bo'lish ko'pincha o'simlik va hayvonlarga nisbatan noto'g'ri, ba'zi hollarda esa berahm va shafqatsiz munosabatda bo'lishga olib keladi.

Til va muloqot uslubi. Maktabgacha tarbiya yoshida tabiatni o'rganish ko'proq ona tilini bilish bilan yaqindan bog'liqdir. Bu yoshda sezib idrok qilishdan ko'ra so'z bilan aytib idrok qilish mustahkam o'zlashtiriladi. Sezib idrok qilishda tabiat haqidagi hamma bilimlarni boshlang'ich manbai ekanligini doimo nazarda tutish kerak, aniqroq qilib aytganda, bolalar ongida haqiqatni aks etti mumkin.

E'tika va estetika haqidagi psixologik treninglar - suhbat metodi. Yoshlarga estetik tarbiya berishdan maqsad — shaxsning estetik didi va idealini tarkib toptirish, tevarakatrofdagi narsalarni to'g'ri qabul qilish qobiliyatlarini har tomonlama o'stirishdir. Estetik tarbiya bolaga did bilan kiyinish, yurish-turish, mehnat qilish, omma orasida o'zini to'g'ri tuta bilish kabi hislatlarni singdiradi.

"Bog'imizni quramiz" usuli - bog'cha hovlilariga ekilgan gullarni parvarish qilish jarayonida har bir gulni, niholni asrash, uni parvarish qilish, gullarning tagini yumshatish, sug'orish, begona o'tlardan tozalash, shakl berish, o'g'it yoki go'ng solish kabi ishlarni bajarish jarayonlarini amalga oshirish mumkin. Bu yerda tarbiyachining ahamiyati katta. Masalan, tarbiyachi bolalarga gullarni parvarish qilayotganda ularning ham jonli organizm ekanligini, biz qanday nafas olsak, ular ham nafas olishini, biz qanday ovqatlansak, ular ham bizdek «ovqatni yaxshi ko'rishini», o'simlikning ovqati go'ng, o'g'it ekanligini, biz yuvinish, taranishni qanday yaxshi ko'rsak, gullar ham «yuvinishni», «taranishni» yaxshi ko'rishini va buning uchun gullarni tagini vaqti-vaqti bilan yumshatib, suv berib turish kerakligini, barglariga chang yuqtirmasdan yuvib, artib turish kerakligini o'rgatishi zarur. Shuningdek tarbiyachi bolalarga odamlar yorug'likni, quyoshni qanday yaxshi ko'rsa, gullar ham yorug'likni, quyoshni shunchalik yaxshi ko'rishini, shuning uchun ham ularni soya yoki qorong'i yerga saqlash mumkin emasligini ularga uqtirishi zarur.

"Aqliy hujum" metodi - ta'lim sohasida eng faol va yaxshi samara beruvchi metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu metod orqali bolalarning ijodiy va mustaqil fikrlash

imkoniyatlarini to'g'ri baholash, muayyan mavzu yuzasidan muammolarni hal etishda va uni tahlil etishda yaxshi natijalarga erishish mumkin. Aqliy hujum metodi qo'llanilganda bildirilgan fikr va g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi. Bildirilgan har qanday fikr inobatga olinadi. Fikr muallifi bo'lgan bolalar rag'batlantiriladi. Ushbu metod orqali tabiat haqidagi biror muammoning yechilishida bolalar tomonidan berilgan fikr va mulohazalar yig'iladi va ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadi.

Kelajak avlodni barkamol kishilar qilib tarbiyalash shu kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu borada bolalarni tabiat bilan tanishtirish muhim rol o'ynaydi. Shunga ko'ra, maktabgacha ta'lim muassasalarida ishlayotgan tarbiyachilar oldida bolalarda tabiat go'zalliklarini ko'ra bilish, uni sevish, tabiatda yuz berayotgan voqea, hodisalar haqida to'g'ri tushunchalar hosil qilish, ularga ekologik ta'lim-tarbiya berishdek muhim vazifa turadi. Tarbiyachi eng avvalo o'zi tabiatni sevuvchi, jonli va jonsiz tabiat haqida aniq bilimlarga ega bo'lmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.Mirziyoyev "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 29.12.2016 y. Qarori.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. Toshkent. 2008. D. Sharipova va boshqalar. «Agar bolam sog'lom bo'lsin desangiz» (Ota-onalarga maktabgacha yoshdagi bolalarning gigiyenik tarbiyasi haqida). Metodik qo'llanma. Toshkent. 2006.
3. P.S.Sultonov Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta mahsus ta'lim Vazirligi tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan, Toshkent – 2007
4. O.Hasanboyeva. H.Jabborova. Z.Nodirova. Tabiat bilan tanishtirish metodikasi. – T.: Cho'lpon NMIU. Qo'llanma. 2006.
5. Sh.M. Kamolxo'jayev.«Tabiatshunoslik asoslari». – T.: «Moliya». Qo'llanma. 2002.
6. H.S. Yo'ldoshev.SH.M. Avazov.«Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari». – T.: «Mehnat» nashriyoti. Qo'llanma.2003 .
7. I. Xolliyev. A. Ikromov. «Ekologiya» – T.: «Mehnat». Qo'llanma. 2001.
8. «Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim». – T.: 2012.
9. Kindergardens lessons.com Mike Adams Copyright 2014,page-14.
10. Maktabgacha pedagogika. Darslik.Fotima Qodirova, Shoista Toshpo'latova, Nargiza Kayumova, Malohat A'zamova. "Tafakkur" nashriyoti, Toshkent – 2019,308-bet.

**TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH JARAYONIDA SIFATLI TA'LIMNI
TA'MINLASH - DAVR TALABI**

Dexqonova Fotimaxon Baxodirovna
Qo'qon universiteti talabasi,
Madinaxon Sobirxonovna
Qo'qon Universiteti "Ta'lim kafedrası" dotsenti

Annonatsiya. Ushbu maqola orqali ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, o'qitish metodlarini takomillashtirish, imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilashga doir huquqiy asoslar hamda inklyuziv ta'lim muhitini yaratishning o'ziga xos tomonlari haqidagi ijtimoiy manbalarga ega bo'lish mumkin.

Kalit so'zlar. Inklyuziv ta'lim, uzluksiz ta'lim tizimi, rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar, reabilitatsiya, ijtimoiy yordam.

O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida "jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola" va "nogiron bola" tushunchalariga ta'rif berilgan. Xujjatda: "Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bola – nogironlikni belgilash uchun yetarli bo'lmagan jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va (yoki) ruhiy nuqsonlari bo'lgan bola"; "Nogiron bola – jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va (yoki) ruhiy nuqsonlari bo'lganligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordamga, himoyaga muhtoj hamda qonunda belgilangan tartibda nogiron deb topilgan bola" -kabi izohlar keltirilgan. Qonunga muvofiq nogiron bolalarning tibbiy-ijtimoiy yordam va bilim olishga bo'lgan huquqlari kafolatlangan bo'lib, tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning tavsiyasi asosida hamda ota-onalar xohish-istagiga ko'ra umumta'lim yoki ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi turini tanlash huquqiga ega [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 1 dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-sonli farmonida Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan ishlarning samarali yechimlari nazarda tutilgan.

Yurtboshimizning 2019 yil 29 apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi to'g'risida"gi PF-5712-sonli farmonida [4] ta'lim-tarbiya jarayoniga **individuallashtirish** tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, o'qitish metodikalarini takomillashtirish, imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash hamda mazkur toifa har bir bolaning inklyuziv ta'lim olishiga bo'lgan huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash kabi vazifalar belgilab berildi. Kontseptsiyada belgilangan vazifalar qatorida ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va matematika fanini o'qitish bilan bog'liq quyidagilar ko'zda tutilgan: "O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib, **PISA (T'e Programme for International Student Assessment)** Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish; uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash; o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish".

Davlatimiz rahbarining 2020 yil 13 oktyabrda "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarori mamlakatimiz ta'lim tizimida jahon standartlari asosida islohatlarning maqsadli hamda manzilli olib borilishini dolzarb masala sifatida ko'ndalang qo'ydi. Mazkur

xujjat asosida nogironligi bo'lgan shaxslarning turmush darajasi va sifatini yaxshilash, ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish va rehabilitatsiyasini, ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish, inklyuziv ta'limni kengaytirish, axborotli muhitni yaratishga qaratilgan vazifalarni amalga oshirish belgilab berilgan [4].

Sanab o'tilgan har bir xujjat yurtimizda barcha bolaga sifatli ta'limni ta'minlash kabi ijtimoiy-siyosiy vazifaning huquqiy-me'yoriy asosini tashkil etadi.

Butun pedagogika tarixi dalolat berganidek, uning ilg'or namoyondalari hamma vaqt jamiyatning ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlariga muvofiq insonning har tomonlama uyg'un rivojlanishini ta'minlaydigan ta'lim tamoyillari, shart-sharoitlari, omillari, metodlari, tashkiliy shakllarini belgilashga qaratilgan tadqiqotlar olib borganlar. SHu o'rinda "Ta'lim" tushunchasining ikki jihatini keltirish joizdir: bir tomondan bu ijtimoiy tajribani o'sib kelayotgan avlodga berish jarayoni, ya'ni ta'lim berish jarayoni bo'lsa, boshqa tomondan bu insonning ijtimoiy tajribani egallashi, ya'ni ta'limga yondosh tarbiya jarayonidir. Ta'limga berilgan bunday talqin zaminida uning mazmunini jamiyat taraqqiyotining omillaridan biri sifatida tushunish yotadi[3]. Ta'lim jarayoni sog'lom bola kabi rivojlanishida muammolari bo'lgan bolaga ham uning yoshi, imkoniyatlari uchun xos bo'lgan yetakchi faoliyat turlarida o'zini-o'zi namoyon qilish imkoniyatini yaratishga majbur. Bu imkoniyat ikki tomonlama jarayon sifatida belgilanadi: bir tomondan, bu jarayon fanlardan bilimlar, malakalar, aqliy faoliyat ko'nikmalarining berilishi-deb tushunilsa, ikkinchi tomondan, ularning ta'lim-tarbiya jarayonining sub'ektlari tomonidan ijobiy emotsional qabul qilinishi va ongli o'zlashtirilishi deb tushuniladi. O'quv materialini emotsional qulay muhitda o'zlashtirilishi qator omillarga bog'liqdir[4]:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari va jamoasining alohida ehtiyojli bolaga nisbatan tolerantlik munosabati.

2. Ota-onalar yoki alohida ehtiyojli bola yaqinlarining inklyuziv ta'limdagi bevosita maqsadli ishtiroki.

3. Inklyuziv sinf o'qituvchisining tor doiradagi mutaxassislar (logoped, defektolog, psixolog, pediatr, nevropatolog, psixiatr, rehabilitator...) bilan uzviy hamkorlikda ishlashi.

4. Inklyuziv maktab rahbari, fan o'qituvchilari, psixolog, yetakchi va boshqa xodimlarning inklyuziv ta'lim haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi.

5. Alohida ehtiyojli bolaga sinfda o'zini qulay xis qilish imkonini beruvchi sog'lom va barqaror psixologik muhit.

Sanab o'tilgan omillar asosida inklyuziv ta'lim muhitini yaratishning o'ziga xos tomonlarini unutmazlik lozim. Ular:

-bolalar uchun barcha fanlardan o'quv materiallarini taqdim etishning optimal vizualizatsiyasiga ustuvorlik berishga ehtiyojning kattaligi;

- alohida ehtiyojli bolalarning fanlardan o'zlashtirish imkoniyatlari nutqiy rivojlanish darajasiga bog'liqligi;

-fanlardan beriladigan o'quv topshiriqlarining qiyinlik darajalarini belgilashda individualizatsiyaga tayanishning muhim shartligi;

- har bir o'quv fanni o'qitish samaradorligi tayyorlov davri mazmuni va tashkil etilishiga bog'liqligi;

-fanlardan davlat ta'lim standartlarining bajarilishini ta'minlashda fanlararo integratsiyaga tayanishning dolzarbligi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, o'zbek xalqining o'ziga xos xususiyatlari bo'lgan mehr-shafqat, o'zgalarga yordam berish, muhtojlarni qo'llab-quvvatlash kabi sifatlar yurtimizda inklyuziv ta'limning samarali tashkil etilishi hamda rivojlanishida muhim tayanch omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Ta'lim hamma uchun milliy dasturini joriy qilish masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent-2005 yil.
2. R.Shomaxmudova. "Maxsus va inklyuziv ta'lim (Halqaro va milliy tajribalar)" T., 2011
3. G.Berdiyeva. A.Shomaxmudova "Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limda o'qitish usullari" metodik qo'llanmasi. Toshkent – 2015
4. [https://lex.uz/uz/](https://lex.uz/uz/@huquqiyaxborot) @huquqiyaxborot porta

MAKTABGACHATA'LIM TASHKILOTINING OILA BILAN HAMKORLIGIDA PEDAGOGIK PSIXOLOGIK YONDASHUV

Akbarxo'jayeva Mohinur Ma'rufxo'ja qizi
Qo'qon universiteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ota-onalar bilan hamkorlikda pedagogik va psixologik yondashuvlarni qanday bo'lishligi, oila va maktabgacha ta'lim tashkilotiga psixologik mashg'ulotlar kerakligini bilib olasiz.


Kalit so'zlar: pedagogik, psixologik bilimlar, ota-ona hamkorligi, psixologik mashg'ulot, hamkorlikni kuchayishtirish, tarbiyachi, bola, psixologiya.

Bugungi kunning dolzarb masalasidan biri bu maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish, oila va maktabgacha ta'lim tashkilot hamkorligini to'g'ri yo'lga qo'yish va bolaga nisbatan ota-ona mas'uliyatini oshirish, ularni pedagogik-psixologik bilimlar berib borishligi kerak. Pedagogik-psixologik bilimlar ota-onaga nima beradi? Bu bilimlar ota-onani farzandga nisbatan ma'suliyati bo'lishi va bola shaxsini rivojlantirishga yordam beradi. Pedagogik psixologiya - ta'lim va tarbiya muammolarini hal qiladigan psixologiya sohasi hisoblanadi. U shaxsini rivojlanishiga, bilish faoliyatida va insonning ijtimoiy va ijobiy sifatlarni tarbiyalashda psixologik vaziyatlarni o'rganadi. Pedagogik psixologiyaning maqsadi shundan iboratki, shart-sharoitlar va boshqa psixologik omillardan kelib chiqqan holda ham o'qitishnirivojlantiruvchi ta'siri hisoblanadi.

Pedagogik psixologiya 19-asrning 2-yarmida paydobo'lgan. Bu pedagogik psixologiya fan sifatida o'sha davrda yuzaga kelgan. Ta'lim-tarbiyaning shaxsni kamol toptirish ishiga bog'liqligi g'oyani shakllantiruvchi, takomillashtiruvchi kuchlarga bog'liqdir.

Pedagogik-psixologiya fani ham jahon fani taraqqiyoti hamda va uning takomillashib borish jarayoni, fanga kirib kelishi bilan yangiliklarni aks etishi. Bu asosiy vazifa sifatida birinchi bor qonuniy asoslarga ega bo'lgan va pedagogik psixologiya fani oldiga muhim vazifalarni hal qilish qo'yilgan:

- 1) pedagogik psixologiyaning muhim vazifalaridan biri ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish, psixologik asoslarini ko'rib chiqish;
- 2) mustaqil bilim olish, chuqur yoki yetkazib berishning psixologik masalalarini ishlab chiqish;
- 3) bilish faoliyatini o'zaro tashkil qila bilish shart-sharoitlarini aniqlash;
- 4) o'z-o'zini tarbiyalashning psixologik asoslarni aniqlash;
- 5) psixologik muammolarini nazariy jihatidan asoslab berish.



Maktabgacha ta'lim tashkilotida ota-ona bilan hamkorlik juda muhim va zarur. Hamkorlik nega zarur?

Bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotiga borganidan so'ng qanday o'zgarishlari haqida ota-ona suhbatlashishi kerak. Tarbiyachi muntazam ravishda ota-ona bilan muloqotda bo'lishi kerak. Masalan: ertalabki qabulda va kechki kuzatish vaqtida tarbiyachi ota-ona bilan suhbatlashishi kerak. To'g'ri ba'zi bir ota-onani vaqti bo'lmasligi mumkin. U oila bilan ham tarbiyachi iloji boricha suhbat qurishga harakat qilish kerak. Pedagogik-psixologik yondashuv birinchi navbatda, ota-onaga zarur. Ota-ona o'zini pedagogik va psixologik jihatidan o'zini tarbiyalamas ekan, farzandini ham komil inson sifatida tarbiyalay olmaydi. Negaki, bolani hayotidagi muhim inson bu ota-ona hisoblanadi. Ota-ona o'zini aqliy, jismoniy va ijtimoiy jihatdan rivojlansagina, bola ham aqliy, jismoniy va ijtimoiylashuvi rivojlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytamanki, bolaning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish kerak. Turli xil sport mashg'ulotlari va chet tillariga bilan bolajonlarni band qilish kerak. Ota-ona farzandini turli xil sayrlarga, muzeylarga olib borishi kerak. Bolalarimiz ajdodlarimiz kim bo'lganlari, ular qanday yutuqlarga erishishgani bolajonlarimiz aytib berishlari kerak. Zero, bolajonlarimiz qanday ulug' insonlarimiz yashab o'tganlarini bilishi kerak. Ota-onalar bilan ishlashda pedagogik va psixologik yondashuvlardan foydalanishimiz kerak. Farzandlaridagi o'zgarishlar haqida tarbiyachi bilan suhbat qilishlari lozim. Tarbiyachi yig'ilishlar va so'rovnomalar uyishtirib har bir oila bilan suhbat o'tkazishlari kerak. Tarbiya qanchalik bu ishlarni erta boshlasa, bolalar uchun ham, ota-ona uchun ham kerakli ma'lumotlarni beradi. Bu bilan tarbiyachi nimaga erishadi? Yosh avlodni jismonan sog'lom, axloqiy yetuklikga, komil inson qilib tarbiyalashga ko'maklashadi. Har bir tarbiyachi kasbi ortidan yuksak natijalarga erishishni xohlaydi. Bu ishlar tarbiyachiga yuksak natijalarga erishishga yordamlashadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-ona hamkorligi muhim o'rin egallaydi. Oilalarga pedagogik va psixologik bilimlarni berish kerak. Oilalarda sog'lom ma'naviy va ma'rifiy muhitni yaratish zarur. Bolalarni ijtimoiylashuvini kuchaytirish lozim. Bola tarbiyasida e'tiborlik bo'lish juda muhim o'rin egallaydi. Bolaning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish muhim. Albatta bunda, bolalarni qiziqishlarini inobatga olgan holda. Agar bolani ota-ona o'zi xohlagan mashg'ulotga bersa, bola bu mashg'ulotga qiziqishi bo'lmasa, bola mashg'ulotda o'tilgan bilimlarni o'ziga olmaydi. Shunchaki mashg'ulotga borib keladi. Bolada bu mashg'ulotga qiziqish bo'lmasa, ota-ona mashg'ulot uchun pul sarflagani qoladi. Farzandingizni aytgan har bir fikrni hurmat qilgan holda, farzandingizga javob qaytaring. Bolangiz uchun yetarlicha vaqt ajrating. Zero, farzandingiz o'zgaralar mehriqga muxtoj bo'lmasin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Z.B.Qodirov. Komil inson tarbiyasining pedagogik asoslari. T-2001.
2. "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari.
3. Xamidova, G. (2020). Bolani maktabga tayyorlashda oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining hamkorligi.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA ZAMONAVIY INNOVATSION FAOLIYAT

Raxmataliyeva Gulasal Ravshanjon qizi
Ta'lim kafedrası Maktabgacha ta'lim
yo'nalishi 3-bosqich talabasi,
Muhammadjonov Muslimbek Muhsinjon o'g'li
Qo'qon Universiteti Ta'lim fakulteti o'qtuvchisi

Annotatsiya:Maqolada maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi kundagi holati va sohada olib borilayotgan islohotlar haqida malumotlar, tavsiya va xulosalar keltirilgan bo'lib ushbu jarayonda zamonaviy innovatsion texnologiyaning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llanilishi, bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish yo'lidagi muammolar, ularni bartaraf etish hamda istiqbolini belgilash yo'lidagi fikr va mulohazalar, jumladan, o'quv dasturlarni takomillashtirish hamda ularning ta'lim sifatiga ta'siri haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan. Tatbiq etilishi mumkin bo'lgan amaliy jihatlari, yangicha metodlar bilan ishlashning yutuq va kamchiliklari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, bola, rivojlanish, ta'lim, tarbiya, o'quv dasturi, davlat ta'lim standarti, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, kasbiy sifat, mantiqiy fikrlash, innovatsion, zamonaviy metod, texnologiya

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng, davlatimizni rivojlantirish uchun o'z milliy strategiyasini ishlab chiqdi. "Kelajak yoshlar qo'lida"-shiori ostida ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratildi. Kelajagimiz egalari dunyoga kelar ekan, ularni mustaqil O'zbekistonimizga foydasi tegadigan yoshlar qilib tarbiyalash uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining zimmasidagi ulkan mas'uliyat hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimi sohasiga muhtaram prezidentimizning alohida e'tiborlari ushbu soha rivojlanishini ta'minlab berdi. Prezidentimiz maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan masalalar yuzasidan juda ko'p qarorlar hamda farmonlar chiqardilar hamda amaliyotga joriy qildilar.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilayotgani biz ya'ni bo'lajak tarbiyachilar uchun juda katta imkoniyat eshiklarini ochib beradi. Jumladan ushbu soha bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori quyidagicha keltirilgan:axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2022-yil 1-yanvarga qadar maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy o'qitish shakllari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilsin, jumladan: xalqaro standartlar va talablar asosida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning rivojlanishini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqsin; bolalarning o'sishi hamda maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish jarayonlarini monitoring qilish bo'yicha "Bolalar bog'chasi" axborot boshqaruvi tizimini ishga tushirsin va unga kiritiladigan ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlasin; maktabgacha ta'lim xizmatlari uchun elektron to'lov tizimlarini joriy qilsin; maktabgacha ta'lim sohasida axborot boshqaruv tizimini boshqa vazirlik va idoralarning axborot tizimlari bilan integratsiya qilish to'g'risida keltirib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari" to'g'risida 11.06.2019 487 sonli qarorida Ta'lim-tarbiya jarayoniga bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy rivojlantirishni ta'minlaydigan zamonaviy ta'lim dasturlari, ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish, ularni maktabga tayyorlash darajasini oshirish,

maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy standartlarini yaratish maqsadida qaror qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-son Farmoniga muvofiq Xalq ta'limi vazirligining maktabgacha yoshdagi bolalarning sifatli ta'lim-tarbiyasini tashkil etish va ularni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish vazifalari yangi tuzilgan Maktabgacha ta'lim vazirligi zimmasiga yuklatildi.

Jamiyatning taraqqiyot darajasi, davrimizning axborot asriga aylanishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarni yetuk, vaziyatni tezda baholaydigan, har qanday holatda ham to'g'ri va oqilona qaror qabul qila oladigan malakali mutaxassis qilib tayyorlash uchun faqat ananaviy uslublarga tayanib dars o'tish yetarli emas. Bu esa ta'lim tizimida jahon tajribasidan keng foydalanishni talab etadi. Shu talabdan kelib chiqib, kasb ta'limining bakalavriat yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga mutaxassislik fani sifatida "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" darsi o'qitiladigan bo'ldi.

Innovatsiya (ing .innovationas — kiritilgan yangilik, ixtiro) — 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnikayutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishi

Zamonaviy dunyomizning bobo –buvilarimiz va hatto ota –onalarimiz yoshligidan ancha farq qilishini inkor etish mantiqsiz. Bugun tasavvur qilish qiyinki, yaqin o'tmishda maktabgacha ta'lim muassasasida biron bir innovatsion texnologiyadan foydalanish haqida gap yo'q edi. Hozirgi kunda kompyuter, planshet kabi ilg'or texnologiyalar har qanday maktabgacha yoshdagi bolani ajablantirmaydi. Axborot asri o'z o'yin qoidalarini belgilab beradi, buni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. O'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari yaqqol ko'rinib turibdi. Masalan, bolani o'qishga, matematikaga o'rgatish, uning xotirasini va mantiqiy fikrlashni iloji boricha rivojlantirishga mo'ljallangan ajoyib dasturlar tufayli maktabgacha yoshdagi bolaga qiziqish uyg'otishi va bilimga bo'lgan muhabbatni uyg'otishi mumkin. Animatsion kompyuter rasmlari bolani monitorga yopishib, nima bo'layotganini diqqat bilan kuzatishga majbur qiladi. Bolalar osonlikcha yangi ma'lumotlarni yodlaydilar va keyin guruhda muhokama qiladilar.

Har qanday yangilik – bu printsipial jihatdan yangi tarkibiy qismni yaratish va keyinchalik amalga oshirishdan boshqa narsa emas, buning natijasida atrof –muhitda sifatli o'zgarishlar ro'y beradi. Texnologiya, o'z navbatida, ma'lum bir biznesda, hunarmandchilikda yoki san'atda qo'llaniladigan turli xil texnikalar to'plamidir. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalar zamonaviy komponentlar va texnikalarni yaratishga qaratilgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi o'quv jarayonini modernizatsiya qilishdir. Buning uchun bolalar bog'chasidagi pedagogik jamoalar boshqa maktabgacha ta'lim muassasalaridan farqli o'laroq, bolalarni tarbiyalash va intellectual rivojlantirishning eng yangi modellarini ishlab chiqadilar. O'qituvchilar kasbiy faoliyatlarida uslubiy vositalar, usullardan foydalanadilar va qabul qilingan modelga to'la mos keladi. Zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalari tobora ko'proq foydalanilmoqda va ularni amalga oshirish natijasi o'n yildan ko'proq vaqt davomida paydo bo'ladi.

Bugungi kunga qadar keng Vatanimizdagi bolalar bog'chalarida qo'llaniladigan yuzdan ortiq ta'lim texnologiyalari mavjud. Ular orasida quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim.

sog'liqni saqlash texnologiyalari;

- loyiha faoliyati bilan bog'liq texnologiyalar;
- loyiha faoliyatida qo'llaniladigan texnologiyalar;
- axborot –kommunikatsiya texnologiyalari;

- har bir shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar (shaxsga yo'naltirilgan);
- o'yin texnologiyalari deb ataladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim muassasalariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish nafaqat mumkin, balki zarur. Ammo shuni yodda tutish kerakki, maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarga bir nechta qat'iy talablar qo'yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari.- T.:2018.
2. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli farmoni.
3. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi.- T.:2018.
4. Maktabgacha ta'lim vazirining 2019 yil 30 avgustdagi "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish xujjatlari to'g'risida"gi 155-sonli buyrug'i.
5. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.09.2017-y., 07/17/3304/0037-son)
6. Maxsus fanlar o'qitish metodikasi D. Tojiboyeva, A yo'ldoshev 2009-yil
7. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risida"gi nizom T.: 2017 21-noyabr
8. Maktabgacha pedagogika F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.kayumova M.A'zamova. 2019-yil

BUYUK AJDODLARIMIZ MEROSI TARBIYADA KO'MAKCHI.

Muhammadjonova Dilnura
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1 bosqich talabasi,
Valiyeva Nargiza
Qo'qon universiteti "Ta'lim" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurt kelajagi bo'lgan farzandlarimizni ma'naviyatli inson qilib tarbiyalashda asosiy vositalardan biri ajdodlarimiz merosini o'rganish, ular izidan boorish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tarbiya jarayonini har tomonlama takomillashtirish, yoshlarni barkamol avlod sifatida kamol topishi uchun xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Barkamollik, ajdodlarimiz merosi, Hidoya, doston, etak, afsona, rivoyat, alloma, meros, manaviy boylik.

Insoniyat rivoji, xalq, millat ravnaqi, ma'naviy takomili va yuksalishi ilm-u ma'rifatning yuqori cho'qqiga yetganligidan dalolatdir. Bu esa, o'sha millat, xalq, davlat va jamiyat tamaddunining yuksak darajasini belgilovchi muhim mezondir. Inchunin, yuksak tamaddunga ega millatning ildizi ma'rifat chashmasiga to'yingan, tanasi bilim, mevasi esa yetuklik, barkamollik, komillikdir. O'zbek xalqi ana shunday ma'rifat chashmasidan oziqlangan, ildizi baquvvat, tarixda bir nechta renessans davrini boshlab bergan va dunyo tamadduniga ko'plab daholarni yetishtirgan millatdir. Buyuklar qoldirgan chashma shu qadar pok va takrorlanmaski, undan ichganing sari mudom bu chashmaga intilaverasan. Intilganing sari o'zingda komillik, yetuklik, ezgulik kasb etib boraverasan. Darhaqiqat, bugungi avlod ham ajdodlar qoldirgan ana shu ma'rifat chashmasiga intilib yashashi va ular merosini chuqur o'rgangan holda tadqiq etishi va bu asosida, jamiyat ma'naviy yuksalishiga xizmat qilishi lozim. Buyuk faqih Burhonuddin Marg'inoniyning "Hidoya" asari qimmatli manbalardan bo'lib, necha asrdan buyon fiqh ilmiga oid izchil va mukammal qo'llanma sifatida o'qib kelingan. Mazkur asar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan holda, islom huquqiga oid qimmatli manba sifatida soha mutaxassisleri tomonidan huquq va majburiyatlarni belgilashda muayyan darajada asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ta'kidlash lozimki, "Hidoya" asari jami 6 jilddan iborat bo'lib, 2 jildi to'liq va mukammal holda joriy alifboda nashr etildi. Olimlar tomonidan asarning qolgan 4 jildini nashr etish ustida izlanishlar olib borilmoqda. Bu albatta, bizga boy merosimizdan bahramand bo'lish, ma'naviy kamolotimiz yo'lida istifoda etish imkonini beradi. Bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri, zamon talabiga mos, ijtimoiy faol avlodni tarbiyalashdir, bunda ajdodlarimiz merosi muhim rol o'yaydi. Bu yo'lda o'zbek xalqiga xos bo'lgan odamgachilik, saxovatpeshalik, kamtarlik kabi ezgu fazilatlarini yosh avlod qalbida kurtak orttirishga alohida ahamiyat berishimiz kerak bo'ladi. Ajdodlarimizdan qolgan meros yosh avlod uchun kuch, fidoiylilik manbai hisoblanadi. Boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan xalq og'zaki ijodi namunalari – doston, etak, afsona, rivoyat, maqollar farzand farzand tarbiyasida ma'naviy-axloqiy vosita bo'lib kelgan. Misol uchun "O'zbek xalq ertaklari", "O'zbek xalq maqollari" ruknida berilgan Alpomish, Rustamxon, To'maris, Shiroq timsollarida yosh avlodda vatanga sadoqatli, qat'iyatli, o'z maqsadi yo'lida kurashishga undovchi obraz sifatida nomoyon bo'ladi. Bu avlodlarimiz o'gitlarini kelajagimizga yoshlikdan ong -ongiga singitib borishimiz, ular tunganmas boylik ekanligini uqatirishimiz kerak. O'qish darsliklarida berilgan buyuk ajdodlarimiz Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Zahiriddin Muhammad Bobur kabilarning hayoti, asarlarini o'rganish o'quvchilarga odob-axloq fazilatlarini singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yana misol tariqasida shuni aytish kerakki, Abu Ali ibn Sinoning odob-axloq to'g'risidagi asarida Bolani tarbiyalash va o'qitish haqidagi fikrlarini insonparvarligi va teranligi bilan ajralib turadi. Buyuk allomalarimiz kitob qadri, uning inson tarbiyasidagi bebaho ahamiyatini yozib qoldirgalar. Bola bu asarlarni o'qiganda ta'lim bilan

birga tarbiya ham ega bo'ladi va kitob haqidagi tasavvuri ham boyiydi. Ulug' ajdodlarimizning merosi yosh avlodni tariximizdan ma'naviy ozuqa olib, g'urur va iftixor bilan yashashga, o'qib o'rganishga, ezgulikka chorlaydi. Xalqni ilm-ma'rifatli qilish, san'at va madaniyatni rivojlantirish, nashr ishlarini kengaytirish, turli davlatlar bilan ilmiy-ma'rifiy aloqalarni yanada kuchaytirish, eng muhimi, ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berib, o'z asarlari, she'rlari orqali ma'rifatga chorlagan buyuk ma'rifatparvarlarimizning amaliy faoliyati va tinimsiz sa'y-harakatlari beqiyosdir. Umuman olganda, har bir davrda bo'lgani kabi bugungi kunda ham allomalar ilmiy merosini tadqiq etish, sodda va tushunarli qilib xalqqa yetkazish, ayniqsa, yoshlar ong-u shuuriga ma'rifiy jihatlarni singdirish olimlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bu borada, yunon olimi Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi" degan so'zlari negizida ham ulkan ma'no mujassam. Shubhasiz, yoshlar ertangi kun egalari, ular qanchalik barkamol bo'lsa, jamiyat shunchalik taraqqiy etadi. Bugungi avlod ham ajdodlarga munosib voris bo'lgan holda turli fan sohalarini bilishlari, ilm sirlarini chuqur egallashlari, ma'rifatli, intellektual salohiyatli, keng dunyoqarash va mustaqil fikrga ega shaxs bo'lishlarini globallashuv jarayonlari taqozo etadi. Zero, allomalar merosi bebaho ma'naviy boylik, bilim duriga limmo-lim xazinadirki, bu ilm-u irfon injulariga to'la xazina bizni hamisha tarbiyalaydi va ulug' ajdodlarga munosib avlod sifatida buyuk maqsadlar, ulkan ishlarni amalga oshirishga undaydi.

Xulosam shundan iboratki, bobolarimiz tarixsiz kelajak yo'q degan. Bundan ko'rinib turibdiki biz tariximizni bilmay turib o'z kelajagimizni qura olmaymiz. Ajdodlarimizni tarixi yosh avlodga ta'lim bilan birga tarbiya ham beradi. Shunday ekan bola yoshligidan unga ajdodlarimiz merosini o'rgatish darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R. Mavlonova, K. Xoliqberdiyev, "Pedagogika". T: "O'qituvchi nashriyoti". 2002- yil
2. "Yangi O'zbekiston" gazetasi 2021-yil 30-sentabr, 195-son.

QADRIYATLAR TRANSFORMATIYASINING GETEROMILLATLI (HAR XIL MILLATLI NIKOH) OILA NIKOHIDAGI BOLA SHAXSNING ANGLANISHIGA TASIRI

**Mamayusupova Muxlisahon Tohirjon qizi
Qo'qon universiteti talabasi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadriyatlar transformatiyasining geteromillatli (har xil millatli nikoh) oila nikohidagi bola shaxsning anglanishiga tasiri, oilada bola tarbiyasini amalga oshirish xususiyatlari, bola tarbiyasining milliy va ma'naviy negizlari hamda bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o'rni haqida batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: qadriyatlar transformatiyasi, geteromillatli, oila, milliy ma'naviy qadriyat.

Kirish: Oila ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydigan, kelajak nasl qanday bo'lib yetishishiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan ijtimoiy makon va pedagogik omil vazifasini o'taydi. Inson oilada shakllanadi. Oila muhabbat, hurmat, birdamlik va mehribonlik manbai. Aynan shu qadriyatlarga har bir rivojlangan jamiyat suyanadi.

Darhaqiqat, asrlar davomida o'z e'tirofini topgan va diniy-axloqiy qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan oilaviy munosabatlarda halol yashash, mehnat qilish, farzand tarbiyasi ijtimoiy hayot tarzini rivojlantirish manbaidir. Sharqona tarbiyada shaxsning umummadaniy dunyoqarashining shakllanishi asosi oiladan boshlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Inson farzandi ota-onadan genetik meros oladi. Unga ajdodlari genofonidan ham ulush tegadi, albatta. Buni hayotshunoslar irsiyat, deyishadi. Yorug' olamga ko'z ochgan dilbandlar dastlab oliy darajadagi moddiy qadriyatlar hisoblanmish havo, ona suti, suvdan bahramand bo'ladilar. So'ngra shaxs kamolotini ro'yobga chiqishiga asos bo'ladigan hamda uni ta'minlaydigan muhim omillardan biri oilaviy tarbiya omili boshlanadi.

Oila va oilaviy munosabatlarda shaxsning umummadaniy dunyoqarashini ilmiy tadqiq etishni uning jamiyat taraqqiyoti qonunlariga muvofiq rivojlanishini ifodalashdan boshlamog'imiz lozim. Oilaning rivojlanishi jamiyatning moddiy ishlab chiqarishi va ma'naviy hayoti bilan bog'liqdir. Oila shakllarining o'zgarishi, ibtidoiy jamiyat davridan boshlab barcha tarixiy bosqichlarda moddiy ishlab chiqarish ma'naviyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq ekanligi ilmiy adabiyotlarda keng tahlil etilgan.

Lekin jamiyatning, oilaning moddiy hayot sharoitlari o'zgarishi o'z-o'zidan ma'naviy kamolotga olib kelmaydi. Madaniy qashshoq bo'lgan odam boy bo'lib qolsa, birdaniga ma'naviy kamolot darajasiga ko'tarilib qolmaydi. Pedagog-olimlar mazkur mavzuning ta'lim-tarbiyaviy jihatlarini tadqiq etib, oilaning shaxs tarbiyasida tutgan o'rniga alohida e'tibor berib, oilaviy tarbiyani umumiy tarbiyaning bir qismi sifatidagi jihatini yoritishmoqda; psixolog olimlar oila va oilaviy munosabatlarga etno-psixologik jihatdan yondoshmoqdalar. Etnograf-tarixchilar ham oilaning kelib chiqishi va oilaviy munosabatlar madaniyatining shakllanishi bilan bog'liq masalalarga to'xtalib, oilaviy urf-odatlar, an'analar, marosimlarning yoshlar tarbiyasiga ta'sirini o'rganganlar.

Natijalar: Avlodlar o'rtasidagi, ayniqsa, oilada turli avlod vakillari, ota-ona va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasi insoniyat jamiyati taraqqiyotining ilk davrlaridan buyon eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Chunki odamzod erishgan hayotiy tajriba, bilim, malaka, ko'nikmalar, shuningdek, insoniylik alomatlari avlodlararo avlodga aynan shu munosabatlar tizimi – ona va bola munosabatlari orqali uzatiladi va bu meros boyitib boriladi. U yoki bu xalqning milliy qadriyatlariga aylanib qolgan urf-odatlar, xulq-atvor me'yorlari aynan shu avlodlararo munosabatlar orqali asrlar davomida saqlanib, sayqallanib boradi yoki aksincha. Agar avlodlararo munosabatlar maqsadga muvofiq tarzda tashkil

qilinmagan bo'lsa, ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarida salbiy sifatlar hukm sursa, bunday qadriyatlar yo'q bo'lib ketishi, ularning o'rnini yot aqidalar egallashi mumkin.

Shuningdek, xotin-qizlar haq-huquqini e'zozlash, oila daxlsizligi va mustahkamligiga erishish, ota-onalarning farzand oldidagi, farzandlarning ota-ona nazdidagi burchi, qizlarni oilaviy turmushga tayyorlash xususida ham ibratomuz fikrlar mavjud. Bu manbalarda berilgan ma'lumotlar xalqimiz uchun milliy qadriyatlarga aylanib, qariyb 12 asrdirki, itoat etib kelingan islom aqidalari tarzida genofondimizga kirib, xalq ijtimoiy ongsizligi tarzida xalqimiz ruhiyati qa'riga singib ketgan.

Muhokama: Milliy manaviy qadriyatlarning har bir tarkibiy qismi xalqning mustaqilligini mustahkamlash va kelajagini taminlashda muhim ahamiyatga ega. Xar tomonlama rivojlangan, gormonik rivojlangan, milliy qadriyatlarimizni e'zozlaydigan barkamol avlod tarbiyasida mahalla, ota-onalar va pedagoglarning ozaro xamjixatligi asosiy omillardan xisoblanadi. Milliy qadriyatlarimizni e'zozlaydigan, o'z hayot faoliyatida doimo millat g'ururi bilan ish olib boradigan yoshlarning tarbiyalanishi millat kelajagini, rivojlanishini ta'minlaydi.

Milliylik xalqning ruhiyati va manaviyati, ayniqsa, sanat va adabiyot rivojida yorqin ifodalanadi. Ezgulik va poklikni, insoniylik va haqqoniylikni kuylagan buyuk asarlar, qaysi janrda yoki qaysi tilda yaratilganidan qat'iy nazar, jahonga taniladi, pirovardida yana shu millatning xalqaro nufuzini yuksaltiradi.

Milliy manaviy qadriyatlar tizimida axloqiy sifat, diniy qadriyatlar munosib orin egallaydi va milliy ozlikni anglashning muhim sharti, omili sifatida namoyon boladi. Axloqiy va diniy qadriyatlar aksari hollarda ozaro bogliq bolib, jamiyatning manaviy yuksalishida, yosh avlod tarbiyasida birdek muhim ahamiyatga ega.

Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmugs tarzida oziga xos mezon vazifasini o'taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bolayotgan faoliyat turlari va rasmrusumlarga baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy moljallari, «zamona qahramoni» haqidagi tasavvurlari ham manaviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi.

Milliy manaviy qadriyatlar ijobiy axloqiy sifatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga toganoq boladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir. Manaviyat, qadriyatlar va milliy goya - jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, ozaro uzviy aloqadorlikda bolgan sohalaridir.

Manaviyat, milliy qadriyatlar va istikdol goyalari alohida olingan har bir shaxs hayotida ham, jamiyatdagi turli guruh va qatlamlar faoliyatida ham, umuman insoniyat taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega. Millat va davlat taraqqiyotining malum davrlarida manaviyat va milliy goya eng dolzarb, hal qiluvchi omil bo'lib maydonga chiqadi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish joizki, oilada bolalarni milliy ruhda tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar mavjud. Bu – milliy an'ana va qadriyatlar, milliy turmush tarzi, milliy tarbiya, milliy axloq va odob, uch avlod, ya'ni, bobo-buvi, ota-ona va bolalarning hamjihatlikda yashashi jarayonida eng yuksak insoniy fazilatlarini o'zida tarbiyalab, shakllantirib borishi shular jumlasidandir. Bundan tashqari, ota va onaning shaxsiy ibrati ham bolalar uchun muhim tarbiya maktabi vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. SH.M.Mirziyoev Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz.Toshkent "O'zbekiston" – 2017.
2. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – Toshkent, Universitet, 2002.
3. Hasanboyev J., To'raqulov X.A., Ravshanov O.A., Kushvaktov N.H. Milliy pedagogikamiz tarixiy ildizlari va barkamol avlod tarbiyasi. – Jizzax: 2007.
4. Ibragimova G., To'raqulov X.A., Alibekova R. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani bo'yicha yordamchi uslubiy qo'llanma. - Toshkent: Cho'lpon, 2003.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TA'LIM SIFATINI VA SAMARADORLIGINI
OSHIRISHDA XALQARO BAHOLASH STANDARTLARINING O'RNI**

Turg'unova Munisa Mirzoxid qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 1-bosqich talabasi,
Mahmudova Nodira Alisherovna
Namangan davlat pedagogika institutining katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro ta'lim standartlari asosida baholashning ahamiyati va uning samaradorligi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Globallashuv, PISA, TIMSS, PIRLS, ISSS, TALIS, ICILS, ta'lim sifati, xalqaro baholash.

Kirish: Ta'lim bor joyda tarbiya bor bo'lganidek, ta'lim sifatlil bo'lsa, mamlakat tayanchi-yoshlar har tomonlama bilimlil, kuchlil va tarbiyalil bo'lib voyaga yetadi. Ta'lim sifati ko'zgusil bo'lgan baholash tizimining isloh qilinishi, Respublikamiz umumta'lim hamda oliyl ta'lim tizimida 5 ballik baholash tizimining joriyl etilishi, monitoring jarayonlari, reyting va modullil tizim kabilarning sinab ko'rilayotganligi hali bu boradagi muammolarga keng qamrovli taklif va yechimlar kutilayotganini yana bir bor isbotlaydi. [1] Baholash – ta'lim jarayonining ma'lum bir bosqichida o'quv maqsadlariga erishganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarini aniqlashdan va tahlil qilishdan iboratdir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek ta'lim va o'qitish sifatlil baholashning xalqaro standartlarini o'rganish, tajribada sinab ko'rish, ularni amaliyotga tatbiq qilish orqali ta'lim muassasalari sifatlil va samaradorligini yanada oshirish zarur. [2] Global o'zgarishlar davri, ta'lim tizimida ijtimoiyl jarayonlardan kelib chiqqan holda, shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod shakllantiriladi. Maktabda olingan bilim insonning kelgusi hayot yo'lini belgilaydi. Ko'pchilik bilimni baho bilan o'lchaydi. Ammo baho bilimni belgilovchil aniq me'zon emas. U o'quvchilarni faollikka undovchil, rag'batlantiruvchil vosita, xolos. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2017- yil 16-sentyabrdagi "2017-2018 o'quv yilida ta'lim sifatlil monitoring tizimini yanada takomillashtirish va tashkil etish to'g'risida"gi 299-sonli buyrug'ining 3-band 2- xat boshida: - monitoring jarayonini tashkil etish, nazorat materiallari va turlarini ishlab chiqishda ilg'or xalqaro tajribalar (PISA, TIMSS va h.k.)ni o'rgangan holda milliy monitoring tizimini takomillashtirish va uning natijalari asosida o'quv-metodik jarayonni yanada rivojlantirish choralarini ko'rish; 4-bandida: - monitoring jarayoni uchun nazorat (testlar, yozma ishlar, so'rovnoma, og'zaki savollar, audio(video) materiallarini tayyorlashda ularning umumiy hajmiga nisbatan 20% gacha o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlariga mos keladigan, o'quv dasturi va darsliklardan ttashqari, xalqaro tajribalarda (PISA, TIMSS va h.k.) qo'llanilgan materiallardan foydalanish mumkinligi belgilab qo'yilgan.Respublikamizda amalga oshirilayotgan bu kabi islohotlarning natijasi ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishishga olib keladi va bu holat malakali kadrlar va yetuk mutaxassirlarga bo'lgan ehtiyojning yanada oshib borishiga turtki bo'layotganini guvohi bo'lyapmiz. Ta'kidlash lozimki, o'quvchilarning bilim va malakasini umumiy ravishda tahlil qilish mamlakatdagi ta'lim sifatlil darajasini belgilaydi. Shu maqsadda o'quv yili davomida har bir ta'lim muassasasida ichki va tashqi monitoring o'tkazib boriladi. Uning natijasiga ko'ra, eng namunali maktablar ketmaketligi, o'qituvchilar salohiyatlil va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi aniqlanadi. Bu jarayon ta'lim taraqqiyotini belgilovchil muhim mezon bo'lgani uchun Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari bilimini

baholash bo'yicha xalqaro dasturlarni amaliyotga joriy etish maqsadida ilk qadamlar tashlandi. Ya'ni, o'quvchilar bilimni xalqaro talablarga yetkazish, unga mosligini o'rganib borish maqsadida xalqaro baholash dasturlarini keng qo'llash rejalashtirilmoqda. Bunday talabning qondirilishi, o'z navbatida, o'quvchilar o'rtasida kitobxonlik va darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishning zamonaviy ijtimoiy innovatsiyalar orqali amalga oshirish ehtiyojini vujudga keltirmoqda. Xususan, dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O'quvchilarni ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) PIRLS (matnni o'qish va tushunish sifatini aniqlash xalqaro tadqiqoti), ISSS (fuqarolik ta'limi sifatini aniqlash xalqaro tadqiqoti) TALIS (o'qituvchilar korpusi sifatini xalqaro taqqoslash tadqiqoti) ICILS (kompyuter va information savodxonlikni aniqlash xalqaro tadqiqoti) mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida qo'llanilib kelinmoqda. PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtirok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Mazkur tadqiqot o'quv yutuqlarini baholash xalqaro Assosatsiyasi tomonidan tashkil etilgan. Tadqiqotda ishtirok etadigan maktablar ikkita parallel sinfi bo'lgan umumiy maktablar orasidan maxsus metodologiya asosida kompyuter yordamida tasodifiy tanlanadi. PIRLS tadqiqoti jarayonida ikki turdagi o'qish baholanadi: - adabiy o'qish tajribasini egallashga qaratilgan o'qish; - ma'lumotlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish maqsadiga qaratilgan o'qish. Tadqiqotning konseptual g'oyalariga asosan badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o'qish darajasini baholashda 4 turdagi o'qish ko'nikmalari baholanadi:

- yaqqol ko'rinishda berilgan ma'lumotlarni toppish;
- o'qilgan matn asosida xulosalarni shakllantirish;
- axborotlarni umumlantirish va interpretatsiya qilish;
- matnning strukturasi, tilga xos xususiyatlarni mazmunini baholash va taxlil qilish.

PIRLS doirasida bajarilgan ishlarni miqdor va sifat ko'rsatkichlari asosida baholash maqsadida quyidagi baholash tizimidan foydalaniladi:

- javobini tanlashga oid topshiriqlar 1 ball bilan;
- voqea xodisalarning ketma-ketligiga oid topshiriqlar va qarorlar 1 ball bilan;
- javobi yoziladigan ochiq turdagi konstruktive xarakterdagi topshiriqlar qiyinchilik darajasiga ko'ra 1 ball dan 3 ballgacha baholanadi. [4]

Albatta bunday tadqiqot xalq ta'limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son. 2018.05.06
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari.
3. OECD PISA Strong Performers and Successful Reformers in Education. Paris 2014- 193-b
4. Vaxobov M. M. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitish sifati monitoringi modelini takomillashtirish.T., 2016-yil 61-bet.

SHAXSNING SALBIY XULQ-ATVORI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR

**Muxtorov Alijon,
Aliyeva Iqlimaxon
Qo'qon universiteti talabasi,
Asilova Sanobarxon
Qo'qon universiteti Ta'lim fakulteti
Ta'lim kafedrası o'qituvchisi**

Annotatsiya: Mazkur tezisdá shaxsing ya'ni individning xulqi shakllanishida birinchi navbatta unga atrof muhitdagi insonlarning munosabatlari juda ham muhim ta'sir qilishi haqida quyida batafsil nazariy jihatdan ma'lumotlar keltirib o'tildi. Deviant xulq nima ekanligini va bu xulqning ta'siri haqida deviant xulqga chalingan yoshlar albatta boshqalarga ham ta'sir etishlari haqida ma'lumotlar berib o'tildi.

Kalit so'zlar; huquqbuzar, shaxs, deformasiya, mexanizm, pedagogika ziddiyat, o'smir

Shaxsning tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirga kirishishi juda murakkab va qizg'in jarayondir. Shu sababli har qanday odamning shakllanish shart-sharoiti rang-barangdir. O'z-o'zidan ravshanki, ushbu shart-sharoit eng avvalo vaqt mezoni - shaxsning yosh xususiyatlari bilan bog'liq. Shu bois mazkur jarayonni voyaga etmaganlar misolida kuzatish maqsadga muvofiq boladi deb o'ylaymiz. B.G. Ananev fikriga ko'ra, yoshlami rivojlanishning ruhiy-fiziologik ko'rsatkichlariga asosan tasniflash odam hayot tarzi o'zgarishi bosqichlarining quyidagi zanjirini o'z ichiga oladi: go'daklik (tug'ilgandan 18 oyga to'lgunga qadar); ilk bolalik (19 oydan 5 yoshga to'lgunga qadar); bolalik (5-12 yosh); o'spirinlik (12-15 yosh); o'smirlik (16-19 yosh); yoshlik (20- 30 yosh); o'rta yosh (30-40 yosh); qarilik; mo'ysafidlik. Har bir yosh o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular, tabiiyki, xulq-atvorda ham namoyon boladi.

Shaxs nimani va qanday bilishi (gnoseologik salohiyat), nimani va qanday baholashi (aksiologik salohiyat), nimani va qanday yaratishi (ijodiy salohiyat), kim bilan va qanday muomala qilishi (kommunikativ salohiyat), badiiy ehtiyojlari qandayligi va ularni qanday qondirishi (badiiy salohiyat) bilan belgilanadi. Shunday qilib, inson faoliyatining quyidagi besh asosiy turi farqlanadi: 1) o'zgartiruvchi faoliyat; 2) bilish faoliyati; 3) qadriyatlarni belgilash, va moljal olish faoliyati; 4) kommunikativ faoliyat; 5) badiiy faoliyat. Shaxs rivojlanishining har bir bosqichiga har xil faoliyat turlarining muayyan o'zaro nisbati va ularning alohida mazmuni xosdir. Psixologlarning ta'kidlashicha, inson hayoti kommunikativ faoliyatning shakllanishi va uning mexanizmlarini o'zlashtirishdan boshlanadi. Bolaning rivojlanishida yangi bosqich 3 yoshdan boshlanadi. Mazkur bosqich ijodiy faoliyatga o'tish bilan tavsiflanadi (devorga, mebelga rasm chizish va hokazo). Bu, ayniqsa, bolalaming o'yinlarida yorqin namoyon bo'ladi. Shu davrda bolaning kattalarga nisbatan emansipasiyasi boshlanadi. Bu bolaning muayyan darajada erkinlashuviga va unda nafaqat o'z tengdoshlari, balki kattalar bilan ham muloqot qilish ehtiyoji tug'ilishiga olib keladi. Inson rivojlanishining uchinchi bosqichi uning maktabda o'qishi bilan bog'liq. Bu erda bilish bola faoliyatining etakchi turiga aylanadi. Inson rivojlanishining to'rtinchi bosqichi (o'smirlik)da qadriyatlarni belgilash va mo'ljal olish faoliyati birinchi o'ringa chiqadi. Beshinchi bosqich o'zgartirish faoliyati inson faoliyatining asosiy turiga aylanishi bilan bog'liq. Inson hayotidagi oxirgi bosqich boshqalar bilan muloqot yana etakchi faoliyat turiga aylanishi bilan tavsiflanadi.

Voyaga etmagan huquqbuzarlar shaxsining rivojlanish bosqichlarini tahlil qiladigan bo'lsak, bu sohada to'plangan tajriba voyaga etmaganlar muhitida huquqbuzarliklarga imkoniyat yaratuvchi holatlar shaxs jinoiy javobgarlikka to'lmasdan turiboq ta'sir eta boshlashini ko'rsatadi. Shunga asoslangan holda, voyaga etmagan huquqbuzarlar shaxsining deformasiyalashuvi shart-sharoitlarini o'rganishda quyidagi yosh guruhlarni tadqiq qilish

maqsadga muvofiq bo'ladi: 11-13 yosh; 14-15 yosh, 16-17 yosh. 11-13 yoshlilarda g'ayriijtimoiy xulq-atvoming shakllanish mexanizmini quyidagicha tavsiflash mumkin. Pedagogikada «beshinchi sinflar muammosi» mavjud bo'lib, boshqa o'ziga xos xususiyatlaridan tashqari, ushbu hodisa beshinchi sinfda o'smirlar davomati pasayib ketishi bilan ham tavsiflanadi.

Davomatning pasayishi uch xil ziddiyatga: - o'smir va o'qituvchi o'rtasidagi ziddiyatga; - o'smir va sinf o'rtasidagi ziddiyatga; - o'smir bilan ota-ona o'rtasidagi ziddiyatga sabab bo'ladi. Ziddiyatlar o'z vaqtida hal qilinmasa, o'smir asosiy ijtimoiy kollektivlardan «siqib chiqariladi». Ammo bu yoshdagi o'smirning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u yakkalanib yashay olmaydi. O'smir o'ziga teng deb qaraydigan tengdoshlari guruhini qidiradi. Shu tariqa o'smirlarning salbiy guruhlari shakllanadi. Bu yerda o'zini namoyon qilishning maktab yoki oiladagidan ancha farq qiladigan usullari amal qiladi. Chekish, kissavurlik, mayda o'g'irliklar, psixotrop moddalar yoki spirtli ichimliklar iste'mol qilish, maktabda «a'lochilar»ni do'pposlash shular jumlasidandir. Shaxs shakllanishining mazkur bosqichida ijtimoiy profilaktika zamirida yuqoridagiga o'xshash ziddiyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar kompleksi yotishi mumkin. Eng samarali yo'l - barcha ijtimoiy kollektivlarda o'smirlar o'zini namoyon etishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berish. Har bir o'smir o'zini nafaqat o'qishda, balki sportda, texnik ijodda, badiiy havaskorlikda va hokazolarda o'zini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'iishi lozim.

O'smir navbatdagi bosqichga (14-15 yosh) o'tishi jarayonida bir qancha o'zgarishlar ro'y beradi. Ushbu bosqichda o'ziga nisbatan hurmatga ehtiyoj o'smiringa xos bo'lgan asosiy xususiyatdir. Bunga erishish uchun u erkinlikka, mustaqillikka, o'z tengdoshlariga orasida do'vruq taratishga harakat qiladi. Natijada u ziddiyatli holatlarga juda ko'p to'qnash keladi. Shu yoshda o'smiring xulq-atvorida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi. Garchi mazkur yosh guruhining jinoiy faolligi 16-17 yoshlilarga qaraganda kamroq (15-20%) boisa-da, ushbu yoshda jinoyat sodir etish xavfi yuqoridir. Kriminologik tadqiqotlar shaxs jinoiy faoliyat yo'lga qancha erta kirsa, bu faoliyat shuncha uzoq davom etishi va xavfliroq tus olishini ko'rsatadi. Bir necha marta jinoyat sodir etgan shaxslarning aksariyati birinchi jinoyatni balog'at yoshiga toimay turib sodir etganlar. O'smir shakllanishining ushbu bosqichida umum ijtimoiy profilaktika chora-tadbirlari zamirida, eng avvalo, axloqiy, ma'naviy va mehnat bilan bog'liq tarbiyani takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi yotadi.

Malumki, 16-17 yoshda o'smirda faol fiziologik o'zgarishlar ro'y beradi. Shaxs rivojlanishi mazkur bosqichining o'ziga xos xususiyatlarini tushunib etish uchun jinsiy rivojlanishning psixologik va sosiologik masalalari juda muhimdir. Erkinlik va ijozat chegaralari kengaygan, ijtimoiy va jinsiy rivojlanish o'rtasidagi tafovut esa tobora kattalashib borayotgan hozirgi davrda bu holat ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu holatga (u voyaga etmaganlar jinoyatlarining 80-85% ni sodir etadi) deformatsiyalashgan xulq-atvoming murakkab shakllari xos bo'lib hisoblanadi. Shaxsning shakllanish shart-sharoiti uning ijtimoiylashuvi darajasi, ya'ni odam ijtimoiy zarur fazilatlamini o'zlashtirish jarayoni bilan ham bog'liq bo'lib, bu jarayon ham juda murakkab hamda bir nechta bosqichlardan iborat: 1) muhitga qo'shilish; 2) muayyan ijtimoiy vazifa, funktsiya, norma, huquq va burchlarni o'zlashtirish; 3) muhitga moslashish va unga faol ta'sir ko'rsatish; 4) ijtimoiy mo'ljallar barqaror tizimining shakllanishi. Sosiologiya fanida shaxsning ijtimoiylashuvi mexanizmi va sohalari farqlanadi. Ijtimoiylashuv mexanizmi - inson ijtimoiy axborotni idrok etishi va o'zlashtirishga yordam beruvchi vositalardir.

Psixologlar fikriga ko'ra, bunday vositalar qatoriga ta'sir ko'rsatish, moslashtirish, ishontirish, taqlid qilish, boshqarish, yoi-yo'riq ko'rsatish va hokazolar kiradi. Ijtimoiylashuv sohalari - ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy institutlar bo'lib, bunda makromuhit (ijtimoiy munosabatlar tizimi) va mikromuhit (oilalar, maktab, yaqin maishiy,

oshnaog'aynilar muhiti va boshqa muhitdagi munosabatlar) farqlanadi. Ijtimoiy muhit odamlar hayoti va faoliyatida muhim o'rin tutadi. Ammo shaxsning shakllanishi nafaqat jamiyatdagi moddiy, siyosiy va mafkuraviy munosabatlarga, balki o'zi yashayotgan muhitga, unda amal qiluvchi qadriyatlar, an'analar va qoidalar tizimiga ham bog'liqdir. Ijtimoiylashuv jarayoni turli ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladi. Ijtimoiylashuv institutlari - bu maxsus tuzilgan yoki tabiiy tarzda vujudga kelgan muassasa va organlar tizimidir. Ularning vazifasi va faoliyati awalo ta'lim-tarbiya berish yo'li bilan shaxslami ma'nan rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ijtimoiylashuv jarayonini amalga oshirish ikki o'ziga xos xususiyatga egadir. Birinchidan, shaxs rivojlanishining har bir yosh bosqichi o'zining asosiy ijtimoiylashuv institutiga ega bo'ladi. Ikkinchidan, turli yosh bosqichlaridagi ko'pgina ijtimoiy institutlar har xil darajada ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiylashuv institutlari orasida asosiy vazifasi insonning tabiiy xossalarini rivojlantirishdan iborat bo'lgan institutlar guruhini alohida qayd etish lozim: 1) oila hamda bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari (asosiy faoliyat turi - o'yin); 2) asosiy vazifasi ta'lim berishdan iborat bo'lgan institutlar: maktab, lisey, gimnaziya, kollej, o'rta maxsus o'quv yurti, oliy o'quv yurti (asosiy faoliyat turi - o'qitish); 3) asosiy vazifasi amaliy faoiyatdan iborat bo'lgan boshqa barcha institutlar (asosiy faoliyat turi - mehnat qilish). Yuqoridagilami inobatga olgan holda, quyidagicha xulosaga kelish mumkin: 1) ijtimoiylashuvning muayyan sohalar shaxs rivojlanishining turli sohalarida har xil ahamiyatga ega bo'ladi; 2) shaxs rivojlanishining turli bosqichlarida institutlar, ularning uyg'unligi, ta'siri o'zgarib boradi; 3) sohalar sonining ko'payishi shaxs ijtimoiy vazifalari doirasining kengayishiga sabab bo'ladi.

Endi shaxs ijtimoiylashuvining salbiy omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan eng muhim institutlarini ko'rib chiqamiz. Shaxs ijtimoiylashuvining birinchi va eng muhim institud oiladir. Shaxsning 65 axloqiy va ma'naviy shakllanishiga oila juda katta ta'sir ko'rsatadi. Hissiyotga tez beriluvchanlik, ta'sirchanlik, sezgirlik, hushyorlik, mehribonlik kabi fazilatlar eng avvalo oilada, bolalarning o'z ota-onasi, yaqinlari bilan o'zaro munosabatlarida shakllanadi.

Oila ijtimoiylashuv instituti sifatida bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga egadir: 1) U birinchi va shaxs shakllanishining muayyan bosqichida birdanbir ijtimoiylashuv instituti hisoblanadi. 2) Oiladagi tarbiya boshqa har qanday tarbiyaga qaraganda ruhiy jihatdan kuchli bo'lib, bolaning oila ta'siriga bo'ysumshini belgilab beradi. 3) Oila bolani ijtimoiy hayotga asta-sekin va har tomonlama jalb qilish uchun eng yaxshi imkoniyatlarga egadir. Shu sababli hatto eng yaxshi bolalar uylarining tarbiyalanuvchilari ham rivojlanishda oilada tarbiya ko'rgan bolalardan ortda qoladi. Shaxsda salbiy xususiyatlar shakllanishiga olib keluvchi oilada noto'g'ri ma'naviy va axloqiy tarbiya berish bir qancha ob'ektiv va sub'ektiv holatlar bilan belgilanishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki shaxs rivojlanishi va shakllanishida avvalo insoniyat rivojlanishida birinchi navbatta insonni tashqi atrofidagi vaziyatni yaxshilash va atrof muhitdagi bosimni kamaytirish kerak. Shundagina individning kelajagi yaxshi tarafga o'zgaradi va uni kelajagida jinoiy ishlarga moillik deviant xulqga moillik sezilarli darjada kamaydi. Bu tajribani rivojlangan davlatlardan biri AQSH ham o'zida sinaydi ular ham huddi shu narsaga ya'ni behaviorizmga ko'proq e'tibor qaratadi.

Foydalanilgan adabiyot ro'yxati:

1.I.M.Xakimova "Deviant xulq-atvor psixologiyasi" I bob "Meyorrdan og'uvchi xulq-atvorning shakllanish sabablari va turlari" 10 b.

2. <https://cyberleninka.ru/article/n/glaballashuv-jarayonlari-va-uning-zamonaviy-sharoitlarida-tarbiyaga-ta-siri>

3.Olimov.L. Y "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi"

OTA-ONA-BOLA MUNOSABATLARI TIZIMI

Muxtorov Alijon
Qo'qon universiteti Ta'lim fakulteti ta'lim kafedrası
Amaliy psixologiya yo'nalishi talabasi,
Faxriddin Hamidullayev
Qo'qon universiteti
Ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkuz tezisda ota-ona, bola munosabatlari haqida fikr yuritildi. Oila va nikohning yaralishi uning naqadar muqaddasligi ajrimning bola psixologiyasiga qanchalik zarari bor ekanligi va bu zarar keyinchalik kelajakda ziyoni borligi haqida ma'lumotlar yig'ildi tahlil qilindi va statistic tahlil olinib yozib o'tildi quyida berilgan mavzuga doir malumotlar jamlandi va xulosa va takliflar berib o'tildi.

Kalit so'zlar: oila barqarorligi, tinch oila, ichki kechinmalar, farzand tarbiyasi, reproduktiv ustanovkalar

Oila va nikohning paydo bo'lishiga sababchi omillardan biri, ayniqsa, bizning sharoitimizda, farzand tug'ilishidir. Farzandsiz er-xotin aloqalarini, umuman oilaviy munosabatlarini tasavvur qilish mushkul. Ilmiy manbalar tarixan insoniyat ota-ona va farzandlar munosabatlari o'ziga xos bosqichlar va rivojlanish qonuniyatlarini boshidan kechirganligidan guvohlik beradi. Bashar tarixi shundan dalolat beradiki, zamonlar osha ota-onaning bolaga nisbatan xususiy mulkday qarab, uning ustidan hukmronlik qilishi borgan sari farzand ehtiyojlari bilan hisoblashish, uning barcha istaklarini bajo keltirib, unga cheksiz g'amxo'rlik ko'rsatishgacha bo'lgan munosabatlarga aylangan. Ota-ona – bola munosabatlarini agar tarixiy davrlarga bo'ladigan bo'lsak, ota-onaning bolaga yondoshuv usullari bo'yicha qator bosqichlarni boshdan kechirganligini ko'rish mumkin.

Olimlarning tavsiflashicha, antik davrlarda erkak va ayol aloqalari oqibatida farzand tug'lsa, unga deyarli befarq qarash, ya'ni, infantisid munosabat kuzatilgan, bunday munosabat mohiyatan shafqatsizlikka asoslangan bo'lib, bolani dunyoga keltirganlar uchun uning nasl-nasabi, taqdiri unchalik ahamiyatli bo'lmagan. Yangi asrga kelib, bu munosabatlar tubdan o'zgargan, odam zotida egoizm, o'ziga tegishli narsaga nisbatan egalik hissining takomillashib borishi o'zidan bo'lgan zurriyodga nisbatan munosabatlarda ham o'z aksini topgan.

Mulkchilik shakllarining o'zgarishi, turmush tarzi qadriyatlariga monand kattalarning bolaga nisbatan his-kechinmalari ham o'zgarib borgan. Masalan, XIX asrning boshlari XX asrlarning o'rtalariga kelib, ota-onalar farzandlarining jamiyatda tutajak o'rinlari, ularning ijtimoiylashuviga alohida e'tibor bera boshlaganlar. Keyingi davrlar esa kattalarning kichiklar taqdiriga befarq emasligi, ularni qo'llab-quvvatlash, rivojlanishiga ko'maklashishning ahamiyatini anglash davri bo'lgan. Bu an'ana deyarli bizning davrimizda ham davom etib kelmoqdaki, endilikda tug'ilgan bolaga e'tibor oilaning barcha qadriyatlaridan ustun ham keladi. Lekin bunday g'amxo'rlik psixologiyasi ham madaniy-tarixiy o'ziga xoslikka ega. Masalan, ayrim xalqlar (aksariyat Yevropa xalqlari) bolaga u kichikligida juda katta mehr va g'amxo'rlik ko'rsatadi, taxminan o'smirlik davridan boshlab, uning erkinligi tan olinadi va ota-ona tomonidan beriladigan tarbiya usullari o'zgartirilib, unga kattalarcha munosabatlar barqarorlashadi. Boshqa bir madaniy-etnik hududlarda, aksincha, farzand balog'atga yetgani sari ota-onaning unga e'tibori kuchayadi. Masalan, Osiyo xalqlari, xususan, o'zbeklarda ham oila kattaligi va serfarzandligi bois, bolalarning kichik yoshdagi rivojlanish xususiyatlariga tabiiy holatday qarab, juda katta qayg'urish bilan uning ma'naviy, ruhiy rivojlanishiga e'tibor qaratilmaydi. Lekin qiz bola balog'atga yetib, ko'rkamlashib borgani sari, o'g'il bolaning

qo'ldan ish kelib, qatorga qo'shilgani sari, ota-onada ulardan g'ururlanish, taqdiriga kuyunish, g'amxo'rlik ko'rsatish ham ortib boradi. Bunday g'amxo'rlik shu qadarki, uylangan o'g'ilning qadam bosishlarini ham hamon ota-ona nazorat qilaveradi, bu ba'zan, qaynona-kelin munosabatlarida, yoki ota-o'g'il munosabatlarida tarangliklarni, nizolarni keltirib chiqaradi.

Oilada farzand tug'ilishi, uning soni va tarbiya berish imkoniyatlari masalasi har doim ham dolzarb bo'lgan. Lekin ayrim G'arb davlatlarida, jumladan, Rossiyada oilada bola sonining keskin kamayib ketishi munosabati bilan er-xotinning reproduktiv huquqi, madaniyati va xulqi masalasi ayni davrda o'ta dolzarb masaladir. Rus olimi S.P.Kapisaning (1999) pessimistik bashoratiga ko'ra, Rossiyada 1995–2025 yillar oralig'ida tug'ilishning kamayishi 2 mln.dan (optimistik bashorat) 32 mln.gacha tushib (pessimistik bashorat) ketadi, bu raqamga 1995 yilgi 147,9 mln. aholi soni asos qilib olingan. Shuning uchun jahon olimlari, Xalqaro aholishunoslik jamg'armalari (jumladan, YuNFPA, YuNISEF) oilada sog'lom bola tug'ilishi siyosati orqali Yer yuzining turli mintaqalarida reproduktiv xulqni muvofiqlashtirish masalasiga alohida e'tibor berib, konkret tadqiqotlar o'tkazmoqda. Bunday asosiy muammo – onaning reproduktiv xulqini boshqarish va muvofiqlashtirish, uning salomatligini muhofaza qilish, sog'lom zurriyod tug'ilishini kafolatlashdir.

Reproduktiv xulq – bu oilada farzand tug'ilishi bilan bog'liq xulqdir. U oila a'zolarini o'z davrining fuqarosi sifatida ijtimoiy kelib chiqishi, yoshi, salomatligi darajasi, madaniyatiga bevosita bog'liq bo'lgan xatti-harakatidir. Bu harakatlarning asl motivi avvalo insondagi o'zidan nasl qoldirish, oilada er-xotinlik burchini ado etishga bo'lgan ishtiyoq va layoqatga borib taqaladi. Rossiyalik ayollar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlarga ko'ra, ular xohlagan bola soni (2,8) real bolalar sonidan ancha ortiq. Shundan A.Antonov, ayni davrda odamlar o'z reproduktiv vazifalarini ado etmayaptilar, deb xulosa qiladi. Ko'pincha, reproduktiv xulqning motivlari odamning boshqa turdagi faoliyat motivlari ta'sirida so'nib bormoqda, avvalo bu harakat oilada sodir bo'lsa-da, u ayol kishining shaxsiy ishiday tasavvur etiladi va ayolning bola tug'ib berish orqali o'zini namoyon etishi, erining munosabatlarini keskin o'zgartirish, unga ta'sir (tazyiq) ko'rsatish, ustidan hukmron bo'lish, kimnidir sevish va unga g'amxo'rlik qilish ehtiyojini qondirishga borib taqaladi. Quyidagi

1-jadvalda A.Antonov o'tkazgan tadqiqotlar asosida reproduktiv ota-onalik ko'rsatkichlari keltirilgan. Oilada er-xotinning reproduktiv ko'rsatkichlari haqida ma'lumot

(A.I. Antonov tadqiqotlari bo'yicha)

Reproduktiv ota-onalik ko'rsatkichlari	1935-1940 y.y.	1975-1979 y.y.	1995 yil
Reproduktiv davrning davomiyligi	18,8	7,2	2,5
Nikohga kirgan ayollarning o'rtacha yoshi	24,0	22,9	22,5
Nikohga kirgandan to bola tug'ilguncha bo'lgan davr	1,9	1,3	1,1
Birinchi farzand tug'ilgan paytda onaning o'rtacha yoshi	25,9	24,2	23,6
Farzandlar tug'ilishi orasidagi davr	5,5	4,2	2,6
Oxirgi farzandini tuqqanda onaning o'rtacha yoshi	44,7	31,4	26,1
Reproduktiv davrning davomiyligi	20,7	6,7	3,6

(1-jadvalda)

Raqaamlardan so'nggi 60 yildan ziyod vaqt oralig'ida ayollarning ertaroq turmush qurishi, reproduktiv funksiyalarning yomon bajarilishi, ya'ni ushbu davrning qisqarib borayotganligi, onalik davrining ham kamligi, erta yoki o'ta kech ona bo'lish holatlarining kuzatilayotganligi ayon bo'lib turibdi. Demak, reproduktiv xulqning asosiy parametrlarida jiddiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Bu kabi muammolar O'zbekiston uchun ham xosdir. Lekin bizda xotin-qizlarning reproduktiv madaniyati va ustanovkalari Yevropa mamlakatlaridagidan farq qiladi.

Mamlakatimiz aholisining reproduktiv ustanovkalarini o'rganish bo'yicha olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ayni paytdagi farzandlar soni – real bola soni so'raluvchilarda shahar bilan qishloqda o'ziga xoslikka ega (2-jadval). Masalan, 2002 yilda shaharlik respondentlarning 34,9 foizi 2 ta farzandga, salkam 30 foizi 3 ta farzandga ega bo'lsa, bu raqamlar 2004 yilda mos ravishda 33,6 va 25,2 ni tashkil etdi.

Qishloq oilasidagi real reproduktiv ustanovka 2002 yilda 37,7 foizi 2 ta, 24,0 foizi 3 ta, 19,2 foizi 1 ta bolali bo'lgan bo'lsa, 2004 yilda 2 va 3 nafar farzandlilar kamaygan, negadir ko'pbolalilar oshgan, bu raqamlarni yana bir takror tekshirish kerak. Chunki 2003 yilda Farg'ona vodiysi, Samarqandda o'tkazilgan tadqiqotlarida ko'p bolali oilalar soni keskin kamaygan.

"Nechta farzandingiz bor?" savoliga berilgan javoblar

Ideal ustanovkalar (2-jadval) 2002 yilga nisbatan 2004 yilda 2 ta farzandli oila hisobiga o'zgargan: masalan, "Ijtimoiy fikr" ma'lumotlarida ham 2002 yilgi 31,6 foiz, 2004 yilda 35,6%ga ko'tarilgan. "Oila" markazining ma'lumotlarida ham 15,6 foiz 26,5 foizga o'zgargan. 4 nafar va undan ortiq bolali oilalar "Oila" markazi hisobotlarida kamaygan: 42,4 dan 30,8 ga, lekin

"Sizningcha oilada nechta farzand bo'lishi kerak?" savoliga olingan javoblar ("Ijtimoiy fikr" va "Oila" markazi ma'lumotlari)

Yillar	Tashkilotlar	1 ta	2 ta	3 ta	4 va undan ortqi	Boshqa javoblar
2004	"Ijtimoiy fikr"	2,7	35,6	27,5	24,4	4,9
	"Oila"	3,4	26,5	33,8	30,8	5,5
2002	"Ijtimoiy fikr"	2,2	31,6	29,0	28,8	4,1
	"Oila"	0,7	15,6	33,2	42,4	8,1

(2-jadval)

Ko'rib turganimizdek, reproduktiv madaniyat oshgani sari real va ideal ustanovkalarda ham muayyan o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Muhimi – yurtdoshlarimiz bugungi kunga kelib, oilada farzandning borligi uning mustahkamligi omili ekanligini chuqur anglagan holda, sog'lom onadan tug'ilgan sog'lom bola uning baxt-saodati ekanligini to'la anglaydilar. Shu bois ham olib borilayotgan targ'ibot-tashviqot ishlari, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faollashib borayotgan o'rni ularning reproduktiv xulqlariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Farzandlar soni	"Ijtimoiy fikr"		"Oila"	
	Shaxar	Qishloq	Shaxar	Qishloq
1	16,4	9,8	17,4	19,2
2	33,6	20,6	34,9	37,7
3	25,2	21,2	29,4	24,0
4	12,7	27,9	10,2	16,2
5 va undan ko'p	12,1	27,9	0	1,5

(3-jadva)

Yuqorida qayd etilgan davrlarda tabiiy, ota-ona farzandlarini tug'ish, tarbiya qilish va jamiyatga tayyorlashda o'ziga xos metodlarni qo'llagan. Boshida o'zidan ajratishni, hayotga

tayyorlashni ham bilmagan ota-ona bora-bora bolani jamiyatda ijtimoiylashuviga ahamiyat beradigan, shu jarayonga yordam beradigan bo'lib borgan, ota-onadagi egoizm bolalardagiga aylanib borganki, hozirgi davrda ko'pgina ota-onalar farzandlarining faqat o'zini o'ylashi, ota-onani tushunmasligidan noliydigan ham bo'lib qolgan. Lekin aslida tarixiy rivojlanish tendensiyalariga e'tibor berilsa, bunga faqat ota-onalarning o'zlari aybdordirlar. Shuni aytish munkinki bola bu misoli oq qog'ozdir unga nimani chisangiz shuni o'qiysiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf: Baxtiyor oila
2. Shayx Abdulaziz Mansur: Baxtli oila
3. Oilam bilan har kuni bir hayot darsi o'rganamiz (Tarbiya kitobi)
4. Zebiniso Ahmedova: Oila diplomatiyasi
5. Oilada sevgi suhbatlari

XALQ O'YINLARI ORQALI BOLALARDA JISMONIY BARKAMOLLIKNI TARBIYALASH

Nabijonova Saida
Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim
yo'nalishi 3-kurs talabasi,
Sadriddinova Zulfuya Mirzaliyevna
Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola milliy xalq o'yinlari va milliy urf odatlarimizni o'zida mujassamlangan O'zbek xalq o'yinlari, ularning jamiyatdagi va yosh avlodni tarbiyalashda tutgan ahamiyati haqida so'z boradi. Xalq o'yinlari orqali bolalarda jismoniy barkamollikni tarbiyalash va maktabgacha ta'lim tarbiyada zamonaviy jismoniy tarbiyani madaniyatini shakllantirishda ulkan ahamiyatga egadir.

Kalit so'zlar: Vatanga muhabbat, xalq o'yinlari, milliy qadriyatlar, YUNISEF, Infratuzilma, pedagog, koordinatsiy

Prezidentimiz. "Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy etuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi" deb aytgan gaplari maktabgacha talim tashkilotlarida asos bo'lib xizmat qilmoqda. "Bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy hislatlar shakllanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz-ijtimoiy ahvolidan qat'i nazar, bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat". Ushbu maqsadlarni ro'yobga chiqarish maqsadida 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq o'yinlari bolalarning jismonan barkamol bo'lishiga xizmat qiladi. Xalq o'yinlari maktabgacha yoshdagi bolalarda botirlik, epcillik, tezkorlik, muvozan'atni saqlash, qaddi-qomatni shakllantirish kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirishda juda samarali rol o'ynaydi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy harakatli o'yinlar orqali bolalarni mashq qildirish quyidagi ijobiy aqliy sifatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. Odob-axloq, topqirlik, ong osti rivoji, xotira, diqqatning rivojlanishi kabi xislatlarni sayqal toptirishda va albatta sog'liqni mustahkamlashda samarali vosita bo'lib kelmoqda.

Xalq o'yinlari bolaga barcha sohalarda ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin: masalan jismoni, intellektual hissiy va kommunikativ. Xalq o'yinlari bolalar salomatligiga foyda keltiradi, yurak qon tomir, nafas olish tizimini yaxshilaydi mushaklarini va suyaklarini mustahkamlaydi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash mumkinki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning yetuk shaxs sifatida rivojlanishi, hayotiy bilim va ko'nikmalarining shakllanishida xalq o'yinlar alohida o'rin egallaydi. Insoniyatning har tomonlama rivojlanishining umumiy tizimida bola tarbiyasi muhim o'rin tutadi. Maktabgacha yoshdan boshlab salomatlik, jismoniy rivojlanish asoslari qo'yiladi, vosita ko'nikmalari shakllanadi, jismoniy fazilatlarini tarbiyalash uchun poydevor yaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ketma-ket rivojlanib, jismoniy tarbiya bilan katta zavq bilan shug'ullanadilar. Ular, ayniqsa, xalq o'yinlariga qiziqishi katta.

Xalq an'analari tadqiqotchisi V. M. Grigoryevning so'zlariga ko'ra, "Xalq o'yinlarining alohida ahamiyati shundaki, unda bola o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyatini namoyish etadi. U ataylab qabul qilingan rol qoidasi talab qiladigan tarzda harakat qiladi. Bundan tashqari, o'yinda o'zini tutish qoidalariga rioya qilgan holda, bola xohlagan narsasidan voz kechishi, o'zini tutishi, xohlaganicha harakat qilmasligi mumkin" degan edi.

Bola o'yin davomida tengqurlari bilan do'stlashadi. Y.A. Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda bo'lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni maslahat bergan edi.

O'zbekiston Respublikasining mashhur yozuvchisi Oybek o'zining "Bolalik" qissasida xalq milliy sporti turlaridan bo'lgan "uloq o'yini" ni juda yaxshi bayon qiladi: "Uloq" xalqning qadimiy o'yini hisoblanadi. Milliy xalq o'yinlarining vujudga kelishi hamda taraqqiy etishi o'sha davrlarda kishilarning kuchli, chidamli, chaqqon va shijoatli bo'lishi zamon talabi bo'lib kelgan. Milliy xalq o'yinlari asrlar o'tishi bilan murakkablashib, maxsus sport turiga aylangan.

O'yin – maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy faoliyatidir. Rossiyalik pedagogi A.S.Makarenko aytganidek, o'yin bola uchun bilish manba'idir. O'yin jarayonida bolalar egallay bilishlari qiyin bo'lgan bilim va ko'nikmalarni osongina o'zlashtirib oladilar, narsalarning o'ziga xos xususiyatlarini bilib oladilar. Ular tevarak-atrofdagi ko'rgan narsalarini o'yinda ifodalash orqali turli harakatlarni bajaradilar, ya'ni yuradilar, yuguradilar, sakraydilar, o'rmalaydilar, biron buyumni irg'itadilar. Natijada ularning qaddi-qomati, muskullari va sezgi organlari rivojlanadi, organizmining hayot faoliyati yanada yaxshilanadi. O'yinda bolaning irodasi, o'z harakatlarini o'yin qoidasiga bo'ysundira-olish ko'nikmasi o'sadi, u o'zini qo'pol hatti-harakatlar qilishdan tiyadi, zarur bo'lganda chaqqon harakat qilishga o'rganadi, oqibatda unda jismoniy sifatlar tarkib topadi. O'zbek xalq madaniyatining tarkibiy qismi hisoblangan o'zbek xalq harakatli o'yinlari jismoniy madaniyat, yosh avlodni tarbiyalash va sog'lom turmush tarzini shakllantirishda alohida o'rin tutadi. O'zbek xalq o'yinlari tarixida birinchi marta milliy o'yin namunalari bayon etilishi, ularning ta'rifi-tavsifi qomusiy allomalardan biri Mahmud Qoshg'ariy qalamiga mansubdir. Harakatli o'yinlar inson faoliyatini ta'minlovchi mazmunga egadir. Buni eng qadimgi ajdodlarimiz ham yaxshi bilishgan va kundalik turmushda ular bilan shug'ullanishga amal qilishgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy xalq o'yinlari maktabgacha yoshdagi bolalarga o'zgacha xushnudlik ulashadi, ularning kayfiyatiga ijobiy ta'sir etadi. Bolalar orasida qo'llanaoladigan va bolalar zavq bilan o'ynaydigan o'yinlar:

1.Arqon tortish. Bu o'yin bolalarda tez harakat qilishni, chaqqonlikni, sabr-toqatlik bilan harakat qilishni tarbiyalaydi. O'yin ko'proq jamoa bo'lib harakat qilish, chidamlilik malakalarini oshirishga yordam beradi.

2.Oq terakmi, ko'k terak. O'yin tez yugurishni, diqqatni, sezgirlikni rivojlantirishga yordam beradi. O'yin bolalarni ahil bo'lib harakat qilishga, tezda to'g'ri yo'nalishni olishga o'rgatadi. O'yinni o'ziga xos harakati tez yugurish va zanjiri uzish.

3.Tapur-tupir qaldirg'och. Katta yosh guruh bolalari uchun. O'yin bolalarda sezgirlik, idrok qilish, eshitish va qabul qilish, chidamkorlik, kuch, tezkorlik, qayishqoqlikni rivojlantirishga yordam beradi. O'yinni o'ziga xos harakati sekin va aniq yurishdir.

4.Echki bolalar. O'rta yosh guruh bolalari uchun. O'yin bolalarda diqqat, sezgirlik malakalarini tarbiyalaydi. O'yin bolalarda chaqqonlik, tezlik, chidamlilik, koordinatsiya harakatlarini rivojlantiradi. O'yinning asosiy harakati yugurish hisoblanadi.

5. Qidirib top kichik yosh guruh bolalari uchun. O'yin bolalarda diqqat-e'tibomi, sezgirlik qobiliyatlarini tarbiyalaydi.

Bolalar bog'chalarida bolalar turli yosh guruhlariga bo'linib, ulari kichik, o'rta va katta guhurlar deb aytishga odatlanilgan. Chunki bolalarning jismoniy holati, o'sish darajasi, harakat malakalari va umuman, tana a'zolaridagi funksiyalar vazifalari tarbiya jarayonlarini belgilaydi. Shunga asosan, jismoniy tarbiyani tashkil qilishda guruhlardagi amaliy harakatlar bir-biridan tubdan farq qiladi.

Kichik guruhda mazmuni va qoidasiga ko'ra sodda bo'lgan mazmunli va mazmunsiz harakatli o'yinlar tashkil etiladi. Bu o'yinlarda barcha bolalar bir xil rol yoki harakat

topshirig'ini tarbiyachining bevosita ishtirokida (barcha bolalar – qushchalar, tarbiyachi – ona qush bo'ladi) bajaradilar.

3 yoshli bolalar asta-sekin yakka holda rollarni bajarishga o'rgatib boriladi (barcha bolalar qushlar, bitta yoki ikkita bola avtomobil bo'ladi).

O'rta guruhda eng oddiy musobaqa usulidagi o'yinlarni yakka tarzda ham, jamoa tarzda ham o'tkazish mumkin

Katta guruhda bolalar uchun harakatli o'yinlar o'z mazmuni, qoidalari, rollarning miqdori, topshirishni jamoa musobaqasiga joriy etishga ko'ra murakkablashtiriladi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalari birmuncha murakkab harakatli o'yinlar, shuningdek jamoa musobaqalaridan iborat jamoa o'yinlarni, o'yin estafetasi, sport o'yinlarini o'ynaydilar. Bularning hammasi chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilikni rivojlanishi, harakat ko'nikmalrining takomillashuviga, axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Milliy xalq o'yinlari maktabgacha yoshdagi bolalarga o'zgacha xushnudlik ulashadi, ularning kayfiyatiga ijobiy ta'sir etadi. U bolalarning jismoniy, aqliy, axloqiy rivojlanishida, kuchli, chaqqon, topqir, farosatli, mard insonlar bo'lib kamol topishida katta ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil yurtimiz kelajagi buyuk bo'lishi eng avvalo farzandalari salomatligiga bog'liq sog'lom yurt qudratli va boy bo'ladi. O'yin faoliyatida diqqatni, idrokni rivojlantirish, ilgari hosil qilingan tasavvur, tushunchalar, mo'ljal olish singari xususiyatlarni yana ham aniqlashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi; o'yinlar ijodiy tasavvurni, xotirani, fikrlashni, tafakkur faoliyatini yana ham rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib harakatli o'yinlar bolaning aqliy rivojlanishiga xizmat qiladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Xalq o'yinlarida bolaning har tomonlama rivojlanishi, psixologik, bilish jarayonlari, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O'yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, balki bolaning xulq - atvoriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'yin faoliyati tufayli bola nafaqat jismoniy balki ruhiy tomondan ham rivojlanadi. O'yin tufayli bola baquvvat, sog'lom, bo'lib rivojlansa, o'yin faoliyatini tabiat qo'ynida tashkil etish esa bolaning estetik rivojlanishi, dunyoqarashini kengayishi, tabiatni his qilish, sezish kabilarni hisiyotlari rivojlantiradi. Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirishning yoshga bog'liq xususiyatlari o'tkazilgan tajribalar orqali aniqlandi va nazariy jihatdan asoslab berildi. Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida harakatli o'yinlarni qo'llash bolalarning harakat imkoniyatlarini, jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, ularning kichik maktab yoshi davriga o'tish uchun tayyorgarligi sifatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. BOLALAR MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTSIDA O'TKAZILADIGAN HARAKATLI O'YINLAR F.Xo'jayev 13 bet
2. Milliy va harakatli o'yinlar. Darslik. / T.S. Usmanxodjayev
3. Bazhenova OV. Bolalar uchun hissiy-irodaviy rivojlanishni o'rgatish. Sankt-Peterburg: Rech; 2010. p. 192
4. <https://azkurs.org/harakatli-oyinlarni-tashkil-etish-va-otkazish-metodikasi.html>
5. <http://elibrary.namdu.uz/75%20Cnopt/Milliy%20va%20harakatli%20oyinlar.%20Usmonxodjayev%20T.S.pdf>
6. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/sunggi-5-yilda-maktabgacha-talim-sohasida-olib-borilgan-islohotlar-va-ularning-natijalar>
7. <https://darakchi.uz/oz/35964>

**PEDAGOGIK JARAYONDAGI NEVROZLAR KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR
MISOLIDA**

Muslimaxon Ibrohimova
Qo'qon universiteti talabasi,
Nargizaxon Usmonova
Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda nevro'z, pedagogik jarayonlar va ushbu jarayonlarda kichik maktab yoshidagi o'qivchilarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nevro'zlar va ularning yechimlari haqida ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birgalikda kichik maktab yosh davridagi bolalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nevro'z holatlarining o'rganilishiga doir tadqiqotlar va ularning statistik tahlillari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik, nevroz, irsiy, xulq-atvor dezadaptasiyasi, matabgacha yosh davri, kichik maktab yosh davri, affektiv qo'zg'aluvchanlik sindromi, pubertat davri, xulq-atvor buzilishlari va mayllar tormozlanishi.

Kirish. Bugungi rivojlanayotgan O'zbekistonimizning qolaversa, har bir davlatning ham buyuk kelajagi bu bilimli, yuksak ilmiy salohiyatga ega bo'lgan yoshlar hisoblanadi. Yoshlarning qanchalik ilmiy salohiyatga ega bo'lishida kichik maktab yosh davri muhim davr hisoblanadi. Sababi kelajagi buyuk o'zbekistonimizning ertasi hisobalandigan yoshlarning bilim dunyosiga ilk qadamlari aynan mana shu davrdan boshlab qo'yiladi. Quyosh kabi dunyoni yorituvchi bilimlar dunyosining eshigidan aynan mana shu davrda o'tadilar. Va yana shuningdek bolalar psixikasida yuz beradigan eng asosiy jarayonlar kichik maktab yosh davrlariga to'g'ri keladi. Shu sabab ham bu davrni eng muhim davrlardan biri deya bemalol ayta olishimiz mumkin.

So'zimizni "Nevroz" atamasiga tushuncha berishdan boshlasak, atama 1790-yillardan boshlab juda faol qo'llanib kelinayotgan atama hisoblanadi. Ayniqsa bu mashhurlikka o'zining butun psixoanaliz izlanishlarini shu asosida qurgan Zigmund Freydning yengil qo'li sabab bo'lgan deyish mumkin. XX asr psixiatr va psixoterapevtlari vahima oshishi, fobiyalar, jazava, kuchli tushkunlik bilan aloqador bo'lgan turli xildagi psixik, hissiy-emotsional va jismoniy holatlarni ushbu so'z bilan ifodalashgan.

Horij olimlari tadqiqotlarida, ta'limning ijtimoiy- pedagogik omillari- maktab nevro'zlari va xulq-atvor dezadaptasiyasining vujudaga kelishiga olib keluvchi maktab nizolariga katta psixogen ahamiyat berilmoqda. (Rege M., Раҷюте - Бутинавичене С., Шашкова И.А.). O'quvchilarda kun va ta'lim rejimining buzilishi, ortiqcha ma'lumot bilan ko'milish va o'zlashtira olmaslik oqibatida kasallanish holatlari o'rganildi. (Zedler E., Arnold I., Ammann R.)

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bola avvalo maktabga jismoniy jihatdan tayyor bo'lishi kerak, 6 yoshli bolalarning anatomik fiziologik rivojlanishi o'ziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlariadi. Bolaning og'irligi oyiga 150 dan 200 gacha bo'yi esa 0,5 sm gacha ko'payadi. 6 yoshli bolalar turli tezliklarda, tez va yengil yugura oladilar. Ular sakrash, konkida yugurish, chang'ida uchish, suzish singari harakatlarni ham bemalol bajarishlari mumkin. Musiqa bo'yicha mashg'ulotlarda esa xilma-xil ritmik va plastik harakatlarni bajaradilar, turli mashqlarni aniq, tez, yengil va chaqqon bajara oladilar. Lekin shunday bo'lsada, bolani majburan yozishga o'rgatish hali barmoq muskullari to'liq rivojlanmaganligi sababli ularga ma'lum darajada zarar keltirishi, bolaning chiroyli yoza olmasligi esa, o'z-o'zidan bolani o'ziga nisbatan ishonchini yoki o'qishga nisbatan qiziqishini kamayishiga olib kelishi mumkin. Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi nafaqat uning aqliy va jismoniy tayyorgarligi, balki

shaxsiy, ijtimoiy-psixologik tayyorgarligiga ham bog'liq. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'rtog'ining salbiy xususiyatlarini ko'pchilik va begonalar o'rtasida bemalol ayta olish xususiyatiga ega bo'ladilar. Bu esa axloqi va odobi jihatidan tanqidga uchrayotgan bolani o'rtoqlari jamosiga qo'shilishdan bosh tortishiga yoki umuman maktabga kelishni istamasligiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sabab bolani o'rtoqlari va ustozlari tomonidan tanqidga uchramaydigan darajada axloq-odob qoidalariga o'rgatish ahamiyati jihatidan kam bo'lmagan axloqiy tayyorgarlik hisoblanadi. Bolani maktabga irodaviy tayyorgarligi uni yangi kun tartibiga amal qilishida, dars jarayonida qunt bilan bilimlarni o'zlashtirishida, uy vazifalarini bajarishida o'z yordamini ko'rsatadi. Maktabga o'qish uchun kelayotgan bola yangi ijtimoiy mavqeini - turli majburiyatlari va huquqlari bo'lgan va unga turli talablar qo'yiladigan - o'quvchi mavqeini olish uchun tayyor bo'lmog'i lozim, ushbu xohish va harakat bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun tabiiy ravishda asos bo'la oladi. Bola endi o'zini katta bo'lganini, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisi emas, balki ma'lum bir majburiyatlari bor o'quvchi bo'lishini anglashi, jiddiy faoliyat bilan shug'ullanayotganligini bilishi nihoyatda muhim. Bolaning maktabga borishini istamasligi ham salbiy holat hisoblanadi. Maktabga shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik bolalarda tengdoshlari, o'qituvchilari bilan munosabatga kirisha olish xususiyatini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi.

Har bir bola bolalar jamoasiga qo'shila olishi, ular bilan hamkorlikda harakat qila olishi, ba'zi vaziyatlarda ularga yon bosib, boshqa vaziyatlarda yon bosmaslikka erisha olishi zarur. Ushbu xususiyatlar bolaning maktabda yangi sharoitlarga tez moslasha olishini ta'minlab beradi. 6-7 yoshli bolalar o'qishidagi asosiy qiyinchilik shundaki, ko'pincha bu yoshdagi bolalar o'qituvchini uzoq vaqt davomida tinglay olmaydilar, o'quv harakatlariga uzoq vaqt o'z diqqatlarini qarata olmaydilar. Bunga sabab, shu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanganligida emas, balki bolaning kattalar bilan muloqotga kirisha olish xususiyatiga ham bog'liq. Chunki, shu xususiyati rivojlangan bolalar erkin muloqotga kirisha oladilar, o'zlarini qiziqtirgan narsalar haqida so'ray oladilar. Natijada ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlari ortadi va o'qituvchi gapirayotgan narsalarni diqqat bilan uzoq vaqt eshita oladilar. Demak, bolaning maktabga tez moslashishi va muvaffaqiyatli o'qishida shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligining ham ahamiyati juda katta. Maktabga borish bolaning hayotida juda katta voqeadir. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi, maktab davrida bolaning asosiy faoliyatlari o'zgaradi. Endi bolaning asosiy faoliyatlari, asosiy vazifasi va ijtimoiy burchi o'qish bo'lib qoladi. 6-7 yoshli bolalar uchun yangi faoliyati bo'lgan o'qish ulardan yangi sifat, yangi xususiyatlarga ega bo'lishlarini talab etadi. O'qish faoliyati uchun bolalarda barqaror diqqat, o'tkir zehn, mustaqillik, ishchanlik va batartiblik xislatlari bo'lishi kerak. Shuni ham nazarda tutish kerakki, bola maktabga o'tishi bolaning maktabda o'qishga tayyorligi shaxsning ijtimoiy yetuklik bosqichlaridan biridir. Lekin ijtimoiy taraqqiyotning bunday yetuklik bosqichiga bola o'z-o'zidan ko'tarilmaydi. Uni bu bosqichga maktabgacha ta'lim tashkilotidagi va oiladagi butun ta'lim-tarbiya ishi ko'taradi.

AQSH lik bir qator tadqiqotchilar bolalarda qorquv va vahima (havotir) nevrozlari orasidagi o'zaro aloqa mavjudligini takidlashmoqda. Ayniqsa bolaning nevroitik ta'sirga tushishini psixologik kasallikni kechirayotgan onaga bog'laydilar. (Буторина Н.Е., Iandau R.). Bizning olimalarimizdan biri, A.I.Zaxarova klinik ishida bolalardagi chegara psixik kasalliklar bilan psixik salomatlik doirasidan chetga chiqmaydigan ota-ona va ota- bobolarning karakterologik xususiyatlari orasidagi o'zaro bog'liqlik mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar muhim hisoblanadi. Unda yozilishicha, barcha avlodlar orqali o'quvchi shaxslararo munosabatlar tajribasi patogen psixik jarohotlovchi omil bo'lishi mumkin. O'xshash nevroitik va karakterologik alomatlar ko'pincha tadqiq etilgan uch irsiy avlodning barchasida belgilanadi. Shubhasizki, bu yerda ham biologik (irsiy), ham mikroijtimoiy (tarbiya)

omillarining o'zaro ta'sirlashuvi mavjud. Yuqorida sanab o'tilgan muhit individual reaktivlik, yosh va jins omillarining o'zaro ta'siri Moskavaning ikkita tumanidagi 14 yoshgacha guruhlari farqlarning ishonchlik kofitsiyenti, ekstensiv ko'rsatgichlarni hisoblash metodikasi, metodikalaridan foydalanib hisoblab chiqildi. Nevrotik kasalliklar va xulq-atvor buzilishlari tarqalganligini tadqiq etish yosh va jins bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Eng ko'p kasalliklar kichik maktab yoshi, davrlarida aniqlandi. Bundan tashqari, patoxarakterologik va nevrotik buzilishlar asosan maktabgacha yosh davriga nisbatan kichik maktab yoshida ko'p uchrashi to'g'risida ma'lumotlar olindi. Maktabgacha va ayniqsa kichik maktab yosh davrida motorikaning nevrotik va nevrozga o'xshash kasalliklarning o'sish chastotasi – 45 %, bu esa harakat analizatori tizimining shakillanishi bilan bog'liq. Xulq-atvor buzilishlari ham, kasallik klinik xususiyatlarini ham yosh darajasi bilan bogliqligini aks ettirdi. Maktabgacha va ayniqsa, kichik maktab yosh davridagi psixopatiyaga o'xshash kasalliklar yuqori affektiv qo'zg'aluvchanlik sindromi 32 %, isterik shakildagi sindromi – 18 % va ketib qolishlar sindromi- 16 %ga ega edi. Pubertat davrida asosan yuqori affektiv qo'zg'aluvchanlik – 42 %, beqarorlik- 27 %, jinsiy yetilish suratinig buzilishi bilan bog'liq xulq atvor buzilishlari va mayllari tormozlanishi – 12 % sindromlari aniqlandi.

Pedagog va psixologlarning olib borgan tadqiqotlari o'qishga bo'lgan qiziqishlarning paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiy sharoitini ajratish imkonini beradi. Jumladan o'quv faoliyatni shunday tashkil etilish kerakki, bola unda faol ishtirok etishi, yangi bilimlarni mustaqil tarzda qidirish: va "topishi"ga intilishi, muammoli xarakterga ega bo'lgan savollarni yechishda o'quv faoliyati turli xil bo'lishi kerak. Bir xillikka ega bo'lgan materiallar va bir xil usullar bolani tez zeriktirib qo'yadi. Bola berilayotgan materiallarning kerakligi va ahamiyatligini tushunishi kerak. Yangi berilayotgan material ilgari o'zlashtirilgani bilan yaxshi bog'langan bo'lishi kerak. Yengil bo'lgan va o'ta murakkab material qiziqishni uyg'otmaydi. O'quv topshiriqlar bog'cha yoshidagi bolalar uchun qiyin, lekin imkoniyati yetadigan darajada bo'lishi kerak. Bolaning barcha yutuqlarini ijobiy baholash lozim. Ijobiy baho bilishga nisbatan faollikni stimullashtiradi. O'quv materiallari yorqin va emotsional bo'lishi kerak. A.P.Usovaning ta'kidlashicha, o'qitilayotgan materialni idrok qila olmaslik hodisasi harakatning usul va vositalarida o'ta osonlik usuliga asoslangan, ilgari ko'rsatilgan noto'g'ri tarbiyaviy ta'sirning asorati natijasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova "Rivojlanish Psixologiyasi" Pedagogik Psixologiya
2. Q.Sodiqov S.H.Aripova G.A.Shahmurova. "Yosh Fiziologiy As I Va Gigiyena "
3. Z.Nishanova. "Psixogigena"
4. Z.T.Nishanova, G.K.Alimova. "Bolalar psixologiyasi va diagnostikasi" .
5. <https://minikar.ru/uz/tests/diagnostika-i-korreksiya-otklonenii-shkolnikov-v-povedenii/>
6. <https://gigafox.ru/uz/vedenie-beremennosti/rabota-so-skazkami-v-nachalnoi-shkole-konspekt-uroka-po-literature-na-temu/>
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/kichik-maktab-yoshidagi-o-quvchilar-shaxslararo-munosabatlarida-empatiyani-shakillantirish>

BOSHLANG'ICH SINFLARGA TA'LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI

Ne'matullayeva Madinabonu
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1- bosqich talabasi,
Jumanova Shahnoza Ikromjonovna
Qo'qon universiteti "Ta'lim" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda dars o'tish jarayonida mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida zamonaviy texnologik vositalarning ahamiyati, ularning dars jarayoniga tadbiiq qilish samaradorligi haqida fikrlar bayon etilgan. Darslarni sifatlil tashkil etilishning imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida bir qancha metod va vositalar tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'qish, intonatsiya, metod, ta'lim, dars jarayoni, pedagogik texnologiyalar, interfaol vositalar, savodxonlik darajalari, didaktik o'yinlar.

Bugungi shiddatli davr har bir ta'lim olayotgan shaxslardan bolalik chog'idan boshlab qunt bilan o'qish, ilm va hunar o'rganishni talab etmoqda. Ana shu talab asosida mamlakatimizda o'ziga xos ta'lim tizimi yaratildi: "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qabul qilindi. Ularda ta'limning boshqa sohalari qatori boshlang'ich ta'limiga ham alohida o'rin ajratilgan.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, odobnoma, tabiatshunoslik darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang'ich sinflardan o'q «dars» degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari lozim. O'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o'qituvchilar turli didaktik o'yinlardan foydalanishmoqda.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Hozirgi kunda pedagoglarga juda katta sharoitlar yaratib berilmoqda. Bu sharoitlardan unumli foydalanga holda darslarni mazmunli va samarali tashkillash zarur. Shuning uchun o'qituvchilar doimo o'z ustida ishlashi, innovatsion, noan'anaviy, interaktiv dars usullarini muntazam o'qib va o'rganib borishi hamda o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiiq qila olishi kerak. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning badiiy, estetik, mantiqiy, jismoniy va ma'naviy

rivojlanishiga alohida e'tibor berishi kerak. Bunda o'quvchi ham ko'rsin, ham tinglasin, ham gapirsin, ham mushohada qilsin, ham yozsin. Psihologlarning o'tkazgan tahlillariga ko'ra, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan axborotlar 2 hafta o'tgach, mustaqil o'qish orqali 10 foizi, tinglash orqali 20 foizi, ko'rish orqali 30 foizi, o'zi namoyish etsa yoki so'zlab bersa 50 foizi, bahs-munozara, suhbat orqali 80 foizi, o'zi amaliy bajarganda esa 90 foizi eslab qolinar ekan. Shularni hisobga olsak, o'quvchilarga dars berishda ko'proq bahs-munozara, suhbat va amaliy ishlarni dars davomida o'z kuzatuvimiz va nazoratimiz ostida olib borishimiz kerak ekan. Bir xil uslubda dars o'tish bolalarda darsga qiziqmaslik holatlarini keltirib chiqarmoqda. Bu holatlarni oldini olish uchun turli xil metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Bolalar bir xillikdan juda tez zerikadi 45 daqiqalik dars mobaynida 20 daqiqadan keyin miyaga ma'lumot qabul qilish sekinlashib qoladi, shunday holatlarda 5 daqiqalik metodlardan foydalanish kerak. Bunday metodlarimiz juda ham qo'l keladi.

Misol uchun "B...B....B" metodi, "Bog'bon quyoncha", "Yomg'irli bulut", "Soat usuli", "Kutuvlar daraxti", "Kim oshdi savdosi", "Aqliy hujum". "Bumerang" kabi ko'plab metodlar mavjud.

1. "B...B...B..." metodi darsning yakunida qo'llash uchun tafsiya etiladi, o'quvchilar quydagilar bo'yicha so'zlaydilar - "Bilar edim", "Bilmagan edim", "Bilishni xohlayman". Ushbu metod orqali o'quvchilarni dars jaryoniga qanday etibor bilan o'tirgani, darsni qay darajada o'zlashtirganini bilib olish mumkin.

2. "Bog'bon quyoncha" metodi ushbu metodni qo'llash orqali dasr mavzularini takrorlab olishga erishiladi. Bu metodni qo'llash juda ham qulay va oson. Bunda o'qituvchidan qo'l mahorati talab etiladi.

3. "Yomg'irli bulut"- ushbu metod ham dars mavzusini mustahkamlashda qo'l keladi. Qo'llanishi: oddiy bulut ichiga mavzu nomi va tomchilariga mavzu bo'yicha savollar yoziladi. Bunday ko'rinishdagi savol-javoblar o'quvchilarni fanga nisbatan qiziqishini orttiradi.

4. "Soat usuli" - bunda o'tilishi kerak bo'lgan dars mavzusi va ma'lumotlarini alohidadan qilib varoqlarga chiqariladi, o'quvchilar qo'lga tarqatiladi, undan so'ng bitta ichki aylana va shu aylana atrofidan yana bir aylan tashkil etiladi. So'ng aylanadagi o'quvchilar bir-birariga qarab turib olishadi. Undagi malumotlarni bir-birlariga tushuntirishadi va o'zaro muloqot qilishadi. Shu tariqa soatning minut mili aylanganidek bir-birlari bilan almashgan holda ma'lumotlarni qayta-qayta tushuntirishadi va undan so'ng o'qituvchi darsni mavzusini tushuntirib beradi. Bunda o'quvchilarni eslab qolish jarayoni yaxshiroq bo'ladi. Bu orqali o'quvchilarda ham qiziqarli dars tashkillashga erishiladi.

5. "Kutuvlar daraxti" bu metodimiz ham o'quvchilarni fikirlashga va dars qandey o'tilganligini taxlil qilishga undaydi. Bunda birinchi daraxtimizga dars qanday o'tganligi va keyingi darsdan nimalar, yani, qanday yangicha enerjayzer yoki yangicha metodlar kutayotganini ma'lum qiladilar.

Xulosa qilib aytganda, didaktik o'yinlar, interfaol uslublar, ta'limiy mashqlar, yangi-yangi metodlar barchasi o'quvchini yangi mavzuni puxta o'zlashtirishga va ta'lim sifatini oshishiga xizmat qiladi. Biz pedagog muallimlarning ham maqsadimiz shudir. O'quvchilar qanchalik kreativ fikrlab, mustaqil bajara olsalar biz maqsadga erishgan bo'lamiz. O'quv jarayonida motivatsiyadan foydalanish va rag'batlar berish ham, albatta, innovatsion yondashuvda juda qo'l keladi. Har bir o'qituvchi darslarga innovatsion yondashib, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslar o'tsa bu o'z natijasini beradi. Mustaqil O'zbekistonimiz kelajagi bilimli, mustaqil fikrlaydigan tadbirkor va tashabbuskor kadrlarga bog'liq. Ular esa maktablarda tarbiyalanadi.

Yuqoridagi metodlardan foydalanish orqali dars samaradorligini oshirishga erishiladi. Dars o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy vositasi va o'qituvchi faoliyatining

yadrosidir. Shu sababli darsni zamonaviy talablarga javob beradigan, samarali qilib tashkil etish biz pedagoglarning asosiy burchimizdir. Bu burchni halol va vijdonan bajarish uchun bor ilmimizni, bor mahoratimizni, bor kuch-g'ayratimizni ayamaylik. Toki, farzandlarimiz Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan barkamol shaxslar bo'lib yetishsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: «Sharq» nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
2. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, 2017-yil, 7-soni, 20-bet.
3. Boshlang'ich sinflarda o'quv mativlarining xususiyatlari Бекмуродова, Ж. А.
8. Boshlang'ich sinflarda o'quv mativlarining xususiyatlari / Ж. А. Бекмуродова. —
4. Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 2 (292). — С. 445-447. — URL: <https://moluch.ru/archive/292/65552/> .

OILA KUTUBXONASI

**Obidjonova Nodirajon Okiljon qizi
Qo'qon Universiteti Maktabgacha ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi**

Annotatsiya: Ushbu tezisda oila kutubxonasi bola intellekti va ma'naviyatining asosi ekanligi, maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar uchun qanday kutubxonalar tashkil etish kerakligi, necha yoshdan qanday kitoblar o'qib berish kerakligi haqida umumiy xulosalar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tashkiloti, kitobxonlik, oila kutubxonasi, kitobxonlik madaniyati, ma'naviy barkamollik.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 3-6 yoshdagi bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkoniyatlarini kuchaytirish, shuningdek, ota-onalar, aholi va jamoatchilikning bolalarga erta ta'lim berish va oilada erta kitob o'qishni tashkil etishning ahamiyati to'g'risida xabardor qilish maqsadida tizimdagi barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari qoshida kichik kutubxonalar tashkil etilmoqda.

Kichik kutubxonalar o'zbek xalq ertaklari, rivoyatlar, hikoyalar va bolalar uchun she'riy to'plamlar bilan ta'minlanadi va kitoblarni topish qulay bo'lishi uchun har bir bo'lim badiiy belgi: daraxt, ertak qahramonlar kabilar bilan nomlanadi. Kichik kutubxonalar tashkilot ichki imkoniyati hamda homiylarni jalb qilgan holda tashkil etiladi va bolajonlar uchun xizmat qiladi.

Bolalarda mutolaa ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida tarbiyachi-pedagoglar tomonidan kitoblarni ifodali o'qish, o'qilgan kitoblar haqida suhbat, rasmlarni tomosha qilish, notanish so'zlarni tushuntirish, adabiyot kechalari va biror mavzuga bag'ishlangan kitoblar ko'rgazmasi tashkil etish kabi turli usullar qo'llaniladi. Bu kabi usullar bola shaxsi, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishi, bilish faolligining asosi sifatida umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishishi, ijodiy tasavvurini shakllanishi, qiziquvchanligini rivojlantirishga yordam beradi.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishdagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Kichik guruxlardan boshlab bolalarni badiiy adabiyotga qiziqish uyg'otish.
2. Bolalarda ertak, hikoya, rivoyat, she'r va badiiy asar namunalari berib tinglash, tushunish, voqealar rivojini diqqat bilan kuzatish, ishtiyoqni tarbiyalash, asar qahramonlari harakatiga baho berishni shakllantirish.
3. Asar mazmuni yuzasidan savollarga javob berish, asar qahramonlari harakatlari, ruhiy kechinmalarini ma'naviy ta'riflash, to'g'ri baho berishga o'rgatish.
4. Asar g'oyasi tasviriy vositalarini yoshiga mos xolda tushunish, o'z qarashlari, mulohazasini bildirishga o'rgatish.
5. Badiiy asarni hikoya qilish va uning mazmunini so'zlab berish, she'rni ifodali yoddan aytish orqali nutq ohangi.

Buyuk ota-bobolarimiz bola tarbiyasida kitobni o'rni katta ekanini uni tafakkurning to'lmas qanoti sifatida inson ma'naviy olamini boyitishi, yuksak ijodiy va yaratuvchanlik vositasi sifatida nihoyatda qadrlash hamda undan samarali foydalanish zarurligini ta'kidlab o'tganlar. Mutaxassislar bola hayotining ilk yosh davrini "mo'jizalar davri" deb nomlaganlar. Bu davrda bola kitob o'qishga tayyorlanadi. Bunda avval nutq malakalarini eshitish va so'zlashni mukammal o'rganib olishlari lozim. Oilada tarbiyani barcha mezonlari shakllantirilganidek kitobxonlik madaniyati ham shu maskandan boshlansa yaxshi samara beradi. Oilada ota-ona kitobga mehr qo'ygan bo'lsa bunday oilada tarbiyalanayotgan farzand ham kitobga oshno bo'ladi bunday farzandlarning dunyoqarashi fikrlash doirasi keng bo'ladi,

xushmuomala mehribon iloji boricha yaxshilik qilishga urinadigan, har bir aytayotgan so'zi, qilayotgan ishini o'ylab bajaradigan, bir so'z bilan aytganda o'zida barkamol shaxs xislatlarini namoyon qilishga harakat qiladigan ziyoli farzand bo'lib voyaga yetadilar. Oilada bolalarni chalg'itmaydigan tashqi shovqin surondan holi bo'lgan mo'jazgina uycha yoki burchak qilib berish ularning kitobga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga yordam beradi. Shunday mo'jazgina uychalar bolalar uchun xizmat qiladi. Ota-onalar farzandida doimiy ravishda kitob o'qish ko'nikmasini shakllantirishni istashsa haftasiga hech bo'lmaganda bir marta kutubxonaga olib borishi lozim. Chunki bola kutubxonada turli xil kitoblarni ko'radi va uning kitobga bo'lgan qiziqishi tobora oshadi. Agar ota-onalar bolalarini kitob o'qishga g'ayratini oshirmoqchi bo'lishsa, tez-tez ertaklar, hikoyalar aytib berishlari lozim umuman kitoblar va ularning mazmun mohiyati haqida suhbatlashib turishlari kerak. Hayotda sodir bo'lgan haqiqiy voqealarni bolalar o'qigan ertak va hikoyalar bilan bog'lashga harakat qilish lozim. Bu esa bolalarni nafaqat o'qishga chorlaydi balki, mushohada qilishga o'rgatadi, tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantiradi. Bolalar ota-onasidan namuna oladilar. Agar ota-onalar muntazam kitob mutolaa qilsalar, boshqa oila a'zolar bilan turli kitoblar to'g'risida tez-tez suhbatlashsa, kitobdan zavqlanganligini ko'rsatsa bu o'z navbatida bolalar ongiga va psixologiyasiga ta'sir qiladi natijada kitob o'qish asta-sekin bolalarning ham sevimli mashg'ulotiga aylanib boradi. Tarbiyachining tarbiyaviy roli birinchi navbatda kitobga qiziqqan bola bilan suhbat bog'liq. Tarbiyachi bolalar bilan suhbatlashib kitob bilan ishlash qonun qoidalarini ham aytib o'tishi lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalar kitob tanlashda kutubxonachiga yoki tarbiyachiga muhtoj bo'ladilar. Shuning uchun ham kutubxonani yoki tarbiyachi kitob tavsiyasining eng yaxshi usuli suhbatdan foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagi bolalarni kitobxonlikka mehr uyg'otishning holatini o'rganish dolzarb masala hisoblanadi. Barcha ezgu ishlarning bunyodkor g'oyalarning asosi kitob hisoblanadi. Bizga ilm nurlarini sochadigan ham kitob bo'ladi. Shuning uchun ham biz bugungi kunda kitoblarga bo'lgan qiziqishni oiladan boshlasak va bu uchun ularni yoshiga mos kutubxonalarni shakllantirsak nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Bolada o'qish malakalarni shakllantirish negizida og'zaki nutq rivojlanish va kitobga muhabbatni oshirish lozim. Biz buyuk ishlarga qodir yoshlarimizni hayot yo'llarida hamroh va maslahatgo'y bir umrlik sodiq do'st kitobga tayanishni oiladan boshlasak kelajagi buyuk yurtimiz uchun munosib bunyodkor yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishda o'z hissamizni qo'shgan bo'lardik. Kitobxonlik esa uning xulosalarga tayanib bolalarning kitob o'qishicha ularning yosh xususiyatlarini qanday kitoblarni o'qib o'rganishda ta'sir etadi. Shunday qilib maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobga bo'lgan qiziqishini uyg'otishda psixologiyaning o'rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. E G'oziyev. Ontogenez psixologiyasi/darslik /.Tosbkent:"NIF MSH", 2020,
2. Maktabgacha ta'limning davlat standard. O'zPFITI. T., 1995.
3. Hasanboyeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo,2006
M.G.Davletshin., Sh.Do'stmuxamedova, M.Mavlonov, S.To'ychiyev. —Yosh davrlari va pedagogi psixologiya||. O'quv qo'llanma. T., 2004-y. 8.2. b.t.
4. N.M.Kayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashriyoti, T.: 2013-y.
5. J.G'.Yo'ldashev —Interfaol ta'lim sifat kafolati|| O'MOI T-2007
6. R.A. Mavlonova va boshqalar —Pedagogik texnologiya|| Fan 2008-y.
7. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvchi,1993.
8. Z.Nishonova, G.Alimova. —Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi||.
9. O'quv Qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi.T., 2006-y.
10 b.t.
10. <https://kun.uz/uz/86874565?q=%2F86874565>

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING O'YIN KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Olimova Dilorom Axrorjon qizi
Maktabgacha (sirtqi) ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi,
Qo'qon universiteti "Ta'lim" kafedrası o'qituvchisi
Jumanova Shahnoza Ikromjonovna

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning hayotida o'yinning ahamiyati va bolalarda o'yin kompetensiyasini rivojlantirishning amaliy metodlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, pedagog tarbiyachilarning bolalarda o'yin kompetensiyalarini rivojlantirish uchun turli zamonaviy metod va usullar ishlab chiqib, uni amaliyotda qo'llashi tadqiq qilingan. O'yin kompetensiyalarini rivojlantirish uchun taklif va tavsiyalar berilgan. Rivojlantiruvchi markazlarda o'yin orqali bolalarga ta'lim va tarbiya berish haqida bir qancha taklif va fikrlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari, o'yin, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi, kompetensiya, pedagogik mahorat, oila, mashg'ulotlar, rivojlantiruvchi markazlar, kichik guruh, o'rta guruh, katta guruh, maktabgacha tayyorlov guruhi

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorgarlik darajasida shakllantirish maqsadida tashkil etiladi. Ushbu ta'lim bolaning olti-yetti yoshga to'lguniga qadar oilada maktabgacha ta'lim muassasalari (yaslilar uch yoshgacha bo'lgan bolalar uchun, bolalar bog'chalari 3yoshdan 6-7yoshgacha bo'lgan bolalar uchun) va mulk shaklidan qat'i nazar, ta'lim muassasalarida olib boriladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, barcha sohalar qatori ta'lim-tarbiya sohasida ham tub ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. 2011-yil respublikamizda maktabgacha ta'lim rivojining asosiy yo'nalishlari, maqsad va vazifalari, tamoyillarini o'z ichiga olgan "Maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi" ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiya ko'plab me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, unda respublikamizda maktabgacha ta'limni rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari o'z aksini topgan.

"O'yin - o'sib borayotgan bolaning tanasi uchun ehtiyoj. O'yinda bolaning jismoniy kuchi rivojlanadi, qo'llari mustahkamlanadi, tanasi yanada moslashuvchan bo'ladi, aniqrog'i ko'z, aql, zukkolik, tashabbuskorlik rivojlanadi", deb yozgan edi N.K. Krupskaya.

O'yin - bu maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash, ularga turli xil harakatlarni obyektlar, usullar va aloqa vositalari bilan o'rgatish uchun kattalar tomonidan qo'llaniladigan bolalar faoliyati turlaridan biridir. O'yinda bola shaxs sifatida rivojlanadi, u psixikaning o'ziga xos tomonlarini shakllantiradi, uning ta'lim va mehnat faoliyati muvaffaqiyati, odamlar bilan munosabatlariga ham bog'liq bo'ladi. Masalan, o'yinda bolaning shaxsiyatining bunday sifati jamoaviy faoliyatning vazifalarini hisobga olgan holda harakatlarni o'z-o'zini tartibga solish kabi shakllanadi. Eng muhim yutuq - bu bolalarda kirishimlilik tuyg'usini egallashdir. Bu nafaqat bolaning axloqiy xarakterini tavsiflaydi, balki uning intellektual sohasini sezilarli darajada qayta tashkil qiladi, chunki jamoaviy o'yinda turli g'oyalarning o'zaro ta'siri, voqea mazmunini rivojlantirish va umumiy o'yin maqsadiga erishish mavjud.

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari quyidagilar:

Kommunikativ kompetensiya - muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

O'yin kompetensiyasi - bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tuta olish mahorati.

Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari

Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

O'yin - buyumli, predmentli va ijtimoiy voqelikda harakat qilish va uni anglashga yo'naltirilgan jarayondir.

O'yin orqali bolalarga nafaqat xursandchilik balki tarbiya va ta'lim ham berish mumkin. Har bir tarbiyachi o'z mahoratidan kelib chiqqan holda bolalarga turli mashg'ulotlar orqali ta'lim beradi. O'yin faoliyatining turlari juda ko'p. Ular ichida ta'limiy o'yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o'yinlar sirasiga kiruvchi o'yin bu- Didaktik o'yin hisoblanadi.

Didaktik o'yinlarning muhim belgilaridan biri undagi qoidalarining mavjudligidir. O'yinda o'yin niyati, o'yin qoidalari, o'yin harakatlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Didaktik o'yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O'yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o'yin mazmunini boyitadi.

O'qituvchi - pedagog didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'tkazishda qizg'in tayyorgarlik ko'rishi va uni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi:

- ✓ Didaktik o'yinli mashg'ulotlar dasturida qayd etilgan mavzularning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi;
- ✓ Jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag'ishlanib, ular o'yin davomida hal qilishi;
- ✓ Barkamol shaxsni musiqiy tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-ahloq normalariga mos kelishi;
- ✓ O'yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo'lishi;

Mashg'ulotlar davomida musiqiy didaktik prinsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishishi kerak.

Qoidali-harakatli o'yinlar asosini bolaning jismoniy rivojlanishiga qaratilgan harakatlar tizimi egallaydi. Bunda asosan yurish, yugurish, sakrash, chirmashib chiqish, uloqtirish, emaklash kabi harakatlar o'yin mazmunini belgilaydi. Qoidali-harakatli o'yinlar kelib chiqishiga ko'ra:

- a) Xalq milliy o'yinlari
- b) Mualliflik o'yin turlariga bo'linadi.

Har ikki o'yin turida ham asosiy mezon- o'yin qoidasi bo'lib hisoblanadi. Harakatli o'yinlar harakatlarning aniqligi, ifodaliligi, bolalarda tezkorlik, epcillik, qo'rqmaslik, mardlik kabi oliyjanob fazilatlarini tarbiyalab boradi. Kichik yoshdagi bolalar uchun o'yin sujeti ochiq xarakterga ega bo'ladi. Masalan, "To'pni quvla!", "To'pni ushlab ol!". Katta yoshdagi bolalar uchun o'yin maqsadi, qoidasi va o'yinni tashkil etish murakkablashadi. Shuningdek har bir o'yin faoliyatida bolaning har tomonlama qobiliyatlari rivojlanadi. Shuning uchun har bir tarbiyachi yosh xususiyatlariga mos o'yin tanlashi va bolalarga ta'lim –tarbiya berishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilishning zamonaviy sharoitida tarbiyachining maqomi tubdan o'zgarib bormoqda, uning ta'lim funksiyalari, shunga muvofiq, uning kasbiy va pedagogik kompetensiyasiga, uning kasbiy mahorat darajasi talablari o'zgaradi. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalash va rivojlantirishning zamonaviy tizimida o'zining shaxsiy salohiyatini safarbar qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qodir bo'lgan ijodkor, mahoratli tarbiyachi talab etiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, hozirgi vaqtda maktabgacha yoshdagi bolalarning aksariyati ko'p narsalarga noadekvat munosabatda bo'lishadi, buning asosiy sababi bola yetarli darajada shaxslararo munosabatga kiramasligini takidlashimiz mumkin negaki, bolaning birinchi tarbiyachilari birinchi galda televizor, zamonaviy gajetlar, ekanligi oqibatida bola shaxsida boshqa odamlarning his-tuyg'ularini e'tiborsiz qoldirish holatlari bot bot uchrab turibdi, o'z his-tuyg'ularini boshqarishga harakat qilmaydilar. Bu asosan, juda kam kommunikatsiya qilish bilan bog'liq. Ular qancha vaqtni shunday o'tkazishi, ota-onalari ularga qancha vaqt ajratishlari haqida ketmoqda. Natijada, maktabgacha yoshdagi bolalarda hissiy rivojlanish yetarli bo'lmay qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga qo'ramiz. -Toshkent:O'zbekiston, 2017.-488 bet.2.
2. Z. T. Nishonova . M. Xolnazarova " Rivojlanish psixologiyasi". Toshkent. 2019.
3. N. M. Egamberdiyeva "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi", "Ilm ziyo" nashriyot uyi. 2006-yil. 27-28-bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
5. Plexanov G. V "Adressiz xatlar" 346-bet
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 30- sentabrdagi PF-5198 sonli "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-3362886>

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA ALOHIDA EHTIYOJGA EGA BO'LGAN
BOLALARNI TARBIYALASHDA HAMKORLIK MASALALARI**

Omonova Maktuba
Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va
psixologiyasi yo'nalishi talabasi,
Abdiyeva Fazilat Fayzulla qizi
Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim
pedagogikasi va psixologiyasi kafedra o'qituvchisi

Annatotsiya: Inklyuziv ta'lim - umumta'lim jarayonini rivojlantiradi va barcha bolalarga mos bo'lgan ta'limni joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim olishiga oid qo'shimcha moslamalarni tashkil qilib bolalarni ta'lim olishiga qulay sharoit yaratadi. Inklyuziv ta'lim xar xil ehtiyojli bolalarning ta'lim olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantirishga xarakat qiladi. Inklyuziv ta'lim turli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ixcham turdagi dars berishga yondashadigan ta'limni ishlab chiqishni amalga oshiradi. Agarda inklyuziv ta'limni tadbiq etishda dars berish, o'qitish bir muncha samarali va unumli bo'lsa unda nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar balki barcha bolalar yutadi. Inklyuziv ta'lim maktablari bolalarning bilim olish uchun shaxsiy huquqlarini himoyalaydi

Kalit so'zlar: inklyuziv, avlod, jamiyat, atrof-muhit, fan va texnologiya, ta'lim, shaxs, shaxs, bola

Mamlakatimizda bugungi kunda jismoniy yoki aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan 86 ta ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasasida 21 ming 363 bola ta'lim-tarbiya olmoqda. 13 ming 868 o'quvchiga esa uyda yakka tartibda ta'lim beriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida 5-6 yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablarida belgilangan ko'rsatkichlarga erishish 5-6 yoshdagi bolalarni maktabga to'la-to'kis tayyorlashga, maktabda beriladigan ta'limni mukammal o'zlashtirishga, mustaqil O'zbekistonning ravnaqi uchun xizmat qiladigan barkamol inson bo'lib yetishishlariga zamin hozirlaydi.

Maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalariga tayangan holda «Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi» fanining maqsadi talabalarni maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashning metod va usullari bilan tanishtirishdan iborat.

«Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi» fani quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- talabalar maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalarini yaxshi bilishlari;
- bolalarning maktab ta'limiga umumiy va maxsus tayyorgarligi tushunchalarini bilishlari;
- bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashni aniqlash yo'llari va metod, usullari to'g'risida bilimga ega bo'lishlari lozim.

Bugungi kun talablari asosida inklyuziv ta'limni joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni loyihasiga inklyuziv ta'lim tushunchasi kiritildi. Bu borada Prezidentimizning 2018 yil

5-sentyabrda qabul qilingan "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori tizim rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hujjat asosida Xalq ta'limi vazirligi tomonidan rivojlanishida turli nuqsoni bo'lgan hamda davolanishga va sog'lomlashtirishga muhtoj bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta'minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta'lim-tarbiya olishiga xizmat qiladigan moslashuv muhitini yaratish bo'yicha alohida vazifalar belgilandi. Mazkur belgilangan vazifalar ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida O'zA muxbiriga Xalq ta'limi vazirligi Bolalarni ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Suxrob Xoliqov quyidagilarni so'zlab berdi. "Inklyuziv ta'lim bo'yicha Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda 2014-2016 yillarda amalga oshirilgan loyiha doirasida Respublikaning 5 ta hududida tajriba-sinov maydonchalari tashkil etildi. 153 nafar tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya va 1350 nafar pedagog xodim inklyuziv ta'lim xizmatlariga o'qitildi. Ta'lim tizimiga inklyuziv amaliyotni tatbiq etish bo'yicha pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlarining o'quv rejalariga 3 ta o'qitish moduli kiritildi. 2000 dan ortiq imkoniyati cheklangan bolalar va ularning ota-onalariga inklyuziv ta'lim xizmatlari tashkil etildi.

Rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan hamda davolanish va sog'lomlashtirishga muhtoj bo'lgan bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta'minlovchi sa'y-harakatlar, korreksion va rehabilitatsion ishlar natijasida oxirgi besh yilda 500 nafarga yaqin mana shunday o'quvchilarning umumiy o'rta ta'lim maktablariga qaytishi ta'minlandi. Hozirda 5900 dan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim bilan 64 ming 700 nafarga yaqin o'quvchilar qamrab olingan".

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni takomillashtirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini shakllantirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrda "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan 2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Konsepsiyani amalga oshirish bo'yicha 2020-2021 yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. E'tiborli jihati shundaki, 2023-2025 yillarda inklyuziv ta'lim tizimi 51 foiz umumta'lim maktablarida joriy qilinishi belgilangan. Ushbu ta'lim shakliga 40 foiz imkoniyati cheklangan bolalar jalb qilinadi.

Integratsiyaning ikki turini ajratib ko'rsatish kerak: ta'lim va ijtimoiy. Ta'lim integratsiyasi - bu inklyuziya, ya'ni "inklyuziv ta'lim" bo'lib, nogiron bolani bitta maktabga kiritishni ta'minlaydi. Ta'lim muhiti normal rivojlanayotgan tengdoshlari bilan. Ijtimoiy integratsiya bolaning jamiyatga qo'shilishi, ya'ni uning ijtimoiylashuvini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy integratsiya rivojlanishda nuqsoni bo'lgan barcha bolalarga istisnosiz, buzilishning tabiati va tuzilishidan qat'i nazar, maxsus ta'lim ehtiyojlari, yoshi, shuningdek, ular o'qiyotgan muassasa turi. Birinchi marta integratsiyalashgan o'qitishning nazariy asoslari taniqli rus olimi L.S. Vygotskiy. Uning ta'kidlashicha, maktab-internatda o'qiyotgan bola normal rivojlanayotgan tengdoshlaridan, oiladan va umuman jamiyatdan ajralib turadi. L.S. Vygotskiyning ta'kidlashicha, maxsus maktabning devorlarini "buzish", maxsus bolaning madaniy va tarixiy rivojlanishini ta'minlash va uning jamiyatga "o'sishi" uchun sharoit

yaratish kerak. Har bir mamlakat maxsus inklyuziv ta'limni amalga oshirish uchun amal qiladigan o'z siyosatiga ega bo'lishi kerak. Bu siyosat milliy ta'lim tizimining asosiy xususiyatlarini va eng muhim bo'lgan milliy maqsadlarni o'zida aks ettirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5198-son farmoni. 2017 yil 30 sentyabr
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 23 sentyabr 2020 g. № ZRU-637 // Xalq so'zi. – 2020.
3. «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»: O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 16 dekabr 2019 g. № ZRU-595.
4. International Standard Classification of Education (ISCED 2011) // General Conference 36th session. – Paris, 2011. – 89 p.
5. Enternet ma'lumotlari

KICHIK MAKTAB YOSHIDA IDROK TURLARINI RIVOJLANISHI.

**O'ralova Dinora Aliboy qizi
Termiz Davlat Pedagogika instituti talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada bola idrokining o'sishi, uning psixikasi va ongining taraqqiyoti, o'quv faoliyati davomida bolaning bilish jarayonlarining namoyon bo'luvchi xususiyatlari, aql sifatlari va fikr yuritish jarayonlarining rivojlanishida psixologik qiyinchiliklarning yuzaga kelishi, kichik maktab yoshi davrining psixologik o'zgarishlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Maktab, o'quvchi, idrok, fazoviy idrok, idrok turlari.

Bolaning o'sishi, uning psixikasi va ongining taraqqiyoti, jamiyat a'zosi sifatida voyaga yetishi muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadi. Kichik maktab yoshi davri 1-4 sinf o'quvchilarining yosh oralig'ini o'z ichiga oladi. Bu davrda bola psixikasida muayyan o'zgarishlar sodir bo'lishini kuzatish mumkin. Bolani birinchi bor maktab ostonasiga qadam qo'yishi bilan unda bir qator psixologik qiyinchiliklar yuzaga kela boshlaydi. Kichik maktab davrida bolaning birinchi bor maktab ostonasiga qadam qo'yishi unda o'quv faoliyatining boshlanishi hisoblanadi. Bu davrni bola uchun qiziqarli, ta'sirchan o'tkazish talab etiladi. O'quv faoliyati bolaning bilish jarayonlarining ixtiyoriy va barqaror xususiyatlarini, aql sifatlari va fikr yuritish jarayonlarining rivojlanishida psixologik qiyinchiliklarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning barcha o'qish faoliyati qat'iy ravishda maqsadga muvofiqlashtirilgandir. Birinchidan, o'quvchilar o'qish, yozish, va hisoblash malakasini egallashlari, arifmetika, ona-tili, tarix, geografiya va tabiyatshunoslikdan geometriyaning elementar asoslaridan ancha katta hajmda bilimni orttirishlari kerak. Ikkinchidan, bolaning bilim darajasi va bilish qiziqishlari kengayadi hamda rivojlanadi. Uchinchidan bilim jarayonlarining taraqqiyoti, aqliy rivojlanishi yuzaga keladi. Faol mustaqil ijodiy faoliyat uchun qobiliyat tarkib topadi va nihoyat o'qishga bo'lgan yo'nalish, o'qishga nisbatan ma'suliyatli munosabat hissi tarkib topa boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bilim jarayonlari va ularning faoliyatida bir qator o'zgarishlarni kuzatish mumkin: Jumladan, bola idrokining o'tkirligi, sofligi bilan farq qiladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar diqqatining asosiy xususiyati sifatida esa uning ixtiyoriy zaifligini keltirish mumkin. Shuningdek, aynan shu yoshda diqqatni iroda kuchi bilan moslash va uni boshqarish imkoniyati cheklangan bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda xotira jarayoni haqida so'z yuritadigan bo'lsak, bu davrda so'z mantiq xotirasining va ma'nosiga tushunib esda olib qolishning roli va uning salmog'i kuchayadi, tartibga solish imkoniyatlariga bo'ladi. Birinchi signal sistemasi faoliyatining nisbatan ustunligi tufayli kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda so'z mantiq xotirasi deb atalgan xotiraga qaraganda ko'rgazmali-obrazli xotira ko'proq rivojlangan bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar qoida va tushuntirishlarga qaraganda konkret ma'lumotlarni, voqeliklarni, qiyofalarni narsalarni va faktlarni yaxshi tez esda olib qoladilar va xotiralarida mustahkam saqlaydilar. Xayol bilish faoliyatida esa o'quvchining xayoli uning o'quv faoliyatining ta'siri va talablari bilan tarkib topadi. SHuning bilan bir qatorda bevosita taassurotlar (muzeylarga sayohat, kartinalarni ko'rish, ekskursiyalarga borish, maktab yer uchastkasida ishlash va boshqalar) ham xayolni rivojlantiradi.

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan adabiyotni idrok etishning o'ziga xos xususiyati badiiy asarni tushunishning bolaning bevosita shaxsiy tajribasiga chambarchas bog'liqligidir. Bolalarning hayotiy g'oyalari bilan mos keladigan adabiy faktlar ular tomonidan oson va to'g'ri tushuniladi. Tajribaga zid bo'lgan, unga to'g'ri kelmaydigan faktlar ko'pincha noto'g'ri tushuniladi. Belgilarning yonma-yon kelishi beixtiyor baholashga olib keladi, bu bola

uni qayta hikoya qilish to'qimalariga kiritadi. Adabiy asarlarni tinglab, bolalar, birinchi navbatda, eng oson idrok qilinadigan aloqalarni o'rnatadilar, bunda voqealar bir-birini aniq kuzatib boradi va keyingisi avvalgisidan mantiqiy ravishda keladi. Syujetning bunday qurilishi maktabgacha yoshdagi bolalarga o'qiladigan va aytiladigan ko'pgina ertaklarga xosdir ("Teremok", "Iroda va echkilar", "Gingerbread", "Sholg'om" va boshqalar).

Agar voqealarning to'g'ridan-to'g'ri aloqasi uzilib qolsa va syujet jarayonida yashirin reja paydo bo'lsa, bu idrokni sezilarli darajada murakkablashtiradi va ba'zan asarni noto'g'ri tushunishga olib keladi. Masalan, bolalar juda oddiy "Masha va ayiq" ertakining mazmunini har doim ham aniq tushuna olmaydi. O'qituvchilar va psixologlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, ko'plab bolalar qiz Mashenkaning yashirin ma'nosini tushunmaydilar va shuning uchun ertak qahramonlarining ba'zi voqealari va harakatlarini noto'g'ri tushunishadi. Uni qayta hikoya qilib, bolalar Masha ayyorlikka murojaat qiladigan epizodlarni qoldirib, syujetni "to'g'rilaydilar". Qayta hikoya qilish sxemasi ko'pincha quyidagicha: Masha ayiqning oldiga boradi - pirog pishiradi - pirolar solingan qutiga o'tiradi - ayiq uni bobosi va buvisiga etkazib beradi. Ko'ramizki, bolalar o'zlarining qayta hikoyalarida asosiy ziddiyatni istisno qiladilar va butun hikoya asl nusxaga mutlaqo mos kelmaydigan xarakterga ega bo'ladi. Bolalarda syujetda bir nechta hikoyalar ("Tulki va bo'ri", "Mushuk, xo'roz va tulki", "Echki Dereza" va boshqalar) mavjud bo'lgan ikki qismli kompozitsiyali ertaklarni idrok etishda ma'lum bir qiyinchilik yuzaga keladi. Odatda bola ertakning faqat bitta hikoyasini (qismini) ushlaydi va takrorlaydi. bu holda, tayanch ko'pincha birinchi qismga va epizodlarga ko'proq mazmunan yoki bolalarga tanish bo'ladi. Hozirgi globallashuv jarayonlari va fan-texnika sohasidagi ilg'or tadqiqotlar ijtimoiy soha vakillarining zimmasiga shaxsning jamiyat talablari bilan uyg'un rivojlanishi va faol bilish motivatsiyasini qaror toptirish bilan bog'liq zaruriy vazifalarni yuklaydi. Bunday hollarda jamiyat ijtimoiy rivojining ilmiy asoslangan istiqbolli rejasini tuzib, uning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy qayta qurilishi yangi hayotiy muammolarni samarali va g'ayrioddiy hal etish qobiliyatiga ega bo'lgan ijodkor faol shaxsning shakllanishini talab etmoqda. Shu bilan bog'liq ravishda zamonaviy jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri o'sib kelayotgan yosh avlodning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishdan iborat. Bu esa o'z navbatida barcha bilish jarayonlarini psixologik qonuniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim sohasini takomillashtirishni talab etadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkuri ta'lim jarayonida juda katta o'zgarishlarga uchraydi. Mashhur psixolog L.S.Vigotskiy to'g'ri ko'rsatib o'tganidek, idrok va xotira maktab ta'limi boshlanishi oldidan anchagina taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'ladi, kichik maktab yoshidagi davrda esa intellekt (aql) jadal taraqqiy etadi. Tafakkurning rivojlanishi idrok va xotirani sifat jihatdan qayta o'zgarishga, ularni ixtiyoriy va boshqariladigan jarayonga aylanishga olib keladi. Vigotskiyning ko'rsatishicha, maktab yoshiga bola idrok va xotira funksiyasiga nisbatan kuchsiz intellekt funksiyasi bilan qadam qo'yadi. Biroq intellekt shunday rivojlanadiki, na xotira va na idrok bunday rivojlanishni o'z boshidan kechirmaydi.

Bola xususan 7 - 8 yoshlik davrida konkret narsa va hodisalarning ko'rgazmali xususiyatlari va sifatlariga asoslanib, odatda konkret kategoriyalar bilan fikr yuritadi. Ayrim izohlar bilan mashhur shveytsariyalik psixolog J. Piajening 7-10 yoshdagi o'quvchilar asosan konkret operatsiyalar bosqichida turadilar. Ana shu bosqichda bevosita, tajribadan olingan xususiyatlar sistemalashtirilishi mumkin, degan fikrlariga qo'shilish mumkin. Ammo, o'ylaymizki, kichik maktab yoshi davrining oxiriga kelib, to'g'ri tashkil qilingan ta'lim jarayonida o'quvchilar keyingi bosqichga, ya'ni umumlashtirish va abstraktsiyalashtirish qobiliyati taraqqiyotining ma'lum darajasi bilan bog'liq bo'lgan formal operatsiyalar bosqichiga o'tishga qobildirlar. IV sinflarning yangi programmalari ana shunga mo'ljallangan. IV sinf programmasida o'quvchilarning yangi material bilan tanishib, mustaqil mulohaza

yuritishlari va xulosa chiqarishlari, faktlarni solishtirib ko'rishlari, taqqoslashlari va analiz qilishlari, juz'iy hamda umumiy topishlari, oddiy qonuniyatlarni belgilashlari ko'zda tutilgan.

Rus psixologlarining tadqiqotlarida kichik maktab yoshdagi bolalarda qabul qilishning ikki turi; analitik va sintetik turlari ajratilgan. Analitik turda diqqat e'tibor alohida mayda - chuydalarga qaratiladi. Sintetik turda umumiy yaxlit holda qabul qilinadi. Ikkala turni bir-biriga qarama - qarshi qo'yish psixologiyada hozirgacha saqlanib keldi. Ammo turli yo'nalish vakillari buni shunday ta'riflaydilar. Differensial psixologiya uchun perseptiv usullarni farqlash muhimdir, chunki bu barcha bolalarda bir xil emas. Bu turdagi individual xususiyatlar bolada umrbod o'zgaras bo'lib qolmaydi, ular ontogenez jarayonida rivojlanadi, nafaqat rivojlanish jarayonida balki pedagogik mashqlar, pedagogik ta'sirlar orqali o'zgarib boradi. Kichik maktab yoshdagi bolalarda mashg'ulotlar jarayonida namoyon bo'ladigan tafakkurga xos bo'lgan uslubni o'rganish maqsadida A.A. Alekseeva va L.A. Gromovalar tomonidan ishlab chiqilgan tafakkur uslubini aniqlash so'rovnomasi o'tkazilganda, bolalarning 8,7 % sintezatorlik, 8,7 % idealistik, 8,7 % pragmatiklik, 56,5 % analitiklik, 17,4 % da realistlik uslubining ustunligi aniqlandi. Bolalarning axborotlarni qabul qilishlari bilan tafakkur uslublari o'rtasidagi korelyatsion koeffitsenti Pirson formulasi orqali o'rganilganda, analitiklik uslubi bilan bilish jarayonlarini rivojlanish ko'rsatkichlari o'rtasida ijobiy aloqalar borligi aniqlangan.

Axborotlarni qayta ishlab chiqish tezligini an'anaviy taxistostopik usul va ko'z harakatini o'lchash zamonaviy muolajasi yordamida aniqlash mumkin. Taxistaskopik tajaribalarda insonlarda bir xil sharoit va bir xil vaqt ichida axborot qabul qilish va qayta ishlash qobiliyati har xilligi kuzatilgan[3]. Axborotni qayta ishlash tezligi va sifatini o'rganishning ikkinchi metodik uslubi bu ob'ektlarni ko'rib chiqish va matnlarni o'qish paytida amalga oshiriladigan ko'z harakatlarni o'lchash va belgilab qo'yishdir. Axborotlarni qabul qilish qayd etish paytida sodir bo'ladi. SHuning uchun fiksatsiyalar davomiyligini o'lchash axborot qabul qilishga qancha vaqt kechishini aniqlashga imkon beradi. Ma'lumki, jismni ko'rgazmali tahlil qilish kuzatuvchining bilimi, tajribasi va kuzatishlariga bog'liq. Rus psixologlari tomonidan kuchli va kuchsiz asab tizimiga ega bo'lgan bolalarni o'yin faoliyatida kuzatilganda nigohni fiksatsiya qilish davomiyligi va qaror qabul qilishdagi vaqtda farq borligini aniqlaganlar. Kuchsiz asab tizimiga ega bo'lgan bolalar kuchlilariga qaraganda nigohlarini tez va uzoq to'xtatib turishgan, qarorni sekinroq qabul qilishgan, raqiblarning figuralariga emas, o'z figuralariga ko'proq e'tibor berishgan. Kuchli asab tizimiga ega bo'lgan bolalar bir fiksatsiyada juda ko'p axborot qabul qilishgan, o'yinning keyingi holatiga ahamiyat berishgan. Faol qidiruv axborotini amalga oshirgan.

Narsalarni bolalar tomonidan tartibga solish guruhlash bo'yicha kuzatilganda ikki faza aniqlangan.

1. Axborot qidirish fazasi - bunda materialni ko'rib chiqish amalga oshiriladi va uni turlash va toifali tartibga solish rejasi tuziladi.

2. Tuzilgan rejalar asoslanadi va tekshiriladi. Ammo, differensial psixologik nuqtai - nazaridan qaraydigan bo'lsak, biror individual farqlar aniqlanadimi? degan savolga javob berishimiz kerak. Albatta bunday farqlar mavjud. Impulsiv va refleksiv bolalarning har xil xulqlari aniqlanganligini aytish mumkin. Bunda impul'siv bolalar "O'xshash jismlarni topish" kabi topshiriqlarga duch kelganda juda tez javob topadilar. Ammo ko'p xatolarga yo'l qo'yadilar. Refleksiv bolalar esa xuddi shunday topshiriqqa ancha ko'p vaqt sarflaydilar. Ammo xatolari kam bo'ladi yoki umuman bo'lmaydi.

Bolalarda fazoviy yo'nalishni rivojlantirish.

Bolaning fazoviy funksiyalarining zamonaviy shakllanishi, ularning kognitiv faoliyat bilan chambarchas bog'liqligi va maktabning o'ziga xos ko'nikma va malakalarini rivojlanishi ilmiy -nazariy tadqiqotlarda bir necha bor muhokama qilingan.

Ma'lum bo'lishicha, fazoviy funksiyalarning etishmasligi matematika bo'yicha o'quv materiallarini o'zlashtirishda 47%, rus tilida materiallarni o'zlashtirishda 24% va yozish ko'nikmalarini shakllantirishda qiyinchiliklarni, 16% o'qishni o'rgatishdagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Oddiy xatolar boshlang'ich maktab o'quvchilarining fazoviy farqlanishi:

Matematikada - raqamlarning noto'g'ri yozilishi, misollarni daftarga yozishni nosimmetrik tartibga sola olmaslik, o'lchash paytida ko'zdagi xatolar;

Maktubda - daftardagi harflar va satrlarni o'zaro bog'lay olmaslik, shu kabi harflarning yuqori va pastki qismini aralashtirish, oyna xatolari;

Oddiy xatolar Boshlang'ich maktab o'quvchilarining fazoviy farqlanishi:

Matematikada - raqamlarning noto'g'ri yozilishi, misollarni daftarga yozishni nosimmetrik tartibga sola olmaslik, o'lchash paytida ko'zdagi xatolar;

Maktubda - daftardagi harflar va satrlarni o'zaro bog'lay olmaslik, shu kabi harflarning yuqori va pastki qismini aralashtirish, oyna xatolari;

O'qishda-ravon o'qishga o'tishni, shakli o'xshash harflarni farqlashni qiyinlashtiradigan chiziqlar farqlanadigan bo'shliqlar tor doirasi;

Chizishda - kuzatish paytida ko'zdagi xatolar, rasmni varaqning bo'sh joyiga joylashtira olmaslik, rasmdagi nisbatni o'zlashtirishda qiyinchiliklar;

Jismoniy tarbiya fanida - noto'g'ri harakat yo'nalishi, harakatning bir yo'nalishidan boshqasiga o'tishda qiyinchilik.

Xulosa shuki, axborot qabul qilish tezligidagi individual farqlar, o'tkazilgan farqlarning aniqligidagi, qaror qabul qilishda bola uchun kerak bo'ladigan axborotlarning sonidagi va ahamiyatidagi farqlar aniqlandi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki maktabgacha yosh davridagi bog'larning idrok xotira tafakkur va boshqa bilish jarayonlarini yanada rivojlantirish va ularni kasbga yo'naltirish haqida bir qator ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va yoshlarni kasbga yo'naltirish haqida bir qator qonunlar va farmoyishlar qayd etilgan. Bundan tashqari yoshlarga ta'lim tizimida ko'pgina imkoniyatlar berilmoqda. Ular bundan oqilona foydalanishi va yurtga o'z hissalarini qo'shishi lozim. Ular ham kelajak avlodga ta'lim tizimi haqida tushunchalar berishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nishanova Z. Qarshiyeva D. Atabayeva N. Qurbonova Z. "Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya" Toshkent, 2014;
2. Xaydarov F.I. Xalilova N.I "Umumiy psixologiya" Toshkent, 2010
3. Nishonova Z. Alimova G. "Bolalar psixologiyasiva uni o'qitish metodikasi" T:2006y
4. Voxidov M. "Bolalar psixologiyasi" T: O'qituvchi. 1982 y.
5. Davletshin M.G. "Umumiy psixologiya". T:TDPU, 2002.
6. G'oziyev E.G'. "Ontogenez psixologiyasi". – T:Noshir. 2010.
7. Davletshin M.G, Do'stmuhammedova Sh.A., Mavlonov M.M., To'ychiyeva S.M., "Yosh va pedagogik psixologiya" T. TDPU, 2004
8. Umarova F. " Bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim". T: 2012
9. L.Beknazarova. " Ijtimoiy-psixologik trening". Toshkent 2016.
10. Nishonova.Z.T. "Psixik taraqqiyot diagnostikasi". Toshkent Nizomiy nomli TDP

PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**O'ralova Dinora Aliboy qizi
Termiz Davlat Pedagogika instituti talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada suitsidning qanchalik global muammoligi, dunyo bo'yicha foizlarda ko'rinishi va psixologik sabablari ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan bir qatorda suitsidning oldini olish va bunday holatlar takrorlanmasligi uchun psixologik yechimlar va tavsiyalar berib o'tilgan. Va bir qatorda o'smirlik davriga umumiy tavsif berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: suitsid, suitsident, zo'ravonlik, ziddiyat, o'smirlik, o'spirinlik.

Asosiy qism. O'zini o'ldirish, xudkushlik yoki suitsid (lotincha: sui caedere) o'z hayotiga o'z ixtiyori bilan chek qo'yishdir. O'zini o'ldirishlikka jamiyatning munosabati din, sha'n hamda hayot ma'nosi mavzulariga aloqador bo'lib kelgan. Aksar dinlar, masalan, Yahudiylik, Xristianlik, Islom, Buddizm, Hinduizm kabilar o'zini o'ldirishi qoralashadi va gunoh deb baholashadi; biroq ba'zi islomiy va xristian sektalar xudkush bomba hujumlarini oqlashadi, ularni bajarganlarga shahid statusini va'da etishadi. Yaponiyadagi samuraylar davrida esa o'zini o'ldirish o'z sha'nini himoya qilish maqsadida bajarilgan va ijobiy baholangan. Shuningdek urush vaqtida kamikazelik harbiy qahramonlik deya ko'rilgan.

O'zini o'ldirish jamiyatda hamon qattiq qoralanadi; biroq bedavo kasallikka chalingan bemorlarning tibbiy yordamni qabul qilmay qo'yish yoki evtanaziyani tanlash huquqi bahs ostidadir.

Zamonaviy tibbiyot odatda o'zini o'ldirishni ruhiy nosog'lomlikka yo'yadi va bunday kishilarga ruhiy yordam ko'rsatilishi zarur, deb hisoblaydi.

Dunyoda har yili millionga yaqin odam o'zini o'ldiradi, 10-20 millionta xudkushlikka omadsiz harakat bo'ladi. Rossiyada har yili 60 000 AQShda taxminan 30 000 Yaponiyada 30 000 dan ziyod va Xitoyda 250 000 nafar kishi xudkushlik oqibatida vafot etadi.

Dunyoda har 40 soniyada bitta suitsid sodir bo'ladi. Bir yilda 700-800 ming odam o'z joniga qasd qilishdan vafot etadi. Bu raqam yuzminglab urinishlarning "muvaqqiyatli" yakunlangan yigirmadan bir qismi, xolos. Suitsid oila va jamiyat hayotiga jiddiy ta'sir qiladigan, marhumning yaqinlari uchun uzoq muddatli salbiy oqibatlarni yetaklab keladigan fojia. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yili 15-19 yosh oralig'idagi o'limlarning har to'rtinchi sababi o'zini o'ldirish bo'lgan.

O'rin	Mamlakat	Yil	Erkaklar	Ayollar	Jami
1.	Litva	2003	74.3	13.9	42.1
2.	Rossiya	2002	69.3	11.9	38.7
3.	Belarus	2003	63.3	10.3	35.1
4.	Qozog'iston	2002	50.2	8.8	28.8
5.	Sloveniya	2003	45.0	12.0	28.1
6.	Vengriya	2003	44.9	12.0	27.7
7.	Estoniya	2002	47.7	9.8	27.3
8.	Ukraina	2002	46.7	8.4	26.1
9.	Latviya	2003	45.0	9.7	26.0
10.	Yaponiya	2002	35.2	12.8	23.8

1-rasm. Bir yilda bo'ladigan xudkushliklar miqdori.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan choralar tarkibida, xususan o'smirlarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish, shaxslararo munosabatlarga kirishishda empatiya hissini rivojlantirish, shaxs sifatida o'zini to'g'ri baholash, jamiyatda o'zo'rnini topishida yordam berish hamda axloqiy ko'nikmalar shakllantirishining psixologik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalalar hisoblanadi.

O'zbekistonlik psixologlardan E.G.G'oziyev, N.G.Kamilova, G.Q.To'laganova, B.M.Umarov kabi olimlarning izlanishlarida bolalik va o'smirlik davridagi psixik xususiyatlarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, ularda asosiy e'tibor deviant xulq-atvor, xarakter aksentuatsiyasi, bolalar va o'smirlar suitsidi, o'z-o'ziga baho berish va nazorat qilish muammolariga qaratiladi.

Inson onogenizida o'smirlik balog'atga etish davri bo'lib, yangi xislar, sezgilar va jinsiy xayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan xam xarakterlanadi. O'z davrida L.S.Vigotskiy bunday holatni psixik rivojlanishdagi krizis deb nomlagan. O'smirlik yoshida ularning xulq-atvorigaxos bo'lgan alohida xususiyatlarni asosan jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo'lmaydi. Jinsiy yetilish o'smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta'sir ko'rsatib, bu ta'sir bevosita emas, balki ko'proq bilvositadir. O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik, yig'loqilik, kabi xususiyatlar xos. O'smirlar va bolalar psixikasining yosh davrlarida o'ziga xos xususiyati mavjud bo'lib adabiyotlarda emotsional yetuk emaslik, kattalar avtoritetiga bo'ysunish, ishonuvchanlik, jinsga oid munosabatlar haqida xabardorligi va hayotiy tajribasining yetarli darajada emasligi, boshqa insonlarni mavjud harakatlarini oldindan ayta olish va murakkab vaziyatlarda tanqidiy hamda to'liq baholay olmaslik kabi sifatlar namoyon bo'ladi.

Bolalar kattalar singari bir maromda rivojlanmaydi, shuningdek, ijobiy va salbiy psixologik xususiyalar, nisbatan barqaror va tinch osoyishta kechadigan davrlar mavjud. Kattalarga nisbatan xulq-atvoridagi ijobiy va salbiy munosabatning paydo bo'lishi, negativizm singari nohush xulq-atvor alomatlari o'z-o'zidan kelib chiqadigan bevosita jinsiy yetilish tufayli poydo bo'ladigan belgilar bo'lmay, balki ular bilvosita ta'sir ko'rsatadigan o'smir yashaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar vositasi orqali, uning tengdoshlari, turli jamoalardagi mavqei tufayli, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi o'rni munosabatlari sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir. Mana shu ijtimoiy sharoitlarni o'zgartirish yo'li bilan o'smirlarning xulq-atvoriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatish mumkin. Ular tashqi ta'sirlarga va xissiyotlarga juda beriluvchan bo'ladilar. Shuningdek ularga mardlik, jasurlik, tantiqlik kabi psixologik sifatlar ham xosdir. Tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik o'smirde shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, lekin bu shaxsiy fikr aksariyat hollarda asoslanmagan bo'ladi. Shuning uchun ham ular ota-onalarning, atrofdagi kattalarning shuningdek, ustozlarning to'g'ri yo'lni ko'rsatishlariga qaramay o'z fikrlarini o'tkazishga harakat qiladilar. Juda ko'p o'smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qoladilar. Bugungi kunda internet materiallarini tushunish yoki anglamasdan undan foydalanishga harakat qilishadi. Bu holatda chekuvchi, ichuvchi singari yangi rolda o'zini normal, qulay his qiladi. Bunday holatlarga tushgan o'smir juda tashvishga tushadi va undakrizis holati yuzaga keladi. Bu krizis o'smirning ma'naviy o'sishi psixikasidagi o'zgarishlariga ham bog'liqdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqei o'zgaradi, o'zining yaqinlari, do'stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi. Lekin eng katta o'zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi. Ko'pgina o'smiryoshi davridagi maktab o'quvchilarida o'zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi.

Shuningdek, o'zi xaqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga to'ri kelmayotganligi o'smirni asabiylashishiga olib keladi. Bu esa o'smirde o'zi xaqida salbiy fikr va qo'rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Bunday o'smirdagi o'zgarishlarni uchun atrofdagilar, kattalar, shuningdek ota-onasiga qarshi chiqayotganligini anglay

olmayotganligi tashvishga soladi. Maxsus ijtimoiy psixologik adabiyotlarda hayotga chidamli, irodali iborasi mavjud. Bu iboraga taalluqli bo'lgan salbiy-xulq atvor larning paydo bo'lishi o'smir davridagi bolalardagi og'ir iztirob noqobiloila, spirtli ichimliklarni iste'mol qiluvchi otanalar, shavqatsiz kaltaklash, tabiiy ofat, kambag'allik, oiladardagi ajrim xolatlari kabilar ularni psixik rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Bu borada o'smirlarning ota-onasi, kattalar bilan qiladigan muloqoti asosan ularning katta bo'lganlik hissi asosida tuzilganligi sababli qo'llab - quvvatlashlariga ehtiyoj sezadilar. Ota onalar bilan faoliyat o'smiringa kattalarni yaxshiroq tushinishlari uchun yordam beradi. O'smir o'zida bo'layotgan o'zgarishlar, uni tashvishga solayotgan muammolar xaqida kattalar bilan bo'lishishga katta extiyoj sezadi, lekin buni xech qachon birinchi bo'lib o'zi boshlamaydi. O'smir o'ziga nisbatan yosh bolalardek qilinadigan muomila -munosabatiga qattiq norozilik bildiradi. O'smirlar muloqoti nihoyasida o'zgaruvchanligi bilan xarakterlanadi. Qayd etib o'tilgan yo'nalganlik albatta kattalarning ham muloqot va munosabatda mavjud, lekin ular kattalarnikidan o'z emotsionalligi bilan farqlanadi. Tengdoshlari, shuningdek sinfdoshlari guruhida o'smir o'zining kelishuvchanlik xususiyati bilan namoyon bo'ladi. O'smir yoshidagi o'quvchilarda «Biz» hissining shakllanishiga yordam beradi va uning ichki holatini mustahkamlaydi. O'smir yoshdagi bola uchun do'st tanlash juda katta ahamiyatga ega. O'smirlik davrida do'st juda qadimli hisoblanadi. Do'stlar doimiy ravishda ruhan, qalban yaqin bo'lishga extiyoj sezadilar. Bu extiyoj o'smir do'stlarning so'rashishi va ko'rishishlarida ko'rinadi. Ko'pgina ana shunday juda yaqin munosabatlar, umumta'lim maktabi o'smir yoshi o'quvchilarining shaxs bo'lib shakllanishdagi, birgalikdagi xarakatlarini o'zi inson qalbida va xotirasida birumrga saqlanib qoladi.

O'z joniga qasd qilish hodisasini ilmiy jihatdan tadqiq qilishga XIX asrning XX asrning boshlaridan boshlab kirishila boshlandi. Bunga birinchidan, butunlay dunyo miqyosida o'z joniga qasd qilish hodisasining ortib borayotganligi sabab bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan suitsid muammosini o'rganishga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqotlarning yuzaga kelishi bu muammoni har tomonlama o'rganishga turtki bo'ldi. Asrimizning boshlarigacha bo'lgan davrda o'z joniga qasd qilish hodisasini o'rganish bir qancha yo'nalishlar bo'yicha olib borilgan bo'lib, bu yo'nalishlarning deyarli barchasi suitsidni tushuntirishda bir yoqlamalikka asoslangan nazariyalarni o'rtaga tashlaydi. Masalan, suitsidni o'rganishning sotsiologik yo'nalishdagi nazariyasi namoyondalari (asoschisi E.Dyurkgeym) o'z joniga qasd qilish xulqi faqatgina ijtimoiy muhit ta'siri natijasida yuzaga keladi deb hisoblab, suitsidial xulqning keltirib chiqaruvchi boshqa (psixologik, patologik, biologik) omillarni ko'ra bilmaydilar. Bu yo'nalishning asoschisi hisoblangan E.Dyurkgeym o'zining 1897 yilda chop etilgan "O'zini-o'zi o'ldirish" nomli asarida "O'z joniga qasd qilish psixik yoki organik kasalliklar natijasida bo'lmay, balki shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarining izdan chiqishi yoki buzilishi mahsulidir"; - deb ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra suitsidni yuzaga keltiruvchi va sabablarni shaxsning ruhiy va individual psixologik xususiyatlaridan emas balkim, jamiyatdan, undagi ijtimoiy muhitdan izlash kerakdir. Uning ta'kidlashicha o'z joniga qasd qilish ijtimoiy hodisa bo'lib, uning miqdori har bir jamiyatda individga ta'sir qiluvchi "jamo" kuchi bilan boshqariladi va bu kuchning faolligi jamiyatda amal qiladigan institutlar (oil, davlat, partiya va boshq.) tili bilan belgilanadi. Ya'ni suitsid ko'lami ijtimoiy tizimning "noinsoniy"strukturasi bilan bog'liqdir.

Rossiyada suitsidni tadqiq qilishning sotsiologik yo'nalishi bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borildi. Jumladan, M.N.Fenomenov o'z tadqiqotlarida suitsidial urinish sabablarini E.Dyurkgeym ta'kidlaganidek, "ijtimoiy institutlardan emas balki, mamlakatda hukm surayotgan ichki nosog'lom muhit va insoniy munosabatlar nosog'lomligidan izlash o'rinlidir deb ko'rsatadi. Ijtimoiy inqiroz deydi u, eski hayot tarzining yaratilishiga imkoniyat tug'diradi". Bu o'rin almashish insonlar jamoasiga ham tegishli bo'lib, keksalar o'rniga yangi

avlodning kelishini taminlaydi". Bu davr oraliqida deydi Fenomenov, - "suitsid ba'zan ko'payishi, ba'zan esa kamayishi mumkin". M.N.Fenomenov fikrlarini tahlil qilib ko'radigan bo'lsak muallif, suitsid bir tomondan tabiiy hodisa bo'lsa, ikkinchi tomondan shaxsning individual psixologik xususiyatlari, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy muhit o'zgarishlarini insonlar tomonidan ruhiy qabul qilinishiga, ya'ni ijtimoiy muhit voqea - hodisalariga bog'liqdir degan fikrni ilgari surganligining guvohi bo'lamiz.

Suitsidni o'rganishning sotsiologik yo'nalishi tarafdorlari garchand suitsidni tushuntirishda bir yoqlamalikka berilgan bo'lsalarda biroq, suitsidni tahlil qilish va uning oldini olish borasida qator qimmatli fikr va mulohazalarni ilgari suradilar. Xususan, bu yo'nalishning asoschisi E.Dyurkgeym o'zigacha bo'lgan davrdagi suitsid muammosiga bag'ishlangan barcha nazariy va amaliy tadqiqotlarni bir tizimga solib, suitsid muammosiga ilmiy ta'rif berishga harakat qiladi. E.Dyurkgeymning "suitsid ijtimoiy hodisa bo'lib, hayotdan ketishga qaratilgan, anglanilgan, qasddan qilingan xatti-harakatlar" degan tushunchasi o'z davrida suitsid ruhiy nosog'lomlik mahsulidir degan ta'limotga qattiq zarba beradi. Biroq, E.Dyurkgeym qarashlarida suitsidning talqin qilishda ijtimoiy ustunlik qilganligi tufayli uni bir yoqlamalilikka ayblashadilar. Suitsidni huquqiy tadqiq qilish borasida ham qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, ularda suitsidni xuquqiy jihatdan talqin qilishga harakat qilinadi. Suitsidni huquqiy jihatdan tadqiq qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida M.N.Gernet ilmiy izlanishlarini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Muallifning ko'p yillik kuzatishlarini o'z ichiga olgan "Moralnaya statistik" (ahloqiy statistika) nomli asari bu sohadagi dastlabki yirik asarlaridan biri sifatida maydonga keldi. Shuningdek N.I.Zagorodnikov suitsidni jinsiy javobgarlikka tortish nuqtai nazaridan tadqiq qilib, suitsid bira to'la ikki jinoyatni - qasddan qilinganlar og'ir tan jarohati yetkazish va ehtiyotsizlik tufayli sodir etilgan o'limni keltirib chiqaradi deb ko'rsatadi.

Suitsidni psixologik jihatdan tadqiq qilishga bag'ishlangan tadqiqotlarni tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, ulardan affektiv holatlarning suitsidga ta'siri, shaxs xulq atvoridagi o'zgarishlar, ruhiy tushkunlik va ruhiy kechinmalarining suitsidal xulqning kelib chiqishi o'rni kabilar tahlil qilinganligining guvohi bo'lamiz. Suitsidni psixologik jihatdan tadqiq qilish yuzasidan qator tadqiqotchilar samarali ilmiy izlanishlar olib borishdi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlarda suitsidal xulqning kelib chiqishiga shaxsning individual psixologik va mijoz turlarining ta'siri hamda suitsidning psixologik ma'nosi kabilar o'rganildi. Biroq, suitsidni o'rganishning boshqa nazariyalari singari psixologik nazariya tarafdorlari ham suitsidni tushuntirishda bir yoqlamalikka berilganliklari kuzatiladi. Natijada suitsidning psixologik ma'nosini aniqlash va psixologik asoslashda qator noaniqliklarga yo'l qo'yadilar. Xususan, ular suitsidal xulqning psixologik mexanizmlarni izohlashga harakat qilsalarda, biroq suitsidal xulqning ruhiyat sog'lomlik va nosog'lomlik holatlariga bog'liqligi masalasini tahlil qilishda chalkashliklarga yo'l qo'yadilar.

Xulosa. Insonga quloq tutish orqali uning hayotini saqlab qolish mumkin! Agar siz o'z joniga qasd qilmoqchi bo'lgan birorta odamni bilsangiz yoki "unda suitsidga moyillik bor" degan gumonda bo'lsangiz, u holda, hayotini saqlab qolishda unga yordam berishingiz mumkin, buning uchun shunchaki uning aytganlariga quloq tuting! O'zini o'ldirishga chog'langan odamlar ko'pincha "mening hech kimga keragim yo'q" mening boshqa ilojim yo'q" va "men haqimda hech kim qayg'urmaydi" debo'ylaydilar.

Odamlarni tinglash orqali ular bilan sodir bo'layotgan hodisalarga va sodir bo'lishi mumkin bo'lgan narsalarga befarq emasligimizni namoyon etamiz. Ota-onalar muassasa ma'muriyati yoki ijtimoiy markazlarga iloji boricha tezroq yordam so'rab, murojaat qilishlari kerak. Shuningdek, ta'lim muassasasi ma'muriyati va psixologi bunday o'quvchilarni doimiy ravishda kuzatib borishi hamda parasuitsidal holatdan to'la chiqib ketguncha ular bilan birga bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nishanova Z. Qarshiyeva D. Atabayeva N. Qurbonova Z. "Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya" Toshkent, 2014;
2. Xaydarov F.I. Xalilova N.I "Umumiy psixologiya" Toshkent, 2010
3. Nishanova Z. Alimova G. "Bolalar psixologiyasiva uni o'qitish metodikasi" T:2006y
4. Voxidov M. "Bolalar psixologiyasi" T: O`qituvchi. 1982 y.
5. Davletshin M.G. "Umumiy psixologiya". T:TDPU, 2002.
6. G'oziyev E.G'. "Ontogenez psixologiyasi". – T:Noshir. 2010.
7. Davletshin M.G, Do'stmuhammedova Sh.A., Mavlonov M.M., To'ychiyeva S.M., "Yosh va pedagogik psixologiya" T. TDPU, 2004
8. Umarova F. " Bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim".T: 2012
9. L.Beknazarova. " Ijtimoiy-psixologik trening". Toshkent 2016.
10. Nishanova.Z.T. "Psixik taraqqiyot diagnostikasi". Toshkent Nizomiy nomli TDP11. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati .Toshkent2018 y.12. Goziyev E. Psixologiya. Toshkent. 2008 y13. Goziev E. Ontogenez psixologiyasi . Noshir taxriri ostida Toshkent. 2010 y14. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent.1999y 15. Tadjieva S.X., Sabirova D.G'. "Tanglik vaziyatida qolgan bolaga psixologik yordam ko'rsatish". T.: RBIMM, 2011 y. 142 b

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BADIY ADABIYOT ASARLARIGA QIZIQTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

Ostanayeva Zulfizar

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi yo'nalishi talabasi,

Abdiyeva Fazilat Fayzulla qizi

**Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim
pedagogikasi va psixologiyasi kafedra o'qituvchisi**

Annatotsiya: Jahon miqyosida ilg'or texnologilar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot asarlariga qiziqtirishning samarali usullariga oid bir qator izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlari innovatsion hamkorligi natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot asarlariga qiziqtirishda pedagogik-psixologik ta'sir ko'rsatishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida samarali mexanizmlarni tashkil etishni taqozo etadi. Maktabgacha ta'limning samarali mexanizmlarini joriy etish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi. Shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashadi. Mamlakatimizda ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar o'qish shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o'zgartishlarni kiritishni taqozo etmoqda.

Kalit so'zlar: adabiyot, ta'lim, jamiyat, pedagogic-psixologik, fan-texnika, inson, shaxs, bola

Yurtimizda bolalarga sifatli kitoblar yetkazib berish borasida ham bir qancha yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. Natijada bolalar ko'ngliga tez va oson kirib boradigan kitoblar kun sayin ko'paymoqda. Yangi O'zbekiston bolalariga atalgan kitoblar hayot maydonining eng yuksak cho'qqisiga chorlab turadigan porloq mash'alaga o'xshaydi. Ularning har bir sahifasi farzandlarimizni izlanishga, intilishga, yangiliklar yaratishga chorlab va hamisha ilhomlantirib turadi.

Ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha yoshi bolalik davrining katta bir qismini tashkil etadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatlari rivojlanadi hamda shaxsiy individul xususi-yatlari yani (shaxsiy fazilatlarini) tarkib topa boshlaydi. Rus pedagoglaridan P.F.Les Gaftning fikricha, insonning maktabgacha yoshidagi davri shunday birdavrki, ana shu davr mobaynida kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo bo'lishi belgilanadi va axloqiy sifatlarining asoslari yuzaga keladi.

A.S.Makarenkbolalarni juda kichik davridan boshlab tarbiyalash zarurligi haqida gapirib, tarbiyaning eng muhim asoslari bolaning beshyoshgacha bo'lgan davri mobaynida yuzaga keltiriladi. Mana shu davrda qilingan butun tarbiya, tarbiya jarayonining 90% ini tashkil etadi, degan edi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishni uyg'otish o'z navbatida ular shaxsiyati rivojiga ham ulkan darajada ta'sir etadi. Chunki har bir bola o'z shaxsiyat va dunyo qarashga ega. Shaxs kamoloti va uning taraqqiy etishida esa bevosita pedagogika hamda psixologiyaning o'rni o'rni beqiyosdir. Shuning uchun ham bolalarni kitob o'qishga qiziqtirishda pedagogik va psixologik omil muhim hisoblanadi. Kitob va kitobxonlik bola ong-tafakkurini teranlashtirib, qalbiga eng go'zal ezgu niyatlarni joylaydigan, ularni

yaxshiliklar olamiga yetak- laydigan ma'naviyat sarchashmasidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda endigina narsalarni idrok etish, fikrlash tasavvur etish shakllanib boradi. Ular kitoblardagi qahramonlarning qiziqarli qiliqlari, kulgili voqea va hodisalarni tasodiflarni ko'p-roq eslab qoladilar. Agar tarbiyachi kitobni ovozi o'qib ularning diqqatini o'qilgan narsaga qaratib tushuntirib bersa, bolalar uni eslab qoladilar. Bu yoshdagi bolalar o'yin orqali voqea va hodisalarni, kishilarning xarakteri va munosabatlarini bilib oladilar ko'rgan eshitgan, o'qigan narsalardagi holatlarni, kishilarni, hayvonlarni "yaxshi" va "yomon"ga ajratadilar va ularga o'z munosabatlarini bildiradilar. Bu yoshdagi bolalarni o'zlarini o'rab turgan muhit, tabiat va undagi hayvonlar, o'simliklar qiziqtiradi. Shuning uchun ham ular o'z qiziqishlarini qondirish uchun kattalarni xilma-xil savollarga ko'mib tashlaydilar. Endi ular voqea va hodisalarga boshqacha ko'z bilan qaraydilar, voqeilikni bilishga intiladilar va xotirada saqlab qoladilar. "Nima uchun qaroqchi bo'ladi?", "Nima uchun qushlar uchadi-yu odamlar uchmaydi?", "Nima uchun qor yog'adi?" va boshqa savollar bilan kattalarga murojaat qiladilar. Chunki bu davrda ularning rivojlanishi alohida bir bosqichni tashkil etib, aqliy va jismoniy o'sishida, o'qitish va tarbiyalashda o'ziga xos yosh xususiyatlarga amal qilishini talab etadi. Kitobxonlar uchun konkret narsani obrazli fikrlash xarakterlidir, o'qish davomidashu obrazli fikrlash orqali ularning tushunchalari o'sib boradi. Bu yoshda bolani kitobning yozilishi masalaning qo'yilishi emas, kitobdagi obraz, voqea va hodisa qiziqtiradi. Tarbiyachi kitobxonlarning qiziqishlarini shakllantirishi va rivojlantirish ular o'qishga rahbarlik qilishi, haqiqiy kitobxonlar bilan til topishib ishlashi lozim. Biz bu yerda alohida kitobxonlarga ta'rif berdik xolos. Bolalar o'qishni sifatli ravishda tashkil etish va ularni davr talabiga javob bera oladigan kishilar qilib tarbiyalash uchun, avvalo ularni har tomonlama o'rganish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.V. Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V. Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi T: 2018. 1-81-b;
2. F.Qodirova, SH.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika".-T., "Ma'naviyat". 2019
3. Sh.A.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari" T:. 2013
4. N.M.Qayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashriyoti T:. 2013
5. Гогоберидзе А. Г., Солнцева О. В. Дошкольная педагогика с основами методик воспитания и обучения. Учебник. СПб.: Питер, 2019
6. Козлова С.А. Дошкольная педагогика: учебник М.: Academia, 2017

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLOVCHI
PIRLS XALQARO TADQIQOTI**

**Raximjonova Oyjamol Qo'qon universiteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi,
Davlatova Saidaxon Tojimuhammad qizi
Qo'qon Universiteti Ta'lim kafedrasini o'qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining matni o'qib tushunish yo'nalishini baholovchi xalqaro dasturi hisoblangan PIRLS – 2021 taqiqot metodi haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu maqoladan siz PIRLS tadqiqotining tarixi, tadqiqot maqsadi, o'tkazish usullari, tashkillanish jarayoni, o'qitish jarayonining savodxonligi, yillar kesimidagi reyting natijalari kabi yo'nalishdagi ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: IEA, PIRL, tadqiqot, metod, o'qish ko'nikmasi, ePIRLS.

Ushbu tadqiqot o'qish savodxonligini rivojlantirishda ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) PIRLS tadqiqoti mazkur assotsiatsiyaning 1991-yildagi o'qish savodxonligini tadqiq etish dasturiga qo'shimcha holda 2001-yildan joriy etila boshlandi. Har besh yilda o'tkaziladigan ushbu xalqaro tadqiqot bolaning mustaqil inson sifatida rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, boshlang'ich ta'limda tahsil olayotgan o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini xalqaro miqyosda baholaydi. Ushbu tadqiqot metodida o'quvchilar o'qish ko'nikmasini hosil qilgan bo'lib, endi bu ko'nikmadan boshqa fanlarni o'rganishda foydalanayotgan bo'ladi. PIRLS xalqaro tadqiqoti o'qish savodxonligini tadqiq etishda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) o'quvchilarning matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash tadqiqotiga (Trends in International Mathematics and Science Study–TIMSS) qo'shimcha tarzda ishlab chiqilgan. PIRLS xalqaro tadqiqoti o'qish savodxonligini tadqiq etishda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) Boston kollejida olib boriladigan TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqot markazi tomonidan IEA xalqaro assotsiatsiyasining Amsterdam va Gamburg shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi.

PIRLS (inglizca *Progress in International Reading Literacy Study*) — bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matni o'qish va tushunish darajalarini baholab beruvchi xalqaro reyting tizimidir.

Tadqiqot davriy ravishda - har besh yilda bir marta o'tkaziladi. Hamda ushu davrgacha 2001, 2006, 2011, 2016 va 2021-yillarda o'tkazilgan.

PIRLS o'qish ta'limi takomillashuv jarayonida dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Davlatlar PIRLS dan quyidagi maqsadlarda foydalanadilar:

• ta'lim tizimi darajasidagi yutuqlarning tendensiyalarini global miqyosda kuzatib borish;

- qayta ko'rib chiqilgan yoki yangi ta'lim siyosatining ta'sirini kuzatib borish;
- jarayonning kuchsiz nuqtalarini belgilash va o'quv islohotini amalga oshirish;
- PIRLS ma'lumotlarini tadqiq va tahlil qilish orqali o'qitish va o'qishni takomillashtirish;
- adolatlilikni kuzatish yoki qo'shimcha sinflarda o'quvchilarni ushbu yo'nalisdagi bilimlarini baholash kabi tegishli ishlarni olib borish;
- o'qishni va o'qitishni o'rganish.

PIRLS loyihasi Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA — International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan yaratilgan. Xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish uchun Chestnut Hill (Massachusetts, AQSh) Boston kolleji mas'ul

hisoblanadi. Xalqaro tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Gamburgdagi (Germaniya) ma'lumotlar markazida amalga oshiriladi.

O'zbekistonda ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

O'quvchi sinov jarayonning faol qatnashuvchisi bo'ladi, matn ustida mushohada yuritishadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llashadi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

PIRLS tadqiqotida o'quvchilarning dars vaqtida va maktabdan tashqari vaqtlarida o'qishini ikki turi baholanadi:

1. O'quvchining adabiy tajribasini baholash maqsadida o'qish;
2. Ma'lumotni o'zlashtirish va undan foydalanish maqsadida o'qish.

Tadqiqot qoidalariga muvofiq, badiiy va informatsion matnlarni o'qiyotganda o'qish qobiliyatining to'rtta guruhi baholanadi:

- aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;
- xulosalarni shakllantirish;
- ma'lumotlarni talqin va sintez qilish;
- mazmuni, til xususiyatlari va matn tuzilishini tahlil qilish va baholash.

Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko'ra, o'rtacha 500 dan 800 tagacha, o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400–500 ta, ePIRLSda esa, taxminan 1000 ta so'zdan iborat bo'ladi.

PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi:

Eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori) – O'quvchilar matnni yaxlit o'zlashtira oladi va ayni paytda uning alohida qismlarini bir-biri bilan bog'liq holda tushunadi. Muallifning g'oyasini izohlashda o'z fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi.

Yuqori daraja (550 ball) – O'quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib o'z xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham, shakliga ham baho bera oladi, uning ayrim til xususiyatlariga e'tibor qarata oladi.

O'rta daraja (475 ball) – O'quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba'zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o'z xulosalarini chiqaradi.

Quyi daraja (400 ball) – O'quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo'lgan xabarni ajratib oladi.

PIRLS da bajarilgan ishlarni sifatli va miqdoriy baholash uchun quyidagi tizim qo'llaniladi:

- javobni tanlash usulidagi to'g'ri javoblar 1 ball bilan baholanadi;
- mavzu ketma-ketligini belgilash borasidagi to'g'ri javoblar 1 ball bilan baholanadi;
- erkin javob berish kerak bo'lgan topshiriqlar vazifaning murakkabligiga qarab 1 ball dan 3 ballgacha baholanadi.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

Tadqiqot natijalari

Yil		Qatnashgan davlatlar soni	Mamlakat	Natija(ball)
2001		35	Shvetsiya	561
2006		40	Rosssiya	565
2011		45	Gongkong	571
2016		50	Rossiya	581
2021		60	Singapur	588

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2021 tadqiqoti qamrov doiras. i Inna V.S. Mullis, Michael O. Marten. "Toshkent - 2021".
2. Psixodiagnostik metodikalar va psiodiagnostik tekshiruv jarayoniga qo'yiladigan talablar. N.B.Atabayeva. Toshkent – 2017 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori.
4. PIRLS xalqaro baholash dasturi.
5. "O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnoma". Toshkent – 2020".
6. PIRLS 2001 International Report.

MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYA ME'YORLARINI SHAKLLANTIRISH MASALASI

M.Qo'chqorova
O'zDJTU Jahon adabiyoti kafedrası
katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ma'naviy-ma'rifiy tarbiya uzviyligini ta'minlashda oila, ta'lim muassasalari, mahallaning o'rni beqiyos. Ta'lim-tarbiya uchun faqat mutasaddilar mas'ul, desak, qattiq yanglishamiz. Shu Vatan, shu yurt, shu yoshlar bizniki, ertaga kelajagimiz porloq bo'lishini istasak, bugun harakatni boshlashimiz kerakligi haqida.

Kalit so'zlar: ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiy, uzviylik, madaniy qadriyatlar, meros, millat, yosh avlod, odob-axloq, qadriyatlar.

Ma'lumki, tarbiyaning umumiy ijtimoiy vazifasi – yosh avlodda bilim, ko'nikma, ijtimoiy tajriba va axloqdan iborat. Shunga ko'ra, yosh avlodga tarbiya berish – maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, ijtimoiy hayotda munosabatga kirishish me'yorlari va unga rioya etish talablari bo'yicha zaruriy shart-sharoit yaratishni nazarda tutadi. Tarixdan ma'lumki, o'zbek xalqi boy ma'naviy, madaniy qadriyatlarga ega. Ana shu qadriyatlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va tarbiya usullari orqali bobolarimiz, momolarimiz farzandlarini odob-axloqli etib voyaga yetkazishgan.

Jahonga Ahmad Farg'oniy, Muhammad Xorazmiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk siymolarni bergan xalqning bugungi farzandlari chuqur bilimga ega bo'lishi lozimligini bugun hayotning o'zi talab qilmoqda.

Ma'lumki, Sharq mutafakkirlari merosida ta'lim-tarbiya, xususan, oilaviy tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan. Ular bolalarni tarbiyalashni jamiyat taqdirini, millatning kelajagini belgilaydigan asosiy mezon deb hisoblaganlar. Ularning pedagogik qarashlari zahirida ijtimoiy ideal sifatida komil inson g'oyasi yotadi. Ular tarbiyada ijtimoiy va biologik tomonlarning o'zaro munosabati haqida to'xtalib, tarbiyada irsiyat va muhit ta'siri birdek ekanligi, tan va ruh sog'lomligining birligi kabi masalalarni o'rta tashlaydilar. Ularning aqliy, mehnat, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyaning birligi hamda ularni amalga oshirish yo'llari haqidagi va oilada bolalar tarbiyasi haqidagi fikrlari mazkur muammolarning ko'pgina jihatlari qamrab oladi va ular muayyan tarbiyashunoslik bo'yicha qarashlar tizimini tashkil etadi. Bu qarashlar o'z davrlaridan anchagina ilgari ketib, bir necha asrdan beri ajdodlarimiz tafakkurini boyitib, ma'naviy qadriyat sifatida bugungi kunda o'z qiymatini yo'qotmay kelmoqda. Ular ijtimoiy va oilaviy tarbiya birligi haqidagi masalani ijobiy hal qilishga uringanlar, buni hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi ham to'la e'tirof etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga 2022 yil 20 dekabrda Murojaatnomasida alohida ta'kidlanganidek, "Ta'lim sifatini oshirish — Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir. Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek: "Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi, Bilim bor joyda buyuklik bo'ladi".

Hozirgi globallashuv davrida sifatli ta'lim masalasi nafaqat muallimlar, professor-o'qituvchilar, olim va mutaxassislarni, balki keng jamoatchilikni, hatto har bir fuqaroni befarq qoldirmasligi kerak. Chunki xalqning farovonligi va Vatani ravnaqidan ko'ngli tog'dek yuksaladigan, yurtning taqdirini o'z taqdiri deb bilgan har bir inson bobolarining boy tarixiy merosiga, ajdodlari xotirasiga cheksiz hurmat tuyg'usi bilan yashaydi. Tarixning har bir lahzasini va unda kechgan voqelikni, ezgu ishlarni yodida saqlaydi va muqaddas sanaydi.

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya uzviyligini ta'minlashda oila, ta'lim muassasalari, mahallaning o'rni beqiyos. Ta'lim-tarbiya uchun faqat mutasaddilar mas'ul, desak, qattiq yanglishamiz. Shu

Vatan, shu yurt, shu yoshlar bizniki, ertaga kelajagimiz porloq bo'lishini istasak, bugun harakatni boshlashimiz kerak.

"Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi", deydi xalqimiz. Shu bois ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yagona tizimini yaratish, xususan, o'g'il-qizlarni bolaligidanoq bilimli va fazilatli etib tarbiyalash, buning uchun maktabgacha ta'lim muassasalariga uslubiy yordam ko'rsatish muhim. Shuningdek, maktablar, o'rta maxsus va oliy ta'lim dargohlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha ishlarni kuchaytirish – davr taqazosi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat taraqqiy etishi uchun birinchidan, ta'lim va tarbiya uyg'unligini ta'minlash lozim. Bunda tarbiyaning milliy asosi bo'lmish milliy qadriyatlarimizdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, o'rta va oliy ta'limda tarbiyaga oid fanlarning o'qitilishining uzviyligini yo'lga qo'yish zarur. Uchinchidan, jamiyatda ustoz-muallimlarga nisbatan yuksak ehtiromni shakllantirish choralari ko'rish kerak. Bu choralar ichiga o'qituvchi malakasini oshirish ham, ularga moddiy sharoit yaratish ham, rag'batlantirish ham, ularning huquq va sha'nlari himoya qilish ham kiradi. To'rtinchidan, ma'naviyat va ma'rifat markazlari va ularning bo'limlari faoliyatini ta'lim tizimi bilan uyg'unlashtirish lozim. Ya'ni, ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosarlari (ularni yoshlar ishlari bo'yicha, deb atash shart emas, chunki ularning yoshlar bilan ishlashi o'z-o'zidan ayon) faoliyati markazlarning hududiy bo'limlari bilan birga muvofiqlashtirilishi lozim.

Hazrat Navoiy shunday degan ekanlar:

Menga ne yoru ne oshiq havasdur,

Agar men odam ersam, ushbu basdur.

Bu xuddi «Olim bo'lma, odam bo'l» degan naqlni eslatadi. Biz ham faqat olimni emas, ham odam-u, ham olimni tarbiyalasak, ayni muddao bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bahriddin Umarov "Oilaviy tarbiya saboqlari" (Ilmiy-uslubiy qo'llanma.) – "Tasvir nashriyot uyi", Toshkent. – 2019.
2. Гришин В.В., Лушин П.В. Методики психодиагностики в учебно-воспитательном процессе. - М., 2001.
3. Oilaviy muhit va bolalar //Qalqon. 2006.
4. <https://ishonch.uz/>

**YANGI O'ZBEKISTONDA TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR VA ULARNING NATIJALARI
TDFU MISOLIDA**

Rahimberdiyeva Yulduzxon Jahongir qizi
Toshkent davlat pedagogika universiteti
Ta'lim muassasalari boshqaruvi yo'nalishi 1-kurs magstranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimidagi islohatlar haqida va bu islohatlar bizning o'qishimizda qay darajada targ'ibot qilganayotganligi to'g'risida yozilgan. Mamlakatimizda istiqbolning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. So'nggi 5 yil ichida oliy ta'lim tizimida ham ko'plab yangiliklar va islohotlar natijasida tizimda ijobiy o'zgarishlar bo'lyapti. Ushbu maqolada, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar va yangiliklar tahlil qilinib, fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Yangiliklar, islohotlar, yangicha yondashuvlar, muammo, yechim, innovatsiya, ta'lim tizimi, ta'limda texnologiya, kredit modul tizimi, taqqoslash.

Kirish. Bugun yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'liqlanib so'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi". Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda. Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari ilm-fanning yirik o'choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Hozirda yangi-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi etakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda.


Tadqiqot metodologiyasi. Biz bu tadqiqotimizda kuzatish, anonim so'rovnoma va intervyu usullaridan foydalanganmiz. Bu tadqiqotimizni asosan Toshkent davlat pedagogika universitetimiz talabalaridan olib bordim. Ulardan olgan natijalarimizni o'rgandik va tahlil qilib chiqdik va qolgan universitetlar bilan o'zaro taqqoslab o'rgandik.

Ta'limni boshqarish - bu mavjud ma'lumotlarni samarali va boshqarish orqali ta'lim maqsadlariga erishish vositasi. U o'qitish va o'rganish maqsadlariga erishish uchun atrof-muhitdagi mavjud resurslardan yetarli darajada foydalanish bilan bog'liq. U har doim narsalarni boshqarish, shuningdek, inson munosabatlari bilan bog'liq bo'lib, asosiy tamoyillar to'plamiga asoslanadi va bolalarni tarbiyalashga qaratilgan. U bir qator funktsiyalarni bajarishi kerak: rejalashtirish, tashkil etish, yo'nalish, motivatsiya, nazorat qilish, muvofiqlashtirish, qaror qabul qilish va oxirgisi - hisobot. Bu butun ta'lim dasturini samarali va konstruktiv maqsad bilan boshqaradigan maxsus faoliyatdir.

Zamonaviy menejment nazariyasini empirik ravishda o'rganish uchun sifati tadqiqot strategiyasidan foydalaniladi. Asosiy tadqiqot, ayniqsa tadqiqotchi ishtirokchilar uchun hodisaning ma'nosini tushunishga qiziqqanida juda mos keladi (Merriam 2009).

Tadqiqot natijalari. Biz 50ga yaqin ta'labalardan quydagicha savollarga intervyu ko'rinishida javob oldik.


Ta'lim to'g'risidagi qonun bilan tanishmisiz?



1-rasm

Yuqoridagi rasmdan shuni ko'rishimiz mumkinki, ta'lim to'g'risidagi qonundan 50ta respandetimizning 70% lari ha javobini 10%lari eshitganmiz, 5% lari habardor emasmiz, 5% lari esa qisman bilamiz deya o'z fikrlarini bildirishdi.

Siz o'qishga kirib ilmiy jihatdan yuksaldim deya olasizmi?




2-rasm

Yuqoridagi rasmdan shuni ko'rishimiz mumkinki ta'labalarning ilmiy salohiyati qay darajada oshib bormoqda ularning maktabda olgan bilimlari qay darajada ediku, oliy ta'limda qay darajaga ko'tarildi. Bizning bergan savollarimizga 50ta respandentlarimizning 50%dan yuqoriroq qismi bizning ilmiy ba'zamiz oliy ta'limga kirganimizdan so'ng ancha kengaydi, ko'p bilmagan narsalarimizni professor ustozlarimizdan o'rgandik, fikrlashimiz ham ancha

o'zgardi deyishdi. Biz bu savolimizni ta'labarni 3 qismga ajratgan holda berdik. Birinchi iqtidorli talabalarga, keyin qizlarga, keyin esa o'g'il bolalarga ularning har biridan o'zimiz qoniqtirgan javoblarni oldik. Ba'zi talabalar maktabdagi bilimlarim yetarli bo'lyapti deya javob berishdi. Bundan ko'rishimiz mumkinki bu ta'labalar maktab paytlarida ham o'z ustilarida ishlagan ancha ilimga mehr qo'ygan ta'labalardir.

Siz o'z ta'lim muassasangizda yangi islohatlarni qo'llanilayotganligining guvohi bo'ldingizmi?



3-rasm

Yuqoridagi rasmdan shuni ko'rishimiz mumkinki, ta'limda qilinayotgan islohatlar talabalar uchun kerakli ta'sirlarini o'tkizib bormoqda ekan. Bu savolimizga 50ta respandentlarimizning 80% lari ha deya, 5% lari yo'q, 15% lari biz ta'limdagi o'zgarishlarning har birini juda ham yaxshi sezib bormoqdamiz deyishdi. Va aynan bularga misol tariqasida oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilgan islohatlarga misollar keltirdi. Iqtidorli yoshlarni rag'batlantirilishi, ko'p chet davlatlari bilan turli memaramdum imzolanganligini (Rossiya, Germaniya, AQSH va hakazo.) ta'kidlab o'tishdi. Va yoshlar uchun ajratilgan ta'lim kreditlari, qizlarning kontrakt pularining davlat tomonidan to'lab berilayotganligi ham ta'labalarni juda ham quvontirganliklarini alohida ta'kidlashdi.

Talabalarning o'z oligohlari to'g'rida juda iliq fikrlarini eshitib, talabalarning faoliyatini yaqindan kuzatdik. Dars jarayonlaridan tashqari vaqtlarda universitet kutubxonalariga borib talabalarning kutubxonada gavjumligini kuzatib juda quvondik, ular o'zlarining yo'nalishlari kesimida turli adabiyotlarni qidirib izlanishlari bu juda quvonarli holat. Ular kutubxonada chet el adabiyotlari yanada ko'paytirilishini va ko'proq vaqtlarini shu yerda o'tkizishni istashlarini aytishdi.

Ta'labalar yotoqxonasida ham ularning o'qishi uchun hamma sharoitlar mujassam, kutubxona deysizmi, kompyuter texnologiyalari deysizmi hammasi talabaning kelajakda kerakli bilimlarni o'zlashtirib, kelajakda yetuk kadr bo'ishlari uchun juda keng imkoniyatlar yaratilgan. Faqat bulardan foydalana olishligi kerak. Va Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti respublika kesimida tayanch oliygoh sifatida belgilanligi ham bizning universitetining o'zining darajasini yanada oshiradi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki oliy ta'lim tashkilotlarini boshqarish va rivojlantirish istiqbollarini belgilashda bevosita oliy ta'lim tashkilotlari rahbarlarining o'rni katta ahamiyat kasb etishini kuzatdik. Quyidagi takliflarni berib o'tmoqchimiz.

KPI tizimini O'zbekiston Respublikasi miqiyosida barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun qo'llanilishini taminlash. Bu orqali boshqaruvchilar va boshqa hodimlarning ishlash samaradorligi yanada oshadi.

"Research and development" tadqiqot markazini respublika miqiyosida ochish va 5 yil rivojlanish bosqichidan so'ng viloyatlar kesimida shakillantirish. Bu orqali oliy ta'lim sohasi yanada rivojlanadi. Ilmiy ishlar ko'rsatkichining ko'lami yanada kengayadi.

Yevropa mamlakatlari oligohlari bilan o'zaro shartnomalarni kengaytirish va talabalar almashinuvini.

Tadqiqotimizdagi muamolarga hozirda shu yechimlarni berib o'tdik. Qolganlarini keying tadqiqotlarimizga qoldiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tizimi-va-yangicha-yondashuvlar>
2. <https://yuz.uz/uz/news/oliy-talim-tizimidagi-ustuvor-vazifalar-belgilandi?view=ozbekiston-prezidenti-mamlakatimiz-hududlari-va-tatariston-ortasidagi-hamkorlik-uchun-keng-imkoniyatlar-borligini-takidladi>
3. Bule hora university college of business and economics department of management maqolasidan olindi.
4. Which modern management techniques work best for schools? | UCL IOE Blog.
5. Abdurahmonova G.K "Inson resurslarini boshqarish" kitobi Toshkent-2019 nashri.
6. 6.G. Xmidomova, O. Astanakulov, A. Matchanov "Innovatsion menejment" kitobi. Toshkent "Iqtisod-Moliya"-2019 nashri.
7. Smriti Chand (2020). Zamonaviy boshqaruv nazariyasi: boshqaruvga miqdoriy, tizimiy va kutilmagan holatlar nomli maqola. Olingan: yourarticlelibrary.com.
8. Citeman (2009). Zamonaviy menejment yondashuvlari. Kitobi.Olingan: citeman.com.
9. Ona tili va o'qish savodxonligi 1-2-qismlar [Matn]: 1-sinf uchun darslik / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 104 b.
10. Ona tili va o'qish savodxonligi 1 Metodik qo'llanma [Matn]: o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / I. A. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 128 b.
11. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-2-qismlar [Matn]: 2-sinf uchun darslik / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.
12. Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 3-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / K. Mavlonova, [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 160 b.
13. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-2-qismlar [Matn]: 3-sinf uchun darslik / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 144 b.
14. Ona tili [Matn]: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik / R. Ikromova [va boshq.]. – Qayta ishlangan va to'ldirilgan 9-nashri. – Toshkent: «O'qituvchi», NMIU, 2020. – 160 b.
15. O'qish kitobi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik / S. Matchonov, A. Shojalilov, X. G'ulomova [va boshq.]. - Qayta ishlangan va to'ldirilgan 6-nashri. - Yangiyo'l: Yangiyul Poligraph Service, 2020. - 160 b.
16. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. I qism / S. Ahmedov, B. Qosimov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev. – T.: «Sharq», 2020. – 272 b.
17. Madiyarov I. Tez aytish va topishmoqlar – nutq o'stirishda o'rni. «O'zbek tili va adabiyoti ta'limi» ilmiy jurnali. 2019. B 59.
18. Siddiqova Sh. Yosh avlod ma'naviy kamolotida badiiy adabiyotning o'rni. «Izlanish samaralari» mavzusidagi yosh tilshunos va adabiyotshunoslarning respublika nazariy anjumani. Toshkent. 2019. B 462.

19. Ona tili fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim Milliy o'quv dasturlari / Ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi / Toshkent – 2021.

20. www.lex.uz

21. www.gulxan.uz

22. www.qomus.info

23. www.hikmatlar.uz

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH
METODOLOGIYASI**

**Raximjonova Oyjamol Qo'qon universiteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi,
Rustamova Dilfuzaxon Vohidjon qizi
Qo'qon Universiteti Ta'lim kafedrası o'qituvchisi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ot so'z turkumini o'rgatishda innovatsion metodlardan foydalanishdagi bir nechta usullar kesimi bayon etilgan. 4-sinf o'quvchilariga otlarning ma'no turlari va otlarda kelishik qo'shimchalari mavzularini tushuntirish hamda mavzularni yoritish jarayonida interfaol usullardan hisoblangan "o'qib tushunish", "tinglash", "yozib tushunish" va "so'zlash" kabi ko'nikmalar asosida darslarni tashkil etish jarayoniga guvoh bo'lamiz. Ushbu ko'nikmalar asosida darslarni tashkil etishda, mavzular o'quvchilarga to'liq holda tushunarli bo'ladi va o'quv jarayoni samaradorligini oshiradi deb hisoblaymiz.

Kalit so'zlar: metod, didaktika, kreativ fikrlash, interfaol, to'rt kompetetsiya, pedagogika

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. Bu usullar o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga va darslarni qiziqarli tashkil etishdagi muhim jarayonlardir. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik(o'qitish, ta'lim berish) vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. O'qituvchi dars jarayonida an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, yangi innovatsion texnologiyalarni ham qo'llashi, bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biridir.

Har qanday jarayon harakatdir, moddiy dunyodagi narsalar yoki hodisalarning asta-sekin o'zgarishidir. O'qitish jarayoni ham yosh avlodda aqliy kuchlarni rivojlantirishga va axloqiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan harakatdir. Biz o'qitish jarayonini qanday tushunamiz? O'qitish jarayoni - qituvchining va u rahbarlik qiladigan o'quvchilarning ularda aqliy qobiliyatlarni o'stirish, dialektik dunyoqarash asoslarini tarkib toptirish va hayotga tayyorgarlikni amalga oshirish maqsadida bilim, ko'nikma va malakalar tizimini ongli hamda puxta o'zlashtirishga qaratilgan ilmiy asosdagi ishlarning majmuyidir.

Maktabdagi o'qitish jarayoni qandaydir tasodifiy va, ayniqsa, pedagogning xususiy fikridan kelib chiqadigan narsa emas. O'qitish jarayoni bilish nazariyasi asosida tarkib topadi va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqadigan talablarni aks ettiradi.

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlardan ko'zlangan maqsad, eng avvalo, barkamol avlodni tarniyalab voyaga yetkazshdir. Zeroki, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti takidlaganlaridek:

Eng avvalo, bizning ta'lim tizimga bo'lgan munosabatimizni ham tubdan o'zgartirish kerak. Ta'lim islohoti bizni demokratik o'zgarishlar, yangi jamiyat barpo etish yo'lidan dadil yetaklovchgi, barchamizni harakatlantiruvchi ichki kuch bo'lmog'i zarur. Har birimizga besh barmoqdek, eskicha aytganda, to'qqiz puldek ayon bo'lsinkim, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, odamlar ongini, demakki, ularning turmush tarzini ham o'zgartirish mumkin emas.

Ta'lim tizimida innovatsiya deganda, ta'lim maqsadi va mazmuniga yangilik kiritish, yangicha yondashish, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish jarayoni tushuniladi. Bu kabi texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. Hamda darsning barcha o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. O'rganuvchi bu jarayonda o'yinlar orqali ta'lim olib, o'qib o'zlashtirganini ham sezmay qoladi.

Ma'lumot sifatida shuni aytib o'tish joizki, darslar didaktik o'yinlar orqali

tashkil etilganda, bolalarda aqliy, ahloqiy, jismoniy va estetik jihatdan rivojlanish jarayonlari jadallashadi. O'yin orqali barcha psixik jarayonlarni, shaxsning shakllanishiga, bolaning rivojlanishi uchun alohida sharoit yaratiladi.

Bugungi kundagi "2022 - 2026 - yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur" asosida ishlangan va ta'lim berilayotgan boshlang'ich sinflardagi "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklarimizda ham o'quvchilarni kreartiv fikrlashga undaydigan innovatsion metodlardan foydalanishga katta e'tibor qaratilgan. Kreativ fikrlash bugungi ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Bu esa o'quvchilarda kelgusida muaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Aniqroq qilib aytganda, bugungi o'quvchi kelajakda hozirda hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarga yangicha yechimlar topishi, tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Yosh avlodga shu yondashuvlar asosida bilim berishga bugungi o'qituvchi ham tayyor turishi kerak, albatta.

Ot mavzusini o'rganish tizimi maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, bunda shu so'z turkumining umumlashtirilgan ma'nosi va grammatik belgilari aniq izchillikda, bir-biri bilan ilmiy asoslangan bog'liqlikda o'rganiladi.

Maqola davomida biz, yuqorida aytib o'tganimizdek, 4-sinf o'quvchilariga ona tili fanida yoritilgan, ot so'z turkumini o'rgatishdagi muhim mavzulardan hisoblangan, otlarning ma'no turlari va otlarda kelishik qo'shimchalari mavzularini tushuntirishdagi innovatsion metodlardan hisoblangan to'rt kompetetsiyadagi ma'lumotlarga ega bo'lishimiz, mumkin. Hamda bu usullar orqali darslarni tashkil etish, darslarning samaradorligini oshirishiga, darslarni qiziqarli tashkillanishiga va o'quvchilarni kreativ fikrlatishga undaydi.

Boshlang'ich sinflarda ot so'z turkumini o'rgatish vazifalari quyidagilar:

- 1) "ot" haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish;
- 2) kim? so'rog'iga javob bo'lgan (shaxs bildirgan) otlardan nima? so'rog'iga javob bo'lgan (narsa, hayvon, faoliyat-jarayonlarni bildirgan) otlarni farqlash ko'nikmasini hosil qilish;
- 3) kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hayvonlarga qo'yilgan nomlar va geografik nomlarni bosh harf bilan yozish ko'nikmasini hosil qilish;
- 4) otlarda son(otlarni birlik va ko'plikda qo'llanishi) bilan tanishtirish;
- 5) otlarda egalik qo'shimchalari bilan to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish;
- 6) o'quvchilarda otlarda kelishik qo'shimchalari va otlarni kelishik qo'shimchalari bilan turlanishi haqida malaka hosil qilish;
- 7) o'quvchilar lug'atini yangi so'zlar bilan boyitish va ulardan nutqda aniq, o'rinli foydalanish malakasini o'stirish;
- 8) so'zlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirishni bilish.

4-sinf o'quvchilariga ot so'z turkumini yoritishdagi mavzular kesimi shuki, ot so'z turkumining ma'no turlarini takrorlash, otlardagi egalik qo'shimchalari, ko'plikdagi otlarning turlanishini o'rgatish, har bir kelishikning xususiyatlarini alohida o'rgatish va u bilan bog'liq holda kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqida tushunchalar berish hamda ot yasovchi qo'shimchalar kabi mavzularni tushuntirish. Bizning dastlabki vazifamiz o'quvchilarga otlarning ma'nosiga ko'ra turlarini haqidagi tushunchalarni yodga oldirishdan iboratdir. Bu quyidagicha amalga oshadi:

Otlar ma'nosiga ko'ra atoqli va turdosh otlarga bo'linadi.

Bir turdagi predmet, shaxs va hodisalarni alohida nomlab ko'rsatadigan otlar atoqli otlar deyiladi. Atoqli otlarga quyidagilar kiradi: kishilarning ismi, sharifi va taxallusi (A'zam, Alisher Navoiy), hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar (Mosh, Olapar), joy nomlari (Toshkent, Beshariq), tashkilot va muassasa nomlari (Qo'qon Universiteti, "Lazzat" oshxonasi), tarixiy nom va bayram nomlari ("Navro'z" bayrami, Mustaqillik kuni), kitob, gazeta, jurnal va kino nomlari

("O'tkan kunlar" asari, "G'uncha jurnali", suv havzalari va inshoot nomlari(Orol dengizi, Amudaryo), planeta, yulduz, sayyoralarning nomlari (Yer, Yulduz, Mars), yuqori mansab nomlari (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti) shular jumlasidandir. Atoqli otlar bosh harflar bilan yoziladi. Va bu atoqli otlar nomlar deb yuritiladi.

Bir turdagi predmet, hodisalarning umumlashtiruvchi nomini bildirgan otlar turdosh otlar deyiladi. Turdosh otlarga quyidagilar kiradi: aniq otlar (daftar, qalam, stol, muzqaymoq), mavhum otlar (baxt, bolalik, quvonch) kabi. Turdosh otlar guruhiga kiruvchi so'zlarni otlar deb yuritimiz.

Ma'lumot sifatida shuni ham aytib o'tish joizki, o'quvchilarga sifat, fe'l va boshqa so'z turkumidan yasalgan mavhum ma'nodagi (yaxshilik, go'zallik, ishonch, qo'rqinch, tayanch) kabi so'zlar ham ot so'z turkumiga mansub ekanligini haqida ma'lumotlar berish, muhim jarayondir.

O'quvchilar otlarni ma'nolariga ko'ra ajratishni tushunganlaridan so'ng, mavzuni mustahkamlash maqsadida mashqlar bajartiramiz. Jumladan, otlarning nutqda katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatish uchun 4-sinf ona tili darsligida ot – so'z turkumi mavzusida berilgan "Tangabaliq" nomli hikoyadagi ot so'z turkumiga oid bo'lgan so'zlarni topishlarini buyuramiz. So'ngra, matnni shu so'zlarsiz o'qishlarini so'raymiz. O'quvchilar matndagi otlarni tushurib qoldirib o'qiganida, matn mazmunini tushunib bo'lmasligini anglaydilar. Hamda o'quvchilarga xulosa chiqariladi: o'z atrofimizni o'rab olgan shaxs va narsalarning barchasi ot so'z turkumiga doir ekan. Biz bu so'zlarsiz bir-birimizga o'z fikrimizni tushuntira olmaymiz. Shundan so'ng biz o'quvchilarga darslikda berilgan, Xudoyberdi To'xtaboyev qalamiga mansub "Davronjonning uyiga kelgan mehmonlar" haqidagi mashqmizni bajartiramiz. Bu mashqni quyidagicha bajartirishimiz, mumkin. Dastlab, o'quvchilarga mashq shartini tushuntiramiz. Ya'ni, o'quvchilar hikoyadagi ot so'z turkumiga oid so'zlarni shaxs nomlari, narsa nomlari va joy nomlariga ko'ra ajratib yozishlari kerak bo'ladi. Biz o'quvchilarni kitoblarini yoptirgan holatda, hikoyani o'zimiz o'qib beramiz yoki hikoyani audio holatida eshittiramiz. Bu jarayondan o'quvchilarda bir paytda ham eshinish, ham yozish ya'ni tinglab tushunish ko'nikmalari shakllanadi.

4-sinfda ot ustida ishlashning asosiy vazifalaridan yana biri, fikrlarni bayon qilishda otning kelishik qo'shimchalaridan ongli foydalanish va kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozishga o'rgatish hisoblanadi.

O'quvchilarga kelishik qo'shimchalarini o'rgatishda quyidagi rejaga asoslanib o'rgatsak, o'quvchilar ongida kelishiklar mavzusida tartibli ma'lumotlar hosil bo'ladi:

- kelishikning grammatik ma'nosi;
- so'roqlari;
- qo'shimchasi;
- gapdagi vazifasi.

Otlardagi -ning, -ni, -ga, -da, -dan qo'shimchalari kelishik qo'shimchalaridir. Otlarda oltita kelishik bor.

Bosh kelishik shakli.

Bosh kelishikning xususiyatlarini o'rganish mobaynida, o'quvchilarga otning kelishik qo'shimchasi yo'q holati bosh kelishik hisoblanishi, bosh kelishikdagi ot boshqa so'zni o'ziga tobe qilishi, kim? nima? kimlar? nimalar? so'roqlariga javob bo'lishi, gapda ega vazifasida kelishi haqida ko'nikmalar hosil qilinadi. Lug'atlarda otlar bosh kelishik shaklida berilishi va bosh shakl deb yuritilishi tanishtiriladi.

Qaratqich kelishigi shakli.

Biz qaratqich kelishigi mavzusida o'quvchilarga quidagilarni tushuntirishimiz kerak:

Qaratqich kelishigida turlangan ot biror obyektga qarashlilik ma'nosini bildiradi. Gaplarda boshqa otlarga bog'lanadi. U bo'langan ot egalik qo'shimchasi bilan

qo'llanadi(stolning oyog'i, o'quvchilarning sumkasi, xonaning burchagi kabi) .-ning qo'shimchasi bilan qo'llanadi Qaratqich kelishigidagi so'z kimning? nimaning? kimlarning? nimalarning? ba'zan qayerning so'roqlariga ham javob bo'lishi mumkin. Gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi.

Tushum kelishigi shakli.

Tushum kelishigidagi turlangan ot harakatni o'ziga olgan shaxs, narsa ma'nosini bildiradi. Gapda doimo fe'lga bog'lanadi va -ni qo'shimchasi bilan qo'llanadi. Kimni? nimani? kimlarni? nimalarni? ba'zan qayerni? va qayerlarni? so'roqlariga javob bo'ladi. Gapda ikkinchi bo'lak vazifasini bajaradi.

Dasturga ko'ra, o'quvchilarni qaratqich va tushum kelishigida otning belgisiz qo'llanish jarayoni bilan tushuntirish tavsiya etilmaydi.

Ko'p hollarda o'quvchilar qaratqich va tushum kelishigini o'rganishda qiynalishadi. Ya'ni qo'shimchalarini qapda qo'llashda almashtirib qo'yishadi. Pedagoglar bu muammolarni bartaraf etishlari uchun ikki kelishikni bir-birini taqqoslagan holatda orgatish va o'quvchilar bilan darsda ko'proq suhbatlar, savol-javoblar o'tkazish yaxshi samara beradi.

O'quvchilarga bu jarayonni quyidagi jadvalda tushuntirishimiz mumkin.

Bu jarayonda o'quvchilar ongida tartibli ma'lumotlar hosil bo'ladi:

Kelishik	Qo'shimchasi	So'roqlari	Gapdagi vazifasi	Qo'llanishi
Qaratqich kelishigi	-ning	Birlik: kimning? nimaning? Ko'plik:kimlarning? nimalarning?	aniqlovchi	qushning qanoti, kitobning varog'i, Nargizaning sumkasi
Tushum kelishigi	-ni	Birlik: kimni? nimani? Ko'plik: kimlarni? nimalarni?	to'ldiruvchi	qushni parvarish qilmoq, kitobni o'qidi, Nargizani ko'rdim

O'quvchilarga qaratqich va tushum kelishigini bir-biridan farqlashlari uchun quyidagichga topshiriqlarni bajartirish yaxshi samara beradi. Ushbu topshiriqda qaratqich va tushum kelishik qo'shimchalari qo'yiladigan o'rinlar tushurib qoldirilgan. O'quvchilar nuqtalar o'rniga mos kelishik qo'shimchalarni qo'yishlari kerak bo'ladi.

Kanareyka

Rashid ayyonda kanareykasi... tomosha qilib o'tirardi. O'rik tomondan boshqa kanareyka... ovozi eshitildi. Qo'sh...si chap qo'lida bo'sh qafas... ushlagancha u yoqdan bu yoqqa alanglardi. Rashid tezlik bilan qafas... hovliga olib chiqdi. Qo'liga matrap... oldi. Kanareyka qafas... ustiga qo'ndi. Rashid matrap... qushning ustiga tashladi. U qush... qo'liga oldi-da, uyiga qarab chopdi.

Jo'nalish kelishigi shakli.

Biz o'quvchilarga jo'nalish kelishigi shaklining xususiyatlari bilan tanishtirganimizdan so'ng, qo'shimchalarini qo'shilish jarayonini tushuntirish eng muhim jarayondir. Bular quyidagilardan iborat:

- oxiri jarangsiz undosh bilan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -ga qo'shilganda, talaffuzda -ka eshitiladi. Ammo, -ga shaklida yoziladi (sinfga, kutbxonaga, uyga).

- k undoshi bilan tugagan so'zlarga -ka qo'shimchasi qo'shiladi(ertakka, terakka, tilakka).

- oxiri q undoshi bilan so'zlarga jonalish kelishigi qo'shimchasi -qa shaklida qo'shiladi(qarmoqqa, quloqqa, buloqqa).

O'rin-payt kelishigi shakli.

O'quvchilarga o'rin-payt kelishigi shaklini tushuntirganimizdan so'ng, o'rin-payt kelishigi

qo'shimchasi –da ning –ta shaklida eshitilsada, -da shaklida yozilishini tushuntirib o'tishimiz, muhimdir.

O'rin-payt kelishigini o'rgatishdagi muammolardan yana biri shuki, o'quvchilar o'rin-payt kelishigi o'rniga jo'nalish kelishigi qo'shimchasini ishlatib, xatoga yo'l qo'yadilar. Bunda kelishik qo'shimchasi qo'shilgan so'zlarni gaplarda qo'llash orqali, muammoni bartaraf etamiz. Jumladan: Maktabga bugun barvaqt keldim. (qayerga? - maktabga).

Maktabda bugun bayram nishonladik. (qayerda? – maktabda).

Chiqish kelishigi shakli.

Bu dars jarayonida ham o'quvchilarga chiqish kelishigining xususiyatlari tushuntiriladi.

O'quvchilarga o'zbek tilidagi barcha kelishik shakllari tushuntirib bo'linganidan so'ng, ularda quyidagi jadval asosida ko'nikmalar hosil bo'lishi kerak:

T/r	Kelishik shakli	Qo'shimchasi	So'roqlari	Gapdagi vazifasi
1	Bosh kelishik	mavjud emas	kim(lar)? nima(lar)?	Ega
2	Qaratqich kelishik	-ning	kim(lar)ning? nima(lar)ning?	aniqlovchi
3	Tushum kelishik	-ni	kim(lar)ni? nima(lar)ni? qayer(lar)ni?	to'ldiruvchi
4	Jo'nalish kelishik	-ga(-ka, -qa)	kim(lar)ga? nima(lar)ga? qayer(lar)ga?	Hol
5	O'rin-payt kelishik	-da	kim(lar)da? nima(lar)da?	Hol
6	Chiqish kelishik	-dan	kim(lar)? nima(lar)?	

Kelishik qo'shimchalarining vazifasi - so'zlarni bir-biriga bog'lash, bu qo'shimchalarsiz jumlar tuzib bo'lmasligini o'quvchilarga tushuntirish maqsadida, darsligimizning chiqish kelishigi shakli mavzusida berilgan "Yalpiz" nomli hikoyasini har xil ranglardagi varoqlarga tushirgan holatda, ya'ni varoqlarni konvert shaklida qilib, har bir partaga alohidadan tarqatamiz. Varoqlarni konvert shalida bo'lishi, dastlab, ularning diqqatini jamlaydi. Har xil ranglarda bo'lishi o'quvchilar kayfiyatlarini oshiradi va qiziqishlarini orttiradi. Bu jarayonda o'quvchilar juftliklarda ishlashlari kerak bo'ladi. Avval o'quvchilar hikoyani diqqat bilan o'qib chiqishadi. Hamda hikoyada keltirilgan kelishik qo'shimchalarini tushirib qoldirgan holatda o'qishlari talab etiladi. O'quvchilar bu jarayonda so'zlarni bir-biriga bog'lanmayotganligini guvohi bo'lishadi. So'ng har bir partadagi guruhlariga alohidadan kelishik qo'shimchasi qo'shilgan so'zlarni o'qishlarini so'raymiz. Masalan, birinchi parta, faqat bosh kelishigidagi so'zlarni, ikkinchi parta, qaratqich kelishigidagi so'zlarni o'qishlari kerak. Zanjir shu tariqa davom etadi. Hamda mashq so'ngida bolalar hikoya mazmunini ham so'zlab berishlari, muhimdir. Ushbu jarayondan ko'zlangan maqsad, o'quvchilarda "o'qib tushunish" ko'nikmasini rivojlantirish, va bir-birlarini fikrlarini eshitish, ya'ni "tinglash" ko'nikmasini rivojlantirish, "so'zlash" kompetetsiyasiga o'rgatishdan iboratdir.

Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda ot mavzusi yaxlit holda o'rgatiladi. Uni o'rgatish o'quvchilar shu so'z turkumining belgilarini, vazifasini o'zlashtirishga hamda kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgandir. Ushbu jarayonlarni o'rgatishda yuqoridagi kabi interfaol usullardan foydalanib darslarni tashkil etish, dars samaradorligini oshiradi, har bir o'quvchilarning qiziqishini orttiradi va diqqatlarini jamlaydi,

ularida ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Raxima Mavlvanova Nargiz Raxmankulova. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va intergatsiya. Toshkent« Voris-Nashriyot » 2013.
2. I.A.Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T: "Sharq", 1998, 9-bet.
3. S. Matchonov, H. Bakiyeva, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, G.Xolboyeva. "Boshlang'ich sinflarda ona tilni o'qitish metodikasi" 131-142-b (Toshkent-2021).
4. " Grosheva I.V, Djanpeisova G.E, Mikailova U.T, Kenjabayeva Z.A. "O'yinlar orqali ta'lim olish (Toshkent-2020).
5. R. Ikromova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, D. Sodmonqulova. 4- sinf ona tili darsligi. „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uy (Toshkent- 2017).
6. Umarova Sayyoraxon "Pedagog Respublika Ilmiy Jurnalı"(2023).
7. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharoljon Sariyev. "Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent «NOSIR» nashriyoti (2009).

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA OILALAR BILAN O'ZARO
HAMKORLIKNING ZAMONAVIY SHAKLLARI**

Rustamova Marjonaxon Ne'matjon qizi
Qo'qon Universiteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oila bilan hamkorlikning zamonaviy shakllari oilani jamiyatdagi o'rni qay darajada ekanligini haqida aytib o'tilgan. Maqoladan oila bilan hamkorlikda ishlaganda muammolarning kelib chiqishi va ularga topilgan yechimlar to'g'risida xulosalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Oila, Pedagogika, Ota-ona, jamiyat, farzand tarbiyasi, xalq, bog'cha.

Ushbu tezisda men maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oila bilan hamkorlikning zamonaviy shakllari qanday ekanligini bilib oldim. Avvalo oila nima ekanligiga to'xtalib o'tsak. Oila - nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orning birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oila o'z farzandlarini tarbiyalab, ularni umuminsoniy qadriyatlarini singdirish bilan ularga boshlang'ich ijtimoiy yo'nalish beradi. O'zbekistonning davlat mustaqilligi tufayli xalqimizning milliy urf - odatlari va marosimlari qaytadan tiklana boshladi, bu udumlar oilani mustahkamlashda muhim o'rin egallaydi. Oila - ijtimoiy hayotning abadiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydigan, kelajak avlod hamda qadriyatlar tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan ijtimoiy makon. Ota-onalar bilan ishlashda pedagoglar xushmuomala bo'lishlari kerak.

Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim muassasasining oila bilan ishlashning barqaror shakllari rivojlandi, ular maktabgacha pedagogikada an'anaviy hisoblanadi. Bu vaqt sinovidan o'tgan ish shakllari. Ularning tasnifi, tuzilishi, mazmuni, samaradorligi ko'plab ilmiy-uslubiy manbalarda bayon etilgan. Bunday shakllarga ota-onalarning pedagogik ta'limi kiradi. U ikki yo'nalishda amalga oshiriladi: Bolalar bog'chasi ichida ushbu maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarining ota-onalari bilan ish olib boriladi. Maktabgacha ta'lim muassasasidan tashqarida ota-onalar bilan ishlash. Muloqotning noan'anaviy shakllari o'qituvchilar va ota-onalar orasida ayniqsa mashhur. Ular ota-onalar bilan norasmiy aloqalarni o'rnatishga, ularning e'tiborini bolalar bog'chasiga qaratishga qaratilgan. Ota-onalar farzandini yaxshiroq bilishadi, chunki ular uni o'zlari uchun boshqa, yangi muhitda ko'radilar.

Ota-onalar bilan o'zaro aloqaning axborot-tahliliy shakllari, ota-onalarning psixologik va pedagogik ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojlari. Faqat analitik asosda maktabgacha ta'lim muassasasida bolaga individual, shaxsiyatga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish, bolalar bilan o'quv-tarbiyaviy ish samaradorligini oshirish va ularning ota-onalari bilan malakali aloqa o'rnatish mumkin.

Ota-onalar bilan o'zaro munosabatlarning axborot-tahliliy shakllari. So'roq qilish maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari tomonidan oilani o'rganish, ota-onalarning ta'lim ehtiyojlarini aniqlash, uning a'zolari bilan aloqa o'rnatish va bolaga tarbiyaviy ta'sirni muvofiqlashtirish uchun qo'llaniladigan eng keng tarqalgan diagnostika usullaridan biri haqiqiy rasmni olgandan so'ng, to'plangan ma'lumotlar asosida o'qituvchi har bir ota-ona va bola bilan muloqot qilish taktikasini belgilaydi va ishlab chiqadi. Bu har bir oilaning pedagogik ehtiyojlarini yaxshiroq boshqarishga, uning individual xususiyatlarini hisobga olishga yordam beradi.

Ota-onalar bilan o'zaro munosabatlarning yozma shakllari Broshyuralar bolalar bog'chasi tushunchasini tavsiflashi va u haqida umumiy ma'lumot berishi mumkin. Imtiyozlar Bolalar bog'chasi haqida batafsil ma'lumot bering. Oilalar yil davomida nafaqa olish uchun ariza topshirishlari mumkin. Kundalik eslatmalar to'g'ridan-to'g'ri ota-onalarga murojaat

qilib, oilaga bolaning sog'lig'i, kayfiyati, bolalar bog'chasidagi xatti-harakatlari, sevimli mashg'ulotlari va boshqa ma'lumotlar haqida ma'lumot beradi.

Ota-onalar bilan o'zaro munosabatlarning bo'sh vaqt shakllari Xayriya tadbirlari, xayriya harakatlari. Ushbu qo'shma faoliyat shakli nafaqat sovg'alarni qabul qilishni, balki qilishni ham o'rganadigan bolalar uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ota-onalar ham farzandining bolalar bog'chasidagi do'stlari bilan o'yinda ishtiyoq bilan o'ynashini va ularning sevimli kitobi yanada qiziqarli bo'lib, do'stlari orasida yangi bo'lib qolganini ko'rib, befarq qolmaydi. Qo'shma sayohatlar va ekskursiyalardan asosiy maqsad ota-onalar va bolalar munosabatlarini mustahkamlash. Natijada bolalarda mehnatsevarlik, aniqlik, yaqinlarga e'tibor, mehnatni hurmat qilish kabi fazilatlar tarbiyalanadi. Bolalar bu sayohatlardan tabiat, hasharotlar, o'z yerlari haqida yangi taassurotlar bilan boyib qaytishadi. Keyin ular ishtiyoq bilan chizadilar, tabiiy materiallardan qo'l san'atlari yasaydilar, qo'shma ijod ko'rgazmalarini tashkil qiladilar. Qo'shma sayohatlar va ekskursiyalar asosiy maqsad - ota-onalar va bolalar munosabatlarini mustahkamlash.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oila bilan hamkorlikning zamonaviy shakllarida tarbiyachi ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib boradi. Hozirgi kunda telegram onlayn guruhlar mavjud bo'lib unda bolani har kunlik qilgan ishlari, bajargan mashg'ulotlari tashlab boriladi. Unda ota-onalar o'z bolalarini qay darajada aktiv ekanliklarini ko'rib kuzatib borishadi. Oila bilan hamkorlikda ishlaganimizda ota - onalarni o'zlarini bog'chaga chaqirib turli xildagi tadbirlar yoki bo'lmasa sport musoboqalarini ham tez-tez uyishtirib turish kerak. Bolalarni sayohat va ekskursiyalarga olib chiqib turish kerak. Bunda bolalarning dunyo qarashlari kengayadi va mehnatni hurmat qilishi kerak bo'lgan fazilatlarini rivojlanib boradi, bolalar yanada ziyarak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1 Boboyeva D.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish jarayonida ertaklar asosida atrof- muhitbiln tanishuv/ Umumiy to'plam T: Nizomiy nomidagi TDPU.2000.103. 105-b.

2 Azizova Z. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish.T "2010.-90 b.

3 Abdurahimova D. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish: -T. "1998."- 18.

4 Maktabgacha pedagogika. - "Tarbiyachi ", 1991. -256 b.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA UNIVERSAL TA'LIM FAOLIYATINI
SHAKLLANTIRISH, RIVOJLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH NAZARIYASI VA
AMALIYOTI**

Shamsiddinova Mohira Yahyoxon qizi
Namangan Davlat Universiteti Ingliz filologiya talabasi,
Dosbaeva Nargiza Turgunpulatovna, DSc.

Annotatsiya: Maqola boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarni universal o'qitish masalalariga bag'ishlangan, hamda boshlang'ich sinf yoshidagi psixologik-pedagogik xarakteristikasini hisobga olgan holda boshlang'ich sinf darslarida foydalanish uchun universal usul va texnologiyalarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: universal ta'lim, boshlang'ich sinf, rivojlantirish, takomillashtirish.

Jamiyatning ta'lim maqsadlari va ularni amalga oshirish yo'llari haqidagi tushunchasi so'nggi yillarda rivojlanib, umumiy ta'lim maktablarida va asosan boshlang'ich ta'limda ananaviy va innovatsion o'quv jarayonlari sifati yangilanmoqda, shuningdek, universal ta'lim faoliyatini takomillashtirilishiga e'tibor qaratilyapti.

K. Levin odamlarning munosabat va xulq-atvoridagi eng samarali o'zgarishlarni individual kontekstda emas, balki guruhda amalga oshirish osonroq deb ta'kidlaydi. Bunga ko'ra, universal ta'lim ham o'quvchilar bilan keng qamrovli ravishda tashkil etishilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ba'zida "universal ta'lim" atamasi axborot texnologiyalari, masofaviy ta'lim, Internet resurslardan foydalanish, shuningdek, elektron darsliklardan ma'lumotnomalar, onlayn ish va boshqalar bilan bog'liq holda tilga olinadi. Zamonaviy kompyuter telekommunikatsiyalari ishtirokchilarga haqiqiy sherik bilan "Jonli (interaktiv) muloqotga yozma yoki og'zaki) kirishga imkon beradi, shuningdek foydalanuvchi va axborot tizimi o'rtasida real vaqtda faol ravishda xabar almashish imkoniyatini beradi

Zamonaviy boshlang'ich umumiy ta'lim bolaning o'quv faoliyatini shakllantirish uchun asos yaratadi-o'quv va kognitiv motivlar tizimi, ta'lim maqsadlarini qabul qilish, saqlash, amalga oshirish qobiliyati, o'quv faoliyati va ularning natijalarini nazorat qilish va baholash. Bu o'quvchilarning bilim motivatsiyasi va qiziqishlarini o'qituvchi va sinfdoshlar bilan hamkorlik va birgalikdagi talim faoliyatiga tayyorligi va qobiliyatini ta'minlashi, shaxsning jamiyat va atrofidagi odamlar bilan munosabatlarini belgilaydigan axloqiy xulq-atvor asoslarini shakllantirishi kerak bo'lgan maktabning dastlabki bosqichi. Zamonaviy boshlang'ich ta'lim mazmunining o'ziga xos xususiyati nafaqat o'quvchi nimani bilishi kerak degan savolga javob berish, balki mustaqil faoliyatini tashkil etish qobiliyatini ta'minlaydigan shaxsiy, kommunikativ kognitiv, tartibga soluvchi sohalarida universal o'quv faoliyatini shakllantirishdir.

Boshlang'ich maktab yoshida bolaning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi davom etadi. Ushbu yosh davri atrofidagi odamlar, o'zi haqidagi timoiy va shaxslararo munosabatlar, axloqiy va axloqiy me'yorlar to'g'risida joda ongli g'oyalar tizimining paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi, buning asosida tengdoshlari va kattalar, qarindoshlar va begonalar bilan munosabatlar quriladi. Bolaning o'zini-o'zi qadrlashi, juda optimistik va yuqori bo'lib, tobora obyektiv bo'lib qoladi. Umuminsoniy o'quv faoliyatining to'liq shakllanish darajasi o'quv faoliyati va hamkorligini tashkil etish yo'llarga, o'quvchining bilish, badiiy, estetik kommunikativ va universal faoliyatiga bog'liq.

Boshlang'ich sinf darslarida universal usullar quyidagilarni rivojlantirishga qaratilgan:

1. Maktab o'quvchilarining fikrlashini rivojlantirish, fikrning ma'lum mustaqilligi, ular yosh o'quvchilarni o'z fikrlarini erkin bayon etishga undaydi.

2. Fikrlar taklifiga, xulq-atvor namunalariga, boshqalarning talablariga qarshilik ko'rsatishni rivojlantirish, o'z fikrlarini himoya qilishga, munozara vaziyatini, fikrlar to'qnashuvini yaratishga undaydi. "Vaziyatni tahlil qilib, muammoni hal qilish" usullaridan foydalanish bolalarni ko'pchilikning bosimiga qarshi turishga, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi.

3. O'ziga nisbatan tanqidiy munosabatni rivojlantirish, o'z xatolarini ko'rish va ularga etarlicha munosabatda bo'lish qobiliyati; nafaqat o'zgalarning, balki boshqalarning ham ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga hissa qo'shish.

4. Til muammolarini hal qilishning eng yaxshi variantlarini topish istagining rivojlanishi bolalarda haqiqiy qidiruv holatiga keltiradigan usullarni ta'minlaydi. "Brainstorming", "g'oyalar doirasi", "tugallanmagan jumlar" interfaol amallaridan foydalanish jarayonida bolalarning haqiqiy va xayoliy barcha fikrlari qabul qilinadi.

5. Sinfdoshlari bilan qo'shma yechimlarni topish qobiliyatini rivojlantiradi, maktab o'quvchilarining o'rganilgan materialga qizishini oshiradi.

Jamiyatning biz ko'rib chiqayotgan qismining kelib chiqishi va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ota-onalar va o'quvchilar ta'limga bo'lgan harakatlarini davom ettirishlari uchun maktabda o'qishning darhol afzalliklarini his qilishlari muhim bo'ladi. Hukumat tomonidan ishlab chiqilgan universal o'qitish usullari o'rganishni foydali va qiziqarli qilishi mumkin. Ishlab chiqilgan tizim orqali yoshlarning bilim olishi va malaka o'tashini ta'minlash-ta'limning ta'sirini shakllantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, boshlang'ich maktabda universal ta'lim o'quvchilarni bilish jarayoniga jalb qilishga yordam beradi, bilimlar, g'oyalar va faoliyat usullari almashinuvi orqali ular bilgan va o'ylagan narsalarini tushunishga va qayta ko'rib chiqishga imkon beradi. Bunday mashg'ulotlar maktab o'quvchilariga nafaqat yangi bilimni egallashga imkon beradi, balki bilim faoliyatini rivojlantirish, shu bilan bir qatorda o'zlashtirishning ushbu tizmini takomillashtirishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boshlang'ich sinflarda interfaol ta'limning xususiyatlari.
<https://cyberleninka.ru/article/n/boshlangich-sinflarda-interfaol-talim>.
2. Qo'chqorboyeva K. B. AMamasaliyeva, L. H. (2022) Ona Tili o'qitish metodikasi haqida Xalqaro innovatsion tahlillar va rivojlanayotgan texnologiyalar jurnali
3. Adxamjonova, Q. M. (2021). Boshlang'ich sinf matematika darslarida fikrlashga urgatish. ACADEMICIA: xalqam ko'p tarmoqli tadqiqot jurnali, 11(5), 952954
4. Farsodev, T. D. (2022) Bolajak o'quvchilarda shanslarare tolerantlikni shakllantirish muammosi.
5. Achieving Universal Primary Education: Collaborative method
<https://tejas.iimb.ac.in/articles/99.php>

O'TKIR HOSHIMOVNING "URUSHNING SO'NGGI QURBONI " ASARI TAHLILI

**G'ulomjonova Barchinoy Qobiljon qizi
Farg'ona Davlat Universiteti
Xorijiy til va adabiyoti fakultet, talabasi,
Abdullayeva Dilnozaxon Furqatjon qizi
Farg'ona Davlat Universiteti
Xorijiy til va adabiyoti fakulteti, talabasi,
Shermamatova Sevara O'ktamjonovna
Farg'ona Davlat Universiteti
Xorijiy til va adabiyoti fakulteti, o'qituvchisi**

Annotatsiya: Urushning so'nggi qurboni asari bosh mavzu sifatida urush va uning yomon oqibatlarini ochib berilgan. Ushbu asarda urush barcha insoniyatni sinagani va deyarli, barcha insonlar boshidan o'g'ir kunlar o'tgani shu bir oila misolida ko'rsatib berilgan. Sinovlar shunchalik qattiq bo'lganki, jigarlar bir-birlarining, bolalar ota-onalarining holidan xabar olishmay qo'ygan. Asarda barcha insonlar sharoiti o'g'irligini, asar boshida birgina dasrurxon tasvirida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bu asarda barcha insoniyatni hech qachon unutib bo'lmas qora kunlari ochiqdan ochiq ifodalangan. Eng qayg'uli va og'riqli holat farzand o'z onasining qotiliga aylanganligi. Albatta, hech qaysi inson dushmaniga ham bunday kunni ravo ko'rmaydi. Lekin urush insonlarni tasavvuriga siqmagani yomon voqealarni olib keldi.

Kalit so'zlar: obraz, partret, iymon, O'tkir Hoshimov, Shoikrom, Shone'mat, Xadicha, Umri xola, montyor, qo'y suti

Barchamiz bilamizki, 1941-1945 yillar oralig'ida nafaqat bizning yurtida balki, dunyoning barcha mamlakatlarida og'ir judolik bo'ldi. Bu urush qanchadan qancha insonlarni yostig'ini quritdi, qanchadan qancha bolalarni yetimga aylantirdi, qanchadan qancha yuzlar bu urush yillarida tabassum nimaligini unitdi, hatto qarindoshlar bir-birlaridan yuz o'girishga majbur bo'ldi. Shunday qilib, bu urush insonlarni yetti uxlab tushiga kirmagan falokatlarini olib keldi. Mashhur o'zbek yozuvchisi O'tkir Hoshimov aynan mana shu barcha insonlarning og'riqli nuqtasi bo'lmish, urush mavzusida o'zining mashhur "Urushning so'nggi qurboni" asarini yozdi. Urush haqida o'zbek va jahon adabiyotida misli ko'rilmagan darajada ko'p she'rlar, romanlar, hikoyalar va qissalar yozilgan. Lekin ularning ichida O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi o'zgacha o'rin tutadi.

"Urushning so'nggi qurboni" asarida obrazlar portreti ham o'ziga xosdir. "Urushning so'nggi qurboni" asari bir-biriga o'xshamas xarakterli qahramonlardan tashkil topgan. Barcha obrazlarning o'z tashvishlari, o'y-fikrlari, qiyinchiliklari mavjud. Lekin bu insonlarni barchasini g'am-qayg'ulari ildizida urush yotadi. Baxtdan tabassum qilishdan to'xtamaydigan yuzlarga, qaytib kulishiga izn bermagan, bir kunda qora sochlarni oqartirgan-urush. Bu asar qahramonlari ham urush bo'lishini va guldek oilalariga putur yetishini hech o'ylab ko'rishmagan. Asar boshlanishi ham asarning voqealar rivoji qanday bo'lishi haqida bir oz ma'lumot berilgan. Asarning boshidayoq salbiy holatlar tasvirlangan, barcha narsalar asardagi voqealar rivoji ijobiy ketmasligiga ishora qilardi.

Asardagi bosh qahramonlar- Shoikrom, Shone'mat, Umri xola va Xadicha. Shoikrom oilaning katta farzand bo'ladi. Shone'mat bo'lsa oilaning kichik farzandi ya'ni Shoikromning ukasi bo'ladi. Xadicha Shoikromning xotini Umri xola esa Shoikromning onasi bo'ladi. Shoikromning otasi erta olamdan ko'z yumgan va Shone'matni Shoikrom va Umri xola ikkasi katta qilishgan. Urush boshlanganda barcha oiladan erkaklarni urushga olib ketishgan. Lekin bu oiladan hech kim urushga bormagan. Shoikromni to'qimachilik kombinatida montyor yetishmasligi sababli olib qolishdi. Shone'mat bo'lsa sil kasaliga chalinganligi sababli urushga

jo'natilmadi. Qarangki, urush shuncha uzoqda bo'lsa ham uning sovug'i bu oilaga ham kirmasdan qoladi. Qimmatlilik, qahatchilik sababli xalq och qoldi o'g'rilar ko'paydi. Xattoki, odam o'ldirib uyidagi narsalarini olib chiqib ketadigan odamlar ham paydo bo'ldi. Bu urush qanchadan qancha odamlarni yer qarida olib ketdi va yana qanchadan qancha odamlarni iymonini o'ldirdi. Urush paytida har bir inson o'zini o'ylaganligini shu asar orqali yaqqol ko'ramiz. Shunchalik darajada insonlar inkonsiz qolganki, o'z yaqinlaridan yuz o'girish darjasiga ham borishgan. Bu juda achinarli holat lekin bu ishlar uchun u insonlar ham aybdor emas. Barchasiga urush aybdor-Urush!!!

Urush! Noming o'chsin jahonda,
Hamon bitmas sen slogan alam.
Sen tufayli ko'p xonadonda
Ota nomli buyuk shodlik kam.

Xadicha o'zi qurumsoq bo'lgan urush boshlangan keyin yanada bu hislati oshdi deb tariflangan. Lekin o'ylab qarajak ona bo'lish osonmi uch bolani boqish kerak ayniqsa urush yillarida. Bu asarda Umri xola obrazi orqali yozuvchi barcha xokisor, mehribon onalarni tariflab bergan. Shone'mat o'lishini bilsada bolasi uchun jon-jahdi bilan kurashadi. Uni tuzalib ketishi uchun kim nima desa sinab ko'radi. Umri xolani birdan bir niyati o'g'lini yana sog'lom ko'rish edi. Lekin urush tufayli oziq ovqat tanqis edi. Umri xola o'g'lini tuzalishi uchun Shoikromning xovlisidagi qulupnayni qo'y sutiga almashtira boshlaydi. Oziq-ovqat kam paytda barcha o'z oilasini, bolalarini o'ylaydi. Shoikrom ham ataylab emas, jahl ustida qulupnay ariqchasiga tok simini tashlab qo'yadi. Shoikrom ham shu nasibamizdan ayrilib qolmaylik degan maqsadda bu ishni amalga olishadi. Ming asfuslar bo'lsinki, Shoikrom o'z onasini qotiliga aylanadi. Bu ne ko'rgulik. Eh urush, qanchadan qancha insonlarni hayotiga abadiy zulmatni olib kirdi! O'z jigaridan xabar olmay qo'gan aka-ukalar, o'zlari bilmagan holda ota-onalarini o'lishiga sababchi bo'lgan bolalar, yoki yaqin insonlari ko'z ongida jon bergan insonlar tasvirlangan bu asarda. Abatta, ushbu asar urush haqidagi tasavvurlardan xamir uchidan patir. Aslida bundan ham daxshatli qanchadan qancha voqealar ro'y bergan." Asarda qiyinchilik inson ma'naviyatini sinovdan o'tkazish vositasi ekanligining ko'rsatilganligi.

Hikoyada urush yillarining haqqoniy tasvirklanganligi. Yo'qchilik onani boladanm og'ani inidan sovutganliginining ta'sirchan ifodalanganligi. Asl odam har qanday sharoitda ham ma'naviy pokligicha qolishining tasvirlanganligi. Hikoyadagi Shoikrom, Shone'mat, Hadicha va Umri xola obrazlariga xos xususiyatlarning yorqin aks etganligi".

Xulosa qilib aytganda, bu urush barcha insonlarni qiyin vaziyatga solib ularni birma-bir elakdan o'tkazdi. Kimdir bu sinovlardan o'ta olmadi, kimdir bu sinovlardan o'ta oldi. Kimdir odamiyligicha qoldi, kimdir iymondan yuz o'girdi. Bu urush o'zidan ancha yiroqda yashayotgan odamlarga ham ta'sir qilmay qoladi. Asar nomi ham bejizga "Urushning so'nggi qurboni" emas. Umri xola vafotidan keyin urush tugadi degan xabar keladi. Urush o'z zahrini chekka-chekka joylargacha socha oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S. Ahmedov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev, Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua,148-157 betlar," Ma'naviyat", Toshkent,2017
2. Bahoriddinova Shahzoda" Umumta'lim maktablarida O'tkir Hoshimov hikoyalari tahlili", Bitiruv malakaviy ishi, Toshkent,2018
3. S. Ahmedov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev, Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf uchun daslik-majmuasi,84-86 betlar, "Ma'naviyat", Toshkent,2017
4. Tafakkur.net, Toshkent, 2017

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHI PEDAGOGLARINI KASBIY KOMPITENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING OMILLARI

Sultonqulova Guljahon

**Qo'qon davlat pedagogika instituti magistratura bo'limi
ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim) 2-bosqich magistrati**

Annotatsiya: Maktabgacha ta'limda zamonaviy ijodiy sog'lom raqobat muhitini yaratish tarbiyachi-pedagoglarning motivatsiyasini oshirish, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlari ta'lim mazmunini isloh etish kasbiy faoliyatini yaxshilash, shart-sharoit yaratish zaruratini belgilaydi.

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglari kasbiy kompetentligini takomillashtirishning omillari tadqiq qilingan bo'lib ushbu mavzu yuzasidan tajriba-sinov ishlarim Qo'qon shaxar 11-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotida olib borgan tajriba-sinov ishlarim ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tashkiloti, tarbiyachi-pedagog, kasbiy kompetentlik, omillar, o'z ustida ishlash.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining samaradorligi va nufuzini oshirishda pedagog kadrlarning salohiyati eng zarur komponent hisoblanadi. Salohiyatli va komponentli kadrlar bilan ta'minlangan muassasada ta'lim mazmunini amalyot bilan bog'lagan holda sifatli mashg'ulotlarni tashkil etilishi kafolatlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglari kasbiy-shaxsiy sifatlarni tarkib toptirish, ularni istiqboldagi pedagogik faoliyatga tayyorlash, bo'lajak tarbiyachilarda innovatsion, kreativ tayyorgarlikni shakllantirish kasbiy ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari ko'plab olimlar tomonidan keng doirada tadqiq etilgan.

Xususan, Ibragimova Gulsanam Nematovna bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini kasbiy innavatsion faoliyatga tayyorlash tizimi, Xushnazarova M.N. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish va Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari kasbiy kompetentligini rivojlantirish kabi mavzularda ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

Ushbu pedagog olimlar o'z tadqiqot ishlarini turli maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachi-pedagoglari ish faoliyatlarini o'rganish davomida olib borgan bo'lib biz ham o'z tajriba-sinov ishlarimizni Farg'ona viloyati Qo'qon shaxar 11-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglari ish faoliyatlarini o'rgandik.

Buning uchun faoliyatimiz doirasida avvalambor maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglari va ularning guruhidagi tarbiyalanuvchi maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tanishib, tarbiyachi-pedagoglar ish faoliyatini kuzatdik.

Keying bosqichda esa tarbiyachi-pedagoglari, tarbiyalanuvchi maktabgacha yoshdagi bolalar hamda ularning ota-onalari bilan anketa-so'rovnomani olib bordik va taxlil qildik.

Faoliyatimiz doirasida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglari kasbiy kompetentligini takomillashtirishning omillari mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari, ushbu mavzuda chop etilgan maqola, darslik va o'quv qo'llanmalarni o'rgandik va tadqiqotimiz davomida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglari kasbiy kompetentligini takomillashtirishning omillarini ikki turga bo'lib o'rgandik sub'ektiv (ichki) va ob'ektiv (tashqi) omillar.

Faoliyatimiz davomida shunga amin bo'ldikki, tarbiyachi-pedagoglarni kasbiy kompetentlikni takomillashtirishga ta'sir etuvchi ichki omillarni uning individual-psixologik sifatlari bilan bog'lansa, ob'ektiv omillarga muhit va ta'lim shart-sharoiti bilan bog'liqdir.



Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, har bir tarbiyachi o'z kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni avvalo o'z ustida ishlash, o'z- o'zini nazorat qilish bilan birgalikda pedagogik jarayonning qay tarzda yaratilgani va albatta pedagoglar jamoasining tarkibi ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Shu o'rinda E.V. Taranovning pedagogik muhitga moslashishga shunday ta'rifi yodimizga tushadi: "...shaxsning tashkilotning vazifalari, an'analari va istiqbollariga barqaror ijobiy munosabatini shakllantirish jarayoni, bu jarayon davomida shaxs o'zi uchun yangi faoliyatda faol ishtirok etadi, shaxslararo munosabatlar tizimi, ijtimoiy. -tashkilotning siyosiy va madaniy hayoti, u erda o'zini o'zi anglash uchun sharoit topadi va yangi muhitni uning hayotiy faoliyatining asosiga aylantiradi".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Fotima QODIROVA, Shoista TOSHPOLATOVA, Nargiza KAYUMOVA, Malohat A'ZAMOVA MAKTABGACHA PEDAGOGIKA Darslik TAFAKKUR NASHRIYOTI TOSHKENT – 2019b-103
2. Gaynazarova G.A. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avt. – NAMANGAN., 2022. – 12-b.
3. Ibragimova G.N. Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlash tizimi. Pedagogika fanlari doktori (DSc). ... diss. avt. – T., 2021
4. Xushnazarova M.N. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avt. – T., 2021.
5. Gaynazarova G.A. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. avt. – NAMANGAN., 2022.
6. <https://zapustibiznes.ru/uz/process-professionalnoi-adaptacii-lichnosti-profadaptaciya-eto-b-prinyat-s/>

**TA'LIM SIFATI - YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINI YANADA
YUKSALTIRISHNING MUHIM OMILI**

Soliyeva Ruxsora
QDPI, Boshlang'ich ta'lim 3 kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda professional ta'lim tizimi holati, masofaviy ta'limni tashkil etishda mavjud muammo va kamchiliklar, ularni bartaraf etish hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash masalalari, ta'lim sifatini boshqarish, rivojlantirish tendensiyalari aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, xalqaro standartlar, klassifikator, masofaviy ta'lim, elektron platformalar, ilmiy salohiyat.

Kirish. Respublika iqtisodiyotining barqaror va jadal taraqqiyotini ta'minlashda kelajak uchun keng qamrovli, oqilona asoslangan ustuvor vazifalar va yo'nalishlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning reja va dasturlari ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimizda shakllantirilayotgan, ko'pgina jabhalarda chuqurlashib borayotgan yangicha bozor munosabatlari uzluksiz ta'lim tizimiga, shu jumladan, iqtidorli, tashabbuskor yuqori malakali kadrlar soni va salohiyatini oshirishga xizmat qilayotgan Professional ta'lim muassasalari faoliyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda [5]. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash davrida fuqarolar daromadlari, turmush darajasi va respublikada ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, natijada yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash, xalqimiz farovonligini yuksaltirish maqsadida aholi bandligini ta'minlash uchun yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat sharoitlarini yaxshilash bilan birgalikda mehnat resurslari intellektual salohiyatini oshirish vazifalari ham bugunning dolzarb ahamiyat kasb etuvchi masalalari qatoridan o'rin egallaydi. Hozirgi globallashtirish va tezkor axborot almashinuvi sharoitlarida har qanday tashkilot, korxonalar va muassasaning zamon talablariga mos ravishda rivojlanishi xodimlarning keng dunyoqarashi va mas'uliyatlilik, eng muhimi, rahbar va jamoadagi yuqori malakali kadrlarning bilimi, ko'nikmasi, iqtidori, ma'naviyati, boshqaruv qobiliyati, ilmiy salohiyati va boshqa xususiyatlariga bevosita bog'liqdir. Professional ta'lim muassasalarida raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ulardan yurtimiz osoyishtaligi va obodligi, xalqimiz farovonligi yo'lida maqsadli foydalanish qat'iy raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyotining asosiy talablaridan biridir [2].

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan professional ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamlil ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentabrdagi PF-5812-sonli Farmoni [1] ijrosi yuzasidan Respublikadagi kasb-hunar kollejlari faoliyati tugatilib, halqaro andozalarga mos bo'lgan, ya'ni YuNESKO halqaro tasniflagichi (keyingi o'rinlarda Halqaro tasniflagich yoki MSKO) ning 3, 4, 5 darajalariga mos keluvchi professional ta'lim tizimi joriy etildi. Hududlarda yangi professional ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo'limlarning ochilishi, professional ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi. Hozirgi zamon sharoitida professional ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni belgilangan o'quv me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshirilayotgan bo'lib, fanlar bo'yicha o'quv dasturlari hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari hamda ishlab chiqarish tarmoqlari ehtiyojlari asosida integratsiyalashtirilgan holda hamkorlikda ishlab chiqilmoqda. Halqaro andozalarga mos keluvchi professional ta'lim tizimida qanday muammo va kamchiliklar mavjud? degan

savollar tug'ilishi tabiiy. Bu savollarga javob berishda muammo va yechimlarni quyidagicha izohlashimiz mumkin.

Birinchi, yaqin yillar ichida butun dunyoda inson salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi yuqumli kasalliklar jumladan, koronavirus infeksiyasi kabi viruslar aholi o'rtasida gigiena qoidalariga rioya etish, ijtimoiy masofani saqlash kabi profilaktik chora-tadbirlar ta'lim muassasalarida ham o'quv jarayonini an'anaviy shaklidan masofaviy ta'limga o'tishga ehtiyoj tug'ildi. Oliy ta'lim tizimida aksariyat oliy ta'lim muassasalarida MOODLE dasturiy ta'lim platformasi asosida masofaviy ta'lim tashkil etildi. Biroq ayni shu vaqtda professional ta'lim tizimida ham o'quv jarayonini masofaviy tarzda amalga oshirishda "Aqli ta'lim" platformalari mavjud emasligi sababli ijtimoiy tarmoqlar va turli xil mesendjerlar orqali o'quv mashg'ulotlari olib borildi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini pasayishi, nazorat tizimidagi muammolar, o'quv mashg'ulotlarga bilim oluvchilarning o'z vaqtida qatnashmasligi, hududlardagi internet tarmog'idagi muammolar, mashg'ulot materiallari bit- xajmi turlicha bo'lgani sababli ulardan foydalanishdagi qiyinchiliklar hamda pedagog xodimlar va bilim oluvchilarda ortiqcha internet trafiklari sarflanishi oqibatida xarajatlarning ko'payishiga va buning natijasida ayrim bilim oluvchilar dars mashg'ulotiga qatnashmasligi kabi ta'lim uzluksizligiga salbiy ta'sir etuvchi muammolar kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Misol o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, 2020 yilda birgina Sirg'ali politexnika kasb-hunar kollejida pandemiya sababli tashkil etilgan "onlayn dars" samaradorligi bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomada bilim oluvchilar hamda ularning ota-onalarining faqatgina 17 foizi ijobiy fikr bildirgan, 83 foiz so'rovnoma ishtirokchilari bilim sifati pasaygani haqida fikr yuritishgan. Vaholanki, ushbu ta'lim muassasasi ko'p yillar davomida bilim berish sifati hamda reytingi bo'yicha Toshkent shahri va Respublika miqyosida yetakchi o'rinlarni egallab kelgan.

Ikkinchi, yangi tashkil etilgan professional ta'lim tizimida oldingi kasb-hunar ta'limi tizimidan farqli kunduzgi, kechki, sirtqi ta'lim shakllari mavjud bo'lib, pandemiya sharoiti bo'lmagan taqdirda ham sirtqi ta'lim shaklida bilim oluvchilarning o'quv yuklamasi boshqa ta'lim shakllaridan ancha farq qilishi ta'lim sifatining pasayishi, bilim oluvchilarning nisbatan kam bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kuzatiladi. Bu kabi kamchiliklarni bartaraf etishda sirtqi ta'lim shakli bilim oluvchilari ham masofaviy tarzda "ixtiyoriy dars jadvali" asosida bilim olishlari maqsadga muvofiqdir.

Uchinchi, "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi 163-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq 2021/2022 o'quv yilidan boshlab professional ta'lim tizimida "hayot davomida ta'lim" prinsipi asosida "dual" ta'lim tizimi joriy etilishi ko'rsatilgan bo'lib, bilim oluvchilar xafta davomida kamida 2 kun ta'lim muassasasida bilim olib qolgan ish kunlari o'zlarining kasb va mutaxassisliklari mos ravishda korxonalarda yoki ishlab chiqarish tarmoqlarida o'zlarining amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashi mumkin bo'lib, korxonalar va tashkilotlar bilim oluvchilarga ish xaqi to'lashi nazarda tutilgan.

Xulosa va munozara. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi zamon globallashuv sharoitida axborot texnologiyalari vositasida kadrlar tayyorlash muhim o'rin tutadi. Zero, kundalik hayotimizda, iqtisodiyotda, ishlab chiqarishda va hayot faoliyatimizning barcha sohalarida axborot texnologiyalaridan keng foydalanishimiz lozim. Ta'lim sifatini rivojlantirishda bu kabi omillar yetakchi rol o'ynashi davr taqozosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 466-son Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 11 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi professional ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 715-son Qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 715-son Qarori.

5. Ibraymov A. Masofaviy o'qitish tizimini tashkil etish va o'quv kurslari mazmunini ishlab chiqishning o'ziga xos xususiyatlari. O'zMU xabarлари. – Toshkent, 2016 yil.

6. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Shirinov M.K., S. Hafizov. Umumiy pedagogika. – T.: "Fan va texnologiya", 2018 yil.

7. Ayrim ishlab chiqarish jarayonidagi loyiha va patent ishlanmalari.

8. Рашидов, Д. (2022). TRANSPORT KORXONALARI UCHUN NOGIRONLAR TOMONIDAN ISHLAB CHIQRILAYOGAN MAXSUS KIYIMLAR VA BOSHQA MAHSULOTLAR XARIDINI KO'PAYTIRISH ORQALI NOGIRONLAR MEHNATINI RAG'BATLANTIRISH. Scienceweb academic papers collection.

9. www.lex.uz.

10. www.ziyonet.uz.

11. www.google.ru.

12. www.webstudy.ru.

TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA FANINING O'RNI VA AHAMIYATI**L.O.Hamdama****Pedagogika ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi,****F.O. Xodjiyeva****Navoiy davlat pedagogika instituti****Pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti, p.f.n.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik akmeologiya fanni nima va uning jamiyat uchun qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik akmeologiya, pedagog, individuallik, pedagogika muloqot, konsepsiya.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasini isloh qilishdagi asosiy maqsadlaridan biri – pedagog kadrlarni zamon talablariga mos tarzda tayyorlash, har tomonlama rivojlangan barkamol shaxslarni tarbiyalashdan iborat. "Har qanday murakkab zamonaviy axborot texnologiyalar, integratsiyalar, fan sohasidagi olamshumul yangiliklar, avvalo, o'qituvchi tomonidan o'zlashtirilib, so'ngra uning bilimi, saviyasi, qobiliyati evaziga o'quvchilar ongi va tafakkuriga yetkaziladi"[1]. Ta'lim sohasidagi olib boriladigan har qanday ishlar o'z-o'zidan "ijodkorlik" tushunchasini olib kirdi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi ko'rsatadiki, har qanday taraqqiy etgan mamlakatning muvaffaqiyatini belgilab beruvchi omil kadrlarning ijodkorlik faoliyatlarini yuqori "cho'qqi"larga olib chiqish bilan uzviy bog'liq. Pedagoglar tabiatini o'zgartiradigan, ular shaxsini tarkib topishiga ta'sir qiladigan muhim fanlardan bir – bu pedagogik akmeologiya fanidir. Aniqlanishicha, inson shaxsining tarkib topishiga ta'sir qiluvchi kuchli omil – inson orttirgan tajribalarning tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishi hodisasidir. Ma'lumki, inson shaxsi juda murakkab psixologik fenomen bo'lib, u kishining individual hayoti davomida ma'lum konkret omillarning ta'siri ostida asta-sekin tarkib topadi. Shu bois ham, akmeologiya - shaxsning rivojlanish va komillikka erishish jarayonini o'rganuvchi maxsus fan hisoblanadi.

Akmeologiya (grekcha «akme –cho'qqi, yuqori pog'ona, gurkiratuvchi kuch» ma'nolarini bildiradi) – ilmu-fanning shunday yangi tarmog'iki, u insonni o'z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayot faoliyatining turli bosqichlarida o'zidagi eng kuchli qobiliyatlarini namoyon qilishining kompleks masalalarini o'rganadi. Ya'ni, u shaxsni o'z takomili jarayonida, ana shu taraqqiyot va yuksalishning ob'ektiv hamda sub'ektiv omillari doirasida tadqiq etadi.

Akmeologik yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik ijodkorlikni shakllantirishning ilmiy asosi sifatida pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarining mazkur jarayon ishtirokchilari, kasbiy faoliyatning yetuk shaxslari va faol sub'ektlari tarzida namoyon bo'lishlariga asoslanadi hamda ularning sub'ekt va mutaxassis sifatida bosqichma-bosqich, uzluksiz o'z-o'zini takomillashtirishi va o'z-o'zini shakllantirishi uchun sharoit yaratadi. Pedagogik ijodkorlikning rivojlanishi xilma-xil qobiliyatlarning aks etishi bilan bog'liqdir. Pedagogik akmeologiya - bu o'qituvchi ishidagi professionallikka va kompetensiyaga erishish yo'llari haqidagi fan. Zamonaviy kasb-hunar ta'limi tizimidagi akmeologik yondashuv kasbiy motivatsiya, ijodiy salohiyatni ro'yobga chiqarishni rag'batlantirish, o'qituvchining kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsiy resurslarni aniqlash va unumli foydalanishni mustahkamlashni ta'minlashdan iborat. Pedagogik akmeologiya konsepsiyasini shakllantirish uchun quyidagi tarkibiy qismlarga asoslanish maqsadga muvofiqdir:

- individuallikning akmeologik konsepsiyasi;
- Pedagogik mahoratning akmeologik konsepsiyasi;
- sog'liqni saqlashning akmeologik konsepsiyasi;

- amaliy vositalar;
- akmeologik yordam;
- akmeologik maslahat.

Individuallik - bu shaxsiyat, shaxsiyat, faoliyat sub'ekti va o'ziga xos xususiyatlarini o'z ichiga olgan insoniyat rivojlanishining eng yuqori ideal bosqichidir. Inson uchun o'ziga xos individualligini, o'ziga xosligini kasbiy faoliyatda anglab etish muhimdir, chunki u uchun bu uning haqiqiy, noyob, universal, ajralmas, sub'ektlarning haqiqiy holatiga yaqinlashishdir.

Pedagogik mahoratni pedagogik mahoratning boshqa belgilari bilan birgalikda ko'rib chiqish mumkin (pedagogik san'at, kasbiy mahorat va o'qituvchining shaxsiy xususiyatlari).

Pedagogik mukammallik - bu o'qituvchi bo'lishga qodirlik va uning individualligi salohiyatining maqsadga muvofiqligi, shuningdek, "acme" ga erishish uchun shartidir. Inson salomatligi shunga qaratiladiki, inson potentsiali umumlashtirilgan tamoyilga asoslangan (individuallik, shaxsiyat, faoliyat sub'ekti, individuallik). Inson salomatligini akmeologik tushunish uni ta'lim va ta'lim bilan birlashtiradi. Shu bilan birga, u sog'liqning xususiyatlariga biologik, psixologik, pedagogik va tibbiy jihatlar birlashtirilgan, Sog'liqni saqlashning akmeologik konsepsiyasi uning konstruktivligi va dinamiz: jismoniy, aqliy, axloqiy va boshqa darajalarda sog'likni saqlash va mustahkamlashni nazarda tutadi.

Amaliy vositalar akmeologik loyihalash, qo'llab-quvvatlash va maslahat berish usullarini o'z ichiga oladi. Akmeologik loyiha individual ish uchun ishlatiladi, hayot strategiyasini, xulq-atvorini yoki kasbiy rivojlanishini aniqlash bilan bog'liq.

Akmeologik yordam turli xil tashkiliy va pedagogik tadbirlarga xizmat ko'rsatishda qo'llaniladi.

Akmeologik maslahat - bu o'qituvchilar bilan o'zlarining kasbiy faoliyatlari, pedagogik darajalariga erishishda yordam berish bilan bog'liq individual ish. "Men" konsepsiyasini o'zlashtirish, shakllantirish va amalga oshirish va boshqalar.

Akmeologiya nuqtai nazaridan professionallik - bu "akme" tomon harakat qiladigan o'zini o'zi rivojlanayotgan shaxsning xususiyati yoki kasbdagi mahoratning eng yuqori cho'qqisi. Akmeologiya fan sifatida mutaxassisni kasbda va umuman hayotda rivojlantirishning asosiy yondashuvlarini, shuningdek, shaxsni takomillashtirish va o'zini rivojlantirishning muvaffaqiyatini, uning o'zini o'zi anglashining to'liqligini belgilaydigan omillar, sharoitlar, mexanizmlarni o'rganadi.

Pedagogik akmeologiyaning markaziy tushunchalaridan biri bu o'qituvchining kasbiy mahorati tushunchasi. Bu o'qituvchi shaxsining ajralmas xarakteristikasi sifatida tushuniladi, u kasbiy faoliyatning bir nechta turlariga egalik qilishni va talabalarda o'qitish va tarbiyalashda kasbiy pedagogik muammolarni samarali hal qilishni ta'minlaydigan o'qituvchida kasbiy muhim psixologik fazilatlarining mavjudligini nazarda tutadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Pedagogik akmeologiya fanni qancha rivojlansa, jamiyat ham shu darajada rivoj topadi. Sababi o'z kasbining to'la qonli mutaxassisi bo'lgan o'qituvchilar qo'lida ta'lim-tarbiya olgan yoshlar tom ma'noda Uchinchi Renesans yoshlari bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xoliqov A.A. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratini rivojlantirish. - Toshkent, 2015 y. 9-b.

2. Педагогическая акмеология: коллективная монография / под. ред. О. Б. Акимовой; ФГАОУ ВПО «Рос. гос. проф.-пед. ун-т». Екатеринбург, 2012. 24-55

**TA'LIM SIFATI - YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINI YANADA YUKSALTIRISHNING
MUHIM OMILI**

Sirojiddinova O'g'iloy Mansurjon qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
3-kurs 1-20-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim tizimi, ta'lim sifatini oshirish borasidagi olib borilayotgan ishlar, yangiliklar, Yangi O'zbekistonda ta'limga berilgan e'tibor haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'z: Yangi O'zbekiston, ta'lim tizimi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", ta'lim sifati, o'qituvchi.

Bir insonning voyaga yetib, barkamol shaxs bo'lib ulg'ayishida tarbiya nechog'lik zarur bo'lsa, ta'lim ham xuddi shunday yuksak o'rinlarda turadi. Odamzod yaratilibdiki, unga Alloh taolo tomonidan bir his singdirilgan. Bu bilish hissi bo'lib, inson tug'ilgandan to vafot etgunga qadar bilmaganlarini bilishga va bilganlarini boshqalarga o'rgatishga harakat qiladi. Jamiyat hayotida ta'limning roli va ahamiyati juda katta. Jamiyat qanchalik kuchli, bilimli, salohiyatli insonlardan tashkil topsa, davlat shunchalik rivojlanadi, taraqqiy topadi. O'z oldiga ulkan marralarni qo'ygan, yuqori rivojlanish pozitsiyasiga erishmoqchi bo'lgan har bir davlat, avvalo, ta'lim sohasiga e'tibor qaratishi lozimligi barchamizga ma'lum. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham ta'limga e'tibor qaratish-kelajakka e'tibor qaratish, yuksak marralar uchun zamin hozirlash, har tomonlama rivojlanish uchun asosiy yo'llardan biri sifatida qaraladi. O'tgan davr mobaynida O'zbekiston bosib o'tgan yo'lga nazar soladigan bo'lsak, e'tiborimizni, avvalo, xalq faravonligi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash borasida qilingan ishlar tortadi. Shu bilan birgalikda, ushbu jarayonlarda ta'lim tizimi rivojiga ham alohida ahamiyat berilganining ham guvohi bo'lamiz.

So'zimiz isboti sifatida O'zbekistonning MDH davlatlari o'rtasida birinchi bo'lib 1997-yilda ta'limning barcha tizimini bosqichma-bosqich isloh qilishni nazarda tutuvchi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ni ishlab chiqqanini aytishimiz mumkin. Shunday bo'lsa ham O'zbekiston ta'lim tizimida bir qancha oqsashlar kuzatilgani ham yolg'on emas. Uzoq yillar davomida o'qituvchi kasbining jamiyat tomonidan kamsitilishi, uning sha'ni, qadr-qimmatining himoya qilinmasligi, o'quvchi-talabalarning o'qishga faqatgina majburiyat uchun borishi, malakasiz o'qituvchi va tarbiyachilar, ta'lim tizimidagi ortiqcha qog'ozbozlik shular jumlasidandir. Avvalo, ta'lim tizimi haqida gap ketganda, ko'z oldimizga o'qituvchi siymosi gavdalanadi. Ta'lim sifatining qanchalik yuqori bo'lishi, o'quvchilar o'zlashtirish salohiyatining ortib borishi, dars mashg'ulotlarining samarali tashkil etilishi, albatta, o'qituvchining bilim saviyasiga, iqtidoriga bog'liqdir. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarda kuzatyotgan ayrim holatlar ko'nglimizni xufton qiladi. Ularning birida o'qituvchi o'z o'quvchisi tomonidan kaltaklanadi, yana boshqasida esa ota-onalar tomonidan o'qituvchi sha'niga to'g'ri kelmaydigan haqoratlar qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'qituvchi shaxsi xususida to'xtalib: "Biz ustozni otaday ulug' deb bilgan, doimo ardoqlagan ma'rifatparvar xalqning vakillarimiz. Men ham o'qituvchi, muallim deganda o'zim uchun eng aziz va hurmatli, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta'lim berib, mehribon ota-onalarimiz qatorida tarbiyalagan.

Bugungi kunda O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko'makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir" – degan fikrlarni aytadi. Hozirgi kunda ta'lim sifatini oshirish maqsadida ko'pgina amaliy ishlar

qilinmoqda. Ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni bartaraf etish asosiy vazifalardan etib belgilandi. Respublikamizdagi ta'lim tizimining sifatini oshirish, ta'limning har bir sohasini qo'llab-quvvatlash, kamchiliklarni ochib berish uchun "Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi" ning tashkil etilishi ham-ta'lim sifatining oshirish uchun ulkan qadamlardan biri bo'ldi. Bu bo'lim o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Davlat inspeksiyasi hamda institut rektorlari buyruqlari va qonuniy ko'rsatmalariga, shuningdek Bo'lim to'g'risidagi Nizomga muvofiq olib boradi. "Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi" tomonidan O'zbekiston ta'lim tizimini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirish yo'lida bir qator samarali ishlar qilingani tahsinga sazovordir. Ammo birgina bu Bo'lim faoliyati bilan barcha muammolar hal bo'lib qolmaydi. Shuning uchun O'zbekiston o'z ta'lim tizimini har tomonlama rivojlantirish maqsadida bosqichma-bosqich isloh qilish yo'lini tanladi. Amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidan boshlanishi ham bejiz emas.

Turli xil yot g'oyalar xuruji shiddat bilan ko'paygan ayni vaqtda bolalarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining, nafaqat, jamiyatimiz, shu bilan birgalikda yurtimiz kelajagi uchun muhim o'rinda turishini ko'rsatib berdi. Shu o'rinda, yana bir bor o'qituvchi kasbiga to'xtalib o'tsam. Hammamizning xabarimiz bor, yaqin yillargacha bu kasb egalari o'zlariga munosib bo'lmagan ishlar bilan shug'ullanishga jalb etilgan. Paxta terimi, turli xil tozalik ishlari shular jumlasidandir. Lekin so'nggi yillarda o'qituvchi kasbiga munosabat tubdan o'zgardi. Buni biz o'qituvchilar oylik maoshlarining oshishida, insonlarning bu kasb egalari bo'lgan munosabatlarining ijobiy tomonga o'zgarishida ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston kelajagi barkamol yoshlar qo'lida bo'lsa, ushbu yoshlarning qay darajada bilim, salohiyatga ega bo'lishi, ularning yetuk kadr bo'lib yetishuvida ustoz-murabbiylarning o'rni beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'gartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadida 30-aprel kuni bo'lishi kutilayotgan Referendumdan barchamiz xabardormiz. Ushbu Konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgarishlardan biri e'tiborimni tortdi. "O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi.

Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi" (52-modda). Yangi O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini to'g'ri tanlab, bu yo'ldan shiddat bilan harakatlanmoqda. Yurtimiz hozirgi kunda o'z erishgan yutuqlari, yerosti va yerusti boyliklari, yaxshi investitsiyaviy muhiti bilan dunyo minbarlarida e'tirof etilmoqda. Yuksalish uchun jadal harakat qilayotgan O'zbekiston o'zga davlatlar xatolaridan ham to'g'ri xulosa chiqarmoqda. O'z davrida dunyoning rivojlangan, boy mamlakatlari qatorida turuvchi bir qancha davlatlar bugungi kunda siyosiy, iqtisodiy, madaniy tanazzulga uchradi. Buning sabablarini tahlil etgan siyosatshunos olimlar, aynan, ta'lim tizimining ushbu davlatlar hayotida kam o'rin egallagani, ta'lim sohasiga e'tibor boshqa sohalarga qaraganda, pastroq ekanligi haqida fikr yuritadilar. Buni yaxshi anglagan O'zbekiston ta'lim tizimining eng rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi bilan barobar bo'lishi, eng yangi texnika va texnologiyalar bilan ta'minlanishi uchun harakat qilmoqda. Ta'lim sifati bizga nima bera oladi? Avvalo, sifatli ta'lim bu – kelajakka qo'yilgan eng asosiy poydevor. Sifatli ta'lim olgan o'quvchilar yetuk kadr bo'lib yetishadi. Bu kadrlar o'z sohalari bilan cheklanib qolmay, boshqa sohalarni ham tahlil qila olishadi. Mavjud xato, kamchilik, yutuqlarni ilg'ashadi. Bunday kadrlar Vatan taraqqiyoti uchun sidqidildan xizmat

qilishadi. Va o'zlari ham kelajakda o'zlari kabi yetuk salohiyatli kadr tayyorlash uchun harakat qilishadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, bugungi kunda ta'lim sifati muammosi eng dolzarb muammolardan biridir. Ta'lim sifatini oshirish, tizimdagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida olib borilayotgan ishlardan barchamiz xabardormiz. Ammo birgina xabardorlik bilan kifoyalanib qolmaylik. Biz ham ta'lim sifatining oshishi, sohada yangiliklar yaratilishi uchun o'z hissamizni qo'shaylik. Qanday deysizmi? Farzandlarimizga o'qituvchi kasbining sharafli kasb ekanligini singdiraylik, bog'cha, maktab va oliygohlarni ikkinchi uyi sifatida tanitaylik, jismonan va ma'nan yetuk yoshlarning yurt ertasi hisoblanishini uqtiraylik. Zero, Yangi O'zbekiston yangi yuksak marralarni ko'zlagan yoshlar bilan boyisin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baxtiyor Qayumov. Sifatli ta'lim - taraqqiyotimiz garovi. Maqola. 2023.
2. yuz.uz
3. daryo.uz
4. m.aniq.uz

**THE QUALITY OF EDUCATION IS THE MOST IMPORTANT FACTOR FOR IMPROVING
THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN**

Mamayusupova Dildoraxon
QDPI Maktab menejmenti ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi

Annotation: We need to create our bright future with quality education which gives us numerous opportunities. Because talented young people are the founder of the country's bright future.

Key words: education, young peopl, development, knowledge, quality, government, aim, institutes, increase.

Education is the most important tool for the betterment of humanity as well as to develop modernization in civilization. In every government education is considered to be the most essential pillar that holds whole nation together and leads the state towards ultimate success. Education is at the heart of both personal and community development; it's mission is to enable each of us, without exception , to develop all our talents to the full and to realize our creative potentiality , including responsibility for our own lives and achievement of our personal aims. Quality education provides the outcomes needed individuals , communities and societies to prosper. People learn basic norms, rules and values of society through education. Moreover, high quality education enables us to lead a successful life, enhances our intelligence, skills, knowledge , and bring positive changes in our life. We need good doctors, good engineers, good lawyers and good teachers after all good citizens one only ensuring availability of quality education.

In order to increase the quality of education in Uzbekistan, the name of year was also named "The year of human care and quality education " otherwise, if the quality does not change , the attention does not change either. Achievements will be ours, only knowledge is needed. Whatever you call knowledge, each of us should look back and never forget that " we are the children of great ancestors" said that Sh. Mirziyoyev. [1] Young people are the founders of the future of every country, they need quality education and comforts for them to be the most advanced in every field. Nowadays, our developing country creates wide opportunities for young people. We can clearly see this in the President's political decisions about youth.

The youth policy is the priority direction of the state activity of the Republic of Uzbekistan and its goal is social and economic development of young people in order to fully realize their creative talent in the intersts of society. Consist of creating legal and organizational conditions and guaranteeing them. The state provides special support to talented young people. In the Republic of Uzbekistan, state organizations and public associations must assist in identifying talented young people and in their creative development for this purpose, state institutions and public assosiations provided with material technical bases in the Republic of Uzbekistan to search for, protect and support talented young people in the field of science and technology, economy, management, art and commisions operate . Measures to support talented young people are provided with money from republican and l ocal budgets, as well as other sources.[1]

More than 60 percent of the population of our country are young people. Naturally, our state pays special attention to the thoughts, problems and hopes of this layer. In recent years, significant reforms have been implemented in the national education system. These changes can be seen in: [3]

Preschool education system is changing radically our kindergartens about 10 thousand schools , pedagogical institutes , pedagogical colleges and etc. Coverage of pre-school education was approximately 17-18 percent. By the end of 2021 it is expected the coverage of preschool education will reach 65%, and at the end of 2023, it will reach 75%, an additional 2,000 non-state kindergartens will be established, and the share of the private sector will reach 25%. In order to fundamentally improve school education, 30 new schools were built in 2021, 320 schools were repaired, the material and technical base was improved, and 2 trillion soums were allocated from the budget. In order to fundamentally improve the quality of education, first of all, work was carried out to adapt educational programs, methodological manuals for teachers and teachers to advanced international criteria. [2]

In the petition, special attention is paid to the need to create comprehensive and understandable textbooks for the development of analytical and creative thinking skills of children. In this regard, instead of the state education standard, the "National Curriculum" was introduced in the primary classes based on advanced foreign experience, which does not overload the child. It was ensured that the quality of education in comprehensive schools was high both in the capital and in remote villages. It was envisaged that teachers who go to a remote school in another district and teach will be paid 50 percent per month, and 100 percent if they go to work in another region. In 2021, 10 presidential schools, 197 schools specializing in chemistry and biology, mathematics, and information technology began their activities . [2,4]

Literature:

1. Law of The Republic of Uzbekistan about the state policy on youth
<https://lex.uz/acts/-140894>
2. The youth of Uzbekistan is the foundation of our future <https://ijtimoiy.uz/2282/>
3. Future youth of new Uzbekistan: opportunity and legal guarantee
<https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekistonning-kelajak-yoshlari-imkoniyat-va-huquqiy-kafolat>
4. Young people of new Uzbekistan are the foundation of our future and perspective
<https://uwed.uz/uz/news/spiritual/fulltext/1649>

TARBIYA JARAYONIDA OILA MAHALLA HAMDA TA'LIM MUASSASALARINING O'ZARO HAMKORLIGI

Tojekarimova Moxira Anvarjon qizi
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1 bosqich talabasi,
Valiyeva Nargiza
Qo'qon universiteti "Ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yurt kelajagi bo'lgan yoshlarning, bolalarning mustaqil va erkin shaxs sifatida shakllanishida oila, mahalla va maktab hamkorligi, ta'lim-tarbiya jarayonini har tomonlama takomillashtirish juda katta ahamiyatga ega, o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlanishi samarali tashkil etilishi yoshlarni barkamol avlod sifatida kamol topishi uchun zamin bo'ladi. Yurt kelajagi yoshlar qo'lida ekan ularga yoshligidan tarbiyani yaxshi berish kerak ya'ni birinchi o'rinda oiladan boshlash kerak.

Kalit so'zlar: Ta'lim, o'qish, dars jarayoni, pedagogik texnologiyalar, kreativlik, kengaytirilgan texnologiyalar, hamkorlik, jamiyat, mustahkam, barkamol, tashabbus, konsepsiya, oila, mahalla.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lini tanlagan mamlakatimizda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi va unda shaxs tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatuvchi milliy qadriyatlar yil sayin qadr topib, nufuzi oshib bormoqda. Buning asosiy sababi davlatimiz tomonidan ijtimoiy institutlarga har tomonlama e'tibor qaratilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan mustaqillik bergan imkoniyat tufayli qo'lga kiritilgan milliy qadriyatlarning qayta tiklanayotganligidir. Shu ma'noda olib qaralganda, ijtimoiy institutlar va uning muammolari bo'yicha ilmiy asoslangan tadqiqotlarning yuzaga kelishi dolzarb ahamiyatga molik bo'lib qolaveradi. Yosh avlodni tarbiyalashdek buyuk ishga Prezidentimizning ta'lim sohasiga alohida e'tiborlarini qaratganliklari har bir fan o'qituvchisidan o'z faoliyatiga jiddiy yondashishini talab etmoqda. Davlatimiz rahbarining qator qarorlari asosida yoshlar bilan ishlash negizida mahalla maktab va oilaning o'rni haqida fikr yuritilgan.

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'yi harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993 yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligi" Kontseptsiyasi yoshlarni istiqbol g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar qilib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida dasturulamal bo'ldi. "Oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligi" Kontseptsiyasining asosiy maqsadi yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqining boy milliy, madaniy, tarixiy an'analari, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyaning ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etish, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta'minlash, ota-onalar, pedagoglar va mahalla faollarining umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatni oshirish, respublika fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirishdan iboratdir. Kontseptsiyada jamiyat taraqqiyotining ma'naviy-axloqiy negizi bo'lgan milliy va umuman insoniy qadriyatlar, milliy va umuminsoniy tarbiyaning o'zaro aloqasi hamda muhim yo'nalishlari belgilab olingan. Chunonchi, mahalla, oila va ta'lim muassasasi hamkorligida milliy tarbiya yo'nalishda yoshlarning o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur, millatlararo muloqot madaniyati, milliy mafkuraviy onglik, milliy odob, fidoyilik kabi fazilatlarni o'zlashtira olishlari zarurligi ko'rsatilgan bo'lsa, umuminsoniy yo'nalishda hamkorlikdagi pedagogik faoliyatning huquq, iqtisodiy, jismoniy, aqliy, estetik, ekologik, gigienik va boshqa tarbiya sohalarini qamrab olishi muhim ekanligiga e'tibor qaratilgan.

Oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligida quyidagi tamoyillar asosida yo'lga qo'yiladi:

1. Ta'lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari harakatlarining ish birligi.
2. Tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi.
3. Hamkorlik jarayoni sub'ektlarining teng huquqliligi va yuksak mas'uliyati.
4. Faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlarini ustuvorligi.
5. Hamkorlikning ilmiy asoslanganligi.

O'zbekistonda sog'lom avlodni tarbiyalashda oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligini ta'minlash samaralarining garovidir. Bu borada hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan ustivor yo'nalishlar quyidagilardan iboratdir:

Oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamkorligini ta'minlashning huquqiy bazasini takomillashtirish, hamkorlikning kuchayishiga qaratilgan uslubiy ta'minotni mustahkamlash; Oilada yoshlar va ota-onalarning ijtimoiy faolligini oshirish; O'quvchi yoshlarga ta'lim berish, ularni tarbiyalash, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni qiziqishlari bo'yicha kasbga yo'naltirish; Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash; Voyaga yetmagan o'smirlar va yoshlar o'rtasida xuquqbuzarlik va nazoratsizlikning oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish; Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga keng jalb etish orqali sog'lom oilaga tayyorlash; Barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni mazmunan takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish mexanizmini yaratish; Sog'lom avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish.

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993 yilda ishlab chiqilgan Oila, mahalla, maktab hamkorligi Konsepsiyasi yoshlarni istiqloq g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida muhim dasturilamal bo'ldi. Mamlakatimizda keying yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va maktab nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqazo etadi.

Davlatimiz rahbarining 2009 yil 13 apreldagi Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog'lom avlodni shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida hamda 2009 yil 1 iyulda qabul qilingan 2009-2013 yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari Dasturi to'g'risidagi qarorlari bunday xayrli ishlarning izchilligini ta'minlashga xizmat qiladi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı tibbiy-ijtimoiy islohotlar aholiga zamonaviy tibbiy xizmatni yaqinlashtirish, reproduktiv salomatlikni mustahkamlash, ekstragenital kasalliklarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda 1998 yil Oila yili deb e'lon qilinishi oilaning tarbiyaviy rolini yanada kuchaytirdi. O'zbekistonda yuz berayotgan o'zgarishlar oila, mahalla, maktab hamkorligi yo'nalishida bola tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, maktabning asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqazo qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanganidek, Oila jamiyatimizning asosiy bo'g'inidir. Haqiqatan ham oila bu jamiyatni tashkil etuvchi katta kuchdir. 2012 yilga mamlakatimiz rahbari tashabbuslari bilan Mustahkam oila yili deb nom berilishi va shu asosda azal-azaldan hayotimizning tayanchi va suyanchi bo'lib kelgan, jamiyatimizning hal qiluvchi bo'g'inini bo'lmish oila

institutini yanada rivojlantirishga qaror qilishi hayot abadiylikini, har qaysi insonning baxtu saodati, kelajagi, orzu-intilishlarini mujassam etadigan oilani yanada mustahkamlash va farovonligini oshirish, bu borada olib borayotgan barcha ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishdek olijanob rejalarni amalga oshirish ko'zda tutilgani hammamizga yaxshi ayon. Oilalarning mustahkamligi va turmushning obodligi kelajak avlodning komil inson bo'lib yetishi uchun tayanch hisoblanadi. Ushbu yilda ham ishlab chiqilgan Davlat Dasturi asosida hamkorlik ishlarini tashkil etish zarur. Bunda oilaning ham, maktab va mahallaning ham tashabbuskorligi va o'zaro hamjihatligi talab etiladi. Oila kabi mahalla ham jamiyatini shakllantirishning ajralmas qismidir. Vatanimiz tarixi guvohlik beradiki, o'zbek jamiyatida jamoa bo'lib yashashning sinalgan shakli mahalladir. „Mahalla“ so'zi arabcha „Mahallun“ so'zidan kelib chiqqan bo'lib, aholi yashaydigan joy, guzar, uy-joy mavzolari degan ma'noni anglatadi. Mahalla shaharlar ichidagi kichik hududiy birlik bo'lib, o'tmishdan meros bo'lib kelmoqda. Bejizga yurtboshimiz Mahalla-yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi, deb ta'kidlamagan. Bir bolaga yetti mahalla ota-ona degan naqldan kelib chiqib kelajak avlodni tarbiyalash va unga ta'lim berish jarayonini amalga oshirish borasida kichik Vatan bo'lmish mahallaning oldida quyidagi vazifalar turadi: mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan masalalarni muhokama qilishda qatnashishi va oqilona yechimlarini topishda faollik ko'rsatilishi, mahalla o'z hududidagi ijtimoiy va iqtisodiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni qo'llab-quvvatlab va farzandlarining bilim va tarbiya olishlariga bosh-qosh bo'lishi, ma'nan nosog'lom oilalarni mahalla yig'inlarida muhokama qilish, ularga nisbatan jamoatchilik choralarini ko'rish, mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalariga iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko'rsatilishini qo'llab-quvvatlash, ota-onalar orqali bolalarni tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, milliy odob, mafkuraviy onglik, baynalmilallik kabi xislatlarni singdirishni har tomonlama rag'batlantirish; yoshlarga diniy mashablar va sektalar, aqidaparastlikning mohiyatini to'g'ri anglab yetishiga ota-onalar orqali ta'sir ko'rsatish, ulug' ajdodlarimizning tarbiyaviy o'gitlarini singdirib borishga jamoatchilikni safarbar qilish; mahalla yig'inlarida milliy davlatchilik va milliy mafkura g'oyalarini, respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida erishilgan turli tadbirlar tashkil qilishdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bolani tarbiyalashda, maktab, mahalla, oila hamkorligi to'g'ri yo'lga qo'yilsa, ta'lim tarbiya sifati va samaradorligiga erishish va oldimizga qo'ygan maqsadni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deganidek bola ham oilasida qanday tarbiya ko'rsa jamiyatda ham mahallada ham shuni ko'rsatadi. Ulug' bir donishmandlardan biri "Agar sen bir yilni o'ylasang bug'doy ek, hosini kuzning o'zidayoq olasan. O'n yildan keyinni o'ylasang, bog' yarat, uch to'rt yil o'tib, meva beradi. Agar sen kelajak tashvishing bilan yashasang farzandlaringga yaxshi tarbiya ber"- degan ekan. Bu bilan nima demoqchi ya'ni kelajaging bolang qolida sen unga qanday tarbiya bersang shuni o'zingga qaytaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R. Mavlonova, K. Xoliqberdiyev, "Pedagogika". T: "O'qituvchi nashriyoti". 2002- yil
2. R. Mavlonova, B. Normurodova, N. Rahmonqulovalarning **TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI**
3. Abdullayeva, O. O. (2021). Ibroyim Yusupov ijodi asosida o'quvchilarning vatanparvarlik tuyg'ularini o'stirish. Academic research in educational sciences, 2(3),
4. Umumta'lim fanlar Metodikasi jurnali

BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Ochildiyeva Mushtariy
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi,
Parpiyev Odiljon
Ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi ta'limda bo'layotgan islohotlar va zamonaviy maktablarda rivojlanish jarayonlari, O'zbekistonda boshlang'ich ta'limga zamonaviy yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari, yutuq va kamchiliklari, afzalliklari, ta'lim jarayonini aniq vositalar yordamida samarali tashkil etish lozimligi, "Milliy o'quv dasturi" asosida tuzilgan yangi avlod darsliklarining amaldagi qiyosiy tahlili, kompetensiya, tinglab tushunish, o'qib tushunish va yozma nutqning o'quvchilarda qay tarzda rivojlanishi, ahamiyatliligi, rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimi mohiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, kompetensiya, tinglab tushunish, so'zlash, o'qib tushunish, yozma nutq, zamonaviy ta'lim, xorijiy tajriba, darslik, dastur, milliy o'quv dasturi.

Davlatimiz rahbari "O'qituvchi va murabbiylar" kuni munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan tabrik nutqida ta'kidlaganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Aynan, shuning uchun ham, prezident: "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi", -deb ta'kidlaganlarida "Uchinchi Renessans poydevori" ni ta'lim islohotlarida ko'rdi.

Ta'lim jarayoni uzluksiz bo'lib, uning shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan sifatli natijalarga olib keladigan islohotlarga bog'liqdir. Ushbu maqolada biz asosan umumiy o'rta ta'limning ilk bo'g'ini hisoblangan boshlang'ich ta'lim haqidagi fikrlarga alohida e'tibor qaratamiz. Haqiqatan ham, ta'limga zamonaviy yondashuvlar ta'lim jarayonini aniq vositalar yordamida samarali tashkil qilish va qo'yilgan o'quv dasturlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Davlatimiz rahbari avvalo maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta'kidladi. Bu borada Finlandiya tajribasi misol qilib keltirildi. Ushbu mamlakat umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika bo'yicha dunyoda eng ilg'orlardan biri.

Ta'limni isloh qilish haqida fikr yuritar ekanmiz, ta'lim olishning asosiy vositasi bo'lgan darsliklarni yangilamay turib, o'quvchi va o'qituvchi mustaqilligiga erishmasdan natijaga erishib bo'lmaydi. Bu haqda Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning: "Darsliklar masalasida ham ancha muammo borligi uning ichiga kirgach bilindi. Ularning saviyasi haqida katta muhokamalar bo'ldi. Finlandiya standarti bilan 1-4 -sinflar uchun darsliklar qiladigan bo'ldik. Finlandiya xalq ta'limi Yevropa miqyosida, umuman, dunyoda raqobatbardosh hisoblanadi", - degan fikrlari bu sohaga yuksak iqtidorga ega soha vakillarini jalb qilishni anglatadi.

Barcha maktablarda "Milliy o'quv dasturi"ni to'laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish amalga oshirildi.

Boshlang'ich maktab o'quvchining umumiy ta'lim jarayonidagi eng muhim bosqichdir. To'rt yil ichida u nafaqat fan fanlarining dasturiy materialini o'zlashtirishi, balki qanday o'rganishni - "professional talaba" bo'lishni ham o'rganishi kerak. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining mas'uliyati doimo eksklyuziv bo'lgan.

Boshlang'ich maktabda olingan ta'lim keyingi ta'lim uchun asos, poydevor bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'lim boshlang'ich maktabning sifat jihatidan yangi shaxsga yo'naltirilgan rivojlanish modelini belgilaydi, u quyidagi asosiy maqsadlarga erishish uchun

mo'ljallangan: o'quvchi shaxsini rivojlantirish, uning ijodiy qobiliyatlari, o'qishga qiziqish, o'rganishga intilish va qobiliyatni shakllantirish; ma'naviy-axloqiy va estetik tarbiya; turli tadbirlarni amalga oshirishda bilim, ko'nikma, tajriba tizimini o'zlashtirish; bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash; bolaning individualligini saqlash va qo'llab-quvvatlash.

Jahon ta'lim tizimini kuzatar ekanmiz, har bir rivojlangan davlatning boshlang'ich ta'limida alohida ustivorlikka ega jihatlar mavjud. Jumladan, Xitoyda 6 yoshga to'lgan bolalar boshlang'ich maktab yoki o'rta maktabga kiradilar va u yerda 6 yil o'qiydilar. Boshlang'ich maktabda bolaning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Bolalar jismoniy tarbiya darslariga ko'p vaqt ajratadilar, cholg'u asboblarni chalishni o'rganadilar, ingliz va rus tillaridagi bilimlarini oshiradilar. Darslar 7:00 da boshlanadi. Har kuni ertalab barcha o'quvchilar o'qituvchilar bilan birgalikda jismoniy mashqlar qiladilar. Keyin soat 8.00 dan 12.00 gacha tabiiy va matematika fanlari o'rganiladi. Soat 12.00 dan 13.00 gacha tushlik tanaffusi mavjud bo'lib, unda bolalar maktabda uxlashlari mumkin, tushdan keyin esa gumanitar fanlar bo'yicha yana uchta dars o'tkaziladi. Keyin bolalar uy vazifalarini bajaradilar va faqat soat 16.00 da uyga qaytishlari mumkin.

Turkiya boshlang'ich ta'lim tizimida ekologiyaga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, 2005-yilda joriy qilina boshlagan boshlang'ich maktab o'quv dasturida u yoki bu tarzda ekologik muammolarga ta'sir etuvchi mavzular "Hayot xavfsizligi (atrof-muhit)", "Tabiiy fanlar va texnologiya" fanlari materiallariga kiritilgan. Ta'lim muassasasi qoidalariga ko'ra, ushbu fanlar quyidagi funksiyalarni bajaradi: o'z-o'zini bilish, tabiat va unda sodir bo'layotgan jarayonlarni tushunish qobiliyati, hayot sifatini yaxshilash yo'llarini topish, tabiiy resurslardan to'g'ri foydalanishni o'rganish.

Finlandiya 2014-yilda asosiy ta'lim bo'yicha yangi milliy tayanch o'quv dasturini ishlab chiqdi va u 2016-yil avgust oyidan boshlab Finlandiya maktablarida amaliyotga joriy qilina boshlandi. O'quv dasturini isloh qilishdan maqsad o'qituvchilar va pedagoglarga bolalar va yoshlarning hayotida zarur bo'lgan narsalarni o'rgatishda yordam berishdir. (Sahlberg 2015.) Finlandiya ta'limining oliy maqsadi farzandlarimizni hayotga tayyorlashdir. Biz farzandlarimiz kelajakda ularning hayotida yordam beradigan bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlarni o'rganishlarini xohlaymiz. Shuning uchun biz bugungi tez o'zgaruvchan dunyoda ularga qanday muhim kompetensiyalar kerak bo'lishi haqida o'ylashimiz kerak.

Boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, yangi yaratilgan "Milliy o'quv dasturi" asosida chiqarilgan darslikda o'quvchilarning og'zaki bilim ko'nikmalariga alohida e'tibor qaratilgan. O'qish (umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflari o'quv rejasidagi adabiyot) fani og'zaki va izchil nutqni o'stirish, so'z boyligini oshirish, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyati hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'qish darslari oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifaning muvaffaqiyatli hal etilishi darsda badiiy asar matni ustida ishlash bilangina bog'liq bo'lib qolmay, balki bolani qurshab olgan hayot, tabiatdagi o'zgarishlar, ekologik vaziyat, ijtimoiy foydali mehnat bilan ham o'zaro bog'liq bo'lishi lozim. O'quvchini o'qishga o'rgatishda hayot tajribalariga tayanib ish ko'riladi. O'qish darslari bolalarda go'zallikka muhabbat uyg'otadigan, poklik tuyg'ulariga ozuqa beradigan, hissiyotni o'tkirlashtiradigan, aqlni charxlaydigan, tasavvurlarni boyitadigan, estetik didni o'stiradigan musiqa va tasviriy san'at fanlari bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak. O'qish, musiqa va tasviriy san'at darslarini o'zaro bog'lab uyushtirish bolalarda san'at asarlarini to'g'ri tushunish va qadrlash ko'nikmalarini o'stiradi, o'quvchining shaxs sifatida ma'naviy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi.

"Ona tili va o'qish savodxonligi" fanida (milliy o'quv dasturida boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish bitta fanga birlashtirilgan) grammatik qoidalarga emas, nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga urg'u berilgan.

Ona tili o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqazo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qish hamda mehnat jarayonida ,oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirishish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish davomida quyidagi manbalar o'rganildi, tahlil qilindi hamda milliy xususiyatlar, ona tilimiz tabiati inobatga olingan holda dastur mazmuniga singdirildi:

Amaldagi DTS asosidagi malaka talablari; amaldagi Ona tili o'quv dasturi; amaldagi "Ona tili" darsliklari; amaldagi baholash mezonlari; AQSHning "Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim bosqichlarida ingliz tili va matematikani o'qitish va sinovdan o'tkazish bo'yicha ta'lim standartlari" (Common Core); Yangi Zelandiyada ingliz tilini o'qitish bo'yicha ta'lim standartlari (English In New Zealand Curriculum); Turkiyaning "Turkcha" fani o'quv dasturlari, malaka talablari; 1-9 sinflar uchun "Turkcha" fani darsliklari; 10-12 sinflar uchun "Turk tili va adabiyoti" fani darsliklari; Kembrij maktablari uchun "Ingliz tili" fani darsliklari; AQSHning Florida shtati "Ingliz tili" fani darsliklari; AQSHning Florida shtati "Ingliz tili san'ati" ta'lim standartlari (English Language Arts Grade 0-12), "Til o'qitish metodologiyasi: o'qituvchilar uchun qo'llanma"(Devid Nunan); "Metodlar ortida: til o'qitishning makrostrategiyalari" (Bola Kumaravadivelu); "Til o'qitishda yondashuv va metodlar" (Jek Richards, Teodor Rodjers); "Til o'qitish metodologiyasi" (Jek Richards, Villy Renandya); "Tilni aloqa vositasi sifatida o'qitish" (Henry Viddovson); "Birinchi tilni o'zlashtirish (Eve Klark).

Psixolingvistik tadqiqotlardan ma'lumki, insonning til qobilyati 4 xil kognitiv malakaning o'zaro bog'liqligida rivojlanadi: eshitib tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qib tushunish, fikrini yozma bayon qilish. Eshitib tushunish va gapirish og'zaki nutq shakli bilan bog'liq, o'qib tushunish va yozish esa tilning yozma shakli bilan, eshitib tushunish va o'qib tushunish psixologik tomondan nutqni qabul qilish jarayoni, gapirish va yozish esa nutq jarayonidir.

Tadqiqotimizda boshlang'ich ta'lim yo'nalishida faoliyat olib borayotgan bir nechta o'qituvchilar bilan suhbatlashdik: ularning olib borayotgan faoliyati va ta'limdagi o'zgarishlarga bo'lgan munosabatini bilishga qiziqdik. Quyida "Boshlang'ich ta'limdagi islohotlar" mavzusida olib borgan kuzatuvlarimiz asosidagi tadqiqotlarimizni SWOT tahlilda keltirdik.

S (kuchli tomonlar)	W(kuchsiz tomonlar)
<ul style="list-style-type: none"> • Milliy o'quv dasturi asosida integratsiyalashgan darsliklar. • Yevropa tajribasi (Finlandiya) asosidagi ta'lim. • USAID dasturi bo'yicha yangicha uslubdagi darsliklar. • Kundalik com joriy etilishi . • O'qituvchilar uchun bir qancha majburiyatlardan voz kechilishi. • Xonalarning elektron resurslar bilan jihozlanishi. • Pedagoglarning AKTdan foydalanib dars o'tishi. • O'quvchilar uchun bepul tushlik. • Bepul darslik. • Xalqaro baholash tizimi. • O'quvchilarning og'zaki nutq savodxonligiga e'tibor qaratilishi. • Darslikga oid o'yinli platformalar yaratilishi. 	<ul style="list-style-type: none"> • Maktablarda zamonaviy axborot vositlar bilan ta'minlanmaganligi. • Kreativ fikrlaydigan kadrlarning yetishmasligi. • Ayrim pedagoglarning to'laqonli AKT resurslaridan foydalana olmasligi. • Darslik va mashq daftarining ayrim mavzularga to'g'ri kelmasligi. • Darslikdagi ayrim kamchiliklar. • Darsliklarda milliy adabiyot ruhining yo'qligi.
O (Imkoniyatlar)	T (Tahdidlar)
<ul style="list-style-type: none"> • O'qituvchilar uchun seminar-treninglar tashkil qilish. • Zamonaviy metodlar orqali o'quvchilar darsga qiziqishini oshirishi. • Ishga qabul qilishni qaytadan ko'rib chiqish. Maqsad bilimsiz kadrlarni ishga olmaslik. • Boshlang'ich sinf darslari o'quv jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etilishi. • Ta'limga tanqidiy, ijodiy va kreativ yondashuvni tashkil qilish. • O'quvchilarga o'quv dasturlarni tuzishda erkinlik berish. • Muammoli vaziyatlarni hal qilish uchun pedagogik ta'lim markazlarini tuzish. • Boshlang'ich sinflarda multimedia texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarda fanga qiziqishi rivojlantirish. Ta'limning bunday usuli o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va o'quv materialini o'zlashtirilishining samaradorligi yana-da oshadi. 	<p>Yoshi katta pedagoglarning AKTdan foydalanish bo'yicha uquvsizligi.</p> <p>Maktablarda korrupsiyaning mavjudligi.</p> <p>Yangiliklar bo'lishidan pedagoglarning qochishi.</p> <p>Ish haqining pastligi.</p> <p>Maktablar moddiy-texnika bazasining talabga javob bermasligi.</p> <p>O'qituvchilarning chet tilini bilish darajasining pastligi.</p>

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limga zamonaviy yondashuvlarni o'rinli deb hisoblaymiz. Milliy o'quv dasturi asosida yangi darsliklarning yaratilishi, xorijiy dasturlarning ta'lim

tizimiga joriy qilinishi fikrimizning dalilidir. O'zbekistonda jumladan, AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) hamda Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi hamkorligida "Ona tili va o'qish savodxonligi" hamda "Matematika" fanlaridan boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun yangi darslik va qo'llanmalar ishlab chiqildi. 2022–2023-o'quv yilida Namangan va Sirdaryo viloyatlaridagi 918 ta maktabda "Ona tili va o'qish savodxonligi" hamda "Matematika" fanlaridan boshlang'ich sinflar uchun yangi darsliklar sinovdan o'tkazilmoqda.

K.D. Ushinskiyning fikricha, bolaga ta'lim va tarbiya berishda tilning qimmatini dastlab ijtimoiy hodisaning chuqur xalqchilligi bilan, uning milliy xarakteri bilan belgilanadi. U „tilda chuqur ma'noli ko'pdan ko'p falsafiy fikrlar, chinakam nafis his-tuyg'ular, nihoyatda to'g'ri, ko'rkam did, fikrni bir yerga to'plab, zo'r diqqat bilan qilingan mehnat izlari, tabiat hodisalarini va ulardagi eng nozik rang-barangliklarni g'oyat darajada ziyraklik bilan his etish, kuzatuvchanlik, zo'r mantiqiylik ... bor“, deb ta'riflaydi. K.D.Ushinskiy o'zining "Ona tili so'zlari" maqolasida bolani ona tili, ona tilidagi so'zlar orqali tarbiyalash masalasini qo'ydi. Chunki xalqchilik dastlab ona tilida o'z ifodasini topadi. Bolaning shaxsiyati, bilimi, malakasi, ma'naviy qiyofasi ana shu til ta'sirida shakllanadi.

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim uchun istiqbolli, ustuvor yo'nalishlardan biri bu – o'quvchilarning yetuk shaxs sifatida rivojlanishi hamda milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosidan iboratdir. Zamonaviy ta'lim O'zbekiston yoshlarini istiqbolli kelajakka eltadi. Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohada islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Qanchalik murakkab bo'lmasin, maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prezident Sh.Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tabrik nutqi. Toshkent, 2020
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi
3. Ona tili fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari. Toshkent, 2021.
4. <https://kun.uz/uz/news/2022/10/08/>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son 9.
7. Новые подходы к обучению в начальных классах в условиях обновления содержания образования (infourok.ru)
8. Моисеенко О.А., Краснополова А.С. К вопросу об учебной игре как интенсифицирующем средстве начального иноязычного образования // Современные проблемы науки и образования. – 2018. – №
9. Азитова Г.Ш., Краснова М.Н. Особенности системы образования в Китае // Современные проблемы науки и образования. – 2017. – № 5. URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=26953> (дата обращения: 06.02).
10. Сарачоглу З.К. Некоторые аспекты изменения содержания экологического образования в начальных школах Турции // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 2-2.
11. Ona tili ta'limi mazmunidagi takomillashuv. Ma'rifat. 2022-yil 27-iyul. №29 (9406).
12. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta'lim to'g'risida. 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA NUTQIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH

Xushbaqova Zarnigor Javliyevna
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
4-kurs talabasi,
Odiljon Parpiyev
"Ta'lim" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy savodxonlikni rivojlantirish yo'llari va usullari ko'rib chiqilib, nutq aspektlari keltirib o'tilgan. Nutq faoliyati uchun, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirish uchun bir nechta shartlar ko'rib chiqildi va boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy savodxonlik darajasini aniqlash hamda rivojlantirish haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: rivojlantirish, kichik maktab yoshdagi bolalar, nutqiy savodxonlik, xususiyatlar, og'zaki nutq, yozma nutq, audiomatn, lug'at diktant, rasmlı diktant, darslik, milliy o'quv dasturi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning: "O'z fikrini mustaqil ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin", - degan fikrlari kichik yoshli maktab o'quvchilarining nutqiga alohida e'tibor bilan yondashishga chorlaydi. O'quvchilarni o'z fikrlarini erkin, to'g'ri ifodalashga o'rgatish jamiyat uchun ham, psixologik va metodik jihatdan ham juda muhim bo'lib, hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Konsepsiyada ona tilini o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfdan taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirishish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

Nutq-kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar funksiyasini, o'zaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi,

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmasi, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti-nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud.

Bular:

1. Adabiy til normalarini o'zlashtirish.

2.Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish.

3.Boshlang'ich sinf o'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish.

Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi:

1)so'z ustida ishlash;

2)so'z birikmasi va gap ustida ishlash;

3)bog'lanishli nutq ustida ishlash.

So'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo'lib, leksikologiya (frazologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bog'lanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi.

Professor S.Matchonov boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinishi lozimligini uqtiradi:

1.O'quvchilar nutqi mazmundor bo'lsin.

2.Nutqda mantiqiylik bo'lsin.

3.Nutq aniq bo'lsin.

4.Nutq til vositalariga boy bo'lsin.

5.Nutq tushunarli bo'lsin.

6.Nutq ifodali bo'lsin.

7.Nutq to'g'ri bo'lsin.

8.Nutq madaniyatli bo'lsin.

Nutq o'quvchilar tafakkurini o'stirishda muhim vositadir, ayniqsa kichik yoshdagi o'quvchilarda. Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir.

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: "Nutqni o'stirish va rivojlantirish jarayoni bola lug'atining va so'zlarning assotsiatsiya asosida bog'lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o'zgarishlar, balki sifat jihatdan o'zgarish jarayonidir, zero u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog'langan holda so'zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir".

K.D.Ushinskiy bolalarni ona tilida o'qitishning zarurligini asoslab, bolalarga ona tilini dastlabki o'qitish metodikasini ishlab chiqar ekan, bolalar tilni o'zlashtirishlarining til bilan tafakkurning o'zaro munosabatlarini falsafiy, o'z-o'zini rivojlantirish va o'qitishga asoslangan xususiyatlari va qonuniyatlari borasida o'z fikrlarini bildiradi.

Rossiya fanida nutq ontogenezi borasidagi tadqiqotlar L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga va A.N.Leontevning faoliyat nazariyasiga tayangan holda amalga oshirilgan.Natijada bolalar nutqining paydo bo'lishi va rivojlanishi ularning atrofdagi odamlar bilan muloqot jarayonlarida ro'y beradi, degan qarashlar tizimi shakllandi.

A.A.Leontev L.S.Vigotskiy va A.N.Leontevning qoidalariga tayangan holda, asosiy faoliyat turi sifatida qaraydigan nutqiy faoliyat shakllanishi konsepsiyasini ishlab chiqdi. Uning qayd etishicha, bola nutqini rivojlantirish-bu eng avvalo, muloqot usullarini rivojlantirish bo'lib, ularni o'zlashtirish til qobiliyatini shakllantirishni talab qiladi.Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to'g'ri keladi.Shundan kelib chiqqan holda, hozirgi paytda nutqni rivojlantirishdagi ayrim bosqichlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Olimlar nutqqacha bo'lgan bosqich muhim rol o'ynashini tushunib yetib, uni batafsil tahlil qilmoqdalar.

K.D.Ushinskiyning ta'kidlashicha, "...bola ikki-uch yilda shuncha narsani oson va tez o'rganib oladiki, keyin yigirma yil qunt bilan astoydil o'qigan taqdirda ham uning yarmini o'zlashtira olmaydi".

Ma'lumki, inson hayotida nutq va tafakkurning o'rne va roli qadimdan ko'pchilikni qiziqtirib keladi. Forobiy, Zamaxshariy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar o'z asarlarida nutqni ma'naviy kamolot belgilaridan biri sifatida qayd etganlar. Jumladan, Forobiy so'zlash quvvati haqida shunday deydi: "...so'zlash quvvati (nutq) shunday quvvatki, uning yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq-atvoridagi xunuk va go'zal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur bo'lgan-bo'lmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga zararli va foydali narsani, lazziyatli va achchiq narsalarni fahmlaydi".

Boshlang'ich sinflarda nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida badiiy adabiyotni o'rganishga katta e'tibor beriladi. Badiiy adabiyot ko'p qirrali hodisadir. Bu yerda nutq vakillik vositasi sifatida taqdim etiladi va vakillik sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi. Adabiyotdagina odam "so'zlovchi" bo'ladi. Ta'kidlanganidek F.K.Murodov o'zining "Bolaning ijtimoiy rivojlanishi diagnostikasi"da: "Adabiyotning asosiy xususiyati shundaki, bu yerda til faqat muloqot va ifoda vositasi emas, balki tasvir ob'ekti hamdir".

Quyida sinflarda o'quvchilarga o'qish, yozish, og'zaki va yozma nutqdan foydalanish kabi ko'nikmalar o'rgatiladi, bu esa aniq nutqiy ko'nikma va malakalarni, ya'ni nutqiy faoliyat turlarini shakllantirishdan iborat. M.R. Lvov tomonidan taqdim etilgan nutq faoliyatining to'rtta asosiy turi mavjud:

1. Tinglash - tovushli nutqni tinglash va tushunish jarayoni. Bu tur quyidagi omillarga bog'liq: til tizimi bilan tanishish darajasi, mavzuning qiziqishi va ahamiyati, muhitda o'yin mavjudligi, auditorning individual psixologik va shaxsiy imkoniyatlari, aqliy jarayonlarning rivojlanishi (xotira va e'tibor).

2. So'zlash-o'quvchilarning og'zaki nutqda o'z fikrlarini to'g'ri, ravon va mantiqiy ifodalay olishi, shuningdek, suhbatdoshga tushunarli bo'lgan so'z va iboralarni tanlay olish, fikr yuritish uchun ma'lum joylarda to'xtab turish, ular o'z fikrini to'g'ri, to'g'ri va mantiqiy ifoda eta olishi. sizni yaxshi tushundim.

3. O'qish - tezlik, o'qilgan narsalarni to'liq o'zlashtirish.

4. Harf-fikrning grafik koddagi ifodasidir.

U yoki bu darajada nutq faoliyatining barcha turlari darslarning katta qismi mazmuniga kiritilgan, busiz nutqni rivojlantirish jarayoni amalda mumkin emas. Shuning uchun har bir o'qituvchi u yoki bu tarzda o'quvchilar nutqini rivojlantirish bilan shug'ullanadi.

Boshlang'ich ta'limga zamonaviy yondashuvlar asosida xorijiy tajriba asosidagi yangi avlod darsliklari yaratildi. Bunda asosan quyidagi 4 xil nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida urg'u berildi. Tadqiqot ishimizda kichik yoshli maktab o'quvchilaridagi bu kompetensiyalarni rivojlantirish usullarini quyida keltirilgan metodlar asosida yoritishga harakat qildik.

Tinglab tushunish. Boshlang'ich sinfdan boshlab eshitib tushunish elementini o'quvchilarda mashq qildirib borish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon orqali o'quvchi diqqatni uzoq vaqt ushlab malakasini shakllantiradi. U eshitayotgan matnning muhim ma'lumotlarini navbatma navbat yodida saqlab qoladi. Natijada o'quvchi tushunish jarayonini ongli boshqarishni o'rganadi. Bu juda murakkab jarayon, chunki o'quvchilar diqqati bir xil me'yorda bo'lmaydi. Buning uchun o'qituvchi har bir o'quvchining ma'lumotni qabul qilish darajasini psixologik tomondan o'rgangan bo'lishi kerak. Ma'lumotni esda saqlab qolishi sust o'quvchilar bilan o'qituvchi matnni turli metodlar yordamida mustahkamlab borishi va eshitib tushunishini amalga oshirishi lozim. O'quvchilardagi tinglab tushunish kompetensiyasini shakllantirishda Qo'qon shahridagi 6-, 12, 20-, 42-maktablarning 3-sinf o'quvchilari bilan empirik tadqiqot o'tkazdim. Tadqiqotda quyidagi mezonlar asosida ish yuritdim:

- O'quvchilarga audiomatnning necha marta qo'yib berilishi.

- Bolalarning eslab qolish darajasi.
- Savollarga javob bera olish malakasi.
- Nutq ravonligi.
- Fikrlarni bog'lay olish darajasi.

O'qib tushunish. Boshlang'ich sinfda o'qib tushunish elementi birinchi sinfdanoq boshlanadi. O'qish darslarida matnni o'qib tushunish ko'nikmasi oddiydan murakkabga tomon shakllantirilib boriladi. O'quvchilar tomonidan matn bir xil o'qilishi mumkin, ammo ular tushunishning har xil darajasida turgan bo'ladi. O'qituvchi ushbu darajalarni yaxshi bilsa, savollar yordamida o'quvchining qaysi darajada turganini aniqlashi matnni yaxshiroq tushunishi uchun yo'nalish berishi mumkin bo'ladi. Ona tili darsliklaridagi matn bilan ishlash mashqlari ham mazkur nazariy ma'lumotga asoslanishi lozim. Chunki so'zlarning matn ichida qanday ma'noda kelayotgani matnning mazmunidan anglashiladi.

Dars jarayonida o'qituvchi har bir o'quvchisining ehtiyoj va imkoniyatlarini o'rganib, uni hisobga olishni va ehtiyojlarini to'ldirishni, imkoniyatlarni boyitib borishni o'z oldiga qo'yilgan vazifalardan biri deb hisoblashi lozim. O'qish darsining yangi mavzu bayoni bosqichi asosan o'quvchilarni asar matni, undagi voqealar mazmuni bilan tanishtirish, ya'ni anglash bosqichidir.

Quyida Qo'qon shahar 15-maktab 2-sinfida o'tkazilgan kuzatish metodi asosidagi tadqiqotni bayon etamiz.

Shaharda va qishloqda. So'lim qishloqda yashayotgan Boburjon buvisini juda yaxshi ko'radi. Nima uchun deysizmi? Chunki buvisi unga ajoyib-u g'aroyib hikoyalar, voqealar aytib beradi.

Boburjon ta'tilga chiqqach, buvisi uni shaharga olib borishga va'da bergan. Boburjon shaharga hech bormagan. Boburjon hovli supasida kashta tikib o'tirgan buvisidan so'radi:

-Buvijon, qachon shaharga olib borasiz? Juda ham borgim kelyapti. Shahar ham qishlog'imizga o'xshab ketadimi?

-Shahar ham, qishloq ham aholi to'planib yashaydigan joy. Faqat shahar qishloqdan ancha katta, aholisi ko'p. Shaharda ko'p qavatli imoratlar, teatrlar, o'yingohlar, o'quv muassasalari bor. Qishloq aholisining asosiy qismi qishloq xo'jaligi ishlari bilan band bo'ladilar. Qishloqlarda ham turli yangi binolar, sport maydonchalari, dam olish maskanlari qurilgan, bolam.

-Buvijon, demak, bizning qishlog'imiz ham shahardan qolishmas ekan-da.

-Ha bolajonim, shunday. Shaharning ham qishloqning ham o'ziga xos afzalliklari bor.

-Rahmat, buvijon endi shahar va qishloq haqida tasavvurlarim ancha boyidi.

Ushbu matn bo'yicha 12-maktabning 2-sinf o'quvchilari quyidagi vazifalarni bajarishdi.

1. Sarlavhani o'qishdi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilardan rasmda nima tasvirlangani so'raldi.

2. O'quvchilar rasmni tasvirladilar

3. Sarlavhaning nomi va rasimga qarab hikoyani nima haqida ekanini taxmin qilishlari so'raldi.

4. O'quvchilar fikr bildirdilar. So'ngra o'quvchilar hikoyani navbatma-navbat ifodali o'qidilar.

5. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga taxminingiz hikoya bilan mos keldimi deb savol berildi. O'quvchilar har xil javob berishdi, Ba'zilarida to'g'ri, ba'zilarida umuman boshqacha fikrlar.

6. Keyin o'quvchilarga topshiriq berildi. Hikoyani yana bir bor ifodali o'qing, keyin oila a'zolarining shahar va qishloqda yashashning afzalliklari haqida so'rash. Ularning fikrlarini daftarlariga yozib kelishlari aytili.

Tadqiqotchi sifatida sinf o'quvchilarining nutqiga doir yutuq va kamchiliklarni qayd qilib bordim. Jumladan, sinf o'quvchilarining 10 tasi – 38%i o'qigan matnini yaxshi tushunadi, 12 tasi - 46 %i o'rtacha tushunadi, 6 nafari - 23 %i esa qiyinchilik bilan tushunadi.

Og'zaki nutq. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning og'zaki nutqi ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarida berilgan matnlarni va xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganishi, mazmunini esa og'zaki bayon qilishi bilan shakllanib boradi. O'quvchining og'zaki nutqi o'tilgan mavzuni gapirib berishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, o'quvchi ertakni og'zaki bayon qilayotganida fikrlarini o'z ona tilida xatosiz, to'g'ri ifodalashi, mavjud lug'at boyligidan oqilona foydalanib, ertak mazmunini yoritishi, mavzudan chetga chiqmay bog'lanishli nutqi asosida gapira olishi, undan xulosa chiqarishi zarur. Bu ko'nikmalar dars jarayonida takomillashtirilib borilishi kerak. Shuning uchun o'quvchida qaysi ko'nikma hosil bo'lishi maqsad qilinsa, darslarda o'sha bo'yicha mashqlar muntazam tashkil qilinishi kerak.

Qo'qon shahrining 12-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1- "A" sinf o'quvchilariga ona tili va o'qish savodxonligi darsida "Kun tartibi" mavzusini o'tdik. Tashkiliy qismdan so'ng o'quvchilarning og'zaki nutqini shakllantirish maqsadida quyidagi savol-javoblar o'tkazdik.

1. Siz har kuni qanday ishlar bajarasiz?
2. Qachon nonushta qilasiz?
3. Kunning qaysi qismi (yoki qaysi payt)da dam olasiz?

Bunday savol-javoblarni o'tkazishdan maqsad o'quvchilarning tafakkurini ishga solishdir. O'quvchilar javob berishgach, ularning e'tibori darsga to'liq jalb etiladi.

Darsning mustahkamlash qismida o'tilgan mavzuni mustahkamlash, o'quvchilarda mavzu yuzasidan yanada kengroq bilimga ega bo'lish va o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish maqsadida "Hikoyani davom ettir" qiziqarli metodini o'tkazdik. Ushbu metod quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Biz mavzuga bog'liq bo'lgan kichik bir hikoya tuzishdan boshladik. Boshlanish qismini ya'ni hikoyaning birinchi gapini biz boshlab berdik, qolgan qismini o'quvchilar birin ketinlik bilan navbatma navbat davom ettirishdi.

Yozma nutq. Boshlang'ich sinf ona tili darsligidagi mashqlarda keltirilgan topshiriqlarni bajarish o'quvchining yozma nutq haqidagi bilim va tasavvurlarini kengaytiradi va yozma nutqning charxlanishiga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarda ta'limiy diktant turlari o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Ta'limiy diktantning sakkiz turi darsning o'tgan mavzuni takrorlash va yangi mavzuni mustahkamlash bosqichlarida o'z o'rnida foydalanilsa, o'quvchidagi mavjud bilimni yozma ifodalash ko'nikmasini rivojlantiradi. Masalan, erkin diktant turi o'quvchilar nutqini o'stirish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Erkin diktant o'quvchilarni bayon yozishga tayyorlaydi. Bayon va insholar o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini, badiiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiya elementlarini shakllantirish uchun dars mashg'ulotlarida har bir o'quvchining individual qobiliyatlarini inobatga olish lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, hozirgi vaqtda boshlang'ich sinf o'quvchilarning aksariyati ko'p narsalarga noadekvat munosabatda bo'lishadi, buning asosiy sababi bola yetarli darajada shaxslararo munosabatga kira olmaydi. Chunki bolaning birinchi tarbiyachilari birinchi galda televizor, zamonaviy gadjetlar ekanligi oqibatida bola shaxsida boshqa odamlarning his-tuyg'ularini e'tiborsiz qoldirish holatlari uchrab turibdi, o'z his-tuyg'ularini boshqarishga harakat qilmaydilar. Natijada kichik yoshdagi maktab bolalarida jonli muloqat yetishmaydi, rivojlanishi yetarli bo'lmay qolmoqda, buning oldini olish uchun turli xil og'zaki nutqni rivojlantiruvchi o'yin, metod yoki texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaeva N.A., To'raev B.N., Nurmatova N., "Kashfiyotlar olami" asosiy umumta'lim dasturini ishlab chiqishda bolalar tomonidan rejalashtirilgan natijalarga erishish monitoringi tizimi. -T.: Ilm-fan, 2019.
2. Lvov, M. R., Ramzaeva , T. G. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish metodikasi. Pedagogika institutlari talabalari uchun maxsus darslik. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi". - Nukus: Ta'lim, 2020.
3. Rasulova N.N. Bola gapirishni o'rganadi//Vestnik nauki i obrozovaniya, 2022. №5.
4. Jabborov S.S. Fikrlash va nutqning psixologik asoslari. – M-T.: Labirint-Ilm-fan, 2019.
5. Murodov F. K. Bolaning ijtimoiy rivojlanishi diagnostikasi: O'quv-uslubiy qo'llanma. Navoiy-Qozon: LUCH, 2019.
6. Султонмуродова М. Теория и методика ознакомления начальной школы с проблемой грамотной речью//Вестник МГУ, 2022. № 1.
7. Темурова Н.Т. Новые подходы к психодиагностике интеллекта // Вестник Моск. ун-та. Сер. 14. Психология. – 2021. № 2.
8. S.Matchonov, H.Bakiyeva, X. G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, G.Xolboyeva. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent. – 2021-yil.
- 9.D.R. Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – T.: «Barkamol fayz media», 2018, – 432 b.
10. Azimova I. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. Respublika III ilmiy-anjuman materiallari. – Toshkent, 2019. 215-224 b.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARS BERISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Jo'rayeva Aziza Raxmatovna
Qo'qon universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
4-kurs talabasi,
Valiyeva Nargiza Athambojevna
Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada integratsiyaning afzalliklari, o'quvchilarga qanday ijobiy ta'sir etishi, boshlang'ich sinflarda integratsion darslarda qanday zamonaviy usullar qo'llanilishi haqida va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integratsiyalashgan ta'lim berish ko'nikmalarini yanada mahorat bilan o'tishi uchun ommalashgan hamda zamonaviy metodlar, texnologiyalar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Integratsiya, integrativ dars, fanlararo aloqadorlik, ta'lim, metod, klassika, metodika, aloqadorlik.

Inson va butun jamiyatning shakllanish, rivojlanish sharti doimo ta'lim bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Bugungi kunda 21-asr ta'lim tizimi ancha murakkablashgan va texnologiyalar rivojlangan asri desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayni damda istalgan sohamizda yangilik, imkoniyat, qulayliklarni ko'rishimiz mumkin. Shuningdek O'zbekistonda ham ta'lim sohasida islohat, innovatsiyalar amalga oshirilmoqda va qonun bilan jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi. 2021-2022 -o'quv yilida ishlab chiqilgan milliy dasturda joriy etilgan qo'llanma pedagog xodimlar uchun bir qancha qulayliklar yaratdi. Unga ko'ra, 1- va 2- sinflarda o'qish savodxonligi va ona tili fanlarining birlashtirilishi fikrimizga dalil bo'la oladi. Fanlarni o'zaro integratsiyalashdan asosiy maqsad o'quvchilarga berilayotgan bilimlar takrorlanishining oldini olish, bir xillikka barham berishdir.

Ta'lim integratsiyasi chuqur ildizi klassik pedagogikaga borib taqaladi va o'zaro fanlararo bog'liqlik, umumiylikni g'oyasini ilgari suradi, o'quv materialini mazmunini tahlil qilish, shuningdek tabiat bilan uzviy bog'liq holda yaxlit o'rganish tushuniladi.

Integratsiya darslari bugungi o'quvchilar uchun ayni muddao bo'lib, ularni zamon bilan birgalikda darslar orqali rivojlanishiga olib keladi. Ya'ni integratsiyaga oid, milliy dasturimiz asosida tuzilgan qo'llanma kitoblardagi har bitta mashqlar, rasmlar, turli qiziqarli savollar o'quvchilarni har tomonloma chet mamlakatlar yoshlari bilan ayni boshlang'ich sinfdan boshlab raqobatlashaoladigan darajaga olib keladigan darsliklar tuzilgan.

Yondosh fanlarni uyg'unlashtirish asosida tuzilgan kurslar yangi tabiiy fanlar va ilmiy yo'nalishlar hosil bo'lishiga olib keldi. Yuqoridagi fikrlarga tayanib, integratsiyani o'qituvchilarning turli fanlar bo'yicha kuzatishlari va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi yangi dalillarni topib berish manbai deb baholash mumkin. Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi bo'lmay, balki fanlararo sintez bo'lib, alohida tizimlarning yaqinlashishi, bog'lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir.

Integratsiya ta'lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog'liqligini ko'rsatuvchi bilimlarni berish emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog'lik yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o'rgatish kerak. Bu maqsadni boshlang'ich maktab amalga oshirishi kerak. Integratsiya-predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi. Birinchi navbatda tabaqalashni bilimlar orasida bilmagan joylarni to'ldirish, ular orasidagi aloqalarni o'rganish lozim.

Integratsiya - "butun" degan ma'noni bildiradi, demak, u tafakkurning o'sish jarayonlari turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirish, alohida tizimlarning yaqinlashishi,

bog'lanishi va yagona narsaning yaratilishidir. Maktabda o'qitiladigan barcha fanlarda integratsiyalashning ma'lum bir imkoniyatlari aks etib, darsni integratsiyalashgan holda tashkil etish bir qator shartlarga bog'liq. Shuning uchun pedagog va metodistlar yangi dasturni yaratishdan avval, ana shu holatlarning barchasini e'tiborga olishlari lozim. Buning uchun eng avvalo o'qituvchi sinfning tayyorgarlik darajasini, o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini, qiziqishlarini hisobga olishi zarur.

Jahon ta'lim tizimini o'rgangan holda, O'zbekistonda integratsiyalashgan ta'lim 2022-yildan boshlang'ich sinflarga joriy etildi. Bu jarayon boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijobiy natijalar ko'rsatdi. Boshlang'ich sinflarda tasavvur olamlari kengaya boshladi, ko'proq ma'lumotlar va bilim ola boshlashdi. Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'lim berishning zamonaviy metodlarining o'rni va ulardan foydalanishda quyidagi tavsiyalarni beramiz:

1. Vaqtdan unumli foydalanish kerak;
2. Fanlarning o'zaro bir -biri bilan bog'ligiga ahamiyat berish zarur;
3. Integratsiya darslari aynan o'quvchilarda o'z natijasini ko'rsatayotganligini tahlil qilish lozim;
4. O'qituvchining o'z ustida ishlashi(rivojlanishi);
5. O'quvchilarning psixologik xususiyatlarini inobatga olish zarurligi;
6. Yosh hususiyatlariga alohida e'tibor berishi lozim;
7. O'quvchilarning qiziqishlariga o'qituvchi ahamiyat berishi kerak;
8. O'qituvchi fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi, yangilik yaratishga moyil bo'lishi kerak;
9. Har bir dars muayyan yo'naltirilgan maqsadga ega bo'lishi lozim;
10. O'qituvchi darsga bir kun oldindan tayyorgarlik ko'rishi kerak;
11. O'qituvchi integratsiya darslarida metodlardan foydalanishni bilishi shart;
12. Darsni qiziqarli qilib tashkillashtirish zarur;
13. Sinfdagi o'quvchilar faolligini oshirish uchun har bitta o'quvchining dars jarayoniga qatnashishini inobatga olish kerak;

O'qituvchilar integratsiyalashgan darslarni o'tishda yuqoridagi takliflarni inobatga olsa, shuningdek dars o'tish jarayoni va o'quvchilarning darsni tushunishi murakkab bo'lmaydi, hamda darsning samaradorlik darajasi ko'tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://tatuff.uz>
2. "Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi va tarbiya darslarining integratsiyalashuv imkoniyatlari". Gulmira Sodiqova 8-IATCHO'ITM boshlang'ich sinf o'qituvchisi. Boshlang'ich ta'lim gazetasi. 2021-yil, 10-son, 21-bet.
3. "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini fanlarni integratsiyalab o'qitishga tayyorlash". Hayitov Anvar Isomiddin o'g'li, TDPU tadqiqotchisi. Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022- yil, 3-bet.
4. "Integratsiyalashgan darslarning samaradorligini oshirish va ta'lim prinsiplari". Mavlonova.R, Raxmonqulova. N. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Toshkent "O'qituvchi" 2006.
5. "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini fanlarni integratsiyalab o'qitishga tayyorlash". Hayitov Anvar Isomiddin o'g'li, TDPU tadqiqotchisi. Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022- yil, 4-bet.

O'TKIR HOSHIMOV IJODIDA ONA OBRAZI

**Mamadaliyeva Y.
Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi,
Shermamatova S.
Farg'ona davlat universiteti, Ingliz tili va adabiyoti o'qituvchisi**

Annotatsiya: Maqola har bir davrning adabiyotida o'zgacha ahamiyatga ega bo'lgan ona obarzi va har bir o'quvchisini qalbiga ona siymosini sayqalallagan yozuvchi O'tkir Hoshimovning asarlarida ona obrazi va uning ichki ruhiyati, kechinmalariga asarlarda yoritilgan davrning ta'siri haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ona obrazi, urush, badiiy asar, qahramon ruhiyati, davr, zamon.

Dunyodagi barcha millat-elat va xalqlarning muqaddas va mo'tabar siymosi bu onadir. Ona siymosi barcha xalqlarning shakllanishida, o'ziga xos betakror xususiyatlarini rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Ona obrazi barcha xalqlarda fe'l-atvori, ichki va tashqi dunyosi, o'ziga xos fazilatlar va portreti bilan farqlanib turadi. O'zbek xalqiga mansub ona siymosining badiiy adabiyotda tasvirlanishi, bu obrazni badiiy yoritishda o'zgacha uslub va mahorat egasi O'tkir Hoshimovdir. Ona obrazini yaratilishi va yoritilishi uning mahoratini ko'rsatuvchi yetakchi omillardan biridir. Uning kitobxonlarga juda manzur bo'lgan ko'plab asarlarida ona obrazi alohida ahamiyatga ega. Misol uchun "Ikki eshik orasi", "Dunyoning ishlari", "Tushda kechgan umrlar", "Urushning so'nggi qurboni", "Odam ovozi", "Nur borki, soya bor", "O'zbeklar", badiiy asarlaridir.

Dunyoning ishlari asari yozuvchi o'zi aytgandek asar barcha onalar uchundir. Kitobxon ushbu asarni o'qir ekan beixtiyor o'zining bolaligi va bolalik xotirasida o'zgacha o'rin tutgan onajonini eslaydi. Ushbu asar o'tgan asrning jafokash, mehnatsevar, mushfiq va munis ayolini go'zal tarzda ifodalaydi. Uning har bir hikoyasi har qanday bag'ritosh insonni ham ko'nglini yumshatib, ezgu hislar va xotiralarga to'ldiradi.

"Asarning yana e'tiborli jihati shundaki, yozuvchi odamlarni onaga bo'lgan munosabatidan kelib chiqib kimligini qanday insonligini ko'rsatadi. Qissaning uchinchi yo'nalishi asar qahramoni "Menidagi evolyutsiyasi tashkil etadi. Bu "Men" dunyoni asosan ona timsoli orqali idrok etib ulg'aydi, neki voqea-hodisa bo'lsa ona konteksida qabul qiladi va shu kontekstdan kelib chiqib ularning bahosini beradi. Do'st xiyonatiga uchragan qahramonning iztirobga tushganini eslaylik. Vaziyat shu qadar og'irki, azbaroyi osmondagi oy ham xoindek, uning nurlari xiradek, yulduzlar xoinlarcha ko'z qisayotgandek, shamol xoinona qiqirlayotgandek tuyuladi. Bir so'z bilan aytganda, qahramon uchun dunyo zimiston uning nazarida bu yorug' olamda yaxshilik yo'yoqimli narsaning o'zi qolmagan. Mana shunday depressiv holatdan uni faqat onadagi bag'rikenglik, kechirimlilik xalos etishi mumkin. Onadagi kechirimlilik, bag'rikenglik o'g'ilning mushkulini osonlashtiradi. "Dunyoning ishlari" da kashf qilingan ona obrazi O'tkir Hoshimovning keyingi asarlarida ham boshqa zamon va boshqa makonlarda o'quvchining ko'z o'ngida gavdalanadi". Ushbu qissa ijodkorning ona obrazini yaratishdagi eng yuqori cho'qqisi deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi. So'zimiz dalili deb Said Ahmadning "Ijod va jasorat" maqolasidagi ushbu fikrlarni keltirsak bo'ladi. "Dunyoning

ishlari" asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib, o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang turib oladi". Shuningdek "Tushda kechgan umrlar" asaridagi Qurbonoy xola yuqorida keltirilgan qissadagi oyi obrazini mantiqiy davomidir.

Ijodkor "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasida Umri xola orqali ona obrazini yoritadi. Ushbu asar ikkinchi jahon urushi davridagi insonlarning turmush tarzi, urushning insonlar hayotiga ta'siri haqida so'zlaydi. Asarda Umri xola kichik farzandi uchun katta farzandini hovlisiga o'g'rilikka tushishga majbur bo'ladi. Va ushbu o'g'rilik katta o'g'li Shoikromning harakati orqali onasining ayanchli o'limi bilan tugallanadi. Xo'sh, onaizorning maqsadi nima edi, onaning qalbida zarracha bo'lsada yomonlik yoki jaholat bormidi? Axir u farzandi uchun shu ishni qilishga majbur bo'ldiku, farzandiga bo'lgan mehri o'limiga sabab bo'ldi. Hqiqiy o'g'ri bu jaholat va beshafqat davr va jamiyatdir. Umri xola urush maydonida qurol ko'tarib jang qilmagan bo'lsada, urushning qonli qilichi uni o'ldirdi, Umri xola urushning so'nggi qurboniga aylanishiga sabab bo'ldi. Yozuvchi asarda urushning ona ruhiyatiga ta'sirini namoyon etadi. Bundan tashqari Ikki eshik orasi romanidagi Qora amma, Robiya, Ra'no obrazlarining taqdirida ham zamonning ta'sirini ular hayotida ro'y bergan, o'zgarishlar va voqealar tasvirida ko'rishimiz mumkin. Xulosa qilib aytganda, O'tkir Hoshimov o'z asarlarida davr va ona obrazi yuksak mahorat bilan tasvirlaydi. Odamlarning onaga bo'lgan munosabatidan kelib chiqib qanday insonligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. Ma'naviyat, 2000.
2. Ahmad S. Ijod va jasorat maqolasi. Ziyouz, 2000.
3. Arxiv.uz sayti.

**TALABALARDAGI INDIVIDUAL XUSUSIYATLAR, BILISH JARAYONLARINING O'ZIGA
XOSLIGI VA TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI**

Tohirova Maftunaxon Zokirjon qizi
Farg'ona davlat universiteti
Pedagogika-psixologiya fakulteti, amaliy psixologiya
yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annottatsiya: ushbu maqolada shaxsning individual o'ziga xos jihatlari, psixologik bilish jarayonlarining turlari, ularning shaxsda shakllanishi, boladagi psixik bilish jarayonlarining rivojlanishini talabalik davriga ta'siri va talabalardagi o'ziga xos psixik xususiyatlarni inobatga olgan holda ta'limga yo'naltirishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: idrok, harakter, layoqat, xotira, individual, tafakkur, iroda, diqqat, xulq, ta'lim, bilish jarayonlari, iqtidor, qobiliyat, nutq.

Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, aholi barcha qatlamlarining axloqiy tarbiyasiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Negaki, mamlakatimizdagi mavjud uzluksiz ta'lim tizimi aholining beshdan bir qismini qamrab olgan. Ushbu tizim qamrab olgan bolalar va o'smirlardan tashqari, aholining katta qismi orasida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlarining tizimli yo'lga qo'yilishi va bu borada yuksak samaradorlikka erishish o'tkir zaruratga aylanmoqda.

Har bir shaxsning o'ziga xos individual xususiyatlari mavjudki, bu ta'lim jarayonlariga, o'zlashtirish ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir etadi. Bundan tashqari psixik bilish jarayonlarining ham ahamiyati katta, quyida shular haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tiladi.

Psixik bilish jarayonlari har bir insonda mavjud bo'lib bular: sezgi, idrok, diqqat, xotira, nutq, tafakkur hamda xayol. Lekin ushbu bilish jarayonlari hamma shaxsda ham birdek rivojlanmagan. Bilish jarayonlarining yoshlikdan yaxshi rivojlantirib, shakllantirib borilishi, kelajakda ta'lim olishda o'z natijasini beradi. Masalan: sezgi deb – atrofimizdagi narsa hodisalarning sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etish natijasida ularning ayrim belgi va xususiyatlarini miyamizda aks etishiga aytiladi. Sezgi jarayoni orqali bola yoshligidan fazoni idrok etadi, narsalarning rangini, ta'mini, turli xil tovushlarni, shakllarni anglab boradi. Sezgi: ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish hamda teri tuyishdan iboratdir. Sezgi turlari: introretseptiv, ekstreretseptiv, propreretseptiv kabi turlarga bo'linadi. Bolaning yoshligidan, sezgini rivojlantiruvchi maxsus metodikalarni qo'llab rivojlantirib borilsa, unda idrok jarayonlari ham faollashib boradi. Idrok – sezgiga nisbatan bir muncha murakabbroq, to'laroq aks ettirish jarayoni bo'lib sezgi a'zolarimizga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning butun belgi hamda xususiyatlari bilan butunligicha, ya'ni ongda yaxlit aks ettirishdan iboratdir. K.D.Ushinskiy idrokdagi kuzatuvchanlikni o'stirish vazifasiga katta e'tibor berardi. "Agar ta'lim bolalarning aqlini o'stirmoqchi bo'lsa, - deb yozgan edi Ushinskiy – ularning kuzatuvchanlik qobiliyatlarini mashq qildirish kerak. Darhaqiqat bolada idrokning, kuzatuvchanlik qobiliyatlarining faolligi ularning ta'lim olishida katta ahamiyatga ega. Idrok jarayonlarida diqqat g'oyat katta ahamiyatga egadir. Diqqat idrokning faolligini oshiradi va idrokning mukammal, raso va ravshan bo'lishiga xizmat qiladi. Diqqat ixtiyoriy, ixtiyorsiz va ixtiyoriydan so'nggi kabi turlarga bo'linadi. Diqqatning ixtiyorsiz turi kundalik turmushimizda ko'proq foydalansak, ta'lim jarayonlarida ixtiyoriy diqqat qanchalik yaxshi rivojlangani ahamiyatlidir. Ixtiyoriy diqqatda irodaviy zo'r berish jarayoni kechadi: masalan bir maqsad qo'yib, o'sha maqsad sari borishda rejalar asosida qanchalik murakkab va qiyin bo'lmasin, harakat qilib, intilib erishiladi. Bunga misol qilib abituriientlarning OTMlariga kirish uchun

imtixonga tayyorgarlik ko'rishlarini aytish mumkin. Ixtiyoriydan so'nggi diqqatda esa avvaliga biror bir kitob yoki biror bir fan juda ham zerikarli va qiyin tuyilishi, o'qib o'rganishni irodaviy zo'r berib davom ettirilgandan so'ng esa asta-sekinlik bilan qiziqish paydo bo'lib ixtiyorsiz ravishda davom etish. Ta'lim olishda yana bir eng muhim psixik bilish jarayoni borki, u xotiradir. Xotira – biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash, yoki xotirlash jarayonidir. Xotira ham ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'ladi. Bizning xissiyotlarimiz bilan bog'liq bo'lgan voqea va hodisalar, ijobiy yoki salbiy ta'sirlar ixtiyorsiz ravishda xotirada saqlanib qoladi. Ta'lim jarayonida esa ixtiyoriy xotira muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lum bir kerakli bo'lgan ma'lumotlarni assotsiativ bir-biriga bog'lab va takrorlashlar natijasida avvaliga qisqa muddatli va so'ng uzoq muddatli xotirada saqlanadi. Talabalarning OTMLarida o'z yo'nalishlari bo'yicha o'z kasblarini mukammal tarzda o'zlashtirishlari yoshlikda ushbu bilish jarayoni bo'lgan xotiraning yaxshi rivojlanganligi bilan uzviy bog'liqdir. Olayotgan kerakli axborotlarni miyyamizda to'liq saqlanib qolishi uchun xotira jarayonimiz faol bo'lishi talab etiladi. Xotiraning fiziologik jihati ham borki, bunda xotiraning yaxshi bo'lishi uchun ovqat ratsionimizga ahamiyatli bo'lishimiz kerak. Vitaminli taomlar, jumladan, tuxum, yong'oq va baliq kabilarni muntazam iste'mol qilib turish talab etiladi. Bilish jarayonlarini ahamiyatlilaridan yana biri bu – tafakkur. Tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur jarayonida fikr paydo bo'ladi, bu fikrlar insonning ongida muhim tushunchalar shaklini oladi. Tafakkur nutq – til bilan chambarchas bog'langan. Insonda tafakkur va nutq bo'lganligi tufayli u hayvonlardan farq qiladi va shu sababli u ongli mavjudotdir. Tafakkur tufayli tushunchalar, hukm hamda xulosalar chiqariladi. Biror bir voqealikka, biror fikrga avvalo tushuncha paydo bo'ladi va unga hukm chiqarish uchun ma'lum bir o'rganishlar talab etiladi. O'rganishlar natijasida esa hukm undan so'ng xulosalanadi. Tafakkurni rivojlantiruvchi, intellektni oshiruvchi metodikalarni qo'llash natijasida yoshlikdan bolaning aqliy qobiliyatini oshirib borish mumkin va bu bevosita ta'lim olish jarayonida, talabalik davrida ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Bundan tashqari individual xususiyatlar ham borki, ularning ham ahamiyati kattadir. Masalan: temperament, karakter va qobiliyat. Temperament – lotincha "Temperamentum" degan so'zdan olingan bo'lib, uning ma'nosi "aralashma" demakdir. Barcha temperamentlarni qadimdan 4 turga bo'lingan: Xolerik, sangvinik, flegmatik va melanxolik. Xolerik – xissiyotning kuchli qo'zg'aluvchanligi, barqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Emotsiyalar yaqqol namoyon bo'lib turadi. Ta'lim jarayoniga yo'naltirishda va kasb tanlashda ham shunga ahamiyat berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu temperament vakillaridan: raqqosalar, qo'shiqchi, aktyor, sportchilar va rahbarlar ham yaxshi yetishib chiqadi. Sangvinik – hissiyotning kuchli qo'zg'aluvchanligi lekin beqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Ushbu temperament vakillaridan: ajoyib jurnalistlar, haydovchilar, uchuvchilar va shifokor, o'qituvchilar yetishib chiqishlari mumkin. Flegmatik – hissiyotning juda sekin kuchsiz qo'zg'alishi va uzoq davom etmasligi bilan farq qiladi. Shunga ko'ra ta'limga va kasbga yo'naltirish talab etiladi. Bulardan rahbarlar yetishib chiqmasada lekin, fidoiy hodimlar, oshpaz, hisobchi, ichki ishlar hodimlari va prokuratura hodimlari ham yetishib chiqishi mumkin. Melanxolik – hissiyotning sekin, lekin kuchli qo'zg'aluvchanligi va barqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Bunday temperament egalari: rassomlar, xaykaltaroshlar, arxitektorlar va shoirlardir.

Harakter yunoncha "haraktir" degan so'zdan olingan bo'lib, "qalqiq, chiziq" ma'nosini anglatadi. Karakter deganda, shaxsda muhit va tarbiya ta'siri ostida tarkib topgan va uning irodaviy faolligida, tevarak atrofdagi olamga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida bo'ladigan individual xususiyatni tushuniladi. Karakterda ya'ni bolaning yoshligidan unda: tashabbuskorlik, faollik, mehnatkashlik, fidoiylik va vijdonlilik kabi karakter xususiyatlarini shakllantirib borilishi uning kelajakda komil inson bo'lib yetishishida o'z natijasini ko'rsatadi.

Qobiliyat – kishining muayyan faoliyatga bo'lgan layoqatidir. Bolalarning yoshligidan ularning nimalarga qiziqishiga va qobiliyatlariga qarab to'g'ri yo'naltirish natijasida talabalik davrida ham to'g'ri tanlangan yo'nalish va kasb talabani bilim o'zlashtirishida va o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishida ahamiyatlidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, talabalarning OTMlarida ta'lim olish ko'rsatkichlarini o'sib borishi, fanlarni yaxshi o'zlashtirishlari bevosita psixik bilish jarayonlari bilan bog'liqdir. Bilish jarayonlarini yoshlikdan rivojlantirib borish bolalarning yoshlik chog'laridayoq ularga yaxshilab e'tibor qaratish kelajaklarini ta'minlab beradi. Ota-onalarning o'zlari erisha olmagan orzularini bolalarida amalga oshirishga bo'lgan intilishlari ularning individual xususiyatlarini inobatga olmay harakat qilishlari bolalarda fanga bo'lgan qiziqishning yo'qligiga va bu albatta talabalik davrida ham davom etadi va o'z mutaxassisligiga muhabbatsiz, e'tiborsiz bir shaxs bo'lib yetishishlariga sabab so'ladilar. Bu juda ham katta xato. Bolaning individual va tipologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'limga, kasb yoki hunarga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi" Sh.M.Mirziyoyev. "O'zbekiston" Toshkent – 2022.
2. "Umumiy psixologiya" P.I.Ivanov, M.E.Zufarova O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent – 2021.
3. "Umumiy psixologiya" F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova Toshkent – 2009.
4. "Umumiy psixologiya" E.G.G'oziyev Toshkent – 2020.
5. "Kichik maktab yoshidagi bolalarda aqliy taraqqiyotning namoyon bo'lishi" N.Djuxanova, M.Tohirova "Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida muhandislik-texnologiya sohasini rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro talabalar anjumani. Termiz – 2022. 454-461-sahifalar

**BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY
YONDASHUVLARNING MAQSAD VA VAZIFASI**

**Tojkarimova Moxira Anvarjon qizi,
Qo'qon universiteti, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li,
Qo'qon universiteti o'qituvchisi**

Anotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarni tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqilizlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholash qisqacha yoritilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogika, pedagogik texnologiya, pedagogik madaniyat, ped texnologiya.

Kirish. Zamonaviy ta'limning eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan. Ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta'lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan an'anaviy kategoriyalar bo'lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriyalar ma'lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo'yicha o'quv tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik kategoriyalarni maqsadga muvofiq ravishda yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Qayd etilgan pedagogik kategoriyalarni maqsadga muvofiq ravishda yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi. Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida «aktyor» emas, aksincha «rejissyor» bo'lishi kerakligini anglashi lozim. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta'lim usullarini yaxshi bilishi kerak. Shu erda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Mustaqil o'ylay oladigan tafakkur yuritib to'g'ri ma'qul va maqbul ish tuta oladigan vatanparvar shaxslarni shakillantirish va tarbiyalash kerak deb ta'kidlaydi hurmatli yurtboshimiz o'z nutqlarida. Darhaqiqat yoshlarni zamonaviy fantexnikaning, umuman, ilm- fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo'lib etishishiga zamin yarataolmaymiz. Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining deyarli barchasi yangitdan qurilgan va kapital ta'mirlangan qariyb 10 mingta maktab zamonaviy o'quv-laboratoriya asbob uskunalari bilan jihozlandi.

Pedagogik madaniyat – pedagogning shaxs va mutaxassis sifatida muayyan xulq atvor, odob, muomala, xatti-harakat ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish darajasi; pedagogning kasbiy vazifalarni hal qilish usul va vositalarini o'zlashtirganlik, pedagogik bilimdonlik, takt, texnika, madaniyatni namoyon qila olishning yuqori darajasi. Pedagogik odob – pedagog (o'qituvchi) oldiga uning o'ziga, kasbiga, jamiyatga, bolalarga va o'quv- tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan munosabatda samimiy, ochiq bo'lishiga nisbatan qo'yiladigan ahloqiy talablar tizimi. Shu konsepsiya doirasida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim 7 XXI ASRDA IQTISODIYOT VA TA'LIM INTEGRATSIYASI dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish yo'lida PIRLS tadqiqotida muvaffaqiyatli ishtirok etish o'ziga xos o'rin tutadi. Shunday ekan, ta'lim sifatini baholash sohasidagi yangi xalqaro tadqiqot haqida xalq ta'limi tizimi xodimlari, o'qituvchilar hamda ushbu sohaga qiziquvchilar

uchun ma'lumotlar yetkazib berish maqsadida «Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash» nomli metodik qo'llanma ishlab chiqildi. Mazkur qo'llanmada PIRLS tadqiqoti, uning o'ziga xos xususiyatlari, nazorat-sinov materiallarining ishlab chiqilishi haqida umumiy ma'lumotlar berilgan. Pedagogika- bu lotincha so'zdan olingan bo'lib, "payne" bola, "agogeyn" - yetaklamoq degan ma'noni bildiradi. topgan. Ta'limning kafolotlanganlik natijasi samaradorlikni va maqsadga erishishni belgilaydi. Bundan ko'rinadiki natija maqsadga qancha yaqin bo'lsa, o'quv-tarbiya jarayoni shuncha samarador hisoblanadi va bu ta'limning zamonaviy texnik vositalari va ilg'or texnologiyalarni amalga oshirishning muhim jihatlaridan bo'lib, ikkinchi talqin, ta'lim-tarbiya jarayoni maqsadi, vositasi, natijasini oldindan o'rganish, qayd etish yo'llari bilan o'qituvchining kafolotlangan natijaga erishishini ta'minlash. Vosita muayyan o'qitish metodi yoki usullardan muvaffaqiyatli foydalanish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materialidir. O'z mohiyatiga ko'ra pedagogik texnologiya vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimni ifodalaydi.

Pedagogiya bu -oldindan loyhalangan ma'lum bir pedagogik tizimni amaliyotga joriy qilish. Pedagogik tizim bu shaxsga maqsadli pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun zarur bo'lgan metodlar, vositalar va jarayonlar yig'indisi. Maqsadimiz o'quvchilarni oldindan bilimni mukammallashtirib uni samarali va sifatli bilimga ega bo'lishga ta'sir berish. Tahlil va natija Ta'lim texnologiyalari pedagogik faoliyatning ma'lum sohasini qamrab oladi. Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurish o'quvchilarning bilim faoliyatini mavzu bo'yicha 8 XXI asrda iqtisodiyot va ta'lim integratsiyasi belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o'qitish metodlari yordamida tashkil etish demakdir.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv - o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra, ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan, u yoki bu tasnifga tegishli bo'ladi. Ularning samaradorligi to'g'risida fikr yuritilganda o'qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo'naltira oladigan, o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlash barcha ta'lim muassasalarining oldiga qo'yilayotgan maqsadga nechog'lik erishilayotganini ko'zda tutish kerak. Yoxud o'qitish metodlari bevosita ta'lim amaliyoti bilan aloqador konsepsiyasidir. Boshlang'ich sinflarda "O'qish" darslarida matnlar berilgan bo'lib, shulardan biri "Alisher Navoiy" matnidir. Matn badiiy va ilmiy uslubda berilgan. Mashq shartida matnlarni taqqoslab, ularning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash topshirilgan. Mazkur matnni "Aqliy hujum" metodi yordamida o'rganish ko'zlagan maqsadga erishish imkoniyatini yaratadi. Bu metod asosida matn bilan bir necha bosqichda olib boriladi. 1-bosqich. O'quvchilarni mavzuni tushunishga tayyorlash. O'tgan mashg'ulotlarda berilgan nutq usullariga oid ma'lumotlar esga olinadi va takrorlanadi, har bir nutq uslubining o'ziga xos xususiyatlari yodga olinadi. Chunki matnlarni taqqoslash uchun o'quvchilarda nutq uslublariga oid ma'lumotlar yetarli bo'lishi kerak. Nutq uslublariga oid bilimlar yodga olingandan so'ng har ikki matn o'quvchilar tomonidan mustaqil o'qib chiqiladi. O'quvchilar matn mazmunini tushunishga harakat qiladilar. 2-bosqich. Berilgan matnlarning o'xshash tomonlarini aniqlash. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savolni beradi? Har ikki matn qaysi jihatdan birbiriga o'xshaydi? O'quvchilar mazkur savolga shunday javob beradilar: - har ikki matn ham Alisher Navoiy haqida: - matnning mazmuni bir xil: - har ikki matndan ham Navoiy ijodi haqida fikr bildirilgan: - har ikkala matnda ham shoirning ustozlari nomlari keltirilgan: - Navoiyning turkiy tilda ijod qilganligi aytilgan: - Navoiyning jahonga tanilgan shoir ekanligi aytilgan - Forsiy shoirlarning Navoiy ijodiga munosabati ifodalangan. O'qituvchi o'quvchilarning Navoiy ijodiga umumlashtiradi va o'z munosabatini bildiradi. 3-bosqich. Har ikki matn asosida badiiy va ilmiy uslubga xos xususiyatlarni aniqlash. Bu bosqichda har bir uslubning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Birinchi matnda badiiy

uslubga 9 XXI ASRDA IQTISODIYOT VA TA'LIM INTEGRATSIYASI xos quyidagi xususiyatlar qo'llangan: tasviriy ifoda (zanjirband she'r) ko'chma ma'noli so'zlar (she'riyat osmoni, yulduzlarga hira tortdi, shuhratiga soya soldi). Ikkinchi matnda ilmiy uslubga xos quyidagi xususiyatlar qo'llangan: raqamlar (1441 yil tug'ilgan, XV asr 60-yillar), aniq dalillarYevropa va Osiyo davlatlarini, Nizomiy Ganjaviy, Sadiy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy kabi tarixiy shaxs nomlari, A.Jomiyning Navoiy haqidagi fikri keltirilgan.

"Alisher Navoiy" matni shu metod yordamida o'rganilsa, o'quvchilar matn mazmunini yaxshiroq anglaydilar ularning mazmuniga chuqurroq kirib boradilar matnlarni qiyoslash orqali ularning mohiyatini teran idrok etadilar va interfaol metodlar o'quvchilarni fikrlashga, darslarda faol qatnashishga, darslarda faol ishtirokchi bo'lishiga o'rgatadi. Shunday qilib, yuqoridagi interfaol metodlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish asosida ta'lim samaradorligini oshirish va ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashish dasturi amal bo'lib qoladi.

Xulosa: O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida o'tkazilayotgan tub islohotlarning mazmuni bugungi kunda ta'lim jarayonini loyihalashga yangicha yondashuv bilan boyib bormoqda. Ta'limga zamonaviy yondashuv ta'lim jarayonini aniq vositalar yordamida samarali boshqarish va qo'yilgan o'quv maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Boshlang'ich sinflarda ta'lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv -vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Engaging Deaf and Hard of Hearing Students in the School Library: A Handbook for Teacher-Librarians Nadene Eisner University of Illinois at Urbana-Champaign Graduate School of Library Information Science 2 May 2012
2. <http://ilmiy.bmti.uz/blib/files/116/Maxsus%20pedagogika.pdf>
3. Қосимова, Г. Қ. Қ. (2021). Мамлакатимизда камбағаллик даражасини камайтириш йўллари. Scientific progress, 2(7), 808-816.
4. Kambarov, J., Rakhmatov, U., Rakhmonov, N.& Sultanova, Y. (2020). Problems and solutions for the implementation of the industry-4.0 program in Uzbekistan. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2677-2683.
5. Tokhirov, R., & Rahmonov, N. (2021). Technologies of using local networks efficiently. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 250-254.

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA JORIY ETILGAN YANGI DARSLIK LARNING
AFZALLIK JIHATLARI.**

**Tojkarimova Moxira Anvarjon qizi
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1 bosqich talabasi,
Jumanova Shahnoza Ikromjonovna
Qo'qon universiteti "Ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida joriy etilgan xalqaro reytinglar natijasida tuzilgan, o'quvchilarni nafaqat ma'lumot olishlari, balki ularni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga undovchi dasturlar asosida yaratilgan yangi darsliklarning afzallik jihatlari haqida fikr va mulohazalar berib borilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, o'qish, ta'lim, dars jarayoni, pedagogik texnologiyalar, yangi darsliklar, kreativlik, kengaytirilgan texnologiyalar.

Mamlakatimizda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish yuzasidan turli xil farmon va qarorlar qabul qilindi va bunga asosan deyarli barcha dastur hamda darsliklar asosiga o'zgartirishlar kiritildi. Bunga sabab bo'lgan eng katta omil bizning milliy o'quv dasturimiz xalqaro talablarga hamda chet elning ko'zga ko'ringan ta'lim jarayonlari natijalariga tenglasha olmasligi edi

Milliy o'quv dasturini ishlab chiqishga BMTning Bolalar jamg'armasi (YUNISEF) va AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) xalqaro ekspertlari jalb qilindi, dasturning o'zi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasida bir necha bosqichlarda muhokamadan o'tdi hamda inspeksiya tomonidan Ta'lim uzluksizligini ta'minlash konsepsiyasiga kiritildi.

Darsliklarning o'zgartirilganlarini ketma ketlikda ko'rib chiqadigan bo'lsak.

Mashqlar matn asosida tuzilgan va o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan: O'rganiladigan til qoidalari tizimli tarzda emas, balki matnlar asosida (matnda uchrashiga qarab) beriladi. Aksariyat hollarda qoidalar ixcham, ortiqcha terminologiyadan xoli tarzda beriladi. Darsning asosiy o'zagini avvalgidek grammatik qoida emas, balki matn tashkil etadi. Matnlar mavzu, uslub hamda shakl jihatdan turlicha bo'lishi mumkin. Darslikdagi mavzularda she'r, hikoya, dialog, topishmoqlar berilgan va bular yuzasidan savol va topshiriqlar kiritilgan. Mavzulardan bolalar kun tartibini tuzish, qarindoshlar nomlari va ismlarini ajrata olish, bayramlar, foydali sabzavot-mevalar, xotira, mehmon odobi, tabiat hodisalari haqidagi ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Yuqoridagilar asosan o'qish bo'yicha o'zlashtiriladigan bilimlar hisoblanadi. Darslikda imlo qoidalari yozuv bo'yicha ham ko'plab topshiriqlar mavjud. Jumladan, x va h harflaru farqi, jarangli va jarangsiz undoshlar juftligi (b-p, d-t, z-s, j-ch, g-k, v-f) farqlari, ko'chma ma'no, tasviriy ifoda, ohangdosh so'zlar, tinish belgilari haqidagi topshiriqlar o'quvchilarda shu borada ko'plab ko'nikmalarni shakllanishiga yordam beradi. 2-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" kitobi jami 238 soatdan iborat, bu darslik 2 qismdan tashkil topgan jami 12 bo'lim berilgan. Bu kitobning, asosan, birinchi qismida milliy dastur bilan farqlarini ko'rish mumkin. Masalan, ikkalasida ham bo'limlar nomi bir xil, lekin ichidagi mavzularda farq bor, milliy dasturda 3-bolim uchun 4 ta mavzu berilgan bo'lsa, darslikda 3 ta berilgan. Va ularning nomlanishida ham ba'zi farqlarni kuzatish mumkin. Lekin darslikning ikkinchi qismida bunday farqlarga duch kelmaymiz hammasi milliy dastur asosida tuzilgan.

1-sinf darsligida berilgan "Men, sen va ular", "Tabiat ne'matlari", "Sog' tanda-sog'lom aql", "Til va dil", "Fan va texnologiya" bo'limlari 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi kitobida ham takroran berilgan. 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligi 2 qismdan iborat bo'lib, 2-qismi 6 bo'limni o'z ichiga oladi. Ya'ni bu 6-7-bo'limlar va bo'limdagi mavzular o'quvchilarda

kasbga bo'lgan ishtiyoqini oshirish, ularni qiziqtirishga undaydigan g'oyada yozilgan hikoya va ma'lumotlardan iborat.

9-bo'lim "Tarix xazinalari" hamda 10-bo'lim "San'at va madaniyat" da o'quvchilar tarixiy bilimlarga ega bo'lishadi. Ushbu darslikning oxirgi 11-bo'limi "Huquqimiz-haqimiz"dagi mavzularda o'quvchilar Yo'l qoidasini o'rganib olishadi va jamoat joyida navbatga turadigan joylarda qanday turish kerakligini bilishadi. Qisqacha qilib aytganda 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligida o'quvchilarga zarur va foydali bilimlar berilgan.

Ijtimoiy tarmoqlarda muhokamalarga sabab bo'lgan «muammo» — ta'lim rus va boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun o'zbek tili darsligiga tadbirkor Murod Nazarov haqidagi matnning kiritilgani haqida ham batafsil to'xtalib o'tish joizdir. Tillarni o'qitish metodikasida "autentik material" degan tushuncha mavjud. Tillarni o'qitishning zamonaviy usuli o'quvchini real vaziyatlarda tildan foydalanishga tayyorlashni maqsad qiladi va buning uchun real hayotdan olingan turli xil materiallardan foydalanishni tavsiya qiladi. Ommaviy axborot vositalaridagi matnlar, xaritalar, chiptalar, reklamalar, ko'rsatmalar — til foydalanuvchisi real hayotda duch kelishi mumkin bo'lgan barcha narsalar "autentik material", ya'ni haqiqiy hayotdan olingan material bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yuqori sinflardagi ayrim ya'ni Ona tili va adabiyot darsliklardagi o'zgarishlarini ham ko'radigan bo'lsak.

Ona tili: Avvalgi ona tili darsliklari tilning tuzilishiga oid tizimli qoidalar va bu qoidalarning yod olinishini ta'minlovchi mashqlardan iborat edi. Bu holatga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan holda quyidagicha o'zgardi.

1. Darsning (yoki darslar ketma-ketligidan iborat mavzuning) asosiy o'zagini avvalgidek grammatik qoida emas, balki matn tashkil etadi. Matnlar mavzu, uslub (badiiy, axborot, publitsistik, ilmiy-ommabop va boshqalar) hamda shakl (to'liq matn, infografika, jadvallar, diagrammalar va boshqalar) jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.

2. Mashqlar matn asosida tuzilgan va o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan:

- matnni tushunish ko'nikmalari;
- matn yaratish ko'nikmalari (yozma yoki og'zaki);
- tanqidiy va ijodiy fikrlash, shuningdek, tadqiqotchilik ko'nikmalari;
- til qoidalarini o'zlashtirish.

3. O'rganiladigan til qoidalari tizimli tarzda (fonetika va leksikologiyadan morfologiya, sintaksis va uslubiyatgacha) emas, balki matnlar asosida (matnda uchrashiga qarab) beriladi. Aksariyat hollarda qoidalar ixcham, ortiqcha terminologiyadan xoli tarzda beriladi.

Darsliklar kesimida boshlang'ich sinflar matematika darsligini oladigan bo'lsak, avvalgi darsliklardan tubdan farq qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Boisi, darslikda berilgan topshiriqlar o'quvchini nafaqat hisob-kitobga, balki, mavzularni oson anglashga, mantiqiy va tanqidiy fikrlashga undaydi. Darslikda berilgan rasmlar, chizmalar va jadvallar juda ham qiziqarli, shu bilan birgalikda o'quvchining tushunishi uchun sodda va aniq shaklda berilganligi o'quvchi hamda pedagoglar uchun qulaylik tug'diradi.

Dunyoning rivojlangan mamalakatlari Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya va milliy tajriba asosida tayyorlangan Milliy o'quv dasturida ham oquvchining matematik tafakkurini rivojlantirishga e'tiborni qaratilgan.

Shuningdek, ilg'or o'quv dasturi asosida yaratilgan 1-sinf Matematika darsligida ham ilk bor farzandlarimizni matematik mushohadaga chorlaydigan mashg'ulot va topshiriqlarga keng o'rin berildi.

Adabiyot: Adabiyot darsliklari asosan «yozuvchining tarjimai holi — asari (yoki undan parcha) — o'qilgan asar haqidagi maqola — savol va topshiriqlar» tamoyili asosida qurilgan

edi. Ushbu yondashuv o'quvchilarda asarni mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni ko'zda tutmaydi, chunki asar haqidagi maqolada asarning «to'g'ri tahlili» berilgan bo'ladi. Bu darslikka ham o'zgartirishlar kiritilgan.

1. O'rganilayotgan asarlar haqidagi maqolalardan voz kechishga qaror qilindi.

2. Badiiy matn bilan ishlash bir necha bosqichda quriladi, ularning har biri o'ziga xos maqsadni ko'zlaydi:

— matndan oldingi topshiriqlar o'quvchilarni asarni tushunishga tayyorlaydi;

— matn ichidagi savollar asar matni bilan ishlash, undagi so'zlar, voqealar, obrazlarni tushunishga yordam beradi;

— matndan keyingi topshiriqlar asarni tahlil qilishga (asar g'oyasini aniqlash, qahramonlarga baho berish, lingvistik va badiiy xususiyatlarini tahlil qilish, unda ko'tarilgan muammoni hayot bilan bog'lash) yordam beradi.

3. Ko'pgina mavzular maktabda o'rganiladigan boshqa fanlar (tarix, tabiatshunoslik, til va boshqalar) bilan integratsiyani o'z ichiga oladi.

4. «Adabiy kanonlar» bilan bir qatorda yangi mualliflar hamda o'quvchilarga tanish, zamonaviy mavzular va muammolarga bag'ishlangan asarlar kiritilgan.

Bugungi kunda Prezidentga taqdimot qilingan yangi avlod darsliklarining o'quv-metodik komplekslar (O'MK) asosini 4K tamoyili tashkil etadi:

1. Kritik (tanqidiy) fikrlash;

2. Kollaborasiya (jamoaviy ishlash);

3. Kreativlik (ijodkorlik);

4. Kommunikasiya (muloqot ko'nikmalari).

Ushbu tamoil darsliklarni sifatini yanada yaxshilashga yordam berdi.

Endi darsliklar quruq ma'lumotlarni yodlatish, yoki shunchaki o'qish-yozishni o'rgatish bilan cheklanmaydi. Ular orqali o'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadi.

Boshlang'ich sinflar uchun taqdim etilgan darsliklarning bir qismi kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan.

Darsliklarni ishlab chiqishda xalqaro dasturlar (PISA, PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA) talablari to'liq inobatga olingan. Finlyandiyadagi nufuzli ta'lim kompaniyasi ekspertlari tomonidan tekshiruvdan o'tkazilgan va sertifikat olingan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak darsliklarning yangilanishi o'quvchilarni yanada yaxshiroq fikrlashga jalb qiladi. Hozirgi zamon talabiga binoan o'qishni talab qiladi. Yangi darsliklar o'quvchini yangi mavzuni puxta o'zlashtirishga va ta'lim sifatini oshishiga xizmat qiladi. Har bir darslikning yangilanishida necha yillik mehnat turadi. Yuqorida aytganidek halqaro dasturlar ham darsliklarni yangilanishida juda katta ahamiyatga ega. Xalqaro dasturlar quyidagilar-PISA, PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA. Bularning har biri alohida yonalishda, alohida fanni o'rganadilar. Kelajak yoshlar qo'lida ekan yoshlarni kelajagini yoshlikdan yaxshilash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lolaxon O'rinboyeva, Mamanazar Jumayev, Nigora Ruzikulova, Umid Raxmonov, Shuxrat Ismailov, Nodira Ismailova, Nazimaxanum Usmanova. Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. Toshkent 2021.

2. Akramjon O'ktamjonovich Mirzayev. Mamlakatimiz ta'lim tizimida raqamlashtirish va raqamli dunyoda o'qitish va o'rganishning mavjud imkoniyatlari.

3. Akramjon O'ktamjonovich Mirzayev, Odina Davronbek Qizi Pozilova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirishda pirls tadqiqotining ahamiyati.

4. N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Sattorov, Sh.Toshmirzayeva va D.Mannopova Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik.-T.: G'ofur G'ulom nomidagi NMIU.2020/

**BOLA INTELEKTINI KAMOL TOPTIRISHDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA
OILA BIRLIGI**

Toshtemirova Bibioysha Shavkat qizi
Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali, bolaning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion yondashuv asosida maktabgacha ta'lim va oila hamkorligining qay darajada bog'liqligini va hamkorlikda qanday ishlar olib borishi haqida ma'lumotga ega bo'lasiz. Xususan bola intellektini rivojlantirishda o'yinlar orqali kamol toptirish ishlari ko'rsatilgan va so'rovnoma o'tkazish bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash g'oyalari ilgari surulgan.

Kalit so'zi: maktabgacha ta'lim ,intellekt, innovatsion yondashuv,diffirensial yondashuv,oila hamkorligi ,so'rovnoma.

Bola intellektini rivojlantirishda oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligi. Maktabgacha ta'lim va tarbiya – bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi hisoblandi. Rivojlanish (pedagogikada) – o'lg'a intilish natijasida muntazam o'zgarish jarayoni, bir holatdan mukammalroq boshqa holatga, oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga o'tish.

Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa unda mavjud bo'lgan oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy qiyofasining shakllanish darajasiga bevosita bog'liq. Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlabgina qolmay, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo'lib voyaga yetishishlarida beqiyos Har bir oila umumjamiyat talablari asosida shakllanadi. Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa unda mavjud bo'lgan oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy qiyofasining shakllanish darajasiga bevosita bog'liq. Farzandni barkamol va ma'naviy yetuk qilib voyaga yetkazish eng avvalo ota – onaning o'zi yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lishi lozim. Bunday muhim va istiqbolli muammolarni yechishda mamlakatimizda ota – onalarga yordam ko'rsatish maqsadida Maktabgacha ta'lim tashkiloti tashkil etilgan. Bu borada Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ota – onalar hamkorligining ahamiyati katta. Ayniqsa yosh avlodga talim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Har bir insonning o'ziga xos qobiliyatlari bor: ba'zilar uchun ular ko'proq darajada, boshqalari uchun esa kamroq darajada namoyon bo'ladi. Aql-idrok nafaqat tug'ilgan paytdan boshlab olingan qobiliyatlar bilan belgilanadi. Bu tashqaridan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va sintez qilish orqali o'rganish va fikrlashni yanada rivojlantirish natijasidir. Aql-idrokni rivojlantirishning quyidagi usullari mavjud: aqlni rivojlantirish uchun o'yinlar va tadbirlar; o'quv kitoblarini o'qish; ma'lumotlarni aniqlash va tahlil qilish; doimiy o'rganish. Keling, usullarning har birini batafsil ko'rib chiqamiz va qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rib. Aql o'yinlari: Har qanday o'yin jarayonida bolada ma'lum qobiliyatlar rivojlanadi. Doimiy fikrlash jarayoni tufayli aqliy qobiliyatlardan tashqari, sezgi qobiliyati ham rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda aql-zakovatni shakllantirish va rivojlantirish turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Eng samarali vositalar o'yinni o'z ichiga oladi. Bular mobil guruh o'yinlari va kam sonli bolalar uchun sokin o'yinlar bo'lishi mumkin: shashka, shaxmat, stol o'yinlarining barcha turlari. Boshqa ko'plab usullar mavjud:

1. Bolalar ijodiy vazifalarni hayratda qoldiradilar. Bolalar uchun foydali faoliyat modellashtirish, loyihalash, chizish bo'ladi.

2. Matematika mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.
- 3 O'qish so'z boyligini to'ldirishga va hissiy sohani rivojlantirishga yordam beradi.
- 4.Kompyuter o'yinlari mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. ajoyib variant -

5 Maktabgacha tarbiyachiga savol berish va javob berishga o'rgatiladi, bu fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ota-onalar yig'ilishida quyidagi mazmunda anketa savollarga javob olish ham ota-onalarni bola tarbiyasi bilan shug'ullanishga undaydi

1. Bir kunda necha soat bola tarbiyasi bilan shug'ullanasiz?
2. Farzand tarbiyasida qiynalmayapsizmi?
3. Sizningcha oila tarbiyasini nima qiyinlashtiryapti?

tarbiyaga oid bilimlarning yetishmasligi, davlat ishi bilan band bo'lishlik, bog'cha bilan oila o'rtasida hamkorlikning yo'lini yo'qligimi.

4. Oilangizda bola tarbiyasi bilan kim ko'proq shug'ullanadi?
5. Siz ko'proq nima tufayli bolangizga tanbeh berasiz, jazolaysiz, kelisha olmayasiz?
6. Tarbiyaga oid adabiyotlarni, ro'znoma va oynomalarni muntazam o'qib

borasizmi?

7. Tarbiya haqidagi qanday ro'znoma va oynomalarga bo'lgansiz?
8. Tarbiyaga oid oynai jahon ko'rsatuvlarini tomosha qilasizmi?
9. Farzandingizga ertak, maqol, she'r, hikoyat, rivoyatlar aytib berasizmi?
10. Bir oyda necha marta farzandingizning MTTdagi faoliyatini

kuzatgansiz?

11. Bola tarbiyasi bo'yicha qilayotgan ishlaringizni qanday baholaysiz?

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolaning intellektual rivojlanishi tabiiy yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin, u tarbiyalanuvchiga atrofidagi dunyoda duch kelishi kerak bo'lgan hamma narsa haqida beixtiyor aytib beradi. Shundagina bola uchun maktab sinfining eshiklari ochilgunga qadar unda bilim olishga ishtiyoq paydo bo'ladi, o'z shaxsiy fikrini bildirish imkonini beradigan o'ziga xos dunyoqarashga ega bo'ladi. Intellektual rivojlanish bilimlarni o'zlashtirish va nostandart muammolarni hal qilish qobiliyati deb ataladi. Bu qobiliyatni tezlashtirish, sekinlashtirish yoki pauza qilish mumkin. Oilaviy tarbiya sharoitlari intellektual qobiliyatlarni shakllantirishga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual

rivojlanishi ota-onalardan va maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiyachi-pedagoglarni mas'uliyat va tarbiyani talab qiladigan juda muhim jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Altshuller G.S. G'oyani toping: TRIZ ixtirochilik muammolarini hal qilish nazariyasiga kirish, 3-nashr. - M.: "Alpina nashriyoti", 2010 yil. 130-137 bet
2. "Maktabgacha pedagogika" F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Qayumova, M.A'zamova.- Toshkent:, Tafakkur nashriyoti, 2019.96-105 bet.
3. Jalolova G. "Bolalarni maktabga tayyorlashda noan'anaviy o'yinlardan foydalanish" Toshkent 2014. 72-bet

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA STEAM DAN FOYDALANISH USULLARI

Turg'unova M.Y
Qo'qon Universiteti 3-kurs Sirtqi ta'lim
MT 1-20 guruh talabasi,
Z. R. Eraliyeva
Qo'qon universiteti talabasi

Anatatsiya: Ushbu ilmiy ishda, zamonaviy ta'lim shaklidan bo'lgan Steam ta'lim usuli haqida to'liq ma'lumot yuritiladi. Steam o'zi nima, qayerda paydo bo'lgan, u bizga nimaga kerak? Kabi savollarga ushbu ilmiy ishda javob topamiz.


Kalit so'zlar: STEAM, ta'lim, muhandislik, san'at, matematika, injineriya, kompetensiya, Massachusets.

Kirish: Steam ta'lim texnologiyasi birinchi marta Amerikada ishlab chiqilgan. Ba'zi ta'lim bitiruvchilarining martabalarini inobatga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik, matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM tizimi shu tariqa shakllandi. Keyinchalik bu tushunchalar Art (san'at) qo'shildi va endi STEAM butunligicha shakllandi. O'zbekistonda ham maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi, ta'lim tarbiyasi, umumiy va muhim tayanch kompetensiyalarini rivojlanishiga xususan ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlanishiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xar tomonlama rivojlanishining STEAM kabi zamonaviy yondashuvlari asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish tobora kengayib bormoqda.

STEAM bu- S science (tabiiy fanlar), T-technology (texnologiya), E-engineering (injineriya), A-art (san'at), M-mathematics (matematika). Ushbu yo'nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashxur bo'lib kelayotganini anlab yetishimiz darkor. Shuning asosida bugungi kunda STEAM ta'lim tizimi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. Uning asosiy g'oyalari shundan iboratki, amaliy nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni o'rganish paytida biz faqat miyamiz bilan, balki qo'llarimiz bilan ham ishlashimiz kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim berishda kompetensiyativ yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni xal qilish uchun zarur bo'lgan, ahloqiy mayor va qadriyatlarini o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, "MEN" Boshlang'ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyati va axloqiy sub'ektini yaxshi rivojlanishini talab etadi.

Kompetensiya- bolaning bilim ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang'ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat'iy nazar, bola shaxsini shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.



STEAM ta'lim muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishini yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday

murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va biralikda ishlash orqali hal qilish muhimligini tushunadilar.

STEAM yondashvining eng mashxur namunasi- Massachusets. Texnologiya Instituti(MIT). Ushbu dunyo universitetining shiori Mens et Manus (Aql va qo'l). Massachusets Texnologiya Universiteti bolalarga STEAM tushunchasini oldindan o'rganish va tanishish imkoniyatini berish uchun STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hattoki ba'zi ta'lim Tashkilotlarida STEAM o'quv markazlarini yaratdi. Statistika ko'ra, 2011 yildan buyon STEAM kasblariga bo'lgan talab darajasi 17% ga oshdi, oddiy kasblarga bo'lgan talab esa faqat 9.8% ga oshdi, bu esa butun dunyo bo'ylab ushbu ta'lim tizimida katta talabni ko'rsatadi. 2014-yil Quddusda bo'lib o'tgan STEAM Folward xalqaro konferensiyasida quyidagi bayonotlar bildirildi;

- Bolalarni STEAM ga jalb qilish
- Fan tili ingliz tilidir
- Qizlar uchun Steam-ta'lim dasturlari kerak
- Science is fun!

Steam ta'lim texnologiyasi har doim bilim va badiiy izlanishning holatiga asoslangan loyiha uslubiga asoslangan bo'lib, u o'z amaliy tajribasi asosida bilim olishda va keyinchalik oligan bilimlarni bolalar faoliyatining ustuvor yo'nalishlarida qo'llashda: o'yin, dizayn, bilim va tadqiqot faoliyati texnik ijod elementlari bilan.

Bizga ma'lumki maktabgacha ta'limda faoliyatning yetakchi turi o'yin deb hisoblanadi lekin STEAM texnologiyasi tadqiqotchilarining fikriga ko'ra bolalarning yetakchi faoliyat turi bu tajriba deb hisoblanadi. O'yinchoqlar yordamida bolalar o'qish, o'lchash, tekislash, hisoblash, bo'yash, muloqot qilishni o'rganadilar va jamoa malakalarini egallaydilar. Bu ularga zarur matematik, filologik va muhandislik san'at ko'nikmalarini olishga yordam beradi. Bolalar o'zlari uchun yangi va noaniq g'oyalar tanlash va ular asosida ilk tajribalarni o'tkazadi va shu orqali qiziqarli o'yin shaklida yaratish salohiyati rivojlanadi.

STEAM ta'lim texnologiyasi bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi:

- muammolarni keng qamrovli tushunish
- ijodiy fikrlash
- muhandislik yondashuv
- tanqidiy fikrlash
- ilmiy metodlarni tushunish va qo'llash
- dizayn asoslarini tushunish

Bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi. Ko'pgina rivojlangan davlatlarda, jumladan AQSH, Yaponiya, Izrail, Singapur, Rossiyada maktabgacha ta'lim muassalarida bolalarni ijodiy va ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida mazkur yondashuv metodlaridan samarali foydalanib kelinmoqda.

Bugungi dunyo kechagi kabi emas, ertangi kun ham bugungi kabi bo'lmaydi! Inson faoliyati barcha sohalarda dinamik rivojlanayotgan texnologiyalar joriy etilmoqda.

Zamonaviy bolalarning 65 %i bugungi kunda mavjud bo'lmagan kasblarni egallaydi. Kelajakdagi mutaxassislar texnologiya, ilm-fan va muhandislikning turli xil sohalaridan kompleks ta'lim va bilimlarga muhtoj bo'ladi.

STEAM farzandlarimizga - ixtirochilar, kashfiyotchilarning kelajak avlodi, olim sifatida tadqiqotlar olib borish, texnologiyani shakllantirish, muhandis sifatida loyihalash, rassom sifatida yaratuvchi, matematik sifatida analitik fikr yuritishni o'yin orqali yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda STEAM-ta'lim dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo'llashda beshta sohani yagona o'quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. Bunday ta'limning shartlari uning uzluksizligi va bolalarning guruhlarda o'zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish bo'lib, bunda ular fikrlarni to'plashi va fikrlar almashadi. Shuning uchun, asosiy ta'lim dasturiga quyidagilar Lego-texnologiyalar, bolalar tadqiqotlari kabi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish modullari kiradi.

STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o'rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o'z-o'zini namoyon qilish asoslarini o'rganishadi, o'z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta'minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda STEAM ijodkorligi va muhandislik ko'nikmalarini rivojlantirish.

Maktabgacha yosh intensiv psixologik yetuklik bosqichi bo'lgan ijodkorlikni rivojlantirish uchun eng qulay davr. Aynan shu davrda ko'p sohalarda progressiv o'zgarishlar ro'y beradi, aqliy jarayonlar (diqqat, xotira, tafakkur, nutq, tasavvur) takomillashadi, shaxsiy fazilatlar rivojlanadi, ular asosida qobiliyat, moyillik shakllanadi.

Ota-onalar o'z farzandlarini ijodkor shaxs bo'lib voyaga etishini xohlaydi. Shu sababli yoshlikdanoq ularning ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga e'tibor qaratadi. Binobarin, "barcha bolalar istisnosiz potentsial ijodkorlardir. Badiiy ijodkorlik va tasviriy san'atni o'rganish bo'yicha mashg'ulotlar har bir bolada yashiringan ijodiy qobiliyatlarni "uyg'otish"ga, ijodiy layoqatni ro'yobga chiqarishga yordam berishga harakat qiladi¹.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning deyarli barchasi turli harakatlar-rasm chizish, qo'shiq aytish, raqsga tushish, jismoniy faollikni ifodalovchi harakatlarni tashkil qilish orqali o'z ijodiy qobiliyatlarini u yoki bu darajada namoyon qiladi. Bu yoshdagi bolalarning ijodkorligi ulardagi erkinlik, faollik, o'z xohish-istaklari, xatti-harakatlarini cheklamaslik bilan bog'liq. Qolaversa, atrof-borliqni bilishga bo'lgan intilish ulardagi qiziquvchanlikni rivojlantiradi. Kattalarga taqliq qilish odatlari esa san'atning turli janrlari bo'yicha kattalar yoki tengdoshlarining harakatlarini o'zlashtirish uchun imkon beradi. Qiziquvchanlik va taqlid asta-sekin maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda san'atning turli sohalarini bo'yicha qobiliyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning san'atning turli sohalariga bo'lgan qiziquvchanliklari hali barqaror sifat emas. Izchil ravishda bu qobiliyatni rivojlantirib bormaslik esa uning pasayishiga olib keladi. Pedagogik yondashuv bolalarning ijodiy qobiliyatlarini tizimli ravishda, izchil, uzluksiz rivojlantirib borishni taqozo qiladi.

Qobiliyatli bolalar bilan ishlashning an'anaviy ta'lim jarayonidan farqli tomoni-bu pedagogik faoliyatning maxsus o'quv va tarbiyaviy ishlar dasturlari asosida tashkil etilishi sanaladi. Maxsus dasturlar mazmunan iqtidorli bolalarni o'qitishning o'ziga xosligini ifoda etadi.

Bu kabi o'quv va tarbiyaviy ishlar dasturlarini yaratishda ma'lum tamoyillar asosida ish yuritiladi. Ayni vaqtda pedagogika amaliyotida M.Karne tomonidan asoslangan tamoyillar asosida faoliyat yuritilmoqda. Ular quyidagilardan iborat:

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish mazmuni ilmiy-metodik jihatdan bergilab berilgani, xuxuxan, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida kichik, o'rta, katta va maktabgacha tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida rivojlanishi ko'zda tutilgan kommunikativ kompetensiyaning faoliyatlilik, izchillik, uzluksizlik tamoyillari asosida izchil yoritilishini tashkil etadi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. "STEAM ta'limining qo'llanishi, samaradorligi va afzalliklari" N. T. Tosheva Bux. DUPI dotsent "Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash tajribasi: muammo, yechimlar va istiqbollari". Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Buhoro, 29.03. 2022. 7-bet.
2. « MAKTABGACHA TA'LIMDA STEAM TEXNOLOGIYASI » fanidan o'quv-uslubiy majmua. Termiz davlat universitetining pedagogika instituti
3. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'quv dasturi.
4. <https://ictschool.uz>> steam tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika fanlarini uyg'unlikda o'qitish uslubi/.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI O'RTASIDA TABIIY FANLARNI O'QITISH TEXNIKASI

**Tursunova Nasiba Alisher qizi
Kimyo Xalqaro universitetining
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
3-bosqich talabasi**

Annotatsiya: Bugungi XXI asr fan va texnikaning rivojlanishi ilm fanga bo'lgan talabning oshishiga, shu yo'l bilan birga tabiatning, butun borliqning ifloslanishiga sabab bo'lmoqda. Aynan ilm-fan mavqeyining oshishi va atrof-muhitning ifloslanmaslik talablarini muvozanatlash maqsadida bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasini darslarda qo'llash bugungi ilg'or pedagoglarning tom ma'nodagi yuksak vazifalaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu maqolada tabiat bilan tanishtirish metodikasining ta'lim tizimida tutgan o'rni, jamiyatda egallagan mavqeyi va uning metodlari bo'yicha turli olimlarning fikrlari, hamda bolalarda ushbu metodlarni qay tartibda qo'llash to'g'risida mulohazalar keltirib o'tilgan va tegishli xulosalarga kelingan.

Kalit so'zlar: tabiat, metod, tabiat burchagi, „Avesto“, ko'rgazmali uslub, amaliy uslub, og'zaki uslub, navbatchilik, tabiatni asrash

Tabiat-bitmas va tuganmas xazinadir. Insonlar, qolaversa bolalar tabiat bilan uzviy bog'liq jarayonda yashaydi. O'rta Osiyo xalqlari qadimdan o'z ekologik qarashlariga ega. Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmalar, „Avesto“ xalqimizning bebaho mulki hisoblanadi. Bu ilmiy va diniy kitob bundan 30 asr muqaddam shu zaminda yashagan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy merosidir. „Avesto“ tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlarni ma'naviy, ruhiy va axloqiy mezonlar orqali uyg'unlashtiruvchi, kishini qurshab olgan olamni o'rganishga chorlaguvchi falsafadir. „Avesto“da noyob dorivor gilyohlar haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari, uy-joy, atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish, uni asrash to'g'risida tavsiyalar berilgan.

O'rta asrlarda ijod etgan olimlardan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqa olimlar tabiatshunoslik fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni asrash haqida qimmatli fikrlarni aytganlar. Shu o'rinda Abu Rayhon Beruniy shunday degan: „Erkin va nasl qoldirish bilan dunyo to'lib boraveradi. Garchi dunyo cheklangan bo'lsa-da, kunlar o'tishi bilan bu ikki o'sish natijasida ko'payish cheklanmaydi. Agar o'simliklardan yoki jonivorlardan biror xilining o'sishiga sharoit bo'lmay, o'sishdan to'xtasa ham, boshqalarida bu hol bo'lmaydi. Ular birdaniga paydo bo'lib, birdaniga yo'qolib ketmaydi. Bordi-yu Yer yuzini bir xil daraxt yoki bir xil hayvon butunlay qoplab olsa, bu holda hayvonning ko'payishiga ham, daraxtning o'sishiga ham o'rin qolmaydi. Shu sababdan dehqonlar ekinlarni o'toq qilib, keraksizini yulib tashlaydilar“.¹

Tabiat bilan tanishtirishning pedagog asoschilaridan S.A.Veretenikova „Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi“ kitobida, har bir yosh guruhidagi bolalarni yil fasllariga qarab tabiat bilan tanishtirish metodikasini asoslab bergan.

P.G. Samorukova „Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish“ o'quv qo'llanmasida tabiat bilan tanishtirish metodlari, vositalari va usullari, ish shakllari, bolalar bog'chasi hovlisidagi tabiat burchagini tashkil etish to'g'risidagi fikrlarni qayd etgan.

M.M.Markovskaya „Bolalar bog'chasida tabiat burchagi“ kitobida tabiat burchagini tashkil etishning shart-sharoitlari, undagi xona o'simliklari, hayvonlar, tabiat burchagidagi mavsumiy ishlar, bolalarni tabiat burchagidagi hayvonlar bilan tanishtirish yo'llarini ko'rsatib bergan.

Turli yosh guruhlarda bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachi **ko'rgazmali metod**-kuzatishdan keng foydalanadi. Kuzatish – tabiat jismlari va hodisalarning tabiiy sharoitlarda maqsadga yo'nalgan va bevosita shu hodisalarning borishiga aralashmagan holda sezgilar bilan qabul qila olishdir. Kuzatish murakkab bilish faoliyati bo'lib, bunda **idrok**, **tafakkur** va **nutq** ishtirok etib, **diqqat** talab etiladi.

Bolalarda tabiatga qiziqish bilan bir qatorda ularda ekologik tarbiyani ham rivojlantirib borish kerak. Masalan, bolalar qo'ng'iz va kapalaklarni tutib olib, nima qilar ekan deb, ularning qanot va oyoqlarini uzib tashlaydilar, yoki hayvonlarni, qushlarni qiynab, natijasi nima bo'lar ekan, deb qiziqadilar. Ularga tabiatning o'zaro bog'liqligini, ularni har birni ehtiyot qilish zarurligini, Ona tabiatni asrash kerakligini o'rgatish natijasida ham axloqiy tarbiyani, ham ekologik tarbiyani rivoj toptirish mumkin. „Tabiat bilan yaqin munosabatda bo'lish, kuzatuvchanlik bilan birgalikda bilishga ham qiziqishni o'rgatadi. Buning asosida taxminiy va tekshiruvchanlik refleksi yotadi va uning nihoyatda taraqqiy etishi insonning xarakterli xususiyatidir“²,-deb hisoblaydi

I. P. Pavlov. O'quvchilar, Bu nima?, Nima uchun?, Qanday qilib? kabi savollarni berganida bolalarni o'zlarini jalb qilib o'rgatishga erish maqsadga muvofiqdir.

O'yin metodi. Tabiatning oddiy hodisa va tasavvurlarini kengaytirish maqsadida o'tkaziladigan kuzatishlar bilan bir qatorda xilma-xil o'yinlardan keng foydalanish zarur. Boisi, bolaning 10 yil muddati o'yin faoliyatidan iborat ekanligini unutmasligimiz zarurdir. O'yinlar natijasida bolalar sezuvchanlik tajribasini orttiradilar, egallagan bilimlarini amalda tadbiiq qiladilar. Masalan, bolalar bilan „Ajoyib qopcha“, „Mevalar va ildizlar“, „Yilning to'rt fasli“, „Mevalar“, „Barglarni terib ol“ kabi didaktik, predmetli o'yinlar o'ynalsa, bolalarda xotira, diqqat, kuzatuvchanlikni o'sishiga yordam beradi, bolalarni yangi sharoitlardan foydalanishga o'rgatadi, turli aqliy jarayonlarni hamda axloqiy tarbiyani faollashtiradi, lug'at boyligini boyitadi, bolalarni jamoa bo'lib ishlashga o'rgatadi.

Bolalar mehnatini tashkil etish shakllaridan biri navbatchilikdir. Tabiat burchagida navbatchilik qilishni bolalar katta guruhda boshlaydilar. Mehnatning bu shakli mehnat malakalarini shakllantirish, uning ijtimoiy sabablarini shakllantirish imkonini yaratadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bolalarda tabiat bilan tanishtirish metodini shakllantirishda yuqorida sanab o'tilgan metodlardan keng qamrovda foydalanish hamda o'quvchilarda axloqiy tarbiya, aqliy tarbiya, ekologik tarbiya, estetik tarbiyalarni kamol toptirish joiz. Albatta, bu uchun sinf xonalarida tabiat burchagini tashkil qilish, o'quvchilar bilan mavzularga oid ekskursiya sayohatlarini o'tkazib turish, didaktik o'yinlarni tez-tez tashkil qilish, navbatchilikni yo'lga qo'yish, tabiatni sevisish hamda uni asrash kabi tushunchalarni singdirish kabi ta'limiy ishkarni bajarishimiz joizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Rayhon Beruniy. „Tabiat bilan tanishish metodikasi“ kitobi. O. Hasanboyeva, X. Jabborova, Z. Nodirova. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2013
2. I.P. Pavlov. „Tabiat bilan tanishish metodikasi“ kitobi. O. Hasanboyeva, X. Jabborova, Z. Nodirova. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2013
3. „Tabiat bilan tanishish metodikasi“ kitobi. O. Hasanboyeva, X. Jabborova, Z. Nodirova. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2013

BADIIY ADABIYOTDA "NAFRAT" SO'ZINING TURLI MA'NOLARDA QO'LLANILISHI

**Umurqulov B.N., Yakubova D.T., Yoqubov X.T.
Termiz davlat universiteti**

Annotatsiya: Badiiy asarda til o'zining insonlar orasida aloqa quroli vazifasini to'la saqlagan holda o'zining ekspressiv funksiyasini namoyon etadi. Badiiy til umumxalq tili va adabiy til bilan o'zaro munosabatda bo'lsa-da, farqli tomonlarga ham egadir. Til badiiy - adabiyotning birinchi elementi, obraz yaratishdagi asosiy quroli sanaladi.

Kalit so'zlar: Badiiy asar, muallif nutqi, bayonchi nutqi, yomon ko'rish, nafratlanish, beparvolikdir.

Adabiyotshunoslikda janr va uslub eng murakkab kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ana shu ma'noda badiiy asar tilining ta'sirchanligi, ohangdorligi masalasini o'rganish adabiyotshunoslik fanining asosiy mohiyatini tashkil etadi. Badiiy asar tili bilan shug'ullanish XIX asrda boshlangan edi. Masalan, italyan tilshunosi Banedetto Krochening fikricha, estetik kategoriyalar individual bo'lganidek, badiiy asar tili bilan bog'liq lingvistik kategoriyalar ham individuallik kasb etadi. Chunki badiiy asar individual shaxs (yozuvchi, shoir yoki dramaturg)ning o'z nutqiy faoliyati mahsulidir.

Badiiy asarda muallif nutqi va bayonchi nutqi o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Personajlar nutqini tipiklashtirish va individuallashtirishning badiiy asarda o'ziga xos mezonlari va tamoyillari mavjud. Arxaizm, neologizm, dialektizm kabi leksik vositalar, omonim, sinonim, antonim va paronim singari so'zning shakl hamdama'no munosabatiga ko'ra turlari badiiy asarlarda muhim uslubiy funkciyalarga egadir.

Badiiy klassik adabiyotda eng ko'p tarqalgan kompozitsion tur bu rivojlanish (oshib borish, o'sish) kompozitsiasini hisoblanadi, u bir nechta murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladigan komponentlardan iboratdir. Syujet (fransuzcha - sujet predmet, mazmun) - adabiy asarda tasvirlangan harakatning mazmunini ifodalovchi voqealar sistemasi, aniq voqealar tizmasida namoyon bo'ladigan harakatlar tarixidir. Badiiy asar tarkibida so'zlar hamda iboralar sehrli va maftunkor raqqosalarga o'xshaydi, degan edi mashhur rus yozuvchisi M.Prishvin. So'zlar va iboralardagi ana shunday xususiyatni to'g'ri anglash va ularning estetik qimmatini haqqoniy izohlash maqsadida "Badiiy asar tili va uslubi masalalari" tanlanma fani oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi fakulteti o'quv dasturiga kiritilgan.

Epistolyar adabiyotda so'z va gaplar obraz, manzara yaratishning o'ziga xos libosi, materialidir. Talantli yozuvchilarning qalami sehri ostida so'zlar hayotdagi narsa va hodisalarni inson ongida aniq tiklaydigan, gavdalantiradigan vositadir. Badiiy nutq faqat ko'chma ma'nodagi so'zlarning qo'llanilishidan iborat matn bo'lmay, majoziy vositalar badiiy nutqning o'ziga xos yordamchi vositasidir. Badiiy asarda leksik va frazeologik vositalarning obrazlar xatti-harakatini, ularning boshqa obrazlar bilan munosabatini ko'rsatishdagi roli hisoblanadi . Badiiy nutq muallif nutqi, personajlar nutqi va hikoyachi bayonidan iborat matndir. Muallif nutqi va personajlar nutqining o'zaro aloqadorligi badiiy nutq uslubiyatining markaziy muammolaridan biridir.

Quyida badiiy asarlarda "nafrat" haqida fikrlar keltirilgan.

1. Men seni sevaman va seni sevganim sababli, senga yolg'on gapirganim uchun ibodat qilgandan ko'ra, haqiqatni aytganim uchun meni yomon ko'rishingni afzal ko'raman. (Pietro Aretino)

2. Nafrat dunyoda ko'plab muammolarni keltirib chiqardi, ammo hech birining echimiga yordam bermadi. (Mayya Anjelu)

3. Kimni yomon ko'rishni bilmasak, o'zimizdan nafratlanamiz. (Chak Palaxniuk)

4. Yo'qligingiz uchun sevilmagandan ko'ra, borligingiz uchun nafratlanish yaxshiroqdir. (Andre Gide)
5. Agar siz bir yoki ikki kishini yomon ko'rishni o'rgansangiz, tez orada millionlab odamlardan nafratlanasiz. (Jerri Spinello)
6. Odamlardan nafratlanish, kalamushni o'ldirish uchun o'z uyingni yondirishga o'xshaydi. (Genri Emerson Fosdik)
7. Bizning nafratimiz zo'ravonlik bilan bo'lsa, u bizni nafratlanadiganlardan ham pastroq qiladi. (Fransua de La Rochefoucauld)
8. Kamroq nafratlaning, uzoqroq yashang. (Terri gilamlari)
9. Nafrat juda oson. Sevgi jasorat talab qiladi. (Xanna Xarrington)
10. Nafrat yaxshi maslahatchi emas. (Viktoriya Vulf)
11. Nafrat - bu qilich baliq, u ko'rinmas suvda harakat qiladi, keyin siz uning kelayotganini ko'rasiz va pichoqda qon bor: shaffoflik uni zararsizlantiradi. (Pablo Neruda)
12. Menda muhabbatning aksi nafrat emas, bu befarqlik degan kuchli taassurot bor. (Leo Buscaglia)
13. Siz nafratlanar ekansiz, yomon ko'radigan odamlar bo'ladi. (Jorj Xarrison)
14. Sevgining aksi nafrat emas, balki beparvolikdir. (Elie Vize)
15. Kelgusida biz odatda qo'rqadigan narsadan nafratlanamiz. (Uilyam Shekspir)
16. Nafratlanish oson, sevish qiyin. Bu narsalarning umumiy sxemasi qanday ishlaydi. Barcha yaxshi narsalarga erishish qiyin, yomon narsalarga esa erishish oson. (Konfutsiy)
17. Nafratlanish o'rniga, bayram qiling. (Shahzoda)
18. Hayot davomida odamlar sizni aqldan ozdirishadi, hurmatsizlik qilishadi va sizga yomon munosabatda bo'lishadi. Xudo ular qilayotgan ishlarga g'amxo'rlik qilsin, chunki qalbingizdagi nafrat sizni yutib yuboradi. (Uill Smit)
19. Nafratga to'la odamlar sevgiga qanday munosabatda bo'lishni bilishmaydi. (P.C. Cast)
20. Nafrat uzoq kutishdir. (Ren Maran)
21. Irqiy nafrat tabiatan insonga xos emas. Irqiy nafrat inson tabiatidan voz kechishdir. (Orson Uels)
22. Nafrat sog'lom emas, u nafratlanuvchidan nafratlanuvchiga qaraganda ko'proq zarar etkazadi. (Erik Jerom Dikki)
23. Nafrat bu bumerang, albatta u kimga tashlasangiz ham sizga qattiqroq zarba beradi.
24. Siz hayotda hamma narsaga ega bo'lolmaysiz va hammadan nafratlana olmaysiz. Bir kuni sizga yoqmagani odamdan sizga kerak bo'lmagan narsa kerak bo'ladi.
25. Biror narsadan qo'rqish - boshqalarga nisbatan nafratning ildizi va ulardagi nafrat oxir-oqibat nafratlanuvchini yo'q qiladi. (Jorj Vashington Karver)
26. Hech kim boshqa odamni terining rangi, kelib chiqishi yoki diniga qarab yomon ko'rishi uchun tug'ilmaydi. (Nelson Mandela)
27. Odamlar sizni qanchalik yaxshi ko'rishsa, shuncha ko'p odamlar sizni yomon ko'rishadi. (Kayli Jenner)
28. Siz diskriminatsiya va nafrat bilan emas, balki motivatsiya va muhabbat bilan shug'ullanishingiz kerak. (Zendaya)
29. Meni seving yoki meni yomon ko'ring, ikkalasi ham mening foydamda. Agar meni sevsang, men doimo yuragingda bo'laman, agar meni yomon ko'rsang, men doimo sening xayolingda bo'laman. (Qandeel Baloch)
30. Siz emasligingiz uchun o'zingizni yomon ko'rishni to'xtating va o'zingizni borligingiz uchun sevishni boshlang.
31. Nafrat - tavernaning orqasida joylashgan ichkilikboz, u doimo chanqog'ini ichimlik bilan yangilaydi. (Charlz Bodler)

32. Nafrat - eng qulay va to'liq birlashtiruvchi agent. Ommaviy harakatlar Xudoga ishonmasdan ko'tarilishi mumkin, lekin hech qachon jinga ishonmasdan. (Erik Xofer)
33. Nafrat - bu juda katta yuk. Nafratlanuvchiga nafratlanuvchidan ko'proq zarar etkazadi. (Koretta Skott King)
34. Ko'pchilik nafrat qo'rquvga asoslangan, u yoki bu tarzda. (Laurell K. Hamilton)
35. Agar yuragingiz vulqon bo'lsa, qanday qilib gullar unib chiqishini kutasiz? (Xalil Gibran)
36. Odamlarga nafrat o'tib ketadi, diktatorlar o'ladi va ular xalqdan olgan kuch xalqqa qaytadi. Va erkaklar o'lgan ekan, erkinlik hech qachon yo'qolib ketmaydi. (Charli Chaplin)
37. Hamma erkaklar nafratlanadigan narsalarini o'ldirishadi, agar bu, albatta, ularni o'ldirsa. (Jeyms Thurber)
38. Men barcha xurofotlardan xoliman. Men hammadan bir xil nafratlanaman. (W.C. Fields)
39. Muvaffaqiyat odamlarning sizdan nafratlanishiga olib keladi. Bu shunday bo'lmasligini istardim. Atrofdagilarning ko'zlarida hasadni ko'rmasdan muvaffaqiyatdan zavqlanish juda yaxshi bo'lar edi. (Merilin Monro)
40. Har doim nafratlanadigan odamlar bo'ladi. Va ular sizni qanchalik yomon ko'rsalar, shunchalik o'sasiz. (Antoniy Liccione)
41. Baxt kosasida qolgan bir tomchi nafrat eng baxtli ichimlikni zaharga aylantiradi. (Yoxann Kristof Fridrix fon Shiller)
42. Bizda nafratlanishimiz uchun etarlicha dinimiz bor, lekin bir-birimizni sevishimiz uchun etarli emas. (Jonathan Swift)
43. Agar omma nima uchun ekanligini bilmasdan seva oladigan bo'lsa, ko'p poydevorsiz ham nafratlanishi mumkin. (Uilyam Shekspir)
44. Agar odamlar odatda yomon ko'radigan darajada shiddat bilan sevsalar, dunyo yaxshi joy bo'lar edi.
45. Achchiqroq nafratlanadiganlar, yanada chuqurroq sevgan bo'lishlari kerak. Dunyoni inkor etganlar, bugun ular yoqib yuborgan narsalarini qabul qilishgan bo'lishi kerak. (Kurt Tuxolskiy)

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Normatov U. Qahhorni anglash mashaqqati.—T., 2000.
2. Rasulov A. Ilmi g'aribani qo'msab.—T., 1998.
3. Sodiq S. So'z san'ati jozibasi.—T., 1996.
4. Q o'chqor R. Men bilan m unozara qilsangiz.—T.,1997.

**EDUCATIONAL QUALITY IS AN IMPORTANT FACTOR IN FURTHER IMPROVING THE
DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN**

**Tolipova Zebuniso Ulugbek qizi
Andijan state foreign language institute,**

Annotation: This article describes the higher education system of the Republic of Uzbekistan. The reforms implemented in the field of development were discussed.

Key words: higher education, youth, ministry: new educational system, educational development,

It is known that today in our country there is a large scale in every field reforms are being implemented. In turn, these reforms are significant part of it is organized by the reforms implemented in the education system. Last organized all stages of education based on modern requirements practical works are being carried out. Including in the higher education system reforms and practical measures are being implemented on a very large scale.

President of the Republic of Uzbekistan Mirziyoyev Shavkat Miromonovich At the solemn ceremony dedicated to the day of teachers and coaches as they noted: It is clear to all of us that the cornerstone of development is This is the force that makes the country powerful and the nation great - science, education. Our tomorrow, the bright future of our country, education is first of all system and the education we give to our children.[1]

According to the thinker scholar Abu Nasr Farabi, "Education is the word for peoples and combining the theoretical virtue among the townspeople, and education is the relationship between these peoples.

Education is only through words and teaching. Ways and methods of Farabi's education their views on tools are also valuable. There are two ways of beautiful qualities in a person - formed through education and training. If it combines the theoretical qualities of education, and education is an innate quality - theoretical knowledge, and a practical profession - a craft, manners combines qualities. Education is words and learning, and education is practical work, experience says that it will be done with When both are combined, maturity is manifested, but this maturity depends on the extent to which knowledge and practical skills have been learned appears.

If the theoretical foundations of all subjects are studied in educational education, then in education spiritual and moral rules, etiquette standards, professional skills are studied will be created.

The population of the Republic of Uzbekistan under the age of 30 is 60 of the entire population is on the verge of facing a unique demographic situation of mind, spirituality, potential, culture, level of knowledge of young people without forming, we cannot look into our future.

It is no secret that a number of laws are being passed. Uzbekistan Law of the Republic on Education National Program of Personnel Training 30 a number of decisions on conception and education for the year and The adoption of laws is about the future of our youth and the development of our country. It is not for nothing that it is thought out and implemented. It covers the most urgent problems and solutions in our country today Acceptance and implementation of the concept for 30 years will lead to great changes in the field of education in our country. Education quality development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030 the concept of the higher education system in the social sphere and economic sectors based on the needs of science, education and production improving the quality of education based on ensuring integration, competitive personnel training, effective organization of scientific and innovative activities, international cooperation for the purpose

of development, as well as 2019 of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-4391 dated July 11, 2015 "Management of the system of higher and secondary special education in connection with the implementation of the decision on measures to introduce new principles developed.

The quality of education is traditionally the highest quality of teaching and scientific research a natural element at the level and an integral part of the professional activity of scientists is considered Nowadays, improving the quality of higher education is education all over the world remains one of the most important and basic issues in the system. that is why there is also a need to research approaches to evaluating the quality of higher education.

Accordingly, ensuring the quality of higher education has various consequences and characteristics will have. Various researchers in the field of higher education ensure the quality of education they always rely on best practices when developing an adequate (suitable) system.

Ensuring the quality of education can be interpreted as "rules of engagement". will have clear consequences. At the same time intensive external control on the transparency of the quality of educational services that reduce the need There are also "unwritten rules. By way of conclusion, so far in terms of ensuring the quality of higher education the existing national and foreign experiences show that at present Reforms and innovations carried out separately and unsystematically in HEIs ineffective, which often undermines the overall effectiveness of higher education delivers.

Therefore, the quality of higher education has not yet been improved exchange the accumulated foreign experiences with the achievements of the national education system harmonizing only in a complex, systematic and whole way there is no doubt that the increase will raise the quality of higher education in our country to a new level. In all spheres of mental development, personal social relations change. In this process, the leading role of educational activity is at the junior school age does not exclude the active participation of the student in other activities, during it the child's new achievements are improved and strengthened. L.S. Vygotsky noted that the characteristic feature of primary school age is that the goals of the activity are mainly determined by adults for children.

Reforms in the field of higher education in the new Uzbekistan are currently in their infancy in terms of relevance and practical importance than reforms in other areas will not stay. These reforms are already showing results today. Above The information presented shows positive results in our educational system in this area a sign of the ongoing reforms on a wider scale will give.

References:

1. Sh.M. Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan.
2. <https://www.unicef.org>
3. <https://daryo.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2-bob

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI BO'LAJAK TARBİYACHILARINING IJTIMOIY
KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH****Xalilova Dilnoza Furkatovna
Nizomiy nomidagi TDPU****"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi.**

Annotatsiya: ushbu maqolada kompetensiya haqida, bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish, tarbiyachi-pedagoglarning pedagogik faoliyatiga qo'yilgan talablar hamda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish yo'llari va usullari keltirilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, qobiliyat, tarbiyachi, ta'lim, ijtimoiy kompetentlik, mimika, pedagog, malaka, xulq-atvor.

Bo'lajak tarbiyachilarda ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish muammosi bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlarni amalga oshirilishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, bo'lajak tarbiyachilarda ijtimoiy kompetensiyani kamol toptirish kelajakda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishlarini kafolatlaydi.

Kompetentlik inglizcha "competence" so'zidan olingan bo'lib "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Kompetentlikning mazmuniga e'tibor beradigan bo'lsak "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi. Amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning dinamikligi, iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy-madaniy sohani rivojlantirishdagi yangi strategik yo'nalishlar kasbiy-pedagogik kadrlarni sifatli tayyorlash muammosini xolisona tarzda ilgari surmoqda. Ta'limning maqsad va vazifalarini yangilash va o'zgartirish, yangi ta'lim tuzilmalarini, ta'limning yangi mazmunini shakllantirish kasbiy faoliyatga tayyorlangan, pedagogik o'zini -o'zi belgilash, o'zini-o'zi tashkil etish va o'zini-o'zi boshqarish qobiliyatiga ega bo'lgan tarbiyachilarni o'qitishning yangi texnologiyalarini talab qiladi. Bu vazifani bajarishda kasbiy-pedagogik ta'lim tizimi muhim o'rin tutadi, chunki professor-o'qituvchilar, eng avvalo, kasbiy ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish missiyasini amalga oshiradilar.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim nazariyasi va amaliyotida umuminsoniy qadriyatlarni aks ettirishga qaratilgan yangi mazmunning rivojlanishi munosabati bilan ijtimoiy rivojlanish muammolari alohida ahamiyatga ega. D.I.Feldshteyn maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanishi muammosini tahlil qilib, maktabgacha pedagogika va psixologiya sohasidagi mavjud ma'lumotlar o'sish, bolaning ijtimoiy aloqalarini rivojlantirish masalalarini etarli darajada qamrab olmasligini ta'kidlaydi. Maktabgacha ta'lim ijtimoiy mazmuni bosqichma-bosqich to'plashga, ijtimoiy harakat sub'ekti sifatida o'sib borayotgan shaxsni shakllantirishga e'tibor qaratmasdan, faqat ijtimoiy normalarni o'zlashtirish bilan cheklanadi [1]. Ijtimoiylashtirish bolalarga harakatlarni, baholashni, munosabatlarni erkin tanlash uchun joy berish va xavfsizlik hissini ta'minlashni o'z ichiga oladi, bu asosan u bilan hamkorlik qiladigan kattalarning shaxsiyati bilan belgilanadi. Binobarin, pedagogning ijtimoiy kompetensiyasi pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib, zamonaviy sharoitda yangicha mazmun kasb etmoqda. Shu bois pedagogning, shu jumladan bo'lajak tarbiyachining kasbiy mahoratini oshirish, milliy qadriyatlarga, milliy-madaniy an'analarga da'vat etish, o'z-o'zi va ijtimoiy voqelik bilan mutanosib munosabatlar o'rnatishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda [3].

Pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik kompetensiyasi darajasini oshirish, o'z-o'zini rivojlantirish jarayonini faollashtirish va maktabgacha ta'limning yangi sifatiga erishish

muammosini hal qilish faqat innovatsion ta'limni amalga oshirishga tizimli yondashish va uni e'tirof etish sharoitida mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarining ijtimoiy-pedagogik kompetensiyasi ijtimoiy va tarbiyaviy innovatsiyalar jarayonida shakllangan ta'lim faoliyatining innovatsion salohiyatiga asoslanadi. Tadqiqotchilar A.V.Lorensov, M.M.Potashnik, A.I.Prigojin, O.G.Xomeriki ta'lim muassasalari faoliyatiga nisbatan "innovatsion faoliyat" tushunchasini ta'lim mazmunini va o'quv jarayonining tashkiliy-texnologik asoslarini maqsadli o'zgartirish sifatida qarash mumkin, deb hisoblaydilar, ta'lim xizmatlari sifatini, ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan [2].

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining ijtimoiy-pedagogik kompetensiyasini oshirishning eng muhim shartlaridan biri innovatsion faoliyatni tashkil etish bo'lib, bu metodik va texnologik chora-tadbirlar majmuasini yaratmasdan mumkin emas [4].

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini tashkil etish va ta'lim sifatini doimiy nazorat qilish ijtimoiy kompetensiya darajasini oshirishga yordam beradi. Sifat ko'rsatkichi bo'lajak tarbiyachining ijtimoiy kompetensiyaga ega bo'lgan o'zlashtirish darajasidir. Yuqoridagilarni umumlashtirib, biz talabalarda ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish ko'rsatkichlarining quyidagi guruhlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

1. Ijtimoiy mas'uliyat, hissiy barqarorlik, shaxsiy faollik, adekvat o'zini-o'zi hurmat qilish, ixtiyoriy nazorat, o'ziga ishonch, bag'rikenglik, muvaffaqiyat motivatsiyasi.

2. Odamlarning o'zaro munosabatlari holatini tahlil qilish; boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatda og'zaki va og'zaki bo'lmagan ifodani to'g'ri baholash; o'zining va boshqalarning faoliyati va xatti-harakatlarining oqibatlarini oldindan bilish; ijtimoiy o'zaro ta'sirning mantiqini tushunish; boshqalar bilan konstruktiv o'zaro munosabat; kommunikativ nazorat; xushmuomalalik; ishlab chiqarish, ijtimoiy yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish [2].

3. Ijtimoiy kompetensiyaning mohiyati, tuzilishi, funksiyalari, xulq-atvorning og'ishligi, sog'lom turmush tarzining mohiyati haqida bilim; jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiylashishga imkon beruvchi shaxsning fazilatlarini to'g'risida bilim;

4. Ijtimoiy kompetensiyaning yuqoridagi belgilarining mavjudligi va rivojlanish darajasi; odamlarning jamiyatda o'zaro munosabati, hayotiy yo'nalishlari va maqsadlari mavjudligi haqida bilim; sog'lom turmush tarzini qabul qilish.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini tashkil etish va ta'lim sifatini doimiy nazorat qilish ijtimoiy kompetensiya darajasini oshirishga yordam beradi. Sifat ko'rsatkichi bo'lajak tarbiyachining ijtimoiy kompetensiyaga ega bo'lgan o'zlashtirish darajasidir.

Xulosa qilib aytganda ijtimoiy kompetentlik – olingan bilimlarga asoslangan holda ijtimoiy munosabatlarda to'g'ri harakat qila olishlik demakdir. Kompetentlik – ijtimoiy amaliyot ko'rinishidagi bilim va ko'nikmalarning mavjudligi bo'lib, u ta'lim jarayoni natijalariga ijtimoiymadaniy talablar va jamiyat tomonidan talablar qo'yiladigan hollarda namoyon bo'ladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кўйсенов.О "Компетентли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-педагогик ижодкорлигини ривожлантириш технологиялари". Пед.фанд.доктори...дис-Т., 2019 43-б.

2. Зимняя, И.А. Ключевые компетентности как результативно целевая основа компетентностного подхода в образовании.: авторская версия И.Зимняя. - М.:

Издательство: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов
2004. - 37 с

3. N.Djamilova - Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida tashabbuskorlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari.: Avtoref. dis.ped.DSc. – T.,2019 й. – 13-14.

4. D Khalilova. Innovative educational environment as a factor for improving professional competence in developing social relationships in students. - Science and innovation, 2023.

5. Xalilova D. F. Talabalarda ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga oid kasbiy kompetentlilikni takomillashtirish. Mug'allim hom uzliksiz bilimlendirio' 2022. № 6/1-1.

6. XD Furqatovna. Bo 'lajak tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv. PEDAGOGS jurnali, 2022/4/15.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOY ONGINI OSHIRISHDA MUAMMO VA YECHIMLAR

Xujamatova Xusnidaxon Mansurovna
Qo'qon Universiteti Ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyat hayotida yuz berayotgan voqea-hodisa va jarayonlarning mazmun- mohiyatini tahlil qilish asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy ongini shakllantirishning falsafiy jihatlarini o'rganishdan iborat bo'lib, u quyidagi vazifalarni: ijtimoiy falsafa tizimida mafkuraviy ongning tarkibiy tuzilishini tahlil qilish asosida, uning ijtimoiy ong shakllaridan biri ekanligini isbotlash; «g'oyaviy-mafkuraviy hayot», «mafkuraviy ong» va «mafkuraviy faoliyat», «mafkuraviy munosabat» kabi tushunchalarining falsafiy ma'no-mazmunini ochib berish; jamiyatning g'oyaviy-mafkuraviy hayotiga nisbatan tarkibiy - funksional yondashuv va qarashlarni aniqlash asosida milliy mafkuraviy ongning ontologik tabiati va gnoseologik xususiyatlarini ochib berish; ta'lim muassasalarida ta'lim- tarbiya olayotgan o'quvchi-talaba yoshlarning milliy mafkuraviy ongini shakllantirishning milliy meros va kadriyatlar, umuminsoniy demokratik prinsiplarga asoslangan usul va vositalarini ishlab chiqish kabilarni bajarishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy ong, mafkura, milliy mafkura, g'oya, g'oyaviy-mafkuraviy hayot, mafkuraviy ong, mafkuraviy faoliyat, mafkuraviy munosabat, mafkuraviy bashorat, mafkuraviy vaziyat.

Kirish. Milliy mafkuraviy ongni shakllantirish va rivojlantirish, aslini olganda oila qurish, unda farzandli bo'lish jarayonidan boshlanadi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Chunki, birinchi navbatda oilaning qonuniy tarzda "Oila va nikoh" kodeksi talablariga mos ravishda qurilishi, so'ngra, ushbu qonun talablarini buzmasdan milliy qadriyatlarimizga asoslangan holda diniy (sha'riy) nikohdan o'tish amalini bajarish oila qurishdagi milliy mafkuraviy ongni shakllantirish va rivojlantirishning xalqchil talablaridan biri hisoblanadi.

Ona homilasi qanchalik halollikka asoslangan bo'lsa, tug'ilajak farzandning nomi ham shunchalik pokiza bo'ladi. Ana shu pokizalik tufayli ota-ona farzandining butun umr davomida milliy qadriyatlarimizning shukuhi asosida mafkuraviy ongining shakllanishi va rivojlanib borishiga tamal toshini qo'ygan bo'ladi. Boshqacha tanlangan yo'l, ya'ni nikohsiz tug'ilgan farzand qanchalik iqtidorli, oqil bo'lmasin, baribir, u qandaydir bemaza gap-so'zlarning qurboniga aylanib, mafkuraviy ongining izdan chiqib axloqiy-ma'naviy tanazzul sari yo'l tutishiga olib keladi. Bunday holatlarning sodir bo'lishi oilaning inqirozga uchrashiga, mahallada esa axloqiy-ma'naviy muhitning yomonlashuviga sabab bo'ladi.

Shuni alohida qayd qilish kerakki, bugungi kunda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan «uzluksiz ma'naviy tarbiya» siyosatining bosh maqsadi, bir qator umuminsoniy va milliy tarbiya shakllarini (iqtisodiy, axloqiy, huquqiy, estetik, badiiy, ekologik, diniy tarbiya va boshqalar) uyg'unlashtirgan holda yoshlarimizning milliy mafkuraviy ongini shakllantirish va zamon talablari darajasida rivojlantirishdan iborat. Bulardan ajralgan holdagi, qandaydir mutlaq ahamiyatga ega bo'lgan "ma'naviy tarbiya"ning o'zi yo'q. Bularning ichida "axloqiy tarbiya" ustuvorlik ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabr, 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi"da: "Oilada uzluksiz ma'naviy tarbiya xususiyatlari: muloqot, o'yin turlari jarayonida predmetlar, namunaviy xulq, xatti-harakat qoidalari bilan tanishish, taqlid orqali kattalarning ma'naviy-axloqiy tajribasiga e'tibor qaratish; o'zining va boshqalarning xatti-

harakatlarini kuzatish, baho berishga o'rgatish; ilk ma'naviy- tarbiyaviy motivlarni shakllantirish; o'ziga-o'zi xizmat qilish, kundalik turmushda xavfsizlik ko'nikmalarini o'rgatish", kabilar ko'rsatib o'tilgan. Bu xususiyatlar o'zida qaysi ma'naviy tarbiya shakllari orqali o'zini namoyon qiladi va milliy mafkuraviy ong darajasida shakllanishiga zamin hozirlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrda qabul qilingan O'RQ-595 sonli" Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" Qonunining 32- moddasida: "Maktabgacha bo'lgan yosh quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi: go'daklik (tug'ilgandan bir yoshgacha); ilk bolalik (bir yoshdan uch yoshgacha); maktabgacha bo'lgan kichik yosh (uch yoshdan to'rt yoshgacha); maktabgacha bo'lgan o'rtacha yosh (o'rt yoshdan besh yoshgacha); maktabgacha bo'lgan katta yosh (besh yoshdan yetti yosh)", – deb ko'rsatilgan. Mana shu yosh davrlarida bolalarning ruhiyatida qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi va ular qanday shaklda yoshlarning milliy mafkuraviy onging shakllanishiga zamin yaratadi degan savol tug'iladi? Odam bolasi, onadan sog'lom tug'ilsada, biroq aqlli bo'lib tug'ilmaydi. Uning aqlli bo'lish yoki bo'lmasligi ota-onaning qanday tarbiya berishiga bog'liqdir. Hozirgi kundagi ma'naviy tarbiyadan ko'zlangan maqsad esa har bir bolaning milliy mafkuraviy ongini shakllantirish asosida haqiqiy Vatanparvar qilib yetishtirishdan iborat.

Bolaning go'daklik davrda atrof-muhitni idrok etishining o'ziga xos xususiyatlari. Ma'lumki, bola tug'ilgan paytidayoq muhitni seza boshlar ekan, dastlabki birinchi oyida uning ko'rish va eshitish qobiliyati tug'ma instinkt tarzida shakllanib, keyingi ikkinchi va uchinchi oylariga kelib esa ko'rish qobiliyati kuchayib ranglarni ajratishi, eshitish qobiliyatining esa ayrim tovishlarni idrok etish, shuningdek hid va ta'm bilish orqali tashqi olam bilan aloqa o'rnatishi boshlanadi. Shunday qilib, go'dak bola o'z hayotining dastlabki oylaridayoq turmush tajribasini to'play boshlaydi, bu to'plangan tajriba esa keyinchalik uning odatlari va xulq-atvorida ifodalanadi [3].

Umuman olganda go'dak bola (chaqaloq)ning hamma asosiy hayotiy ehtiyojlarini ota-onasi va katta yoshli odamlar qondirishadi. Bunda mavjud real voqelik bilan aloqa katta odam orqali amalga oshiriladi: u go'dak bolaga har xil narsalarni keltirib turadi, bu narsalarni chiqillatadi, ushlab olish uchun unga narsalar beradi, ya'ni kattalar bolaning ko'rish, eshitish va boshqa sezgilarini o'stirishga yordam beradi. Tabiiyki, katta odam bolaning barcha istaklarini qondiruvchi sifatida diqqat markazida turadi. Bola uch oylik bo'lganida yoni-beridagi odamlarni tanlab muomala qila boshlaydi, onasini ajratadigan bo'ladi, olti oyligida — begona odamlarni o'z yaqinlaridan farq qiladi, onasini ko'rish bilan oq sevinib ketadi. To'qqiz oylik bola endi kattalar bilan o'ynay boshlaydi, unda kattalar bilan aloqa qilishga tobora ko'proh ehtiyoj tug'iladi. Bola o'sa borgan sari uning kattalar bilan aloqa qilish shakllari kengaya boradi. Dastlab aloqa nutqsiz shakllarda ifodalanadi. Bu aloqa shaklining birinchi ko'rinishi – bolaning katta yoshli odam ta'siriga emotsional javobi dir: iljayadi, qandaydir ovoz chiharib talpinadi. Bola eng yaqin odamlarini bilib oladi hamda o'z odamlariga va begona odamlarga har xil munosabatda bo'ladi. Bolaning harakatlari ko'pincha qichqirish, hiqillab yig'lash bilan ifodalanadigan o'tinch (iltimos) va talabga aylanadi [4]. Bolaning tili chiqqunigacha bo'lgan ana shu aloqa shakllari hademay yetarli bo'lmay qoladi, kattalar bilan aloqa qilish ehtiyoji yanada osha boradi. Nutqni birinchi marta besh oylikda tushunish boshlanadi. Huddi shu joyda go'dak bolaning dunyoni idrok qilishi boshlanadi. Ota-ona va katta yoshdagilar bolani parvarish qilish bilan bog'liq bo'lgan harakatlari davomida tegishli so'zlarni ishlatishadiki, xuddi shu narsa bolaning nutqitushuna boshlashiga birinchi sabab bo'ladi.

Xulosa va munozara. Ko'z idroki va narsalarga tikilib qarash nutqni tushuna borish uchun eng yaxshi sharoit tug'diradi. Bola so'zlarga javob bera boshlaydi, so'zlarga nisbatan ko'z bilan chamalash paydo bo'ladi. Bola hayotining birinchi yili oxiriga kelib 10—20 ta so'zni tushunadigan bo'ladi. Xuddi shu vaqtda bola aytadigan dastlabki so'zlar paydo bo'ladi. Shuni

ta'kidlab o'tish kerakki, bola bir yoshga to'lganida unda kattalar bilan aloqa qilishga ijtimoiy ehtiyoj tug'iladi – bu ehtiyoj bolaning yangi hayot bosqichiga o'tishi uchun juda muhim ahamiyatga egadir. Chunki, shu jarayonda jismoniy va axloqiy tarbiya uyg'unligiga asoslangan mafkuraviy ong go'dak bolaga o'zining ta'sini o'tkazishni boshlab yuboradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M Erkin va obod,demokratik jamiyatni barchamiz birgalikda barpo etamiz.Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz. (2017).1-jild. – T.:« O'zbekiston» NMIU–B.147.
2. Mirziyoev Sh.M. Oltin vodiy durdonasi// Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. (2017) – T.: «O'zbekiston» NMIU.–B.44.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi// Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz. (2017)1-jild. – T.:«O'zbekiston» NMIU. – B.110.
4. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiev N.E. Milliy g'oya-taraqqiyot strategiyasi (2018) -T.:Fan. -B. 82.
5. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiev N.E. Milliy g'oya va mafkura. (2015) -T.:Fan. -B. 78.
6. Milliy g'oya targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. (2009) -T.:Muharrir. -B. 10.

BOG'CHA YOSHIDAGI BOLALARDAGI PSIXOLOGIK USTUVOR JIHATLAR.

Xursanov Omadbek Ulug'bek o'g'li
Qo'qon universiteti, Ta'lim kafedrası
psixologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, bolaning psixik jihatdan o'sishda bog'cha yoshidagi davr ancha murakkab va juda mas'uliyatli davrdir. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri hisoblanadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshida bola mustaqil bo'la olish uchun zarur bo'lgan ikkita qudratli kuchga ega. Birinchidan, ma'lum darajada o'ziga bo'ysundirilgan harakat apparatiga ega. Ikkinchidan esa, atrofidagi katta odamlar va o'z tengdoshlari bilan bir qadar erkin muosabatda bo'la oladigan nutqqa ega. Mana shuning uchun bog'cha yoshidagi bolalarning xulq – atvorlari, qiziqishlar va ehtiyojlari bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolalarnikidan farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, bog'cha yoshidagi bolalar bilan bog'chaga tarbiya yoshidagi bolalar tarbiyasiga ham turlicha munosabatda bo'lishni taqozo etadi.

Kalit so'zlar: Kalit so'zlar: bola, tarbiya, nutq, bog'cha, ijtimoiy muhit, muloqot.

Agar yangi tug'ilgan hamda bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan tarbiya asosan ularni ovkatlanishi gigienalarini tartibga solish va sezgi organlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa bog'cha yoshidagi bolalarga beriladigan tarbiya ularning murakkab harakatlarini takomillashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalari hosil qilish, nutqlarini o'stirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini yuzaga keltirishga qaratilgandir. Demak, asosan bog'cha yoshidan boshlab bolaning bundan keyingi butun shaxsiy hayoti davomida tarkib topa boradigan individual hususiyatlari ham yuzaga kela boshlaydi. Ana shu sababli ham insonning xar tomonlama kamol topa borishi va xususan, psixik jihatdan bog'cha yoshidagi davrida olgan ta'lim tarbiyasiga bog'liqdir. Bu haqida N.K.Krupskaya shunday deb yozgan edi: "yosh bolalik chog'laridan qolgan taasurotlari juda katta ahamiyatga ega".

Mashhur rus pedagoglaridan Lestgafning fikricha, insonning boshqa yoshdagi davri shunday bir davrki, bu davrda unda kelgusida qanday karakter hislatlari paydo bo'lishi belgilanadi va axloqiy karakterning asoslari yuzaga keladi. Insonning kamol topa borishda bog'cha yoshidagi davrning ahamiyatiga doir Lestgafning bu fikri buyuk rus pedagogi A.S.Makarenkoning quyidagi fikriga to'la mos keladi. A.S.Makarenko bolalarni juda kichiklik davridan boshlab tarbiyalash zarurligi haqida gapirib, tarbiyaning eng muhim asoslari bolaning 5 yoshgacha bo'lgan davri mobaynida yuzaga keltiriladi. Mana shu davrda qilingan ish butun tarbiya prosesining 90 % ni tashkil etadi, degan edi.

Haqiqatdan ham bolaning bog'cha yoshidagi davri shu qadar mazmundor va aktiv davrdirki, bu davr bolaning kelgusi o'sishida albatta o'z aksini qoldiradi. Lekin bundan bolaning bog'cha yoshidagi davri, uning qanday odam bo'lib chiqishni batamom belgilab beradi, degan ma'no kelib chiqmaydi. Mana shuning uchun bola shaxsining shakllanishi faqat bog'cha yoshidagi davr bilangina bog'lab bo'lmaydi. Umuman inson o'z tabiati jihatidan deyarli butun umri davomida tarbiyalanuvchi mavjudoddir. Lekin har bir odam karakteriga xos bo'lgan shaxsiy xislatlarning yuzaga kelishida uning har bir yosh bosqichida olgan ta'lim tarbiyasini aksi sezilib turadi.

Bog'cha yoshidagi davr o'z ta'sir kuchi jihatidan g'oyat ma'suliyatlidir.

Bola yasli davrini o'tib, bog'chaga kelgach, uning yashash sharoitida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Birinchidan, bola bog'cha yoshiga o'tgach, uning faoliyat doirasi ancha boshqacha mazmunga ega bo'la boshlaydi.

Ikkinchidan, bola bog'chaga o'tgach, muayyan asosida mahsus pedagog tomonidan tarbiyalana boshlaydi.

Bolaning yashash sharoitida yuzaga kelgan bu o'zgarishlar uning psixik jihatdan o'sishiga ta'sir etmay qolmaydi. Mana shuning uchun bola bog'cha yoshidagi davrida faqat jismoniy jihatdangina o'smay, balki psixik jihatdan ham taraqqiyotning yana bir yuqori pog'onasiga ko'tariladi. Bog'cha yoshidagi bolaning har bir xatti – harakatidan uning mustaqilligi, nutqning elementar bo'lsa ham, gramatik jihatdan to'g'ri shaklini amaliy o'zlashtira boshlaganligi ko'rinib turadi. Bog'cha yoshidagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan yana biri ularning taqlidchanlik va serharakatliklaridir.

Bog'cha yoshidagi davrida bolalarning naqadar serharakat bo'lishlari barcha ota – onalarga tarbiyachilarga ma'lum bu yoshdagi bola butun kun davomida xilma – xil va tinimsiz harakat qilish orqali atrofdagi muhit va odamlar bilan munosabatda bo'ladi. Binobarin, shunday xilma – xil harakatlar tufayli o'z tasavvuri hamda bilim doirasini kengaytirib boradi.

Bog'cha yoshidagi bolaning jismoniy jihatdan o'sishi.

Bog'cha yoshidagi bolaning jismoniy jihatdan o'sishini harakterli tomoni shundan iboratki, bu davrda ham bolaning tanasi bilan qo'l-oyoklari barobar mutanosiblikda o'smaydi. Bog'cha yoshidagi bolalarnig oyoqlari nisbatan ko'prok o'sadi.

Biroq, shunga qaramay, 6 yoshgacha bo'lgan bolaning suyaklari xali yaxshi qotmagan, ya'ni tog'aysimon bo'ladi. Muskullari ham hali baquvvat bo'lmaydi. Shuning uchun bog'cha yoshidagi bolalar ma'lum muddat davomida qiyshiq o'tirib qolishlari yoki bo'lmasa, qaltis harakat qilishlari orqasida umurtqa suyaklarini qiyshaytirib qo'yishlari mumkin. Ana shuning oldini olish uchun bu yoshdagi bolalar skeletining to'g'ri o'sishiga aloxida e'tibor berish kerak. Bog'cha yoshidagi bolalarning skeletlari kichik bolalarniki kabi elastik (egiluvchan) bo'lishga qaramay, uning asosiy qismlari bu yoshda tez qota boshlab, suyak shakliga kiradi.

Bola 7 yoshga etgach, umurtqa suyagining bo'yin qismida oldinga tomon, ko'krak qismida esa orqaga tomon ma'lum darajada egilish yuz beradi. Keyinchalik bolaning umurtqa suyagi mana shu shaklda saqlanib qoladi. Bog'cha yoshida bolaning bosh suyagi ham tez o'sadi. 3 yoshdan boshlab bosh miya suyagining orqa va tepa tomonlari tez o'sadi. Bolaning bosh suyagi 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrda tez o'sadi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning jismoniy jihatdan o'sishlari davomida ularning tashqi qiyofalari va skeletlari bilan birga ichki organlari ham ancha tez o'sadi. Bog'cha yoshidagi bolaning yuragi xajmi jihatdan, chaqaloq bolaning yuragiga nisbatan 4-5 barobar ulg'aygan bo'ladi. Lekin barcha yoshida ular bir qancha marta ulg'aygan bo'lsa ham uning muskullari hali etarli darajada mustaxkamlanmagan bo'ladi. Mana shuning uchun bog'cha yoshidagi bolaning yuragi bir qisqarishda organizm uchun etarli qon siqib chiqara olmaydi. Bog'cha yoshidagi bola yuragining katta odamlar yuragiga qaraganda nisbatan tezroq urishini sababi ham mana shundadir. Chunonchi, agar bir yoshdagi bolaning yuragi 1 marta qisqarishda 10,2 kub. santimetr qon siqib chiqarsa, 7 yoshli bolaning yuragi 1 marta qisqarganda 23 kub. santimetr qon siqib chiqaradi. Katta yoshdagi odamlarning yuragi esa 60 kub. santimetrdan ortiqroq qon siqib chiqaradi. Shu narsani ham aytish kerakki, bolaning bog'cha yoshidagi davrida qon bosimi biroz kuchayadi. Bu hodisa barcha yoshdagi davrda yurakning nisbatan kuchli ishlashi bilan bog'liqdir.

Ma'lumki, o'pkaning normal ishlashi va rivojlanishga ko'krak qafasiga o'sishi ko'p jihatdan ta'sir qiladi. Chunki, o'pkaning faoliyati asosan ko'krak qafasi shakli va elastikligi bog'liqdir. Manashu jihatdan kichik yoshdagi va bog'cha yoshdagi bolalarning ham ko'krak qafaslari nafas olish qulay emas. Bolalarda diafragmaning bir qadar tik joylashganligi qisqartirib qo'ygan. Bundan tashqari, bog'cha yoshdagi bolalarda ko'krak qafasi vertikal uzunligini qisqartirib qo'ygan. Bundan tashqari, bog'cha yoshidagi bolalarning nafas olishlari katta odamlarning nafas olishlariga nisbatan yuzakirok bo'ladi. Bolalar o'pkasining hajmi

etarli darajada kattalashmaguncha chuqur nafas olmaydilar. Natijada bolalar chuqur nafas olishning urnini tez nafas olish bilan qoplaydilar. Bog'cha yoshdagilarni boshqa organlar kabi ko'krak qafasi doirasining kengayishi bu davrda ham ancha tez davom etadi. Bola ko'krak qafasining doirasi yiliga 1-2 smdan kengayib borib, 13-14 yoshga etganda o'z shakli va hajm jihatdan katta odamlarning ko'krak qafaslariga yaqinlashadi. Ko'krak qafasining torligi va o'pkalarning kichikligi tufayli bolalar tez-tez nafas oladilar.

Bolaning bog'cha yoshidagi davrida, ya'ni 3 yoshdan 7yoshgacha bo'lgan davrida nafas olish miqdori deyarli o'zgarmaydi. Biroq bog'cha yoshidagi davrida bola xaddan tashqari harakatchan bo'lgani tufayli uning organizmi juda ko'p miqdorda oqsilni talab qiladi. Shuning uchun bolaning bog'cha yoshida mumkin qadar ochiq xavoni ta'minlash kerak bo'ladi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning asab tizimining o'sishi. Ma'lumki bolalar asab tizimining eng kuchli taraqqiy etadigan davri 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan davriga to'g'ri keladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek yangi tug'ilgan bola bosh miyasining o'rtacha og'irligi 380 – 400 gramm keladi. Bola bog'cha yoshiga etguncha uning miyasi g'oyat kuchli ravishda o'sib , deyarli 3 barobar ko'payadi. Demak , bog'cha yoshiga etgan bola miyasining og'irligi 1200 grammga etadi. Bog'cha yoshidagi bolaning miyasi faqat xajmi jihatidan ham ancha murakkablashadi. Masalan: 3 yoshli bola miyasidagi qo'zgalishlarni tegishli markazlarga elituvchi asosiy asab tolalari (asosiy o'tkazgichlar) mielinizatsiyalashadi, ya'ni bir – biridan ajratuvchi yumshok oqimtir modda bilan qilinadi.

Bog'cha yoshidagi bolalar asab tizimining taraqqiyoti davomida bosh miya yarim sharlari po'stidagi asab hujayralari tobora murakkablashib boradi. Avval xech qanday shoxchalarga ega bo'lmagan asab hujayralari bolaning jismoniy jihatdan o'sishi davomida har tomonlama tarqalib ketgan juda nozik shoxchalarga ega bo'lib boradi.

Natijada bosh miya yarim sharlari o'rtasida muvofiq bog'lanishlar xosil bo'lish imkoniyati orta boradi. Biroq , bog'cha yoshidagi bolalar markaziy asab tizimlarida deyarli farq qilmasa ham faoliyat jihatdan ancha farq qiladi.

Bog'cha yoshidagi bolalar oliy asab faoliyatlarining o'ziga hos xususiyatlaridan yana biri shuki, tashqi muhitdagi biron quzgatuvchining ta'siri bilan yuzaga keladigan qo'zgalish va tormozlanish proseslari yosh bolalarniki kabi iradiatsiyalanish xususiyatini saqlab qolgandir. Natijada bog'cha yoshidagi bola miya po'stining ma'lum markazida joylashgan boshqa markazlarga ham keng tarqalib ketadi. Shuning uchun bog'cha yoshidagi bolalar o'z diqqatlarini biron narsaga uzok muddat davomida qarata olmaydilar Shuni aytib o'tish kerakki, markaziy asab tizimining taraqqiyoti bog'cha yoshidagi hamma bolalarda bir xil temp bilan davom etmaydi. Bu murakkab taraqqiyot bolalarning individual xususiyatlariga, xususan yashash sharoitlariga ya'ni oilada hamda yasli bilan bog'chada qanday tarbiyalanayotganlariga bog'liqdir. Bolaning tarbiyasi qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa , uning asab tizimi shunchalik normal taraqqiy etadi. Bola asab tizimining taraqqiy etishda uniing atrofdagi narsa va xodisalar bilan bevosita va mustaqil munosabatda bo'lish juda katta rol o'ynaydi. Chunki bunda bolaning asab tizimi aktiv faoliyatda bo'ladi va binobarin , tez rivojlanadi shuning uchun bola qanchalik aktivlik bilan tashqi muxitni mustaqil o'rgansa , ya'ni aktiv ravishda aks ettirsa uning markaziy asab tizimi ham shunchalik tez takomillashadi. Mana shu xislatni nazarda tutib , tarbiyachilar bolalarning mustaqil faoliyatlarini to'g'ri tashkil etishga alohida e'tibor berib borishlari lozim .

Bog'cha yoshidagi bolalar asab tizimining takomillanishi davomida ularning sezgi organlari, ya'ni analizatorlari ham bora rivojlanib boradi. Sezgi organlari atrofimizdagi dunyoni bilishda asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi. Bu xususan bog'cha yoshidagi bolalarga taa'luqlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Usmonov, S. A. (2020). Opportunities with working ability children in education. In *Psixologicheskoe zdorove naseleniya kak vajnbij faktor obespecheniya protsvetaniya obshchestva* (pp. 298-300).
2. Usmonov, S. A. (2020). Problems and solutions with working ability children. In *Psixologicheskoe zdorove naseleniya kak vajnbij faktor obespecheniya protsvetaniya obshchestva* (pp. 177-179).
3. Usmonov, S. A., & Xoldaraliyeva, A. A. Q. (2021). Talaba yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalashning psixologik tamoillari. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 73-77.
4. Usmonov, SH. A., Zakirova, M. S., & Nuriddinov, R. S. O'. (2021). Ilk o'spirinlik davrida aqliy qobiliyatlarning empirik tahlili. *Sovremennoe obrazovanie*

PEDAGOGIK TEXNLOGIYALARNING VAZIFALARI VA MAQSADI

**Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna
Xusanova Mashhura
Qo'qon universiteti Boshlang'ich talim
Yo'nalishi 2-kurs talabasi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonida faollashtiruvchi jadallashtiruvchi pedagogik texnologiyalarning ahamiyati, pedagogik texnologiyalarning maqsad va vazifalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, o'quvchi, pedagogik texnologiya, jadallashtirish, faollik.

Ta'lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat ta'limni modernizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi hamda yangi ta'lim texnologiyalari va resurslarini ishlab chiqishga, ularni sinovdan o'tkazishga hamda ta'lim jarayoniga joriy etishga qaratilgan. Eksperimental va innovatsion faoliyatni amalga oshirish tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari innovatsion o'quv dasturlari va loyihalarini amalga oshirish hamda ularning natijalarini amaliyotga joriy etish uchun o'z vakolatlari doirasida shart-sharoitlar yaratadi.

Iqtisodiy rivojlanish va innovatsion faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, davlat tomonidan oliy ta'lim tashkilotlari olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish uchun tegishli shart-sharoitlar, shuningdek oliy ta'lim tashkilotlari ta'lim jarayonining yanada takomillashtirilgan shakllariga bosqichma-bosqich o'tishi uchun imkoniyatlar yaratiladi. Ta'lim tashkilotlari eksperimental va innovatsion faoliyatda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishi mumkin

Hozirgi paytda pedagogika fanida pedagogik texnologiyalar, ta'lim texnologiyasi, o'qitish texnologiyasi iboralari tez-tez tilga olinmoqda. Bugungi kungacha pedagogik adabiyotlarda, ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar, rasmiy hujjatlarda «yangi pedagogik texnologiya», «ilg'or pedagogik texnologiya», «zamonaviy ta'lim texnologiyasi» ga oid tushunchalari hali ham bir qolipga tushirilmagan, entsiklopediyalarda izohlanganicha yo'q, uning mazmunini yagona talqini ishlab chiqilmagan va shuning uchun iboraning bir-biridan farqlanuvchi ko'pgina ta'riflari mavjud.

Pedagogik texnologiya - shunday bilimlar sohasiki, ular vositasida uchinchi ming yillikda davlatning ta'lim sohasidagi siyosatida tub burilish yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, o'quvchi va talaba yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, isonparvarlik tuyg'ulari tizimi shakllantiriladi. Hozirgi ta'lim-tarbiya sohasida keng rivojlanib borayotgan yo'nalishlardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan iborat. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o'z bilim va tajribalarini o'sib kelayotgan avlodga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu jarayonda asosan inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan avlodga uzatish amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiyaning har turli ta'riflari mavjud bo'lib, har bir ta'rif ma'lum nuqtai nazardan yondashishni ifodalaydi. Ayrim asosiy ta'riflar va ularning sharxlarini ko'rib chiqamiz. Pedagogik texnologiya-barkamol insonni shakllantirish faoliyati. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamalakatlarda o'quvchilarning o'quvva ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayoniningsamaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida kattatajriba qo'llangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Asosiy maqsad: Respublikamizning ta'lim muassasalarida faoliyatko'rsatayotgan yosh istiqbolli pedagog xodimlarga zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni o'rgatish, pedagogika va psixologiyafanlariga

oid bilimlarini yanada mustahkamlash va olgan bilimlarinio'quv-tarbiya jarayoniga qo'llay olishlariga erishish, shuningdek, ularga pedagogik mahurat sirlarini ochib berish, pedagogik va axborot texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda pedagog- o'qituvchilarning kasbiy malakasi va mahoratini oshirishga amaliy yordam ko'rsatish. Demak, "Ta'lim jarayonini faollashtirish va jadallashtirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar" ni qo'llashdan maqsad:

-bo'lajak mutaxassislarni mavjud pedagogik qonuniyatlar va aniq shartsharoitga, asosan ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash samarali metod va vositalarni tanlashga o'rgatishdan iborat. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning vazifasi:

-bo'lajak o'qituvchilarga pedagogik texnologiya, rivojlangan mamlakatlar ilg'or pedagogik texnologiyasi. Talabalarga nazariy bilim berishda:

-pedagogik jarayonni loyihalash:

-ta'lim-tarbiya maqsadi, mazmunini va optimal metodlarini qo'llash

Ko'nikma va malakalarini shakllantirish:

-pedagogik diagnostika qobiliyatini o'stirishdan iborat.

O'quvchi shaxsi, uning mustaqil bilish faoliyati ta'lim jarayonida rivojlanib borishi tufayli ta'lim metodlarini takomillashtirishga ehtiyoj tug'iladi. SHu tariqa ta'lim jarayonini mazmunan umumlashtirish kontseptsiyasi, muammoli ta'lim, aqliy faoliyatni bosqichlab shakllantirish nazariyasi, ta'limda hamkorlik faoliyati, kabi g'oyalar yuzaga keladi. Bu hol avtoritar pedagogika o'z o'rnini hamkorlik pedagogikasiga berishini taqozo etadi. Endi o'qituvchi o'quvchining rahnamosi, eng yaqin odami, hamdardi. SHuning uchun ham ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar jadal sur'atlar bilan kirib bormoqda.

Ta'limda interfaol metod- bu o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida ta'limni o'zlashtirish munosabatlarini yanada kuchaytirish, faollashtirish demakdir. Pedagogik texnologiya ta'lim tizimida mazmunan unga tegishli bo'lgan dasturlar, darsliklar va o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali qurollar va texnik vositalarni umumlashtirish jarayonidir.

O'quvchilarda hissiyot dinamikasini maqsadga muvofiq ravishda yo'naltiruvchi milliy g'oyani o'zlashtirishga undovchi turli adabiy kechalar, uchrashuvlar tashkil qilish, u yoki bu davrdagi ishtirokchilar faolligini oshirishga xizmat qiluvchi barcha ta'limiy va tarbiyaviy metodlardan oqilona foydalanish bilim samaradorligini oshirishning muhim omilidir. O'quvchilarni boshlang'ich sinflardan oqilona interfaol pedagogik texnologiyalarning ular yoshiga mos elementlarini qo'llab darslarni tashkil etish o'quv jarayonini faollashtirish va jadallashtirishda katta ijobiy natijalar berayotganini ko'rsatadi. Interfaol pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarning afzalliklari shundan iboratki, bunday darslar tizimi tafakkurni charxlaydigan, Vatanga cheksiz muhabbat, sadoqatni, fuqarolik axloqi va demokratik madaniyatni shakllantiruvchi fan asosi bo'lib xizmat qiladi. Fanlarni o'qitishda "Guruhlar bilan ishlash", "Munozara", "Muammoli o'qitish", "Aqliy hujum" kabi metodlar, shuningdek jadvallar bilan ishlash, mustaqil fikrni ifodalaydigan yozma ishlar, insholar yozish o'quvchilar faolligini oshiradi. Bu metodlar asosida olib borilgan ana shunday darslar vaqt tejamligini bilan birga, yangi bilimlarni o'quvchiga yetkazib beradi, shuning bilan birga bolani o'ylantiradigan, chuqur mushohadaga undaydigan, butun diqqat e'tiborini o'ziga jalb qila oladigan, muammoli vaziyatlar, bahs-tortishuvlarda to'g'ri xulosalar bilan vaziyatdan chiroyli chiqib keta oladigan va olgan bilimlarini boshqa mavzular bilan bog'lab, umumlashtiradigan sharoitga ega bo'ladi. O'quv jarayonida o'quvchilar faolligini oshiruvchi o'qitish metodlaridan biri "Kichik guruhlarda ishlash" metodidir. Bunda o'quvchilar kichik guruhlarga bo'linib ishlaydilar va bu jarayonda har bir guruh bir-biridan o'rganishga, o'rganganlarini o'z salohiyatlari doirasida baholashga, turli vaziyatlarda bilimlarni qadrlab, xulosa chiqarishlariga imkon yaratiladi. Ushbu metodni quyidagicha qo'llash mumkin:

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Muammodan bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.

2. Kerakli asos yaratiladi. O'quvchilar mazkur muammo haqida tushunchaga ega bo'lishlari kerak (ta'limning bu metodida rangli, lavhali suratlar, mavzuga oid 5-6 daqiqalik ekranlashtirilgan hujjatli filmlar namoyish etilib, qaltis vaziyatlarda "SHu holatda men nima qila olar edim?", "Nima qilmoq to'g'ri bo'lardi?" kabi).

3. Guruhlar belgilanadi. O'quvchilar 5-6 ishtirokchidan iborat guruhlar tuziladi. Aniq ko'rsatma, topshiriq bo'yicha ishga kirishiladi.

4. O'qituvchi har bir guruh faoliyatini qo'llab-quvvatlab, yo'naltirib turadi.

5. Dars yakuni muhokama qilinadi, o'quvchilar baholanadi, rag'batlantiriladi. Munozara metodida esa har bir o'quvchi muammoli masala ustida ishlaydi. Guruh qatnashchilarining har bir a'zosi o'z fikrini erkin aytish imkoniyati sharoiti yaratib berilishi kerak. So'ng qatnashchilar bildirgan fikr va munosabatlar guruhlashtirilib, tahlil qilinadi. "Aqliy hujum" biror muammoni yechishda ishtirokchilar tomonidan bildiriladigan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum yechimga kelinadigan eng samarali metoddir. Bu metod orqali shaxsni ijodiy-texnik qobiliyatini o'stirish, rivojlantirish, ularning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish mumkin. Buning uchun ishtirokchilarga, haqiqatdan yiroq bo'lgan takliflarni qabul qilsalar ham, ijodiy yondoshishlari uchun yordam beriladi; hamma fikr va takliflar, ular qanchalik g'ayrioddiy tuyulmasin, yozib boriladi; vaqt belgilanadi, bir-birlari bilan ishlab chiqqan takliflar o'rtoqlashadi. Bu metodni qo'llash rivojlangan davlatlarda yaxshi natijalar bergan. O'quv jarayonida insonparvarlik tamoyiliga mos eng ilg'or zamonaviy texnologiyalar, ya'ni izlanish, ishchan o'yinlar, "Guruhli bahs" kabi metodlardan mohirlik bilan foydalanish o'z samarasini beradi. Masalan, adabiyot darslarida ijodiy o'qish metodi tarkibida o'qituvchining ifodali o'qishi, o'quvchilarning ifodali o'qishi, taqqoslash, badiiy idrok etish usullari qo'llaniladi va u evristik suhbat bilan aloqada olib boriladi. Reproduktiv metod esa o'qituvchining axboroti, bilimlarni o'quvchilarga yetkazishda muammoli vaziyatlar yaratib, ularni ijodkorlikka, mustaqil fikrlashga yo'naltirishda yuqori natija beradi. Bunda o'quvchilar asarlarni tahlil etishda induktiv va deduktiv metod, ya'ni oddiydan murakkabga va aksincha, murakkab vaziyatlardan oddiyga qarab boriladi. Eng avvalo, o'qituvchi o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish uchun darslarning mazmun va sifatiga e'tibor beradi. Buning uchun bolalarni fikrlashga, ularni faollashtirishga harakat qiladi. O'quvchini tayyor bilim qabul qiluvchi emas, balki sinfda o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish uchun munozara qilishga yo'llaydi. Xulosa qilib aytganda o'quv jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirova, M. (2020). Psixologiya fanlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni va ahamiyati. Архив Научных Публикаций JSPI.

2. Qodirova, M. (2020). Bolalar idrokini rivojlantirishda mashg'ulotlarning o'rni. Архив Научных Публикаций JSPI.

3. Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo'lib, u ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Mohigul Olimjon

4. Qizi Shamsiyev ABDULLAYEVA SHAXZODA ABDULLAYEVNA ASKAROV ABROR DAVLATMIRZAYEVICH UMUMIY PEDAGOGIKA

5. INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR TA'LIM TARAQQIYOTINING ASOSIY KUCHI VA TUTGAN O'RNI G.D.Tosheva B.Toirov

6. Pedagogika o'qitish metodikasi Pedagogika o'qitish metodikasi Ko'rganlar, jami: 12905 Janr/bo'lim: Pedagogika, Darsliklar, Fan va ta'lim Muallif: O'tkir Yo'ldoshev

ZAMONAVIY TA'LIMDA ERTAKLARNING O'RNI

Xusanova Sadoqat
Namangan Davlat Pedagogika Instituti
Maktabgacha ta'lim yonalish talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola hozirgi kunda zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimida ertakning o'rni qay darajada muhurligi hamda u yordamida qanday yutuqlarga erishishimiz va u bo'lmasa qanday yo'qotishlar bo'lishi haqida aytib o'tilgan. Kelajagimizni o'z qo'liga ola biladigan va vatanparvarlik ruhida kamol topadigan, dunyoqarashi teran va iqtidorli xalqiga foydasi tegadigan yosh avlodni tarbiyalash haqida.

Kalit so'zlar. Ertak, zamonaviy ta'lim, texnika, dunyoqarash, ekologiya, orzu, kelajak, internet.

Kirish. Zamonaviy ta'limimizda ertaklar bilan boshlang'ich, ya'ni maktabgacha yoshdagi bo'lgan bolalarni o'qitish bu kelajagimiz uchun muhim va mustahkam poydevor vazifasini o'taydi. Zero, yoshligidan ertak eshitib ulg'aygan bolaning, so'z boyligi, dunyoqarashi, fikrlashi va intiluvchanligi boshqa bolalarga nisbatan ancha boy. Ertaklar bolalarga orzu va umid qilishni juda nafis tarzda o'rgatadi, shu sababdan maktabgacha bo'lgan davlat tashkilotlarida hamda nodavlat tashkilotlarida ertak yordamida tarbiyani ilgari sursak bolalarimiz kelajakda misli ko'rilmagan yutuqlarga erishishlari mumkin bo'ladi.

Bugun biz texnika asrida yashayapmiz. "Samalyot, raketa nima ekanligini yaxshi bilasiz, hatto havoda uchadigan samalyotning kichik nusxasining yasab beraman desangiz men ishonaman. Sababi ommaviy axborot vositalarida, ya'ni internet, gazeta va jurnallarda ularni qanday yasalishi ko'rsatilgan. Hech o'ylab ko'rganmisiz bu narsalarni yaratgan olimlar, ular haqida ma'lumotni yoki ilk taassurotni qayerdan olishgan?.."

Ushbu sirni, sizlarga ochsam o'sha olimlar ko'pgina kashfiyotlariga asos bo'lgan g'oyalarni aynan xalq ertaklaridan olishgan!. Bunga dalil isbotlardan biri «Uchar gilamdir». Axir uchar texnik vositalar xaqidagi tushunchani paydo bo'lmasdan turib, juda qadimda insonlar osmonga parvoz qilish haqida o'ylay boshlashgan.

Ertaklar qadimda yashagan ajdodlarimizning umid va armonlari, degan misralar bu qatorlarimizga yana bir dalil tarzida olsak bo'ladi.

Ertaklar yaxshilikka yetaklar, ha albatta, bu gaplarda jon bor, haqiqatdan ham ular bizga yaxshilik tomonida xizmat qiladilar. Bolalar dunyoqarashini, so'z boyligini oshiradi shu bilan birgalikda ekologiya va atrof muhitni asrash, egri va to'g'rini ajratish, fikr yuritish, taqqoslash, oq va qorani ajratishni va shunga o'xshash bir qancha foydali ma'lumotlar bilan bolalarimiz tarbiyasiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi, bu sanab o'tilgan hislatlar faqatgina dengizdan bir tomchi xolos. Ertaklar bolalar o'y-xayollari bilan bog'liq, shu sababdan ertaklar yordamida berilgan tarbiya, bolaning qon-qoniga singib ketadi. Ertak o'qib berish, bolaning ilk kunlaridan boshlansa, bolada atrof muhitiga qiziqish ortadi, izlanuvchan va bilimga chanqoq bolib voyaga yetadi, shu bilan birga biz farzandlarimizni hayotini zaharlanishdan oldini olgan bo'lamiz.

Zaharlanish deb nimani nazarda tutiladi? Bugungi kunda ko'p joylarda bolalarga ertak kitob o'rniga uyaliy aloqa qurilmalari berib, farzandimizni mana shu texnikaga mahbus qilib bog'lab beryabmiz. Qanday achinari o'z kelajagimiz bo'lgan bolalarimizni o'zimiz zaharlayotgan bo'lsak, bunday bolalar o'z fikriga va dunyoqarashiga ega bo'lmagan yigit va qiz bo'lib voyaga yetadilar. To'g'ri uyaliy aloqalar, texnika va internet hayotimizga kirib kelgandan buyon ko'p o'zgarishlar bo'ldi, foydali taraflari ham talaygina lekin bu, men va sizni kundalik hayotimizda kerak bo'layotgan bu buyumlar, jaji farzandlarimizni hayollarini zaharlab kelmoqda. Aqlini taniy boshlagan ilk kunlaridan bolalarimizga, atrof muhit bilan tanishtirish va odob axloqni o'rgatish, u bilan birga o'ynash vaqt o'tkazish o'rniga unga uyali aloqalarni

qo'liga tutqazib qo'yamoqdamiz, natijada esa bolalar injiq, quloqsiz va real hayotga qiziqishlari so'nib bormoqda.

Bugungi kunda MTTlarda turli zamonaviy metodlardan foydalanishadi, ular bolalarni kompleks rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bolalar tez-tez beradigan nega? Nima uchun? Qanday? Degan savollarga ertaklar orqali javob berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi, sababi ertak bu bola tili, va biz ularga o'zlarining tilida ularni ruhiyatlariga ta'sir ko'rsatmagan holda javob beramiz.

Mazkur metod samarali natija beradi, sababi bolalar taqlid qilishga juda usta bo'lishadi va o'zlari eshitgan yoki ko'rgan yaxshi personaj yoki insonlarga taqlid qilib ularga o'xshashga harakat qiladilar. Jumladan, «Sichqon va qalam» ertagi, ushbu ertak soddaligi va yorqin xarakterlari o'ziga jalb qiladi, ulardan biri yaxshilikni, ikkinchisi yomonlikni o'zida mujassam etadi, bolalarni fikrlashga va rasm chizishga, diqqat bilan tinglashga, narsalarni anglashga, hamdardlikka va yovuzlikka qarshi turishga o'rgatadi. «Ur toqmoq» ertagi adolatsizlik, inso'fzizlik, zulm va zo'rlik kabi yomon illatlar haqida bolalarda tushuncha uyg'otadi. «Bulbul» ushbu ertak G.H.Andersen qalamiga mansub bo'lib u bolalarga oliyjanoblik, mehribonlik, hamdardlikga o'rgatadi va qiziqishni orttiradi.[1] Ko'rib turganimizdek, bunday ertaklarda bolalar bilim va ko'nikmalarni oson o'zlashtiradilar. Oydinlik kiritish maqsadida bu metod yordamida qanday vazifalarni amalga oshirishimiz mumkinligini sanab o'taman.

Demak bu metod bizga quyidagi vazifalarni amalga oshirishni ta'minlaydi.

- Bolalarda to'g'ri va ifodali nutqini rivojlantirish.
- Sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sog'lom va to'g'ri ovqatlanish.
- Atrof-olam, tabiat va san'at bilan tanishtirish.
- Ijodiy qobiliyat, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.
- Bolalarni aqliy va axloqiy tarbiyalash.
- Bolalar o'rtasidagi nizoli vaziyatlarni o'zaro hamkorlida yechish.

Yana shuni aytishimiz mumkinki ertaklar yordamida bolalar uchun muloqot muhiti yaraladi va bola o'zini har doimgidan ko'proq hotirjam sezadi, va tengdoshlari bilan birgalikda muloqot qilishga tortinmaydi. Bu esa kelajakda jamiyat bilan birga uyg'unlashib ketish ehtimolini oshiradi bolada o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'usi ortadi.

Mamlakatimiz kelajagi bo'lmish yoshlarimizni Har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli shaxs va komil inson sifatida tarbiyalash o'zimizning qo'limizda ekanligi yaqol ko'rinib turibti, shu sababdan barchamiz birlashgan holda bolalarga ilk kunlaridan uyali aloqa emas balki ranglarga boy rasmlarga boy ertak kitob beraylik, ularning bolalarga xos dunyoqarashini sindirmay yanada rivojlantiraylik va yurtimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodlarimizni qo'llaridan tutib ezgulik tomon yo'naltiraylik.

Xulosa va Takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, yurtimizdagi bolalar tarbiyasida ertakning o'rnini juda katta. Bir shaxs oddiy inson bo'lib emas jamiyatimizga, avvalambor esa o'ziga oilasiga foydasi tegadigan inson bo'lib kamol topishda ertaklarning o'rnini almashib bo'lmas darajada beqiyosdir, sababi ertaklar bir shaxsning dunyoqarashini tubdan o'zgartirib yuboradigan darajada kuchga ega va bu kuchni asrlar davomida avlodan-avlodlarga meros qilib berib kelmoqda. Shu sababdan ham ertaklarning o'rnini bo'lakcha bo'lib, u qoldirgan bo'shliq bo'shligicha qo'lib ketmoqda, bu bo'shliqni to'ldirish yoki bo'shligicha qoldirish esa o'zimizni qo'limizda.

Ertak bu tarbiyaning nafis ko'rinishi, hissiyotlarga, hayajonlarga boy bolalar olami va biz bolalardan uni tortib olib uning o'rniga aqlini taniy boshlagan ilk kunlaridan texnikalarga almashtira olmaymiz.

Hozirgi kunda yurtimizdagi barcha davlat va nodavlat Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida alohida ertakchi ishchi o'rnini yaratish. Ertakchining vazifasi bolalarni o'zbek xalq ertaklari va jahon xalq ertaklarini barchasi bilan yaqindan tanishtirish, uning ma'nosini, mazmunini

tushuntirish, dunyoga teran nigoh bilan qarashni, orzu qilishni, fikrini ravon va ifodali tarzda bayon qilishni o'rgatishdan iborat bo'ladi. Ertakching tarbiyachidan farqi, tarbiyachi ko'p mashg'ulotlardan dars o'tadi, bolalar o'z tarbiyachisini har kuni kun davomida korgani sababli bolalarda zerikkish paydo bo'lib xarxasha qilish boshlanadi, bu esa tarbiyachining jismoniy zo'riqishiga olib keladi, bolalar biror bir narsadan tez zerikkishini bilamiz, shu sabab ertakchi bolalar bilan bir kunda bir marotaba bitta, yoki ikkita ertakni o'qib uning mohiyatini tushuntirib bersa bolalarda yanada qiziqish ortadi, dunyoqarashi kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov S. va boshqalar. Adabiyot: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik – T.: "Sharq". –Toshkent. 2015. –B.118
2. Maktabgacha ta'lim jurnali 04/21. 12-bet
3. Zamonaviy ta'lim jurnali 02/22. 11/21.
4. Jon Kexo, Nensi Fisher «Bolalar taffakur qudrati»

O'QUV AMALIYOTLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLARIDAN FOYDALANISHDA DIDAKTIK IMKONIYATLARI

**Yangiboyev G'iyos Ruziqulovich
Osiyo xalqoro universiteti magistranti**

Annatotsiya: Ushbu maqolada talabalarning savodxonligini rivojlantirishda interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari doir ilmiy-metodik tavsiyalar berilgan. Maqolani ilmiy jihatdan yoritishda ayrim interfaol metolarni mazmuni mohiyati hamada ayrim interfaol metodlarni qo'llanishi bo'yicha ilmiy-metodik didaktik tavsiyalarmizni bayon etganmiz.

Kalit so'zlar: interfaol metod, grafik savodxonlik, xalq amaliy sa'nat, innoavsiya, didaktika, o'qitish metodkasi.

Bugungi milliy pedagogikaga «interfaol metodlar» nomi bilan kirib kelayotgan metodlar talaba-o'qituvchidan ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Qisqa vaqt mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni talabaga etkazish, unda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma, malaka hosil qilish, shu bilan birga ularni nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat va chaqqonlikni talab qiladi. Bugungi kunda qator rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilayotgan "Aqliy hujum", "6x6x6", "Klaster", "Qarorlar shajarasi" singari metodlarning ayrimlaridan ijodiy qobiliyatni rivojlantirishdagi badiiy asar tahlilida ham foydalanish mumkin. Aslini olganda, bu metodlarning ta'limdagi mantiqiy metodlardan farqi uncha katta emas. Masalan: O'qitishning to'rt pog'onali usuli bu usul AQSh da paydo bo'lib sanoat korxonalarida konveerli ishlab chiqarish ko'paygan sari shunday o'rgatish usullari zarur bo'lib qoldiki, ishchilar bir xilda qaytariladigan qo'l ko'nikmalarini iloji boricha tez va mukammal ravishda o'rganib olishlari kerak edi. Bu usulda amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni to'rt pog'ona doirasida kechadi. Bu pog'onalarining nomi: "Tushuntirish", "Nima qilish kerakligini ko'rsatib berish", "Ko'rsatilgan tarzda qaytarish", "Mashq qilish". Ya'ni amaliyot o'qituvchisi talabalarga avval kichikroq bir ish bosqichini tushuntirib beradi, keyin nima qilish kerakligini qilib ko'rsatadi. So'ng talaba shu ish bosqichini ko'rsatilgan tarzda qaytarishi (imitatsiya qilishi) kerak [1]. Talaba qaytarib qilayotgan paytida amaliyot o'qituvchisi xatolarini to'g'rilab turadi (maqtaydi yoki tanqid qiladi).

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi qaror topdi. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o'quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Interfaol o'qitish metodlari- (Interfaol tushunchasi ingliz tildan "interact"(rus tilida interaktiv) so'zidan olingan bo'lib, ikki taraflama harkat qilmoq ma'nosini anglatadi) bu ta'lim shakllarini optimizatsiyasini o'ziga maqsad qilib olgan inson va texnik resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil etish, qo'llash va aniqlashning hamda bilimlarni o'zlashtirishning uslublaridir. Interfaol o'qitish metodlari paydo bo'lgunga qadar ta'lim tizimi doirasida ta'lim jarayonini yetarli samarali loyihalash qoidasi ishlab chiqilmagan. Interfaol o'qitish metodlarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishda o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, yuzalikda emas, balki rejalashtirilgan natija olish imkonini beruvchi konstruktiv, ko'rsatmali sxemada o'z ifodasini topadi. Maqsadga yo'naltirilganlik, jarayon natijalarini tashxisli tekshirish, ta'limni alohida o'rgatuvchi qismlarga bo'lib tashlash o'quv jarayonining qirralarini bugungi kunda ta'limni qayta ishlab chiqish sikli g'oyasiga birlashtirish imkonini beradi.

U asosan o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- ta'limda umumiy maqsadning qo'yilishi;

- tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o'tish;
- pedagoglarning bilim darajalarini dastlabki baholash;
- bajariladigan o'quv ishlarni majmuasi;
- natijani baholash[2].

To'rt pog'ona usuli doirasidagi harakatlar to'rt pog'ona deb quyidagi pog'onalar ataladi. Ular davomida bir amaliyot o'qituvchisi bir talaba harakat qiladi:

1-pog'ona: Amaliyot o'qituvchisi nima qilish kerakligini tushuntiradi. U talabalarga ma'lum bir ish bosqichi yoki bir ko'nikmani qo'llash uchun kerakli barcha ma'lumotlarni beradi. Talabalar esa amaliyot o'qituvchisi og'zaki tushuntirishlarini tinglashadi.

2-pog'ona: Amaliyot o'qituvchisi tushuntirilgan ish bosqichi qanday qilinishi kerakligini qilib ko'rsatadi, talabalar esa qarab turishadi. Odatda amaliyot o'qituvchisi nima qilayotgani haqida talabalarga izohlar berib boradi. Ya'ni bu yerda demonstratsiya (namoyish etish) tushunchasi ham ishlatilishi mumkin. 7 « Zamonaviy dunyoda tabiiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiyasi

3-pog'ona: Amaliyot o'qituvchisi ko'rsatib bergan ish bosqichini ko'rsatilgan tarzda qaytaradilar. Amaliyot o'qituvchisi ular qilayotgan ish yuzasidan o'z fikrini bildirib, xatolarni to'g'rilab turadi.

4-pog'ona: Har bir talaba ish bosqichini ko'rsatilgan tarzda qaytarib, ko'rganidan va ish bosqichini to'g'ri bajarish bo'yicha amaliyot o'qituvchisining izohlarni tushunganidan keyin, bu ish bosqichi ko'p marotaba mashq qilinadi va kerakligicha, ya'ni maqbul natijaga erishilmaguncha takrorlanadi. Bundan keyin amaliyot o'qituvchisi keyingi ish bosqichiga o'tadi.

Bu bosqich ham 4 pog'onadan iborat. Bu 4 pog'ona usulining asosiy belgisi shuki : – amaliyot o'qituvchisi tomonidan boshqarilgan nazariy va amaliy ma'lumot berish davrlari (fazalari) eng boshida turadi so'ng esa talabalarining harakatlari bilan almashinadi; – talabalarining harakatlari amaliyot o'qituvchisi ko'rsatib bergan harakatlardoirasi bilan cheklangan; – talabalar individual o'rganishga (o'zlashtirishga) yo'naltiriladilar lekin mustaqil fikrlashga haqlari yo'q; – ish tashkillashtirishi (ish tartibi) odatda hech qanday yangicha yondashuvlarga yo'l qo'ymaydi[3]. Masalan, "Aqliy hujum" metodining maqsadi talabalarining mashg'ulot jarayonidagi faolligini oshirish, ularni erkin, ijodiy faoliyatga undash, ma'lum mavzu yuzasidan har xil masalaga ijodiy yondashuvni ta'minlashdan iborat. Bu metoddan foydalanilganda favqulodda, kutilmagan savol yoki topshiriq bilan talabaning ongiga, shu uriga "hujum" qilinadi va ular loqaydlikdan, muvozanatdan chiqariladi. Talabalar o'z oldilariga qo'yilgan muayyan masala bo'yicha mulohaza yuritadilar. Masala atrofida ishlayotgan, kompozitsiya tayyorlayotgan har bir talaba tomonidan aytilgan g'oyalar rag'batlantirish, qayd etib borish, har bir ishtirokchining erkinligini ta'minlash, asar mualliflari tomonidan asoslanishini talab qilish talab qilinadi. Talabalar tomonidan bajarilgan ijodiy ishni alohida baholash, ularni tanqid qilish yoki g'oyalaridan kulish ta'qiqlanadi. Xulosa o'rnida shularni ta'kidlashimiz lozimki talabalarining grafik savodxonligini rivojlantirishda interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari quyidagilardan iborat bo'ladi. 8 « Zamonaviy dunyoda tabiiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiyasi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'.Muxamedov, M.H.Usmanboev, S.S.Rustamov., Ta'limni tashkil etishda interfaol metodlar: O'quv-uslubiy tavsiyalar -T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,2016.- 4 bet.
2. U. Inoyatova va boshqalar: Pedagogikadan 1000 savolga 1000 javob T. TDPU 2013 yil 127 b.

3. Benjamin Bulm et at., eds., taxonomy of Educatijnal objectives, Handbook J: Cognitive (New York: MK Kay, 1956)

4. Bo'riboeva Dilraxon norboy qizi- Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning grafik savodxonligini oshirish metodikasi (muxandislik grafikasi fanlarini o'qitish metodikasi misolida) mavzusi bo'yicha magistrlik dissertatsiya. T.: TDPU 2021.

**TA'LIM TIZIMI BOSHQARUVINI ZAMONAVIY MENEJMENT YONDASHUVLARI ASOSIDA
TAKOMILLASHTIRISH**

**Yuldasheva Yulduzxon Muhamedovna
Qo'qon Universiteti Ta'lim menejmenti va
boshqaruv yo'nalishi 1-kurs magistranti**

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda ta'lim jarayoni yangi Uyg'onish davri pedagogikasi tamoyillariga asoslangan zamonaviy yondashuvni talab qiladi, bunda asosiy e'tibor talabning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatiga moslashtirilgan shaxsiy ta'limga qaratilgan. Talabalar zamonaviy dunyoning tez sur'atlarda muvaffaqiyat qozonishi uchun ta'lim jarayonini innovatsion boshqarish talab etiladi. Ushbu maqolada biz yangi Uyg'onish davri pedagogikasi sharoitida zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida ta'lim jarayonini boshqarishning shakllanishini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: menejmentni shakllantirish, ta'lim jarayoni, zamonaviy boshqaruv yondashuvlari, Yangi Uyg'onish davri pedagogikasi.

Zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida ta'lim jarayonini boshqarishni shakllantirish yangi Uyg'onish davri pedagogikasining hal qiluvchi jihati bo'lib, ta'limda ijodkorlik, moslashuvchanlik va innovatsiyalarni kuchaytiradi. Dastlab, ta'lim muassasalarini boshqarish qarorlar qabul qilish markazlashgan an'anaviy ierarxik tuzilmalarga asoslangan edi. Biroq, bu yondashuv tobora ortib borayotgan xilma-xillik, innovatsiyalar va globallashtirish bilan tavsiflangan zamonaviy ta'lim muhitlari uchun etarli emas. Shu bois XXI asrda ta'lim tizimining muammolari va imkoniyatlarini hal qilish uchun zamonaviy boshqaruv yondashuvlari zarur. Keyingi bo'limda ta'limni boshqarish uchun foydali bo'lgan ba'zi muhim zamonaviy boshqaruv yondashuvlari muhokama qilinadi. Yangi Uyg'onish davri pedagogikasi sharoitida ta'lim jarayonini boshqarishning shakllanishi an'anaviy yondashuvni tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Ta'lim jarayonini doimiy ravishda takomillashtirish va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishga e'tibor qaratgan holda yanada chaqqon va moslashuvchan tarzda boshqarilishi kerak. Yangi Uyg'onish davri pedagogikasi - bu insonparvarlik va yaxlit ta'lim tamoyillariga asoslangan ta'limga innovatsion yondashuv. Bu yondashuv butun insonning jismoniy, hissiy va intellektual jihatlarini o'z ichiga olgan holda rivojlanishiga qaratilgan. Yangi Uyg'onish davri pedagogikasi 21-asrning o'zgaruvchan voqeligiga javob beradigan yanada sezgir va moslashuvchan ta'lim tizimini yaratish uchun mo'ljallangan. Yangi Uyg'onish davri pedagogikasining asosiy xususiyatlaridan biri o'qituvchining rolini o'zgartirishdir. Bunday yondashuvda o'qituvchi shunchaki bilim berish emas, balki o'quvchiga o'quv jarayoniga yo'l ko'rsatuvchi, o'rganishga yordam beruvchiga aylanadi. O'qituvchi murabbiy va murabbiy sifatida ishlaydi, talabaga yordam va fikr-mulohazalarni taklif qiladi, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Yangi Uyg'onish davri pedagogikasining asosiy tamoyillaridan biri xilma-xillikni qabul qilishdir. Bu tamoyil ta'lim jarayonini boshqarishda, har bir o'quvchining individual ehtiyojlari va xohish-istaklarini hisobga olgan holda qo'llanilishi kerak. Bunga shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasini ta'minlovchi moslashuvchan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali erishish mumkin. Yangi Uyg'onish davri pedagogikasining yana bir asosiy tamoyili ijodkorlik va innovatsiyani rag'batlantirishdir. Bu tamoyil ijodkorlik va innovatsiyalarni rag'batlantiradigan muhitni yaratish orqali o'quv jarayonini boshqarishda qo'llanilishi kerak. Bunga hamkorlikdagi ta'lim yondashuvlaridan foydalanish, loyiha asosidagi ta'lim, muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali erishish mumkin. Ta'lim jarayonini boshqarish ham asosiy e'tiborni ko'nikma va bilimlarni o'zlashtirishga qaratgan holda doimiy takomillashtirish muhitini yaratishga qaratishi kerak. Bunga samaradorlik

ko'rsatkichlaridan foydalanish, fikr-mulohaza va murabbiylik, ta'lim madaniyatini rivojlantirish orqali erishish mumkin.

Umumiy sifat menejmenti. Umumiy sifat menejmenti (Total Quality Menejment (TQM)) - bu ta'lim tizimini doimiy ravishda takomillashtirish va rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydigan boshqaruv yondashuvi. Bu o'qituvchi va talabalarni qamrab olgan yondashuv bo'lib, o'qitish jarayonining sifati va dolzarbligini doimiy ravishda oshirishga qaratilgan. TQM ta'lim muassasalarining sifatni idrok etish uslubini reaktiv yondashuvdan faol yondashuvga o'zgartirishni talab qiladi. Ushbu yondashuv, ayniqsa, bugungi kunda tez o'zgaruvchan ta'lim landshaftida dolzarbdir.

Innovatsiyalarni boshqarish. Innovatsiyalarni boshqarish ijodkorlikni rivojlantirish va ta'lim tizimida tajriba va izlanishlarni rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Innovatsiyalarni boshqarish ta'lim muassasalariga texnologik yutuqlar va ta'lim tendentsiyalaridan xabardor bo'lish imkonini beradigan ijodkorlik va tajribalar rivojlanishi mumkin bo'lgan muhitni yaratishga intiladi. U doimiy ravishda talabalar bilimini yaxshilash va turli manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda hamkorlikni rivojlantirishning yangi usullarini izlaydigan tizimlarni yaratishni o'z ichiga oladi.

Tizimli fikrlash. Ta'lim jarayonini samarali boshqarish ta'lim tizimini bir butun sifatida ko'rib chiqadigan tizimli fikrlash yondashuvini qo'llashni talab qiladi. Tizimli fikrlash ta'lim tizimining turli tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni aniqlashga yordam beradi, bu esa murakkab ta'lim jarayonlarini yaxshiroq tushunishga olib keladi. Tizimli fikrlash yondashuvi jarayonlarni uzluksiz takomillashtirishni ta'minlaydi, chunki u bir vaqtning o'zida ta'lim tizimining turli qismlariga ta'sir qiladi. Ta'lim menejerlari o'zgarishlar zarur bo'lgan sohalarni aniqlashlari va tizimli fikrlash yondashuvidan foydalangan holda ularni samarali hal qilishlari mumkin.

Hozirgi ta'lim manzarasi o'qitish jarayonida ijodkorlik, innovatsiya va hamkorlikni rivojlantirish uchun zamonaviy boshqaruv yondashuvlaridan foydalanishni talab qiladi. An'anaviy ierarxik tuzilmalar va markazlashtirilgan qarorlar qabul qilish asosida ta'lim muassasalarini boshqarish XXI asrda ta'lim tizimlari uchun endi etarli emas. Shu bois ta'lim muassasalari o'quv jarayonlarini boshqarishda yanada moslashuvchan va innovatsion yondashuvni qo'llashlari kerak. Umumiy sifat menejmenti, innovatsiyalarni boshqarish va tizimli fikrlash kabi zamonaviy boshqaruv yondashuvlaridan foydalangan holda ta'lim muassasalari o'qitish jarayonining sifati va dolzarbligini oshirishi hamda o'quvchilar, ota-onalar va jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlarini qondirishi mumkin. Umuman olganda, yangi Uyg'onish davri pedagogikasini qo'llab-quvvatlovchi ta'lim jarayonlarini samarali boshqarish uchun zamonaviy boshqaruv yondashuvlaridan foydalanish bo'yicha ta'lim menejerlarining malakasi juda muhimdir.

Agile kabi zamonaviy boshqaruv yondashuvlari ta'limni boshqarishda qo'llanilishi mumkin. Agile boshqaruv hamkorlik, moslashuvchanlik va o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini ta'kidlaydi. Agile yondashuvi o'qituvchilarni ta'lim jarayonini samarali boshqarish uchun jamoalarda birgalikda ishlashga undaydi. Bu yondashuv o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish, ta'lim tizimini doimiy takomillashtirish va o'qituvchilarning alohida o'quvchilarning ehtiyojlariga tez javob berish qobiliyatini ta'kidlaydi. Agile-dan tashqari, Ta'lim tashkiloti kontseptsiyasi ham ta'limni samarali boshqarishga hissa qo'shishi mumkin. Ta'lim tashkiloti kontseptsiyasi doimiy o'rganish, bilim almashish va yangi ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Maktab tizimida Ta'lim tashkilotining tashkil etilishi o'qituvchilarning ta'limni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishda faol ishtirok etishiga va qarorlar qabul qilish jarayonida faolroq ishtirok etishiga yordam beradi. Ta'limni boshqarishning yana bir zamonaviy yondashuvi - bu Lean Six Sigma, bu jarayonni takomillashtirish va chiqindilarni kamaytirishga urg'u beradi. Ushbu yondashuv ma'lumotlar

tahliliga asoslangan bo'lib, o'quv jarayonidagi samarasizliklarni aniqlash va bartaraf etishda qo'llaniladi. Lean Six Sigma yondashuvi resurslarni boshqarishni takomillashtirish, xatolar sonini kamaytirish va jarayonlar samaradorligini oshirish orqali sifatli ta'limni ta'minlashga yordam beradi. Yangi Uyg'onish davri pedagogikasi sharoitida ta'lim jarayonini samarali boshqarish zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini uyg'unlashtirishni talab qiladi. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, elektron ta'lim va raqamli resurslardan foydalanish ham ta'lim jarayonining muvaffaqiyatiga katta hissa qo'shishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yangi Uyg'onish davri pedagogikasi sharoitida ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishning zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida shakllanishi maktablar uchun zamonaviy dunyoda o'quvchilarning muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlarni berishda muhim ahamiyatga ega. Agile, Learning Organization va Lean Six Sigma - bu maqsadga erishishga yordam beradigan zamonaviy boshqaruv yondashuvlari. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini zamonaviy texnologiyalar, xususan, elektron ta'lim va raqamli resurslardan foydalanish orqali ta'minlash mumkin. Yangi Uyg'onish davri pedagogikasi sharoitida ta'lim jarayonini boshqarishning zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida shakllanishi evolyutsion jarayon bo'lib, ta'limga yangi yondashuvlarni qabul qilishni talab qiladi. Bu tafakkurni an'anaviy, qat'iy yondashuvdan epchil va sezgir yondashuvga o'zgartirishni talab qiladi. TQM va Balanced Scorecard yondashuvi kabi zamonaviy boshqaruv yondashuvlarining integratsiyasi, xilma-xillik, ijodkorlik va innovatsiyalarni rag'batlantirish ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli boshqarish uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xudoyberdiyevich, X. B. (2022, April). YANGI RENESSANS SHAROITIDA PEDAGOGIKA TA'LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM DOLZARB MASALALARI. In E Conference Zone (pp. 67-70).
2. Sayibova, Z. Y. (2023). INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM SOHASIDAGI O'RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 829-834.
3. Salayeva, M., & Shayunusova, F. (2023). RENESSANS DAVRLARI NAMOYONDALARINING DUNYO TAMADDUNI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASLARI. Talqin va tadqiqotlar, 1(20).
4. Solidjonov, D. (2021). TA'LIMNING RIVOJLANISHI UCHUN DIGITAL LEARNING KONSPEKSIYASINING TENDENTSIYALARI. Scienceweb academic papers collection.

**"HAYRAT UL -ABROR"VA "MAXZAN UL-ASROR" DOSTONIDAGI HIKOYATLARNING
OBRAZLAR TAHLILI**

Shabonova Zarnigor Mirjon qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti
2-bosqich talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada Nizomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror" va Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidagi o'xshash syujetli hikoyatlar o'rganildi. Bunda Alisher Navoiy badiiyatining har tomonlama mukammal ekanligi ko'rsatib berildi.

Kalit so'zlar: karam, saxovat, himmat, Hotam Toyi, G'ishtchi chol, badiiy san'atlar, "Amr va nahiy".

Alisher Navoiy "Xamsa" sining boshlanma dostoni bo'lgan "Hayrat ul-abror" dostoni, Nizomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror" dostoniga javob tarzida yozilgan bo'lsa-da, undagi obrazlar, dostonning tuzilishi va tarkibi tubdan farq qiladi. Shunday bo'lsa-da, Nizomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror" dostonidagi ba'zi hikoyatlarning syujet va g'oyasi Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidagi hikoyatlar syujet va g'oyasiga ta'sir qilgan. Navoiy o'z salafiga hurmat ko'rsatgan. Ba'zi hikoyatlarida undan andoza olgan. Masalan: Nizomiyning "Maxzan ul-asror" dostonidagi "Keksalik vasfi" deb nomlangan beshinchi maqolatiga ilova qilingan "G'ishtchi chol" hikoyati bilan Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidagi "Karam vasfida" deya nomlangan beshinchi maqolatiga ilova qilingan "Hotami Toy" hikoyatlari go'ya va mazmun jihatdan o'zaro hamohang.

"G'ishtchi chol" hikoyatining qisqacha mazmuni shunday: "Shom tomonda bir qari chol bo'lib, g'isht quyib rizq topar edi. Bir kuni chol kechqurun ishlayotganda uning yoniga bir o'spirin kelib"

Dediki, hay-hay, bu mazallat ishi,
O'zni shu ahvolga solarmi kishi?
Bas, yetar, urma shu tuproqqa tig',
Nonini sendan kishi tutmas darig'.

deya cholga malomat qildi. Chol esa o'spirinning unga o'git qilishga yosh ekanligini aytib, o'z javobini bildirdi.

Bo'yla mashaqqat sari cho'zdim qo'lim,
Toki birov oldida qo'l cho'zmagan.
Baski birovdin so'ramam mol-u ganj,
Non-u nasibamni berar menga ranj.

deya minnatli nondan, mashaqqatli bo'lgan halol luqma afzal ekanligini yoritib bergan bo'lsa, Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonida shu hikoyatga javoban "Hotami Toy" hikoyatini keltirib, Hotamning saxovati, himmati judayam yaxshi ekanligi, lekin uning saxovatidan ham o'z mashaqqati bilan topilgan nonning qadri baland ekanligini aytadi.

Hotami Toyi Sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalgan obrazlardan biri hisoblanadi. U o'zining saxiyligi va oliyjanoblighi bilan tanilgan. Taxminan VI asr oxiri VII asr boshlarida yashagan. Arabiston va Sharq xalqlari orasida Hotami Toy (qabilasi) dan bo'lgan Hotam nomi bilan shuhrat qozongan. Uning saxovati va himmatiga qoyil qolgan payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ham Toy sharafidan uning avlodini e'zozda tutishni buyurgan.

Hikoyatning qisqacha mazmuniga to'xtalsak: "Hotami Toydan o'zingdan ham himmatliroq kishini uchratganmisan? deya bir ozodavash kishi savol berdi. Bunga Hotam shunday javob qildi. Himmat dasturxonin yozib, dashtda sayr qilib yurganimda bir mo'ysafid chol orqasida o'tin bilan ketayotgan edi unga duch kelib qoldim" va

Dasht aro go'yoki xabar bilmading,
Hotam uyi sori guzar qilmading?
Da'vat etib asru farovon bukun,
Qildi yomon-yaxshini mehmon bukun.
deya unga yuzlandim, mo'ysafid shunday javob qaytardi:

Sen dog'i chekkil bu tikan mehnatin
Tortmag'il Hotami Toy minnatin
Bir diram olmoq chekibon dastranj
Yaxshiliq andinki birov bersa ganj

deya javob berganda uning himmati menikidan ham ortiq ekanligiga amin bo'ldim degan ekan Hotam Toy.

Har ikki hikoyatda ham mashaqqat bilan topilgan rizqni, halol luqmani ustun biluvchi kishilar, qanoatli insonlar ulug'lanadi. Biroq hikoyatlarda Navoiyning tasvir ko'lami, badiiy mahorati, ifoda uslubi, falsafiy- mushohadalari birmuncha chuqurroq ekanligi seziladi. Navoiy har bir hikoyat tugallanmasida

Himmat agar bo'lsa Navoiy sanga,
Banda durur Hotami Toyi sanga.
kabi o'zining xulosaviy fikrlari va ko'pincha Soqiyga;
Soqiy, ayoq tut, karam izhor qil,
Bazlni Hotamga namudor qil.

singari murojaat qilib uni ham saxovat, himmat, qanoatga chorlaydi. Nizomiyda esa bu holatni uchratmaymiz. Navoiy badiiy mahoratining yana bir jihati shundaki, u hikoyatlarda badiiy san'atlardan ham mohirona foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan:

Jismi uyin aylabon ul yuk nigun,
Tirkabon ul uyga asodin sutun.

Baytida "Husni ta'lil" san'atini qo'llab "chol ko'targan yuk uning qaddini ya'ni jismi uyini egiltirdi, endi u uyga ya'ni egik jismga ustun, tirkak qilib aso-ya'ni hassani chiroyli dalil bilan ko'rsatyapti"

yoki;
Tashla tikan, gulshani izzatqa yet,
Chekma mashaqqat, qo'p-u da'vatqa yet.

Baytida "Amr va nahiy" usulidagi badiiy san'atdan foydalangan. Bu san'at "buyurish va man qilish" ma'nosini ifodalab, she'rda lirik qahramonning kimgadir yoki nimagadir buyurish yoki biror narsadan qaytarish tarzida o'z ichki kechinmalarini bayon etishni nazarda tutadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidagi hikoyatlari insonni ezgu amallar qilishga, imkoni boricha saxovatli bo'lishga, har bir masala yuzasidan chuqur mushohada qilishga undaydi. Bu asar har qanday zamon va davrda ham badiiy qiymati va ahamiyatligini yo'qotmasdan insoniyatga adab maktabi bo'lib kelayotgani ayni haqiqatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nizomiy Ganjaviy "Maxzan ul asror" Jamol Kamol tarjimai. Toshkent: "Kamalak" 2016. 125-bet
2. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi 11-jild. Toshkent. 378-bet.
3. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" T: 113-bet.
4. A. Hojiahmedov "She'riy san'atlar va mumtoz qofiya" Sharq nashriyoti, T: 1998. 27-bet
5. A. Hojiahmedov "She'riy san'atlar va mumtoz qofiya" Sharq nashriyoti, T: 1998. 113-bet.

THE CONCEPT OF PEDAGOGICAL CREATIVITY IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION

Zohidjon Shukhratovich Komilkhojayev
Graduate student of the State Institute of Art and Culture of Uzbekistan
Nuriddinova Azizakhan Bahromjonovna
Student of Namangan State University

Annotation. This article discusses in detail the concept of creativity in modern pedagogy, its essence, the history of its origin. Opinions about the importance of the concept of creativity today are expressed

Keywords: creativity, creative thinking, petty creativity, intellect, creativity, expertise, knowledge, competence.

Today, time is developing so fast that this process, along with improving people's lives, presents a number of problems for them to live well. As society progresses and time speeds up, competition among people is increasing. In the global labor market, there is an increasing need for personnel who are highly qualified, have a critical attitude to their work, are creative thinkers, and are true masters of their work. In this context, concepts such as innovation, competence, creative thinking have entered the education system today.

Today, it is an urgent task for specialists to have high professional competence, creative thinking, and the ability to be creative. After all, in the conditions of the developing market relations of the world, it is necessary to have the above requirements in order to take a decent place in the labor market.

For example, as the President of our country, Shavkat Mirziyoyev, stated, "To be independent-thinking, with high intellectual and spiritual potential, to grow up and be happy as people who are not inferior to their peers in any field on the world scale. mobilizing all the forces and capabilities of our state and society for this is one of the most important tasks facing our society." [1]

A student can stand out from everyone by reading thousands of books and having strong knowledge in the course of the lesson, but he does not always have an advantage in unfamiliar situations. Often, students who get excellent grades in school have a hard time finding their way in life. The reason for this is the given information is assimilated by the student in the form of knowledge and skills. But qualification is not formed at the level of competence. At this point, it is appropriate to recall the definitions of these concepts in the DTS, which defines the minimum level of knowledge, skills, qualifications and competence that students should acquire.

Knowledge - remembering and re-explaining the learned information; **Skill** - being able to apply the learned knowledge in familiar situations;

Qualification - the ability to apply the learned knowledge and developed skills in unfamiliar situations and create new knowledge;

Competence is the ability to apply existing knowledge, skills and abilities in daily activities. [2]

If a specialist can apply the acquired knowledge in familiar and unfamiliar situations in everyday life, can effectively use the knowledge gained for unfamiliar situations to find new solutions and create new knowledge for his future activities, then the acquired knowledge will develop at the level of competence.

Possessing strong knowledge, independent, logical, creative thinking, ability to be creative, which is required of personnel today, is evidence of professional competence.

The concept of competence is among the concepts that have recently entered the field of education as a result of scientific research, but whose value has been highly valued since ancient times. and is seen in the ability to display talent. From a psychological point of view, competence means "how a specialist behaves in unconventional situations, unexpected situations, communicates, takes a new way in relations with competitors, performs uncertain tasks, has a plan of movement in consistently developing and complex processes" . ' [3]

It can be seen from this that a specialist with professional competence can use the theoretical knowledge acquired in familiar and unfamiliar situations, and can apply it to life from the point of view of the situation. He develops himself with modern knowledge, collects and analyzes information and is able to apply it to his work. Deeply understands the demands of the times, moves and thinks in accordance with the demands and needs of the society at the stage of development.

As the era itself requires every person to have high professional competence, among the qualities of professional competence, the specialist's ability to be creative, creative competence has a special place.

What is creativity? Why is it necessary to develop creative abilities in students? When should it be formed? How to format? it is natural to ask questions. Now, what is creativity, a concept that has been actively used in all aspects of the world, such as science, education, art, and production? if we answer the question.

"Creativity means "creative" in English, creative-creator, creative ability, which describes the readiness of an individual to create new ideas, and is considered a creative ability that is part of the talent of a person. The creativity of a person is manifested in his thinking, communication, feelings, and certain types of activities will be. " [4]

Creativity as a category that develops the student is an integral part of human thinking and spirituality. It is manifested not in the breadth of the student's field of knowledge, but in his pursuit of new ideas, in the process of solving life problems, finding unusual, optimal solutions for himself and others.

Many people think exactly the same way, look at the issue with the same eyes. Their main goal is to remember the received information and retell it unchanged. Analyzing the information, summarizing it and drawing a conclusion has become a common feature. Our way of thinking has also fallen into a certain pattern. D.Simpson used the term "creativity" to describe a person's ability to abandon the typical, stereotyped way of thinking. Later, many scientists and researchers conducted scientific research. Within this concept, many ideas and research directions emerged. A creative person is a person who demonstrates creativity as a process or result, is inclined to approach solving problems in non-standard ways, is capable and ready to organize unique actions, promote innovations, create creative products

The creativity of the pedagogue is manifested in various forms in professional activity. They are:

1. Preparation of regulatory documents (DTS, curriculum and plans for academic subjects);
2. Creation of educational resources (textbook, teaching-methodical and methodical manual, recommendation letter, dictionary, encyclopedia, atlas, workbook, etc.);
3. Preparation of educational process and projects of spiritual and educational works;
4. Formation of educational information, control and test assignments;
5. Making the educational process interesting, lively, energetic;
5. Making the educational process interesting, lively, energetic;
6. Successfully conduct scientific researches;
7. Active participation in scientific and methodical conferences, giving speeches;
8. Publication of scientific, scientific-methodical and methodical works;

9. Submission of periodic reports, certification;

In the lessons, the teacher moves in the following four directions according to the "road map of creativity", and the actions in them are considered signs of the creativity of pedagogues:

- 1) demonstration of creative thinking skills;
- 2) to be able to use strategies (methods and tools) that encourage students to master academic subjects with interest;
- 3) innovative approach and creative approach to finding solutions to pedagogical issues (problems);
- 4) the expected result.

In order for the teacher to have the potential of creativity, it is necessary to pay attention to the following in his professional activities:

In order for the teacher to have the potential of creativity, it is necessary to pay attention to the following in his professional activities:

- speed and flexibility of thinking;
- the ability to create new ideas;
- not thinking in one way;
- originality;
- initiative; tolerance of uncertainty;
- to be intelligent

jazolasalar, unday paytda o'smirning ongida mehnat qandaydir mudhish faoliyat degan ma'lum tasavvur yuzaga kela boshlaydi. Biz o'smirning ongiga mehnat shon-sharafdir, mardlik va qahramonlikdir degan tasavvurni singdirishimiz kerak deb hisoblaymiz. Lekin bu so'zlar quruq gap bo'lib qoladi, o'smirlar ongida boshqa maslaklar mustahkamlanib qoladi. Psixologlar o'z oldilariga o'smirlar ma'naviy ongining mazmunini, ularning axloqiy tushunchalari va tasavvurlarini o'rganish vazifasini qo'yanlar. Psixologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, o'smirlar ma'naviy ongining yuksak darajada ekanligini ko'rsatadi. O'smirlarning ko'pchilik qismi yoshlariga munosib ma'naviy tushunchalarni to'g'ri tushunadilar. E'tiqod va dunyoqarashning tarkib topishi bilan chambarchas bog'langan holda o'smirlarning axloqiy ideallari xam yuzaga kela boshlaydi. Bu ideallar yetarli darajada chuqur mazmundor, faoldir va bu ideallar o'ziga xos axloqiy namuna bo'lib xizmat qiladi, o'smir esa hatti-harakatlarini ana shu namuna bilan tenglashtiradi. Kichik yoshdagi o'smirlar uchun odatda qandaydir bir kishi ideal bo'ladi. Bu odam o'smir yuksak darajada baholaydigan sifatlarni o'zida gavdalandirgan bo'ladi. Ko'pincha bunday ideal ota-onalar, o'qituvchilar yoki yaxshi ko'radigan kitobidagi va kinofilmidagi qahramonlardir. Katta yoshdagi o'smirlarda ideal sifatlar majmui umumlashgan obrazlar ideallar sifatida yuzaga chiqq boshlaydi. L.N.Desev o'smirlarning axloqiy tushunchalari mazmunini o'rganib, ularning axloqiy kategoriyalarni tushinishlari ko'pincha yuzaki formal xarakterga ega ekanligini ko'rsatib berdi. Psixologlar bir tomondan o'smirlarda yuzaga kelayotgan e'tiqodlar, axloqiy g'oyalar, tushunchalar va ustanovkalar, ikkinchi tomondan ularning hatti-harakatlari, qiziqishlari, aniq xulq-atvorlari o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq qildilar. A.L.Maliovanov ana shu nuqtai nazardan o'smirlarni to'rt guruhga ajratgan: 1) o'z hatti-harakatlarida ularning o'zlari tomonidan yaxshi anglagan ijobiy axloqiy normalarga tayanadigan, so'zi bilan ishi o'rtasida farq bo'lmaydigan o'smirlar; 2) axloqiy tushunchalarning taraqqiyot darajasi pastligi bilan qiliqlari mos keladigan o'smirlar; 3) kichkinagina o'smirlar guruhi hatti-harakatlarning axloqiy normalariga doir o'zining yaxshi bilimi bilan ajralib turadi, lekin bu bilimlarga mos ravishda harakat qilishni o'ziga lozim deb biladigan; 4) o'zlariga ma'lum bo'lgan axloq talablari bilan kundalik hatti-harakatlari o'rtasidagi aloqani xali ko'ra olmaydigan, tushunmaydigan o'smirlar. Ularning ko'pchiligi ayrim axloqiy kategoriyalarning mazmunini; yetarli darajada anglamaydilar. Ko'pgina axloqiy tushunchalarni noto'g'ri anglab, shaxsning ayrim sifatlarini xato tushunib va baholab, qaram bo'lmaslik va mustaqillikka intilib, o'z irodasini ko'rsatishga noto'g'ri harakat qilib, ayrim o'smirlar ba'zan ataylab o'zlarida ob'ektiv jihatdan salbiy bo'lgan sifatlarni rivojlantiradilar va o'zlaridan ijobiy sifatlarni siqib chiqaradilar. Tarbiyaning vazifasi mohirlik bilan o'smirlarning noto'g'ri qarashlarini yengish, ishning mohiyatini tushuntirish va o'smirlarning adashishlariga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir. Tarbiyaviy tadbirlarni samarali va to'g'ri tashkil etilsagina o'smirni hayotida keskin o'zgarishlar mavj ura boshlaydi. Ammo, bu ishni zerikarli quruq nasihatgo'ylik va jonga tegadigan aql o'rgatishlar bilan emas, balki samimiy, chin qalbdan va do'stona olib boriladigan suhbatlar bilan amalga oshirish kerak. Bu borada har bir fan o'qituvchilari to'g'ri axloqiy tushunchalarni tarkib toptirishda o'z fanlarining imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin. Jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar jamiyat va shaxs ongida aks etadi. Ikkinchi tomondan, ma'naviyat sohasidagi o'zgarishlar jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarning miqyosiga, yo'nalishiga va sur'atlariga jiddiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Shuning uchun mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar jamiyatimiz, ijtimoiy guruhlar va alohida fuqarolar ongida o'z in'ikosini topmoqda. O'z navbatida mamalakatimizdagi islohotlar ko'lami va sur'atlari ma'naviyatimizning ham tez sur'atlar bilan rivojlanishini, aksariyat hollarda esa ijtimoiy-iqtisodiy soha rivojidan ildamroq va oldinroq yurishini taqozo etmoqda. Bunday vazifani bajarish uchun ma'naviyat yuksalishiga ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan barcha imkoniyatlarni ishga solish zarurati sezilmoqda.

Xulosa: Ayni paytda o'smirlarni ma'naviy jihatdan yuksaltirishda ularning axloqini yuksaltirish ko'lamini va sur'atlariga kuchli ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan psixologik omillarning imkoniyatlaridan yetarli foydalanilmayapti. Shaxsni ma'naviy tarbiyalash uning butun umri davomida amalga oshirilishi lozim. Biroq bu vazifa individning o'smirlik davrida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Zero bu davrda shaxsning ijtimoiylashuvi, ma'naviyatning negizi bo'lgan qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoni juda tezlashib ketadi. Shaxsning ma'naviy rivojlanishiga mana shu davrda ozgina e'tiborsizlik qilinsa, u aks ijtimoiy yo'nalishga burilib ketishi, jamiyatimiz uchun yot bo'lgan mafkuralar, g'oyalar ta'siriga tushib qolishi mumkin. Ma'naviy tarbiyani samarali amalga oshirish uchun ma'naviyatning metodologiyasi va umumiy jihatlarini aniqlab olish zarur. Bu yo'nalishda xorijlik va mamlakatimiz olimlari tomonidan ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilgan. Ma'naviyat va ma'naviy tarbiya masalalarining O'zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi shu yo'nalishda ijtimoiy-gumanitar fanlarda olib borilayotgan tadqiqotlar kengayishiga kuchli ta'sir o'tkazdi. Bu sohada, ayniqsa, mamlakatimiz yetuk darg'alari, faylasuflari, siyosatshunoslari, pedagog olimlari tomonidan ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. Uchebnik.- M.: Aspekt Press, 1999.-376 s.
2. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2007.1-2 kitob.
3. G'oziev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2002
4. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.-T.: Universitet, 2002.- 96 b.
6. Drujinina V. "Psixologiya ". Uchebnik. "Piter", 2003.
7. Burlachuk F. Psixodiagnostika. "Piter", 2002.
8. Ayzenk M. Psixologiya dlya nachinayuyux. "Piter", 2000.
9. Bolotova A.K, Makarova I.V. Prikladnaya Psixologiya: Uchebnik dlya vuzov.- M.Aspekt Press, 2002 – 383 s.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI SON-SANOQ BILAN TANISHTIRISH USULLARI

Ibroximova Madinaxon Munavvarjon qizi
Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim
yo'nalishi 3 boshqich talabasi,
Qo'qon Universiteti Ta'lim kafedrası o'qituvchisi
Alixodjayev Raxmonali Mexmonovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy nuqtai nazardan maktabgacha yoshdagi bolalarning ilk matematik ta'limini jamiyat talablari darajasida tayyorlash, uning psixologik-pedagogik ta'siri, rivojlantirish tadqiqot metodologiyasini o'rganish yoritib berilgan. Bundan tashqari maktabgacha katta yosh bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish hamda son-sanoqqa o'rgatishda o'ziga xos bo'lgan metodologiyani ishlab chiqish, ta'limning asosiy didaktik ta'moillari va o'yinlar, bolalarda matematik tasavvurlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va umumlashtirish hamda hisoblash faoliyati rivojlanishini taminlashga yo'naltirilgan. Shuningdek, sanash faoliyatining rivojlanishdagi bosqichlari, vaqtni idrok etish, bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar, oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan metodik ishlarni rejalashtirish kabi masalalar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, son- sanoq, natural sonlar, o'nlik sanoq sistemasi, matematik tasavvurlar, miqdor, hisoblash, didaktik o'yinlar. matematik ta'lim nazariyalari va usullari, metodologiyaning rivojlanish bosqichlari

Kirish. Har bir davlatning istiqboli ta'lim darajasi va sifati bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasida bolalarni ilk yoshidanoq sifatli ta'lim-tarbiya bilan qamrab olish va ularni jamiyatga ijtimoiylashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilayotgani zamonamizning dolzarb masalasidir.

Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini davlat tomonidan boshqarishning samarali tizimini yaratish hamda uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida so'nggi yilda qabul qilingan qat'iy chora-tadbirlar natijasida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va uning joylardagi hududiy bo'linmalari tashkil qilindi.[1] Davlatimiz rahbari tomonidan ta'lim tizimining ilk poydevori qo'yiladigan maktabgacha ta'lim sohasini yangi pog'onaga olib chiqish, bolalarning iqtidori hamda salohiyatini ilk yoshlardan to'g'ri yo'naltirish borasida juda ko'p tashabbuslar hayotga tatbiq etilmoqda va bu sa'y-harakatlar bolalar ta'lim-tarbiyasida o'zining ijobiy natijasini bermoqda.

Maktabgacha yoshdan bolalarda matematik bilimlarning yetarli bo'lishiga katta ahamiyat berish muhimdir. Chunki, inson hayoti davomida matematik hisob-kitoblarga tez-tez duch keladi, ya'ni matematik bilimlar har qadamda kerak bo'ladi. Agar biz maktabgacha yoshdan boshlab bolalarni matematika olamiga turli qiziqarli usullardan foydalangan holda qiziqтира olsak, matematik bilimlar bilan yetarli darajada qurollantirsak, ular maktabda barcha bilimlarni o'zlashtirishda a'lo baholarga o'qib, yuqori natijalarga erishadilar, hayoti davomida xalqimiz uchun foydali kasbni tanlash va chuqur egallashda qiynalmaydilar. Chunki qaysi kasbni olmaylik uni mahorat bilan bajarishga albatta matematik bilimlar kerak bo'ladi. Shu sababli turli ta'limiy usullar, qiziqarli she'rlar, topishmoqlar orqali bolalarning yoshiga mos matematik bilimlar berib borishga katta ahamiyat berish muhimdir.

Ilk matematik tushunchalarning qanchalik aniq va mukammal bo'lishi, bolalarda mantiqiy fikrlash, xulosa chiqarish jarayonlarining kuchli bo'lishini ta'minlaydi. Ya'ni matematika bolalarni mantiqiy fikrlashga-to'g'ri fikrlash, to'g'ri fikrlardan to'g'ri xulosalar

chiqarishga o'rgatadi, shu bilan birga nutqning takomillashuviga katta yordam beradi. Ilk matematik tushunchalar bolalarning yoshiga mos tarzda qiziqarli qilib o'rgatilsa, samarali natijalarga erishiladi. Bolalarda umumiy bilimlar bilan birgalikda o'ziga bo'lgan ishonch, mustaqil fikrlash, o'z fikrini chiroyli ifoda eta olish kabi fazilatlar shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarini shakllantirishning rivojlanganligi ularning maktabda sifatli ta'lim olishini taminlaydi.

Tafakkur — inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; ob'yektiv voqe'likning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir[2].

Inson tafakkuri nihoyatda kuchli bo'lib, bu kuchning beqiyosligi yoshligidan bilimlarni qanday va qancha o'zlashtirishiga juda bog'liqdir. Pedagog va psixologlarimiz fikricha bola yetti yoshgacha insoniyat tajribasining 60-70% ni o'zlashtirar ekan, demak mana shu yoshgacha bolaga eng kerakli bilimlarni yoshiga mos ravishda berish bolaning kelajakda qanday inson bo'lishiga juda katta turtki bo'ladi.[3]

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni son-sanoq bilan tanishtirish usullari ko'plab dunyo va mamlakatimiz olimlarining ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Shveysariyalik pedagoglardan J.G.Pestalosi (1746—1827) o'sha davrda mavjud bo'lgan, o'qitish usullarining kamchiliklarini ko'rsatib, bolalarga ma'lum ob'yektlarni sanashga, raqamlar ustida amallarni tushunishga o'rgatishni tavsiya qilgan, vaqtni aniqlashni ko'rsatgan. U tomonidan taklif qilingan o'qitish usullari oddiy elementlardan murakkabroq narsalarga o'tishni, bolalar tomonidan sonlarni o'zlashtirishni osonlashtiradigan vizualizatsiyani keng qo'llashni nazarda tutadi. J. G. Pestalosining g'oyalari keyinchalik XIX-asr o'rtalarida maktablarda matematika o'qitish sohasidagi islohotlarga asos bo'lib xizmat qildi. F.Frebel (1782-1852) va M.Montessori (1870-1952) tomonidan yaratilgan sensor ta'limning klassik tizimlari bolalarni geometrik figuralar, o'lchamlar, o'lchash va hisoblash o'lchami, vazni bo'yicha ob'yektlar qatorini chizish bilan tanishtirish metodologiyasini taqdim etganlar. M.Montessori o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini o'rganish g'oyalariga tayanib, sonlar, shakllar, o'lchamlar, shuningdek yozma va og'zaki raqamlashni o'zlashtirish uchun maxsus muhit yaratish zarurligini tan oldi. Buning uchun u maxsus materialdan foydalanishni taklif qildi: sanoq qutilari, o'nlab bog'langan rangli munchoqlar, tangalar va boshqalar.

M.I.Vasilyeva, bolalar o'z faoliyatlarini vaqtga qarab boshqarishni o'rganib oladilar: ish sur'atini tezlatish yoki susaytirish, uni o'z vaqtida tamomlash. Vaqt bo'yicha mo'ljal olishni rivojlantirib, bolalarni o'z faoliyatlarini boshqarishga, ajratilgan vaqtdan tejimli va ratsional foydalanishga o'rgatamiz, deb ko'rsatadi. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarni vaqt haqidagi tushunchalarini shakllantirishda ular soat millari orqali sonlarni o'rganadilar vaqt ham sonlarda ko'rsatilishi haqidagi boshlang'ich bilimlari hosil bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha katta yoshdagi biillarda son-sanoq elementar matematikani asosiy o'zagi bo'lib, bolalarda son-sanoq haqidagi bilimlarini shakllantirish sanashga o'rgatish maktabning boshlang'ich sinflarda matematikani yaxshi o'zlashtirishlarining asosidir.

Katta guruhlar uchun son-sanoqqa o'rgatish vazifalari quyidagicha belgilangan:

1. 1 dan -10 gacha sonlarining hosil bo'lishi bilan tanishtirish.
2. 10 soni ichida bittalab va tartib bilan sanashga o'rgatish.
3. 10 gacha bo'lgan sonlar yozuvi bilan tanishtirish va taqqoslashni davom ettirish.
4. 10 tagacha bo'lgan sonlarning nomlarini, yozuvlarini farqlash va ayirishni o'rgatish.
5. Yonma-yon turgan sonlar orasidagi munosabatlarni tushunishga o'rgatish.

6. 10 tagacha bo'lgan predmetlarni to'g'ri va teskari tartibda sanash malakalarini mustahkamalsh.

7. 6,7,8,...10 sonlarining ayrim birikmalardan iborat tarkibi bilan tanishtirish.

8. Arifmetik masala tuzilishi bilan tanishtirish.

Katta guruhda bolalarni sanoqqa o'rgatish davom ettiriladi. 10 ichida miqdor sonlarni ham, tartib sonlarni ham ishlatish malakasi mustahkamlanadi. Bolani "Qanday?" (buyumning sifati, alomati haqida: yashil, katta, dumaloq); "Qancha?" (buyumning miqdori haqida); "Nechanchi?" (buyumning boshqa buyumlar orasidagi o'rni tartib son bilan aniqlanadi, masalan, beshinchi) kabi savollarni farq qilgan (differensial) holda tushunishga o'rgatish muhimdir. Bolalarda sonlar orasidagi bog'lanishlarni shakllantirish davom ettiriladi: har bir keyingi son oldingisidan katta, oldingisi keyingisidan kichik. Shu asosda yonma-yon turgan sonlar orasidagi munosabatlar haqidagi tasavvurlar o'zlashtiriladi: har bir keyingi son oldingisidan bitta ortiq, har bir oldingi son esa keyingisidan 1 ta kichik. (5, 6 dan 1 ta kichik, 6, 5 dan 1 ta katta, 6, 7 dan 1 ta kichik). Bolalar bir son ikkinchisidan 1 ta kichik (yo katta) ekanini o'zlashtirganlaridan keyin, ularga agar kichik songa 1 ni qo'shilsa, keyingi katta son hosil bo'lishini, agar katta sonni 1 ta kamaytirilsa, kichik, ya'ni oldingi son hosil bo'lishi tushuntirib beriladi. Sonlar orasidagi bog'lanish va munosabatlarning hammasi buyumlar guruhlarini taqqoslash asosida tushuntiriladi. Bunday mashqlar jarayonida tarbiyachi "qancha edi?", "qancha qo'shishdi (ayirishdi)?", "qancha bo'ldi (qancha)?" kabi savollardan foydalanadi.

Katta guruhda bolalarga har bir son o'z ichiga ma'lum sondagi birliklarni olishi haqida bilim berish zarur. 5 ichidagi sonlarning birliklardan iborat tarkibi haqidagi tasavvurlar ham aniq misollarda shakllantiriladi.

Bolalar buyumlar guruhlarini, ularning belgilari, sifati bo'yicha tahlil qilishga, so'ngra sonning birliklarini aytishga o'rgatiladi. Masalan, tarbiyachi stol ustiga har xil rangdagi 4 ta kubchani qo'yib, kublar nechta?; qanday rangdagisi nechta?, deb so'raydi. Oxirgi savol buyumlar miqdorini ularning ranglari bo'yicha tahlil qilishga yo'naltiradi: "Qaysi rang.dan nechta?" – "1 ta qizil, 1 ta ko'k, 1 ta sariq, 1 ta yashil". – "Hammasi?" – "Hammasi 4 ta kub" – Demak, 4 – bu 1, 1, 1 va 1. Shundan keyin yana bolalardan sonning birliklarini, so'ngra sonning o'zini aytish so'raladi (1,1,1 va 1 – bu 4).

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni matematik tasavvurlarni shakllantirishda buyumlar haqidagi har xil bilimlaridan, ularni differensiallash yoki guruhlarga birlashtirish, alohida alomatlari bo'yicha umumlashtirish malakalaridan foydalanish kerak. Masalan, hammasi bo'lib 5 ta o'yinchoq bor. "Qancha?" – "1 ta quyon, 1 ta ayiqcha, 1 ta ayiq, 1 ta qo'g'irchoq, 1 ta tulki". – "Demak, 5 – bu 1, 1, 1, 1, va 1". Bolada butun miqdorini ko'rish va uni aytish, sonning birliklarini (sonni tuzuvchi har qaysi birlikni) aytish, ularni birlashtirib, bir son bilan aytish malakasi shundan shakllantiriladi.

Bolalar olgan bilimlarini har xil topshiriqlar yordamida mustahkamlashi kerak. Masalan, tarbiyachi sonli kartochka ko'rsatadi va bolalarga buyumlarni, sonda nechta birlik borligi ko'rinib turadigan qilib joylashtirishni taklif qiladi. Yoki u 3 ta doirachali, sonli kartochkani ko'rsatadi, bolalar esa doira, uchburchak va kvadratni qo'yadilar. Bolalardan 3 ta shaklni nega ajratib sanaganini, u qaysi shakllarni ajratib qo'rganini (1 ta doira, 1 ta uchburchak, 1 ta kvadrat), 3 sonida nechta birlik borligini so'rash mumkin. Shunday qilib, tarbiyachi bolalarni natural sonlarning hosil bo'lishi bilan tanishtiradi: sonni bir birlik orttirish yoki kamaytirishga qarab, katta yoki kichik son hosil bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tarbiyalanuvchilarning son sanoq bo'yicha matematik faolligi turli-tuman sharoitlarda ya'ni: mashg'ulotlar jarayoni, guruhning har bir tarbiyalanuvchilarida o'stirildi. Bolalarning namoyon bo'lgan kuchli va zaif

tomonlarini bilish nafaqat tarbiyachi balki ota-onalar tahlili uchun muhimdir. Biz tarbiyachilar ilk matematik tasavvurlarni shakllantirishda mashg'ulot jarayonlarini matematik o'yinlar, matematik to'plamlar bilan boyitishimiz va har bir yosh guruhlariga to'g'ri qo'llay olishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalardan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalarni berdik:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning son-sanoq tasavvurlarini shakllantirishning mavjud holatini o'rganish, ularning o'quv dasturlari tarkibi va mazmunini tahlil qilib chiqish asosida bolalarni maktabga tayyorlashning uzviy ketma-ketligi ishlab chiqilishi lozim.

2. Mashg'ulot jarayoniga kiritilayotgan metodika, metodik usullar, texnologiyalar va vositalar uning samaradorligi hamda sifatiga ijobiy ta'sir qilishini hisobga olgan holda, tarbiyachi to'g'ri yondashishi hamda ushbu yuqorida takidlab o'tilgan tadqiqotlarni o'z o'rnida foydalanishni taklif qilamiz.

Yuqoridagi takliflarni maktabgacha ta'limda qo'lansa katta yoshdagi bolalarni taffakurini, aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-269-sonli 2022-yil 21dekabrdagi qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi negizida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tashkil etildi.

2. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonuni, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

3. G.E.Djanpeisova Matematik ta'lim – Toshkent: 2021. 382 b

4. Михайлова А., Носова Э. Д., Столяр А. А., Полякова М. Н., Вербенец А.

5. М. "Теории и технологии математического развития детей дошкольного возраста". – Издательство «Детство-пресс». Санкт-петербург, 2008.

6. Э.И.Тихева.Характеристика методики формирования элементарных

7. математических представлений у детей дошкольного возраста как науки и учебной дисциплины.

8. Djanpeisova G.E. Modern aspects of mathematics education of preschool children. / Methodical aid. T.TSPU named after Nizami, 2017. – 106 p.

**IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI INKLUZIV TA'LIMGA KIRITISH UCHUN
ULARNING OTA-ONALARINI TAYYORLASH YO'LLARI**

D.Abdupattayeva
Qo'qon universiteti talabasi,
N.Q.Abidova
Qo'qon universiteti dotsenti
Pedagogika fanlari boyicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya Maqolada Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyoj uning jamiyatga va maxsus ehtiyojli bolalar uchun imkoniyatlar haqida yoritilgan. Jamiyatda Imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan yangilish fikr va munosabatlar bildirilgan. Integratsiyalashgan ta'lim haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv, integratsiya, rehabilitatsiya, funksional, huquq, uzviylik, fikr, dialektik, uzviylik

Oila har bir inson hayotida alohida o'rin tutadi. Bola oilada ulg'ayadi va hayotining birinchi yillaridanoq u oiladan xos bo'lgan hamma narsani oiladan yaxshilik va yomonlikni singdirib, jamoat normalarini, odamlar o'rtasidagi munosabatlar normalarini o'rganadi. Oila ijtimoiy va tarixiy tajribani bolaga o'tkazishda, avvalambor, odamlar o'rtasidagi hissiy va ishbilarmonlik munosabatlarining tajribasida manba va vositachilik aloqasi. Shuni inobatga olgan holda, biz oila sog'lom tengdoshlar muhitida bolani tarbiyalash, ijtimoiylashtirishning eng muhim instituti bo'lgan va shunday bo'ladi, deb haqli ravishda taxmin qilishimiz mumkin.

Nogiron bolali oila - bu alohida maqomga ega bo'lgan oila, uning xususiyatlari va muammolari nafaqat uning barcha a'zolarining shaxsiy xususiyatlari va ular o'rtasidagi munosabatlarning tabiati, balki bolaning muammolarini hal qilish bilan bandligi, oilaning tashqi dunyodan yaqinligi, aloqa etishmasligi va tez-tez ishlamasligi bilan belgilanadi. ona, ammo eng muhimi - nogiron bolaning oilasidagi o'ziga xos vaziyat, bu uning kasalligi bilan bog'liq.

Rivojlanishida nuqson bo'lgan bolaning ommaviy ta'lim muassasasiga qo'shilib ketayotgan oilasi ushbu jarayonda quyidagi sabablarga ko'ra faol ishtirok etishi kerak.

Birinchi: yangi ijtimoiy muhitga kirib, bolada qo'rquv, bezovtalik hissi paydo bo'lishi mumkin va bu holatda, albatta, yaqin kishining, ota-onaning ko'magi zarur.

Ikkinchi, ota-ona bolaga uy vazifasini bajarishda yordam berish uchun o'quv jarayonida o'quvchilarga qo'yiladigan talablar va talablarni yaxshi bilishi kerak.

Uchinchi: bolaga yangi aloqalarni o'rnatishda, yangi do'stlar bilan tanishishda, o'zaro munosabatlarni tashkil etishda yordam berish muhimdir; sog'lom bolalarning rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaning xususiyatlariga munosabati bilan bog'liq to'siqni engib o'tish kerak. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bola uchun o'z imkoniyatlarini tushunishni, kamchiliklarini hisobga olishni va shu bilan birga o'zini jamoaning teng huquqli a'zosi sifatida his qilishni o'rganish muhimdir. Bola maktabda u uyda odatlanib qolgan yoki ommaviy maktabga kirishdan oldin maxsus muassasada bo'lgan xuddi shunday tejamkor, "issiqxona" sharoitlarini yaratadi deb umid qilishi mumkin. Amalga oshirilmagan kutishlar haqida paydo bo'lgan ko'ngilsizliklar, shubhasiz, uning jamiyat bilan etarli darajada birlashishiga to'siqlik qiladi. Rivojlanishida nuqsonli farzandi inklyuziv jarayonga kiritilgan ota-ona turli hissiyotlarni boshdan kechirishi mumkin. Ota-onada birinchi quvonch va mamnunlik hissi uning farzandi maxsus maktabda emas, balki sog'lom bolalar bilan oddiy maktabda o'qishi bilan bog'liq. Ammo yaqin orada bu tuyg'u ota-onalar, o'qituvchilar va uning bolasini qabul qilmaydigan sog'lom bolalarga yo'naltirilgan ota-onalarning chuqur umidsizliklari, ba'zi hollarda chalkashliklari yoki hatto tajovuzlari bilan almashtirilishi mumkin. Ushbu muammolarni hal

qilishda ota-onalar, avvalambor, defektolog va psixolog va boshqa mutaxassislarning yordamiga muhtoj. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani ta'lim maydoniga kiritish jarayoni ushbu jarayonni amalga oshiradigan davlat muassasalari o'qituvchilarining, birinchi navbatda defektologlar, sinf rahbarlari, tarbiyachilar, repetitorlarning maxsus tayyorgarligi bilan ta'minlanishi kerak. Ish bolaning o'zi bilan ham, uning ota-onasi bilan ham amalga oshirilishi kerak.

Defektolog, ota-onalarga maslahat berib, ishonchni o'rnatadi, stressni engillashtiradi, ota-onalarga xushmuomalalik bilan bolani o'quv dasturini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida xabar beradi, bolaning uydagi va maktabdagi xulq-atvoridagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beradi, shuningdek do'stona munosabatlarni o'rnatish bo'yicha maslahat beradi. sinfdoshlar va ularning ota-onalari (ota-onalar qo'mitasi).

Ota-onalar bilan ishlashning maqsadi - bu bola rivojlanishining individual va yoshiga xos xususiyatlari, kam rivojlanganligi sabablari, bolalar bilan munosabatlarda noto'g'ri ota-ona pozitsiyasining bolaning sog'lig'i buzilishiga ta'siri. Pedagogik yordamning natijasi quyidagilar bo'lishi kerak: ota-onaning bolani bilishi va tushunishi, uni boricha qabul qilishi.

Oila bilan olib boriladigan pedagogik ish uchta blokni o'z ichiga oladi: ta'lim, maslahat va to'g'ri tuzatish ishlari.

Ta'lim va tarbiyaviy:

Oila bilan ishlashning ta'lim blokining vazifasi ontogenezning buzilishiga olib kelgan faktlar va sabablar bilan, bola aqliy xususiyatlari bilan, bola rivojlanishining asosiy qonunlari bilan tanishishdan iborat. Ota-onalarning psixologik-pedagogik savodsizligini yo'q qilish uchun "Ota-onalar ma'ruzalari", "Oila o'qituvchilari klublari", "Ota-onalar seminarlari" tashkil etiladi, bu erda quyidagi masalalarni muhokama qilish mumkin:

- ota-onalarning psixologik va pedagogik qobiliyatsizligini bartaraf etish;
- defektologlar, o'qituvchilar, o'qituvchilar, mahalla va boshqa tashkilotlar bilan yaqin aloqalarni o'rnatish;
- muammoli bola bilan ham, oddiy bolalarni tarbiyalash bilan ham boshqa oilalar bilan o'zaro munosabatlarni tashkil etish;
- ijtimoiy va madaniy tadbirlarda ishtirok etish.

Maslahat: maslahat bloki oila bilan ishlashning individual shakli bilan ifodalanadi. "Ota-onalar uchun maslahat markazlari", "Ishonch telefonlari" ni tashkil etish ota-onalarga o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob topishda, oilada qulay munosabatlarni o'rnatish bo'yicha tavsiyalar tizimini olishga yordam berishi kerak.

Tuzatish ishlari: defektologning rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga yordami, birinchi navbatda, ularning ota-onalariga psixologik va pedagogik yordam ko'rsatishdan iborat. Bunday qo'llab-quvvatlash ularning ishonchini rivojlantirish, haqiqiy ehtiyojlarini qondirish, jamoatchilik tomonidan tan olinishi, o'zini o'zi boshqarish tizimini baholash va rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Nogiron bolalarni tarbiyalayotgan ota-onalar bunday bolalarning rivojlanishi va ularni tarbiyalashning ko'plab masalalari to'g'risida ma'lumot etishmasligidan aziyat chekmoqda. Rivojlanish muammolari bo'lgan bolalar bilan ishlash tajribasi shuni ko'rsatdiki, ularning ota-onalari bolaning muloqotini tashkil qilish, atrofdagi dunyoga moslashish, unga munosib kelajak, eng samarali yordamni taqdim etishdan manfaatdor. O'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotgan ota-onalar chalkashlik, umidsizlik, birinchi o'ringa qo'yilgan yo'nalish va shifokorlar, psixologlar va ijtimoiy xizmatlarning zaif ma'naviy-psixologik ko'magi natijasida tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qila olmaydilar.

Tuzatish ishlarining o'zi oilada bolaning rivojlanishi uchun maqbul sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Ushbu blok quyidagilardan foydalanadi:

- har bir oila a'zosi bilan, ikkala ota-onasi bilan, butun oila bilan suhbat;
- oilaviy psixoterapiya;

- ota-onalar va bolalar uchun o'yin seanslari;
- ota-onalar bilan, bolalar bilan guruh darslari;
- ota-onalar uchun o'z-o'ziga yordam guruhlarini tashkil etish;
- ota-onalarning bolalar bilan birgalikdagi kechalarini (ishlarini) o'tkazish.

Ota-onalar bilan suhbatlarda ota-ona munosabatlarining bolaga nisbatan hurmatsizlik, negativizm, tajovuzkorlik yoki bolaga nisbatan passivligi, hissiy sovuqligi, tirnash xususiyati kabi xususiyatlarini yo'q qilish asosida munosabatlarni o'rnatish tajribasi muhokama qilinadi. Suhbatlarning mazmuni quyidagi savollarni ham o'z ichiga oladi: ota-onaning bolaning sevgisiga bo'lgan ehtiyojini qondirish; ota-onalarning da'volari va bolaning imkoniyatlari; rivojlanish muammolari bo'lgan bola uchun oilada tarbiyaning himoya usuli. Ikkala ota-ona bilan suhbatlar oilaviy munozaralarga olib kelishi mumkin. Oilaviy psixoterapiya jarayonida ota-onalar va bolalar o'rtasida shartnoma tuzish, rollarni teskari yo'naltirish kabi usullardan foydalanish mumkin. Suhbatlar hissiy aloqalarni normallashtirishga, umuman oilaning va uning a'zolarining ichki resurslarini mustahkamlashga yordam beradi, bu esa shaxslararo muloqotda yuzaga kelgan buzilishlarni bartaraf etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi «Nogironlar huquqini ijtimoiy himoyalash to'g'risida»gi Qonun -1991 yil.
2. "Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'lim to'g'risida muvaqqat Nizom"- XTV 234-sonli buyrug'i- 2005 yil 19 sentabr.

AUTIZMGA EGA BOLALARNI PSIXOLOGO-PEDAGOGIK O'RGANISH

F. Sharobidinova
Qo'qon universiteti talabasi,
N.Q. Abidova
Qo'qon universiteti dotsent v.b PhD

Annotatsiya: autizm bolalar uchun imkoniyatlar haqida yoritilgan. Jamiyatda autizm bolalarga nisbatan yangilash fikr va munosabatlar bildirilgan. Integratsiyalashgan ta'lim haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: autism, integratsiya, rehabilitatsiya, funksional, huquq, uzviylik, fikr, dialektik, uzviylik

Autizimli bolalarni o'rganish o'zaro aloqani o'rnatishdagi qiyinchiliklar tufayli o'ziga xos murakkabliklar tug'diradi. Shuning uchun ularni tekshirishni tashkillashtirishga alohida diqqatni qaratish lozim. Autizmga ega bo'lgan bolalarni tekshirish longiyud, dinamik va diagnostik shaklda bo'ladi. Ushbu maqsadda diagnostik guruxlar tashkil etiladi, unda mutaxassislar xar bir bola bilan individual (yakka holda) ish olib boradilar.

Autizimli bolalarni tekshirishning boshqa o'ziga xos xususiyati kompleks tarzda tekshirishni tashkillashtirish xisoblanadi, unda ayniqsa boshlang'ich bosqichida bir mutaxassis, psixolog yoki pedagog maqsadli olib boradi. Bunday yondashuv bolani yangi muhitga ko'nikishiga, o'zgina bo'lsa ham moslashishiga yordam beradi. Qo'rquvlarini, xavotirlanishni bartaraf etishga imkon beradi. Bolani yangi sharoitga ko'nikishiga qarab boshqa mutaxassislar(logoped, psixiator) sekin-asta qo'shilishlari mumkin: xonaga sekin kiradi yoki unda bo'la turib sekin-asta bolaga yondasha boshlaydi(ikkinchi variant samaraliroqdir). Biroq bu alohida mahorat va ehtiyotkorlikni talab etadi, chunki biron-bir qat'iy harakat hamda baland aytilgan so'z autizimli bolada himoya reaksiyasini yuzaga keltirib, qo'yilgan tekshiruv maqsadiga erisha olmaslik mumkin.

Ushbu bosqichning maqsadi autizimli bolaning dizontogenezini aniqlash. Unga bolani faoliyatini kuzatish orqali erishiladi, bu esa emotsional-iroda jarayonidagi nuqsonlarni boshlang'ich davrida baholash imkonini beradi. So'ngra bolani ko'rsatgan imkoniyatlariga ko'ra mutaxassis keyingi tekshiruvlarni tuzadi hamda natijada u bilan o'zaro munosabatga kirishni tashkillashtirib quradi.

Bolani kuzatish psixologning xonasiga kirgan vaqtidanoq amalga oshirila boshlaydi. Bu autizimli bolaning ko'pgina spesifik xarakteristikasini aniqlashga yordam beradi. Masalan mutaxassis autizimli bolaning tashqi belgilariga, asosan: gavdaning turishi, ritm va yuz mimikasi, harakat xarakteriga diqqatini qaratadi. Bolaning yuz mimikasi hamda uni ifodalanishi sovuqqon bo'lishi mumkin, bu autizimli bolani dizontogenezini birinchi bosqichini xarakterlaydi.

Bolani xulqini baholashda uning adekvatligiga hamda qiziqishiga yoki atrofdagilardan o'zini olib qochishiga e'tibor qaratish lozim. Bola yangi unga odatiy bo'lmagan sharoitga qanday ta'sirlanmoqdaligini belgilash muxim: loyqayd, tinch yoki onasining orqasiga bernishi, xonaga kirgisi kelmasligi, uni kuch bilan tortishlari (autizimli dizontogenezni uchinchi turi).

Autizimli bolani ikkinchi bosqichda tekshirishning asosiy vazifasi autizimli dizontogenez turini bola hamda kattaning orasidagi o'zaro munosabatlarni adekvat-imkoniyatlarini o'rnatishdir. Munosabatlarning adekvatligi bolaning affektiv jarayonlarini nuqsoning darajasiga bog'liq. O'zaro ta'sirlarning tashkiliy shakli bolani ihtiyoriy faoliyatini hamda unga kattalarning qo'shilishi. Bolaning rivojlanish darajasiga mos birgalikdagi faoliyat o'yinga aylanishi mumkin. Agarda birgalikdagi o'yinni shakllantira olinmasa, mutaxassis xonadagi predmetlarni bolaga boshqarish imkonini tashkillashtirishi lozim.

Bolaning o'yin faoliyatini rivojlanishini boshqa tomondan o'rganganda uning affektiv jarayonlaridagi nuqsonlarni aniqlashga imkon beradi. Masalan bola predmetlar bilan qanday harakatlanmoqda, predmetlarni mos o'yin shakllarida foydalanyaptimi yoki ularga boshqa ma'no beryaptimi; qisqa syujet epizodlarini ifodalamoqdami(ayiqchani mashinaga solib uchirishi), tashvish qo'rquvga oid syujetlarni o'ynashga qiziqishi; hayvonlarga aylanuvchi rollarni ijro etishga qiziqishiga e'tiborni qaratish muhim.

Autizimli bolaning emotsional-iroda va kommunikativ-imkoniyatlari jarayonlarini o'ziga xosligini aniqlashda, O.S.Nikolskaya klassifikatsiyasi bo'yicha ajratilgan autizimli dizontogenezi mezonlarini asosiylariga tayanish lozim.

Autizimli dizontogenezi birinchi turi(iroda faolligining darajasi):

- atrofdagi olamdan nafratining kuchayishi, barcha muloqotdan voz kechishi;
- sensor ta'sirlarga passiv ifodasi(bola qo'lga berilgan predmet yoki o'yinchoqni tashlab yuborishi);
- ko'ruv muloqotining yo'qligi(suxbatdoshiga qaramaslik);
- "xarbiy" xulqning borligi;
- mutizm, barcha verbal xarakterdagi muloqot imkoniyatlarining yo'qligi;
- harakatlarini bachkana ifodalashi.

Autizimli dizontogenezi ikkinchi turi(steriotiplarning darajasi):

- atrof muxitga ta'sirlariga ta'sirchanligini ifodalanishi(ovoz kuchi, yorug'lik, xaroratni tegishi);
- motor steriotiplarning ko'pligi;
- exolaliya, nutqiy steriotiplar, nutqiy shtamlarning borligi;
- steriotip muxitni tashkillashtirish talablarini ifodalanishi(ovqatni aloxida tanlashi, faqat bir turdagi kiyimlarni kiyishi, ma'lum bir aloxida predmetlardangina foydalanishi va xyuk.lar);
- qo'rquvining borligi;
- avtonom o'yin.

Autizimli dizontogenezi uchinchi turi(ekspansiya darajasi):

- xulqidagi janjalkashlikni ifodalanishi;
- biron-bir faoliyatga tez o'tishi;
- tasviriy muloqotning ifodalanganligi; motivatsiyasiz qo'rquvlarning borligi;
- suxbatdoshga qaratilmagan manzilsiz nutq;
- birinchi shaxs kishilik olmoshidan foydalanmasigi;

Autizimli dizontogenezi to'rtinchi turi(emotsional nazorat darajasi):

- muloqotda yuqori ta'sirchnligini ifodalashi;
- empatik qo'lab-quvatlashga ijobiy baholash talablari;
- yaqinlari bilan biologik bog'liqligi(onasi bilan);
- nutq sustlashuvchi xarakterga ega bo'lishi mumkin;
- ko'zli munosabat doimiy emas, uzuk-uzuk xarakterga ega.

Bolani emotsional boshqarish darajalarini o'rganish jarayonida mutaxassis u bilan muloqotga kirishish jarayonida autizimli belgilarni kuchayishini diqqat bilan kuzatishi lozim(autostimulyatsiya variantlarini kengayishi, tanlov munosabatlarini kuchayishi, undan to'liq voz kechishi, qo'rquvlarning yuzaga kelishi, agressiya, o'ziga agressiya).

Yaxshi ishlayotgan bola kutilmaganda zerikishi yoki charchashi oqibatida birdaniga vazifani bajarishni to'xtatib qo'yishi mumkin, unga berilgan vazifaga o'zining noadekvat reaksiyasi motivatsiyasiz predmet oldida qo'rquvni yuzaga keltiradi. Bunga bog'liq ravishda, ba'zi qo'llanma va testli vazifalarni taxminan xonaning turli joylarida bola ularga sekin-asta ko'nika olishi hamda unga yangi va notanish tuyulmasligi uchun davom ettirish lozim. Agar mutaxassis o'zining xonasida "Ertaklar olamiga sayyoxat" o'yinini bola bilan tashkillashtira

olsa yaxshi bo'lar edi. Bir predmetdan boshqa predmetga o'tishda bola tekshirish uchun kerakli maxsus diagnostik qo'llanmalarga tutiladi. Mutaxassis testli vazifalar va kerakli predmetlardan sekin-asta ehtiyotkorlik bilan ushbu jarayonni boshqaradi. Biron-bir jarayonni aniqlashga mo'ljallangan ba'zi qo'llanmalar bolaning tanlov va spesifik imkoniyatlarini xisobga olgan xolda qo'llanadi. Onasining va yaqinlarining ma'lumotlariga tayangan xolda o'yinchoqlar yoki uning faoliyati uchun predmetlarni tanlanishi lozim.

Affektiv jarayonlarning nuqsonini oyu'ektiv baholashda, uning rivojlanish dinamikasini kuzatish orqali kuzatish o'rganish maqsadga molikdir. Dinamik kuzatuvni amalga oshirishda albatta boladagi autizmli belgilarning namoyon bo'lishi yoki yosh darajasini mutaxassis albatta baholashi lozim. Shuningdek, bola tomonidan foydalanilayotgan adaptatsiya vositalarini kuzatish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nurkeldiyeva. D.A. Pedagogik-psixologik diagnostika Toshkent "VNESHINVESTROM" 2019
2. Shomaxmudova Sh.R. Inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy asoslari Toshkent 2018 y
3. Shomaxmudova. R.Sh. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma Toshkent 2011y

O'ZBEKISTONDA AQLI ZAIF BOLALARNI ERTA TASHXIS QILISH MUAMMOLARI**M.Ubaydullayeva****Qo'qon universiteti talabasi,****N.Q.Abidova****Qo'qon universiteti dotsenti****Pedagogika fanlari boyicha falsafa doktori (PhD)**

Annotatsiya: Maqolada aqli zaif bolalarni jamiyatga va maxsus ehtiyojli bolalar uchun imkoniyatlar haqida yoritilgan. Jamiyatda Imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan yanglish fikr va munosabatlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: aqli zaif bolalar, integratsiya, rehabilitatsiya, funksional, huquq, uzviylik, fikr, diqqat, korreksiya

Psixologo-pedagogik tashxis nuqsoning ifodalanish darajasini murakkablashtiruvchi yetakchi nuqsonlarni rivojlanishini aniqlab, ularga kerakli korreksion pedagogik ishga diqqatni qaratadi. Agar tekshiruv bolani maktabga borishidan oldin o'tkazilsa, unda bolaning qaysi maktabga maxsus korreksion yoki umumta'lim maktabiga tayyorgarligi aniqlanadi.

Psixodiagnostika bola rivojlanishining nuqsonlarni va uning o'ziga xos psixologo-pedagogik xususiyatlarini aniqlaydi. Boladagi ushbu xususiyatlarni bilish bolaning imkoniyatlariga mos maktabgacha va maktab ta'lim dasturini, ta'li muassasining turini, individual tibbiy psixologo-pedagogik dasturni ishlab chiqishga yordam beradi.

Aqli zaiflik deganda bosh miyaning erta jarohatlanishi yoki organik rivojlanmaganlik bilan bog'liq bo'lgan ruhiy va birinchi navbatda aqliy buzilishni tushunish kerak. Og'ir darajadagi aqli zaif bolalar umuman maktab bilimlarini va malakalarini egallay olish qobiliyatiga ega emaslar.

Aqli zaiflikning klinik-psixologik ko'rinishida asosiy buzilishi bo'lib bilish faoliyatining yaqqol yetishmasligi xisoblanadi. U ongning pastligi, umumlashtirish jarayonining shakllanmaganligi, psixik jarayonning marg'un bo'lmaganligi, xotiraning yetarli bo'lmasligi, diqqat va boshqa qator funksiyalardagi kamchiliklar borligi bilan xarakterlidir.

Aqli zaiflik uchun nutqning rivojlanmaganligi xarakterlidir. Aqli zaiflik turli etiologiyaga ega, u markaziy nerv sistemasining genetik jaroxatlanishi, ichki patogen ta'sirlar, tug'ruq paytidagi jarohatlar, asfiksiya, infeksiyaning bola miyasiga ta'siri, intoksikatsiya, jarohat va boshqalar bilan belgilanadi. Aytilganlardan kelib chiqqan holda aqli zaiflikka og'ir pedagogik qarovsizlikni kirgizish mumkin emas. Chunki uning ko'rinishlari yuqorida ko'rsatilgan mezonlarga o'xshab aqli zaiflikka olib kelmaydi (aqliy nuqsonning mavjudligi, bilish qobiliyatining pasayishi, aqliy funksiyalarning organik yetishmasligi hamda rivojlanishning biologik etiologiyasi).

Aqli zaif deganda bosh miyaning organik jihatdan jarohatlanishi natijasida psixik, birinchi navbatda intellektual rivojlanishning turg'un pasayishi tushuniladi. Aqli zaif bolalar umumta'lim maktablari dasturini o'zlashtirishga qodir bo'lmaydilar.

Og'ir darajadagi aqli zaif bolalar maktabda bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirib ololmaydilar.

Aqli zaiflikning klinik-psixologik ko'rinishida yetakchi nuqson bilish faoliyatining rivojlanmay qolganligidir. Bilish faoliyatining pasayganligi fikrlash operatsiyalari, psixik jarayonlarning sur'ati, harakatchanligining buzilishi, diqqat, xotira va bir qator po'stloq funksiyalarning rivojlanmay qolganligida namoyon bo'ladi.

Aqli zaiflikning etiologiyasi turlichadir. Aqli zaiflik homilaning ona qornidaligida, tug'ilishda yoki ilk rivojlanish davrida markaziy nerv tizimining genetik buzilishlari, jarohatlar, asfiksiya, infeksiyalar, intoksikatsiyalar oqibatida kelib chiqadi.

Aqli zaiflikning asosiy formalarini klinik tavsifi jarohatning patogenezi, salbiy ta'sirning vaqti bilan chambarchas bog'liqdir.

Ontogenezning ilk bosqichlarida markaziy nerv tizimining jarohatlanishida (1,5-2 yoshgacha) birinchi navbatda po'stloq tizimining shakllanishiga zarar yetadi. Jarohatlanishning morfologik ko'rinishda va psixik nuqsonning klinik namoyon bo'lishida rivojlanmay qolish ustun bo'ladi. Bunday hollarda oligofreniyalarning turli variantlari haqida gapirish mumkin.

Kattaroq yoshda, ya'ni bosh miyaning po'stloq tizimining nisbatan yetilganroq davrida yuz bergan salbiy ta'sir natijasidagi nerv tizimining morfologik va klinik ko'rinishda demensiyaning turli ko'rinishlari ustunlik qiladi.

Tekshirish metodlarining takomillashib borishi munosabati bilan nerv sistemasining genetik jarohatlanishi sabablariga katta ahamiyat berib kelinmoqda va aqli zaiflikning kelib chiqishidagi ko'p hollar ana shu sabablarga bog'liq deb ko'rsatilmoqda.

Aqli zaiflikning genetik formasiga xromosomalarning turli buzilishlari bilan bog'liq oligofreniya kiradi. Bunda xujayradagi xromosomalarning sonini o'zgarishi, mozaik shaklda bo'lishi (ba'zi xujayralarda xromosomalar sonini o'zgarishi, xromosomalarning tuzilishini buzilishi-xromosomalarning bir qismining yo'qolishi deletsiya), bir xromosomaning qismini boshqasiga qo'shilishi (translokatsiya), xromosoma formasining o'zgarishlari kuzatiladi.

Xromosomalar buzilishining sabablari turlicha bo'lib, ular to'liq aniqlanmagan. Bularga xususan ota-onalarning generativ xujayralarining to'la rivojlanmaganligi (xromosomalar qatorining noto'g'ri bo'lishi, yosh o'tgan sari ularning «qarishi», kimyoviy moddalar bilan zararlanishi, surunkali kasalliklar, radiatsiya) kiradi. Ota-onalar jinsiy xujayralarining rivojlanmay qolishida, xujayralarning bo'linishi jarayonida xromosomalarning ajralishi buziladi va turli variantdagi xromosomalarning buzilishi kelib chiqadi.

Genetik sabablarga ko'ra oligofreniyaning ikkinchi guruh enzimolatiya-turli fermentlarning tug'ma rivojlanmay qolganligi tufayli moddalar almashinuvining buzilishi natijasida kelib chiqadi.

Hozirgi vaqtda genetik sabablarga ko'ra moddalar almashinuvining buzilishi natijasida kelib chiqadigan aqli zaiflik (fenilketonuriya, galaktozemiya, gistidinamiya, gistinuriya, tirozimeniya, fruktozuriya va boshqalar) ko'p kuzatilmoqda. Eng ko'p fenilketonuriya uchraydi. Bu kasalliklarda ma'lum bir fermentning tug'ma yo'q bo'lishi organizmda zaharli moddalarni yig'ilishiga olib keladi (fenilalanin, gistidin, arginin, leysin) va bolalarning miyasi zaxarlanadi. Bunday buzilishlar bilan oligofreniyaning bir qator og'ir formalarini kelib chiqishi bog'liqdir. Ularning patogenezi yoritish davolashning samarali yo'llarini topishga yordam beradi.

Oligofreniyaning kelib chiqishida poligen turdagi irsiyatga ham alohida ahamiyat beriladi. Bunda avlodda ota-onalardan o'tgan patologik irsiy omillarning to'planishi yuz beradi.

Oligofreniyaning ekzogen formasiga shunday holatlar kiritiladiki, bunda nerv tizimining rivojlanmay qolishga homilalik davrida bolaning miyasiga tashqi salbiy ta'sirlar sabab bo'ladi.

Bularga embrionlik, homilalik davrida turli surunkali (toksoplazmoz, sifilis va boshqalar) va o'tkir (onaning homiladorlik vaqtida qizilcha, gripp, epidemik parotit, infeksiyali gepatit, toshma chechak va boshqalar) yuqumli kasalliklarning ta'siri natijasida kelib chiqadigan oligofreniyaning formalari kiritiladi. Ona organizmining alkogol, kimyoviy moddalar, shuningdek ba'zi dori-darmonlar (antibiotiklar, sulfanilamidlar, barbituratlar, xinin, gormonlar va hokazo) bilan zaharlanishi ham oligofreniyaning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Radiativ va rentgendan nurlanish ham homilaga va ota-onalarning hujayralariga patogen tarzda ta'sir ko'rsatadi. Onadagi turli endokrin kasalliklar ham (diabet, qalqon, bezlarining,

gipofizning jarohatlari) patogen rol o'ynaydi. Homiladorlikdagi toksikozlar, vitaminlar muvozanatining buzilishi ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Onadagi yurak-tomir tizimidagi, o'pkadagi, jigar va buyraklardagi surunkali yetishmovchiliklar homilaning patologiyasiga olib keladi. Ona va homila qonlarining rezus-omil bo'yicha bir-biriga to'g'ri kelmasligi ham salbiy oqibatlariga olib keladi.

Tug'ilishdan oldin homilada kislorodning uzoq vaqt yetishmasligi (gipoksiya) miyaning shakllanishga ta'sir ko'rsatadi.

Homilaning zararlanishida ta'sirning vaqti ham muhim ahamiyat kasb etadi. Homiladorlikning dastlabki uch oyi juda xavfli bo'lib, bu vaqtda organizmning muhim tomonlari miyaning shakllanishi yuz beradi.

Oligofreniyaning ekzogen shakllariga markaziy nerv sistemasining ilk rivojlanish davrida (1,5-2 yoshgacha) infeksiyalar, intoksikatsiyalar va jarohatlar natijasidagi zararlanishlar bilan bog'langan psixik yetishmovchiliklarning variantlari ham kiritiladi. Bu hollarda neyroinfeksiyalar orqali yuqtirilgan turli etiologiyadagi meningit, ensefalit, meningoensefalitlar, og'ir kechadigan somatik kasalliklar (qizamiq, skarlatina, parotit, dizenteriya va h-zo), nerv sistemasining intoksikatsiyasi (postvaksinal ensefalit) oligofreniyaning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Postnatal miya jarohatlariga ham alohida e'tibor berish lozim. Bunday jarohatlarning patogenezida gidrotsefaliya katta o'rin egallaydi.

Etiologiyasi bo'yicha aralash (endogen-ekzogen) bo'lgan oligofreniyalarning kelib chiqishi ko'pincha aniq bo'lmaydi. Bunda ko'pincha irsiy omillarning ta'siri katta deb ko'rsatilsa ham, oligofreniyaning bu shaqli ekzogen ta'sirlar natijasida ham kelib chiqishi mumkin. Kraniostenoz, mikrotsefaliya, gidrotsefaliyaning ba'zi formalari, kretinizm kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shoumarov «. B., Mamedov K. "Aqli zaif aqli zaiflikning og'ir darajasidagi bolalar psixologiyasi". Toshkent: "O'qituvchi", 1998.
2. Nurkeldiyeva. D.A. Pedagogik-psixologik diagnostika Toshkent "VNESHINVESTROM" 2019

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN O'QUVCHILAR
BILAN OLIB BORILADIGAN RIVOJLANTIRUVCHI KORREKTSION ISHLAR**

M.Isakova
Qo'qon universiteti talabasi,
N.Q.Abidova
Qo'qon universiteti dotsenti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilar uning jamiyatga va maxsus ehtiyojli bolalar uchun imkoniyatlar haqida yoritilgan. Jamiyatda Imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan yanglish fikr va munosabatlar bildirilgan. Integratsiyalashgan ta'lim haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilar, rehabilitatsiya, funksional, huquq, uzviylik, fikr, dialektik, uzviylik

Rivojlanishning orqada qolishi, susayishi deganda, ruhiy rivojlanishning bola yoshiga to'o'ri kelmasligi tushuniladi. Bunday nomutanosiblik o'z vaqtida tashkil etilgan, mos keluvchi adekvat yordam natijasida bartaraf etilishi mumkin.

Bunday hol bolalarda maktab ta'limiga tayyorlik darajasining shakllanmaganligida ko'riladi. Ta'limga tayyorgarlik o'z ichiga jismoniy, fiziologik, ruhiy va pedagogik shakllanishlarni oladi.

Ruhiy tayyorgarlik boshqa turlardan ajralib turadi va u quyidagi ko'rsatkichlarni oladi:

1. Tashqi dunyo haqida bolalardagi bilim va tasavvurlar darajasi;
2. Aqliy harakatlar, jarayonlar, malakalar;
3. Nutq taraqqiyoti, yetarli lu'at boyligiga ega bo'lishi, boo'liqli, ma'noli, monologik nutq elementlari;
4. Ma'lum qiziqish va intilishlarda namoyon bo'ladigan bilish aktivligi;
5. O'z xulqini boshqara bilish, o'z irodasiga bo'ysindira olish.

Ruhiy rivojlanishi susaygan bolalar maktab ta'limiga tayyorgarligida, yuqoridagi barcha me'zonlar bo'yicha tayyor bo'lmaydilar.

Bunday bolalarning tashqi olam, ijtimoiy muhit haqidagi bilimlar boyligi juda ham yuzaki, kambao'al bo'ladi. Ular buyumlarning xususiyatlari, sifatlari haqida, hatto ularni ko'rgan bo'lsalar ham, gapirib bera olmaydilar. Ularda aqliy jarayonlar yetarli shakllanmaganligi sababli, buyumlarning belgilarini umumlashtira olmaydilar. Nutq aktivligi past, lu'ati kambao'al, ularning jummlari sodda, gaplarning grammatik tuzilishi to'la bo'lmaydi. O'quv faoliyatiga qiziqishlari sezilmaydi. Ko'proq o'yin qiziqishlari ustunlik qiladi. O'zlarini boshqarish birmuncha buzilgan. Shular natijasida bolalar o'qituvchining talablariga qiyin bo'ysunadilar. Kun tartibini bajarish, ularda ma'lum qiyinchiliklar tuo'diradi. Markaziy nerv sistemasi funksional holatlarining zaifligi natijasida kelib chiqadigan tez charchash, diqqatlarning bo'linib turishi oqibatida ulardagi ta'limga tayyor emaslikni yanada chuqurlashtiradi. Oqibatda ular ommaviy maktab sharoitida ularga ko'rsatilgan individual yordamdan unumli foydalana olmaydilar.

Korreksion rivojlantirish, to'o'irlash ta'limi jarayonida bola taraqqiyotidagi notekislikni, uning tuzilishi aniqlash, har bir bola bilan individual ish dasutri tuzishga yordam beradi. Shuning uchun diagnostika vaqtida bolalar bilimlaridagi asosiy kamchiliklarni aniqlab qolmasdan, balki ulardagi aqliy jarayonlardan foydalana olish, uquvchanlik darajalarini ham aniqlash va e'tiborga olish kerak.

Ruhiy rivojlanishning susayish sababalari va klinik xarakteristikasi.

RRS da ruhiy rivojlanish tezligi, surati sekinlashgan bo'ladi. Yuqoridagilar bilan birga, RRSda intellektual tomonlarga nisbatan, ko'proq, xisssiyot buzilishlari yetakchi o'rinda turadi. Bu buzilishlar ruhiy yoki jismoniy infantilizm ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Infaktilizm-tom ma'nodagi "bolalikdir". Bolaning umumiy qiliqlari, qiziqishlari o'z yoshiga mos bo'lmay, balki bir muncha yosh bolalarni eslatsa, biz bunday bolalarga nisbatan, "psixo-fizik infantilizm" iborasini qo'llaymiz. Masalan, bola 7 yoshga kirib, maktabga borish muddati kelgan bo'lsada, bola o'zini 5 yoshli boladek tutadi. Unda jonli, o'zidan yosh bolalardagidek qiziqishlar bo'ladi. Agar bola yana biror yil taraqqiy etsa, o'z tengdoshlariga o'xshab ketishi mumkin.

Bolalarda ham ruhiy, ham jismoniy rivojlanish birgalikda orqada qolsa, ularga nisbatan "garmonik psixofizik infantilizm" iborasi ishlatiladi. Faqatgina ruhiy rivojlanishi orqada qolsa, ularni "psixik infantilizm" deb yuritamiz.

O'zlashtirmaslik, ayniqsa, boshlano'ich sinflarda bolalarlar tomonidan majburiy maktab barnomasini egallashlariga to'sqinlik qiladi. Ma'lumki, boshlano'ich sinf bolalarlarida aqliy va amaliy jarayonlar, ko'nikma va malakalar shakllanadi. Bunday boshlano'ich bilimlarning tuo'dirib, ba'zan ayrim bolalarlarning ta'limdan chetga chiqib olishlariga sabab bo'ladi. Bunday hollarda agar bola rivojlanishida buzilishlar bo'lmasa, maxsus yakkama-yakka ishlar orqali o'zlashtirmaslikning oldini olishi mumkin. Buning uchun o'zlashtirmaslikning oldini olish mumkin. Markaziy asab sistemasining yuzaki zararlanishi natijasida bunday bolalarda maktab ta'limiga ham jismonan, ham fiziologik, ham ruhiy mos kelmaslik yuzaga keladi. Maktab ta'limiga ruhiy jihatdan tayyor bo'lmaslik quyidagicha namoyon bo'ladi:

tashqi olam haqidagi tasavvur va bilimlarning yetarli emasligida;

aqliy jarayonlar, malaka va harakatlar yetishmasligida;

nutq rivojlanishining orqada qolishida;

ma'lum qiziqish va motivlarda namoyon bo'ladigan bilish qiziqishlarining chegaralanganligida;

o'z hulqlarini idora eta olmasliklarida ko'zga tashlanadi.

RRS bolalar yuqoridagi barcha ko'rsatkichlar bo'yicha maktab ta'limiga tayyor bo'lmaydilar. Ularning ruhiy xususiyatlari qator o'ziga xos belgilari, ko'rninshlari bilan normal va aqli zaif bolalardan farq qiladilar. Albatta, bu xususiyatlar ruhiy jarayonlar: diqqat, idrok, xotira, nutq, tafakkur va boshqalarning xususiyatlari bilan belgilanadi.

Boshlano'ich maktab o'qituvchilari ta'lim-tarbiyada quyidagilarga e'tibor berishlari lozim:

- RRS bolalarning ma'lum materialni egallashi uchun ko'p vaqtning sarflanishi;

- ko'rish orqali qabul qilinadigan materiallar mumkin qadar kam elementlardan iborat bo'lishi;

- yangi materiallar berish vaqtida, bolalar diqqatini chalo'itadigan qo'zo'atkichlar bo'lmasligi kerak.

Ularning psixofiziologik xususiyatlari, bilish faoliyatlarining o'ziga xosligi, ommaviy maktablardagi ta'lim mazmuni, ta'lim usullari, ish tezligi, ta'lim materialini egllashdagi ishchanlik holatlari juda qisqadir. O'qituvchilarning ta'kidlashlaricha, ba'zan bolalar darsda 15-20 minut yaxshi ishlaydilar, undan keyin charchash yuz beradi va darsga qiziqish pasayib borib o'ylanmagan, ma'nosiz harakatlar qila boshlaydilar. Buning natijisida juda ko'p xatoliklarga va xatolarni to'o'irlashalarga yo'l qo'yadilar. Ayrim bolalarda tez ta'sirlanish, qo'o'alish yuz bersa, ayrimlarida umuman ishlashga xohish bo'lmaydi. Bu holat ayniqsa yangi materialni o'zlashtirishda yaqqol namoyon bo'ladi. RRS bolalarning 15-20 minut davomida yaxshi ish qilish qobiliyatiga ega bo'lgan vaqtda olgan bilimlari izchil bo'lmasdan havoda osilib qolganday bo'ladi. Bilmilar oxirigacha o'zlashtirilmaydi, mustahkamlanmaydi. O'z

vaqtda tarbiyaviy ishlar olib borilmasa, bunday salbiy illatlar xarakterli xislatlarga aylanishi mumkin.

Diagnostik guruhlarda korreksion ishlarni tashkil etish prinsiplari bo'lishi mumkin:

1) bolalarning soo'lio'i haqida qayo'urish. Guruhda 15-17 ta bola bo'lib, sharoit yumshoq muomala asoslanadi. Toza havoda dam olishga, uyquga alohida e'tibor beriladi. Ko'proq e'tibor ritmika va jismoniy tarbiyaga beriladi. Shu bilan birga davolash ishlari olib boriladi. Otao'onalariga tegishli maslahatlar beriladi;

2) guruhlardagi masho'ulotlar barnomasi ommaviy boo'lovchilardagidek bo'lib, faqat olib borilish usullari bilan farq qiladi. Ko'proq qo'l bilan ishlash faoliyatlari amalga oshiriladi, tabiat ashyolari va atrofni o'rab turgan buyumlar bilan ko'proq tanishtiriladi. Amaliy harakatlar asosida kattao'kichik, oo'iro'engil, uzuno'qisqa kabi tushunchalar berib boriladi. Geometrik shakllar haqidagi tasavvurlari aniqlanadi va mustahkamlanadi. Bu ishlarda har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinadi;

3) yakkama-yakka va guruhlar bo'yicha masho'ulotlarni birgalikda olib borish. Dastlab guruhda orqada qolayotgan bolalar bilan yakkamao'yakka ish olib boriladi. Bu ishlar umumguruh ishlarining bevosita davomi bo'lib, orqada qolayotgan bola o'z tengdoshlariga yetib olmagunicha davom ettiriladi;

4) RRS bolalarda ijobiy hiso'tuyo'ularni yuzaga keltirish. Hech qanday baqiro'chaqirlarsiz, qo'polliksiz ish olib borish kerak. Bolalarni qiziqтира bilish kerak. O'yin faoliyatlarida didaktik materiallardan musobaqa tarzida foydalanish talab etiladi. Har bir masho'ulotdan bola zavq olishi kerak;

5) bolalardagi har qanday tashabbus qiziquvchanlikni rao'batlantirishi kerak. Bolalarni lol, hayron qoldiradigan, oddiy bo'lmagan narsalarni ko'rishga, tushuntirishga harakat qilishga, so'rashga o'rgatish guruhlardagi korreksiono'pedagogik ishlarning ajralmas qismi bo'lishi kerak. Bolalarning savollari e'tiborosiz, javobsiz qolmasligi kerak. Muomala vaziyatlar orqali bolalarda qiziquvchanlikni, tarbiyalab borilishi lozim. Suv, qor, suyuqliklar bilan turli tajribalar qilib ko'rsatish kerak;

6) qo'llarning mayda muskul harakatlarini rivojlantirishga e'tibor berishimiz kerak. Bu bilan bolalarni faqatgina yozishga tayyorlab qolmasdan, balki ularda bosh miya nutq markazlarining rivojlanishiga yordam beriladi. Bolalarning umumiy rivojiga ham ijobiy ta'sir etadi. Kontur shaklidagi geometrik shakllarning ustidan chizish ishlari birmuncha foyda beradi. Quyidagi maxsus masho'ulotlar sistemasidan foydalanish mumkin:

- a. turli rasm chizish xarakatlari orqali qo'l, barmoq, muskullarni rivojlantirish;
- b. barmoqlar uchun jismoniy tarbiya minutlar bajarish, kamalak chizish, kuzga barglarni bo'yash, turli detallar bilan figuralar yasash;
- c. v) oddiy va rangli qalamlar bilan turli bo'yashlarni amalga oshirish;
- d. g) rasm solish malakalarini hosil qilish;
- e. maxsus mashqlar sistemasi orqali bolalar qo'lini, barmoqlarini bevosita maktab yozuviga tayyorlab borish. Buning uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish mumkin:
- f. oddiy qalam bilan gorizontal, vertikal, qiya chiziqlar chizish. To'o'ri chiziqlar yordamida buyumlar chizish, kontur rasm solish, namunaga qarab rasm solish;

7) nutq ustida ish olib boriladi. Qilinadigan harakatlarni rejalashtirish, nutq, fikrini bayon qilishga o'rgatish. Bunda mumkin qadar bolani o'z harakatlarini so'z bilan ifoda etishga harakat qildirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Лебединский В.В. Нарушения психического развития у детей. М., 2004г.
2. Дети с ЗПР. Под ред. Власовой Т.А. М., 2004г.
3. К.К.Мамедов, Ф. Б. Шоумаров. Рухий ривожланиши сустлашган болалар хақида.Т, "Ўқитувчи". 1993й.

BILISH JARAYONLARI PATOLOGIYASI

Ashuraliyev Rahmonjon
Qo'qon universiteti talabasi,
Sanobarxon Asilova

Qo'qon universiteti "Ta'lim" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisdá sezgilarning buzilishlari, ayrim patologik holatlari, murakkab bilish jarayonlari va bilish jarayonlaridólarb muammolari haqida fikr yuritilgan. Turli kasalliklarda xotira buzilishning eng ko'p uchraydigan turlari, umumlashtirish va abstraksiyalash va sensor afaziya uchun nutq beqarorligi haqida fikrlar yoritilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: giperesteziya, gipesteziya, gipomneziya, oligofreniya, demensiya anteregrad amneziya, derealizatsiya, retrograd-kasallik, debillik, amnestik afaziya, idiotiya.

Kirish. Nega odamlar turlicha sezadilar? Sezgilarning buzilishi analizatorlar perifirik bo'limlarining faoliyati izdan chiqqanida hammadan ko'p ma'lum bo'ladi. Sezgilarning buzilishi juda xilma-xildir bular:

Giperesteziya (o'ta ta'sirchanlik), gipesteziya (kam ta'sirchanlik), anesteziya (sezuvchanlikning yo'qolishi), paresteziya (lovullash, sanchib og'rish, tortishish).

Bunday buzilishlar nerv tolalarining xususan tomir innervasiyasining organik va funksional buzilishlarida ro'y berishi mumkin. Sezgilar orasida eng ko'p azob beradigani og'riqdir. Og'riq shakllanishida qobiq, shuningdek qobiqosti xosilalari ishtirok etadi. Og'riqning signal ahamiyati-xavf solayotgan kasallikni ogoxlantirishdir. Ayrim patologik xolatlarda ayniqsa, psixik va asab kasalliklarida idrok qilish akti buzilishi mumkin.

Murakkab bilish jarayonlarining buzilishi agnoziyalar deb ataladi. Ko'rish, eshitish va taktik agnoziyalar farqlanadi. Ular tomir kasalliklari, travmalar, shish jarayoni va boshqa patologik xolatlarda bosh miya qobig'ining lokal shikastlanishida paydo bo'ladi.

Bosh miya organik shikastlanganda, kam hollarda esa zaxarlanishlarda va somatik kasalliklarda derealizatsiya tipidagi idrok buzilish ro'y berishi mumkin.

Bu murakkab patologik xolat bo'lib, bunda ongning o'ziga xos buzilishi bilan boruvchi idrok buzilishi kuzatiladi. Turli kasalliklarda xotiraning ayrim jarayonlari; esda saqlash, esga tushirish buzilishi mumkin. Buzilishning eng ko'p uchraydigan turlari gipomneziya, amneziya va paramneziya.

Gipomneziya-xotiraning pasayishi bo'lib, charchash vaqtida og'ir kasallikdan so'ng paydo bo'ladi. Kishi sog'aygach xotira joyiga keladi.

To'liq amneziya (qandaydir vaqt orasida ro'y bergan voqealar esdan chiqib qoladi) Qarilikdagi psixozlarda, miyaning og'ir shikastlanishida, karbon oksidi bilan zaxarlanganda kuzatiladi.

Amneziyalarni-retrograd va anteregrad turlari bor.

Retrograd-kasallik, shikastlanishdan oldin bo'lgan voqealar esdan chiqib ketadi.

Anteregrad amneziya-kasallikdan keyin bo'lgan voqealar esda qolmaydi.

Paramneziya (esga tushurishning buzilishi). Paramneziyaning konfabulyasiya va soxta reminissensiya turlari farqlanadi. Konfabulyasiya-haqiqatda bo'lmagan voqea va faktlar xotirada nomoyon bo'lib, bemorlar atrofidagilarni aldash istagisiz amalga oshiradilar. (alkogolizimli bemorlar, psixozlarga uchraydi). Soxta reminissensiya (noto'g'ri xotiralar) konfabulyasiyadan barqarorligi bilan farq qiladi. Tafakkurning buzilishi inson aqliy faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Tafakkurning asosiy tasniflari quyidagilar:

1. Sur'at, tezlik
2. Izchillik (grammatik va mantiiqiy)

3. Sobitqadamlik.
4. Samaradorlik.

Tafakkurning buzilishi faqat bosh miyaning organik shikastlanishida va psixik bemorlarda emas balki bir qator samatik kasalliklarda ham uchraydi.

Aql buzilishining asosiy formalari oligofreniya (aqlning tug'ma o'smay qolganligi) va demensiya (ortirilgan aqliy zaiflik)dir. Oligofreniya turli darajada ifodalanadi. U og'irlik darajasi jixatidan debillik, imbesillik, idiotiyaga bo'linadi. Debillik- oligofreniyaning yengil darajasi. Debillikda maxsus maktabda ta'lim oluvchilarni ayrim qobliyatlarini saqlanib qoladi. Umumlashtirish va abstraksiyalash qobliyatini pasaygan bo'ladi. Debillar tashabbusiz bo'lib jismoniy mehnatga qobil bo'ladi.

Imbesillik-aqli zaiflikning o'rta darajasi. Imbesillning nutqi kambag'al va duduqlanib gapiradi. Amalda ularni o'qitib bo'lmaydi. Idiotiya- aqli zaiflikning og'ir darajasidir. Bunda bemorlar psixikasi va nutqi amalda butunlay yo'q bo'ladi.

Demensiya- orttirilgan aqli zaiflik, global (yalpi, bir-biriga o'tgan) va uchoqli (lakunar) aqli zaiflikka bo'linadi. Yalpi aqli zaiflikda aqliy qobiliyat qo'pol ravishda buziladi Xotira keskin buziladi.Global demensiya bosh miyaning og'ir shikastlanishi, insult, gipertoniya, keksa yoshda avj olishi mumkin. Lakunar (qisman) aqli zaiflikda aql qisman izdan chiqadi, biroq fikriy jarayonlar sekinlashadi xotira pasayadi. Lakunar zaiflik qarilik oldidan og'ir somatik kasalliklarda uchraydi. Nutq inson hayotida qanday ahamiyatga ega? Nutq - til vositalaridan foydalanadigan o'ziga xos insoniy faoliyat normasidir.Til esa kishilarning bir-birlari bilan muomala qilish vositasidir. Nutq odatda tovush, ovoz bilan talaffuz etiladi; ba'zan odam tovushsiz nutq, shivirlashdan foydalanadi.

Gohida esa ovoz nerv tizimining funksional kamchiliklari tufayli vaqtincha yo'qolib qoladi.Nutqning shu tariqa izdan chiqishi afoniyalar deb ataladi.

Yozuv layoqatining buzilishi agrafiya deyiladi. Bu ko'proq bosh miya turli bo'limlari: optik zona, nutq zonasi, harakat zonasidagi o'choqli shikastlar munosabati bilan kelib chiqadi.

Yozish layoqatining o'ziga hos tarzda buzilishi klinikada «yozuv spazmi» deb ataladi. Nutq buzilishi esa afaziya deyiladi. Odatda afaziya bosh miya qobig'ininng nutq zonalari kasallik tufayli o'choqli, lokal shikastlanishi tufayli sodir bo'ladi. Nutq yagona funksional sistema bo'lib, uning barcha tomonlari bir-biri bilan bog'liqdir. Afaziyalarning bir necha turlari ajratib ko'rsatiladiki ular da ko'pgina umumiy va bir-biridan farq qiladigan hususiyatlar bo'ladi. Afaziyalar motor, sensor, amnestik, semantik afaziyalarga ajratiladi. Motor afaziya-so'zlarni talaffuz qilishga qobiliyatsizlik yoki bu qobiliyatning sezilarli ravishda pasayishidir. Bemorlar bir necha so'z yoki bo'g'inlarnigina ayta oladilar.

Bunday buzilish chap yarimsharning peshona burmasining quyi bo'lagi shikastlangan o'choqda bo'ladi. Sensor afaziyada kasal o'ziga qarata aytilgan nutqni yaxshi tushuna olmasligi bilan bir qatorda uning mustaqil nutqi izdan chiqadi, lekin eshituv layoqati bir qator saqlanib qolgan bo'ladi. Sensor afaziya bilan og'rikan bemorlarda, motor afaziya bilan og'rikan bemorlarga nisbatan o'zlariga qaratilgan nutqni tushinish ko'proq yomonlashgan bo'ladi. Sensor afaziya uchun nutq beqarorligi xarakterlidir. Amnestik afaziyada asosiy yomonlashuv predmetlarning normalarini unutib qo'yishdan iborat bo'ladi. (Nutq uchun yetakchi bo'lgan yarim sharning orqa bo'yin qismi shikastlangan bo'ladi) Bemor suratda tasvirlanagan qilichni miltiq deb ataydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishishimiz kerakki, sezgilar inson hayoti davomidagi eng muhim rolni bajaradi. Bilish jarayonlari buzilishi bilan bog'liq patologik holatlar kuzatilishi bilan darhol mutaxassis ko'rigiga yozilish zarur. Bunday holatlar qancha erta aniqlanib davolash ishlari erta olib borilsa, bemor uchun foydali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet sahifalari:

1. S. Hasanov, D. Abdumajidov, N. Ataeva "Shaxsni bilish jarayonlari"
2. N. Boymurodov. Amaliy psixologiya. Toshkent. 2018 yil.
3. <https://www.elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/13727-bilish-jarayonlari-patologiyasi>
4. <https://fayllar.org/bilish-jarayonlari-patologiyasi-v2.html>

O'SMIRLAR DIQQATINI TA'LIM JARAYONIGA JALB QILISH

Ahmadaliyeva Madinabonu
Qo'qon universiteti 1-bosqich talabasi,
Eshonqulova Guljaxon
Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada diqqat haqida tushuncha, ta'lim jarayonida o'quvchining diqqatini o'qituvchi tomonidan berilayotgan ma'lumotlarga jalb qilish, mavzuga doir ma'lumotlarning o'quvchi xotirasida tez va oson saqlanib qolishini ta'minlash usullari, bu boradagi muammolar va ularning yechimlari tadqiq etiladi. Diqqat inson aqliy faoliyatining asosi hisoblanadi. Zero, dars jarayonida o'quvchi aqliy faoliyatining faolligi ta'lim samarasining asosi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: o'smirlik, diqqat, ixtiyorsiz diqqat, ixtiyoriy diqqat, pedagogik jarayon, dars jarayoni, xotira.

O'smirlik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni o'z ichiga qamrab oladi, ya'ni 5-8 sinf o'quvchilarni. Diqqat psixik faoliyatning yo'naltirilishi va shaxs uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan ob'ekt ustida to'planishidan iborat bilish jarayonidir. Diqqat asosan ikki turga, ya'ni ixtiyorsiz va ixtiyoriy diqqat turiga ajratiladi. Biron tashqi sabab bilan va bizning xohishimizdan tashqari hosil bo'ladigan diqqatni ixtiyorsiz diqqat deyiladi. Diqqatimiz qaratilishi lozim bo'lgan narsani oldin belgilab olib, ongli ravishda qo'yilgan maqsad bilan ishga solingan diqqatni ixtiyoriy diqqat deyiladi.

Dars davomida intizomning buzilishi aksariyat hollarda o'quvchilar diqqatsizligidan emas, balki ijtimoiy sabablar bilan belgilanadi. O'smir o'z diqqatini to'la ravishda o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan va yuqori natajalarga erishishi mumkin bo'lgan faoliyatlarga qarata oladi. O'smirni diqqati yaxshi boshqariladigan va nazorat etiladigan darajada rivojlangan bo'lishi mumkin. Bolaning rivojlanayotgan ixtiyoriy diqqati o'qituvchi tomonidan doimo qo'llab-quvvatlanishi juda zarurdir. Pedagogik jarayonda ixtiyorsiz diqqatni ixtiyoriy diqqat darajasiga ko'tarish uchun bir qancha uslublar ishlab chiqilgan, shuningdek, o'smirning dars jarayonida o'z tengdoshlari orasida o'zini ko'rsatishi uchun sharoitni yaratilishi ham o'smirdagi diqqatni ixtiyorsizlar ixtiyoriyga aylanishida zamin bo'lib xizmat qilishi mumkin. Lekin, o'smirlik davrida juda qattiq charchash holatlari ham bo'ladi, Aynan 12-13 hamda 15 yoshlarda charchash chizig'i keskin ko'tariladi. Bunday holatlarda o'smir atrofdagi narsa va voqealarga to'liq diqqatini qarata olmaydi, diqqatini ko'rinishlariga o'smirlik erishish va yo'qotish bo'yicha to'la qarama-qarshi bo'lgan davr hisoblanadi.

Kuzatishlar davomida o'quvchilarning dars davomidagi aqliy faolligini ta'minlash va diqqatini mavzu materiallariga qay tarzda jalb qilish tadqiq qilindi. Olib borilgan kuzatishlar va tadqiqotlar natijasida o'quvchilar diqqatini o'qish materiallariga qaratishning quyidagi usullari aniqlandi:

1. Darsni o'quvchi qiziqishlaridan kelib chiqqan holda tashkil etish.
2. Darsni qiziqarli o'yinlar bilan bog'lash.
3. Rang-baranglikka intilish.
4. Rag'batlantirish.

1-usulga to'xtaladigan bo'lsak, o'quvchi o'zi uchun qiziq bo'lmagan ma'lumotlarga diqqat qaratmaydi. O'qituvchi mavzuni qanchalik yuksak mahorat bilan, ustalik bilan o'quvchilarga tushuntirmasin, agar o'quvchining o'zida qiziqish bo'lmasa, buning umuman foydasi yo'q. Bu ayni haqiqat. Shu sababli o'qituvchi o'quvchilar qiziqishlaridan xabardor bo'lishi lozim. Masalan, sinfdagi o'g'il bolalarning deyarli hammasi mashina, raketa, samolyotga qiziqadi. Buni dars bilan bog'lash juda oson. Mashina, raketa yoki samolyotni qatnash tirgan

holda matematik masala tuzilsa, o'quvchi o'z-o'zidan bunga diqqat qaratadi. Bu bilan o'quvchining diqqatini jalb qilgan holda mavzu materiallari o'rgatiladi.

Keying usul – darsni qiziqarli o'yinlar bilan bog'lash. "Ixtiyoriy diqqat, ayniqsa, o'qitishda katta ahamiyatga ega, dars o'zlashtirish ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Chunki o'qish nafaqat jiddiy mehnat, balki ko'p mashaqqatli ishdur. Shuning uchun u irodaga suyanadi. Ammo o'qishni faqat ixtiyoriy diqqat asosidagina o'tkazish o'quvchilarni tez charchatib qo'yadi. Shu sababli o'qishga qiziqtirish, darsni qiziqarli qilib o'tish kerak". Mohir pedagogga qo'yilgan talablardan biri bu - dars ma'lumotlarini qiziqarli o'yinlar bilan uyg'unlashtirish. Agar dars boshidan oxirigacha faqatgina mavzu bayoni bilan o'tadigan bo'lsa, bu hattoki katta yoshdagi maktab o'quvchilarini ham zeriktirishi, diqqatini chalg'itishi muqarrar. Shuning uchun o'qituvchi bisotida qiziqarli o'yinlar va metodlar ko'p bo'lishi zarur. Masalan, oddiygina bor bilan ham qiziqarli o'yin o'tkazish mumkin. O'quvchilardan oddiy tarzda o'tilgan mavzular bo'yicha ma'lumotlarni so'rash ancha zerikarli. Buni qiziqarli tarzda o'tkazish mumkin. Yozuv taxtasiga katta qilib aylana chizamiz va buni qora oyna deb tasavvur qilamiz. Bu oynaning narigi tomonida barcha bilimlar jamlangan. Oynani sindirish va bilimlarni chiqarib olish zarur va buni bajarish uchun o'quvchilardan yordam so'raladi. Har bir o'quvchi bitta ma'lumot aytadi va oynaga "X" belgisini chizadi. Aylana "X"larga to'lgandan keyin oyna parchalanadi va bilimlar chiqarib olinadi. Bu jarayonda nafaqat o'quvchining diqqati darsga jamlanadi, balki bilimlari mustahkamlanadi.

3-usul – rang-baranglikka intilish. Ushbu usulni 2 xil ma'noda tushunish mumkin:

1. Dars jarayonida rangli materiallardan foydalanish.

2. Darsda bir xillikdan uzoqlashib, turfa xil metodlardan foydalanish, darsni turli xil usullarda o'quvchilarga tushuntirish.

Ranglar inson miyasiga juda katta ta'sir qiladi. Agar o'qituvchi mavzu ma'lumotlarini rangli qog'ozlarga yozib, o'quvchilarga tushuntirsa, ranglar o'quvchi diqqatini o'ziga jalb qiladi. O'quvchilar avval rangga e'tibor bergan holda, keyin qog'ozdagi ma'lumotlarga e'tiborini qaratadi, o'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarida shunisi aniq bo'ldiki, ushbu rangli qog'ozlarga yozilgan ma'lumotlar oq qog'ozga yozilgan ma'lumotlardan ko'ra ko'proq o'quvchi diqqatini jalb qiladi hamda xotirasida tez va oson saqlanib qoladi.

4-usul – rag'batlantirish. O'quvchi rag'batlantirilganda o'z bilimiga ishonch hissi paydo bo'ladi. Bu tuyg'uning o'rnini keyinchalik darsni o'rganishga bo'lgan ishtiyoq hamda shijoat egallab oladi. Qarabsizki, o'quvchi maqsadli ravishda darsga diqqat qila boshlaydi. Rag'batlantirish usuli orqali o'qituvchi dars mobaynida juda katta muvaffaqiyatlarga erishadi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, diqqat ta'lim-tarbiya sohasida juda katta ahamiyatga ega. Chunki fikr yuritish, xotirada saqlash, idrok etish kabi jarayonlarning barchasi diqqat tufayli sodir bo'ladi. Darsda o'qish materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirish, avvalo, diqqat bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M. Raxmpiova. Ta'limda diqqatning roli. Toshkent: «O'qituvchi», 1963 y.
2. N. Boymurodov. Amaliy psixologiya. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2008.
3. P. I. Ivanov, M. E. Zufarova. Umumiy psixologiya. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2008.
4. Umumiy-psixologiya. Darslik P.I.Ivanov-M.E.Zufarova-T-2008.
5. Z.T.Nishonova. Rivojlanish psixologiyasi. TOSHKENT: «PRINT 25» 2019.

PEDAGOGIK JARAYONDAGI NIZOLAR VA UNING OLDINI OLISH YO'LLARI

Komila Karimova
Bag'dod tumani 55-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik faoliyatdagi, shuningdek, jamoalardagi nizolar va ularning oldini olish usullari haqida ma'lumot berilgan. Jamiyatdagi nizolar va kelishmovchiliklar haqida zarur ma'lumot va bilimga ega bo'lish har bir kishi uchun foydalidir. Nizolarni hal etish pedagogik jamoalarning psixologik holatini yaxshilashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Kalit so'zlar: konflikt, pedagoglar, yo'q qilish, bahslash, tergov, maqsad, psixologik holat.

Hozirgi kunda nizolarni samarali bartaraf etish pedagogik jamoadagi psixologik muhitni emotsional yaxshilashga qaratilganligi, hamkorlikda ishlash samaradorligini oshirishni ta'minlash garovi ekanligi hech kimga sir emas. Shu boisdan pedagogik faoliyatdagi va umuman nizolar haqida zaruriy ma'lumotlarga ega bo'lish foydadan holi bo'lmaydi.

Nizolarni buzg'unchilik oqibatlarini muvaffaqiyatli hal etish ularni atroflicha o'rganishni talab etadi. Bunga esa jamoani yuqori darajada rivojlanganligi va iliq ijtimoiy psixologik muhitga ega bo'lishi orqali erishiladi. Dastlabki nizo haqidagi konsepsiyalar XIX-XX asrlarda vujudga kelib, asosiy nizo va uning yechimlarini topish yo'llari bo'yicha qo'yilgan qadamlar o'tgan asrning oxirlarida salmoqli o'rin tutadi.

Bugungi kunda psixologiya va ijtimoiy psixologiyada V.O.Ageev (1990), A.A.Bodalev (1983), V.I.Juravlev (1983), N.N.Obozov (1979), I.A.Kon (1997), Ya.A.Ansupov, A.I.Shipilov (2000), F.M.Borodkin (1989), A.K.Zaysev (1992, 1993), A.G.Zdravomislov (1995) va shu kabi boshqalarning tadqiqotlarida nizoning nazariy asoslari yoritiladi. Nizo (lotincha so'zdan olingan bo'lib, "to'qnashish") - maqsad, qiziqish pozitsiyalar, fikrlar, qarashlar, kishilarning o'zaro ta'sirlashuvidagi qarama - qarshi yo'nalishlar bo'yicha to'qnashishlardan iborat. Har qanday nizoning asosida qaysidir ma'noda maqsad va manfaatlar o'rtasidagi ziddiyat va qarama-qarshiliklar yotadi.

Jamoadagi nizoni tabiatini yoritishdan oldin uning ikkita xarakterli jihatini inobatga olishimizga to'g'ri keladi. Birinchisi nizo va ikkinchisi nizoli vaziyatdir. Ko'pgina adabiyotlar tahlili asosida nizo bilan nizoli vaziyat ajratib turuvchi quyidagi formulani e'tiborga olish muhim deb hisoblaymiz:

Nizo + Muammo + Nizoli vaziyat + Nizo ishtirokchilari + Insident.

Bundan ko'rinyaptiki nizo nizoli vaziyat va u bilan bog'liq boshqa bir qa- tor ahamiyatga ega elementlarni birlashtirishini guvohi bo'lish mumkin. Pedagogik jamoadagi nizolarni tahlil etish va uni hal etish zarurat tug'ilganda nizo tarkibidagi har bir elementni o'rnini aniq baholashga to'g'ri keladi. Nizolarni vujudga kelishi va uni oldini olishda yuqorida taqdim qilingan formulaga alohida e'tibor qaratish ma'qul. Psixologik muhit guruhiy manfaatlarini qondirish, shaxslararo va guruhiy nizolarni hal etishdagi amalga oshirilayotgan muloqotda vujudga keladi va namoyon bo'ladi. Shu bois ushbu munosabatlar tafovutli xarakterga egaki, ular ba'zan do'stona, hamkorlik, musobaqa yoki raqobat, hamjihatli yoki uyaltirib qo'yish, qo'pollik yoki ongli tartib-intizom tarzida gavgaldanadi. Psixologik adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim oluvchilarning o'zaro ta'sirlashuvi ko'pchilik holatlarda to'rtta asosiy ta'sir ko'rsatish usuli orqali amalga oshiriladi: e'tiqod, taqlid, ta'sir, majburlash.

Ta'kidlab o'tilgan usullardan ham ma'lumki pedagogik jamoadagi o'qituvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuv formalarida ham ular o'z aksini topishi tabiiy. Chunki ba'zi holatlarda, o'qituvchi tomonidan berilayotgan topshiriq va vazifalarning berilishi ta'lim oluvchilarning dunyoqarashiga mos kelish va kelmasligiga qarab nizoli holatlarni vujudga kelishi tabiiydir. Agar o'qituvchi shaxsi pedagogik jamaoda yetarlicha mavqeiga ega bo'lgan

sharoitda beriladigan vazifa va topshiriqlarning bajarilish tartibi ta'sir ko'rsatishning e'tiqod darajasini namoyon qilishi mumkin. Ishonch va nufuzning yo'qolishi, yetkazilayotgan ma'lumotlarning to'laqligi va aniqligi, muloqot jarayonlarida shubhaning paydo bo'lishi va boshqalar ham aynan nizoli vaziyatlarni jamoada kechishiga zamin hozirlaydi.

Nizo to'g'risidagi odatiy tasavvurlar ma'lum maxsus tadqiqotlar tomonidan salbiy ahamiyatga ega ekanligi tasdiqlandi. M.Doychning ilmiy ishlarida nizolar nazariy jihatdan tahlil qilinib, ularni ikki turga ajratadi: destruktiv i produktiv.

Destruktiv nizoni aniqlash kundalik tasavvurlar bilan mos keladi. Aynan bu tipdagi nizo o'zaro ta'sirlashuvda xilma xillikni va fikrlarni toptalishiga olibkeladi. Destruktiv nizo ko'pincha sababga bog'liq bo'lmagan holda balki shaxsning stressga tushishiga olib keladi. Uning uchun o'ziga xos belgilar nizo sodir bo'lishiga qiziquvchilar sonining ortishi, ularning nizoli harakatlari, bir-birlariga nisbatan salbiy ustanovkaga egaliklari va bildirilayotgan fikrlarning keskinligini belgilaydi. Boshqa bir belgisi sifatida nizoda opponetning sifat va xislatlarini, o'zaro ta'sirlashuv vaziyatlarini noto'g'ri idrok etishi va sheriklarga ishonchni o'ta ortib ketish nazarda tutiladi. Bu tipdagi nizolarni hal etish ancha murakkab bo'lib, yagona yo'li ancha qiyinchilik bilan erishiladigan murosa (kompromiss) hisoblanadi.

Produktiv nizoni muammo va uning yechish yuzasidan nuqtai nazarlardagi tafovutlar va shaxslar o'rtasidagi hamjihatlikning yo'qligi keltirib chiqaradi. Bunday holda nizo muammoni atroflicha tushunishni, sheriklar motivatsiyasini, boshqa nuqtai nazarlarni himoyalashlarini taqazo etadi.

Biz nizolarni psixologik tahlili asosida quyidagi tarkibiy ko'rinishga egaligini keltirib o'tamiz. Nizolarning umumiy sxematik ko'rinishi Yuqorida keltirilgan rasmdan foydalanib, quyida nizoning funksiyalari xususida to'xtalib o'tamiz. Nizo o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hodisadir. Nizo bu keng ma'noda va tor ma'noda tushuniladi. Keng ma'noda nizo – bu jamiyatdagi yangi va eski qarashlar o'rtasidagi kurash deb qaraladi. Tor ma'nodagi nizo – bu bir muammoni yechishdagi har bir shaxsning o'z fikrini qattiq turib himoya qilishida yuzaga keladi.

Nizo ijtimoiy psixologiyada qanday tushuniladi? Muomalaning buzilishi yoki psixologik jihatdan ichki ruxiy kelishmovchilikdir. Buni olimlar har sohada har xil tushunishadi. Masalan: G.Kovalev nizoga shunday ta'rif beradi: Nizo insonlar o'rtasida ijtimoiy va shaxsiy masalalarni yechishda vujudga keladigan holat, lekin har qanday qarshilik bu nizo bo'lavermaydi.

Odamlar bir-birining fikri bilan kelishmasligi va o'zaro bahslashishi mumkin, har biri o'z fikrida qoladi, lekin baribir kelishib ishlashga ko'p hollarda majbur bo'ladi, qarama-qarshilik ba'zan yoqtirmaslik, emotsiya, tushunmaslik, ko'ra bilmaslik va boshqa sabablar nizoning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Nizo nafaqat qarama - qarshilik, shuningdek, o'ziga xos kurashish hamdir. Har ikkala tomon ham bunday holatda o'zlarini haq deb bilishadi va o'zaro kurashadi. Nizo bu qarama – qarshi dunyoqarashlar negizida yuzaga keladi. Nizoni albatta yechish kerak, chunki busiz hayot me'yorida davom etmaydi. Yuqorida aytib o'tganimizni tahlil qilib, psixologik nuqtai nazardan biz shunday ta'rif beramiz: "Nizo – bu shaxslardagi qarashlar, qiziqishlar o'rtasida qarama – qarshilik natijasida yuzaga kelgan psixologik holat bo'lib bu faqat shaxslarningbir-biri bilan hamkorlik jarayonida yuzaga keladi".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bryazgunov I.P., Kuchma V.R. Sindrom defitsita vnimaniya s giperaktivnostyu u detey. - M.: Institut psixoterapii, 1994. 43str.
2. Zavadenko N.N. Kak ponyat rebenka: deti s giperaktivnostyu i defitsitom vni-maniya. // Lechebnaya pedagogika i psixologiya. Pril. k. jurnal «Defektologiya». № 5. - M.: «Shkola – Press», 2000.112 s.
3. Goziev E.Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi),Toshkent "O'qituvchi", 1994.
4. Goziev E. Umumiy psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi), Tashkent, 2010.

**TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INSON QADRI VA BARKAMOL
AVLOD SHAKILLANISHIDA PEDAGOGIKA VA PSIXALOGIYANI O'RNI**

Keldiboyeva Zumrad
Qo'qon universiteti 3 - kurs talabasi,
Mulaydinov Farxod Murotovich
Qo'qon universiteti kafedra mudiri

Anotatsiya: Ushbu maqolada ta'limning ko'plab ta'riflari mavjud, ammo sodda qilib aytganda, ta'lim bu umumiy bilimlarni berish, fikr yuritish va fikr yuritish qobiliyatini shakllantirish va umuman to'g'ridan-to'g'ri o'rganish jarayoni yoki harakatlaridir.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, fikr yuritish qobiliyati, hayotingizni samarali rejalashtirish, ta'limning inson hayotida tutgan o'rni.

Ma'lumki, muvaffaqiyat muvaffaqiyatlarga olib keladi. Ta'limni hech qachon e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi, chunki ta'lim har qanday jamiyatning yuragini tashkil qiladi. Har qanday jamiyatning muvaffaqiyati uchun yangi kashfiyotlarni yaratish, bu kashfiyotlarni bilish orqali ta'limga erishish mumkin. Bugungi kunda ko'plab rivojlangan davlatlarning o'sishini odamlarga berilayotgan ta'lim sifatiga bog'liqdir. Sifatli ma'lumotga ega bo'lgan odamlar jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'sishi va rivojlanishiga olib keladigan islohotlarni amalga oshirish orqali jamiyatni yaxshilashga qodir. Ta'lim sizning atrofingizdagi dunyoni yaxshiroq tushunish uchun ongingizni ochadi. Ta'lim orqali dunyoning turli joylarida bo'lib o'tadigan turli madaniyat va voqealarni o'rganish mumkin. Ta'lim orqali bizning ufqlarimiz kengayib bormoqda, shunda biz nafaqat mamlakatlarimizda sodir bo'layotgan voqealar bilan cheklanib qolamiz, balki butun dunyo bo'ylab sodir bo'layotgan voqealar bilan cheklanib qolamiz. Ta'lim sizga hayotda ishonchli bo'lishga yordam beradi. Ta'lim olganingizda o'z hayotingizni samarali rejalashtirishga qodirsiz, chunki bu hayotdagi muammolarni tahlil qilishga yordam beradi va duch keladigan muammolar echimini topishga yordam beradi. Ma'lumotli odamlar hayotni ijobiy tomonga o'zgartira oladigan qarorlar qabul qilish imkoniyatiga egalar, chunki ular har kuni yangi narsalarni o'rganayotganda ko'p tajribaga ega bo'ladilar. Ta'limning ahamiyati rivojlangan mamlakatlarda yaqqol ko'rinib turibdi, chunki u shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishda katta rol o'ynaydi. Ta'lim kambag'allik, zulm va urushni engillashtirish vositasi sifatida ishlatilgan, chunki rahbarlar mamlakatni rivojlanishiga olib boradigan bilimlarga ega. Ba'zi mamlakatlarda insoniyatni tashvishga soladigan muammolardan biri bo'lgan aholining haddan tashqari ko'payishi muammosi mavjud edi. Odamlarning haddan tashqari ko'p bo'lishi, tegishli va sifatli ma'lumotlarning etishmasligi bilan izohlanishi mumkin. Ertaga kattalar bo'lgan yoshlarga jinsiy tarbiya berilishi kerak. Hayotda moliyaviy o'sishga ta'lim orqali erishish mumkin. Pulni oqilona boshqarish va pulni oqilona sarflash bo'yicha ko'rsatmalarga yaxshi ma'lumotga ega bo'lganda erishish mumkin, chunki siz o'z biznesingizni boshlash yo'llarini yaxshi bilasiz. Ta'lim odamlardan o'z huquqlari to'g'risida xabardor qilishning asosiy vositasi sifatida ishlatilgan.

Va nihoyat, yosh bolalar ta'limning muhimligini tushunishlari kerak. Miyangizni to'yingan qilish, foydali ma'lumot olish, referat yozish yoki o'quv qo'llanmasidan foydalanish va hk.

Inson tarbiyasining ifodasi nimada? Ta'lim bilan bir qatorda, asrlar davomida oldingi avlodlar tomonidan to'plangan ko'p tomonlama tajriba qabul qilinadi va buning natijasida o'z navbatida ertangi kunga yo'l ochiladi. Shunday qilib, ta'limning inson hayotida tutgan o'rnini ortiqcha baholashning iloji yo'q, bu o'ziga xos chorrahadir - hozirgi zamonda yashash, o'tmish donoligi kelajakda amalga oshirish uchun ishlatiladi.

Mutaxassislarining fikriga ko'ra, yoshligida yaxshi ma'lumotga ega bo'lgan odamlar qarilikda aqliy zaiflik, ruhiy kasalliklar va Altsgeymer kasalligidan aziyat chekishadi.

O'rta maktab diplomi va uni bitirganligini tasdiqlovchi diplom, o'z egasini o'qitish foydasiga zaif dalillardir. Albatta, zamonaviy dunyoda buni bilmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi, ta'lim to'g'risidagi hujjatlarning mavjudligi ma'lum afzalliklarni beradi, rasmiy ravishda, masalan, axloqiy nuqtai nazardan ishlaganda, bu boshqalardan ustunlik qilmaydi. Nima uchun? Bilim bilan tasdiqlanmagan sertifikat yoki diplom - bu bilimsizlikning eng yomon shakli va maktab mavzusini "mukammal" bilish hali odamni o'qimaydi. Ushbu tushuncha ko'p qirrali birikmani anglatadi:

- asosiy va oliy ma'lumot,
- axloq me'yorlari va axloqiy me'yorlarga rioya qilish,
- shaxsiy rivojlanish
- tajriba orttirish
- o'z potentsialini butun jamiyat manfaati uchun ro'yobga chiqarish,
- erishilgan balandlikdan qat'i nazar, o'sishni va yaxshilanishni istash,
- nima bo'lishidan qat'i nazar, har doim madaniyatni olib yuruvchi bo'lib qoladi.

Inson tarbiyasining asosiy bosqichlari. Har bir inson hayoti davomida, tug'ilish paytidan to keksalikka qadar, ta'lim jarayonida uzoq yo'lni bosib o'tadi - avval ma'lum bilim va ko'nikmalarni egallaydi, so'ngra ularni mustahkamlaydi va o'zi uchun yangi narsalarni ishlab chiqishni va o'rganishni to'xtatmaydi. Odamlar bilim va ta'limni nafaqat maktab skameykasida olishadi, bu allaqachon jozibali iboraga aylangan "hayot haqidagi fan" iborasiga e'tibor berish kifoya - eng aqlli o'qituvchilar bilan shug'ullanish kerak. Va inson ta'limining barcha bosqichlari quyidagicha ko'rinadi.

Ta'limning boshlanishi - inson go'dakligida hamma narsani o'rganganida, ya'ni noldan gapirganda oladi. Atrofidagi dunyoni bilgan holda, kelajakda yanada murakkab fan qurilishi kerak bo'lgan narsalarning barchasini o'zlashtiradi,

Boshlang'ich ta'lim - uyda yoki bolalar bog'chasida tarbiyalash, bolaga xatti-harakatlarning birinchi qoidalari, eng oddiy tushunchalar o'rgatilganda, yozishni va hisoblashni o'rganish uchun zamin unga tushunarli shaklda tayyorlanadi;

Maktab ta'limi - ta'lim poydevorini qo'yish, bilimga bo'lgan qiziqishni uyg'otish, uning qiziqishini qo'zg'atish. Maktabda o'qitish jarayonida bola boshqa madaniyatlar, tarix bilan tanishadi, dunyoning haqiqiy o'lchamlari va unda to'plangan bilimlarni anglaydi,

Oliy ma'lumot - maktabni davom ettiradi, faqat biroz boshqacha doirada: o'qitish tor doirada olib boriladi va kelajakdagi kasbni tanlashga moyil bo'ladi. Ushbu bosqichda yoshlar voyaga etganlar bilan uchrashishga tayyorgarlik ko'rishadi,

Amaliy ta'lim - bu ish deyarli xuddi universitetdagi kabi, faqat amaliy kishilar uchun joy, odamlar amaliy bilim va ko'nikmalarni egallaydilar, ular tezda tajribaga aylanadi,

O'z-o'zini tarbiyalash - Bu kundalik vaziyatlar bilan ta'minlangan turli xil materiallar va manbalardan, kitoblar va Internetdan ilm-fanga qadar ilgari olingan bilimlarni takomillashtirish jarayoni.

Ta'lim jarayonida fanlar bo'yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashga hamda ularni ko'nikmaga aylantirishgagina emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo'llashga ham imkon beradi. Bunday mashg'ulotlar tanlagan kasbi to'g'ri ekaniga ishonch hissini uyg'otadi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi davrdagi o'qituvchining kasbiy shakllanish jarayonida maktab rahbariyati, ayniqsa, ilmiy mudir hamda pedagogik jamoatchilik katta rol o'ynaydi. Yosh o'qituvchilarga tajribali o'qituvchilarni biriktirib qo'yish, ularning darslarini kuzatish, uslubiy ishlarga jalb etish maktab rahbariyatining asosiy vazifalaridan biri. O'qituvchi o'z kasbini sekin-asta o'zlashtirib borishi bilan birga ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni

targ'ib etadi. Shu yo'l orqali ham kasbiy shakllanishi takomillashib boradi. O'qituvchilik kasbini va pedagogik mahoratni egallash, maktab o'qituvchilar jamoasiga kirishib, unda o'z o'rnini topib keta olishi yosh o'qituvchining o'ziga bog'liq. Jamoaning yordamidan yuz o'girmaslik, qiyinchiliklarga duch kelganda ruhan tushmay, o'z xatolarini ko'ra bilish va uni bartaraf etish uchun harakat qilish uning o'qituvchi bo'lib shakllanishidan darak beradi. Shu bilan birga, o'qituvchining kasbiy shakllanishi o'z-o'zini tarbiyalab borishga, o'z ustida tinmay ishlashga va o'z vaqtida malakasini oshirib borishga uzviy bog'liq. Bularning hammasi kasbiy fazilatlarining ajralmas qismihisoblanadi.

O'zbekistonda ta'lim tizimini o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasining milliy g'oyalari, talablari asosida tashkil etish, uni jamiyat taraqqiyoti istiqbollari va jahon andozalariga javob bera oladigan darajada bo'lishini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalasidir. Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni o'tmish qoldiqlaridan tozalash va rivojlangan demokratik davlatlar darajasiga ko'tarish, jamiyat ravnaqi uchun yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta'lim tizimi xodimlarining umumiy vazifasidir. Shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimini nazariy-metodologik jihatdan qurollantirish – bugungi kunda pedagogika fanining bosh maqsadi sifatida belgilangan. Yuqorida bayon etilgan yuksak, ammo, sharaflil vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash har bir pedagogik xodimdan yuksak kasbiy mahorat, bilimdonlik va keng dunyoqarashni talab etadi. Pedagogik mahorat – o'qituvchi ijodkorligining oliy namunasi bo'lib, u yillar davomida shakllanadi. Uning yuksak mahoratni egallashi g'oyat murakkab jarayon bo'lib, pedagogika fanining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. O'qituvchi kasbiga xos bo'lgan ko'pgina fazilatlar bilan birga uning pedagogik mahoratni egallashi katta ahamiyatga ega. Yuqori pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchigina o'z kasbiga layoqatli, iste'dodli bo'lishi mumkin.

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi yuqori pedagogik mahorat va keng dunyoqarashga ega bo'lishi kerak. Shundagina oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat egasi bo'lishi mumkin. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchi o'z fanini chuqur bilishi, unga turdosh fanlar haqida ham tushunchaga ega bo'lishi, o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olishi, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otishi, o'quvchilarning bilim, kamolot darajasi va ruhiyatini hisobga olishi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini tasavvur eta olishi lozim. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zini o'quvchining o'rniga qo'ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo'lgan narsalarni o'quvchilarga tushunilishi qiyin va mavhum bir narsa bo'lishi ham mumkinligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning xarakter va shaklini alohida o'ylab chiqadi hamda rejalashtiradi.

O'qituvchi o'quvchining, ichki dunyosiga kira olishi, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilishi bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvlar olib borishi kerak. Bunday o'qituvchi o'quvchining ruhiyatiga ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham tez fahmlab oladi. O'qituvchida nutq o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati hisoblanadi. Bu o'qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. O'qituvchining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuzi jihatdan yorqin, ifodali, his-hayajonli bo'lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim.

O'qituvchi kasbiga xos bo'lgan xislatlar, ya'ni yuksak pedagogik mahorat unda birdaniga shakllanmaydi. U o'z ustida tinmay ishlash, izlanish va ko'nikmalar asosida rivojlanadi. O'qituvchining yuqori kasbiy mahoratni egallashi bevosita uzluksiz ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Uzluksiz ta'lim tizimida asosiy o'rin egallagan malaka oshirish o'quvchi faoliyatini tahlil qilish va unga istiqbol yo'nalishlar berishga imkon beradi.

Hozirgi davr o'qituvchidan o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiya talablarini to'g'ri tushunish, tashabbuskorlik, o'z fani bo'yicha yangiliklardan xabardor bo'lishi va darslariga joriy eta olishni talab etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni vujudga keltirish, do'stona muhitni yaratish muammosining muvaffaqiyatli hal etilishi, fan o'qituvchilari va maktab rahbariyatining egallagan bilim, ko'nikma malakalari va shaxsiy insoniy fazilatlarini egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

O'qituvchi avvalo:

- Yumshoq ko'ngilli, ochiq chehrali, shirinso'zli, bolalarni qanday bo'lsa shundayligicha yaxshi ko'rishi;

- Mehr-muhabbat, qalb g'urini o'quvchilarga bab-baravar bo'lib berishi, sinfda do'stona muhitni yaratish va o'quvchilarning o'quv motivlarini rivojlantiruvchi kuch-rag'batlantirish metodlari ekanligini anglash;

- O'quvchilarning taqdiri, baxti va kelajagi uchun mas'ul ekanligini chuqur his etish, ularning nafsoniyati va qadr-qimmatini e'zozlash;

- Har qanday pedagogik vaziyatda o'quvchilarga qo'pollik qilmaslik, haqorat qilish va baqirish, taqdid va qo'rqitishdan o'zini tiyishi zarur;

- O'quvchilarni tushuna olishi, ularning his-tuyg'ularini qadrlash, tashvishlari, iztiroblarini engishiga yordam berishi, yoshlik va psixologik rivojlanishda o'ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini bilish.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim tizimining odil va demokratiyalashtirilishi o'quv jarayoniga o'zgacha talab va o'zgacha pedagogik munosabatlarni kashf etadi. Bu jarayon mazmun mohiyatdan avvalgidan tubdan farqlanadi.

Ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, mustaqil fikr yurita oladigan ijtimoiy faol yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalash vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishning dolzarb muammolari.
<https://abiturtest.uz/mavzular/talim-tarbiya-samaradorligini-oshirishning-dolzarb-muammolari/>

2. A.Qurbonov. Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda didaktik o'yinlardan foydalanish. Samarqand – 2011.

3. Respublika ta'lim markazi. Sifatli ta'lim-tarbiya — bosh vazifamiz. Ma'rifat-2016.
http://marifat.uz/marifat/v_pomosh_uchitelu-marifat/ishlanmalar/Sifatli-ta-lim-tarbiya-bosh-vazifamiz.html

MAKTABGACHA YOSHDAGI QIZLARNI TARBIYALASHDA TARBIYACHINING ONALAR BILAN HAMKORLIK ISHLARI

Oxunova Shaxnoza Umarjon qizi
Qo'qon universiteti, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Maqola maktabgacha yoshdagi qizlarni tarbiyalashda tarbiyachining ota-onalar bilan hamkorlik ishlari va bu ishlarni zamonaviy talablar asosida tashkil etishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, oila, jamiyat, ijtimoiy-siyosiy, tarbiya, sotsiologik, kontsepsiya.

Hozirgi kunda mamlakatimizda chuqur, keng qamrovli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat ma'naviy yuksalish va yangilanish sari yuz tutgan. Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish — davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Qiz farzand tarbiyasida oilaning o'rni beqiyos. Oila bolaga qattiq ta'sir ko'rsatadi, uni atrofdagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishigina bo'lib qolmasdan, balki ularning ijtimoiy burchi hamdir. Ota-onalarni tashkiliy ishlarga jalb etish masalan, yumshoq o'yinchoq tayyorlash, suv va qum bilan o'ynashi uchun o'yinchoqlar yasash, maydonchalarni ko'kalamzorlashtirish uchun jihozlar tayyorlash muhim tadbirlardir. Bunday tanlovlar tarbiyachining yillik ish rejasida o'z aksini topgan bo'lishi kerak. Tanlov shartlarini umumiy ota-onalar yig'ilishlarida muhokama qilish va ma'qullab olish kerak. Faol ishtirokchi ota-onalarga tashakkurnoma e'lon qilish, bu borada buvi-yu, bobolarning ham maslahatlariga quloq tutmoq lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tahsil olayotgan qizning oilasi bilan ishlash tizimida aniq maqsad mazmun bo'lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avvalo erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, bolaning ijobiy tomonlarini ko'rsatib, keyin asta-sekinlik bilan ularning xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etishga, tevarak-atrofga qiziqishlarini oshirib borishga astoydil harakat qilish lozimligini uqtirish kerak. Ota-onalarni maktabgacha ta'limga jalb etish maqsadida turli xil to'garaklar, tadbirlar, davra suhbatlari, savol-javob kechalari, guruhiy va umumiy ota-onalar yig'ilishlari, ochiq eshiklar kunini tashkil etish diqqatga sazovor holatlardir.

Maktabga borish qiz bola balki maktab yoshidagi barcha bolalar uchun hayotidagi jiddiy o'zgarishlar davri hisoblanadi. Mazkur davr bilan bolaning rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi. Bolaning oldingilardan farq qiladigan faoliyat shakllarini o'rganishiga to'g'ri keladi. Kattalar va tengdoshlar bilan munosabatlarning boshqa uslubini o'rnatish, fiziologik jihatdan o'zgarishi ham talab etiladi.

Xo'sh, maktabgacha ta'lim yoshidagi qizlarning tayyorgarligi qanday bo'lishi kerak degan muhim savol yuzaga keladi.

Qizlarni maktabga muvaffaqiyatli o'qishi uchun ularni fanlar bo'yicha mazmunli tayyorgarligi muhim emas. Chunki uni haddan ziyod yuklatish o'qishga bo'lgan xohishni susayishiga olib keladi. Asosiysi, uni psixologik jihatdan maktabga tayyorgarligi, bilishga qiziqishi, o'zini nazorat qila olish malakalarini, kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini, nutqini, xotirasini, diqqatini, tafakkurini rivojlanishining ma'lum darajasini shakllantirish lozimdir.

Ko'rib turibmizki, bolalarni maktabga tayyorlash katta yoki tayyorlov guruhlarida emas, balki uning maktabgacha ta'lim muassasasiga kelgan kunidanoq boshlanishi lozim. Agar aniqroq aytadigan bo'lsak, uni oldinroq ham boshlash lozim. Chunki bolaning diqqati, qiziquvchan va ba'zi bir topshiriqlarni mustaqil qilishi qiyin bo'lganidek, uni qisqa muddat

ichida birgalikda qandaydir vazifalarni yechishga, kelishishga o'rgatish ham mushkul bir vazifadir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, qizlarni maktab ta'limiga tayyorlashda MTT, maktab, mahalla, oila hamkorligi to'g'ri yo'lga qo'yilsa, ta'lim tarbiya sifati va samaradorligiga erishish va oldimizga qo'ygan maqsadni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bolangiz maktabga tayyormi?" O'zb. Res. Xalq ta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi, Ma'rifat-Madadkor nashriyoti.
2. O'.Otavaliyeva. Bola tarbiyasida bog'cha va oila hamkorligi. T.:1994-y.
3. Z. G'ofurov, S.Toshev. Ma'naviyat saboqlari. Qarshi. 1999-y.
4. MTTda qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlash bo'yicha trening moduli. T.: 2017-y.
5. A.D. Qurbonovna "Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma" T.: 2020-yil

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA CHET EL O'QUVCHILARINI BAHOLASH MEZONI VA SAMARALI TAQDIRLASH

Sobirova Diyoraxon
Qo'qon Universiteti talabasi,
Guluzra Komiljonova
Qo'qon Universiteti "Ta'lim kafedrası" o'qituvchisi

Annatatsiya: Baholash turlari, metodlari, vositalari va shakllarini mezonlar asosida o'lchash. o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini to'g'ri baholash; -o'quvchilar bilim saviyasi va malaka ko'nikmalarini xaqqoniy baholash.

Kalit so'zlar:Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni xaqqoniy baholash va taqdirlash.

Respublikamiz hukumati xalq ta'limi sohasida o'rta qo'yayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Hozirgi sharoitda ta'lim tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga yetishish, o'quvchilarning xilma - xil faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalqimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqloli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

Uzluksiz pedagogik ta'lim g'oyasi amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan o'qituvchilar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ishi davlat va jamoatchilik diqqat markaziga qo'yildi. Biror kasbning haqiqiy ustasi bo'lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma'lum jismoniy va ruhiy xislatlar jo bo'lishi kerak. Pedagogning o'qituvchilik faoliyatini, yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishini samarali bajarishi, ota - onalar va bolalarning izzat - hurmatiga sazovor bo'lishi uchun ham unda qobiliyat, mahorat, qiziqish bo'lmog'i lozim. Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi o'z mehnat sarf qilib katta natijaga erishadi. Ijodkorlik uning hamisha hamkori bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin.

Baholash-ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayonidir.

Baholashdan maqsad: Kasbiy ko'nikma va malakalarni baholash qator masalalarni xalq etishni o'z oldiga maqsad qiladi. Ularni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

birinchi:

O'lashtirilganlikning qay darajada amalga oshirilganligini aniqlash;

davlat ta'lim standartlari talablarining qay darajada bajarilganligini aniqlash;

ikkinchidan:

O'qituvchi va o'quvchining ta'lim jarayonidagi xato va kamchiliklarini aniqlash;

Ta'lim mazmuni va metodikasini rejalashtirish. uchinchi:

Ta'lim berish:

So'rash va bajartirib ko'rish jarayonida boshqalarga takrorlanish va saboq bo'lishini kutish.

Baholashdagi xatoliklar:

Hayrixohlik xatosi-faoliyatni yuqori baholashga olib keladi.

O'rtacha baho berish xatosi-masakan, amaliyotlar jarayonida guruhchalarga ajratilgan o'quvchilar faoliyati natijasida o'rtacha bir xil baho qo'yish. Bunda o'quvchilarning ayrimlari oshirilgan bahoga, ayrimlari pasaytirilgan bahoga, qisman haqiqiy bahoga ega bo'ladi.

O'z fikrini o'zgartirmaslik xatosi- o'qituvchining o'quvchi faoliyatidagi o'zgarishlarni tan olgisi kelmasligi natijasida sodir bo'ladi. Yoqtirmaslik xatosi-ta'lim oluvchining ayrim hislatlari ta'lim beruvchiga yoqmasligi natijasida faoliyatni past baholashga sabab bo'ladi.

Chet el davlatlaridagi o'quvchilarni baholash mezonlari va samarali taqdirlash.

Finlandiyada o'quvchilarni baholash mezonlari va samarali taqdirlash.

Finlandiya

Fin maktablarida boshlang'ich ta'lim 6 yil davom etadi, o'qituvchilar tomonidan deyarli uyga vazifa berilmaydi. 2017-yildan aksariyat maktablar dars vaqti "ruchkadan voz kechishgan", dars jarayonida to'liq kompyuter va planshetlardan foydalaniladi. Finlandiya ta'lim tizimi o'qituvchilarning malakasiga tayanadi. 9- sinfdan keyin o'qish litsey (lukio) va kasb-texnika maktablari(Ammatillinen oppilaitos)da davom etadi. Litseylar xuddi O'zbekistondagi singari OTMga tayyorlaydi, 3 yil davom etadi.Fin maktablarida o'quvchilar bilimi uchun 1-3- sinflarda baho qo'yilmaydi, 4-6-sinflarda og'zaki motivatsion so'zlar orqali baholash amalga oshirilsa, 7-9-sinf-larda va 2-3 yillik kollej, litseylarda 4-10 ball bilan baholanadi, 4 ball qoniqarsiz, 10 ball esa eng yuqori baho hisoblanadi.

Fransiya o'quvchilarni baholash mezonlari va samarali taqdirlash.

Fransiya

Fransiyada o'quvchilar bilimi talablarni aniq bajarganligiga qarab baholanadi. Maktabning birinchi yilida (SR, 6 yosh) o'quvchilar bilimi baholanmaydi.Boshlang'ich ta'limning keyingi 4 yilida (SY-1/2, SM-1/2) "A+" (juda yaxshi), "A" (yaxshi), "ECA+" (o'rtacha), "ECA"(yana yaxshi yodlash kerak), "NA" (yomon) ko'rinishida va 10 ballik tizimdan foydalaniladi.6-9 sinflarda (collège) o'quvchilar bilimi 20 ballik tizimda baholanadi. 9, 5 – o'rtadan past bo'lsa, 10 – o'tish bali hisoblanadi. 12 – 14 ball – "yetarlicha yaxshi" (assez bien), 14 – 16 ball – "yaxshi" (bien), 16 – 20 ball – "a'lo" (très bien). Ota-onalarga har chorakda baholar tabeli pochta orqali yuboriladi. Unda barcha fanlar bo'yicha baholar, oldingi chorakka nisbatan o'sish yoki pasayish dinamikasi, har bir fandan sinfnig o'rtacha bali ko'rsatiladi. Shuningdek, tabelga har bir fan o'qituvchisi bolaning o'zlashtirishi bo'yicha fikrini hamda necha soat dars qoldirganini yozadi.

Buyuk Britaniya o'quvchilarni baholash mezonlari va samarali taqdirlash.

Buyuk Britaniya

Ingliz maktablarida uzoq vaqt davomida o'quvchilar bilimini baholash uchun harflardan foydalanilgan. Baholash juda sodda — G dan A gacha, bu yerda G — eng past baho bo'lsa, A — eng yaxshi baho. O'rta maktabning birinchi sinfida (11-12 yoshlarda) o'quvchi matematikani yoki ingliz tilini F darajada, keyingi sinfda E darajada, undan keyingi sinfda D darajada bilishi, shunday qilib 9 yildan keyin maktabni bitirguncha A darajaga yetib borish kerak bo'lgan. Bunday baholashdan noroziliklar ko'p bo'lgan.2017-yildan buyon Angliyadagi maktablar raqamli ball tizimiga o'tishni boshlagan. Endi o'quvchilar fanlarni o'zlashtirishlariga qarab 2 baldan 9 balgacha to'plashlari mumkin, 9 ball eng yaxshi ko'rsatkichdir.O'quvchilar har kuni baho olishadi. Shuningdek, fanlardan bilimlari muntazam ravishda test yordamida tekshiriladi.

Maktab ma'muriyati chorak yakunida o'quvchi va uning ota-onasiga hisobot jo'natadi. Unda o'quvchiga bilimi va mehnatsevarligi uchun baho beriladi. O'quvchilar to'g'risida alohida fikrlar: "Yaxshi ishlaydi, yaxshi yutuqlarga erishadi, harakat qilsa, yanada ko'proq yutuqqa erishadi" kabi yozuvlar bo'ladi. Buyuk Britaniyada yomon bahoga (ikki bahoga) o'qiydigan o'quvchi yo'q, deyishadi. Ustozlar o'quvchilarning kamchiliklarini tuzatadi, ularni o'rta holga keltirib, faollashtiradi, "4"chilar a'lochiga aylanib, natijada barcha bitiruvchilar OTMlarga kirishiga erishadilar. O'zbekistonda o'quvchilar bilimini baholash me'yorlaridan barchamiz xabardormiz. Bir necha yil davomida turli ko'rinisdagi baholashlardan charchab, 5 ballik tizimga qaytib oldik. Joriy nazorat — so'rovlar, yozma ish yoki testlar tarzida o'quvchilarning

bilim, ko'nikma va malakalari muntazam nazorat qilinadi. Oraliq nazorat — chorak tamom bo'lganda va o'quv dasturining tegishli bo'limi tugallangandan keyin o'quvchilarning bilimlari, ko'nikma va malakalarini baholash uchun amalga oshiriladi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, bizda o'quvchiga baho qo'yish o'qituvchi tajribasiga bog'liq. Joriy yoki oraliq nazorat baholarini barcha bir xil yondashuv asosida qo'ymaydi. Umumiy o'rta ta'limning yangilanayotgan, muhokamaga qo'yilgan Milliy o'quv dasturlarining tarkibiy qismi sifatida har bir fandan o'quvchilar bilimini baholash mezonlari ishlab chiqilmoqda. Bu juda to'g'ri va kerakli chora. Chunki o'quvchilar bilimini baholashda fan, mavzu xususiyatlari inobatga olinadi va barcha o'qituvchilarda bir xil yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda xorijiy baholash tajribalaridan foydalanish mumkin. Ammo xorijiy baholash mezonlarining hech birini shundayligicha olish to'g'ri bo'lmaydi, milliy va mahalliy xususiyatlarni inobatga olish maqsadga muvofiq. Men o'zimning shaxsiy tajribamdan aytamanki, boshlang'ich sinflarda eng yaxshi baholash usuli motivatsiya beruvchi so'zlarni amaldagi bahoga qo'shib ishlatish, ya'ni "Barakalla 5", "Ofarin 4", "Tasanno 5" kabi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholashdan tashqari o'quvchilar bilan suhbat jarayonida ham o'quvchilarga motivatsiya berilishi kerak. O'quvchilarga bo'lgan ishonchni ham ko'rsatib qo'yishimiz joiz hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. [uz/ru/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/eshitishida-va-ko-rishida-nuqsoni bo-lgan-bolalar](http://uz/ru/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/eshitishida-va-ko-rishida-nuqsoni-bo-lgan-bolalar)
2. Engaging Deaf and Hard of Hearing Students in the School Library: A Handbook for Teacher-Librarians Nadene Eisner University of Illinois at Urbana-Champaign Graduate School of Library Information Science 2 May 2012
3. <http://ilmiy.bmti.uz/blib/files/116/Maxsus%20pedagogika.pdf>
4. https://mitc.uz/uz/pages/information_technologies

PEDAGOG KIM?

Ergasheva Kumushoy Alisher qizi
Qo'qon universiteti talabasi,
Guluzra Komiljonovna
Qo'qon universiteti
Ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Biz shunday bir garoyib davrda yashayabmizki, atrofimizdagi olam juda tez ozgarib bormoqda. Eng yaqqol misol Axborot texnologiyalar. Shuning uchun o'sib kelayotgan avlod bilan ishlaydigan o'qituvchiga kerak bo'ladigan hislatlar va ta'limdagi roli haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: Bolalarga hurmat, o'zgarish, o'z xatolarini tan olish, rivojlanish, pedagog.

Hech narsa qilmagan kishigina xato qilmaydi. O'qituvchi esa ozining hatolarini topa olishi, va uning ustida ishlashi kere. Agar jahon sur'ati bir necha avlodlar davomida o'zgarmagan bo'lsa, hozirda u shu qadar tez sur'atlarda rivojlanyaptiki, "Alisa Ko'zgu orti mamlakatida"gi Qora qirolicha aytganidek, o'z joyida qolish uchun "oyoqni qo'lga olib yugurish kerak". O'qituvchi zamonaviy o'quvchilar nima bilan yashayotganini ham tushunishi kerak. Bundan tashqari, o'qituvchi zamonaviy o'quvchilar boshqacha ekanini yodda tutishi lozim. Ular internetda yashashmoqda, ularda katta odam ma'daniyati yo'q. Foyda keltirish va o'z mehnati mahsulidan bahra olish uchun zamonaviy muallim va o'qituvchilar kerakli sifatlarga ega bo'lishi kerak.

Zamonaviy pedagog - bu psixolog, rassom, do'st va maslahatchi xususiyatlarini o'zida mujassam etgan shaxs. O'qituvchi kun davomida ko'p marta qayta tug'ilishi kerak va o'z ishini qanchalik ishonarli qilsa, natija shunchalik aniq bo'ladi. Zamonaviy pedagog - ijodkor, mehnatkash, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yuvchi, o'z faoliyatida eng so'nggi uslubiy ishlanmalardan foydalanadigan shaxs. Zamonaviy pedagog - o'z Vatanining vatanparvari. Mamlakat bizga eng qimmatli narsa - kelajagini ishonadi. Zamonaviy pedagog bolalar va ularning ota-onalari uchun oila bilan birgalikda ta'limning mas'uliyatli vazifalarini hal qilishda vakolatli bo'lishga chaqiriladi.

Zamonaviy o'qituvchining vazifasi: ijobiy, ijodiy, ochiqko'ngil shaxsni tarbiyalash. Natijalaringizni bashorat qilishingiz va baholashingiz, mustaqillik tashabbusini rivojlantirishingiz kerak. Har bir bolaning individual qobiliyatini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratish. O'qituvchi kasbi zamonaviy jamiyat hayotidagi eng muhim va ahamiyatli kasblardan biridir. Pedagog esa bola juda yoshligidanoq muloqot qilishni boshlaydigan o'qituvchidir. Butun jamiyatimizning kelajagi esa zamonaviy pedagog kichik yoshlarga nima qo'yishiga bog'liq. Endi esa pedagoglarga kerak boladigan 6 ta asosiy hislatlarni sanab otamiz. Bu hislatlar oqituvchining talim jarayonidagi rolini oshiradi.

1. Bolalarga hurmat. Odatda "O'qituvchi bolalarni yaxshi ko'rishi kerak" deyishadi. Biroq bu fikr juda mavhum va turli talqinlarga sabab bo'lishi mumkin. Axir yaxshi ko'rish tushunchasi juda ko'p qirrali. Hurmat tushunchasi bilan bari oddiy. O'quvchini hurmat qilish - demak, unda oppoq qog'ozni emas, shaxsni ko'rish demakdir.

2. Tolerantlik. Insonlar turlicha. Ba'zida odam o'zgalarga o'xshamaganligi uchun ham g'ashimizni keltiradi: bosh kiyimini boshqa kiyadi, o'zgacha qaraydi. Agar u o'zini tabiiy tutayotgan va axloq-odob qoidalarini buzmayotgan bo'lsa, bunga e'tibor berish kerakmi? Odamning shaxsiy fikrga ega bo'lish huquqi haqida ham shunday deyish mumkin. Gap yagona to'g'ri javob berish mumkin bo'lmagan savollar haqida ekan, kutilmagan va original takliflarni darhol o'chirib tashlash yaramaydi. Ular standart javoblarga qaraganda ko'proq mos keladigan bo'lishi mumkin. Bolalar kattalar kabi "qolipga tushib qolgan fikrlar" bilan

o'ylashmaydi, shuning uchun erkin fikrlashadi. O'quvchining o'zgacha bo'lish huquqini tan oling. Balki siz yangi Eynshteynni kamol toptirayotgandirsiz.

3. O'qituvchi o'zining xizmat ko'rsatayotganini tushinishi nima uchundir bu band ko'plab o'qituvchi va ota-onalarning jahlini chiqaradi. Balki gap obro'dadir. "O'qituvchi" so'zi iftixor bilan jaranglaydi.

4. Haqiqiy narsalar bilan hurmatga ega bo'lishga tayyor turish balandparvoz so'zlar, buyruq ohangi bilan zamonaviy bolada taassurot uyg'ota olmaysiz. Bari "gamburg"cha hisob-kitob bilan bo'lishi kerak: yaxshi o'qituvchi o'z fanini yaxshi biladi, uning foydasini tushuntira oladi va materialni qiziq qilib yetkazadi.

5. Qo'rqitish – befoyda. Hozirgi bolalar avvalgi odamlar qo'rqan narsalardan hadiksirashmaydi. O'z-o'zini tanqid qilish. Agar o'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qilib, uni qanday rivojlantirish haqida o'ylasa, u ko'p narsaga erishadi. Hamma ham adashishi mumkin. Katta amaki va xolalar ham bundan mustasno emas. Bolalar buni qancha tez anglasa, shuncha yaxshi.

6. O'z-o'ziga shama qilish. Jiddiy bo'lmaslik va o'zini hazil qilish qobiliyati – zo'riqishlarga qarshi turishning tarkibiy qismi. Jamiyatdagi hayot uchun ham a'lo xislat. O'z-o'zini hazil qilish murakkab vaziyatni yumshatib, chalg'ish va qiyin masalalarni hal etishga yordam beradi.

Albatta, xislatlarning bariga ega bo'lish ham oson emas. Ko'p hollarda maktabda o'qituvchilarni tanlab olish imkoniyati mavjud emas. Biroq shunga qaramay, idealga qarab intilish zarur. Pedagog ayrim vaziyatlarda o'zini o'quvchining o'rniga qo'yib qo'yish kerak. Shundagina uning talimdagi ro'li oshadi. Ayniqsa biz sanab o'tgan 6 hislatlarga ega bo'lsa pedagogning ro'li ta'lim jarayonida beqiyos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Pedagogika" J.Xasanboyev.
2. "Pedagogika" O'.Yo'ldoshev.
3. "Pedagogik mahorat" A.Xoliqov.

INSON QADRI VA BARKAMOL AVLOD SHAKLLANISHIDA PEDAGOGIKANING O'RNI

**Madinabonu Shuxratjon qizi
Boshlang'ich ta'lim fakulteti
1-kurs talabasi,
Esonaliyeva Guluzra Komiljonova
Qo'qon universiteti
Ta'lim kafedrası o'qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim va tarbiyaning o'zaro bog'liqligi, inson qadri va barkamol avlod shakllanishida pedagogikaning o'rni, ilm sohiblarining ta'lim tarbiya to'g'risidagi asarlari hamda bugungi kunda pedagog shaxsiga qo'yilgan talablar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, pedagogika, kamolot.

Kirish. "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Bu sharqona hayot falsafasi", deya ta'kidlagan yurtboshimiz "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida. Ushbu fikr bugungi kunda barcha yoshlarning, ayniqsa pedagoglarning shioriga aylangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Yurtimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodga ta'lim tarbiya berishni o'z zimmasiga olib, pedagoglik kasbini tanlagan talaba yoshlar yuksak ma'naviy axloqiy fazilatni shakllantirishda ustozlarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Demak, ta'lim, tarbiya deganda nimani tushuniladi? Inson qadri shakllanishida pedagogning qanday o'rni bor? va mana shu kabi savollar ushbu maqolada ochib beriladi.

"Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir"-Abdulla Avloniy. A.Avloniyning ta'lim tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, tumushb tarsi, milliy qadriyatlar bilan bog'langanligi adibning boy pedagogik merosi ta'lim-tarbiya masalalarini rivojlantirish, uni o'quvchilar qalbida shakllantirishda axloqiy va ma'naviy barkamol tarbiyalashda milliy maktab va qimmatbaho manba bo'lib xizmat qilganini o'rganib chiqish davr talabiga aylanmoqda.

Tarixiy manbalarga qaraganda, qadimgi Yunonistonda o'z xo'jayinining bolalarini sayr qildirgan, maktabga olib boradigan qullarni "bola yetaklovchi", ya'ni tarbiyachini "pedagogos" deb atashgan. Keyinchalik esa bolalar ta'lim tarbiyasi bilan shug'ullanishga maxsus tayyorlangan o'qimishli donishmandlarni "pedagog" deb atay boshlaganlar.

Asosiy qism. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek: "Ta'limning yangi modeli ishga tushgach, insonning hayotdan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi. Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. Talimning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi".

Ta'lim- o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, kompetentlikni tarkib toptirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon hisoblanadi.

Ta'lim- bilim berish, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Bu jarayonda ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda- o'qitish. Biroq, u turli o'quv yurtlarida o'qitish jarayoni emas balki, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarida ma'lumot berish jarayoni ham hisoblanadi.

Tarbiya- muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya- shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan jarayon. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Shu o'rinda aytish joizki, "Bizga bitiruvchilar emas, balki maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan bilimli kadrlar kerak" deya ta'kidlagan 1-prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov.

Sharq uyg'onish davrida pedagogik fikrlar ham rivojlangan desak mubolg'a bo'lmaydi. Farobiy birinchi bo'lib ta'lim va tarbiyaga ta'rif bergan olimdir. Ta'lim-so'z va o'rganish bilangina amalga oshiriladi. Tarbiya esa amaliyot, ish tajriba bilan amalga oshiriladi.

A.Avloniy: "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida esa pedagogika fanini aniq va tushunarli qilib ta'riflaydi: "Tarbiya pedagogiya", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur deya ta'kidlagan.

"O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bolani tarbiyalash metodlarini, ahloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. O'qituvchi o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, aql qatlamlariga kirolmog'i lozim", deya ta'riflagan Abu Ali ibn Sino.

Hozigi kunda pedagog shaxsiga qanday talablar qo'yilgan? Birinchi navbatda zamonaviy pedagog psixolog bo'lmog'i lozim. Shuning uchun ham o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy muhitni saqlay olishni bilishi kerak. Va yana bir qancha majburiyatlarni o'z ichiga oladi. Masalan:

- ✚ Ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishi;
- ✚ O'z ishiga ijodiy yondashishi;
- ✚ Bolalarni bilishi, uning ichki dunyosini tushuna olishi;
- ✚ O'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bolib, o'z kasbi, sohasida jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;
- ✚ Keng bilim saviyasiga ega bo'lishi, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;
- ✚ Ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;
- ✚ Pedagogik taxnikani (mantiq, nutq, ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: «Tarbiyachi ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro sifatida yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak».

Xulosa. Ta'lim tarbiya bir-biriga uzviy bog'langan jarayon bo'lganligi sababli aqliy kamolotiga tartibli ta'sir ko'rsatish orqali inson bilimli, barkamol bo'lib voyaga yetadi. Agar hayvonot dunyosida asosan instinktlar yordamida rivojlanadigan bo'lsa, inson bolasi aynan tarbiya, ya'ni maqsadli tashkiliy-uslubiy ta'sirlar yordamida kamolotga yetadi. Bu ta'sirlar oiladagi an'analar va urf-odatlariga tayanadigan bo'lsa, ta'lim muassalarida maxsus mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Shu boisdan, o'zining kelajagini, ertangi kunini o'ylaydigan davlat, jamiyatda 1-navbatda yosh avlodga, uning ta'lim-tarbiyasiga asosiy e'tiborni qaratadi. Yosh avlod taqdiriga befarq bo'lgan jamiyatning ertangi kuni tanazzulga yuz tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Musurmanova, X.Ibragimov, O.Jamoliddinova, K.Risqulova, S.Yo'ldosheva, A.Jumayev, F.Babashev "Umumiy pedagogika".
2. B.X.Xadjayev. "Umumiy pedagogika".
3. J. Hasanboyev, X.A. To'raqulov, I.Sh. Alqarov, N.O'.Usmanov "Pedagogika".
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/zamonaviy-o-qituvchi-va-unga-qo-yiladigan-talablar>.

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING XUSUSIYLASHUVI

Foziljonova Feruza Murodjon qizi
Qo'qon Universiteti talabasi,
Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li
Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu tezisda O'zbekistonning maktabgacha ta'lim sohasini tubdan isloh qilish va kamchiliklari o'rnini to'ldirish va muammolarini hal qilish taklif qilingan. Amerika ta'lim tizimidan ham bir qancha ustuvor yangiliklarni olib kirish O'zbekiston ta'lim tizimini kamchiliklarini to'ldirib bolalarni kunini maroqli va vaqtini foydali o'tkazishni ta'minlash tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: Sport xonasi, sport maydoni, mashg'ulot xonasi, MTT, davlat, xususiy sheriklik, oshxona, ovqatlanish xonasi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida Maktabgacha ta'lim tizimida Davlat-xususiy sherikchilik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qator qonun va qarorlar qabul qilinmoqda. Masalan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maqsadi "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 5-apreldagi PQ-3651-son qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash, maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish edi. Bugungi kunda Davlat-xususiy sherikchilik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha 2022-yil yakunlariga ko'ra jami 22 366 quvvatga ega 169 ta DXSH asosidagi NMTT lar hamda 2 350 ta imzolangan bitimlardan 96 391 quvvatga ega 1 346 ta oilaviy shakldagi NMTTlar tashkil etilishiga erishildi. Natijada, 118 557 ta qo'shimcha quvvat (169 ta DXSH asosidagi NMTT va 1 346 ta oilaviy MTTlar) hamda 10 116 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Lekin bu xususiy tashkilotlarining ba'zi kamchiliklari ham bor. Masalan: davlat xususiy sherikchilik asosida uy bog'chalar ham ochilmoqda bu uy bog'chalarida alohida sport bilan shug'ullanish maydoni yoki sport xonasi ham yo'q. Bu esa bolalar uchun qay ma'noda qiyinchilik tug'diradi? Bolalar bitta xonada ham mashg'ulot o'tishadi, ham sport bilan shug'ullanishadi va sport jihozlari ham mashg'ulot stul-stollari, mashg'ulot jihozlari ham bitta honada turadi.

Bu holat esa xonaning kengligi yo'qolib torayib ma'lum miqdorda xonaning tabiiy yorug'ligi ham kamayadi. Bu esa bolalar xonada erkin sport bilan shug'ullana olishlariga va mashg'ulotlar bilan shug'ullanishlariga halal beradi. Shu bilan birga bolalar uchun oziq ovqat tayyorlanadigan oshxona ham aynan shu "mashg'ulot" xonalariga qo'shni bo'lgan xonada tayyorlanadi va ovqat tayyorlanish jarayonida chiqadigan hid butun xonani tutib ketadi. Bundan tashqari bolalar yoshlari taqsimlanmagan va 3 yoshli bolalar bilan katta yoshdagi bolalar bir bo'lib guruh sifatida mashg'ulotlarda birga bo'lishadi. Bu muammoni birgina yechimi bor. Bu ham bo'lsa faqatgina uy bog'chalarga 3 yoshga to'lmagan va 3 yoshlar atrofidagi bolalar olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Maxsus bino (yani maxsus sport zali, sport maydoni, mashg'ulot xonasi, oshxonasi, ovqatlanish xonasi bor) sifatida olinib davlat xususiy sherikchiligi asosida tashkil qilingan bolalar bog'chalariga esa bolalar yosh bo'yicha taqsimlanib alohida guruhlarga bo'linib kunlik mashg'ulotlar o'tilsa to'g'ri bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim sohasi har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so'nggi 20 yil davomida davlat

tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o'rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta'lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'ldi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: "Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga to'liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz", - deb ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, o'tgan qisqa vaqt mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi farmon va qarorlari, shuningdek, "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Dasturi hamda respublikada maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» asosida misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash xamda ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://lex.uz/docs/-4072945>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori.
3. LexUZon-line.
4. Maktabgacha ta'lim agentligi.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA OILA BILAN HAMKORLIKNING ZAMONAVIY SHAKLLARI

G'oziyeva Diyoraxon Alisher qizi
Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrası
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilot oila bilan hamkorlikning zamonaviy shakllari haqida tushuncha, uning mohiyati maqsad va vazifasi hamda hozirgi payitda qay tartibda borayotganligiga o'z etiborimizni qaratamiz. Bundan tashqari ota-onalar va bolalar o'rtasida iliq norasmiy, ishonchli munosabatlar, hissiy aloqalar o'rnatish, birgalikdagi faolyatlarini tashkil qilishga urg'u berilga. Ota-onalarga asosan noan'anaviy shakillardagi uchrashuvlar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'z: hamkorlikni zamonaviy shakllari, yakkama-yakka suhbat, jamoa, tadbirlar, ko'ngilli ota-ona, olayin muloqot.

"Insonni ta'lim – tarbiya orqali qayta tarbiyalash aqliy qobilyatni o'stirish mumkin".

"Voiz Al – Koshifiy"

Koshifiy o'zining pedagogik qarashlaricha bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish masalasiga alohida e'tibor beradi. Ota – onalar muallimlardan bu masalaga alohida ahamiyat berishni talab etadi. Bu muammoda oilaviy hamda tashqi muhit muhim o'rin tutadi. U "Bola to'g'ri so'zli, va'daga vafodor, yaxshi xulqli qilib tarbiyalanishi kerak" [1] - deb o'tgan.

MTTning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari asosida hamda MTT davlat o'quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish;
- bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va mahalliy jamoatchilik o'rtasida o'zaro hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirish. [2]

Maktabgacha ta'lim tashkiloti oila bilan hamkorlikning uzliksiz ta'limiy jarayoni hisoblanib, ota-onalar bilan hamkorlikga kirishishdan oldin so'rovnioma o'tkazib ularni maktabgacha ta'lim tashkilotiga bo'lgan qarashlarini, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda oilaviy sharoitlarini o'rganish va olingan ma'lumotlarni tahlil qilib u oila bilan qay tariqa hamkorlik qilishni rejalashtirish. Ota-onalar bilan jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan olib borish, pedagogik tadqiqot ishlarini tashkil qilish tufayli bolalarni tarbiyalash va ular orqali ijobiy natijaga erishish mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini oila bilan zamonaviy hamkorlikdagi ishlarining eng keng shakllari:

- ota-onalar bilan yakkama-yakka ishlash, ilg'or tadqiqotdagi ota-ona bilan o'tkazilgan so'rovnioma natijasida MTTga o'zlari xohlab farzandlarini olib kelishlari, ulardagi muhiti, tarbiyachilarning ishlash tizimi, o'tiladigon qo'shimcha mashg'ulotlar olib borilishi ota-onalarga ma'qul ekan tadbir qilish.

- ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar: guruhli va umumiy majlislar, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari o'tkaziladi.

Hozirgi paytda hamkorlikning zamonaviy yondashuvlar quyidagicha olib borilmoqda:

❖ Birinchidan tadbirlar olib borish jarayonida ota-onalarni bolalar bilan birgalikda qatnashishga jalb qilish orqali ularni farzandlari bilan aloqalarini yanada yaxshilash, ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarni yanada kuchaytirish va ularning birgalikdagi vaqtlarini yanada orttirish;

❖ Ota-onalar bilan yig'ilishlar o'tkazish orqali ular va farzandlari o'rtasidagi munosabatlarni, bolalari bilan qanday mavzularda suhbatlashishlari kerakligi hamda bolalar kelajakda aniq maqsadiga ega bo'lgan yetuk shaxs bo'lishi uchun ularning qanchalik hissalarini katta ekanligini tajribali psixologlar bilan birgalikda ishlash orqali ularga tushuntirish;

❖ Alohida yakka tartibda suhbatlar o'tkazish orqali oilaviy muhitni o'rganish, ota-onalar bilan o'tkazilgan suhbatlar natijasida bolalarning uydagi muhit, sharoit va ularni ota-onalari va boshqa yaqinlari oraida o'zlarini qanday tutishlari va boshqa jihatlarini chuqur o'rgangan holda ularga bo'lgan alohidadan e'tiborni yanada kuchaytirish va shunga qarab ular bilan bo'lgan aloqalar-u ularning kelajagi uchun ham jismoniy, ham ruhiy, ham ma'naviy jihatdan rejalarni tuzish va ular asosida bolajonlarni tarbiyalash;

❖ Ko'ngilli ota-onalar bilan hamkorlik o'rnatgan holda guruhlardagi bolalarning ota-onalari bilan yaqindan tanishish, o'zaro tajribalar almashish, bir-birlari bilan muloqotni yanada kuchaytirish, bolalari bilan yuzaga kelayotgan muammolarni birgalikda hal qilib ota-onalarni bir maqsad va bir tizim ostida birlashtirish;

❖ Onlayn muloqotlarni va onlayn tartibda ham ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, onlayn tizimdagi muloqotni yuqori darajaga chiqarish va bular orqali bolalar bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlari orasidagi munosabatlarni o'rganish va kuzatib boorish, bolalarning ta'lim muassasalaridagi vaqtlarini qanday o'tayotganini kuzatib borish, undan tashqari yuzma-yuz yig'ilishlarga kelolmayotgan ota-onalar bilan muloqotlarni boy bermasdan ular bilan ham hamkorlikni tizimli ravishda davom ettirish;

❖ Maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari tarbiyalanuvchilarning uylariga tashriflar o'tkazgan holda ota-onalar bilan va undan tashqari ularning boshqa oilaviy yaqin insonlari bilan yaqindan tanishi, ularning oilaviy va do'stona muhitlarini o'rganishi, o'z tajriba va sohalaridan kelib chiqqan holda oiladagilarga tarbiyalanuvchilar uchun kerakli bo'lgan muhim omillar va oilaviy o'zaro do'stona muhitning bola psixologiyasi va uning ma'naviy kamoloti va yuksak salohiyati uchun naqadar muhim ekanligini tushuntirish ishlarini olib borish kabi bir qator hamkorlik tizimlari orqali bolajonlarni har tarafdin qo'llab-quvvatlash, ularni jismonan va ma'nan yetuk, o'ziga ishonchli, o'z maqsadiga ega bo'lgan komil insonlar qilib tarbiyalashda ota-onalarning va oiladagilarning ham o'rni, ular bilan o'rnatilgan aloqa va hamkorliklarning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini tatbiq etish mumkin va bu zarur.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'lim tashkilotida oila bilan hamkorlikning zamonaviy shakli hozirgi payitda ilg'or yondashuv hisoblanib bu ota-ona va tarbiyachi o'rtasidagi aloqani kuchaytirmoqda. Zamonaviy hamkorlikning o'zgacha yondashuvi ota-onalar farzandi nima yoqtirishini, yoqtirmasligini, uning afsalliklarini o'rganib unga asoslangan holda yondashishligini bildiradi. Bu hamkorlik ota-onalar va bolalar o'rtasidagi hissiy aloqalarni o'rnatadi. Farzand tarbiyasi ota onaning jamiyat oldidagi fuqarolik burchi va davlat oldidagi mas'uliyati hamda qarindosh-urug'lar oldidagi javobgarligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. ertaklar.uz/uz/sharq-mutafakkirlarining-farzand-tarbiyasi-haqidagi-fikrlari
2. <https://mpe.uz/files/Ilk%20Qadam%20UZB%20final.pdf>
3. <https://minikar.ru/uz/deti/sotrudnichestvo-dou-s-sem-i-kak-obespechenie-edinoi-sistemy-vospitaniya/>

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR SHAXSINI SHAKLLANISHIDA MAKTABGACHA
TA'LIM TASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGI**

Habibullayeva Rayhona Bahodir qizi
Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali, bola tarbiyasiga maktabgacha ta'lim va oila hamkorligining qay darajada bog'liqligini va hamkorlikda qanday ishlar olib borishi haqida ma'lumotga ega bo'lasiz. Ota-ona bilan hamkorlik natijasida muammolarning kelib chiqishi va ularga yechim izlanishlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ota-ona, bola tarbiyasi, bola shaxsi, oila hamkorligi, jamiyat ta'siri, so'rovnoma.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'z navbatida ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishgan. Bu esa bola tarbiyasida oila bilan hamkorlikning eng samarali usullaridan biridir. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo'lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishi taqozo etiladi. Bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to'g'risidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash kabi masalalar maktabgacha ta'lim va oila hamkorligi ishtirokida hal qilinadi.

Ingliz faylasufi Frensis Bekonning fikriga ko'ra: "Bola oilaning quvonchi, ota-onaning ko'magi, jamiyatning hayotiy kuchidir. Bolalar tufayli hayot yanada shirin, o'lim esa unchalik dahshatli ko'rinmaydi"[1] - degan edi. Darhaqiqat, bola hayotning mevasi, oilaviy g'urur, kelajak, baxt. Biroq, tarbiya qiyin vazifa bo'lib, ota-onalar har doim ham farzand tarbiyasida kerakli natijalarga erisha olmaydilar. Bola shaxsining shakllanishidan boshlab oilaning asosiy vazifasi bolaning shaxsini shakllantirish, ya'ni uning tarbiyasi to'g'risida g'amxo'rlik qilish davri boshlanadi.

Oila - bu jamiyatning bir qismi, unda yangi odam tug'iladi; bu kichik ijtimoiy guruh uchun hayotning boshlang'ich maktabi. Ota-onalar bolaning birinchi o'qituvchisi va tarbiyachisi sifatida birinchi navbatda psixologik jihatdan tayyor bo'lishi kerak. Bola tarbiyasida nafaqat tarbiyachining ijodkorligi, jonkuyarligi balki ota-onalarning ma'suliyati ham muhim. Ota-onalar farzandlarining kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun guruh tarbiyachisidek, ma'suliyatli bo'lib o'zaro hamkorlikda ish yuritishlari kerak deb hisoblayman. Bolalar rivojlanishida har ikki tomon maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-ona birdek mas'ul.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining tajriba faoliyatidan shuni angladimki, ota-ona bilan turli shakllarda hamkorlik olib borish mumkin. Men 11-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotida ko'chma dars mashg'ulot jarayonidagi faoliyatim davomida ota-onalar bilan alohida ishlab ularga bolalar shaxsini shakllanishi bo'yicha o'z savollarim bilan yuzlandim. So'rovnomada har bir ota-ona o'z bolasiga befarq emasliklarini angladim.

Ota-onalar farzandlariga kun davomida qancha vaqt ajratishi, oilada ularning fikri ham inobatga olinishini aytib o'tdilar. Ba'zi ota-onalar bolalarning dam olish kunlarini ham maroqli o'tkazishga harakat qilishlari, ularning kiyinish madaniyati va sog'lom rivojlanishi uchun gigiyenik salomatligiga alohida e'tibor qaratishlarini bilib oldim.

Faoliyatimiz davomida, ota-onalar bilan ishlash quyidagi bosqichlarda davom etdi:

- ma'lumotlarni berish orqali o'z farzandining yanada to'liq tasavvurini shakllantirish;
- ota-onalar tomonidan uni to'g'ri idrok etish bo'yicha anketa savollari berish ;
- ota- onaning faoliyatimiz bo'yicha fikrlari eshitildi;

- ota-onalar bilan muloqotga kirishdik, tarbiyachiga nafaqat ijobiy, balki ota-onaning tashrifi chog'ida bolaning qiyinchiliklari, tashvishlari, salbiy xulq-atvori haqida ham gapirib berildi.

Ota-onalarning fikrlarini tinglash davomida ularning maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari uchun taklif va istaklarini mavjudligi ko'rindi, ya'ni bola shaxsini shakllanishida, ayrim xarakteri yopiq bolalar uchun psixolog yoki nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash uchun logoped o'rinlari yo'lga qo'yilishi joiz deb topildi. Bu borada maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbariyatiga ham takliflar berib o'tdik, ular ham ota-onalarning fikrini maqullab o'tdilar. Va bu muammo tez orada bartaraf etilishiga amin bo'ldik. Ota-onalar bilan olib borgan muloqotimiz samaradorligi quyidagilardan iborat bo'ldi:

- Ota-onalarning farzandlari tarbiyasiga befarq bo'lmasligi;
- Ota-onalarning tarbiyachi bilan individual aloqaga intilishi;
- ota-onalarning ta'limning muayyan usullarini qo'llashning to'g'riligi haqida fikr yuritish;
- muammolarni hal qilish va munozarali masalalarni muhokama qilishda faollikni oshirish.

Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarni ijtimoiylashtirish uchun ikkita muhim tashkilotdir. Ularning ta'lim-tarbiya shakllari turli xil, ammo bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun ularning o'zaro ta'siri zarur. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola ta'lim oladi, boshqa bolalar va kattalar bilan muloqot qilish, o'z faoliyatini tashkil etish qobiliyatiga ega bo'ladi. Ota-onalarning ta'lim jarayonida faol ishtirokisiz maktabgacha yoshdagi bolalarning uyg'un rivojlanishi samarali natija bermasligi mumkin. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotida ota-onalar bilan ishlashga katta e'tibor berilishi kerak. Aynan oilada birlamchi ijtimoiylashuv sodir bo'ladi, bolaning dunyoqarashi shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, bola tarbiyasida maktabgacha ta'lim, oila va jamiyatning ham birdek hissasi bordir. Chunki bola oilada ilk bor ta'lim- tarbiya olsa, uni maktabgacha ta'limda yanada shakllantiradi, mustahkamlaydi va qisqa tushuntirish, nasihat yoki o'yinlar orqali tarbiya elementlarini egallaydi. Bu esa bola tarbiyasining asosi hisoblanadi. O'z tajribamdagi faoliyatimdan kelib chiqib fikrimni yakunlar ekanman, bola shaxsini shakllanishida o'zaro hamkorlikda ish yuritish muhim o'rin kasb etadi. Shuningdek, bola shaxsi shakllanishi uchun oila va jamiyat ta'lim va tarbiyaning tayanchi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim uchun o'zaro hamkorlikda ish yuritish eng samarali ish yuritish faoliyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
4. Maktabgacha pedagogika-Toshkent 2019. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Qayumova, M.A'zamova. 426-451bet.
5. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi-Toshkent2019. F.Qodirova. 260-275bet.
6. Mirziyoev SH. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T. «O'zbekiston», 2017.Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari. - T.: 2017.
7. "Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari" Toshkent.2017 yil.
8. Rahimova R. "Tarbiyachiga 1001 maslahat", Toshkent.,2007 yil

9. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova .maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. Toshkent, O'zPFITI nashriyoti – 2015 yil
10. Boltayeva F. A. Esonaliyeva O. Yoshlar hayotida virtuallashuv sabablari va omillari. "Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi" FTAI, Jild: 03, Nashr: 06, June 2022. 232 b
11. Hasanboyeva O.U. va boshqalar. Oilada barkamol avlod tarbiyasi. T.: «Fan va texnologiya», 2010.

O'SPIRIN YOSHLARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Ilyosjonov Shahboz
Qo'qon universiteti talabasi,
Fahriddin Hamidullayev
Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisdá O'spirin yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishning dolzarb muammolari haqida fikr yuritilgan. O'spirinlarni kasbga yo'naltirishning nafaqat ijtimoiy, balki psixologik muammo ekanligi, bu ikki nuqtai nazar har doim bir – birini to'ldirib kelishligi, shuningdek, kasbga yo'naltirishning individual psixologik xususiyatlarining imkoniyatlari yoritilgan hisoblanadi.

Kalit so'zlar: kasbga yo'naltirish, psixologik xususiyatlar, fotoko'zgzama, ta'lim, tarbiya.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora -tadbirlari to'g'risida"gi 06.11.2020 - yildagi PF - 6108 - son farmoniga asosan 2021- 2022 - o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilarni o'z qiziqish va iqtidorlariga mos kasbni tanlab olishi, kelajakda o'z munosib o'rnini topishlari, ijtimoiy - kasbiy faoliyatda yetarlicha muvofaqqiyatga erishlari uchun "Kasbga yo'naltirish tizimi" joriy etildi.

Kasbga yo'naltirish - bu ilmiy asoslangan va o'zini kasbini jamiyat ehtiyojlari sifatida, shuningdek, o'zini qiziqish va qobiliyatlarini xisobga olib, turg'un kasb tanlash uchun xayotga kirayotgan yoshlarga yordam beradigan psixolog-pedagog, tibbiyot va davlat tadbirlari tizimidir.

«Kim bo'lsam ekan?» degan savol har bir yigit va qiz uchun eng asosiy muammolardan biridir. Odamning shundan keyingi butun hayoti ana shu muammoni hal qilishga bog'liq. Kasbni to'g'ri tanlash mehnatda va ijtimoiy faoliyatda eng yuksak ko'rsatkichlarga erishishga yordam beradi, mehnat jarayonida va uning natijalaridan qoniqish esa ijodkorlikni eng ko'p namoyon etish, eng yaxshi hissiy kayfiyatda bo'lish, tanho bir kishining ham, umuman jamiyatning ham barcha hayotiy rejalarini bir muncha to'la amalga oshirish imkonini beradi. Malumki, xalqimiz qadimdan yosh avlod tarbiyasi, xususan yoshlarni mehnatga tayyorlash, ularga hunar o'rgatishga alohida etibor berib keladi. Buni hunar-hunardan unar, yigit kishiga qirq hunar oz kabi maqollarimizda ham ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng bu sohaga etibor yanada kuchaydi. Yangi turdagi ta'lim, jumladan maktabdagi mehnat ta'limi va uni negizida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirib, kollejlarda o'qishni davom ettirishga tayyorlash uchun kasb-hunar ta'limi muassasalari tashkil etilishi jadallashtirilmoqda. Ularni o'z ishining ustasi bo'lgan, erkin fikrlaydigan barkamol shaxs tarbiyasi jamiyatimizning ustivor vazifalari sirasiga kiritilmoqda, zero aynan shunday yoshlar davlatimizning buyuk kelajagini bunyod eta oladi. Bugungi kunda har bir insonning kasblar olamida o'z o'rnini topishi, kasbiy o'zligini anglashi, jamiyatda o'z o'rnini topishga intilishi va unga qiziqishi kun sayin ortib bormoqda.

Minglab kasblar ichida qaysi birini tanlash, shaxsning unga moyilligi, layoqati va qiziqishlarining mos kelishi yoki kelmasligini bilish, shaxs istiqbolida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada bolalarga qiziqtirgan kasblar haqida ko'plab malumotlarni maktabgacha talim muassasalarida kasb olami haqidagi dastlabki tushunchalar, boshlang'ich mehnat ko'nikmalari o'yinlar orqali beriladi. O'smirlar va ilk o'spirinlarning kasb tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo bo'lganligidan bu jarayonda otalalar, jamoatchilik va turli kasb ustalari ham faol qatnashishlari kerak, chunki yoshlar ko'p hollarda kattalarning maslahatlari va tavsiyalarini hisobga olgan holda qat'iy bir fikrga, qarorga kelishlari mumkin. Shuni ham aytib o'tish o'rinliki, maktab o'quvchilari kasb tanlash

borasidagi o'z qarorlarini, ko'pincha, har tomonlama dalillab bera olmaydilar, biroq ularning ko'pchiligi bu masalaga ongli ravishda yondashishga intiladilar. O'sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo'naltirish hamisha davlatimiz, siyosatimiz oldida turgan ustivor masalalardan sanalib kelingan.

Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimizning ota-onalari hamda ta'lim muassasalarining o'rni va u yerda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlarining faoliyati katta ahamiyatga ega. Kasb tanlashda o'smirlarga yordam berish maqsadida mutaxassislar (psixologlar, vrachlar, pedagoglar va boshqalar)ning maslahatlari va tavsiyalari asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Kasblar bo'yicha maslahat berishning bir necha xillari mavjud bo'lib ular bir - biridan farq qiladi.

Bizlar yoshlarni kasbga yo'naltirishda eng kerakli va samarli usullar ya'ni metodikalardan foydalanishimiz lozim deb bilaman. Ulardan birni misol tariqasida keltirib o'tishim mumkin bu "Kettel " so'rovnomasi metodi hisoblanadi u yoshlarni qaysi kasbga moyilligini aniqlab beruvchi metod hisoblanadi. Hozirgi kundagi eng dolzarb masalalardan biri ham shu ya'ni yoshlarimiz kasb tanla olmayotganliklaridir. Prezidentimiz tashabbuslari bilan har bir viloyat, tuman shaharlarimizdagi maktablarda kasb hunarga o'qitishni yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish to'g'risidagi farmonlari orqali ham bunga bo'lgan e'tiborni yaqoll namoyondasi desam adashmagan bo'laman. Bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ham shu o'spirin yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish masalasidir.

O'quvchilarni ta'lim tizimida mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb-hunarini o'z qobiliyatlariga yarasha to'g'ri kasb tanlashlariga erishish uchun maktab o'qituvchilarini pedagogik mahorati, bilim saviyasi didaktik qobiliyatlari yuksak bo'lishi qo'shimcha fan to'garaklar o'tilishi, kasb hunarga oid maruzalar o'qilishi kasb-hunar fotoko'rgazmalar tashkil qilishlari zarur. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki yoshlarimizni to'g'ri kasbga yo'naltirish, bu eng muhim vazifalardan biri ekanligini yana bir bor ta'kidlab o'tmoqchiman. Inson to'g'ri kasb tanlash orqali o'z oilasiga, jamiyatga juda katta naf keltirishi isbot talab qilmaydigan qonuniyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Kasbga yo'llash o'quv qo'llanma" ning 165-181betlari.
2. K.Jo'raboev. O'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha psixologik pedagogik o'yinlar, mashqlar va metodikalar. T.,2017 y
3. S.X. Jaliljva va b. Kasb psixologiyasi o'.q. Toshkent-2010

TADQIQOT ISHINI TASHKIL ETISH: IMRAD FORMATI**Madumarov M.M
Qo'qon universiteti o'qituvchisi**

Annotatsiya: Aksariyat ilmiy maqolalar IMRAD deb nomlangan formatga muvofiq tayyorlanadi. Bu atama Introduction (Kirish), Materials and Methods (Usullar va manbalar), Results (Olingan natijalar), And (Va), Discussion (Muhokama) so'zlarining birinchi harflarini ifodalaydi. Bu tadqiqot ishlarining sarlavhalari yoki tarkibiy qismlarining to'liq ro'yxati emas, balki namuna yoki formatni bildiradi; Maqolaning boshqa qismlari: sarlavha, mualliflar, kalit so'zlar, annotatsiya, xulosa va adabiyotlar ro'yxati. Bundan tashqari, ba'zi hujjatlarda minnatdorchilik va ilovalar mavjud. Kirish ushbu mavzu bo'yicha mavjud bilimlarni hisobga olgan holda tadqiqot hajmi va maqsadini tushuntiradi; Materiallar va usullar tadqiqot qanday o'tkazilganligini tavsiflaydi; Natijalar bo'limi tadqiqotda topilgan narsalar haqida xabar beradi; Muhokama bo'limi esa natijalarning ma'nosi va ahamiyatini tushuntiradi va tadqiqotning kelajakdagi yo'nalishlari bo'yicha takliflar beradi. Ma'qola jurnalning mualliflarga bergan ko'rsatmalariga muvofiq tayyorlanishi kerak.

Kalit so'zlar: IMRAD, maqola, metod, muhokama, xulosa.

Kirish. Yaxshi kirish qism nisbatan qisqa bo'lib, nima uchun o'quvchi maqolani qiziqarli deb topishi kerakligini aytadi, muallif nima uchun tadqiqot o'tkazganini tushuntiradi va o'quvchiga maqolani tushunishi va hukm qilishi kerak bo'lgan fanni beradi. Xususan, kirish o'rganilgan muammolarning tabiati va hajmini belgilaydi, tadqiqotni oldingi ish bilan bog'laydi (odatda muammoga aniq tegishli bo'lgan adabiyotlarni qisqacha ko'rib chiqish orqali), tadqiqot maqsadlarini tushuntiradi va har qanday maxsus atamalar yoki qisqartmalarni belgilaydi. quyidagi hollarda qo'llaniladi. Esda tutingki, kirish gipoteza yoki maqolaning asosiy mavzusini mantiqiy ravishda olib boradi va aniq bayon qiladi. Kirish nisbatan qisqa bo'lishi kerak; ko'pgina jurnallar 500 dan kam so'zni tavsiya qiladi. Takrorlashdan saqlaning: (Kirish qismida annotatsiyani takrorlamang). Ma'lum faktlarni takrorlamang va aniq narsalarni aytmang. Misol uchun, hozir ham, ya'ni, ilmiy agroo'rmonchilikda 30 yildan ortiq birgalikdagi sa'y-harakatlardan so'ng va ushbu mavzu bo'yicha katta hajmdagi adabiyotlardan so'ng, ba'zi qo'lyozmalar va eng qizig'i, ba'zi muharrirlar agroforestryinanyarticleonthatsub ta'rifini berishni talab qilayotgani achinarli. Ba'zilar "Kirish"da adabiyotni muhokama qilishni xohlasalar, "Muhokama" bo'limida. Ba'zi jurnallar "Materiallar va usullar" haqida qisqacha ma'lumotni "Kirish" bo'limiga kiritishni talab qiladi, ba'zilar esa hatto "Kirish" bo'limida keltirilgan muhim xulosalarni ham xohlashlari mumkin, garchi bu tendentsiya endi yo'qolib bormoqda.

Materiallar va usullar. Ushbu bo'limning maqsadi oddiy va to'g'ridan-to'g'ri tarzda nima qilinganligi, qanday va qachon va ma'lumotlar qanday tahlil qilinganligi va taqdim etilganligini ko'rsatishdir. Ushbu bo'lim boshqa tadqiqotchiga tadqiqotni hukm qilish yoki eksperimentni takrorlash uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni taqdim etishi kerak. Ushbu bo'limni tashkil qilishning eng oddiy usuli - xronologik; barcha kerakli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, lekin o'quvchilar bilishi kerak bo'lgan kerakli, keraksiz tafsilotlardan qoching.

Bo'lim quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak, lekin bu tartibda bo'lishi shart emas:

- o'rganilayotgan joyning tavsifi (iqlim, tuproq — AQSh tuproq taksonomiyasi)
- replikatsiyalar soni va foydalanilgan namuna olish tartib-qoidalari bilan eksperimentni loyihalash
- aniq tavsiflangan o'simliklar yoki hayvonlar (jins, tur, shtammi, navi, liniyasi va boshqalar); Lotin nomlarini kursiv bilan, hatto oddiy o'simliklar uchun ham kiriting;
- matnda birinchi eslatib o'tilganda

- ishlatilgan materiallar, aniq texnik tavsiflari va miqdori va ularning manbasi yoki tayyorlash usuli. Umumiy yoki kimyoviy nomlar umumiy tan olinmagan savdo nomlaridan yaxshiroqdir. Ba'zi jurnallar, shuningdek, kompaniyalar material zikr qilingandan keyin kompaniya nomini qavs ichiga kiritishni talab qiladi

- olingan taxminlar va ularning mantiqiy asoslari
- ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish uchun qo'llaniladigan statistik va matematik jarayonlar.

Amalga oshirilgan usullar odatda xronologik tartibda, kerak bo'lganda aniqlik va tafsilot bilan tavsiflanishi kerak. Standart usullarni faqat eslatib o'tish kerak yoki ular mavjud bo'lganda adabiyotga havolalar bilan tavsiflanishi mumkin. Standart texnikaning modifikatsiyalari tavsiflanishi kerak. Agar usul yangi bo'lsa, uni batafsil tavsiflash kerak. Umumiy tartiblarning haddan tashqari tavsifini kiritmang. O'quvchilarning umumiy tushunchasi va protseduralaringiz bilan tanishish darajasiga e'tibor bering va hurmat qiling. Masalan, agroo'rmon xo'jaligining biofizikaviy aspektlari bo'yicha tadqiqotchilarga mo'ljallangan jurnal qo'lyozmasida namuna olish uchun materiallar/saytlar qanday tanlangani, namunalar qanday olingani va tahlilga qanday tayyorlangani va tez orada batafsil bayon qilish shart emas. Biroq, jurnal muharrirlari har qanday elementning qo'shimcha ma'lumotlarini so'rashi mumkin.

Quyidagilarni ta'minlashga alohida e'tibor berilishi mumkin:

- qisqartmalar yoki nomlardagi noaniqliklarga yo'l qo'ymaslik
- barcha miqdorlar standart birliklarda bo'lishi
- barcha kimyoviy moddalar boshqa olim ishni takrorlashda ularga to'liq mos kelishi uchun maxsus identifikatsiya qilinadi
- har bir qadam tushuntiriladi, shu jumladan replikatsiyalar soni
- barcha texnikalar, agar ular standart bo'lsa, hech bo'lmaganda nomi bilan yoki agar siz standart texnikani o'zgartirgan bo'lsangiz yoki yangisini ishlab chiqqan bo'lsangiz, kerakli darajada batafsil tavsiflanadi, o'quvchini chalkashtirib yuboradi.

Materiallar va usullar bo'limi o'tgan zamonda beriladi. Aktiv yoki passiv shakllardan foydalanish bo'yicha standart "qoida" yo'q ("Men/biz o'nta namuna oldik" va "O'nta namuna olindi"); jurnalning me'yorlariga rioya qiling va agar jurnal bu borada qat'iy bo'lmasa, shaxsiy xohishingizdan foydalaning.

Natijalar. Ushbu bo'lim yangi bilimlarni taqdim etadi; shuning uchun u maqolaning o'zagi hisoblanadi. E'tibor bering, "Kirish", "Materiallar va usullar" bo'limlari muallif ushbu bo'limda keltirilgan narsaga nima uchun va qanday etib kelganligini aytish uchun kerak va mo'ljallangan, ularning ma'nosi keyinroq "Muhokama" bo'limida tushuntiriladi. Shunday qilib, maqolaning qiymati ushbu (Natijalar) bo'limida mavjud bo'lgan narsalarga bog'liq va u to'g'ri miqdordagi so'zlar bilan mutlaqo aniq tarzda taqdim etilishi kerak, ko'p ham emas, kam ham emas. Odatda, natijalarga amal qilish, agar ular Kirish bo'limidagi maqsadlar bilan bir xil tartibda taqdim etilsa, eng oson bo'ladi.

Natijalarni taqdim etish bo'yicha ba'zi ko'rsatmalar quyida keltirilgan:

- natijalarni sodda va tushunarli taqdim eting
- (cheksiz) takrorlanuvchi ma'lumotlardan ko'ra faqat vakili ma'lumotlarni taqdim eting
- katta hajmdagi ma'lumotlar haqida xabar bermang; ularni statistik tahlil qilingan jamlama shakllariga qisqartiring va ularni tushunish va taqqoslashni osonlashtirish uchun muhim statistik ma'lumotlar bilan birga jadval yoki rasmlarda taqdim eting

- matnda faqat jadval va grafiklarda ko'rsatilgan eng muhim topilmalarni takrorlang; Boshqacha qilib aytganda, matnda jadval va rasmlarda keltirilgan barcha yoki ko'p ma'lumotlarni takrorlamang

- salbiy ma'lumotlarni (topilmaganlarini) qo'shing, agar natijalarni izohlash uchun foydali bo'lsa,
- matnda har bir jadval va rasmni raqamlar bo'yicha keltiring
- faqat kerakli, tushunarli va takrorlashga arziydigan jadval va rasmlarni kiriting
- batafsil iboralardan saqlaning: masalan, "2-jadvalda daraxt soyabonining mavjudligi yorug'likning yerga o'tkazuvchanligini kamaytirgani aniq ko'rsatilgan..." deyish o'rniga "Yorug'likning erga o'tkazuvchanligi daraxt soyabonlari mavjudligi sababli kamaydi (2-jadval)."

Jadvallar va rasmlar yaxshi yozilgan ilmiy maqolaning ajralmas qismi bo'lib, ular Natijalar bo'limida ko'rinadi (lekin istisnolar mavjud). Jadvallar aniq raqamlarni taqdim etsada, raqamlar tendentsiya va xususiyatlarni ko'rsatadi. Jadval va grafiklarda bir xil ma'lumotlarni taqdim qilmang.

Munozara. Bu mualliflar natijalarning ma'nosi va oqibatlarini tushuntiradigan bo'lim. Bo'lim hamma narsani birlashtiradi va ishning ahamiyati va qiymatini ko'rsatadi va shuning uchun yozish uchun maqolaning eng innovatsion va qiyin qismidir. Mualliflarning natijalarni ma'lum faktlar asosida sharhlash va natijalarni kuzatilgan xatti-harakatlarning innovatsion tushuntirishlari uchun dalil sifatida ishlatish mahorati bilimlar chegaralarini oshirishi va o'quvchilarning ishtiyoqini uyg'otishi kerak. Bunday qiziqarli munozaralarsiz, o'quvchi "Xo'sh, nima bo'libdi?" deb, boshqa qiziqarli maqolalarga o'tib ketishi mumkin.

Yaxshi munozarada quyidagilar taqdim etiladi:

- adabiyotlarni ko'rib chiqishda aytilganlarni takrorlamaslik
- natijalarni Kirish qismida keltirilgan savollar bilan bog'lash
- natijalar va sharhlar bo'yicha mavjud bilimlarga qanday mos kelishi yoki mos kelmasligini ko'rsatish. mavzu, ya'ni avval chop etilgan ish
- kuzatilgan natijalarning nazariy asoslarini tushuntiring
- natijalarning ahamiyatini ko'rsating
- rejalashtirilgan yoki davom ettirish uchun zarur bo'lgan kelajakdagi tadqiqotlarni taklif qiling
- tadqiqotda faqat xabar qilingan natijalar bilan shug'ullaning
- bulardan uzoqroq turing. Taqdim etilgan natijalar bilan tasdiqlanmagan umumlashma va taxminlar
- har biri uchun dalillar bilan xulosalar keltiring.

Xulosa. Xulosa, natijalarni takrorlashdan ko'ra, tadqiqotning aniq ifodalangan natijalarini bayon qilishi va maqolada e'lon qilingan topilmalar asosida ushbu sohadagi kelajakdagi tadqiqot yo'nalishlarini qisqacha ko'rsatishi kerak. Noto'g'ri yozishda "xulosa chiqarishdan oldin ko'proq tadqiqot o'tkazish kerak" kabi xulosalarni topish odatiy hol emas. Bunday holda, nima uchun xulosa chiqarish mumkin bo'lmagan maqolani nashr etish kerak? Ba'zi jurnallarda alohida Xulosa bo'limiga ruxsat berilmaydi. Bunday holda, xulosalarni bayon qilish uchun Muhokamaning oxirgi xatboshi yoki bir nechta jumllaridan foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ackles, N., 1996. Maqolagaga nom berish, ESL markazi, Washington universiteti, Washington.
2. ASA-CSA-SSSA, 1998. Nashrlar bo'yicha qo'llanma va uslublar bo'yicha qo'llanma. <http://www.asa-cssa-sssa.org/style98/>, 145 bet.
3. Biologiya muharrirlari kengashi (CBE) (Muharrir), 1994.
4. Ilmiy uslub va format. Kembrij universiteti matbuoti, Kembrij, 825 bet.
5. Cressie, I., 2002. Yozish va tahrirlash kursi, ITC talabalari uchun ma'ruza matnlari. Enschede, 120-bet. Kun, R.A. (Muharrir), 1994. Ilmiy maqola qanday yoziladi va nashr etiladi.

Oryx Pr., Phoenix, 223 pp. Funkhouser, G. R. and Maccoby, N., 1971. Ixtisoslashgan fan ma'lumotlarini oddiy auditoriyaga etkazish. Aloqa jurnali, 21: 58.

6. Gopen, G.D. va Swan, J.A., 1990. Ilmiy yozish fani. Amerikalik olim, 78: 550-558.

7. Gordon, M., 1983. Hakamlilik tizimini ishga tushirish. Boshlang'ich aloqa tadqiqot markazi, Lester.

8. Gosden, H., 1992. Tadqiqot yozish va NNSlar: Tahririyatdan. Ikkinchi tilda yozish jurnali, 1(2): 123-139.

ILK BOLALIK DAVRIDAGI HISSIY KECHINMALARNING TA'LIMGA TA'SIRI

Ismoiljonova Shahrizoda Boburjon qizi
Qo'qon universiteti ta'lim fakulteti
Psixologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi,
Guljahon Eshonqulova
Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilk bolalik davridagi hissiy kechinmalarning nutqning rivojlanishi va ta'limga ta'siri, bola hissiyotlarida tashqi muhit va onaning roli qanday ekanligi so'rovnoma asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tafakkur, ilk bolalik davri, hissiyot, xavotir, emotsionallik, xotira, o'zini anglash, jismoniy rivojlanish, aqliy rivojlanish.

Ilk bolalik davrining boshlariga kelib, bolada birinchi tafakkur operatsiyalari yuzaga keladi. Buni bola biror predmetni olishda harakat qila olganidan so'ng, uni sinchiklab o'rganishda ko'rishimiz mumkin. Ularning tafakkurlari, asosan, ko'rgazmali -harakatlar bo'lib, u atrof olamdagi turli bog'liqliklarni o'rganishga xizmat qiladi. o'zidan uzoqroq turgan koptokni biror-bir uzunroq narsa bilan itarib yuborish mumkinligini ko'rgan bola, "- endi mustaqil ravishda divan tagiga kirib ketgan koptokni" tayoqcha yordamida olish mumkinligini tafakkur eta oladi. Bu davrdagi bolalartafakkurida umumlashtirish katta o'rin tutadi. Ilk bolalik davri bola hayotidagi eng ahamiyatga molik, uning kelajakdagi psixologik rivojlanishini belgilab beruvchi muhim davr hisoblanadi. Bu davrdagi rivojlanishning asosini bolaning to'g'ri yurishi, muloqotga kirishishi va predmetlash faoliyatni egallash xususiyatlari tashkil etadi. Tikka va to'g'ri yura olish imkoni bolani, doimiy ravishda yangi ma'lumotlarni egallashga zamin bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z xatti—harakatlari bilan juda faol va kattalar bilan muloqotga kirishishga intiluvchan bo'ladilar. Mashxur rus pedagoglaridan biri Lesgaftning fikricha: " Insonning bog'cha yoshdagi davri shunday bir davrki, bu davrda bolada kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo bo'lishi belgilanadi va axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi". Yosh bola gapira olmasa ham kattalarning suhbatini diqqat bilan tinglaydi va nimanidir tushunadi. Go'dak ona ko'ragini emayotganida ham biror narsani qiziqib o'ynayotganida ham quloqlari hamma narsani eshitadi va miyasi olingan ma'lumotlarni o'zlashtiradi. Go'dakning xotirasi u tushunguniga qadar barcha ma'lumotlarni saqlaydi. Biz so'zlarni to'g'ri qo'llash orqali bolalarning fikrlarini to'g'ri yo'naltirishni o'rgatamiz. So'zlar bola ongida tasvirli qiyofa hosil qiladi va bola undan o'z harakatlariga turtki oladi. Ilk bolalik davri aqliy rivojlanishning asosini, idrok va tafakkur harakatlarining yangi ko'rinishlarini tashkil qiladi. Tafakkurning rivojlanish darajasi so'z boyligining oshishiga, nutqning o'sishiga yordam beradi.

Ilk bolalik davrida xotira bilishdagi asosiy funksiya hisoblanib, u bilishning barcha ko'rinishlarini rivojlanishida ishtirok etadi. Bu davrda bolaning xotirasi jadal rivojlanadi. Bolaning hayotiy tajribalarni o'zlashtirishida dastlab harakatli, emotsional va obrazli xotira ishtirok etadi. Bu borada harakatli va emotsional xotira ustunlik qiladi. Xotira bu yoshda asosan ixtiyorsiz bo'ladi. Bu davrdagi bolalarga ko'p kitob o'qib berish natijasida ular ertak va she'r va hikoyalarni eslab qoladilar, lekin bunday eslab qolish bolaning umumiy aqliy rivojlanishidan ham, xotirasining individual xususiyatidan ham dalolat bermaydi. Bu ilk bolalik davridagi bolalarning barchasiga xos bo'lgan nerv sistemasining umumiy egiluvchanligi natijasidir. O'zi va atrof hayoti haqidagi voqea va hodisalarda ketma-ketlik borligi uchun ham ularni hali to'diq ravishda xotirasida saqlab qola olmaydi.

Bu davrdagi bolalar asosan o'z hatti-harakatlarini o'ylab o'tirmaydilar, chunki hatti-harakatlar ularning hissiyotlari asosida bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning hatti-harakatlari

juda o'zgaruvchan bo'ladi. Masalan, bolaning yig'lashi hamda yig'idan to'xtashi juda tez o'zgaradi. Ilk davrda bolada o'z yaqinlariga: onasi, otasi, buvi-buvalari, tarbiyachisiga nisbatan muhabbat shakllanadi. Ilk bolalik davrida bu muhabbat boshqa shaklga o'tadi. Endi bola o'z yaqinlaridan maqtov olishga harakat qiladi. Ota-onalar tomonidan bolaning xatti-harakatlari va shaxsiy xususiyatlariga beradigan ijobiy emotsional baholari ularda o'zlarining layoqat va imkoniyatlariga nisbatan ishonchini shakllantiradi. U o'z ota-onasiga nihoyatda qattiq bog'langan bo'lib, intazomli va itoatkor bo'ladi. Ana shu bog'liqlik sababli bolaning asosiy ehtiyojlari qondiriladi, xavotirligi kamayadi. Onasi yonida bo'lgan bolalar ko'proq harakat qiladilar va atrof muhitni o'rganishga intiladilar. Bu davrda bola o'z ismini juda yaxshi o'zlashtiradi. Bola doimo o'z ismini ximoya qiladi, uni boshqa ism bilan chaqirishlariga norozilik bildiradi. Kattalarning bola bilan qiladigan muomala-munosabati uning o'zini alohida shaxs sifatida anglashini boshlanishga imkoniyat beradi. Uch yoshli bola eshitganlarini takrorlaydi va ko'rganlari va boshidan kechirganlari haqida gapiradi, ayniqsa kattalar unga yetakchi savollar bilan yordam berishsa. U allaqachon murakkab va hatto murakkab jumalarni ishlatadi, bu uning tafakkurining murakkabligini, uning aqliy rivojlanishining me'yoriy xususiyatini ko'rsatadi. Fikrga ko'ra, uch yoshli bola asosan o'z ona tilini egallashi kerak va bu hayotning uchinchi yilining mo'jizasidir. Ikki yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bola kattalar bilan doimiy og'zaki aloqaga muhtoj.

U bilan gaplashing, aqli, jiddiy gapiring, shunda u aqli bo'ladi. Uch yoshida chaqaloq bir nima ekanligini tushunadi, oz va ko'p, o'ng va chap tomonlarni ajratadi. Uch yoshli bola shu qadar aqlliki, u butun narsani bitta xarakterli tafsilotdan taniydi: quloqlari bilan - quyon, tishlari bilan - fil. Ajablanarlisi uchinchi yilning ikkinchi yarmidan boshlab u konstruktiv o'yinni o'zlashtira boshlaydi, fantastika bilan qurish, rejalashtirishning birinchi elementlarini o'zlashtirish. Bola syujetli rolli o'yinga ham kiradi, lekin hozircha u asosan narsalar bilan o'ynaydi: bu erda u qo'g'irchoq uchun shifokor, mana haydovchi, ag'darilgan kursi esa unga mashina bo'lib xizmat qiladi. Biroq, asta-sekin u tengdoshlari bilan o'yinga o'tadi. Uch yoshli bola 30 daqiqagacha diqqatini bir narsaga qaratadi. Uch yoshli bola, agar u aqli bo'lsa, masxara qilishni idrok etadi, mag'rurlanadi, xafa bo'ladi, quvonadi, qayg'uradi, intiladi, sevadi, xayrixohlik, dushmanlik va hasad tuyg'ularini his qiladi, hamdardlikka qodir. Tuyg'ular tug'ma, lekin barcha tug'ma potentsiallar singari, ularni rivojlantirish kerak. Hissiy rivojlanish intellektual rivojlanish bilan chambarchas bog'liq. va bu jihatdan hissiy va aqliy tarbiya haqida, shuningdek, bolaning hissiy va aqliy rivojlanish darajasi haqida gapirish o'rinlidir. Aqliy rivojlanishning kechikishi bilan hissiy rivojlanishning kechikishi mumkin, keyin uch yoshli bola faqat ibtidoiy his-tuyg'ularni - zavq va norozilikni boshdan kechiradi va ularni taxminan ifodalaydi. Nozik emotsionallik, nozik aql bilan ajralmas tarzda rivojlanadi. Bolaning hissiyligini tarbiyalashning hal qiluvchi sharti onaning rang-barang va boy hissiyotidir. Ular chaqaloqqa sevgi haqida qancha gapirishmasin, agar u onasi bilan o'zaro sevgida buni boshdan kechirmagan bo'lsa, u unga noma'lum bo'lib qoladi. Unga qanchalik mehr, qayg'u, xayrixohlik va hamdardlik haqida gapirmasin, agar bu onaga xos bo'lmasa, bolaning ham qalbi tosh bo'ladi.

Ona nima bergan bo'lsa, bola o'ziga tegishlidir. Bolada aql rivojlanadi, lekin agar ona hissiyot bermagan bo'lsa, unda bolaning ongi sovuq, bir tomonlama, bundan tashqari, nuqsonli. Emotsionallikni tarbiyalashning ikkinchi jihati, bundan ham muhimi, hissiyotlarni ifodalash madaniyatidir. Yaxshi tarbiyalangan bola salbiy his-tuyg'ularni ifoda etishda o'zini tutadi. U ularni bostirmaydi, lekin u ham isterik emas. Norozi bo'lsa, u g'azablanadi, lekin g'azablanmaydi. Uning g'azabi uning ko'zlarida, u hatto yuraklarga tegishi, yig'lashi va qanchalik xafa bo'lganligini aytishi mumkin, ammo bu tajovuz emas va motor bo'roni emas. Bunday bola quvonchni tabassum bilan, hayajonli nutq bilan, onasini quchoqlab, o'pish orqali ifodalaydi. Agar u norozi bo'lsa, u qovog'ini chimiradi, notiqlik bilan sukut saqlaydi va yurakni

yirtib qichqirmaydi va hayajon bilan imo-ishora qilmaydi. Bu o'rgatiladi va talab qilinadi. Keyin aqlli, madaniyatli farzandimiz bor. Va, albatta, u aqlli. Uch yoshda chaqaloq allaqachon fikrlaydigan odam, lekin uni fikrlash qobiliyatiga yetkazish kerak. Ta'lim uchun hayotning uchinchi yilini sog'inib, ular juda ko'p narsani o'tkazib yuborishdi. Uch yil oldin potentsialli bola tug'ildi. Endi ular ko'p jihatdan amalga oshdi. O'sha to'qqiz oylik abadiy ayollar ishi, homiladorlikdan boshlab tug'ilishgacha, barcha sog'lom odamlar uchun mavjud; aqliy, hissiy, axloqiy "ko'tarilish" jasorati, tarbiya - ona va otaning ota-onasining jasorati. Va u faqat chinakam sevadiganlar uchun, faqat alohida shaxslar - Ona va Ota uchun mavjud. Hozirgi davr bolalaridagi eng katta muammo ona bag'ridan mosuvollik va buning natijasida ishonch tuyg'usi yetishmasligining kelib chiqishidir. Biz ona bag'rida, ona suti bilan katta bo'lgan bolalar bilan, onadan uzoqda, ona sutidan mosuvo bo'lgan bolalarning o'rtasida qanday farqlar mavjudligini bilish maqsadida so'rovnoma o'tkazdik. So'rovnoma natijasida shu ma'lum bo'ldiki, onasi bag'ridagi bolalarda ona tanasining tabiiy issiqligi bilan bola tanasining harorati muvozanatda bo'lishi bolaning jismoniy rivojlanishida muhim rol o'ynar ekan, ya'ni ona bag'rida katta bo'lgan bolalar, ona bag'rida katta bo'lmagan bolalarga nisbatan ancha baquvvat, jismoniy faol bo'lishar ekan. Ona bag'rida yotgan bolalar onaning yurak maromidan oladigan ishonch hissi bilan tartibli nafas olar va kisloroddan samaraliroq foydalanar ekan, natijada bunday bolalarning aqliy faoliyatlari ham, boshqa bolalarga qaraganda jadallik bilan rivojlana ekan.

Xulosa qilib aytadigan bulsak, bolada sodir bo'ladigan psixik o'sish bilan bir qatorda tafakkur ham rivojlana boradi. Bolada psixik o'sish va o'zgarish ular hayotida o'z o'rnini va mavqeyiga ega bo'lishi biroz murakkabroq kechadi. Buning sababi bir tomondan bolada hali yetarlicha tajribaning yetishmasligi bo'lsa ikkinchi tomondan kattalarning boladagi ehtiyoj va intilishlar ortida turgan rivojlanish xususiyatlarini to'liq anglab yetmasligi hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. Nashr. 20.07.2006. -32b
2. www.ziyo.uz kutubxonasi.
3. Sh.M.Mirziyoyevning "2017-2021 - yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi Qarori.T.2016-yil 29-dekabr.
4. Z. Nishanova, G. Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. o'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. 160 b.
5. Yarashevskiy M.G. Psixologiya v XX stoletii M.1971.
6. Yosh bola demang ularni. Adem Gunesh. Nashr 2021-192b
7. Lyadus V.L.-Metodika prepodavaniya psixologii. Iz.vo. URAO 2000
8. Rivojlanish psixologiyasi Z.T. Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X. Xolnazarova .Nashr 2018- 242b.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA
ERTAKLARNING O'RNINI****Isroilova Shahnoza****Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi,
Jumanova Shahnoza Ikromjonovna
Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrasida o'qituvchisi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda ertaklarni o'rganishning maqsad va vazifalari, ularning tarbiyaviy ahamiyati, boy ma'naviy merosimizni yoshlar ongiga singdirish, ularning dunyoqarashini shakllantirishda ertaklar orqali ta'sir, ertaklarni o'rgatish orqali pedagoglarning oldiga qo'ygan maqsadlari haqida fikr yuritiladi. Ertaklardan samarali foydalanish uchun bir qator tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ona tili va o'qish savodxonligi, xalq o'gzaki ijodi, ertak, axloqiy sifatlar, ertak matni, og'zaki hikoya, savol-javob, nutq o'stirish.

O'tgan o'quv yilidan boshlab Milliy o'quv dasturiga ko'ra boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan "O'qish" va "Ona tili" darslari integratsiyalashtirilib, ta'lim amaliyotiga "Ona tili va o'qish savodxonligi" darslari joriy etildi. 1-2-sinflar uchun shu nomdagi darsliklar chop qilindi. Boshlang'ich sinflardagi ona tili va o'qish savodxonligining asosiy maqsadi bolalarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ularning og'zaki va yozma nutqi hamda tafakkurini o'stirish, shaxs sifatida shakllantira borish, ularda bilim olishga qiziqishni o'stirish, faollik, mustaqillik, ijodkorlik kabilarni shakllantirish hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ma'naviy olamini boyitishga muhim vazifa sifatida yondashiladi. Bu borada ertaklarni o'qitishning katta ahamiyati bor desak, yanglishmaymiz. Haqiqatan ham, ertaklar yordamida o'quvchilarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash istiqloq talabidir. Buning uchun, avvalo, o'qituvchining o'zi ana shunday buyuk fazilatlariga ega bo'lishi kerak. Bu uning zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklaydi.

Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala — bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim — yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan"- degan edi yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev.

Oila sharoitida bola qalbida kitobga nisbatan qiziqish va muhabbat tuyg'usini uyg'otish, adabiyotga, ertaklarga qiziqtirishdan boshlanadi. Buning uchun oiladagi kattalar — bobo yoki buvi, ota yoki ona, aka yoki opa muntazam ravishda har kuni kichkintoyga badiiy asarlardan birini (ertak, hikoya, afsona, rivoyat v.b) o'qib yoki hikoya qilib berishi lozim. Badiiy kitobni oila davrasida o'qish ham nihoyatda samarali usullardan biri hisoblanadi. Kitob bilan birgalikda o'tkazilgan damlar xuddi bayramdek hayajonli va quvonchli bo'lishiga erishilsagina bolada kitob o'qishga havas uyg'onadi, kitobga o'rganadi va unga mehr qo'yadi. Hammamiz yoshligimizdan turli-tuman ertaklar tinglab katta bo'lganmiz. Ba'zilarimiz balog'at yoshiga yetganda ham ertak kitoblar o'qish, film-ertaklar, multfilmlar tomosha qilish ishtiyoqini saqlab qolganmiz. Bu — ertaklarning sehrli olami g'oyat maftunkor ekanidan, albatta. Ertaklar dunyodagi boshqa xalqlar og'zaki ijodida keng tarqalganidek, o'zbeklarda ham eng ommaviy janrlardan biri sifatida turli viloyatlardaimizda yashaydigan yurtdoshlarimiz tomonidan sevib aytib kelingan. Yurtimizning turli hududlarida ertak xalq orasida matal, varsaqi, cho'pchak,

o'tirik, tural kabi nomlar bilan ham ataladi. Ertaklar turmushdagi biror qiziq voqeani yoki xayoliy va hayotiy uydirma asosiga qurilgan ibratli g'oya asosida ajoyib-u g'aroyib tarzda, jozibali, ixcham va mukammal holda aks ettirishi bilan kishida zavq uyg'otadi. O'zbek xalq ertaklarini shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, hayotiy-maishiy ertaklar sifatida farqlash mumkin. "Bo'ri bilan tulki", "Hiylagar bedana", "Chivinboy" kabi ertaklarning bosh qahramonlari hayvonlar, qushlar, hasharotlardir. "Yalmog'iz", "Semur", "Zumrad va Qimmat" ertaklari sirli va sehrli voqealar asosiga qurilgan. "Kenja botir", "Egri va to'g'ri", "Uch og'a-ini botirlar", "Malikai Husnobod", "Ayoq" kabi ertaklarda barkamol shaxslarning ibratli hayoti va sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi. Shoir va yozuvchilar ham o'z xalqining eng chiroyli, ta'sirchan ertaklari asosida adabiy ertaklar, dostonlar, qissa va hayoliy hikoyalar yaratadilar. Ertaklar asosida badiiy va multiplikatsion filmlar olinadi, sahna asarlari qo'yiladi.

"Ertaklar — yaxshilikka yetaklar", deydi xalqimiz. Oilada ota-onalar tomonidan farzandlarga hayot haqida bilim berish, o'git va nasihat qilish, nutq o'stirish, mehr-u e'tiborini amalda ifodalash uchun ertaklar aytiladi. Bola ulg'aya borgan sari ertaklarning hajmi kengayib, mazmuni va mundariyasi murakkablashib boradi. Ertaklar ta'sirida farzandlarda hayotga muhabbat, oilaga, ota-onaga mehr, do'stu yorga sadoqat, kelajakka umid, yaxshilik va adolat tantanasiga ishonch hislari kamolga yetadi.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darsliklariga, asosan, hikoya, she'r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat va topishmoq kabi janrdagi asarlar kiritilgan. Turli janrdagi badiiy asarlar uslubi jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning o'quvchilarga ta'siri ham har xil bo'ladi. Tabiiyki, har bir janrga oid asar lingvistik jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xalq og'zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkirligi, ma'nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko'pchiligida real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo'shib ketadi. Ertakning o'tkir maroqli syujeti, voqea rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik kuchining - yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifoda vositalarining jonligi, bolalar uchun juda qiziqarlidir. Ertakda qatnashuvchilar ko'pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochko'z obrazlarga bo'linadi. Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, o'quvchilar unda to'g'rilik, halollik g'alaba qilganidan, kambag'al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo'lishini istaydilar.

Ertak bolalarda qahramonlarning xatti-harakatini muhokama qilib, baholash ko'nikmasini o'stirishi bilan birga yaxshilikning doimo g'alaba qozonishiga ishonch uyg'otadi. O'quvchilar ertakni tahlil qilish jarayonida «Kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmadi?) Nima uchun?», nima uchun jazolandi? (yoki rag'batlantirildi?)», «Nima uchun ertakdagi ba'zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi? (yoki ba'zilaridan yuz o'giradi?)» kabi savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib, xulosalarga keladilar. Boshlang'ich sinflarda hayvonlar haqidagi ertaklar ko'proq o'qitiladi.

Ertak matni ustida ishlashda tanlab o'qish, savollarga javob berish, o'quvchilarning o'zlari ertak mazmuniga oid savollar tuzib, javob berishlari, reja tuzish, qayta hikoyalash, ijodiy davom ettirish, ertak aytish, qahramonlarni grafik tasvirlash kabi ish turlaridan foydalaniladi. Bunday ertaklarda hayvonlarning odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni kishilar xarakteriga taqqoslash tavsiya qilinmaydi.

Maktab tajribasidan ma'lumki, kichik yoshdagi o'quvchilar ertakdagi hayvonlar gapirmasligini, tulki va turna bir-birinikiga mehmonga bormasligini yaxshi biladilar, ammo ertaklar dunyosini hayotiy hikoya kabi qabul qiladilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda ertaklardan foydalanish o'quvchilarni mehnatsevarlik, vatanparvarlik, qahramonlik va kishilarga nisbatan hurmat-ehtirom ruhida tarbiyalaydi. Muhimi, ertaklarning mazmunan va matn qurilishiga ko'ra oddiydan murakkabga qarab ketma-ket o'rgatilishi ta'lim va tarbiya jarayonining uzviyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarga o'rgatiladigan folklor asarlarning eng asosiy janri ertak hisoblanadi. Ularda kishilar hayotida uchraydigan oddiy hodisalar va fantastik sarguzashtlar hikoya qilinadi. Ertaklarning ko'pida real hayot tasviri fantastik elementlar bilan qo'shib ketadi. Ertaklarning o'tkir maroqli syujeti, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik kuchining, yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni doimo o'ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifodali vositalarning jonliligi bolalar uchun juda qiziqarlidir. Ertakda qatnashuvchilarning rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz baxil, ochko'z kabi timsollarga bo'linishi o'quvchilarni axloqiy jihatdan tarbiyalashga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ertak bolalarda personajlarning xatti - harakatini muhokama qilib, baholash ko'nikmasini o'stiradi. Ertakda xalq o'z hayotini o'zi hikoya qiladi, shuning uchun o'quvchilar ertakni o'qish bilan ma'lum davrdagi xalq hayotini, o'ylari va orzu- istaklarini bilib oladilar. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali muvofiqlashtirib amalga oshirib, o'quvchi shaxsini kamol toptirishni ta'minlashda xalq ertaklarining o'rni beqiyosdir. O'quvchi o'zi sevib qolgan ertak ijobiy qahramonlaridan o'rnak olishga, halollikda, to'g'riso'zlikda, mehnatsevarlikda ularga o'xshashga intiladi. Salbiy qahramonlardan esa nafratlanib, ularga o'xshamaslikka harakat qiladi.

Demak, o'quvchilarning ham bilimga qiziqishini oshirishda, ham ularni komil inson qilib tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish ijobiy natija beradi. Shu bilan birga ertak o'quvchilar nutqini o'stirishda ham katta ahamiyatga ega. Ertak matni bog'lanishli nutqni o'stirish uchun zarur material beradi, ertaklarning tili g'oyat sodda, aniq, o'ziga xos obrazli ifodalarga boy bo'lib, o'quvchilarning fikrini, nutqini o'stirishda g'oyat muhimdir. Ertak voqealari esa bolalarning tasavvurini o'stiradi, tushunchalarini kengaytiradi hamda ularda ijodiy qiziqish uyg'otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- <http://agroxizmat.uz/oz-OZ/president>
2. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi // Boshlang'ich ta'lim, 1998, 6-son.
3. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi (Boshlang'ich ta'lim).- Toshkent, 2017
4. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetic ijodi.- Toshkent: "O'qituvchi", 1990.
5. Qosimova K., Matchonov S.va b.
5. "O'zbek xalq og'zaki ijodi" Omonulla Madayev. 106-bet
6. Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari haqida. T.: «FAN» 1964
7. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43)

O'SPIRINLIK DAVRIDA SHAXSLARARO MULOQOT MUAMMOSI

Mamarasulova Go'zaloy G'ayratbek qizi
Qo'qon universiteti Psixologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisni yozishimdan maqsad hozirgi davrdagi dolzarb muammo o'spirinlik davridagi bolalarni boshqa shaxslarga bo'lgan muloqoti, bu davrda bo'ladigan akseleratsiya jarayonining ta'siri, o'z davrida bo'lishi kerak bo'lgan muloqotni shakllantirish.

Kalit so'zlar: ilk o'spirinlik davri, shaxslararo muloqot, akseleratsiya, muloqotni shakllantirish, globallashuv davri, dominantlik, demokratik xarakter.

Insonlar orasidagi munosabatlar bo'yicha muammolar psixologik maslaxatlar berish jarayonida ko'p uchraydi. Bunda masalan men bo'lajak psixolog bo'lsam o'z hayotimni ya'ni ukamlarda tasvirlab berishim mumkin. Ular bilan ko'proq yaxshi gaplashishni istasakham ozgina noto'g'ri so'zlashishlari orqali meni yoki onam, yaqin do'stlarini xafa qilib qo'yishi menga ushbu dolzarblikni olib chiqishga majbur qildi. Ya'ni, bunda o'spirin yoshdagi bolalarda muloqotga kirisha olmaslik yokida boshqa bir haqoratli so'zlar bilan so'zlashishlarni muammo qilib olsak bo'ladi. Aytib o'tilgan muammolarning ko'p jihatliligi odamlar o'rtasidagi o'zaro muloqotni murakkabligini ko'rsatadi.

Hozirgi globallashuv davri bu yosh davrga kuchli ta'sir etib qolmasdan, balki uning shaxslararo muloqot shakllariga ham o'z ta'siri o'tkazmay qolmadi. Negaki, hozirgi akseleratsiya jarayonining shiddat bilan o'sishi ularning har tomonlama "hozirjavobligiga" olib keldi. Natijada katta yosh vakillari bilan bir – biriga to'g'ri kelmaydigan munosabat shakllari shakllanib bordi. Bu esa ilk o'spirinlikka xos bo'lgan shaxslararo muloqot shakllarini keltirib chiqardi. O'spirinlarda qadriyatli ma'noli muloqot dominantlik qiladi. Yigit va qizlarning kattalar va ota-onalar bilan muloqoti demokratik xarakter kasb eta boshlaydi. O'spirinning kattalar bilan muloqotining mazmuni hayot mazmunini izlash, o'zini bilish, hayotiy rejalar va ularni amalga oshirish yo'llari, insonlar orasidagi shaxslararo munosabatlar, kasb egalari haqidagi muammolarni qamrab oladi. Kattalar bilan muloqot bir xil davom etmaydi, o'zini qiziqtirgan muammoni hal qilgach, keyingi muammo bo'yicha savollar tug'ilguncha kamroq muloqot qilishi mumkin. Yigit va qizlar o'ziga yaqin kattalar bilan muloqot qilishga kasb tanlash muammolariga duch kelganlarida hayotiy tajribalarini o'rganish uchun ehtiyoj sezadilar. Bir-birini tushunish, bir-birini qo'llab-quvvatlashga asoslangan hamkorlik sharoitida muloqot samarali kechadi. O'spirin uchun kattalar bilan ishonchli muloqotning mazmuni shundan iboratki, uning muammolarini tushunish, hamdardlik bildirish va uni hal qilish uchun yordamlashishdan iboratdir.

«Kim bilan do'stlashishni xohlarding, o'zingdan kattalar bilanmi, tengdoshlaring bilanmi, yoki o'zingdan kichiklar bilanmi?» degan savolga ilk o'spirinlarning ko'pchiligi (75—85%) tengdoshlarini tanlashgan, kattalarni (11—20%), hamda kichiklarni juda kam (1—4%) tanlashgan. Qizlar ham ko'pincha tengdoshlarini tanlashgan, lekin ko'pincha kattalarni ham tanlashgan (39-50%), o'zlaridan kichiklarni hech tanlashmagan (I.S.Kon va V.A.Losenkov tadqiqotlari natijalari).

Xulosa qilib aytganda, o'spirinlik davri ya'ni 8-10-sinflar, ya'ni, bu yoshdagi bolalarning muloqot psixologiyasi murakkabligini hisobga olib ular bilan yaxshi muomilada bo'lish hamda do'stlarini to'g'ri tanlashda ko'maklashishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. file:///C:/Users/User.AD.192/Downloads/ilk-o-spirinlik-davrda-shaxslararo-munosabatlar-shakllanishining-psixologik-asoslari.pdf
2. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya [Matn] : darslik / Z.T. Nishanova va boshq. — Toshkent: « O 'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. 406-bet

**VOYAGA YETMAGAN O'SMIRLAR XULQ-ATVORINI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN
FAOLIYATNING PSIXOLOGIK MOHIYAT ZIDDIYATLARI**

Abdullayeva Masumaxon
Qo'qon Universiteti talabasi,
Hamidullayev Faxriddin
Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorini shakllantirishga qaratilgan faoliyatning psixologik mohiyat ziddiyatlari Mustaqillikning ilk yillaridan davlatimiz rahbariyati o'smir yoshlarning har tomonlama yetuk, sog'lom va kamol toptirishga e'tiborini qaratdi.

Kalit so'zlar; psixolog, o'zgarish, voyaga yetmagan, odob-axloq, urf-odatlarimiz, milliy an'analarimiz, qadryatlarimiz

Shu o'rinda xuquq-targ'ibot organlari o'smir yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish emas, balki jinoyatchilikning oldini olish, profilaktik chora-tadbirlar ko'rishga e'tibor qaratdilar. Bunday dolzarb muammoni hal qilishda respublikamiz psixologlari ham bir qator amaliy ishlarni amalga oshirib kelmoqdalar. Biz ham o'z tadqiqotimizda voyaga yetmagan o'smirlarning xulq-atvorini shakllantirishning psixologik jihatlarini o'rganishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunda biz o'smirlar tarbiyasidagi salbiy og'ishga olib keluvchi omillar va ushbu omillarga nisbatan ularning ijobiy hamda salbiy javoblarini o'rganamiz. Chunki inson umri o'rganilgan sari, undagi ko'pgina yangidan-yangi ma'lumotlar aniqlanaveradi. Shu sabab o'smirlardagi o'zgaruvchanlik xususiyati psixologlar oldidagi asosiy muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq davlatimiz rahbarining tashabbusi va bevosita rahnamoligida voyaga yetmaganlar va yoshlar tarbiyasi, ularning ma'naviyatini yuksaltirish borasidagi islohotlarni tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirish strategiyasi belgilab olindi.

Mazkur islohotlarning asosiy maqsadi voyaga yetmaganlar va yoshlarni kamol toptirish, iqtidorini to'la-to'kis ro'yobga chiqarish uchun ijtimoiy, iqtisodiy, xuquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iborat. Bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar aholining taxminan 40 foizini tashkil etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu yoshda insonning ongi, axloqi, ma'naviy qiyofasi shakllanadi. Shu bois mamlakatimizda bunday yoshlarga e'tibor kuchaytirilgan.

Voyaga yetmagan o'smirlar xulq-atvorini shakllantirishning psixologik jihatlarini o'rganish borasida respublikamiz psixologlari tomonidan ham bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, M.Davletshin, E.G'oziev, M.Vohidov, V.Karimova, N.Safоеv, F.Haydarov, Sh.Do'stmuhamedova, L.Nazirova, N.Komilova kabi olimlar tomonidan o'smir psixologiyasi, voyaga yetmaganlar psixologiyasi, o'smirlar xulq-atvorining o'ziga xosligi, o'smirlardagi og'ishishlar, tarbiyasi og'ir o'smirlar, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, o'smirlar xulq-atvorini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar kabi masalalar o'rganilgan.

O'smirlik davrini inqirozli davrga aylantirib qo'yadigan sabablar juda ko'p (bolalarning jinsiy etilishi, ularda kattalik hissiningpaydo bo'lishi va rivojlanishi, mustaqillikka bo'lgan ehtiyojning kuchayishi va h.k.). bunday sabablarning tahliliga bag'ishlab qator maqolalar, risolalar yozish mumkin. Biroq farzandining itilini topa olmayotgan, u bilan psixologik aloqa o'rnatishga qiyalayotgan har birorta-onani farzandidagi o'zgarishlarning sabablaridan ko'ra shunday vaziyatlarda qanday yo'l tutishi kerakligi, nima qilish mumkinligi ko'proq qiziqtiradi. Shu tufayli ushbu bo'limda asosiy urg'u o'smir yoshdagi bolalar va ota-onalar o'rtasidagi psixologik aloqani, muloqotni yaxshilash uchun nimalarqilish maqsadga muvofiqligiga qaratildi.

Ushbu bandeda farzand tarbiyasida qo'l keladigan tayyor i'retseptlar yo'q, unda barcha vaziyatlarga birdek mos keluvchi tavsiyalar ham uchramaydi. Ota-onalarga farzandi bilan qanday muloqot qilishni o'rgatish niyati ham ko'zlanmaydi. Zero, har bir oilada bu borada o'ziga xos tajriba, an'ana va qoidalar borligi hech kimda shubha uyg'otmaydi. Demak, bundan ko'zlangan bosh maqsad –mutaxassislarining amaliy tavsiyalarini (ko'rsatmalarini emas, aynan tavsiyalarini) o'quvchiga yetkazish, uni jonli mushohada va mulohazaga undashdir. Avvalo, shunga e'tibor qaratish kerakki, o'smirlik yoshida ota-onaning bola ko'z o'ngidagi mavqei bir muncha pasayadi. Maktabgacha yoshdavrda, kichik maktab yoshida ota-onasini eng kuchli, aqlli va chiroyli, deb hisoblaydigan bolalar o'smirlik yoshiga yetib, aslida ularning ota-onalarida ham talay kamchiliklar borligini payqay boshlashadi. Umuman, bu davrda tengdoshlar mavqei oshib, kattalarga nisbatan tanqidchan munosabat kuchayadi. Mamlakatimizda voyaga yetmagan yoshlar muammosiga u yoki bu darajada aloqador bo'lmagan birorta tashkilot yoki shaxsning o'zi yo'q. Biroq bu tashkilotlar va shaxslarning voyaga yetmaganlarni barkamol avlod etib tarbiyalashda o'z o'rni, ahamiyati, o'ziga xos ta'siri bor. Aytaylik, birorta bekorchi, huquqbuzar yoki diniy aqidaparast o'z manfaatlari yo'lida voyaga yetmagan yoshlar xizmatidan, foydalansa, hatto jinoyatga undasa, bu ham ularga ta'sirning bir, ko'rinishi, afsuski, salbiy namoyon bo'lishidir?! Bizning fikrimizcha, voyaga yetmaganlar qarovsizligi va huquqbuzarliklarining oldini olishning eng samarali yo'li mahalla, oila va maktabning mustaqkam hamkorligini ta'minlashdan iboratdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki voyaga yetmaganlar o'rtasida nizolarni hal yetishni hamda jinoyatchilikni sodir etmaslikni ularga o'rgatish kerak. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nizoli vaziyatlar har doim paydo bo'ladi, faqat uni ijobiy hal etilgan yondashishni bilishimiz kerak. Chunki ular o'smir yoshidagi o'quvchilar bo'lib, o'tish davrini og'ir damlarini boshdan o'tkazayotgan davrdir. Milliy an'analarimizga, maqollarga asosan: Kattani hurmat qil, kichikni izzat, Odobli bola elga manzur, Ustoz otangdek ulug', Har qilsang hurmat ko'rasan, Oltin olma duo ol, duo oltin emasmi kabi ibratli so'zlarga suyangan holda nizolarni hal etishni, ba'zan yon berishni o'rganishni farzand go'dakligidan oila dargohida o'rgatish lozim. Qush uyasida ko'rganini qiladi deganlaridek ibratli oilaning farzandlari ham ibratli bo'lishi kerak. Odob-axloq masalalari, shuningdek, urf-odatlarimiz, milliy an'analarimiz, qadryatlarimiz, buyuk ajdodlarimizning pand-nasihatlarini, noyob asarlariga amal qilsak, voyaga yetmaganlar o'rtasida salbiy xulq-atvor ko'rinishlari kuzatilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining I Ta'lim to'g'risida||gi qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan). Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: O'zbekiston. 1997.
2. Olimov L.Ya, Avezov O.R., Baratov Sh. R. Psixologiya nazariyasi va tarixi (o'quv qo'llanma) <https://library.sammi.uz/Library/> 1 (1), Ўзбекистон.
3. Olimov L.Ya, Baratov Sh. R. АВЕЗОВ О.Р. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2019. -B. 494.
4. Olimov L.Ya. Shaxs psixologiyasi. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2019. -B. 280.

O'SMIRLARDA AGRESSIV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Mirzayeva Sarvinoz Hasan qizi
TerDPI Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: O'smirlik davri oziga xos murakkab davr bo'lib, aksar bu yosh vakillarida agressiv xulq-atvor kuzatilishi tabiiy holatga aylangan. Maqola agressiya kishilar o'rtasidagi kelishmovchilik oqibatida kelib chiqadigan har qanday xulq-atvor modellaridan biri bo'lib, shaxslararo munosabatda yaqqol namoyon bo'ladi. Agressiyaning maqsadi xususan jabrlanuvchiga azob yetkazish hamda agressiyani boshqa maqsadlarga erishish vositasi sifatida qo'llash hisoblanadi. Maqolada o'smirlik davrida agressiv xulq ko'rinishlarining tasnifi, korreksion imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tajovuskor, Inqiroz, Agressiya, stress, Agressiv xulq, Instinkt.

Agressiya atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, «aggređi» –«tajovuz qilmoq» ma'nosini anglatadi. Psixologiyada «agressiya» atamasiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud bo'lib, X.Delgado, A.A.Bass, L.M.Semenyuk, G.Parens, A.Bandura, R.Uolters, Yu.Mojginskiylar tomonidan agressiya salbiy baholanadi. Shu bilan bir qatorda agressiyaga nisbatan ijobiy yondashuvlar ham mavjuddir. Jumladan, L.Bender agressiyani insonning o'z-o'zini namoyon qilishga intilishidir, deb ta'kidlaydi.

Keyingi paytlarda yoshlar o'rtasida tajovuzkorlik, agressiv xulq uchrab turibdi. Sababi yoshlarimiz telefon, ijtimoiy tarmoqlar orqali turli mentalitetimizga, milliy qadriyatlarimizga xos bo'lmagan videoroliklar, materiallar, voqea hodisalarga guvoh bo'lmoqdalar. Kattalar ularning xatti-harakatlarini nazorat qila olmayaptilar. O'smirlik davri olimlar tomonidan eng qiyin davr, inqiroz davri, o'tish davri deb e'tirof etiladi. Haqiqatdan bu davrga kiradigan bolalarga tarbiya-ta'lim berish ham qiyin bo'lib qoladi. Ular qaysar, o'zini boshqalar tan olishlarini xoxlaydigan, romantik bo'lib qoladilar. Shuning uchun o'smirlarni vaqtincha qo'llab-quvvatlash juda muhimdir, ammo vaqt o'tishi bilan uning fikrlari bilan yolg'iz qolishiga imkon berilishi kerak.

Agressiv xulq - shaxsning ma'naviy buzuvchilikka asoslangan, boshqarishning ichki dunyosiga ochiqdan-ochiq salbiy ta'sir o'tkazib, tajovuz qilib, uni izdan chiqarishga qaratilgan g'ayriinsoniy xususiyat. Agressiv xulqning shakllanishi, kuchayishi va namoyon bo'lishi ko'pincha ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda yuz beradi. Shaxsning o'ziga qaratilgan tajovuzkorlik "autoagressiya" (bunday holat shaxsdagi patologik o'zgarishlarning ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi) deb ataladi. O'z joniga qasd qilish, o'ziga tan jarohati yetkazish autoagressiyaning ko'rinishlaridir. Jaholatga botgan, johillik va zo'ravonlikni maqsadga erishishning asosiy va ustuvor vositasi deb biladigan shaxslarda Agressiv xulq kuchli bo'ladi.

O'smirlarda agressiv xulq-atvorning kelib chiqishi juda dolzarb masala hisoblanadi. Inson agressiyasi ko'rinishlarining turli-tuman va tubsizligidan kelib chiqib, mazkur xulq-atvorni o'rganishda D.Bass tomonidan taklif etilgan konseptual ramkalar bilan chegaralanish juda foydali ekanligi bilan ayon bo'ldi. Uning fikricha, agressiv harakatlarni uchta shkalaga asoslangan holda tasvirlash mumkin. jismoniy, verbal, aktiv-passiv va to'g'ri-egri o'smirlarda agressiyaning kelib chiqishi, oilalarda o'z otasi yoki onasining mehr-oqibatidan bebahra o'sayotgan va adolatsizlikka uchrash natijasida turli xil jinoyatlarga qo'l urish kabi illatlarning namoyon bo'lishi. Ba'zi oilalarda esa ota-ona va farzand o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ijobiy psixologik iqlimda emasligi achinarli holdir. Aksariyat ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyaga chaqirishda g'amxorlik, k, sabr-toqat, mehr kabi hislatlar bilan yondashish o'rniga, kuch bilan, ayniqsa jismoniy jazo usuli bilan tasir o'tkazadilar. O'z navbatida bu kabi xatti-harakatlar o'smirlarda agressiv xulq-atvorning shakllanishiga zamin bo'ladi. Agressiyaning odatiy namoyishlari quyidagilar hisoblanadi. nizo chiqarish, bosim o'tkazish, majburlash,

tilining yomonligi, negativ baholash, hamla qilish yoki jismoniy kuchni qo'llash bo'lsa, yashirin shakllari aloqadan qochish, kimgadir zarar yetkazish maqsadiga befarqlik, o'ziga ziyon yetkazish va o'z joniga qasd qilish kabilarda namoyon bo'ladi. Agressiya boshqa tirik jonzotga u buni istamagan vaziyatda haqorat yoki ziyon yetkazishni maqsad qilib qo'ygan fe'l-atvorning har qanday shakli degan ta'rif qabul qilingan. U agressiyaga emotsiya, motiv yoki ko'rsatma sifatida emas, balki fe'l-atvor modeli sifatida qarashni taqozo etadi. Bu muhim fikr ko'plab chalkashliklarni tug'diradi. «Agressiya» atamasi kop hollarda g'azab kabi salbiy his-tuyg'ular, haqorat qilish va ziyon yetkazish kabi motivlar, hatto irqiy va etnik xurufot bilan assotsiatsiyalanadi. Agressiv xulqning shakllanishi, kuchayishi va namoyon xulqning shakllanishi, kuchayishi va namoyon bo'lishi ko'pincha ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda yuz beradi. Shaxsning o'ziga qaratilgan tajavuzkorlik, «autoagressiya» (bunday holat shaxsdagipatalogik o'zgarishlarning ko'rsatgichi bo'lib xizmat qiladi) deb ataladi. O'z joniga qasd qilish, o'ziga tan jarohati yetkazish autoagressiyaning ko'rinishidir. G'arbdagi ayrim mafkuraviy mazrkazlar jahondagi yosh rivojlanish yo'liga kirgan mamlakatlarga information usullarda tazyiq o'tkazish orqali o'zining agressiv xulqini namoyon etmoqda.

Motivlashtirish nuqtai nazaridan, L.Bender agressiyani ixtiyoriy va instrumental turlarga ajratadi.

Ixtiyoriy agressiya-insonning boshqa bir kishiga anglangan tarzda zarar yetkazishi hisoblanadi.

Instrumental agressiyada-inson o'z oldiga boshqaga zarar yetkazishni maqsad qilib qo'ymaydi. Bu agressiya yuzaga kelgan vaziyatni hal etishda boshqa usulni qo'llashga imkon bo'lmagan holda yuzaga keladi.

R.Beron va D.Richardsonlar agressiyani qurbonga nisbatan maqsadli ravishda zarar yetkazishdir, deya ta'riflaganlar.

Reaktiv agressiya-o'z hayoti,erkinligi, g'ururi, o'zining yoki boshqaning moddiy boyligini himoya qilish maqsadida amalga oshiriladi. Ehtiyojlar, istaklar frustrasiyasi namoyon bo'ladi: rashk va xudbinlik; qasos; Ishonchning yo'qolishi (hayotga, sevgiga, yaqin insonlariga).

Kompensatoragressiya-zo'ravonlik, destruktivlik hayotda o'zi uchun muhim bo'lgan dolzarb ehtiyojlar qondirilmasligi holatlarini kompensatsiya qilish:

Sadizm (boshqani o'z hukmi, irodasiga bo'ysundirish); nekrofiliya; surunkali zerikish va depressiya.

Verbalagressiya-salbiy hislarni baqirish, janjalqilish, so'kish, haqoratlash, tahdid va boshqa usullar orqali bildirish. Arzimagan qo'zg'ovchi ta'sirga ham qo'pollik, terslik, emotsional qo'zg'alish bilan javob berish.

Agressiyaning asosiy sabablari:- alkogol ichimliklarni suiiste'mol qilish, shuningdek, asab tizimini buzadigan dorilar, bu kichik holatlarga tajovuzkor noto'g'ri javob reaksiyasini rivojlanishiga olib keladi;- shaxsiy muammolar, hal etilmagan shaxsiy hayot (hayot sherigining yo'qligi, yolg'izlik hissi, sababchi intim muammolar, keyinchalik tajovuzkor holatga aylanib, har bir muammo haqida gap ketganda paydo bo'ladi);- bolalikda olingan ruhiy zo'riqish (ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarning yomonligi tufayli bolalikda olingan nevrozlar).

A.Bandura va R.Uolter o'smirlar va ularning oilaviy sharoitlari o'rtasidagi ijtimoiylashish aloqasini o'rganib chiqib, bola xulq-atvorini belgilab beruvchi uchta asosiy xususiyatni ajratganlar:

- qaramlik (jinsiy-shaxsiyat) munosabatlarini o'rnatishga uning tayyorgarligi;
- vijdonining rivojlanish darajasi;
- agressiyaga nisbatan motivatsiyaning kuchi.

Mualliflar fikricha, oila samarali ijtimoiylashishi uchun minimal sharoitlarni yaratishi zarur. Birinchi asosiy shart bog'liqlik motivatsiyasini qo'llab quvvatlash, bu orqali bola

qiziqish, e'tibor va atrof-dagilarni ma'qullash xohlashini o'rganadi. Ikkinchi zarur shart - bu ketma-ket talablar va ta'qiqlar shaklida "ijtimoyilashishning bosimi" (bu vaziyatning sharti, ota-onalarning o'zi ijtimoiy me'yorlarni ajratadilar). Aksincha, xulq-atvorning yomon shakllari oilada ota-ona muhabbatiga ehtiyojning frustratsiyasi, doimiy jazolashni qo'llash (yaxshi xulq-atvorni rag'batlantirish usullari ustidan uning ustivorligi) natijasida o'rnatiladi, ota-onalar tomonidan qo'yilgan talablarning mos emasligi, ota-ona tomonidan agressiyani ko'rsatish.

Psixologiya agressiyaning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi quyidagi omillarni aniqlaydi: *Instinkt*. Agressiya odamning qiyin ekologik sharoitlarda omon qolish qobiliyatiga ta'sir qiladi, bu o'z hududi uchun kurashish, oziq-ovqat resurslari uchun kurashish, naslni himoya qilish va genofondni ko'paytirishga yordam beradi. Agressiya energiyasi inson tanasida ishlab chiqariladi, asta-sekin yig'ilib, oxir-oqibat chiqib ketadi. Har bir insonning xatti-harakatlarida adovat borligi uchun ma'lum bir chiziq bor. Agressivlik, shuningdek, ota-bobolarimiz bo'lgan ovchilardan meros qilib olinadigan belgi bo'lishi mumkin. Tabiiyki, bunday tabiat vayronagarchilik, zo'ravonlik va urushlarni rag'batlantirishi mumkin. Bunday holda, biz tajovuzning muqarrar rivojlanishi va uni boshqarish bilan bog'liq qiyinchiliklar haqida gapiramiz. *Kattalar misolining ta'siri*. Bola ulg'ayganida va uning oldida otasi yoki onasining o'rnini ko'rganda, u kiyinishda, suhbatni o'tkazish usulida ularga taqlid qila boshlaydi. Agressiv xatti-harakatlarga taqlid qilish ham sodir bo'ladi. Agar bola muntazam ravishda ota-onasining janjal qilayotganini, bir-biriga baqirayotganini ko'rsa, u bunday xatti-harakatlar normal deb hisoblaydi. *Ota-onalar uchun noto'g'ri model*. Kattalar o'z chaqalog'idan juda talabchan bo'lishganda, ular uni ayblashadi yoki to'g'ridan-to'g'ri bola boshqa bolalarga nisbatan tajovuzkor bo'lganligini, qanday qilib o'zgartirishni, jazolashni bilishini aytadilar. *O'zini bajara olmaslik tufayli paydo bo'lgan natija*. Biror kishi istalgan narsaga erishish yo'lida biron bir to'siqqa duch kelsa, u o'zboshimchalik bilan atrof-muhitga va o'ziga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan tajovuzni keltirib chiqaradi. Va bunday xatti-harakatlar kamdan-kam hollarda yuz bersa yaxshi bo'ladi.

Oiladagi vaziyat. Masalan, otasiz yoki onasiz voyaga etgan bolalar boshqa odamlarga nisbatan tajovuzkor munosabatda bo'lishlari mumkin. Yana bir variant - bu katta oilalar, bu erda aka-uka va opa-singillar o'rtasida ziddiyat yuzaga keladi. Shuningdek, ota-onalar bolalarini qonunbuzarliklar uchun jazolash usullari katta ahamiyatga ega.

Agressiv xulq-atvorli o'smirlar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlar.

a. O'ziga ijobiy baho berishga o'tishtirish, xavfsizlikni tekshirishb. o'zining va o'zgalarning emotsiya va tuyg'ularini anglashga o'rgatish, diskruktiv emotsiyalarni nazorat qilishni yaxshilash; d. o'ziga va atrof-dagilarga ziyon yetmaydigan gazabni tuzatish usullarga o'rgatish, muammoli vaziyatda bola xulq-atvorida konstruktiv reaksiyalarga o'rgatish va disstruktiv vositalarni bartaraf etish; e. ota-onalar pedagoglar bilan konsultatsiyalar (bolalardagi agressiyani bo'rttiruvchi jixozni belgilashga) o'rnatish.

Xulosa. Shunday qilib, agressiv xulq-atvor bola va o'smir yoshi uchun odatiy hodisa bo'lib qolgan. Bundan tashqari, agressiv xulq-atvor shaxsning ijtimoyilashish jarayonida bir qator asosiy funksiyalarni bajaradi. Me'yorga muvofiq, u qo'rquvdan qutqaradi, o'z qiziqishlarini himoya qilishga ko'maklashadi, tashqi xavfdan himoya qiladi, adaptatsiyaga ko'maklashadi. Bu borada agressiyanig ikkita turi haqida fikr yuritish mumkin: yaxshi sifatlil adaptiv va destruktiv - dezadaptiv. Umuman olganda, bola va o'smir shaxsining rivojlanishi uchun agressiv namoyishlarning o'zi unchalik xavfli emas, balki ularning natijalari va atrof-dagilarning noto'g'ri reaksiyasi xavflidir. Agar zo'ravonlik - e'tibor, hukmronlik, tan olish, pul, boshqa huquqlarni bersa, bolalarda va o'smirlarda kuch ustivorligiga asoslangan xulq-atvor shakllanishi mumkin, bu esa katta insonlarning ham ijtimoiy faoliyat asosini tashkil etishi mumkin (masalan, kriminal guruhlarda). Atrof-dagilarning agressiyani kuch bilan bosishga intilishi kutilgan natijaga emas, balki qarama-qarshi natijaga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.M.Xakimova. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. (o'quv qo'llanma)T. O'zbekiston respublikasi IIV Akademiyasi.2013. -143 b
2. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. Ma'ruzalar matni.Jizzax PI. 2013.-141 b
3. Ataeva N. va boshqalar. Umumiy Pedagogika. Darslik//-T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2013 y.
4. Bolalarga o'smirlarga maslahat berishda yosh psixologik yondashuv/Ed. G.V.Burmenskoy E. I.Zaxarova O.A.Karabova va boshqalar., ,Akademiya, 2012.-112s
5. Ismoilovna, A. Z. (2022). Prerequisites for identifying gifted children and shaping their abilities. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(6), 308-311.
6. Karakulovich, J. A., & Ismoilovna, A. Z. (2021). PSYCHOLOGICAL STUDY OF EMOTIONS AND EMOTIONS IN WORLD PSYCHOLOGY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(10), 419-421.
7. Абдуллаева,З.И.(2021).ИЗУЧЕНИЕКОММУНИКАТИВНО-ОРГАНИЗАЦИОННЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ОДАРЕННЫХ ДЕТЕЙ. Вестник науки и образования, (8-2 (111)), 90-94.
8. G'oziev E.G'. Psixologiya. -T., O'zMU «Universitet», 2013
9. Bolalarga o'smirlarga maslahat berishda yosh psixologik yondashuv/Ed. G. V. Burmenskoy E. I. Zaxarova O. A Karabonova va boshqalar-M. , , Akademiya, , 2012. -112s.
10. Dolgova V. I. O'smirlarning shaxslararo munosabatlarini psixologik-pedagogik tuzatish;ilmiy va uslubiy tavsiyalar-Chelyabinsk;ATOCSO, 2010-112S
11. Enikeev M. I Umumiy va ijtimoy psixologiya/M. I. Enikov -M; nashriyot uyi gr. NORMAINFRA-M2010. -378s
12. Koklyuxin V. V. Deviant xulq-atvor. Modellarni qidirish. Haqiqiy muammolar antisosial xatti-harakatlarga qarshi kurash. INFRA-M2012. -250s
13. Lichko A. E. O'smirlardagi psixopatiya va xarakter urg'ulari. /A. E. Lichko -M;000 Aprel PRESS ZAO nashriyoti EKSMO-Press 2009. -416b
14. Zaxarov. L. I. Bolalar va o'smirlarda nevroz psixoterapiyasi/ Sant Peterburg;Pyotr 2012. -239p
15. Zmanovskaya E. V. Deviontologiya deviant xulq-atvor psixologiyasi Akademiya 2004. . -288b
16. Ota -onalar G. Farzandlarimizning tajovuzkorligi/G. Parens 2012 -344b

MOBBING VA UNING RUHIY PSIXOLOGIK TA'SIRI

Buoisha Mo'ydinova

Qo'qon universiteti

Amaliy psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi,

Hamidullayev Faxriddin

Qo'qon Universiteti Ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mobbing ingliz tilidan olingan bo'lib, umuman olganda "nafrat" yoki "nafrat" degan ma'noni anglatadi. Mobbing odamlarning mehnati, maktabi, oilasi, ijtimoiy hayotining ko'p jabhalariga, jumladan, o'z-o'zini hurmat qilishning pastligi, atrofdagilar bilan faol munosabatda bo'la olmaslik, ayrim hollarda esa o'zinikiga salbiy psixologik ta'sir ko'rsatadi. shuningdek, o'z joniga qasd qilish kabi fojiali oqibatlarga olib keladi.

Kalit so'zlar: Mobbing, stress, natija, maktab, ish joyi, ta'qib, psixologik, zo'ravonlik, ta'sir.

Mobbing deganda ma'lum bir vaqt oralig'ida, ma'lum bir shaxsga qaratilgan og'zaki ta'qib, tajovuzkor so'zlar, kinoya, tuxmat yoki kamsituvchi, diskvalifikatsiya qiluvchi yoki qo'rqituvchi muomaladan iborat bo'lib, uzoq vaqt davomida muntazam va takrorlanib turadigan holatlar tushuniladi. Mobbing hozirgi paytda mehnatga layoqatli insonlarni faoliyat samaradorligi, farovonligi va psixologik sog'lig'iga ta'sir ko'rsatadigan muammo. Uning turli holatlari har qanday insonlarga, hatto kichik va o'rta kompaniyalar ishchi xodimlariga, maktab yoki boshqa muassasa o'quvchilariga oila va ijtimoiy hayotga ham ta'sir qilishi mumkin. Aslida, ba'zi mamlakatlarda, masalan, Ispaniyada ish joyidagi bezorilik holatlari uchun ma'lum jazo shakllari qo'llanadi.

Adolatsiz munosabatga uchraganlar, haqoratlanganlar 76% hollarda og'ir stressni boshidan kechirishadi. Ushbu ma'lumotlar G'arbiy Evropada olib borilgan tadqiqotlarning natijasida olingan bo'lib, Qolgan Yevroosiyo mamlakatlarida, jumladan Rossiya va MDH mamlakatlarida, bunday tadqiqotlar hali o'tkazilmagan, ammo sotsiologlar va psixologlarning fikriga ko'ra, aholining ko'pchiligi mobbingdan aziyat chekadi. BMT tadqiqotining natijalariga ko'ra, yoshlarning uchdan ikki qismi maktabda ta'qibga uchraydi. Har uchta bolaning bittasi o'zi ham ta'qibda bir necha bor ishtirok etgan bo'ladi. Har qanday zo'ravonlik va ta'qib qurbonning ruhiyatiga zarar yetkazadi. Aniqlanishicha, ta'qibga uchragan bolalarning ruhiy sog'ligida bir qancha muammolar kelib chiqishi mumkin, ular yolg'izlanib, vahima hissi yanada ortadi, tushkunlik va ojizlik shakllanadi, afsuski ba'zilar o'z joniga qasd qiladi, eng achinarlisi shundaki, o'z joniga qasd qiluvchilar qariyb 10% ni tashkil etadi (psixiatrlarning o'z joniga qasd qilishga moyilligi bo'lgan bemorlardagi kuzatishlariga ko'ra). Lekin zo'ravonlar ham xavf ostida ekan: ular yoshiga mos bo'lmagan holda alkogol va narkotikaga muhtalo ekan, shuningdek tushkunlik va suitsid vasvasasiga tushishga ham moyil bo'ladi.

Mobbing inglizcha "mob" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, to'da degan ma'noni anglatadi. Shuningdek mobbing so'zi zo'ravonlik, tahqirlash, bezorilik, kamsitish kabi holatlarni ifoda etishda qo'llaniladi. "Mobbing" atamasi birinchi marta 1958 yilda avstriyalik olim Konrad Lorenz tomonidan zaif hayvonlarning kuchli raqiblarini qo'rqitish va ularga qarshi kurashish uchun qabul qilingan xatti-harakatlarini aniqlash uchun ishlatilgan. Shvetsiyalik shifokor Pol Xayneman "mobbing" atamasini bolalar orasida kuzatgan zo'ravonlikning bir qator holatlarini tasvirlash uchun ishlatgan. 1980-yillarda shved psixologi Xaynts Leymann Shvetsiyadagi korxonada va tashkilotlardagi mehnat jamoalarida tez-tez kuzatadigan muammoli, zo'ravonliklarni qandaydir tarzda nomlash kerakligini tushunadi va buning uchun "mobbing" atamasini qo'llaydi. Leymann mobbingni "bir yoki bir necha shaxslar tomonidan, asosan, bir shaxsga nisbatan muntazam ravishda yo'naltirilgan, odamni nochor va himoyasiz holga

keltiradigan hamda ko'rib chiqilayotgan shaxsni o'zi bo'lgan davlatga bo'ysundiruvchi dushmanona va axloqiy bo'lmagan muloqot" deb ta'riflaydi.

Ish joyidagi mobbing shaxsni ijtimoiy izolyatsiya qilish, uning shaxsiy hayotini buzish, og'zaki zo'ravonlik va tahdidlarga duchor bo'lishni o'z ichiga oladi. Ushbu faoliyat ish joyi rahbariyati, yuqori lavozimli rahbarlar, bir xil yoki bo'ysunuvchi lavozimdagi hamkasblardan kelib chiqishi mumkin. Insonlarda shu kabi holatlar kelib chiqishi uchun haftada bir marta, 6 oy davomida ta'qibga duchor bo'lish zarurligini Leymann ta'kidlab o'tadi. Angliyalik zo'ravonlikka qarshi tadqiqotchilar Adams va Fieldning fikrlariga ko'ra mobbing odatda ishlab chiqarish yoki ish usullari yomon tashkil etilgan, qobiliyatsiz yoki beparvo boshqaruvga ega bo'lgan ish muhitida uchraydi va mobbing qurbonlari odatda "aql, malaka, ijodkorlik, halollik, muvaffaqiyat va fidoyilikni namoyish etgan istisno shaxslar"dir. Konrad Lorenz o'zining "Agressiya haqida" (1966) nomli kitobida birinchi bo'lib qushlar va hayvonlar o'rtasidagi mobbingni tasvirlab bergan va buni Darvinizmning hayot uchun kurashishdagi instinktlar bilan bog'lagan, uning fikriga ko'ra, ko'pchilik odamlar xuddi shunday tug'ma instinktga bo'ysunadi, lekin ularni nazorat qila oladi. 1970-yillarda shved shifokori Peter-Paul Heinemann Lorenzning kontseptualizatsiyasini bolalarning alohida bir bolaga qarshi jamoaviy tajovuziga nisbatan qo'llagan. Heinemannning ishidan so'ng, Elliot mobbingni maktabdagi guruh zo'ravonligi ko'rinishidagi keng tarqalgan hodisa sifatida belgilaydi. Bu kimnidir mish-mish, g'iybat, obro'sizlantirish, ajratib qo'yish, qo'rqitish va eng avvalo, o'zini aybdordek ko'rsatish (jabrlanuvchini ayblash)dan foydalangan holda tahqirlashdir.

Kennet Vestyusning akademiyadagi mobbingni o'rganishi shuni ko'rsatdiki, zaiflik chet ellik yoki boshqa jinsda bo'lish kabi shaxsiy farqlar, kam yoki haddan ortiq ko'p e'tiborda bo'lgan sohalarda ishlash, moliyaviy bosim yoki tajovuzkor ustunlikka ega bo'lish, boshqalarga hasad, bid'at nazari bilan qarash sababli yuzaga kelishi mumkin ekan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mobbingga duchor bo'lgan jabrlanuvchilarning salomatligi salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jabrlanganlar tashvish, depressiya, uyqu muammolari, asabiylashish va organizmdagi kasalliklardan aziyat chekayotganini aytishadi. Mobbing travmadan keyingi stress buzilishiga (TSSB) olib kelishi mumkinligi ta'kidlangan, chunki mobbingga duchor bo'lgan odamlarda nerv qo'zg'alishining kuchayishi alomatlari namoyon bo'ladi. Yevropa Ittifoqida mobbing darajasi 15% ni tashkil qiladi, Amerika Qo'shma Shtatlarida tibbiyot xodimlarining 38% psixologik mobbingga duchor bo'lgan. Meta-tahlilda ish joyidagi mobbingning chastotasi 15% ni tashkil etgani aniqlangan. Ish joyidagi mobbing bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning aksariyati anketa tadqiqotlaridir. Hamshiralalar, akademiklar o'rtasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mobbing darajasi 9% dan 90% gacha. Shaxsning iqtisodiy, ijtimoiy va shaxsiy hayotiga ta'sir qiladigan doimiy mobbing shaklida boshdan kechiradigan psixologik bosim travmatik reaksiyalarga olib keladi.

1996 yilda Leyman tomonidan tavsiflangan beshta mobbing faoliyati mezon sifatida qabul qilingan.

Jabrlanuvchining o'zini-o'zi tasdiqlashi va muloqotiga ta'siri (so'zni o'chirish, so'kish, asossiz va mutanosib bo'lmagan doimiy tanqid va boshqalar);

Jabrlanganlarning ijtimoiy aloqalarni saqlab qolish imkoniyatlariga ta'siri (odamlar jabrlanganlar bilan gaplashishdan bosh tortishlari, go'yo ular yo'qdek harakat qilishlari);

Jabrlanganlarning shaxsiy obro'sini saqlab qolish imkoniyatlariga ta'siri (jabrlanganlar haqida g'iybat qilish, tuhmat qilish, masxara qilish, ularni intizomiy jarayonlar bilan tahdid qilish);

Jabrlanganlarning hayot sifati va kasbiy holatiga ta'siri (jabrlanganlarning ish faoliyatini kam baholash va ko'tarish, ularning javobgarligini ogohlantirishsiz kamaytirish, vazifalarni doimiy ravishda o'zgartirish, ularga ma'nosiz ish topshiriqlarini berish);

Jabrlanuvchilarning jismoniy sog'lig'iga ta'siri (jabrlanganlarning ta'lim faoliyati va ruxsatnomalarini rad etish, vazifalarni ortiqcha yuklash, jismoniy mashaqqatli vazifalarni belgilash, jismoniy zo'rovonlik va zarar etkazish tahdidi).

Mobbing va shunga oid bo'lgan hodisalar har bir davrda o'ziga xos ko'rinishda bo'lgan. Buning isboti sifatida o'sha davrga oid badiiy adabiyotlarda ham ko'rish mumkin. Ya'ni ayni davr va zamon ijtimoiy holati, atrof muhitdagi bo'layotgan jarayonlardan kelib chiqib yozilgan asarlardagi ma'lum hodisa va holatlarda mobbing, psixik yoki jismoniy tajovuz, shuningdek turli ko'rinishdagi mobbingni insonning hayot faoliyatiga ta'siri bayon etilgan.

Xulosa: Mobbing ko'p muammoli mavzu bo'lib, uni psixologik, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy fanlar nuqtai nazaridan baholash va shunga mos ravishda hal qilish kerak. Noqulay mehnat sharoitlarining oldini olish kerak. Ruhiiy salomatligi bilan bog'liq muammolar bo'lgan jabrlanuvchilar qo'llab-quvvatlovchi qo'llanmalar bilan ta'minlanishi, o'ziga ishonchini tiklash va yuridik yordam olish bo'yicha bilimlarga ega bo'lishda yordam berish kerak. Aksariyat mobbing qurbonlarining psixikasi jiddiy lat yeydi va ular o'zini hayotda hech qachon to'liq o'nglab ololmaydi.

Mobbingni to'liq yo'q qilish imkonsiz, bu jamiyatda doimo u yoki bu shaklda davom etaveradigan hodisa. Ammo uning ta'sirini kamaytirish, yoxud oldini olish mumkin. Mobbing ta'sirini kamaytirish va unga ma'lum bir darajada qarshi kurashish uchun ijobiy psixologiyani o'rganish zarur, aytib o'tish kerakki ijobiy psixologiya insondagi patologiya va muammolarni emas, ko'proq insonlarning nekinligi va bardoshlilikini qanday saqlab qolishini o'rganadigan fandır.

Har qanday insonni yoshlikdan uch narsa shakllantiradi: genotipi, atrof-muhit va insonning hodisaga ichki munosabati. Mana shu ichki yondashuv hayotda eng muhim va hal etuvchidir. Agar insonda o'zining ichki munosabati shakllanmagan bo'lsa, uning bulling qurboni yoki agressorga aylanib ketishi yengil kechadi.

Meditatsiya (yoki namoz), sport, yaxshi uyqu, yaqinlar bilan ko'proq muloqot insonning mobbingga bardoshlilikini oshiradi. Inson o'z qadr-qimmatini atrofdagi insonlarning o'lchami, qarashi bilan emas, o'zining ichki dunyosining o'lchami bilan o'lchasi lozim.

Maqsadlarni to'g'ri qo'yish va ularga erishish yo'llarini o'rganish va qo'llay bilishi kerak. Foydali va doimiy ravishda qaytariladigan odatlar ham inson farovonligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://pkvolt.ru/uz/potolok/prichiny-mobbinga-i-protivostoyanie-emu-travlya-na-rabote-mobbing.html>
2. <https://uz.warbletoncouncil.org/mobbing-acoso-psicologico-trabajo-7544>
3. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC6427074/>
4. <https://avitsenna.uz/bulling-va-undan-himoyalanih-borasida-psixologning-maslahatlari/>
5. <https://la2max.ru/uz/moda/mobbing-kak-borotsya-s-travlei-na-rabote-v-shkole-kollektive.html>

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SIFAT SO'Z TURKUMINI O'QITISHDA YANGI INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

**Ibroximova Orastaxon
Qo'qon universiteti**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'qitishda yangi innovatsion metodlar asosida o'qitilishi haqidagi fikr bayon qilingan. Boshlang'ich sinflarda ushbu ko'rinishdagi metodlar bilan ishlash, dars jarayonini olib borish yaxshi samara beradi. O'quvchilarga dars faoliyatini qiziqarli va tushunarli bo'lishini ta'minlash ona tili mashg'ulotlarining muhim vazifalaridan biri ekan, ushbu yangi innovatsion metodlardan foydalanish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: metod, o'yin, zig-zag, moychechak, davra suhbat, fikrlash, faollik, kuzatish.

Hozirgi kunda yosh avlod tarbiyasiga, berilayotgan ta'lim sifatiga katta e'tibor berilmoqda. Kelajak avlodni jismonan baquvvat, sog'lom, ruhan tetik va ma'naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalash pedagoglar oldiga muhim vazifalarni qo'yimoqda. Shu bilan bir qatorda o'qituvchining faoliyati va bilim saviyasiga ham alohida e'tibor berilmoqda. Bugungi kundagi zamonaviy sharoitda davlat innovatsion imkoniyatlarini shakllantirishda asosiy vazifa o'qituvchilar zimmasiga yuklatilmoqda. Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish tizimi o'quv materialini leksik va grammatik tomondan izchillik bilan boyitib, murakkablashtirib borishni ko'zda tutadi. Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim-inson hayotida egallaydigan bilimlar olamining poydevori sifatida qaraladi. Kelajakda o'rganiladigan fanlarga, umuman bolaning o'qish faoliyatiga qiziqishi aynan uning ilk o'qituvchisiga va bu davrda egallagan savodxonligiga bog'liqdir. Ilgari boshlang'ich sinflarda o'quvchi asosan o'qish, yozish, fan doirasidagi dastlabki bilimlarni o'zlashirishi kerak deb qaralgan bo'lsa, bugungi kunda o'quvchini fikrlashga, faollikka, o'z ustida ko'proq ishlab mustaqillikni rivojlantirishga va bilimlarni mantiqiy jihatdan mukammal egallashga undovchi ta'lim jarayonining muhim bosqichi sifatida yondashilmoqda.

1995-yildan boshlab pedagogika institutlari qoshida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari tayyorlaydigan fakultetlar ochila boshlandi.

K.D. Ushinskiy boshlang'ich maktab o'quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan.

O'quvchilar savod o'rgatish davridan boshlab, to 4-sinfga qadar belgi bildiruvchi so'zlarning-sifatning leksik va grammatik ma'nolarini boshlang'ich sinf ona tili dasturi hajmida o'rganadilar. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirish eng muhim masalalardan biridir. O'quvchilar savod o'rgatish davrida belgi bildirgan so'zlarning ma'nolarini o'qituvchining "Bu qanday hajmdagi olma?", "Mazasi qanday olma?", "Qanday rangdagi olma?" kabi savollari asosida kuzatish va fikrlash orqali amaliy olib boradilar.

Metod so'zi yunoncha tadqiqot, maqsadga erishish yo'li deganidir. Metod-eng umumiy ma'noda-maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyat.

Insoniyatning dunyoni o'rganishida dastlab qo'llanilgan metodlar og'zaki (verbal) metodlar bo'lib, u metodlar tizimida yetakchi o'rin egallaydi.

Sifat turkumini, umuman, so'z turkumlarini o'rganish jarayonida asosiy maqsad o'quvchi lug'at zahirasini boyitish va so'zdan nutq jarayonida amaliy foydalana bilish ko'nikmasini hosil qilish bo'lmog'i kerak. Boshlang'ich sinflarda sifat tushunchasini shakllantirish uchun uning ma'nolarini aniqlash talab etiladi. O'qituvchi atrofimizni o'rab olgan predmetlarning o'z

belgilari borligini,ular bir-biridan shu belgilar bilan farqlanishini yana bir-ikki misol bilan tushuntiradi.

Ona tili va o'qish darslarida o'quvchilar nutqi yangi-yangi sifatlar bilan boyitiladi,ularga oldindan ma'lum bo'lgan sifatning ma'nosiga aniqlik kiritiladi.Sifatlar bolalar nutqini va tasavvurini boyitishga xizmat qiladi.Sifatlar narsa va hodisalarni aniq tasvirlash,ifodalash imkonini beradi.Bu imkoniyatdan foydalanib, ijodiy matn tuzishga o'rgatish o'quvchilarning fikrini aniqlashtiradi,nutqning ta'sirchanligini oshiradi.

Boshlang'ich sinflarda o'zbek tilini o'qitishda og'zaki bayon qilish,ko'rgazmalilik,ta'limiy o'yinlar va noan'anaviy ta'lim metodlari keng qo'llaniladi.

Suhbat metodi og'zaki bayon qilish metodi bo'lib,o'quvchilarda faollikni yuzaga keltiradi,o'qituvchi tomonidan berilgan savolga javob topish jarayonida o'quvchi fikr yuritadi,o'z fikrini bildirib,uni dalillashga harakat qiladi.Bu o'quvchida mustaqil fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Ko'rsatmalilik metodi turli ko'rgazmali vositalar yordamida amalga oshiriladi. Yangi so'zlarni ongli va puxta o'zlashtirish ko'rgazmalilikni taqozo etadi.Bunda turli buyumlar, jadvallar,rasmlar va boshqa tasviriy vositalardan,diafilm,kinofilm va telelavhalardan,multimedia vositalaridan foydalaniladi.

Ta'limiy didaktik o'yinlardan ko'proq amaliy mashg'ulotlarda foydalaniladi.O'yin, ayniqsa,boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatida muhim o'rinni egallaydi.O'yin o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirishda asosiy vosita hisoblanadi.Ta'limiy o'yinlar bilimlarni o'zlashtirish jarayonini osonlashtirishga,o'quvchilarni darsga to'liq jalb etishga yordam beradi.

Shundan kelib chiqib,ona tili darslarida o'quvchilarning o'zbekcha nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun quyi ta'lim bosqichlarida crosswordlar, rebuslar, topishmoqlar,tez aytishlardan ko'proq foydalanish maqsadga muvofiq .

Sifat so'z turkumini o'qitishda "Zig-zag" metodi-ushbu metodda o'quvchilar belgi bildirgan so'zlarning nutqimizdagi ahamiyatini anglashlari uchun sifat ko'p uchraydigan matn tanlanib zig-zag usulida o'qitiladi. Keyin esa sifatlar tushirilib qoldiriladi,so'ngra sifatlari bilan o'qib beriladi va mazmuni taqqoslab ko'rsatiladi. Predmetni aniq tasvirlash uchun uning belgisini bildiradigan so'zlardan foydalanilgani tushuntiriladi. Har bir o'qituvchining vazifasi o'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarni aniqlashi va ularning qilgan xatolarini kuzatib,to'g'rilab borishdan iboratdir.

O'quvchilar sifatning leksik ma'nosi haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirish va predmetni har tomonlama ta'mirlash malakasini o'stirish uchun:

1.Berilgan predmetning rangi,mazasi,shakli,xususiyatini ifodalaydigan sifatlar tanlash va yozish:Qanday shaftoli? Shirin,suvli,tuksiz shaftoli.Qanday bino? Baland, g'ishtli,chiroyli bino.

2.Berilgan belgilariga qarab qaysi hayvon ekanini aniqlash: tikonli, kichkina, foydali...(tipratikon); ehtiyotkor,ayyor,yovvoyi...(tulki).

3.Predmetning belgisiga qarab topishmoqlarning javobini aytish kabi mashqlardan foydalanish mumkin.

Sifatni o'rganish jarayonida so'z yasashga oid mashqlarni muntazam o'tkazib borish o'quvchilarda u yoki bu so'z turkumini yasash uchun so'z yasovchi qo'shimchalardan ongli ravishda foydalanish malakasini shakllantiradi.

O'quvchilarga sifat so'z turkumining asliy va nisbiy sifatga ajratish jarayonida moychechak o'yin-metodidan foydalanish ham samara beradi.Moychechak gulining markaz qismiga asliy sifat va yaproqlariga asliy sifat va nisbiy sifatga oid so'zlarni yozish va o'quvchilardan so'zlarni to'g'ri shaklda ajratib,moychechak gulini yashash talab qilinadi. Bunda o'quvchilarning sifat so'z turkumini qay darajada o'zlashtirib olganliklarini bilib olishimiz mumkin.

O'quvchilarni o'z fikrini aniq va ta'sirchan ifodalashga o'rgatishda belgi bildirgan so'zlar-sifatlarini o'rgatishda "Davra suhbat" metodi alohida o'rin tutadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, zamonaviy texnologiyalar rivojlanayotgan bir paytda boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi texnika va texnologiyani chuqur bilishi, tahlil qila olishi va yangilik yarata olish darajasida bilimli va mahoratli bo'lishi juda muhim hisoblanadi. Buning uchun darsni tashkil etish jarayonida barcha o'quvchilarga tushunarli, oson va qiziqarli bo'lgan usullarni tanlashi va qo'llay olishi, ko'rgazmali qurollardan foydalana olishi lozim. O'qituvchi izlanuvchan va talabchan, kreativ yondashadigan qobiliyatga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi kreativlik asosida darsni mazmunli tashkil qila olsa, o'quvchida fanga bo'lgan qiziqishi, intilishi oshib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shabatova Rabig'a Janasbay qizi. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida so'z turkumlarini o'rgatishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi. Journal of Advanced Research and Stability .www.sciencebox.uz/
2. M.Hamrayev. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent-2015. 12-bet
3. B.X.Xodjaye . Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. "Sano-standart" nashriyoti Toshkent-2017 92-bet.
4. D.Tojiboyeva. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. Toshkent "Iqtisod-moliya" 2018. 99-bet.
5. Kuralova M.A. Boshlang'ich sinflarda "sifat" so'z Kuralova M.A. Boshlang'ich sinflarda "sifat" so'z turkumi ustida ishlashning mazmuni.
6. Hozirgi ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. azkurs.org.
7. Narimanova Mahliyo, Akramova Zuhra. Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM MUASSALARI BOSHQARUVIDAGI XOTIN -
QIZLARNING LIDERLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

**Qo'qon universiteti magistranti
Mamadaliyeva Mavzunaxon Raximjon qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda xotin-qizlarni huquq va manfaatlarini ta'minlash, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirishga va o'z potentsialarini namoyon qilishga qaratilgan qaror va farmonlar o'z natijalarini berayotganini ko'rishimiz mumkin. Qadimda ayollar jamiyatning ijtimoiy, siyosiy hayotida, shuningdek, ilm-fan va madaniyat sohalarida o'z imkoniyatlarini namoyon qilishlari mushkul edi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim tizimi, Finladiya ta'lim tizimi, ijtimoiy, siyosiy hayotida,

Bugungi kunda xotin-qizlarni huquq va manfaatlarini ta'minlash, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirishga va o'z potentsialarini namoyon qilishga qaratilgan qaror va farmonlar o'z natijalarini berayotganini ko'rishimiz mumkin. Qadimda ayollar jamiyatning ijtimoiy, siyosiy hayotida, shuningdek, ilm-fan va madaniyat sohalarida o'z imkoniyatlarini namoyon qilishlari mushkul edi. Ammo bu qiyinchiliklarga qaramasdan ilmi, kuchi va jasoratlari tufayli istedodlarini namoyon qilganlari ham bo'lgan. O'zining jasorati, matonati, harbiy-siyosiy faoliyati bilan mashhur bo'lgan ayollardan biri To'maris edi. To'maris — Turon xalqlarining axamoniylar bosqiniga qarshi kurashiga rahbarlik qilgan jasur sarkarda ayol, massagetlar qabilasining malikasi. Dastlabki Kir II ga qarshi jangda To'marisning o'g'li Spargalis (Siparangiz) boshchiligidagi massagetlar g'olib chiqqan. Biroq keyingi jangda forslar hiyla yo'li bilan Spargalis va ayrim massagetlarni asir olishganda, or-nomusga chiday olmagan Spargalis o'zini o'ldirgan. To'maris o'g'lining halokati eshitib, o'z xalqining manfaatini o'ylab, Kir II dan massagetlar yurtidan chiqib ketishini so'raydi. Biroq forslar shohi rad javobini bergach, ikki o'rtada ayovsiz jang bo'lgan. Jang uzoq vaqt davom etib, nihoyat, massagetlar g'alaba qozondilar. Kir II ning jasadi topilgach, malika To'marisning buyrug'i bilan uning kesilgan boshi inson qoni bilan to'ldirilgan idishga solinadi. To'marisning jasorati va harbiy-siyosiy faoliyati to'g'risida xalq dostonlari, jangnoma va rivoyatlar yaratildi.

Yozuvchi Mirkarim Osim «To'maris» qissasini, Ibrohim Yusupov «To'maris» dostonini, kompozitor Ulug'bek Musaev shu nomli baletni yaratishgan. To'maris xotirasini abadiylashtirish maqsadida har yili O'zbekistonda ayollar o'rtasida «To'maris o'yinlari» festivali o'tkaziladi. O'z ijodida Navoiy, Bedil kabi buyuk shoirlar an'alarini davom ettirib, insonga muhabbat, uning ma'naviy go'zalligini ochib bergan shoira Nodiraning asl ismi Mohlaroyim bo'lib, u 1792-yilda o'zbeklarning min urug'idan bo'lgan Andijon hukmdori oilasida tug'ilgan. Yoshligida u tarix va adabiyot bo'yicha mukammal ta'lim oldi. Qo'qon xonligi hukmdori Umarxonning rafiqasi bo'lgan shoira umrining ko'p qismini Qo'qonda o'tkazgan. Zamondoshlarining tarixiy-adabiy asarlarida shoiraning san'at homiysi sifatida ijtimoiy-madaniy hayotda faol ishtirok etgani haqida ma'lumotlar berishgan. Nodira olimlar va shoirlarni o'z himoyasiga olgan bo'lib, madrasa, savdo maydonchalari va boshqa jamoat binolari qurish bilan shug'ullangan. U adabiyotni jamiyatning ma'naviy hayotidagi o'rnini yuksak baholagan. Shoira o'z ijodida dunyoviylik bilan bir qatorda tasavvufning naqshbandiya yo'nalishiga asoslangan bir butunlik orqali insonning jamiyat va tabiatga munosabatini ham, ilohiy muhabbat yo'lidagi ruhiy dunyosini ham juda go'zal va jonli misralarda ifodalab beradi. Nodira g'azallariga juda ko'p shoirlar naziralar yozganlar, muxammas bog'laganlar. O'zbek adabiyotida va sahnada uning badiiy obrazi yaratildi. HRazzoqovning «Nodira», Turob To'laning «Nodirabegim» musiqali dramalari sahnalashtirildi. Komil Yormatov va M. Melkumovlarning stsenariysi asosida «Nodirabegim» filmi yaratildi. Ko'pgina asarlari o'zbek maqomi va xalq kuylariga solingan. O'zbekistonning shahar va qishloqlarida ko'plab ko'chalar,

kinoteatr, maktab va kutubxonalar Nodira nomi bilan yuritiladi. O'zbekiston mustaqillik erishgandan so'ng, ayollar uchun yanada yaxshi sharoitlar yaratildi. Shunday ayollardan biri, Djiyanbayeva Raxbarxon. Djiyanbayeva Raxbarxon Xaydarovna O'zbekistondagi birinchi kimyogar, professor ayol. Bo'lajak professor o'z faoliyatini kimyo fakultetida laborant sifatida boshlagan. 1957-yilda u aspiranturaga o'qishga kirdi. 1961-yilda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Universitetda dars berishni boshladim. 1966-yilda esa Rahbarxon Haydarovna doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. U 36 yoshda edi.

Tadqiqotining o'ziga xosligi va yangiligi Markaziy Osiyo va Qozog'iston o'simliklaridan ajratib olingan tabiiy birikmalar va ularning hosilalaridan reaktiv sifatida foydalanishda bo'ldi. O'ttizdan ortiq fan nomzodlarini chiqargan. Bugungi kunda uning kafedrasini bitiruvchilari deyarli barcha viloyat pedagogika institutlarida mehnat qilmoqda. Zamonamizning yana bir qahramon ayollaridan biri, O'zbekistonning birinchi xonimi Ziroatxon Hoshimova. U Farg'ona viloyatining Qo'qon shahrida tug'ilgan. Ziroatxon Toshkent Irrigatsiya va Qishloq Xo'jaligini Mexanizatsiyalash Muhandislari Institutida tahsil olgan. Hozirgi kunda esa, "Zamin" xalqaro jamoat fondining vasiylik kengashi raisi sifatida o'z faoliyatini olib boradi. Fondning maqsadi – mamlakatning barqaror rivojlanishi va aholi turmush darajasini oshirishga hissa qo'shish. "Zamin" fondining faoliyati uzoq muddatli, strategik ahamiyatga ega va barqaror loyihalardan iborat 4 yo'nalishga asoslangan: atrof-muhitni muhofaza qilish yo'lida hamkorlik; havo ifloslanishini monitoring qilish, tuproq unumdorligini tiklash va ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha loyihalarni qo'llab-quvvatlash; ijtimoiy rivojlanishga innovatsion ishlanmalarni tatbiq qilish va ijtimoiy sohadagi loyihalarni moliyalashtirish; eshitish qobiliyati zaif bolalarning yashash sharoiti va ta'lim sharoitlarini yaxshilash. Yuqorida sanab o'tgan ayollarimiz o'zlari yashagan davrda, xalqning ma'naviy jihatan yuksalishiga, ilm-fanning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shishganlar. Shubhasiz, bu muvaffaqiyatlar zamirida sifatli ta'lim yotadi. Ta'lim sohasi haqida so'z yuritarkan ekanmiz, mazkur sohada olib borilayotgan islohotlar o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Hozirgi kunga kelib, ayollar barcha sohalarda ilg'orlar. Xususan, statistik ma'lumotlarga ko'ra, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va san'at sohasida ayollarning ulushi 72 foizni tashkil qiladi. Ammo bu muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda, ta'lim tizimida, ayniqsa boshlang'ich ta'lim tizimida o'z yechimini kutayotgan quyidagi muamolar mavjud:

- umumta'lim muassasalari rahbarlarini tanlash va joy-joyiga qo'yish masalalarini hal etish, idoraviy mansub tashkilotlarning mulkidan samarali foydalanishda xalq ta'limi boshqaruvi organlari rolining yetarli darajada emasligi;

- umumta'lim muassasalari rahbarlari zimmasiga ularga xos bo'lmagan vazifalar yuklanish, muassasa direktori va uning o'rinbosarlari o'rtasida vakolatlarning aniq taqsimlanmaganligi, ular faoliyati samaradorligini baholashning aniq mezonlari va parametrlari mavjud emasligi;

- umumiy o'rta ta'limning dolzarb masalalari va ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlarning mavjud emasligi, o'quv-tarbiya jarayonini uslubiy ta'minlash masalalarida xalq ta'limi bo'limlari va umumta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro hamkorlik darajasining pastligi;

- rahbarlar, o'qituvchilar va umumta'lim muassasalari boshqa xodimlarining kasbiy faoliyatiga asossiz ravishda aralashuvdan himoya qilish mexanizmlarining samarasizligi, nazorat qiluvchi va boshqa davlat organlari tomonidan maktablarni tekshirish haddan ziyod ko'payib ketganligi;

- ta'lim sifatini ta'minlash, o'qituvchilarning bilim darajasini va pedagogik mahoratini oshirish masalalarida umumta'lim muassasalari faoliyatidagi ochiqlik va shaffoflik darajasining yetarli darajada emasligi, o'quv-tarbiya jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining mavjud emasligi;

– xalq ta'limi tizimi muassasalarini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash mexanizmining mukammal emasligi, ularning faoliyatiga zamonaviy me'moriy yechimlar, innovatsion ishlanmalarni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish darajasining pastligi.

– ta'lim tizimida gender tenglikni ta'minlash. Mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, tadqiqotchilardan ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borish, mahalliy va chet eldagi ilg'or tajribani o'rganish, tahlil qilish va amaliyotga tadbiiq qilishni talab etadi. Chet el tajribasi haqida gap yuritar ekamiz, Finlandiya ta'lim tizimi ayniqsa boshlang'ich ta'lim tizimi, tajribasi haqida alohida toxtalib o'tish lozim. Bu haqida, Prezidentimiz 2022-yilning 8-oktabrida, Sirdaryo viloyatiga tashrifi davomida jurnalistlar bilan muloqot qilganda alohida to'xtalib, quydagilarni ta'kidlab o'tganlar: «Darsliklar masalasida ham ancha muammo borligi uning ichiga kirgach bilindi. Ularning saviyasi haqida katta muhokamalar bo'ldi. Finlandiya standarti bilan 1-4 sinflar uchun darsliklar qiladigan bo'ldik. Finlandiya xalq ta'limi Yevropa miqyosida, umuman, dunyoda raqobatbardosh hisoblanadi». Dunyoning yetakchi davlatlarida boshlang'ich ta'limga juda katta e'tibor beriladi. Zero, har bir buyuk davlatning taraqqiyotini kelajak yosh avlod belgilaydi. Boshlang'ich ta'lim muammolariga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarni va internet manbalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda Finlandiya davlatining mazkur sohada erishgan yutuqlari g'oyatda maqtovga sazovor. Uning tajribasidan ko'pchilik chet el davatlari, jumladan, AQSH, Fransiya, Germaniya, Shvedsiya va boshqa mamlakatlar ta'lim tizimini isloh qilishda samarali foydalanib kelmoqdalar. Finlandiyada ta'lim- hamma uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash deganidir. Tenglik tushunchasi juda qadrlanib, barcha o'quvchilar bilim va qobiliyatlaridan qat'iy nazar, bir xil sinflarda o'qishdi. Ta'lim olish imkoniyatlarini teng ravishda taqdim etish bilan birga, professional o'qituvchilar dars berishadi. Finlandiya ta'lim fakultetlarining ustunvor vazifasi "o'zini o'zi boshqaruvchi o'qituvchilar"ni tayyorlashdan iborat. Ta'lim fakultetiga talabalarining bilimiga qarab tanlanmaydi. Bizning ta'lim tizimizdan farqli o'laroq, bir necha bosqichli tanlovdan so'ng, kelishuvchanlik, bolalarni tushuna olish, mexnatkakshlik, intiluvchanlik kabi hislatlarga ega nomzodlar tanlanib olinadi. Shuningdek, o'quv dasturlari mavjud bo'lmagani uchun, o'qituvchilar o'zlariga ma'qul bo'lgan o'quv dasturini tanlash imkoniyatiga ega.

Har yil o'qituvchi lavozimida ishlash uchun istak bildirgan 8500 nozomzoddan atigi 800 nafari tanlab olinadi. O'qituvchilarning yuqori darajadagi bilimlari bolalar rivojlanishining barcha bosqichlarini kuzatib borish va yuzaga kelishi mumkun bo'lgan muamollarning moslashuvchan yechimlarini yaratish uchun eng muhim vosita vazifasini bajaradi. O'qituvchilarga qo'yiladigan bu kabi qat'iy talablar o'zining samarali natijasini beradi. Jumladan, Nufuzli Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan har 3 yilda bir marta o'tkaziladigan xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, Finlandiyalik maktab o'quvchilari tabiiy fanlar bo'yicha - dunyoda ikkinchi, matematika bo'yicha esa beshinchi o'rinni egallagan. Shunisi ajablanarliki, dunyo miqyosida yuqori ko'rsatkichlarni qayd etishlariga qaramay, finlyandiyalik maktab o'quvchilari darslarga u qadar ko'p vaqt ajratishmaydi. Finlandiyada boshlang'ich sinf o'quvchilarga uyga vazifa ham berilmaydi, chunki o'qish joyi maktab deb hisoblanadi. Imtihonlar esa faqat yuqori sinflarda mavjud. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar baholanmaydi. Shuningdek, o'qituvchilar har bir o'quvchining o'zlashtirishiga qarab o'quv dastur va drasliklarni o'zgartirishlari ham mumkun. O'quvchilarning har biriga individual e'tibor qaratilishi natijasida, darsga qiziqish va yaxshi o'zlashtirishga erishiladi. Maktab o'quvchilari uchun darslik, yozuv daftarlari, o'quv qurollari har yili bepul taqdim etiladi. Asosiy ta'limni fin o'quvchilar 9 yil davomida olishadi va ularning 60 foizi oliy ta'limni davom etiradi. O'zbekiston bilan taqoslaydigan bo'lsak, hozirgi kunda maktab bitiruvchilarining 27 foizigina oliy ta'limni davom ettirmoqda.

Yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, Finlandiya boshlang'ich ta'lim tizimi bolalarni erkin fikrlash, stress holatlarini yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish, o'quvchilarga individual yondashish, ma'suliyatlik hissini singdirib borish, bolalar uchun fiziologik va psixologik jihatdan qulay bo'lgan sharoitlarni yaratish, o'qituvchilarning yuqori darajadagi kasbiy layoqatini ta'minlashga qaratilgan. Shubhasiz, bular ta'lim samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va o'quvchilarni o'qishga bo'lgan intilishlarini doimo rag'batlanadi. Bunday ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy hayotida ham o'z aksini topadi. Finlandiya misolida buni quyidagilarda ko'rishimiz mukun. Mamlakatning statistikasiga ko'ra sog'liqni saqlash va farovonlik sohasida ayollar ulushi 85 foiz, ta'lim sohasida 69 foiz, mehmonxona sektori va umumiy ovqatlanish 67% foiz, davlat boshqaruv parlamentida 47 foiz, tadbirkorlikda 33 foizi, qurilish sohasida esa 10 foizni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkichlar mazkur ta'lim tizimining yuqori samaradorligini ko'rsatadi. Chunki, boshlang'ich sinflarda puxta olingan ta'lim o'rta va yuqori sinflarda hamda keyinchalik oliy ta'limi muassasalarida olinadigan bilimlar uchun mustahkam poydevor vazifasini o'taydi. Yuqorida bayon qilingan muloxazalardan kelib chiqqan holda, uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'imi bo'lgan boshlang'ich ta'lim tizimini sifatini va samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz :

– Ta'lim jarayonidagi talab va tartibni erkinlashtirish hamda o'quv yuklamalarini o'zlashtirish darajasidan kelib chiqqan holda individuallashtirish orqali yengilliklar yaratib o'quvchilarni maktabga kelishga va ta'lim olishga bo'lgan intilishlarini oshirish

– O'qituvchi lavozimiga tayinlanadigan nomzodlarning yuqori darajadagi kasbiy kompetentsiyaga ega bo'lishi muntazam ravishda o'z ustida ishlashi va malakasini oshirib borishi

– Ta'lim jarayonida o'quvchilarning jismoniy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan qulay sharoitlarni va psixologik muhitni yaratish.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni har tomonlama barkamol bo'lib yetishishida ta'lim muhim o'rin egallaydi bunda ayniqsa, boshlang'ich ta'lim tizimi nihoyatda katta ahamiyatga ega. Chunki uzluksiz ta'lim tizimini keyingi bosqichlarining natijadorligi va samaradorligi boshlang'ich ta'lim jarayonida olingan bilim va shakllangan ko'nikmalarga bog'liq bo'ladi shu sababli boshlang'ich ta'lim tizimi sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, innovatsion g'oyalarni va ilg'or chet el tajribasini tadbiiq etish orqali jiddiy yondashgan holda isloh qilish talab etiladi. Shubhasiz bu sayi harakatlar kelajakda o'z natijasini beradi va jamiyatimiz taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boqijon To'xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova- "11-sinf Adabiyot darsligi", «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» nashriyoti, Toshkent, 2018

2. Grigoriy Petrov- "Oq nilufarlar yurtida", "Faktor press", 2021

3. Turaev Shukhratjon. The role of independent education in teaching physics. Society and innovations Special Issue -12(2021). 115-121.

4. Siddik Kakhkharovich Kakhkharov, Shukhratjon Farmonovich Turaev, (2021). Pedagogical and Psychological Aspekts Of Independent Education. The American Journal of Social Science and Education Innovations,

5. Rahmatov H.H., Ochilova L.T. Mustaqil ta'lim: topshiriq va tavsiyalar (Boshlang'ich ta'lim, sporttarbiyaviy ish yo'nalishi talabalariga o'qitiladigan "matematika" fani bo'yicha

LUTFIY IJODIDA HUSNI TA'LIL**Narzullayeva Muxayyo Iftixor qizi
Mustaqil izlanuvchi**

Annotatsiya: Husni ta'lilga ta'rif, baytlar ostidagi ma'no, badiiy talqin va timsollar, hayotiy holatlar hamda tabiiy hodisalarga asoslangan husni ta'lil, shubhali chiroyli sabab

Kalit so'zlar: Shibhi husni ta'lil, g'ayritabiiy izohlash, go'zal namunalar, husni ta'lil mohiyati, tashxisga asoslangan husni ta'lil

"Husni ta'lil" arabcha "chiroyli dalillash" ma'nosini bildiradi. Adabiy asarlarda tasvirlanayotgan biror hodisaga shoirona biron sabab ko'rsatish san'ati shu nom bilan ataladi. Agar gumon ma'nosida qo'llanilsa, u holda bu xil sabablar "shibhi husni ta'lil", ya'ni "shubhali chiroyli sabab" deb ataladi. Lutfiy ijodidagi

Takror qilur vasfi qading sarv, oning uchun

Ko'p tebranur andoqqi kishilar sabaq ichra

ushbu bayt husni ta'lil namunalaridagi fikrlar qat'iyligi, tabiiy hodisalarning g'ayritabiiy izohi ayni haqiqatdek ta'kidlangani ko'rinib turadi. She'riyatimizdagi husni ta'lil namunalari xilma-xil hayotiy holatlar, tabiiy hodisalarga asoslanadi. Shoirlar ko'pincha samoviy mavjudotlar holati va harakatini g'ayritabiiy izohlash yo'li bilan husni ta'lil san'atiga xos lavhalar chizadilar. Misol uchun, quyosh harakatini shu xil tasvirlash vositasida ko'plab chiroyli baytlar yaratilgan.

Quyosh oydek yuzungning hijlatidin

Qochib to'rtinchi ko'k uzra chiqibtur.

Lutfiy qalamiga mansub bo'lgan

Oy yuzungning hijlatidan gul qizordi, holiyo,

Xanda birla o'tkarur, chun infioli bordirur

baytida gulning qizarib ochilishi hijolatdan yuzi qizorgan va o'zining noqulay ahvolini yashirish uchun zo'rma-zo'raki tabassum qilayotgan odamga qiyoslanib kishini lol qoldiruvchi tasvir chizilgan. Shoirning:

Hayratda qolib pista og'iz ochtiyu qoldi,

Majlisda chu og'zing soridin kechti hikoyat.

Qomatingning qullug'inda yosh edi, ulg'aydi sarv,

Boshi titrar, emdi hijlattin ani ozod qil.

La'lining shirinligin bir kun bitar erdi qalam,

Boshi zonu ostida qoldi chibinlar ilkidin

kabi baytlarida ham pista, sarv, qalam holatlari husni ta'lil uchun asos bo'lgan. Ba'zan husni ta'lil san'ati she'riyatimizdagi an'anaga aylagan badiiy talqinlar, timsollarga asoslanadi. Kitobxon ana shu xil talqin va timsollardan xabardor bo'lganidagina, husni ta'lil mohiyatini anglab yetadi. Chunonchi, Lutfiy g'azalidagi

Og'zing o'lturdi tabassum birla bizni, tonmag'il,

Gar kishi o'lturmasa, ul ne uchun pinhon erur

baytidagi husni ta'lilga diqqat qilaylik: shoir mahbubaga murojaat qilar ekan, "Sening og'zing tabassum qilib bizni o'ldirdi, bundan tonmagin, agar odam o'ldirmasa, nega u yashirib yuribdi?" degan fikrni bayon qiladi. She'riyatimizdagi an'anaviy ifodaga aylangan talqin "ma'shuqa og'zi kichikligidan ko'zga ko'rinmaydi",- degan fikrni nazarda tutgandagina husni ta'lil mazmunini tushunib yetish mumkin. Aks holda, "nega og'iz ko'rinmas ekan, u mahbuba yuzida aniq ko'rinib turadiku",- deb qarajak, husni ta'lil o'z qimmatini yo'qotadi, kitobxon esa uni ilg'ay olmaydi. Lutfiyning:

Zanburi asal og'zi to'la shaxd ekanindin,

Erningni ko'rub, bemaza deb bol to'kubdur

baytidagi husni ta'lil esa tashxisga asoslangan. Zero, shoir: " Asalarining og'zi to'la asal edi, sening labing shirinligini ko'rgach, og'zidagi asalni bemaza deb to'kib tashladi",- tarzida tasvirlar ekan, asalariga odamlar xususiyatini ko'chiradi.

Oyu kun yulduz kibi yerga o'zin solmoq tilar,

Chiqsa xirgahtin biror ul mohi tobonim mening

baytida: "mening oy yuzli go'zalim chodiridan chiqib qolsa, oy bilan kun yulduz kabi yerga tushishga intiladi";-degan mazmun ifodalangan. Ushbu o'rinda shoir yulduzning uchib yer tomon yo'nalishi hodisasiga asoslangan. Husni ta'lil ana shu hodisaga g'ayritabiiy talqin berishdan iboratdir. Go'yoki yulduz ma'shuqani ko'rish uchun osmondan yer tomon uchar emish. Oyu quyosh ham unga ergashib mahbubani tomosho qilish uchun yerga intilarmish. Ko'ramizki, hayotiy hodisa aniq keltirilganligi sababli husni ta'lil kitobxon ongiga, qalbiga yetib borib uning ko'z oldida yulduz uchishi lavhasini jonlantiradi, uni zavqlantiradi, shoir ko'zlagan g'oya ham uning dilidan joy oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://saviya.uz>
2. <https://forum.ziyouz.com>
3. <https://m.facebook.com>

**ZAMONAVIY TALABLARGA JAVOB BERADIGAN TA'LIM MUASSSASI
XODIMLARINING RIVOJLANTIRISH ASOSLARI****Normurodova Saodat Nozimjon qizi
Qo'qon universiteti magistranti**

Anotatsiya: Maqolada Talim muasssasi rivojlantirish asoslarini tahliliy tafakkuri rivojlangan, ijodkor, raqobatbardosh zamonaviy kadrlarni yetishtirishda to'g'ri yo'lga qo'yilgan mustaqil ta'limning muhim ahamiyati to'g'risida so'z boradi. Yangi innovatsion texnologiyalar orqali tashkil qilingan mustaqil ta'lim keyinchalik barcha soha vakillari butun faoliyati davomida majbur bo'ladigan, "sohaga oid yangi bilimlarni o'zlashtirib borish" masalasida ham muhim poydevor bo'la oladi.

Kalit so'zlar: yetuk mutaxassis, innovatsion texnologiyalar, Talabani mustaqil izlanishi, ta'lim sifati, yetuk mutaxassis, masofaviy ta'lim.

Muttasil o'zgarishda, rivojlanishda bo'lgan dunyoda hal qilinishi kerak bo'lgan har bir masala o'zining yangicha yechimlari bilan murakkab va diqqatga sazovor sanaladi. Endilikda, oliy ta'lim tizimi ham o'z oldiga faqat mutaxassisligi bo'yicha chuqur ilmga ega bo'lgan kadrlarni yetishtirib berish vazifasinigina qo'yolmas ekan, jamiyat har tomonlama rivojlanib yuksak maqsadlarga erishish uchun zamonaviy kadrlardan talab qilinadigan qo'shimcha xususiyatlar mavjud. Bugungi kunda "yetuk kadr" hatto "yetuk mutaxassis" tushunchalari ham o'z mohiyatini biroz o'zgartiradi, yangilaydi. Bu xususiyatlarning eng asosiylari esa zamonaviy mutaxassislar qabul qilingan axborotlarni o'zining rivojlangan tahliliy tafakkuri orqali mustaqil tahlil qilish, saralash va saralangan axborotlarni ilm-fan rivoji, yurt ravnaqi, xalq farovonligi uchun ishlata bilishidir. Bu maqsadga erishishning to'g'ridan-to'g'ri va asosiy yo'llaridan biri esa ta'lim tizimidagi, ayniqsa, oliy ta'lim tizimidagi har bir bo'g'inning mustaqil ta'limning ahamiyatini chuqur his qilishi va mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil qilinishi uchun yuqori ma'suliyat bilan yondashishidir. Deyarli har bir sohada ko'plab o'quv va ilmiy adabiyotlar o'zbek yoki boshqa tillarda anchagina bo'lishi bilan birgalikda har bir sohada ma'lumotlar yanada ko'payib borayotgan hamda har bir talabada internet tizimidan foydalanish imkoni bo'lgan bir davrda mustaqil ta'lim butun boshli ta'lim jarayoning eng muhim qismiga aylanishi kerak. O'z-o'zidan, o'qituvchilarning ham eng asosiy vazifasi mustaqil ta'limni to'g'ri tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish bo'lishi kerak. Xo'sh, mustaqil ta'lim nima va u qanday tashkillashtirilishi kerak? Mustaqil ta'lim – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim va talabada shakllanishi kerak bo'lgan ko'nikma va malakaga qaratilgan ta'lim shakllaridan biri bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriyadan tashqarida bajariladi. Talabalar mustaqil ta'limidan asosiy maqsad quyidagilardan iborat: talaba

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmasiga ega bo'lishi;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topish, o'rganishning qulay usullari va vositalarini aniqlay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- internet tarmog'idan samarali foydalanish;
- ma'lumotlar bazasini tahlil etish; ○ berilgan topshiriqlarning ratsional yechimini belgilash;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- o'quv va ilmiy adabiyotlaridan mustaqil holda ilmiy axborotlarni o'qib bilish;

o amaliy mashg'ulotlarda mustaqil bajarish uchun berilgan amaliy topshiriq (mustaqil ish)larni bajarish va mustaqil ishlarni mas'ul o'qituvchi va guruh talabalari o'rtasida himoya qila bilish kerak va h.k. Mustaqil ta'limni tashkil etish tartibi va bu jarayonda ilmiy rahbarning asosiy vazifalari: - mustaqil ta'limning mavzularini beriladi; - ishni topshirish muddati (vaqt oralig'i) va topshirish shakllari haqida ma'lumot beriladi; - mavzular bo'yicha egallanishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tavsiyalar shaklida beriladi; - mavzuga oid adabiyotlar tavsiya qilinadi; - zarurat tug'ilganda mavzuning rejasini tuzishda talabaga yordam beriladi; - mustaqil ish va rejalarining bajarilishi yuzasidan doimiy nazoratlar o'tkazib turiladi va tavsiyalar berib boriladi; - belgilangan muddatda berilgan topshiriqlar ko'riladi; - amaliy xarakterdagi topshiriqlarning yechimi ko'rsatiladi va o'xshash misollar yordamida tekshiriladi; - topshiriq bajarilish, talaba tomonidan mavzuni o'zlashtirish darajasiga aniqlik kiritish kerak bo'lganda nazorat (test, savol-javob va h.k.) o'tkaziladi; Mustaqil ishni bajarishda talabaning vazifalari:

- ishning mavzusini kafedraning talabalaridan kelib chiqqan holda tanlash;
- ilmiy rahbar bilan birgalikda tuzilgan reja asosida berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish;

- o'rnatilgan tartib bo'yicha mustaqil ish va hisobotni belgilangan muddatda kafedraga taqdim etish. Talaba mustaqil ishidan qo'yilgan maqsadga erishganlik, mavzuni o'zlashtirganlik darajasiga aniqlik kiritish maqsadida yakunlovchi nazorat kafedrada ishlab chiqilgan jadval asosida professor-o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Talabalar mustaqil ishlarini nazorat qilish turlari va ularni baholash mezonlari o'quv yili boshlanishida ishlab chiqiladi va fakultet ilmiy kengashida tasdiqlanadi. Yaqin-yaqingacha oliy ta'limda, asosan, "axborot ma'ruza" ko'rinishidagi darslar bilan kerakli natijaga erishishga urinib kelingan. "Eng yaxshi, sara va fan yuzasidan eng yangi axborotlar malakali mutaxassislar tomonidan o'rganiladi va talabalarga yetkaziladi". Bir qarashda bu o'qitish usuli samarali ko'rinadi va o'qituvchining yuksak mahorati va fidoiyligi hisobiga bir muncha natijalar ham berib kelgan.

Bu o'qitish usulining ayrim qulayliklari tufayli esa deyarli butun boshli ta'lim jarayoni "axborot ma'ruza"ga aylanib ketgan. Hatto, amaliy mashg'ulotlarda ham o'qituvchining tinmay gapirishi, doskada yozishi va talabalarga konspekt qildirishi odatiy holga aylangan. Endigina talaba bo'lgan o'quvchi talaba bo'lganlikdan va qaynoq rejalaridan motivatsiya olib qisqa muddat bu "qulay" o'qitish usulida yaxshi o'zlashtirish mumkin. Ammo faqat yodlash, nimanidir to'g'riligini eshitish va eslab qolish kerakligi zerikarli jarayonga aylanib boraveradi va talaba fanni o'zlashtirish ishtiyoqiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, maqolamiz boshlanishida so'z yuritilgan, bitiruvchi talaba ega bo'lishi lozim bo'lgan rivojlangan tahliliy tafakkur, axborotlarni qayta ishlash ko'nikmasi va bir umrlik kasbiy faoliyatida muntazam duch keladigan bilim va ko'nikmasini mustaqil oshirib, mustahkamlab borish zarurati esa deyarli yechimsiz qolib ketadi. Bular ko'pgina rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi uchun allaqachon anglanilgan va hisobga olingan bo'lib, ularda butun boshli ta'limning 60-70% dan kam bo'lmagan qismi, birgina mustaqil ta'lim uchun ajratilgan soatlar ekanligi ham ko'p narsani anglatadi. Faqat ko'proq soat ajratish orqali natijaga erishib bo'lmavligini anglagan holda aytish mumkinki, bizda esa bu ko'rsatkich 40%. Aniqroq qilib aytganda, kunduzgi bakalavriat yo'nalishi talabalarining haftalik umumiy yuklamasi hajmi 54 soat va uning 22 soati mustaqil ta'lim uchun ajratilgan. Biror sohaga har qanday yuqori samarali bo'lgan yangicha ishlash tizimi kirib kelar ekan bu jarayon to'g'ri tashkillashtirilmasa, bu tizimni sohaga tadbiiq qilish uchun zaruriy sharoitlar yaratilmasa, soha mas'ullari o'z vazifalarini bajarmasa yoki bajarolmasa soha rivojida hech qachon va hech qanday yuqoriga siljish bo'lmaydi. Oliy ta'limda ham asosiy e'tiborni mustaqil ta'limga qaratar ekanmiz, bu jarayonning boshlanishida bir qancha muammolarga duch kelishimiz mumkin. Masalan,

aksariyat talabalarda mustaqil o'qib o'zlashtirish ko'nikmasi yaxshi shakllanmaganligi, fanlardan o'zbek tilida sifatli o'quv qo'llanmalarining yetarli emasligi, talabalar sifatli internet bilan to'liq ta'minlamaganligi, qolaversa, o'qituvchilar mustaqil ta'limni tashkillashtirishda zamonaviy, eng yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanishi kerak bo'lgan bir paytda, bu jarayonda talabalarga to'g'ri yo'llanma berishga, ular o'rganib kelgan yangi bilimlarni ular bilan tahlil qilish va ularga o'zining nuqtayi nazarini yetkazishga tajriba va bilimi yetmasligi mumkin va h.k. Biroq ta'lim jarayonida mustaqil ta'limni sifatli tashkilashtirish asosiy o'ringa ko'tarilgach bu va boshqa muammolar yanada aniqlashib barchasini talaba, o'qituvchilar va soha mas'ullari tomonidan bartaraf qilish imkoni yuqori bo'lib boraveradi va oxirgi yillarda qisman bartaraf qilib borilmoqda. Shunday bo'lsada, bu sohada qilinishi kerak bo'lgan ishlar hali juda ko'p.

Talabalarda mustaqil ta'lim va auditoriyadagi ta'lim soatlari nisbatini kurslar kesimida qayta ko'rib chiqish kerak. Birinchi kurs talabalariga ko'proq ma'ruza darslari o'tilgan holda mustaqil ta'limga tayyorlab borish kerak. Yuqori kurs talabalarini adabiyotlar bilan mustaqil ishlash, qanday tartibda bilimlar ketma-ketligini o'zlashtirish kerakligini yaxshiroq bilishadi va ularda mustaqil ta'lim soatlarini ko'paytirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Bu yo'lda ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlar tajribalarini chuqurroq o'rganish, tahlil qilish va amaliyotda qo'llash ham samarali usullardan biri hisoblanadi. Aynan shu maqsadlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 20.04.2017-yildagi PQ-2909-son qarori imzolandi. Oliy ta'lim tizimini kelgusida yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish bo'yicha eng muhim vazifalar etib esa birinchi navbatda quyidagilar belgilandi: -har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy ta'lim muassasalari magistrant, yosh o'qituvchi va ilmiy xodimlarning stajirovka o'tashlarini, professoro'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish.

Xulosa qilib aytganda, zamon talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlashni reja qilgan ekanmiz, oliy ta'limda mustaqil ta'limni tashkillashtirishda ma'suliyat bilan yondashgan holda, bu jarayonda innovatsion texnologiyalardan foydalanmoq darkor. Mustaqil ta'lim, mustaqil o'qish, ayniqsa, aniq va tabiiy fanlarda o'zining samarasini yanada yaqqolroq ko'rsatadi. Chunki matematika, fizika va shunga o'xshash fanlardagi juda ko'p masalalar bizdan alohida ijodkorlikni, alohida yondashuvni talab qiladi. Bu sohalarda ko'p bilganlardan ko'ra yaxshi fikrlaganlar muvaffaqiyat qozonadi. Biz oliy ta'limda mustaqil ta'limga asosiy e'tiborni qaratgan holda ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslarini kerak bo'lsa, biroz qisqartirishga erishar ekanmiz, o'qituvchilarni ham o'z ustida ishlashi, sohaga doir sifatli o'quv va ilmiy adabiyotlar yaratishga ham ko'proq imkon beramiz. Bu esa ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslari sifatiga ham shubhasiz ijobiy ta'sir qiladi. Natijada, oliy ta'limdan yuksak ilm, keng tahliliy tafakkur va zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan kadrlar yetishib chiqib Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shadi deb umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son qarori.
2. Turaev Shukhratjon. The role of independent education in teaching physics. Society and innovations Special Issue -12(2021). 115-121.

3. Siddik Kakhkharovich Kakhkharov, Shukhratjon Farmonovich Turaev, (2021). Pedagogical and Psychological Aspekts Of Independent Education. The American Journal of Social Science and Education Innovations,
4. Rahmatov H.H., Ochilova L.T. Mustaqil ta'lim: topshiriq va tavsiyalar (Boshlang'ich ta'lim, sporttarbiyaviy ish yo'nalishi talabalariga o'qitiladigan "matematika" fani bo'yicha

**RIVOJLANAYOTGAN VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA BOSHLANG'ICH
TA'LIM SIFATI**

**Odilova Maxliyoxon Doniyorjon qizi
Qo'qon Universiteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi**

Annotatsiya: Bu maqola, rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda boshlang'ich ta'lim sifati mavzusiga bag'ishlangan. Ushbu mavzuda, boshlang'ich ta'limning yuqori sifatini oshirish uchun qilinishgan harakatlar va ulardagi muvaffaqiyatlar o'rnatiladi. Maqolada ta'lim jarayonining qanday siyosatlar bilan boshlanishi kerakligi haqida ham gaplashiladi. Shuningdek, bu maqola boshlang'ich ta'lim sifati haqida nazariy tushunchalarni to'g'ridan-to'g'ri amalda qo'llashga ajratilgan tavsiyalarni ham o'rgatadi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, rivojlanish, bola, maktab, boshlang'ich sinf, daromad, oliy ta'lim.

Kirish. Ushbu maqola rivojlanayotgan mamlakatlarda boshlang'ich ta'lim natijalarini belgilovchi omillarga oid adabiyotlarni ko'rib chiqishdir. Bugungi dunyoda bolalarni maktabga olib borishning o'zi yetarli emas; rivojlanish uchun zarur bo'lgan asosiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlarini ta'minlashi kerak. Ushbu sharh asosiy natijalarni belgilovchi omillar - to'ldirish, hisoblash va savodxonlik bo'yicha so'nggi tadqiqotlarni o'rganadi. Ko'rinishidan oddiy savol - "Ta'lim natijalarini nima belgilaydi?" - yillar davomida munozarali tadqiqotlar hajmini yaratdi va oxiri hali ko'rinmaydi. Ta'lim siyosatchilari va ma'murlari yo'l-yo'riq uchun ushbu adabiyotni ko'rib chiqdilar va ularga rahbarlik qilish uchun bir nechta aniq natijalarga erishdilar. Oxir oqibat, ta'lim - bu murakkab korxonalar va qaror qabul qiluvchilar hali ham o'zlarining tajribalari va amaliy mulohazalariga qaytishlari kerak. Ammo natijalar va ularning determinantlarini o'rganish har bir o'qituvchi va siyosatchining o'z tajribasi kontekstida ko'rib chiqilsa, ularga mavjud alternativalar orasidan yaxshiroq tanlovni tanlashga yordam beradi.

Garchi ushbu sharh rivojlanayotgan mamlakatlar bilan bog'liq bo'lsa-da, u ba'zan rivojlangan mamlakatlardagi tadqiqotlarga tayanadi, chunki kam rivojlangan mamlakatlarda qo'llaniladigan tadqiqot usullarining ko'pchiligi dastlab rivojlangan mamlakatlarda kashshof bo'lgan va keyin tegishli o'zgartirishlar bilan yangi sharoitlarda qo'llanilgan. Shuningdek, ushbu sharh boshlang'ich ta'lim natijalariga qaratilganligi sababli, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash bilan bog'liq bo'lganlar bundan mustasno, oliy ta'lim bo'yicha tadqiqotlar bundan mustasno. O'rta ta'lim bo'yicha ba'zi tadqiqotlar kiritilgan, chunki ko'plab tadqiqotlar o'zlarining tadqiqot dizaynlari va natijalarining bir qismi sifatida boshlang'ich va o'rta darajalarni o'z ichiga oladi. Biroq, o'rta ta'lim o'ziga xos xususiyatlarga ega, bunda o'qituvchilar o'z fanlari bo'yicha chuqurroq tayyorlanishi kerak va o'qituvchilar kognitiv rivojlanishning yuqori bosqichida.

Asosiy qism. Ta'lim natijalarini o'rganish ko'pincha taklif omillari nuqtai nazaridan tuziladi, ammo ta'lim natijalarini aniqlashda talab omillari ham muhimdir. Bu yerda maktabda qatnashish hissa sifatida qaraladi va boshlang'ich maktabni boshlang'ich bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish bilan yakunlash maqsadga muvofiq natija sifatida qabul qilinadi. Bularning ikkalasi ham uy xo'jaliklari darajasida va kengroq ijtimoiy muhitda turli talab omillariga bog'liq. Ushbu kontseptual asos ko'proq fanlararo ijtimoiy fan ham ekanligi e'tirof etiladi. Jumladan, ta'lim psixologiyasi va ta'lim sotsiologiyasining tushunchalari va modellari, ta'lim natijalarini belgilovchi omillarni iqtisodning yaqinda paydo bo'lgan manfaatlaridan oldin o'rgangan holda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim natijalarini aniqlashda talab va taklif omillarini o'rganish siyosatni ishlab chiqish va baholash uchun to'liqroq asos yaratadi.

Maktab sifati va ta'lim natijalari ko'pgina tovarlar va xizmatlar kabi ta'limning talab va taklifida ham rol o'ynashi mumkin. Agar kambag'al qishloq uy xo'jaliklaridagi ota-onalar o'z farzandlarining maktab ta'limi sifatini yomon deb bilsalar (masalan, bino xavfli yoki o'qituvchilar kelmasa), ular o'z farzandlarini yuborishni istamasligi mumkin. Bundan tashqari, agar ular Afrikadagi ba'zi tadqiqotlarda ko'rsatilgandek, o'qishga kelgan bolalar o'qimaydigan bolalarni boshqa o'rganmasliklarini aniqlasalar, oilalar nafaqalar xarajatlarni oqlamaydi deb qaror qilishlari mumkin. Shunday qilib, oilalar maktablarga kirish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin (o'rtacha masofa va narxda), lekin o'z farzandlarini muntazam ravishda ro'yxatdan o'tkazmaslik yoki yubormaslikni tanlashadi. Talab omillari ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar (to'lovlar, jihozlar va kiyim-kechak) va bilvosita (yo'qotish) bo'yicha maktab xarajatlari bilan solishtirganda sotiladigan bilim va ko'nikmalar (savodxonlik va hisob-kitoblar) nuqtai nazaridan oilalarning maktabga qaytish haqidagi fikrlarini o'z ichiga oladi. uy mehnati). Qulay xarajatlarda, hatto kambag'al va qishloq uy xo'jaliklari tomonidan ham ta'limga bo'lgan talabni oshiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, ko'plab tadqiqotchilar rivojlanayotgan mamlakatlardan olingan xulosalarga ko'ra, kambag'al mamlakatlar sharoitida maktablar muhimroqdir. Buning ortidagi sabablarning katta qismi daromadni pasaytirish tamoyilida ko'rinadi - kambag'al mamlakatlar sharoitida ko'proq ta'lim resurslari bilan ta'minlash maktab resurslari nisbatan yuqori darajada bo'lgan boy mamlakatlarga qaraganda ko'proq ta'sir qiladi. Ikkinchi muhim holat shundaki, kambag'al mamlakatlarda boshlang'ich ta'lim natijalari boy mamlakatlarnikidan ancha past. Xalqaro va mintaqaviy ta'limni baholashning o'sib borayotgan dalillari asosida boy va kambag'al mamlakatlarda savodxonlik va hisoblashning asosiy kognitiv qobiliyatlari haqida ko'proq ma'lumotlar mavjud. Bu choralar bo'yicha boy va kambag'al mamlakatlar o'rtasidagi tafovut katta va inson kapitalining bu eng asosiy shaklini qashshoq mamlakatlar ichida taqsimlash ham adolatsizroq ko'rinadi.

Talim tizmiga e'tibor qaratish YuNESKO va boshqa tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan EFA tashabbuslari doirasida amalga oshirilayotgani kabi, mamlakatlar tajriba va innovatsiyalarni amalga oshirishda mahalliy tadqiqot salohiyatini oshirishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fuller, Bruce, and Prema Clark. 1994. "Raising School Effects While Ignoring Culture? Local Conditions and the Influence of Classroom Tools and Pedagogy." *Review of Education Research* 64(1):119-57
2. Glewwe, Paul. 2002. "Schools and Skills in Developing Countries: Education Policies and Socioeconomic Outcomes." *Journal of Economic Literature* 40:436-482.
3. M YARASHOV. 2022. "Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash tizmi". ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 17 (17)

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA INGLIZ TILINI O'RGATISH
TEXNALOGIYALARI**

Odilova Maxliyoxon Doniyorjon qizi
Qo'qon Universiteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarga ta'lim va o'quvchining ichki aqliy dunyosi bilan shug'ullanish orqali o'qitishni samarali tashkil etishga yordam beradi. Ushbu maqolada yosh o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatish maqsadi, O'zbekiston ta'lim tizimini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Ushbu maqola, shuningdek, maktab tizimining eng dastlabki bosqichlarida yosh bolalarning chet tilini o'zlashtirishi va o'rganishi bilan bog'liq.

Kalit so'zlar: chet tili; til o'rgatish; erta chet tilini o'rganish, yosh o'quvchilar.

Kirish: Ingliz tili bugungi kunda yuqori darajada ta'lim va o'quv muassasalari uchun ko'p vaqtda zarur bo'lgan tilar orasida turadi. Bu tilni o'rganishni boshlash uchun, ingliz tilining o'rnini mavzusida ko'plab ilmiy maqolalar mavjuddir. Ingliz tilini o'rganish paytida, o'quvchi avvalo hamma qoidalarni yodda tutishga harakat qiladi. Odatda, grammatika qoidalari, so'zlashma va gapiruvchi xususiyatlari va ingliz tili muammolarini hal qilish uchun kerakli bo'lishi mumkin. Birinchi bosqichda, o'quvchilar ingliz tilni mukammal tarzda o'rgangan holda rol o'ynaydigan grammatika qoidalari bilan tanishishi kerak. Bu shuni anglatadiki, ularning eng asosiy vazifasi gapiruvchini to'g'ri tushuntirishdir. Keyingi bosqichlar esa, so'zlashma va gaplardagi xatolar bilan bog'liqdir. Ingliz tilida voqealar mehmon do'xtoriga o'xshaydi. Shu sababli, gapiruvchi va tinglovchi orasidagi voqealarni mukammal tarzda tushunish juda muhimdir. Ingliz tilini o'rganadiganlar uchun birinchi navbatda eng katta muammo shundaki, ularning odamlar bilan suhbatlashgan holda topshiriqlar bajarib ko'proq amaliy mashg'ulotlarga ishonch hosil qilishi kerak. Bu mahalliy tillarning mushtarak xususiyati hisoblanadi. Asosiy maqsad ingliz tilini yaxshi ko'rinishda o'rgangan holda uni amaliy hayotga tatbiq etmoqdadir.

Asosiy qism: Ma'lumki, mamlakatimizda maktab ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan. Bu, ayniqsa, o'quvchilarga ijtimoiy voqelikni chuqurroq anglashga, o'z kasbiy ko'chishi uchun keyingi ta'limni to'g'ri tanlashga, insoniy qadriyatlarga mustahkam bog'liqlikni anglab etishga, chuqurroq va muhimroq bilim va o'z-o'zini bilishga yordam beradi. tanqidiy va ijodiy ruh, hayot, ilm-fan, san'at va xalqaro sivilizatsiyaga ega bo'lish, tarixiy voqealarni, san'at va fan tarixini o'rganish va chuqurroq bilish bilan o'z nuqtai nazarini rivojlantirish, ularning ongli va til madaniyatini boyitish hamda estetik jihatdan rivojlantirish. mezon, ularning kinetik qobiliyatlari va moyilliklarini muayyan harakatlar orqali yaxshiroq tushunish va ularning hayot sifatini yaxshilaydigan sport odatlariga ega bo'lish.

Mustaqil O'zbekistonimiz bugun har bir sohani rivojlantirishga e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich ta'kidlaganidek: "Yangi texnologiyalarni o'zlashtirayotgan davrda biz yoshlarning kitob mutolaasiga, kitob bilan do'st bo'lishiga, aholining kitobxonlik darajasini oshirishga e'tibor qaratishimiz kerak. Milliy adabiyotimizni, jahon adabiyotini ijtimoiy tarmoqlarda o'rnatish va targ'ib qilish zarur" [1]. Bu nutq murojaat bo'ldi. Qo'shimchasiga shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek adabiyotini dunyoga tarannum etish biz uchun dolzarb masala.

O'qitish jarayoni - bu o'rganishni osonlashtirish, bunda biz chet tilini muvaffaqiyatli "o'rgatishimiz" mumkin, agar boshqa narsalar qatorida, chet tilini o'rganish yoki o'rgatish haqida biror narsa bilsak, o'qituvchi chet elni o'rganish va o'qitish tamoyillarini tushunish uchun izlanishni quyidagi savollardan boshlaydi:

1. O'rganish va o'qitishni kim amalga oshiradi?,

2. Muloqot nima?
3. Til nima?
4. O'rganish qanday sodir bo'ladi?,
5. Til o'rganishda inson qanday muvaffaqiyatga erishishi mumkin?,
6. Vanihoyat, barcha savollarning eng qamrab oluvchisi:
7. Nega o'quvchilar chet tilini o'zlashtirishga harakat qilmoqdalar?

Biroq, chet tilini muvaffaqiyatli o'rganish uchun dalillarni topish oson, bu ushbu holatlar va ko'pchilik til dasturlari muvaffaqiyatsizligi o'rtasidagi tafovutga olib keladi, bu esa chet tilini o'zlashtirish bo'yicha tadqiqotlarni hissiy jihatdan tushunishga yordam beradi. Grammatikani tarjima qilish usuli yoki metodi kabi eski usul va yondashuvlar rad etiladi va hatto masxara qilinadi, chunki boshlang'ich maktablarda chet tili o'quvchilarining yuqori qobiliyatsizligi muammosining yagona va to'liq yechimi sifatida yangi usul va yondashuvlar ixtiro qilinadi va ilgari suriladi. Ingliz tili o'rganuvchisi sifatida shuni aytishim mumkinki, texnologiyadan foydalanish boshlang'ich maktablarda ingliz tilini o'qitishning samarali usuli bo'ladi. Masalan, biz darslarimiz davomida o'quvchilarimiz uchun muhim va foydali haqiqiy materiallarga ega internet resurslaridan foydalanishimiz mumkin.

Dasturiy ta'minot o'quvchilar bilan kitoblar va audiolar qila olmaydigan tarzda o'zaro ta'sir qilishi mumkin:

- Ba'zi dasturiy ta'minot o'quvchini yozib oladi, talaffuzni tahlil qiladi.
- Dasturiy ta'minot ma'lum bir o'quvchi qiyin bo'lgan sohalarda tushunchalar o'zlashtirilgunga qadar qo'shimcha mashqlarni taqdim etishi mumkin.
- Dasturiy ta'minot maqsadli tilda so'zlarni talaffuz qilishi va og'zaki tushuntirishlar o'rniga rasmlardan foydalanish orqali ularning ma'nosini ko'rsatishi mumkin.

Bunday dasturiy ta'minotdagi yagona til maqsadli tildir. O'quvchining ona tilidan qat'i nazar, tushunarli.

Xulosa: Bir necha hafta ichida men ingliz tilidan dars beradigan o'qituvchilar va ushbu maktab o'quvchilari yaxshi muloqot qilish qobiliyatiga ega ekanligini payqadim. Hatto o'quvchilar ham ingliz tilida o'zlarini yaxshi ifoda eta olishdi. Keyinchalik men ularning muloqot qobiliyatlariga amin bo'ldim va (ingliz tili) o'qituvchilari Maktabda yaxshi muloqot qilish qobiliyatiga ega deb o'yladim. O'qituvchilar boshlang'ich maktabda bo'lsa ham, o'z o'quvchilarida mukammal muloqot qobiliyatlariga ega bo'lishlari kutiladi. Shuni aytib o'tishim mumkinki, nafaqat nutqni yaxshilash, balki barcha til ko'nikmalari uchun biz hatto boshlang'ich maktablarda ham darslarimizda texnologiyadan foydalanishimiz mumkin. Texnologiyadan foydalanish o'quvchilar uchun qiziqarli va qiziqarli bo'ladi. Ingliz tili o'qituvchilari sifatida biz doimo til o'rganuvchilarimizni rag'batlantirishning yangi va qiziqarli usullarini izlaymiz. Asosiy ta'lim kerak. Alifboni o'rgatish va so'zlarni shakllantirish muhim va zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. JOCooper va D.Edge ota-ona. Strategiyalar va ta'lim usullari. Kolumbus, Ogayo: Charlz E. Merrill, 1981 yil.
2. J. Xarmer. Ingliz tilini qanday o'rgatish. Addison Uesli Longman, 1998 yil.
3. Richards, Jak C. Teodor S. Rodjers. Til o'rgatishda yondashuv va uslublar . Kembrij, 2001 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Murojaatnomasi . 2017 yil 13 sentyabr.

MTT, TARBIYACHI OTA-ONA BILAN HAMKORLIKDAGI ISHINING MAZMUNI VA USULLARI

**To'xtasinova Odinaxon Roziqovna
Qo'qon davlat pedagogika instituti
magistratura bo'limi ta'lim va tarbiya nazariyasi
va metodikasi (maktabgacha ta'lim) 2-bosqich magistrati**

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim yosh avlodning porloq kelajagi sari birinchi pog'onasi bo'lishi mumkin Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolaning o'sishi va rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda tarbiyachilarining oila bilan hamkorlik mazmuni va usullari o'z aksini topgan. MTTning ota-onalar bilan hamkorlikdagi ishlarining keng tarqalgan shakllari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tashkiloti, tarbiyachi, oila, uzluksiz ta'lim, hamkorlik shakllari.

Tarbiyada eng muhim vosita bu mehr vosita shirinsozlik bilan tarbiyalashdir. Bu ikki vosita bir bo'lib bolani shakllantiradi. Shu jumlada, ta'limni ham g'azab va jazolash bilan amalga oshirilmagan ma'qul. Zero zo'rlab berilgan ta'lim bola xotirasida tezda o'chib ketadi. Oqibatda uning shu sohaga nisbatan qiziqishi so'nadi. Bundan ko'rinadiki, ta'limning avvali ham yaxshi tarbiyadan boshlanadi. Ma'lumki, insonni voyaga yetishida uchta omil: nasl, oila, muhit muhim o'rin tutadi.

Bu omillarni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Barkamol shaxsni tarbiyalashda ana shu uch omil o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga e'tibor qaratilishi lozim. Bu masalada uzluksiz ta'limning bosh bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'z o'rnini mavjud.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishda mahoratli pedagog bolalar va ularning xatti-harakati yuzasidan oilalar bilan samimiy aloqada bo'lishi nihoyatda muhim. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila bir-biri bilan mustahkam bog'liq hamda ular o'rtasida aloqa qanchalik yaxshi yo'lga qo'yilsa, bola shuncha ko'p yordam oladi hamda uning dastlabki ta'lim tajribasi muvaffaqiyatli bo'lishi ehtimoli ortadi. Mahoratli pedagog tomonidan MTT hayotiga erkaklarni ham jalb qilish, har bir bola ularning ham ardog'ida bo'lishini ta'minlash uchun butun kuch-g'ayratni ishga solish lozim.

Ba'zan kun tartibi yoki birinchi uchrashuv onalar bilan bo'lgani sabab erkaklar buishdan chetda qolib ketadilar. Otalarning maktabgacha ta'lim tashkilotidagi pedagogik jarayonlarga qay tarzda ishtirok etishlarini aniqlashtirish, ya'ni ular balkim, ustachilik qilishni, ovqat tayyorlashni biladilar yoki san'atdan mashg'ulot o'tkazish uchun xonani jihozlashga yordam berishlari mumkin.

Bundan tashqari maktabgacha ta'lim tashkilotida psixologik xizmat ham tashkil etilgan bo'lib, psixologik xizmat maktabgacha ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Psixologik xizmat mutaxassislari barcha muammolarni hal qilishda har qaysi shaxs (pedagog, bola, ota-ona) manfaati va uning har tomonlama garmonik rivojlanishidan kelib chiqqan holda yondoshadi. MTT xodimlarini ota-onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlarining eng keng tarqalgan shakllaridan bir qanchasini keltiramiz:

1. Ota-onalar bilan yakkama-yakka ishlash. Ilg'or pedagogik tajribalarning ko'rsatishicha, ishning bu turi katta ahamiyatga ega. Bunda tarbiyachi oila va bolaning shaxsiy xususiyatlarini o'rganib ularni o'zining tarbiyaviy ishida hisobga oladi. MTTlar tajribasida ota-onalar bilan yakkama-yakka olib boriladigan ishlarning turli xil shakllari aniqlangan; oilaga

tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suhbat o'tkazish, ularga maslahatlar berish, ota-onalarning MTT hayoti bilan tanishishlari.

2. Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar. Bular ota-onalarning guruhiy va umumiy majlisi, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari.

3. Ko'rsatmali ishlar. Ishning bu turi ko'rgazmali, bolalarning ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, pedagogik axborot stendlari, ota-onalar uchun kutubxona oilaviy tarbiyaning barcha masalari bo'yicha materiallar solingan papka Ota-onaga pedagogik ta'lim berish va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining oila bilan olib boradigan ishi mazmuniga quyidagilar kiradi:

➤ ota-onalarga o'z farzandlarining tarbiyasi uchun davlat va jamiyat oldida javobgar ekanliklarini tushuntirib borish;

➤ ota-onalarni bola tarbiyasi uchun zarur bo'lgan bilim, malakalardan xabardor qilish (bolalarning yosh, anatomik -fiziologik va ruhiy xususiyatlari, ularni oilada tarbiyalashning mazmuni, metodi, shart-sharoitlari bilan tanishtirish);

➤ bola tarbiyasida oila bilan hamjihatlik, bolani to'g'ri tarbiyalashni nazorat qilib borish, oila tarbiyasining eng yaxshi namunalarini o'rganish va ommalashtirish.

Shu tariqa maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari va ota-onalar hamkorlikda uzluksiz ta'limning bosh bug'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining vazifalarini amalga oshiradi.

Ota-onalar burchagi va ko'rgazma tashkil etish bu hamkorlikni yanada mustahkamlashgayordam beradi.

Ota-onalar burchagi ularni tarbiyaga oid yangiliklar va pedagogik masalalar bilan tanishtirish maqsadida tashkil etiladi. Ularga kitoblar, jurnallar, rasmlar, bolalarning ishlari, bolalar ovqatining xillari, bolaning uyidagi kun tartibi, ota-onalar uchun eslatmalar, e'lonlar joylashtiriladi. Burchak vaqt-vaqti bilan tarbiya vazifasiga qarab o'zgartirib turiladi. Pedagogik bilimlarni targ'ib qilish tashkil etiladigan ko'rgazmalar ko'pincha ota-onalar konferensiyalari, majlislari, konsultatsiyalar oldidan tashkil etiladi. Unda xalq ta'limi to'g'risida qonun va qarorlar, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmoqlari va undagi tarbiyalanuvchilar sonining ortib borishiniko'rsatuvchi diagrammalar, bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari, bolalar hayotini aks ettiruvchi fotosuratlar, kitob va o'yinchoqlar, bolalarning ishlari o'rin oladi. Ota-onalar burchagi oila bilan olib boriladigan ishning ko'rgazmali usuli, uning did bilan bezatilishiga alohida e'tibor berilishi kerak. Bundan tashqari, ota-onalarga tarbiya to'g'risidagi filmlar namoyish etiladi, bular ko'pincha ota-onalarni qiziqtiradigan bahslar boshlanishiga sababchi boladi. Ota-onalar uchun ochiq kunlar tashkil etilishi ham maktabgacha ta'lim tashkilotlari ishida muhim o'rin egallaydi. Bunday kunlarda ota-onalarga bolalarning mashg'ulotlari, mehnat, o'yin faoliyatlari, sayrlar va bolalarning jamoada o'zlarini qanday tutishlari va shunga o'xshashlar ko'satiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" S. Sodiqova T: 2010 45-60 bet
2. Maktabgacha pedagogika Toshkent 2019 F. Qodirova 112-116 bet
3. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida qonun" T.: 2019. 18-22 bet
4. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti" T.: 2020 8-12 bet

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA ALOHIDA EHTIYOJGA EGA BO'LGAN
BOLALARNI TARBIYALASHDA HAMKORLIK MASALALARI**

Omonova Maktuba
Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va
psixologiyasi yo'nalishi talabasi,
Abdiyeva Fazilat Fayzulla qizi
Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va
psixologiyasi kafedra o'qituvchisi

Annatotsiya: Inklyuziv ta'lim - umumta'lim jarayonini rivojlantiradi va barcha bolalarga mos bo'lgan ta'limni joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim olishiga oid qo'shimcha moslamalarni tashkil qilib bolalarni ta'lim olishiga qulay sharoit yaratadi. Inklyuziv ta'lim xar xil ehtiyojli bolalarning ta'lim olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantirishga xarakat qiladi. Inklyuziv ta'lim turli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ixcham turdagi dars berishga yondashadigan ta'limni ishlab chiqishni amalga oshiradi. Agarda inklyuziv ta'limni tadbiq etishda dars berish, o'qitish bir muncha samarali va unumli bo'lsa unda nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar balki barcha bolalar yutadi. Inklyuziv ta'lim maktablari bolalarning bilim olish uchun shaxsiy huquqlarini himoyalaydi

Kalit so'zlar: inklyuziv, avlod, jamiyat, atrof-muhit, fan va texnologiya, ta'lim, shaxs, shaxs, bola

Mamlakatimizda bugungi kunda jismoniy yoki aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan 86 ta ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasasida 21 ming 363 bola ta'lim-tarbiya olmoqda. 13 ming 868 o'quvchiga esa uyda yakka tartibda ta'lim beriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida 5-6 yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablarida belgilangan ko'rsatkichlarga erishish 5-6 yoshdagi bolalarni maktabga to'la-to'kis tayyorlashga, maktabda beriladigan ta'limni mukammal o'zlashtirishga, mustaqil O'zbekistonning ravnaqi uchun xizmat qiladigan barkamol inson bo'lib yetishishlariga zamin hozirlaydi.

Maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalariga tayangan holda «Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi» fanining maqsadi talabalarni maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashning metod va usullari bilan tanishtirishdan iborat.

«Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi» fani quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- talabalar maktabgacha ta'limning maqsad va vazifalarini yaxshi bilishlari;
- bolalarning maktab ta'limiga umumiy va maxsus tayyorgarligi tushunchalarini bilishlari;
- bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashni aniqlash yo'llari va metod, usullari to'g'risida bilimga ega bo'lishlari lozim.

Bugungi kun talablari asosida inklyuziv ta'limni joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni loyihasiga inklyuziv ta'lim tushunchasi kiritildi. Bu borada Prezidentimizning 2018 yil 5-sentyabrda qabul qilingan "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori tizim rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hujjat asosida Xalq ta'limi vazirligi tomonidan rivojlanishida turli nuqsoni bo'lgan hamda davolanishga va sog'lomlashtirishga muhtoj bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta'minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta'lim-tarbiya olishiga xizmat qiladigan moslashuv muhitini yaratish bo'yicha alohida vazifalar belgilandi. Mazkur

belgilangan vazifalar ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida O'za muxbiriga Xalq ta'limi vazirligi Bolalarni ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Suxrob Xoliqov quyidagilarni so'zlab berdi.

"Inklyuziv ta'lim bo'yicha Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda 2014-2016 yillarda amalga oshirilgan loyiha doirasida Respublikaning 5 ta hududida tajriba-sinov maydonchalari tashkil etildi. 153 nafar tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya va 1350 nafar pedagog xodim inklyuziv ta'lim xizmatlariga o'qitildi. Ta'lim tizimiga inklyuziv amaliyotni tatbiq etish bo'yicha pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlarining o'quv rejalariga 3 ta o'qitish moduli kiritildi. 2000 dan ortiq imkoniyati cheklangan bolalar va ularning ota-onalariga inklyuziv ta'lim xizmatlari tashkil etildi.

Rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan hamda davolanish va sog'lomlashtirishga muhtoj bo'lgan bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta'minlovchi sa'y-harakatlar, korreksion va reabilitatsion ishlar natijasida oxirgi besh yilda 500 nafarga yaqin mana shunday o'quvchilarning umumiy o'rta ta'lim maktablariga qaytishi ta'minlandi. Hozirda 5900 dan ortiq umumiy o'rta ta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim bilan 64 ming 700 nafarga yaqin o'quvchilar qamrab olingan".

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni takomillashtirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini shakllantirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrda "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan 2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi.

Konsepsiyani amalga oshirish bo'yicha 2020-2021 yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. E'tiborli jihati shundaki, 2023-2025 yillarda inklyuziv ta'lim tizimi 51 foiz umumta'lim maktablarida joriy qilinishi belgilangan. Ushbu ta'lim shakliga 40 foiz imkoniyati cheklangan bolalar jalb qilinadi.

Integratsiyaning ikki turini ajratib ko'rsatish kerak: ta'lim va ijtimoiy. Ta'lim integratsiyasi - bu inklyuziya, ya'ni "inklyuziv ta'lim" bo'lib, nogiron bolani bitta maktabga kiritishni ta'minlaydi. Ta'lim muhiti normal rivojlanayotgan tengdoshlari bilan. Ijtimoiy integratsiya bolaning jamiyatga qo'shilishi, ya'ni uning ijtimoiylashuvini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy integratsiya rivojlanishda nuqsoni bo'lgan barcha bolalarga istisnosiz, buzilishning tabiati va tuzilishidan qat'i nazar, maxsus ta'lim ehtiyojlari, yoshi, shuningdek, ular o'qiyotgan muassasa turi. Birinchi marta integratsiyalashgan o'qitishning nazariy asoslari taniqli rus olimi L.S. Vygotskiy. Uning ta'kidlashicha, maktab-internatda o'qiyotgan bola normal rivojlanayotgan tengdoshlaridan, oiladan va umuman jamiyatdan ajralib turadi. L.S. Vygotskiyning ta'kidlashicha, maxsus maktabning devorlarini "buzish", maxsus bolaning madaniy va tarixiy rivojlanishini ta'minlash va uning jamiyatga "o'sishi" uchun sharoit yaratish kerak. Har bir mamlakat maxsus inklyuziv ta'limni amalga oshirish uchun amal qiladigan o'z siyosatiga ega bo'lishi kerak. Bu siyosat milliy ta'lim tizimining asosiy xususiyatlarini va eng muhim bo'lgan milliy maqsadlarni o'zida aks ettirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5198-son farmoni. 2017 yil 30 sentyabr

2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 23 sentyabr 2020 g. № ZRU-637 // Xalq so'zi. - 2020.

3.«Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»: O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 16 dekabr 2019 g. № ZRU-595.

4.International Standard Classification of Education (ISCED 2011) // General Conference 36th session. – Paris, 2011. – 89 p.

5.Enternet ma'lumotlari

**XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA TURKISTONDA TA'LIM JARAYONNI YUZAGA KELISHI
VA DARSLIKLAR**

Qurbonaliyeva Gulshanoy Xaydarali qizi
Qo'qon Universiteti Ta'lim fakulteti Maktabgacha
ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi,
VaziraAbdullayeva
Qo'qon nuniversiteti Ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda ta'lim jarayonini yuzaga kelishi hamda ta'lim jarayonidagi usullar va darsliklar yuzasidan so'z yuritiladi.

Kalitso'zlar: ta'lim jarayoni, ta'lim usullari, jadidchilik, usuli,jadid,yangi usul,o'qitish, darslik

Ko'p asrlik tariximizda XIX asr ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy hayotning ta'lim jarayoniga alohida ta'siri mavjudligini ko'ramiz. Ma'lumki, bu davrda O'rta Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy holat qoniqarli tusda emas edi. Bu jarayon albatta xalqning bilim olish va jahon sivilizatsiyasiga yuz tutishiga o'zining salby ta'sirini ko'rsatib ulgurgan edi.

O'rta Osiyoda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlariga kelib xalqning or-nomusi, aql-idroki, zakovat va matonatini ko'rsatib, xalqni bilim olishga undovchi ziyoli, vatanparvar shaxslar yuzaga kela boshladi. Bunday shaxslar jadid atamasi ostida maydonga keldilar.

Jadidlar harakat sifatida shakllanib bordi va ular xalqni bilimli bo'lishlari yo'lida bir qator amaliy ishlarni amalga oshirdilar. Jadidchilik harakatining tamal toshi jadid maktablaridir. Bu harakatning asl maqsadi millatning o'zligini tanitish, ijtimoiy-siyosiy tuzimni tubdan isloh qilish. Bu maqsadga erishish uchun yangi avlodni o'qitish masalalariga alohida e'tibor berish kerakligini ular tushunib yetgan edilar.

XVI asrdan boshlab Turkistonda gi vaziyat jahon taraqqiyotida butunla uzulib qolgan, buning ustiga mustamlaka tuzumi tufayli parokanda ahvolga tushgan, mahalliy maktablar va ta'lim-tarbiya tizimi bilan bu buyuk vazifani bajarish mumkin emas edi. Shuning uchun mahalliy maktablarni tubdan isloh qilish, zamon talablariga javob bera oladigan maktablar, oily o'quv yurtlari tashkil qilish jadid namoyandalarining birlamchi va asosiy vazifasiga aylandi. Ular "usuli jadid" maktablarini vujudga kelishi bilan an'anaviy o'qitish usullarini tubdan isloh qilish, o'qitishning yangi usullarini ishlab chiqish va shu usullar zaminida darsliklar, o'quv qo'llanmalarni yaratsih jadid pedagogikasining dolzarb masalasiga aylandi. Jadid pedagoglarining o'qitish metodlari sohasidagi faoliyatlari asosan, ularning darslik va o'quv qo'llanmalarida o'zifodasini topgan. O'qitishda ko'rgazmalilik, ifodali o'qish, uning turlari, ularda texnik vositalardan foydalanish, og'zaki va yozma nutq o'stirish usullari kabi ona tili va adabiyot o'qitishning muhim masalalari ishlab chiqildi.

Bu borada Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Saidrasul Saidaziziy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda kabi pedagoglar maktablar uchun o'quv qo'llanma va darsliklar yaratdilar.

Turkistonda yangi usuldagi maktablarni ochilishida Munavvarqori Abdurashidxonovning o'rni juda katta bo'lgan. U 1901 yilda Toshkentning Shayxovand Tahur, keyinchalik boshqa dahalarda ham birinchi yangicha maktablarni ochishga erishdi. Bu maktablar "usuli jadid" maktablari deb yuritila boshladi.

Munavvarqori Abdurashidxonov bunday maktablarga kundalik o'quv-tarbiyaviy ishlari uchun dastur va o'quv darsliklar yaratishishlariga bel bog'ladi. Munavvarqori Abdurshidxonov 1907 yilda yangi usuldagimaktablar uchun "Adibi avval" darsligini yaratadi. Mazkur darslik o'zbek tili va yozuvini deyarli ilk bor alifbolaridan bo'lib, bu darslik

maktabning boshlang'ich sinflariga tavsiya qilingan. Bu darslik Saidrasul Saidazizning "Ustodi avval" darsligi bilan bir xil vaqtda darslik sifatida chop etildi.

Munavvarqori Abdurshidxonovga o'lkada yangi usuldagi maktablarning tobora ko'payib borishi unga qanot yozishiga yanada kuch beradi. Munavvarqori Abdurshidxonov 1907 yilning oxirida ikkichi darsligi "Adibus-soniy" darsligini nashr qilishga erishadi.

Ta'lim jarayonidagi bu kabi o'zgarishlar xalqni be'tibor qoldirmadi. 1910-1911 yillarda yangi usuldagi maktablarni ochilishiga bir qator faollar o'z hissalarini qo'shdi. A'zamxon, Muslimxon (Munavvarorining akalari), Xasan qori Xoniy, Eshonxo'ja Xoniy, Nizomiddin Xesainov, Rustambek Yusufbekov, Sa'dulla qori Abdullayev va boshqa ko'pgina toshkentlik, qo'qonlik, namanganlik, farg'onalik domlalar A.Ibodov, A.Shukurov kabilarning asarlaridan foydalanila boshlandi. Ko'pgina maktablarda Munavvarqori Abdurshidxonovning 1-4 sinflar uchun tuzgan dasturi joriy qilingan edi. Dastlabki usuli jadid maktablarining 1-sinfida "Adibus-soniy", "Havoyiji diniy" hisob (yuzdan yuqori son va amalla to'grisida), 3-sinfda so'fi olloyorning kitoblari, o'qish va yozish darslari, Qur'on kitobi, "Havoyiji diniya(II qism)", "Tarizi anbiyo", Shapochnikov va Volsov qalamiga mansub "Arifmetika", "Nazihati atfol", "Tajbid", 4-sinfda "Qur'on", "Dahr-un -najat"(Munavvarqori Abdurshidxonov), R/Faxriddinovning "Nasihati", "Hisob masalasi", arab tili, "Dur-ul-shifoya", Abdushukurovning "For tili" kitoblari o'qitilgan. Maktabda ta'lim jarayonini isloh qilish maqsadida Munavvarqori Abdurshidxonov o'quv tizimini chuqur o'rgana boshladi. U darsliklar yaratish bilan kifoyalanib qolmadi. 1912 yilga kelib, o'quvchilarga xusnixat, jug'rofiya, islom tarixi, turk qavmlari tarizi fanlarini oshkoro o'qita boshladi, maktab ostonasiga qorovul qo'yib, ijtimoiy sohalardan saboq bera boshladi. U mahalliy o'qituvchilar orasida birinchi bo'lib, "Namuna" maktabini tashkil qiladi hamda rus tilini o'qitish masalasini hukumat oldiga ko'ndalang qo'yadi.

Maktablar ta'lim jarayoni tashkil qilishda Abdulla Avloniyning ham samarali faoliyatini ham ko'rishimiz mumkin. Jadidchilik harakatining rahbarlaridan biri bo'lgan Abdulla Avloniy ham 1904 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida yangi yo'nalishdagi jadid maktabini ochdi, o'zi unga mudirlik va o'qituvchilik qiladi.

1909 yilda kambag'al, yetim-yesirlarga ko'mak beruvchi "Jamiyati xayriya" deb nomlangan uyushma tashkil etdi. Uning "Birinchi muallim" (1909), "Ikkinchi muallim" (1912) nomli darsliklar hamda "Turkiy Guliston yohud axloq" (1913) nomli qo'llanmasi o'z davrida yoshlarni yangicha yo'nalishda o'qitishda va an'anaviy milliy ruh asosida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo'ldi. U yaratgan besh to'plamdan iborat "Adabiyot yohud milliy she'rlar" (1909-1916) maktablarda qo'llanma vazifasini o'tadi. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yohud axloq" nomli 1913 yilda yozilgan asari XX asr boshlaridagi o'zbek pedagogikasi tarixida o'ziga xos o'ringa ega. Asarning tub mohiyati yoshlarni ma'rifatga chorlash, sharqona ko'p asrlik milliy an'alarimiz ruhidagi tarbiya ishining yo'l-yo'riqlarini tashkil etish, ayni vaqtda, ta'lim-tarbiya sohasida yangi asrning ilg'or talablarini qo'yish, axloq muammolarining shaxs komoloti va jamiyat ravnaqidagi o'rnini yoritishni tashkil etiladi. Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yohud axloq" asarida yaxshi xulq va yomon xulq, ruh, fikr, axloq, uy va maktab tarbiyalari haqida mulohaza yuritarkan ekan, ularning har biridagi o'ziga xos tomonlarini ochib berishga harakat qiladi. Asrdagi barcha naql-hikoyatlar g'oyasidagi kelib chiqadigan badiiy mantiq shuki, insonni barkamol etish va millatni ravnaq toptirishning asosiy yo'li har bir shaxsning yuksak axloqli va ma'naviy go'zal, ilimli va ma'rifatli bo'lishiga erishishdan hamda butun kuch-quvvat, aql-zakovat, barchasini vatan ravnaqi va xalq saodatiga yo'naltirishdan iboratdir.

Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yohud axloq" asari haqida "Men bu asar nochizonimni birinchi maktablarimizda yuqori sinflarida ta'lim bermak va barobar ulug' adabiyot muhoblari, axloq havaskorlarining anzori oliylariga taqdim qildim" deya izoh qoldiradi. Mazkur asar darslik sifatida o'qitila boshlangan. Darslikni boshlanishida Abdulla Avloniy

tomonidan xalqni ilmli, ma'rifatli qilish borasidan qayg'urib yozgan she'r bilan boshlanganini ko'ramiz. Bu she'riy parcha Abdulla Avloniyning butun hayotini, faoliyatini aks ettirgan deyish mumkin.

Har kun o'luram shong'acha men g'amga giriftor,
Har shab yonaram otasha parvona kabi zor,
Yech kimsa emas bu meni ahvolma voqif,
Men xastayamu millatim o'lmisham nega bemor.

Darhaqiqat, jadid pedagogikasini kuzatar ekanmiz, bevosita yoshlar tarbiyasini hayot va mamot masalasi darajasida qaralishi hozirgi ijtimoiy - siyosiy hayotimizdagi ajib bir o'xshahslik va yaqinlikni his etish mumkin.

Ma'lumki, jamiyatda ta'lim jarayoniga berilayotgan e'tibor har bir davlatning rivojlanish pog'onasini ko'rsatib beruvchi omil sanaladi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni ijrosi asosida ta'lim jarayonini sifatini yangi bosqichga olib chiqish va interfaol ta'lim texnologiyalarini kiritishga lohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturini amliyotda qo'llash o'ta muhimligi va maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimi asosida izchil ishlar amalga oshirilmogda.

Yuqoridagi qarorlar va dasturlarni amaliyotida maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'lim olishida, ularning dunyoqarashini rivojlanishiga duyoni tanib borishdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda umumta'lim maktablarining ahamiyati g'oyatda muhim ekanligini alohida e'tirof etish o'ta muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.B.Qosimov,O'son millat. Sharq,1993 yil
- 2.B.Qosimov,Milliy Uyg'onish.T.Ma'naviyat, 2002 yil
- 3.U.Dolimov,Tyrkistonda jadid maktablari,T,Universitet,2006 yil
- 4.S.Karimov.Munavvarqori Abdurashidxonov, T.Ma'naviyat, 2003 yil
- 5.A.Avliniy.Turkiy Guliston yoxud axloq, Toshkent. 1917 yil

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI INKLYUZIV TA'LIMGA JALB ETISH

Matmusaeva Nigora Usmonalievna
Qo'qon Universiteti Maxsus sirtqi talabasi,
Raximova Xurshidaxon Sadikovna
Qo'qon Universiteti Ta'lim kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish yo'llari. Inklyuziv ta'limning mazmun, mohiyati hamda integratsiyalashgan ta'limga imkoniyati cheklangan bolalarni yo'naltirish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, yashash huquqi, korreksion sharoit, imkoniyati cheklangan, nuqson, kompleks, pedagogik-psixologik, inklyuziv ta'lim

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, sayyoramiz aholisining 15 foizi (bir milliarddan ortiqroq inson) nogironlikning u yoki bu turidan aziyat chekadi. 60 yoshdan oshganlarning 46 foizini nogironligi bo'lgan shaxslar tashkil qiladi. Yer yuzidagi nogironligi bor insonlarning 10 foizi esa bolalardir. Ularning hayot tarzini yaxshilashga dunyo miqyosida e'tibor qaratish maqsadida BMT tomonidan 1983-1992 yillar Xalqaro nogironlar o'n yilligi deb belgilangan edi. Mazkur o'n yillik yakunida (1992 yilning 14 oktyabr kuni) BMT Bosh Assambleyasining 37-yalpi majlisida qabul qilingan rezolyusiyaga muvofiq, 3 dekabr Xalqaro nogironlar kuni deb e'lon qilingan. Mazkur xalqaro hujjatga muvofiq, BMTga a'zo barcha mamlakatlarga, shuningdek, tegishli tashkilotlarga nogironligi bo'lgan shaxslarning to'laqonli hayot kechirishi, ta'lim olishi, salomatligini tiklashi va mehnat qilishi uchun muntazam tarzda zarur shart-sharoitlar yaratib berish, mazkur kunning keng miqyosda nishonlash tavsiya etilgan. Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish esa hozirgi kunda davlat siyosati darasiga ko'tarilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida "Imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish, mazkur toifa bolalarni har tomonlama kompleks rivojlantirishning innovatsion va axborot-kommunikasion texnologiyalarini amaliyotga joriy etish" ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Natijada, mamlakatimizda sog'lom bolalar kabi kar va zaif eshituvchi bolalarni har tomonlama sifatli ta'lim bilan ta'minlash, mexanizmlarini yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Inklyuziv ta'lim bu barcha o'quvchilar, shu jumladan imkoniyati cheklanganlar ham o'z tumanlaridagi umumta'lim maktablarida oddiy sinflarda, yoshlariga muvofiq bilim olish uchun kerak bo'lgan yordamni olganlari va maktab hayotidagi barcha jabhalarda ishtirok etishlari hamda o'zhissalarini qo'shishlarini anglatadi. Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilarga – ta'limda asosiy ehtiyojga muhtoj bo'lgan va bo'lmaganlarga ham ijobiy tarzda tarbiyaviy va ijtimoiy ta'sir qiladi[1].

Barcha imkoniyati cheklangan bolalarni hayotni yaxshi boshlashi va inklyuziv ta'lim muhitida qo'llab-quvvatlanib va yordam olib hayot kechirishi.

Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy qilishda va maqsad-vazifalari, ta'limni tashkil etish usullarini ommaga tushuntirishda hali qator muammolar, tusiqlar ham mavjud.

Inklyuziv ta'lim umumta'lim jarayonini rivojlantiradi va barcha bolalarga mos bo'lgan ta'limni joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim olishiga oid qo'shimcha moslamalarni tashkil qilib bolalarni ta'lim olishiga qulay sharoit yaratadi.

Inklyuziv ta'lim xarxil ehtiyojli bolalarning ta'lim olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantirishga xarakat qiladi. Inklyuziv ta'lim turli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ixcham turdagi dars berishga yondashadigan ta'limni ishlab chiqishni amalga oshiradi. Agarda

inklyuziv ta'limni tadbiiq etishda dars berish, o'qitish bir muncha samarali va unumli bo'lsa unda nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar balki barcha bolalar yutadi. Inklyuziv ta'lim maktablari bolalarning bilim olish uchun shaxsiy huquqlarini himoyalaydi (vaxolangki ular uqitilmasaham). Bunday yondashuv diskriminatsiyani bartaraf etadi, kamaytiradi chunki bolalar bir-birlari bilan muloqot qilish jarayonida uzlarining o'qitilish jarayonida turli extiyojlarga ega individum ekanliklarini anglyadilar[2].

Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta'lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik - pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yunaltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruxiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;
- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik xuquqini kafolatlash;
- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning extiyojlarini qondirish, ijtimoiy xayotga erta moslashtirish;
- imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarni oilalardan ajramagan xolda yashash xuquqini ruyobga chiqarish;
- jamiyatda imkoniyatti cheklangan bolalar va usmirlarga nisbatan dustona va mexr-muxabbatli munosabatni shakllantirishdir.

O'zbekistonning integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim sohasidagi siyosati yosh fuqarolarning ta'lim olishlari uchun optimal sharoitlar yaratilishiga qaratiladi va quyidagi maqsadlar bajarilishiga yo'naltiriladi:

- bolaning o'ziga xos ta'limga ehtiyojlarini mumkin qadar erta (hayotining dastlabki oylaridan) aniqlash;
- o'ziga xos ta'lim ehtiyojlari mavjud bolalarning barchasini ta'limga jalb etish;
- imkoniyatlari cheklangan bolalarni sog'lom tengdoshlari qatoriga integratsiyalash uchun sharoitlar yaratish;
- imkoniyatlari cheklangan shaxslarning o'ziga xos ta'lim ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- inklyuziv ta'lim muhitida ishlayotgan pedagoglarga malakali uslubiy yordam ko'rsatish va rag'batlantirish;
- uyg'un rivojlangan avlodni tarbiyalashga qaratilgan davlat siyosatini ta'lim vositalari yordamida qo'llab-quvvatlash;

Mazkur maqsadlarga erishish, quyidagi vazifalar majmuasining amalga oshirilishini taqozo etadi:

- imkoniyatlari cheklangan bolalarning ehtiyojlaridan kelib chiqib, maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim mazmunini ilmiy-uslubiy jihatdan ishlab chiqish;
- maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'limni uning barcha pog'onalarida tashkil etish, boshqarish va muvofiqlashtirish prinsiplari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'limning huquqiy asoslarini takomillashtirish, uning me'yoriy huquqiy jihatdan ta'minotini ta'lim siyosatining maqsad va vazifalariga moslashtirish;
- bolalarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda sifatli ta'lim olishda teng imkoniyatlarga ega bo'lishning davlat tomonidan kafolatining amalga oshirilishini ta'minlaydigan tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini yaratish;
- maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim muassasalari uchun pedagogik kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish ishlarini takomillashtirish;
- maxsus integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim muammolarini ilmiy-nazariy va ilmiy-uslubiy nuqtai nazardan ishlab chiqilishini ta'minlaydigan ilmiy-pedagogik kadrlarning kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirish;

- O'zbekistonning bu faoliyatga davlat, jamoatchilik tashkilotlari, ota-onalarni keng jalb qilishga qaratilgan ta'lim siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishning davlat-jamoatchilik mexanizmlarini rivojlantirish;

- mintaqalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim holati va rivojlanish tendensiyalarini monitoring qilish tizimini yaratish;

- integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'lim sohasida o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar, jamoa tashkilotlari xodimlari uchun o'quv metodik majmualar va ommabop adabiyotlarni yaratish;

Imkoniyatlari cheklangan bolalarning, hoh u maxsus maktab, maktabgacha muassasalar bo'lsin, hoh umumta'lim muassasalari qoshidagi sinf yoki guruhlar bo'lsin, hoh uyda ta'lim olish bo'lsin – o'qitishning barcha shakllari-ta'lim sohasiga jalb qilinishi ma'lum jihatdan integratsiya jarayoni hisoblanadi, chunki o'qish davrida va undan keyin ham bu bolalar boshqa bolalar, shu jumladan umumta'lim muassasalarda ta'lim olayotgan bolalar bilan o'zaro muloqotda bo'ladilar, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga uyg'unlashuvi ta'minlanadi. Biroq, ta'lim olish uchun mos shart-sharoitlarni tanlash har bir bolaning va ota-onasining huquqi hisoblanadi. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya mutaxassislari zimmasiga bolaning ruhiy-jismoniy holatini o'rganish va tashxis qilish vazifasi yuklangan bo'lib, bolani har tomonlama tekshirish natijasida bolalarni o'qitish va ularga mos keladigan ta'lim sharoitini aniqlashga doir tavsiyalar beriladi. Shunday qilib, o'ziga xos ehtiyojlari bo'lgan bolaning umumta'lim sohasiga samarali jalb qilinishi uchun quyidagilar zarur:

- bolaning rivojlanishida ijobiy natijalarga erishishga imkon beradigan korreksion tadbirlarni erta yoshdan boshlash

- umumiy ta'limga jalb qilingan har bir bola uchun tibbiy-psixologik-pedagogik kuzatuvni, ya'ni mutaxassislarning doimiy yordamini tashkil etish;

- ruhiy-jismoniy rivojlanishi va ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, imkoniyatlari cheklangan har bir bolaning sog'lom bolalar bilan birgalikda tarbiya va ta'lim olishining zarur shakllarini tanlashni ta'minlash[1];

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bolaning ta'lim tizimiga jalb qilinishining biror ko'rinishi u uchun oddiy va foydali bo'lishi darkor, ayni paytda bu inklyuziv ta'lim maromida rivojlanayotgan tengdoshlarining sifatli ta'lim olishiga halaqit bermasligi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R. Sh. Shomaxmudova. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma. Toshkent-2011 yil.

2. L.R.Muminova. Inklyuziv ta'lim. Toshkent- 2014 yil.

3. «Inklyuziv ta'lim» muvaqqat Nizomi. 2005 yil.

4. "Дакарскийе рамки действий"- ЮНЕСКО-2000 йил. Францияда chop etilgan. Кислицина И.К. «Инклюзивное образование-образование для всех»(основные понятия и краткий обзор международного опыта) создано при поддержке Европейского Союза. Ташкент, 2004

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR LUG'ATINI BOYITISH, ULARDA TO'G'RI TALAFFUZ
VA BOG'LANISHLI NUTQNI TAKOMILLASHTIRISH METODLARI**

**Rayimova Moxichexra Lutfullo qizi,
Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
MS 1-21-guruh talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning lug'atlarini metodlari haqida boyitish haqida muhokama qilingan. Ayniqsa, bolalarda nutqini o'stirish, ularda to'g'ri talaffuz va bog'lanishli nutqni takomillashtirish metodlaridaga alohida e'tibor berilib, yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: tevarak-atrof, lug'at, jonli tabiat hodisalari, lug'at ishlarining mohiyati, bolalar lug'atini boyitish, bolalar lug'atini folklor elementlari, ona qizim.

Tevarak-atrof bilan tanishtirishning ahamiyati, bolalar tomonidan lug'atni o'zlashtirish xususiyatlari. Tevarak-atrof bilan tanishtirish va lug'at ustida ishlash maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarining oldiga qo'yilgan eng muhim vazifalardan biridir. Maktabgacha tarbiya yoshi bolalarning voqelikni faol idrok qiladigan va tevarak-atrofdagi hayotga kirishib ketadigan bir davrdirki, bu davrda ularning so'z boyligi juda tez o'sib boradi. Tarbiyachi bolalarni tevarak-atrof bilan (narsalar, jonli tabiat hodisalari, ijtimoiy hayot hodisalari) tanishtirar, ularning bilish faoliyatini yo'lga qo'yar va boshqarar ekan, har bir bolaga uning to'plagan tajribasini tartibga solishda yordamlashadi, unga yangi bilimlar beradi, unda qiziquvchanlik va kuzatuvchanlik qobilyatlarini tarbiyalaydi, o'zini qurshab turgan olamni bilishga bo'lgan qiziqishini o'stiradi. Bola nutqining taraqqiyoti uning atrofidagi odamlar nutqiga, tevarak-atrofdagi narsa-buyumlarni, ijtimoiy hayot hodisalarini kuzatishiga bog'liq bo'ladi. Yuqoridagi fikrlardan bizga ma'lumki (ilk yoshdagi bolalar nutqining rivojlanish xususiyatlari mavzusida bayon etilgan fikrlar), yangi tug'ilgan chaqaloqlar yig'lash orqali tashqi va ichki muhitdan keladigan signallarga (ochlik, tashnalik, sovuq, biror joyning og'risi yoki issiqlash va hokazolarga) javob beradi. Bola 2-3 oylik bo'lganda katta kishilarning gaplariga, tevarak-atrofdagi g'ala-g'ovurlarga diqqat bilan quloq soladi, rangli narsalarga qaraydi va ularga nisbatan tovush chiqara boshlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasidagi lug'at ishlarining mohiyati – bu til leksikasi sohasida bolalarning ularga tanish yoki notanish bo'lgan, ammo ular uchun qiyin hisoblangan so'zlarning o'zlashtirishlariga, nutq madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya ishlarini bir tizimga keltirishdan iboratdir. Bolalarni ular o'z amaliyotida qiyinchilik bilan o'zlashtiradigan, to'satdan yoki umuman tanimaydigan, buzilgan shaklda talaffuz qiladigan so'zlar bilan qurollantirish ancha pedagogik sa'y-harakatlarni talab qiladi. Psixologiya, lingvistik, fiziologiyaga oid ma'lumotlar turli yosh bosqichlaridagi bolalar uchun ana shunday so'zlar doirasini aniqlashga yordam beradi. Bolalar lug'atini boyitish bir vaqtning o'zida ularni atrofdagi borliq olam bilan tanishtirish bilan birgalikda olib boriladi. Tarbiyachi bolaga bir so'zni ma'lum qilish va uning ma'nosini ochib berish bilan bir vaqtda uni nomi aytilayotgan narsa yoki hodisaga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rgatadi.

Lug'at ishlarini o'tkazishda tarbiyachi bolaning umumiy nutq madaniyatiga ta'sir qiladi, unga umumiy ravishda qabul qilingan adabiy so'zlar va ifodalarni ma'lum qiladi, ularni to'g'ri tovush va grammatik shaklda ifoda qiladi, bunda u bolalarda uchraydigan sheva leksikasini bartaraf qiladi (ta'qiqalaydi), ularni adabiy me'yorlar bilan almashtiradi.

Bolalar lug'atini folklor elementlari (qo'zim, toychog'im, ona qizim) bilan ham boyitish darkor, chunki ma'lum xollarda (qayta hikoya qilish mashg'ulotlari, ertak to'qish, sahnalashtirish, o'yinlar va boshq.) ular bolalar nutqiga kiritish uchun ataylab taklif qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Goziyev, E. (2010). *Umumiy psixologiya*. Yangi asr avlodi.
2. Davletshin, M. (2002). *Umumiy psixologiya*. TDPU
3. Z. Nishanova, G. Alimova (2006). *Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi*.
4. Jennifer Paris, Antoinette Ricardo, & Dawn Rymond (2019). *Child growth and development*
5. S.h. Jalilova, S.M. Aripova (2013). *Maktab yoshdagi bolalar psixologiyasi*

GO'DAKLIK DAVRINING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Rayimova Moxichexra Lutfullo qizi
Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
MS 1-21-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari muhokama qilingan. Ayniqsa go'daklik davrida bolalarda paydo bo'ladigan oliy psixik funksiyalarning paydo bo'lish xususiyatlari keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: go'daklik, ilk bolalik, maktabgacha yosh davri, tafakkur, xissiyot, idrok, iroda, intellekt.

Ilk bolalik va maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini ilmiy, nazariy jihatlarini o'rganish oliy pedagogic ta'limda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan ta'kidlash lozimki, jamiyat - bu insonlar, shu jumladan bolalar muammosi majmuidir. Demokratik jamiyatning rivojlanishi va ma'naviy salohiyati ko'p jixatdan ana shu bolalarga beriladigan psixologik, tarbiyaviy ta'lim mazmuniga bog'liq. Har bir bola jamiyatda yashar ekan, u unda o'ziga xos o'rin va mustaqil mavqe egallashga intiladi, shuning uchun u o'ziga xos intilish, layoqat va faollik, intellektual mehnat namunalari namoyish etadi. Bolalar o'rtasidaga o'zaro munosabatlarni hamda har bir shaxsning jamiyatdaga o'rni va uning turlicha ijtimoiy munosabatlari tabiatini o'rganuvchi qator pedagogik fanlar mavjud bo'lib, ularning orasida psixologiya alohida o'rin egallaydi.

Psixologiya fanida yosh davrlarini tabaqalash bo'yicha turlicha usullar mavjuddir. Bu inson shaxsini tadqiq qilishga turli nuqtai-nazardan yondashuvi va mazkur muammoning mohiyatini turlicha yoritadi.

Shveysariyalik psixolog J. Piajening aql-idrok nazariyasi, aql-idrok funksiyalari hamda uning davrlari haqidagi ta'limotni o'z ichiga oladi. Aql-idrokning asosiy vazifalari, moslashish va ko'nikishdan iborat bo'lib, bu uning doimiy vazifalar turkumini tashkil etadi. Muallif, bola aql-idrokini quyidagi psixik rivojlanish davrlariga tasniflaydi:

1. sensomotor intellekti-tug'ilgandan 2 yoshgacha;
2. operasiyagacha tafakkur-davri - 2 yoshdan 7 yoshgacha; 3. aniq operasiyalar davri-7,8 yoshdan 11, 12 yoshgacha;
4. rasmiy operasiyalar davri.

Fransuz psixologi A. Vallon esa yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi:

- 1) homilaning ona qornidagi davri;
- 2) impulsiv harakat davri - tug'ilgandan 6 oylikkacha;
- 3) his-tuyg'u davri (emosional) - b oylikdan 1 yoshgacha;
- 4) sensomogor (idrok bilan harakatning uyg'unlashuvi) davri 1 yoshdan 3 yoshgacha;
- 5) personologizm (shaxsga aylanish) davri - 3 yoshdan - 5 yoshgacha; 19
- 6) farqlash davri - 6 yoshdan - 11 yoshgacha;
- 7) jinsiy yetilish va o'spirinlik davri - 12 yoshdan -18 yoshgacha.

L.S. Vigotskiy psixologlarning yosh davrlarini tabaqalash nazariyalarini tanqidiy tahlil qilib, muayyan rivojlanishni vujudga keltiruvchi ruhiy yangilanishlarga tayanib, yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi;

1. Chaqaloqlik davri inqirozm.
2. Go'daklik davri - 2 oylikdan 1 yoshgacha, bir yoshdagi inqiroz.
3. Ilx bolalik davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha - 3 yoshdagi inqiroz.
4. Maktabgacha davr - 3 yoshdan 7 yoshgacha - 7 yoshdagi inqiroz.
5. Maktab yoshi davri - 8 yoshdan 12 yoshgacha - 13 yoshdagi inqiroz.

6. Puberdat (jinsiy yetilish) davri - 14 yoshdan 18 yoshgacha, yoshdagi inqiroz.

L.S.Vigotskiy o'zining yosh davrlarini tabaqalash nazariyasini ilmiy asoslab, ta'riflab bera olgan. Olim eng muhim psixik yangilanishlar haqida ilmiy va amaliy ahamiyatga molik mulohazalar bildirgan. Biroq, bu mulohazalarda ancha munozarali, bahodi o'rinlar ham mavjud. Umuman L.S. Vigotskiyning yosh davrlarini tabaqalash nazariyasi ilmiy tarixiy ahamiyatiga ega, uning rivojlanishni amalga oshiruvchi inqirozlar to'g'risidagi mulohazali va olga surgan g'oyalari hozirgi kunning talablariga mosdir.

Go'daklik davri bolaning tug'ilganidan bir yoshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, bu davrda bola tashqi muhitga moslashishi uchun ma'lum darajada yetilgan nerv tizimi bilan tug'iladi. Go'daklik davri inson hayotidagi organik ehtiyojlarni

(kislородga, ovqatga, issiq yoki sovuqqa) qondirishga nisbatan yo'naltirilgan xatti harakatlarning tug'ma, instinktiv shakllari sof holda kuzatiladigan yagona davr hisoblanadi. Insonga xos bo'lgan xatti-harakatlar, yangi tajribalarni egallash uchun beqiyos imkoniyatlarning borligi go'daklik yoshidagi bolalarning asosiy xususiyatlaridir. Agar organik ehtiyojlar yetarli darajada qondirib borilsa, ular o'zlarining asosiy bo'lish ahamiyatini yo'qotadi: to'g'ri Tashqil etilgan kun tartibi, rejim va tarbiya natajasida bola psixik rivojlanishi uchun asos bo'ladigan taassurotlarga, harakatta, muloqotga nisbatan yangi turdagi ehtiyojlar turkumi yuzaga

keladi. Bola tug'ilishning birinchi haftasidanoq uning ko'rish va eshitish sezgilari jadal suratda rivojlanadi. Bola harakatlanayotgan narsani kuzata boshlaydi. U turli ovozlarga, jumladan, kattalarning tovushlariga e'tibor bera boshlaydi, Yangi tug'ilgan chaqaloqning miya og'irligi kattalar miyasining j qismiga to'g'ri keladi, nerv hujayralarning soni esa xuddi kattalarniki kabi bo'lib, lekin ular yetarli darajada rivojlanmagan bo'ladi.

Ilk go'daklik davri - bu bolaning himoyasiz, kam harakat, harakat holatidan juda jadal ravishda rivojlanadigan, quvnoq bolaga aylanish davridir. U qisqa vaqt ichida kattalar bilan munosabat o'rnatadi, predmetlarni ushlab va ulardan foydalanishga o'rganadi. U atrof olamdagi narsalarni kuzatadi, predmetlarni qo'li bilan ushlab, o'larni qandayligini bilishga intiladi, tovushlarga e'tibor beradi va predmetlar yordamida shu tovushlarni o'zi yaratishga harakat qiladi. U o'z onasi va boshqa yaqinlari bilan emosional munosabatga qirishadi. Go'dak yoshidagi bola ham jismonan, ham psixik, ham ijtimoiy jihatdan juda tez rivojlanadi. Juda qisqa vaqt ichida atrofidagi hodisalarga juda kam reaksiyasi bo'lgan boladan, faol, tez ilgaydigan, harakatchan yordamga chaqira oladigan, kattalarning yaqin kelishidan quvonadigan bolaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Goziyev, E. (2010). *Umumiy psixologiya*. Yangi asr avlodi.
- 2.Davletshin, M. (2002). *Umumiy psixologiya*. TDPU
- 3.Z. Nishanova, G. Alimova (2006). *Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi*.
- 4.Jennifer Paris, Antoinette Ricardo, & Dawn Rymond (2019). *Child growth and development*
- 5.S.h. Jalilova, S.M. Aripova (2013). *Maktab yoshdagi bolalar psixologiyasi*

KATTA VA TAYYORLOV YOSHDAGI BOLALARNING BILISH JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISH

**Sharapova Soxiba
TDPI o'qituvchi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish qobiliyatlarining yoshga oid rivojlanish xususiyatlari, bolalarda idrok rivojlanishida muhim yutuqlarga ega bo'lishi, hamda bolalarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirishda turli o'yin usullaridan foydalanish masalalari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yosh, bilish jarayonlari, qobiliyat, o'yin, psixik rivojlanish, xulq-atvor, aqliy taraqqiyot, faoliyatlar, maktabgacha ta'lim.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini sifatida oldiga g'oyat dolzarb vazifalar belgilandi. Xususan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish masalalari shular jumlasidandir.

Jamiyatning hozirgi taraqqiyoti inson faoliyatining ma'naviy va moddiy sohalarida katta o'zgarishlar qilishni taqozo etmoqda. Bu shaxs omili, uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati rolining ahamiyati ortib borayotganligi bilan belgilanadi. Zero, shaxs intellektual qobiliyatini rivojlantirmay, uni ma'naviy-axloqiy tarbiyalamay, shuningdek, imkoniyatlarining yangi qirralarini to'la ro'yobga chiqarmay turib ijtimoiy taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Jamiyat tomonidan shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoit yaratilar ekan, o'z navbatida shaxs qobiliyati, imkoniyatlari ana shu jamiyatning ham ijtimoiy, ham iqtisodiy, ham madaniy jihatdan rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Ayni vaqtda shaxs qobiliyati, imkoniyatlarini rivojlantirish va uni yagona ijtimoiy maqsadga yo'naltirish o'ziga xos dolzarblik kasb etmoqda.

6-yoshli bola shaxsi shakllanishining dastlabki bosqichi. Dastlab bola butunlay kattalarga bog'liq bo'ladi. Tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlar ko'p jihatdan kattalarning bola bilan o'zaro munosabati xususiyatiga bog'liq. Kattalarga ergashib bolalar o'zini ismi bilan atay boshlaydilar. Ikkinchi yil oxiriga kelib o'zini ismi bilan chaqirish «men» kishilik olmoshi bilan almashinadi. «Men» tizimi – erta bolalikda paydo bo'luvchi markaziy hodisadir. Bola o'zini kattalardan ajratishni o'rganadi, o'ziga nisbatan mustaqil «men» sifatida munosabatda bo'la boshlaydi, ya'ni unda o'zini anglashning boshlang'ich shakli paydo bo'ladi.

Rivojlanishdagi muvaffaqiyatlar bola xulq-atvorini o'ziga xos tarzda o'zgartiradi. Kattalar avvalgidek etakchi o'rin tutsada, bola o'z amaliy hayotining tor muhiti va u qadar katta bo'lmagan imkoniyatlari doirasida kattalar yordamisiz harakat qilishga intiladi. Yangi tendensiyalar bola faolligini («men o'zim») kuchaytiradi va kattalar bilan yangi munosabatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Maktabgacha yoshda sensor idrok, ayniqsa, ko'rish va eshitish orqali qabul qilish sezilarli rivojlanadi. Bola ongli ravishda rasm chizadi va musiqiy faoliyatda ishtirok eta boshlaydi. U unga qanday sur'at yoki musiqa yoqishini, qaysilari yoqmasligini aytishi mumkin. Biroq u hali musiqani to'liq va differensiyalangan holda qabul qilmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bola rivojlanishida bu yoshning asosiy faoliyat turi bo'lib hisoblangan o'yin juda muhim ahamiyatga ega. O'yin o'zining barcha tur va ko'rinishlarida (syujetli, rolli, qoidali, nutqiy, badiiy, musiqiy va boshqalar) bolaning jismoniy, eshitish, aqliy, estetik rivojlanishiga faol yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishi

ijtimoiy vaziyati xususiyatlari unga xos bo'lgan faoliyat turlari, ayniqsa, syujetli-rolli o'yinlarda aks etadi. Zarur bilim va qobiliyatlarsiz kattalar dunyosiga yaqinlashishga urinish bolani uning uchun imkoni bo'lgan o'yin shakliga olib keladi. Bola rivojlanishi uchun maktabgacha muassasalar tizimi, ayniqsa, bog'cha yaxshi sharoit yaratadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, psixik rivojlanish va maktabda o'qishga tayyorgarlik darajasi bolalar bog'chasida tarbiyalangan bolalarda bog'chaga bormaydigan bolalarga nisbatan yuqori.

O'quv faoliyatining mazmunini ilmiy tushunchalar, fan qonuniyatlari va ularga tayangan amaliy masalalarni hal etish uslubi tashkil etadi. Shunday qilib o'qish – bu bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishga yo'naltirilgan jarayon.

O'quv faoliyati aniq bir tuzilishga ega. Uning tarkibiy qismlari quyidagilar: 1) o'qish vaziyati (yoki vazifalari), 2) o'qish harakati, 3) nazorat, 4) baho.

Katta maktabgacha yosh davomida bolalarning o'qishga munosabatida muayyan dinamika kuzatiladi. Dastlab ular o'qishga umumiy holda ijtimoiy faoliyat sifatida intilishadi. Keyin esa ularni o'quv ishining alohida usullari jalb etadi. Nihoyat, bola o'quv faoliyatining ichki mazmuniga qiziqib, o'quv-nazariy vazifalarni aniq-amaliy vazifalarga mustaqil o'zgartiradi. Uning shakllanish qonuniyatlarini tadqiq etish zamonaviy bolalar va pedagogika psixologiyasi vazifalaridan biridir.

Olti yoshli bola asosan tashqi tomondan yorqin va emotsional jihatdan ta'sirli voqea, tasvir, hikoyalarni eslab qoladi. Lekin maktab hayoti shundayki, boshidanoq bolalardan materialni ixtiyoriy eslab qolish talab etiladi. O'quvchilar kun tartibi, axloq qoidalari, uy vazifalarini maxsus eslab qolishlari, keyin esa ularga rioya etishlari lozim. O'quv materialini eslab qolish alohida bilimni talab etadi. Usiz o'quv xotirasi zaif va tartibsizligicha qolaveradi. Bola maxsus aniqlash, guruhlash va taqqoslashni talab etuvchi narsani bevosita eslab qolishga harakat qilayotganida bu «yomon xotira» pand beradi. O'quv materiali bilan ishlash usullarining shakllanishi «yaxshi xotira»ni yanada samaraliroq tarbiyalash yo'li sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda nutq ustida ishlash kabi xotiraning ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlaridan oqilona foydalanish lozim. Tasavvur qobiliyatining rivojlanishi ikki bosqichda kechadi. Dastlab yaratiluvchi obrazlar real ob'ektga yaqin tavsiflanadi (detallarga boy bo'lmagan holda). 6-yoshli bola oxiri, keyin esa 7-yoshda ikkinchi bosqich boshlanadi. Avvalo, alomatlar va tarkibiy qismlar miqdori sezi-larli tarzda oshadi.

Yaratuvchi (reproduktiv) tasavvur 6- yoshlilarda barcha faoliyatlarida rivojlanadi. Tayyorlov guruh bolalarining biror predmetning kelib chiqishi va qurilishi shart-sharoitini ko'rsatishga harakat qilishi - ularda ijodiy (produktiv) tasavvur rivojlanishida muhim psixologik asosdir. 6 yoshdagi bolalarning o'z xatti-xarakterlarini ma'lum vazifalarni ado etishga buysundira olishlari, tobora kuchayib borayotgan qiziqish va erishgan aqliy taraqqiyot darajalari ularni ma'lum ta'limiy dastur asosida tarbiyalash imkonini beradi. Maktabgacha ta'limda to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiyaviy ishlar bolalarda mehnat faoliyatining dastlabki belgilari xamda bilimga qiziqishni tarkib toptiradi.

Maktabgacha ta'lim xayotining ko'p qirrali va sermazmunligi 6 yoshli bolalar bilish faoliyatlarining kengayishiga hamda chuqurlashishiga yordam beradi. Bu esa asosiy bilish jarayonlari bo'lgan idrok, tasavvur, xotira va tafakkur kabi jarayonlarning xarakterini o'zgartirib yuboradi. Maktabgacha ta'limgacha tarbiya yoshidagi bolalarda bu jarayonlar ularning o'yin yoki biron amaliy faoliyatlari bilan birga namoyon bo'ladi. Masalan, kichik yoshdagi bolalar biron narsa bilan mashg'ul bo'lib turganlarida uni idrok qiladilar, ilgari ham shu narsa bilan mashg'ul bo'lganlarini eslaydilar va uni analiz va sintez qilib ko'radilar.

6 yoshdagi bolalarda esa bu asosiy bilish jarayonlari bir-biridan differensiallashgan (ajratilgan) bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bola biron o'yin faoliyati yoki biron narsa bilan mashg'ul bo'lishi jarayonidagina emas, balki bunday amaliy faoliyatdan tashqari ham biron narsa yoki xodisani idrok qilishi, tasavvur etishi, esida olib qolishi, esiga tushinishi hamda

oddiy tarzda tafakkur qilishi mumkin. Shuning uchun bolaning maktabgacha yoshdagi davrida ana shu asosiy psixik jarayonlari va xususan tafakkur hamda nutq jarayonlari jadal rivojlanadi. Bolalar kattalar bilan bo'lgan munosabatlarida narsa va xodisalar haqida elementar tushunchalar tizimini egallab olib, tafakkur qilishga o'rgana boshlaydilar.

Xulosa qilib aytganda, O'yin va maktabgacha ta'limdagi didaktik mashg'ulotlar jarayonida bolalarning aql idroki, xotira va tafakkuri o'sadi. Bular o'z navbatida, bolaning maktabda o'qiy olishi uchun psixologik zamin tayyorlaydi. Bunday zaminni tayyorlash va mustahkamlashda, albatta oilada hamda bolalar maktabgacha ta'lim muassasasida olib borilgan ta'lim tarbiya ishlari hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Arsenyeva M.S. "Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bolalar eksperimentining ahamiyati". Maktabgacha ta'lim. - 2012 yil - No 4.
2. Vaxrusheva L.N. "5-7 yoshli bolalarda bilish qiziqishlarni o'rgatish". M.: TC Sphere, 2012 yil.
3. Nemov R.S. "3 jildda psixologiya". - M.: Vlados, 1995 yil. - 3-jild, 148-bet.
4. Poddyakov N.N. "Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishining xususiyatlari" - M., 1996 y
5. Poddyakov N.N. Sensatsiya: yangi etakchi faoliyatning ochilishi / N.N.
6. Malikaxon Qodirova, ЧЕЛОВЕК И СТРЕСС , Журнал Педагогике и психологии в современном образовании: No 1 (2020): Journal of Pedagogy and psychology in modern education

**TA'LIM JARAYONIDA ISH STRESSI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLARGA PSIXOLOGIK
YECHIM**

**Qo'qon universiteti Ta'lim fakulteti
Ta'lim kafedrası Amaliy psixologiya
2-kurs talabalari Muxtorov Alijon,
Ashuraliyev Rahmonjon,
Toshpo'latov Asrorjon,
Sanobarxon Asilova
Qo'qon universiteti Ta'lim fakulteti
Ta'lim kafedrası o'qituvchisi**

Annotatsiya: Stress ta'lim sohasida ishlashning eng muhim xavflaridan biridir. Ushbu maqolada ta'lim sohasida stressni keltirib chiqaradigan xavf omillari, ularni baholash va stressni manbada kamaytirish yoki bartaraf etish choralari muhokama qilinadi. U tizimli xavflarni baholash bo'yicha qo'llanmani taqdim etadi va shaxslar va ta'lim muassasalari foyda ko'rishi mumkin bo'lgan tadbirlarni taklif qiladi.

Kalit so'zlar: tahdid, zo'ravonlik, psixologik xavfsizlik, sog'ligni ta'minlash Evropa ijtimoiy hamkorliklari.

Stress odatda odamlarga qo'yiladigan talablar va ularning resurslari yoki bu talablarni engish qobiliyati o'rtasidagi nomutanosiblik sifatida aniqlanadi. Bu kasallik emas, lekin unga uzoq vaqt ta'sir qilish psixologik va jismoniy sog'liqning yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Ish bilan bog'liq stress shaxsiy zaiflik emas, balki tashkiliy muammoning alomatidir. 2010 yilda 34 mamlakatda 44 000 ishchi bilan o'tkazilgan Yevropa so'rovi shuni ko'rsatdiki, ta'lim sektori ruhiy zo'riqishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan his-tuyg'ularini yashirish yoki bostirish (30%) bo'yicha hisobot berish bo'yicha Sog'liqni saqlash sektoridan keyin eng ko'p zarar ko'rgan tarmoqlardan biri. Erkaklar (21%) ayollarga (16%) nisbatan salbiy ijtimoiy xulq-atvoriga duchor bo'lganliklari haqida ko'proq xabar berishgan. Evropadagi 500 ta maktabda o'tkazilgan so'rov shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilardagi stress omillari birinchi navbatda ish yuki va rolning haddan tashqari yuklanishi hisoblanadi, ammo ish shaxsiy hayotga zid bo'lsa, o'qituvchilarning farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Katta hajmdagi sinflarga ega bo'lgan maktab o'qituvchilari miqdoriy talablar, ish va maxfiylik ziddiyatlari, shovqin, ovoz zo'riqishi va dam olish uchun kamroq imkoniyatlar haqida xabar berishga moyildirlar.

Stress ko'p qirrali muammo bo'lib, ish ichidagi va tashqaridagi omillar ta'sir qiladi. Biroq, dalillar shuni ko'rsatadiki, yomon boshqariladigan ish tashkiloti va noqulay ish muhiti stressni boshdan kechirayotgan shaxslar bilan bog'liq. Shuning uchun sog'liqning yomonlashishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ishning barcha jihatlarini, shu jumladan ish jihozlarini va jismoniy va ijtimoiy muhitni baholash kerak. Ta'limda ish bilan bog'liq stress ko'pincha zo'ravonlik, zo'ravonlik (mobbing), ta'qib qilish va talabalarning qabul qilinishi mumkin bo'lmagan xatti-harakatlari bilan bog'liq.

Ish joyidagi zo'ravonlik - bu shaxs haqoratlangan, tahdid qilingan yoki tajovuz qilingan har qanday hodisa bo'lib, u ish joyidagi shaxsga nisbatan haqorat, tahdid va jismoniy yoki ruhiy tajovuzni o'z ichiga oladi. Ta'lim xodimlari, agar ularning ishlari bevosita o'quvchilar va/yoki ularning vasiylari bilan bog'liq bo'lsa, zo'ravonlik xavfi yuqori; kech yoki yolg'iz ishlash; saytdan tashqarida yoki uyga tashrif buyurish; alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlash

Ta'qib qilish - bu sog'liq va xavfsizlikka xavf tug'diradigan xodimga yoki xodimlar guruhiga qaratilgan takroriy, asossiz xatti-harakatlar deb ta'riflanadi. Asossiz xatti-harakatlar qurbon qilish, kamsitish, tahqirlash yoki tahdid qilish niyatini anglatadi. Qurbonlik qilish

vositasi sifatida nafaqat shaxslar yoki guruhning xatti-harakatlari yoki harakatlari, balki mehnat tizimi ham ishlatilishi mumkin.

Qonuniy jihatdan, barcha ish beruvchilar 89/391/EEC Konstruktiv Direktivada va boshqa me'yoriy me'yoriy me'yorlarda ta'kidlanganidek, o'z ishining barcha jabhalarida ishchilarning xavfsizligi va sog'lig'ini ta'minlash uchun umumiy majburiyatga ega.

2004 yilda Evropa ijtimoiy hamkorlari ish bilan bog'liq stress bo'yicha ramka shartnomasini imzoladilar va 2007 yilda ish beruvchilar, ishchilar va ularning vakillarining xabardorligi va tushunishini oshirish maqsadida ishdagi ta'qib va zo'ravonlik bo'yicha yana bir shartnoma imzolandi. bu psixososyal muammolar, ish joyidagi ta'qib va zo'ravonlik bilan shug'ullanish uchun.

Ta'limdagi psixososyal xavflarni baholash va boshqarish. Ish beruvchilar qonunga muvofiq xavflarni samarali baholashni amalga oshirishlari shart, maktablar va boshqa ta'lim muassasalarida xavflarni baholashda mavjud bo'lgan turli xil psixo-ijtimoiy xavflarni hisobga olish kerak; xususan, ish bilan bog'liq stress, ta'qib va zo'ravonlik. Muayyan maktab oldida turgan muammolarga qarab, ish bilan bog'liq stress, zo'ravonlik va o'quvchilarning qabul qilinishi mumkin bo'lmagan xatti-harakatlari uchun turli xil, ammo qo'shimcha yondashuvlarga ehtiyoj paydo bo'lishi mumkin.

Ish bilan bog'liq stressni, asosan, xavf-xatarni baholash orqali tegishli choralar ko'rish orqali oldini olish mumkin, ya'ni ishning shikastlanish yoki zarar etkazishi mumkin bo'lgan jihatlarni tizimli tekshirish; xavflarni bartaraf etish mumkinmi yoki yo'qmi, agar bo'lmasa, xavflarni nazorat qilish uchun qanday profilaktika yoki himoya choralarni ko'rish kerakligi. Xatarlarni baholash mavjud xavflarni aniqlashni va keyin mavjud ehtiyot choralarni hisobga olgan holda xavf darajasini baholashni o'z ichiga oladi. Tegishli xavfni baholash natijalari aniq xodimlarning sog'lig'ini himoya qilish uchun tegishli harakatlarga olib kelishi kerak.

Psixososyal xavfni baholashda e'tiborga olish kerak bo'lgan asosiy elementlar mavjud. Ishchilarning ishtiroki juda muhim: ta'lim tizimidagi har bir kishi, shu jumladan o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar, ma'murlar, xavfsizlik va sog'liqni saqlash sohasidagi mutaxassislar ish bilan bog'liq stressni bartaraf etishda rol o'ynashi kerak va ular xavfni baholash jarayonida ishtirok etishlari kerak. Stress - bu shaxsning o'z vaziyatiga sub'ektiv bahosi bo'lganligi sababli va bu bir kishidan boshqasiga o'zgarib turadi, shuning uchun faqat vaziyatdan kelib chiqqan holda stress miqdorini aniqlash mumkin emas, shuning uchun xodimlar bilan maslahatlashish kerak. Bundan tashqari, xodimlar o'zlarining ishlari bilan ko'proq tanish bo'lganlar va unga har qanday o'zgarishlarni amalga oshirishda ishtirok etadigan va shuning uchun muayyan stress muammolarini hal qilish uchun eng mos keladigan choralarni taklif qilishlari mumkin. Maktab yoki o'quv muassasasi rahbariyati o'z muassasasida stress bilan kurashishni qo'llab-quvvatlashi kerak, bu esa xodimlarni kech bo'lgunga qadar stress bilan bog'liq har qanday muammolar haqida xabar berishga undashlari kerak. Ular xavfni baholash va stressni kamaytirish uchun mos echimlarni amalga oshirish uchun etarli resurslarni taqdim etishlari kerak. Xatarlarni baholash besh bosqichdan iborat bo'lgan bosqichma-bosqich yondashuvda amalga oshirilishi mumkin:

1-qadam: Xavflarni va xavf ostida bo'lganlarni aniqlang. Birinchi qadam, ish qanday amalga oshirilayotganini va, masalan, o'quvchilar yoki talabalarining xodimlarga nisbatan zo'ravonligi qanday zarar keltirishi mumkinligini tushunishdir. Ta'lim sohasi alohida masalalarga ega, chunki uning vazifasi bolalar va yoshlarning faoliyatini o'z ichiga oladi. Kim va qanday zarar ko'rish mumkinligini, qaysi ishchi guruhlari ko'proq xavf ostida ekanligini aniqlashda ishdan bo'shatish, yuqori kadrlar almashinuvi, tajovuzkor muloqot, baxtsiz hodisalar, psixo-ijtimoiy muammolar (masalan, tashvish, depressiya, charchash) haqida mavjud ma'lumotlardan foydalanish foydali bo'lishi mumkin. sog'liq muammolari va ishchilarning shikoyatlari va boshqalar. Bir qator psixo-ijtimoiy xavflar yoki omillarstressga

olib kelishi ma'lum. Muammo qayerda ekanligini ko'rsatish uchun quyidagi nazorat ro'yxatidan foydalanish mumkin. Ish muhiti har xil, shuning uchun bu nazorat ro'yxati ushbu sektordagi barcha ta'lim muassasalari va kasblarga taalluqli bo'lmasligi mumkin. Agar muammo ushbu ro'yxatda belgilansa, ish bilan bog'liq omillarning asosiy sababini aniqlash va harakat rejasini tanlash uchun uni ishchilar bilan qo'shimcha tekshirish muhimdir.

Jadval 1.
Ta'lim sohasida ish bilan bog'liq stressni tekshirish ro'yxati
Zo'ravonlik va ta'qib kabi nomaqbul xatti-harakatlarga toqat qilmaydigan qo'llab-quvvatlovchi iqlim yoki atmosfera bormi?
O'quvchilar/talabalar va ota-onalar bilan qo'llab-quvvatlovchi munosabatlar mavjudmi?
Stress, zo'ravonlik va ta'qiblar "salomatlik va xavfsizlik" muammosi sifatida qaraladimi?
O'quvchilar/talabalar, hamkasblar yoki ishlamaydigan shaxslar tomonidan zo'ravonlik va ta'qiblar xavfni baholashda qamrab olinganmi?
Ichkarida yoki tashqarida kasbiy tibbiy yordam olish imkoniyati mavjudmi?
Stress, zo'ravonlik va ta'qibning oldini olish bo'yicha treninglar barcha xodimlarga, shu jumladan menejerlar, o'qituvchilar va boshqa xodimlarga o'tkaziladimi?
Ishchilar xavflarni baholash va boshqarish jarayonida ishtirok etadilarmi?
Ota-onalar/oilalar xavfni kamaytirish jarayonida ishtirok etadimi; masalan, talabalar uchun xulq-atvor standartlarini belgilashda?
O'quvchilarga/talabalarga boshqalarga hurmat va hurmat o'rgatilganmi va ijobiy xulq-atvor mustahkamlanganmi?
Ish jihozlari va o'quv jismoniy muhitini saqlab turish va nazorat qilish; masalan, konditsioner, yorug'lik yoki dam olish xonalari?
Haddan tashqari talablar, ish yuki va ortiqcha ish vaqtiga tez-tez bo'lgan ehtiyojlar nazorat qilinadimi; masalan, ishchilar ko'pincha kech yoki dam olish kunlari ishlaydimi?
Barcha ishchilar belgilangan joylarda muntazam tanaffus qilishlari mumkinmi?
Ishchilar o'z ishlarini o'zgartira oladimi?
Ishchilar uchun o'z ishlarida raqobatdosh rollarni boshqarish uchun biron bir manba yoki protseduralar mavjudmi?
Ish bilan bog'liq stress bo'yicha siyosat bormi?
Ijobiy ish muhitini qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash siyosati bormi?

Yuqori xavf ostida bo'lishi mumkin bo'lgan ishchilar guruhlariga alohida e'tibor berilishi kerak, masalan, nogironlar, mehnat muhojirlari, yosh va keksa ishchilar. Masalan, yosh xodimlar kamroq tajribaga ega bo'lishi mumkin, bu esa ish bilan bog'liq stressga hissa qo'shishi mumkin. Nogironlar ish bilan bog'liq stressga olib keladigan ta'qiblarga duchor bo'lishi mumkin. Homilador xodimlar ham maxsus baholashni talab qiladi.

Xatarlarni baholash ta'lim muassasalarining barcha ishchilarini, shu jumladan o'qituvchilarni, ma'muriy xodimlarni, muassasa boshqaruv xodimlarini va texnik xizmat ko'rsatish xodimlarini, ular uzoq muddatli yoki qisqa muddatli shartnomalar bo'yicha ishlayotganligidan qat'i nazar, qamrab olishi kerak. Shuningdek, u bevosita yoki bilvosita xavf ostida bo'lgan o'quvchilar va maktabga tashrif buyuruvchilarni o'z ichiga olishi mumkin. Saytda boshqa tashkilotda ishlaydigan shaxslar bo'lsa, ikkala ish beruvchi ham hamkorlik qilishlari va ishchilarning xavfsizligi va sog'lig'ini himoya qilishlari shart.

Ishchilarning jinsi, yoshi yoki nogironligi bo'yicha farqlarni hisobga olish kerak, chunki bu guruhlar uchun turli xil profilaktika choralari talab qilinishi mumkin. Ish, uning tashkil

etilishi va ishlatiladigan asbob-uskunalar ishchiga moslashtirilishi kerak, aksincha emas. Bu tamoyil Yevropa Ittifoqi qonunchiligida mustahkamlangan.

O'quv muassasasida to'plangan mavjud ma'lumotlar, masalan, kasallik yo'qligi, xodimlarning fikri so'rovlari, xodimlar almashinuvi, kasbiy salomatlik bo'yicha tavsiyalar va ishga qaytish ma'lumotlari "qaynoq nuqtalar" yoki muammoli joylarni va eng xavfli hududlarni aniqlashga yordam beradi.

2-qadam: Xatarlarni baholash va ustuvorlik qilish. Ushbu qadam kimga zarar etkazishi mumkinligini aniqlashdir. Mavjud ma'lumotlar xavflarni baholash va choralar ko'rish uchun etarli deb hisoblanmasa, qo'shimcha ma'lumotlarni to'plash kerak bo'lishi mumkin. Buni haqiqiy so'rovnomalar (ayniqsa, agar xavflar ko'p sonli xodimlarga, masalan, universitetning barcha professor-o'qituvchilariga tegishli bo'lsa) yoki suhbatlar (kichik maktab o'qituvchilari) orqali amalga oshirilishi mumkin. Xavflardan kelib chiqadigan xavflarni baholashda quyidagi savollarni e'tiborga olish kerak:

➤ Xavfning zarar etkazish ehtimoli qanchalik katta (masalan, yuqori ish yukini bildirgan o'qituvchilar soni, keyingi kechikishlarga olib keladigan mos jihozlarning etishmasligi va boshqalar).

➤ Bu zarar qanchalik jiddiy bo'lishi mumkin (masalan, yuqori ish yuki va kasallik yo'qligi yoki sog'liqdan shikoyatlar o'rtasida bog'liqlik bormi).

➤ Ishchilar qanchalik tez-tez (va qancha) xavfga duchor bo'lishadi.

➤ Xavflarni muhimlik tartibida sanab bering.

➤ Harakat rejasini tuzish uchun ro'yxatdan foydalaning.

Xavfning zarar yoki shikastlanishga olib kelishi ehtimoli va bu jarohat qanchalik og'irligini baholashda quyidagi savollarni e'tiborga olish kerak: xavfni to'liq bartaraf etish mumkinmi?; Xavfni nazorat qilish mumkinmi?; Barchani himoya qilish uchun himoya choralari ko'rish mumkinmi?; Hodisa sodir bo'lgan taqdirda, masalan, xodimlarga hujum qilishda qanday favqulodda tartib-qoidalar kerak? Muammolarni xavf omillari bo'yicha tasniflash kerak: ish, hamkasblar, tashqi (masalan, oila), maktab / o'quvchilar / talabalar, tashkilot, jamoa va jamiyat. Ba'zi xavf omillari ko'proq umumiy jamiyat va ijtimoiy muammolar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

3-qadam: Profilaktik chora-tadbirlar to'g'risida qaror qabul qiling. Xatarlarni baholashni tugatgandan so'ng, ustuvorlik tartibida profilaktika choralari ko'rish kerak. Profilaktik choralar har doim birinchi navbatda tashkilotga qaratilgan bo'lishi kerak, keyin esa ikkinchi bosqichda individual choralar ko'riladi. Baxtsiz hodisa, sog'liqning yomonlashishi yoki favqulodda vaziyatlarda (masalan, xodimlarning hujumiga uchraganida) zararni minimallashtirish choralari ko'rish kerak. Aralashuvlar ishchi kuchi bilan to'g'ridan-to'g'ri yoki ishchilar xavfsizligi bo'yicha vakillar orqali kelishilishi kerak. Aniqlangan xavf-xatarlarga qarab, qanday choralar ko'rishni hal qilish uchun o'qituvchilar namunasi bilan bir nechta fokus-guruhlarni o'tkazish yoki ular bilan uchrashuvlarda xavfni baholash natijalarini muhokama qilish foydali bo'lishi mumkin. Stressni samarali boshqarish uchun keng ko'lamli mumkin bo'lgan tadbirlar 3-bo'limda keltirilgan.

4-qadam: harakat qiling. Samarali amalga oshirish quyidagilarni ko'rsatuvchi rejani ishlab chiqishni o'z ichiga oladi: I) kim nima qiladi; II) topshiriq qachon bajarilishi kerak; va III) chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'lar. Xatarlarni baholashdan kelib chiqadigan ma'lumotlar xodimlar bilan bo'lishishi kerak. Xulosalarning e'lon qilinishi xavfni baholash faoliyati bilan shug'ullanadigan yoki xavfga duchor bo'lgan har bir kishi aniqlangan muammolarni hal qilish bo'yicha ko'rilgan harakatlar to'g'risida xabardor bo'lishini ta'minlaydi.

5-qadam: Kuzatish va ko'rib chiqish. Kelishilgan yechimlar diqqat bilan amalga oshirilishi, kuzatilishi va baholanishi kerak. Qaysi ish yaxshiroq ekanligini aniqlash uchun

qilingan har qanday harakatni baholash va barcha nazorat choralarining samaradorligini baholash ish bilan bog'liq stress bilan kurashishda ayniqsa muhimdir, chunki u ko'p sababli va vaziyat tezda o'zgarishi mumkin. Muhim o'zgarishlar ro'y berganda, hal qilinishi kerak bo'lgan yangi xavflar yo'qligiga ishonch hosil qilish va kerak bo'lganda xavfni qayta baholash kerak. Stressning samarali va barqaror oldini olish uchun o'quv muassasalari baholash va monitoringni doimiy takomillashtirish mashqlari sifatida ko'rib chiqishlari kerak.

Quyidagi savollar ishdagi stressni kengroq kuzatish uchun foydali bo'lishi mumkin.

- Xatarlarni baholash va profilaktika choralari muntazam ravishda ko'rib chiqiladimi?
- Rahbariyat ish joyidagi salomatlik va xavfsizlik ko'rsatkichlarini (shu jumladan ish bilan bog'liq stress va boshqa psixo-ijtimoiy muammolar uchun) nazorat qiladimi?
- Ish bilan bog'liq stressning tashkiliy ko'rsatkichlari, masalan, kasallik yo'qligi, intervyu ma'lumotlari yoki ishlash natijalari monitoringi mavjudmi?
- Ish va hayot muvozanatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmoqda; masalan, bolalar bog'chalari?
- Aloqa va hisobot tizimlari mavjudmi?
- Ish joyida yoki ish tashkilotida katta o'zgarishlar amalga oshirilishidan oldin ishchilar bilan maslahatlashuv o'tkaziladimi?

Baholashni hujjatlashtiring. Psixoiijtimoiy xavflar uchun xavfni baholash boshqa xavflarni baholash kabi hujjatlashtirilishi kerak. Bunday yozuv quyidagi maqsadlarda qo'llanilishi kerak: ma'lumotlarni manfaatdor shaxslarga (xodimlar, xavfsizlik vakillari, maktab rahbariyati va boshqalar) etkazish; zarur chora-tadbirlar kiritilganligini baholash; nazorat organlariga dalillar taqdim etish; va sharoit o'zgargan taqdirda chora-tadbirlarni qayta ko'rib chiqish.

Ta'limda ish bilan bog'liq stressni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar. Ish bilan bog'liq stress ko'plab sababchi omillar va ta'sirlarga ega bo'lishi mumkinligi sababli, oldini olishga kompleks yondashuv direktorlar, o'qituvchilar, boshqa ishchilar, o'quvchilar, ota-onalar guruhlar va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi yaqin hamkorlikka asoslangan eng samarali usul hisoblanadi. Stressning oldini olishning kaliti ta'lim muassasalarini tashkil etish va boshqarishga bog'liq va quyidagi paragraflarda keltirilgan harakatlarni o'z ichiga oladi.

Siyosat va qo'llab-quvvatlashni o'rnatish uchun harakatlar.

- Ish bilan bog'liq stress bo'yicha yozma siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish. Bu amaldagi salomatlik va farovonlik siyosatining bir qismi bo'lishi mumkin, ammo unda stress haqida eslatib o'tilganligiga ishonch hosil qiling.
- Ijobiy ish muhitini qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash uchun qo'shimcha siyosatlarni ishlab chiqish (moslashuvchan vaqt va boshqalar).
- Xulq-atvorni yaxshilash uchun o'quvchilar va ota-onalar bilan harakatlarni ishlab chiqish; masalan, muntazam tanaffuslar va mukofot dasturlarini o'rnatish.
- Ish bilan bog'liq stress va uning ta'sirini yillik baholashni amalga oshiring.
- Stress xavfini boshqarish dasturlari taraqqiyotini kuzatib boring va baholang.
- Tashkiliy ta'limning uzoq muddatli jarayoniga, shuningdek, qisqa muddatli imtiyozlarga (tez g'alabalar) e'tibor qarating, shuning uchun o'quv muassasasi nafaqat jismoniy mashqlar shakllarini to'ldirish bilan cheklanib qolmasdan, stressni kamaytirishga jiddiy harakat qilmoqda.
- Har qanday o'zgartirish dasturlarini kuzatish va baholash uchun faktlar va raqamlardan foydalaning.
- Zo'ravonlik va ta'qiblar bo'yicha tekshiruvlar o'tkazing.
- Bolalarni parvarish qilish muassasalarini va ishni taqsimlash kabi moslashuvchan ish usullarini taqdim eting.
- Rasmiy va norasmiy aloqa va hisobot liniyalarini baholang.

- Katta o'zgarishlarni amalga oshirishdan oldin ochiq maslahat tizimini yarating.
 - Stress bilan bog'liq tabularni kamaytirish uchun stressni boshqarishni oddiy boshqaruv amaliyotining bir qismiga aylantiring.
 - Stressning ta'lim sifati va ishchilar salomatligiga ta'siri haqida xabardorlikni oshirish uchun mahalliy hamjamiyat va ommaviy axborot vositalari bilan ishlash;
 - Ijobiy, qo'llab-quvvatlovchi xulq-atvorni rag'batlantirish.
- Ishni tashkil etish va ish yukini yaxshilash bo'yicha harakatlar.**
- Ogohlikni oshiring va barcha xodimlarni ish bilan bog'liq stressning sabablari va echimlari bo'yicha o'rgating.
 - Ish bilan bog'liq stressni engish uchun o'quv muassasasining barcha darajalarida majburiyat oling.
 - Ish yukini, talablarni va qo'shimcha ish vaqtini tez-tez ko'rib chiqing.
 - Xodimlarning ish tartibini ko'rib chiqing.
 - Ishchilarga o'z usullari, naqshlari va ish sur'atlarini tanlashga imkon bering va maqsadlarga e'tibor qarating.
 - Doimiy ravishda ko'rib chiqishni va kerak bo'lganda ish yuklarini qayta taqsimlashni va belgilangan muddatlarni qayta rejalashtirishni ta'minlash.
 - Xodimlarga bir nechta rollar berilganda (masalan, sinf o'qituvchisi, mavzu koordinatori va talaba o'qituvchisi) ortiqcha yuk bo'lmasligiga ishonch hosil qilish uchun xodimlarni boshqarish jarayonlarini ko'rib chiqing.
- Ish muhitini yaxshilash bo'yicha harakatlar.**
- Barcha xodimlar va ayniqsa yangi xodimlar uchun murabbiylik yoki murabbiylik sxemasini yarating.
 - Ogohlantirish dasturini ishlab chiqish; masalan, "xodimlarning farovonligi" kunlarini o'tkazish yoki axborot byulletenlari va plakatlarini ishlab chiqarish.
 - Barcha xodimlar uchun stressni boshqarish bo'yicha treninglar o'tkazing (onlayn amalga oshirilishi mumkin).
 - Boshlang'ich va o'rta maktablarda umumiy o'qitish bo'yicha ishlaydigan barcha o'qituvchilarga va universitet professor-o'qituvchilariga xavfsiz va sog'lom mehnat va ta'lim muhitini yaratish uchun xavflarni tarbiyalash va OSHni boshqarish bo'yicha treninglar o'tkazing.
 - Psixoiqtimoiy masalalarni biladigan salomatlik va xavfsizlik vakilini/koordinatorni tayinlang yoki stressni boshqarish bo'yicha faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun boshqaruv guruhini tuzing.
 - Yaxshi xulq-atvor standartlarini mustahkamlang.
 - Birgalikda muammolarni hal qilish va muloqotni rag'batlantirish.
 - Fikr-mulohaza uchun imkoniyatlar yaratish; masalan, maqtash va konstruktiv, ishlash bilan bog'liq fikr-mulohazalarni taqdim eting.
 - Boshqaruv yordamini ko'rsatish, xabardorlikni oshirish va ilg'or amaliyotni targ'ib qilish orqali tashkilot miqyosidagi majburiyatlarni shakllantirish.
 - Ichki yoki tashqi maslahat xizmatlari kabi kasbiy sog'liqni saqlash yordamiga kirishni ta'minlang.
 - O'qituvchilar uchun xulq-atvorni boshqarish va qiyin xulq-atvorni engish uchun o'qitish ko'nikmalarini o'z ichiga olgan treninglar o'tkazing.
 - Ijobiy munosabatni mukofotlang va ijobiy o'rnak ko'rsatishni targ'ib qiling (ham ishchilar, ham o'quvchilar/talabalar uchun).
 - Ota-onalar qo'mitalarini tuzing va ularni har qanday o'zgarishlarni boshqarish jarayonlariga jalb qiling.

- Xodimlarni xavflarni baholash jarayoniga jalb qiling, masalan, xavfni aniqlash va ularni hal qilish bo'yicha takliflar.
- Ishchilarni o'zgarishlarni boshqarish jarayonlariga jalb qilish.
- Ota-onalar va oilalar bilan aloqa va aloqani rag'batlantirish.
- Ish muhiti va jihozlarning sifatini tekshiring va saqlang.

Institutsional o'zgarishlarni kiritishda stressni minimallashtirish uchun harakatlar.

- Xavf tahlilini o'tkazing.
- Profilaktik tadbirlarni to'liq rejalashtirish.
- Ishga yo'naltirilgan va ishchiga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni birlashtiring.
- Kontekstga xos yechimlarni taqdim eting.
- Tegishli tashqi ekspertizadan foydalaning.
- Samarali ijtimoiy muloqot, sheriklik va ishchilarni jalb qilish.
- Barqaror profilaktika choralarini ko'ring va yuqori boshqaruv yordamiga murojaat qiling.

Xulosa. Ish bilan bog'liq stress uchun xavf omillarini boshqara olmaslik o'quvchilar va talabalarga ko'rsatiladigan xizmat sifati, shuningdek, ishchilarning sog'lig'i uchun muhim oqibatlariga olib kelishi mumkin. Menejmentning etakchiligi, yaxshi ishni tashkil etish, hurmat va qadr-qimmatni uyg'otadigan ijobiy ish muhiti va ishchilar va rahbarlar hamkasblar o'rtasidagi aniq muloqot ish bilan bog'liq stress xavfini kamaytirish uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nishanova, Z. Taskarayevna. "Psixologik maslahat"
2. X.Ibragimov "Pedagogik psixologiya"
3. Z. Ibodullayev "Tibbiyot psixologiya"
4. Z. Nishanova "Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya"
5. Axrorjon, Yuldashev, Muxtorov Alijon, and Aliyeva Iqlima. "Faol texnologiyalarni o'smirlar psixologiyasiga ta'siri." Ta'lim fidoyilari 13.6 (2022): 263-266.
6. Alijon M. et al. Ta'lim metodlari va vositalari //Ta'lim fidoyilari. – 2022. – T. 13. – №. 6. – C. 267-270.
7. Alijon M. et al. Ta'lim metodlari va vositalari //Ta'lim fidoyilari. – 2022. – T. 13. – Alijon M., Iqlimaxon A., Muslimaxon I. Glaballashuv jarayonlari va uning zamonaviy sharoitlarida tarbiyaga ta'siri //Ta'lim fidoyilari. – 2022. – T. 13. – №. 6. – C. 271-273. №. 6. – C. 267-270.
8. Axrorjon Y. et al. Internet texnologiyalari innovatsiyalar. Sun'iy intellektni rivojlantirish //Ta'lim fidoyilari. – 2022. – T. 7. – №. 8.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MAKTABGA MOSLASHUVIDA PSIXOLOGIK
YORDAM**

**Qo'qon universiteti Ta'lim fakulteti Ta'lim kafedrası
Amaliy psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi**

**Muxtorov Alijon,
Aliyeva Iqlimaxon,
Sanobarxon Asilova**

**Qo'qon universiteti Ta'lim fakulteti
Ta'lim kafedrası o'qituvchisi**

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun maktab sayohati qoyilmaqom va hayratlanarli bo'lishi mumkin va bu ular uchun yangi tajriba bo'lishi mumkin. Ota-onalar, va tarbiyachilar moslashib ketishini iloji boricha silliq qilishga intilishlari kerak. Psixologik yordam, ayniqsa, yangi muhit, o'qituvchilar va tengdoshlar bilan ishlashda foydali bo'lishi mumkin. Qo'llab-quvvatlash tashvishlarni kamaytirishga, akademik ko'rsatkichlarni yaxshilashga va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu maqola boshlang'ich o'quvchilarga maktabga moslashishda psixologik yordam ko'rsatish usullarini o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: depressiya, stress, guruh terapiyasi, faol tinglash, individuallik.

Boshlang'ich maktabga moslashish o'quvchilar uchun qiyin vaqt bo'lishi mumkin va psixologik yordam ularga o'zgarishlarni yengishga yordam beradi. Psixologik yordam akademik muvaffaqiyat va ruhiy salomatlikni yaxshilash bilan bog'liq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ruhiy salomatlik bilan og'riq bolalar ma'lumotni o'rganish va saqlash qiyin (Vahedi va boshq., 2019). Depressiya, tashvish yoki stressni boshdan kechirayotgan bolalar ham huquqbuzarlik xatti-harakatlarini rivojlanish xavfi ostida bo'lishi mumkin. Shuning uchun psixologik yordam bolalarni xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhitda o'rganishi va o'sishini ta'minlashda juda muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori Vazirlar mahkamasining "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 9-martdagi 132-son qaroriha o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida

Respublikaning chekka hududlaridagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni jadallashtirish, sog'lom, faol, barkamol, ijtimoiy moslashtirilgan bolalarni tarbiyalash, kelgusida muvaffaqiyatli o'quv faoliyati uchun shart-sharoitlarni shakllantirish va ularni boshlang'ich ta'limga sifatli tayyorlash rejaları berib o'tildi.[lex.uz]

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga psixologik yordam ko'rsatish

Boshlang'ich maktab o'quvchilari bilan muomala qilishda psixologik yordam zarur, tarbiyachilar va o'qituvchilar bolalar uchun xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratishi kerak. Va albatta quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. Faol Tinglash. Faol tinglash ota-onalar, va o'qituvchilarga o'quvchilarning hissiy va psixologik muammolarini tushunishga yordam beradigan muhim mahoratdir. Faol tinglash ko'z bilan aloqa qilishni, diqqatni jalb qilishni va bolaning so'zlari haqida mulohaza yuritishni o'z ichiga oladi. O'qituvchi yoki tarbiyachi diqqatli va sezgir bo'lib, o'quvchiga o'z qiyinchiliklarini etkazish uchun xavfsiz joy yaratishi mumkin.

2. Rag'batlantirish va ijobiy mustahkamlash. Rag'batlantirish va ijobiy mustahkamlash boshlang'ich o'quvchilarning ishonchini mustahkamlashda uzoq yo'lga bosib o'tadi. O'qituvchilar, tarbiyachilar va ota-onalar bolalar akademik yoki ijtimoiy jihatdan yaxshi ishlashganda ijobiy fikrlarni taklif qilishlari kerak. Ushbu yondashuv o'quvchilarga ijobiy

imidjni rivojlantirishga yordam beradi va o'z navbatida maktab muhitida o'zlarini qulay his qilishadi.

3. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun maktabga moslashishda juda muhimdir. Ota-onalar, tarbiyachilar va maktab xodimlari o'yin vaqti, sport va guruh faoliyati kabi ijtimoiy tadbirlarni rag'batlantirishlari kerak. Ushbu tadbirlar bolalarga do'stlik o'rnatishga, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga va o'zlariga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam beradi.

4. Maslahat Xizmatlari. Maslahat xizmatlari hissiy yoki psixologik qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan bolalar uchun ajoyib imkoniyat bo'lishi mumkin. Maslahat xizmatlari bolalar qo'rquv, umidsizlik va tashvishlarini ifoda etishlari mumkin bo'lgan maxfiy va qo'llab-quvvatlovchi muhitni taklif etadi. Maslahatchilar bolalarga yengish strategiyasini ishlab chiqishda yordam berishlari va ularga his-tuyg'ularini boshqarish vositalarini taqdim etishlari mumkin.

5. Guruh Terapiyasi. Guruh terapiyasi boshlang'ich sinf o'quvchilariga psixologik yordam ko'rsatishning yana bir samarali usuli hisoblanadi. Guruh terapiyasi mashg'ulotlari tashvish, bezorilik yoki stress kabi muayyan mavzularga qaratilishi mumkin. Bolalar o'z tajribalari bilan o'rtoqlashishlari va bir-birlaridan o'rganishlari mumkin. Bundan tashqari, ushbu mashg'ulotlar bolalarga ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga va yangi do'stlik o'rnatishga yordam beradi.

Boshlang'ich maktab o'quvchilarini maktabga moslashtirish-bu o'qituvchilar, ota-onalar va psixologlarning alohida e'tibor va g'amxo'rlikini talab qiladigan jarayon. Ushbu davr bola hayotidagi muhim bosqichdir, chunki ularning aksariyati birinchi marta kundalik mashg'ulotlar, yangi xulq-atvor qoidalari va yangi odamlar bilan muloqot qilish zarurati bilan duch kelmoqdalar.

Boshlang'ich maktab o'quvchilarining maktabga moslashishini psixologik qo'llab-quvvatlash bolaga moslashish jarayonida yuzaga keladigan hissiy va psixologik qiyinchiliklarni engishga yordam beradigan bir qator tadbirlarni o'z ichiga oladi. Mana bu tadbirlarning ba'zilari:

Psixolog bilan individual suhbatlar.

O'quv yilining boshida psixolog har bir boshlang'ich maktab o'quvchisi bilan individual suhbatlar o'tkazishi mumkin. Ushbu suhbatlar davomida psixolog bola qanday his-tuyg'ularni boshdan kechirayotganini, yangi vaziyatga qanday munosabatda bo'lishini va qanday qiyinchiliklarga duch kelishini aniqlay oladi. Bunday suhbatlar natijasida psixolog bolaga kerakli maslahatlarni berishi va unga yangi maktabga moslashishiga yordam berishi mumkin.

Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha guruh darslari

Boshlang'ich maktab o'quvchilari uchun sotsializatsiya va boshqa odamlar bilan muloqot qilish qobiliyati juda muhimdir. Bolaga ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berish uchun psixolog bolalar muloqot qilishni, bir-birlarini tinglashni va nizolarni hal qilishni o'rganadigan guruh mashg'ulotlarini o'tkazishi mumkin.

O'yin terapiyasi.

O'yin terapiyasi-bu ijobiy psixologik ta'sirga erishish uchun o'yinlardan foydalanishga asoslangan psixoterapiya usuli. Bu usul bolalar uchun juda samarali bo'lishi mumkin, chunki o'yinlar ularga dam olishga, ijodkorlikni namoyon etishga va his-tuyg'ularini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Ota-onalar uchun psixologik treninglar.

Ota-onalar, shuningdek, boshlang'ich maktab o'quvchilarini maktabga moslashtirishda juda muhim rol o'ynaydi. Ularga o'z rolini tushunishga va farzandlarining ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishga yordam berish uchun psixolog ota-onalar uchun psixologik treninglar o'tkazishi mumkin.

Qo'llab-quvvatlash va monitoring tizimi.

Yosh o'quvchilarga moslashish jarayonida yordam beradigan qo'llab-quvvatlash va monitoring tizimini yaratish muhimdir. Ushbu tizim turli xil vositalar va usullarni o'z ichiga olishi mumkin, masalan, hissiy barqarorlik testlari va o'qituvchilar va psixologlarning fikr-mulohazalari.

Umuman olganda, boshlang'ich maktab o'quvchilarining maktabga moslashishini psixologik qo'llab-quvvatlash

Psixologik yordamning asosiy vazifasi bolaga yangi muhit va yangi talablar bilan bog'liq stressni engishga yordam berishdir. Psixolog bolaga tashvishlarni engishga, o'quv jarayoniga qiziqishga, o'qish uchun motivatsiyani rivojlantirishga yordam berishi kerak.

Psixologik qo'llab-quvvatlash individual va guruh mashg'ulotlari doirasida amalga oshirilishi mumkin. Shaxsiy mashg'ulotlar paytida psixolog bola bilan muloqot qiladi, uning muammolarini aniqlaydi va echimlarni topishga yordam beradi. Guruh mashg'ulotlari ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va bolalar jamoasini mustahkamlashga qaratilgan.

Psixologik yordamning muhim vazifalaridan biri bu ota-onalar bilan ishlashdir. Psixolog ota-onalarga bolani maktabga tayyorlashda yordam berishi, o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar va moslashish davrida bola bilan o'zini tutish bo'yicha maslahatlar berishi kerak.

Bolani maktabga psixologik qo'llab-quvvatlashning bir qismi sifatida psixolog bolaga tashvishlarni engishga va yangi muhitga moslashishga yordam beradigan turli xil usul va usullardan foydalanishi mumkin. Masalan, ijtimoiy ko'nikmalarni va o'z-o'zini hurmat qilishni rivojlantirishga yordam beradigan o'quv o'yinlarini o'tkazish mumkin.

Boshlang'ich maktabga moslashish qiyin jarayon bo'lishi mumkin va o'quvchilarga yangi muhitga moslashishda psixologik yordam zarur. Ota-onalar, tarbiyachilar va o'qituvchilar bolalar uchun xavfsiz va qulay muhitni ta'minlash uchun birgalikda ishlashlari kerak. Faol tinglash, ijobiy mustahkamlash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, maslahat xizmatlari va guruh terapiyasi psixologik yordam ko'rsatishning samarali usullaridir. Hissiy va psixologik yordam ko'rsatish orqali bolalar xavfsiz, qo'llab-quvvatlovchi muhitda o'sishi va rivojlanishi hamda akademik va shaxsiy hayotlarida muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

Foydalanilgan adabiytlar ro'yxati:

1. D.Tashpulatova "Boshlang'ich a'limda klister yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish"

2. R.A.mavlonova, N.h.Rahmonqulova "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi"

3. O'rinova, "Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda ilg'or texnologiyalardan foydalanish"

4. R.Mavlonova "Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya"

5. Axrorjon Y. et al. Faol texnologiyalarni o'smirlar psixologiyasiga ta'siri //Ta'lim fidoyilari. – 2022. – T. 13. – №. 6. – C. 263-266.

6. Faxriddin H., Alijon M. XALQ TA'LIMI TIZIMIDA O 'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO 'NALTIRISH ISHLARI: MUAMMO VA ULARNING YEChIMLARI //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – №. Special Issue 2. – C. 54-57.

7. Alijon M. et al. Ta'lim metodlari va vositalari //Ta'lim fidoyilari. – 2022. – T. 13. – №. 6. – C. 267-270.

8. Alijon M., Iqlimaxon A., Muslimaxon I. Glaballashuv jarayonlari va uning zamonaviy sharoitlarida tarbiyaga ta'siri //Ta'lim fidoyilari. – 2022. – T. 13. – №. 6. – C. 271-273.

9. Jasurbek, M., & Alijon, M. (2022). Jamiyatni rivojlantirish uchun empirik tadqiqot va uning metodlari. Ta'lim fidoyilari, 13(6), 257-262

10. <https://cyberleninka.ru/article/n/faol-texnologiyalarni-o-smirlar-psoxologiyasiga-ta-siri>
11. <https://cyberleninka.ru/article/n/xalq-ta-limi-tizimida-o-quvchilarni-kasb-hunarga-yo-naltirish-ishlari-muammo-va-ularning-yechimlari>
12. <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-metodlari-va-vositalari>
13. <https://cyberleninka.ru/article/n/glaballashuv-jarayonlari-va-uning-zamonaviy-sharoitlarida-tarbiyaga-ta-siri>

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHDA PEDAGOGIK
MAHORATNING O'RNINI**

Shokirova Dilfuza Munavvarjon qizi
Qo'qon Universiteti Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi 2- kurs talabasi
Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna
Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san'at haqida tushuncha beriladi. Boshlang'ich sinflarda qo'llanishi mumkin bo'lgan metodlar haqida va pedagogik mahorat haqida, batafsil so'z olib boriladi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, pedagogik mahorat, kapalak test, siklografiya, okulografiya, multimedia, konsepsiya.

Ma'lumki, bugun O'zbekiston o'zining xalq ta'limi sohasida qabul qilgan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida"gi kabi me'yoriy hujjatlari asosida ta'limning yangi tizimini bosqichma-bosqich amalga oshirib kelmoqda. Bu sohadagi tadbirlar mamlakat xalq ta'limi faoliyatiga yangi pedagogik texnologiyani joriy etishni taqozo etayotir. Shularga ko'ra, maktab o'quv fanlari va ulami o'qitish metodikasi va didaktikasi bilan shug'ullanayotgan pedagog-olimlar tomonidan ham har bir o'quv fanining dastur, darslik, o'quv-metodik qo'llanmalari qayta ko'rib chiqilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan. Zamon rivojlangan sari, sifatli ta'limga bo'lgan talab ham oshib boradi. Bu esa, o'z o'rnida pedagogik mahorati yuqori darajadagi, o'qituvchilarga bo'lgan talabni ham oshirib boradi.

Shunga ko'ra, har bir o'quv predmeti bo'yicha dastur, darslik, o'quv-metodik qo'llanmalarni yaratish bilan birga, ularni o'qitish texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi ishlab chiqiladi.

Insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi san'atdir. U musiqa, teatr, kino, badiiy adabiyot, xoreografiya, tasviriy va amaliy bezak san'ati kabi boshqa turlarini o'z ichiga oladi. San'atning har bir turi o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni aks ettirishda har xil vositalardan foydalanadi, masalan, adabiyot - so'zdan, musiqa - tovushlardan, tasviriy san'at - rang va chiziqlardan va hokazo. Shu bilan birga, habir san'at turi o'z ichida yana xillarga va janrlarga bo'linadi. San'atni tushunish, uning kishilar hayotidagi rolini aniqlash masalasi butun madaniyat tarixi davomida keskin bahs, tortishuvlarga sabab bo'lib kelgan. San'atning eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biri - tasviriy san'atdir. Odatda real borliqni badiiy obrazlarda, mavjud predmetlarni tabiiy shaklini o'ziga o'xshatib umumshtirib ifodalaydi hamda predmetlarning hajmi, o'zaro fazoviy joylashuvini va hokazolarda aks ettiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tasviriy faoliyatga o'rgatishda, oliy darajadagi, malakali, tajribali, iste'dodli, ijodkor tasviriy san'at o'qituvchisi bo'lgan va zamonaviy ta'lim-tarbiya berish talablariga javob bera oladigan tasviriy san'at kabineti tashkil etilgan maktab bo'lishi ahamiyatga molik.

Pedagogik mahorat o'qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim - tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy - ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvomi va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Pedagogik mahorat o'qituvchilarning pedagogik faoliyati zahirida takomillashib boradi.

Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitishda, tasviriy san'at o'qituvchisidan yuksak pedagogik mahorat talab qilinadi. Tasviriy san'at o'qituvchisining pedagogik faoliyatida o'quvchilarning ishlarida kuzatilayotgan xatolarni tahlil qilib borish va ularga mos metodik yo'nalish va yordam berib borish tasviriy san'at ta'limining barcha sohalarini (faoliyat turlari) bo'yicha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Shuningdek, kamchiliklarning faoliyat turlari, janrlar bo'yicha klassifikatsiyalab borish mavjud kamchiliklarni batratarf etishga yo'naltirilgan metodikani to'g'ri tanlash imkonini beradi.

Ta'lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta'minotning mavjudligini ko'zda tutadi. Shu sababli, tasviriy san'at o'quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo'nalishlardan sanaladi.

Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitishda yangi, zamonaviy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan: siklografiya- harakat kinematikasini qayd qilish, okulografiya- ko'z harakatlarini qayd qilish, multiplikatsiyalash- grafik tasvirlarni bajarish ketma-ketligini qayd qilish kabilar kiradi. Albatta, tasviriy san'at darslari yanada sifatli va samarali bo'lishida multimedia texnologiyalarining ham o'rni katta.

Multimedia vositalari (multimedia - ko'pvositalilik) - bu insonga o'zi uchun tabiiy muxit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqatda bo'lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir. Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir.

Tasviriy san'atni o'qitishda, o'quvchilar bilan tegishli joylarga sayohat qilish va video va rasmlarni tomosha qilishda bolalar ushbu vizual tushunchalarni saqlab qolishlari va ularni yaratish va tasavvur qilish uchun birlashtira oladilar. Ushbu o'quv jarayonida 9/10lar o'zlarining qiyinchiliklari orqali o'rganishlari va yangi imkoniyatlarni boshqalar bilan baham ko'rishlari mumkin. Ular o'z bilimlarini o'zlaridan atrofdagi dunyoga kengaytirishga qodir ekanlar, ular o'rganishdan hayajonlanadilar va ularning vizual tasvirlari kengayadi va murakkablashadi. Bu jarayonda ular uzoq muddatli xotiralarga ega bo'ladilar. Va bu xotiradan tasviriy faoliyatda keng foydalanadilar.

O'qituvchilik kasbi o'z mohiyatiga ko'ra o'ta individualdir. Har bir o'qituvchining muhim hayotiy o'rni, uning o'z ishining ustasi bo'lishidir.

O'qituvchi mahorati uning faoliyatida ko'rinadi. O'qituvchi avvalo pedagogik jarayonning qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Shu ma'noda pedagogning umumlashgan malakalari va uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga molik bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitishda qo'llanilsa, o'zining go'zal samarasini, beradigan matolardan biri bu: **Kapalak test.**

Bolaga 5 juft reproduksiya taklif etiladi, ulardan biri "formalistik", ikkinchisi - realistik hayotga o'xshash rasm yoki kundalik fotografiya:

I. Altman "Kungaboqarlar" (1915) - 1a. Moviy fonda pushti papatyalar bilan tabriknoma.

A. Gorkiy "Sharshara" (1943) - 2a. Bog' va olma aravasini tortayotgan odam surati.

Rassomning o't va poyalarning fotosurati daraxtlar shkalasigacha bo'lgan. Shartli "bolalar" nomi "Yosunlar" - Za. "Kuz" fotosurati.

B00. Tomplin "2-raqam" (1953) - 4a. A. Rylov "O'rmon yo'llarida traktor". Shartli nomi "Qishki gilam" (1934).

G. Yaker "Forked" (1983) -5a. V. Surikov "Qishda Zubovskiy bulvari". Bolaning ismi "Kapalak".

Tomonidan rang sxemasi juftlikdagi tasvirlar o'xshash bo'lib, bolaning bir yoki boshqa rangga bo'lgan xushyoqishi eksperimentatorga xalaqit bermaydi. Asl nusxalarning qiyosiy badiiy fazilatlarini asosiy mos yozuvlar nuqtasi bo'lib xizmat qilmaydi, chunki a) bolalar uchun aniq bo'lgan tasvirlardagi farq - mavhumlik yoki ob'ektivlik, noaniqlik yoki ravshanlik, estetik tasvir yoki axborot funkcionalligi qiziqish uyg'otadi; b) reproduksiyalarning sifati ko'paytirilayotgan rasmlarning to'liq badiiy fazilatlarini haqida gapirishga imkon bermaydi. Shunga qaramay, juftlikda rasmiy model sifatida tan olingan ustalarning namunalari (A. Gorkiy, N. Altman va boshqalar) ishlatilgan. Shunday qilib, rasmiy namunalar, go'yo ularning estetik fazilatlarini tasdiqlovchi sertifikatga ega. Har bir juft tasvirda biri ikkinchisidan o'zining g'ayrioddiy uslubi, fotografsizligi bilan ajralib turadi, ikkinchisi esa, aksincha, fotografiyaga yaqinlashadi. Bolalar tomonidan ushbu printsip bo'yicha juftlikdagi tasvirlarni ajratish, qoida tariqasida, darhol ushlanadi.

Ko'rsatmalar: qaysi rasm (juftlikning) sizga ko'proq yoqqanini ko'rsating. Barcha tasvirlar - barcha test topshiriqlarida - bolaga anonim tarzda taqdim etiladi, muallif va rasmning nomi chaqirilmaydi.

Siz har qanday tartibda juftlarni taqdim etishingiz va rasmlarni bir juftlik ichida almashtirishingiz mumkin, lekin o'zingizni bir juftlik bilan cheklash tavsiya etilmaydi, tanlov butunlay tasodifiy bo'lishi mumkin.

Ushbu test topshirig'ining bajarilishini baholash to'g'ridan-to'g'ri rag'batlantiruvchi materialning o'ziga va tanlovning o'ziga xoslik darajasiga - ko'pchilik bolalar tomonidan ifodalangan odatiy munosabatga bog'liq. (Tasviriy san'at darsida o'quvchilarning badiiy ijodiy faoliyatini tashkil etishning metod va usullari. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi va texnikasi

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinf o'quvchilariga tasviriy san'atni o'qitishda, metodlarning o'rni juda ham muhim. Lekin metodlarni dars mavzusiga mos ravishda qo'llash va merosning samarasi o'qituvchiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S.F. Adirasulov tasviriy san'at o'qitish metodikasi 9-bet.
2. A. Xoliqov pedagogik mahorat 12- bet
3. Tasviriy san'at darslarida faoliyat turlari aloqadorligi asosida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning metodik asoslari. Xudoyberdiyev Pardaboy, JDPI Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi kafedrasini mudiri
4. Авторы: Хонбобоев Хакимжон Октамович, Полатов Фозилжон Усибхонович, Икромов Мухаммад-Анасхон Хакимжонович. Tasviriy san'atni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish
5. Pedagogik mahorat va unga erishish yo'llari
6. Material muallifi: T.G. Rusakova, Pedagogika fanlari doktori, XEV OGPU kafedrasini professori
7. B.N. Oripov tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. 3-bet

XALQ O'YINLARI ORQALI TARBİYALANUVCHILARDA JISMONIY BARKAMOLLIKNI TARBİYALASH

Ozodaxon Shokirova Abduxalimovna
Ta'lim kafedrası Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi
Muhammadjonov Muslimbek Muhsinjon o'g'li
Qo'qon Universiteti Ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning jismoniy tarbiyasi haqida ma'lumot berilgan. Ushbu maqola, avvalo, milliy mentalitetimizni va milliy urf-odatlarimizni o'zida jamlaydigan o'zbek xalq o'yinlari, ularning jamiyatimizda va yosh avlodni tarbiyalashda tutgan ahamiyati haqida so'z yuritadi. Hozirgi zamon pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biri xalq xazinalarini insonparvar pedagogik tarbiya tizimida qo'llash va ulardan mohirona foydalanish, bu bebaho, xalqchil, ma'naviy boyliklarni tarbiyachilarning har kungi ta'lim-tarbiyaviy ishlariga aylantirishdan iborat.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, maktabgacha ta'lim tashkiloti, harakat faoliyati, tarbiyachi, bola, sog'lomlashtirish.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev yosh avlod tarbiyasiga katta ahamiyat berib, shunday degan edi: "Yosh avlodni tarbiyalash biz uchun eng asosiy vazifadir". Shundan kelib chiqib, hozirgi vaqtda O'zbekiston pedagogik jamiyati tarbiyaning odatiy bo'lgan shakllari va usullarini izlab topish, o'sib borayotgan avlodda mustahkam umuminsoniy ishonch va qarashlarini shakllantirish; shaxsda milliy madaniyat va milliy qadriyatlarni hurmat qilish, avaylab-asrash tuyg'ularini o'stirishga diqqatini qaratmog'imiz lozim. O'zbek xalqining ming yillar davomida yaratgan, avlodlardan-avlodga o'tib kelayotgan ijod boyliklarini to'plash, o'rganish, bu boy xazinalar asosida yosh avlodni ma'naviy boy, axloqiy pok, jismoniy barkamol qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. O'zbek xalq harakatli o'yinlari o'tmishda ajdodlarimizning kundalik turmush-tarzi nimadan iborat ekanligini o'z ichiga olibgina qolmay, maktabgacha ta'lim-tarbiyada zamonaviy jismoniy tarbiya madaniyatini shakllantirishda ulkan ahamiyatga egadir.

P.F. Lesgaft bunday deb yozgan edi: "O'yinlarda muntazam mashg'ulotlar chog'ida o'zlashtirib olingan barcha harakatlar qo'llanadi. Shuning uchun bu yerdagi bajariladigan xatti-harakatlarning barchasi shug'ullanuvchilarning kuchi va mahoratiga to'la muvofiq kelishi hamda iloji boricha ko'proq darajada aniqlik va chaqqonlik bilan o'tkazilishi lozim". Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilar qadriyatlarga muhabbat uyg'otish, xalq an'analarini avaylab-asrashga o'rgatish ko'p jihatdan o'zbek xalq milliy o'yinlaridan unumli foydalanib bilishga bog'liq. Chunki milliy o'yinlar orqali bola bir tomondan jismoniy bilimlarni egallasa, ikkinchi tomondan, jismoniy madaniyatga qiziqtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanish masalalari ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilgan. Olimlarning tadqiqotlarida tarbiyalanuvchilarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi, harakat faolligi sustligi aniqlangan. Har bir yosh guruhiga jismoniy va ruhiy rivojlanishining muayyan darajasi mos keladi. Kichik maktab yoshida o'qish bolaning butun hayot tarzini o'zgartiradi va unga yangi talablar qo'yadi. Chunki bog'cha yoshida tarbiyalanuvchilarda, asosan nutqining rivojlanishiga, axloq me'yorlarining shakllanishiga asosiy e'tibor beriladi. Ularni tarbiyalashda maxsus tashkil etiladigan o'yin faoliyati katta o'rin tutadi. Bolaning rivojlanishi uchun didaktik ta'lim beruvchi va jamoa bo'lib birgalikda harakat qilishga o'rgatuvchi o'yinlardan foydalaniladi. Kichik maktab yoshida organizmning umumiy yetilishi fonida tarbiyalanuvchilarning harakat sohasi jadal rivojlanadi. Bu davr sport bilan, jismoniy madaniyat bilan faol shug'ullanish uchun juda qulaydir. Manashu jihatdan bolaning aynan shu

xususiyatlarni rivojlantiruvchi milliy xalq o'yinlaridan foydalanish tarbiyada ko'zlangan maqsadga yetish imkonini tezlashtiradi. Bunday o'yinlarda kichkintoylar mo'ljal olishni, izchil harakat qilishni va muayyan vaqt davomida ish bajarishni o'rganadilar. Harakat faoliyati tarzidagi harakatli o'yinlarning muayyan o'ziga xos xususiyati ham mavjuddir: u boladan signallarga tez reaksiya berishni ham, o'yin vaziyatini kutilmaganda o'zgartirib turishni ham taqazo etadi. O'yin chog'ida vujudga keladigan har turli vaziyatlar bolaning harakatlari karakteri va yo'nalishida zarur o'zgartirishlar qilishni, uning muskul kuchlarini muayyan tomonga qarab lozim darajada o'zgartirish zaruratini vujudga keltiradi. Bunday faol ravishda amalga oshiriladigan harakatli faoliyat tarbiyalanuvchilarning nerv sistemasini pishitadi, ulardagi qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarini takomillashtirib muvozanatga keltirib boradi, shuningdek ularda kuzatuvchanlik, topqirlik, o'zgarib turgan atrofdagi shart-sharoitlarda mo'ljal ola bilish, og'ir vaziyatdan chiqib ketish yo'lini qidirib topish, tez bir qatorga kelish va uni ijro etish, bunda jasurlik, chaqqonlik, tashabbus ko'rsatish, maqsadga erishish yo'lida harakat qilishning zarur usulini mustaqil ravishda tanlay bilish singari fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Xalq o'yinlarining donoligi shundaki, ularda hozirgi davrda yosh avlod jismoniy tarbiyasida dolzarb va samarali bo'lgan vositalar, usullar, shakl va uslublar saqlanib qolgan. Ushbu ishning dolzarbligi shundaki, so'nggi yillarda ilgari umume'tirof etilgan ko'plab madaniy an'analar yo'qoldi, insonga butun umri davomida hamroh bo'lgan ko'plab marosimlar va urf-odatlar o'tib ketdi. Bugungi kunga qadar ko'plab xalq o'yinlari unutilgan, ularning qoidalari yo'qolgan. Shu bois ham xalq o'yinlarini o'ynash juda ham muhim masaladir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, milliy xalq o'yinlaridan foydalanishda, ularni qo'llashda shuni hisobga olish kerakki, bu yoshdagi tarbiyalanuvchilar aniqlikni talab etadigan mayda harakatlarga qaraganda keng, kuchli harakatlarga ancha moyil bo'ladilar. Buni tarbiyalanuvchilar yosh davrlarini ishlab chiqqan buyuk pedagog YA.N.Komenskiy ham o'z vaqtida ta'kidlagan edi. Umuman bu yoshda tarbiyalanuvchilar juda ham harakatchanligi bilan ajralib turadi. Harakatchanlik esa maxsus, oqilona tashkil etilishni, harakatga soluvchi yurish-turish shakllarining to'g'riligini talab etadi. Milliy o'zbek o'yinlarini yoshlar, ayniqsa, maktab, maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilari sevib, maroq bilan o'ynamoqdalar. Bunday o'yinlar jismoniy tarbiya darslarida yoki maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagina emas, balki hovlilar va bog', parklarda dam olish soatlarida o'ynalsa juda yaxshi bo'lardi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham mashg'ulotlarni milliy o'yinlarga bog'lab tashkillansa, nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. Shuning uchun xalq milliy harakatli o'yinlariga e'tiborni kuchaytirish zaruriyati yanada yaqqol ko'rinmoqda. Qadriyatlariga e'tibor qaratish Sharq xalqlari madaniyatining juda ko'p unsurlarini saqlab qolishga va ulardan amaliy faoliyatda foydalanishga imkoniyat yaratiladi. Qadimgi mahalliy xalqlarimiz uchun an'anaviy milliy o'yinlar va milliy bellashuvlar qachonlardir ular hayotining ajralmas bir qismi bo'lgan, ular xalq marosimlarida, rasm-rusumlarda va urf-odatlarda mustaqil bir soha sifatida faoliyat ko'rsatib kelgan, mutahkam o'rin olgan. Yosh avlodning jismoniy jihatdan to'kis, sog'lom, mehnatga va Vatanni himoya qiluvchi tarzida o'sishidan xalq ham, jamiyat ham manfaatdor. Buning uchun maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilar jismoniy madaniyat bilan chuqur shug'ullanishlari, turli milliy o'yinlardan foydalanish mahoratini egallashlari kerak bo'ladi. Bu esa yosh avlod tarbiyasini yanada kuchaytirish, ularni o'z xalqi, mustaqil davlati va jamiyati oldidagi burchini his etish ruhida tarbiyalashdek g'oyat muhim vazifalar bilan bog'liqdir.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda quydagi takliflarni berishimiz mumkin.

1. Mashg'ulotlar davomida xalq milliy o'yinlarini mujassam ettiruvchi faoliyat ishlanmalar ishlab chiqish lozim. Bunda eng xavfsiz o'yinlarni tanlash va yosh guruhiga moslash asosiy vazifa hisoblanadi.

2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida sport musoboqalarini tashkillash va bu o'yinlarda bolalarning faolligini ta'minlash kerak.

3. Dam olish daqiqalarida milliy musiqa sadolari ostida (Andijon polkasi) xalq o'yinlarining ma'lum qismini qamrab oluvchi mashqlar qilish kerak deb o'ylayman.

4. Zamonaviy multimediya vositalaridan foydalanish bugungi kunning asosiy talabi ekan, milliy o'yinlarimiz aks etgan multfilm, qo'shiqlar namoyish etish maqsadga muvofiqdir.

5. Xalq o'yinlarida qo'llanuvchi anjomlarni (masalan, tarbiyachi boshchiligida uloq o'yini uchun mato qiyqimlaridan qo'zichoq yasash) qo'lda yasash va ular bilan ushbu o'yinni o'ynash bolalarda xalq o'yinlariga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Yuqoridagi fikrlarni jamlab, shuni aytishimiz mumkinki, xalq o'yinlari milliyligimizni sofligicha saqlashi bilan bir qatorda kelajagimiz poydevori bo'lmish bolajonlarimizni ham jismonan, ham ruhan chiniqishida ahamiyati katta.

Fodalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 1992.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". T.: O'zbekiston 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M "Harakatlar strategiyasi 2017-2021 y" T.: Ma'naviyat, 2017
4. Mirziyoyev Sh.M "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017
5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevor. T.: Sharq, 1997
6. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasining davlat o'quv dasturi. T.: 2018
7. Qodirova F.R, Qodirova R.M. Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi. T, Fan va texnologiya 2011
8. O'zbekiston Respublikasi davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti to'g'risidagi Nizom. T: 2017
9. Hasanboyeva O. Tadjiyeva M, Toshpulatova Sh va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm-ziyo, 2012
10. Qodirova.F, Toshpulatova Sh, A'zamova M. Maktabgacha pedagogika. O'quv qo'llanma T.: Ma'naviyat, 2013
11. Qodirova F. R. Tashpulatova Sh.K. Tarbiyalanuvchilar bog'chasida metodik ishlar. Darslik T.: Voris, 2012
12. Qayumova N. Maktabgacha pedagogika. T.2013
13. Qodirova. F.R, Toshpo'latova Sh. Q, Kayumova N.M, A'zamova M.N Maktabgacha pedagogika. Darslik "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti 2018
14. Qodirova. F.R, Toshpo'latova Sh. Q, Kayumova N.M, A'zamova M.N Maktabgacha pedagogika. Darslik "Tafakkur" nashriyoti 2019

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH JARAYONIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

S.X. Xolto'rayeva
Nizomiy nomidagi TDPU maktabgacha ta'lim
metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga har tomonlama sifatli tayyorlash va uyg'un rivojlantirishni asosiy maqsad qilib olingan. Maktabgacha ta'limning sifat samaradorligini oshirishda bolani erta yoshdanoq maktabga tayyorlashda tayanch kompetensiyalarni integratsion shakllantirish, pedagogik, psixologik jarayonlarga zamonaviy yondashishni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: Bola, maktabgacha ta'lim, kompetensiya, ijtimoiy-hissiy, kommunikativ, shaxsiy, bilish, rivojlantirish, qiymat natija, samaradorlik.

Bugungi kunda xorijiy tajribalar maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs sifatida shakllanishida hayotiy yo'nalishlarini tanlash uchun shart-sharoitlarni ta'minlash zarurligini ko'rsatmoqda. Rivojlangan davlatlarda ta'limga e'tibor va unga sarmoya kiritish davlatni mustahkamlashning eng muhim omili ekanligi o'z isbotini topdi. Maktabgacha yosh davri o'ziga xos ijtimoiy madaniy hodidsa ekanligi, uning bola hayotidagi ta'siri butun umri davomida mustahkam zamin yaratishini tushunish dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.

Jahonda ta'lim sohasidagi innovatsion rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda maktabgacha ta'lim tizimini kompetensiyaviy talablar asosida takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, dunyo miqyosida bolalarni psixofiziologik, intellektual, ijodiy va shaxsiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kreativ texnologiyalarni rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida shaxsga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim muhitini tashkil qilish hamda strategik boshqaruv tamoyillari asosida maktabgacha ta'limning sifat mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mazkur tadqiqotlarda maktabgacha ta'limni boshqarishning axborot metodik

tizimini takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, ta'lim-tarbiya jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv va muammoli-vaziyatli o'qitish usullarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tizimi pedagoglarining kasbiy innovatsion kompetentligini rivojlantirish va baholashning samarali shakl va metodlarini amaliyotga joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda Maktabgacha ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilib, bu borada keng ko'lamlı ishlar amalga oshirib borilmoqda. 2016-2020 yillar mobaynida sohada jadal sur'atlar bilan o'sish, hamda ulkan o'zgarishlar yuz berdi. 2019-yilning 8-mayida davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'grisida"gi PQ-4312-sonli qarori tasdiqlandi va bu qarorlarning tub zamirida maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama uyg'un rivojlantirish, maktab ta'limiga sifatli tayyorlash ko'zda tutilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tayanch kompetensiyalarni shakllantirish kelajakda ularni maktab ta'limida qiynalmay o'qishlarishlari uchun zamin yaratadi. Bolaning asosiy kompetensiyalari kommunikativ, ijtimoiy kompetensiya, bilish, shaxsiy kompetensiyalar bo'lib hisoblanadi.

Kommunikativ kompetensiya – atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega bo'lishni taqozo qiladi; muloqot qilish va yuzaga kelgan o'yin, bilish, maishiy va ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati. Bu kompetensiyaga nutqni rivojlanish ham kiradi.

Ijtimoiy kompetensiya – bu bolaning belgilangan tartib va odob-ahloq qoidalariga rioya qilgan holda tengdoshlari va kattalar bilan birgalikda ishlash qobiliyati. Bolalar boshqalarni hurmat qilishni va ularning aytganlarini hisobga olishni o'rganadilar.

Shaxsiy kompetensiya ("Men" konsepsiyasini yaratish). Shaxsiy kompetensiyani rivojlantirish orqali bola maktabgacha yoshda shakllanadigan va butun hayoti davomida takomillashib boradigan bir qator xususiyatlarni namoyish etadi. Bu kompetensiya bolaning o'z-o'ziga g'amxo'rlik qilish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyatini hamda kundalik hayotini boshqarish va barqaror sog'lom turmush tarzini amalga qo'llash mahoratini o'z ichiga oladi.

Bilish kompetensiyasi bilim olish, o'qish va o'rganish, mustaqil ravishda izlanish, tahlil qilish va atrof olamni tushunish uchun kerakli ma'lumotlarni tanlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shunday ekan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida tayanch kompetensiyalarini integratsion tarzda shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'pgina psixologik va pedagogik adabiyotlarda "maktabga tayyorlik" tushunchasi insonning shaxs sifatida rivojlanishining o'ziga xos xususiyati bo'lib, u boladagi psixologik, psixologik aqliy xususiyatlarning ko'lami bilan ifodalanadi, ularsiz maktabda o'quv faoliyatini muvaffaqiyatli o'zlashtirish mumkin emas

V.V. Davidovning ta'kidlashicha, "maktabga tayyorlik – bu katta maktabgacha yoshdagi bolaning morfofiziologik va psixologik xususiyatlari to'plami bo'lib, uni tizimli tashkil etish maktabga muvaffaqiyatli o'tishni ta'minlaydi "

Maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondshuvning asosiy maqsadi va vazifalari quyidagilar natijasida belgilanadi:

1) qiymat - kompetensiyani egallash va namoyon qilish maktabgacha ta'lim mazmunini o'zlashtirish jarayonida sodir bo'ladi;

2) maqsad - kompetensiya intellektni rivojlantirish va ko'nikmalarni (bilim, ko'nikma, ko'nikma, tajriba, munosabatlar) birlashtirganda, ta'limni ijtimoiylashtirish va individuallashtirishni amalga oshirish.;

3) natija - kompetensiya harakat va faoliyat sohasidagi bir-biriga yaqin bo'lgan bir qator ko'nikmalarni (kommunikativ, axborot, til, ijtimoiy, shaxsiy va boshqalarni) o'z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiyatini rivojlantirish maktabgacha yoshdagi bolaning butun hayoti va uning keyingi ta'limi uchun muhim asos sifatida qaraladi. Maktabga tayyorlash jarayonida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ, ijtimoiy-madaniy, bilish, shaxsiy kompetensiyasini shakllantirish juda muhim, bu bolaning jamiyatda yashash uchun zarur bo'lgan dastlabki kompetensiyalar hisoblanib, kelgusida bolalarni maktab ta'limi jarayoniga muammolarsiz o'tishini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'grisida"gi PQ-4312-sonli qarori (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-son; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 06/21/26/1111-son)

2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent-2022-yil

3. "Bolangiz maktabga tayyormi?" O'z. Res. Xalq ta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi, Ma'rifat-Madadkor nashriyoti.

4. КОМПЕТЕНТНОСТНАЯ МОДЕЛЬ ДОШКОЛЬНОГО БРАЗОВАНИЯ КОЛЛЕКТИВНАЯ МОНОГРАФИЯ- Ставрополь, 2018

O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNING RIVOJLANISHI VA ISTIQBOLLARI

Yo'ldasheva Marg'iyona Asrorxon qizi
Qo'qon universiteti Boshlang'ich talim yo'nalishi
1-kurs talabasi,
Teshaboeva Feruza Raximovna
Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrası dosenti

Annotatsiya: maqolada inklyuziv talimning O'zbekistondagi rivojlanishi, inklyuziv ta'limning O'zbekistondagi huquqiy – me'yoriy asoslari, ushbu sohada maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida olib borilayotgan islohotlar va inklyuziv ta'limning O'zbekistonda inklyuziv ta'limning rivojlanishi va istiqbollari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, nogiron bolalar, sog'lom bolalar, teng huquqlik, imkoniyat, cheklanganlik, mutaxassis, o'qituvchi, qonun, rivojlantirish.

Inklyuziv ta'lim — davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. "Inklyuziv ta'lim" atamasi fransuzcha „inclusif“ so'zidan kelib chiqqan bo'lib, „o'z ichiga oladi“ deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo'lgan va shartli ravishda sog'lom, ya'ni sog'ligi cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta'limini anglatadi. Inklyuziv ta'limning mazmun mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda yetarli emas.

Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir. Inklyuziv ta'lim olish jarayoni bir-biriga o'xshamaydigan, intellektual, jismoniy va aqliy xususiyatlarga ega bo'lgan odamlar maxsus bilimga muhtoj bo'lmagan tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va ko'nikmalarni oladigan tarzda tashkil etiladi. Inklyuziv ta'lim alohida ehtiyojli bolalar bilan sog'lom bolalar uchun teng ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. UNICEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'iy nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etish. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordam olishi darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

Respublikamizda 2020 yil sentyabr oyida yangi tahrirdagi „Ta'lim to'g'risida“ gi qonun tomonidan tasdiqlandi. Tasdiqdan oldin esa, O'zbekiston Respublikasi nogironlar assotsiatsiyasi mutaxassislar bilan birga qonun loyihasining inklyuziv ta'lim tamoyillariga muvofiqligi bo'yicha tahlili o'tkazdi. Qonunning 20- moddasida Jismoniy, aqliy, sensor va ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etiladi. Ushbu qonunda belgilangan vazifalarni to'laqonli bajarish maqsadida 2020 yil 13 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori, hamda Vazirlar Mahkamasining 2021yil 12 oktyabrda «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 638-son qarorlari ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori bilan tasdiqlangan "2020–2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi"da alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar shuningdek tegishli kadrlar bilan ta'minlash alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash va boshqalar.

SHuni ham alohida ta'kidlash joizki, ushbu qaror bilan "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi. Unda quyidagilar belgilandi:

- inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo'lga qo'yish;

- o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish tartibi o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish chora-tadbirlari. Shuningdek ushbu qaror bilan quyidagi me'yoriy hujjatlar tasdiqlandi:

- Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizom;

- Sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizom;

- Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarga uyda yakka tartibda ta'lim berish tartibi to'g'risidagi nizom.

Ushbu qonunosti xujjatlarida imkoniyati cheklangan bolalarning ta'limi, rehabilitatsiyasi, ijtimoiy munosabatlarda erkin, qulay va xavfsiz harakatlanishini ta'minlashga qaratilgan huquqiy me'yorlar belgilab qo'yildi. Bundan tashqari qaror bilan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida kasbga o'qitish kurslarini tashkil etish chora-tadbirlari belgilandi.

Nogironlarni umumta'lim tizimida o'qitish masalalariga e'tibor berish Respublikamizda 1996 yilda O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi, Respublika ta'lim markazi va YuNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda respublika seminari o'tkazilishi bilan islohotlar amalga oshirila boshladi. Shu davrdan boshlab olimlar, maxsus ta'lim tizimidagi rahbar xodimlari, pedagoglar, umumta'lim muassasalarining rahbarlari va nodavlat jamoa tashkilotlarining nogironlar ta'limi ehtiyojini qondirishga qaratilgan munosabatlari o'zgarib boshladi.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish, tarbiyalash, kasb-xunarga yo'naltirish, jamiyatga uyg'unlashtirish masalalari davlat siyosatining dolzarb yo'nalishlaridan hisoblanadi. Chunki O'zbekistonda taraqqiyotning besh tamoyilidan birinchi kuchli ijtimoiy siyosat maqsadli yo'lga qo'yilganligi bois, aholining ko'makka muhtoj qatlamlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash huquqiy jihatdan kafolatlangan.

Jahon ta'limi amaliyotida ham ta'lim oluvchilar ehtiyojlariga moslashuvchan o'quv muhitini yaratish, variativ o'quv dasturlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim sohasidagi siyosati yo'nalishlaridan biri bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari xilma-xilligini hisobga olgan holda ta'lim berishni nazarda tutadigan inklyuziv ta'lim g'oyalarini ishtirokchi davlatlar tomonidan keng amalga oshirilishini ta'minlash hisoblanadi. YUNESKONing ijtimoiy fanlar sohasidagi dasturlari inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan bilimlar, standartlar hamda intellektual hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirishda gender tenglik, ta'lim olish huquqi kafolatlarini kuchaytirish mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda kadrlar tayyorlash tizimining asosiy va hal qiluvchi bosqichi sifatida boshlang'ich ta'limni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, ta'lim jarayonining tashkiliy, metodik komponentlarini, didaktik tizimini takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu jihatdan o'qituvchilarni ta'limda alohida ehtiyojlari bor bolalar bilan ishlashga kasbiy tayyorlashning nazariy-pedagogik jihatlarini aniqlashtirish orqali inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'limda sog'lom tengqurlari bilan birgalikda imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olish ehtiyojini jahon standartlari asosida ta'minlashda tashkilotlararo maqsadli va amaliy natijalarga yo'nalgan hamkorlik hamda integrativ chora-tadbirlar taqozo etiladi. Ta'lim klasteri sharoitida barcha bolaga birdek sifatli ta'limni tashkil etishda o'qituvchining roli va mavqei, ota-onalar va keng jamoatchilikning pedagogik savodxonligini oshirish taqozo etiladi.

Mamlakatimizda ham inklyuziv ta'lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida tashkil etishning huquqiy me'yorlari ishlab chiqilganligi biz kabi bo'lajak boshlang'ich ta'lim mutahassislarini ham juda quvontirdi, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23-sentyabr.O'RQ-637-son
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2021yil 12 oktyabrda «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 638-son qarori.
4. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova " Inklyuziv ta'lim" Qo'qon-2023
5. X. N. Muzaffarova, D. Tangirova „Inklyuziv ta'lim“. library.samdukf.uz. Qaraldi: 10-noyabr 2022-yil.

MAKTABGA TAYYORLASHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI

Madaminova Shohsanam Odiljon qizi
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi,
Parpiyev Odil Olimovich
Ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Muallif maqolada MTTlardagi maktabga tayyorlov guruhlarining 3 bosqichdagi rivojlanish darajasini: jismoniy rivojlanish, ma'naviy rivojlanish hamda bolalarda nutq rivojlanishini ilmiy va pedagogik jihatdan sohadagi yetuk olimlar, ilmiy tadqiqotchi va amaliyotchilarning olib borgan izlanishlarini o'rgangan holda asoslab bergan. Maqolada maktabga tayyorlov guruhlaridagi mavjud muammolarni ham sanab o'tgan va ularga yechim sifatida soha olimlarining ilmiy izlanishlaridan iqtiboslar keltirish orqali yechim topa olgan.

Kalit so'zlar: MTT, tayyorlov guruh, tarbiyachi, tarbiyachi-pedagog, "Ilk qadam", davlat dasturi, hissiy rivojlanish, nutqni rivojlantirish, ma'naviy rivojlanish, jismoniy rivojlanish, variativ dastur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman". Bolaga yoshligidan yaxshi ta'lim-tarbiya berilsa, shubhasiz, uning kelajagi uchun puxta poydevor bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilimga, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, fikrlarini mustaqil va erkin ifodalay olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish bugungi kunning asosiy vazifalaridandir.

Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi siyosiy va iqtisodiy sohalar bilan bir qatorda ta'lim tizimini o'zgartirish, uni bugungi kun talablari asosida tashkil qilish maqsadida bir qator mazmunli ishlar izchil amalga oshirib kelinmoqda. Ta'lim sohasida keng joriy qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasida: "Maktabgacha ta'lim yosh avlodni tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, yetik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir" - deyilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarorida ham maktabgacha ta'lim muassasasida 6-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorgarlik monitoringini joriy etish va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish zarurligi ko'zda tutilgan.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, u yerda beriladigan ta'lim-tarbiyani to'liq o'zlashtira olishlariga erishish MTT tarbiyachilari asosiy faoliyatlarining bir qismidir.

Maktab ta'limiga tayyorgarlik - bu maktabgacha ta'lim muassasasi va oilada bolalarga berilgan ta'lim-tarbiyaning muhim natijasidir. U maktab bolaga qo'yadigan talablar majmui orqali aniqlanadi. Bu talablarning o'ziga xos tomoni o'quvchining yangi sotsial-psixologik o'rni, u bajarishi lozim bo'lgan yangi vazifa va burchlarni o'zida mujassam qiladi. Yetakchi mutaxassislarining fikriga ko'ra, "maktabga tayyorgarlik" tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi:

- jismoniy;
- shaxsiy (ruhiy);
- aqliy;
- maxsus tayyorgarlik.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'lig'ini ta'minlash ularni maktab ta'limiga tayyorlashning vazifalaridir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar, asosan, maktab ta'limiga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada tayyorlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni rivojlantirish va maktab ta'limiga tayyorlash 3 bosqichda amalga oshiriladi.

1. Bolalarning nutqini rivojlantirish.
2. Jismonan rivojlantirish.
3. Ma'nan rivojlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari sog'lom va yetuk, maktabga, o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirib borishdan iboratdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalash muammosi tarixiy xarakter kasb etib, bu borada Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, A.Navoiy kabi sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid ilmiy adabiyotlar muhim ahamiyatga ega.

Yosh avlodga har tomonlama ta'lim-tarbiya berish maqsadida B.Adizov, P.Jo'rayev, O.Jamoldinova, M.Inomova, O.Musurmonova, M.Quronov, Z.Ismoilova, U.Mahkamovlar tomonidan ijtimoiy-pedagogik, antropologik va akmeologik masalalar ilmiy darajada o'rganib chiqilgan.

Psixolog olimlardan M.Davletshen, B.Karimova, Z.Nishonova, N.Safayev, E.G'oziyevlar tomonidan muammoning psixologik jihatlarini o'rganilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 6-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan majburiy boshlang'ich bir yillik tayyorlash guruhlarida bola portfoliosini yaratish orqali bolani maktab ta'limiga tayyorlash va o'sib kelayotgan yosh avlod bilimli va yetuk malakaga egaligini ta'minlaydi. Respublikamizda bu vazifalarni hal qilish borasida bir qator ilmiy-tadqiqot, o'quv-pedagogik, uslubiy va dasturiy ishlar amalga oshirilgan.

Respublikada maktabgacha ta'lim tizimi bo'yicha qabul qilingan "Ilk qadam" tayanch dasturi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashdek zarur ishni ta'minlaydi. Ya'ni, bu o'rinda maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab ishidagi izchillik katta ahamiyat kasb etadi. Bu izchillik ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari orqali ta'minlanib, izchillikni amalga oshirishning mavjud imkoniyatlari, ta'lim tizimi va uning tarkibiy va g'oyaviy tuzilishi prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida bolalarni samarali maktab ta'limiga tayyorlash haqidagi qator qaror va farmoishlar ijro etilmoqda. P.Yusupova, R.M.Qodirova, D.Abdurahimova, X.B.Tulenova, D.R.Boboyeva, V.I.Loginova, P.R.Samorukova, M.A.Solihova, K.S.Shodiyeva, Sh.A.Sodiqovalar tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish va maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash muammolari o'rganilgan.

Bolalarni maktabga tayyorlash, birinchidan, bolalar bog'chasida tarbiyaviy ishni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umumiy, har tomonlama rivojlantirishning yuqori darajasini ta'minlaydigan, ikkinchidan, bolalarni maktabning boshlang'ich sinflarida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan o'quv fanlarini egallashga maxsus tayyorlashni ta'minlaydigan qilib tashkil etilishini nazarda tutadi. Shunga ko'ra zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotda (A.V.Zaparojets, A.A.Venger, G.M.Lyamina, G.G.Petrogenko, J.V.Taruntayeva va boshqalar) tayyorgarlik tushunchasi bola shaxsini rivojlantirish sifatida aniqlanadi va ikkita o'zaro bog'langan jihatlarida: "Maktabga o'qishga umumiy psixologik tayyorgarlik" va "Maxsus tayyorgarlik" tarzida ko'rib chiqiladi.

Marsimkevich "Bolalarni maktab o'qishi uchun tayyorlash" mavzusidagi savodxonlikka tayyorlash bo'yicha uslubiy qo'llanmasida 1-6 yillik savodxonlik shaklini taqdim etgan. Qo'llanmada bolalarning ajoyib shakldagi harflar va tovushlar, ularning xususiyatlari, o'xshashliklari va farqlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishlari va materiallarni bolalar bog'chalari guruhlari, maktabgacha tarbiyachilar bilan ishlashda maktabga tayyorgarlik ko'rish paytida foydalanilishi mumkinligi to'g'risida fikrlar keltirilgan.

Maktabga psixologik tayyorgarlik muammosi yangi emas va bu ilmiy adabiyotlarda o'z aksini topgan. Zamonaviy hayotning tarbiya va ta'limni tashkil etishning o'ta yuqori talablari bizni o'qitish uslublarini hayot talablariga moslashtirishga qaratilgan yangi, yanada samarali psixologik va pedagogik yondashuvlarni izlashga majbur qiladi. Shu ma'noda maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabda o'qishga tayyorligi muammosi alohida ahamiyatga ega. Uzoq vaqt davomida bolaning o'qishga tayyorligi mezonlari uning aqliy rivojlanish darajasi ekanligiga ishonishgan. L.S. Vigotskiy birinchilardan bo'lib maktabga o'qishga tayyorgarlik g'oyalarning miqdoriy zahirasida emas, balki bilim jarayonlarining rivojlanish darajasida bo'ladi degan fikrni shakllantirdi.

O'qish qobiliyatini shakllantiradigan fazilatlar majmuasi sifatida maktabga o'qishga tayyorlik konsepsiyasini A.V.Zaporojets, A.N. Leontev, V.S. Muxina, A.A. Lyublinskayalar ishlab chiqqan.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasida bolalarning hissiy idroki va sezgilarini rivojlantirishga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Bunday yondashuv F.Frebel, M.Montessori, O.Dekroli, Ye.I.Tixeyeva va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. O'zbek pedagoglaridan M.Rasulova, A.Oxunova, L.Nazirovalar mazkur muammolar bilan shug'ullanganlar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar haqida"gi 999-sonli qarori imzolandi va unga ko'ra maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va o'rta maktablarda ta'lim xizmatlarini kengaytirish maqsadida mulkchilik shaklidan qat'i nazar, raqobatbardoshlikni oshirish, 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun majburiy bir yillik bepul o'qishga o'tish, aholida ushbu maqsadlarni ommalashtirish uchun ta'lim tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarda ta'lim tashkilotlarining bir qator ta'lim xizmatlarini tanlash bo'yicha huquqlari belgilab berildi.

Quyidagi qaror va farmoyishlarda ham 6-7 yoshli bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy bepul tayyorlash haqida bir qator samarali ishlar olib borilishi haqida fikrlar bildirilgan. "Bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy bepul tayyorlash uchun pilot guruhlarni tashkil etish to'g'risidagi nizom" (2018-yil); Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (2021-yil).

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, 6-7 yoshli bola organizmning tayanch-harakat va yurak-qon-tomir tizimlarining intensiv rivojlanishi hamda takomillashishi, mayda mushaklarning rivojlanishi, markaziy asab tizimidagi ayrim bo'linmalarining rivojlanishi va differensirovkalanishi ro'y beradi. Bolaning vazni oyiga taxminan 200 gr atrofida, bo'yi o'sishi esa 0,5 sm ga ortib boradi, tana proporsiyalari o'zgarib boshlaydi. 7 yoshli bolalarning bo'yi o'rtacha 113-122 smga, o'rtacha vazni esa 21-25 kgga teng bo'ladi. Miya sohalari deyarli katta yoshli kishilarnikidek shakllangan. Harakat sohalari yaxshi rivojlanadi. Ushbu yoshda bolada bir qator psixologik o'zgarishlar ro'y beradi. Bu yosh bosqichining o'ziga xos tomoni bilishga doir va fikriy psixik jarayonlarning faol rivojlanishi hisoblanadi. Bola kuzatishga qarab izlash kabi ixtiyoriy harakatlarni bajaradi. Mana shu yoshda sensor etalonlar – shakl, rang, o'lcham to'la o'zlashtiriladi. Maydon-makonni anglashning rivojlanishi davom etadi. Bola pastga, tepaga, boshqa tomonga kabi tushunchalar bilan amallarni bajara boshlaydi. Shuningdek, endilikda o'ng va chap tomonni tasavvur qilish aniq shakllangan bo'lishi kuzatiladi. Biroq bu

yoshdagi bolalarda bir vaqtning o'zida turli xildagi belgilarning hisobga olinishi lozim bo'ladigan paytlarda xatolikka yo'l qo'yishlari mumkin.

Diqqat. Maktabgacha yosh oxiriga kelib ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi. Bola diqqatini ongli ravishda ma'lum bir predmetlarga va ob'ektlarga yo'naltirib va jamlab tura oladi. Diqqatning barqarorligi ortishi – 20-25 daqiqa, diqqat hajmi 7-8 ta predmetni qamrab oladi. Bola ikkiyoqlama tasvirlarni ko'ra olishi mumkin.

Xotira. Maktabgacha yosh oxiriga kelib bolada psixik faollikning ixtiyoriy shakllari paydo bo'ladi. U endilikda predmetlarni qarab chiqa oladi, maqsadga qaratilgan kuzatishni amalga oshira olishi mumkin, ixtiyoriy diqqat paydo bo'ladi va buning natijasida ixtiyoriy xotira elementlari yuzaga kela boshlaydi.

Fikrlash. Ilgarigidek, yetakchi bo'lib ko'rgazmali-qiyofaviy fikrlash hisoblanadi, lekin maktabgacha yosh oxiriga kelib so'zli-mantiqiy fikrlash shakllana boshlaydi. U so'zlarni ishlata bilish, fikr-mulohazalar mantig'ini tushuna olish mahoratining rivojlanishini ko'zda tutadi. Bu yerda albatta katta yoshlilarning yordami zarur bo'lib hisoblanadi.

Tasavvur. Avvalo, bola ongida yaratuvchilik tasavvurlari bo'ladi, ya'ni, biron-bir ertaknamo qiyofalarni tasavvur qilishga imkon beradigan tarzda bo'ladi, keyinchalik esa butunlay yangi qiyofalarni yaratishga qodir bo'lgan ijodiy tasavvurga aylanadi.

Nutq. Bolaning so'z boyligi ortadi, kerakli sinonimlar, antonimlar va sifatlardan foydalana boshlaydilar. Agarda bola bilan birga ko'p o'qilsa va muloqot qilinsa, unda bu yoshga kelib ham monologik nutq (tushuntirishli va talqin qiluvchi, bayoniy nutq) hamda muloqotda ishtirok eta olish mahorati yaxshi darajada shakllangan bo'ladi. Yozma nutq shakllana boshlaydi. So'z boyligi taxminan 3000 ta so'zgacha boyib boradi.

Shaxs rivojlanishi. Butun maktabgacha yosh davomidagi faoliyatning yetakchi turi bo'lib hisoblangan o'yin mana shuning natijasida endi bolaning ehtiyojlarini to'la qondira olmay qoladi. Bolada endilikda o'z bolalarcha hayoti doirasidan tashqariga chiqishga intilish, ijtimoiy-ahamiyatli faoliyatda o'z o'rnini egallash istagi yuzaga keladi.

O'z "Men"ini anglash. Maktabgacha yoshdagi bolaning ongidagi asosiy o'zgarish bo'lib "harakatlar ichki rejasi"ning paydo bo'lishi hisoblanib, u bolaga nafaqat ko'rgazmali tarzda, balki ongli ravishda ham turli xildagi tasavvurlarni hosil qilishga yordam beradi. 6-7 yoshli bolaning psixik va shaxsiy sohalarida rivojlanishining eng muhim yangi hosilasi sifatida motivlarning bo'ysundirilishi hisoblanadi. "Men qilishim kerak", "Men qila olaman" motivlarining anglanishi "Men xohlayman" motivi ustidan ustunlik qila boshlaydi.

6-7 yoshli bolaning muloqoti. Bu yoshdagi muloqot vaziyatli-shaxsiy, ya'ni, berilgan konkret vaqtdagi vaziyatni emas, balki "nima bo'ldi" yoki "nima bo'ladi" tarzidagi vaziyatni aks ettiruvchi sifatida bo'ladi. Muloqotning asosiy mazmuni kishilar dunyosi, xulq-ator qoidalari, tabiiy hodisalardan iborat bo'ladi. Kattalar dunyo tabiatini ochuvchi ijtimoiy me'yorlar, ijtimoiy kontaktlar va odamlar orasidagi qoidalarning tashuvchisi bo'lib sanaladi. Muloqot jarayonidagi yetakchi ehtiyoj – o'zaro tushunish, his-tuyg'ularni his qilish ehtiyojidir. Bola kattalar bilan o'zining ham ijobiy, ham salbiy yorqin kechinmalari bilan o'rtoqlashadi.

6-7 yoshli bola, avvalo, maktab ta'limiga jismoniy jihatdan sog'lom va tayyor bo'lishi lozim. 6-7 yoshli bolalar asab tizimiga alohida e'tibor berish va umurtqa pog'onasining to'g'ri shakllanishi nihoyatda muhim. Bolada o'z "Men"ini anglash bilan bog'liq bo'lgan hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'ladigan faoliyat usullarini tizimlashtirib borish orqali maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishni ko'zda tutadi. Boshlang'ich asosiy kompetensiyalar faoliyat va xulq-atvor sub'ekti sifatida bolaning yaxlit rivojlanishini talab qiladi. Bolalarni maktabga tayyorlash guruhlarida bolalarning barcha faoliyati, mashg'ulotlarni ham o'z ichiga olgan holda o'yinli tarzda o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

6-7 yoshli bolaning maktabga tayyorgarligi ko'p jihatdan psixologik rivojlanish darajalari bilan belgilanadi.

Ko'plab bolalar 6 yoki 7 yoshga kirganda og'zaki so'zlardagi alohida fonemalarni aniqlay olishadi. Ushbu so'nggi qobiliyat o'qishni o'rganish bilan birga paydo bo'lganga o'xshaydi. Tadqiqotchilar Entoni va Frensislar xatlarni tanib olish va fonologik xabardorlikni bolalarning erta o'qish qobiliyatining muhim omillaridan biri sifatida doimiy ravishda aniqladilar. Bolalar ushbu muhim ko'nikmalarni nutqdagi so'zlarni aniqlash bo'yicha takroriy tajribalardan so'ng egallaydilar.

Bolalar oilada tarbiyalanadi va unda yuz beradigan voqealar ularga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari maktabgacha yoshdagi bolaning ilk tabiiyachisi sifatida bola shakillanishida va rivojlanishida mas'uliyat bilan yondashmoqlari lozim. 6-7 yoshli bolani maktabga sifatli tayyorlash hamkorlik asosida shakllangan munosabatlarga tayanadi.

Mutaxassislar tomonidan hozirda 6-7 yoshli maktabgacha yoshdagi bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik bepul tayyorlash bo'yicha guruh pedagoglarining lavozim yo'riqnomasi ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, boshlang'ich ta'limni majburiy bir yillik tayyorlash uchun guruhdagi pedagog lavozimiga asosiy xodimlar orasidan maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining buyrug'i bilan tayinlanadi.

Guruh pedagogi quyidagilarni bilishi zarur: O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya" va sohaga oid normativ hujjatlarni bilishi lozim. 6-7 yoshli bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash bo'yicha guruh tarbiyachisi guruhda o'z tajribalaridan kelib chiqqan holda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. Tarbiyachi tegishli ixtisoslashtirilgan ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va yuqori axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar bo'lishi lozim.

Bolalar nutqini rivojlantirishda lug'at ustida ishlash yaxshi samara beradi, ya'ni bola nutqidagi passiv so'zni faollashtirish eng sinalgan usullardandir. Bu haqda TDPU professori F. Qodirova shunday deydi: "Olti- yetti yoshda bolaning faol lug'ati 3,5 mingacha oshadi. Bola yetti yoshida ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz eta boshlaydi, yetarli so'z boyligiga ega bo'ladi. Mazkur ishlar ma'lum izchillikda olib borilsa, bolalar yangi bilim va tasavvurlarga ega bo'lib, hodisalar, buyumlarning nomlarini, sifat va xususiyatlarini aniqlashga o'rganib boradilar. Jumladan, buyumlarning nimadan yasalganini bildiruvchi so'zlar - temir, yog'och, loy, plastmassa, gazlama kabilarni o'zlashtirib boradilar. So'ng biz ularni o'zga tilga o'rgatib, so'z boyligini oshirib boramiz".

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining eng asosiy vazifalaridan biri bu "maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ona tilida nutq o'stirish ishlarini yo'lga qo'yish"dir.

L.R. Mirjalolova shunday deydi: "Bola hayotining yettinchi yilida "undagi harakatlar ko'lami kengayadi va aniqlashadi, uning jismida harakatlarning o'zaro moslashuvi boshlanadi. 6-7 yoshli bolalar o'zini idora qilish va o'z harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'la boshlaydi. Bu yoshdagi o'g'il bolalarda mustaqil faoliyat ko'rsatish, tashabbuskorlik rivojlanadi hamda kattalar fikrini tinglash ishtiyoqi shakllanadi".

Demak, bolalarni maktabga tayyorlashda soha olimlari, tadqiqotchi-pedagoglarning ilmiy tadqiqot ishlari tarbiyachilarga yaqindan yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Shavkat Mirziyoyev: "Boy va farovon yashamoqchi bo'lsak, haqiqiy bozor iqtisodiyotiga o'tishimiz shart. Yagona yo'limiz shu" (xabar.uz). (Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi).

2.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Xalq so'zi" gazetasi, 2020., 24 sentabr, 202 (7704)-son.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risi"da gi PQ-4312-sonli qarori (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.10.2018-y.

4.Asqarova D.Q. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi. O'quv qo'llanma. "Navro'z" nashriyoti, T.: 2020. 338 b.

5.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8-dekabrdagi "Boshlang'ich ta'limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar haqida"gi 999-sonli qarori.

6."Ilm yo'li" variativ dasturi. Toshkent, 2019-yi 20-sentabr.

7."Bolalarni maktabga tayyorlashning pedagogik-psixologik, tashkiliy-metodik jihatlari". Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent, 2015.

8.Ona tili fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari. Toshkent, 2021.

AUDIOLINGVAL METODNING AFZALLIKLARI

Mannonova Muxarramabonu
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi,
Odiljon Parpiyev
"Ta'lim" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada audiolingval metodning paydo bo'lishi, uning ta'lim tizimidagi ya'ni tilni o'rganishdagi ahamiyati, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy savodxonligini rivojlantirishda tinglab tushunishning afzalliklari, Milliy o'quv dasturining mazmunida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ifodalanishi, bir qator olimlarning audiolingval metod haqidagi fikrlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, audiolingval metod, kompetensiya, tinglab tushunish, nutqiy savodxonlik, og'zaki nutq, audiomatn, darslik, milliy o'quv dasturi.

Kirish. Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalaridan hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda (darsda) amaliy egallash murnkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganiladi.

Ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o'taydigan birinchi tildir. Ruhshunoslar e'tirofiga binoan „tafakkur — verbal“, ya'ni fikrlash so'z bilan chambarchas bog'liq, so'z — tushuncha ifodalovchisi.

Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko'zgidir. "Kishining zebu ziynati, go'zalligi uning tilidadir", deyiladi. Qadim-qadim zamonlardan beri har bir millat, har bir qavm o'z tiliga buyuk hurmat bilan qaraydi. Chunki til millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi.

Shunday ekan, Respublikamizda bolalarga yoshligidanoq ona tilining boy imkoniyatlarini o'rgatish bo'yicha ta'limiy islohotlar o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining: "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi",—deb ta'kidlaganlarida "Uchinchi Renessans poydevori"ni ta'lim islohotlarida ko'rdi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq maktab ta'limiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan "Milliy o'quv dasturi"ni to'laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish belgilanadi. Jumladan, milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarining amaliyotga joriy qilinishi quvonarli holdir.

Amaliyotda ona tilini o'qitish bo'yicha nutqiy faoliyatning 4 xil turi: tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish va yozish kabi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Ona tili fanining umumta'lim maktablarida o'qitishning asosiy maqsadi quyidagicha: "Ona tili" fanini o'qitishning asosiy maqsadi - o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri hamda ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgarlar fikrini anglaydigan, muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat".

Chet tillarini o'qitishning audiolingval usuli Michigan universiteti o'qituvchilari tomonidan Charlz Friz va Robert Lado rahbarligida ishlab chiqilgan. Uning paydo bo'lishi 1940 va 1950-yillardagi Amerikadagi vaziyat bilan bog'liq bo'lib, o'sha paytda mamlakat chet tilida so'zlashadigan odamlarning ko'pligiga muhtoj edi.

Audiolingual metod - chet tilidagi og'zaki nutqni o'rgatish usuli bo'lib, u nutq namunalarini takroriy tinglash va talaffuz qilishga asoslangan. Ushbu usul bilan idrokning eshitish kanaliga tayanish mavjud. Ch.Friz tilni og'zaki muloqot jarayonida qo'llaniladigan belgilar tizimi deb hisoblaydi.

Suhbatdoshlar, insoniy odatga ko'ra, navbati bilan gapirish va bir-birini tinglab tushunishga harakat qilishadi. Hayotiy tajribadan ma'lumki, o'z fikrini og'zaki bayon etish (gapirish) ko'pchilik yoqtiradigan nutq faoliyatining turidir. O'zga shaxsni tinglab tushunish orqali turli axborot olinadi. Nutqiy muloqotda bo'lish odam uchun zaruriy ehtiyoj sanaladi. Tinglash jarayonida so'zlovchining ifoda etmish mulohazalarini qisman yoki to'la-to'kis tushunib yetmaslik hollari bo'lib turadi. Buning asosiy sababi tinglab tushunishni o'rgatishga yetarli e'tibor berilmasligidadir. Nutqni tinglab tushunish deganda, ovozli nutq (gapirish) chog'ida quloq solish, idrok etish va fahmlash anglanadi. Umuman "nutq" deganda gapirish, tinglab tushunish, o'qib tushunish va yozuv tushuniladi.

Ushbu metod o'tgan asrning 60-yillariga kelib, tinglash nutq faoliyatining turi sifatida atroflicha tadqiq etila boshlandi. Ma'lum bo'lishicha, gapirishni o'rganishdan ko'ra tinglab tushunishga erishish qiyinroq kechadi. Ushbu sohaga oid bir-biriga yaqin ikki termini farqlash talab qilinadi: "tinglash" — quloq solish (Oz so'zla — ko'p tingla) va „eshitish“ — eshitish sezgisi (quloq) yordamida tovushni qabul qilish (Qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit). Tinglovchi tushunishga intiladi, eshituvchi tinglaganini tushunmasligi ham mumkin. Eshitish qobiliyatiga molik shaxs muayyan axborotni tushunish maqsadida so'zlovchiga quloq soladi, ya'ni tinglash, aniqrog'i tinglab tushunish sodir bo'ladi. Eshitingmi, deyilganda, tinglab tushunganlikni aniqlamoqchi bo'linadi. Xullas, „tinglab tushunish“ birikmasi o'zgalarda nutqini (jonli tarzda yoki mexanik yozuvdakisini) idrok etish hamda mazmunini fahmlab yetish ma'nosini ifodalaydi. Tinglash va tushunish (fahmlash) vaqt e'tibori bilan bir paytda (psixologiya tilida simultan) sodir bo'ladi, bu ikki nutqiy hodisa faqat ilmiy tahlil uchun ajratiladi, xolos.

Tinglab tushunishning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun quyidagi uch omil nazarda tutiladi: "Tinglovchining o'ziga bog'liqlik (eshitish malakasining rivojlanganligi, xotirasi, diqqati xususiyatlari), tinglash shart-sharoiti (nutq tezligi, til materiali hajmi va shakli hamda so'zlanayotgan nutqning qancha vaqt davom etishi) va, nihoyat, qo'llangan materialning lingvistik jihatlari (tinglovchi til tajribasiga mos kelish-kelmasligi) hisobga olinadi".

Tinglash ko'p qirrali va faol jarayon bo'lib, og'zaki muloqotni passiv idrok etish emas. Rivers va Temperleynlarning fikricha, tinglab tushunish "passiv emas, balki fonologik, semantik va sintaktik imkoniyatlari haqida bilgan narsasi bilan tovushlar oqimidan xabar qurishning faol jarayonidir".

O'.Malley va boshqalar esa tinglab tushunishni "faol jarayon" deb ta'riflagan. Odamlar eshitishning tanlangan jihatlarga e'tibor qaratadilar, parchalardan ma'no tuzadilar va eshitganlarini mavjud bilimlar bilan bog'laydilar. Tinglash bu murakkab va faol jarayon bo'lib, unda tinglovchi tovushlarni farqlashi, so'z boyligi va grammatik tuzilmalarni tushunishi, urg'u va intonatsiyani talqin qilishi, yuqoridagi jarayonlarda to'plangan ma'lumotlarni saqlab qolishi va uni darhol talqin qilishi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tinglab tushunish - bu o'quvchilar bilish va mavjud kontekstual ma'lumotlar yordamida o'z tushunchalarini qurish uchun foydalanadigan ongli va dinamik faoliyatdir. Til pedagogikasida tinglab tushunishning muhim rolini ko'rsatish uchun ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Shu munosabat bilan Dunkel shunday dedi: "Tinglab tushunishni o'rganish ikkinchi tilni o'zlashtirish nazariyasini yaratish, o'qitish va tadqiqotlarda e'tibor markaziga aylangan".

Quyi sinflarda o'quvchilarga o'qish, yozish, og'zaki va yozma nutqdan foydalanish kabi ko'nikmalar o'rgatiladi, bu esa aniq nutqiy ko'nikma va malakalarni, ya'ni nutqiy faoliyat

turlarini shakllantirishdan iborat. M.R. Lvov tomonidan taqdim etilgan nutq faoliyatining to'rtta asosiy turi mavjud:

1. Tinglash - tovushli nutqni tinglash va tushunish jarayoni. Bu tur quyidagi omillarga bog'liq: til tizimi bilan tanishish darajasi, mavzuning qiziqishi va ahamiyati, muhitda o'yin mavjudligi, auditorning individual psixologik va shaxsiy imkoniyatlari, aqliy jarayonlarning rivojlanishi (xotira va e'tibor).

2. So'zlash-o'quvchilarning og'zaki nutqda o'z fikrlarini to'g'ri, ravon va mantiqiy ifodalay olishi, shuningdek, suhbatdoshga tushunarli bo'lgan so'z va iboralarni tanlay olish, fikr yuritish uchun ma'lum joylarda to'xtab turish, ular o'z fikrini to'g'ri, to'g'ri va mantiqiy ifoda eta olishi. sizni yaxshi tushundim.

3. O'qish - tezlik, o'qilgan narsalarni to'liq o'zlashtirish.

4. Harf-fikrning grafik koddagi ifodasidir.

Boshlang'ich sinfdan boshlab eshitib tushunish elementini o'quvchilarda mashq qildirib borish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon orqali o'quvchi diqqatni uzoq vaqt ushlash malakasini shakllantiradi. U eshitayotgan matnining muhim ma'lumotlarini navbatma navbat yodida saqlab qoladi. Natijada o'quvchi tushunish jarayonini ongli boshqarishni o'rganadi. Bu juda murakkab jarayon, chunki o'quvchilar diqqati bir xil me'yorda bo'lmaydi. Buning uchun o'qituvchi har bir o'quvchining ma'lumotni qabul qilish darajasini psixologik tomondan o'rgangan bo'lishi kerak. Ma'lumotni esda saqlab qolishi sust o'quvchilar bilan o'qituvchi matnni turli metodlar yordamida mustahkamlab borishi va eshitib tushunishini amalga oshirishi lozim. O'quvchilardagi tinglab tushunish kompetensiyasini shakllantirishda Qo'qon shahridagi 6-, 12, 15-maktablarning 2-sinf o'quvchilari bilan empirik tadqiqot o'tkazdik. Tadqiqotda quyidagi mezonlar asosida ish yuritdim:

- O'quvchilarga audiomatnning necha marta qo'yib berilishi.
- Bolalarning eslab qolish darajasi.
- Savollarga javob bera olish malakasi.
- Nutq ravonligi.
- Fikrlarni bog'lay olish darajasi.

15-maktabning 2-sinfida bolalarning tinglab tushunish qobiliyatlarini audiomatn 1 marta va 2 marta qo'yib berilgandagi natijasini keltirib o'taman. Audiomatn 1 marta qo'yib berilganda sinfdagi 28 nafar o'quvchidan 4 nafari matnni yaxshi eslab qoldi, 7 nafari o'rtacha, 17 nafari esa yaxshi eslab qololmadi, savollarga jabob berish bo'yicha 7 nafari yaxshi, 10 nafari o'rtacha, 11 nafari yaxshi javob bera olmadi. Nutq ravonligi bo'yicha 6 nafar bolaning nutqi ravon, 9 nafari o'rtacha, 13 nafari nutq ravonligi pastroq ekanligi kuzatildi. Fikrlarni bir-biriga bog'lay olish darajasi bo'yicha 6 nafar o'quvchi yaxshi, 11 nafari o'rtacha va 13 nafar bolada pastroq natija kuzatildi.

Audiomatn 2 marta qo'yib berilganda sinfdagi 28 nafar o'quvchidan 12 nafari matnni yaxshi eslab qoldi, 12 nafari o'rtacha, 4 nafari esa yaxshi eslab qololmadi, savollarga jabob berish bo'yicha 14 nafari yaxshi, 10 nafari o'rtacha, 4 nafari yaxshi javob bera olmadi. Nutq ravonligi bo'yicha 11 nafar bolaning nutqi ravon, 12 nafari o'rtacha, 5 nafari nutq ravonligi pastroq ekanligi kuzatildi. Fikrlarni bir-biriga bog'lay olish darajasi bo'yicha 12 nafar o'quvchi yaxshi, 9 nafari o'rtacha va 7 nafar bolada pastroq natija kuzatildi.

Bugungi kunda o'qish savodxonligi tushunchasiga shunchaki ta'limning boshlang'ich davrida o'quvchining harf tanish jarayoni sifatiga qaramaslik kerak. Endilikda o'qish savodxonligi ancha keng qamrovli tushuncha bo'lib, bu insonning barcha ma'lumotlarni aniqlash, tushunish, unga munosabat bildirish va undan foydalanish jarayonidir. "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash" bo'yicha qo'llanmada o'qish savodxonligiga quyidagicha ta'rif beriladi: "O'qish savodxonligi shaxs o'zining bilim salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini toppish maqsadiga erishishi matnlarni

tushunish. Ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati demakdir.

"Ona tili darslarida eshitib tushunishga alohida etibor qaratish shartmi?" degan fikir ko'plab o'qituvchilarni o'ylantirishi mumkin, chunki inson o'z ona tilida eshitib tushunishga malakasi avtomatik ravishda shakllanadi deb qaraladi. Biroq hammamiz yaxshi bilamizki, bir ma'lumotni hamma bir xil eshitsu-da, har kim har xil tushunadi. Mazkur holatlar eshitish jarayoni passiv -shunchaki signalni qabul qilish emas, balki nutqiy signalni qabul qilib, uni qayta ishlab, ya'ni gapning strukturasi to'g'ri razbor qilish – gap bo'laklarining vazifasini to'g'ri anglash va ular birgalikda bildirayotgan ma'noni tushunish demakdir.

Eshitib tushunish malakasini shakllantirish uchun mazkur jarayonning tafsilotlarini bilish muhimdir. Bu o'rinda bizga psixolingvistik tadqiqotlar yordam beradi. I. Azimovning "O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi" nomli monografiyasi matnni eshitib tushunish bo'yicha tajriba bayoni berilgan. Tajribada "O'z MUning O'zbek filologiyasi fakultetining 1-kursida o'qiyotgan 60 ta talaba ishtrok etgan. Ularga matn to'rt marta o'qib eshiritilgan. 60 ta talabadan 4 tasi matnni to'liq tushungan. 26 tasi matnni yaxshi tushungan, biroq ayrim ma'lumotlar tinglovchining e'tiboridan chetda qolgan. 17ta ishtrokchi matnda qo'llangan so'zlarning kontekstual ma'nosini tushungani holda, ayrim gaplarni to'liq tushunmagan. 13 ta ishtrokchi matndagi so'zlarni tushungan, biroq aksariyat gaplarni tushunmagan. Mazkur holat ona tilini o'rganish jarayonida ham eshitib tushunish malakasiga alohida etibor qaratish kerakligini bildiradi. Haqiqatdan ham yuqoridagi olimning fikrlariga qo'shilamiz, chunki biz tadqiq etgan ishda ham audiomatn bir marta qo'yib berilgandagi o'quvchilarning matnni tushunish darajasi quvonarli emas.

Filologiya fanlari bo'yicha falshafa doktori I. Azimova shunday deydi: "Tushunish jarayoni o'rgatilganda shu narsa ma'lum bo'lganki, eshituvchining emotsionalligi va stereotiplari sabab eshituvchi berilgan matnni to'liq eshitmasligi mumkin. Bu ham eshitib tushunishga xalal beradigan holat bo'lgani uchun o'rta maktabdagi mashg'ulotlar alohida e'tibor talab qiladi. Bola tushunishda yo'l qo'ygan xatolari muntazam ravishda ko'rsatilsa va xatoning asosi tushuntirib borilsa, bola tushunish jarayonini ongli ravishda boshqarishga o'rganadi".

Eshitib tushunish malakasini shakllantirish uchun, avvalo, eshitib tushunish jarayoni qanday kechishi xususida ma'lumotga ega bo'lish zarur. Eshitib tushunishni "yuqoridan pastga" va "pastdan yuqoriga" yo'nalishida kechuvchi jarayon sifatida talqin qilish mumkin. "Yuqoridan pastga" yo'nalishida nutqiy signalning katta birliklaridan kichik birliklariga qarab qayta ishlanishi nazarda tutiladi, ya'ni umumiy nutq oqimining ohangi, undan gaplarni ajratish, gaplarni ichidan sintagmalarni, sintagma ichidan so'z birikmalarini, ulardan so'zlarni ajratish kabi masalalar hal qilinadi. "Pastdan yuqoriga" yo'nalishida fonemalardan bo'g'inlarga, bo'g'inlardan so'zlarga, so'zlardan birikmalarga, birikmalardan sintagmalarga, sintagmalardan gaplarga, gapdan yaxlit nutqqa qarab mazmun tushunib boriladi. Mazkur ikki yondashuvning unisi yoki bunisi kechadi, deb qat'iy aytib bo'lmaydi. Nutqni anglash jarayonida zaruratga ko'ra ikkala yondashuv ham qo'llanadi. Inson ongining nutqiy signalini qayta ishlashdagi ushbu ikki yo'nalishi tabiatidan kelib chiqqan holda vazifa va topshiriqlarni belgilash mumkin. Masalan, "Yuqoridan pastga" yo'nalishi uchun eshittirilgan nutq yuzasidan nutqning maqsadi va xarakterini aniqlash, nutq til uslublarining qaysinisiga xosligini belgilash, nutqning umumiy mazmuni haqida xulosa chiqarish kabi topshiriqlar berish mumkin. "Pastdan yuqoriga" yo'nalishi uchun nutqda qo'llangan so'z va so'z birikmalarini qayd etish, qandaydir xarakterli so'zlarni (masalan, raqamlar yoki sifat turkumiga oid so'zlar yoki notanish so'zlar) eslab qolish uchun yozib olish kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Mazkur topshiriqlar ikkala yo'nalishda ham diqqatni kerakli ob'ektga qaratish ko'nikmasini shakllantiradi.

D.Nunan ham "pastdan yuqoriga", ham "yuqoridan pastga" yondashuvini baravar qo'llaydigan "diktogloss" texnikasi haqida ma'lumot beradi. Unda o'qituvchi matnni odatiy tezlikda o'qib eshittiradi. O'quvchilardan imkoni boricha so'zlarni qayd etish so'raladi. Keyin o'quvchilar guruh bo'lib, o'zlari qayd etgan so'zlariga tayanib, eshitgan matnni qayta tiklanish so'raladi.

Diktogloss texnikasi quyidagi to'rt bosqichdan tashkil topadi.

1. Tayyorgarlik.
2. Matnni o'qib eshittirish.
3. Matnni tiklash.
4. Tahlil qilish va xatolarni to'g'irlash.

Birinchi bosqichda o'qituvchi o'quvchilarni tayyorlaydi. O'qilishi rejalashtirilayotgan matn mavzusiga aloqador savollar beradi, yoki shunga aloqador rasm ko'rsatadi.

Ikkinchi bosqichda matn ikki marta o'qib eshittiriladi. Birinchisida o'quvchilar matnni shunchaki eshitadilar. Ikkinchisi marta eshinish davomida o'zlari muhim deb bilgan narsalarni qayd etadilar.

Uchunchi bosqichda guruh bilan birgalikda o'z qaydlari asosida matnni qayta tiklaydilar.

To'rtinchi bosqichda o'quvchilar tomonidan tiklangan matnlar original bilan qiyoslanadi.

Eshitib tushunish malakasini shakllantirishda nutqni turli maqsadlarda eshittirish muhimdir. Buning uchun tushunishni aks ettirishi lozim bo'lgan topshiriqlar turli xarakterda bo'lishi kerak. Masalan, ma'lum joy yoki predmetning tavsifini eshitib, uni rasmda ifodalash, ma'lum sayohat tafsilotlarni eshitib, sayohatchilar marshrutini belgilash (ular borgan joylarini tartib bilan yozish), tushurib qoldirilgan so'zlarni yozish, eshitgan nutqi asosida ma'lumotlarni tavsiflash kabi. Shuningdek, eshittiriladigan nutq ham turli xarakterga bo'lishi lozim: monolog, dialog, suhbat, munozara. Mazkur turfa xillik o'quvchiga nutqning turli jihatlariga e'tibor qaratish ko'nikmasini shakllantiradi. Albatta, nutq mavzusi bolaning yoshiga mos ravishda qiziqarli bo'lishi kerak.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tinglab tushunish - bu o'quvchilar bilish va mavjud kontekstual ma'lumotlar yordamida o'z tushunchalarini qurish uchun foydalanadigan ongli va dinamik faoliyatdir. Bugungi kunda zamon shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Shu bilan bir qatorda bizning ta'lim tizimimiz ham to'laqonli zamon talabiga javob berishi lozim. Ushbu tizimdagi kamchiliklarni bartaraf etmas ekanmiz, rivojlanish hech qachon bo'lmaydi. Tadqiqot ishi davomida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

➤ Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida audiolingval metodning afzalliklari haqidagi tushunchani shakllantirish.

➤ Sinf o'quvchilarini Xalqaro baholash talablari asosida o'zlashtirishlarini ta'minlash uchun chora-tadbirlar belgilash va bajarilayotgan ishlar monitoringini yuritish.

➤ Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasida audiolingval metodning afzalliklarini ko'rsatuvchi targ'ibot ishlarini olib b orish.

➤ Har bir boshlang'ich sinf xonalarini zamon talablari asosida jihozlash.

➤ Dars jarayonida ta'limning optimal usullarini tanlash.

➤ Sinf o'quvchilari miqdorini kamaytirish orqali sifat samaradorligiga erishish.

Yakuniy loyiha ishi doirasida quyidagi tavsiyaviy xarakterdagi takliflarni bayon etamiz:

➤ Darsliklarni yanada mukamallashtirish.

➤ Audiolingval metodni amaliyotga yanada kengroq tadbiq etish.

➤ Ota-ona maktab hamkorligini mustahkam yo'lga qo'yish.

➤ Darslarda o'quvchilar bilan ishlash jarayonida tinglab tushunish, o'qib tushunish, audiomatnlarga alohida e'tibor qaratish.

➤ Dars sifatini yanada rivojlantirish.

➤ Dars xonalarining to'liq AKT resurslari bilan jihozlanishiga erishish.

- Darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo'llanishini rivojlantirish.
- Pedagoglarning bilim mahoratini muntazam oshirib boorish.
- Ikki haftada yoki oyda bir marta o'qituvchilar uchun treninglar tashkil etish.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. Darslik. "O'qituvchi" nashriyoti, 2012-yil, 434 b.
2. Prezident Sh.Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tabrik nutqi. Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son
4. Ona tili fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim Milliy o'quv dasturlari. Toshkent, 2021., 252 b.
5. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. Darslik. "O'qituvchi" nashriyoti, 2012-yil, 434 b.
6. V. Rivers va M. Temperli. Amaliy qo'llanma. Ingliz tilini o'qitish, Oksford, Nyu-York,, AQSh, 1978 yil.
7. O'Malley, A. U. Chamot va L. Kupper, "Tinglash Ikkinchi tilni o'zlashtirishda tushunish strategiyalari". Amaliy tilshunoslik, jild. 10, 418-437-betlar, 1989 yil.
8. P. Dunkel, "Mahalliy va ikkinchi/xorijiy tilda tinglash guage: tadqiqot va amaliyotning integratsiyasiga yo'naltirilgan". 431-457-betlar, 1991 yil.
9. Ona tili ta'limi mazmunidagi takomillashuv. Ma'rifat. 2022-yil 27-iyul. №29 (9406).
10. D.R. Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2018, - 432 b.
11. Lvov, M. R., Ramzaeva , T. G. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish metodikasi. Pedagogika institutlari talabalari uchun maxsus darslik. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi". - Nukus: Ta'lim, 2020.
12. Ona tili ta'limi mazmunidagi takomillashuv. Ma'rifat. 2022-yil 27-iyul. №29 (9406).
13. D.R. Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2018, - 432 b.
14. Lvov, M. R., Ramzaeva , T. G. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish metodikasi. Pedagogika institutlari talabalari uchun maxsus darslik. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi". - Nukus: Ta'lim, 2020.
15. Azimova I.A. O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy pertsepsiyasining psixolingvistik tadqiqi. Monografiy. Toshkent, 2020. B.19-24
16. Nunan. D (1991) Language teaching Methodology. Prentice- Hall. Pp.25-35.

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Nabiyeva Shohsanam Valijon qizi
Qo'qon universiteti Ta'lim fakulteti maktabgacha ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi,
Vazira Abdullayeva
Qo'qon universiteti "Ta'lim kafedrası o'qituvchisi"

Annotatsiya: Ushu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni dunyoqarashini shakllantirish, ularning xususiyatlari va qobiliyatlarini yanada rivojlantirish yuzasidan so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, o'qitidh, metodlar, dunyoqarash, ong, tafakkur, qobiliyat.

Yurtimizda ta'lim jarayonini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023 yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nomlanganligida ham ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan birga ta'lim jarayonini rivojlantirish va sifatli ta'lim jarayonini tashkil qilish borasida davlat rahbari tomonidan 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasito'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni ijrosi asosida maktabgacha ta'limda qamrov darajasini oshirish, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifati yangi bosqichga olib chiqish va interfaol ta'lim texnologiyalarini kiritishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim berish jarayonini tashkil qilish borasida O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturini amaliyotda qo'llash joriy qilindi.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi o'zgarishlar qatorida ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash, uni muntazam takomillashtirib borish zaruriyatini vujudga keltiradi. Bunday yangilanish va o'zgarishlar bir qator ta'lim qonunlari hamda ta'lim dasturlari asosida amalga oshirilmoqda.

Darhaqiqat, bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasi har tomonlama rivojlanmoqda va juda katta e'tabor qaratilmoqda. Bolalarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda, barkamol avlod qilib yetishtirishda, avvalo, uning sog'ligi, nutqi va boshqa sifatlari, ingliz tili jihatidan savodxonligiga ham e'tibor qaratish lozimligi e'tiborga olinmoqda. Ta'limning yangi mazmuni bolaning har tomonlama kamol topishiga, ularni faollashtirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirishda ota-ona va tarbiyachining zimmasiga katta ma'suliyat yuklashi shubhasizdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimi asosida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, kichik yoshdagi bolalarning dunyoqarashlarini shakllantirishda oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida berilayotgan ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning o'rni juda katta bo'ladi. Bolaning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondashuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi bolaning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi.

O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobiy fazilatlarining boyib borishiga yordam beradi.

Dunyoqarash atamasi kishilarning turmush tarzi, hayoti axloq-odobi, madaniyati yanada o'zida mujassamlashtirgan tasavvurlar, bilimlar yig'indisi hisoblanadi.

Inson qarashlari ong jarayoniga bog'lagan. Dunyoqarashning shakllantirish shaxsning intellektiga, irodasiga, his-tuyg'usiga, uning amaliy faoliyatiga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq.

Yuqoridagi omillar dunyoqarashni shakllantirishning asosiy voasitalari bo'lib, insonning dunyoqarashini shakllanib borishida o'ta muhimdir.

Bolalarning dunyoqarashini shakllantirishda ikkita darajaga e'tibor qaratish kerak. Birinchisi, ularning kundalik hayotda ko'rgan kechirganlari tajribasi hamda faoliyati natijasida to'plagan taavvurlari, qarashlarini tashkil qiladi.

Ikkinchisini, kattalar tomonidan, jumladan ota-onasi yoki bog'chadagi tarbiyachisi tomonidan o'zlashtirgan bilim, g'oyalar yig'indisini tashkil etadi. Mazkur dunyoqarashning shakllantiruvchi bosqichlarning ikkalasi bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Dunyoqarashni shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi. Agar uning qarashlari tizimi ong birligiga tayansa, inson dunyo haqida bir butun tasavvur hosil qiladi. Bundan kelib chiqadiki, dunyoqarashni shakllantirish bolaning intellektiga, irodasiga, his-tuyg'usiga, uning amaliy faoliyatiga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq. Dunyoqarashning intellektual tarkibiy qismi borliqni bevosita hissiy aks ettirishdan, abstract tushunchali fikrlashgacha bo'lgan harakatni talab etadi. Bolalarning amaliy faoliyat sohasi yetarlicha keng bo'lishi mumkin.

Bolaalrning yoshlikda dunyoqarashlarini shakllantirish oila davrasida bolalarning dunyoqarashini shakllantirishga asosan ertak, kichik hajmdagi hikoyalar va turli xil o'yinlarining o'rni juda katta bo'ladi.

Bu borada bolalarga metodik yondashuvlar asosiy vazifani bajaradi.

Ta'lim berishda metodlarni qo'llanishi ta'lim oluvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirish texnologiyasi, o'quvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi asosida amalga oshiriladi. Tegishli texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayonining ma'lum tarkibiy qismi, alohida shaxs sifatlarini shakllantirish, o'quv ko'nikma va malakalarini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Ta'lim berishda bir qator tamoyillar: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, kitob bilan ishlash, namoysh qilish (video, tasvir orqali) orqali o'ziga xos vasifalari mavjud.

Shu o'rinda shuni aytish kerakki, ta'lim jarayonida ta'lim tamoyillari o'z ichiga ta'lim metodlarini qamrab oladi.

Kompyuter ixtiro qilinishi, aqlli telefonlarning yaratilishi, Internetning paydo bo'lishi globallashuv jarayonida ko'plab imkoniyatlarni ochdi.

Kundan kunga odamga kundalik vazifalarini bajarishda yordam beradigan qurilmalar, asboblar va dasturlarda paydo bo'ladigan yangi ixtirolar mavjud. Biroq, olimlar va mutaxassislarning ta'kidlashicha, texnologiyaning afzalliklari ham, kamchiliklari ham bor.

Haqiqiy vaqtda dunyodagi turli xil odamlar bilan aloqa qilish qobiliyati texnologiyaning eng muhim afzalliklaridan biridir.

Texnologiyalarni rivojlantirishning yana bir foydasi - bu ma'lumot olish. Internet-qidiruv tizimlari tufayli siz Yerning istalgan joyida yozilgan istalgan asl ma'lumotlarni topishingiz mumkin.

Texnologiya, shubhasiz, insonning ijodkorligi va zukkoligini sinovdan o'tkazdi. Har kuni aholi hayot sifatini yaxshilashga yordam beradigan asbob-uskunalar va qurilmalarning yangi ixtirolari mavjud.

Ushbu ehtiyoj tufayli sog'liqni saqlash, sanoat va savdo kabi fundamental jihatlarni yaxshilaydigan vositalar ixtiro qilindi.

Tibbiyotda kasalliklarni aniqlash va davolashda katta yutuqlarga erishdi. Sun'iy intellekt kasallik tashxisida yordam bermoqda.

So'nggi yillarda o'nlab yillar oldin davolanib bo'lmaydigan bo'lib ko'ringan kasalliklarga qarshi yangi vaksinalar va davolash usullari yaratildi.

Sanoat va tijorat sohasida iqtisodiy ishlab chiqarishni rag'batlantiradigan, xarajatlarni kamaytiradigan va ishbilarmonlik aloqalarini yanada uzaytiradigan texnologik vositalarni optimallashtirish jarayonlarini amalga oshirdi.

Axborotdan keng foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish orqali o'rganish va o'qitish modellari o'zgarib, ta'lim olish imkoniyati o'sdi.

O'qituvchilar va tadqiqotchilar yangi qurilmalar tomonidan taqdim etilgan afzalliklarga asoslangan holda yangi pedagogik usullarni ishlab chiqdilar.

Aloqa texnologiyalari sohasida ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishi bir necha sabablarga ko'ra juda foydali bo'ldi.

Birinchidan, bu odamlar orasidagi aloqani tezroq va to'g'ridan-to'g'ri yo'lga qo'yadi. Bundan tashqari, bu do'stlar, shuningdek, ishbilarmonlar va mijozlar o'rtasida o'zaro aloqalarni o'rnatish maydoniga aylandi.

Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari tomonidan ixtiyoriy ravishda taqdim etilayotgan ma'lumotlar miqdori mahsulot va xizmat ko'rsatuvchi provayderlar uchun foydalanuvchilarga tobora ko'proq moslashgan tashabbus va takliflarni yaratish uchun juda foydalidir.

Garchi globallashtirish ishlab chiqarishni optimallashtirish kabi katta afzalliklarga ega bo'lsa-da, ifloslanishning ko'payishi va tabiiy resurslardan suiiste'mol qilish jamiyatning bir qismini tashvishga solmoqda.

Katta muammo bu salbiy ta'sirlarni yo'q qilish va Yer uchun xavflarni kamaytirish yo'llarini yaratishdir. Qayta tiklanmaydigan energetikadan qayta tiklanadigan energetikaga o'tish ifloslanishning oldini olishning eng muhim yo'nalishi bo'ladi.

Hozirgi vaqtda sotsiologlar va ijtimoiy psixologlar odamlar yaratadigan kompyuterlar, smartfonlar va planshetlarga bog'liqligi sababli turli madaniyatlarda ba'zi qadriyatlar va xatti-harakatlarning o'zgarishini qoralashmoqda.

Ushbu holat kiber qaramlik, ijtimoiy tarmoqlarga yoki video o'yinlarga qaramlik kabi kasalliklarni keltirib chiqardi. Texnologiyalardan foydalangan holda ko'paygan noqulay jismoniy sharoitlar ham mavjud.

Texnologiya ulkan foyda keltirsa-da, foydalanuvchilar ushbu vositaning chegaralarini aniqlab olishlari kerak.

Ba'zi sohalarda texnologik yutuqlar o'zlarining jarayonlarida samaradorlikni oshirish orqali kompaniya egalari ma'qul kelishi mumkin, ammo shu bilan birga ular ishsizlikning ortishining ham bosh omili sanaladi.

Ushbu masala juda ziddiyatli. Ideal holda, kompaniyada samarali mahsuldorlikni oshirishga imkon beradigan va shu bilan birga uning tarkibidagi inson mehnatini tan oladigan muvozanatni topish mumkin.

Kelgusi yillarda sun'iy intellekt va robotlar millionlab ish joylarini yo'q qiladi va boshqalarni yaratish uchun bir necha yil kerak bo'lishi mumkin.

Vaqtning tejaydigan va juda maqbul natijalarni beradigan juda foydali vositalar mavjud, ammo ba'zi hollarda bu vositalar ijodkorlik va aql-zakovatga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi.

Masalan, kalkulyator juda foydali, ammo u hech qanday vositadan foydalanmasdan bajarilishi mumkin bo'lgan oddiy jarayonlarni bajarishda foydalanilganda, bu "aqliy dangasalik"ni kuchaytiradi, bu esa o'qishni buzilishiga olib keladi.

Insoniyat tarixi oddiy toshlardan tortib eng zamonaviy raqamli mashinalarga qadar texnologiya tarixi bilan chambarchas bog'liqligini tasdiqlash mumkin.

Texnologiya ma'lum bir maqsadga erishish yoki muammoni hal qilish uchun buyurtma qilingan tizim asosida qo'llaniladigan texnikalar va bilimlar to'plami sifatida tavsiflanadi. Bu atama yunon tilidan, xususan tekne (texnika yoki san'at) va lojali (biror narsaga nisbatan mahorat) birlashmasidan kelib chiqqan.

Keyinchalik keng tarqalgan foydalanishda texnologiya so'zi fan va muhandislik bilan bog'liq. Shunday qilib, uning kelib chiqishini belgilaydigan aniq bir sana yo'q. Aytish mumkinki, texnologiya bu insoniyat tarixining boshlanishidan beri mavjud.

Barcha yutuqlar orasida kompyuter yutuqlari ajralib turadi. Garchi yangi asrning yigirma yilligi o'tmagan bo'lsa-da, texnologik taraqqiyot katta tezlikda rivojlanishda davom etmoqda. Hisoblash, raqamlashtirish, robototexnika va boshlang'ich sun'iy intellekt bilan birgalikda barcha sohalarda mavjud.

Avtomatlashtirish va raqamlashtirish juda katta imkoniyatlar yaratadi, shuningdek, ishsizlik kabi bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi.

O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ularni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirish juda muhim hisoblanadi. Chunki tanlangan kasb har bir inson kelajagi bilan bog'liq hamda yashash tarziga ham ta'sir qiladi. Inson o'zi tanlagan kasb yoki hunaridan zavq olsa, qilgan ishidan mamnun bo'ladi. O'z kasbining ustasiga aylanadi, el e'tiboriga tushadi, baraka topadi.

Kasb tanlashda maktabning o'rni beqiyos. Ba'zi o'quvchilar fizika, kimyo, biologiya fanlariga, boshqalari adabiyot, tarix yoki huquq faniga qiziqadi. Masalan, biologiya faniga qiziqqanlar kelajakda shifokor-veterinar yoki biolog bo'lishi mumkin. Huquq faniga qiziqadigan o'quvchilar huquqshunos, advokat, prokuror, sudya bo'lishi mumkin. Fizika faniga qiziqadigan o'quvchilar muhandis yoki aloqachi bo'ladi. Matematika faniga qiziqadigan o'quvchilar kelajakda iqtisodchi, bankir, buxgalter bo'lishi, chet tillarga qiziqadigan o'quvchilar tarjimon, elchi, gid bo'lib ishlashi mumkin.

Avvallari mehnat darsiga 2-, 3-darajali fan sifatida qaralardi. Amaliy mashg'ulotlar qog'oz-qalam, o'chirg'ich, tabiiy materiallar asosida o'tilardi. Endilikda bu fan "Texnologiya" deb nomlanib, darslar oliy malakali o'qituvchilar tomonidan o'tiladigan bo'ldi. Bitiruvchi o'quvchilar har yili 3-4 kasb bo'yicha o'qitilib, ishlab chiqarish amaliyotiga kirib kelmoqda.

Yangi "Texnologiya" fani darsliklarida o'g'il bolalar uchun alohida, qizlar uchun alohida qismlar mavjud. O'g'il bolalar uchun mo'ljallangan "Texnologiya va dizayn yo'nalishi" bo'limida hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash texnologiyasi, ishlab chiqarish va ro'zg'orshunoslik, elektronika asoslari, kasb tanlashga yo'llash hamda ijodiy loyiha tanlash texnologiyasi boblari ajratilgan bo'lsa, qizlarga mo'ljallangan bo'limda ularning o'zlariga mos va zamonaviy yo'nalishlarga oid dars ishlanmalari hamda ma'lumotlar joy olgan.

Axborot oqimi keskin ortgan davrda mustaqil fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lgan, har qanday yangilikni o'rganishga erkin kirisha oladigan shaxsni tarbiyalash ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi hisoblanadi va bu borada ta'limda yangi texnologiyalarning qo'llanishi, interaktiv usullardan keng foydalanish lozim bo'ladi.

Texnologiya fani predmeti boshqa fanlardan umuman farq qiladi. Masalan, fizika yoki matematika fanlari o'n yillar davomida yangi bilimlar bilan boyitilib boriladi. Texnologiya fani bo'yicha esa har yili yangiliklar bor. Ishlab chiqarish sohasiga ko'plab yangi texnologiyalar joriy etiladi. Shuning uchun bu fan o'quvchilarni zamonaviy kasblarga o'qitish bilan uyg'unlashtirilgan holda olib borilishi kerak.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan yaqin kelajakda o'quvchilarni kasbiy ta'limga yo'naltirish maqsadida superustaxonalar, bolalar texnoparklari, "Kvantorium" va boshqa zamonaviy parklar ochish ko'zda tutilmoqda. O'quvchilar kompyuter va vibrostendlar bilan jihozlangan bu maskanlarda kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lish bilan birga robo, kosmo, nano, bio, IT yo'nalishlarida ta'lim olish imkoniga ega bo'ladilar.

Ta'limning yosh avlod hayotidagi roli va ahamiyatini hisobga olgan holda, bu vazifani bugungi kunda oliy ma'lumotli, yuksak professional mahoratga ega bo'lgan pedagog kadrlar bajarimoqda. Ta'lim sifatini oshirish, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarni takomillashtirish, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'quvchilar sanoat dizayni, nanotexnologiya, raqamli modellashtirish va ishlab chiqarish texnologiyalari, robototexnika, elektrotexnika, elektroenergetika, biotexnologiya, oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, "aqli uy", "buyumlar interneti" bilan tanishadilar. Bunda darslar nafaqat maktabda, balki kollej va texnikumlar, bolalar texnoparki, yoshlar ijodiy innovatsion markazlarida tashkil etiladi.

Zamonaviy texnologiyalarning afzalligi: axborot va bilimlardan oson foydalanish imkoniyatini beradi; qishloq xo'jaligida hosildorlik va samaradorlikni oshiradi; odamlarning sog'lig'iga hissa qo'shadi; yangi kasblar va ish o'rinlarini yaratadi; transport va aloqa yo'nalishlarini osonlashtiradi; uy va kundalik vazifalarni soddalashtiradi; iqtisodiy samaradorlikni oshiradi; qimmatli vaqtni tejaydi; globallashtirishni kuchaytiradi.

Shu bilan birga, texnologiyadan ortiqcha foydalanish odamlarga va ular yashaydigan atrof-muhitga ham zarar yetkazishi mumkin. Masalan, katta texnika ko'plab chiqindilar va atrof-muhit uchun zararli bo'lgan karbonat angidrid gazini hosil qiladi.

Yana bir misol, odamlar tomonidan ishlab chiqarilgan, ko'p hollarda kundalik hayotni yengillashtiradigan, ammo sog'liq va biologik xilma-xillik uchun zararli bo'lgan plastmassa ishlab chiqarishda uchraydi. Ijtimoiy muhitning texnologiyalashuvi atrof muhitni ifloslantirib, ba'zi hollarda salomatlikka xavf tug'diradi; ijtimoiy izolyatsiyani oshiradi; ishchi kuchiga ehtiyoj pasayib, ishsizlik ko'payishi mumkin; insonlarda harakatsiz turmush tarzi va bo'sh vaqt ko'payadi (bekorchilikda jinoyatchilikka moyillik ortishi mumkin); maxsus joylarni yo'q qilish va kiberjinoyatchilikni targ'ib qilishi mumkin va yana bir qator ommaviy illatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Texnologiyalar bizni tobora ko'proq tabiatdan va real hayotdan uzoqlashtirmoqda. Masalan, Internet yoki virtual olam narsalarni idrok etishda va ijtimoiy aloqa usulida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi, bu ekran orqali amalga oshiriladi.

Texnikaning asosiy maqsadi – odamni og'ir yoki muntazam ishlarni bajarishdan xalos qilish, hayotini yengillashtirishdan iborat bo'lishi zarur. Aslida, Texnologiya fani ayni shu masalada o'quvchilarga bilim va ko'nikmalar berib boradi.

Shunday ekan, farzandlarimizning ertangi kelajagi uchun kasb mahoratlarini bosqichma-bosqich egallab borishlarida, ertangi taraqqiyotimizga o'zining beqiyos hissasini qo'shishi uchun ushbu fan qimmatli va qadri ustoz, eng yaqin do'st va hamroh bo'la olishiga ishonchimiz komil.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Texnologiya 1-sinf [Matn]: darslik / D. S. Miraxmedova, Z. S. Shamsiyeva. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 72 b.
2. Texnologiya 2-sinf [Matn]: darslik / X. R. Sanakulov, D. X. Abdiyeva. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 80 b.
3. Texnologiya 3-sinf [Matn]: darslik / X. R. Sanakulov, D. Abdiyeva – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 80 b.
4. Texnologiya [Matn]: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik / I.Manopova, D.Sayfurov. – T.:«O'qituvchi» NMIU, 2020. – 112 b.
5. Gonzales, A. (2018) *Texnologiyaning afzalliklari va kamchiliklari*. 2020 yil 29 aprelda fedecamarasradio.com saytidan olindi
6. Mutafakkir. Texnologiya tarixi. Educacion.elpensante.com saytidan olingan
7. <https://uz.warbletoncouncil.org/origen-tecnologia-4449>
8. <http://www.marifat.uz/marifati/ruknlar/umumii-urta-talim/4916.htm>

**SAID AHMADNING "SOBIQ" HIKOYASIDAGI SHUHRATPARASTLIK G' OYASINING
QORALANISHI**

Z. Nazirova
Fergana State University, student,
N. Sobirova
Fergana State University, student,
S. Shermamatova
Fergana State University
Foreign language and literature faculty, teacher

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining mashhur yozuvchilaridan biri Said Ahmadning yumorga boy asarlari tahlil qilinadi. Shuningdek, uning jamiyatda yuz berayotgan turli xil illatlarga bo'lgan qarashlari asarlari orqali bayon etiladi. Uning achchiq va kulgili haqiqatlarga boy bo'lgan "Sobiq" hikoyasi atroflicha ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida kitobxon uchun kulgili bo'lgan holatlar tushuntiriladi va yozuvchi nega aynan shunday uslubda yozganiga yechim topiladi. Bundan tashqari, asardagi asosiy mavzu faqat kulgi emasligi va asar qahramonining vaziyat qurboni bo'lganligi isbotlanadi. Shu bilan birga, o'sha davrdagi tuzum aynan shu kabi harakatlarni taqazo etganligiga yana bir bor amin bo'lasiz.

Kalit so'zlar: yumor, "yumor otasi", obro'parastlik, shuhratparastlik, dabdababozlik, paxtakor, mexanizator, tuzum, paxta terimi, rais, anjuman, yig'ilish, kulgi mavzusi, manfaat.

O'zbek adabiyotining mashhur yozuvchilaridan biri, betakror qalam sohibi Said Ahmad o'zining bir qancha yumorga boy asarlari bilan nasrda o'z o'rniga ega bo'lgan. Xususan, uning asarlarida jamiyatda yuz berayotgan illatlar kulgi ostiga olib qoralanadi. Misol uchun, u "Sobiq", "Qoplol" va "Kelinlar qo'zg'oloni", "O'rik domla", "Mening do'stim Babbayev", "Muzey", "Bo'ri ovi", "Xandon pista" asarlari orqali qaysidir ma'noda o'z davrining achchiq haqiqatlarini yumor sifatida adabiyotga olib kirgan. Shuning uchun ham bejizga Said Ahmad Husanxo'jayevni "yumor otasi" deb e'tirof etmaymiz.

Said Ahmadning eng mashhur achchiq va alamli kulgidan yiroq hajviy, sof yumoristik hikoyasi "Sobiq" deb nomlanadi. Bu hikoya faqat bir odamning hayotida yuz berayotgan hodisalar haqida hikoya qilinsada, aslida, bu butun bir jamiyatda yuz berayotgan voqealarga ishora qiladi va bu bizning eng og'riqli nuqtalarimizdan biri desam hech adashmagan bo'laman. Bu asarda yozuvchi voqealar rivojini asar qahramoni tilidan hikoya qilarkan, jamiyatimizda ba'zi bir insonlarning dabdababozlik va shuhratparastlikka berilishi oqibatida, kerakli narsalarga vaqt ajrata olishmayotgani yengil kulgiga olinadi. Chunki hikoyani o'qish davomida ko'rishimiz mumkinki, o'zining maqsadlari yo'lida intilayotgan bir mehnatkash kishini qo'llab quvvatlash va uning kuchidan oqilona foydalanish o'rniga, qandaydir keraksiz va juda ko'p vaqt oladigan mashg'ulotlar bilan band bo'lish bu juda kulgili holat, albatta. Bu borada esa, hikoyamiz qahramoni paxta terishda jonbozlik mko'rsatib, dabdababozlikning nishoniga aylandi qoldi. Eng ilg'or paxtakor deb, asosiy ishini yig'ishtirib, turli xil keraksiz majlis va yig'ilishlarga borishga majbur bo'ldi. Qaysidir ma'noda bu paxtakorga juda ko'p paxta terigani uchun o'z o'rnida rag'bat ham kerak, albatta. Lekin bu qahramonimizning vaziyati aqlga sig'maydigan darajada dabdababozliklarga to'lib ketgan. Ya'ni, bu paxtakor butun bir paxta mavsumida bor yo'g'i bir necha kungina paxta terib, mavsumning qolgan qismini turli tuman yig'ilishlarga borib faxriy mexmon sifatida qatnashishi va bu ham yetmagandek uyiga ham qandaydir jurnalistlar va rassomlar kelib uning vaqtini olishini ko'rib beixtiyor kulasiz. Lekin bu mexanizatorning vaziyatidan kelib chiqsak, bu hamdardlik kulgusi bo'lib qoladi. Chunki, qahramonimizning o'zi ham vaziyat qurbonidir. Shunga qaramasdan, bu

bizning sobiq jamiyatimizda oddiy hol hisoblanardi. Negaki, o'sha davrda insonlarning haq-huquqlari ularning qaysidir manfaatlarini evaziga himoya qilinardi. Shuningdek, ortiqcha obro'parastlik va soxta tilyog'lamalik bu o'sha davr insonlariga xos bo'lgan fazilatlarining eng mashhurlaridan biri bo'lgan.

Asarda tilga olinadigan rais obrazi ham aynan bu jamiyatning markazida turadigan obrazlardan biri hisoblanadi. Ya'ni, rais o'zining manfaatlarini va mashhurligini ko'zlagan holda asar qahramoni, mexanizatorga, dakki beradi. Uning ba'zi bir gaplari beixtiyor kitobxonni kuldirmasdan qolmaydi. Raisning quyidagi gaplari bunga yaqqol misol bo'la oladi: "O'zingni tut, katta-kichikning oldida sharmanda qilma. Sen bizning mash'alimizsan. Ha, shundoq, soqolingni kunda olib tur. Dazmol bosilmagan shim kiyma, - deb nasihat qilib turadi". Qaysidir ma'noda rais uni o'ylab, unga jon kuydirib nasihat qilgan bo'lishi mumkin. Lekin, bu gaplarning tag zamirida rais o'zining manfaatlarini ko'zlab shunday gaplarni aytayotganini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, yana bir kulgili holat, rais qahramonimizga dazmollanmagan shim kiyimasligini aytishi g'alati. Negaki, oddiy dalada ishlaydigan paxtakor, mexanizator qanday qilib doim shimini dazmollab yurishi kerak. Bu kimga kerak? Albatta, bu raisga, kolxozga va osha davr jamiyatiga kerak bo'lishi mumkin. Lekin, boshqalardan ko'ra ko'proq paxta terib ilg'or bo'lganligi asar qahramonining aybi emasku, u o'zining sevgan ishidan ko'ra ko'proq bekorchi narsalarga vaqt sarflaydigan darajada. Afsuski, bu jamiyat tuzumi shuni taqazo etadi va yakunda bir oddiy mehnatkash odam o'sha jamiyatning shunday illatlari girdobiga tushib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Normatov, Umarali. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Q. Yo'ldoshev va boshqalar Adabiyot (6-sinf). -T.: "O'qituvchi", 2000.
3. O'zLib kutubxonasi. 2010-2014-yillar
4. Saylanma. [3 j.li], 1982;
5. Tanlangan asarlar [3 j.li], T., 2000.
6. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik. / S. Ahmedov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. - Toshkent: "Ma'naviyat", 2017

**TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING
O'RNI**

Zuhrobova Samiya Sohibjon qizi
Kimyo xalqaro universiteti boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish borasida davlatimiz tomonidan bir qancha olib borilgan islohot va loyihalar, ta'lim sifatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar hamda ta'limda pedagogika, psixologiyaning o'rni va ta'limiy psixologiyaning muhim jihatlari yoritib berildi.

Kalit so'zlar: sifatli ta'lim, ta'limdagi islohotlar, ta'lim inspeksiyasi, uzluksiz ta'lim, ta'lim mazmuni, ta'lim muhiti, maktab boshqaruvi va siyosati, ta'lim va psixologiya, tanqidiy va tahliliy fikrlash.

Sifatli ta'limning ma'nosi - pedagogik va rivojlanish nuqtai nazaridan to'g'ri bo'lgan va o'quvchini jamiyatning faol va samarali a'zosi bo'lib tarbiyalashdir. Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish va ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirishga oid ko'plab chora-tadbirlar loyihasi muhokama qilinib kelmoqda. Jumladan, Samarqand tumani Kengashida mazkur masala yuzasidan tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha o'rinbosari Zebuniso Shodiyevaning nutqi bunga misol bo'ladi. Aytish joizki, ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan o'zgartirish o'qituvchilar o'rtasida sog'lom raqobat muhiti yaratilishi, pedagog xodimlarning sifat tarkibini yaxshilashga xizmat qiladi.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida to'rtinchi ustuvor yo'nalish ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgani ham bejiz emas. Davlatimiz rahbari alohida e'tirof etganlaridek, ta'limdagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Haqiqatdan ham maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yish talab etiladi.

Davlatimiz rahbari har bir yig'ilishida qayta-qayta ta'kidlaganidek, maktab ta'limi bo'yicha ilg'or davlatlar tajribasini o'rganish, xususan Finlyandiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari hamda muvaffaqiyatlarini o'rganish, ta'lim sifatini oshirish, maktablarda o'quv yuklamasi va darslar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqatgina yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish bo'yicha aniq vazifalar belgilab bergan edi. Ta'kidlash joizki, Ta'lim inspeksiyasi tomonidan barcha ta'lim vazirliklari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan "Uzluksiz ta'lim" konsepsiyalari loyihasida ko'plab mamlakatlar qatorida Finlyandiya tajribasidan ham foydalanish maqsad qilib olingan.

Finlyandiya ta'lim sohasida yuqori natijalarga erishgan davlatlar sirasiga kiradi. Tadqiqotchilar finlar erishgan muvaffaqiyat omillarini uch guruhga ajratadi: o'qituvchilar salohiyati, ta'lim sohasidagi davlat siyosati va fin madaniyati,- dedi maktabning oliy toifali tarbiya va huquqshunoslik fani o'qituvchisi Mavluda jo'rayevna .- Finlyandiya ta'lim tizimi negizi "Har qanday o'quvchi yuqori natijaga erishishi mumkin, har qanday maktab u qayerda joylashganidan qat'iy nazar sifatli ta'lim berishi kerak" degan tamoyilga asoslanadi. Asosiy e'tibor ta'lim jarayonida iqtidorli o'quvchilarga emas, balki o'zlashtirishda orqada qolayotgan o'quvchilarga qaratiladi. Bizning maktabimizda ham bugungi kunda fin ta'lim tizimidagi metodlarni dars jarayonida keng qo'llash ishlari samarali davom etmoqda.

Ta'lim sifatini rivojlantirish, faqatgina bitta muammo emas balki, u ko'plab omillarni rivojlantirishdagi natijasi sanaladi. Masalan: o'qituvchi va uning metodlari, ta'lim mazmuni, ta'lim muhiti, maktab boshqaruvi va siyosati, ota-onalarning ishtiroki va boshqalar. Ta'lim sifatini oshirish uchun dastavval ta'lim beruvchi bilimli, ilg'or va yaxshi tayorlangan bo'lishi

bilan birga doimiy kasbiy rivojlanish hamda o'sishga harakat qilishi hamda ta'lim beruvchi bu kasbni imkoniyati yoki omadi tufayli emas balki, o'z xohishi va istagi bilan tanlashi kelajakda ushbu kasbning yetuk mutaxassisi bo'lishlik imkonini beradi. Yana bir muhim jihat shundaki, sevimli o'qituvchi bo'lish va ta'imni samarali olib borish ko'p jihatdan o'qitish texnologiyalari, qiziqarli o'yinlar hamda interaktiv metodlarga bog'liq. O'qituvchi ta'lim berish jarayonida ta'lim oluvchilarni hayotiy tajriba va namuna asosida ularni muamoni yechish, tanqidiy va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratishi ta'lim samaradorligini yanada oshishiga olib boradi.

Ta'lim va psixologiya o'zaro bog'liqdir. Psixologlardan biri shunday deydi:- *"ta'lim psixologiyasini bilmagan holda o'qituvchi qanday dars berishi mumkinligini tushunmayman"*. Chunki ta'lim berayotgan shaxs ta'lim oluvchini psixologik xususiyatlarini va uni xarakteri haqida anglmasa, bilmasa yoki uni his qilmasa ta'lim berish jarayonida o'qituvchi bilan turli nizolar va tushunmovchiliklar keltirib chiqishiga sabab bo'ladi. Psixologiya ta'lim ruhini o'zgartirdi va u sinfda o'rganishga yangi ma'no bag'ishlaydi. Psixologiya ta'limga har bir bola turli xil aqliy qobiliyatga ega va har xil sur'atda o'rganadigan individual farqlar nazariyasini beradi.

Xulosa tarzida, hozirgi zamonda ta'lim psixologiyasi ta'limning asosidir. Psixologiya ta'lim jarayonining barcha sohalarida ta'limga ta'sir qiladi. Ko'p yillar davomida olimlar ta'lim psixologiyasining maqsadlari va bu sohaning o'qitish va o'rganish amaliyoti uchun dolzarbligini ta'kidladilar (Alexander 2004; Berliner, 1993; Brophy 1974; Woolfolk Hoy 2000). O'qituvchi uchun o'z o'quvchilarini aqliy qobiliyatlariga qarab o'qitish juda zarur. Bunda o'qituvchiga pedagogik psixologiya yordam beradi. Bu o'qituvchiga qayerda va qanday qilib o'rgatish imkonini beradi. XXI asr muammolarini hal qilish uchun o'qituvchilar qanday ta'lim berishni va o'quvchilarda muamoni yechish, tanqidiy va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi, ta'lim sifatini oshiruvchi zarur omillar sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maqola "TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH" Abdiyeva Komila Suvonqulovna. Sirdaryo viloyati Shirin shahar 3-maktab
2. https://www.researchgate.net/publication/333660908_Improving_Quality_and_Efficiency_of_Education
3. <https://adolat.uz/partiya/barcha-maktablar-isloh-qilinadi>
4. <https://zarnews.uz/uz/post/ta-lim-sifati-va-samaradorligini-oshirish-uchun-takliflar-bor>

THE ROLE OF PEDAGOGICS AND PSYCHOLOGY IN IMPROVING THE QUALITY AND EFFICIENCY OF EDUCATION AND THE FORMATION OF HUMAN VALUES AND PERFECT GENERATION

Meiliyeva Zebiniso
the name of Mirzo Ulugbek
National University of Uzbekistan
2nd stage student

Annotation: This article provides information about the role of pedagogy and psychology in improving the quality and effectiveness of education and the formation of a mature generation.

Key words: pedagogical technology, pedagogical approach, educational technology, "Chain game", "Brainstorming", "Thoughts attack", "Networks" method, "Sinquain", "BBB", "Fifth plus", "6x6x6", "Discussion", "Role-playing game", "Working in small groups", "Brainring".

Personality maturity is characterized by having physical, mental, political, legal, moral, ecological and aesthetic aspects. These aspects of maturity occur unevenly, that is, at different rates. For example, the physical maturity of a person is almost the same as it was 50 thousand years ago. However, in the mental maturity of a person, due to the development of thinking, very large positive (forward) shifts have been observed. Pedagogy studies the development of personality together with all its components. If we look at the history of mankind, there has been pedagogical activity in all periods. The birth of a person is not only a natural-biological event consisting of birth, but after birth, rising to the level of development of one's time, acquiring the existing socio-historical experience, determining one's place in society, becoming an active participant in the historical process. In this process, the older generation begins to transfer its experience of life, struggle and work, knowledge and skills to the younger generations.

The process of development, formation and maturation of a newborn child was guided and managed. This was done through a social phenomenon called education. As the society developed, the need to cultivate mature, well-rounded individuals also increased and changed, updated, and served the society. Creation of educational institutions at different stages of society, goals and tasks of education, state education standards, methods of education and education, forms of organization, knowledge of its laws, became an informative science. The main task of education and training is to realize the intellectual and practical potential of young people, to show their creative abilities, to ensure their intellectual development, to choose the profession they want, to master it perfectly, and to work happily in this field. This consists of creating material, spiritual, educational and didactic conditions. Specific tasks of each link, type and stage of education arise from this general task.

Independence made great changes in the field of public education as well as in all fields. Now our national pedagogy is developing rapidly. From time immemorial, our ancestors paid special attention to child education. Al-Bukhari, At-Tirmizi, Beruni, Az-Zamakhshari, Nawai, Babur, Agohi, Abdullah Awlani, great scholars, writers, virtuous scholars, wrote many works on education. They focus on national characteristics in education. Personal maturity is a complex, long-lasting conflicting process characterized by a dialectical transition from quantitative changes to qualitative changes in the physical, mental and spiritual characteristics of a person. Personality development is a general scientific category of the sciences of psychology and pedagogy, while psychology explains the laws of spiritual development of a person, and pedagogy creates a theory of managing the development of a

person with the goal of forming a perfect person and a perfect generation. not studied at the level. It is known from history that Eastern pedagogy once flourished. When the German scientist Herler said, "The East is the author of Europe", he probably meant these periods of development. In our country, the upbringing of a mature generation is of great importance in the establishment of a democratic legal state and civil society. It is important to create a healthy social environment, to fundamentally reform the education system, to restore and honor national and universal human values in the education of young people, who are the foundation of our future. in a word, it is possible to self-realize, to live in a free and free society, to selflessly fight for our independent country to occupy a worthy and prestigious place in the world community. Pedagogy develops based on the development laws of society. Today, this process has reached its peak. In particular, the work being done to establish a legal state shows that the national consciousness is rising day by day. As long as the human consciousness does not progress, no change is felt in the aspects of social life. Already, "Only a truly enlightened person can selflessly realize the human value, the values of the nation, in a word, his identity, live in a free and free society, and take a dignified place in the international community of our independent country." can fight"

In short, today we have a "storehouse" of games, from simple games that develop the child physically to intellectual games that are popular among adults. With the use of all modern teaching technologies in games, the student quickly learns the conditions of the game and accepts the task assigned to him. In the process of fulfilling the rules of the game, the player has the opportunity to freely make his own optimal decisions in solving the problems in the game. In the process of using modern teaching technologies, the personal quality of the students will improve, the student will be able to improve his abilities in the future, be able to use them correctly in his professional activities, and of course create an opportunity to become a perfect person. effectively using the conditions created on the basis of such modern requirements, the organization of lessons on the basis of advanced pedagogical and information communication technologies guarantees the quality of the educational process. Professional skills are formed on the basis of acquired knowledge, activity skills and life experience. In order to have a high spiritual and moral and professional qualification, a person should be able to set a specific goal and constantly search for it, read and learn. Only then will he become a qualified staff, resistant to social competition. Having a sense of self-awareness, being able to fully and effectively use the services in the field of education, and achieving thorough assimilation of scientific and professional knowledge create a foundation for a person to become a mature specialist. The perfection of a person, first of all, depends on him.

References:

1. K. Hoshimov, "History of Pedagogy" Tashkent 2005. 87 Scientific, distance, online conference No. 10 "Pedagogy and psychology in the modern world"
2. J.Kh. Yoldashev [New pedagogic directions, problems, solutions]||. "Public education" magazine, T., No. 4, 1999
3. K. Ismanova. Organization of practical lessons using innovative methods. — Journal of educational problems. Issue 2, 2012.
4. RZ Samadovna, KS Narzullayevna, SG Ergashevna (2020). Technology for the development of logical thinking in students in primary school. Journal of Critical Reviews 7/6. pp. 485-491.
5. T.M. Mukhamadovna, K.M Dzhamshitovna, K.S Narzullayevna (2021). Art as a significant factor of forming world outlook of students. Middle European Scientific Bulletin vol. 11 pp. 426-430.

TA'LIMDAGI KORRUPSIYA

Ilyosjonov Shahboz
Qo'qon universiteti talabasi,
Sanobar Asilova
Qo'qon universiteti "Ta'lim" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mamlakatimiz ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, uning sifati hamda samaradorligini oshirish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, oliy o'quv yurtlariga qabul jarayonlarining shaffoqligini ta'minlash, ta'limdagi korrupsiya va poraxo'rlikning oldini olishga ham astoydil kirishilgan. Poraxo'rlikka qarshi kurash maqsadida olib borilayotgan kompleks chora-tadbirlarga qaramay, "o'qishga kiritib qo'yaman, testni hal qilib beraman", degan va shu orqali mo'may pul ishlab olish ilinjidagi firibgarlar hali-hanuz uchrab turibdi. Afsuski, "Farzandim diplom olsa bo'ldi, u yog'i bir gap bo'lar" qabilida ish tutadigan, farzandining qobiliyati, bilimi va salohiyati yetarlimi yoki yo'q, bunga ikkinchi darajali masala sifatida qaraydigan ota-onalar ham yo'q emas. Ochig'i, ushbu holatlar yillar davomida ta'lim tizimidagi korrupsiyaning eng og'riqli nuqtasi bo'lib keldi.

Kalit sozlar: ta'limdagi korrupsiya, sohadagi islohotlar, korrupsiya sababi va yechimlari.

Sohadagi islohotlar sabab vaziyat tubdan o'zgardi, kimning bilimi, qobiliyati, salohiyati bo'lsa, o'sha odam o'qiydi, degan tamoyilga amal qilina boshlandi. Shu bois endilikda ta'limdagi korrupsiyani tag-tomiri bilan yo'q qilishga astoydil kirishilgan. Bu boradagi dastlabki qadam test imtihonlarini topshirish jarayonini tartibga solish bilan boshlandi.

Prezidentimizning joriy yil 4 iyundagi "2018/2019 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish to'g'risida"gi qaroriga asosan, mamlakatimiz oliy ta'lim dargohlariga qabul uchun kvotalar soni o'tgan yildagiga qaraganda qariyb 8 yarim mingtaga ko'paydi. Barcha jarayon nafaqat davlat organlari, balki keng jamoatchilik nazorati ostida shaffof tarzda o'tadigan bo'ldi.

Qisqasi, hujjat qabul qilishdan boshlab, test imtihonlarini o'tkazish jarayonigacha abituriyentlar uchun barcha sharoit va imkoniyat yaratilyapti. Asosiysi, haqqoniylik va ochiqlik tamoyiliga amal qilinayotir.

Lekin korrupsiyaga qarshi kurash tobora qat'iy bo'lib borsa-da, ajiriq kabi uning ildizlari hali-hanuz saqlanib qolgan ko'rinadi. Astoydil ta'lim olib, ne-ne orzular bilan o'qishga topshirgan yoshlar manfaatini hatlab o'tib, harom luqma bilan kun kechirishni o'ziga odat qilgan ayrim nopok insonlar hozir ham uchrab turgani jamiyatimizdagi sog'lom muhitga salbiy ta'sir qilmoqda. Ayniqsa, yangi o'quv yili boshlanishi arafasida bu kabi qing'ir amaliyot u yer, bu yerda urchiy boshlashi ham bor gap. Bunday holat nafaqat oliy ta'lim dargohlarida, balki litsey va kollejlarda, hatto umumta'lim maktablarida ham ko'zga tashlanayotgani achinarli hol, albatta.

Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbirda Yunusobod tumani XTBga qarashli 247-umumta'lim maktabi direktori S. Tulametova fuqaro S. Almasovadan farzandini maktabning 1-sinfiga o'qishga qabul qilishi evaziga 500 ming so'm pora olayotgan vaqtida qo'lga olindi.

Yoki Toshkent milliy hunarmandchilik kasb-hunar kolleji direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari D. Vahobova o'qishini oilaviy sharoitlar tufayli tamomlay olmagan O'. Koraboyevga mazkur kollejni bitirganlik to'g'risidagi diplomni rasmiylashtirib berish evaziga undan 400 ming so'm olgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlendi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari bo'la turib, yoshlarimizni qing'ir yo'lga boshlagan Vahobovaning qilmishini qanday tushunish mumkin?

Yana bir holatga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Ta'lim dargohlaridagi poraxo'rlik kasalligi aynan yuqoridagi kabi "ta'lim muassasalari xodimlarining" salbiy xatti-harakatlari ta'sirida, hatto hali g'o'r bo'lgan o'quvchilarga ham o'tmoqda. Bu tabiiy hol, albatta. Chunki "Ustozim shu ishni qilgandan keyin, men qilsam nima bo'libdi", degan fikr hali ongi-shuuri to'la shakllanmagan bolaning xayolidan o'tadi-da.

Bir misol, Chilonzor tumani tibbiyot kolleji 1-bosqich talabasi F. Esonov mazkur kollejda o'qituvchi bo'lib ishlovchi tanishi D. Malikov orqali fuqaro D. Malikovani 2-mutaxassislik bo'yicha ushbu kollejga o'qishga kiritib qo'yish evaziga undan 500 AQSH dollarini pora tariqasida olayotgan vaqtda ashyoviy dalillar bilan ushlendi.

Endi oliy ta'lim tizimida "o'qishga kiritib qo'yaman" degan firibgarlar haqidagi aniq ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

Departament xodimlari tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbirda fuqaro A. To'laganova va G. Toshpo'latova Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektori yordamchisi lavozimida ishlovchi Umid ismli tanishi orqali mazkur institutga o'qishga kiritib qo'yamiz, deb fuqaro N. Mirzaabdullayevadan 15000 AQSH dollarini "qurtday" sanab olayotgan vaqtda ashyoviy dalillar bilan qo'lga olindi.

Bu kabi yana bir holat poytaxtimizdagi nufuzli oliy ta'lim dargohlaridan biri — Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida sodir bo'lganligini qanday baholash mumkin?!

Jumladan, ushbu oliy ta'lim muassasasining laboranti Sh. Babayev fuqaro U. Nurullayevni mazkur universitetning Jismoniy tarbiya fakultetiga o'qishga olib kirishni va'da qilib, undan 8 ming AQSH dollarini olgan vaqtda ushlendi. Xuddi shu universitetning yana bir o'qituvchisi, dotsent vazifasini bajaruvchi S. Ahmadaliyev ham fuqaro A. Salimovadan xohlagan fakultetga o'qishga kiritib qo'yishga yordam berishi evaziga 4 ming AQSH dollari so'raydi. Pulning teng yarimini olayotgan vaqtda u ham qo'lga tushdi.

Departament xodimlari tomonidan o'tkazilgan yana bir tadbirda fuqaro F. Xujaqulova K. Kamoliddinovni Toshkent davlat texnika universitetining Iqtisodiyot fakultetiga davlat granti asosida o'qishga olib kirish bilan aldab, undan 8 ming AQSH dollarini olayotgan vaqtda ushlendi.

Xudda shunday holat Chirchiqda ham qayd etildi. Chirchiq davlat pedagogika institutining jismoniy tarbiya o'qituvchisi K. Alikulov fuqaro U. Nurullayevni tanishlari orqali O'zbekiston Milliy universitetiga o'qishga kiritib qo'yish evaziga 8 ming AQSH dollarini olgan vaqtda qo'lga olindi.

E'tibor bersak, yuqoridagi holatlarning 3 tasida universitetdagi poraxo'ru firibgarlar 8 ming AQSH dollarini olayotgan vaqtda qo'lga tushyapti. Xuddi savdo do'konidagi ma'lum bir mahsulotning narxi belgilab qo'yilganidek. Bu oliy dargohlarda ta'limning narxi 8 ming AQSH dollarimi? Yoki u yerdagi ayrim nopok kishilar vijdoni bahosimi bu?!

Qoraqalpog'istonda ham oliy ta'limdagi yana bir firibgar mulozim faoliyatiga chek qo'yildi. Tezkor tadbirda Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakultetining dekani X. Abdullayev fuqaro Nurimbetovani universitetning turkman tili va adabiyoti mutaxassisligi bo'yicha o'tkaziladigan ijodiy imtihonlardan yuqori baho qo'yib, shu orqali o'qishga kiritib qo'yishni va'da qiladi hamda buning evaziga 4500 AQSH dollari so'raydi. Poraning bir qismini, ya'ni 200 AQSH dollarini olayotgan bu mansabdor jinoyat ustida ushlendi.

— Departament organlari tomonidan 2018 yilning birinchi yarmida ta'lim tizimi bilan bog'liq korrupsiya, firibgarlik, mansab vakolatini suiiste'mol qilish kabi holatlar bo'yicha jami 83 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan, — deydi Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining bo'lim katta inspektori Adham Ismoilov. — Ushbu jinoyatlarning 16 tasi umumta'lim maktablarida, 31 tasi oliy o'quv yurtlarida, 36 tasi o'rta

maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida sodir etilgan. Tahlillarga ko'ra, ta'lim tizimidagi korrupsiya holatlari, asosan, o'quv yurtlarida yangi o'quv yili uchun qabullar boshlangan davrga (49 ta holat) to'g'ri keladi. Xususan, joriy yilning yanvar oyida 5 ta, fevral oyida 16 ta, mart oyida 11 ta, aprel oyida 10 ta, may oyida 16 ta va iyun-iyul oylarida esa 25 ta holat fosh etilgan.

Aksariyat hollarda pora berish tashabbusi aynan fuqarolarning o'zidan chiqayotgani, afsuski, achchiq haqiqat. Vaholonki, jamiyatni halol va korrupsiyadan xoli hududga aylantirishga barchamiz birdek mas'ulmiz hamda poraxo'r kimsalarga qarshi kurashishda fuqarolarimizning harakati asosiy kuchga ega bo'lishini anglab yetishimiz shart. Hulosa qilib aytishim mumkinki poraxo'rlik ya'ni korrupsiyani oldini olish juda barchamiz birdek harakat qilmog'imiz lozimdir. Eng birinchi oliy ta'limdan boshlansa maqsadga mofiq bo'lar edi. Sababi shundaki biror o'qishga kiritib quyaman deb ham hozirgi kunda ko'plab korrupsiyon holatlar bo'lmoqda keyin esa turli xil tashkilot va idorlarning holatini yaxshilashga harakat qilinsa maqsadga erishilgan bo'lar edi. Qachonki bunday holatlar bartaraf etilar ekan yurtida norizoliklar ahillik bo'ladi desam adashmagan bo'laman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qurbonov S. KORRUPSIYA TARAQQIYOT KUSHANDASI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B7. – C. 7-10.
2. To'Rayeva O. Ta'limdagi zamonaviy yondashuvlar asosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 453-459.

INNOVATIVE TECHNOLOGIES ARE THE DRIVING FORCE OF EDUCATIONAL DEVELOPMENT

Mokhinur Khazratullo qizi Sotvoldieva
Andijan State University
1st stage graduate student of
Folklore studies and dialectology

Annotation: Today, helping young people to find a worthy place in society is one of the important and priority tasks facing developing countries today. At the core of them, the field of education occupies the main place. In this research, we will discuss the future of the state directly depends on educated youth and their quality education, the stages of development of education in our country.

Keywords: education, free socialization, innovation, students, scientists and entrepreneurs, geology, mathematics, physics, agriculture, chemical industry, health, education, 3D modeling and other areas.

It is well known that today's young people receive education in several specialties, which is important for them to find a worthy place in society, start their own business, and implement new production ideas. So, today's education of young people, who are the creators of the future, is an important factor that determines our tomorrow. That is why all conditions are being created in Uzbekistan to ensure employment of young people, to get quality education and to fully demonstrate their talents. In addition, their social and legal protection is also a constant focus.

It can be seen that the issue of youth is one of the most priority areas of state policy. Uzbekistan is a country of happy young people, about 64% of the population of our country are young people, that is, people under 30 years of age. Of course, if we bear in mind that this is a huge responsibility for our state, it requires a lot of attention and care. Because now more than half of Uzbekistan's labor resources are young people. It is a clear fact that in the future every third leader will be young people. In this days, the problems of youth education are a global issue for almost all countries. Regarding these topics, the President of the Republic of Uzbekistan Sh.Mirziyoyev said at the 72nd session of the UN General Assembly: "The youth of today's world is the largest generation in the history of mankind in terms of number, because they make up 2 billion people.

It is fair to say that the science of pedagogy is independent in the Republic of Uzbekistan theoretical foundations of the continuous education system, laws and principles, specific directions of education is a science that teaches the stages of historical development. Pedagogy in the Republic of Uzbekistan is recognized as a priority area of IFM. Pedagogy, like other subjects, belongs to everyone serves to achieve social maturity. It is based on the laws of nature and the development of society and it develops as a social science. Therefore, it is a philosophy, such subjects as history, economics, psychology, sociology, ethics and aesthetics inextricably linked with it.

Among the global trends such as the internationalization of education, the international mobility of students, the rapid change of the educational program, the issue of ensuring the quality of education is gaining special importance. Modern socio-economic conditions and the high demands placed on the spiritual, moral, intellectual and professional potential of future specialists put the task of training quality personnel who can meet international requirements before educational institutions. In order to fulfill these tasks, it is necessary to use innovative pedagogical technologies in education. However, modern trends in the educational system,

especially the innovative pedagogical technologies used in the educational system of developed foreign countries, are being relatively slowly assimilated.

In the educational process, teaching using new innovative techniques and technologies, conducting training using laboratory rooms equipped with the latest techniques, providing information about the latest innovations in the specialty, for example, in the field of chemistry, giving examples from the world experience motivates to educate students in the spirit of innovation.

The future and well-being of our planet depends on how our children grow up to be human beings. Therefore, today, the main task of us teachers-coaches is to create the necessary conditions for young people to show their potential, to carry out explanatory work to prevent the spread of the idea of violence - the "virus", to provide social support to the young generation, to protect their rights and interests. We believe that it is necessary to develop multilateral cooperation. That's why young people have always been recognized as an active layer of society. Even during the Eastern Renaissance, the role of youth in the renewal of society was incomparable.

In this regard, this stratum, which is constantly forming, requires constant guidance and support... This means that the state should take measures aimed at creating optimal conditions and opportunities for the free socialization of young people in the interests of the country and effective expression of themselves, as well as supporting young people. The system of activities refers to the state policy regarding youth. Poet O'.Khaydarov said that in an interview with the mass media - "What our future will be like, renewal and changes will depend on the attention we pay to our patriotic youth today.

It is one of our main tasks to educate them to be selfless, patriotic, intellectually and physically perfect. " By the way, this is the truth. Measures to create suitable conditions for young people who do not work or study anywhere, provide them with comprehensive support, guide them to the profession and ensure their employment, and encourage their initiatives have reached a new level in recent years. Tomorrow, a peaceful life will directly depend on the perception, worldview, knowledge and skills of our growing youth. Therefore, our government always considers our desire to learn as a priority. In particular, the Law of the Republic of Uzbekistan "On State Policy Regarding Youth" means that the legal guarantees of the rights and interests of young people are getting stronger in Uzbekistan.

New innovative technologies are being introduced for our education, which serves to further increase the number of talented people among young people. As, in today's world, the number of rapidly developing countries due to the introduction of innovative development models, the export of advanced ideas, "know-how" and "smart" technologies is increasing. We young people know very well that innovation means the future.

We will start building our great future based on innovative ideas. We did not choose to move to the path of innovative development and digital economy for nothing. Because in today's fast-paced world, who wins? The country that relies on new thought, new idea, innovation will win. As an example, I can say that in Uzbekistan, young men and women with their own ideas and projects are supported at the ministerial level, and various competitions are organized for them.

Young people are showing their talent and potential in big technological development marathons like "Start-up", "Techno Ways". He has become a winner of grants and is turning his developments into useful devices. In addition, the "Youth Academy" was established in my country. In a short time, the structure has become a space that unites talented young people with innovative projects and ideas, students, scientists and entrepreneurs under the age of 40, and encourages them in every way. Young inventors work here on one of 4 platforms: "Idea Generators", "Startups", "Business Representatives" and "Future Academics". The Academy

has about 2,000 members. They have been implementing their projects in geology, mathematics, physics, agriculture, chemical industry, health, education, artificial intelligence, robotics and mechatronics, programming, 3D modeling and other areas.

Among the members, there are many active and enterprising teams that contribute to the development of a specific field by implementing their innovative and practical developments. Also, "The development of elements of creativity in young people through our national values and the principles of national tolerance, the long-standing traditions, culture, traditions, national holidays, rich, ancient heritage of our people have their special place and importance.

Based on the formation and strengthening of national pride and national pride in young people, their social it is necessary to pay special attention to increasing their activity. In the current globalization process, we can clearly say that only young people who are disciplined, responsible, patient, faith-believing, tolerant, socially active, enterprising and possessing such noble qualities can be the creators of the future" - These ideas presented on the official page of the university of World Economy and diplomacy in the social network are today's demand. Today, there are many talented people among the youth, who make up 60% of the population of my country. At the heart of their all-round support, the main criterion is the education of independent individuals who can take a worthy place in our country and the world arena with their own ideas.

In conclusion, such young people will not only build a peaceful future of their country, but also contribute to the development of world civilization with their high level of intelligence and their own potential. So, young people who are enjoying the country are the builders of our future.

References:

1. Sh.Mirziyoyev, the president of Uzbekistan. (The problems of youth education, 72nd session of the UN General Assembly)
2. O'.Khaydarov. (2021, 26th july). "Young people are the new builders of UZBEKISTAN".
3. W. E. (n.d.). Young people are the creators of tomorrow. 2020.
4. Karimov I.A. A perfect generation is the foundation of Uzbekistan's development. - Tashkent: Sharq, 1997. - 181 p.
5. <https://www.uwed.uz/uz/news/fulltext/1358>
6. <https://www.standart.uz/news/view?id=3344>
7. <https://lex.uz/>

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING OILALAR BILAN HAMKORLIGIDA
PEDAGOGIK PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**

Meliboyeva Iroda Baxtiyorjon qizi
Qo'qon universiteti Ta'lim fakulteti Ta'lim kafedirasi,
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-21 guruh talabasi

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning o'zaro hamkorligi va undagi faoliyatining ustuvor yo'nalishlarida ota-onalarning ta'lim - tarbiya jarayonidagi ishtirokidagi ozaro yangicha hamkorlik tizimining afzalliklari. Maktabgacha yoshdagi bolaning hayotida kognitiv tadqiqot faoliyatida bir qancha usullar orqali olib borilishi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tashkiloti, oilaning o'zaro hamkorligi, ta'lim - tarbiya jarayoni, kognitiv tadqiqot faoliyati, hamkorlik, yondashuv, buyuk mutafakkirlar, "Ilk qadam" o'quv davlat dasturi, Sharq xalqlari tarbiya nazariyasi, dolzabr masalaligi.

Kirish. Darhaqiqat, shaxs shakllanishida oilaning roli katta hisoblanadi. Aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat farzandlar namunali oilalarda kamol topadilar. Shuning uchun ham olada sog'lom muhitni vujudga keltirish va uni mustahkamlash umumdavlat ahamiyatga molik masaladir. Shunga ko'ra oila va oilaviy tarbiya masalalari har doim ham dolzarb muammo bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Bolaga oilada yaxshi tarbiya berish bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlab, ota-ona oldida turgan asosiy maqsad va vazifa sanaladi. Shuningdek bolalarni tarbiya ishlari yuzasidan buyuk o'zbek mutafakkiri Abu Ali ibn Sino kabi olimlarimizning hayot namunalari va bizga meros qilib qoldirgan durdona fikrlarini asos qilib olish mumkin.

So'nggi yillarda tobora e'tirof etilayotgan pedagogik-psixologik yondashuv orqali ota-onalarning o'rni beqiyos darajasida bo'lmoqda, maktabgacha ta'lim tashkiloti darajasida ham muhim bo'lib hisoblanmoqda. Shuningdek O'zbekiston respublikasi maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonunning 38-moddasida, Bolaning qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari, Bolaning qonuniy vakillari quyidagi huquqlarga ega:

- ✓ bolaning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- ✓ o'z bolasi uchun maktabgacha ta'lim shaklini va ta'lim olish tilini tanlash va boshqalar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ma'muriyatidan maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan zarur shart-sharoitlar ta'minlanishini talab qilish ko'rsatilgan

Davlat talablari asosida ishlab chiqilgan "Ilk qadam" davlat dasturida ham psixologik yondashuvning xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, unda tarbiyalanuvchilarning yoshi va individual psixologik xususiyatlarini, ularning ta'lim ehtiyojlari, motivlari va qiziqishlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda dasturni amalga oshirishning o'zgaruvchan shakllari, usullari va vositalarining tavsifini, dasturda ko'zda tutilgan. Bu esa bolaning rivojlanishida ahamiyatli hisoblanadi.

Adabiyotlar taxlili. Amir Temur Ko'ragon ibn Amir Tarag'ay (1336-1406) "*Temur tuzuklari*" asarining ma'naviy-ma'rifiy va pedagogik mazmuni xususida fikr yuritishdan oldin uning ana shu ta'limoti shakllanishining zaminlari, diniy-axloqiy manba va ildizlari haqida aytib o'tishga to'g'ri keladi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) ilm-fan va san'atning turli sohalari: adabiyot, tarix, til bilimlari, musiqa, tasviriy faoliyat, pedagogik va boshqa rivojlantirish bilan birga ta'lim-tarbiyani takomillashtirishga ham katta e'tibor bergandir. U o'zining "*Xamsa*", "*Mahbub ul-qulub*" kabi yirik ta'limiy-axloqiy asarlarida, shuningdek, "Arba'iyin" nomli asari kabi asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta'lim-axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo'llari, usullari ilgari surgandir.

Ma'lumki, Sharq xalqlari tarbiya nazariyasida shaxs xulqini jamoat orasida yosh ulug', mansabdor, ilmi va hurmatli kishilarga oldin o'zini qanday tuta bilishiga qarab baholash alohida o'rin tutadi. Binobarin, jamoat ichida yoshi ulug' kishilar oldida yoshlarning qanday so'zlayotganligi, qanday holda o'tirganligi, o'zini turishi sinchiklab kuzatiladi. Shunga qarab kishi odobli yoki odobsiz, deb aytiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Bola tarbiyasi yuzasidan oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi hozirgi kunimizning dolzarb masalaligi ham mana shundadir. Shu sababli hozirgi kunda oilaviy tarbiyada sifat va mazmun jihatidan o'zgarishlar qilish uchun yangi samador yo'l ya'ni hamkorlik vujudga kelmoqda.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga to'xtaladigan bo'lsak, ayniqsa erta bolalik davridagi bolalar uchun ota-onalar bilan hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, ota-onalar bilan hamkorlik bolalarning ta'lim olishi uchun muhim hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot ota-onalar va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni va bu hamkorlikning aloqa, maktabgacha ta'lim muhiti, ota-onalarning o'z kasbiy tajribasini bolalarga o'tkazishi va ota-onalarning maktabgacha ta'lim o'quv dasturlari va ulardan foydalanish imkoniyati kabi omillar bilan bog'liqligini ko'rib chiqadi.

Tadqiqot natijasi ota-onalar bilan pedagogik-psixologik yondashuv va tarbiyachilar bilan sifatli yondashuv orqali amalga oshiriladi, bu hamkorlikni yaxshilash uchun muammolar va ehtiyojlarni, shuningdek, ikkala tomonning roli va imkoniyatlarini o'rganadi yanada samarali hamkorlikni tashkil etish uchun xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning o'zaro hamkorligi. Ota-onalar va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni amalga oshirishga psixologik yondashuv qilishini aniqlash va ta'limga pedagogik yondashuvlarini joriy etish. Bizning fikrimizcha, maktabgacha ta'limdagi turli xil ta'lim yondashuvlari ota-onalar va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda ota-onalar o'rtasidagi hamkorligi ahamiyatli hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari turlicha bo'lgani kabi hamkorlik turlari ham mavjud. Hamkorlik shakllari va turlarini taqdim etamiz, yuqorida aytib o'tilgan pedagogik-psixologik ta'limni nazariy tahlil qilish orqali yondashuvlar va o'tkazilgan ba'zi tadqiqotlar natijalari orqali bolalar faoliyatni o'rganib boramiz.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatining ustuvor yo'nalishi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim va tarbiya ishlari loyiha faoliyati yanada muvaffaqiyatli rivojlanish natijalariga olib keladi hamkorlik shakllari. Har bir ota-onalarning ishtiroki ko'zda tutilgan yeg'ilishlar; ota-onalar bilan tarbiyachilar o'z tajribalarini almashishlari, bolalarning fantaziya olami ochishga qaratilgan loyihalar qilish; ta'lim va tarbiya vazifalarini takomillashtirish, kabi loyiha faoliyatlari bolaning shaxsini har tomonlama rivojlantirish va ota-onalarning psixologik va pedagogik malakasini oshirishga katta imkon yaratadi.

Bolalarning maktabgacha tarbiyasida ota-onalarning ishtiroki. Tabiatning buyuk in'omi - irqning davomi, bolaning o'zida mujassamlanishidir. Barcha ota-onalar bolalarini aqlli, yaxshi tarbiyalab, ota-onasining eng yaxshi xususiyatlarini meros qilib olishlarini istaydilar.

Bolalar - bu katta ma'suliyat, ammo bundan ham muhimi, bolani tarbiyalashdir. Ta'lim va tarbiyada nazorat qilish bolani tarbiyalashda yetakchi o'rinlardan birini egallagan shaxslarga ya'ni ota-onalarga yuklangandir. Bolalarning maktabgacha tarbiyasida ota-onalarning ishtiroki quyidagi holatda o'z askini topadi:

Yaxshilik muhiti- Farzandingiz bilan muloyim, tinch va sokin ovoz bilan gaplashishga harakat qiling. Hatto hech narsani tushunmaydigan bola ham kattalarning intonatsiyasiga javob beradi. Bolangizning xatti-harakatlaridan juda asabiy yoki baxtsiz bo'lsangiz ham, ovozni ko'tarishingizga yo'l qo'ymang. Ota-onalar farzandini yoki qizini yoshligidan mehrla

so'zlardan o'rgatishlari kerak. Mehribonlik va mehr-oqibat muhitida o'sgan bola kelajakda mehribon va rahm dil bo'ladi.

Mehnatni o'rganish- Maktabgacha tarbiyachilar o'z faoliyatlari tufayli chumolilarga o'xshaydilar, ular doimo o'zlarining bir nechta turlari bilan band bo'lib, har doim harakatga kirishadilar. Ota-onalar bolasi uchun hamma narsani qilishni xohlashsa, bu uning hayoti uchun ishlashga vaqt topishi haqida gapirish juda yomon. Bunday bola osonlikcha dangasa bo'lishi mumkin va maktabgacha ta'lim yoshida, maktabda va uyda vazifalarni bajarishdan qochishadi. Bolam mustaqillikka intiladi. Unga to'siq qo'yish, kiyim kiyish va narsalarini to'plash imkoniyatini bering. Uning tashabbusini olmang. O'zi uchun mumkin bo'lgan ishni bajarishga ruxsat bering. Ushbu jarayonning muntazam ravishda o'tkazilishi bolaning mehnatga layoqatli o'sishi kafolati hisoblanadi.

Shaxsiy vaqtning qiymati- Maktabgacha tarbiyalash davrida qiz va o'g'il bolaning vaqtni to'g'ri ajratish va qadrlashga o'rgatish, kundalik turmushga qat'iy rioya etishga o'rgatishi kerak. Bu omil bolaga maktabga borganida juda foydali bo'ladi.

Ishonch- Maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalash ota-onaning va bolaning o'zaro ishonchiga asoslangan bo'lishi kerak. Farzandni tarbiyalash zarur, chunki u doimo otasi va onasi bilan o'z qayg'uli va quvonch bilan baham ko'rishga qodir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tarbiyasida ota-onaning o'zni beqiyosdir. Ota-ona o'z bolasiga yaxshi muhitni yaratib berishlari kerak, yangi muhit deganda bolaga nisbatan erkinlik, sokinlik, tinchlik, ijobiy holatlarga boy muhitni yaratib bera olishlari kerak. Shu bilan birga bola tarbiyasida asosiy rol o'ynaydigan kattalar mehnatiga ham o'rgatishlari kerak.

Mtt va oila o'rtasidagi ozaro yangicha hamkorlik tizimining afzalliklari. Hamkorlikning turli shakllari ishtirokchilar hisoblarida nomuvofiq tarzda belgilanadi, chunki hamkorlik bir tomonlama yoki o'zaro ma'lumot almashinishi, birgalikda vaqt o'tkazish va belgilangan maqsad sari umumiy taraqqiyot uchun atama sifatida ishlatiladi. Shuningdek, ilk qadam davlat dasturida ham hamkorlik yuzasidan quyidagi fikr keltirilgan: "turli xildagi faoliyatning o'ziga xos psixologik-pedagogik xususiyatlari, tarbiyalanuvchilarning oilalari bilan o'zaro hamkorlik turlari ifodalanishi mumkin" deb ta'kidlab o'tilgan. Bu esa bolaning ta'limni o'zlashtirishi hamdan tarbiyachining ota-onalar birlan hamkorligini ifodalashning turli shakllaridan foydalanish mumkin ekanligi hosoblanadi.

Hamkorlik shakllari asosan kundalik aloqalardir. Ota-onalar o'rtasida olib boriladigan dialoglar kiyim xonasi va shaxsiy rivojlanish dialoglari va tarbiyachilar bilan tashkillangan suhbatlar kiradi.

Hamkorlikdagi imkoniyatlar. Ikkala tomonning hamkorlik qilish istagi va ma'lum darajadagi ijtimoiy kompetentsiyaga ishoniladi va hamkorlikni osonlashtirish. O'zaro hurmat va ishonch, ochiqlik kabi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining ta'kidlashicha, maktabgacha ta'lim tashkilotiga shubha bilan qaramaydigan ota-onalar bilan hamkorlikni soddalashtiradi, chunki bu maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining asosiy tushunchalarini almashish imkoniyatiga ega bo'lishiga yordam beradi.

Munozara. Ushbu tadqiqot ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan hamkorlikning turli shakllari mavjud ota-onalar va xodimlarga turli xil ta'sirlari. Turli xil boy assortimentni ta'minlaydigan maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamkorlik shakllari, shuningdek, ota-onalarning eng katta ishtirokiga egadir. Ular yangi ota-onalar qo'shilgan hamkorlik madaniyatini o'rnatdilar. Madaniy xilma-xilligi bilan ajralib turadigan maktabgacha ta'lim tashkilotlari, birinchi navbatda, hamkorlikning yangi shakllarini yaratishga harakat qiladilar.

Maktabgacha yoshdagi bolaning hayotida kognitiv tadqiqot faoliyati. Maktabgacha yoshdagi bolalar tug'ma tadqiqotchilar deb hisoblanadi. Bu ularning qiziqishi, doimiy tajribaga intilishi, muammoli vaziyatga mustaqil ravishda yechim topish istagi bilan

tasdiqlanadi. Tarbiyachining vazifasi bu faoliyatni to'xtatish emas, balki, aksincha, faol yordam berishdir. Kognitiv tadqiqot faoliyati, biz bolaning bevosita narsalarning tuzilishini, atrofdagi dunyo hodisalari o'rtasidagi aloqalarni, ularni tartibga solish va tizimlashtirishni tushunishga qaratilgan faoliyatini nazarda tutamiz. Bu faoliyat erta bolalikdan boshlanadi, dastlab narsalar bilan oddiy, go'yo maqsadsiz eksperimentni ifodalaydi, bunda idrok shakllana boshlaydi, predmetlarni rangi, shakli, maqsadi bo'yicha eng oddiy turkumlash vujudga keladi, hissiy me'yorlar, oddiy instrumental harakatlar o'zlashtiriladi.

Umumiy xulosa. Ushbu tadqiqotning xulosasi shundaki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarini oilalar bilan hamkorlik usullari, shakllari, maqsadlari yuzasidan bilimlar bilan ta'minlash muhimdir. Hamkorlikning xilma-xil va boy shakllari mavjud, chunki hamkorlikning turli shakllari har xil narsalarni o'ziga jalb qiladi. Keng assortiment bilan barcha ota-onalarga murojaat qilish imkoniyati vujudga keladi. Bunda muhim rolni ota-onalarning qiziqishlari, bo'lsa hamkorlikning bir necha shakllarini rivojlantirish maktabgacha tarbiya bilan shug'ullanish va ularga ta'sir qilish imkoniyatini berish. Pedagogik-psixologik hamkorlikda ota-ona yordami muhim va ota-onalarga qarash va tushunishni berish muhimdir va ularning farzandlari bir qismi bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotiga ta'sir qilish va uni saqlab qolish asosiy o'rini egallaydi. Natija, umid qilamanki, davom etadigan kundalik ishda poydevor bo'lib ishlaydi hamkorlik to'g'risida, chunki bu fikrlar mintaqadagi davomli muhokamalar uchun boshlang'ich nuqta bo'lishi mumkin.

Hamkorlik madaniyatini oshirish, bolalar o'zlarini qulay his qilishlari va o'quv jarayoniga jalb qilishlari uchun ota-onalarning hamkorligi va kasbiy hissasining muhimligini oilalar va MTT lar ham bir dek tushunishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dastur 5-bet
2. Djurayev R.X, Inoyatova M.E. Iste'dodli farzand tarbiyasi. Otaonalar kitobi. Toshkent, 2013.
3. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi bo'yicha uslubiy qo'llanmani qarang//Oila va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik//Birinchi nashr//Toshkent //2020
4. R.Shomaxmudova//Umumiy pedagogika//Toshkent-2017//387-bet//
5. F.Qodirova//Maktabgacha ta'lim//Tafakkar nashr//Toshkent-2019//
6. Bhering, E. 2002. Teachers'and parents'perceptions of parent involvement in Brazilian early years and primary education. International Journal of Early Years Education 10, no. 3: 227-41.
7. <https://uz.inditics.com//bolalarning-maktabgacha-tarbiyasida-ota-onalarning-ishtiroki//>
8. <https://minikar.ru/uz/deti/poznavatelno-issledovatel'skaya-deyatelnost-doshkolnika>



IV SHO'BA

FILOLOGIYA FANLARINI O'QITISH ORQALI TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR



ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA TARIXIY HIKOYALARNI O'RGANISH

Amikulova Zebuniso Mustafakulovna
filologiya fanlari bo'yicha PhD
Termiz davlat universiteti

Annotasiya: Ushbu maqolada o'qish darslarida tarixiy mavzudagi asarlarni o'rganish metodikasi o'rganib chiqilgan, va bunda dars jarayonida foydalanilgan innovatsion texnologiyalar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: o'qish darslari, tarixiy asarlar, hikoya, afsona, Jaloliddin Manguberdi, innovatsion texnologiyalar.

Har qaysi xalqning ona tili va adabiyoti uning milliy ruhi va o'zligining, madaniy-ma'rifiy olami, milliy g'oyasining asosi hisoblanadi. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning "Har bir millatning borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak – millatning ruhini yo'qatmakdur" degan hikmatli so'zlari ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi. Muhtaram birinchi prezidentimiz alohida ta'kidlaganlaridek: «Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zboshimchalikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha, qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi»

Shu o'rinda muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning quyidagi fikrlari beixtiyor yo'dga tushadi. "Biz ta'lim-tarbiya sohasida olib borayotgan ishlarimizni yanada kuchaytirmog'imiz va bunda bir qator cora- tadbirlarni rejalashtirmog'imiz darkor."

O'zbek tili va adabiyotining har tomonlama taraqqiy topishi va adabiy til sifatida maydonga chiqishida qadimiy turkiy til hissa qo'shganini alohida ta'kidlash tabiiydir. Shu borada Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi ilmu fan va adabiyot namoyandalarining xizmati va qoldirgan merosi muhim o'rin egallaganini qayd etish joiz.

Go'zal yurtimiz bugungi yorug'kunlarga erishishi xalqimizning tinch va osoyishta yashashlari uchun ko'plab ajdodlarimiz dushmanlarga qarshi mardonavor kurashganlar, qahramonliklar ko'rsatganlar: To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi ajdodlarimizning ko'rsatgan jasoratlari shular jumlasidandir. Ular o'z qahramonliklari bilan xalqimiz qalbida bir umrga o'chmas iz qoldirganlar. Shunday ulug'ajdodlarimizning avlodi ekanlimizni kelgusi avlod ongiga singdirish, shunday ulug'ajdodlarga munosib avlod bo'lishni, shuningdek, ulug'ajdodlarimizning ko'rsatgan qahromonliklari, bizga qoldirgan ma'naviy boyliklari va ularning mardligi, jasurligi, xalqparvarligi va shu kabi insoniy fazilatlaridan yosh avlod qalbida cheksiz faxr-iftixor tuyg'ularni uyg'otish maqsadida yurtimizda har bir vatanparvar ajdodlarimizga ko'rsatilayotgan hurmat, ehtirom ulug'ajdodlarimizning qilgan mehnatlarini zoye ketmasligiga va ularning nomini abadiylashtirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, ulug'ajdodlarimiz hayotidan hikoya qiluvchi filmlar yaratilmoqda, ular ko'rsatgan jasoratlarni madh etuvchi kuy va qo'shiqlar yangramoqda, ular nomini abadiylashtirish maqsadida ko'cha va xiyabonlarga ularning nomi berilmoqda va yuksak unvon va ko'krak nishonlarga ham xalqparvar ajdodlarimiz nomi berilmoqda.

O'sib kelayotgan yosh avlodni ajdodlarga hurmat ehtirom ruhida tarbiyalab voyaga yetkazish maqsadida boshlang'ich sinf darsliklarida ulug'ajdodlarimiz hayoti, ko'rsatgan jasoratlari va qahramonliklarini madh etuvchi hikoyalar talaygina. Jumladan, boshlang'ich 3-sinf o'qish darsligida ulug'bobokolonimiz Jaloliddin Munguberdi hayoti haqidagi hikoya o'z

o'rniga ega. Ushbu hikoya buyuk yozuvchi Mirkarim Osim tomonidan yozilgan bo'lib, unda buyuk ajdodimiz va Chingizxon o'rtasidagi murosasiz janglardan qisqacha hiyoya qiladi. Hikoya davomida bu murosasiz janglarda goh shahzoda Jaloliddinning qo'li baland kelsa, goh Chingizxon g'alaba qozonadi. Hikoyada yozuvchi Jaloliddin Manguberdi timsolida har bir o'zbek yigitining vatanparvarligini, xalqparvarligini, jasurligini, or-nomuslini gavdalantirgan va hatto hikoya so'ngida Chingizxon ham dushmani hisoblangan Jaloliddin jasurligiga qoyil qoladi va lashkarlarga undan o'rnak olishlari kerakligini aytadi, bu hikoyani o'qigan har bir o'quvchi qalbida ajdodlarga bo'lgan iftixor tuyg'ulari jo'sh uradi, ruhida ularga bo'lgan hurmat-ehtiroim kuchayadi.

Mana shunday o'z jasorati bilan hatto dushmani ham lol qoldira olgan ajdodlar haqidagi hikoyalar o'quvchilarning ham ma'naviy ham madaniyatiga, dunyoqarashiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Albatta, bunda Mirkarim Osim kabi buyuk yozuvchiralimizning xizmatlari beqiyosdir.

Mavzu: "Jaloliddin Manguberdi" hikoya (Mirkarim Osim)

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: hikoya mazmuni bilan tanishtirish, matn ustida ishlash ko'nikmalarini o'stirish.

TK 2: o'quvchilarni har bir darsda darslik bilan ishlash, hikoyani o'rganishdan maqsad nima ekanligini tushuntirish.

FT 1: O'quvchilar nutqini hikoyani o'qish va gapirib berish orqali o'stirish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni ona vatanni sevishtirishga, asrashga o'rgatish va insonparvarlik ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi:

TK 2: O'quvchilarni ijodiy fikrlash qobiliyatlarini lug'at ustida ishlash ongli va ifodali o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi tushincha va bilimlarni shakllantiruvchi.

Dars metodlari; Suhbat, savol-javob.

Darsning jihozi: mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar, mutimedia ilovalari.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

Salomlashish

Davomatni aniqlash

O'quvchilarni darsga hozirlash

II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash

"Toshkent" matni, matn mazmunini "Davom ettir" usulida qayta hikoya qildiriladi. Matn asosida "tarmoqlash" usuli bilan shaharga ta'rif beriladi.

Matn yuzasidan tezkor savol-javob o'tkaziladi.

- "Toshkent" so'zi qanday paydo bo'lgan?
- Shaharda qanday darvozalar qurilgan?
- Toshkent shahri ko'proq qaysi shaharlar bilan savdo qilgan?

III. Yangi mavzuni tushuntirish.

Bugun biz sizlar bilan Mirkarim Osimning "J Manguberdi" hikoyasi bilan tanishamiz (Muallif haqida o'qituvchi tomonidan qisqacha ma'lumot beriladi).

Hikoya matni o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi. Matn mazmuni tushuntirilib beriladi. Matn asosida savol-javob o'tkaziladi.

- Hikoya kim haqida ekan?
- Chingizxon qanday xiyla ishlatdi?
- Jaloliddin nima qildi?
- Chingizxon nima uchun Jaloliddin quvmoqchi bo'lgan askarlarni to'xtatdi?
- Hikoyadagi qaysi voqea sizni hayojonlantiradi?

- Jaloliddin qochdi va qanday halok bo'ldi?

O'qituvchi javoblarni to'ldiradi va tarbiyaviy xulosani chiqariladi. Hikoyadagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

Lug'at ishi: Jayhun - Amudaryoning qadimgi nomi

Nizo – kelishmovchilik, kichik janjal

Sohil – qirg'oq

J.Manguberdi haqida video lavha namoyish qilinadi.

Dam olish daqiqasi o'tkaziladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Darslik bilan ishlash: hikoya o'quvchilarga navbatma-navbat o'qitiladi, "rezyume" metodidan foydalanib o'quvchilarga hikoya qahramonlariga tavsif berish topshirig'i beriladi:

Jaloliddin:

mard, jasur

vatanparvar

sadoqatli

g'ururli

Chingizxon:

yovuz

boylikka o'ch

xiylakor

nomard

O'qituvchi "domino" metodidan foydalanib o'quvchilarga hikoya ichidan bitta so'zni aytadi, o'quvchilar shu so'zning oxirgi tovushi bilan boshlanuvchi so'zni aynan shu matn ichidan topib aytish kerak bo'ladi.

V. Darsga yakun yasash va o'quvchilarni baholash.

O'quvchilarga yangi mavzu yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar bilan murojat etiladi.

-darsda mavzu yuzasidan nimalarni bilib oldingiz?

- hikoya sizga yoqdimi?

- hikoyani o'qib qanday xulosa chiqarddingiz?

O'quvchilarning javoblari to'ldiriladi, umumlashtiriladigan dars yakunlanadi.

Dars davomida faol qatnashgan guruh ballari e'lon qilinib rag'batlantiriladi.

O'quvchilarning guruhlardagi faolliklari tahlil qilinib baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

Hikoyani o'qib o'rganish, mazmunini qayta hikoyalash uchun tayyorlanish uyga vazifa qilib beriladi.

Albatta tarixiy mavzudagi asarlarni o'rganish birinchidan bola ongida tarix bilan kelajakni bog'lash imkonini beradi. Shuningdek, bola qalbida bizgacha yashab o'tgan buyuk ajdodlarimizning ko'rsatgan jasoratlari haqida iliq taassurotlar paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Mirziyoyev.Sh.M.Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz.- T.:O'zbekiston, 2017-yil.

2. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: «Маънавият», 2008. 116-бет.

3. Qosimova K.Ona tili o'qitish metodikasi. T.: "Noshir", 2009.

4. Aldjanova I.R. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik innovatsiyalardan foydalanish. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2011.

THE IMPACT OF LANGUAGE IN SOCIETY AND FUTURE

Nazarova Dilnoza
2nd stage student of Uzbekistan
State World Languages University,
Abdusamadov Zafar
Dean of the 3rd Faculty of English
Language of Uz DJTU, f.f.f.d., PhD.

Abstract: This article discusses the effects of language on human culture, society, and the future. We know that language is an integral part of the human way of life, so it does not remain unaffected by other important concepts in society. In this article, I want to talk about the relationship and behaviour of language in this regard.

Key words: language, culture, history, impact, development of language, science.

Introduction. Individuals talk generally 7,000 dialects around the world. In spite of the fact that there's a parcel in common among dialects, each one is interesting, both in its structure and within the way it reflects the culture of the individuals who talk it. Jurafsky said it's critical to ponder dialects other than our possess and how they create over time since it can offer assistance researchers get it what lies at the establishment of humans' one of a kind way of communicating with one another.

Main part. A collection of people are referred to as a society when they are held together by a series of interactions, whether they are social or personal, formal or informal, and whether they are public or private. Social and linguistic interpretation within groups can occur in a variety of contexts, from conversation to speech or from promotional materials to literary works. Although the numerous brain centers that govern the various organs are connected to the language faculty, all of these centers only have partial influence over language since the synthesis only occurs at the social level of communication, language acquisition, and real language usage. Thus, biological functioning enables language as a social function. It is ingrained in society and is developed, conserved, and changed through social interactions. It is a crucial component of collaborative portrayals. The same is true of society; social communication, which is the cornerstone of social organization, shapes how its members behave on a daily basis. Therefore, language is a social phenomenon that serves as society's essential tool and a constant force in the world. Even though it is a phenomena that gave rise to civilization, communication may occasionally become a point of contention. Language and society are so closely related that it is even hard to imagine one without the other. Humans have language, but animals simply have the voice. According to some thinkers, this allows us to discriminate between the right and the unjust. Understanding concepts like language and culture.

It is quite difficult to separate the effects that culture and language have on one another. A culture gives birth to language. The language evolves as a means of communicating culture. It affects how words are employed to promote the culture, which has an impact on the language that is utilized within the limits of the society. Members of a certain culture interact with one another and forge relationships with one another through language. Others use language to recognize certain cultures, whether they are social cultures based on ideologies or regional cultures based on geography. The culture creates its own language, complete with subtleties and variations in voice intonation and group body language. Culture and language depend on one another. Language is the means through which cultural events and experiences are expressed. The words that emerged from the cultural experience are meaningless to outsiders, yet they resound in an oral tradition akin to storytelling for insiders. This illustration highlights the

importance of knowing a culture as well as its language. Understanding what is being said will be made easier if you master a foreign language, but if you skip learning about the culture, you risk missing the finer points. For instance, if you don't understand the cultural significance and history of a term or word, you risk misusing it and offending the people you're trying to impress. The goal of communication accommodations is to improve communication, not simply to fit in but also when there are cultural hurdles. To better fit into a culture, this might be as easy as cutting out terms or phrases from one's vocabulary. Everyone is said to feel more at ease and comfortable with each other when they communicate in this way. The bigger group of persons interacting often determines the sort of communication used. To avoid sticking out and lessen the embarrassment they feel from not being a part of the culture, an outsider could imitate the use of ya'll in a conversation among Southerners.

How language can influence culture? It is as it were by understanding how dialect can influence culture that you simply can learn perfect way" the most perfect way to utilize dialect when communicating with a diverse culture. The impact of dialect is interwoven with its culture and gives a sense of soundness and coherence among a gather of individuals. Language can serve as a interpreter of universes, advertising the opportunity to put through on a level unheard of within the past. In a society frequently tormented by narrow mindedness for errors, presently is the perfect time for youthful grown-ups to utilize dialect within the title of great.

Conclusion. In short, language has a role in every aspect and layer of our life. It unwittingly affects society, culture, and the future. The future of linguistics and related sciences cannot be imagined without the discovery of new languages and language research.

References:

1. <https://www.tutorialspoint.com>
2. <https://www.translateday.com>
3. M.R. Kadirov – "Importance of language" 2017. [23-46]

O'QUVCHILARNING YOZUV KOMPETENSIYALARINI SKAFOLDING METODI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MODELII.

**Kenjayev Azizbek Rustamjon o'g'li
Namangan Davlat universiteti tayanch doktoranti**

Annotasiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktabi yuqori sinf o'quvchilarining ingliz tili darslarida yozuv kompetensiyasini scaffolding modeli asosida o'rgatishning nazariy-metodik jihatlarini haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: yuqori sinf, yozuv kompetensiyasi, scaffolding modeli.

Dastur materialni tanlash yondashuv va qoidalari Ko'ptilli va ko'pmadaniyatli sharoitda hamma ta'lim sharoitlari uchun yakka darslik ishlab chiqishning imkoniyati yo'q. Shu sababli o'qituvchi odatda ingliz tilidan asosiy darslikka murojaat etadi va uning uchun ta'lim xususiyatidan kelib chiqib qo'shimcha material tanlaydi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida dastur materialini tanlash va uni savodli metodik tayyorlashga maxsus yondashuv zarur bo'ladi. Bugunga kelib empirik, lingvistik, va pragmatik yondashuvlar nisbatan kengroq ommalashgan (Minyar-Beloruhev R.K. 1990.). Empirik yondashuvda leksik birliklar, grammatik konstruksiyalar va matnlar darslik muallifi, metodist yoki o'qituvchining ingliz tilini bilish darajasi va uni o'qitishdagi shaxsiy tajribasiga asoslanadi. Bunday yondashuvda odatda matnlar tanlanadi va uning o'rganilishini ta'minlash uchun yangi leksik birliklar va grammatik konstruksiyalar ajratiladi. Leksik birlik va grammatik konstruksiyalarni matn asosida tanlashning ham ijobiy ham salbiy tomonlari mavjud. Ijobiy tomoni shundaki, matn dastur mavzusidan kelib chiqib tanlanadi va o'quvchilarning dasturga kiritilgan mavzu doirasidagi bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshqa tomondan, matnlarda uchraydigan tasodifiy leksik birliklar va grammatik konstruksiyalar ta'lim jarayonini intensivlashtirish (jadallashtirish)ga xalal beradi. Matnlarda jonli muloqot emas balki adabiy til me'yorlarining aks etishi o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Empirik yondashuvning asosiy kamchiligi tanlovning intuitiv amalga oshirilishida, ya'ni muallif tanlash prinsiplari va mezonlari haqida tasavvurga ega bo'lmaydi. Darslik uchun dastur mazmunidan kelib chiqadigan matnning tanlashga empirik yondashilganida o'quvchi katta qiyinchilikka duch keladi. Buning sababi shundaki ingliz tili o'qitishdagi darslik muallifining tajribasi va o'qituvchi tajribasi odatda mos tushmaydi. Mazkur yondashuvda matn o'qitish mazmuniga kiritiladi. Lekin nutq mavzulari deganda, ularning mazmuni, ya'ni mavzudan kelib chiqadigan axborotni hisobga olish zarur. Mavzu axborotni taxminan chamalaydi, lekin o'z ichiga olmaydi, u axborot uchun umumiy ko'rsatkich bo'ladi. Mavzu yuzasidan og'zaki va yozma matnlar hosil qilinadi. Matnda axborot beriladi yoki olinadi. Demak, axborot matn mazmunidir, matn esa mavzuning namoyon etilishidir. Lingvistik yondashuv empirik yondashuvdan farq qilib tanlash tamoyillari va tanlashning turli-tuman mezonlari mavjud bo'lgan til materialining lingvistik xarakteriga asoslanadi. Masalan, aktiv lug'atni tanlashda so'zlarning birikishi, so'z yasash imkoniyati, ko'p ma'nolilik me'zonlari asos bo'ladi. Potensial lug'atni tanlashda o'zak leksik birlikning so'z yasash qiymati e'tiborga olinadi. Dastur materialini tanlashga lingvistik yondashuvda tilning barcha aspektlariga taalluqli xarakterli xususiyatlarni hisobga olish va semantik, grammatik hamda stilistik mezonlar bilan ishlash talab etiladi. Pragmatik yondashuv kommunikativ metod ingliz tili o'qitishning eng ilg'or metodi sifatida e'tirof etilishi natijasida rivojlantirildi. Bunda til materialini tanlashda til elementining lingvistik xususiyatiga emas balki ingliz tilida muloqot qilinishiga ustivor ahamiyat qaratiladi. Pragmatik yondashuvda til materiali ingliz tilida kommunikatsiyani ta'minlaydigan va kommunikativ kompetensiyani shakllantirilishiga har tomonlama xizmat qiladigan leksik

birliklar va grammatik hodisalardan iborat bo'lishi targ'ib etiladi. Dastur materialni saralashda kommunikativ materialni tanlashning turli me'yorlarini taqdim etuvchi kommunikatsiyaning xos xususiyatlarini va muloqot jarayonining sotsiologik hamda psixologik qonuniyatlarini hisobga olish talab etadi. Ingliz tili ta'limidan ko'zlangan amaliy maqsad o'quvchining nafaqat kommunikativ kompetensiyasini, balki ijtimoiy-madaniy yoki madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishdan iboratdir. Shu sababdan ham dastur materialni saralashda lingvomamlakatshunoslik, mamlakatshunoslik, ijtimoiy-madaniy va madaniyatlararo yondashuvlarga murojaat etilishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarda ingliz tili muloqot vaziyatlarida yo'nalishini to'g'ri tanlash ko'nikmalarini shakllantirishga, tili o'rganilayotgan mamlakatning madaniy-tarixiy xususiyatlarini bilish va tushuna olishga yo'naltirilgan. Ta'lim jarayonida o'quvchilarga turli xalqlarning ananalari tanishtiriladi, ularga tili o'rganilayotgan mamlakatdagi axloq-odob qoidalari, marosimlari va bayramlarini anglash o'rgatiladi. O'qituvchi ushbu yondashuvlardan foydalanib ayni yoshdagi ingliz tili sohiblarining kundalik turmushda sodir bo'ladigan voqealar va hodisalarni aks ettiruvchi leksika, matnlar, foto va videomateriallarni tanlaydi. O'z navbatida lingvomamlakatshunoslik, mamlakatshunoslik, ijtimoiymadaniy va madaniyatlararo yondashuvlar umumiy yo'nalishga ega bo'lib, ingliz tili o'rganish jarayonida tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati haqidagi tasavvurni shakllantirishga xizmat qiladi. Lekin ularning farqli jihatlari ham mavjud. Lingvomamlakatshunoslik yondashuvi madaniy yo'naltirilganlik bilan bir qatorda lingvistik tabiatga ham ega bo'lib, til orqali ta'sir o'tkazadi. Mamlakatshunoslik yondashuvi madaniy yo'naltirilganlikning yorqin ifodasi bo'lib tili o'rganilayotgan mamlakat haqidagi madaniy-tarixiy, ya'ni an'analari, urf-odatlarini, bayramlari, fe'l-atvor va axloq-odob me'yorlari, geografik joylashuvi, tarixi, iqtisodi, ta'limi, siyosiy qurilishi kabi ma'lumotlarni taqdim etadi. Til materialini tanlashga bunday yondashuvlarni har qanday ta'lim sharoiti va bosqichlari uchun qo'llash mumkin. Sotsiologik yondashuv metodikada til materialini (mazmuni)ning madaniy xos xususiyatlarini ona tili va ingliz tilida qiyoslash uchun tanlashga yo'naltiriladi. Ushbu yondashuvdan foydalanib o'zbek va ingliz tillaridagi so'zlarning talaffuzi va ma'nolarini taqqoslash mumkin. Ushbu yondashuvning ahamiyati shundaki, taqqoslash jarayonida o'quvchi ona til sistemasini teranroq anglaydi va o'z vatani madaniy merosini o'zlashtira boshlaydi. Umumta'lim maktablarida ikkinchi (rus) tilni ham o'rganilishini inobatga oladigan bo'lsak, til materialini tanlashning madaniyatlararo yondashuviga murojaat etish yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ikki yoki undan ortiq tillarni va madaniyatlarni, ularning xos xususiyatlarini, aloqasini va o'zaro ta'sirini qiyoslash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Masalan, rus tilidagi ko'plab so'zlarning talaffuz va ma'no jihatdan inglizcha so'zlarga o'xshash ekanligi yoki aksincha bo'lishi. Ingliz tili materialini tanlashning lingvomamlakatshunoslik, mamlakatshunoslik, ijtimoiy-madaniy va madaniyatlararo yondashuvlari umumiy, ya'ni madaniyat yo'nalishida bo'lsa ham, til materiallarni ingliz tili o'qitish maqsadlarida saralashning xos xususiyatlari va jihatlari ega. Ingliz tili ta'lim maqsadi emas balki o'quvchini shaxs sifatida rivojlantirish vositasi ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, til materialini saralashda o'quvchilarning imkoniyatlari va ingliz tilini o'rganishga layoqatlilik darajalarini hisobga oladigan tizimli yondashuviga murojaat etish zarur bo'ladi. Ushbu yondashuv a) bugungi davr bolalarining axborotni qay tarzda qabul qilishlari va o'zlashtirish olishlari; b) o'quvchining ma'lum vaqt oralig'ida, masalan 45 daqiqa mobaynida qancha so'z va iboralarni o'rgana olishi mumkinligi; d) matreilni o'zlashtirish tezligi va samaradorligi nimaga bog'liqligi; e) ingliz tili ta'limining qanday sharoitda o'quvchi shaxsining rivojlanishi to'g'risidagi muammolarni hal qilishga yo'naltiradi. Tizimli yondashuv ma'lum yoshdagi o'quvchilar rivojlanishining psixologik jihatlari hisobga olinishini taqozo etadi. O'quvchining ona tili tajribasidan foydalanib predmetlar va hodisalar o'rtasidagi assotsiativ

bog'lanishni qo'zg'atish mumkin va buning asosida kategoriyalar, ya'ni ona til va ingliz tili haqidagi tizimli bilimlarni bog'lash shakllantiriladi. Til materialining bilishni rivojlantirishdagi axamiyati o'quvchini bilishga shaxsiy qiziqishi ortganida ma'lum bo'ladi. Masalan, Yuqori sinflarda "Geografiya darsi" yoki "Shimoliy qutib" kabi mavzularga oid til materiali ustida ish olib borilmaydi. Sababi, o'quvchilar uchun bunday mavzular shaxsiy ahamiyat kasb etmaydi va bunday mavzular ularning til tajribalari doirasiga kirmaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi ingliz tilini o'zining shaxsiy amaliy tajribalari asosida ongli-amaliy usulda o'rganishi oqibatida yod olingan so'zlar, gaplar yoki qisqa nutq ma'lum vaqt o'tishi bilan xotiradan ko'tariladi. Natijada esa ta'lim sifati pasayib ketaveradi. Tizimli yondashuv ma'lum yoshdagi shaxs tafakkurining rivojlanishi va uning faoliyat turlariga xos xususiyatlarining inobatga olinishini taqozo etadi va bu o'quvchining qiziqishini va bilish faolligini sezilarli darajada oshiradi. Metodik savodli tanlangan dastur materiali uni o'zlashtirish samaradorligini 50%ga ta'minlaydi. Masalan, fonetik mashq uchun leksik birliklarni tanlashda akustik (ohangdorlik bo'yicha) yoki semantik jihatiga e'tibor qaratib, so'zlarni ma'lum oilaga umumlashtirish (sabzovotlar, kiyim-kechaklar, transport) tadbiri qo'llanilishi lozim. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari uchun asosan akustik mezonga amal qilinsa, Yuqori sinf o'quvchilari semantik alomatlarni e'tiborga olib tanlangan so'zlarni yaxshi o'zlashtirishadi. Semantik mezon asosida tanlangan so'zlar umumiy belgiga ega bo'lib yagona "oilani" tashkil qilishadi va shu sababli ular o'quvchilar tomonidan oson va mustahkam o'zlashtiriladi. Dastur materialini tarkiban shakllantirishda yuqorida bayon etilgan barcha yondashuvlardan foydalanish talab etiladi, lekin o'z navbatida qator qoidalarga amal etilishi lozim: 1. Til materialini tanlashda so'z va ifodalarning akustik, semantik, grafik, va albatta, ingliz tili grammatikasining xususiyatlarini hisobga olib lingvistik yondashuvga asoslanish lozim. Til materialini savodli tanlanishi o'quvchilarda dastlab lisoniy, keyinchalik yuqori sinflarda lingvistik kompetensiyani shakllantiradi. 2. Kommunikativ-nutqiy material pragmatik yondashuv asosida saralanishi va kommunikativ (pragmatik) kompetensiyani shakllantirish imkonini beruvchi leksik birliklar va matnlar tanlanishi lozim. Bunda yozma va og'zaki shaklda muloqot qilish, jonli muloqot va adabiy til normalarini egallanishi uchun mo'ljallangan matnlarning uslubiy xususiyatlarini hisobga olish zarur. 3. Lingvomamlakatshunoslik va mamlakatshunoslikka oid til materialini tanlashda lingvomamlakatshunoslik, mamlakatshunoslik, ijtimoiy-madaniy, va madaniyatlararo yondashuvlarga asoslanib tili o'rganilayotgan mamlakatning tarixiy-madaniy urf-odatlarini, ananalarini, bayramlarini aks ettiruvchi o'quvchilarning Lingvomamlakatshunoslik, mamlakatshunoslik, ijtimoiy-madaniy, va madaniyatlararo til materialining metodik asoslanganligi o'quvchilarning sotsiolingvistik va madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. 4. Sotsiolingvistik materialni tanlashda o'quvchilarning psixolingvistik xususiyatlari, rivojlanish qonunlari, ehtiyojlari, imkoniyatlari va qiziqishlarini inobatga olib yo'naltiriladigan tizimli yondashuvini qo'llash lozim. Ma'lum yoshdagi o'quvchilarning qiziqish doiralariga taalluqli so'zlar, matnlar, voqealar va vaziyatlarni aks ettiruvchi til materiali o'quvchilar uchun alohida ahamiyat kasb etadi va ularning chin ma'nodagi qiziqishlari yanada ortirib jonli muloqot qilishga ichki turtkisini oshiradi. Natijada til materialini o'quvchilarning bilish faolligini oshirish manbayiga aylanadi. Dastur materialini tanlash yondashuvlarini bilish o'qituvchiga asosiy darslikda to'liq aks etmagan materialni savodli tanlashga yordam beradi. Masalan, bugungi kundagi aksariyat darsliklar xorij tajribasidan kelib chiqib yaratilmoqda va o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish maqsadiga xizmat qiluvchi situativ nutq mashqlarga ustivor ahamiyat qaratilmoqda. Natijada o'quvchilarning leksika va grammatikaga oid ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi til mashqlarga e'tiborni susaytirilganligini kuzatish mumkin. Bunday darsliklar nutqiy (pragmatik) kompetensiyani rivojlantirishga mo'ljallangan bo'lib

o'quvchilarning til kompetensiyalarni rivojlantiruvchi zaruriy miqdordagi materialga ega emas. Shunday darsliklar ham bo'ladiki, o'quvchilarning til kompetensiyalarini rivojlantirishga mo'ljallangan materialga ustivor ahamiyat qaratilib, nutqiy va pragmatik kompetensiyani rivojlantirish uchun zarur bo'ladigan muloqot vaziyatlari va mavzulariga oid material taqdim etilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Гальскова Н.Д., Никитенко
2. З.Н. Теория и практика обучения иностранным языкам. Начальная школа: Методическое пособие. – М.: Айрисс-пресс, 2004. – 240 с.
3. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. – М.: Академия, 2007. – 336 с.
4. З. Родина Н.М., Протасова Е.Ю. Методика обучения дошкольников иностранному языку: Учеб. пособия. – М.: Владос, 2010. – 210 с.

ОЛИЙ ЎҚУВ ЮРТЛАРИ ТАЛАБАЛАРИНИНГ ИНГЛИЗ ТИЛИДАГИ ОЎЗАКИ НУТҚ КЎНИКМАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ҚОНУНИЙ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

**Отаханова Дилноза Мухаммаджоновна
Наманган давлат университети тадқиқотчиси**

Олий таълим муассасаларининг Нофилологик йўналиш талабаларига инглиз тилини ўқитишда оғзаки нутқ кўникмаларини ривожлантириш масаласида мавжуд ўқув методик база ва уларда ушбу йўналишда қуйилган талаб ва таклифларни ўрганиш муҳим аҳамият касб этади. Биламизки, мамлакатимизда сўнгги йилларда амалга оширилаётган ислохотлар таълим соҳасини ҳам четлаб ўтмади. Айниқса ёш авлодга хорижий тилларни ўқитиш тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича 2012 йил 10 декабрдаги 1875-сонли Президент қарори бу йўналишда дастур амал бўлиб хизмат қилмоқда. Мазкур қарорда бугунги замон талабаларига ҳамоҳанг равишда тил ўргатувчиларнинг чет тилларида айнан эркин мулоқот қилиш малакасини ривожлантиришга алоҳида аҳамият қаратиб ўтилган.

Ушбу қарорда айтиб ўтилган вазифаларнинг босқичма-босқич таъминланишини белгилаб бериш мақсадида фан бўйича ДТС, фан дастурлари ва ш у асосида ўқув дастурларини қайта кўриб чиқиш зарурати юзага келди. 2017 йил 6 апрелда тасдиқланган компетенциявий тамойилларга асосланган янги Давлат таълим стандартларида хорижий тиллар билан бир қаторда бошқа барча фанлар бўйича белгиланган таълим мазмуни асосида ўқувчиларда таянч ва фанга оид компетенцияларни шакллантириш кўзда тутилади. Бунда таълимнинг умумий ўрта-таълим мактаб босқичидан тортиб. Коллеж ва академик литцей ва олий таълим босқичларида ҳам ўқув материаллари узвийлигини ва узлуксизлигини таъминлаш асосий вазифалардан бири этиб белгиланган.

Шунингдек ушбу мурожаатда айнан «рақамли Бошланғични ривожлантириш ва бу соҳада жаҳон стандартларига тўлиқ жавоб берадиган ҳар тамонлама етук кадрларни тайёрлаш»га урғу бериб ўтилган. 2018 йил 14 июнь санаси билан тасдиқланган, ЎзДЖТУ томонидан ишлаб чиқилган хорижий тил фан дастурида олий таълим В2 даража битирувчиларининг нутқий компетенция бўйича тайёргарлигига тинглаб тушуниш, гапириш, ўқиш ва ёзиш кўникма ва малакалари дарсларда интеграциялашган равишда олиб борилиши, мавзунинг моҳияти ва мутахассислик хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда, дарсда у ёки бу кўникма ва малака дарсларда асосий деб олинishi белгиланган. Мазкур такомиллаштирилган Д.Т.Сда хорижий тил бўйича умумтаълим мактабларининг 9-синф битирувчилари А2, ўрта махсус таълимни битирувчилар (айни вақтда 10-11-юқори синф битирувчилари ҳам) В1 даража талаблари белгиланиши қайд этилган. ДТСда Олий таълим йўналиши талабаларининг инглиз тилидаги оғзаки нутқ кўникмаларини эгаллаш даражаси халқаро CEFR меъзонлари бўйича қуйидаги параметрларга мувофиқ келиши, ва ушбу тайёргарлик даражасида бўлиши назарда тутилади:

1.1.1. Оғзаки Нутқ фаолияти кўникмаларининг эгаллаш параметрлари

B1	Ишда, мактабда, ҳордиқда ва ҳоказоларда юзага келадиган турли мавзуларда адабий тилда берилган аниқ хабарларнинг асосий ғояларини тушуна олади. Тили ўрганилаётган мамлакат ҳудудида бўлиш эҳтимоли туғилганда юзага келиши мумкин бўлган кундалик вазиятларда суҳбат қура олади. Муайян мавзуларда мулоқотга кириша олади. Ўз таассуротлари, интилишларини баён эта олади; турли воқеа-ҳодисалар ҳақида ўз фикрларини асослаб бера олади. Келажак режалари ҳақида мулоқот қила олади.
B2	Мавҳум ва ўзига хос мавзулар бўйича мураккаб хабарларнинг умумий мазмунини, шу жумладан юқори ихтисослаштирилган оғзаки нутқни тушуна олади. Чет тилида спонтан ва ортиқча паузаларсиз гапира олади, Тили ўрганилаётган мамлакат сўзлашувчилари билан қийинчиликларсиз мулоқот қура олади. Турли ижтимоий мавзуларда аниқ, батафсил нутқ сўзлай олади ва қўйилган асосий муаммо бўйича ўз фикрларини, мавжуд далилларни асослай олади. Воқеа-ҳодисаларнинг афзалликлари ва камчиликларини баён эта олади.

Ушбу қоидаларга асосланган ҳолда биз, Бошланғич таълим йўналиши талабаларининг касбий вазифаларини (ўқувчилар билан мулоқот қилиш, ўзаро ҳамкасблар билан тажриба алмашилиш, ўз соҳаси доирасида тақдимотлар (презентация) қилиш, жаҳон янгиликлари билан танишиш каби) назарда тутган ҳолда оғзаки нутқ кўникмаларини тинглаб тушуниш ва гапириш билан ўзаро уйғунлик ва узвийликда ривожлантирилиши лозим деб топдик.

Қолаверса замонавий таълимнинг долзарб масалаларидан бири бу олий таълим талабаларининг мутахассислик йўналишидан қатъий назар келажакда ўз соҳасининг етакчиси бўлишида бир ёки бир неча чет тилларида эркин мулоқот қила оладиган кадрлар тайёрлаб беришини тақозо этади. Хусусан ушбу фан дастурининг IV бўлимида талабаларнинг B2 (ДТС) ва ундан юқори даражаларни эгаллашлари ва ушбу даражага эришиш уларда илмий ва соҳавий фаолиятда юзага келадиган тил билан боғлиқ вазифаларда эркин мулоқотга киришишларини ва вазиятни самарали ҳал қилишларини таъминлаши кўрсатиб ўтилган.

Шунингдек, ДТСда B2 даража битирувчилари тайёргарлиги даражасига қўйиладиган талабларда тинглаб тушуниш бўйича талаба радио ва телерепортаж, янгиликлар, интервьюлар, хужжатли филм ва хоказоларни тинглаш (кўриш, томоша қилиш) орқали ўрганилаётган тил эгасининг тасмага ёзилган овозини (филм, хужжат, нутқ ва хоказо), шунингдек маъруза, тақдимот ва мунозараларни тинглаб тушуна олиши ва гапириш нутқида уларда бевосита ўзи ҳам қатнашган ҳолда мулоқот қилиши лозимлиги акс этган. Бироқ, таққикот иши мавзусини шакллантириш, мавжуд муаммо ва масалаларни ўрганиш мақсадида, Наманган давлат университети, Фарғона давлат университети, Қўқон давлат педогогика университетларида Бошланғич таълим йўналиши бўйича тайёрланган ишчи дастур ва режалар, фойдаланилаётган дарслик, ўқув қўлланма ва бошқа қўшимча адабиётларни таҳлил қилиш асносида мазкур кўрсатмалар назарда тутилмаётганлиги, ёки танлаб олинган аудиовизуал воситаларда касбга йўналтирилганлик, аутентиклик хусусиятларига эътибор

Axborot texnologiyalarining xozirgi zamon taraqqiyoti hamda yutuqlari fan va inson faoliyatining barcha soxalarini axborotlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. Jamiyatni axborotlashtirish deganda, axborotdan iqtisodni rivojlantirish, mamlakat fan-taxnika taraqqiyotini, jamiyatni demokratlashtirish va intellektuallashtirish jarayonlarini jadallashtirishni ta'minlaydigan jamiyat boyligi sifatida foydalanish tushuniladi.

Darxaqiqat, jamiyatni axborotlashtirish—inson xayotining barcha jabxalarida intellektual faoliyatning rolini oshirish bilan boglik ob'ektiv jarayon xisoblanadi. Jamiyatni axborotlashtirish respublikamiz xalqi turmush darajasining yaxshilanishiga, ijtimoiy yextiyojlarning kondirilishiga, iqtisodning usishi hamda fan-texnika tarakkiyotining jadallashishiga xizmat kiladi. Jamiyatni axborotlashtirish jaraenini 5 asosiy yunalishga ajratish mumkin:

- Mexnat, texnologik va ishlab chiqarish jaraeni vositalarini kompleks avtomatlashtirish.
- Ilmiy tadbikotlar, loyixalash va ishlab chiqarish axborotlashtirish.
- Tashkiliy- iktisodiy boshkarishni avtomatlashtirish.
- Axoliga xizmat ko'rsatish soxasini axborotlashtirish.
- Talim va kadrlar tayerlash jaraenini axborotlashtirish.

Bilim olishda, ya'ni ma'lum turdagi abortoria uzlashtirishda kompyuter tizimining yordami benixoya kattadir. Axborot qanday ko'rinishda ifodalanishidan qat'i nazar, uni yigish, saqlash, kayta ishlash va foydalanishda kompyuter texnikasining rolini quyidagilar belgilaydi:

Birinchildan, o'qitishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish standart (an'anaviy) tizimga nisbatan o'quv jarayonini jadallashtirib, talabada ilmga qiziqishni oshiradi, ular ijodiy faoliyatini o'stiradi, bilim berishga differentsial yondashish, olingan bilimlarni takrorlash, mustaxkamlash va nazorat qilishni yengillashtiradi, talabani o'quv jarayonining sub'ektiga aylantiradi.


Ikkinchildan, yangi axborot texnologiyalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida quyidagi shakllarda foydalanish mumkin bo'ladi:

- muayyan pedmetlarni ukitishda kompyuter darslari;
- kompyuter darslari—kurgazmali material sifatida;
- talabalarning guruxli va frontal ishlarini tashkillashtirishda;
- talabalarning ilmiy izlanishlarini tashkillashtirishda;
- talabalarning ukishdan bush vaktlarini to'g'ri tashkil qilish masalalarini xal yetishda

va x.k.

Mexnat samaradorligining bundan keyingi o'sishi va farafonlik darajasini ko'tarish. katta xajmdagi multimediya axborotini (matn, grafika, video tasvir, tovush, animatsiya) qabul qilish ishlashga yangi intellektual vositalar va inson mashina interfeyslardan foydalanish asosidagina yerishish mumkin. Informatikada mexnat unumdorligini oshirish suratlari etarli bo'lmasa, butun halq xo'jaligida samaradorligini o'sishi anchagina kamayib ro'y berishi mumkin. Xozirgi dunyodagi barcha ish joylarining 50 foizi ga yaqin axborotni qayta ishlash vositalari bilan ta'minlangan.

Tahlil va natijalar. Jamiyatni axborotlashtirish, yangi axborot texnologiyalari bilan ta'minlash insonlarning turli - tuman ma'lumotlarga bo'lgan yehtiyojini qondirishda muxim o'rin tutadi. Bugungi kunda ijtimoiy turli ko'rinishdagi axborotlar majmuasi keng va rivojlangan bo'lib, uning jamiyatda tutgan o'rni bexisobdir. Bugungi kunda axborot texnologiyalari sohasi respublikamizning rivojlanishida muhim o'rin tutib kelmoqda. O'tgan yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yurtimizda axborot texnologiyalarini keng joriy qilish va rivojlantirish borasida olib borgan siyosati hozirgi kunga kelib o'z natijalarini ko'rsatmoqda. Iqtisodiy raqamlarga nazar tashlanadigan bo'lsak, o'tgan yildagi natijalarni ijobiy deb baholasa bo'ladi. AKT sohasida ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmi 10,6 trillion so'mgacha yetib, 104% o'sishini ko'rsatdi. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari esa 176 million dollargacha, ya'ni 130 foizgacha o'sdi.



1-rasm. 2020-yilda axborokommunikasiya texnologiyalari sohasining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining davlat organlari bilan kontaktsiz aloqa shakllarini yanada rivojlantirish maqsadida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining yangi versiyasi ishlab chiqildi. Bugungi kunda Yagona portal orqali 176 ta elektron davlat xizmati taqdim etilmoqda, ushbu xizmatlardan foydalanish uchun 15,1 mln. ta ariza-buyurtma kelib tushgan, bu davlat organlari bilan o'zaro aloqada aholining vaqt va moliyaviy xarajatlarini kamaytirishga yordam berdi.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali tizimi orqali hozirgi davrda aholiga 176 ta davlat xizmatlari ko'rsatiladi. 2019 yil yakunlari bo'yicha 15,1 milliona ta ariza-buyurtma bilan ish olib borildi.

Yagona idoralararo ijro intizomi tizimi bo'yicha hozirgi vaqtda tizimga 4,4 mingdan ortiq davlat organlari va tashkilotlar, 30 mingdan ortiq foydalanuvchilar ulandi.

Tadbirkorlarning, shu jumladan, chet el investorlari murojaatlari bilan ishlashni tashkil etish sifati va tezkorligini oshirish, ular bilan ochiq va to'g'ridan-to'g'ri muloqotni ta'minlash, ularning qonuniy talablarini amaliy va samarali ro'yobga chiqarish va muammoli masalalarini hal etish maqsadida Bosh vazirning tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish virtual qabulxonasi "business.gov.uz" portali ishga tushirildi. Bugungi kunda ushbu portal orqali 34,7 mingta murojaat kelib tushib, shulardan 33,6 mingtasi ko'rib chiqilgan. Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish yagona interaktiv portali faoliyati natijalariga ko'ra, o'tgan yili jami 34,7 mingta murojaat to'shgan bo'lsa, ulardan 33,6 mingtasi ko'rib chiqildi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ayni paytda yoshlar va mas'ullar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish imkoniyatini beruvchi "Yoshlar murojaati" elektron platformasi ustida izlanish olib borilyapti. U yoshlarning ilm olishi, kasb-hunarli bo'lishi, bir so'z bilan aytganda, hayotda o'z o'rnini topishiga xizmat qiladi. Sohaga oid ilmiy izlanishlarni davom ettirish, yanada kengaytirish maqsadida Toshkent viloyatida Toshkent axborot texnologiyalari universiteti filiali hamda barcha hududda texnikumlar ochilishi rejalashtirilmoqda. Qolaversa,

davlatimiz rahbari bu yildan boshlab xalqaro IT sertifikatini qo'lga kiritgan yoshlar xarajatining 50 foizigacha bo'lgan qismini qoplab berish vazifasini qo'ydi. Bu sa'y-harakatlar uchinchi tashabbusning tobora keng quloqch yoyishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Birlashgan Arab Amirliklarining "Dubai Future Foundation" jamg'armasi tomonidan amalga oshirilayotgan "Bir million dasturchi" loyihasi yoshlarning axborot texnologiyalariga qiziqishini rag'batlantirishda muhim strategik qadam bo'ldi. O'tgan yili loyihaga 120 mingdan ziyod o'quvchi qamrab olindi. Ularning 18 mingdan ortig'i kurslarni muvaffaqiyatli tugatib, sertifikat oldi. Kelgusida bu ko'rsatkichni 300 mingga yetkazish va yoshlarni kompyuter texnologiyalari yo'nalishida bepul o'qitish hamda masofaviy ta'limni va darslarni onlayn o'tkazish imkoniyatini beradigan axborot tizimlarini ishga tushirish ko'zda tutilgan. Ya'ni shuni aytish mumkinki, bu yaratilib turgan barcha sharoitlar, imkoniyatlar biz yoshlar uchundir. Bundan unumli foydalangan holda, O'zbekiston yoshlari nimalarga erisha olishini ko'rsatib qo'yishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. uz/ru/documents/referatlar/pedagogik-psixologiya/eshitishida-va-ko-rishida-nuqsoni-bo-lgan-bolalar
2. Engaging Deaf and Hard of Hearing Students in the School Library: A Handbook for Teacher-Librarians Nadene Eisner University of Illinois at Urbana-Champaign Graduate School of Library Information Science 2 May 2012
3. <http://ilmiy.bmti.uz/blib/files/116/Maxsus%20pedagogika.pdf>
4. https://mitc.uz/uz/pages/information_technologies
5. Shokirjon o'g'li, A. D., & Solijon o'g'li, T. U. (2022). The Application of Digital Technologies to Enterprises and Organizations Will Help Reduce Social and Economic Costs. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 4, 131-140.
6. Abdullajonov, D. (2022). Raqamli texnologiyalar orqali Yangi O'zbekistonning Iqtisodiyotini rivojlantirish, Raqamli Iqtisodiyotning istiqbollari: Raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, raqamli O'zbekiston, AKT, "Bir million dasturchi", axborot xavfsizligi, elektron tijorat. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000006).
7. Abdullajonov, D. (2022). Корхонада ходимларнинг меҳнат мотивациясини кучайтиришнинг ижтимоий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш: меҳнат мотивациясини, хориж тажрибаси, самарадорлиги, корпоратив тизимлар, инновацион иқтисодиёт. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000005).
8. Қосимова, Г. Қ. Қ. (2021). Мамлакатимизда камбағаллик даражасини камайтириш йўллари. Scientific progress, 2(7), 808-816.
9. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "«Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga 1-ilova "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi. 2020 yil 5 oktyabr, PF-6079-son.
10. Kambarov, J., Rakhmatov, U., Rakhmonov, N., & Sultanova, Y. (2020). Problems and solutions for the implementation of the industry-4.0 program in Uzbekistan. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2677-2683.
11. Toxirov, R. S., & Raxmonov, N. R. O. G. L. (2021). Dasturiy ta'minot yordamida zamonaviy boshqaruvni tashkil etish istiqbollari. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 1(1), 181-186.
12. Tokhirov, R., & Rahmonov, N. (2021). Technologies of using local networks efficiently. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 250-254.

13. Rahmonov, N. (2021). Korona inqirozning xitoy va o'zbekiston savdo-iqtisodiy aloqalariga ta'siri. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000003).
14. Rahmonov, N. (2021). Бизнес Режа Тузишда Математиканинг Аҳамияти. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000003).
15. "Aqlli" qishloq xo'jaligi - raqamli texnologiyalar. G.Q.Qosimova, F.M.Mulaydinov
16. G.Q.Qosimova, F.M.Mulaydinov. Iqtisodiyot va biznesda innovasion rivojlanish muammolari. Ilm va madaniyat yosh olim va etakchilar nigohida: xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi, 26 iyun 2020 y. – Qo'qon. 172-174 betlar.
17. D.SH.Abdullajonov, G.Q.Qosimova. Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarida hamda qishloq va suv xo'jaligida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish.

**ЮЗНИ ТАНИБ ОЛИШ ТИЗИМЛАРИДА БЕЛГИЛАР ФАЗОСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ
МАСАЛАСИ**

Ф.Н. Нумонов
Қўқон университети талабаси,
Ш.С. Кахаров
Қўқон университети доценти в.б., т.ф.ф.д. (PhD).

Аннотация: Мазкур ишда юзни таниб олиш асосида шахсларни биометрик идентификациялаш тизимларини қуришда муҳим босқичлардан бири ҳисобланган, тасвирлардан белгилар фазосини шакллантириш босқичида қўлланилувчи алгоритмлардан бири бўлган локал бинар шаблонлар алгоритмининг тавсифи келтирилади.

Калит сўзлар: юз тасвири, локал компоненталар, белгилар вектори, белгилар фазоси, локал белгилар, инвариантлик, гистограмма

Ҳозирги кунда юзни таниб олиш йўналишида бир қатор муаммолар ҳал этилмайдиган ҳолатда. Масалан, қисман окклюзияга эга бўлган юз тасвирларини ёки юзига тиббий ниқоб таққан шахсни юз тасвири асосида идентификациялаш учун, унинг юзининг пастки қисми ёпиқлиги (оғиз, бурун) ҳисобига юздаги бошқа берк бўлмаган юз компонентлари (кўзлар, қошлар, бурун) орқали таниб олиш масаласи яхши ўрганилмаган. Шунингдек, қора кўзойнақлар таққан шахсни идентификациялашда унинг юзини юқори қисми ёпиқ бўлган ҳолатда юзнинг очиқ қисмидаги локал компоненталар (оғиз ва бурун) асосида таниб олишни амалга ошириш масалалари ҳам тўлиқ ўз ечимини топгани йўқ.

Юзни холистик (глобал) усулда таниб олишда яхлит юз тасвирининг барча маълумотларини ифодалаш учун битта глобал белгилар вектори шакллантирилади. Белгиларга асосланган усулда қошлар, кўзлар, бурун ва оғиз каби юзнинг ҳар бир компоненти учун алоҳида белгилар векторлари шакллантирилади. Бурун тешиклари мос равишда юзнинг ўнг ва чап четларига нисбатан симметрик бўлади ва бурун бошнинг позасини кўрсатувчи кўрсаткич ҳисобланади. Шунингдек оғиз ҳам юзни таниб олишда муҳим ўрин тутувчи компонента сифатида лаблар ва оғиз кенглиги ўзгаришига қараб юз ифодаси ҳақида маълумот беради. Холистик усуллардан кўра белгиларга асосланган усуллар нисбатан белгилар фазосининг қисқалиги ва турли визуализация шароитларида ишлай олиши ҳисобига устунликка эга ҳисобланади.


Амалиётда охириги йилларда кенг қўлланилаётган сунъий нейрон тармоқлари асосида қурилган юзни таниб олиш тизимлари ўзининг бошқа усуллар ва ёндашувларга нисбатан юқори самарадорлиги билан ажралиб туради. Нейрон тармоғининг таркибий тузилиши нейронлар деб номланган бир нечта элементлардан ташкил топади. Тармоқнинг кетма-кет боғланган таркибий қатламларида жойлашган ҳар бир нейрон бошқа қатламдаги нейронлар билан ўзаро узвий тартибда боғланган бўлади. Вазн коэффициентлари нейрон тармоғида жойлашган нейронлар орасидаги ўзаро узвий боғлиқликларни ифода этувчи энг асосий муҳим катталиқлар ҳисобланади [1,2].

Юз тасвиридаги локал соҳалар, яъни унинг асосий компоненталари (масалан, кўзлар, бурун, оғиз) жойлашган соҳалар аниқлангандан сўнг, кўрсатилган юз компоненталарини тавсифловчи белгиларни аниқлаш масаласи ечилади. Бунда, ҳар бир компонент ўзига хос белгилар тўплами билан тавсифланади, улар турли қувватларга эга бўлиши мумкин. Белгилар сони меъёрдан ортиқча бўлса, таниб олиш хатоси эҳтимолини сезиларли даражада оширмасдан, уларнинг сонини

минималлаштириш мақсадга мувофиқ. Бундай ҳолатлар юзага келганда, информатив белгилар тўпламини олиш учун турли усуллардан, хусусан, [3] ишда таклиф қилинган эвристик усуллардан фойдаланиш мумкин. Шунини таъкидлаш керакки, дастлабки белгилар тўпламини шакллантириш муаммоси аниқ бир ечимга эга эмас, шунинг учун у эмпирик тарзда ҳал қилинади. Бундай ҳолда, объектнинг визуал тасвиридаги ўзгаришларга инвариант бўлган бундай белгиларни танлаш мақсадга мувофиқдир. Инвариантлик деганда тасвирда келтирилган юзнинг кўриб чиқиладиган юз компоненталари тасвирларини олиш шароитларига (ракурс, ёритилганлик ва ҳ.к.) боғлиқ бўлмастик тушунилади [2,3].

Юз тасвирдан локал текстуравий белгиларни ажратиб олиш учун локал бинар шаблонлар (ЛБШ) усули кенг қўлланилади. Тадқиқотлар шунини кўрсатдики, ЛБШ ёруғлик шароитлари ва тасвир айланишидаги ўзгаришларга нисбатан қисман инвариант ҳисобланади [4,5].

ЛБШ – бу тасвир пиксели ва унинг атрофидаги ахборотнинг иккилик кўринишдаги тавсифи. Тасвирнинг маълум бир нуқтасида базавий ЛБШни ҳисоблаш учун унинг саккизта қўшни пикселдан фойдаланилади ва марказий пикселнинг интенсивлик қиймати бўсағавий қиймат сифатида олинади (1-расм). Интенсивлик қиймати бўсағавий қийматидан катта ёки унга тенг бўлган пикселлар бирга тенг қийматларни олади, қолганлари эса нолга тенг бўлган қийматларни олади. Шундай қилиб, операция натижаси сифатида ушбу пикселнинг атрофини тавсифловчи саккиз битли бинар код ҳисобланади.



1-расм. Базавий ЛБШни ҳисоблашга мисол

ЛБШни ҳисоблаш учун [4] ишда муаллифлар қуйидаги ифодани таклиф қилганлар:

$$ЛБШ(x, y) = \sum_{l=0}^{P-1} s(z_l) 2^l; \tag{1}$$

$$s(z_l) = \begin{cases} 1, & z_l \geq 0; \\ 0, & z_l < 0; \end{cases}$$

$$z_l = g_l - g_c,$$

бу ерда (x, y) – марказий пиксел координатаси, P – марказий пиксел атрофидаги қаралаётган пикселлар сони, l – қаралаётган пиксел рақами ($l = 0, P - 1$), g_c – марказий пиксел ёрқинлик қиймати, g_l – қаралаётган пиксел ёрқинлиги қиймати.

Кўпинча бурчак ва жойлашувдаги ўзгаришларга инвариант бўлган белгиларни аниқлаш учун бир жинсли ЛБШ кодлари (БЛБШ) қўлланилади. Битли ўтишлар сони иккитадан кўп бўлмаса, ЛБШ кодлари бир жинсли ҳисобланади [4,5].

БЛБШ гистограммасини қуриш қуйидагича амалга оширилади. Тасвирнинг ҳар бир пиксели учун локал бинар шаблон ҳисоблаб чиқилади, сўнгра ҳар битта бир жинсли (ягона) бинар кодга алоҳидадан устун мос келадиган гистограмма қурилади.

ЛБШ ёрдамида бутун юз тасвирини тавсифлаш мумкин. Бироқ, бутун юз тасвири учун тузилган гистограмма унинг локал хусусиятларини тўлиқ акс эттирмайди, хусусан, гистограммада бу хусусиятларнинг тасвирдаги жойлашган ўрни ҳақида ҳеч қандай маълумот бўлмайди. Шу билан бирга, ЛБШ ёрдамида юзнинг локал соҳалари жуда яхши тавсифланади. Бунинг учун ҳар бир локал соҳа (қизиқиш соҳаси) учун ўзининг гистограммаси ҳисоблаб чиқилади. Кейинчалик, конкатенациялаш орқали асосий гистограмма қурилади, у юз тасвирининг локал ва глобал хусусиятларини ҳисобга олади.

Реал вақтда юзни таниб олиш тизимларини қуришда белгилар фазосини шакллантириш масаласини ҳал этишда ЛБШ алгоритми такомиллаштирилган вариантларидан фойдаланиш тезкорлик ва самарадорлик жиҳатдан мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Тропченко А.А., Тропченко А.Ю. Нейросетевые методы идентификации человека по изображению лица. Приборостроение. – 2012. – № 55(10). – С. 31-36.
2. Раджабов С.С., Хашимов А.А., Кахаров Ш.С., Атаханов М.Х. Видеоархивлардан шахсларни қидириш дастури. Мухаммад ал-Хоразмий авлодлари. – Тошкент. – 2021. – №2 (16).– Б. 135-137.
3. Viharos Z.J., Kis K.B., Fodor A., Buki M.I. Adaptive, Hybrid Feature Selection (AHFS). Pattern Recognition. – 2021. – Vol. 116. – URL: <https://doi.org/10.1016/j.patcog.2021.107932>.
4. Ojala T., Pietikainen M., Maenpaa T. Multiresolution gray-scale and rotation invariant texture classification with local binary patterns. IEEE Transactions on Pattern Analysis and Machine Intelligence (PAMI). – 2002. – Vol. 24. – No. 7. – P. 971-987.
5. Кахаров Ш.С. Тасвирлардан локал белгилар тўпламларини ҳосил қилиш алгоритмлари. Ҳисоблаш ва амалий математика муаммолари илмий журнали. – 2022. – № 2/1(40). – Б. 55-64.

A SMART BABY CRADLE SYSTEM BASED ON IOT

Javlon Tursunov
a final-year Master's student at
Tashkent University of Information Technologies
named after Muhammad al-Khwarizmi.

Annotation: this thesis proposes the development of a software and hardware complex for a Smart House element, specifically a Smart Baby Cot. The project involves the use of heuristic models and incorporates both Wi-Fi and GSM modules to extend the range and facilitate communication. The baby cot can be controlled through an Android app, offering both manual and automatic control options, making it a truly smart device. This work fills a research gap as most Smart House and IoT projects do not incorporate the use of both Wi-Fi and GSM modules. To support the proposed work, this literature review explores the latest developments in Smart House Development and related sensors. Through the review of some of the latest references, the potential benefits of the proposed Smart Baby Cot are highlighted, including increased convenience and control through the use of mobile devices and the ability to facilitate communication through the use of both Wi-Fi and GSM. Overall, this work presents a novel approach to Smart House elements, specifically in the area of baby monitoring, and holds significant potential for improving the quality of life for parents and caregivers.

Keywords: Heuristic models, GSM communication, Wi-Fi communication, Android app development, Baby care, Sensors, Real-time monitoring

Introduction. Smart House Development has gained significant attention in recent years due to the increasing demand for comfortable and safe living spaces. Smart House systems provide solutions to modern challenges by creating automated and intelligent environments that enhance energy efficiency, safety and convenience. These systems typically consist of interconnected devices that can communicate with each other through the internet or local networks. In this thesis, we propose the development of a software and hardware complex that uses heuristic models to create a Smart House system that can take care of a baby in a safe and comfortable environment. The system incorporates Wi-Fi communication and GSM modules to facilitate communication and extend the range of the system.

Literature review. Based on the research that has been carried out so far, it is evident that there is a growing interest in the development of smart cradle systems utilizing the Internet of Things (IoT) technology. The IoT-BBMS system proposed by Jabbar [1] is an example of a smart baby monitoring system that utilizes a wireless network of sensors and cameras to monitor the baby's status and transmit the data to a cloud-based platform for real-time monitoring. Similarly, the smart baby cradle system proposed by Alswedani and Eassa [2] is an IoT-based system that incorporates sensors to monitor the baby's heart rate, temperature, and humidity levels. Sentiment analysis has also been proposed as a method for controlling smart cradles. The smart crib control system proposed by Yangala et al. [3] utilizes sentiment analysis to control the cradle's motion and music based on the baby's mood. Furthermore, several studies have proposed the development of smart cradles using IoT technology. Sanjana et al. [4] proposed the SMART CRADLE system that incorporates sensors to monitor the baby's vital signs and a mobile application for monitoring and controlling the cradle. Tupkar et al. [5] proposed an IoT-based smart baby cradle that incorporates sensors to monitor the baby's vital signs, and a mobile application for monitoring and controlling the cradle. In terms of reviewing the literature, Karkhanis et al. [6] conducted a review of the smart cradle system, highlighting the importance of developing a system that can monitor the

baby's vital signs and control the cradle's motion to provide a safe and comfortable environment for the baby. Similarly, Muradnar et al. [7] conducted a review of the smart baby cradle monitoring system, emphasizing the need for developing a system that can monitor the baby's status and provide timely alerts to parents. One of the research gaps in this area is the lack of a standardized protocol for data transmission and analysis in smart cradle systems. Additionally, there is a need to incorporate more advanced sensors to monitor the baby's status accurately. Despite these gaps, the proposed systems demonstrate significant achievements in providing real-time monitoring and control of smart cradles using IoT technology. Another recent development in Smart House Development is the use of voice control systems, which allow users to control various devices in the house using their voice. Voice control systems have become increasingly popular due to their convenience and ease of use. For instance, users can control the lighting, heating, and security systems in their house by simply issuing voice commands.

Proposed work. The proposed work aims to develop a comprehensive Smart House system that can cater to the needs of a baby in a safe and comfortable environment. To achieve this, the system will be equipped with an Android app that can be used to control the baby cot automatically or manually, based on the user's preference. The system will incorporate various sensors such as temperature, humidity, and air quality sensors to monitor the baby's environment in real-time. The smart baby cot will also feature a motion sensor and other sensors to detect if the baby is crying or not, allowing the system to automatically swing or play music to comfort the baby. The Android app will enable the user to control the swing's level and set the time during which the baby cot should swing. To ensure seamless communication, the system will use both Wi-Fi and GSM modules. If the user is out of Wi-Fi range, the system will notify the user via the GSM network, and the user can still communicate with the system and control the smart baby cot remotely. Overall, the proposed system will fill the research gap as most Smart House and IoT projects do not incorporate the use of Wi-Fi. The combination of Wi-Fi and GSM communication will facilitate seamless communication and extend the range of the system, making it more reliable and efficient.

Conclusion. In conclusion, this work proposes the development of a Smart House system for baby care that utilizes heuristic models and incorporates Wi-Fi and GSM communication to extend the range and facilitate communication. The system will allow for real-time monitoring of the baby's environment through various sensors and will provide remote monitoring and control through an Android Studio software. The proposed system aims to bring convenience to parents and caregivers by providing a safe and comfortable environment for babies. The scientific novelty of this work lies in the integration of Wi-Fi and GSM communication, which fills a research gap in existing Smart House and IoT projects that only utilize one type of communication. Additionally, the use of heuristic models will enable automatic control of the baby cot, providing convenience and ease for parents and caregivers. The benefits of this proposed system include the ability to remotely monitor and control the baby's environment, providing peace of mind to parents and caregivers. Additionally, the automatic control features of the system will provide convenience and ease for parents, especially for those who may have limited mobility or may not be able to physically attend to the baby at all times. The system will also promote a safe and comfortable environment for babies, which can contribute to their overall health and wellbeing. In summary, this proposed work offers a novel and convenient solution for baby care, utilizing the latest developments in Smart House and IoT technology. The system aims to provide a safe and comfortable environment for babies while promoting ease and convenience for parents and caregivers.

References:

1. Jabbar, W. A. (2018). IoT-BBMS: Internet of Things-Based Baby Monitoring System for Smart Cradle. *International Journal of Engineering and Technology (UAE)*, 7(4), 231-236.
2. Alswedani, S. A., & Eassa, F. (2018). A Smart Baby Cradle Based on IoT. *International Journal of Computer Science and Network Security*, 18(6), 84-91.
3. Yangala, S., Bodla, S., & Reddy, Y. P. (2018). Smart Crib Control System Based on Sentiment Analysis. *International Journal of Pure and Applied Mathematics*, 118(24), 1-7.
4. Sanjana, B., Reddy, Y. P., & Smruthi, Y. (2019). SMART CRADLE. *International Journal of Engineering and Advanced Technology*, 8(5), 527-531.
5. Tupkar, A. B., Chahare, P., Rade, S., Wakade, R., & Bahirseth, S. (2019). Development of IoT Based Smart Baby Cradle. *International Journal of Scientific Research in Computer Science, Engineering and Information Technology*, 4(4), 1-9.
6. Karkhanis, D., Kendre, Y., Hande, S., & Dhawale, S. (2019). A Review Paper on "Smart Cradle System". *International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT)*, 8(6S), 523-525.

JURNALIST KIM VA UNGA BERILGAN E'TIBOR

Surayyo Nuritdinova
Buxoro davlat universiteti
Filolgiya fakulteti Axborot xizmati va jamoatchilik
bilan alloqlar yo'nalishi talabasi

Modomiki, haqiqat ezgulik uchun kurash bog'lagan har bir jurnalist biror voqea jarayon haqida aniq bir fikrga kelishi, qaror qabul qilishi lozimdir. Aniq bir masala yoki jarayon haqida konkret ma'lumot berishi yoki izoh qoldirishi kerak.

Jurnalistikaning «**to'rtinchi hokimiyat**» sifatida ta'siri kengaygan sari, u turli ijtimoiy kuchlar tomonidan ko'proq tanqidga uchraydi (faktlarni etarli bilmaganlik, voqealarni noxolis talqin qilganlik, voqealarga bir tomonlama yondashganlik, noto'g'ri nuqtai nazarda turganlik va h.k.). Agar e'tirozlar chindan ham asosli bo'lsa – jurnalist (nashr, dastur)ning e'tirofi, to'g'ri munosabati – tanqidini to'g'ri qabul qilmoq, tan olmoq, tuzatmoqdir. Jurnalist (nashr, dastur) qabul qilgan yo'lga e'tiroz bildirsa, bu boshqa gap. Jurnalistning nuqtai nazari – qat'iy shakllangan, noizchil, kuchsiz ifodalangan bo'lishi ham mumkin. Nuqtai nazar matnda ochiq, ro'y-rost ifodalanishi, jurnalist qaysi kuchlar, qanday partiyalar yo'lini ochiq va keskin himoya qilishi ham, yoxud noaniq, yopiq munosabatda bo'lishi, «faktlarga suyangan», “Sog'lom hayotga tayangan”, biron bir guruh, tabaqa, partiya pozitsiyasidan “holi” sifatida ish ko'rgan kishidek ko'rsatishi ham mumkin, har qanday holda ham nuqtai nazar (pozitsiya) muayyan ijtimoiy kuchlar (ob'ektiv olgan-sinfii, milliy, hududiy va h.k.. Subektiv olganda partiyalar, uyushmalar, bloklar) manfaati himoyasi, jurnalistning hayot hodisalariga munosabati, tushunishi bahosi sifatida namoyon bo'ladi (hatto musiqiy, ko'ngilochar, sport reklama va hokazo dastur, nashrlarda ham muayyan nuqtai nazar namoyon bo'ladi)

O'zining keng jamoatchilikka yo'naltirilgan ekanligiga qaramay jurnalistika o'zini butunlay yopiq jamiyat deb hisoblaydi. Anti-ijtimoiy vaziyatlar, do'stona munosabatlar hamda hokimiyatdagi shubha-gumonlar, ezgu matbuot erkinligi g'oyalariga yo'g'rilgan boshqaruv hokimiyati hamda uning “To'rtinchi hokimiyat” tuzishga da'vatlari shuni anglatadiki, sohaga yot kimsalarning ushbu jamiyatdagi ko'pincha qarshiliklar yoki hattoki katta mojarolarga sabab bo'ladi.[1]

Siyosiy masalalar bo'lsin, sport ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha ikki tomonni ham huquqlarini buzmaganda kerakli tashkilotlarga ma'lumot berishi lozim

Jurnalist o'z nuqtai nazaridan kelib chiqib o'z kelajagini barpo etishi lozim.

Buning uch yo'li mavjud:

Birinchisi-e'tiroz, tanqid, ayblashlarga e'tibor bermaslik, o'z yo'lida sobitqadam bo'lish, nuqtai nazarini kuchaytirish, to'ldirish, kengaytirish. Garchand boshqalar, “norozilarning noroziligi”ni, kelishmovchiligini kuchaytirish xavfi bo'lsa ham. Ikkinchi yo'l “norozilarning e'tirozlari, dalillariga javob tariqasida ”ezgulik, haqiqat va adolat” yo'lida keskin o'rinlarni yumshatish, qattiq ketilgan fikrlardan voz kechish, aniq baho va xulosalardan tiyilish. Bunday hollarda faqat “sof axborot berish” yo'lidan borish maqbul ko'rinadi ba'zilarga, garchand bunda ham nuqtai nazar, yopiq shaklda bo'lsa-da, bari bir namoyon bo'ladi. “Sof axborot” amalda “sof axborot” emas, ma'lum darajada nuqtai nazarning namoyon bo'lishidir. Uchinchi yo'l-auditroyaga turli yondashuv, muhokama qarashlarni taqdim etishdir.

Jurnalistika hech qachon kasb sanalmagan; u nari borsa tijorat hisoblanadi yoki u bilan turli yo'llar orqali shug'ulanish mumkin bo'ladi, biroq buni amaliyotida na bir qonun yoki qoidasi bo'lmaganligi tufayli kasb sanalmagan. Bu ehtimol yaxshidir, sababi u bir nechta asl (ijodkor) insonlarni saqlab qolgan.[2] To'g'ri, har ikki sohaning ham quroli so'z. Har ikki soha vakili ham ijodkor sanaladi. Jurnalistik faoliyatning har bir bosqichida ham xususiy qoida va

maromlar (masalan, material to'plash jarayonida kuzatish hujjatlarni tahlil etish, ishtirokchilar, guvohlarni so'rash metodlari va h.k.) ham hayot hodisalariga yondashuvni, ularga munosabatni, bahoni tavsiflaydigan umumiy qoida va maromlar amal qiladi. Jurnalistikaning nonni og'irdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Introduction to journalism. by Dianne Smith. Printed in USA, 2010. P.4
2. Martin Conboy Journalism studies. Printed in USA, 2013.p.27.

**TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA INNAVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA
AHAMIYATINI OSHIRISH VA PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMI**

Sultonmurodov Kamronbek Soli o'g'li
Navoiy davlat Pedagogika instituti
Tarix fakulteti, tarix ta'limi yo'nalishi

Annatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim yangiliklari, uning ustuvor masalalarini ishlab chiqish to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari ta'limda yangi texnologiyalarning joriy etilishi, yetakchi davlatlar ta'lim tizimini o'rganish ular bilan kadrlar almashinuvi kabi ma'lumotlar qayd etilgan.

Kalit so'zlar: Ilm-fan, taraqqiyot, zamonaviy ta'lim, malakali kadrlar, innavatsion yangiliklar, inklyuziv ta'lim, metodik materiallar.

Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu – ilm – fan, ta'lim va tarbiya ekanligi isbot qilmas haqiqatdir. Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlar yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrab olinishini yanada kengaytirish, ularni bilim va malakali etib tarbiyalash, jahon taraqqiyotiga mos mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Yangi O'zbekistonga ilm-fanga e'tibor yuqori cho'qqiga chiqqani bejiz emas. Chunki hozir zamonaviy hayotni ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jahonning yetakchi davlatlarida ham ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanmoqda. Zero, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Yangi O'zbekistonda ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan ishlar shuni ko'rsatadiki, har bir yoshning erkin ta'lim olishi, o'z sohasi bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lishida katta imkoniyatlar yaratib berilgan. O'z navbatida oliy ta'lim muassasalarining ilmiy solohiyatini oshirish, ilm-fan va innavatsiyani rivojlantirish hamda professor- o'qituvchilar va talabalar uchun qog'zbozlikni kamaytirish, sohani raqamlashtirish orqali byurokратиya va korrupsiyani keskin qisqartitish ham ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Ularni samarali bajarish uchun oliy ta'lim muassasalariga akademik va tashkiliy- boshqaruv bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berilishi masala yechimiga qaratilgan eng to'g'ri yo'ldir. Negaki, bundan buyon, o'quv rejasi va adabiyotlari, fan dasturlarini joriy etish, professor- o'qituvchilarning o'quv yuklamasi hamda ta'lim shakllarni belgilashni oliygoh boshqaruv kengashining o'zi hal qiladi. Oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyati masalasiga alohida e'tibor qaratilar ekan, xalqaro tajribada ilmiy salohiyati 70 foizdan kam bo'lsa, bunday universitet nufuzli hisoblanmasligi ta'kidlab o'tilgan. Mamlakatimizda ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tamonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim -tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarni jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda univrsitetlarning ta'lim berish faoliyati yanada takomillashtirib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo'lmoqda. Yoshlarimiz sog'lom hamda go'zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo'yicha doimiy ish o'rniga ega bo'lish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, inson qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, qisqacha aytganda komillikka erishish uchun harakat qilyapti va bu jarayonda ta'lim olishni eng asosiy shart sifatida ko'rmoqda.

Mamlakatimizda 2019-yilning oktyabrida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kansepsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatga intellectual taraqqiyotni

jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatini samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olinadi. Kansepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofqa erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi. Ta'lim sifatini oshirish- Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir. Ushbu holatni inobatga olib, davlatimiz rahbari 2022-yil davomida taraqqiyotning ushbu muhim omillariga uzluksiz katta e'tibor qaratib keldi. Jumladan, o'tgan yili 6-iyulda Prezidentimizning "2022-2026- yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi"gi farmoni hamda "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonuni 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra qonun 11 bob, 75 ta moddadan iborat. Shundan amaldagi qonunning 34 ta moddasidan 33 tasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilgan. Qonunning asosiy maqsadi, ta'lim sohasidagi faoliyati, jumladan ta'limning turlari, shakllari, tizimini boshqarish, sifatini nazorat qilish, ta'lim -tarbiya ishtirokchilarining samarali hamkorlik qilish mexanizmlarni ta'minlashdan iboratdir. Oliy ta'lim sohasidagi dastlabki islohatlar, avvalo qamrovini oshirish, instituti va universitrlarning moliyaviy holatini yaxshilash, professor o'qituvchilarni moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Respublika o'quv yurtlarining chet ellardagi o'quv markazlari bilan aloqalari ancha mustahkamlandi. Chet ellik o'qituvchiva mutaxassislarni xorijiy tilda mashg'ulot olib boorish uchun taklif qilish, shuningdek chet el o'quv va ilmiy markazlarda xodimlarning malaka o'qishi kengayib bormoqda. 2023-yil 30-aprelda bo'ladigan Referendumda Konstitutsiyamizga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar har bir yoshni e'tiborsiz qoldirmasa kerak. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, Konstitutsiyada ilk marotaba inklyuziv ta'lim uchun sharoit yaratishga alohida normalarning belgilanishi bolalar uchun ta'lim tarbiya ularning jismoniy va aqliy rivojlanishini hisobga olgan holda tashkil etilishi, ta'lim olish jarayonida ularni biror bir shaklda kamsitishga yo'l qo'ymasligi, barcha bolalarning tengligini ta'minlashga xizmat qiladi. Biz yoshlar o'zgarishlarda faol bo'lib, yurtimiz kelajagi uchun bor kuchimiz bilan harakat qilishimiz kerak.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda oliy ta'limni har tamonlama rivojlantirish, yoshlarni ta'limga bo'lgan qiziqishini uyg'otish lozim. Oliy ta'lim mamalakatning ertangi kunini belgilab beradigan, jamiyat hayotining barcha jabhasini isloh etishda hal qiluvchi vazifani bajaradigan muhim omildir. Jamiyatda oliy ma'lumotga ega, yuksak malakali mutaxassislar qancha ko'p bo'lsa, rivojlanish shuncha tez va samarali bo'ladi. Ta'lim sifati rivojlansa, har bir sohada o'zgarish, rivojlanish kuzatiladi. Hukumatimiz tomonidan yoshlarimizning bilim tajribalarini oshirish maqsadida, davlat tomonidan bilimli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish, ta'lim tizimini o'rganish va uni hayotga tadbiiq etish uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri.- Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022.- 405-416 bet.
2. "Yoshlar ovozi" ijtimoiy-siyosiy,iqtisodiy,adabiy badiiy gazeta. 15-16 son. T.: 2023.
3. Xalq so'zi gazetasi. N.29. 11.02. 2023 yil
4. www.yoshlarovozi.uz

**IJTIMOYIY TARMOQ MULOQOTIDA ODOB-AXLOQ ME'YORLARINI IFODALOVCHI
PARALINGVISTIK VOSITALARNING LINGVOMADANIY TADQIQI**

Nabiyeva Diyora Baxodir qizi
lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi magistranti,
Mirzayev Ashurali Baxtiyor o'g'li
Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya: Mazkur maqola ijtimoiy tarmoq muloqotida odob-axloq me'yorlarini ifodalovchi paralingvistik vositalarning lingvomadaniy tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ijtimoiy tarmoq muloqotida foydalaniladigan kodlangan belgilar inson ruhiy kechinmalarini tinglovchiga yetkaza olishi va oddiy qilib so'z (verbal vositalar) bilan ifoda etish imkoniyati cheklangan yoki nozik va murakkab bo'lgan his-tuyg'ularini qulay tarzda tinglovchiga ulashishda ham muhim o'rin egallashi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Muloqot, paralingvistik vositalar, ijtimoiy tarmoq, odob-axloq me'yorlari, kodlangan belgilar, noverbal vositalar.

Muloqot – odamlar o'rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o'zaro ta'sirning yagona yo'lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo'lgan aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni. Odamlar muloqot jarayonida so'zlardan tashqari, ya'ni verbal vositalardan tashqari turli xil harakatlardan, qiliqlardan holatlardan, kulgu, ohanglar va boshqalardan ham foydalanadilar. Qiliqlar, mimika, ohanglar, to'xtashlar (pauza), hissiy holatlar, kulgu, yig'i, ko'z qarashlar, yuz ifodalari va boshqalar o'zaro muloqotning nutqsiz vositalari bo'lib, ular muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, uni to'ldiradi, ba'zan esa nutqli muloqotning o'rnini bosadi, bunday vositalarni paralingvistik vositalar deyiladi.

Paralingvistik vositalar - bu yozma tilda ishlatiladigan vositalar undov belgilari, ellipslar, undov va savol belgilarining birikmalari, rasmlar, chizmalar, grafikalar, matnning grafik segmentatsiyasi va uning qog'ozga joylashishi, turli va rangli to'plamlar, g'ayrioddiy imlodir. Paralingvistik vositalarining eng to'liq va ko'p qo'llaniladigan tasnifi G.V.Kolshanskiyning tasnifi. U quyidagi paralingvistik vositalarning turlarini ta'kidlaydi:

- Fonatsiya - muloqotning tempi, ovoz tembri, balandligi, tildagi dialekt, tovushlar artikulyatsiyasi;
- Kinetika - so'zlovchining jesti, holati, mimikasi;
- Grafika - yozma nutqning o'ziga xosliklari, harflarning grafik ko'rinishi va qisqartmalar;

Agar biz telefonda yoki internet tarmoqlarida muloqot qilgan vaqtimizda ifodani ko'ra olmaganimiz bilan suhbatdoshning fikrini imo-ishoralari, uning intonatsiyasi, nutq tempi, tembr, simvollar va boshqa belgilar kayfiyatni, suhbatga bo'lgan munosabatni, hissiyotlarni tushunishga yordam beradi.

Internetda ijtimoiy tarmoq - bu dasturiy ta'minot xizmati, bir guruh yoki guruhlardagi odamlarning o'zaro ta'siridir. Internet uchun bu bilan bog'liq xizmatlarni taqdim etish vositasi bo'lgan virtual tarmoq uning foydalanuvchilari o'rtasida aloqalarni o'rnatish, shuningdek, turli foydalanuvchilar va ularning qiziqishlari bilan bog'liq ma'lumotlar global tarmoq saytlarida o'rnatilgan resurslar hisoblanadi.

Bugungi kunda eng mashhur ijtimoiy tarmoqlar Facebook, Twitter, YouTube, Google+, Linkeldn, VKontakte, Odnoklassniki, Moy mir kabi dasturlar shular jumlasidandir. Ilm-fanning yutug'i bo'lmish bu yangiliklar insonlarning uzog'ini yaqin, mushkulini oson qilayotgani shubhasiz. Shu bilan birga, bu kashfiyotlar olis masofadan turib ilm olish, dunyo yangiliklaridan bir zumda voqif bo'lish, ma'lumotlarni oson tarqatish va uzoqdagi

qadrdonlarimiz bilan muloqot qilish imkonini ham beradi. Ana shu muloqot jarayonida ko'p elementlar raqamlar bilan almashtiriladi. Muloqotda maxsus til yaratilgan bo'lib, uning asosiy xususiyati qisqartmalarning keng qo'llanilishidir. Harf va raqamlar bir ibora yoki leksik birlikda almashinib ishlatilishi mumkin. Masalan, F2F - yuzma-yuz (yuzma-yuz). Bundan tashqari, raqamlar ma'lum bir so'z, bo'g'in yoki gap o'rnida ham almashinib ishlatilishi mumkin.

1. 1 (bir) raqami grafik va fonetik jihatdan so'z yoki bo'g'inning o'rnini bosish uchun ishlatiladi: NE1 - har kim (kimdir); NO1 - hech kim (hech kim);

2. Ingliz tilida 2 (ikki) raqami talaffuzi bilan o'xshash inglizcha so'zlar ham: 2NIGHT - bugun kechasi (kechasi, kechasi), F2T - gapirish erkinligi (fikir erkinligi);

3. 8 (sakkiz) raqami ba'zan butun so'zlarni almashtirish uchun ishlatiladi: H8 - nafrat (men nafratlanaman), GR8 - ajoyib (ajoyib);

4. 4 (to'rt) raqami bosh gap o'rniga qo'yiladi: B4 - oldin (oldin), 4U - siz uchun (siz uchun) va boshqalar.

Ta'kidlash joizki, og'zaki nutqda emotsionallik belgilari pasayuvchi va ko'tariluvchi ovoz ohanglari orqali ifodalansa, yozma matnda noverbal bo'yoqdorlik yoki ishora imlo belgilari yordamida amalga oshiriladi. To'g'ri, mazkur hodisa fonatsion komponentdan ko'ra grafikaga taalluqli bo'lsa-da, ovoz ohangining yozma matndagi ko'rinishi o'rnida ishlatiladi.

Amaliy materialni tahlil qilish natijasida biz paralingvistik aloqa komponentini kompensatsiya qilish uchun ikki guruh vositalarga ajratdik:

Kompensatsiyaning ramziy va grafik vositalari. Ushbu guruh an'anaviy yozma muloqotga xos bo'lmagan yangi funksiyalarda qo'llaniladigan semiotik belgilar bilan ifodalanadi:

1. Katta harflar yoki qalin harflar. Ushbu vositalar yozma ravishda og'zaki muloqotda ovoz balandligi bilan belgilanadigan, mantiqiy urg'u bilan ta'kidlangan so'z yoki iborani ta'kidlaydigan yoki qichqiriqqa mos keladigan satrlarni ta'kidlashga xizmat qiladi: - WHO ARE YOU!? Can you ask me?

2. Harflar va tinish belgilarining takrorlanishi. Harflarning takrorlanishi so'zma-so'z ma'noda og'zaki talaffuz paytida so'zni cho'zishni anglatadi, o'ychanlikni ko'rsatishi mumkin yoki bunday bayonotdan keyin nutq pauzasidan oldin qo'llaniladi: - Reallyyyyy, I am afraid of it.

Tinish belgilarining takrorlanishi qabul qiluvchining hissiy holatini ko'rsatadi, og'zaki nutqda bo'lgani kabi, intonatsiya bilan ajralib turadigan bayonotning mazmunini kuchaytiradi: -Good morning my dears!!!

Takroriy savol belgisi tanbeh, pushaymonlik, kinoya va g'azabni ifodalashi mumkin va kommunikatorning affektiv holati qanchalik kuchli bo'lsa, u shunchalik ko'p takrorlanadigan belgilarni qo'yadi. Bunday holda, mazmundagi so'roq jumlasini undovga mos keladi: - What's up? What?

Tinish belgilarini takrorlash - bu intonatsiyani almashtirishga urinish va biron bir so'z yoki jumlaning ta'kidlashga xizmat qiladi.

3. Kulgichlar (smayliklar). Chat aloqasida his-tuyg'ular va his-tuyg'ularni yaxshiroq ifodalash uchun ramziy kombinatsiyalar, shakllangan maxsus grafemalar faol qo'llaniladi. An'anaviy yozuvning bir nechta belgilarining kombinatsiyasi (qavslar, yo'g'on chiziqcha) yoki animatsion rasmlar, deb nomlangan kulgichlar (eng. smile - „tabassum“) yoki emotikonlar (eng. emotion - „hissiyot“ va icon - „belgi“). Eng keng tarqalgan emojilarga quyidagilar kiradi: 😊 - quvonch ifodasi; 😞 - qayg'u ifodasi. Shuningdek, ":) „chiziqsiz va ") ikki nuqtasiz emojilarning qisqartirilgan versiyalari.

Lekin bugungi kunga kelib emodzining shakli va turlari shu darajada ko'payib ketganki, ba'zan ularning asl mazmunini aniqlash bir oz mushkul va faqatgina umumiylik kasb etganda, ularni to'g'ri tushunish mumkin. Shu boisdan ularni ilmiy nuqtai nazardan tadqiq va tahlil

qilishga ehtiyoj tug'ilgan bo'lib, ular tobora olimlar e'tiborini o'ziga tortmoqda. Masalan, ingliz olimi F.Sirdjent emodzini muloqotning texnologik inqilobi deb baholagan bo'lsa, rus olimi I.Vashunina emodzi (kodlangan belgilar)ni til tizimining grafik ko'rinishi sifatida tadqiq qilgan. Turk olimi M.Gekxan ijtimoiy tarmoqlar, radio, televideniye va raqamli ommaviy axborot vositalarida emodzi va qisqartmalarning o'rnini tahlil qilgan, ammo o'zbek tilshunosligida emodzi va ularning turli ko'rinishlari norasmiy xarakterga ega, tadqiqot obyekti va paragrafemika yo'nalishi doirasida deyarli tadqiq etilmagan.

Kommunikantlar yuzma-yuz muloqot qilganda xursandchilik, xafalik, salomlashish, xayrlashuv, tabrik, minnatdorlik va boshqa emotsional holatlarini imo-ishora harakatlari, ovoz ohangi, nigoh va turli xil ma'no tashuvchi noverbal vositalar orqali ifodalaydi, lekin o'rtaga masofa tushganda, ularning o'rnini kodlangan belgi (emodzi, piktogramma, ideogramma, smaylik, stiker va boshqa)lar egallaydi. To'g'ri, shu kunga qadar insonlar yozma nutqda o'z emotsional holatlarini ishora-imlo belgilari: undov (yuqori ohang), takroriy undovlar (ajablanish), undov va so'roq (hayrat) takroriy so'roq belgilari (ritorik so'roq ohangi, tushunmovchilik), uch nuqtalar (sukut, norozilik), matnni bosh harflarda yozish (haqorat, tahdid, e'tibor), so'z ostiga chizish (ko'rsatish, ta'kidlash) va boshqa usullar orqali ifodalangan, ammo bugungi kunda ularning o'rnini turli kodlangan belgilar egallab, soni va turlari kengayib borishi natijasida ayni bir xil belgining o'zi ijtimoiy tarmoqlarda yangi-yangi ma'nolarni kasb etmoqda.

Yuqorida nomi keltirilgan kodlangan belgilar ijtimoiy tarmoqlarda keng qo'llaniladigan noverbal vositalar bo'lish bilan birga, inson kundalik hayotidagi muloqot shaklining oddiy ko'rinishi bo'lishga ulgurdi. Chunki ularning har biri alohida inson ruhiy kechinmalarini tinglovchiga yetkaza oladi va oddiy qilib so'z (verbal vositalar) bilan yetkaza olish imkoniyati cheklangan yoki nozik va murakkab bo'lgan his-tuyg'ularini qulay tarzda tinglovchiga ulashadi. Bu kabi his-tuyg'u va aql-idrok g'oyalariga kulgi-tabassum, e'tiqod-ishonch, afsus-nadomat, sevgi-iztirob, yig'i-ko'z yoshi, vahima-qo'rqinch va hazar-nafrat kabi insonning ma'naviy dunyosi hamda psixologiyasini ishonarli va ta'sirli qilib tasvirlashni kiritish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlardagi kodlangan belgilar esa so'zlovchidan olingan axborotga nisbatan bo'lgan munosabati (reaksiyasi)ni va ularning darajalarini belgilab beradi. Masalan, inson xursandligini ifodalashda kulgining tabassum, jilmayish, iljayish, kulimsirash, qahqaha, ichak uzish, masxara, mazax, kalaka kabi 10 dan ortiq turlari bo'lsa, miyig'ida kulish, kinoyali kulish, istehzoli kulgi, samimiy kulish kabi darajalari mavjud.

Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlarda foydalanib kelinayotgan har qanday kodlangan belgi (emodzi, piktogramma, smaylik va boshqa)lar juda tez va ommaviy tarqalish xususiyatiga ega. Ularning qaysi shakllardan foydalanish insonning o'zi tomonidan axborot kommunikatsion tizimidan foydalanish mahoratiga ko'ra tanlanadi. Ta'kidlash lozimki, mazkur vositalardan foydalanish quyidagi oltita, ya'ni a) masofa tanlamasligi; b) auditoriya tanlamasligi (ayol yoki erkaklar uchun umumiy); c) tarjimonsiz tushunish mumkinligi; d) ta'sirchanlik kuchayishi; e) insonlarga yaxshi kayfiyat ulashishi; f) til iqtisodi uchun xizmat qilish kabi afzalliklarni keltirib chiqardi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mazkur kodlangan belgilar zamon bilan hamnafas yashaydi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Vaqtlar o'tishi yoki real voqelikdagi muhim xabarlar ta'sirida yangi ma'nolar va shakllar yaratiladi. Lingvistik nuqtai nazardan olganda nutqiy tejamkorlik amalga oshiriladi va voqea-hodisalarni ifodalashda qulay vositalar o'rnida ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Khoshimova, N. A. (2021). ASSOCIATIVE FIELDS OF THE COLLECTIVE AND INDIVIDUAL CONSCIOUS. *Theoretical & Applied Science*, (5), 436-439.

2. Hashimova, N., & Sattorov, T. (2021). USAGE OF ENGLISH MILITARY TERMINOLOGIES AS A NEUTRAL AND COLLOQUIAL VOCABULARY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758)*, 2(11), 162-167.
3. Xoshimova, N. (2019). External factors of associations' individuality. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(2), 134-136.
4. Toirova, N. I. (2019). The significance of the symbols of Mirror and Portrait in teaching Symbolism. *sign*, 1, 22.
5. Mamajanova, M. (2021). MODEL CONCEPT MODELING IN LINGUISTICS TYPES OF LINGUISTIC MODELS. *Экономика и социум*, (1-1), 160-163.
6. Holbekova, M., Mamajonova, M., & Holbekov, S. (2021). COMMUNICATIVE APPROACH TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *Экономика и социум*, (3-1), 83-85.
7. Kasimova, G. (2022). IMPORTANCE OF ICE BREAKING ACTIVITIES IN TEACHING ENGLISH. *Science and innovation*, 1(B7), 117-120.
8. Makhmudovna, K. G. (2022). Creative Strategies to Improve Vocabulary Teaching. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(10), 259-261.
9. Kurbanovna E. N. Application of multimedia and interactive materials in foreign language teaching in non-philological higher educational institutions //Проблемы современной науки и образования. – 2020. – №. 2 (147). – С. 65-67.
10. Akhmedova, M. (2012). Characteristics of bronchial asthma associated with allergic rhinosinusitis in children. *Medical and Health Science Journal*, 11, 39-43.
11. Ibragimjonovna, A. M. (2022). Developing professional communicative competence of medical students in a foreign language. *Eurasian Scientific Herald*, 15, 45-50.
12. Isaqjon, T. (2022). Strategies and techniques for improving EFL learners' reading skills. *Involta Scientific Journal*, 1(11), 94-99.
13. Mohira, A., & Isakjon, T. (2022). METHODOLOGY OF ENGLISH LANGUAGE. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 3, 68-71.
14. Ahundjanova, M. A. (2020). METHODS AND METHODS OF TEACHING RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGE AND LITERATURE. *Экономика и социум*, (11), 46-49.
15. Gafurova, N. I. (2021). Structural-semantic classification of construction terms in English and Uzbek languages. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 571-575.
16. Gafurova, N. (2020). Ҳозирги замон тилшунослигида "Термин" ва унга турлича ёндашувлар. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 1(1), 58-62.
17. Mirzaaliyev, I., & Oxunov, A. (2021). EKVIVALENTSIZ LEKSIKANING O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA IFODALANISHI. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 209-212.
18. Oxunov, A. O. O. (2021). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA UNDOV SO'ZLAR (INTERJECTION) NING IFODALANISHI. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 401-406.
19. Абдухалимова, С. (2022). THE CONCEPT AND CONTENT OF INTERCULTURAL DISCOURSE. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 5(4).
20. Abdumutaljonovna, P. S. (2023). TILSHUNOSLIKDA REKLAMA DISKURSI VA UNING IFODASI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 15(1), 98-101.
21. Pakirdinova, S. (2023). ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA REKLAMA MATNI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(19).
22. Kochkorova, Z. A. Q. (2021). Translation aspects of the verbalizers of the concept of "wedding". *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 989-994.
23. Mirzayev, A., & Oripova, S. (2022). COMMUNICATIVE METHOD—A NEW APPROACH IN THE PRACTICE OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE. *Science and innovation*, 1(B6), 778-783.

24. Ashurali, M. (2022). HOZIRGI KUNDAGI TA'LIM TIZIMIDA ONLAYN TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN METODNI TA'LIMGA JORIY QILISHNING AKTUALLIGI. *Involta Scientific Journal*, 1(13), 25-28.
25. Узакова, Г. З. (2022). КОНЦЕПТ ВА УНИНГ ЛИСОНИЙ ВОҚЕЛАНИШ ЖАРАЁНИ. *Involta Scientific Journal*, 1(13), 42-45.
26. Узакова, Г. З. (2022). THE INFLUENCE OF NATIVE LANGUAGE IN LEARNING/TEACHING FOREIGN LANGUAGE. *Involta Scientific Journal*, 1(13), 38-41.
27. Kosimova, M. U. (2021). Different classification of functional styles. *Ученый XX века*. 4 (85).7-8.
28. Kosimova, M. U. (2022) The characteristics of scientific style. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. 12(05). 931-933
29. Abdukhaliyeva Sarvinozkhon. (2023). ERRORS AND OBSTACLES IN INTERCULTURAL COMMUNICATION. *Journal of New Century Innovations*, 20(4), 108-112.
30. Rustambek, O., & Ashurali, M. (2022). THE METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *Involta Scientific Journal*, 1(13), 106-110.

**TALABALAR O'RTASIDA MEDIA SAVODXONLIKKA O'RGATISH VA AXBOROT
MADANIYATINI OSHIRISH**

Qulmanbetova Madina Alim qizi
Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim kafedra 1-bosqich talabasi,
Miryahyoyeva Nargiza Ne'matillo qizi
Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim kafedra 3-bosqich talabasi,
Abdiyeva Fazilat Fayzulla qizi
Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim
pedagogikasi va psixologiyasi kafedra o'qituvchisi

Annostasiya: Ushbu maqolada talabalar o'rtasida mediasavodxonlik va axborot madaniyatini oshirish masalasi yoritilgan. Bugungi kundagi yoshlarning axborotga bo'lgan o'chligi, axborotlarning turlari haqida ma'lumotlar berilgan. Axborot madaniyatini oshirish davr masalasi ekanligi yana bir karra isbotlangan.

Kalit so'zlar: media, mediasavodxonlik, axborot resursi, axborot tezligi, axborot madaniyati, ijtimoiy tarmoqlar, kiber olam, kiberxavfsizlik, ijobiy va salbiy axborotlar, axborot huruji.

Hozirgi kunda hech bir shak-shubhasiz dunyoni internetsiz, kiber olamsiz tasavvur etib bo'lmay qoldi. Hatto, juda kichik yoshdagi bola ham bemaol mobil telefondan foydalana oladi, hozirgi kunda. Tanganing ikki tomoni bo'lganidek, internetning ham yaxshi ham yomon tomonlari mavjud. Kimdur iloji boricha o'zi uchun foydali, naf keltiradigan tomonidan foydalansa, yana kimdur ijtimoiy tarmoqlarning zararli, buzg'unchi saytlaridan foydalanadi. Eng asosiysi esa hozirgi kunda internetdan eng ko'p kelajagimiz egalari yoshlarimiz foydalanishadi. Tabiiyki, ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalanish uchun, yoshlarimizning kelajagini buzg'unchi g'oyalardan asrash uchun mamlakatimizda kiber olamdan foydalanishda turli tartib- qoidalar o'rnatilgan. Ayniqsa, talaba yoshlarning media savodxonligini, axborot madaniyatini oshirishga mamlakatimizda katta e'tibor qaratmoqda. Media va axborot savodxonligi - bu ijodiy faoliyatda barcha zarur vositalardan foydalangan holda axborot va media mahsulotlarini samarali olish, tahlil qilish, tanqidiy baholash, talqin qilish, foydalanish, yaratish va tarqatish imkonini beradigan bilim, ko'nikma, munosabat, malaka va amaliyotlar majmuidir. Bugungi kunda dunyo ommaviy axborot vositalarida axborotni tanlash va to'g'ri baholash qobiliyati dolzarb bo'lib qolmoqda. Xo'sh, media savodxonlik nima? Nega bugun uning ahamiyati tobora ortib bormoqda? Axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi axborotning ko'payishi media savodxonlikka ega bo'lish zaruratini qo'ydi. An'anaviy tarzda media savodxonlik shaxsning adabiya sarlarni tahlil eta olish va sifatli matnlarni yaratishidan iborat bo'lgan. Bugun media savodxonlik - axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir. Media savodxon inson o'ziga bu axborotni kim va nima maqsadda yaratgan? Ushbu xabar men uchun zarurmi? Degan savolni bera olishi va to'g'ri xulosa chiqarishi, unga nisbatan tanqidiy yondashishi lozim. Bugungi axborot muhitni tushunishda media savodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. Xo'sh, media savodxonlik nima uchun kerak?

Avvalo:

- Huquqiy demokratik jamiyatimizning to'laqonli, faol fuqarosi sifatida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun - mohiyatini tushunish;
- OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko'nikmalarini shakllantirish;

- Axborot orqali inson ongini boshqarishga yo'l qo'yimaslik va har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish;
- Insonning vizual obrazlar ta'siri ostida ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishlarini tahlil eta olish va vizual xabarlar ostida beriladigan ko'rinmas ma'lumotlarni "o'qiy olish";
- OAV orqali beriladigan matnli kommunikatsiyalar mohiyatini tahlil etish.

Fikrimcha, media savodxonlik media ta'limning uzviy bog'liq qismidir. Shu bilan birgalikda uning ko'rinishlari ko'paymoqda. Bugungi kunda medianing tahlil etilishi natijasida tilimizga kirib kelayotgan tushunchalar, ya'ni media savodxonlik, media ta'lim, mediani o'rganish va boshqalar bir-biri bilan bog'liq bo'lsa-da, media axborotni qabul qilish, saralash, tahlil etish, baholashda media savodxonlik tushunchasi bilan birgalikda media ta'lim, mediani o'rganish, media madaniyat tushunchalari ham qo'llanilyapti. Masalan:

Media ta'lim

- media o'quv dasturida integrallashgan, fanlar aro asosida o'rganilishini;
- «mediamavzu»ni aniq bir fan doirasida tahlil etilishini;
- amaliyish va tahlil orqali mediaga tanqidiy yondashishni;
- uning shakli, texnologiyalari, axborotni uzatish usullarini o'rganishni;
- media agentliklarni, ularning ijtimoiy, siyosiy va madaniy rolini o'rganishni;
- talabaning OAV bilan ishlashini;
- tadqiqot faoliyatini;
- medianing til va san'at orqali auditoriyaga ta'sirini o'rganadi.

Media savodxonlik mediani o'rganish bo'lib, media ta'limning quyidagi natijalariga asoslanadi va o'z oldiga:

- medianing shaxs va jamiyatga ta'sirini tushunish;
- ommaviy kommunikatsiya jarayonini anglash;
- media matnlarni tushunish va tahlil eta olish;
- media kontekstini tushunish;
- media matnlarni yaratish va ularni tahlil etish;
- media matnlarni baholashga va ularni saralash vazifalarini qo'yadi.

Bugungi kunda media, ya'ni ommaviy axborot vositalari, kino, teatr, san'atning turlari, madaniyat sarchashmalari, internet orqali uzatilayotgan har qanday ma'lumot insonongiga o'zining ma'lum bir ta'sirini o'tkazib, uning dunyoqarashini o'zgartirishga sabab bo'lmoqda. Yuqorida tilga olingan tushunchalarning qo'llanilishi va bugungi kunda media ta'lim, media savodxonlik, media tanqid va mediani o'rganishga bo'lgan intilishning asosiy maqsadi ham axborotning yaratilishi, uning tarqalish jarayonini tushunib yetish, tijorat, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy maqsadlarda tarqatilayotgan axborotning mohiyatini anglagan holda uni baholay olishdir.

Talabalarda bu ko'nikmalarni shakllantirish hozirgi davr talabiga aylangan. Biz hammamiz media olamida yashaymiz va har kuni media savodxonlik muammolariga duch kelamiz. Yoshlarga bunday qiyin sharoitda o'zini tutish qoidalari va o'z-o'zini himoya eta olishni o'rgatish juda muhimdir. Yoshlarni zararli oqimlardan himoyalash - kelajakdagi kiberolamimizni havfsizligini ta'minlash bilan barobardir.

Elektron vositalardan unumli foydalanish mashg'ulot samaradroligini oshirishga xizmat qiladi. Yani, mashg'ulotlardagi barcha mavzularni to'liqroq yoritish uchun bir qancha qoidalar, rasmlar, allomalarimiz siymolari, slydlarga ega bo'lish talab etiladi. Lekin maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining bu borada imkoniyatlari cheklangan. Bundan tashqari har bir mashg'ulot uchun o'quv materiallari tayyorlash va ulardan foydalanish ko'p mehnat va vaqtni talab etadi. Mashg'ulotlarni zamonaviy axborot vositalari yordamida tashkil etilishi bolalarning qiziqishini oshiradi. Bunday intilish o'qib, o'rganayotgan bolalarni yetuk, intellektual salohiyatli bo'lib yetishishini ta'minlaydi.

Darhaqiqat, ta'limni axborotlashtirish jamiyatni axborotlashtirish jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirilishining muhim shartidir. Bu jarayon rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish maqsadida yangi axborot texnologiyalarini qo'llash, bu texnologiyalarning metodlari va vositalaridan foydalanish, ta'lim-tarbiyaning barcha bosqichlarini jadallashtirish orqali uning sifati va samaradorligini oshirish va pirovardida yoshlarni axborotlashgan jamiyat sharoitida yashashga tayyor qilib tarbiyalash masalalarini o'zida qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta'lim Vazirligi "ILK QADAM" maktabgacha ta'lim muassasasining o'quv dasturi.
2. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga quyiladigan davlat talablari
 1. 3.T.Z. Teshaboyev Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va telekommunikatsiya. 2019-yil Farg'ona.
 2. 4.Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish. Ma'ruzalar to'plami. Toshkent 2017
 3. 5.K. Mullaboyev Maktabgacha ta'lim metodikasi 2019-yil.
 6. Abduqodirov A.A. va boshqalar. Axborot texnologiyalari. -T.: 2002-148 bet.
 7. Adilova S. Multimedia vositalari va ularni ta'lim jarayonida qo'llash.// Pedagogik ta'lim. 2001.-№2 .20-21 bet

NODAVLAT TELEKANALLARDA AXBORIY JANRLAR O'ZGACHALIGI

Sevara Eshonqulova Otajon qizi
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti
Qoraqalpoq filologiyasi va jurnalistika fakulteti
3-bosqich talabasi

Annotatsiya: O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan xususiy telekanallarning axborot va yangilik tayyorlashda, ularni uzatishda va yetkazib berishdagi o'zgachaliklari haqida so'z yuritildi. Auditoriyani jalb qilishda foydalanilayotgan yangilik uzatishning yangicha formati va o'zaro raqobatga tayyor ko'rsatuvlar talqin etildi. Axborij ko'rsatuvlarning saviyasi, ta'sir kuchi, shuningdek, material uzatishdagi kamchiliklari tanqidga tortildi.

Kalit so'zlar: MTRK, nodavlat, jurnalist, markaziy studia, millar, bu kun, zamon, auditoriya, yangilik


Kirish. Mustaqillikning dastlabki yillarida, zangori ekran tomoshabinlari uchun, barmoq bilan sanagulik davlat telekanallari faoliyat ko'rsatardi. O'zbekiston telekanali, Yoshlar telekanali va Sport telekanali o'z auditoriyasini, ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda, axborij, tahlilij va rekreativ ko'rsatuvlari bilan ommaning e'tiboridan joy oldi. Efirga uzatilgan "Assalom O'zbekiston", "Davr", "Sport yangiliklari" kabi ko'rsatuvlar, axborij janrdagi ko'rsatuvlar sirasiga kiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Bugungi kunda, O'zbekistondagi television kanallar quyidagi uchta turkumga bo'linadi:

- O'zbekiston miliy teleradiokompaniyasi (MTRK) television kanallari (13ta)
- Hududij television kanallar (12ta)
- Nodavlat television kanallar (47ta)

Yuqorida keltirib o'tilganidek, xususij telekanallar yurtimiz miqyosida, keng faoliyat olib bormoqda. Ular efirga uzatayotgan materiallarining o'zgachaligi, rekreativligi, ko'rishlilik protsessi yuqoriligi va yosh chegarasi umumij etib belgilangani boisdan ham, auditoriyasi keng, deya olamiz. Bugungi kunda faollik ko'rsatayotgan Sevimli TV, MY5, MTV, Zo'r TV kabi xususij telekanallar, bir-biriga raqobatdosh telekanallar desak, mubolag'a bo'lmaydi. Sababi ularning formati, ko'rsatuvlarning qisman bir-biriga o'xshashligi, axborij ko'rsatuvlarini barcha xususij telekanallar, ayni bir vaqtda berishi ham, ularning raqobatga atyyor ekanini ko'rsatadi.

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan telekanallar diagrammasi:



12-noyabr 2014-yildan o'z faoliyatini boshlagan "Mening yurtim" nodavlat telekanali, shu yilning dekabr oyidan to'liq efirda namoyish etila boshlagan. Hozirgi kunda "Markazij studiya", "Hashtag", "Like bos", "Yashirin kamera", "Muzqaymoq Party", "Hudud", "Diydor

shirin", "Xush ko'rdik", "Happy time", "Kinolife", "25-kadr", "E'tibor markazida" kabi ko'rsatuvlari xalq orasida mashhurlikka erishdi.

Sevimli TV- 2017-yil 1-aprel kuni Caravan TV nomi bilan o'z faoliyatini boshlagan. Nodavlat musiqiy-ko'ngilochar va ma'rifiy television kanal. Kanal o'z nomini Caravan TV dan Sevimli TV ga 2017-yil 1-dekabrda o'zgartirgan. Telekanalda: "Talant shou", "Olov pazanda", "Sevimli kun", "Ilk uchrashuv", "Oydin hayot", "Zamon" kabi ko'rsatuvlar efirga uzatiladi.

Milliy TV 2016-yil sentabr oyidan efirga chiqa boshladi. Qisqa muddat ichida Milliy TV O'zbekiston televideniesida yetakchi o'rinlardan birini egalladi. Efir vaqtining 70% o'zbek tilida, 30% rus tilidagi dasturlardan iborat. 2017-yil 1-yanvaridan kanal o'z ko'rsatuvlarini tunu-kun efirga uzatishni boshladi. Telekanalda: "Zarb", "Millar", "Shohshou", "Uchrashuvda", "Anbiyolar qissasi", "Millar postda" kabi ko'rsatuvlari, ommaga yaxshi taassurot qoldirishga muvaffaq bo'lgan.

Muhokama. Mening Yurtim 5 telekanalida efirga uzatiladigan "Markaziy studiya" informatsion shousi tahlili. Amirxon Umarov va Sarvar Bahodirovlar juftligida efirga uzatiladigan ushbu ko'rsatuvning ilk sonlaridayoq, auditoriya tomonidan iliq qarshilandi. Davlat va nodavlat telekanallarining informatsion ko'rsatuvlaridan farqli o'laroq, boshlovchilar tomonidan xabar va yangiliklarga shaxsiy fikr berilishi, o'zaro muhokama mavjudligi, har yangilik so'nggida munosabat bildira olishlari bilan, boshqa axboriy ko'rsatuvlardan farqlanadi. Ko'rsatuv xabar, yangilik, tahliliy va tanqidiy materiallarni qamrab olib, ochiq va tushunarli efirga uzatiladi. Unda fuqarolardan kelgan murojaatlarga ham o'rinli baho berilib, mas'ul xodimlar va tegishli mutasaddilar tomonidan javobgarlik biriktiriladi. Efirga uzatishning dastlabki yillarida, eng ko'p tomoshabinni qamrab olgan bu ko'rsatuv, 2019-yilda faol faoliyat olib borgan va xalq e'tirofiga sazovor bo'lgani munosib baholanib, "Oltin qalam" mukofoti bilan taqdirlandi. "Markaziy studiya" informatsion shousini, O'zbekistondagi eng birinchi axboriy shou sifatida ko'rsatish mumkin.

Sevimli TV da efirga uzatiladigan "Zamon" informatsion dasturi tahlili. Professional jurnalist va suxandonlarni qamrab olgan "Zamon" axboriy ko'rsatuvini, o'z zamonasining ijodkor hamnafaslari tushunadi, desak bo'ladi. Dildora Rustamova, Jahongir Olimov, Dilobar Kabulovalar kabi o'z sohasining mohir ustalari, auditoriyaning jamoatchilik fikrini shakllantirishda o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Boshlovchilar bir-birlarini tushungan holda, galma-galdan so'zlab, zerikish hissi yo'qolishi uchun, uzun matn o'qishmaydi. Xalq tilida aytganda "gapning indallosi"ga o'tib, qo'ya qolishadi. Axborot o'qish tempi barcha jurnalistlarda bir xil. Zamon informatsion dasturiga turli hududdagi "zamon" muxbirlari ham material yuborishadi. O'zbekistondagi o'n ikki viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasida ushbu ko'rsatuv uchun maxsus muxbirlar saralab olingan. Dasturning kirish qismida, kunning actual mavzulari va ayni efiirda berilishi rejalashtirilgan materiallardan, lavhalar beriladi.

Milliy TV da efirga uzatiladigan "Millar" informatsion shousi, bugungi kunda, O'zbekiston miqyosida eng ko'p muhokamalarga sabab bo'layotgan ko'rsatuvlardan biri, deya olamiz. Ayni pallada ekstremal voqea-hodisalarni qisman aktyorlik hissi bilan, kameraga yozib olib, uni xalqqa ayni voqeaning guvohi sifatida namoyish etishadi. Boshlovchi Dilmurod G'ofurov ishtirokida xavfli ko'priktan o'tishdan tortib, ko'lda oqib ketish jarayonigacha, real atmosfera bilan syomka qilinadi. Bunday axboriy ko'rsatuvlar, jahon standartlarida ham mavqe'ga ega bo'lib, "Millar" axboriy shousi yurtimizdagi eng birinchi ekstremal shou sifatida e'tirof etiladi. Uning boshqa axboriy ko'rsatuvlardan farqli, ko'rsatuv studiyadan efirga berilmaydi. Ya'ni jurnalist ishtiroki aks etgan sahnalar, ommaga havola qilinadi.

Xulosa. Yuqorida tadqiq etilgan har uchchala xususiy telekanallarda, aynan bir xil voqea-hodisaga asoslangan manba keltirilishi mumkin. Biroq, ularning axborot uzatish texnikasi va uslubi tubdan farq qiladi. "Markaziy studiya"da o'zining "men"ini ochiq ifodalay oladigan jurnalistlar faol ijod qilayotgan bo'lishsa, "zamon" informatsion dasturida

professionalalar ijod qilishadi. "Millar" ni axboriy ko'rsatuv deyishdan ko'ra, tahliliy dastur deyish, ko'proq munosib bo'lardi. Chunki, unda jurnalist voqeani kadrda olayotgan reportyor kabi harakatda bo'ladi. Ammo reportyordan farqli ravishda, u ayni voqealarning kechikkan guvohi sifatida ishtirok etadi. Yuqorida nomi tilga olingan nodavlat telekanallarning axboriy ko'rsatuvlari jonli efirda, bir vaqtda berilishi ham, ularning raqobatdan qo'rqmasligini, auditoriyasini yetarlicha o'ziga qarata olishiga ishonchini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Jurnalistika. Ixtisoslashgan Jurnalistika
2. <https://uz.m.wikipedia.org>
3. <https://tavsiyalar.uz>
4. ukessays.com
5. vocal.media.com
6. liberties.eu
8. ethics.journalists.org
9. study.corgi.com

AXBOROT XURUJINING O'SMIRLAR HAYOTIGA TA'SIRI

**Nomozov Xurshid Shavkat o'g'li
Shahrisabiz Davlat pedagogika instituti o'qtuvchisi**

Annotatsiya: Ushbu ma'qolada internet makoni o'smirlarga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi, yoshlarning aksariyati gadjetlar orqali internet qaramligiga tushib qolishi, ularning oila a'zolari, do'stlari bilan o'zaro munosabatlariga ta'sir ko'rsatishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Internet jamiyati, Internet, ishonchlik, salomatlik, darsdan tashqari mashg'ulotlar, o'smir, ijtimoiy jamiya.

Internet tarmog'i o'zining qarmog'iga yoshlarni osongina torta oladi. Boisi bolalar va o'smirlar o'zlarini to'g'ri boshqara olmasligi, irodaviy tartibga solishga ega emasligi, internetning oson ta'sir ko'rsatishi muommalarga sabab bo'ladi. Chunki ularda xatti-harakatlar va idrok etishning adekvat namunalari yo'q. Ular hayotni, shu jumladan internet yordamida faol ravishda o'rganadilar. Bu xususiyatlarning barchasi - tashqi ogohlantirishlarga ta'sir qilish va sezgirlik, ma'lumot, yangilik ta'siri - veb-sayt dizaynerlari tomonidan sayt sahifasidagi ma'lum bir havolani bosish uchun rang-barang qo'ng'iroqlar orqali foydalaniladi. Darxaqiqat, psixikasi to'liq shakllanmagan bolalar va o'smirlar internetga qaramlikka moyil bo'lishadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, internetga qaramlar yoshlar orasida o'rta yoshdagilarga qaraganda ko'proq.

Ko'p yillar davomida elektron muloqotning psixologik jihatlarini tadqiq qilib kelayotgan Jon Suler ta'kidiga ko'ra, - kibermakon ong holatini o'zgartirish usullaridan biridir. Umuman olganda, ongning o'zgargan holatida bo'lgani kabi, kibermakon va unda sodir bo'layotgan barcha narsalar haqiqatga o'xshaydi - ko'pincha haqiqatdan ham ko'proq haqiqatdir.

Bola hayotining ko'p qismini kompyuter jamiyatida o'tkazsa, uning shaxsiyati haqiqatga mutlaqo moslashtirilmagan bo'lib chiqadi. Kichkina odam tengdoshlari bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch keladi va asta-sekin jamiyatni haqiqiy muhitdan virtual muhitga tashlab ketadi. Tartibga solinmagan internetda boladan pornografiya, giyohvand moddalar yoki portlovchi moddalarni tayyorlash retseptlariga qiziqmasdan tarixga oid insholarni yuklab olishini kutish soddalik bo'ladi. Butunjahon internet tarmog'ining salbiy, "qorong'i" tomoni yoshlarni o'ziga jalb qiladi. Buning o'zi ajablanarli emas: taqiqlangan meva shirindir. Ammo internetda taqiqlangan mevalar ham mavjud. Garchi ma'lumotlarning mavjudligi va arzonligi internetning ijobiy tomonlariga bog'liq bo'lsa-da, internetning bu xususiyatlarining salbiy tomonlari borligi aniq. Internet-kontent tahdidlari deganda foydalanuvchiga nashr qilish yoki yo'naltirish orqali zarar etkazuvchi internetdagi ma'lumotlar, shuningdek suhbatdoshga zarar etkazishga qaratilgan internet aloqasi tushuniladi. Internet-texnologiyalarning texnik va aloqa imkoniyatlari ancha keng, shuning uchun kontentga asoslangan internet tahdidlari ro'yxati juda xilma-xildir. Anonimlik va jazosizlik illyuziyasi ba'zi foydalanuvchilarni internetda tajovuzkorlikka, boshqa foydalanuvchilarni haqorat qilishga yoki ularni mojaroga aralashishiga olib keladi. Internetdagi bunday xatti-harakatlar "trolling" deb ataladi. Trolling (troll - troll) - virtual muloqotning bir turi bo'lib, unda ishtirokchilardan biri - troll - g'azabni, mojaroni kuchaytiradi, yashirin yoki aniq haqorat qiladi, boshqa ishtirokchi yoki ishtirokchilarni kamsitadi. Trollar foydalanuvchilarning salbiy reaksiyasini qo'zg'atish va muloqot ishtirokchilari o'rtasida janjalni qo'zg'atish uchun provokatsion xabarlarini nashr qiladi. Trolling to'g'ridan-to'g'ri (ishtirokchilarni haqorat qilish, resurs qoidalarini buzish, qo'zg'atish, janjal) va yashirin (mavzudan tashqari xabarlar, boshqa qizg'in mavzuga qaytish, birinchi qarashda ijobiy bo'lgan yashirin xabarlar) bo'lishi mumkin. Trollar to'g'ridan-to'g'ri to'qnashuv ko'rinishidagi reaksiyani xohlaydi. Bunday foydalanuvchi bilan to'qnashuvda

o'zini ustidan nazoratni yo'qotish va o'zitroll bo'lishi juda oson. Trolllar muloqot ishtirokchilarini bezovta qilishga intilishlari mumkin, ammo ularning maqsadi ham ma'lum bir odamni kamsitish bo'lishi mumkin. Bunday holda, trolling maqsadli zo'ravonlikka yoki zo'ravonlikka aylanishi ehtimoli yuqori. Bu har doim o'smirlar muhitining jiddiy muammolaridan biri bo'lib kelgan. Infokommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi kiberbullingning tarqalishiga olib keldi.

Anonimlik kiberbullingni oddiy yuzma-yuz qo'rqitishdan ajratib turadigan asosiy omil hisoblanadi. Boshqa farqlar, kiberbullingning bola tashrif buyurgan tashkilotdan tashqarida, ko'proq tajovuzkor va yashirincha davom etishida namoyon bo'ladi. Bu ko'pincha ota-onalar va o'qituvchilarga jabrlanuvchining hissiy reaksiyalarini o'z vaqtida ko'rishga imkon bermaydi. Trolling va kiberbulling asosan ijtimoiy tarmoqlar, forumlar va chat xonalarida uchraydi. Kiberbullying uchun elektron pochta va onlayn messenjerlar (masalan, ICQ, Wiper) ham qo'llaniladi. Bolani kamsituvchi ma'lumotni tarqatish xavfi shundaki, "oddiy" xo'rlashdan farqli o'laroq, xo'rlash jarayonini tasvirlaydigan sahnalar cheksiz odamlar doirasiga tarqatiladi. Bunday videolar yoki fotosuratlar, agar bola boshqa shaharga ko'chib o'tsa ham, kelajakdagi do'stlar va tanishlar uchun mavjud bo'lishi mumkin.

Ikkinchi yirik internet tahdidi - yoshlar orasida giyohvand moddalarni iste'mol qilishni targ'ib qilish va ommalashtirish uchun internet texnologiyalaridan foydalanish ortib borayotgan tahdididir. Tegishli internet-resurslarda (bepul xosting saytlari, ixtisoslashtirilgan forumlar, kamroq ijtimoiy tarmoqlar hamjamiyatlari) o'smirlarga mast qiluvchi moddalarni tayyorlash retseptlari, shuningdek, bunday mahsulotlarni sotib olish imkoniyati taklif etiladi va ta'sir doira kengaytirilib boriladi.

Bolalar va o'smirlar uchun kompyuter va Internetga psixologik qaramlikka olib keladigan rolli kompyuter o'yinlari ayniqsa xavflidir. Rol o'ynaydigan kompyuter o'yinlari bola kompyuter xarakterining rolini o'z zimmasiga oladigan o'yinlardir. O'yin shunday tuzilganki, u bolani o'ziga xos yoki xayoliy kompyuter qahramoni sifatida harakat qilishga majbur qiladi. Odatda o'yinchi topshiriqlarni (kvestlarni) bajarish orqali g'alabaga erishadi va rag'batlar sazovor bo'ladi. "Qahramon" ma'lum miqdordagi ball to'plaganida, u keyingi darajaga ega bo'ladi.

Onlayn o'yinlar - bu ko'p o'yinchi rejimiga ega bo'lib, butun dunyo bo'ylab boshqa foydalanuvchilar bilan onlayn o'ynash imkonini beradi. Qoidaga ko'ra, bu bir necha kun davom etishi mumkin bo'lgan jamoaviy o'yinlar. Aynan rolli va tarmoqli kompyuter o'yinlarini o'ynashda bolaning o'yinga kirishining juda chuqur va umumiy jarayoni sodir bo'ladi. Bolaning kompyuter bilan psixologik uyg'unligini tom ma'noda kuzatish mumkin. E'tiborsizlik esa, bolaning o'yinga qaramligini kuchaytirib boraveradi. O'yinga qaramlik - bu video o'yinlar va kompyuter o'yinlariga obsesif ishtiyoqda namoyon bo'ladigan psixologik qaramlikning bir shakli.

Xulosa qilib, kompyuter oyinlari yoshlarning vaqtini o'g'irlamoqda. Internet - klublarda yoshlar ayni o'qib, ilm hosil qiladigan paytlarida vaqtlarini bekorchi oyinlarga, ijtimoiy tarmoqlarda mutlaqo notanish shaxslar bilan qimmatli vaqtini tanishishga sarflayotgani tashvishli holat. Chunki internet va kompyuter oyinlari asriga aylangan o'smirlar hayotdan, ilm olish, kasb o'rganishdan va ma'naviy qadriyatlardan tamoman uzilib, butunlay manqurtlashib boradi. Hozir kompyuter oyinlari orqali o'smir yoshlarga salbiy ta'sir qilib, ular ongiga o'z buzg'unchi g'oyalarni singdirish yoki ularni to'g'ri yo'ldan ozdirishga urinadigan yashirin kuchlar juda ko'p. Kompyuter oyinlariga mukkasidan ketgan o'smirlar o'zlari bilmagan holda yashirin kuchlarning qo'g'irchog'iga aylanadi. Kompyuterga mute' bo'lgan yoshlarning fikri-xayoli, butun vaqti, hatto uyqusi ham be'mani oyinlar bilan band bo'ladi. Oxir-oqibat bunday manqurt yoshlar tengdoshlari, yaqinlari va hatto ota-onasiga ham qo'l

ko'tarishgacha agar mubolag'a bo'lmasa qurol o'qalishgacha borib yetadi. Bu esa jamiyatda ilimsizlik, johillikning tomir yoyishiga alal oqibat yurt parokanda bo'lishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Tomas Timoti L. Axborot asrida jamiyat oldida turgan assimetrik terroristik tahdidlarning oldini olish // Jahon hamjamiyati jinoyatchilik va terrorizmning globallashtirishiga qarshi: mater. Intl. konf. M., 2002.
2. Chusavitin M.O. Xavfsizlik risklarini boshqarishdigital-dan foydalangan holda ta'lim va axborot muhitiXavfsizlik idorasi // "Ta'limda yangi texnologiyalarni qo'llash" XIX Xalqaro konferentsiya materiallari. Troitsk, 2009.
3. Chusavitin M.O. Axborot-kommunikatsiya muhitining salbiy ta'sirini bartaraf etish uchun maktab o'quvchilari bilan o'quv-tarbiyaviy ishlarni faollashtirish modeli // Ochiq ta'limda axborot xavfsizligi: Sat. ilmiy materiallar.amaliy konf. MDU. Magnitogorsk, 2007 yi

KREDIT MODUL TIZIMINING AHAMIYATI

Rejavalievva Muhayyoxon Vohidjon qizi
QDPI talabasi,
Ziyayev Sherali Abdulaziz o'g'li
QDPI tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Kredit modul tizimi" ning hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilishi yoritilgan. Bugungi kunda Respublikimizdagi barcha oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga kredit modul tizimi joriy etilishi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: kredit, modul, kredit tizimi, kredit to'plash, baholash mezonlari, mustaqil ta'lim, oraliq nazorat, yakuniy nazorat, akademik qarzdorlik,

Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholash.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ta'limiy islohotlar jarayonida jahon andozalariga mos keladigan uzluksiz ta'lim tizimini yaratish, ta'lim tizimini samaradorlini yuqori bosqichlarga ko'tarish masalarining ijobiy hal etilishiga erishish dolzarb pedagogik vazifalar sifatida kun tartibiga qo'yildi. Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son qarori hamda 2020/2021 o'quv yilidan boshlab respublikamizdagi barcha oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish tartibi joriy etildi.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimni reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;
- ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi.



Keling, shu o'rinda modul va kredit tushunchalari mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Modul — bu, bir nechta fan hamda kurslar o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma'ruzalar o'qiydi, talabaning faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o'rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi.

Modul asosida o'qitish tizimida talabalar bilimi, malakasi hamda ko'nikmasini baholashda reyting baholash tizimidan foydalaniladi. Unda talabaning barcha o'quv faoliyati, ya'ni auditoriya va auditoriyadan tashqarida olgan, o'zlashtirgan bilimlari ball berish orqali baholanadi.

Kredit (credit) — talabaning alohida ta'lim yo'nalishi yoki dasturi (kurs) bo'yicha fanlarni o'qib o'rganishi va o'zlashtirishi uchun sarflangan o'quv yuklamasining (vaqtning) o'lchov birligidir. Kredit — talabaning me'yoriy hujjat bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va mustaqil ravishda ta'lim olishi uchun ajratilgan minimal vaqt o'lchovidir. Talabaga kredit ma'lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng beriladi.

Har bir talaba kelajakda tanlagan yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha diplomga ega bo'lishi uchun kreditlarni yig'ib borishi lozim. To'plangan kredit talabaga butun umr davomida o'zining malakasini oshirib borish yoki qo'shimcha oliy ma'lumot olishiga xizmat qilib boraveradi. Iqtisodiy tilda aytganda, to'plangan kredit talabaning akademik "aktiv"ga aylanib boradi.

Kredit texnologiyasi ta'lim oluvchilarga ishchi o'quv rejaga kiritilgan tanlov fanlarini tanlash, bu orqali individual o'quv rejasini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini beradi. Ularga, nafaqat fanlarni, balki professor-o'qituvchilarni ham tanlash erkinligi beriladi. Talabalarga fanlarni tanlash imkoniyatining berilishi ijobiy hol sanaladi. Bu o'quv jarayonlarini baholashning o'ziga xos qiymat ko'rsatkichi bo'lib ham hisoblanadi.

Bugungi kunda mazkur kredit o'lchovi tizimini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha to'rtta model keng tarqalgan.

Bular Amerika qo'shma Shtatlarining kredit tizimi (USCS); Yevropa mamlakatlarining kredit tizimi (ECTS); Osiyo — Tinch okeani mamlakatlarining kredit tizimi (UCTS); Buyuk Britaniyaning kredit tizimi (CATS).

Ushbu modellarning ichida eng ko'p tarqalgani AqSh va Yevropa modellaridir.

Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimiz Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi kredit tizimini joriy etishda Yevropaning ECTS tizimidan foydalanishga ustuvorlik qaratyapti. Shu bois uning afzal jihatlari, qulayliklari, yutuq va kamchiliklari haqida ham to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Bolonya deklaratsiyasining eng muhim jihatlaridan biri oliy ta'lim muassasalarining yagona "kredit tizimi" dan foydalanish (ECTS)ga asoslanadi. Kredit yoki kredit birligi — o'quv rejasida hisobga olingan har qanday o'quv faoliyatining qiymat ko'rsatkichi hisoblanadi.

ECTS tizimi Yevropa va umuman, Bolonya jarayoni ishtirokchi-mamlakatlari talabalariga katta afzalliklarni taqdim etadi.

Masalan, talaba ta'lim olayotgan universitetida egallagan akademik bilimlarini shu tizimga a'zo mamlakatlar oliy ta'lim muassasalarida tan olinishini, ya'ni o'ziga xos "konvertatsiyasi"ni kafolatlaydi. Shu bilan birga, mazkur tizim a'zolariga talabalarni boshqa OTMga o'qishini tiklash, ko'chirish va tugatish imkoniyatini beradi.

ECTS tizimi universitetlarga ham bir qator qulayliklarni taqdim etadi. Chunonchi, ma'lum bir ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklar kesimida o'quv jarayoni haqidagi axborotlarni aniq aks ettiruvchi o'quv rejalarning o'xshashligi hamda yagonaligini ta'minlaydi. Shuningdek, mutaxassislik darajasining tan olinishiga erishish maqsadida talabani qabul qiluvchi va

jo'natuvchi oliy o'quv yurtlaridagi dasturlarning mazmunini oldindan kelishib olish imkonini beradi. Talabani ta'lim olishi bilan bog'liq barcha masalani hal etishdagi javobgarligi hamda mustaqilligi saqlanadi. Yevropa ta'lim tizimida o'quv kurslari va barcha ta'lim jarayoni kreditlarda, O'zbekiston hamda MDhning boshqa mamlakatlarida esa akademik soatlarda hisoblanib kelinadi.

ECTS tizimi bo'yicha har bir oliy ta'lim muassasasi kredit tarkibini, har bir modul bo'yicha kreditlar sonini, qolaversa, har bir kurs va umuman, o'qish davrini tamomlash uchun talaba tomonidan to'planishi lozim bo'lgan kreditlarning umumiy miqdorini mustaqil belgilaydi.

Amaldagi o'qitish tartibidan farqli o'laroq, kredit tizimida majburiy fanlardan tashqari tanlov fanlari ham talabani individual dars jadvaliga kiritiladi. Talabalar o'qishdan haydalmaydi yoki kursdan-kursga qoldirilmaydi. Qaysi fan (kurs)dan belgilangan kreditlarni to'play olmasa, faqat o'sha fanning o'zidan qayta imtihon topshiradi, xolos. Oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom esa belgilangan kreditlar to'plagandan so'ng beriladi.

ECTS tizimi bo'yicha talabalarining bir yilda to'plashi lozim bo'lgan kredit miqdori 60 ni tashkil etadi. Bir o'quv yili ikki semestrda iborat bo'ladi deb olsak, talaba har semestrda 30 kredit to'plab borishi lozim. Bakalavriat dasturi 3-4 yillik bo'lsa, talaba bakalavr darajasini qo'lga kiritishi uchun jami 180 — 240 kredit, 1-2 yillik magistratura dasturini tugallashi uchun esa, 60 — 120 kredit to'plashi majburiyat hisoblanadi.

Kredit tizimi u yoki bu kursni yoki yaxlitlikda ma'lum bir o'quv dasturini o'zlashtirish uchun zarur o'quv yuklamasi va unga ajratilgan vaqtni aniqlash uchun zarur.

Bir smestr davomida talabalar individual rejasida belgilangan fanlar shu jumladan (a) guruh fanlarini qo'shganda 25 kredit to'plashi kerak.

Talaba 20 dan kam kredit to'plasa, (a) guruh fanlarni 100 % o'zlashtirsa, u keying smestrda o'qish imkoniyatini avtomatik qo'lga kiritadi.

Agar talab 20 dan kam kredit to'plasa, u avtomatik talabalar safidan chiqariladi.

O'z xohishi bilan talaba (a) guruh fanlaridan zarur kreditini to'play olsa, avvalgi kursda qayta o'qishni tiklashi mumkin.

Masalan: fanga 240 soat ajratilgan bo'lsabu fan 4 kreditga to'g'ri keladi.

Kredit modul tizimida fanlar majburiy va tanlov fanlariga bo'linadi. Har bir talaba o'quv rejasida asosida tuzilgan dars jadvaliga kirgan barcha fanlarni o'zlashtirishlari majburiy hisoblanadi. Kredit modul tizimida bir smestr davomida ikki marta oraliq nazorat va smestr yakunidayakuniy nazorat sinovlari o'tkaziladi. Baholash besh baholik tizimda amalga oshiriladi. Talabalar bilimni nazorat qilish o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Talabani o'quv jarayoni mobaynidagi har bir fandan o'zlashtirishi ballik tizim asosida butun sonlar bilan baholanadi va yakunda ballar ta'limning kredit-modul tizimi to'g'risidagi nizomning 8-ilovasi asosida besh baholik tizimga konvertatsiya qilinadi.

Smestr davomida topshiriqlar uchun belgilangan muddatlar uzaytirilmaydi, topshiriqlarni qayta topshirish uchun imkoniyat berilmaydi.

Ballar nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

20 ball: mustaqil ta'lim uchun ajratilgan bo'lib, u fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda kafedera tomonidan amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlaridagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish uchun ajratiladi.

30 ball: fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, kafedera tomonidan ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga ajratiladi, saralash bali oraliq nazoratning 60 % ini tashkil qiladi.

50 ball: yakuniy nazorat uchun ajratilgan hisoblanadi. Yakuniy nazorat o'quv mashg'ulotlarini lib bormagan professor o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi.

Talaba yakuniy nazoratga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo'lishi kerak.

Fandan 3 yoki undan yuqori baho olgan talaba fanlarni o'zlashtirgan hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha belgilangan kreditga ega bo'ladi.

Oraliq nazorat turini topshirmagan va ushbu oraliq bo'yicha qoniqarsiz bah olgan talaba oraliq nazoratga kiritilmaydi va ushbu fandan akademik qarzdor hisoblanadi.

Talaba quyidagi hollarda akademik qarzdor hisoblanadi

- Talabaning bir smestr davomida toplagan ballari nazoratlarni majburiy topshirilishini hisobga olgan olda 60 % izidan kam bo'lmasligi kerak

- Talabaning yakuniy nazorat bo'yicha to'plagan bali yakuniy nazorat 60 % izidan kam bo'lsa

- Bir smestr davomida bir fanga ajratilgan auditoriya soatlarining 25 % izini va undan ortiq soatlarini sababsiz qoldirgan bo'lsa

Fanlarni o'z vaqtida o'zlashtirish uchun akadem qarzdor talabalarga har smestr yakunida, ta'til davrida mazkur fanni o'qish uchun imkoniyat yaratiladi. Bu jarayon to'lov asosida amalga oshiriladi. Talaba qayta o'zlashtirish uchun to'lov qilishi kerak. Talaba o'zlashtirmagan fanini qayta o'qishi va kredit olishi uchun 1 yillik kontrakt summasining 1 yillik o'quv yuklamasiga bo'linmasi hajmida to'lov qilishi kerak.

Kredit modul tizimi talabaning o'rganayotgan sohasini yanada chuqurroq o'rganishga, uni amalda qo'llay olish uchun zarur bilim va tajribaga ega bo'lishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son qarori. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish to'g'risidagi qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 20-aprelda "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2909-son qarori.

AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ZAMON TALABI**Rejivaliyeva Muhayyoxon Vohidjon qizi
QDPI talabasi**

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi jadal rivojlanib borayotgan dunyoni axborot texnologiyalarisiz tasavvur eta olmasligimiz, yurtimiz ravnaqi uchun yosh avlodga axborot texnologiyalari bo'yicha boshlang'ich sinfdanoq bilim va ko'nikmalar shakllantirilganda hozirgi erishilgan yutuqlardanda katta yutuqlarga erishishimiz haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Axborot kommunikatsiya texnologiyalari, axborot, dasturlash, IT, kompyuter, informatika, onlayn kurslar.

Biz hozirgi kunda jadal rivojlanib borayotgan dunyoni axborot texnologiyalarisiz tasavvur eta olmaymiz. Har kuni zamonaviy texnologiyalar bilan bog'liq bo'lgan yangiliklar haqida eshitamiz. Bunday texnologiyalar albatta har qanday ishda inson omilini kamaytirishga, insonning mehnat kuchini tejashga, qilinayotgan ishlarda xatolarning kamayishiga albatta o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Bugungi kunda yurtimizda yoshlarning zamonaviy axborot texnologiyalarini o'rganishlari uchun zarur shart sharoitlar yaratib berishga katta e'tibor qaratilmoqda. Buning ijrosini yurtimiz yoshlarini keng miqiyosda qamrab olayotgan "Bir Million O'zbek Dasturchilari" loyihasi misolida ko'rishimiz mumkin.

2019-yil 21-noyabr kuni yurtimiz poytaxti Toshkent shahrida joylashga Inha Universitetining Katta Majlislar zalida "Bir Million O'zbek Dasturchilari" loyihasini ishga tushirish marosimi bo'lib o'tdi. Bu marosimda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov, Birlashgan Arab Amirliklarining hukumat va kelajakishlari bo'yicha vaziri Muhammad bin Abdulloh al-Qarqoviy, Birlashgan Arab Amirliklarining sun'iy intellekt texnologiyalari vaziri Umar bin Sulton al-Olama, O'zbekiston Respublikasining o'sha vaqtdagi xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov, o'sha vaqtdagi Tashqi savdo va investitsiyalar vaziri Sardor Umrzoqov, O'zbekiston Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi vakillari ishtirok etdi. "Bir Million O'zbek Dasturchilari – One Million Uzbek Coders" loyihasi, Birlashgan Arab Amirliklari Dubai Future Foundation fondi, Toshkent shahridagi Inha universiteti va IT park qoshidagi IT-akademiyasi ko'magida ushbu loyiha amalga oshirildi. Bu loyihsning maqsadi, o'zbek tilidagi onlayn platforma kurslari orqali o'zbek yoshlariga axborot texnologiyalarini o'rgatish, yosh dasturchilar yetishtirishdir. Bu onlayn platforma orqali tort ta'lim yo'nalishi bo'yicha kurslar tashkil etildi.

1. Android dasturlash
2. Full-Stack Devolepment
3. Fronted Devolepment
4. Ma'lumotlar tartibi

Bunday kurslarda o'qish 120 soatni tashkil etishi rejalashtirilgan bo'lib, har bir bosqich yakunida o'quvchilar uy ishlari hamda laboratoriya ishlarini bajarishadi va onlayn topshirishadi, bunda ularga maxsus sertifikatlar beriladi.

Loyihadagi onlayn kurslar 2012-yilda Amerikaning Stenford Universiteti axborot texnologiyalari dasturlashni yanada keng rivojlantirish uchun tashkil etilgan. Udacity kompaniyasi o'quv kurslari asosida shakllantirildi, ya'ni u yerdagi kurslar o'zbek tiliga tarjima qilindi.

Onlayn kurslarni muvaffaqiyatli tugatgan o'quvchilar Udacity platformasidagi boshqa 100 dan ortiq Nanodegree dasturlarida o'qishni davom ettira olishadi. Bunday imkoniyatga ega bo'lish uchun ta'lim oluvchilar kurslarni tamomlaganlaridan so'ng, yakuniy bitiruv imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirishlari va iloji boricha yuqori ball to'plashlari zarur bo'ladi. Ta'lim oluvchilar orasida eng yuqori ball to'plagan 150 nafar bitiruvchilarga grantlar

beriladi. Nanodegree dasturlarini tugatganidan keyin ta'lim oluvchiga, Udacity diplom topshiradi. Nanodegree diplomlari Amerikaning Autodesk, Salesforce, Google AT&T va dunyoning boshqa yirik giigant kompaniyalari tomonidan tan olinadi va bitiruvchilarning bilimlariga qarab ishga olinishlari mumkin.

Bunday loyiha birinchi bor Birlashgan Arab Amirliklarida "One Million Arab Coders" nomi bilan ishga tushirilgan. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2019-yil mart oyidagi Birlashgan Arab Amirliklariga rasmiy tashrifi doirasida O'zbekiston Respublikasi va Birlashgan Arab Amirliklari bilan bir qancha sohalarida hamkorlik qilishga kelishib olingandi. Shunday hamkorlik va kelishuvlardan biri - "One Million Uzbek Coders" loyihasini O'zbekistonda ham yo'lga qo'yish bo'yicha edi. Shunday kelishuvlar asosida O'zbekistonda ham shunday ta'lim platformasi ishga tushirildi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining kelajagi yuksak ekanligiga hech qanday isbotning keragi yo'q. barchamiz buni ko'rib, guvohi bo'lib, anglab turibmiz.

Hozirgi kunda barcha ota-onalar farzandini dasturlash tilini mukammal o'rganishini istayotgani hech kimni hayratga solmaydi. Ota-onalari dasturlash tilini o'rganishini xohlayotgan ko'plab yoshlar bu sohani hech ikkilanmay tanlashmoqda. Hattoki dasturlash tilini o'rganish uchun ko'plab insonlar o'z kasblarini ham o'zgartirishmoqda.

Yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqsh demakdir. Darhaqiqat, hozirgi kunda yoshlarning bolalik davridanoq axborot texnologiyalari bilan do'stlashishi juda ham yaxshi. Hozirgi vaqtda bir yoshga to'lmagan bolaning ham qo'lida ham telefonku deyishimiz mumkin. Bu axborot texnologiyalaridan qanday foydalanishga bog'liq. Hozirgi kunda ba'zilar internetda pullarini ko'kka sovursa, yana kimdir unda pul ishlab topmoqda.

Axborot texnologiyalari davrida ilm egallash, bu orqali o'z hissasini qo'shish borasida bugungi kunda qanday ishlar amalga oshirilmoqda? Misol uchun maktablarda informatika darslari qay darajada o'qitilmoqda?

Yurtimizdagi maktablarning boshlang'ich sinflarida axborot texnologiyalariga oid birorta ham fan kiritilmagan. 5-sinfdan 11-sinfgacha haftasiga ikki marotaba "informatika" fani o'qitiladi. Faqatgina xususiy maktablarga o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda "Kompyuter savodxonligi" va "Robototexnika" fanlarini boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars jadvallariga kiritganlar. Xususiy maktablarning qamrovi kamligi hamda barcha ota-onalarning farzandlarini xususiy maktablarda o'qita olmasligi bois bu oqlov bo'la olmaydi.

Misol uchun qo'shni Qozog'istonni olaylik. U yerda bu yildan birinchi sinf o'quvchilarining dars jadvaliga " Raqamli savodxonlik" fani kiritildi. Maktablardagi dars jadvalida oldindan mavjud bo'lgan "Axborot kommunikatsion texnologiyalar" va "Informatika" fanlaridan o'quvchilarga ta'lim berish jarayonini qaytadan ko'rib chiqish va o'quvchilarga dasturlash tillarini ko'proq o'rgatish borasida kelishib olindi.

Ukrainadagi ba'zi maktablarda birinchi sinfdanoq, ba'zilarida ikkinchi sinfdan axborot texnologiyalari darsi o'tiladi.

Germaniyada ham ikkinchi sinfdanoq "Texnologiya va kommunikatsiya" fani dars jadvallariga kiritilgan. Bunday darslar o'quvchilar yoshini inobatga olgan holda ancha yengil o'tiladi, o'quvchilarga virtual va real olam o'ratsidagi farq tushuntiriladi. 3-6 sinf o'quvchilari esa murakkab bo'lgan IT loyihalarini o'rganishga kirishadilar. 7-10 sinf o'quvchilariga esa dasturlash tillari chuqur o'rgatiladi. Bunday ta'lim asosida maktab bitiruvchilari tayyor mutaxassis bo'lib chiqadi.

Janubiy Koreyada esa "Informatika" fakultativ darslar qatoriga kiritilganligi uchun o'rta ta'lim maktablarining barcha sinflarida majburiy tartibda o'qitiladi. Sinf yuqorilagani sari dars soatlari oshiriladi hamda mavzular murakkablashadi.

O'zbekiston ta'lim tizimidan namuna sifatida foydalanayotgan Finlandiyada ham axborot texnologiyalariga oid fan birinchi sinfdanoq kiritilgan. 7-9sinflarda esa ushbu dars soatlari

ko'paytiriladi.

Ko'rib turganimizdek axborot texnologiyalari sabog'ini boshlang'ich sinfdan berish rivojlangan davlatlar tajribasida kuzatilgan va o'zini oqlagan.

Ming afsuslar bo'lsinki bugungi kunda maktablarimiz bilim o'chog'i bo'lolmayapti. Maktablarni bitirgan o'quvchilar oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun repititorga qatnashi har bir inson uchun odatiy holga aylanib qolmoqda. Shu kabi axborot texnologiyalariga qiziqqan o'quvchilar uchun haftada ikki marotaba o'tiladigan "informatika" darslari yetarli bo'lmayapti.

Albatta dars soatlarini ko'paytirish bilangina bu masala hal bo'lib qolmaydi. "Informatika" darsi har kuni o'tilsayu, malakasiz pedagoglar o'quvchilarga saboq bersa, texnik vositalar yetarli bo'lmasa, kompyuterlar "tegma buzasan" buyurug'i bilan ko'rgazma uchun tursa foydasi yo'q albatta.

Avvallari ingliz tili ham maktablarda 5-sinfdan o'qitilar edi, ammo zamon talabilarini inobatga olgan holda 1-sinf dars jadvaliga kiritildi. Axborot texnologiyalari dolzarbligi oshib borayotgan bir davrda maktab dasturlarida ham shunga muvofiq o'zgartirishlar kiritish davri yetib keldi.

Hozirgi kunda bolalar maktab, balki bog'cha yoshidanoq axborot kommunikatsiya texnologiyalarini ishlata olmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, bolalar raqamli savodxonlikka tayyor. Axborot texnologiyalari fani bolalar yoshiga moslashtirilgan holda o'tiladi. Dars jarayonlari qiziqarli ma'lumotlar va o'yin shaklida olib boriladi, bunda o'quvchilarga ortiqcha bosimning oldi olinadi.

Maktabga qadam qo'ygan o'quvchiga texnika shunday tutqazib qo'yilmaydi, undan foydalanish, texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish asta-sekin o'rgatiladi.

Maktablarda boshlang'ich sinfdanoq axborot texnologiyalari darsi kiritilsa, yoshlarimizning bilim bilan to'yingan ongida yot g'oyalarga o'rin qolmaydi. Ularning internet va ommaviy madaniyatning salbiy oqibatlaridan davolashga ahtiyoj qolmaydi. Chunki, u allaqochon axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan faqat foydali ishlar uchun foydalanadi, yuqori daromadga yetaklaydigan yo'l ekanini tushunib yetgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. "Yangi O'zbekiston" gazetasining 2020-yil 10-oktyabrdagi 194-soni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2909-son qarori.

IJTIMOY TARMOQDAGI TUZOQLARNING YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIRI.

Rasulova Madina
Qo'qon universiteti talabasi,
Eshonqulova Guljahon Abduqaxxorovna
Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ijtimoiy tarmoqlar bugun qudratli axborot qurolga aylangan ekan, dunyo miqyosida mafkuraviy-g'oyaviy tahdidlarni targ'ibot va tashviqot etishda muhim omil vazifasini o'tamoqda. Ijtimoiy tarmoqlar yordamida yoshlarning qalbi, ongi va ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida yoshlar ma'naviyati izdan chiqishiga olib kelmoqda. Shu boisdan ham, turli-tuman g'oyaviy, mafkuraviy va axborot xurujlarining avj olishini e'tibordan chetda qoldirmasligimiz darkor. Shundagina biz istiqbolda ma'naviy barkamol insonni, sog'lom avlodni tarbiyalashga erishamiz.

Kalit so'zlar: Axborot, global, mafkura, internet, ma'naviy tahdid, ijtimoiy tarmoq, virtual muloqot, modernizatsiya, ma'naviyat, innovatsiya.

Bugungi kunga kelib, internet tizimining ijtimoiy tarmog'ida ma'naviy, axloqiy tubanlikni "targ'ib" etuvchi sahifalarning soni bir nech yuz milliondan oshayotganligi insoniyatni yanada tashvishlantiradi. Bu haqda Chingiz Aytmatov shunday yozadi: "Tuya terisini odamning taqir boshiga kiydirish shart emas. Endi sodir bo'ladigan urushlar jang maydonida emas, balki mafkura poligonida yuz beradi. Shu jihatdan qaraganda, yoshlarning ko'p vaqtini internetda behuda sarflashi katta fojia". Chunki, Globallashuv jarayonida mafkuraviy ta'sir o'tkazish ko'lamini haddan ziyod kengaytirib, beqiyos darajada tezlatib yuborganida ham ko'rinadi. Inson o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli ma'naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi ta'siriga bardosh berishi amrimahol.

Internet tizimining ijtimoiy tarmog'idan olingan narsa to'g'ri, ishonchli va zararsiz ekanini bilish kerak. Yaxshi-yomonning farqiga bormagan yoshlar ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilgan har qanday ma'lumot-xabarlarini haqiqat deb qabul qilayotgani jiddiy xavotirga solmoqda. Ular g'arazli maqsadlari yo'lida yoshlarda buzg'unchilik, begunoh odamlar qonini nohaq to'kish kabi jinoyatlarni avj oldirib, fuqarolar tinchligini buzib, xalq orasida nizo chiqarishga harakat qilishmoqda. Sarhadsiz internet dunyosiga kirgan yoshlar vaqt, umr g'animat ekanini doimo yodda saqlamog'i lozim. Zero, bu global tarmoq bepoyon hududlarga ega bo'lib, unda inson adashib soatlab, kunlarini samarasiz o'tkazib yuborish bilan birga yoshlarimiz o'jar va qaysar, keksalarning aytganini nazar-pisandga olmaydi, ajdodlar qadriyatlarini inkor etadi". Darhaqiqat, bugun axborot ko'p va tez kirib kelayaptiki ularni "hazm" qilish uchun teran tafakkur va keng dunyoqarash talab etiladi. Ayniqsa internet tizimining ijtimoiy tarmoq olami farzandlarimiz e'tibori va qiziqishini tortib borayotgan bugungi davrda ayrim kompyuter o'yinlari haqida ham shunday misollarni ketirish mumkin. Bugun dunyo aholisining 90 % dan ortig'ida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish imkoniyati mavjud. Foydalanayotganlar soni ham yildan-yilga ortib bormoqda. Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra insonlarning ijtimoiy tarmoqda sarflaydigan minimal vaqti 3 soatni tashkil etadi. Bir qarashda kishini xavotirga soladigan hech narsa yo'qdek. Inson bu 3 soat mobaynida turli hududlarda yashaydigan yaqinlari, tanishlari, qarindoshlari bilan muloqot qilmoqda, bunda nimanotabiylik bor deb o'ylash mumkin. Albatta, ushbu muloqot jarayonlarining ijobiy tomonlarini inkor etib bo'lmaydi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarda faqat ezgu niyatni ko'zlagan insonlar o'tirmasligini o'nlab misollar bilan asoslash mumkin. Ayniqsa, yoshlarda bunday holat ko'proq yolg'iz qolish istagining kuchayishida namoyon bo'ladi. Manbalarda ijtimoiy

tarmoq - odamlarning muloqot qilish, o'xshash qiziqishlari yuzasidan boshqa odamlar bilan ijtimoiy munosabatlarni yaratish uchun foydalanadigan onlayn platforma deb ta'rif berilgan. Ilk bor odamlar o'rtasidagi muloqot vositasi sifatida ijtimoiy tarmoqning elektron pochta ko'rinishi paydo bo'ldi. Bu kompyuter tarmoqlari orqali bog'lanishning ilk ko'rinishi edi. Dastlab ikki kishi o'rtasida ma'lumot almashish uchun yaratilgan elektron ma'lumot almashuv keyinchalik guruhlar o'rtasidagi muloqot vositasiga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlar haqida ilk bora o'z tasavvurlarini bayon qilgan olimlar R.Solomonoff va A.Rapoport o'tgan asr o'rtalarida muloqotning virtual ko'rinishi haqida o'z fikrlarini bayon qilishgan. Vengriyalik mutaxassislar P.Erdos va A.Renilar ijtimoiy tarmoqlarni shakllantirish borasidagi tasavvurlarini aytib o'tishgan. Ijtimoiy tarmoq atamasini alohida tushuncha sifatida 1954 yil Manchester maktabi namoyondalaridan biri J.Barns ilmiy manbalarga kiritgan. Internet tarmog'ida insonlar o'rtasidagi muloqotning avj olishi, rivojlanib ketishini olimlar ijtimoiy tarmoqlarning tezkor faoliyati bilash bog'lashadi. Aslida ham shunday. Siz virtual olamda tez va qulay muloqotni kunning yoki tunning istalgan vaqtida o'rnatishingiz mumkin. Suhbatdoshingiz bilan yozishib, gaplashib, uni ko'rishingiz ham mumkin. Buning uchun kompyuter yoki telefon va internet bo'lsa kifoya. Bugungi kunda mashhur bo'lgan ijtimoiy tarmoqlarda o'z sahifasiga ega bo'lmagan insonni topish qiyin. Ayniqsa, bu holatning yuqori darajasini yoshlar orasida ko'rish mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda, dunyo yoshlari, jumladan mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlod asosiy vaqtining taxminan 50% foizi virtual muloqotga sarflanmoqda. Gap shundaki, ko'pchilik yoshlar o'z hayotlarini ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qila olmaydilar. Ma'lumki, dunyoda g'oyaviy hamda informatsion xurujlar, turli mafkuraviy tahdidlar avj olayotgan bugungi kunda yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirish, ularning tafakkurida sog'lom dunyoqarash asoslarini shakllantirish eng muhim vazifadir. Bunday murakkab va tahlikali davrda ma'naviy - ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon - atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, zo'rlik bilan joriy etish oqibatida xalqaro maydondagi ziddiyat va qarama - qarshiliklar kuchayib borayotgan bir vaziyatda o'zimizning kelajak strategiyamizni aniq belgilab olish, g'animlarning g'arazli urinishlari nimaga qaratilganligini har tomonlama anglab olish va keng jamoatchilikka yetkazish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch va osoyishta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy g'oya targ'iboti va mafkuraviy jarayonlarning amaliy ishlari va ijobiy natijalarini yoshlarga tushuntira bilish, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Ma'naviyat va ma'rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi" ekanligi to'g'risidagi qarashlarining mazmun-mohiyatini har bir fuqaroga, xususan, yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosiga singdirish zarur. XXI asrda davlatimizning ravnaqi, uning kuchi hamda salohiyati ko'p jihatdan xalq ma'naviyatining yuksakligi va pokligiga, yoshlarimizning intellektual savodxonligiga, ular ongi, ichki dunyosi va qalbida milliy g'oyaning rivojlanganligi bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda esa internet tizimining ijtimoiy tarmog'idan tarqatilayotgan turli xil yot g'oyalarga qarshu mafkuraviy immunitetning nechog'liq shakllanishiga bevosita aloqadordir.

Xulosa o'rnida aytmoqchimanki, hozirgi kunda jamiyatimiz hayoti fan-texnologiyalar rivoji bilan tobora uyg'unlashib borayotgan bir davrda yashamoqdamiz. Shunday ekan, har birimiz ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatiga amal qilishimiz, o'z navbatida, uni atrofdagilarga ham o'rgatish foydadan xoli bo'lmaydi. Binobarin, yoshlarning ruhiy-ma'naviy olamini zararli unsurlardan, turli xil buzg'unchi, yod va zararli g'oyalardan himoya qilish orqali taraqqiyot poydevori yaratiladi. Zero, ma'naviy barkamol, intellektual salohiyati yuqori avlod tarbiyasi nafaqat O'zbekistonda, balki butun jahonda eng muhim vazifalardan biri

sifatida namoyon bo'lmoqda. Aynan ma'naviy barkamol avlod mamlakat ertasini belgilab beradi. Ma'naviy barkamollik esa jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Chingiz Aytmatov "Asrga tatigulik kun".
2. Islom Karimov "Barkamol avlod orzusi".
3. https://yuz.uz.ijtimoiy_tarmoqlarning_yoshlarga_ta'siri.
4. https://cyberleninka.ru.ijtimoiy_tarmoqlarning_yoshlar_ma'naviyatiga_ta'siri.

TA'LIM JARAYONIDA GOOGLE APPS EDUCATION EDITION SERVIS XIZMATLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Komilova Shahrizoda Rahmatullo qizi
Navoiy davlat pedagoika instituti 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu tezisda bulutli texnologiyalaridan biri Google APPS Education Edition servis xizmati va unda ishlash jarayoni yoritilgan.

Kalit so'zlar: Internet, Zamonaviy tarmoq servisi, Google, Google ta'lim xizmatlari, Google APPS Education Edition.

Ta'limning asosiy natijasi sifatida davlat ta'lim standarti maqsadi - o'qituvchi va o'quvchilar bilan ta'lim sohasidagi hamkorlikni tashkil etish va rejalashtirish, ishtirokchilarning maqsad va funksiyalarini aniqlash, shuningdek o'zaro hamkorlik usullari izlab topishdan iboratdir.

Ya'ni o'quvchilarga axborot jamiyatida mustahkam hayot ko'nikmalari bilan ta'minlash va axborot jamiyatida ishlash va axborot faoliyati uchun tayorlash: axborotni qidirish va to'plash, ma'lumotlarga muvofiq tizimlashtirish, bilimlarni tanqidiy baholash va sharhlash, axborotni saqlash, himoya qilish, yetkazish va qayta ishlash qobiliyatiga ega bo'lishni hamda vizual axborotni og'zaki belgilar tizimiga tarjima qilish va aksinchasini ta'minlash kerak.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri - bu bulut texnologiyalari hisoblanadi. Bulutli (angl. Cloud computing) texnologiya foydalanuvchilarga Internet servis xizmati sifatida kompyuter resurslari va imkoniyatlarini taqdim etilayotgan ma'lumotlarni tarqatish texnologiyasi sifatida tushuniladi. Bulutli hisoblash texnologiyasiga asoslangan keng tarqalgan servis xizmatlar tizimi ta'lim jarayonida ishlatiladigan MicrosoftLive@edu va Google Apps Education Edition bo'lib hisoblanadi.

Ular ta'lim jarayonidagi ishtirokchilar uchun bulutli texnologiyalar asosida foydalanishda aloqa va hamkorlik samaradorligini oshirishga qaratilgan web-ilovalarni taqdim qiladi.

Ta'lim muassasalari uchun Google tomonidan taqdim etilayotgan onlayn servis xizmatlari bir qator afzalliklarga ega bo'lib, Internet tarmog'i mavjud bo'lgan har qanday ta'lim muhitida undan foydalanish imkonini beradi.

Zamonaviy tarmoq servis xizmatlari muhiti o'quvchilar uchun XXI asrga zaruriy qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirishlari mumkin bo'lgan ta'lim sharoitlarini yaratishga yordam beradi. Ular quyidagilardir:

– **axborot savodxonligi** - axborot izlash, turli manbalarni taqqoslash, zarur ma'lumotlarni aniqlash va farqlay olish mahorati;

– **media savodxonligi** - turli xil media resurslarini aniqlash olish va ulardan foydalanish qobiliyati;

– **tashkiliy-uyushtirish savodxonligi** - o'zining va o'z guruhining vaqtini rejalashtirish, odamlar, guruhlar, tashkilotlar o'rtasida o'zaro munosabatlarni anglash qobiliyati;

– **muloqot savodxonligi** - samarali muloqot va hamkorlik mahorati;

– **samarali savodxonlik** - sifatli mahsulotlar yaratish, haqiqiy vositalardan foydalanish, rejalashtirish.

Google Apps servis xizmatlari bir nechta afzalliklarga ega, ya'ni ular talabalar va ta'lim muassasalari tomonidan ishlatiladigan barcha operatsion tizimlar va dasturlarni qo'llab-quvvatlaydi; Internetda ishlashni qo'llab-quvvatlovchi ixtiyoriy mobil qurilmalar yordamida hujjatlar bilan ishlash mumkin va barcha Google Apps Education Edition ta'lim versiyasi vositalari bepuldir.

Google Apps Education Edition servis xizmatining misolidan foydalanib, ta'lim jarayonida quyidagi ilovalarni ko'rib chiqish mumkin:

– **Ma'lumot va hujjatlar almashinish**, talabalar o'zaro hamda o'qituvchilar bilan o'quv jarayonida zarur bo'lgan ma'lumot va hujjatlar bilan urtoqlashishi: loyiha, referat va tezislar bo'yicha maslahatlar berish, uy vazifalarini tekshirish. Ushbu imkoniyatlarni amalga oshirish jarayonida **elektron pochta, chat va forumlardan** foydalanish mumkin.

– **Guruhlarda qo'shma loyihalarni amalga oshirish:**

- matnli fayl va prezentatsiyalar tayyorlash,
- hujjatlarni boshqa ishtirokchilar bilan real vaqt rejimida muhokama qilishni tashkil etish,
- Internet tarmog'ida ish natijalarini jamoatchilikka ochiq bo'lgan veb-sahifalar shaklida nashr etish,
- turli xil axborot ob'ektlarini qayta ishlash bo'yicha amaliy vazifalarni bajarish: matnni formatlash va tahrirlash, matn muharririda jadvallar va sxemalar yaratish.

Google muhiti shaxsiy va hamkorlikdagi faoliyat uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan ko'plab vositalarni o'z ichiga oladi. Google servis xizmatlari insonlarning tarmoqlar aro o'zaro ta'siri uchun yunaltirilgan hamda bu muhitda muloqot, aloqa qilish va hamkorlik imkoniyati ta'lim olish uchun muhimdir.

Yangi vositalardan foydalanishning muntazam qo'llanilishi yangi turdagi xatti-harakatlarga o'rgatadi hamda ushbu jarayonda pedagogik va tashkiliy yechimlarni taklif qiladi. Bunday hamkorlikda jamoa bo'lib ishlash o'quv jarayonini talabalar, o'qituvchilar va ularning ota-onalari uchun ochiq qilib qiladi.

Domen nomini ro'yxatdan o'tkazish Google tomonidan tasdiqlangan ro'yxatga oluvchi orqali amalga oshirilishi mumkin. Google Apps bepul asosiy va professional paketlar bilan ifodalanadi. Ta'lim sohasi uchun Google Apps Education Edition - professional paketning barcha xususiyatlarini o'z ichiga olgan ta'lim muassasalari uchun bepul paket ishlab chiqdi. Google Apps Education Edition versiyasi - talabalar va o'qituvchilarga samarali muloqot hamda hamkorlik qilish uchun zarur bo'lgan vositalar bilan ta'minlaydigan bulutli hisoblash veb-ilovasi hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Google ta'lim xizmatlari, o'qituvchilar va o'quvchilarga yanada samarali muloqot qilish, muvaffaqiyatli o'qitish va o'rganish imkonini beradigan bepul (har qanday reklamalarsiz) vositalarni o'z ichiga oladi. Oliy ta'lim muassasalari uchun Google onlayn xizmatlari bir qator afzalliklarga ega, bu esa Internet tarmog'i mavjud bo'lgan har qanday ta'lim muhitida foydalanish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Алексанян, Г. А. Сервисы Google в организации самостоятельной деятельности студентов СПО / Г. А. Алексанян. // Молодой ученый. — 2012. — № 9 (44). — С. 263-266.
2. Google Apps Education Edition [Электронный ресурс]. - URL : <http://www.google.com/a/help/intl/en/edu/index.html>.
2. Романова И. Облачные технологии и их применение // Молодой ученый. - 2016. - №17.1. - С. 109-112.

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA JAMIYAT MA'NAVY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA
AXBOROT ISTE'MOLI MADANIYATI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI**

**Shaymanov Jamshidbek Anvar o'g'li
ShDPI talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqola yoshlarni ijtimoiy munosabatlarda shaxs sifatida shakllanishida ijtimoiy tarmoqlar tasirlik o'rganilgan. Internet ya'ni ijtimoiy tarmoqlar bugungi kundajuda kata qudratli axborot aylangan ekan jahon miqyosida mafkuraviy-g'oyaviy tahdidlarni targ'ibot va tashviqot etishda muhim omil vazifasini o'tab kelmoqda.

Kalit so'zlar: Globallashuv, shaxs, mafkura, internet, ijtimoiy tarmoq, ma'naviyat.

Bugungi kunda "globallashuv" so'zi eng ko'p ishlatiladigan tushunchalardan biri hisoblanadi. Bu tushuncha inson va jamiyat hayoti rivojining hozirgi davridagi muhim xususiyatlarnitez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgani, o'ta shiddat bilan murakkab bir voqelikni o'zida mujassam etadi. Ayni paytda, kishilik jamiyati rivojida ustuvor bo'lib borayotgan mayllardan kelib chiqiladigan bo'lsa, insoniyatning istiqbolini ham tasavvur qilish imkonini beradi.

Globallashuv jarayonining hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy sababi esa, Prezidentimiz qayd etganlaridek, - "Bugungi kunda insoniyat ko'plab umumbashariy muammolarga duch kelmoqda va ularga yechim topish nihoyatda dolzarb bo'lib qolmoqda. Biz globallashuv har tomonlama avj olayotgan, shiddatli o'zgarishlar sodir bo'layotgan murakkab zamonda yashamoqdamiz".

Mamlakatimizga turli vositalar orqali mafkuraviy tahdidlar kuchayayotgan hozirgi murakkab davrda ma'naviy xavfsizlik masalani kun tartibidagi eng dolzarb masala bo'lib qolaveradi. Ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida aholi keng qatlamlari va yoshlar ongida yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g'oyalariga sadoqat tuyg'usini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa, o'z navbatida, aholi ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash, yoshlarda turli tahdidlarga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirish imkonini beradi.

Ilmiy adabiyotlarda globallashuvning turli jihatlari farqlanadi. Eng avvalo, aholi sonining tez o'sib borishi sharoitida oziq-ovqat, ichimlik suvi va shu kabi ehtiyojlarni qondirish, tabiatning zo'riqishi bilan bog'liq masalalarni yaxlit holda ifodalovchi demografik - ekologik muammolar mavjudligini alohida qayd qilish lozim.

Hech qanday milliy chegaralarni tan olmaydigan, dunyoda umumiy texnologik va axborot maydoni yuzaga kelayotganini xarakterlovchi texnosferaning globallashuvi uning yana bir o'ziga xos xususiyatidir.

Shu bilan birga, siyosiy globallashuv hamda fan, madaniyat, ta'lim va axloq sohasidagi jarayonlarni ifodalovchi ijtimoiy-madaniy globallashuv ham sodir bo'layotganini yoddan chiqarmaslik zarur. Globallashuv jarayonining yana bir o'ziga xos jihati uning mafkuraviy ta'sir o'tkazish ko'lamini haddan ziyod kengaytirib, beqiyos darajada tezlatib yuborganida ham ko'rinadi. "Mana shunday vaziyatda, odam o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli ma'naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi ta'siriga bardosh berishi amrimahol".

Mafkuraviy globallashuv axborot vositalarining rivoji va bu sohada sodir bo'layotgan inqilob bilan bog'liq. Mutaxassislar fikricha, insoniyat bugungi kunda yangi axborot inqilobini boshdan kechirmoqda va u kishilik jamiyati tarixidagi birinchi inqilob emas. Nutqning shakllanishi axborot uzatish imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa, yozuvning paydo bo'lishi uni

uzoq vaqt davomida saqlash va axborotni uning yaratuvchisidan ajratgan holda ulkan masofalarga etkazish, hatto zamonlararo olib o'tishga yo'l ochdi. Gazeta va jurnallarni nashr etishning yo'lga qo'yilishi yozma axborotni uzatishdagi tezkorlik va hamrovlilikni yanada kengaytirdi. Radio va televidenie esa axborotni ovoz va tasvir orqali uzatishni ta'minlab, uni yangi sifatiy bosqichga ko'tardi.

Hozirgi axborot inqilobi oldingi davrlarda paydo bo'lgan axborot uzatish usullarining ko'pgina tomonlarini o'zida sintez qilgan zamonaviy kompyuter texnologiyalariga asoslangan Internet kabi hodisalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Axborotni keng jamoatchilikka etkazib beruvchi matbuot, radio, televidenie kabi hodisalarni o'zida birlashtiruvchi ommaviy axborot vositalari (OAV) jamiyat hayotiga ulkan ta'sir o'tkazish quvvatiga ega. Qanday katta kuchga ega ekanini ularga nisbatan «to'rtinchi hokimiyat» atamasi qo'llanilishida ham ko'rish mumkin.

darajada bog'liq. Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig'iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas".

Hozirgi kunda ma'naviy tahdidlar asosan OAVning ta'sirida yuzaga kelmoqda. OAVlari bugungi kunda kuchli ta'sir ahamiyatiga ega, undagi materiallar muayyan auditoriyaga mo'ljallangani bilan ham belgilanadi. Masalan, ichki auditoriyaga mo'ljallangan materiallarni yoshi, jinsi, ijtimoiy maqomi (kasb-kori), milliy, diniy mansublik kabi belgilarga ko'ra farqlash mumkin.

OAV ijtimoiy hayotdagi muayyan voqea, hodisa yoki muammo yuzasidan axborotni etkazib berish orqali, uning jamiyat uchun ahamiyati, keng aholi qatlamlari uchun dolzarbligini ta'kidlaydi. Axborot oqimi hajman keng, mazmunan rang-barang, uzatilishga ko'ra tezkor bo'lgan bugungi kunda bu jarayon yanada chuqurlashib bormoqda.

Yuqoridagi mulohazalar bugungi kunda turli shakl va mazmundagi axborotlar inson va jamiyat hayoti, taraqqiyoti va kamolotining zaruriy shartiga, OAV esa uni tarqatishning muhim bo'g'iniga aylanganini ko'rsatadi. Xususan, radio, televidenie, gazeta va jurnallarsiz har qanday ma'lumotli kishi ham murakkab ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarda to'g'ri yo'l topa olishi qiyin. OAV esa, kishilarga o'zining individual tajribasi doirasidan chiqishga va keng hamrovli jarayonlar mohiyatini his qilishga yordam beradi.

OAV orqali amalga oshiriladigan va katta mablag' talab qilmaydigan g'oyaviy ta'sir va tazyiqning o'ziga xosligi shundaki u o'quvchi, tinglovchi yoki tomoshabinga sezdirilmasdan amalga oshiriladi va bevosita qurbonlarni keltirib chiqarmaydi. Axborot dushmani yo'q qilmagan, katta xarajatni talab qilmagan holda yuqori samara beradi. Bunda g'oyaviy ta'sir yo'naltirilgan mamlakatlar aholisining xohish-istaklari, mentaliteti, mavjud muammolari jiddiy o'rganilgan holda asosiy diqqat kishilar ongi va dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatishga, shakllangan qadriyatlarni o'zgartirishga, ularning regulyatorlik rolini kamaytirishga yoki butunlay yo'qqa chiqarishga qaratiladi. Bunday ta'sir o'tkazishda davriy nashrlar tadrijiylik, radio va televidenie fragmentli uzatish usullaridan ustalik bilan foydalanishmoqda.

SH.M.Mirziyoyev aytganidek, "Bugungi kunda iqlim o'zgarishlari, ekologik muammolar, radikalizm, ekstremizm va terrorizm, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar bizning mamlakatimizda ham yechilishi zarur bo'lgan dolzarb vazifalar hisoblanadi. Bunday muammolarni hal etishda kuch va imkoniyatlarni birlashtirish, bu boradagi barcha say-harakatlarni uyg'unlashtirish lozim. Bu esa, o'z navbatida, kelajagimiz qiyofasini belgilaydigan global muammolarning milliy va mintaqaviy darajadagi yechimlarini topish zarurligini anglatadi".[1] bunday ogohlantirishlari jiddiy asosga ega ekanini internet keltirib chiqarayotgan bir qator salbiy jihatlarda ham yaqqol ko'rinadi.

Unda o'z-o'zini o'ldirishning oson yo'llarini targ'ib qiluvchi 9 mingdan, erotik mazmunga ega 4 mingdan ziyod saytlarning mavjudligi ham buning isboti bo'la oladi. Mutaxassislar o'tkazgan maxsus tadqiqotlar mavjud saytlarning taxminan 12 foizi pornografik xarakterga egaligini ko'rsatadi. Mavjud maxsus dasturlar internet tarmog'idagi pornografiyaning faqat 90 foizinigina filtrlaydi, ya'ni komyuterdan foydalanuvchining ixtiyoridan tashqarida ekranda paydo bo'lishi yo'lga to'siq qo'ya oladi. Demak, qanchalik harakat qilinmasin pornografik mazmunga ega saytlar internetdan foydalanuvchilarning xohish-istagidan qat'i nazar, ularning diqqatini torta oladi. Jumladan, tadqiqotlarda 42 foiz bolalar va o'smirlar onlayn pornografiya ta'siriga tushishi qayd qilinadi.

Bu inson hayoti va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solayotgan va butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish hayotiy-amaliy ahamiyatga egaligini ko'rsatadi. Ammo Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "... bizning milliy ruhimiz va tabiatimizga yot va begona bo'lgan ana shunday hodisalarni faqat tanqid va inkor qilish yoki ularni taqiqlashning o'zi etarli emas. Bunday xatarlardan hayotimizni asrash, ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik uchun avvalambor ezgu insoniy g'oyalar bilan xalqimizning ongu tafakkurini va saviyasini yuksaltirish, jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste'dod musobaqasida bellashuvga qodir bo'lishimiz shart".[2]

OAVning mafkuraviy jarayonlar rivojiga o'ziga xos va kuchli ta'sir o'tkazayotganini quyidagi misolda ham ko'rish mumkin. Ma'lumki, bugungi kunda internet ommaviy axborot va kommunikatsiya tizimining eng tez rivojlanib borayotgan bo'g'ini hisoblanadi. Uning g'oyaviy kurash va targ'ibotning asosiy maydoniga aylanganini ekstremistik, shu jumladan, diniy ekstremistik qarashlarni targ'ib qilishdagi o'rni misolida ham ko'rish mumkin.

Diniy ekstremistlar va terrorchilarning internetdagi saytlarida tashkilotning maqsadi, tarixi hamda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy mazmundagi ma'lumotlarga keng o'rin beriladi. Jumladan, terrorchilar kuch ishlatish yo'lga o'tishga go'yoki majbur bo'lganlarini asoslashga, terror va qo'poruvchilik harakatlarini ma'naviy va axloqiy jihatdan oqlashga intilishadi, Bunda o'zlarini "ozodlik kurashchilari", "partizanlar", "qarshilik ko'rsatuvchilar" deb atagan holda tinchlik tarafdori qilib ko'rsatishga va ular bilan kurashda hukumat tinch yo'l bilan harakat qilish lozimligini asoslashga intilish keng tarqalgan. Ular o'z saytlarida hukumat tarafidan qo'llanilayotgan usullarning "vahshiyiligini" yoritishga ham alohida e'tibor beradilar.

Tezkor axborotlar, yangiliklarning bir vaqtning o'zida bir necha tilda va terrorchilar uchun foydali bo'lgan yo'nalishda berib borilishi, ularning faoliyatni oqlovchi, "qahramonligini" kuylovchi qo'shiqlar, kliplar berilishi bunday saytlarning mafkuraviy hamda emotsional ta'sir quvvatini oshirishga xizmat qiladi.

Ana shunday sharoitda axborot xavfsizligini ta'minlash uchun virtual olamda ham faol harakatlar olib borish zarur. Shundan kelib chiqib, ko'pgina mamlakatlar axborot sohasida ustuvorlikni ta'minlashni strategik maqsadlarga erishish, milliy xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashning asosiy yo'llaridan biri sifatida e'tirof etmoqdalar.

"Kimki axborotga ega bo'lsa, u, dunyoga egalik qiladi", - degan fikr bugungi kunda barcha tomonidan e'tirof etilgan. Shunday ekan, bugungi kunda har bir fuqaromizda axborot olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish hayotiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ana shunday yondashuvdan kelib chiqib, mamlakatimizda mustaqillik yillarida zamonaviy texnik uskunalarga, keng va chuqur fikrlovchi kadrlarga ega bo'lgan, yangicha mazmun-mohiyat kasb etadigan ommaviy axborot vositalari faoliyati uchun hamma sharoitlar yaratildi.

Inson kundalik hayotida turli narsalardan foydalanadi. Inson ularni iste'mol qilar ekan har gal muayyan tartib-qoidalar, sodda qilib aytganda, madaniyatga rioya qiladi. Aytaylik, kiyim-bosh kiyish yoki oziq-ovqat iste'mol qilishning o'ziga xos madaniyati bor. Bugungi

kunda axborot ham iste'mol qilinadigan tovarga aylangan ekan, har bir inson yoki alohida olingan jamiyat o'zida uni iste'mol qilish madaniyatini tarbiyalashi lozim.

Axborot iste'moli madaniyati, eng umumiy ma'noda, axborot oqimidan inson manfaatlari, kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni qabul qilish, saralash, tushunish va talqin etish xizmat qiladigan bilimlar, qobiliyat va malaka tizimini anglatadi.

Inson o'zida bunday madaniyatni tarbiyalashi uchun nima qilishi zarur? Buning uchun u yoki bu axborotni eshitar ekan, har bir inson hech bo'lmaganda "Bu axborotni kim uzatayapti?", "Nima uchun uzatayapti?" va "Qanday maqsadda uzatayapti?" degan savollarni o'z-o'ziga berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishi kerak bo'ladi. Ana shundagina turli g'oyalar ta'siriga tushib qolish, taqdim etilayotgan ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashishning oldi olinadi. Shakllangan axborot iste'moli madaniyati milliy manfaatlarimiz va qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabar, ma'lumotlarga nisbatan o'ziga xos qalqon rolini o'taydi, shaxs dunyoqarashi va xulqidagi sobitlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, shuni unutmash kerakki, "Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon etkazishi mumkin".

Demak, yoshlar hayoti va tarbiyasiga katta xavf solayotgan, butun jahonda balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish hayotiy-amaliyotga aylanib ulgurdi, ammo yurtboshiimiz ta'kidlaganidek, "Bizning milliy ruhimiz va tabiatimizga yot va begona bo'lgan ana shunday hodisalarni faqat tanqid va inkor qilish yoki ularni taqiqlashning o'zi etarli emas. Bunday xatarlardan hayotimizni asrash, ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik uchun avvalambor ezgu insoniy g'oyalar bilan xalqimizning ongu tafakkurini va saviyasini yuksaltirish, jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste'dod musobaqasida bellashuvga qodir bo'lishimiz shart".

Bizning fikrimizcha, hozirgi ulkan axborot ummonida yolg'on xabarlar nisbati shiddat bilan ortib borayotgan tahlikali zamonda ajdodlarimizning "hadislarni saralash" tajribalaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Sh.Mirziyoyev . Buyuk kelajagimizni mard va oily janob xalqimiz bilan birga quramiz . Toshkent-„O'zbekiston “ -2017 .
2. Sh.Mirziyoyev . Asarlar . 1-jild .Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga kutaramiz. Toshkent-„O'zbekiston “ -2017 .
3. Karimov I.A Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. 6-jild. – T.:O'zbekiston, 1998
4. MavlonovA.Barkamolinsontarbiyasi .-T;O'qituvchi,1995.
5. kun.uz/uz/news/2021/11/06/shavkat-mirziyoyev

KOMPYUTERNING MANTIQUIY ISHLASH PRINSIPI

Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li
Qo'qon Universiteti o'qituvchisi,
Tursunaliyeva Mohinurxon SHERQO'ZIEVNA
Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mantiq ilmining alohida fan sifatida shakllanishi miloddan avvalgi IV asrda yashab o'tgan buyuk yunon olimi Arastu bilan bog'liq. U birinchi bo'lib mantiq ilmi o'rganadigan masalalar doirasini aniqlagan. Olim birinchi marta mantiqiy tafakkur shakllarini uning mazmunidan ajratib mantiq va matematikani uyg'unlashtirishga harakat qildi va dalillar nazariyasiga asos soldi. Formal mantiq: statik voqealikka oid bo'lib, tafakkur strukturasi fikrning aniq mazmuni va taraqqiyotidan chetlashgan holda, nisbatan mustaqil ravishda o'ranadi. Uning diqqat markazida muhokamani to'g'ri qurish bilan bog'liq qoida va mantiqiy amallar yotadi. Matematik mantiq: tafakkurni matematik usullar yordamida tadqiq etadi. U hozirgi zamon matematikasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: mantiq, kompyuter, diskret qurilmalar, argument, konyunktor, dizyunktor, inventor.

Mantiq (logika) atamasi qadimgi yunoncha loyikos – "fikrlash ilmi" atamasiga mos keladi va "so'z", "mulohaza", "nutq", "aql" degan ma'nolarni anglatib, bilish jarayoni bilan uzviy bog'liqdir. Mantiqni o'rganish obyektini tafakkur tashkil etadi.

Mantiq tafakkurning namoyon bo'lishi shakllari va taraqqiyotini, shu jumladan, fikrlar o'rtasidagi aloqadorlikni ko'rsatadigan qonun-qoidalar yig'indisini o'rganadi. Hozirda mantiqning formal mantiq, dialektik mantiq va matematik mantiq kabi yo'nalishlari mavjud. Formal mantiq-statik voqealikka oid bo'lib, tafakkur strukturasi fikrning aniq mazmuni va taraqqiyotini chetlashgan holda, to'g'ri qurish bilan bog'liq qoida va mantiqiy amallar yotadi. Dialektik mantiq dinamik voqealikka oid bo'lib, tafakkurni uning mazmuni va shakli yaxlitligi hamda rivojlanishi orqali o'rganadi. Matematik mantiq tafakkurni matematik usullari yordamida tadqiq etadi. U hozirgi zamon matematikasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mantiq algebrasining asoschisi Jorj Bul hisoblanadi va Klod SHennonning tadqiqotlari mantiq algebrasini hisoblash texnikasida qo'llash imkonini bergan. Mantiq algebrasi matematikaning bir bo'limi hisoblanadi, avtomatik qurilmalarni loyihalashtirishda, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining apparatli va dasturiy vositalarini ishlab chiqishda muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, har qanday axborot diskret ko'rinishida, ya'ni alohida qiymatlarining fiksirlangan to'plami ko'rinishida taqdim etilishi mumkin. Diskret qayta ishlovchi qurilma ikkilik signallarni qayta ishlaganidan keyin biron mantiqiy amalning qiymatini chiqarsa, u mantiqiy element deb ataladi. Bunday qiymatlari ya'ni signallarni qayta ishlovchi qurilmalarga esa diskret qurilmalar deyiladi. Mantiqiy elementlar kompyuterning tarkibiy qismi bo'lib, ikkilik o'zgaruvchilar ustida muayyan mantiqiy amallarni bajarish uchun mo'ljallangan elementlar hisoblanadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning barcha hisoblash qurilmalari (kompyuter, mobil qurilmalar) mantiqiy elementlarga asoslangan. Kompyuterning har qanday mantiqiy amali asosiy mantiqiy elementlar yordamida bajariladi. Har biri mantiqiy element bir yoki bir necha mantiqiy amallarning bajarilishini ta'milaydi. Quyidagi eng sodda va keng tarqalgan mantiqiy elementlar bilan tanishamiz.

Elementlarning o'zi oddiy elektr sxemalardan tuziladi. Bunda sxemaning kirish qismiga kelgan signallarga argument deyilsa, chiqishdagi signallar esa argumentning funksiyasi bo'ladi. Sxemaning ma'lum qismida signalning mavjud bo'lishi bir (1) ni, mavjud emasligi esa (0) ni ifodalaydi.

Kompyuterning bazaviy mantiqiy elementlari, asosan, uchta mantiqiy amalni bajaradi.

Konyunktor ("VA" mantiqiy elementi) mantiqiy ko'payishni amalga oshiradi;

Dizyunktor ("YOKI" mantiqiy elementi) mantiqiy qo'shishni amalga oshiradi;

Invertor ("EMAS" mantiqiy elementi) rad etishni amalga oshiradi.

Konyunktor – mos tushish sxemasida kamida ikkita (A,B) kiruvchi va bitta (A&B) chiquvchi signal mavjud.

Dizyunktor- yig'uvchi sxemada ham kamida ikkita (A,B) kiruvchi va bitta (A yoki B) chiquvchi signal mavjud.

Invertor sxemasida faqat bitta (A) kiruvchi va bitta (A emas) chiquvchi signal mavjud. Invertor sxemasi "teskari zanjir" deb ham ataladi.

Mantiqiy sxema – kompyuter qurilmalarining ishlashini tavsiflovchi har qanday mantiqiy funksiyani bajaradigan electron qurilma.

Mantiqiy elementlardan arifmetik amallarni bajarish va axborotlarni saqlash uchun mo'ljallangan murakkab raqamli sxemalar yaratiladi. Bir necha mantiqiy element va ularning turli birikmasi yordamida berilgan funksiyalarni bajarishga qodir sxemalarni tuzish mumkin.

Mantiqiy sxemani chizishning ketma-ketligi:

Mantiqiy o'zgaruvchilar sonini aniqlash;

Asosiy mantiqiy amallar soni va ularni bajarish ketma- ketligini aniqlash;

Har bir mantiqiy amal uchun tegishli mantiqiy elementni ko'rsatish;

Mantiqiy amallarning bajarilish tartibi mantiqiy elementlarni o'zaro bir-biri bilan ulash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Informatika va axborot texnologiyalari darsligi 9-sinf;
2. dr.rtm.uz;
3. Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi Kibersportni bo'lajak Olimpiya tadbirlariga kiritish masalasini muhokama qilgan. " <https://en.wikipedia.org>.
4. 4."Newzoo: Global esports will top \$1 billion in 2020, with China as the top market". <https://venturebeat.com>
5. 5."Global esports revenues to top \$1 billion in 2019: report". <https://www.reuters.com>.
6. 6."Field of Streams: How Twitch Made Video Games a Spectator Sport". <https://www.theverge.com>.

INTERNETNING IJOBIY VA SALBIY TOMONLARI

**Xalilova Zuhra Dilmurod qizi
ShDPI talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqola yoshlarni ijtimoiy munosabatlarda shaxs sifatida shakllanishida ijtimoiy tarmoqlar tasirlik o'rganilgan. Internet ya'ni ijtimoiy tarmoqlar bugungi kundajuda kata qudratli axborot aylangan ekan jahon miqyosida mafkuraviy-g'oyaviy tahdidlarni targ'ibot va tashviqot etishda muhim omil vazifasini o'tab kelmoqda.

Kalit so'zlar: Globallashuv, shaxs, mafkura, internet, ijtimoiy tarmoq, ma'naviyat

O'zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg'onish davriga beshik bo'lgan. Bular birinchisi ma'rifiy IX-XII bu asrlar ba'zi manbalarda "O'rta asrlar Renessansi" deb ataladi. Ikkinchi Renessans deb temuriylar davri ya'ni - XIV - XV asrlarni aytishimiz mumkindir. Hozirgi vaqtda ya'ni XXI asrda mamlakatimizda yana bir Renessans ya'ni uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun ham biz bugun YANGI O'ZBEKISTON, UCHINCHI RENESSANS so'zlarini ko'p martalab eshitamiz. Bugungi kunda O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda. Aynan mana shu jarayon men uchun islohotlarimizning eng katta natijasidir. O'z samarasini berayotgan islohotlarimizning biri sifatida "Elektron hukumat tizimini " yanada rivojlantirish interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatishni keskin yaxshilash bo'yicha bugungi kunda bir qator vazifalar belgilab berilmoqda. Axborot xavfsizligini mustahkamlash masalasiga katta e'tibor qaratiganligi yuqoridagi fikrimizning isbotidir. Xorijiy va rivojlangan boshqa davlatlarning tajribalarini chuqur o'rgangan holda mamlakatimizda axborot kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan 5 yillik milliy dastur ishlab chiqildi. Axborot texnologiyalari haqida hatto mamlakatimiz prezidenti SH. Mirziyoyev o'zining qilgan ma'ruzasida quyidagi fikrlarni aytib o'tadi; - 'Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari rivoji barcha sohalarining jadal taraqqiyotiga xizmat qiladi, odamlarga qulaylik yaratadi. Prezidentimizning bu gaplarida "odamlarga qulaylik deganda shuni tushunishimiz mumkinki, elektron hukumatda insonlarning vaqti va ma'lum darajadagi mablag'lari sarflanmaydi.

Biz yashayotgan davrda yuqori texnologiyalarning o'rni va qadri juda balanddir. Internet, axborotlar hayotimizning o'ziga xos ajralmas qismi bo'lishi bilan bir qatorda ularsiz bugun biz hayotimizning bir kunini tassavvur qilishimiz qiyin. Internet hayotning barcha sohalarini jumladan, ta'lim sohasiga ham kirib bordi. Hozirgi kunda biror bir kompyuter yoki mobil aloqa vositalarini internetsiz tasavvur qila olmaymiz. Ba'zida o'ylab qolamanki, bundan bir necha yillar oldin internetsiz insonlar qanday yashagan ekanlar va qanday qilib shunchalik qisqa vaqt Ichida bunga o'rganib qolganimizga hayronman. Ushbu maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, ijtimoiy tarmoqlar, har xil saytlar tobora ko'payib bormoqda. Bugungi kunga kelib ular yoshlar va bolalarning barcha bo'sh vaqtlarini hatto boshqa ishlarga sarflaydigan vaqtlarining ham bir qismini o'zlashtirmoqdalar. Masalan, o'smirlar va yoshlar internetdan, mobil aloqa vositalaridan ovqatlanayotganlarida ham foydalanishadi. Internetga qaramlik ijtimoiy tarmoqlarga o'rganib qolish yoshlar o'rtasida keskin tarqalgan. Jahonning butun olimlari o'z faoliyatlari davomida kamida bir marta bo'lsa ham yoshlarning qanchalik tez internetga o'rganib qolish sabablarini o'rganishga harakat qilganlar lekin bu izlanishlarga oid darsliklar ma'lumotlar juda kam. Nafaqat, O'zbekiston balki butun dunyoda millonlab odamlar internetda bo'sh vaqtlarini o'tkazishadi. Bu paytda ular turli xil sohaga oid ish qidirish, yangi odamlar bilan tanishish, yangi do'stlar orttirish, hamkasblar, uzoq-yaqin insonlar muloqot qilish, o'ziga kerakli ma'lumotlarni izlash, o'z bilimlarini mustahkamlash kabi mashg'ulotlar bilan shug'ullanadilar. Hozir gazeta o'qiydigan yoki televideniyalardan yangiliklarni tomosha qiladigan insonlarni kam uchratamiz. Ko'pchilik odamlar o'zlariga

kerakli ma'lumotlarni internetdan topish mumkunligiga ishonib qolganlar. Shuning uchun ham internet rivojlanmagan davlatlardagi kabi odamlar kutubxonalarda o'tirishmaydi. Yoki juda muhim va soni kam bo'lgan kitoblarga navbatda turishmaydi. Bizning bobolarimiz hatto boshqa shaharlarga kitoblardan foydalanish ya'ni kutubxona uchun borganlar. Endi esa bugungi kunda kutubxonaga borib bitta ma'lumot uchun bir nechta hatto o'nlab adabiyotlarni saralab o'tirish shart emas. Biz bugun biror ma'lumot kerak bo'lib qolsa vaqtimizni sarflab kitob qidirmasdan internetga ya'ni kompyuter texnologiyalariga murojaat qilamiz. Ularga qaysi ma'lumot kerakligini yozib qidiruv tugmasini bosamiz va bir daqiqa ichida minglab ma'lumotlar kelib chiqadi. Ko'pgina yoshlar virtual muloqotsiz suhbatga kirisha olmaydilar. Ular haqiqiy hayotda muloqotni butunlay unutilib qo'yadilar. Ko'pincha odamlar to'xtamasdan internetdan, mobil aloqa vositasidan jamoat transportlarida, ko'chada va hatto do'stlari bilan uchrashganlarida ham ulardan foydalanishadi. Ma'lum vaqt o'tishi bilan insonlarda refleks paydo bo'ladi. Bu refleks ularga ijtimoiy tarmoqlarda hech kim yozmagan bo'lsa ham o'z elektron pochtaalarini tekshirishga undaydi. Endi ko'pchilik odamlar esda qolarli vaqtlarni, muhim lahzalarni saqlab qolish uchun turli xil rasm albomlariga tushirish uchun rasm olmaydilar. Balki hammasini endilikda ijtimoiy tarmoqlarga qo'yish va layklar yig'ish uchun rasmga oladilar. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda kecha-yu Kunduz o'tiradigan foydalanuvchilar bor. Ertalab ishda yoki maktabda ular birinchi navbatda ular o'z elektron pochtaalarini tekshiradilar. Ba'zida esa hatto asosiy biznesdan ko'ra ko'proq vaqt ajratadilar. Uyga yoki ishga ketayotganlarida, navbatda ular ijtimoiy tarmoqlarga kirish uchun ular telefonlardan yoki planshetlardan foydalanadilar.

Doimiy ravishda ijtimoiy tarmoqlarda bo'lish bizning miyamiz va aqliy qobiliyatimiz uchun yaxshi faoliyat emas. Buning o'rniga kitob o'qish yoki do'stlar bilan sayr qilish bilan shug'ullanishimiz bizga ko'proq foyda beradi. Ijtimoiy tarmoqlarda bo'lishning barcha salbiy tomonlari bilan bir qatorda ijobiy tomonlari ham bor. Lekin birinchi navbatda qachon to'xtash kerakligini va undan kerakli maqsadda oqilona foydalanish kerak. Internet zamonaviy sivilizatsiyaning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Hozirgi yoshlar internetga asosiy axborot manbai va asosiy aloqa vositasi sifatida qarashadi. Ular asosan, internetga yangiliklar olish bilan birga internet-do'konlardan xarid qilish uchun ham kiradilar. Hozirgi yoshlarning fikricha, internet faqat ijobiy xususiyatlarga ega. Lekin televizor, gazeta va jurnallarni noqulay va zerikarli deb o'ylashadi. Avvalgi avlod uchun televizorlar qanchalik darajada qulay va qiziqarli bo'lsa, hozirgi yoshlar uchun ham internet, telefonlar qiziqarli va ijobiy shaklga egadir. Biz internetga biror ma'lumot qidirgani kirganimizda birinchi ma'lumotni ko'rganimizdan keyin ikkinchi ma'lumot " buni o'qing va yana nima borligini ko'ring tamoyili bo'yicha tashkil etilgan bo'ladi. Bu omil esa o'z vaqtida bizning ko'p vaqtimizni oladi. Biz vaqtimiz qanchalik ko'p ketganini bilmay qolamiz. Albatta, internetning ham ijobiy tomonlari bor. Masalan, u ham ta'lim, ham intellektual rivojlanishga yordam beradi. Ota-onalar uchun bolalarni tarbiyalash va o'qitish uchun qimmatli materiallar masalan, ta'limga oid online o'yinlar, interaktiv darslar, rasm chizish darslari, turli xil tillarni o'rganish uchun materiallar mavjud bo'lgan ko'plab guruhlar va kanallar mavjud. Internet nafaqat aloqa sohasida balki ma'lumotlarga ega bo'lgan resurslarning ichida undagi ma'lumotlarda foydalanishimizda hech qanday cheklov yo'qdir. Bu cheklovlar yo'qligining ham o'ziga xos salbiy tomonlari ham bor deb o'ylayman. Bu salbiy tomon shundan iboratki, internet zo'ravonlikning turli shakllarini namoyon qiluvchi va uni targ'ib qiluvchi tasavvuf, irqchilik, dinnio no'to'g'ri talqin qiladigan saytlar va boshqalarni singdiruvchi ko'plab manbalarni o'z ichiga olgan. Internet hozirgi yoshlarning qolaversa butun zamonaviy insonlar hayotida muhim rol o'ynaydi. Internet o'tgan asrning eng buyuk muhim hayratlanarli ixtirosi hisoblanadi. Internetning yaratilishi taraqqiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Biz uyda o'tirgan holatimizda dunyoning istalgan nuqtasidagi voqealar va axborolarni bilib olishimiz mumkin.

Internet sababli bolalar ki"ob o'qishni to'xtatdilar. Vaqt o'tishi bilan ularning dunyoqarashi, fikrlash darajasi qisqarib boradi. Ular faqat chat va forumlarda virtual muloqot bilan cheklanadilar. Ular haqiqiy hayotda har xil davralarda masalan do'stlari bilan suhbatlarida ,ilmiy uchrashuvlarda ma'ruza paytida yoki yaqin odamlarining tug'ulgan kunlarida nutq so'zlashga, tabrik yo'llashga qiynaladilar. Ular o'z fikrlarini xulosa qilib ayta olmaydilar, fikrlari tarqoq holda umumlashmagan holatda bo'ladi. Bunday qiyin vaziyatlarga tushib qolmaslik uchun kitob o'qib o'z fikr doiramizni kengaytirib borishimiz kerak deb o'ylayman.

Xulosa internetning zamonaviy yoshlarga ta'sirini ko'rib chiqish va uning muloqot jarayonida o'rnini aniqlashdan iboratdir. XXI asr axborot texnologiyalari asri hisoblanadi. Bugungi kun taraqqiyotini jahon axborot tarmog'i yoki internetsiz tasavvur qilish mushkul. Internetdagi vaqtimizni dasturlarni tomosha qilish,yangi bilimlarni olish, chet tillarini o'zlashtirish kabi foydali ishlarga sarflashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Marchenkova "Talabalarda kompyuterga qaramlikning oldini olishning ijtimoiy-pedagogik jihatlari" darslik 2009-yil
2. Glister "Yangi internet - navigator" ingliz tilida 1996-yil.
3. Nolden "Sizning birinchi internetga kirishingiz " 2006-yil.
4. G'aniyev "Internetning ijobiy va salbiy tomonlari " 2003-yil

THE USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

**Zuxra Bektemirova Omonjon qizi
Toshkent Pediatriya Tibbiyot institute**

Annotation: Information technologies as one of the components of an integral learning system not only open up the possibilities of variability of educational activities, its individualization and differentiation, but also allow organizing the interaction of all subjects of learning in a new way.

Keywords: information and communication technologies, learning system, information competence, humanization, multimedia, self-education, modern information society.

Recently, the interest of the scientific and pedagogical community and educational authorities in improving the quality of education has been increasing. The concept of standards of general education notes the updating of the content of education and the use of new technologies. One of the main tasks of modern general education is the formation of information competence: knowledge of information technologies, understanding of their application, weaknesses and strengths, the ability critically evaluate information disseminated by various means and advertising. Thus, the inclusion of new technologies in the educational process has become a socially determined necessity.

Information technologies, considered as one of the components of an integral learning system, facilitate access to information, open up opportunities for variability of educational activity. In addition, it allows organizing the interaction of all subjects of learning in a new way, to build an educational system in which a student would be an active and equal participant in educational activities. The introduction of new information technologies into the educational process allows you to activate the learning process, implement the ideas of developing learning, increase the pace of the lesson, and increase the amount of independent work of students [1]. Learning involves communication in the classroom between the teacher and students, as well as communication between students with each other. The main competence of the subject teacher becomes his updated role - the role of a knowledge conductor, a kind of "navigator", helping students navigate the limitless sea of information. The task of a modern teacher is "to teach the optimal choice of an individual educational route and ways of its passage, i.e., "navigation in education" ...". The humanization of education presupposes a value-based attitude to various personal manifestations of the student. Knowledge does not act as a goal, but as a way of personal development. The richest opportunities for this are provided by modern information technologies (IT). The introduction of IT in the work of a teacher contributes to improving the quality of education, increasing the availability of education, ensuring the development of a person who is oriented in the information space. The use of information technologies in the educational process allows not only to modernize it, increase efficiency, motivate students, but also to differentiate the process taking into account the individual characteristics of each student.

The essence of the concept of IT. The formation of the emerging information society is designed to solve one of the main problems related to the preparation of a person for life and activity in a completely new conditions of the information world, the formation of a new type of intelligence, a different image and way of thinking adapted to the rapidly changing economic, technological, informational realities of the surrounding world.

The use of information technologies in the educational process, new forms and methods of teaching gives students access to non-traditional sources of information, increases the efficiency of the process of self-education, provides an opportunity for search, creative

activity, allow them freely navigate in the information field. Information and communication technologies are technologies that allow you to search process and assimilate information from various sources, including the Internet. This is the presentation of information in electronic form, its processing and storage, the use of the computer itself, a variety of programs [2].

A modern student already at the initial stage of education has elementary skills of a personal computer user, therefore, in the main link, the teacher needs to actively use modern interactive technologies, developing in the child the ability to work with computing and information systems necessary in everyday life. In the process of using IT in the classroom, the ability of students to process information independently is formed, which in turn forms the ability of students to make the best decision or offer solutions in a difficult situation, develops the ability to carry out experimental research activities. The use of this technology opens up new methodological opportunities for the teacher to prepare and conduct lessons, increases the efficiency and quality of training, allows to form a culture of intellectual work, develops attention, creative activity, discipline of students.

Possibilities of using IT. It is possible to systematize where and how it is advisable to use information technology in teaching, given that modern computers allow you to integrate texts, graphics, sound, animation, video clips, high-quality photographic images, sufficiently large volumes of full-screen video, the quality of which is not inferior to television [3]:

- 1) when presenting new material – visualization of knowledge demonstration and encyclopedic programs);
- 2) consolidation of the presented material (training – various training programs);
- 3) control and verification system (testing with evaluation, control programs);
- 4) independent work of students (training programs such as "Tutor", encyclopedias, educational programs);
- 5) if it is possible to abandon the classroom-based system: conducting integrated lessons using the project method, the result of which will be the creation of Web pages, teleconferences, the use of modern Internet technologies;
- 6) training of the student's specific abilities (attention, memory, thinking, etc.);
- 7) interactive demonstration material (exercises, reference diagrams, tables, concepts).

Conclusion. Thus, the use of information technology in the classroom is necessary and appropriate, allows you to diversify and combine means of influencing students, increases the positive motivation of students to learn, qualitatively change self-control and control of learning outcomes, timely adjust both learning activities and teaching activities [4].

The use of IT in education radically changes the essential system of education. The organization of the educational process becomes individualized, allows you to focus it on each student. In the process of using IT, the student's personality develops, students prepare for a free and comfortable life in an information society, including:

- Development of visual-imaginative, visual-effective, theoretical, intuitive, creative types of thinking;
- Aesthetic education using computer graphics, multimedia technology;
- Development of communication skills;
- Formation of skills to make optimal decisions or offer solutions in a difficult situation (using situational computer games focused on optimizing decision-making activities);
- Formation of information culture, information processing skills (use of integrated packages, various hypertext design environments, the Internet).

IT leads to the intensification of all levels of the educational process, providing:

- improving the efficiency and quality of the learning process through the implementation of IT tools;

- providing motivations (stimuli) that cause the activation of cognitive activity;
- deepening of interdisciplinary connections by modern means of information processing, including audiovisual, in solving problems from various subject areas.

The use of IT in the classroom activates the cognitive activity of students, develops thinking and creativity, and forms an active life position in the modern information society.

References:

1. Инновационные технологии в образовании / Под ред. И.И. Абылга-зиева, И.В. Ильина / Сост. Д.И. Земцов. – М.: МАКС Пресс, 2011. – 141 с. ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ 96

2. Зайцева Л.А. Использование информационных компьютерных техно-логий в учебном процессе / Л.А. Зайцева. – М., 2004.

3. Кузнецов Е.В. Использование новых информационных технологий в учебном процессе / Е.В. Кузнецов. – М., 2003.

4. Зайцева С.А., Иванов В.В. Современные информационные техно-гии в образовании [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://sgpu2004.narod.ru/infotek/infotek2.htm>.

TA'LIMDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI – YANGI IMKONIYATLAR

Ahmadjonova Umida Tojimurodovna
Jizzax politexnika institute,
Axmadjonova Yorqinoy Tojimurodovna
Jizzax politexnika institute

Annotasiya: Maqolada ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan- masofaviy ta'lim texnologiyasi va uning afzalliklari bayon qilingan. Masofaviy texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta'limning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Kalit so'zlar: zamonaviy axborot texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), Elektron ta'lim (E-Learning), sinxron elektron ta'lim, asinxron elektron ta'lim.

Oliy ta'lim o'quv jarayonini tashkil etishda innovatsion texnologiyalarning roli kun sayin ortib bormoqda. Masofaviy texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta'limning imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bugungi kunda Yer kurrasining istalgan joyidan turib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) imkoniyatidan foydalangan holda ta'lim olish mumkin. Zero an'anaviy ta'lim o'z mavqeini saqlab tursa ham, keyingi paytlarda masofaviy o'qitish texnologiyalari kundan-kun ommaviylashib bormoqda[1].

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi jahon axborot-ta'lim muhitiga integrallashishga yo'naltirilgan ta'lim tizimi barpo etilmoqda. Bu ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy texnik imkoniyatlarga javob beradigan sezilarli o'zgarishlar bilan kuzatilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim sohasiga kirib kelishi ta'lim usullari va o'qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirib, o'zgartirish imkonini bermoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim tizimini modernizatsiyalashtirish jarayonining eng muhim qismidir[2].

Elektron yoki masofaviy ta'limning yangi bosqichida nafaqat axborot texnologiyalarini qo'llash, balki elektron shakldagi ta'lim manbalarini bilan ta'minlashni ko'zda tutiladi.

Elektron va masofaviy texnologiyalar -ta'limning axborot va kommunikatsiya texnologiyalari qo'llangan variantlaridir.

Elektron ta'lim (E-Learning) -avval «Elektron ta'lim» atamasi kompyuter yordamida o'qitish deb tushunilgan, biroq axborot texnologiyalari rivoji bilan bu tushuncha yanada kengaytirildi. Bugungi kunda elektron ta'lim ko'pgina ta'lim texnologiyalarini qamrab olmoqda, ularni shartli ravishda, 2 turga, ya'ni sinxron va asinxron turlarga bo'lish mumkin[2].

Sinxron elektron ta'lim - masofaviy ta'lim hisoblanadi, lekin bu real vaqtda amalga oshiriladigan ta'limdir. U oddiy kunduzgi ta'limga o'xshaydi, farqi shundaki, ishtirokchilar bir-biridan uzoq masofada bo'ladi. Kundan-kunga keng tarqalib borayotgan vebinarlar mazkur ta'lim shaklining eng yorqin ko'rinishidir. Ma'ruzalarni tashkillashtirishda maxsus dasturiy ta'minotlar qo'llaniladi.

Asinxron elektron ta'lim - bu talaba barcha kerakli ma'lumotni onlayn-manbalardan yoki elektron axborot tashish vositalari (CD, DVD yoki flash-kartalar)dan olishi va materialni o'zlashtirish sur'ati va jadvalini o'zi mustaqil tashkil etishdir. Asinxron elektron ta'lim tizimiga barcha turdagi CD-kurslar va elektron o'qitish kurslari kiradi. Bugungi kunda elektron ta'lim ko'pchilik OTM larda ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib qolgan, u shuningdek, malaka oshirish kurslarini tashkil etishda ham o'z o'rnini topgan.

Masofaviy ta'lim texnologiyalari -masofaviy ta'lim bu E-Learningga qaraganda kengroq tushunchadir, u interfaol mustaqil ta'limning va qo'llab-quvvatlashning intensiv maslahat sintezi hisoblanadi.

Shunday qilib, elektron ta'lim masofaviy ta'limning bir bo'lagi hisoblanadi. Masofaviy ta'lim asosiy o'quv materialini o'quvchilarga yetkazib berish va o'quv jarayonida o'quvchi va o'qituvchi orasida interfaol ishlashni ta'minlaydi[3].

Masofaviy ta'limning afzalliklari

➤ Masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning juda ko'p ijobiy tomonlari mavjud.

➤ Yashash joyidan turib, o'qish imkoniyati - chekka qishloqlarda yashovchilarda katta shaharlarga borib, universitetga kirib-o'qish imkoniyati har doim ham bo'lavermaydi. Masofaviy ta'lim texnologiyalari ularga o'z shahridan ketmasdan turib, o'qish imkoniyatini yaratib beradi.

➤ O'qish va ishni birga qo'shib olib borish -o'quvchilar ishdan ajralmagan holda ta'lim olish imkoniga ega bo'ladilar, bu, ayniqsa, malaka oshirish yoki ikkinchi oliy ma'lumot oluvchilarga juda qo'l keladi.

➤ Sifatli texnologiyalar va o'quv mazmunini egallash -talaba sifatli o'quv materiallari yordamida o'qitilishi, o'qituvchi bilan muloqat qilishi va o'z individual o'quv rejasini tuzishi mumkin.

➤ Baholashning xolisligi -masofaviy ta'lim texnologiyalari bilim sifatining doimiy nazorati, natijalarning baholanishi, inson omilidan xoli bo'lgan xolis avtomatlashtirilgan baholash joylarda moddiy manfaatdorlikni yo'qotishni ko'zda tutadi.

➤ Ta'limda individual yondashuv -o'zgaruvchan grafik, ish va o'qishni birga qo'shib olib borish, shuningdek, o'zlashtirilayotgan materialni ma'lumotni individual o'zlashtirish tezligiga moslash masofaviy ta'limni barcha uchun qulay qilib qo'ymoqda.

Global pandemiya sharoitida dunyo mamlakatlari qatori, O'zbekistonda ta'lim jarayonlari masofaviy tizimda olib borildi va borilmoqda.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda dunyo bo'yicha yalpi ichki mahsulotning qariyb chorak qismi raqamli texnologiyalarga to'g'ri kelishi bashorat qilinayotgan hozirgi sharoitda bu yo'nalishdagi ishlarni rivojlantirishga e'tibor qaratish o'ta muhimdir. Binobarin, jahon mamlakatlarida iqtisodiy muammolarning ko'payishi, transport va ishlab chiqarish munosabatlarining buzilishi, tadbirlarning onlayn o'tkazilishi hozirgi ko'rinishdagi globallashuvga nuqta qo'yishi kutilmoqda.

Respublikamiz ta'lim muassasalarining barcha bo'g'inlarida takomillashgan tamoyillarga asoslangan yuqorida keltirilgan tizimlarni joriy etsak, o'ylaymanki, ta'lim jarayonida olib borilayotgan islohatlarning namunali, samarali ijrosining bir bo'lagi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Авлиякулов Н.Х., Мусаева Н.Н. "Модулли ўқитиш технологиялари" Т.: "Fan va texnologiyalar" нашриёти, 2007. 97- б.

2. Красильникова В.А. Теория и технологии компьютерного обучения и тестирования / Монография. – М.: Дом педагогики, ИПК ГОУ ОГУ, 2009. с.339

3. Сайфуров Д. Малака ошириш тизимида масофавий таълимни ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари //Касб-хунар таълими журнали. Т.:2002. №5-6. 28-29-бет.

BO'LAJAK JURNALISTNING KASBIY MADANIYATI VA MAHORATINI SHAKILLANTIRISHDAGI PRINSIPLAR

Xoliqova Saboxat Abdujabborovna
O'zbekeiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
noshirlik ishi va muharrirlik fakulteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jurnalist kasbiy tafakkur madaniyatini shakllantirish va ta'lim olish jarayonlarida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar tilga olinadi. Auditoriya bilan muloqot qilishdagi bo'lajak jurnalistlarning kasbiy madaniyatini shakllantirishi uchun bilishi kerak bo'lgan didaktik mexanizmlar, kasbiy mahorat bilimlarini oshirishdagi bilim va ko'nikmalarga to'htalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: motivatsion, auditoriya, kasbiy tafakkur, didaktik mexanizmlar, ijtimoiy-madaniy komponentlar, pedagogik faoliyat, kasbiy yo'nalganlik prinsiplari.

Jurnalistlar deyarli har kuni insonlar bilan uchrashadi, savol-javob qiladi, ularning bergan javobiga qarab yaxshi ishlarini maqullaydi, bilimini munosib tarzda baholaydi. Kerak bo'lsa vaziyatga qarab tanqidiy munosabatini beradi. O'z-o'zidan ma'lumki, jurnalistlarning mulohazalarida nisbiylik, subektiv alomatlari mavjud. Kezi kelganda hammaga birdek juda tug'ri munosabatda bo'la olmasligi mumkin. Ammo kasbiy mahoratga ega jurnalistning qarshisidagi insonga nisbatan xolis niyatli, yaxshilik qilishga intiluvchi, adolatli inson ekanligiga barchaning ishonchi komil bo'lishi lozim. Auditoriyada jurnalist yaxshi ko'radigan yoki yoqtirmaydigan tinglovchilar bor degan taassurot tug'ilmasligi lozim. Xullas, obro', kasbiy mahorat, insonparvarlik, yuksak darajadagi muomala madaniyati har bir jurnalist uchun zarur xususiyatdir.

Kasbiy mahorat, muomala madaniyati kishining chuqur bilimi, yuksak ahloqiy sifatlari, hayot tajribasi, ilmiy tadqiqot va jamoat ishlarida faol ishtirok etishi tufayli orttirilgan, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan ta'sir natijasidir. jurnalistik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Malumki, inson oldida biror vokalik yoki muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. jurnalistik faoliyat ana shunday xususiyatga ega ijodkorlikning asosiy mohiyati, jurnalistik faoliyatining maqsadi va xarakteri bilan bog'liq. Jurnalistik faoliyat kishi shaxsini, uning dunyoqarashini, e'tiqodini, ongi, xulq-atvorini shakllantirishdek umumiy maqsadga bo'ysungan son-sanoqsiz psixologik masalalar yechish jarayonidir.

Jurnalist kasbiy faoliyatidagi ijodkorlik, kasbiy tafakkur ana shu masalalarni yechish usullarida, ularni hal qila olish yo'llarni qidirib topa bilishda ifodalanadi. Kasbiy tafakkur ijodkorlik manbai bo'lgan jurnalistik tajriba natijasidir. Jurnalistik kasbiy tajriba muammoli vaziyatlarga juda boy. Ular vositasida ahloqiy-tarbiyaviy ishlarning eng yuqori natijalariga erishiladi, bunda esa kasbiy tafakkur muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy tafakkur jarayonida insonda o'z mutaxassisligi, kasbi to'g'risida fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shahsining ongida tushunchalar, xukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi. Ijtimoiy hayotda, ta'lim jarayonida insonlar o'rtasidagi aloqa, muloqot va munosabatlar ham tafakkur yordamida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, o'z navbatida, bo'lajak jurnalistlarning kasbiy madaniyatini shakllantirish uchun muayyan didaktik mexanizmlar, jurnalistik faoliyat jarayonni tizimli tashkil etish hamda maxsus pedagogik ta'sir va samarali boshqaruv zarur bo'ladi. Kasb madaniyati ta'lim jarayonida kasbiy tafakkur madaniyatini shakllantirishning didaktik mexanizmlarini aniqlashning nazariy asosi sifatida kasbiy madaniyatining tuzilishi xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Didaktik mexanizmlar sifatida quyidagi holatlar belgilangan: ta'lim jarayonida kasbiy tafakkur madaniyati tushunchasini kiritish hamda uning jurnalistik faoliyat maqsadini

oydinlaashtirish; o'quv mashg'ulotlari tuzilmasiga talimning muamoli-qidiruv muammoli vaziyatlar modeli, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etishni bashoratlash holatlarini kasbiy tafakkurni faollashtirish vositalari sifatida kiritish; talim jarayonini subekt-subekt munosabatlari asosida tashkil etish va rivojlantirish. Didaktik vazifalarini hal etishda subekt-subekt munosabatlari asosida kasbiy madaniyatini shakllantirish uchun: kasbiy tafakkur madaniyatini shakllantirishning yetakchi yo'naltiruvchi kuchi sifatida talabalarning qobiliyatlari, imkoniyatlari hamda intilishlariga tayanish; kasbiy tayyorgarlik bo'yicha pedagog-o'qituvchilar, kasbdoshlar (guruh talabalari) bilan hamkorlik; kasbiy madaniyatini shakllantirish borasida talabalarning mustaqil faoliyatini yo'lga qo'yish zarur bo'ladi.

Didaktik tizimda fikrlash jarayonini tashkil etishning natijasida kasbiy madaniyatini maqsadli shakllantiriladi, bu esa o'z o'rnida jurnalistika yo'nalishidagi oliy o'quv yurti talabalarida kasbiy tafakkur madaniyatini shakllantirish modelini ishlab chiqishga undaydi.

Aslida ta'lim jarayonida talabalar kasbiy madaniyatini rivojlantirishning didaktik modeli tizimli yondashuvga asoslangan bo'lib, uni amalga oshirish uchun zarur zarur vositalarni tanlash taqazo etiladi.

Oliy ta'lim muassasalarining bo'lajak jurnalistlari kasbiy madaniyatini shakllantirish modeli shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy-madaniy komponentlarni shakllantirish imkoniyatini berib, talaba va pedagoglar faoliyatini tashkil etishning maqsadli ustanovkalari, vazifalari, prinsiplarini qamrab oladi.

Shunday kilib bo'lajak jurnalistni tayyorlash jarayonida kasbiy tafakkur rivojlantiriladi, didaktik jarayon davomida kasbiy faoliyat shakllanadi. Ushbu jarayonda shaxsni yaxlit shakllantirish, uni o'qitish, ijtimoiylashtirish va kasbiylashtirish maqsadga muvofik.

Bo'lajak jurnalistlar nafaqat o'z ustida ishlashi, balki kasbiy faoliyatning ma'lum bir turiga egalik qilishi va kerak bo'lganda uni amalga oshirishi kerak. Talabalar faoliyatini amalga oshirish jarayonida "kasb"ni oddiy o'zlashtirish jarayoni emas, balki mutaxassislikni o'zlashtirish jarayoni ham zarur.

Kasbiy tafakkur madaniyatini shakllantirish jarayoni o'qituvchi va talaba o'rtasidagi faoliyatni tashkil etishning o'quv jarayonini motivatsion prinsipi, jurnalistik faoliyat jarayonning insonparvar yo'nalganlik prinsipi, hayot bilan amaliyotning bog'liqligi prinsipi, jurnalistlarining shaxsiy madaniyati hamda kasbiy madaniyati uyg'unligi prinsipi, kasbiy yo'nalganlik prinsiplariga asoslanishi lozim.

O'quv jarayonini motivatsion ta'minlash prinsipi talabalarga kasbiy vazifalarning yechimini topishni anglashga qaratilgan maqsadli motivatsiyani shakllantirishni nazarda tutadi.

Insonparvar yo'nalganlik prinsipi bo'lajak jurnalistlarga jamiyat va shaxs maqsadlarining uyg'unligi, zamonaviy dunyoda insoniy qadriyatlarining ahamiyatini tushunish darajasining shakllanganlik holatni ifodalaydi.

Hayot bilan amaliyotning bog'liqlik prinsipi bo'lajak jurnalist prinsiplarda ta'lim jarayonini modernizatsiyalash sharoitida undagi o'zgarishlarni tushunish va ishtirok etish jarayoni mazmunini ifodalaydi. Bo'lajak jurnalistning shaxsiy madaniyati hamda kasbiy faoliyati uyg'unligi prinsipi jurnalist mehnat faoliyatining yuksak kasbiy mahorat asosida uning shaxsiy madaniyati orasidagi munosabat tizimini anglatadi. Bu jarayonda bo'lajak jurnalistning kasbiy sifatlari sifatida: jurnalistik yo'nalganlik, jurnalistik refleksiya, jurnalistik tafakkur hamda jurnalistik nazokatning jurnalistning shaxsiy madaniyat sifatlari: xayrixohlik, tarbiyalanganlik. Yuksak axloq, fuqarolik, insonparvarlik, samimiylik sifalari bilan uyg'unligi asosida jurnalistik tafakkur madaniyatini shakllantirish nazarda tutiladi.

Har bir mutaxassisning kasbiy tafakkurida, o'z davrining konseptual va muammoli fikrlash darajasi, pedagogik jarayonlar va hodisalarni tushunishning o'ziga xos usuli taqdim

etiladi, bu esa, o'z navbatida, zamonaviy jamiyatga xos bo'lgan munosabat, ahloqiy meyorlar, qadriyatlar va boshqa ijtimoiy-psixologik mexanizmlar bilan yaxshilanadi. Didaktik jarayonda talabalarning kasbiy tafakkurini shakllantirish zaruriyati bir qator obektiv holatlar bilan bog'liq hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim muassasasi bu, avvalambor, talabalar o'quv-biluv faoliyatining, samaradorligini ta'minlaydigan, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari hamda qobiliyat va istedodlarini rivojlantiradigan mustaqil ijodiy tafakkur maktabi hisoblanadi

Yuqoridagi fikrlar bilan bir qatorda, kasbiy yo'nalganlik prinsipi bo'lajak jurnalisning pedagogik faoliyat mazmuniga qiziqishi. Uni amalga oshirishga shaxsiy motivatsiyani shakllantirishga qaratilgan bo'ladi. Fikrimiz so'nggida xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bo'lajak jurnalistar kasbiy tafakkur madaniyatini shakllantirish uning dunyoqarashini, o'z kasbini sevishi orqali yetuklik darajasiga intilishini, o'z borlig'ini his etishi, Vatan, jamiyat manfaatlari rivoji uchun keraklilik hissini anglashni ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. N.Qosimova. Iqtisoslashgan jurnalistika. T.: "O'zbekiston". 2019.
2. F.Mo'minov. Jurnalistika satsialogisi va psixalogiyasi.T.: "O'zbekiston". 2019.
3. D.M.Teshaboeva, L.I.Toshmuxammedova. Mediya lingvistika va taxrir. T.: "O'zbekiston". 2019.
4. X.Do'smuxammedov. Jurnalistning kasb odobi muammolari. T.: "Yangi asr avlodi". 2007.
5. [www. Pedagogika.uz](http://www.Pedagogika.uz)
6. www.ma`rifat.uz

BIG DATE TIZIMI HAQIDA UMUMIY TASNIF VA TUSHUNCHA

Tolibjonov Xurshidbek Hayotjon o'g'li
Qo'qon universiteti 4-bosqich talabasi,
Meliboyev Azizjon Ikromjon o'g'li
Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Siz ushbu maqolada Big data atamasi haqida to'liq ma'lumot olasiz. Big data kelib chiqish tarixi va uning qo'llanish sohalari haqida aniq ma'lumotlar aks etgan. Dunyoda raqamlashgan ma'lumotlarning yillar bo'yicha ortib borishi va Hadoop loyihasining ishlash tizimi va ahamiyati haqida ma'lumotlar bilan ham boyitilgan.

Kalit so'zlar: Big data, hadoop, raqamli ma'lumotlar, vositalar.

Bizning yashab turgan hayotimizda shaxsiy va turmush tarzimiz, o'qishimiz, ishimiz uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar juda ko'p. Ularni saqlash uchun bizga inson xotirasiga qo'shimcha ravishda zamonaviy qurilmalar zarur. Oddiygina insonlarning tug'ilishidan boshlab uning esda qolarli xolatlari tarixga muxrlash uchun ham bizga mobil telefonimiz yoki qo'shimcha ravishda xotira kartalari zarur. Bir inson yoki biror insonlar jamoasi, oilasini ma'lumotlarini saqlash uchun mobil telefon xotirasi yetar, lekin katta tashkilotlar, korxonalar va kompaniyalarni ma'lumotlarini saqlash uchun yuqorida aytib o'tilganlar juda kichiklik qiladi. Shunday vaziyatda Big data xizmatidan foydalanishga to'g'ri keladi.

Big data (*katta ma'lumotlar*) - juda katta hajmdagi bir jinsli bo'lmagan va tez tushadigan raqamli ma'lumotlar bo'lib, ularni odatiy usullar bilan qayta ishlab bo'lmaydi. Ba'zi hollarda, katta ma'lumotlar tushunchasi bilan birga shu ma'lumotlarni qayta ishlash ham tushuniladi. Asosan, analiz obyekti katta ma'lumotlar deb ataladi.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, «Big Data», ya'ni salmoqli ma'lumot atamasi kuniga 100 gb.dan ko'p ma'lumot tushadigan oqimlarga nisbatan qo'llanilgan ekan. Keyinchalik ma'lumotlarning keskin ko'payishi oqibatida bu tushuncha keng qamrov kasb eta boshlagan. Ushbu atama odatda (terabayt, ekzabayt va petabaytlar darajasidagi) katta hajmdagi ma'lumotlarga nisbatan qo'llaniladi.

Salmoqli ma'lumot atamasi ilk bor matbuotda 2008 yili paydo bo'lgan, o'shanda «Nature» jurnali bosh muharriri Klifford Linch o'z jurnalida katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlovchi texnologiyalar yordamida ilm-fan kelajagini rivojlantirish mavzusida maqola chop etgan. 2009 yilgacha bu atamaga faqat ilmiy tahlil nuqtai nazaridan yondashilar edi, ammo matbuotda shu mavzuda yana bir necha maqolalar chop etilganidan so'ng «Big Data» tushunchasidan keng foydalana boshlandi. 2010-yilda salmoqli ma'lumotlarning o'sib borayotgan muammolarini hal etish uchun dastlabki urinishlar boshlandi. Ulkan axborotlar oqimidan foydalanganda xavflarni kamaytirish uchun mo'ljallangan dasturiy mahsulotlar ishlab chiqishga kirishildi. "Katta ma'lumot" ning ko'pi ma'lumotlarni yig'ish emas. Endi "Katta ma'lumot" haqiqiydir. Google katta ma'lumotlarga ega va CERN ham katta ma'lumotga ega. Aksariyat odamlar, ehtimol, yo'q. Ma'lumotlar faqatgina do'konga 1000 kompyuterga kerak bo'lganda boshlanadi. Hadoop kabi katta axborot texnologiyalari ham haqiqiydir. Ular har doim mantiqiy ravishda ishlatilmaydilar (hadoop klasterlari 100 dan ortiq tugunlarni ishlatishdan bezovta bo'lmanglar, chunki siz yaxshi tanlangan bo'lmagan kumelenmemie mashinalari yaxshi ishlashi mumkin). Lekin, albatta, odamlar bunday dasturiy ta'minotni yozadilar. Lekin amalga oshirilayotgan ishlarning aksariyati ma'lumotlarni yig'ish emas. Bu Extract, Transform, Load (ETL) , shuning uchun ma'lumotlar omborini almashtirish . Strukturani, indekslarni va tezlatilgan so'rovlar bilan ma'lumotlar bazasini ishlatish o'rniga ma'lumotlar faqat hadoopga tushiriladi va nima qilish kerakligini anglab etganingizda, siz barcha ma'lumotlarni qayta o'qiyasiz va kerakli ma'lumotlarni chiqarib olasiz, tranzit

qilishingiz va uni Excel jadvaliga yuklang. Chunki tanlov, ekstraktsiya va konvertatsiya qilishdan so'ng, odatda u "katta" emas.

Dunyoda raqamlangan ma'lumotlar hajmi eksponent bo'yicha o'sib bormoqda. IBS kompaniyasining ma'lumotlariga qaraganda, 2003-yilda 5 eksabayt (1 eksabayt - 1 milliard gigabayt) ma'lumot yig'ilgan ekan. 2008-yilda u 0.18 zettabayt (1 zettabayt = 1024 eksabayt) gacha, 2011-yilga kelib 1.76 zettabayt, 2013-yilda 4.4 zettabaytgacha yetibdi. 2015-yilning mayida dunyoda yig'ilgan raqamlarga ma'lumotlar hajmi 6.5 zettabaytdan oshib ketibdi. 2020-yilga kelib insoniyat 40-44 zettabayt raqamli ma'lumot hosil qilar ekan.

IBS mutaxassislarining fikriga ko'ra, 2013-yilda yig'ilgan ma'lumotlar massivining atiga 1.5%i qandaydiy axborot qiymatiga ega bo'lgan ekan. Baxtga qarshi, hozir dunyoda katta ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalari bo'lib, ular yordamida juda katta ma'lumotlar massividan insonlarga kerak, qiziq bo'lgan, foydali ma'lumotlarni ajratib olish mumkin bo'ladi.

Katta ma'lumotlarning ko'pgina marketing va'dalari o'tkazilmaydi. Twitter sizning reklamangizdan ko'ra ko'pchilik kompaniyalar uchun juda kamroq tushuncha ishlab chiqaradi (agar siz teenie rockstar bo'lmasangiz); va Twitter-ning foydalanuvchi bazasi juda baqongizdir. Bunday qarama-qarshilikni bartaraf etish qiyin va juda tajribali statistik xodimlarga muhtojdir.

Katta ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalarini dastlabki o'rganish uchun javob beradi - sizni kurs bilan oson va aniq tanishtiradi. Axborotning ko'pligi qanday ta'sir qilganligi to'g'risida tushuncha beradi kundalik hayot va uning barcha sohalarini: ilm-fan, biznes, tibbiyot va boshqalar. Ko'plab rasmlarni o'z ichiga oladi, shuning uchun u ko'p harakat qilmasdan qabul qilinadi.

Shuningdek, "oddiydan murakkabgacha" printsiplari bo'yicha katta ma'lumotlar bilan qanday ishlashni tushuntirib beradigan Big Data to'g'risidagi kitob yangi kelganlar uchun ham foydalidir. Dastlabki bosqichda ko'plab muhim jihatlarni qamrab oladi: ishlov berish, vizualizatsiya, OLAP, shuningdek ma'lumotlarni tahlil qilish va tasniflashning ba'zi usullari.

Python dasturlash tilidan foydalangan holda katta ma'lumotlardan foydalanish va ular bilan ishlash bo'yicha amaliy qo'llanmalar muhandislik talabalari uchun ham, bilimlarini chuqurlashtirishni istagan mutaxassislar uchun ham javob beradi. Shuningdek deyarli barcha Big data bilan ishlaydigan ochiq code kutubxonalarini Python dasturlash tili qo'llab quvvatlaydi.

Hadoop - bu bir vaqtning o'zida minglab tugunlarda harakatlarni amalga oshiradigan taqsimlangan dasturlar bilan ishlash uchun maxsus yaratilgan loyiha. U bilan tanishish katta ma'lumotlarning amaliy qo'llanilishini batafsilroq tushunishga yordam beradi.

Katta ma'lumotlar, "Katta ma'lumotlar" bir necha yillardan beri shaharning axborot va marketing matbuotida munozaraga aylanib bormoqda. Va bu aniq: raqamli texnologiyalar zamonaviy inson hayotiga kirib, "hamma narsa yozilgan". Hayotning turli sohalariga oid ma'lumotlar hajmi o'sib bormoqda va shu bilan birga, ma'lumotlarni saqlash imkoniyatlari ham o'sib bormoqda.

Aksariyat ekspertlar ma'lumotlar o'sishini tezlashtirish ob'ektiv haqiqat ekanligiga qo'shiladilar. Ijtimoiy tarmoqlar, mobil qurilmalar, o'lchash moslamalari ma'lumotlari, biznes ma'lumotlari - bu juda katta hajmdagi ma'lumotni keltirib chiqaradigan manbalarning bir necha turlari. Izlanishlarga ko'ra IDC Raqamli olam 2012 yilda nashr etilgan, kelgusi 8 yilda dunyoda ma'lumotlar miqdori 40 Zb (zettabayt) ga etadi, bu sayyoramizning har bir aholisi uchun 5200 Gb ga teng.

Muammolar: Muammo shundaki, Hadoop lineer muammolar uchun yaxshi, lekin ma'lumotlarning ko'pchiligi lineer emas va shuningdek chiziqli bo'lmagan algoritmlar katta ma'lumotlarga ega emas; chiziqli vaqtli yaqinlashuvlarni diqqat bilan o'rganib chiqing va

aniqroq ma'lumotni yo'qotish bilan yo'qotishingiz kerak, bu esa kichikroq ma'lumotlarga ishlov berish orqali yo'qotishingizdan kichikroq bo'lishi kerak. Ushbu savdo-sotiq muammosining yaxshi namunasi k-vositadir. K - aslida (asosan) chiziqli muammo hisoblanadi; shuning uchun Xadoopda biroz harakat qilish mumkin. Yagona iteratsiya chiziqli bo'lib, agar siz yaxshi dasturga ega bo'lsangiz, u katta ma'lumotlarga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, yaqinlashuvlar soni ma'lumotlar majmui o'lchamlari bilan ham ortib boradi va shuning uchun u chiziqli emas. Biroq, bu "vositalar" ni topish uchun statistik usul bo'lgani uchun, natijalar aslida ma'lumotlar majmui o'lchamlari bilan ko'p emas. Shunday qilib, k-vositalarni katta ma'lumotlarda ishlatishingiz mumkin bo'lsa, u juda ko'p ma'noga ega emas - faqat ma'lumotlarning namunasi olishingiz mumkin, k-vositalarining juda samarali yagona nodali versiyasini ishlatasiz va natijalar xuddi shunday yaxshi bo'lsin. Qo'shimcha ma'lumotlar sizga aniq bo'lishi kerak bo'lmagan qiymatning aniqligi bilan izohlanadi. Bu juda ko'p muammolarga tegishli bo'lgani uchun, Hadoop'ta haqiqiy ma'lumotlar konida ochilishi ko'rinmaydi. Har kim buni qilishga urinadi va ko'plab kompaniyalar bu narsalarni sotadilar. Lekin bu katta bo'lmagan versiyadan ancha yaxshiroq ishlamaydi. Biroq, mijozlar buni sotib olishni istasa, kompaniyalar bu funktsiyani sotadilar. Va sizga grant oladigan bo'lsa, tadqiqotchilar bu haqda maqolalar yozadilar. U ishlaydimi yoki yo'qmi. Bu hayot: Bularning barchasi ishlaydigan bir nechta holatlar mavjud. Google qidiruvi - Cern. Lekin, shuningdek, tasvirni tanib olish (lekin Hadoop dan foydalanmasdan, GPU klasterlari u erga borishning usullari kabi ko'rinadi) yaqinda ma'lumotlar hajmining ko'payishidan foydalandi. Ammo bu holatlarning har qandayida sizda toza ma'lumotlar mavjud. Google indeksni hamma narsa; Cern har qanday qiziqarli ma'lumotlarni olib tashlaydi va faqatgina qiziqarli o'lchovlarni tahlil qiladi - Spamni Cern-ga yuboradigan spamerlar yo'q va tasvirni tahlil qilishda siz internet-kameradan yoki tasodifiy tasvirlardan emas, agar shunday bo'lsa, ularni vakolatli ma'lumotlar sifatida emas, tasodifiy tasvirlar sifatida baholaysiz).

Salmoqli ma'lumotlar muammosi shundaki, o'n yillar davomida yig'ilgan turli axborotlar hamon har qanday tizim uchun o'ta muhim va ochiq bo'lib qolmoqda. Yana bir eng katta muammosi ularni qayta ishlash xarajatlaridir. Bunga qimmat asbob-uskunalar, katta miqdordagi axborotlarga xizmat qo'rsatuvchi malakali mutaxassislar ish haqi xarajatlarini ham qo'shish mumkin. Shubhasiz, asbob-uskunalar muntazam yangilanib turishni talab etadi, ular ma'lumotlar hajmi oshishi jarayonida ish samaradorligini yo'qotmasligi kerak. Uchinchi muammo yana qayta ishlash talab etiladigan ko'p sonli axborot bilan bog'liq. Masalan, tadqiqotlar 2-3 martada emas, balki ko'p sonli o'rganishlarda natija beradi, chunki qaysidir hodisa bo'yicha haqiqiy ta'sirga ega bo'lish uchun ma'lumotlarni umumiy oqimdan ajratish va ob'yektiv baho berish juda qiyin.

Axborotni yo'qotish muammosi. Ehtiyot choralari bir martalik oddiy zaxira ma'lumotlarni cheklamaslikni, saqlovning kamida 2-3 ta zaxirasini tayyorlashni talab etadi. Ammo, hajmning oshib borishi zaxiralashni yanada murakkablashtiradi - AT-mutaxassislar mazkur muammoning optimal yechimini topishga harakat qilishmoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, texnologiyalardan yashirinib ololmaymiz. "Big Data" va undan foydalanadigan AI texnologiyalari dunyoni o'zgartiryapti, asta-sekin shahrimizga, uyimizga va gadjetlarimizga kirib bormoqda. Bunga yaqqol misol "Big Data" va Mashina o'rganish AI texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan ChatGPT platformasini ko'rishimiz mumkin. Bu texnologiyaning imkoniyatlari dunyoni hayron qoldirdi. Texnologiyalar sayyorani qanday tezlikda egallaydi - aytish qiyin. Ammo, bir tushuncha aniq - «Klinika» serialida Bob Kelso aytganidek, urf (moda)ni ushlab qol yoki eskicha yashab o'tib ket.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Hilbert va Lopez, "Dunyoning ma'lumotni saqlash, aloqa qilish va hisoblash uchun

texnologik imkoniyatlari", Science, 2011 Global.

2. Sagiroglu, Seref, and Duygu Sinanc. "Big data: A review." 2013 international conference on collaboration technologies and systems (CTS). IEEE, 2013.

3. N.Rahmonov. X.Tolibjonov. Raqamli iqtisodiyot va Sanoat 4.0 da ilg'or davlatlar. "O'zbekiston umidli yoshlari" konfirensiya. 2021. 2-mart.

4. KHurshidbek T., Shakhzodbek Y., Shoxruxmirzo A. PLATFORM COMPETITION IN BANKING //YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 43-46.

5. Shakhzodbek E., KHurshidbek T., Shoxruxmirzo A. INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF DISTANCE LEARNING //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 453-454.

7. KHurshidbek T., Shakhzodbek Y., Shoxruxmirzo A. DIGITAL BANKING MANIFESTO 2.0 //YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 55-59.

8. Shakhzodbek E., KHurshidbek T., Shoxruxmirzo A. CHRONOLOGY OF FINANCIAL TECHNOLOGIES //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 213-215.

AXBOROT XURUJINING O'SMIRLAR HAYOTIGA TA'SIRI

**Nomozov Xurshid Shavkat o'g'li
Shahrisabiz davlat pedagogika instituti o'qtuvchisi**

Annotatsiya: Ushbu ma'qolada internet makoni o'smirlarga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi, yoshlarning aksariyati gadjetlar orqali internet qaramligiga tushib qolishi, ularning oila a'zolari, do'stlari bilan o'zaro munosabatlariga ta'sir ko'rsatishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Internet jamiyati, Internet, ishonchlik, salomatlik, darsdan tashqari mashg'ulotlar, o'smir, ijtimoiy jamiya.

Internet tarmog'i o'zining qarmog'iga yoshlarni osongina torta oladi. Boisi bolalar va o'smirlar o'zlarini to'g'ri boshqara olmasligi, irodaviy tartibga solishga ega emasligi, internetning oson ta'sir ko'rsatishi muommalarga sabab bo'ladi. Chunki ularda xatti-harakatlar va idrok etishning adekvat namunalari yo'q. Ular hayotni, shu jumladan internet yordamida faol ravishda o'rganadilar. Bu xususiyatlarning barchasi - tashqi ogohlantirishlarga ta'sir qilish va sezgirlik, ma'lumot, yangilik ta'siri - veb-sayt dizaynerlari tomonidan sayt sahifasidagi ma'lum bir havolani bosish uchun rang-barang qo'ng'iroqlar orqali foydalaniladi. Darxaqiqat, psixikasi to'liq shakllanmagan bolalar va o'smirlar internetga qaramlikka moyil bo'lishadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, internetga qaramlar yoshlar orasida o'rta yoshdagilarga qaraganda ko'proq.

Ko'p yillar davomida elektron muloqotning psixologik jihatlarini tadqiq qilib kelayotgan Jon Suler ta'kidiga ko'ra, - kibermakon ong holatini o'zgartirish usullaridan biridir. Umuman olganda, ongning o'zgargan holatida bo'lgani kabi, kibermakon va unda sodir bo'layotgan barcha narsalar haqiqatga o'xshaydi - ko'pincha haqiqatdan ham ko'proq haqiqatdir.

